MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI



R.R.SAYFULLAYEVA, M.M.QURBONOVA, B.R.MENGLIYEV,
M.Q.ABUZALOVA, M.S.ERNAZAROVA

HOZIRGI O‘ZBEK TILI

(morfologik-morfemik sath)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYA VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

R.R.SAYFULLAYEVA,
M.M.QURBONOVA, B.R.MENGLIYEV,
M.Q.ABUZALOVA, M.S.ERNAZAROVA

HOZIRGI O‘ZBEK TILI
(morfologik-morfemik sath)

DARSLIK

Toshkent
“Ma’rifat”
2023

UO'K: 811512.133'366(075)
KBK: 81.2O'zb-2ya7
S 22

Sayfullayeva R.R., Qurbonova M.M., Mengliyev B.R., Abuzalova M.Q., Ernazarova M.S.. Hozirgi o'zbek tili (morfologik-morfemik sath). Darslik. –T.: "Ma'rifat", 2023. 456 bet.

Istiqlol tufayli yuzaga chiqqan imkoniyat til bilimining yuksalishiga ham sabab bo'ldi. Darslik o'zbek tilining morfologik xususiyati, struktur tilshunoslikning substansial tadqiq yo'nalishi, metodologiyasi va tadqiq usuli asosida yaratilgan. Darslikda o'zbek tili morfologiyasining substansial tadqiqi natijasi umumlashtirilgan.

Darslikdan 5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) hamda 5111200 – O'zbek tili va adabiyoti bakalavri yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, magistrlar, tadqiqotchilar, mutaxassis va qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Kitob haqidagi fikr-mulohazalar, uni mukammallashtirishga doir takliflar mualliflar tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilinadi.

Возможность, созданная независимостью, также привела к повышению языковых навыков. В основу учебника положены морфологические особенности узбекского языка, предметное направление исследований, методология и метод исследования структурной лингвистики. В учебнике обобщены результаты субстанциональных исследований морфологии узбекского языка.

Учебник может быть использован студентами, магистрами, исследователями, специалистами и заинтересованными студентами бакалавров по специальностям 5120100 - Филология и преподавание языка (узбекский) и 5111200 - Узбекский язык и литература.

Отзывы о книге, предложения по ее усовершенствованию приветствуются авторами.

The opportunity created by independence has also led to an increase in language skills. The textbook is based on the morphological features of the Uzbek language, the substantive research direction, methodology and research method of structural linguistics. The textbook summarizes the results of substantive research on the morphology of the Uzbek language.
The textbook can be used by students, masters, researchers, specialists and interested people studying in the field of 5120100 - Philology and language teaching (Uzbek) and 5111200 - Uzbek language and literature.

Feedback on the book, suggestions for its improvement are welcomed by the authors.

UO'K: 811512.133'366(075)
KBK: 81.2O'zb-2ya7
S 22

Masul muharrir: M.M.Qurbonova – filologiya fanlari doktori, professor
Taqrizchilar: J.Eltazarov – filologiya fanlari doktori, professor
Sh.Shaxobiddinova – filologiya fanlari doktori, professor
N.Alavutdinova – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Darslik Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti o'quv uslubiy kengashining 2022-yil _ ___dagi yigilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan (- bayonnoma).

ISBN: 978-9910-9405-0-7
© "Ma'rifat" nashriyoti, Toshkent, 2023 y.

MUQADDIMA

XX asrda til va nutq dixotomiyasini, tilning lisoniy tizimdagi grammatik imkoniyatlarini o'rganish, til – lison va nutq yaxlitligidagi murakkab butunlik ekanligi, lison nutqda me'yor asosida voqelanishi, nutq uchun asos bo'lib xizmat qilishini zamonaviy ilmiy-nazariy qarashlar va metodlarga asoslangan holda tadqiq etish hamda tilni sistema sifatida o'rganish borasida ulkan yutuqlar qo'lga kiritildi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar markazidagi asosiy izlanishlar sistem-struktur yondashuv asosida olib borilishi natijasida til birliklarini zamonaviy metodologik tamoyillarga tayangan holda tavsiflash, ularni tashkil etuvchi birliklarining lingvistik tabiatiga xos aniq nazariy xulosalar chiqarish zaruriyati yuzaga keldi.

Har qanday tadqiq manbayida bo'lgani kabi ma'lum bir fan yoki uning ayrim bo'lim va mavzusining o'rganilishi ham ikki xil metodologiya – fahmiy (empirik) yoki idrokiy (nazariy) asosdan birida amalga oshirilishi mumkin. Fan uchun ikkalasi ham muhim Chunki birinchisida o'rganish obyektining zohiriy belgi-xususiyati tadqiq etilsa, ikkinchi metodologiya asosida botiniy mohiyati tadqiq qilinadi. Ikkinchi metodologiya asosidagi tadqiqot fahmiy tadqiq natijasiga tayanibgina ish ko'radi.

Har qanday hodisada zohiriy va botiniy jihat farqlanishi bilan birgalikda, hodisaning o'zi ham serqirra. O'rganish manbayining serqirraligi unga yondashuv ham turli-tuman, qo'lga kiritilgan xulosa ham rang-barang, hatto biri ikkinchisini inkor qiladigan darajada bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Ilmiy talqindagi xilma-xillik, albatta, kimningdir "kuchli" yoki "zaif"ligidan emas, balki o'rganish obyektining chuqur o'rganilganligidan, unga turli tomondan va turli tadqiq usuli asosida yondashilib, turli natijaga erishilayotganidan – fan taraqqiy etayotganligidan dalolat beradi. O'rganish manbayining biror boshqa qirrasi haqidagi yoki uni o'rganishning navbatdagi bosqichidagi xulosa avvalgisidan tubdan farq qilishi mumkin va uni "eskicha" tamoyil asosida baholab bo'lmaydi. Umuman olganda, bir tadqiq usuli yoki fanning biror yo'nalishi bergan natijani boshqa bir yo'nalish tamoyili yoki tadqiq usuli asosida "o'lchash" infantalizm sifatida baholanadi. O'zbek tili morfologik qurilishining ushbu kitobdagi bayoni haqida ham shunday fikrni aytish mumkin. Chunki kitobdagi xulosa substansial tadqiq usul va tamoyili asosida qo'lga kiritilgan bo'lib, unga shu tadqiq metodologiyasi, metodikasi va metodini – ushbu yo'nalish tamoyilini chuqur o'zlashtirish asosida munosabatda bo'lish lozim.

Substansial yondashuvda, asosan, lison va nutqni farqlash natijasida lisonni tadqiq qilishga e'tibor qaratildi. O'zbek tilini yaxlit sistema sifatida o'rganish tilshunoslikni taraqqiyotning yangi darajasiga moslashtirdi. Ta'kidlanganidek, "Endigi vazifamiz – ilmiy tadqiqotlarning natijalarini amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan samarali mexanizmlarni yaratish, ilm-fanni, ilmiy-innovatsion faoliyatni barqaror rivojlantirish".[1] Jumladan, o'zbek tilshunosligi XXI asr bo'sag'asida o'z zimmasiga yangi ijtimoiy buyurtma oldi. Davr ona tili imkoniyatlaridan amaliy foydalanish samaradorligini ta'minlash muammosi bilan shug'ullanishga jiddiy kirishishni taqozo etmoqda. Bu esa til imkoniyatlarining voqealanishini ilmiy tekshirish zaruratini kun tartibiga qo'yadi.

[1]Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 168-174.

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI ARM
№ 34324

1- BO'LIM

O'ZBEK MORFOLOGIK TA'LIMOTI VA UNING TARAQQIYOTI. O'ZBEK TILSHUNOSLIGI TARAQQIYOT BOSQICHLARI

1- §. O'zbek tilshunosligining taraqqiyot bosqichlari va morfologiyaning tadqiq tamoyillari

Har qanday tadqiq manbayi kabi fan yoki uning ayrim bo'lim va mavzusining o'rganilish tarixi ham ilmiy tadqiqning ikki xil metodologiyasi – *empirik* (hodisani butunlikdan ajratib o'rganish) va *nazariy* (hodisani u mansub butunlik doirasida o'rganish) tavsif va tahlil usuli[1] asosida yoritilishi mumkin. Fan uchun har ikki tadqiq turi birday ahamiyatli, zero, birinchi usulda hodisa bayoni va tahlili, masalan, muammoning o'rganilish tarixi masalasi olinadigan bo'lsa, shu sohada olib borilgan muayyan tadqiqot va uning natijasi, qilingan ishlar, erishilgan yutuq, yechimini kutayotgan muammo tahlil etilsa, ikkinchi usulda tadqiq manbayini o'rganishdagi har xil nuqtayi nazar, qaysi davrda uning qaysi qirrasi tadqiqiga alohida e'tibor berilganligi, har bir yondashuvning metodologik asosi va tadqiq metodikasi, shuningdek, navbatdagi o'rganish bosqichida manbaning qaysi qirrasi o'z tadqiqini kutayotganligi kabi masala yoritiladi. Birinchi usulda yakunlangan ilmiy tadqiqot ma'lum bir fan yoki mavzu bo'yicha qilingan ish haqida mufassal ma'lumot berib, shu mavzuning navbatdagi bosqichda o'rganilishi zamini va ilmiy tadqiq asosi, poydevori vazifasini o'taydi. Ikkinchi usuldagi tahlil fan yoki mavzuni qism sifatida u mansub butunlik doirasida, masalan, tilshunoslikni ma'lum davr fani va madaniyati oldida turgan umumiy ijtimoiy-madaniy vazifa va muammo, ayrim mavzuni esa o'sha davr tilshunosligida yetakchilik qilgan g'oya va yondashish nigohi bilan ko'rishga alohida e'tibor beradi.

Manbaga turli xil yondashish sabab va oqibatini bilish esa hozirgi ko'pfikrlilik, demokratik tamoyillarning amaliy ustuvorlashishi, tadqiq manbayining serqirraligi unga turlicha yondashish, uning to'g'risida xilma-xil xulosa chiqarish va bu zohiran bir-birini inkor etuvchi hukm aslida bir-birini to'ldiruvchi (har biri o'z o'rnida to'g'ri) ekanligi haqidagi tamoyil ommalashayotgan, ilm olamida esa me'yorlashayotgan davrda zamon talabi. Bugungi oliygoh talabasining o'z o'quv fani sohasida ilmiy dunyoqarashdagi farq, xilma-xil talqin, uning sababi, obyektiv asosi kabini chuqur bilishi – davr talabi. Ilmiy talqindagi xilma-xillik kimningdir "zo'r", kimningdir "zaif"ligidan

[1] Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. –Т.: Фан, 1995.

emas, balki shu jamiyatda shu fanning (yoki uning ma'lum bir sohasining) chuqur o'rganilganligidan, unga turli tomondan turib yondashish va turli nuqtayi nazardan turib ta'rif-u tavsif berish odatiy tusga aylanayotganligidan – fanning rivojlanganligidan dalolat beradi. Chunki har qanday fan va ilmiy bilishdagi tub yangilanishning ilk bosqichida yangi mezon va munosabat hamisha "ko'r tutganini, kar eshitganini qo'ymas" tamoyili asosida uqilgan-uqilmagan holda, ba'zan hatto zo'rlik bilan kiritiladi, u ma'lum darajada ommalashgach, navbatdagi bosqichdagina bu mezon "mahalliylashtiriladi", tugal o'zlashtiriladi. Shuning uchun har bir davrda fandagi har qanday yangi talqin, yondashish, albatta, qarshilikka uchraydi, davr fani "daholari" tomonidan inkor qilinadi. Zero, odatda "fan daholari" mavqeyida ilmiy yo'nalishi va dunyoqarashi o'z ijtimoiy vazifasini o'tab bo'lgan va o'rnini yangi yo'nalish yoki yondashishga bo'shatishi kerak bo'lgan shaxslar turadi va ular yangicha talqinni hazm qila olmaydi. Har qanday yangilik fan olamiga toshni teshib chiqqandek qiyinchilik bilan kirib keladi. O'zbek tili morfologik tizimi talqini ham bundan istisno emas. U ham xilma-xil g'oya va yondashuv uzluksiz inkorining inkori mahsuli. Shu tamoyilga muvofiq ravishda, o'zbek tilshunosligida morfologik tizim tadqiqini ma'lum bir davr uchun umumlashtiruvchi ishning bu bandida morfologik tadqiqotlar fanimizda turli davrda yetakchilik qilgan asosiy tahlil va tadqiq metodi nuqtayi nazaridan ko'zdan kechirilsa, tadqiqotning har bir morfologik hodisa tavsifiga bag'ishlangan ichki bo'limi va bandi esa shu mavzuning fanimizda o'rganilishining mufassal bayoni bilan boshlanadi. Bu yerda esa o'zbek tili morfologik qurilishining fanimizning turli taraqqiyot xususiyati bilan bog'liq bo'lgan umumiy masalasi, jumladan, morfologik tizim tavsifi bosqichi va uning o'ziga xos xususiyati ko'rsatib o'tiladi. Shuning uchun o'zbek tili morfologiyasining talqini o'zbek tilshunosligining taraqqiyot bosqichi bilan bog'liqlikda beriladi.

O'zbek tilini ilmiy o'rganish tarixi quyidagi davrlarga ajratiladi:

1. Arab tilshunosligi an'anasi asosida o'zbek tili qurilishi tadqiqi (XI–XV asr).

2. Fors tilshunosligi an'anasi asosida o'zbek tili qurilishi tadqiqi (XI–XIX asr).

3.Yevropa tilshunosligi an'anasi asosida o'zbek tili qurilishi tadqiqi (XIX–XX asr).

4.O'zbek milliy tilshunosligining shakllanishi va sovet davri taraqqiyoti (XX asrning birinchi choragidan milliy istiqlolgacha).

5.Mustaqillik davri o'zbek milliy tilshunosligi.

O'zbek tilida so'z o'zgartirish va so'z yasash tavsifi har bir davrda o'z xususiyatiga ega va quyida shu haqda to'xtalinadi

1. **Arab tilshunosligi an'anasi asosida o'zbek tili qurilishi tadqiqi.** O'zbek tilshunosligi tarixi eshigini bizga hozircha XI asrda yashab o'tgan va turkiydan yetishib chiqqan to'ng'ich tilshunos, adabiyotshunos, geograf, kartograf, etnograf, tarixchi, sayyoh Mahmud Ibn Husayn ibn Muhammad Koshg'ariyning mashhur qomusiy **«Devoni lug'otit-turk»** asari ochadi. Turkiyshunoslikning bu otasi va akademik Aleksandr Samoylovichning ta'biri bilan aytganda, "Bahoduri"ning tilshunoslik muammosiga bag'ishlangan **«Javohir un nahv fil lug'otit-turk»** ("Turkiy tillar sintaksisining durdonasi") nomli boshqa bir maxsus tadqiqoti haligacha topilmagan. Lekin yetib kelgan, Sharq va G'arbning qator tiliga (jumladan, o'zbek tiliga ham) tarjima etilib turkiyshunoslik olamida keng ommalashgan «Devon»ning o'zi ham bu qomusiy olimning o'z davrning eng ilg'or fani, XVII–XIX asrda Yevropada yangi davr tilshunosligining shakllanishi va rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan arab tilshunosligi yutug'ini to'la o'zlashtirganligini, uni o'zlashtirish bilan chegaralanmay, agglyutinativ qurilishli va singarmonizmli turkiy tillarning ichki xususiyati asosida bu tilshunoslikning juda ko'p talqin va tahlil tamoyilini to'ldirib, takomillashtirganligini ham ko'rsatadi.[1]

«Devon»da turkiy tilning morfologik xususiyati sistema shaklida bayon etilmaydi; ehtimol, bu masala muallifning haligacha topilmagan ishida ko'rilgan bo'lishi mumkin, chunki «Javohirun-nahv» nomidan ko'rinib turganidek – grammatik tahlilga, «Devonu lug'otit-turk» esa, asosan, leksika tavsifiga bag'ishlangan. Lekin so'zni u yoki bu qurilish turiga bo'lib lug'atda berar ekan, muallif, birinchidan, har bir fe'lning masdar (harakat nomi), o'tgan va hozirgi-kelasi zamon shaklini ham berib boradi, ikkinchidan, bo'lim oxirida so'z yasovchi qo'shimcha, nisbat ko'rsatkichining ma'no va vazifasi, fe'lga bag'ishlangan bo'limda sifatdosh, fe'l mayli, zamoni, uning tuslanishi va qo'llanilishi haqida qimmatli ma'lumot beradi.

Mahmud Koshg'ariy arab tilshunosligining tahlil tamoyiliga tayanib, so'z turkumini *fe'l, ism* (ot, sifat, son, ravish olmosh) va *harf*ga – yordamchi so'z (bog'lovchi, ko'makchi, yuklamaga) ajratadi. Turkiy tillar agglyutinativ qurilishli bo'lib, morfologik shaklni hosil qilishga xizmat qiluvchi affiks so'z o'zak-negiziga birin-ketin qo'shilib kelishi, juda ko'p holda esa hatto qo'shimcha va yordamchi so'z sinonimiyasi ham (chunonchi, *senga ~ sen uchun, ishla- ish qil*) ham mavjudligi sababli Koshg'ariy turkiy shakl

[1] Кононов А.Н., Нигматов Х.Г., Махмуд Кашгарский о тюркских языках «История лингвистических учений. Средневековый Восток. Отв. ред. А.В.Десницкая». –Л.: Наука. 1981. Б. 130–142.

qo'shimchani harf (yordamchi so'z) deb tasnif etadi va o'zbek tilidagi *-lar, -ga, -da, -dan* kabi shakl va *-la, -chi* kabi so'z yasovchi qo'shimchani harf deb tasnif etadi va hatto, «Devon»ning lug'at qismida uni alohida ajratib, lug'aviy birlik qatorida sharhlaydi ham. Chunonchi, «Devon»da *su* – askar, qo'shin va *–si* egalik qo'shimchasi, *qa* – «idish, qop» va *-qa* – jo'nalish qo'shimchasi bir band va bo'limda sharhlanadi[1]. Lekin ko'rinish – shakl jihatdan Koshg'ariy turkiy qo'shimchani harf va hatto so'z bilan tenglashtirsa ham, uning orasida katta farq borligini yaxshi tushunadi. Shu jihatdan uning ikkita qo'shimcha *-si* va *-ga* qo'shimchasiga bergan tavsifi bilan tanishish kifoya: «*-si* – unli bilan tugagan so'zga qo'shiladigan izofat[2] belgisi. Undosh bilan tugaganda faqat *-i* keladi. Izofat qo'llashda hamma turkiy tilda ham qoida shudir, ya'ni ismning oxiri unli yoki undosh bilan tugashiga qarab ish ko'riladi»[3]. «*-ka, -ga* – tarkibida kofi forsiy (yumshoq */k/* va */g/)* bo'lgan va, umuman yumshoq harfli so'zga qo'shilib jo'nalish ma'nosini bildiradigan qo'shimcha»[4].

-ga qo'shimchasiga berilgan tavsifdan ko'rinib turibdiki, Koshg'ariy turkiy til morfologik qo'shimchasida singarmonistik variantning so'z o'zagidagi tovush tabiati (qattiq – yumshoqligi, lablanganlik – lablanmaganligi) bilan bog'liq ekanligini tushungan va to'g'ri sharhlagan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'rta asr tilshunoslaridan faqat Mahmud Koshg'ariy hamda uning asaridan foydalangan bo'lishi mumkin deb taxmin etiladigan Abu Hayyongina turkiy tilda singarmonizm va shakl yasovchi qo'shimchaning singarmonistik variantini to'g'ri tushuntira olishgan.

Mahmud Koshg'ariy turkiy tilda so'z yasash va so'z o'zgartirish jarayonida arab tilidan farqli asosiy turkiy xususiyatni – o'zak-negizning o'zgarmasligi va qo'shimchaning o'zakning ichiga kirmay, birin-ketin kelishini, ya'ni agglyutinatsiyani anglab, uni to'g'ri sharhlagan. Olim turkiy tilda bir bo'g'inli va ko'p bo'g'inli so'zda morfologik shakl bir xilda yasalishini alohida ta'kidlab, turkiy til morfologiyasida eng asosiy xususiyatdan biri – shakl yasovchi qo'shimchaning bir xilligini alohida ta'kidlaydi va bu bilan turkiy til arab tilidan keskin farqlanishini uqtiradi[5].

Deyarli har bir morfologik shakl yasovchi turkiy qo'shimchani lug'at tarkibida alohida olib sharhlash bilan birga, Mahmud Koshg'ariy turkiy morfologik paradigmani, xususan, fe'l nisbati, zamoni va shaxs-son paradigmasini juda to'g'ri ajratadi, shakl yasash bo'yicha qat'iy qoida beradi,

[1] Кошғарий Маҳмуд. Девону луғотит турк.Уч томлик. 3- т. –Т.: ФА нашр. 1963. –Б. 226–229.
[2] Араб тилшунослигида қаратқич – қаралмиш муносабатли сўз бирикмалари шу атама билан номланади.
[3] Кошғарий Маҳмуд. Девону луғотит турк. Уч томлик. 3- т. –Т.: ФА нашр. 1963. –Б. 227–228.
[4] Кошғарий Маҳмуд. Девону луғотит турк. Уч томлик. 3- т. –Т.: ФА нашр. 1963. –Б. 230.
[5] Кошғарий Маҳмуд. Девону луғотит турк. Уч томлик. 2- т. –Т.: ФА нашр. 1961. –Б. 39–40.

fe'lning barcha shakli uchun buyruq shakli asos ekanligini ham juda to'g'ri uqtirib o'tadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, XI–XIX asr filologlaridan hech biri turkiy til morfologiyasini tavsiflashda Mahmud Koshg'ariy darajasiga ko'tarila olmadi – Koshg'ariyning o'zbek tili morfologiyasi xususiyatiga bergan tavsifi XX asr tavsifi bilan bellasha oladi va ayrim jihati bilan undan ustun ham turishi mumkin.

So'zning morfologik strukturasi bilan bog'liq ravishda «Devon»da affiksal (morfologik, affiksatsiya usuli bilan) so'z yasash juda mufassal va ayrim zamonaviy ish havasini keltiradigan darajada chuqur ilmiy tahlil asosida sharhlangan. So'z yasalishini shunday mufassal sharhlashga lug'atda so'zni berishning Mahmud Koshg'ariy tomonidan tanlagan o'ziga xos tartibi juda qo'l keldi. Koshg'ariy arab tilshunosligida keng qo'llaniladigan tartibga – lug'atda alifbo tartibda berishda so'zning anlaut – so'z boshi tovushi (harfi)ga emas, balki auslaut (o'zak/so'z/negiz/ oxiri) tovushi (harfi) ga asoslanadi. Natijada bir xil so'z yasovchi qo'shimcha yordamida yasalgan sodda so'z lug'atning har bir bobining ma'lum bandida bir joyda yig'ilib qoladi. Zukko tilshunos shunday band oxirida fe'l, ot, sifat, tartib son, jamlovchi son yasovchi qo'shimchani, so'z yasovchi qo'shimchaning qanday so'zga qo'shila olishi, yasovchining yangi so'z yasash qobiliyati cheklangan-cheklanmaganligi va eng muhimi, yasama so'zning hosila ma'nosining tipi va turini alohida-alohida sharhlab yorqin misol beradi. Hozirgi kunda ham ayrim tadqiqotda aralashtiriladigan *-lik/liq/luk/luq* hamda *-lig/lig'/lug/lug'* so'z yasovchi qo'shimchasini Mahmud Koshg'ariy «Devon»ning bir necha o'rnida qat'iy farqlaydi[1] va bir necha marta ta'kidlaydiki, undan birinchisi mo'ljallanganlik, atalganlik, xoslik ma'nosiga (chunonchi, *atliq* – otga mo'ljallangan, otga atalgan, otga aloqador, o'zbekcha *otlik*), ikkinchisi esa egalik, molliklik ma'nosiga egadir (chunonchi, *atlig' – oti bor, otli, otliq*).

Mahmud Koshg'ariyning turkiy tilda fe'l, ot, sifatning yasalishi bo'yicha bergan tavsifi XX asrning o'rtasigacha nazariy jihatdan, jumladan, derivatsiya tizimida sinxronik va diaxronik holatni farqlab tavsif berishda eng mukammal bo'lib qoldi. Zero, XIX asr turkiyshunosi va oltoyshunosi tomonidan (jumladan, Gustav Ramstedt tomonidan) berilgan derivatsion tavsifda bu omil aralashtiriladi; Mahmud Koshg'ariyning o'zbek tilida affiksal so'z yasalishi haqida ilmiy talqini hozir ham o'z qiymatini yo'qotgani yo'q. Jumladan, o'sha davrda o'ta unumli bo'lgan va ot(ism)dan fe'l yasovchi *-la* qo'shimchasi haqida Koshg'ariy hamisha ta'kid bilan : «-la- otga qo'shilib fe'l yasaydi... Bu asosiy qoida. Buni esingda tut»- deydi. Derivatsiya masalasi bilan

[1]Кошғарий Маҳмуд. Девону луғотит турк. Уч томлик. 1-т. –Т.: ФА нашр. 1960. –Б. 165, 237, 459.

shug'ullanuvchi hozirgi tadqiqotchi ham derivatsion model, uning tirik yoki o'likligi, unumli-unumsizligi, sermahsul-kammahsulligi, xususan, tirik, unumli so'z yasash qolipi yasalmaning tipik ma'no bilan birlashishi haqida bundan qariyb ming yil oldin buyuk tilshunos tomonidan bayon etilgan mulohaza, fikr va me'yorni chuqur o'zlashtirib, bu masala tadqiqiga kirishsa, hozirgi xulosa va hukmidan ancha boshqacha xulosaga kelgan bo'lardi [1].

Turkiy til morfologiyasi tavsifini bergan va Mahmud Koshg'ariy asaridan foydalanganligi taxmin etilayotgan o'rta asr tilshunos-turkiyshunosidan biri Asiruddin Abu Hayyondir (1256–1345). Abu Hayyonning **«Kitobul idrok lil-lisonil atrok»**, undan foydalanib XIV–XV asrda yozilgan va muallifi haligacha muammo bo'lib kelinayotgan **«Attuhfatuz zakiya fil lug'atit turkiya»** asarida o'zbek tili morfologik xususiyatining ilk sistemaviy bayoni beriladi. Har ikkala asar muallifi o'z talqinida arab tilshunosligi grammatik an'anasi va terminologiyasiga tayanadi, lekin turkiy tilning agglyutinativ tabiatini – so'z shakli yasash jarayonida o'zak-negizning o'zgarmasligini uqqan va o'z tavsifida uni ochib berishga intilgan. Ular o'z davri turkiy tili so'z o'zgartirish tizimi uchun xos bo'lgan deyarli barcha shaklning – ot va olmoshda ko'plik va kelishik, egalik shakli, fe'l nisbati, harakat nomi va sifatdosh, bo'lishli-bo'lishsiz shakli, mayli, zamoni va tuslanishi tavsifini, har birining arab tilida muqobilini sinchkovlik bilan yoritgan. Shuning uchun XI–XIV asr arabzabon turkiyshunosi o'z asarida o'sha davr turkiy tili morfologik tizimi va so'z yasalish xususiyatining deyarli to'liq tavsifini bergan deb xulosa qilish mumkin. Qariyb 20.000 misralik nazmiy matnni o'z ichiga olgan «Qutadg'u bilig» va «Hibbatul haqoyiq» yodgorligida qo'llanilgan morfologik shaklning asosiy ko'pchiligi sanab o'tilgan turkiyshunoslik ishida tavsiflanganligi buning yorqin dalili. Lekin «Devon» qayd qilgan va sharhlagan qator shaklning (chunonchi, o'tgan zamon birinchi shaxs birlik sonning *bardam* shakli, faqat shaxs olmoshi ega vazifasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan o'tgan zamonning *-duq/duk* tuslanmaydigan ko'rinishi – *men yoy qurduk, sen yoy qurduq, biz yoy qurduq*) o'zbek tili yodgorligida qo'llanilishi hali aniqlanmagan.

2. Fors tilshunosligi an'anasi asosida o'zbek tili qurilishi tadqiqi. Forsiy leksikografiya va tilshunoslik an'anasi davrida (XV–XVIII asr) yaratilgan asar, asosan, lug'at bo'lib, morfologik talqin bu tilshunoslikda keng ommalashmagan. Tabiiyki, buning o'ziga xos sababi bor: birinchidan, XI–XVIII asrda forsiy badiiy til keng ommalashgan Kavkazdan boshlab Hindistongacha bo'lgan hududda turkiy-eroniy zullisonaynligi mavjud edi. Bu hodisani Mahmud

[1] Нигматов Х.Г., Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. – Т.: Фан. 1989. –Б. 163–174.

Koshg'ariy ham, Alisher Navoiy ham alohida qayd etadi. Shuning uchun turkiy til forsiyzabon uchun va forsiy til turkiy uchun mutlaqo begona emas edi. Ikkinchidan, eroniy til flektiv, turkiy til esa agglyutinativ qurilishli bo'lishiga qaramay, turkiy til morfologik tizimi bilan eroniy til grammatik tizimi orasida turkiy-arabiy kabi keskin farq yo'q. Shuning uchun morfologik tizimini alohida sharhlashga katta zarurat yo'q edi – mualliflar turkiy tilning o'ziga xos morfologik xususiyatini yo'l-yo'lakay – ayrim bayt va gapni izohlash jarayonida sharhlab ketish bilan kifoyalangan. Shunga qaramay, maxsus grammatik tavsifga bag'ishlangan ishda, jumladan, Mirza Mahdixonning XVIII asrning 60-yilida yozib tugatgan «**Maboni' ul-lug'at**» grammatik tavsifida – eski o'zbek tili morfologiyasiga, forsiyzabon tomonidan o'zbek tilini o'rganish uchun qo'llanma sifatida yozgan asarida – morfologiyaga keng o'rin ajratilgan. Forsiyzabon grammatik talqinda, asosan, arab tilshunosligi an'anasini davom ettirishga harakat qiladi, lekin bu asarda berilgan o'zbek morfologik tizimi Mahmud Koshg'ariy, Abu Hayyon tavsifidan ancha zaif, u nafaqat noto'liq, balki qator kamchilikka ham ega. Chunonchi, Mirza Mahdixon turkiy tildagi singarmonizmni, demak, qo'shimchaning qattiq va yumshoq ko'rinishining qo'llanilish qonuniyatini mutlaqo tushuntira olmaydi, ravishdosh, sifatdosh shaklini fe'l zamoni bilan aralashtiradi. Har holda Mirza Mahdixonning asari o'z davri uchun, Karl Menges va E.Umarov ta'kidlaganidek, o'zbek tili morfologik tizimi haqida zarur ma'lumotni o'z ichiga olgan.

3. Yevropa tilshunosligi an'anasi asosida o'zbek tili qurilishi tadqiqi. O'zbek tili morfologik tizimini o'rganishda yangi davr, ya'ni Yevropa tilshunosligi mezoni asosida talqin va tavsif qilish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlanadi. Bu yo'nalishning qaldirg'ochlaridan biri Herman Vamberining nemis tilida e'lon qilgan «**Chig'atoy tili darsligi**» bo'lsa ham, uning o'zbek tili morfologik tizimi talqinida ta'siri sezilarli bo'lmadi – hozirgi O'zbekistonda Rossiyaning ta'sir va tazyiqi kuchliligi sababli nemis tilshunosligi mezoni asosida o'zbek tili morfologik tizimi talqini ommalasha olmadi.

O'zbek tili morfologik tizimini Yevropa tilshunosligi yutug'i asosida talqin etishning o'zini bir necha ichki bosqichga ajratish mumkin. Chunonchi, 1900–1924-yil, 1925–1940-yil, 1940–1990-yil, 1990-yildan hozirga qadar kabi bo'linish shunday bosqichda sanalishi mumkin. Ajratilgan har bir bosqich o'z xususiyatiga ega. Chunonchi, 1900–1924-yilda o'zbek tili morfologik tizimining talqin va tavsifida ikki yo'nalishni farqlash lozim. Undan birinchisiga rus turkiyshunoslarining O'zbekistonning, asosan, lisoniy xususiyat jihatidan XIV–XIX asrda qarluq asosli yozma adabiy tili – eski o'zbek tili an'anasini davom

ettiruvchi o'troq aholisi (o'sha davr terminologiyasiga ko'ra, sart, sort) nutqining morfologik xususiyati tavsifiga bag'ishlangan va rusiyzabon mutaxassisning mahalliy aholi tili bilan tanishishi maqsadini ko'zlab yozilgan ish[1]. Bu siraga unter-ofitser Yefremov, tadqiqotchi M.A.Terentev, V.Nalivkin, M.Nalivkina, N.Ostroumov, N.Budzinskiy, P.Ye.Kuznetsov, N.N.Pantusov kabining o'zbek tili va shevasining umumiy xususiyati bilan rusiyzabon mutaxassis va harbiyni tanishtiruvchi ishini kiritish mumkin.

Ikkinchi yo'nalishdagi ish sifatida 1905–1920-yilda jadidchilik doirasida o'zbekdan yetishib chiqqan yosh olim va fozillarning yangi turdagi o'zbek maktabi uchun ilk qo'llanmasini (jumladan, M.M.Faxriddinov, S.Saidazizov, Sh.Zunnun, M.Abdurashidxonov, A.Zohiriy, M.Behbudiy, Q.Ramazon, A.Avloniy) ko'rsatish mumkin. Lekin bu davrda o'zbek tili morfologik tizimining yaxlit sharhini berish vazifasi kun tartibiga qo'yilmagan edi. Bu masala O'zbekistonda ona tilidan ilk milliy darslik yaratish bilan bog'liq ravishda navbatdagi bosqichda qo'yildi va hal etildi.

1925-yilda Munavvarqori, Qayum Ramazon, Shorasul Zunnunning «**O'zbek tili saboqlig'i**» va Abdurauf Fitratning «**O'zbek tili qoidasi to'g'risida bir tajriba: Sarf**» darsligi nashri bilan o'zbek tili morfologiyasining yaxlit, izchil tahlil va talqiniga tamal toshi qo'yildi. Bundan Fitratning tom ma'noda zamonaviy yevropaviy darslik tipidagi asari besh yil davomida o'zbek maktabida amalda bo'lganligi bois fanimiz taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Shuning uchun o'zbek tilidan birinchi zamonaviy morfologik talqinni bergan bu darslik ustida to'xtalish lozim.

Zamonaviy o'zbek fanining shakllanishi va taraqqiyotiga muhim hissa qo'shgan Abdurauf Fitratning ilmiy va ijtimoiy, jumladan, lingvistik dunyoqarashi bizdan ancha oldin – XIX asr Yevropa fani va madaniyati ta'sirini o'ziga singdirgan Turkiyada o'qigan yillarida (1909–1913) shakllandi. Bu «Sarf» dagi ilmiy talqinda ham o'z aksini topdi. Bunda u Yevropa lingvistik tahlil tamoyilini sharqiy an'ana chig'irig'idan ma'lum darajada o'tkazib, o'z tili qurilishini mana shunday – o'ziga moslashtirgan zamonaviy talqin usuli bilan tavsiflagan yosh turklar izidan bordi. Shuning uchun uning talqini, so'z turkumi, grammatik kategoriyanining tasnifi deyarli shu davrda nashr etilgan Ye.Polivanov (1891–1938)ning «**Краткая грамматика узбекского языка**» **(–T. –M., 1926)** dagi talqindan ancha farq qiladi. Har ikkala talqinning – Fitrat

[1] Бу ва ундан кейинги даврларда рус туркийшуносларининг ўзбек тилини ўрганиш соҳасидаги фаолиятлари «Фазылов Э.И., Чичулина Л.Г., Русские тюркологи и узбекское языкознание. –Т.: Фан, 1979. 216-б.» асарида, шунингдек, бизни қизиқтирган давр тадқиқотлари С.Аширбоевнинг 1975 йилда якунланган «Из истории изучения грамматического строя узбекского языка (по трудам русских тюркологов 1875–1917)» номзодлик диссертациясида муфассал ёритилган ва шарҳланган.

tavsifining ham, Polivanov tavsifning ham bosh manbayi rus tilshunosligida XIX asr o'rtasida ishlab chiqilgan. tezda Yevropa tilshunosligida ham keng ommalashgan *muosir tilning sinxronik tavsif metodi* bo'lgani holda. Fitrat bu metodni *semantik, onomasiologik, mazmun-fikrdan → tilga* tamoyili kuchli fransuz variantini o'z an'ana va tiliga qisman muvofiqlashtirgan turklardan oldi, Polivanov esa shu metodning rus tilshunosligida ishlab chiqilgan va muosir turkiy til tavsifida sinalib, o'zini to'la-to'kis oqlagan *formal ko'rinishda* ishlab chiqilgan ilmiy tushuncha va grammatik talqin chizmasi asosida o'zbek tili qurilishi tavsifini berishga va shu bilan quyiroqda qurib o'tiladigan «Oltoy tili grammatikasi» modelini o'zbek tilshunosligiga olib kirishga intilgan.

Fitratning til tavsifida bosh metodologik tamoyili *mazmundan → tilga* bo'lganligi sababli[1] unda barcha masala «lisoniy birlik-shakl nimani ifodalaydi?» yo'nalishida emas, balki «ma'lum bir mazmun tilda qanday ifodalanadi?» tarzida qo'yiladi, tavsif va talqini shundan kelib chiqqan holda beriladi. Yevropa tilshunosligida, xususan, fransuz tilshunosligida kuchli bo'lgan bu tamoyil mohiyatan o'sha davr sinxronik tilshunosligiga Yevropada XVII–XVIII asr tilshunosligi ratsional, mantiqiy grammatika yo'nalishining ta'siri edi. Turklar bunday yondashishni fransuzlardan, Fitrat turklardan o'zlashtirgan edi.

Fitrat sharqona an'ana ta'sirida so'z turkumini atigi to'rtga: *ot, sifat, fe'l, ko'makchiga* ajratadi. Olmosh ot va sifatning bir turi sifatida ajratilib, son sifat tarkibiga, ravish esa ot, sifat va ayrim ko'makchi (Fitrat barcha yordamchi so'zni shu turkumga birlashtiradi) ichiga kiritiladi, otda faqat son kategoriyasigina ajratiladi. Lekin mazmun tamoyilidan kelib chiqqan Fitrat kichraytirish otini, otning o'nlab ma'noviy turini, uning yasalishini ajratadi. Fe'lni o'tim va salt, bo'lishli va bo'lishsizga ajratib, uning shaklini tasnif etishda ham Fitrat Yevropa-Sharq an'anasiga asoslanadi. Tuslangan fe'lning bosh shakli sifati III shaxs birlik son ko'rinishini oladi, sifatdoshni sifatga, maylni zamon ma'nosiga ko'ra o'tgan, hozirgi, so'nggi (kelasi) zamon shakli ichiga singdirib yuboradi, nisbat shaklini, arab-turk tilshunosligi an'anasiga muvofiq bob doirasida ko'radi. «Sarf»da alohida paradigmaga birlashtirilmagan tarzda kelishik shakli haqida ham ma'lumot beriladi.

Tugal bo'lmaganligiga qaramay, Fitratning bu ishi o'zbek tilshunosligida morfologiyaning ilk tavsifi sifatida tarixiy ahamiyatini hech qachon

[1] Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, Фитратнинг лингвистик қарашлари билан шуғулланган мутахассислардан фақат А.Нурмоновгина Фитрат лингвистик дунёқарашидаги ҳал этувчи омилни тўғри аниқлай олган. Қар.: Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Т.: Ўзбекистон, 2002. –Б. 145.

yo'qotmaydi, chunki u keyingi davrda – 1943-yilgacha amalda bo'lgan boshqa darslikda berilgan morfologik talqinga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

4. O'zbek milliy tilshunosligining shakllanishi va sovet davri taraqqiyoti. Bu bosqich (1940–1990-yil) tom ma'noda zamonaviy o'zbek morfologik ta'limotining rivojlanish va keng ommalashish davri bo'lib, u bevosita professor Ayyub G'ulomov (1914–1986) nomi, ilmiy dunyoqarashi va ilmiy faoliyati bilan chambarchas bog'langan. Shuning uchun o'zbek morfologiyasining bu bosqichdagi talqinini ko'rishdan oldin bu ilmiy talqinning bunyodkori va harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan olimning ilmiy dunyoqarashi manbayi – rus turkiyshunosligida *zamonaviy turkiy tilning sinxronik formal tavsifi metodi*ning shakllanilishi va ommalashishi bilan tanishib o'tish lozim.

Bu metodning bosh tamoyili *shaklda-lisoniy birlikdan → mazmunga.* Gnoseologik asosi intuitiv materializm – emipirizmga asoslanib, umumiylikni bevosita kuzatishda berilgan hodisaning barcha ko'rinishdagi voqealanishi uchun xos umumiy belgisi sifatida talqin etuvchi bu tavsif metodi (jumladan, XIX–XX asr rus tilshunosligi yaxlitligicha – F.F.Fortunatovdan (1848–1914) V.V.Vinogradovgacha (1894–1969) jahon tilshunosligida formal tilshunoslik deb yuritiladi[1]. Bunday yondashishda tayanch, boshlang'ich nuqta shakl bo'lganligi sababli shaklan farqli, lekin mazmunan (mazmun sifatida, tabiiyki, vazifa ham tushuniladi) yaqin hodisa osonlikcha paradigmaga – grammatik kategoriyaga birlashtiriladi. Shu bilan birga, masalan, *Kitobni akamga / akam uchun oldim* kabi qurilmada ***-ga*** va ***uchun*** birligi semantik-funksional yaqin bo'lsa ham, sof shakliy (formal) tamoyil asosida – biri affiks, ikkinchisi yordamchi so'z bo'lganligi uchun – u sinonim va bir xil paradigma birligi deb sanalmaydi. Lekin qo'shimchaning fonetik xususiyat bilan bog'liq bo'lgan ko'rinishi (chunonchi, *bobom, bobosi*, va *kitobim, kitobi* kabi so'zidagi *-m* va *-im*, *-si* va *-i*, *yozdirmoq* va *ishlatmoq* kabi so'zdagi *-dir* va *-t*), hamda grammatik ma'no va funksiya jihatidan umumiy bo'lib, shaklan har xil bo'lgan qo'shimcha ham (chunonchi, *to'lg'azmoq – to'ldirmoq* kabi so'zda *-g'az-* va *-dir-*) variant – ayni bir lisoniy hodisa (grammatik shakl) qo'shimchasining ko'rinishi deb qabul qilinar edi.

Turkiy til sinxronik formal tavsifinining rus turkiyshunosligida birinchi va eng yaxshi namunasidan biri sifatida 1869-yilda Qozonda nashr etilgan va N.I.Ilminskiy (1822–1891) boshchiligidagi muallif jamoasi tomonidan tuzilgan katta – 300 betdan ziyodroq hajmdagi «**Oltoy tili grammatikasi**» asari yakdillik bilan tan olinadi. Bu asarning turkiyshunoslik tarixidagi ahamiyati juda yuqori. Bu haqda akademik A.N.Kononov (1906–1986) shunday deb yozadi: «Oltoy tili

[1] Қар.: Лингвистический энциклопедический словарь. –М.: СЭ.1990. –С. 558.

grammatikasi» turkiy til grammatik qurilishi tavsifida o'ziga xos bir davr bo'ldi va uzoq yil davomida shunday grammatika yaratish jarayonida n a m u n a vazifasini o'tadi – bu asar hozir ham o'z ilmiy qiymatini saqlab kelmoqda»[1].

Haqiqatan ham, o'sha davrda Rossiya, keyinchalik SSSR tarkibida bo'lgan 40 dan ortiqroq turkiy til uchun 1930–70-yilda yaratilgan grammatik tavsifga bu grammatikaning bevosita va bilvosita ta'siri juda kuchli bo'ldi. «**Oltoy tili grammatikasi**»da ilmiy talqinning tamal toshi – lisoniy birlik (*fonema-tovush, unli, undosh, morfema-qo'shimcha, o'zak, negiz, bo'g'in, so'z, so'z birikmasi, gap, sodda gap, qo'shma gap* .... v.b.) ham, ilmiy tushunchasi ham (*grammatik shakl, grammatik kategoriya, so'z turkumi, kelishik, so'z yasash, forma yasash, tobe aloqa, bosh gap, ergash gap* ... v.h) tabiiyki, bevosita rus tilshunosligidan olingan edi – turkiy tilning qurilishi rus tili andozasi bilan baholanardi. Shuning uchun bunday tavsifda «Rod kategoriyasi» deb sarlavha qo'yib, «bu tilda ot va sifatda rod kategoriyasi va shakli yo'q» degan bayon hech kim uchun ajablanarli emas edi – asar rusga mo'ljallab yozilgan va rus kitobxoni uchun turkiy tilda rod kategoriyasi yo'qligini uqtirish s h a r t va z a r u r edi. Bunday yo'l o'z-o'zidan anglashilgan tarzda, masalan, o'zbek tilida ham *shoir – shoira, Salim – Salima* kabi juftlikda rodning farqlanishini ko'rishga, uning morfologik (*adib – adiba*), leksik (*tovuq – xo'roz*), sintaktik usul (*erkak o'qituvchi – ayol o'qituvchi, urg'ochi eshak* v.h.) bilan ifodalanishini asoslashga intilish kabi holga ham olib kelishi mumkin edi[2]. Buning oqibatida turkiy til uchun xos bo'lmagan grammatik kategoriyani sun'iy ravishda bu tilga nisbat berish yoki, aksincha, turkiy tilga tabiatan xos bo'lib, rus tilida bo'lmagan grammatik shakl va hodisa (chunonchi, turkiy til tizimida juda katta ahamiyatga molik bo'lgan analitik qurilma, taqlid, so'z-gap, qo'shimchasimon yordamchi so'z v.b.)ni «ko'rolmaslik», lekin lisoniy tizimni haqqoniy tavsiflashga xizmat qiladigan *shakl → mazmun* tamoyili asosida bunday holat aniqlaganda ham, u (chunonchi, sifatdosh, ravishdoshda xususiy foil/subyektning mavjudligi, turkiy kesimning hamisha tuslangan shaklda bo'la olishi, gap kesimining mustaqil va nomustaqil ko'rinishining farqlanishi, istagan kattalik va qurilishdagi gapni oborotga – kengaygan birikmaga aylantira olish va butun boshli bir gapni bitta nominativ birlik mavqeyida berish kabi o'nlab sof turkona xususiyat)ning mohiyatini turkiy tilning ichki tizimiy munosabati asosida emas, balki rus tilidagi muvofiqi asosida belgilash holati juda ko'p edi. Buning barchasi turkiy til qurilishining rus tilshunosligi mezon va tushunchasi bilan «o'lchanishi» va «baholanishi» oqibati. Lekin fanga ma'lum turdagi yangicha bir tadqiq va tahlil tamoyilni

[1] Кононов А.Н. История изучения тюркских языков в России. Изд. Второе. –Л.: Наука. 1982. 360 б. –292.
[2] Шоабдурахмонов Ш., Аскарова М., Ҳожиев А., И.Расулов, Худойбердиев Д. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Ўқитувчи, 1980. 448 б.

kiritish va ommalashtirish jarayonining dialektikasi shuni ko'rsatadiki, ilk bosqichida – dastlab eklektik (tushunib-tushunmay) taqlid qilinadi, usul va tushuncha ommalashgach, eklektiklikdan ongli tatbiqqa – usul va tushunchani yangi sharoit va muhitga moslashtirish bosqichiga o'tiladi. Bu tarixiy taraqqiyotning umumiy qonuniyatidan biri, yangilikni tez ommalashtirishda shu usuldan boshqa yo'l ham yo'q.

Rus tilshunosligini jahonga mashhur qilgan *muosir tilning sinxronik formal tavsifi metodi*ning qiyosiy-tipologik (hatto, qisman tarixiy-qiyosiy) tatbiqining eng yaxshi namunasini (uncha ko'p ommalashmagan O.Byotlingkning nemis tilida 1851-yilda Sankt-Peterburgda nashr etgan «Yoqut tili haqida» ulkan tadqiqotidan keyin) N.Katanov 1903-yilda Qozonda nashr etgan «Uryanxay tili tadqiqi tajribasi» nomli qariyb ming betlik, o'nlab qiyosiy jadvalli asarida berdi. O'tgan asrning 70- yiligacha mana shu ikki asar Rossiya va SSSR tarkibida bo'lgan turkiy til qurilishi tavsif va talqinida bevosita va bilvosita katta ta'sir ko'rsatib keldi. Shuning uchun Rossiya va SSSR tarkibida ma'lum bir davrda bo'lgan turkiy til bo'yicha tilshunoslik tarixini, xususan, bu fanda – h o d i s a silsilasini (yozilgan va nashr etilgan ilmiy asar ro'yxatini) emas, ilmiy metod, ilmiy tushuncha va g'oya tarixi va taraqqiyotini o'rganmoqchi bo'lgan talabgor bu ikki asarni chetlab o'tsa, haqiqatga xilof, eklektik, ko'r-ko'rona yo'l tutgan bo'ladi.

O'tgan asrning 20-yilida SSSR tarkibidagi turkiy xalq va til bo'yicha zamonaviy adabiy til me'yorini belgilash, o'rta va oliy ta'lim tizimi uchun darslik yaratish masalasi kun tartibida turganda 1926-yilda Ye.Polivanovning mazkur «**Qisqacha grammatika**»si chiqdi. Oradan sal o'tib , 1929-yilda N.Dmitriyev (1898–1954)ning mazkur oltoy tili grammatikasi ruhi va tamoyilida tuzilgan ixchamgina «**Turk tili qurilishi**» risolasi nashr qilindi. Yuksak iste'dod sohibi bo'lgan Y.Polivanovning «xalq dushmani» sifatida ta'qibi N.Dmitriyev risolasi oldidagi ulkan g'ovni olib tashladi va uni zamonaviy turkiy til grammatik qurilishi tavsifini berish uchun mezon-namuna darajasiga ko'tardi. Bunga – hozirgi yosh uchun mutlaqo tanish bo'lmagan va SSSRda, xususan, 1930–50-yilda hukmron bo'lgan bir holatni – har bir ilmiy talqinni sinfiylik jihatidan baholash, markazdan berilgan namunadan har qanday chetga chiqishni millatchilik va davlat tuzumiga qarshi deb qoralash va ta'qib etishni ham ilova qilsak, markazdan chiqqan bu risolaning milliy turkiy (jumladan, o'zbek) tilshunoslikka ta'siri qanday kuchli bo'lganligini tasavvur etish mumkin.

Hayoti va ilmiy faoliyati o'zbek tilini o'rganish va tavsiflashda alohida bir davrni tashkil etgan A.G'ulomov (1914–1986) fanda mana shunday holat hukmron bo'lgan davrda – 1930-yilning o'rtasida tilshunoslikka kirib keldi.

Uning ilmiy dunyoqarashi N.Dmitriyev, E.Sevortyan, A.Borovkov ta'sirida shakllandi, doktorlik dissertatsiyasiga N.Dmitriyev rahbarlik qildi, uning yetakchiligida ilmiy ishining ancha qismini bajardi va o'sha olim rahbarlik qilgan bo'limda uni yakunladi. Bu turkiyshunosning barchasi tilshunoslikda *sinxronik formal tavsif metodi* bilan ish ko'radigan olim edi. Tabiiyki, ustoz ham fanga o'z ustozining – N.K.Dmitriyevning ilmiy yo'nalish tadqiq usuli va ilmiy tushunchasini olib kirdi.

O'zbek tili grammatik qurilishi tasnifining yaxlit tizimini yaratish va uni ommalashtirishda olim yagona va to'g'ri yo'li(bir ilmiy-tadqiqiy metodik tamoyilga tayangan holda onglilik bilan unga amal qilish va manbaning yaxlit tavsifini berish)ni tanladi. Uning asosiy maqsadi yangi, zamonaviy lingvistik tushunchani, yevropa tahlil va tavsif usulini ommalashtirish, shu mezon asosida o'zbek tili tavsifini berish edi. Tilshunoslarga ilmiy tadqiq namunasini berish maqsadida A.G'ulomov til qurilishining turli sath va bo'limiga aloqador bo'lgan kategoriyadan bittasining mufassal tavsifini berdi. Shu maqsadda uning «O'zbek tilida aniqlovchi» (1938–1940), «O'zbek tilida kelishik» (1941), «O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi» (1944), «*-la* affiksining ma'nosi haqida» (1945), «O'zbek tilida urg'u» (1946), «O'zbek tilida so'z tartibi» (1946), «O'zbek tilida so'z yasash yo'li haqida» (1949), umumlashtiruvchi «Morfologiyaga kirish» (1953) kabi keyingi tadqiqot uchun metodik namuna – yo'l va usul belgilovchi asari dunyoga keldi va keng ommalashdi, o'zbek tilshunosligining taraqqiyot yo'lini belgiladi. Shu yo'nalishda 1950–1960- yilda yuzlab dissertatsiya, risola va tadqiqot, darslik va qo'llanma yaratildi, ta'limga tatbiq etildi. Hatto o'z davri uchun mukammal va to'liq bo'lgan «O'zbek tili grammatikasi» o'zbek olimlarining umumlashtiruvchi ishidan ancha oldin (1948- yilda) e'lon qilingan bo'lsa ham, unda akademik A.Kononov A.G'ulomov talqiniga tayandi. Bu A.G'ulomov talqinining tugal e'tirofi nishonasi edi.

Zamonaviy o'zbek tilshunosligining yetakchisi o'z izlanishida *sinxronik formal tavsif metodi* izidan borganligini hech qachon inkor etmagan. Jumladan, o'zi boshqargan va yetakchilik qilgan o'zbek tilshunosligining 1940–60-yillardagi yo'nalishi haqida O'zbekiston ensiklopediyasi uchun yozgan maqolasidan birida bu haqda shunday yozadi: «Rus maktabi uchun stabil qo'llanma sifatida S.G.Barxudarovning rus tili bo'yicha darsligi qabul qilingach (1938), o'zbek o'rta maktabi uchun ham darslik yaratildi (Borovkov A.K., G'ulomov A., Ma'rupov Z., Shermuhammedov. O'zbek tili grammatikasi. 1–2-

qism. 1943.). Keyingi yillarda bu darsliklar adabiy til me'yorlarini o'rganish uchun nazariy asos vazifasini o'tadi.»[1]

Bu ishda – rus tilshunosligiga ergashishda A.G'ulomovni ayblash, birinchidan, ilmiy taraqqiyot dialektikasi va umumiy qonuniyatini – umuman, ongli, metodologik asoslangan ilmiy tadqiqot mohiyatini bilmaslik bo'lsa, ikkinchidan, sobiq ittifoqda ta'lim tizimi, fan va ta'limga munosabatdan g'irt bexabarlik oqibati. Har ikkala nuqtayi nazaridan ham olim daho shaxsga xos va mos ravishda y a g o n a to'g'ri yo'lni tanlay bildi va o'zbek tilshunosligini yuksak cho'qqi sari yetaklay oldi. Bu yerda «daho» atamasi behuda qo'llanilmadi, zero, falsafada daho – bu tabiiy qonuniyatdek mutlaq bo'lgan va alohida shaxsga bog'liq bo'lmagan obyektiv ijtimoiy taraqqiyot yo'nalishini to'g'ri ilg'agan va o'z faoliyatini shu yo'nalish rivojiga bo'ysundira olgan shaxs. A.G'ulomov sobiq SSSR sharoitida milliy tilshunoslikning rivojlanish yo'nalishini to'g'ri tushundi va shu yo'ldan bordi, fanimiz tarixida alohida davrni – Ayyub G'ulomov davrini, inqilobiy burilish, Sharqdan G'arbga o'tish davrini – zamonaviy yevropa tahlil va tadqiq usuliga o'tish davrini tashkil qildi. Uning xizmati, jumladan, quyidagicha namoyon bo'ldi:

Birinchidan, olim o'zbek tilshunosligini yevropa tahlil va tavsif asosiga o'tkazishning birinchi bosqichi, ya'ni yevropa tahlil usuli, birligi, tushunchasi, ish uslubini kiritish va ommalashtirish bosqichida har xil aralashmaga, moslashtirish va milliylashtirishga emas, balki amaliyotda o'zini oqlagan sof metodga onglilik bilan rioya qilish lozimligini to'g'ri uqdi va uni amalga oshirdi.

Ikkinchidan, sobiq Ittifoqda ta'lim yagonaligi mavjud bo'lganligi sababli maktabda o'qitiladigan barcha talqinda b i r x i l l i k zarur omildan edi. Shuning uchun bu davrda maktab darsligining milliy tilga tarjimasidan foydalanish, tarjima imkoni bo'lmasa, milliy darslikni umumittifoq darslik va dasturi talqiniga mumkin qadar yaqinlashtirish bu maqsad uchun yagona eng to'g'ri yo'l edi. Olim ham shu yo'lni tanladi va o'zbek tilshunosligining ravnaqiga katta hissa qo'shdi.

O'zbek tilshunosligida sinxronik formal tavsif metodi 1953-yildan boshlab nashr etila boshlangan «Hozirgi zamon o'zbek tili kursidan materiallar» silsilasidagi 20ga yaqin risola, uning umumlashmasi bo'lgan va Faxri Kamol (1906–1966) tahriri ostida FA nashriyoti 1957-yilda ommalashtirgan «**Hozirgi zamon o'zbek tili. Leksikologiya. Fonetika. Grafika va orfografiya. Morfologiya**», shuningdek, A.G'ulomov va M.Asqarovaning 1961-yilda

[1]Гулямов А.Г. Языкознание. В кн. Узбекская ССР. Ред.кол. К.А.Зуфаров и др. – Т.: Изд-во «Фан», 1981. – С. 349–350.

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI ARM
№ 34324

nashrdan chiqqan «**Hozirgi zamon o'zbek tili. Sintaksis**», shuningdek, akademik A.Kononovning 1960-yilda chiqqan «Грамматика современного узбекского литературного языка» asari bilan ilmiy tavsifda yetuklik davriga ko'tarildi, o'tgan asrning 70- yillarida o'zining eng yuqori taraqqiyot cho'qqisiga yetdi va ikki jildlik «**O'zbek tili grammatikasi**»da o'z umumlashmasini topdi.

Fanlarning taraqqiyot dialektikasi endi tilshunosligimizning ham yangilanishini, tahlil va tavsif usulini o'zgartirishni talab qilar edi. Bu holat, tabiiyki, sinxronik formal tavsif metodi o'rtaga qo'yadigan va qisman yuqorida sanab o'tilgan muammoga e'tibor qaratish lozimligi masalasini kun tartibiga qo'ydi. Shu davrda o'zbek tilshunosligida ikki yo'nalish yorqin ajralib chiqdi:

1) o'zbek tili qurilishini boshqa, jumladan, sistem-struktur tahlil usuli bilan o'rganish;

2) sinxronik formal tavsif metodi vositasida yevropa tili andozasi asosida o'rganilgan o'zbek tilini o'z ontologik xususiyati asosida qayta tekshirish va shu asosda o'zbek tili qurilishining yangi – sof o'zbekona formal sinxronik tavsifini berish.

Birinchi yo'nalish, asosan, professor S.N.Ivanov (1922–1999) va Sh.Rahmatullayev hamda ularning izdoshi ilmiy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, bugun o'zbek tilshunosligida qo'llanilayotgan eksperimental, statistik, deskriptiv, injener, semantik lingvistika yo'nalishidagi ishlarda o'z aksini topdi. Undan bugun Yevropada ham tan olinayotgan o'zbek substansial tilshunosligigina o'zbek tili barcha sathlari yaxlit tavsifini berish darajasiga ko'tarildi va qo'lingizdagi ish ham, jumladan, uning mahsuli.

Ikkinchi yo'nalish, jumladan, akademik A.Hojiyevning 70-yillardan keyingi ilmiy izlanishi bilan bog'liq.

O'zbek substansial tilshunosligi, uning ildizi, tahlil tamoyili qo'limizdagi ishning birinchi bobida maxsus tahlil etilishi sababli bu yerda birinchi yo'nalish ustida to'xtalinmaydi va ikkinchi yo'nalish haqida ayrim mulohazani bayon qilish bilan cheklaniladi.

O'zbek tilshunosligida prof. Ayyub G'ulomov (*sinxronik formal tavsif metodi*) talqinining «reviziya»si (to'ldirish, takomillashtirish, yangilash v.h.) o'tgan asrning 60-yili o'rtasida boshlandi, 70-yilga kelib ancha kuchaydi, 1980-yilda ommaviy nusxada nashr etilib, oliy ta'lim tizimida keng yoyilgan darslikda yorqin aksini topdi[1]. Bu o'zbek tilshunosligida ikkinchi yo'nalishning – sinxronik formal tavsifiy metod va uning birligini – lisoniy birlik tabiatini o'zbek

[1] Шоабдураҳмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А., И.Расулов, Худойбердиев Д. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Ўқитувчи, 1980.

tilining substansial xususiyati asosida qayta ko'rib chiqish harakatining ilk bosqichini tashkil etadi, deyilsa, xato bo'lmaydi. Chunki bu bosqichda hali lisoniy birlik tabiati masalasi ko'tarilmagan, lekin Ayyub G'ulomov va ustozning rahbarligida bajarilgan ilmiy ishda berilayotgan talqinga e'tiroz, o'zgacha talqin berila boshladi. Jumladan, mazkur darslikda asoslangan terminologik aniqlik bilan birga formal tavsifiy metod uchun tamoman yangi bo'lgan ilmiy tushuncha – *kategorial va nokategorial (funksional) shakl* tushunchasi kiritilib, formal tavsifiy metodni o'zbek tiliga muvofiqlashtirishga harakat etildi. Albatta, bunda hali *nokategorial shakl* tushunchasi mavhum va bunday shaklni ajratishning umumlingvistik va falsafiy-gnoseologik asosi ishlab chiqilmagan edi[1]. Shuning uchun o'z izlanishining ikkinchi bosqichida (1990-yildan boshlab) akademik A.Hojiyev o'zbek tilida lisoniy birlikning o'zbekona (turkona) tabiati va shu nuqtayi nazaridan o'zbek tilshunosligining dolzarb masalasi ustida izlanish olib bordi. Olim keyingi yillarda shu yo'nalishda 30 ga yaqin jiddiy ilmiy maqola e'lon qildi, endi o'zbek tilininig ontologik xususiyatidan kelib chiqqan holda aniqlangan lisoniy birlik tabiatiga tayanib o'zbek tili qurilishining to'liq formal tavsifini ham beradi deb umid qilish mumkin. Bunday tavsif o'zbek tili morfologik tizimining yana bir yangi talqini bo'la oladi. Bunda bir masala ustida to'xtalib o'tish zarur. Ayni bir manbaga turli nuqtayi nazaridan yondashilganda, kuzatuvchi/tadqiqotchi uning, tabiiyki, turli tomonini ko'radi va shu tomoni xususiyati asosida hukm-xulosa chiqaradi. Ongli, qat'iy ilmiy tadqiq metodologiyasi sohibi o'zi yondashgan nuqtayi nazaridan berilgan ta'rif-hukm-xulosaning n i s b i y, manba mohiyatini t u g a l emas, balki tadqiqotchi yondashgan nuqtadan aks etishini uqqan bo'ladi. Ilmiy tadqiqotda, xususan, milliy istiqlol sharofati bilan ko'pfikrlilikka, majburiy mafkuraviy zo'ravonlikdan hur fikrlilikka o'tish jarayonida buni hech qachon esdan chiqarmaslik kerak. A.G'ulomov tadqiq usulini rivojlantirib, yangi davr talabiga moslashtirish, o'zbek tili qurilishining u ommalashtirgan yevropacha tahlil usulida o'zbekona talqinini yaratish ustida qunt bilan izchil harakatda bo'lgan tilshunos A.Hojiyev bu maqolasida:

birinchidan, A.G'ulomov tomonidan berilgan tavsifni deyarli bemuhokama rad etadi;

ikkinchidan, o'zbek substansial tilshunosligining lison va nutq (demak, UMIS~YAHVO)ni izchil farqlash nuqtayi nazaridan yondashib, bergan

[1] Феълнинг функционал формалари/шакли нокатегориал шакл эмас, улар ўзига хос функционал категория ва, ўз навбатида, яна ҳаракат номи, сифатдош, равишдош категориясига бўлинади. Чунки нокатегориал шакл, худди шунингдек, атиги *битта шаклли категория* тушунчалари алоҳида – лисоний бирликлар табиати нуқтаи назаридан – асосланиши керак. Бу ҳақда қаранг: Менглиев Б.Р. Морфологик воситаларининг маъновий хусусияти ва синтактик имкониятлари: филол.фан.номз.дисс. ...автореф. –Т., 1996.

lisoniy birlik haqidagi talqinini (jumladan, qo‘lingizdagi kitobda hamda, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan ma`qullanib, 2007-yilda nashr etilgan «**Hozirgi o‘zbek tili**» o‘quv qo‘llanmasida) o‘z aksini topgan lisoniy birlik talqinini ham) tanqid qilishga, bekor qilishga urinadi. Izchil ilmiy tadqiq metodologiyasi nuqtayi nazaridan esa bir metod nuqtayi nazaridan turib chiqarilgan hukm/xulosa asosida boshqa bir nuqtayi nazar asosida chiqarilgan hukm/xulosani rad etish infantilizm (bolakaylik) sanaladi – formal yondashuv asosida chiqarilgan hukm struktural yondashuvda qo‘lga kiritilgan natija asosida (tabiiyki, aksincha ham) inkor etilishi mumkin emas; dialektikaning bu tamoyilini tadqiqotchi hech qachon esdan chiqarmasligi kerak. Ilmiy tadqiqning bunday nozik tomoniga olim hamisha alohida e`tibor berib kelgan. Jumladan, ma’rifiy asarda bilish, talqin va tavsif haqida gap borar ekan, Jaloliddin Rumiydan Hegelgacha fil tavsifi va har kim tomonidan berilgan turli tavsifga orifning munosabati hikoyati keltiriladi. Orif tushunadiki, har bir kuzatuvchi tomonidan berilgan bir-birini inkor etuvchi bu tavsifning barchasi – o‘z nuqtayi nazaridan to‘g‘ri, lekin birortasi ham filning tugal tavsifi emas. Shuning uchun Hegel ayni bir narsaga nisbatan xilma-xil, bir-birini inkor qiluvchi ta’rifning mavjudligi narsani bilish jarayoniga chuqurlashish nishonasi deb baholagan edi[1]. Lisoniy birlikning struktural (jumladan, substansial) talqini ham, formal talqini ham o‘z yo‘lida – uning har biri juda ham serqirra bo‘lgan tadqiq manbayining – lisoniy birlikning bir qirrasinigina ochib beradi, xolos. Qolgan qirrasini ochish fan oldida turgan vazifadir. Davr va taraqqiyot esa uning yangi-yangi qirrasini ochib boraveradi. Shuning uchun hozirgi o‘zbek tilshunosligida ayni bir tilning – o‘zbek tilining morfologik tizimi tavsifida turli xil yondashish va talqinni ko‘rish mumkin. Bu tafakkuri bir ta’rifda qotib qolgan johil o‘ylagandek, fanimizda yuz berayotgan boshboshdoqlik, tartibsizlik emas, balki falsafiy nuqtayi nazardan ayni bir manbani turli maqsadda turli tomondan tavsiflash, uning mohiyatiga yana ham chuqurroq kirish, yangi qirrasini ochish, ilmiy qarashda ko‘p fikrlilik nishonasi. Qo‘lingizdagi morfologik talqin ham shunday xususiyatga ega. Uni ham shu tavsifga asoslangan tayanch metodologik tamoyil nuqtayi nazaridan baholash va o‘zbek tili morfologik tizimining rang-barang tavsifidan atigi biri sifatida qabul qilish lozim.

2-§. O‘zbek tili morfologiyasi tadqiqi tarixidan

Til haqidagi fanning shakllanishi, odatda, XIX asrning boshiga to‘g‘ri keladi, deb belgilanadi. Biroq tilshunoslikning eng asosiy, tub muammosi,

[1]Хегел Г.И.Ф. Работы разных лет. В двух томах. 2- том. -М.: Мысль, 1971. 432 б. –Б. 124–125.

jumladan, so‘z turkumi va gap bo‘lagi, tilning tabiati, til belgisining ma’noga aloqadorligi, mantiqiy, grammatik va boshqa hodisa munosabati va hatto, til, lison va nutq munosabati, tilning sistemaviy xarakteri (sistema ekanligi, yaxlit strukturadan iborat ekanligi – kichik sistemaning katta sistema tarkibiga kirishi, ular o‘rtasida juda zich aloqa mavjudligi, bu aloqasiz, strukturasiz yaxlitlikning, ya’ni tilning o‘zi bo‘lmasligi kabi) hamda unga yondashuvda ham doimo, qadimdan boshlab sistema sifatida yo‘l tutilganligi, shuningdek, tilning kelib chiqishi masalasini ham qamrab olib baho beriladigan bo‘lsa, tilshunoslik fanining shakllanishi, albatta, uzoq tarixga egaligi ma’lum bo‘ladi.

Mashhur hind tilshunosi Panini eramizdan oldingi davrda (III–II asr) yashagan tilshunoslar ishiga murojaat qilar ekan, ularning grammatika va grammatik kategoriya haqida fikr bildirganligiga ishora qiladi. Morfologiyaga e`tibor ana shu davrdan boshlangan deyish mumkin. Chunki so‘zni turkumga ajratish, albatta, qat’iy bir xillikda bo‘lmasa-da, Sharqda, hind tilshunosligida amalga oshirilgan. So‘z to‘rt guruhga ajratilgan: ot, fe’l, ko‘makchi va yuklama. Bunda fe’l harakatni ifodalovchi, ot esa substantsiya (keng ma’noda narsa) ifodalovchi, yuklama va ko‘makchi so‘z o‘rtasidagi munosabatni, shuningdek, insonning o‘z fikriga munosabatini ifodalovchi hodisa sifatida ajratilgan. Shu davrda sifat, ravish hamda olmosh alohida so‘z turkumi sifatida ajratilmagan.

Fe’l turkumiga, uning o‘zak va boshqa qismga ega ekanligiga juda jiddiy e’tibor qaratiladi. O‘zak tasnifi berilar ekan, yasama asos tarkibidagi maxsus qo‘shimcha, uning ma’no xususiyati va vazifasiga e`tibor qaratiladi.

Til muammosiga empirik va tasviriy yo‘nalishda yondashish hind tilshunosligining asosiy yo‘nalishi edi.

Qadimgi grek tilshunosligi til masalasiga, asosan, falsafiy nuqtayi nazarida yondashish bilan xarakterlanadi. Shunga ko‘ra, tilni o‘rganish falsafa tarkibida bo‘lib, u bilan asosan faylasuflar shug‘ullangan.

So‘z va narsa munosabati masalasi grek tilshunosligining bosh masalasi bo‘lgan.

So‘zni turkumga ajratish harakati Platon yashagan davrga to‘g‘ri keladi. Platon mavjud so‘zni ikki turkumga ajratadi:

a) ot;

b) fe’l.

Ega vazifasida qo‘llanuvchi so‘z – ot, kesim vazifasida qo‘llanuvchi so‘z – fe’l. Sifat ham oddiy fe’l qatoriga kiritiladi.[1]

Aristotel nutqni quyidagi bo‘lakka ajratadi:

[1] Звегинцев В.А. История языкознания XIX–XX веков в очерках и извлечениях. Часть 1. –М.: Просвещение, 1964. –Б. 12.

1) harf;
2) bo‘g‘in;
3) bog‘lovchi;
4) bo‘lak (a’zo);
5) ot;
6) fe’l;
7) kelishik;
8) gap.

Har bir qism alohida-alohida izohlangan. Jumladan, ot quyidagicha izohlanadi: «Ot – murakkab, (a) ma’no anglatuvchi, (b) zamonni bildirmaydigan, (v) qismi o‘z-o‘zidan ma’no anglatmaydigan (g) so‘z»[1].

Otni sodda va murakkab ot tarzida guruhlash, tub va yasama otni farqlash, otga jins anglatish nuqtayi nazaridan munosabatda bo‘lish kabi morfologiyaga oid ko‘pgina masala Aristotel tomonidan o‘rganilgan. Keyinroq shakllangan Aleksandriya maktabi vakillari so‘z turkumi va morfologiya masalasini ancha batafsil o‘rganganligi kuzatiladi. Aristarx tasnifiga ko‘ra, sakkizta so‘z turkumi mavjud:

1) ot;
2) fe’l;
3) sifatdosh;
4) a’zo;
5) olmosh;
6) ko‘makchi;
7) ravish;
8) bog‘lovchi.

Boshqa bir olim – Dionskiy Frakiyskiy ot, fe’l, sifatdosh, ravish, bog‘lovchi turkumining har biri haqida alohida to‘xtalib, uning eng xarakterli jihatini sanab o‘tadi[2]. Jumladan, u fe’l haqida gapirar ekan, «fe’l kelishiksiz so‘z turkumi, u zamon, shaxs va sonni qabul qilib, harakat yoki holatni bildiradi». Shuningdek, u fe’l mayli (buyruq, istak, xabar, tobe va noaniq), fe’l nisbati, son, shaxs, fe’l zamoni haqida ham batafsil ma’lumot beradi.

Ko‘rinadiki, qadimgi Gretsiyada, ayniqsa, morfologiyani o‘rganish, so‘zni turkumga ajratish, har bir turkumning o‘ziga xos jihatini jiddiy o‘rganishga alohida e’tibor qaratilganligi ma’lum bo‘ladi.

[1]Звегинцев В.А. История языкознания XIX–XX веков в очерках и извлечениях. Часть 1. –М.: Просвещение, 1964. –Б. 41.
[2]Звегинцев В.А. История языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях. Часть 1. –М.: Просвещение, 1964. –Б.15–16.

VII–XII asrga kelib, albatta, grek va hind tilshunosligi ta’sirida, shuningdek, boshqa o‘ziga xos sabab va ehtiyoj asosida arab tilshunosligi shakllandi. Bu tilshunoslik faqat arablar tomonidan emas, balki arab tilida gaplashadigan boshqa xalq vakillari tomonidan, ularning bevosita ishtiroki asosida, bir tomondan hind, grek tilshunosligi ta’sirida, ikkinchi tomondan esa, ana shu boshqa xalq dunyoqarashi, tajribasi, tilga munosabati, bilim doirasi ta’sirida shakllangan.

Arab tilshunosligida so‘zni turkumga ajratishda Aristotel yo‘li tutilgan. Ular ham so‘zni, asosan, 3 turkumga ajratishgan:

1) fe’l;
2) ot;
3) yuklama.

Qisman arab va asosan turk tilshunosligi taraqqiyotiga ta’sir qilgan, unga katta hissa bo‘lib qo‘shilgan Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asarida (1914-yili Istambulda topilgan va 1960-yilda S.Mutallibov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan: 3 ta asosiy jild va indeks) turkiy tillarning XI asr holati, turkiy til fonetikasi va morfologiyasi qonuniyati to‘la bayon qilingan. Ushbu asarning turkiy tillar leksikasi, fonetikasi va grammatikasini chuqur tadqiq etishdagi ahamiyati, albatta, beqiyos.

Mahmud Koshg‘ariyning morfologik qarashi, turkiy til morfologik tizimini tadqiq etishga oid talqini ham o‘ziga xos bo‘lgan. To‘g‘ri, u ham qadimgi tilshunoslik an’anasiga ko‘ra, ayniqsa, grek va arab tilshunosligi ta’sirida so‘zni uch guruhga ajratadi:

a) ism;
b) fe’l;
v) yordamchi so‘z (harf) kabi.

M.Koshg‘ariy yordamchi so‘z atamasi o‘rnida harf terminini ishlatgan. (Umuman, tilshunoslik tarixida harf termini bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklama kabi tushuncha o‘rnida ham, shuningdek, ko‘p holda tovush bilan harf jiddiy farqlangunga qadar – tovush o‘rnida ham ishlatilganligi kuzatiladi.) Olim, ayniqsa, fe’l turkumiga oid so‘z talqin va tahliliga katta e’tibor qaratgan. Fe’lning zamon, nisbat, shaxs-son va boshqa grammatik kategoriyasi haqida atroflicha ma’lumot beradi. Fe’lning o‘tgan, hozirgi, kelasi zamon shakli, harakat nomi shaklining (masdar) ot turkumiga – ismga o‘xshashi haqida batafsil ma’lumot berib, fe’l mayli haqida gapirganda esa eng to‘g‘ri fikrni, ayniqsa, fe’lning buyruq mayli shakliga qaratadi: *ur, bur, kel, bar* kabi. Olim *-g‘il* va *-qil, -g‘il, -kil* kabi affiksni ham buyruq maylini ifodalovchi shakl kabi qaragan, albatta, bu bilan qo‘shilib bo‘lmaydi. Chunki bu qo‘shimchaning buyruq-istakni

ifodalashda hech o'rni yo'q, balki buyruq-istakka munosabat ma'nosini ifodalaydi, xolos.

Mahmud Koshg'ariy son kategoriyasiga – birlikning ifodalanishi, unga xos xususiyatga alohida e'tibor qaratadi. O'sha davrdayoq o'zidan tashqari, boshqa shaxsga nisbatan hurmatni ifodalash uchun *-i(ng), -i(inglar), -i(ingiz)* kabi shakldan foydalanganligi va bu kabi shaklning shevaaro farqlashini ham aytib o'tadi[1].

M.Koshg'ariy fe'lning bo'lishli-bo'lishsizlik shakli haqida ham ancha keng ma'lumot beradi. Uning otdagi grammatik shakl – kategoriya haqidagi, fe'l kategoriyasi bo'yicha qarashi hozirgi kun qarashining shakllanishiga, takomillashuviga poydevor bo'lgan. Mahmud Koshg'ariyning morfologiyaga oid talqini hozirgi o'zbek tilshunosligidagi morfologik qarashni to'ldiradi, tilshunoslik taraqqiyotiga katta hissa bo'lib qo'shiladi.

Xorazmda tavallud topgan Mahmud Zamaxshariy tilshunoslikka oid bir necha asar yozgan[2]. Shuningdek, grammatikaga oid asari ham talaygina. Biroq bu asarlari ,asosan, arab tilining grammatik xususiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Xususan, uning «Al-mufassal» asari arab tili morfologiyasi va sintaksisini o'rganishga bag'ishlangan. Olimning «Muqaddimat-ul adab» kitobi aslida «Adabiyotga kirish» tarzida yozilgan bo'lsa-da, uning tilshunoslik uchun ham ahamiyati katta. Bu asarning mo'g'ul va o'zbek tiliga bag'ishlangan qismi ham mavjud bo'lgan. «Muqaddimat-ul adab» besh qismdan iborat bo'lib, ot, fe'l, bog'lovchi, ot o'zgarishi, fe'l o'zgarishi tarzida tuzilgan. O'sha davrdayoq Zamaxshariy ismni mavzusiy guruhga ajratib beradi. Fe'lni esa o'zak tarkibiga ko'ra guruhga ajratishni ma'qul ko'radi.

«Muqaddimat-ul adab» ham, asosan, arab tilini o'rganish bo'yicha yaratilganligi sababli turkiy tilning morfologik jihati unda keng tadqiq etilgan. Shunga qaramay, umuman morfologiyani o'rganishda uning o'rni beqiyos. Chunki ism, fe'l, bog'lovchi, ayniqsa, ism o'zgarishi hamda fe'l o'zgarishi haqidagi Zamaxshariy qarashi qimmatli. Ismning tilshunoslik tarixida mavzusiy guruhga ajratilishi, fe'lning o'zak tarkibiga ko'ra guruhlanishi ilk bor jiddiy amalga oshirilganligi fikrimizni tasdiqlaydi. Uning arab tili grammatikasiga doir «Al-mufassal» asari («Flektsiya san'ati haqida mufassal kitob») asari olimlar tomonidan juda yuqori baholangan. Zamaxshariyning «Samiym ul-arabiya» («Arab tilining negizi»), «Al-mufrad va-l muallif fi-n-nahvi» («Grammatikada birlik va ko'plik») kabi asari bevosita morfologiya sohasiga bag'ishlanganligi bilan ajralib turadi. Bu asarni jiddiy o'rganish shu kunning dolzarb

[1] Кошгарий М. Девони луготит турк. 48–52- б.
[2] Нурмонов А., Маҳмудов Н. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Т.: Камолот, 2006. Ўринбоев Б., Қурбонов Т. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Самарқанд: СамДУ нашри, 2006.

muammosidan bo'lib, uning tadqiqi Zamaxshariyning morfologik qarashini yanada boyitadi, to'ldiradi.

Tilshunoslik tarixida olimlar tilning morfologik jihatini o'rganish bilan VIII–XV asrda ham keng shug'ullanganligi ma'lum. Jumladan, Abu Bakr Sakkokiyning «Miftoh ul-ulum» asarining ayrim qismi morfologiya va sintaksisni o'rganishga bag'ishlangan[1].

Abu Hayyon al-Andalusiyning «Kitob al-idrok-li-lisokal-atrok» asaridagi ayrim qism ham turkiy (qipchoq) tili morfologiyasini yoritishga bag'ishlangan.[2]

Turkiy til morfologiyasiga doir qarash Jamoliddin Abu Muhammad Abdulloh Turkiyning bizgacha yetib kelgan birgina «Kitob bo'lg'at al-mushtoq fi lug'otit-turk va-l-qipchoq» («Turk va qipchoq tiliga mushtoqni qiziqtiruvchi kitob») asarida kuzatiladi. Ayniqsa, bu asarning uchinchi, to'rtinchi bobi ravish, olmosh, ko'makchi, ot, fe'l, uning zamon, mayl, noaniq shaklini o'rganishga bag'ishlanganligi bilan alohida ahamiyatga ega.

XIV asrda muallifi noma'lum bo'lgan yana ikkita asar mavjud bo'lib, bundan birinchisi «Tarjumon» («Kitob-i-majmu-tarjumon turki va ajami va mug'ali») lug'ati. Bu lug'at 76 sahifadan iborat. Asar kirish hamda to'rtta alohida-alohida qismdan tashkil topgan. 26 fasldan iborat birinchi qism ismga bag'ishlangan bo'lsa, ikkinchi qism fe'l mayli va harakat nomi masalasiga, uchinchi bobi (qismi) turlanish va tuslanishga, to'rtinchi qismi esa so'zning ishlatilishiga bag'ishlangan. Bu kitobning oldingi uch qismi bevosita turkiy til morfologiyasining tayanch masalasiga bag'ishlangan.

Turkiy tilda harakat nomining *-moq* affiksi vositasida istalgan fe'ldan (buyruq maylidagi o'zakdan iborat yoki -gil qo'shimchasini olgan fe'ldan) yasalishini, shuningdek, bu tilda jins ifodalanmasligi, ya'ni jins kategoriyasining yo'qligi masalasi ancha batafsil izohlangan. Turlanish va tuslanishga alohida e'tibor qaratilganligi muhim. So'zni maxsus ma'noviy (mavzusiy) guruhga ajratish masalasiga ham bu kitobda diqqat qilinganligi kuzatiladi.

Muallifi noma'lum bo'lgan tilshunoslikka oid, ayniqsa, turkiy tilni jiddiy o'rganishga bag'ishlangan asardan ikkinchisi «At-tuhfa» («Kitob at-tuhfa az-zakiyatu fil-lug'at at-turkiya» - «Turkiy til haqida noyob tuhfa») kitobi.

Asarning birgina qo'lyozma nusxasi Valiuddin Afandi kutubxonasida (Istambul) saqlanadi. Bu yodgorlik 20-yilda turk olimi Fuat Kuprulzoda tomonidan e'lon qilingan bo'lsa, keyinchalik polyak olimi A.Zayonchkovskiy, venger olimi X.Kuun, turk olimi Basim Atalay kabi olimlar bu asar bo'yicha ilmiy tadqiqot ishi olib borganligi ma'lum.

[1] Ўринбоев Б., Қурбонов Т. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Самарқанд: СамДУ нашри, 2006. –Б. 52–62.
[2] Ўринбоев Б., Қурбонов Т. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Самарқанд: СамДУ нашри, 2006. –Б. 57.

S.Mutallibov 1968-yilda bu asarni o'zbek tiliga tarjima qildi va nashrdan chiqardi. E.Fozilov hamda M.Ziyaev asarni jiddiy sharh bilan rus tiliga tarjima qildi. Kitob «Изысканный дар тюркскому языку» nomi bilan Toshkentda «Fan» nashriyotida, 1978-yili nashr etildi. Tarjima kirish, leksik-grammatik ocherk, matn, glossariy, grammatik ko'rsatkich qismidan iborat bo'lib, akademik A.N.Kononov muharrirligida nashr qilingan. Uning umumiy hajmi 450 sahifani tashkil etadi.

Muharrirning kitobni shu tarzda tayyorlash, nashr qilishning mashaqqatli, ammo nihoyatda ahamiyatli ekanligi haqidagi fikri, shuningdek, P.M.Melioranskiy kabi olimning o'rta asr Sharq filologlarining tilshunoslik sohasidagi jiddiy yutug'iga bergan bahosi kitobning naqadar shuhrat topganligini tasdiqlaydi.

Bu asarning «Leksik-grammatik ocherk» qismida «At-tuhfa» asari muallifining morfologik qarashi bayon qilinadi. Unda ism (ot turkumi) alohida so'z turkumi sifatida ajratilgan. Otdagi barcha grammatik kategoriya o'sha davr nuqtayi nazaridan juda mukammal yoritib berilgan. Muallif, avvalo, grammatik shaklni ham shu tarzda, ya'ni aniq xarakterlab beradi. Jumladan, ko'pgina shaxs otining aslida turdosh otning atoqli otga ko'chishi asosida yuzaga kelganligini ko'rsatadi: *arslon, lochin* (41- bet). Shuningdek, otning asosiy qismini turdosh ot tashkil etishi, turkiy tilda jins kategoriyasini (biologik jins) ajratish mumkinligini (uni faqat grammatik jins sifatida qaralmasligi kuzatiladi) ko'rsatadi: *ota, qardosh, okuz* (ho'kiz), *ayg'ir* (erkak ot), *basrak* (nortuya), *yigit; ona, tul* (beva), *qiz, qisrak* (g'unajin), *inak* (sigir) kabi.

Diqqatga sazovor o'rni shundaki, otdagi aniqlik va noaniqlik kategoriyasi ham ajrtiladi. Bunda ham muallif lug'aviy birlikning nutqda ma'no ifodalash xususiyatiga asoslanadi. Jumladan, so'z alohida holda qo'llanganda (nutqdan tashqarida olinganda) narsa-hodisa haqidagi umumiy tushunchani ifodalashi ko'rsatilsa, o'sha so'z nutqda ishlatilganda, bitta narsani, ya'ni aniq bir narsani ifodalashi yoritiladi: odam – umuman, dunyodagi hamma shunday mavjud; bu odam yoki men (sen ham) bitta shaxs, muayyan odam. Bunday ajratish Abu Hayyonning «Kitob al-idrok-li-lisonal-atrok» asarida ham kuzatiladi. Ko'rinadiki, har ikkala muallif ham, agar sinchiklab qaralsa, lison va nutqni farqlagan va hodisaga ana shu jihatdan kelib chiqib baho bergan.

«At-tuhfa»da aniqlik ko'rsatish va kishilik olmoshining ayrimi bilan, son bilan, egalik qo'shimchasi orqali, atoqli ot, *-dagi* affiksi yordamida (lug'aviy ifodlanish ham ko'zda tutilgan: atoqli ot, kishilik va ko'rsatish olmoshi) ifodalanishini yoritib beradi. Albatta, bu holat hozirgi kun tilshunosligida ham jiddiy tadqiq etishni talab qiladigan muhim masala doirasiga kiradi. Muallifning

sintaktik qurshovda qatnashmagan va qatnashgan lug'aviy birlikni ajratishi va unga o'ziga xos tarzda baho berishi sharqda – arab va turkiy tilshunoslikda, haqiqatan ham, lison va nutq hodisasi farqlanganligini ko'rsatadi.

«At-tuhfa» asarining muallifi otdagi son kategoriyasiga alohida e'tibor qaratadi. Otdagi jamlik, ko'plik va birlikning ifodalanishi asarda batafsil yoritilgan. Xuddi shu kabi egalik kategoriyasi, kelishik tizimi (kategoriyasi) ham keng tarzda yoritiladi. Muallifning bu grammatik kategoriya bo'yicha qarashi hozirgi o'zbek tilshunosligidagi shu kategoriya bo'yicha qarashdan jiddiy farq qilmaydi, deyish mumkin.

Fe'lning tuslanishi uch zamon shaklida (o'tgan, hozirgi va kelasi zamon) hamda uch shaxs shakli asosida amalga oshiriladi, deyar ekan, muallif hozirgi kun tilshunosligida shaxs-son kategoriyasini zamon kategoriyasi bilan birgalikda, uni to'la ajratmay turib qarash lozimligi haqida aytilayotgan fikrni o'sha paytdayoq ta'kidlagan deyish mumkin.

Sifat, son, olmosh, fe'l kategoriyasi haqidagi, uning yasalishi, barcha shakli borasidagi qarashi, yuklamaga oid fikrining hammasi o'zbek tili morfologiyasi bo'yicha «At-tuhfa» asari muallifining jiddiy talqinini ko'rsatadi. Bu kitobda o'zbek tili morfologiyasi juda jiddiy tarzda tadqiq etilgan. Muallifning morfologiya sohasidagi qarashi, hozirgi o'zbek tilshunosligidagi morfologiyaga oid nazariy bilimni boyitadi, deyish mumkin.

Xullas, o'zbek tili morfologiyasining tilshunoslik tarixi ila chuqur o'rganilishi, talqini haqida gapirganda, ayniqsa, «At-tuhfa» asariga batafsil to'xtalmaslik mumkin emas. Chunki morfologik kuzatish bu kitobdagi tarzda, boshqa manbada keng va asosli holda ma'lumot bermagan. Asarda har bir grammatik shaklning turli xil ma'no qirrasiga ega ekanligi, turli xil vazifa bajarishi kabi ko'p holat to'la o'z ifodasini topgan.

Alisher Navoiyning morfologik qarashi uning «Muhokamat-ul lug'atayn» asarida qisman o'z ifodasini topgan deyish mumkin. Alisher Navoiy turk (o'zbek) tilining shuhratini olamga yoyish bilan birga, umuman, tilshunoslikning eng muhim masalasiga nisbatan o'z fikrini ham aytib o'tgan, o'z munosabatini bildirgan.

Alisher Navoiyning morfologik qarashi uning quyidagi fikrida, talqinida o'z ifodasini topgan:

a) bor so'zni uch turkumga ajratadi: fe'l, ism va harakat (yordamchi). Bunda Navoiyning fe'lga alohida e'tibor qaratgani ancha muhim;

b) fe'lning birgalik nisbatdagi shakliga alohida e'tibor beradi (orttirma nisbat yasovchi *-t* qo'shimchasiga diqqat qiladi);

v) mazmuniy sintaksis bo'yicha ilk ma'lumot bergan.

Ko'rinadiki, Alisher Navoiy o'z davrida tilshunoslikning boshqa sathiga to'xtalish bilan birga, morfologik sathga oid o'z talqinini beradi. O'zbek tili morfologiyasiga doir o'z qarashini bayon qiladi.

O'zbek tilshunosligida morfologiyaga oid tadqiqot o'rta asrda ham u yoki bu tarzda olib borildi. Ma'lumki, o'rta asrda tilshunos ko'proq lug'atchilik bilan shug'ullangan. Biroq lug'at tuzish murakkabligi o'z-o'zidan so'zning morfologik shaklini ham bilishni, uni hisobga olishni taqozo etadi. Jumladan, rus tilshunosligida so'zni uyaga birlashtirish asosida lug'at tuzish 20-asrning ikkinchi yarmidan boshlangan bo'lsa, o'zbek tilshunosligida bunday lug'at tuzishga XIV asrda asos solingan. Ya'ni «Sangloh», «Badoyi ul-lug'at» dagi lug'at maqolasida fe'l asosan *-mak, -ma* shaklida bo'lsa, ot, asosan, bosh kelishik, birlik shaklida berilgan. Fe'l va ot o'zakdan hosil qilngan boshqa shakl shu shakl doirasida bir so'zga birlashtirib izohlanganligi ma'lum. Yoki Aloyi binni Muhibiyning «Abushqa» lug'atida har xil grammatik shakldagi so'z alfavit tartibida berib borilganligi kuzatiladi: *ashmak, ashurmak, ashamak, ashatmak, ashukmak, ashuk to'rmak, ashlamak, ashlanmak, ashinmak, ashindirmak; ikav, ikagu, ikovla, ikalamiz; bo'lgacha, bo'lgucha, bo'lguncha; to'rta, to'rtala, to'rtovla, to'rtalasi* kabi[1].

Morfologiyaga oid talqin ancha mukammal o'z ifodasini topgan lug'at-asardan biri Muhammad Yaqub Chingiyning «Kelurnoma» asari. Lug'atning ayrim alohida bobida fe'lning turli xil shakli berilgan va u bir uyaga birlashtirilgan. Bu asarning 15- bobida har bir so'zning bosh shakli, masalan, fe'lning noaniq shakli (*o'qimoq*), otning esa bosh kelishik, birlik shakli (*urug', tosh*) kabi beriladi va izohlanadi. Muhimi shundaki, otning bosh kelishikdagi holati va yordamchi so'z bir necha mavzusiy guruhga ajratib beriladi. Bundan shunga amin bo'lish mumkinki, o'zbek tilshunosligida «maydon nazariyasi» masalasi, til lug'at tizimini sistema sifatida talqin qilish masalasiga o'sha davrdayoq o'zbek tilshunosligida asos solingan.

1760-yilda tuzilgan «Sangloh» (Mirzo Mehdixon – Nizom-al-din Muhammad Hodi al-Husayni as-Safaviy tomonidan tuzilgan) lug'atining «Maboni ul-lug'at» deb atalgan grammatikaga oid qismi olti bo'limni o'z ichiga oladi. Grammatika qismining har bir bobida fe'lning barcha shakliga e'tibor qaratiladi: masdar shaklida uning nisbat ko'rinishi, o'tgan zamon shakli, mayl, bo'lishli-bo'lishsizlik kabi shakli izohlanadi.

Mana shu lug'atda fe'l shakli hosil qiluvchi affiksning fonetik varianti hamda qo'llanish xususiyati ham berilgan. Shuningdek, affiks ro'yxati, uning fors va o'zbek tilida qo'llanish xususiyati, shevaga munosabati, qo'shimcha

[1] Ал лугатун-Навоия ва ал истиш хофтул-чигатоийя. 66, 154, 206- б.

qo'shilganda bo'ladigan o'zgarish masalasiga ham e'tibor qaratilganligi bu asarning o'zbek tili morfologiyasini o'rganishdagi ahamiyatini belgilab beradi.

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshida yaratilgan o'zbek tilshunosligiga oid tadqiqotlarda morfologiyaga oid talqinga ancha jiddiy e'tibor berilganligi kuzatiladi.

XX asrning boshida ham tilshunoslik borasida ancha jiddiy ish qilinganligi ma'lum. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi ziyolilarning tilshunoslik taraqqiyotiga qo'shgan hissasi o'ziga xos. Biroq bu olimlar o'zbek tili morfologiyasini tadqiq qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymagan edi. Ashurali Zohiriyning tilshunoslikka doir ayrim ishida morfologiyaga oid ba'zi fikr yo'l-yo'lakay berib o'tilgan bo'lsa ham, bevosita morfologiya sathi tadqiq etilmagan.

XX asr boshida o'zbek tili morfologiyasini bevosita tadqiq qilishni mashhur olim Abdurauf Fitrat o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. U o'zbek tili grammatikasini yaxlit, ya'ni morfologiya, so'z yasalishi va sintaksisni o'zaro zich bog'langan sath tarzida tadqiq qildi. Fitrat o'zbek tilshunosligining o'sha davr uchun eng dolzarb bo'lgan masalasiga jiddiy e'tibor qaratdi, unga o'z munosabatini bildirdi. Uning «Ishtirokiyun» gazetasida (1960-yilda «Yoshlik» jurnalida ham nashr qilingan) nashr qilingan «O'zbek tili» maqolasining o'zi ham bunga asos bo'la oladi. Olimning «O'zbek tili qoidasi to'g'risida bir tajriba», «Sarf» asarida o'zbek tilining fonetik tizimi chuqur tahlil qilingan. Fitratning sof morfologik qarashi uning «Sarf» (Morfologiya) asarida o'z ifodasini topgan.

Fitratning so'zga jiddiy e'tibor berganligi, ayniqsa, so'zga ham, avvalo, ma'no anglatish nuqtayi nazaridan yondashganligi, birinchi o'ringa mazmunni qo'yganligi, ya'ni ma'nodan shaklga qarab borganligi muhim. Olim, avvalo ,so'zga ta'rif beradi: «So'z bir ma'noni bildirgan (bu o'rinda ma'lum bir tushunchani ifodalagan degan mazmun anglashiladi – Y.T.), o'ziga maxsus ohangi va bosimi bo'lgan tovush to'dasidir» degan fikr bildiradi.

So'zni anglatadigan ma'nosini asos qilib olgan holda turkumga ajratadi: ot, sifat, son, fe'l, olmosh, ko'makchi kabi. Ot turkumiga to'xtalar ekan, u mavhum, ya'ni ko'zga ko'rinmas otning ham mavjudligiga e'tibor qaratadi. Fitrat otni tub va yasama otga ajratadi. Sistemaga amal qilgan holda yasama otning o'zini o'rin oti, qurol oti, ish oti kabi turga ajratadi. Xullas, otning barcha, eng muhim o'ziga xos xususiyatiga to'xtalib o'tadi. Uning ot haqidagi qarashi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Abdurauf Fitrat shu tariqa o'zi belgilagan (bunda u ko'proq Yevropa tilshunosligidagi qarashga tayangan edi) barcha so'z turkumiga alohida-alohida

to‘xtalib, uning o‘ziga xos jihatini yoritib beradi. Jumladan, sifat, olmosh, son, fe’l, ko‘makchining deyarli barcha xususiyatini imkon doirasida, o‘sha davrdagi holatiga ko‘ra baholaydi, tadqiq qiladi.

Ayniqsa, olimning fe’l turkumiga oid qarashi katta ahamiyatga ega. Uning «Har bir fe’l bir ish bilan uning ishlovchisi hamda bir zamonni bildiradi» tarzida aytilgan fikr juda muhim. Olim fe’lning zamon grammatik kategoriyasiga, shaxs-son kategoriyasiga, shuningdek, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, o‘timli-o‘timsizlik, nisbat kabi kategoriyasiga nisbatan o‘z qarashini bayon qildi. Shuningdek, yana uning e’tiboridan ko‘makchi fe’l va to‘liqsiz fe’l ham chetda qolmadi.

Albatta, Fitratning grammatikaga oid talqinini to‘la his etish, undan xabardor bo‘lish uchun yuqorida aytilgan fikrning o‘zi yetarli emas. Shuning uchun ham uning mavjud asarini sinchiklab o‘rganish zarurati bor. Chunki olimning sifat, olmosh, ko‘makchi haqidagi hamda sintaktik qarashi ham o‘ziga xos bo‘lib, unda o‘zbek tilshunosligining ko‘p asrlik rivoji, shuningdek, Yevropa tilshunosligining yutug‘i hisobga olingan.

Ko‘rinadiki, o‘zbek tilshunosligi tarixida morfologiyani bevosita tadqiq qilish, bu sohaga oid alohida kitob yaratish XX asrning boshlariga to‘g‘ri keladi. Abdurauf Fitrat bu ishni o‘zi amalga oshirgan. O‘zbek tili morfologiyasini jiddiy o‘rganishni biroz keyinroq bo‘lsa-da, Abdurauf Fitrat boshlab bergan deyish mumkin.

O‘zbek tilshunosligida morfologiyani emas, umuman barcha sathni Yevropa tilshunosligiga tayangan holda tadqiq etishni boshlab bergan olimdan biri ham, asosiysi ham Abdurauf Fitrat edi.

O‘zbek tilshunosligi, ma’lumki, XX asrning 40-yillaridan boshlab jiddiy rivojlanish pallasiga kirdi. Bu rivojlanishni ta’minlash uchun oldinroq yaratilgan lug‘at, XX asr boshida tilshunoslik sohasida qilingan ish qatorida, albatta, A.K.Borovkov hamda Y.D.Polivanovning ishi ham alohida ahamiyat kasb etganligi ma’lum, Jumladan, YE.D.Polivanovning “O‘zbek tilining qisqacha grammatikasi» asari (–T., 1925) hozirgacha o‘z qimmatini yo‘qotgan emas. Bu grammatikaning ikkinchi qismi bevosita o‘zbek tilining morfologiyasini tadqiq qilishga aloqador. Olim o‘zbek tilida affiksning ko‘pchiligi aslida ma’lum so‘zning qisqarishidan hosil bo‘lganligi g‘oyasini birinchi bo‘lib ilgari surgan edi. Masalan, hozirgi kunda keng iste’molda bo‘lgan *-da* affiksi aslida *tur* (*turmoq*) fe’lining qisqargan shakli ekanligini aytadi. Shuningdek, *beramiz* fe’l shaklining aslida hozirgi kelasi zamon shakli ekanligini ta’kidlaydi. O‘zbek tilidagi *berar edim* fe’l shaklini «o‘tgan kelasi zamon» shakli deb atashni ma’qul ko‘rdi.

Beray, beraylik tarzidagi fe’l shaklini buyruq mayli shakli emas, balki istak mayli shakli tarzida talqin qildi. Ya’ni, nozik ma’no farqini hisobga olgan holda, buyruq va istak maylini alohida shakl sifatida ajratish lozimligini ko‘rsatib berdi. O‘zbek tilidagi harakat nomi shaklini hosil qiluvchi *-sh (-ish)* affiksining aslida *ish* leksemasidan kelib chiqqanligi g‘oyasini ilgari surdi. Shu tarzda *-choq (-chog‘), -a (-ajak)* kabi affiksning kelib chiqishiga oid o‘z fikrini ham aytib o‘tdi.

Ana shu davrda Munavvar Qori Abdurashidov, Shorasul Zunnun kabi ziyoli bilan hamkorlik qilgan Qayum Ramazon mashhur «Til saboqlari» darsligining so‘z tarkibi, morfologiya bo‘limini yozdi. Uning «O‘zbek tili» kitobi o‘zbek tili so‘z tuzilishi va morfologiyasiga bag‘ishlangan edi. Mana shu asar o‘zbek adabiy tilining keyingi davr rivojini ta’minladi, tilshunoslik sohasi taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatdi deyish mumkin.

XX asr 40-yillari tilshunosligida Faxri Kamolovning o‘z o‘rni bor. XX asrning 30- yillarida o‘z tilshunoslik faoliyatini boshlagan F.Kamolov, A.G‘ulomov va H.G‘oziyev bilan hamkorlikda «Grammatika va orfografiya», «O‘zbek tili darsligi» hamda boshqa asarini yaratdi. Ana shunday ishning yakuni sifatida 1957-yilda uning «Hozirgi zamon o‘zbek tili» kitobi (darslik) yuzaga keldi. Bu kitob bevosita F.Kamolovning tahriri ostida nashr qilingan bo‘lib, oliy maktab uchun yaratilgan birinchi asosiy darslik vazifasini o‘tadi. Kitob “So‘zboshi”, “Kirish” qismidan tashqari yana ikki katta bo‘limni o‘z ichiga oladi. Birinchi bo‘lim «Leksikologiya, fonetika va orfografiya, grafika va orfografiya» deb boshlangan bo‘lsa (48–290-bet), ikkinchi bo‘lim «Morfologiya» deb nomlangan (291–317-bet). Darslikning «Morfologiyaga kirish», «Fe’l» qismini Ayub G‘ulomov yozgan. «Ot va sifat» qismini Z.Ma’rupov, «Son» qismini X.Komilova (olmosh ham), «Sifatdosh» qismini R.N.Jumaniyozov, «Ravishdosh» qismini M.Asqarova, «Ravish» qismini S.Fuzailov, «Yuklama», «Ko‘makchi», «Bog‘lovchi» qismini S.Usmonov yozgan.

Haqiqatan ham, o‘zbek adabiy tili morfologiyasini ilmiy asosda izchil o‘rganish, shuningdek, sistema tarzida jiddiy tadqiq etish ana shu davrdan boshlandi deyish mumkin. Chunki bu asarda o‘zbek tilidagi so‘z turkumi, uning barcha morfologik xususiyati ham oldingi sharq tilshunosligidagi talqinni ham, keyingi davr Yevropa tilshunosligida «Morfologiya» bo‘yicha aytilgan barcha fikr, qarashni ham hisobga olgan holda talqin qilindi. Jumladan, «Morfologiya» quyidagi qismdan tashkil topgan yaxlit tizim tarzida o‘rganildi: «Morfologiyaga kirish», «So‘z va uning xususiyati», «So‘zning sostavi», «So‘z yasalishi» (ko‘rinadiki, «So‘z yasalishi» rus tilshunosligida 1970-yillarda alohida bo‘lim

sifatida ajratilgan bo'lsa, o'zbek tilshunosligida 50-yillardayoq alohida qayd etilgan), «So'z turkumi», "Ot" kabi.

Ana shu davr tilshunosligidayoq aniq holda tilning sistema xarakteri, aniq, idrok etiladigan darajada bayon qilinganligini ko'ramiz: «Demak, so'z fikr bayon qilishda eng asosiy vazifani bajaradi: fikrni gap ifoda qiladi, gap esa, so'zdan tuziladi. Gap bilan so'z bir-biri bilan zich bog'langan bo'lib, buning orasida dialektik birlik bor. Har bir so'zning ikki tomoni bor: ichki tomoni va tashqi tomoni. Birinchisi – so'zning ma'nosi, ikkinchisi so'zning tovush tomoni.

Har bir so'z shu ikki tomonning birligidan iborat. Demak, so'z – nutqning mustaqil bo'lagi, u ma'no va shakllanish jihatdan bir butunlikka ega. So'z semantik va grammatik butunlikdan iborat. So'z leksikologiyaning ham, grammatikaning ham obyektidir. Lekin bu ikki xil tekshirish bir-biridan ma'lum xususiyati bilan ajralib turadi: leksikologiya so'zning ma'nosini, bu ma'noning taraqqiy etishi yo'lini, grammatika esa so'zning strukturasini, tarkibini, morfemasini, so'zning turkumga bo'linishini, so'zning bog'lanishini tekshiradi. Bu ikki xil tekshirish bir-biri bilan bog'liqdir.

Morfologiya so'zning nutqda o'zgarish qoidasini belgilaydi. Morfologiyada so'z formasini hosil qilish qoidasi va so'z yasash qoidasi o'rganiladi; shuningdek, morfologiya so'zning ma'lum belgilar asosida guruhga – turkumga bo'linishini ham tekshiradi. Morfologiya bilan sintaksis grammatikaning o'zaro bog'langan, teng huquqli, mustaqil qismidir" (285-, 286-bet).

Yuqorida bayon qilingan har bir fikr jiddiy idrok qilinsa, XXI asr tilshunosligida kompleks o'rganilayotgan hodisa unda ma'lum darajada o'z ifodasini topganligi ma'lum bo'ladi. Jumladan, asar mualliflari til sathi bir-biri bilan o'zaro dialektik bog'liq ekanligi va shunga ko'ra u sistemani tashkil etishini inkor qilishmaydi.

So'zning tub va yasama bo'lishi, so'z tarkibida o'zak morfema (o'zak) va affiks morfema bo'lishi (ergash morfema, affiks) uning o'ziga xos deyarli barcha xususiyati, negiz, o'zak va negiz munosabati, so'z va o'zak munosabati, tilning so'z yasash tizimi, yasama so'zning ma'nosi, yasovchi morfema – hozirgi kundagi talqinda yasovchi asos, yasovchi unsur, shakl yasalishi haqidagi fikr chuqur idrok etilsa, hozirgi kundagi talqindan jiddiy farq qilmaydi. So'z yasash usuli, sodda va qo'shma so'z, juft va takroriy so'z, uning yuzaga kelishi sababi, ko'rinishi, qisqartma, juft so'zning joylashish tartibi, yakka va yirik sonning birikishi kabi holat haqidagi qarash ham hozirgi kunda o'z qimmatini yo'qotgan emas. Ushbu kitobda so'z turkumiga xarakteristika berilar ekan, quyidagini kuzatamiz: «So'z ma'nosiga va grammatik xususiyatiga – morfologik xususiyatiga va sintaktik roliga qarab bir qancha to'daga bo'linadi. So'zning bu

to'dasi so'z turkumi sanaladi (masalan: fe'l, ravish va shu kabi). Har bir so'z semantik va grammatik (morfologik, sintaktik) xususiyati bilan gapning ma'lum bir bo'lagi vazifasida kelishga mos bo'ladi; har bir bo'lak uchun tipik so'z - semantik va grammatik xususiyati bilan shu bo'lakka juda mos keladigan so'z bor» (Bu jumla juda jiddiy e'tibor berishni talab qiladi, chunki tamomila emas, balki juda mos keladi, deyilgan, demak, boshqa vazifani ham bajarishga imkoniyat qoladi, demoqchi, shuningdek, boshqa jihat ham nazarda tutilgan – Y.T.). Masalan, kesim uchun tipik so'z – fe'l, aniqlovchi uchun tipik so'z – sifat» (303- bet). Bu fikrni inkor etish mumkin emas. U o'zbek tilshunosligining tezisi sifatida hanuz amal qilmoqda. Tilga qaysi yo'nalishda yondashmaylik, oxir-oqibat ushbu masalada mazkur talqinga yaqin fikrdan boshqa narsani berish mumkin emas. Berilgan fikr, talqin uni inkor eta olayotgani yo'q, aksincha to'ldirmoqda, rivojlantirmoqda. Ushbu «Hozirgi zamon o'zbek tili» (1957-y.) kitobida so'z dastlab mustaqil so'z, yordamchi so'z, modal so'z, undov va mimemaga ajratiladi. Mustaqil so'zga ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ravish kiritilgan; yordamchi so'z sifatida ko'makchi, bog'lovchi va yuklama qayd etiladi. Modal so'z alohida so'z turkumi tarzida berilgan. U to'g'ridan-to'g'ri modal so'z-gap tarzida emas, balki, avvalo, so'z sifatida qayd etilgan. So'ngra uning gapdagi vazifasi, ya'ni kirish birlik, gap bo'lib kelishi kabi boshqa holat sifatida alohida baholangan. Demak, modal va undov so'zni avval so'z sifatida qayd etish, keyin uning vazifasini belgilash 50-yillar tilshunosligiga xos.

Bu davr tilshunosligida undov so'z bilan mimema birgalikda bir turkum sifatida talqin qilingan: undov va mimema kabi. Chunki rus tilshunosligida u bir turkum – mejdometiya deb atalgan. Albatta, bu o'sha davr tilshunosligi talabiga mos edi. Hozirgi kunda taqlid (mimema) mustaqil so'z turkumi doirasida qaralmoqda. O'zbek tilining ichki tabiati hodisani shunday baholashni taqozo qiladi. Zero, o'zbek tilshunosligida 60- yillardayoq tasviriy so'z (harakat-holatga taqlid so'z) va taqlidiy so'z (tovushga taqlid so'z) alohida so'z turkumi sifatida ajratilgan.

Umuman, bu davrga kelib, so'zni mustaqil so'z turkumi, yordamchi so'z turkumi va alohida so'z turkumi (mustaqil so'z turkumi doirasiga ham va yordamchi so'z to'dasiga ham kirmaydigan alohida bir to'dani tashkil etuvchi so'z) tarzida tasniflash amalga oshirildi. Bu talqin XX asr boshida ham o'z qimmatini yo'qotgan emas. Bunda taqlidga munosabat ham o'ziga xos. Bugungi kunda taqlidning mustaqil so'zlik xususiyatini jiddiy ilmiy asoslash lozim. Taqliddan ot va fe'l kabi so'zning yangi bir qismini yasash mumkin. Shuningdek, u ba'zan otlashgan holda, ba'zan otlashmay turib ham gap bo'lagi vazifasida kela oladi. Biroq ana shuning o'zigina uni mustaqil so'z qatoriga

qo‘shish uchun hali yetarli emasga o‘xshaydi. Albatta, taqlidning ot o‘rnida qo‘llanishi bor narsa. Biroq ot o‘rnida qo‘llanish boshqa hodisa-yu, mustaqil tushuncha ifodalash yoki mustaqil tushunchaga ishora berish boshqa hodisa. Taqlidda bu xususiyat juda mavhum va g‘ayrioddiy. Bu jihatdan u olmoshga o‘xshaydi. Jumladan, *u* olmoshidan umuman olganda mavhum shaxs yoki narsa tushunchasi seziladi, *iltong-biltong* yoki *taq-taq* so‘zida ham shunday holat kuzatiladi. Shunga qaramay, bu holat qanday baholanmasin, har holda o‘zbek tilida alohida taqlid so‘z mavjud ekanligi, u undovdan farq qiladigan so‘z sifatida ajratilishi muhim. Demak, taqlid alohida so‘z turkumi. Xuddi shu kabi undov ham, modal so‘z ham o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, nutqda turli xil vazifada qo‘llanishi mumkin. Modal so‘z munosabat bildiruvchi kirish so‘z vazifasida hamda gap bo‘lib kelishi mumkin; undov so‘z ham munosabat bildiruvchi, his hayajonni ifodalovchi va gap (so‘z-gap) bo‘lib kelishi mumkin. Bu bugungi kunda modal va undovni yaxlit holda so‘z-gap deyishga asos bo‘ldi.

Demak, XX asr o‘rtasidan hozirgi o‘zbek adabiy tili morfologiyasi yanada jiddiy tadqiq etila boshlanganligi kuzatiladi. Bu borada qilingan hamma ishni sanab o‘tish imkoniyati bor bo‘lishiga qaramay, bundan cheklanamiz. Chunki yuqorida ta’kidlaganimizdek, o‘zbek tilshunosligi jiddiy rivojlanish pallasiga kirdi. Bunda, albatta, rus tilshunosligi (ko‘proq Yevropa hamda Amerika tilshunosligi) yutug‘i alohida ta’sir ko‘rsatganligini inkor etib bo‘lmaydi. Ana shu tilshunoslik ta’sirida o‘zbek tili morfologiyasini talqin qilish ishi olimlar tomonidan boshlab yuborildi. Dastlab o‘tgan asrning 40- yillarida Ulug‘ Tursunov «O‘zbek tilida so‘z turkumlarining yasalishi» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yozdi. Aslida bu olim morfologiyaga oid qarashini 30-yillarda boshlagan edi. Uning “O‘zbekchada fe’lning yasalishi” (1930), “O‘zbek tilida so‘ng ko‘makchi”, «O‘zbek tilida fe’l darajalari», «O‘zbek tilida ba’zi ravishdosh formalarining xususiyati» kabi tadqiqoti bevosita o‘zbek tili morfologiyasi talqiniga bag‘ishlangan. Bu ishda olim o‘zbek tili morfologiyasining eng dolzarb muammosini tadqiq etishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘ygan. Olim «daraja» terminini fe’l nisbati shakliga nisbatan qo‘llagan. Shuningdek, o‘zbek tilining ko‘makchi borasidagi o‘ziga xos jihatini yanada bo‘rttiribroq, ta’kidlabroq ko‘rsatish maqsadida uni «so‘ng ko‘makchi» tarzida talqin etadi. Bundagi nozik jihat shuki, rus tilida old ko‘makchi bor bo‘lib, o‘zbek tili bu jihatdan u tildan jiddiy farq qiladi.Olim ana shunga ehtiyot bilan yondashgan. U.Tursunovning morfologiyaga oid talqini, boshqa asaridagi fikri kabi, shu kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas va o‘zbek tilshunosligi taraqqiyotiga qo‘shilgan munosib hissa sifatida turibdi.

XX asr o‘rtasi o‘zbek tilshunosligi taraqqiyotida, ayniqsa, uning morfologiyasini o‘rganish bo‘yicha qilingan ishi doirasida S.Usmonov, F.Abdullayev, T.Ibrohimov, A.G‘ulomov, V.V.Reshetov, A.N.Kononov, M.Asqarova, S.Mutallibov kabi bu o‘rinda tilga olinmagan ko‘p olimning xizmati katta.

O‘zbek tilshunosligida 40- yillar o‘rtasida A.G‘ulomovning «O‘zbek tilida ko‘plik kategoriyasi» monografiyasi nashr etildi (–T., O‘zdavnashr, 1944 y.). Bu kitob o‘zbek tilida «Son kategoriyasi» sifatidagi qarashning eng mukammallashgan ko‘rinishi sifatida yuzaga kelgan. O‘zbek tilidagi birlik va ko‘plikka, bilamizki, Mahmud Koshg‘ariy davridan boshlab, e’tibor qaratilgan. Grammatikaga oid asarning hammasida son kategoriyasi talqini berilgan. Biroq o‘zbek tilshunosligida bu kategoriya yaxlit holda monografik planda birinchi bor shu tarzda talqin qilinmagan edi.

A.G‘ulomovning bu monografiyasi til hodisasiga yondashuvda unga sistema sifatida munosabatda bo‘lishning til – lison – nutq munosabatini hisobga olishning, dialektikaga e’tibor qaratishning, shuningdek, tilga formal-funksional yondashuvning ilk namunasi. Olim imkoniyatning nutqda voqealanish qonuniyatini mazmun – shakl, mohiyat – hodisa, imkoniyat – voqelik, sabab – oqibat, umumiylik – xususiylik kategoriyasini ham hisobga olgan holda lison va nutqni yaxlit holda talqin qildi. Jumladan, tilshunoslikning eng muhim vazifasi hisoblangan masalaga, ya’ni til birligi imkoniyatini belgilay olish va bu imkoniyatni nutqda namoyon bo‘lishini ochib berish masalasiga juda jiddiy e’tibor qaratilganligi kuzatiladi. O‘zbek tilidagi *-lar* affiksi talqini misolida bu holat o‘z ifodasini topgan. Bu affiksning etimologiyasi, imkoniyati, qo‘llanishdagi barcha xususiyat bo‘yicha tilshunoslikda aytilgan fikrga munosabat bildiradi va o‘zbek tilidan turli misolni talqin qilish asosida o‘z qarashini bayon qiladi. Bu affiksning boshqa so‘z bilan munosabatida o‘n beshdan ortiq ma’no ifodalashi mumkinligini ko‘rsatib beradi, ana shunday til birligi imkoniyatini chuqur o‘rganish zarurligi va buni qanday amalga oshirish mumkinligini namuna sifatida ko‘rsatib beradi.

Olim XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek tilshunosligida til birligi imkoniyatini ochib berish yo‘lini, ya’ni har bir birlikni chuqur tadqiq qilish, uning boshqa birlik bilan munosabatini belgilash kabi muhim holatni keyingi ishida ham izchil davom ettirdi. Uning «*-la* affiksi haqida», «*-dosh* affiksi haqida», «*-lik, -mon* affikslari haqida» maqolasi bunga misol.

A.G‘ulomovning 50-yillar o‘rtasida yaratgan «O‘zbek tili morflogiyasiga kirish» (1953-yil) monografiyasi tilga sistema tarzida yondashuvning yorqin namunasi. Kitobda so‘z tarkibi, so‘z va uning xususiyati, so‘z yasalishi, qo‘shma

so‘z, so‘z turkumi muammosiga nisbatan olim o‘z qarashini bayon qiladi hamda mavjud qarashni boyitadi. A.G‘ulomov tomonidan «Fe’l» kitobining yaratilishi o‘zbek tilshunosligida katta voqea bo‘ldi (1954-y.) Chunki o‘zbek tilshunosligi tarixida alohida olingan bir turkumning o‘zining yaxlit holda jiddiy tadqiq etish tajribasi shu davrga qadar bu tarzda amalga oshirilmagan edi. Shu davrdan boshlab har bir so‘z turkumini alohida olib tadqiq qilish kuchaydi. Bunda qat’iy e’tibor qaratila boshlandi. Demak, bu kitobda: a) fe’l turkumi alohida holda yaxlit tarzda chuqur tahlil qilingan; b) fe’l haqidagi barcha mavjud qarash umumlashtirilgan. Fe’lga xos barcha xususiyat: ma’nosi va grammatik belgisi; grammatik kategoriyasi; yasalishi; to‘liqsiz fe’l, infinitiv, fe’lning sintaktik vazifasi kabi jihat batafsil tahlil qilingan. «Predikativlik (kesimlik holati) fe’lning asosiy sintaktik belgisi» ekanligi olim tomonidan alohida qayd etilgan. Ayub G‘ulomov ana shu davr ilmiy qarashida affiksatsiya usulida fe’l yasalishiga e’tibor qaratar ekan, fe’ldan fe’l yasash (affiksatsiyada), ya’ni ichki yasalish mavjudligini tan oladi. Biroq, baribir, *tepkila, ezg‘ila, yugurgila, titkila* kabi yasalishda harakat jarayonining obyektiv tabiati ifodalanishini alohida qayd etadi. Albatta, keyinchalik, olim fe’ldan yangi fe’l yasalishini, bu turkumda ichki yasalish yo‘q ekanligini e’tirof etadi va so‘z yasalishiga oid boshqa ishda unga to‘la amal qiladi.

A.G‘ulomov o‘zining «O‘zbek tilida aniqlovchilar» (1940-yil), «O‘zbek tilida kelishiklar» (1948-yil), «O‘zbek tilida urg‘u» (1951-yil) kabi alohida monografiyasi bilan ham o‘zbek tilshunosligi taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi. Shunday bo‘lsa-da, uning «O‘zbek tilida ko‘plik kategoriyasi», «O‘zbek tilida kelishiklar», «Fe’l», «Morfologiyaga kirish» kabi monografiyasi alohida olingan affiksga oid jiddiy maqolasi o‘zbek tilshunosligida ilmiy morfologiyaning shakllanishiga asos bo‘ldi. Olimning rus tilida yozilgan «О сопутствующих явлениях при аффиксации в узбекском языке» (1963) maqolasi o‘zbek tilshunoslik morfologiyasi sohasining shakllanishini ta’minladi. Maqola 75 betlik monografiyaga teng keluvchi katta hajmga ega bo‘lib, unda o‘zbek tilida affiksatsiya davrida sodir bo‘ladigan barcha o‘zgarish o‘z ilmiy talqinini topgan. Zero, affiks va o‘zak munosabati masalasi ushbu tadqiqotdagidek darajada, shu kungacha ham o‘rganilmagan.

A.G‘ulomovning «O‘zbek tilining tarixiy so‘z yasalish muammolari» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi (1955) so‘z yasalishining leksikologiya yoki grammatika bilan munosabatini (sathlararo munosabat) ilmiy asoslab qolmay, balki, umuman, til sathlariaro munosabatni, sathlariaro dialektik bog‘liqlik asoslarini berdi. Imkoniyat va voqelik, mazmun va shakl, umumiylik

va xususiylik, mohiyat va hodisa munosabatiga izchil yondashdi. So‘z yasalishining tilshunoslikning alohida sohasi ekanligini asoslab berdi.

Olimning morfologiya bo‘yicha qarashi XX asrning ikkinchi yarmida davom ettirildi. Akademik A.Hojiyev «Fe’l» (1973), «Ko‘makchi fe’l» (1966), «To‘liqsiz fe’l» (1970), «O‘zbek tilida so‘z yasalishi» (1998, 2007) monografiyasida va boshqa ishida, prof. Y.Tojiyev «O‘zbek tili morfemikasi» (1992), «O‘zbek tilida affiksal sinonimlar» (1981, 1987, 1992) monografiyasi va boshqa ishda, M.Jo‘raboyeva «O‘zbek tilida affiksal omonimiya» (2002) monografiyasida, shuningdek, A.Berdaliyev, T.Mirzaqulov, N.Mahkamov kabi olim o‘z ishida bu sohadagi ishlarni izchil davom ettirdi. A.Hojiyevning «O‘zbek tilida qo‘shma, juft va takroriy so‘z» monografiyasi ham olim qarashining bevosita davomi deyish mumkin.

A.G‘ulomovning so‘z yasalish haqidagi fikri orasida, ayniqsa, quyidagi fikri keyingi tilshunoslik taraqqiyotini belgilab berdi: «Demak, so‘z yasalishining o‘z obyekti bor, bunda grammatika, leksika sohasi bilan umumiylik tomoni ham mavjud so‘z yasashning, birinchi navbatda, morfologiya bilan yaqinligi (bunda yasama so‘zning strukturasini o‘rganish) ko‘zga tashlanib turadi. Holbuki, so‘z yasashning boshqa yo‘li uning leksika bilan ham, fonetika bilan ham, sintaksis bilan ham (qo‘shma so‘z va so‘z birikmasi munosabatini eslang) bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Demak, so‘z yasalish hodisasi o‘zining asosiy, yetakchi xususiyati bilan grammatika va leksikologiyaga yaqin turadi» («O‘zbek tili grammatkasi», 8- b.). So‘z yasalishi sinxron aspektga tayanadi. Til hodisasini tekshirishda sinxroniya (bir vaqtlik) va diaxroniya (har vaqtlik) o‘zaro munosabatda, buning biri ikkinchisini tamoman rad etadi. Demak, sinxroniya bilan diaxroniya bir-biridan farqli bo‘lishga qaramay, o‘zaro aloqador: bular orasida keskin uzilish bor deb qaralmaydi» (o‘sha kitob, 9-bet) shu kabi qarash o‘zbek tilshunosligi taraqqiyotining, shuningdek, morfologiyaga oid keyingi qarashning ilmiy-metodik asosini belgilab beradi.

XX asr o‘zbek tilshunosligi morfologiya sohasining taraqqiyotida yirik olim Said Usmonovning xizmati alohida o‘rin tutadi. S.Usmonov 1953-yilda tilshunos T.Ibrohimov rahbarligida «Hozirgi zamon o‘zbek tilida undovlar» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Bu ish uning morfologiyaga oid dastlabki jiddiy ishi edi. Shundan so‘ng, olimning morfologiyaga oid qator ishi nashr qilindi. «So‘z va uning morfologik strukturasi haqida» alohida qo‘llanma (1957), «Bosh kelishik formasida takrorlangan ning semantik va grammatik xususiyatiga doir» (1957), «Ba’zi fe’l formalari haqida» (1966), «Hozirgi o‘zbek tilida so‘zning morfologik tuzilishi» (1963), «Tillarning

morfologik klassifikatsiyasi va turkiy tillarda agglyutinatsiya» (1963 yil), «So'z yasovchi affiksoid» (1969), «O'zbek tilida so'zning grammatik formalari» (1964), «Hozirgi o'zbek tilida so'z formalarining qo'llanish xususiyati va til tipologiyasi masalasi» (1964), «So'zning morfologik va funksional analizi haqida» (1965 yil) kabilar shular jumlasidan.

S.Usmonovning umuman turkiy tillar, shu jumladan, o'zbek tili morfologiyasi taraqqiyotini belgilab berishdagi barcha qarashi, ayniqsa, uning «Морфологические особенности слова в современном узбекском языка » («Hozirgi o'zbek tilida so'zning morfologik xususiyati») fundamental tadqiqotida o'z ifodasini topdi. Bu ish doktorlik ilmiy darajasini olish uchun yozilgan tadqiqot edi. Ishning birinchi bobi «Tillarning tipologik klassifikatsiyasi va turkiy tillarda agglyutinatsiya» deb nomlangan. S.Usmonov tilni morfologik jihatdan tasniflashga e'tiborning Yevropa tilshunosligida XVIII asr oxirida boshlanganligini qayd etib, aka-uka Shlegel, keyinroq Shteyntal, nihoyat V. Humboldt, Ya.Grimm, A.Shleyxer, A.I.Tomson qarashida bu holatga e'tibor berilganini ta'kidlaydi. Tilni flektiv til va agglyutinativ til tarzida ikki guruhga ajratish, fleksiya hamda agglyutinatsiyaning o'ziga xos jihati bo'yicha barcha qarashni tahlil etgan tilshunos S.Usmonov «agglyutinatsiya» terminini tilshunoslikka birinchi marta Lassen olib kirgan bo'lsa-da, biroq agglyutinatsiya nazariyasini F.Bopp yaratganligini qayd etadi. S.Usmonov, agglyutinatsiyaga yondashishda alohida yo'nalish shakllanganligiga alohida e'tibor qaratadi. Chunki turkiy til morfologiyasiga oid tadqiqotni amalga oshirishda bu masalaga aniqlik kiritilishi juda muhim ekanligi unga ma'lum edi. Agglyutinatsiyaning muhim xususiyati haqida F.Boppdan so'ng, birinchi yo'nalish vakili V.Humboldt o'z qarashini bayon qilib, bu hodisaning 8 ta asosiy xususiyatini ko'rsatib berganligini olim alohida qayd etadi.

Ikkinchi yo'nalish vakili sifatida S.Usmonov Ferdinad de Sossyurni belgilaydi. Ferdinad de Sossyurning agglyutinatsiyaga xos uch xususiyatni ko'rsatib berganligini qayd etadi. Olim agglyutinatsiyani o'zakka ketma-ket (yoki asosga), bir zanjirga bog'lanishning a'zosi, qismi tarzida qo'shimchaning qo'shilib kelishi, shu asosda grammatik ma'noning ifodalanishi tarzida baholangan uchinchi yo'nalish vakillariga alohida e'tibor qaratib, A.Shleyxer, V.A.Bogorodskiy, V.V.Radlov kabi olim qarashlariga o'z munosabatini bildiradi.

Fuziya ko'rinishi o'zbek tilida kuzatilsa-da, biroq bu boshqa tildagi fleksiyaga o'xshamasligi, grammatik ishga aloqador bo'lishi mumkinligini ko'rsatib turib (*son – sana, o'qi – o'quv* kabi), baribir, o'zbek tili so'zi morfologik tarkibida fuziya (fleksiya ko'rinishiga o'xshash keladi)

agglyutinatsiyaga qo'shimcha vosita sifatida mavjud ekanligini S.Usmonov alohida ta'kidlaydi[1].

S.Usmonovning til va nutqqa, so'z, uning til va nutqqa munosabati masalasiga alohida e'tibor berganligi nutq birligi va til birligini ajratishda muhim. Morfema terminining, avvalo, Boduen de Kurtene tomonidan qo'llanganligi, uning mohiyati kabi masala, shu bilan birga, so'zning morfem tahliliga e'tibor qaratadi.

Tilshunoslikda morfemaga nisbatan turlicha qarash mavjud ekanligini ko'rsatib o'tadi. Uning fikricha, asosan ikki xil qarashga birlashtirish mumkin:

a) Boduen, Bogoroditskiy, Gvozdev qarashi;

b) Tomson qarashi.

Bundan tashqari, Yevropa tilshunosligida J.Vandriesning (so'z o'zagini semantema deb ataydi) so'z o'zagini morfemaga kiritmaganligini, morfemani ancha keng tushunganligini, hatto, ohang, so'z tartibi, urg'u, yuklama, ko'makchi va boshqa birlikni ham morfema deb hisoblashni ko'rsatib o'tadi. Morfema haqidagi J.Maruzo, E.B.Agayan, M.D.Fridman, M.I.Мещананov, A.P.Potseluevskiy, R.A.Budagov kabi olimning fikriga, keyinchalik esa V.V.Vinogradov, M.V.Ustinov, A.P.Kuznetsov, O.P.Sunik, F.G.Isxakov, A.A.Polmbax, A.G'.G'ulomov, A.Qosimxo'jaeva kabi olim tomonidan morfemaga nisbatan aytilgan fikriga munosabat bildiriladi.

S.Usmonovning ko'p tahlildan kelib chiqqan holda, morfemani aniqlash, belgilash bo'yicha qarashi quyidagicha bo'lgan:

1) morfema affiks vositasida yasalgan (shakl yasalishi ham nazarda tutiladi) so'zdan ajratiladigan ma'no anglatuvchi eng kichik qismidir;

2) morfema ushbu tilda so'zlashuvchi individning tasavvurida saqlanuvchi ma'no anglatadigan birlik bo'lib, yo yangi so'z yasaydi yoki so'zni turli xil grammatik shaklga kiritgan holda o'zgartiradi;

3) uning so'zlovchi ongida saqlanishi til birligi sifatida mustaqil ajratilishiga olib keladi.

Morfemaning mustaqil holda ajratilishidagi o'ziga xos barcha holat olim tomonidan mukammal bayon qilingan.

S.Usmonovning o'zakka bo'lgan munosabati, bu haqidagi qarashi, o'zakning grammatikaga munosabati, so'zga munosabati; affiksga, morfemadagi ma'nodoshlik (vazifadoshlik ham) va variantlikka, o'zbek tilidagi so'zni morfemada ajratishning o'ziga xos jihatiga, nol morfemaga bo'lgan munosabati; so'zni funksional analiz qilish bo'yicha qarashi; asos, asosning o'zakka va so'zga munosabati, asos turi (leksik asos, morfologik asos,

[1] Юқорида қайд этилган китобнинг II бобига қаранг, 27- бетдан.

sintaktik asos), tub va yasama asos haqidagi qarashi; sodda, qo'shma, juft asos haqidagi fikri; so'z yasovchi, shakl hosil qiluvchi, so'z o'zgartiruvchi affiks bo'yicha fikri, terminga bo'lgan munosabati, barcha qarashi hozirgi kunda ham o'z qimmatini yo'qotgan emas.

S.Usmonov so'zning grammatik shakliga alohida e'tibor qaratdi. Ma'lumki, *morfologiya* aslida grammatik shakl haqidagi ta'limot. So'zshakl, grammatik shakl; sintetik va analitik shakl haqida muhim fikr aytgan olim grammatik ma'no va funksiya bo'yicha so'zshakl ko'rinishini belgilaydi.

So'zshaklning o'zbek tilidagi qo'llanish xususiyatini chuqur o'rgangan S.Usmonov, uning til tipologiyasiga aloqador jihatini ham keng yoritib beradi.

Xullas, yirik turkiyshunos, o'zbek tilshunosligi, ayniqsa, morfologiya sohasi bo'yicha jiddiy tadqiqot olib borgan S.Usmonov o'zining ko'plab tadqiqoti bilan tilshunoslik, jumladan, o'zbek tilshunosligi morfologiya sohasi taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. XX asr ikinchi yarmi o'zbek tilshunosligini, ayniqsa, morfologiya sohasi taraqqiyotini Said Usmonov qarashisiz tasavvur qilish qiyin.

XX asr o'zbek tilshunosligining morfologiya sohasida V.V.Reshetov, Ye.D.Polivanov, A.N.Kononov, S.N.Ivanov, A.M.Sherbakning asari ilmiy-amaliy hamda metodik asos vazifasini o'taydi. Bu borada, albatta, V.V.Reshetovning «O'zbek tili fonetikasi va grammatikasi asosi» (1960) kitobining o'rni alohida ekanligini ta'kidlash zarur.

50- yillarda O.Qosimxo'jayeva, B.Madvaliyev, A.Xo'jayev, Z.Ma'rupov, S.Ferdaus, S.Fuzailov, A.Sulaymonov kabi olim o'zbek tilshunosligi morfologiya sohasi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan bo'lsa, 60-yillarga kelib, A.G'ulomov, A.Borovkov kabi olim bilan hamkorlik qilgan mashhur turkolog A.N.Kononov bu sohada katta ish qildi.

O.Qosimxo'jayevning «O'zbek tilida so'z tarkibi» (1956) monografiyasi, S.Fuzailovning ravish bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasi, A.Sulaymonovning fe'l zamoni bo'yicha, S.Ferdausning fe'l darajasini tadqiq etishga bag'ishlangan ishi, Z.Ma'rupovning «So'z sostavi, ot va sifat» monografiyasi (1956), S.Mutallibovning «XI asr yozma yodgorligida fe'l kategoriyasi» (1955), U.Tursunovning «O'zbek tili morfologiyasi» (hammuallif, 1959) kitobi, E.Fozilovning «Fe'l darajalari yasovchi affkslarning tarixi» maqolasi (1960), «Qadimgi yodgorliklarda son kategoriyasi» (1963), «O'zbek tilining tarixiy morfologiyasi» (1965) kabi ishi, N.Abdullayevning juft so'zga oid tadqiqoti, S.Akbarovning «O'zbek tilida ko'makchi fe'l» (1949), «O'zbek tilida qo'shma fe'l» (1953) tadqiqoti, B.Madaliyevning «Hozirgi o'zbek tilida qo'shma so'z» (1966) monografiyasi, O.Madrahimovning ot va sifat turkumiga oid ishi (1957–1961), shuningdek, A.Matg'oziyevning «XIX asr ikkinchi yarmi o'zbek tili

morfologiyasi» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi, J.Muxtorovning bog'lovchi, fe'l darajasi, o'zbek tili kelishigi tadqiqiga oid, S.Nizomiddinovaning son va olmosh turkumi tadqiqiga doir, O.Usmonov, R.Rasulov, T.Rustamov, M.Sodiqova, F.Ubayeva, Sh.Shukurov, R.Qo'ng'urov kabi yana ko'plab olimning o'zbek tili morfologiyasini o'rganishga oid tadqiqoti ham ana shu davrda yuzaga keldi.

XX asrning 50–60- yilida yaratilgan eng jiddiy ishdan biri akademik A.N.Kononov tomonidan yaratilgan «Грамматика современного узбекского литературного языка» (1960) fundamental asari. Asarning «Morfologiya» qismi o'zbek tili morfologiyasining barcha jihatini qamrab olgan. Asardagi eng muhim jihatdan ayrimini sanab o'tamiz:

1) morfologiyaga oid har bir hodisa to'la qamrab olingan;

2) so'z turkumiga xos barcha xususiyat batafsil va chuqur ochib berilgan;

3) har bir affiksga batafsil to'xtalingan, u haqidagi qarash, etimologiya masalasi, boshqa xususiyati to'la ochib berilgan;

4) so'z yasalishiga alohida e'tibor qaratilgan;

5) har bir hodisaning o'rganilishi bilan bog'liq bo'lgan adabiyot ro'yxati alohida-alohida berilgan;

6) so'z turkumi 12 ta qilib belgilangan.

A.N.Kononovning morfologiya sohasidagi qarashi, shubhasiz, o'zbek tilshunosligi taraqqiyotini boyitdi, yuqori pog'onaga ko'tardi. Morfologiya sohasida qilingan ish ko'lami, qilinajak ish mundarijasini kengaytirdi. O'zbek tilshunosligi morfologiyasi sohasida keyingi davrda qilingan ishga jiddiy ilmiy zamin bo'lib xizmat qilgan A.N.Kononov tadqiqoti hozirgi kunda o'z qimmatini yo'qotgan emas.

Yuqorida nomi zikr etilgan tilshunoslar, ularning morfologiya sohasidagi ishida, albatta, bir tomondan, o'zbek tilining o'ziga xos jihatidan kelib chiqib yaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan Yevropa tilshunosligi yutug'iga tanilgan.

XX asrning 50-60-yillarida o'zbek tili morfologiyasiga oid qilingan ishning natijasi sifatida oliy maktab talabasi uchun 1957-yilda Faxri Kamol tahriri ostida «Hozirgi zamon o'zbek tili» darsligi, keyinroq esa «Hozirgi o'zbek adabiy tili» (1966) darsligi yaratildi. Har ikkala nashr ilmiy grammatika xarakteridagi ish bo'lib, o'sha davrgacha bo'lgan morfologiyaga oid qarash majmuasi sifatida vujudga kelganligini alohida qayd etish mumkin. Shu jihatdan u keyingi bosqichda (70- yillardan 90- yillargacha bo'lgan tilshunoslik bosqichi) yaratilgan jiddiy tadqiqot uchun nazariy manba vazifasini o'tadi, yangi-yangi izlanishning ilmiy asosini tashkil etdi. Til hodisasining nutqda qo'llanish imkoniyatini ochib

berishdek muhim vazifaning bajarilishini ta'minlaydigan metodik qo'llanma sifatida muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbek tilshunosligida so'z turkumining qat'iy belgilanishini, har bir turkumga oid grammatik shakl, grammatik ma'no tizimi, grammatik kategoriyaning mavjudligini asoslab berdi. So'z, so'zshakl, o'zak, negiz, affiks haqidagi qarashga aniqlik kiritdi. So'z yasalishi morfemika sohasining alohida tizim sifatida ajratilishini ilmiy asoslab berdi, shu orqali «Hozirgi o'zbek adabiy tili» kursining bo'limi ajratilishini ta'minladi, o'zbek tilshunosligida, ayniqsa, morfologik stilistikaning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. To'g'rirog'i, morfologik stilistikaning keyingi taraqqiyotini belgilab berdi. Tilshunoslikda sotsiolingvistika, psixolingvistika, u bilan bog'liq holda «Nutq madaniyati va uslubiyat asosi» kursining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Til va nutq hodisa va birligini izchil ajratish, invariant-variantlilikni belgilash, til va nutq hodisasi orasidagi aloqani sathlararo bog'liqlik asosida teran tadqiq qilishga ilmiy zamin, tilshunoslikda yangicha yo'nalish paydo bo'lishiga poydevor bo'ldi.

Demak, 50–60-yillarda morfologiya sohasida qilingan ish o'zbek tilshunosligini jahon tilshunosligining bir qismiga aylantirdi, deyish mumkin.

70-yillarning boshida o'zbek tilshunosligida o'zbek tili morfologiyasini o'rganish bo'yicha juda katta tajriba to'plandi. Tarixiy va hozirgi zamon morfologiyasini o'rganish bo'yicha ham jiddiy tadqiqot yuzaga kelganligi aytildi. Bundan tashqari, Yevropa va jahon tilshunosligida, yirik tadqiqot qilinib, uning barcha yutug'i o'zbek tilshunosligiga tatbiq etila boshladi.

N.A.Baskakov, A.N.Kononov, S.N.Ivanov kabi yirik olimlarning o'zbek tilshunoslari bilan uchrashuvlari, muloqoti natijasi sifatida ham morfologiyaning jiddiy tadqiqotchisi safi F.Kamolov, T.Ibragimov, S.Usmonov, A.G'ulomov kabi qator olimlar bilan kengaydi. A.Hojiyev, M.Sodiqova, R.Qo'ng'urov, I.Qo'chqortoyev, A.H.Sulaymonov («Hozirgi o'zbek adabiy tilidan so'ng ko'makchilar»), G'.Abdurahmonov («Hozirgi o'zbek adabiy tilida substantivatsiya»), J.Muxtorov («Hozirgi o'zbek tilida bog'lovchilar»...), B.O'rinboyev («Hozirgi o'zbek tilida vokativ kategoriya»), T.Xo'jaev («Hozirgi o'zbek adabiy tilida fe'lning buyruq mayli»), A.Abduazizov, I.Rasulov, X.Komilova, A.Madg'oziyev, K.Nazarov kabi yirik tadqiqotchi, morfologiya sohasining jonkuyarlari ular safidan o'rin olgan bo'lsa, aynan 70-yillar boshidan M.A'lamova, M.Narimonova, M.Jo'raboyeva, Yo.Tojiyev, A.Berdialiyev, T.Mirzaqulov, S.Maxmatqulov, S.Sultonsaidova kabi ko'plab olimlar morfologiya sohasidagi jiddiy ilmiy izlanishni ular safida turib boshlab yubordi.

Akademik A.Hojiyevning «O'zbek tilida ko'makchi fe'l», «O'zbek tilida to'liqsiz fe'l», «O'zbek tilida fe'l» (1966, 1970, 1979) morfologiyasi, R.Qo'ng'urovning «O'zbek tilida tasviriy so'z» (1966), «O'zbek tilida ot stilistikasi» (1983) kabi kitobi, I.Qo'chqortoyevning «O'zbek tilida nutq fe'lining valent tahlili» (1977), N.K.Yoqubovaning «O'zbek tili so'z shaklida affikslar joylashuvi» («Rasstanovka affiksov v uzbekskix slova formax») kitobi 1979-yilda nashr etildi. Bundan tashqari, A.G'ulomov, R.Qo'ng'urov, A.N.Tixonov tomonidan tuzilgan «O'zbek tilining morfem lug'ati» (1977), G'.Abdurahmonov, Sh.Shukurov tomonidan tuzilgan «O'zbek tilining tarixiy grammatikasi» (1973 y.), «XV–XIX asr o'zbek tili morfologiyasi» (1990) qo'llanmasi, H.Ne'matov tomonidan yaratilgan «XI–XII asr turkiy yodnomasining funksional morfologiyasi» (1989), T.Yusupovning «Kelishiklar differentsiatsiyasi» risolasi (1979), Y.Tojiyev tomonidan tuzilgan «O'zbek tilida affiksal sinonimiya» – sifat yasovchi affikslar ma'nodoshligi (1981), 1987-yilda nashr etilgan «Shaxsning yasalishi va shaxs yasovchi affikslar sinonimiyasi» monografiyasi, M.Jo'raboyeva yaratgan «Hozirgi o'zbek adabiy tili. Morfemika. So'z yasalishi. Morfologiya» (1988) qo'llanmasi, shu muallif tomonidan «O'zbek tilida affiksal omonimiya» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasining himoya qilinishi, F.Abdullayev tomonidan «So'z qanday bog'lanadi» (1974) nomi bilan tuzilgan qo'llanmaning yuzaga kelishi va nihoyat, Raz.Rasulov tomonidan «O'zbek tilida yordamchi so'zning semantik-grammatik xususiyati» (1983) kitobining nashr etilishi (hammasini sanab ko'rsatish juda mushkul, chunki jiddiy ilmiy maqolasi, kichik risola yoki avtoreferat shaklida e'lon qilingan ish juda ko'p) ham muhim bo'lgan. Bunga o'zbek tilshunosligida yaratilgan «O'zbek tilining forma yasalishi», «O'zbek tili so'z yasalishi» (A.Hojiyev) kabi maxsus nashr, «O'zbek tilidagi ot yasovchi qo'shma affiks» (A.Berdaliyev, 1973), «O'zbek tilida shakl yasovchi qo'shma affiks (T.Mirzaqulov) kabi dissertatsiyani ham qo'shish mumkin.

Ayniqsa, o'zbek tilshunosligida «O'zbek tili grammatikasi» akademgrammatikasining yaratilishi (1975) o'zbek tili morfologiyasini tadqiq etishning 70-yillardagi eng katta yutug'i bo'ldi. Ushbu akademgrammatika o'zbek tilshunosligida morfologiya sohasida qilingan juda ko'p jiddiy tadqiqotdagi barcha yangi qarashni o'zida mujassam etgan. Unda «So'z yasalishi» alohida qayd etilgan. Affiks, o'zak strukturasi, morfemikaga oid qarash o'z ifodasini topgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu davr o'zbek tilshunosligida morfologiyaga doir tadqiqotga nazar tashlansa, ayniqsa, fe'l turkumi juda keng o'rganilganligi kuzatiladi. Shu bilan birga, ot, uning grammatik kategoriyasi,

sifat, yordamchi so‘z borasida ham sezilarli darajada ish qilingan. Bu davrda yetakchi olimlar diqqatini o‘zbek tili affiksi tizimi o‘ziga tortganligi ham ma’lum: qo‘shma affiks, affiks ma’nodoshligi, shakldoshligi, ko‘p ma’noligi, strukturasi, kelib chiqishi kabilarning o‘rganilishi nazarda tutilmoqda.

Fe’l nisbat shaklini o‘rganish bo‘yicha ancha jiddiy tadqiqot yuzaga keldi. Bu borada S.Sultonsaidova, S.Maxmatqulovning nomzodlik va doktorlik, dissertatsiyasini, M.A’lamovaning «O‘zbek tilidagi fe’lda nisbat kategoriyasi» monografiyasini, R.Rasulov, I.Qo‘chqortoyev, Yo.Tojiyevning fe’l semantikasi, valentligi, fe’lning yasalishi, undagi grammatik kategoriya (o‘timli, o‘timsizlik, tarz kategoriyasi) va uning o‘zaro munosabati masalasi bo‘yicha olib borilgan boshqa tadqiqotni ham sanab o‘tish mumkin. Jumladan, Y.Tojiyevning «O‘zbek tili morfemikasi» (1992) monografiyasi chop etilgan. Ayniqsa, maktab o‘quvchisi uchun B.Mengliyev, B.Bahriddinova tomonidan yaratilgan “O‘zbek tilining so‘z tarkibi o‘quv lug‘ati” (2007), B.Mengliyev, B.Bahriddinova, O‘.Xoliyorov va boshqalar tomonidan yaratilgan “O‘zbek tilining so‘z yasalishi o‘quv lug‘ati” (2008) diqqatga sazovor.

XX asrning 70–90-yillarida morfologik stilistika sohasida (yo‘nalishida) ham ancha jiddiy tadqiqot yuzaga keldi.

O‘zbek tilshunosligida morfologik stilistikaga oid ish asrning 40- yillaridan boshlangan deyish mumkin. Biroq bu sohadagi jiddiy tadqiqot (stilistika so‘zi aytilmagani holda) tilshunos Ayub G‘ulomov tomonidan boshlab berilgan. Uning o‘zbek tilida kelishiklar» (1940), «O‘zbek tilida ko‘plik kategoriyasi» (1944) monografiyasiga nazar solsak, birinchi kitobda o‘zbek tili kelishik shakli stilistik xususiyati ancha jiddiy tarzda chuqur yoritilganligini, ikkinchi kitobda esa, *-lar* affiksining, umuman, bu shaklni olgan so‘zning stilistik xususiyati, uning boshqa xususiyati bilan aloqadorlik holati ancha mukammal tadqiq etilganligining guvohi bo‘lamiz. Olimning bu boradagi ishi, shuningdek, «O‘zbek tilidagi *-dosh* affiksi haqida», «O‘zbek tilidagi *-lar* affiksi haqida», «O‘zbek tilidagi *-lik* affiksi haqida», «O‘zbek tilidagi *-mon* affiksi haqida» kabi maqolasisida hamda kichraytirish-erkalash shakli tadqiqiga oid ishlarda, affiksga bag‘ishlab yozilgan boshqa tadqiqotda o‘z ifodasini topgan. Ana shu ishlar negizida o‘zbek tilshunosligida grammatik stilistika, morfologik stilistika borasida qator ish yuzaga keldi. O‘zbek tilshunosligida fe’l shakli stilistikasi masalasiga 1966-yilda Rahmatilla Qo‘ng‘urov e’tibor qaratdi. Muallifning «Hozirgi o‘zbek tilida chiqish kelishigi qo‘shimchasini olgan so‘zning ayrim stilistik xususiyati» (SamDU asarlari, № 302, 1976, 39–58- betlar) ishi e’lon qilindi. Olim har bir kelishik bo‘yicha shunday ishni amalga oshirgan. R.Qo‘ng‘urov 1976-yilda «grammatik stilistika» maqolasisini e’lon qildi

(Samarqand, 1976, 118–126- betlar). Keyinchalik «Subyektiv baho formalarining semantik-stilistik xususiyatlari», «O‘zbek tili stilistikasining dolzarb masalalari» kabi qator (20 ga yaqin) jiddiy ilmiy maqolasi e’lon qildi. «O‘zbek tilidagi ot yasovchi, shakl yasovchi affiksning semantik-stilistik xususiyati» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

O‘tgan asrning 70-yili boshida M.Sodiqova «Fe’l stilistikasi» (1973) monografiyasini chop etdi. Olima «Hozirgi o‘zbek adabiy tilida sifat» monografiyasida sifatning stilistik xususiyatiga e’tibor qaratdi. Shu tarzda o‘zbek tilshunosligida son, olmosh, yordamchi so‘z, undov va taqlidning stilistik xususiyati ham tadqiq qilindi. Bundan tashqari, o‘zbek tilshunosligida affiksal sinonimiyaga oid 3 ta alohida-alohida monografiya e’lon qilindi (Yo.Tojiyev, 1981, 1987, 1992). Buning hammasi o‘zbek tilshunosligida morfologik stilistika bo‘yicha anchagina ish qilinganligini ko‘rsatadi. 80- yil o‘rtasida ot turkumiga xos barcha shakl yasovchi affiksning semantik-stilistik xususiyati doktorlik dissertatsiyasi darajasida tadqiq qilindi (R.Qo‘ng‘urov).

Badiiy asar – matnning til xususiyati va stilistikasini o‘rganish bo‘yicha qilingan ishda ham morfologik stilistikaga e’tibor qaratildi. Jumladan, B.Yo‘ldoshevning «Said Ahmad asarlari tili va stilistikasi» nomli nomzodlik ishi, shuningdek, boshqa ish yuzaga keldi.

Xullas, XX asrning 70–90-yillarida o‘zbek tilshunosligida morfologiya sathini o‘rganish bo‘yicha ancha jiddiy tadqiqot qilinganligi kuzatiladi. Bu davrda, ayniqsa, morfologik stilistika doirasida ham yangi-yangi tadqiqot boshlab yuborildi. Shunga qaramay, morfologiya sohasida qilingan ilmiy izlanish bu sohada tadqiq etilishi dolzarb bo‘lgan muammo ham ko‘p ekanligini ko‘rsatib, tilshunoslik oldidagi vazifani belgilab berdi. Har bir so‘zshaklning nutqdagi grammatik va pragmatik vazifasini to‘g‘ri belgilash zarurligini, u imkoniyati cheksiz bo‘lishi mumkinligini o‘rganishni taqozo etdi.

Istiqlol hamma fan, hamma soha bo‘yicha jiddiy ilmiy tadqiqot olib borishga keng yo‘l ochdi. O‘zbek tilshunosligini Yevropa, ayniqsa, rus tilshunosligi andozasi ta’siridan chiqardi. Endi o‘zbek tilshunosligi mustaqil tarzda, asosan, o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda til hodisasini baholash yo‘lini tanladi. Albatta, tadqiqot ko‘lami kengaydi.

O‘zbek tilining leksik qatlamini jiddiy tadqiq qilishga alohida e’tibor qaratildi. Bu sohaga yondashuvda erkinlik kayfiyati tug‘ildi, o‘zbek tilining lug‘aviy boyligi istiqlol nuqtayi nazaridan qayta ko‘rib chiqildi. O‘zbek tilining yashirin boyligi ochib berildi (M.Mirtojiyev, N.Mahmudov. «Til va madaniyat», –T., 1992). 80-yillar oxirida hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlami tahlil qilingan bo‘lsa (E.Begmatov, “O‘zbek tilining leksik qatlamlari”, -T.,1985),

O‘rta Osiyo va Qozog‘iston turkiy tillari leksikasidan tadqiqotlar ham yuzaga keldi (I.Ismoilov, K.Meliyev, M.Saparov), XX asr oxiri va XXI asr boshida ham bu sohada ancha ish qilinganligi ma’lum. Jumladan, A.J.Omonturdievning «Professional nutq leksikasi» (–T., 2006 y.), X.Jabborovning «O‘zbek tilining sug‘orish leksikasi» (–Qarshi, 2004), A.Ibrohimovning «Bobur devoni tilidagi o‘zlashgan qatlam» (–T., 2006), A.Omonturdiyevning «O‘zbek tilining qisqacha evfemik lug‘ati» (–T., 2006), S.Rustamiyning «Devonu lug‘atit turk»dagi lingvistik atamalar» (–T., 2006), M.Olimovning «Boburnoma»da qo‘llangan sinonimlar lug‘ati» (–T., 2004), frazeologizm bo‘yicha B.Yo‘ldoshev, A.Mamatov tadqiqotini, shuningdek, R.Rasulov va boshqa olimning anchagina ishini aytish mumkin. Shu tarzda sintaksis, uslubiyat sohasida ham ko‘pgina tadqiqot yuzaga keldi. Nutq madaniyati va uslubiyati sohasiga alohida e’tibor qaratildi. R.Qo‘ng‘urov, E.Begmatov va Yo.Tojiyev tomonidan o‘zbek tilida ilk bor «O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyati asosi» darsligi tayyorlanib nashr qilindi (–T., 1992), Z.Xolmonovaning «Boburnoma» leksikasi» kitobi (–T., 2007) kabi boshqa ish ham nashr etildi.

Nutq madaniyati bilan bog‘liq me’yor masalasi jiddiy o‘rganila boshlandi. Bu borada E.Begmatov va A.Mamatov tomonidan yaratilgan «Adabiy norma nazariyasi» (–T., 1997, 1998, 2000) qo‘llanmasining hamda S.Karimov tomonidan «Til ta’limi va me’yor» (–T., 2003), Yo.Tojiyev va M.Mallaboyev tomonidan «O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyati asosi» (–T., 2006) qo‘llanmasining yaratilishi, shu tarzda boshqa ko‘pgina ishning yuzaga kelganligini mamnuniyat bilan aytish mumkin.

Morfologiya sohasida N.Mahmudov, A.Nurmonov va boshqalar tomonidan «Nazariy grammatika» («Morfologiya», «Sintaksis»), R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyevava boshqalar tomonidan substansial yo‘nalishda asosida “Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Morfemika. So‘z yasalishi. Morfologiya” qo‘llanmasi va boshqa darslik hamda qo‘llanmaning nashr etilganligi, albatta, diqqatga sazovor. «O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalasi», «Ayub G‘ulomov va o‘zbek tilshunosligi» nomi bilan ko‘plab ilmiy to‘plam e’lon qilinganligini ham mamnuniyat bilan qayd etish mumkin. O‘zbek tilshunosligida Ayub G‘ulomov ilmiy merosini qayta nashrga tayyorlash, noyob manbadan tilshunoslarni bahramand qilish borasida ish boshlab yuborildi. Hozirgacha «Ayub G‘ulomov ilmiy merosi» ruknida 4 ta kitob nashr etildi. Shuningdek, R.Rasulovning «O‘zbek tili fe’lining ma’no tuzilishi» (2005) qo‘llanmasini, Z.Siddiqov tomonidan ko‘ruv fe’lining turk tilidagi shunday fe’l bilan qiyosan o‘rganilganligini aytib o‘tish zarur. J.Yoqubov tomonidan «Modallik kategoriyasining mantiq va tilda ifodalanishining semantik xususiyati» (2005)

monografiyasining yaratilishi, J.Eltazarovning «So‘z turkumlari paradigmasidagi o‘zaro aloqa hamda ko‘chish hollari” (2006), T.Mirzaqulovning «O‘zbek tili morfemikasining lingvistik asosi» (1994), «O‘zbek tili morfem paradigmatikasi va sintagmatikasi» (1994), Yo.Tojiyevning «Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Grammatika. 1- qism. Morfemika» (1999) qo‘llanmasi, M.Mirtojiyevning «O‘zbek tilida fe’l valentliklari» (2007), O.Bozorovning «O‘zbek tilida darajalanish» (1995) qo‘llanmasi, A.Hojiyevning «O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi» (2007), M.Jo‘raboyevaning «O‘zbek tili morfologiyasi. Fe’l» qo‘llanmasi (1999), S.Muhammedovaning «Harakat fe’li asosida kompyuter dasturlari uchun lingvistik ta’min yaratish (2006) qo‘llanmasi kabi ish, Sh.Shahobiddinovaning “Grammatik ma’no talqini xususida” mavzusidagi nomzodlik (1994), “O‘zbek tili morfologiyasi umumiylik-xususiylik dialektikasi talqinida” mavzusidagi doktorlik (2000), B.Mengliyevning “Morfologik vositaning ma’noviy xususiyati va sintaktik imkoniyati” mavzusidagi nomzodlik (1996), “Lisoniy tizim yaxlitligi va unda sathlararo munosabatlar” mavzusidagi doktorlik (2002), B.Bahriddinovaning “O‘zbek tilida fe’l lug‘aviy shakli” mavzusidagi nomzodlik (2002), O.Shukurovning «Harakat tarzi shakli paradigmasi» mavzusidagi nomzodlik (2005), N.Musulmonovaning “Grammatik shaklda kategorial va nokategorial ma’no” mavzusidagi (2007) nomzodlik dissertatsiyasi, albatta, o‘zbek tili morfologiyasini tadqiq etishga bevosita aloqador. Biroq, hali vazifa ko‘p. O‘zbek tili morfologiyasi tizimida o‘rganilishi juda dolzarb bo‘lgan muammo o‘z tadqiqotchisini kutmoqda. Jumladan, qo‘shma fe’l va ko‘makchi fe’l munosabati, umuman, qo‘shma so‘z va birikma munosabati, har bir affiksning ko‘p ma’noliligi va ko‘p vazifaliligi masalasi, so‘zshakl masalasi, grammatik ma’no va lug‘aviy ma’no munosabati muammosi, affiks tasnifi, so‘z turkumi tasnifi, so‘z yasalishida ichki yasalish va tashqi yasalish muammosi, qo‘shma so‘zning yasalishi, qo‘shma affiks, o‘zak kengayishi kabi ko‘plab boshqa masalalar jiddiy tadqiq qilinishi zarur. Shevalar morfologiyasi deyarli jiddiy o‘rganilgan emas. Morfologik umumiyliklarning nutqiy voqealanishi va unda shaxsiy hamda ijtimoiy omil muammosi kun tartibiga chiqmoqda.

Shunday qilib, o‘zbek tilshunosligida morfologiya sohasi o‘zining munosib taraqqiyot tarixiga ega bo‘ldi. Ayniqsa, o‘zbek formal (an’anaviy) morfologiyasining davomi sifatida shakllangan substansial (formal-funksional) morfologiya o‘zbek tilining grammatik qurilishini o‘rganish borasida tadqiq metodologiyasi, metodikasi, tamoyili va o‘rganish predmetining o‘ziga xosligi bilan to‘la ma’noda yangi yo‘nalish sifatida shakllanib ulgurdi.

3-§. Substansial morfologiya va uning tadqiq tamoyillari

Substansiallik falsafiy-metodologik tamoyili haqida. Narsa va hodisalarni o'rganish* jarayoni ikki zaruriy bosqichda kechadi. Birinchisi sezgilar orqali fahmiy bilish bo'lib, ikkinchisi aqliy (idrokiy) bilishdan iborat[1]. Borliqni o'rganishning ikki bosqichda sodir bo'lishi gnoseologiyada ommaviy tan olingan qarash desak xato bo'lmaydi. Borliqni bilishning bu ikki bosqichi falsafiy metodik adabiyotlarda *empirik* va *ratsional*, *fahmiy* va *idrokiy*, *hissiy* va *nazariy* kabi o'ndan ortiq xilma-xil atamalar bilan nomlansa-da,[2] mohiyatan bu ikki bilish bosqichi orasida farq juda sodda: birinchisi, fahmiy-hissiy – sezgi uzvlari – ko'rish, sezish, tuyish va hatto tushunish, qabul qilish orqali hosil qilingan bilimlarni mutlaq haqiqat deb bilsa, ikkinchisi, idrokiy (aqliy) bilimlar (ko'rgani, sezgani, eshitgani, tuygani) – mohiyat bo'lmay, qandaydir boshqa bir hodisaning yuzaga chiqish shakli, bir umumiylikning xususiy ko'rinishi, biror imkoniyatning tasodifiy voqealanish ko'rinishi yoki bevosita kuzatishda berilmagan muayyan sababning oqibati deb biladi. Ikkinchi yo'nalish fahmiy bilimlardan, ularning shakl moddiyligidan uzilib, aqliy yo'l bilan hodisalar zamirida yotgan asosni, mohiyatni munosabatlar asosida ochishga intiladi. Shunga ko'ra, fahmiy usul tasvirlasa, idrokiy usul tasvirlanganlarning mohiyatini ochadi. Odatda, fahmiy-hissiy ma'lumot idrokiy usul bilan ochiladigan mohiyatni to'sib, qorong'ilashtirib turadi. Zero, mutafakkir Alisher Navoiy "Lison ut-tayr"da bu ziddiyatni "Qosir etdi fahmdin idrokni" kabi juda ixcham iborada mujassamlashtiradi. Fahmiy jarayonda narsadagi bevosita kuzatishda berilgan turli jihatlar tasvirlanadi.

Fahmiy (zohiriy, hissiy, tashqi) bilimlar insonning sezgi a'zolari vositasida hosil qilinadi. Fahmiy bilish orqali tilshunos til birliklarining tashqi his qilib bo'ladigan belgi-xususiyatlari haqida bilimga ega bo'ladi. Bilishning bu usulida bevosita kuzatishda berilgan nutqiy birliklar tasvirlanadi, har bir xususiyati izohlanadi. Boshqacha aytganda, bilishning bu bosqichida mohiyati

*Бу ерда *нарса* ва *ҳодиса* деганда моддий ва руҳий оламда мавжуд бўлган ва илмий тадқиқ манбаи бўла оладиган истаган турдаги – оддий моддий воқелик (чунончи, қўлимизда ушлаб турган муайян *китоб*), унинг онгимиздаги ва воқеликдаги умумий шакли, атрибутлари, алоқа ва муносабатлари – фалсафий нарса тушунилади. Исталган қуршовда бу атама "тадқиқ манбаи", "ўрганиш объекти" билан алмаштирилиши мумкин.

[1] Хайруллаев М., Ҳақбердиев М. Мантиқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 304 б.

[2] Андреев И.Д. Диалектическая логика. – Москва: Высшая школа, 1985. – 367 с.; Кедров Б.М. Единство диалектики, логики и теории познания. - Москва: Наука, 1963. - 295с.; Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Фан, 1993. – 30 б.; Ne'matov H., Hamroyeva Sh. Lingvistik tadqiqot metodikasi, metodologiyasi va metodlari.–Buxoro:BDU, 2005.–98 b.; Панфилов В.З. Философские проблемы языкознания. Гносеологические аспекты. – Москва: Наука, 1977. – 287 с.; Туленов Ж., Ғафуров З. Фалсафа. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. -384 б.; Хайруллаев М., Ҳақбердиев М. Мантиқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 304 б.

hali aniq bo'lmagan butunlik ilmiy bilish maqsadida qismlarga ajratiladi. Asosiy diqqat-e'tibor ajratilgan qismlarning ichki va tashqi holatlarini sezilib turgan belgilari asosida bilib olishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, fahmiy bilish usulida nutq tovushlarining fonetik xususiyatlari, fonetik o'zgarishlar, orfoepik me'yorlar, so'z va qo'shimchalarning nutqiy ma'nolari, so'z birikmalari hamda gap turlari, ularning qo'llanilishi, ma'no xususiyatlari tasvirlangan.

"Fahmiy bilimlar istalgan fanda, jumladan, tilshunoslikda beqiyos ahamiyatga ega. Ular barcha turdagi nazariy ishlar uchun zamin, moddiy asosdir"[1]. Ammo bunday turdagi ilmiy faoliyat tilni, uning haqiqiy mohiyatini chuqur anglashga hamma vaqt ham imkon bera olmaydi. Fahmiy bilimning bir yoqlamalik xususiyatini, hissiy bilishda biluvchining narsani butunlikda ko'ra olmasligini, boshqacha qilib aytganda, haqiqatni bilishga intilgan idrokka juzv (qism)ni tasvirlovchi fahm (hissiy bilish) to'sqinlik qilishini Alisher Navoiy o'zining "Lison ut-tayr" dostonining fil tasviriga bag'ishlangan hikoyasida yuksak mahorat bilan tasvirlaydi[2]. "Ko'rlar va fil hikoyati"da keltirilgan ko'rlarning fil haqidagi bilimlari, ya'ni ojizlik yuzasidan fil to'g'risidagi nomukammal tasavvurlari – barchasi to'g'ri bo'lsa-da, ularning hammasi nuqsonli edi: ularda tartib, munosabat, butunlik mavjud emas edi – ularning bilimi sezish orqali hosil qilingan fahmiy (empirik) bilish mahsuli edi.

Falsafiy-metodologik adabiyotlarda narsani fahmiy o'rganishga zid turgan bilish usuli sifatida **idrokiy (botiniy, ichki, aqliy va b.) bilim** qayd etiladi. Fahmiy bilish, asosan, nutq birliklarini alohidalik, hodisa, voqea va oqibat (qisq. YAHVO) sifatida tahlil va tavsif etsa; umumiylik, mohiyat, imkoniyat va sabab (UMIS) tabiatiga ega bo'lgan idrokiy bilim aniqlangan, tavsiflangan hodisalarning xilma-xillik sababi va qonuniyatlarini, ularning mohiyatini ochishga intiladi. Chunonchi, o'zbek tilida gap egasi eksplitsit (moddiy ifodalanishi)ning shart emasligi haqidagi nazariy xulosa kesim tarkibining morfologik xususiyatlari, ya'ni unda hamisha shaxs-songa ishora mavjudligi bilan necha yillar mobaynida takror-takror o'rganilgan, sistemalashtirilgan gap talqini orqali yuzaga kelgan. Yoxud kelishiklarning "oldingi so'zni keyingi so'zga bog'lash", egalik shakllarining "keyingi so'zni oldingi so'zga bog'lash", ravishdoshlarning "fe'lni fe'l bilan bog'lash" kabi umumlisoniy mohiyati fahmiy bilishda tasvirlangan, izchil o'rganilgan misollar asosida keltirib

[1] Ne'matov H., Hamroyeva Sh. Lingvistik tadqiqot metodikasi, metodologiyasi va metodlari. – Buxoro:BDU, 2005. – 98 b.; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр (насрий баёни билан). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – 464 б.

[2] Алишер Навоий. Лисон ут-тайр (насрий баёни билан). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – 464 б.; Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 12-жилд. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 7.

chiqarilgan. Hissiy va idrokiy bilimlarni farqlashda eng asosiy tamoyillardan biri bevosita kuzatishda berilganlik va bevosita kuzatishda berilmaganlikdir.

Bevosita kuzatishda berilganlik, ya'ni narsa zohiriy belgisining aniqligi, ma'lumligi fahmiy bilishning asos jihatidir. Idrokiy bilish uchun esa asos bo'ladigan tomon – narsaning munosabatlar tizimi, butun ichida bo'lakning o'rni, narsaning mazmun, vazifa, munosabat tomonidir, ya'ni *bevosita kuzatishda berilmagan*, aqliy tahlil va umumlashtirish bilan ochiladigan xususiyatlaridir.

Fahmiy bilimlar narsa (YAHVO) ning o'zi va zohiriy xususiyatlari haqida ma'lumot bersa, idrokiy bilimlar YAHVOning mavjudligi asoslarini, sabab va qonuniyatlarini ochadi. Shuning uchun YAHVO hamisha UMISni to'sib, uni qorong'ilashtirib turadi. Mir Alisher Navoiy «Qosir etdi fahmdin idrokni» deb yozganida mana shuni nazarda tutgan. Ulug' mutafakkir «Lison-ut tayr» muqaddimasida mazkur misra bilan kitobxonni o'z asarini o'qish va uqishga tayyorlayotgan bo'lsa, asarning oxirgi qismlariga kelib:

Onglakim, so'z o'zga ma'no o'zgadur,
Ma'no ongmas, shog'il ulkim so'zgadur[1],

deb yozadi, ya'ni fahmiy va idrokiy bilimlar orasidagi ziddiyatni ta'kidlaydi.

Fahmiy va idrokiy bilimlar hech vaqt bir-birini inkor etmaydi – ularning orasida keskin chegara qo'yib bo'lmaydi; ular o'zaro bog'liq bo'lib, biri ikkinchisi asosida rivojlanadi, bir-birini to'ldirib boradi. Lekin ilm-fan, xususan, falsafada holat tamoman o'zgacha. Metodologik asosi fahmiy bilimlar hosil qilishga xoslangan ilmiy-falsafiy yo'nalishlar (oddiy/intuitiv, vulgar) materializmning empirizm, empriokritsizm, sensualizm, nominalizm va shu kabi ko'rinishlari) va asosiy e'tibori idrokiy bilimlar hosil qilishga qaratilgan yo'nalishlar (idealizmning turli yo'nalishlari) hamisha biri ikkinchisini inkor etib kelgan. Hozirgi kunda, jumladan, zamonaviy o'zbek tilshunosligida ham shu kabi munozaraning mavjudligi, bunday munozaralarning o'zagi – metodologik, ilmiy-falsafiy asoslari ustida bir oz bo'lsa-da, to'xtalib o'tish zarurligini taqozo qiladi. Shuning uchun quyida qisqacha narsaga yondashishning fahmiy va idrokiy usullari haqida fikr yuritiladi.

Narsaga yondashishda metodologik xilma-xillik. Falsafiy-metodologik adabiyotlarda narsani fahmiy o'rganish usullariga xoslangan falsafiy-metodologik yo'nalishlar sifatida *sensualizm, empirizm, realizm, atomizm, fenomenalizm, empriokritsizm* kabilar ko'rsatiladi. Bular materialistik yondashishning oddiy usullari bo'lib, narsaga **mustaqil barqaror alohidalik**

[1] Алишер Навоий. Лисон ут-тайр (насрий баёни билан). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – 464 б.

sifatida yondashish bilan birlashadi. Materialistik yondashuv bevosita kuzatishda berilgan narsa voqelikda qanday mavjud bo'lsa, ularni xuddi shunday tasvirlashga asoslanadi. Uning turli yo'nalishlari mana shu bevosita kuzatishda berilgan narsa-hodisaning turli tomonlariga alohida e'tibor qaratish bilan bir-biridan ajralib tursa-da, bevosita kuzatishda berilgan ma'lumotlarni haqiqat deb bilganligi bilan birlashadi. Chunonchi, **atomizm** ("alohida zarra") – narsa, materiya tuzilishining fizikaviy-kimyoviy asosiga tayanadi. **Sensualizm** (lotincha *sensus* – his, sezgi) – gnoseologiya sohasidagi ta'limot bo'lib, u sezgini bilishning birdan- bir manbayi sifatida e'tirof etadi. Sezgilar bilish jarayonining boshqa tomonlari bilan, ya'ni tajriba va abstrakt tafakkur bilan uzviy birlikda bo'lgan taqdirdagina bilishning zarur tomoni bo'lishi mumkin.

Bu falsafiy yo'nalishlarga qarama-qarshi o'laroq, *ratsionalizm, funksionalizm, strukturalizm, semantizm* kabi yo'nalishlar shakllangan. Bu yo'nalishlarda narsa haqida idrokiy bilim hosil qilish bosh maqsad qilib qo'yiladi. Narsa haqida idrokiy bilim uning o'zga aloqadorlari bilan munosabatlari, uning butun tarkibida tutgan o'rni, vazifasini ochib berish, ya'ni narsaga **dialektik** yondashish asosida hosil qilinadi. Dialektik yondashuv asosida hosil qilingan bilimlar fahmiy usul bilan aniqlangan, tavsiflangan va sistemalashtirilgan hodisalar rang-barangligining sababini ochib berishga asoslangan bo'ladi. Dialektik yondashuv nominalistik yondashuvning davomi, ya'ni nominalistik yondashuv dialektik yondashuvni taqozo qiladi. Fandagi bu bog'liqlik quyidagi fikrda aniq asoslab berilgan. "Insoniyat tarixida fanlar taraqqiyoti dialektikasi shuni ko'rsatadiki, har bir fanning taraqqiyoti uzluksiz "empirik – dialektik – empirik – dialektik" zanjirdan iborat... Avvalo, narsa jonli mushohada, bevosita kuzatish vositasida o'rganilib, uning xususiyatlari, qirralari, tomonlari aniqlanadi, natijada bu xususiyatlar, dalillar, hodisalar to'planadi, saralanadi; idrokiy, aqliy, dialektik tahlil usullariga o'tish ehtiyoji paydo bo'ladi"[1].

Substansiallik falsafaning muhim tushunchasidan biri, u yuqorida aytib o'tilgan ikki xil yondashish – materialistik va dialektik bilish usullarida ikki xil tushuniladi. Materialistik yondashishda substansiallik asosida substantsiya – moddiy borliqqa ega bo'lgan narsa/voqea/hodisaning obyektivligi, haqiqiy ekanligi mutlaqlik sifatida tan olinadi. Dialektik yondashishda esa substansiallik tamomila boshqacha – bevosita kuzatishda berilgan narsa/voqea/hodisalar, belgi-xususiyatlar va munosabatlar majmuasi sifatida ochiladigan va bevosita kuzatishda berilmagan mohiyat sifatida qaraladi. Shuning uchun materialistik-substansial yondashishda narsa moddiylikda muayyan voqealanish holatida

[1] Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Фан, 1993. – 30 б.

tasvirlansa, dialektik- substansial yondashishda narsaning cheksiz shakl hamda holatlarda voqealanishlari zamirida yotgan va shu voqealanishlarning sababi bo'ladigan munosabatlar majmuasi narsaning substansial mohiyati deb tushuniladi. Demak, materialistik-substansial yondashishda substantsiya – bu narsaning o'zi (umumiy yoki xususiyligi ahamiyatsiz), dialektik yondashishda esa substansiallik – narsaning o'zi emas, balki uning o'ziga o'xshash va farqli, lekin aloqador boshqa narsa bilan munosabati majmuasi. Materialistik-substansial yondashish narsaning substansial mohiyatini uning o'zidan keltirib chiqarsa, dialektik-substansial yondashish narsa mohiyatini uning munosabatlaridan keltirib chiqaradi. Falsafiy adabiyotlarda materialistik yondashishning ko'pincha "jo'n" ("naivniy") deb atalishining sababi – shu. Haqiqatan, oddiygina *uyga* so'zshaklini misol sifatida olib ko'raylik. *Uyga* so'zshakli – munosabatlardan ajratilgan alohida birlik, materialistik substantsiya, borliq, mavjudlik. Munosabatlardan ajratilgan bu atomistik, sensualistik moddiy hodisa bizga qanday ma'lumot bera oladi? Minglab matnlarni deskriptiv usul bilan tahlil qilganimizda uning *uy* va *-ga* kabi barqaror butunliklardan iborat ekanligidan boshqa ma'lumotga ega bo'la olmaymiz. Kuzatishlar asosida *uy* va *–ga* ning qanday qurshovlarda kela olishini ham aniqlashimiz va tavsiflashimiz mumkin. Xuddi shunday matnlarning tahlili asosida biz *uy* butunligi o'rnida *kitob, daftar, odam, qiz* kabi barqaror butunliklarni, *uyga* pozitsiyasidagi *-ga* o'rnida esa *-ning, -ni, -da, -dan* butunliklarining kela olishini, ya'ni

uy + ga
daftar + ni
kitob +da
qiz + dan

o'rnini almashtira olishi haqida *uyga, odamga, daftarni, qizga*; shuningdek, *uyni, uydan, odamdan...* kabi qurshovlarda kela olishini ko'rsatib berishimiz mumkin. Lekin "Nima uchun mana shunday qurshovda *uyga* shakli o'rnida *uyda* emas, nima uchun mana bu qurshovda *qizga* shakli qo'llanganligi-yu, *qizda* shakli emas"ligini oddiy fahmiy, matniy, moddiy kuzatishlar asosida tushuntira olmaymiz. Oddiy materialistik substansial yondashish "Nima uchun mana shu holatda *uyga* shaklida ishlatilgan, *uyda* emas" kabi masalani yechib bera olmaydi, chunki bunday yondashish *-ga* mohiyatini, ya'ni uning rang-barang shakl va sharoitda qo'llanish asosi, zamirini ochish mumkin emas.

Dialektik substansial yondashish esa shu narsaning cheksiz shakl va ko'rinish hamda sharoitda voqealanishini, o'zaro munosabatni tahlil qilgan holda, mana shu xilma-xil ko'rinish, shaklda voqealanish sababini ochadi. Dialektik tushunilgan substansiallik "munosabat majmuasi" sifatida qaraladi.

Dialektik gnoseologiyada bilish, o'rganish hamda tadqiq manbayiga yondashish va u haqida dialektik bilim hosil qilishning 16 asosiy tamoyili ajratiladi. Bu tamoyillar falsafiy qarashlarda Aflotun davridan boshlab XX asrgacha xilma-xil shaklda takomillashib keldi va u XIX-XX asrlar falsafasining oliy cho'qqisi sanaladi. Dialektik bilish nazariyasining davr faylasuflari tomonidan ham tan olib kelinayotgan va narsa haqida dialektik ilmiy tushunchani shakllantirishning metodologik asoslari, shuningdek, yadro fizikasidan kosmosga uchish, bug' mashinasidan kompyuter texnologiyasiga o'tish darajasidagi ilmiy-texnikaviy va amaliy inqiloblarning asosi bo'lgan bu tamoyillar sharq falsafasida IX-XIV asrlarda Forobiy, Ibn Arabiy, Ibn Rushd, Hamza Fansuriy kabi faylasuflarning ishlarida shakllantirilgan bo'lsa-da[1], Yevropa ilmiy-falsafiy inqilobi bu metodologik asosni Ibn Rushd, Rene Dekart, Immanuel Kant, Frensis Bekon, Fridrix Hegel orqali oldi va bu dialektik tamoyil talqinida Hegel va hegelchilar talqini zamonaviy oliy cho'qqi. XIX-XX asrlar fanining inqilobiy burilishiga asos bo'lgan bu tamoyillar, jumladan, akademik B.Kedrov boshchiligidagi faylasuflarning katta guruhi tomonidan fanning eng so'nggi yutuqlari asosida takomillashtirildi va besh jilddan iborat "Dialektika – bilish nazariyasi"[2], ikki kitobdan iborat "Dialektika va logika"[3], shuningdek, o'nlab monografiyalarda mufassal sharhlangan[4]. Bu tamoyillar:

Narsaning haqqoniy (obyektiv, mustaqil) alohidalik ekanligi.
Narsa - munosabatlar majmui.
Narsa o'zgarish va taraqqiyotda.
Narsada ichki ziddiyatlar.
Narsa ziddiyat (qarama-qarshilik)lar butunligi sifatida.
Qarama-qarshi tomonlarning voqealanishi.
Analiz (tahlil) va sintez (umumlashtirish) birligi.
Narsa munosabatining o'zga narsalar bilan cheksizligi.
Narsalarning o'z aksiga o'tishi.
Narsa munosabat (aloqadorlik)larining cheksizligi.
Narsa mohiyatida chuqurlashishning cheksizligi.
Narsa aloqadorliklarining cheksiz miqdorda oshib borishi.
Taraqqiyot bosqichida o'tgan bosqichlar takrori.

[1] Степанянц М.Т. Философские аспекты суфизма. – Москва: Наука, 1987. – 190 с.
[2] Диалектика – теория познания. ... об элементах диалектики / Под общей редакцией Б.М.Кедрова. – Москва: Наука, 1968.-512 с.
[3] Диалектика и логика. Законы мышления//Под общей редакцией Б.М.Кедрова. – Москва: Наука, 1962. – 312с.
[4] Андреев И.Д. Диалектическая логика. – Москва: Высшая школа, 1985. – 367 с.; Есперсен О. Философия грамматики. – Москва: изд.-во Иностранной литературы, 1958. – 404 с.; Кириллов В.И. Логика познания сущности. – Москва: Высшая школа, 1980. – 174 с.; Уемов А.И. Вещи, свойства и отношения. – Москва, Наука, 1963.-184 с.

Inkorning inkori natijasida eskiga qaytganday bo'lish.

Mazmunni saqlab, shaklni yangilash.

Miqdoriy o'zgarishlarning sifat o'zgarishlariga o'tishi.

Yuqorida sanab o'tilgan 16 tamoyildan birinchi (narsaning haqqoniy (obyektiv, mustaqil) alohidalik ekanligi), ikkinchi (narsa majmuyi munosabat), uchinchi (narsa o'zgarish va taraqqiyotda), to'rtinchi (narsada ichki ziddiyatlar), beshinchi (narsa ziddiyat (qarama-qarshilik)lar butunligi sifatida), oltinchi (qarama-qarshi tomonlarning voqealanishi) unsuri narsani dialektik o'rganishning substansiallik tamoyiliga yondashganligi bilan aloqador.

1-tamoyil: Narsaning haqqoniy (obyektiv, mustaqil) alohidalik ekanligi tamoyili narsa (obyekt) qanday mavjud bo'lsa, shunday ko'rish va qabul qilishni, narsa mohiyatini bo'laklarga bo'lib emas, balki bir butunlikda anglashni talab qiladi. Narsaning haqqoniyligi uning faqat shakli bilan belgilanmaydi. Narsa mazmuniga obyektiv yondashilgandagina haqiqiy, chin tafakkurga egaligiga hamda narsa mustaqilligiga, alohidaligiga to'g'ri baho bergan bo'lamiz. Bizning tafakkurimiz, ongimizda narsa barcha belgilari bilan tayyor holda "yashasa"gina predmet (narsa) haqqoniylik, alohidalik kasb eta oladi.

Narsani bilish, anglashning yo'li haqida Hegel quyidagi fikrni aytgan: "Познание истины полагается в том, чтобы познавать объект таким, каков он есть как объект, свободным от примеси субъектной рефлексии" ("Obyektni qanday bo'lsa, o'z holida ko'rish – unga mansub bo'lmagan subyektiv qarashlardan ozod obyekt sifatida qarash - haqiqatni anglashdir") [1].

Dialektik bilish nazariyasining asosiy tamoyillaridan biri falsafiy narsa tushunchasidir. Gnoseologiya (bilish nazariyasi)da narsa deganda tadqiqotchidan tashqarida bo'lgan borliq, narsa, predmet, hodisa, voqea, belgi-xususiyat, miqdor, munosabat, holat va hokazolar tushuniladi. Shuning uchun gnoseologik narsa – bu ilmiy-amaliy ishlarda tadqiq obyekti, o'rganish manbayi, tadqiqotchi diqqat markazida turgan istalgan manba. Narsa sifatida tadqiqotchining o'zi bilan uning jismoniy yoki ruhiy holatida sodir bo'ladigan o'zgarishlari ham voqe bo'lishi mumkin. Bu o'zgarish tadqiqotchining o'zida sodir bo'layotganiga qaramay, tadqiqotchi uchun undan tashqarida. Til birliklarini dialektik gnoseologiya asosida o'rganishda har bir lisoniy yoki nutqiy hodisa obyektiv – tadqiqotchidan tashqarida turgan real borliq parchasi sifatida qaralishi va qabul qilinishi lozim. Narsa tadqiqotchining subyektiv qarashlari va munosabatlaridan xoli bo'lmog'i zarur.

[1] Диалектика – теория познания. ... об элементах диалектики / Под общей редакцией Б.М.Кедрова. – Москва: Наука, 1968. - С. 74.

2-tamoyil. Narsa – munosabatlar majmuyi tamoyili narsaning belgi-xususiyatlar yig'indisi sifatida qaralishi bilan xarakterlanadi hamda borliqdagi narsalar doimo bir-birlari bilan o'zaro munosabat(lar)da bo'lishini, muayyan umumiylik, butunlik sifatlari xususiyliklar (tajallilar)da, xususiyliklar esa munosabatlarda yuzaga chiqishini ifodalaydi. Narsani munosabatda ko'ra olish uning haqqoniyligi, obyektivligini belgilaydi. Zero, narsa (predmet)ning xususiyatlari uning boshqa narsalar bilan o'zaro munosabatlarida, aloqadorligida ochiladi, voqealanadi. Narsaning tomonlari va boshqa bir narsa bilan aloqadorligi cheksiz bo'lsa ham, uni to'laligicha o'rganishga bo'lgan harakat u haqidagi ma'lumotlarda yo'l qo'yiladigan kamchiliklarimizning oldini oladi. Borliqdagi narsaga serqirralik xos bo'lib, har bir qirraning yuzaga chiqish, voqealanish o'rni bo'ladi, ya'ni predmet bir vaqtning o'zida mavjud bo'lgan barcha belgi-munosabatlarini to'laligicha yuzaga chiqarolmaydi. Ammo barcha belgi-xususiyatlar unda imkoniyat sifatida yashaydi. Narsa munosabatlar majmui tarzida qaralganda u, albatta, serqirra hodisa sifatida qabul qilinadi va har bir qirrasi boshqa bir narsa bilan munosabatga kirishadi. Narsaning har bir qirrasi asosidagi munosabatlari turli-turli narsalarga aloqadorlik sifatida voqealanadi. Yoki ayni bir narsaga bir qirrasi bilan o'xshash, ikkinchi qirrasi bilan shu narsaning o'ziga zid bo'lishi mumkin. Tadqiqotchi narsaning mana shunday qarama-qarshi tamoyillarini ochishga intilishi lozim.

3-tamoyil. Narsa o'zgarish va taraqqiyotda tamoyili narsaning doimo o'zgarishda, taraqqiyotda ekanligini ko'rsatadi. Masalan, oldimizda noaniq bir o'simlikning urug'i turibdi. Biz uni qanchalik izohlamaylik, uning nima ekanligini aniq ayta olmaymiz. Savolga javob berish uchun undan nima unib chiqishini kutish kerak bo'ladi. Demak, voqelik(narsa)ni har tomonlama ko'rish uchun uning oldingi va keyingi holatlarini e'tiborga olish kerak bo'ladi.

Jamiyatda shaxsning yosh jihatdan o'zgarib o'sib borishi [qiz] → [juvon] → [ayol]; [o'g'il] → [o'smir] → [o'spirin] → [yigit] yoki uy hayvoni [ot]ning o'sish darajasi [qulun] → [toy] → [g'o'non] → [do'non] → [to'lon] narsaning doimiy taraqqiyotda ekanligini ko'rsatadi. Narsa o'zgarish va taraqqiyotda ekan, unda, albatta, oldingi, hozirgi hamda keyingi holat belgilari mujassam.

4-tamoyil. Narsada ichki ziddiyat. Narsaning haqqoniy alohidalik ekanligi unda kechadigan ichki ziddiyatlarni ko'ra olish bilan ham belgilanadi. Ziddiyatlar har qanday o'zgarish va taraqqiyotning negizidir. Narsada ichki ziddiyatlar tamoyili dialektik yondashuvning asosini tashkil etadi. U yoki bu rang-baranglikning mohiyatini bilish shu xilma-xillikning ziddiyatli umumiy asosini topishga olib keladi. Gegel ta'biri bilan aytganda, har qanday tushuncha, umuman olganda, qarama-qarshi tomonlarning birligidir. Predmet (narsa)ni

turli-tuman aloqalarda o'rganish muqarrar ravishda uning ziddiyatliligini ochib berishni taqozo etadi.

Lisoniy tizimda arxaizm va neologizmlarning yonma-yonlashishi hech kimga sir emas. Vaholanki, arxaizmlar o'tmish qoldiqlari, neologizmlar esa kelajak kurtaklaridir. Tilning doimiy o'zgarishda ekanligi tilimiz leksikada keskin ko'zga tashlanadi. Chunonchi, keyingi yillarda *oblast, rayon, partkom, komsomol, kolxoz* kabi yuzlab so'zlar iste'moldan chiqdi, *tadbirkor, fermer, biznesmen, shirkat, broker* kabi qator yangi so'zlar kirib keldi. *Hokim, savdogar, dallol* kabi arxaizmlar (istorizm yoki xronizmlar) bo'lgan qator so'zlar tamoman yangi ma'no va mohiyat kashf etib, qayta "tirildi". Leksikada bo'lgan bunday o'zgarishlarni biz yaqqol sezamiz va osonlikcha aniqlay olamiz. Lekin tilning boshqa sath birliklari – fonema, morfema, sintaktik qurilmalarda ham shunday o'zgarish va taraqqiyot muttasil davom etayotgani holda biz ularni yaqqol ko'ra olmaymiz va xuddi tabiiy hodisalarning turli davrdagi holatlarini solishtirish asosidagina ularda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni qayd eta olganimizdek, fonologik, morfologik va sintaktik birliklardagi taraqqiyotning, o'zgarishlarning turli davr holatlarini qiyoslagan taqdirdagina aniqlay olamiz. Lekin bunday o'zgarishlar til birliklarida uzluksiz sodir bo'layotganligi sababli har bir lisoniy birlikda o'tmish qoldiqlari ham, kelajak kurtaklari ham shu birlikning xilma-xil voqealanishlarida, turli lisoniy hodisalar bilan rang-barang munosabatlarga kirisha olishida namoyon bo'ladi va tilshunos oldida mana shunday holatlarni ochish va to'g'ri baholash mas'uliyati turadi.

Bu dialektik tamoyilga muvofiq istalgan lisoniy birlikka qarama-qarshi tomonlar butunligi sifatida qarash mumkin. Chunonchi, yuqorida keltirilgan banddagi [i] fonemasi [u] bilan o'xshash (torligiga ko'ra) va [a] bilan zid (torligiga ko'ra) munosabatda tursa, ayni zamonda lablanmaganligi bilan lablangan [u]ga zid munosabatda turadi. Yoki *ona* so'zi, bir tomondan, tuqqan volidani atashga ham, hurmat tariqasida yoshi katta ayolga ham va, hatto, erkalash ma'nosida o'zining farzandi (nabirasi)ga nisbatan ham qo'llanishi tabiiy hol. Har uchala qo'llanishda *ona* so'zining ma'nosida qandaydir o'xshashlik bilan ayni zamonda zidlik ham mavjud va bu ziddiyatlar [ona] leksemasining ichki substansial mohiyatiga xoslikdan kelib chiqadi. Tilshunos-tadqiqotchi oldida har bir lisoniy birlikdagi shu kabi qarama-qarshi tomonlarni ochish va tavsiflash vazifasi turadi.

5-tamoyil. Narsa ziddiyat (qarama-qarshilik)lar butunligi sifatida.

Ziddiyatlar butunligi har qanday harakat, taraqqiyot, rivojlanishning asosi bo'lib xizmat qiladi. "Ziddiyatlar butunligi" atamasi ostida qarama-qarshi tomonlarga ega bo'lgan bo'laklarning bir sistemaga birlashuvi hamda ularning

munosabati tushuniladi. Bo'lakka bo'lingan qism ham o'zicha mustaqil butunlik sanaladi. Darhaqiqat, tabiatning o'zi bir turdan ikkinchi turga o'tish, bo'lakdan butun hosil qilish va, aksincha, butunning bo'linishidan iboratdir. Narsa bir-biriga zid bo'lgan belgi-xususiyatlar butunligidan iboratdir.

Oldingi to'rtinchi tamoyilda keltirilgan va sharhlangan har bir hodisada buning yorqin namunasini ko'ramiz. Chunonchi, [u] fonemasining mohiyatini lablanganlik va torlik kabi belgilar butunligi, [ona] leksemasining mohiyatini esa ham tuqqan volidaga, ham hurmat bo'yog'i bilan yoshi katta ayolga, ham erkalash, suyish bo'yog'i bilan ayol jinsidagi shaxsning farzandi yo farzandi tengiga nisbatan mohiyatan zid bo'lgan qo'llanishlarning birligi tashkil etadi. To'rtinchi dialektik tamoyil – narsada qarama-qarshi tomonlarni ochishga intilsa, bu tamoyil o'sha tomonlarni birlashtirishni talab qiladi.

6-tamoyil. Qarama-qarshi tomonlarning voqealanishi tamoyili oldingi to'rtinchi va beshinchi tamoyillar bilan uzviy bog'liqdir, ya'ni narsada mavjud bo'lgan ziddiyatli tomonlar, albatta, voqealanmay qo'ymaydi va voqealanganda har bir tomoni bilan narsa tamoman boshqa-boshqa va, hatto, bir-biriga zid boshqa narsalar bilan aloqadorlikda va munosabatda bo'ladi. Chunonchi, [i] fonemasi bir qirrasini [u] bilan o'xshashlikda, ikkinchi qirrasini shu [u] bilan zidlikda namoyon qilgani yoki [ona] leksemasi [buvi] leksemasi bilan bir jihatdan o'xshashligi, ikkinchi jihatdan farqlanishi, xuddi shunday [ota] leksemasi bilan bir jihatdan yaqinligi, ikkinchi jihatdan zidligida namoyon etgani kabidir. Shunday ayni bir narsaga ham o'xshashlik, ham zidlik belgilari asosida yondashish yoki bir narsaning turli tomonlari asosida turli narsalarga zidlanishi va munosabatlarga kirishishini har bir lisoniy hodisa misolida ochish va sharhlash zarur.

7-tamoyil. Analiz (tahlil) va sintez (umumlashtirish) birligi. Tahlil va umumlashtirish jarayoni voqelikdagi narsaning turli qirralari, xususiyatlarini hamda shu qirralarning o'zaro munosabatlari tizimini aniqlash, qirralarning umumiy tomonini ochish, umumiy tomonning qirralarda namoyon bo'lishini kuzatish bilan bog'liqdir. Narsaning bir tomonini boshqa tomonlaridan ajratgan holda tahlil qilish mumkin bo'lmaganidek, uning turli tomonlarini aralash holatda o'rganish ham mumkin emas. Analiz va sintez bir jarayonning ikki tomonidir. Bu jarayonda narsada bo'lgan ichki ziddiyatlar oydinlashadi.

Narsa qanchalik chuqur tahlil qilinsa, bir tomondan, umumlashtirish uchun zarur ma'lumotlar yig'iladi; ikkinchi tomondan, narsaga haqqoniy (obyektiv) yondashish uchun sharoit tug'iladi. Narsa haqidagi ma'lumot butunlikdan ayirib, munosabatlarsiz olinsa, bunday bilim subyektiv mohiyat kasb etadi. Demak, analiz va sintez bir-biriga bog'liq holatda qarama-qarshi turadi. Analiz

predmet(narsa)ni bo'laklarga bo'lsa, sintez uni qayta birlashtiradi; analiz aniqlikdan uzoqlashtirsa, sintez narsaning haqiqiy umumiy mohiyatini berishga asoslanadi. Chunonchi, kelishik shakllarining xususiy grammatik ma'nolari formal yo'nalishda chuqur va atroflicha tahlil qilindi. Minglab xususiy grammatik ma'nolarga ega bo'lgan kelishik shakllari tizimining kategorial, substansial tabiati "*oldingi so'zni keyingi so'zga bog'lash*" funksiyasi ekanligi tahlil jarayonlarida ochildi. Analizlar sintezlar uchun zaruriy imkoniyat bosqichini o'taydi.

8-tamoyil. Narsa munosabatining o'zga narsalar bilan cheksizligi. Dialektik "narsa–majmui sifot" tamoyili bilan uning to'rtinchi (narsada ichki ziddiyatlar), beshinchi (narsa qarama-qarshiliklar butunligi), oltinchi (qarama-qarshi tomonlarning voqealanishi, mavjudligi) tamoyillari uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini to'ldirsa, o'z navbatida, bu tamoyillar sakkizinchi (narsaning o'zga narsalar bilan munosabatlarining cheksizligi) hamda o'ninchi (narsa aloqadorliklarining cheksizligi) tamoyillar bilan ham aloqadordir. Turli narsalarning o'zaro munosabati aloqadorligini aniqlash orqali biz narsalarda mavjud bo'lgan turli qirralarni, o'ziga xos xususiyatlarni anglagan bo'lamiz.

Narsa boshqa bir narsa bilan munosabatda turganda xilma-xil, cheksiz qobiliyat va imkoniyatlarini yuzaga chiqarishi mumkin. Voqealangan xususiyatlar narsaning yangi ochilgan xossasi sifatida emas, balki uning tabiatida mavjud bo'lgan imkoniyat tarzida qabul qilinishi lozim.

Bu holat tabiat va jamiyatda ham mavjud, ammo til birliklari borasida ular o'zgacha. Borliqning organik va noorganik narsalarida energiyani saqlash fundamental qonuni bo'yicha ona tabiat bergan beminnat qaytarib olinmaydigan imkoniyatlar bularni boshqa narsalar bilan turli-tuman munosabatlarga kirishishiga yo'l ochadi. Masalan, birgina bug'doy urug'ida tabiat yig'gan energiya uni tuproq, suv, inson mehnati, o'g'it kabi qator narsalar bilan aloqaga kirib hosil berishga tayyorlagan bo'lsa, tildagi birliklar kelishik shakllarida ham shunga o'xshash munosabatlarga kirishib ko'plab grammatik ma'nolarni ifodalab kela olishi uchun zamin tayyorlangan.

Rang-barang munosabatlar butunligi bo'lgan narsaning barcha munosabatlarini hech qachon to'liq ochib bo'lmaydi; buning sababi munosabatlarning cheksizligidir. Masalan, qaratqich kelishigi shakli aniqlovchi-aniqlanmish munosabatida, asosan, qarashlilik grammatik ma'nosini (*Karimning kitobi*) ifodalaydi, ammo *-ning* shakli ayrim so'zlarning birikuvida tur-jins (*eshakning urg'ochisi*), butun-bo'lak (*nonning yarmi*), saralash (*olmaning yaxshisi*), ajratish (*talabalarning biri*) kabi ko'plab grammatik ma'nolarni o'zi bog'lab kelgan so'zlar ta'sirida voqealantira oladi. Tadqiqotchilar (chunonchi,

S.S.Mayzel va boshqalar) qaratqich-qaralmishli so'z birikmalarida 40dan ortiq ma'noviy munosabatlarni ajratadilar*. Bunday va boshqa rang-barang ma'nolar matnda yaratilmaydi, balki matnning o'zi qaratqich kelishigi zotida, substansiyasida bevosita kuzatishda berilmagan imkoniyatni yuzaga chiqaradi, xolos.

9-tamoyil. Narsalarning o'z aksiga o'tishi. Narsa bir-biriga zid turgan cheksiz munosabatlarning yig'indisi sifatida hamma vaqt taraqqiyot, o'zgarishda turar ekan, bu holat narsaning o'z aksiga – bir-biriga o'tishi bilan bog'liqdir. Demak, narsa qarama-qarshiliklarning oddiy butunligi sifatidagina emas, balki zid tomonlarning bir-biriga o'tishi bilan ham xarakterlanadi. Chunonchi, yangi, endi uzilgan uzum va chirigan uzum (yoki mayiz) bir-biriga zid munosabatda turadi, ammo bu zidlik – vaqtinchalik. Chunki yangi uzilgan uzum ham (noqulay sharoitda saqlansa) vaqt o'tishi bilan chiriydi, ya'ni o'z zidiga o'tadi. Demak, ushbu tamoyil uchinchi tamoyil (narsa o'zgarish va taraqqiyotda) bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur tamoyilni "xolam" hayotiy misoli bilan ham tushuntirish mumkin, ya'ni "xolam" men uchun "xola"dir. U xolasiga nisbatan – buning aksi – jiyandir. Shuning uchun ayni bir zamon va makonda ayni bir shaxsni birov *xola* deydi, boshqa birov – *jiyan*. Yana bir lingvistik misol: ma'lumki, kelishik shakllari tobe so'zni hokim so'zga bog'lash uchun xizmat qiladi, chunonchi, *Hammaga hurmati baland edi*. Bu gapda jo'nalish kelishigi tobe so'zni (*hammaga*) adresat (harakat yoki predmet, belgi-xususiyat yo'naltirilgan manba) ma'nosi bilan hokim so'zga (*hurmat*) bog'lab kelmoqda. Lekin *Sengadir hurmatim, senga sharafim, qahramon jangchining sodiq bevasi* (A.Oripov) gapida *sengadir* kesim mavqeiyda, ya'ni mutlaq hokim bo'lak pozitsiyasida kelmoqda – o'z ziddiga o'tmoqda. Bunday holatlarda bir-biriga zid ma'no va funksiyada qo'llanilgan jo'nalish kelishigi shakli boshqa-boshqa narsa deb talqin qilinishi lozimmi yoki ayni bir umumiylikning turli xil voqealanishimi? Bu tamoyil mana shunday lingvistik masalalarni yechishga yo'llanma bera oladi.

10-tamoyil. Narsa munosabat (aloqadorlik)larining cheksizligi. Narsaning aloqadorliklari cheksizdir. Bu tamoyil o'n birinchi (narsa mohiyatida chuqurlashishning cheksizligi) tamoyil bilan uzviy bog'langan. Biz narsani qancha ko'p va rang-barang munosabatlarda ko'rsak, uni tadqiq va tavsif qilsak, uning mohiyatiga shunchalik chuqurlasha boramiz. Lekin narsa, uning mohiyati haqida bizning hukm va bilimlarimiz hamisha nisbiydir. Biz hech qachon narsaning mutlaq mohiyatiga yeta olmaymiz. Har bir hodisani chuqurroq

*Табиийки, бу сира ҳам ҳали тўлиқ эмас. Бугунги кунда, масалан, *компьютер дастури* ёки *компьютер дастурчиси* бирикмаларида тамоман янги маъновий муносабатлар вокеланмокда.

predmet(narsa)ni bo'laklarga bo'lsa, sintez uni qayta birlashtiradi; analiz aniqlikdan uzoqlashtirsa, sintez narsaning haqiqiy umumiy mohiyatini berishga asoslanadi. Chunonchi, kelishik shakllarining xususiy grammatik ma'nolari formal yo'nalishda chuqur va atroflicha tahlil qilindi. Minglab xususiy grammatik ma'nolarga ega bo'lgan kelishik shakllari tizimining kategorial, substansial tabiati "*oldingi so'zni keyingi so'zga bog'lash*" funksiyasi ekanligi tahlil jarayonlarida ochildi. Analizlar sintezlar uchun zaruriy imkoniyat bosqichini o'taydi.

8-tamoyil. Narsa munosabatining o'zga narsalar bilan cheksizligi. Dialektik "narsa–majmui sifot" tamoyili bilan uning to'rtinchi (narsada ichki ziddiyatlar), beshinchi (narsa qarama-qarshiliklar butunligi), oltinchi (qarama-qarshi tomonlarning voqealanishi, mavjudligi) tamoyillari uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini to'ldirsa, o'z navbatida, bu tamoyillar sakkizinchi (narsaning o'zga narsalar bilan munosabatlarining cheksizligi) hamda o'ninchi (narsa aloqadorliklarining cheksizligi) tamoyillar bilan ham aloqadordir. Turli narsalarning o'zaro munosabati aloqadorligini aniqlash orqali biz narsalarda mavjud bo'lgan turli qirralarni, o'ziga xos xususiyatlarni anglagan bo'lamiz.

Narsa boshqa bir narsa bilan munosabatda turganda xilma-xil, cheksiz qobiliyat va imkoniyatlarini yuzaga chiqarishi mumkin. Voqealangan xususiyatlar narsaning yangi ochilgan xossasi sifatida emas, balki uning tabiatida mavjud bo'lgan imkoniyat tarzida qabul qilinishi lozim.

Bu holat tabiat va jamiyatda ham mavjud, ammo til birliklari borasida ular o'zgacha. Borliqning organik va noorganik narsalarida energiyani saqlash fundamental qonuni bo'yicha ona tabiat bergan beminnat qaytarib olinmaydigan imkoniyatlar bularni boshqa narsalar bilan turli-tuman munosabatlarga kirishishiga yo'l ochadi. Masalan, birgina bug'doy urug'ida tabiat yig'gan energiya uni tuproq, suv, inson mehnati, o'g'it kabi qator narsalar bilan aloqaga kirib hosil berishga tayyorlagan bo'lsa, tildagi birliklar kelishik shakllarida ham shunga o'xshash munosabatlarga kirishib ko'plab grammatik ma'nolarni ifodalab kela olishi uchun zamin tayyorlangan.

Rang-barang munosabatlar butunligi bo'lgan narsaning barcha munosabatlarini hech qachon to'liq ochib bo'lmaydi; buning sababi munosabatlarning cheksizligidir. Masalan, qaratqich kelishigi shakli aniqlovchi-aniqlanmish munosabatida, asosan, qarashlilik grammatik ma'nosini (*Karimning kitobi*) ifodalaydi, ammo *-ning* shakli ayrim so'zlarning birikuvida tur-jins (*eshakning urg'ochisi*), butun-bo'lak (*nonning yarmi*), saralash (*olmaning yaxshisi*), ajratish (*talabalarning biri*) kabi ko'plab grammatik ma'nolarni o'zi bog'lab kelgan so'zlar ta'sirida voqealantira oladi. Tadqiqotchilar (chunonchi,

S.S.Mayzel va boshqalar) qaratqich-qaralmishli so'z birikmalarida 40dan ortiq ma'noviy munosabatlarni ajratadilar*. Bunday va boshqa rang-barang ma'nolar matnda yaratilmaydi, balki matnning o'zi qaratqich kelishigi zotida, substansiyasida bevosita kuzatishda berilmagan imkoniyatni yuzaga chiqaradi, xolos.

9-tamoyil. Narsalarning o'z aksiga o'tishi. Narsa bir-biriga zid turgan cheksiz munosabatlarning yig'indisi sifatida hamma vaqt taraqqiyot, o'zgarishda turar ekan, bu holat narsaning o'z aksiga – bir-biriga o'tishi bilan bog'liqdir. Demak, narsa qarama-qarshiliklarning oddiy butunligi sifatidagina emas, balki zid tomonlarning bir-biriga o'tishi bilan ham xarakterlanadi. Chunonchi, yangi, endi uzilgan uzum va chirigan uzum (yoki mayiz) bir-biriga zid munosabatda turadi, ammo bu zidlik – vaqtinchalik. Chunki yangi uzilgan uzum ham (noqulay sharoitda saqlansa) vaqt o'tishi bilan chiriydi, ya'ni o'z zidiga o'tadi. Demak, ushbu tamoyil uchinchi tamoyil (narsa o'zgarish va taraqqiyotda) bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur tamoyilni "xolam" hayotiy misoli bilan ham tushuntirish mumkin, ya'ni "xolam" men uchun "xola"dir. U xolasiga nisbatan – buning aksi – jiyandir. Shuning uchun ayni bir zamon va makonda ayni bir shaxsni birov *xola* deydi, boshqa birov – *jiyan*. Yana bir lingvistik misol: ma'lumki, kelishik shakllari tobe so'zni hokim so'zga bog'lash uchun xizmat qiladi, chunonchi, *Hammaga hurmati baland edi*. Bu gapda jo'nalish kelishigi tobe so'zni (*hammaga*) adresat (harakat yoki predmet, belgi-xususiyat yo'naltirilgan manba) ma'nosi bilan hokim so'zga (*hurmat*) bog'lab kelmoqda. Lekin *Sengadir hurmatim, senga sharafim, qahramon jangchining sodiq bevasi* (A.Oripov) gapida *sengadir* kesim mavqeiyda, ya'ni mutlaq hokim bo'lak pozitsiyasida kelmoqda – o'z ziddiga o'tmoqda. Bunday holatlarda bir-biriga zid ma'no va funksiyada qo'llanilgan jo'nalish kelishigi shakli boshqa-boshqa narsa deb talqin qilinishi lozimmi yoki ayni bir umumiylikning turli xil voqealanishimi? Bu tamoyil mana shunday lingvistik masalalarni yechishga yo'llanma bera oladi.

10-tamoyil. Narsa munosabat (aloqadorlik)larining cheksizligi. Narsaning aloqadorliklari cheksizdir. Bu tamoyil o'n birinchi (narsa mohiyatida chuqurlashishning cheksizligi) tamoyil bilan uzviy bog'langan. Biz narsani qancha ko'p va rang-barang munosabatlarda ko'rsak, uni tadqiq va tavsif qilsak, uning mohiyatiga shunchalik chuqurlasha boramiz. Lekin narsa, uning mohiyati haqida bizning hukm va bilimlarimiz hamisha nisbiydir. Biz hech qachon narsaning mutlaq mohiyatiga yeta olmaymiz. Har bir hodisani chuqurroq

*Табиийки, бу сира ҳам ҳали тўлиқ эмас. Бугунги кунда, масалан, *компьютер дастури* ёки *компьютер дастурчиси* бирикмаларида тамоман янги маъновий муносабатлар вокеланмокда.

o‘rganish uning yangi-yangi qirralarini ochadi hamda yana ham o‘rganish zarur ekanligini, endi yangi, avval xayolga ham kelmagan tomonlarini ochish zaruratini qo‘yadi. Mana shuning uchun ham kishi qancha ko‘p bilsa, bilmagan tomonlarini sezadi. Gyote Faust tili bilan: “Shuncha o‘rgandim, lekin nodon edim, nodonman hamon”, deb bejiz aytmagan. Bu tamoyil o‘rganayotgan narsa haqida bir tomonlama “mutlaq haqiqat” sifatida hukmlar chiqarishda, narsa haqida chiqarilgan xilma-xil fikrlarga nisbatan ehtiyotkor bo‘lishda, mahdudlik bilan o‘z fikriga muvofiq bo‘lmagan o‘zga fikrlarni rad-u inkor etishda hushyor bo‘lishga chorlaydi.

Narsa mohiyatini anglashning chuqurlasha borishi xususiyati haqida Demokrit V asrda quyidagi fikrni aytib o‘tgan: “Haqiqat (mohiyat) chuqur quduqning tubida joylashgan bo‘ladi”.

11-tamoyil. Narsa mohiyatida chuqurlashishning cheksizligi. Bu tamoyilni grammatik ma’nolarni ifodalovchi shakllarda, binobarin, egalik qo‘shimchalariga aloqador bo‘lgan shakl va qurilmalarda kuzatish mumkin (egalik qo‘shimchalarining bunday aloqadorliklari esa deyarli cheksizdir):

Masalan:

Bu mening kitobim.
Bu kitob meniki.
Bu kitobning egasi men (Bu kitobning egasi menman).
Bu kitobning egasiman.
Bu kitob mening mulkim.
Bu kitob mendan.
Bu kitob menga tegishli (qarashli).

Bu yetti sirada ma’lum o‘xshashlik mavjud: barchasi “kitob”ning “men”ga qarashliligini ifodalaydi. Bunday holatlar deyarli cheksizdir va har bir hodisani chuqurroq o‘rganish uning yangi-yangi qirralarini ochadi. Chunonchi, *Bu mening kitobim* gapini yuqorida keltirilgan har bir gap bilan qiyoslasak, uning yangi bir ma’no va vazifa qirrasi namoyon bo‘ladi. Demak, har safar biz narsaning yangi qirrasini ochib, uning mohiyatiga yana ham chuqurroq kirib boraveramiz. Narsaning aloqadorliklari esa cheksiz bo‘lganligi uchun bunday chuqurlashish ham cheksiz davom etaveradi. Chunonchi, egalik qo‘shimchalari kelishik qo‘shimchalari bilan uzviy aloqada. Chunki **kitobim, ukasi** kabi so‘zshakllari qaratqich aniqlovchi bilan bog‘lanadi: **uning ukasi** bir narsa bo‘lsa, **u ukasi** va h.k. tamoman boshqa mohiyatdadir. Bir narsa (egalik)ni qanchalik ko‘p va rang-barang munosabatlarda tadqiq va tavsif qilsak, undagi yangi-yangi qirralarni ochib, *mohiyatida chuqurlasha boramiz.* Bu tamoyil bizni mutlaqlashtirishdan, narsa haqida yangi yoxud nisbatan yangi bo‘lgan fikr va

hukmlarni keskin rad etish (odatda, o‘ylamay-netmay, dabdurustdan «Bunday hukm xato!» deb, «qat’iy hukmlar» chiqarish), yangilikni inkor etishdan saqlaydi, narsa haqidagi bilim(lar)imiz nisbiy ekanligini eslatib turadi, boshqa fikrlarni baholashda ehtiyotkorlikka chorlaydi.

12-tamoyil. Narsa aloqadorliklarining cheksiz miqdorda oshib borishi. Bu tamoyil, o‘z navbatida, o‘n birinchi tamoyil bilan bog‘liqdir. Narsa “munosabat majmui” ekan, bu munosabat, aloqadorliklarni cheklab bo‘lmaydi. U shu qadar chuqurlasha boradiki, ba’zi holda uni ko‘rib bo‘lmaydi. Hatto bir-biriga o‘xshash bo‘lmagan, uzoqda turgandek tuyulgan hodisalar o‘rtasida ham aloqadorlikni his qilish, anglash mumkin, bu esa, haqiqiy (adekvat) bilimga yetaklaydi. Buni oshiq-moshiq (parchin) buyumi bilan “shirin qovun” so‘z birikmalari orasida mavjud bo‘lgan o‘xshashlik (aloqadorlik) asosida tushunish mumkin. Oshiq moshiqqa (yoki moshiq oshiqqa) intilganidek, belgi narsaga, narsa belgiga intiladi va uning birikishi bir butunlikni – oshiq-moshiq hamda so‘z birikmasini beradi. Bu ikki bir-biridan juda uzoqda turgan hodisa orasida ham umumiy, ham aloqador tomonlar mavjud bo‘ladi. O‘zaro birikib, bir butunlik hosil qiladigan har qanday narsa o‘zaro zid bo‘lgan holda bir-birini ham taqozo, ham talab etadi. Jumladan, kompyuterning “monitori” va “protsessori” birlashgandagina bir butunlikni hosil qilishi mumkin. Monitor protsessorsiz, protsessor monitorsiz kompyuterni (butunlikni) tashkil qila olmaydi.

13-tamoyil. Taraqqiyot bosqichida o‘tgan bosqichlar takrori. Biror-bir voqea/hodisa/narsa/mavjudot yo‘qki, u o‘zining zidiga aylanmasa. Mana shu jumla ushbu tamoyil mazmunini belgilaydi. Chunki narsa bora-bora o‘zining birlamchi, ilk ko‘rinishiga ega bo‘ladi. Chunonchi, *urug‘ → o‘simlik → yana urug‘; kapalak → lichinka → yana kapalak* kabi. Demak, narsa haqidagi bilim to‘g‘ri chiziqqa emas, balki spiralsimon (aylana ichida aylana) shaklga qiyoslanishi kerak. Muayyan o‘rinda birlashadigan, kengayadigan yoxud uzoqlashadigan aylana (fikr)lar taraqqiyotdagi narsa (fikr)ni bildiradi. Lisoniy birliklar misolida oladigan bo‘lsak, har bir lisoniy birlikning xilma-xil nutqiy qo‘llanishlarida rang-barang holatlarni – yangi, endi rivojlanayotgan xususiyatlar bilan birga juda qadimgi davr qoldiqlarini ko‘rish mumkin. Jiddiy ilmiy tadqiq narsaning har bir voqealanish xususiyatida bu hodisa yangilik kurtagi yoki hozirgi davr uchun me’yorlashgan holatmi yoinki o‘tmish qoldig‘imi – aniqlashi va shu nuqtayi nazaridan turib baholashi lozim. Chunonchi, biz o‘zbek tilida jo‘nalish kelishigining faqatgina shakliy tomonidan *-ga, -g‘a, -a...* kabi bir necha shakllarini uchratamiz, vazifa jihatidan esa unda chiqish kelishigiga zidlikdan (*Maktabga/maktabdan keldi*) unga ma’nodoshlik/variantlilikkacha (*Gapirishga/gapirishdan qo‘rqdi*) bo‘lgan holatlarning guvohi

bo‘lamiz. Bu hodisalardan qay biri jo‘nalish kelishigining o‘tmishi, qay biri kelajak kurtaklari? Qay biri bugunning me’yori? Shuning uchun bu tamoyil bizni narsaning har bir voqealanish xususiyatiga ehtiyotkorlik bilan yondashishni, bir narsada ko‘p holatlarni, ya’ni ko‘p narsani ko‘rishni talab qiladi va bir narsani faqat shakl yoki faqat mazmun jihatdan bir tomonlama baholashdan saqlaydi.

14-tamoyil. Inkorning inkori tamoyili tilimizda juda ko‘p tarqalgan ayni bir shakl (hodisa)da qarama-qarshi ma’no va vazifalarni, chunonchi, yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, jo‘nalish hamda chiqish kelishiklarida antonimlik va sinonimlikni sharhlashda hamda baholashda metodologik ahamiyat kashf etadi. O‘zbek tilida mohiyatan o‘zaro zid ma’noli (morfologik antonim) bo‘lgan chiqish va jo‘nalish kelishigi shaklining gapirishga qo‘rqdi – gapirishdan qo‘rqdi holatidagi ma’nodoshligi (morfologik sinonimligi) shu qonun bilan izohlanadi.

O‘n uchinchi (taraqqiyot bosqichida o‘tgan bosqichlar takrori), o‘n beshinchi (mazmunni saqlab, shaklni yangilash) va o‘n oltinchi (miqdoriy o‘zgarishlarning sifat o‘zgarishlariga o‘tishi) tamoyili bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Dialektikadagi shakl-mazmun simmetriyasi va asimmetriyasi (15-tamoyil) qonuni til hodisalarida ham o‘z aksini topadi[1]. Tilda mavjud bo‘lgan ma’nodoshlik, shakldoshlik hodisalari shu qonun bilan belgilanadi. 16-tamoyilni darajalanuvchi (graduonimik) qatorlarda kuzatish mumkin: *emakladi ~ yurdi ~ chopqilladi ~odimladi~ chopdi ~ yugurdi ~ yeldi* kabi.

Yuqorida bayon qilingan tamoyillar istalgan hukmda namoyon bo‘ladi. Narsaga, o‘rganilayotgan til hodisasiga shu tamoyillar asosida yondashilsa, u haqda aniq ma’lumot to‘planiladi. Substansial yondashuvda shu tamoyilga tayanib til hodisasi tadqiq qilinadi.

Substansial yondashish zamonaviy grammatik ta’limotda metodologik ahamiyatga ega bo‘lganligi uchun bugungi kunda u tez ommalashmoqda.

Sharq tasavvuf falsafasidagi *zot* va *tajalli* atamalari g‘arb gnoseologiyasidan *substansiya* va *aktsidensiya* shaklida o‘rin olib, bilish nazariyasining markaziy tushunchalaridan biriga aylandi. *Zot* va *tajalli* atamalari umumiy (mavhum) va xususiy (muayyan) sistemalarni tadqiq qilishning tasavvufiy metodologiyasi vazifasini o‘taydi. Chunki lison va lisoniy birliklar, zot, nutq va nutqiy birliklar tajallining muayyan shaklda namoyon bo‘lishidir. Shu boisdan zot xossalari asosida umumiy sistema, tajalli xususiyatlari asosida xususiy sistema idrok etilishi ularning metodologik ahamiyatini ko‘rsatadi.

[1] Карцевский С. Асимметрический дуализм лингвистического знака. – Москва: Наука, 1970. – С. 85-90.

Yuqoridagi tahlillar narsa cheklanmagan belgi-xususiyatdan iborat ekanligi, narsaning haqiqiy mohiyati uni turli xil tarkibiy qismlarning bog‘lanishidan hosil bo‘lgan yaxlit bir butunlik (zot) sifatida qarab tahlil etgandagina ochilishi mumkinligi to‘g‘risidagi xulosani beradi. Shu boisdan borliqdagi narsa va hodisani har tomonlama o‘rganish, uning tub mohiyatini ochish ehtiyoji natijasida fanda, falsafada zot, substansiallik tushunchasi paydo bo‘lgan. Zot tushunchasi haqida manbada quyidagicha o‘qiymiz: “Zot (substansiya) ichki birligi tomonidan qaraladigan obyektiv borliq, o‘zining har xil o‘zgarishiga nisbatan befarq, ammo shu o‘zgarish hisobiga yashaydigan, barcha shakli va harakati aspektidagi materiya; bu harakatda paydo bo‘luvchi farq va qarama-qarshilik”.[1]

Zot o‘zining tajallilari (refleksiya) zamirida yotuvchi umumiylik (mohiyat) bo‘lib, barcha ko‘rinishlari uchun yagona asos, manbadir. Yuqoridagi bayondan anglashiladiki, tasavvuf falsafasida borliq, undagi narsa-buyum, voqea-hodisalarning mohiyatini tushuntirishda asoslaniladigan zot va uning yuz berish shakllari bo‘lgan tajalli tushunchalari zamonaviy dialektikaning 16 tahlil tamoyili bilan uyg‘undir, aniqrog‘i, mazkur tamoyillarning manbayi islom va tasavvufdir. Zero, “Borliq nima?” degan so‘roqqa tasavvuf ahli: “Mutlaq zotning– Haqqi mutlaqning tajallisidir,” deya javob beradi. Tasavvufda zot moddiylikdan, muayyan shakldan mutlaqo xoli bo‘lganligi sababli u “majmui asmo va sifot” (ismlar va sifatlar majmuasi) sifatida qaraladi. Ammo zot sifatlarning shunchaki oddiy yig‘idisidan iborat bo‘lmay, ularning yig‘indisidan ham kattadir, hattoki, unga zid ham keladi. Zero, subutiy (barqaror muayyan bir ko‘rinish uchun yetakchi bo‘lgan) belgi va xususiyatlar, sifatlar–ular qanchalik ko‘p ajratilsa, sanalsa-da, zotni tashkil eta olmaydi. Zotning barcha sifatlarini sanashning aslo imkoni yo‘q. Bu fikrni hazrat So‘fi Olloyorning “Sabot-ul-ojizin”[2]da keltirilgan quyidagi misrasi tasdiqlaydi:

Subutiydir aning sakkiz sifoti
Sifat zoti emas, na g‘ayri zot.

Mazmuni: Uning (haqqi mutlaqning) sakkiz barqaror, doimiy sifatlari bor. Ushbu sifatlar uning borligi (zoti, mohiyati)ni tashkil etmaydi, lekin zotga begona (ayricha) ham emas.

Zot sifatlari son-sanoqsizdir. Zot va sifat haqida mir Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” dostonida Hudhud tilidan quyidagi misralarni bitgan:

Birlik oyinida zotidur oning,
Lek mingdan ko‘p sifotidur oning.

[1] Философия луғати. – Б. 457-458.
[2] Сўфи Оллоёр. Сабот ул-ожизин. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1991. – Б. 11.

Ul sifot ofoq aro shoe' bo'lub
Barcha oning zotiga roje' bo'luh.[1]

(Mazmuni: Uning (Haqning) zoti birlik oyinidadir, lekin u mingdan ko'p sifatlarga ega. Undagi bu sifatlar butun dunyoga yoyilgan va olamdagi hamma narsalar zot jihatdan undan kelib chiqadi).

Yuqorida aytilganidek, borliqdagi narsalar doimo bir-birlari bilan o'zaro munosabat(lar)da bo'ladi. Muayyan zot sifatlari tajallilarda, tajallilar esa munosabatlarda yuzaga chiqadi. Zot "majmui asmo va sifot" sifatida qaralar ekan, sifatlar tajallisini ko'p hollarda ko'rib, seza olsak, "asmo"lar faqatgina zotning tajallilari o'rtasidagi va boshqa zotlar bilan o'zaro munosabatlardagina ochilishi mumkinligini hamda ularning kuzatishda berilmaganligini unutmaslik lozim. Munosabatlar va sifatlarning dialektik butunligi zotni tashkil qiladi. Zotning sifat va munosabatlari bir-biri bilan uzviy bog'liq ekan, bunga bir misol yordamida amin bo'lish mumkin: biror buyumning rangi haqida uni boshqa ranglar bilan qiyoslagandagina hukm chiqara olamiz. Chunonchi, rangning qoraligi qora bo'lmagan rangga nisbatan belgilanadi. Demak, narsaning mohiyati o'z yondoshlari bilan bo'lgan munosabatlarda ochiladi[2]. Zotning mohiyati moddiylikda emas, balki uning sifat va munosabatlaridadir. Masalan, [u] ning shakliy xususiyati moddiyligidir, ammo ularning zoti turlichadir:

1. [u] – *men ~sen~ u* qatoriga kiruvchi kishilik olmoshi.
2. [u] – *ham ~hamda~ va ~u* qatoriga kiruvchi teng bog'lovchi.
3. [u] –*bu~ o'sha~ u* qatoriga kiruvchi ko'rsatish olmoshi.
4. [u] – *o' ~o~ i ~e ~u* qatoriga kiruvchi lablangan tor unli.

Ko'ringanidek, to'rtala [u] zoti – moddiy shaklning umumiyligiga qaramay – bir-biridan sifat va munosabat jihatidan tubdan farq qiladi. Demak, zotning substansialligi uning o'zidan, moddiyligidan namoyon bo'lmaydi, balki munosabatlardagina ochiladi. Buni [-gan] sifatdosh qo'shimchasi (*o'qiydigan bola*) va [-gan] kesimlik shakli (*o'qiganman*) misolida; [siz] – kishilik olmoshi va [siz] – shaxs-son qo'shimchasi (*o'qigansiz*) misolida; [-chi] lug'aviy ma'no hosil qiluvchi qo'shimcha (*gulchi*) va [chi] yuklama [*Gul-chi?*] misollarida ham kuzatish mumkin.

Substansial yondashuv zotni "majmui asmo va sifot" sifatida belgilar ekan, sifat va munosabatlari bir xil, moddiyliklari har xil bo'lgan birliklarni bir zotning turli moddiy shakllari deb baholaydi. Chunonchi, tilimizda orttirma nisbat yoxud sifatdosh shakllarining turli variant-ko'rinishlari mavjud. Ular

[1]Алишер Навоий. Лисон ут-тайр (насрий баёни билан). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – 464 б.
[2]Панфилов В.З. Философские проблемы языкознания. Гносеологические аспекты. – Москва: Наука, 1977. – 287 с.

variantlari shaklan bir xil bo'lmasa ham, bitta zotga birlashtirilmog'i lozim. Shakl bir xil bo'lib, sifat va munosabatlari boshqa-boshqa bo'lsa, shakldosh turli zotlar mavjudligi xususida hukm chiqarish mumkin (Buni yuqoridagi tahlillarimiz orqali asoslashga harakat qildik).

Dialektika va tasavvuf gnoseologiyasi asosida shakllantirilgan zot hozirgi davr falsafasida umumiylik sifatida qaraladi. Umumiylik-xususiylik-alohidalik dialektikasi esa hozirgi zamon falsafasining fundamental kategoriyalaridan biridir[1].

Lisoniy birlikning nutqiy voqealanishi, bevosita kuzatishda berilgan shakli va vazifasi xususiylik, alohidalik sifatida qaralsa, bu birlikning nutqiy voqealanishi zamirida yotgan, uning mana shunday qo'llanishi uchun asos bo'ladigan sabab va imkoniyat sanalgan narsa uning umumiyligi – "majmui asmo va sifot" tarzida qaraladigan zoti.

Bevosita kuzatishda berilgan narsa (lisoniy birlikning nutqiy voqealanishi)da shu narsaning o'zini emas, balki uning ostida yotgan, uning shu matnda qo'llanilishiga asos bo'lgan umumiylik (zot) tajallisini ko'rish – borliqni o'rganishga substansial yondashish asosini tashkil qiladi. Empirik (nominalistik) yondashuvda bizning diqqatimiz nima voqealanganligining tasviriga qaratilgan bo'lsa, dialektik-substansial yondashishda tadqiqotchi diqqat markazida narsa ostida yotgan zot shu xususiylikda qanday voqealanganligini ochish va mana shunday xususiyliklarda namoyon bo'lish shakllari hamda ularning o'zaro munosabatlari asosida zotning o'zi haqida majmui asmo va sifot sifatida nisbiy – o'z davrimiz va imkoniyatimiz doirasida – tasavvur hosil qilishdir. Shuning uchun – nominalistik yondashish va dialektik – substansial yondashish bir-biriga zid ayni zamonda bir-birini to'ldiruvchi yondashish: **empirik-nominalistik yondashishda** cheksiz voqelanishda narsaning bir-biridan uzilgan sifati (belgi-xususiyati, munosabati) bir-biridan ajralgan holda voqelansa va tadqiqotchi tomonidan qayd etilsa, idrok, aqliy umumlashma vositasida bu alohida sifat bir zotga mujassamlashtiriladi va sifatning oddiy majmuasidan kattaroq, bo'lgan yangi butunlik – idrokiy zot (substansiya), minglab sifatda voqelangan xususiylikning umumiyligi, hodisaning mohiyati, voqelanishning imkoniyati, oqibatning sababi ochiladi. **Substansial yondashishning** nominalistik yondashishdan farqi shundaki, birinchisi YAHVO (yakkalik, hodisa, voqelik, oqibat)ni sanash bilan cheklansa, ikkinchisi bu YAHVOni UMIS (umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab)ga birlashtiradi va UMIS nuqtayi nazardan YAHVOni tushuntiradi. Mana shunday yondashish narsaga substansial yondashishni tashkil etadi.

[1]Туленов Ж., Ғафуров З. Фалсафа. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. -384 б.

Ul sifot ofoq aro shoe' bo'lub
Barcha oning zotiga roje' bo'lub.[1]

(Mazmuni: Uning (Haqning) zoti birlik oyinidadir, lekin u mingdan ko'p sifatlarga ega. Undagi bu sifatlar butun dunyoga yoyilgan va olamdagi hamma narsalar zot jihatdan undan kelib chiqadi).

Yuqorida aytilganidek, borliqdagi narsalar doimo bir-birlari bilan o'zaro munosabat(lar)da bo'ladi. Muayyan zot sifatlari tajallilarda, tajallilar esa munosabatlarda yuzaga chiqadi. Zot "majmui asmo va sifot" sifatida qaralar ekan, sifatlar tajallisini ko'p hollarda ko'rib, seza olsak, "asmo"lar faqatgina zotning tajallilari o'rtasidagi va boshqa zotlar bilan o'zaro munosabatlardagina ochilishi mumkinligini hamda ularning kuzatishda berilmaganligini unutmaslik lozim. Munosabatlar va sifatlarning dialektik butunligi zotni tashkil qiladi. Zotning sifat va munosabatlari bir-biri bilan uzviy bog'liq ekan, bunga bir misol yordamida amin bo'lish mumkin: biror buyumning rangi haqida uni boshqa ranglar bilan qiyoslagandagina hukm chiqara olamiz. Chunonchi, rangning qoraligi qora bo'lmagan rangga nisbatan belgilanadi. Demak, narsaning mohiyati o'z yondoshlari bilan bo'lgan munosabatlarda ochiladi[2]. Zotning mohiyati moddiylikda emas, balki uning sifat va munosabatlaridadir. Masalan, [u] ning shakliy xususiyati moddiyligidir, ammo ularning zoti turlichadir:

1. [u] – *men ~sen~ u* qatoriga kiruvchi kishilik olmoshi.
2. [u] – *ham ~hamda~ va ~u* qatoriga kiruvchi teng bog'lovchi.
3. [u] –*bu~ o'sha~ u* qatoriga kiruvchi ko'rsatish olmoshi.
4. [u] – *o' ~o~ i ~e ~u* qatoriga kiruvchi lablangan tor unli.

Ko'ringanidek, to'rtala [u] zoti – moddiy shaklning umumiyligiga qaramay – bir-biridan sifat va munosabat jihatidan tubdan farq qiladi. Demak, zotning substansialligi uning o'zidan, moddiyligidan namoyon bo'lmaydi, balki munosabatlardagina ochiladi. Buni [-gan] sifatdosh qo'shimchasi (*o'qiydigan bola*) va [-gan] kesimlik shakli (*o'qiganman*) misolida; [siz] – kishilik olmoshi va [siz] – shaxs-son qo'shimchasi (*o'qigansiz*) misolida; [-chi] lug'aviy ma'no hosil qiluvchi qo'shimcha (*gulchi*) va [chi] yuklama [*Gul-chi?*] misollarida ham kuzatish mumkin.

Substansial yondashuv zotni "majmui asmo va sifot" sifatida belgilar ekan, sifat va munosabatlari bir xil, moddiyliklari har xil bo'lgan birliklarni bir zotning turli moddiy shakllari deb baholaydi. Chunonchi, tilimizda orttirma nisbat yoxud sifatdosh shakllarining turli variant-ko'rinishlari mavjud. Ular

[1]Алишер Навоий. Лисон ут-тайр (насрий баёни билан). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – 464 б.
[2]Панфилов В.З. Философские проблемы языкознания. Гносеологические аспекты. – Москва: Наука, 1977. – 287 с.

variantlari shaklan bir xil bo'lmasa ham, bitta zotga birlashtirilmog'i lozim. Shakl bir xil bo'lib, sifat va munosabatlari boshqa-boshqa bo'lsa, shakldosh turli zotlar mavjudligi xususida hukm chiqarish mumkin (Buni yuqoridagi tahlillarimiz orqali asoslashga harakat qildik).

Dialektika va tasavvuf gnoseologiyasi asosida shakllantirilgan zot hozirgi davr falsafasida umumiylik sifatida qaraladi. Umumiylik-xususiylik-alohidalik dialektikasi esa hozirgi zamon falsafasining fundamental kategoriyalaridan biridir[1].

Lisoniy birlikning nutqiy voqealanishi, bevosita kuzatishda berilgan shakli va vazifasi xususiylik, alohidalik sifatida qaralsa, bu birlikning nutqiy voqealanishi zamirida yotgan, uning mana shunday qo'llanishi uchun asos bo'ladigan sabab va imkoniyat sanalgan narsa uning umumiyligi – "majmui asmo va sifot" tarzida qaraladigan zoti.

Bevosita kuzatishda berilgan narsa (lisoniy birlikning nutqiy voqealanishi)da shu narsaning o'zini emas, balki uning ostida yotgan, uning shu matnda qo'llanilishiga asos bo'lgan umumiylik (zot) tajallisini ko'rish – borliqni o'rganishga substansial yondashish asosini tashkil qiladi. Empirik (nominalistik) yondashuvda bizning diqqatimiz nima voqealanganligining tasviriga qaratilgan bo'lsa, dialektik-substansial yondashishda tadqiqotchi diqqat markazida narsa ostida yotgan zot shu xususiylikda qanday voqealanganligini ochish va mana shunday xususiyliklarda namoyon bo'lish shakllari hamda ularning o'zaro munosabatlari asosida zotning o'zi haqida majmui asmo va sifot sifatida nisbiy – o'z davrimiz va imkoniyatimiz doirasida – tasavvur hosil qilishdir. Shuning uchun – nominalistik yondashish va dialektik – substansial yondashish bir-biriga zid ayni zamonda bir-birini to'ldiruvchi yondashish: **empirik-nominalistik yondashishda** cheksiz voqelanishda narsaning bir-biridan uzilgan sifati (belgi-xususiyati, munosabati) bir-biridan ajralgan holda voqelansa va tadqiqotchi tomonidan qayd etilsa, idrok, aqliy umumlashma vositasida bu alohida sifat bir zotga mujassamlashtiriladi va sifatning oddiy majmuasidan kattaroq, bo'lgan yangi butunlik – idrokiy zot (substansiya), minglab sifatda voqelangan xususiylikning umumiyligi, hodisaning mohiyati, voqelanishning imkoniyati, oqibatning sababi ochiladi. **Substansial yondashishning** nominalistik yondashishdan farqi shundaki, birinchisi YAHVO (yakkalik, hodisa, voqelik, oqibat)ni sanash bilan cheklansa, ikkinchisi bu YAHVOni UMIS (umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab)ga birlashtiradi va UMIS nuqtayi nazardan YAHVOni tushuntiradi. Mana shunday yondashish narsaga substansial yondashishni tashkil etadi.

[1]Туленов Ж., Ғафуров З. Фалсафа. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. -384 б.

Narsa mavqeyida lisoniy birlik kelganda bunday yondashish substansial tilshunoslik asosini tashkil etadi. Bunday tilshunoslik lisoniy birlik zotini uning umumiy ma'nosi sifatida talqin etadi.

Tilshunoslik ilmiy atamalarida bunday zot, odatda, umumiy grammatik ma'no/vazifa/funksiya, umumiy lisoniy ma'no (yoki vazifa/funksiya) deb nomlanadi, juda ko'p hollarda munosabatlar (oppozitsiyalar) chizmalar yoki modellarda aks ettiriladi.

Tasavvufda borliq mohiyatini tavsiflashda *zot* va *tajalli* kategoriyalari unumli qo'llaniladi. Tasavvufda zot nomoddiy mavjudlik deya e'tirof etilganligi uchun ism va sifatlar majmuyi tusida idrok qilinadi. Ammo zot o'z xossalarining shunchaki arifmetik yig'indisidan iborat emas, balki undan ham katta, hattoki unga zid ham. Shuning uchun bundan metodologik asos sifatida foydalanilib, lisoniy (umumiy) sistema xususiy sistemalardan har doim barqarorligi va kattaligi bilan ajralib turishi aytiladi. Ammo har qanday tajallida boshqa umumiylik xossalari ham mavjudligi haqidagi fikrlar tajallining unchalik ham kichik yoki «qashshoq» emasligini ko'rsatadi. Zero, har qanday xususiy sistemada bir necha umumiy sistemalarning voqealanishini kuzatamiz. Masalan, *O'qidim* nutqiy sistemasida lisoniy unsurlar voqealanishi bilan birga nolisoniy unsurlar tajallilari ham mavjud. Bu umumiy sistemaga nisbatan xususiy sistema boyroq emasmi degan savolni qo'yishgacha olib keladi. Rang-baranglik xususiy sistemaning, yakranglik esa umumiy sistemaning asosiy belgilaridan biri.

Borliq hodisalari doimo bir-biri bilan o'zaro munosabatlarda namoyon bo'ladi. Bu munosabat xususiy sistemalarda aloqa va bog'liqlik maqomida. Zot tarkibida esa u ziddiyatlar ko'rinishida mavjud bo'ladi.

Ko'rinadiki, sistema umumiy tushunchasi turli davrlarda ijtimoiy ehtiyoj talablariga ko'ra har xil tushunilib, ularni tadqiq qilish metodologiyasi ham sistemaning tabiatiga ko'ra turlicha tanlanadi. Xususan, lisoniy sistema dialektik falsafadagi substansiyaga mos, uning tadqiq metodologiyasi, metodikasi va metodlari bugungi kunda antroposentrik tilshunoslikning tadqiq obyekti bo'lgan nutqiy sistemalarni o'rganish metodologiyasi, metodikasi va metodlaridan keskin farqlanadi. Umumiy sistemalarni o'rganish metodologiyasi mukammal ishlangan, davr nazariyotchilar oldiga xususiy sistemalarni ilmiy tadqiq etish metodologiyasi, metodikasi va metodlari tizimining falsafiy, umumiy, xususiy shakllarini tizimli ishlab chiqishni kun tartibiga qo'ymoqda. Xususan, sinergetik tamoyillarning metodologik rolini oshirish nutqiy sistema tadqiqi uchun muhim ahamiyatga ega.

4-§.Til qurilishi tadqiqiga substansial yondashish tarixidan.

Oldingi bandda narsa tadqiqi va talqiniga yondashishning substansial ko'rinishi til qurilishi tavsifida ham qo'llanishini kuzatdik. Fandagi har qanday ilmiy yo'nalish o'z-o'zidan, birdan va tasodifan paydo bo'lmaydi. U oldingi davrlarda mavjud bo'lgan ilmiy yondashuvdagi ayrim yo'l, usul va tamoyillar kurtaklarini falsafiy-mantiqiy (metodologik) umumlashtirish, shu kurtaklarga hamohang (ular bilan ontologik bog'langan) va har bir fan uchun o'ziga xos tahlil tamoyillarini ishlab chiqish hamda ularni onglilik va izchillik bilan tahlil jarayoniga amaliy tatbiq etish natijasida shakllanadi. Til qurilishi tadqiqiga substansial yondashish xususida ham shunday fikrlarni aytish mumkin. Bu yo'nalishda eng muhim ilmiy tushuncha umumiylik, mohiyat, imkoniyat va sabab (UMIS) mavqeda bo'lgan zot ("majmui asmo va sifot") va uning alohidalik, hodisa, voqelik va oqibat (AHVO) mavqeda bo'lgan tajallisi bo'lganligi sababli tilda umumiy shakl va ma'no masalasi bu yondashishning shakllanishi hamda rivojlanishida o'q ildiz mavqedadir. Bu masala talqini esa tilshunoslikda juda uzoq tarixga egaligi ayon. Shuning uchun bo'limimizning bu bandida til qurilishi talqiniga substansial yondashishning o'zak masalasi bo'lgan tilda umumiy shakl va ma'no, bu muammo talqini uzviy aloqador bo'lgan tasavvuf falsafasida kull va juzv, dialektikada umumiylik va alohidalik (xususiylik) kategoriyalari ustida alohida to'xtalish maqsadga muvofiqdir.

Tilshunoslikda umumiy ma'no mohiyati. Dialektikada umumiy va xususiy, tasavvufda kull va juzv o'ta muhim kategoriya va tushunchalar bo'lib, ularni chuqur va atroflicha o'zlashtirmay turib, narsa-hodisalarning haqiqiy mohiyatini tushunish mumkin emasligi so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarida bot-bot ta'kidlanilmoqda[1]. "Dialektik mantiqqa ko'ra yakkalikka nisbatan olingan umumiylik, bu – tarkibida mazkur yakkalik mavjud bo'lgan aloqalar tizimidir. Umumiylikni aynan shunday tushunish u haqda konkret – umumiy tushuncha hosil qilishga olib keladi" [2].

Dialektikaning substantsiyani aniqlashga doir ta'limotidan ma'lumki, xususiylikka moddiylik, alohidalik va behisoblik xos bo'lsa, umumiylik uchun bevosita kuzatishda berilmaganlik, xususiyliklarda takrorlanib turish, chegaralanganlik kabi belgilar xos. "Umumiylik va xususiylik bir-biriga zid

[1] Бахриддинова Б. Феъл луғавий шакллари тизими. Феълнинг тур категорияси: Филол. фан. номз.... дисс. – автореф. – Самарқанд, 2002. – 23 б.

[2] Иванов С.Н. Грамматик тадқиқотларнинг методологик муаммолари / Рус тилидан И.Мирзаев таржимаси. – Самарқанд:СамДУ, 2004. – Б.80.; Менглиев Б. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва семантик имкониятлари: Филол. фан. номз.... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 23 б.; Неъматов Ҳ., Сайфуллаева Р., Қурбонова М. Ўзбек тили структурал синтаксиси асослари. – Тошкент: Университет, 1999.-556.; Мещанинов И.И. Члены предложение и части речи. – Л.: Наука, 1978. – 387 с.

narsalar emas. Ular bir-birining inkori dialektik nisbiydir: xususiylikdan moddiy, shakliy, davriy, makoniy muayyanlik chetlashtirilmasa, u umumiylikka aylanadi va, aksincha, umumiylikning moddiy, shakliy, davriy, makoniy voqealanishi xususiylikdir"[1]. Tilshunoslikda lisoniy umumiylik va xususiyliklarni farq qilish juda katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa, tabiiyki, til va nutqni, o'z navbatida, lisoniy va nutqiy birliklarni farqlashda namoyon bo'ladi. Tilshunoslik tarixida umumiy va xususiy shakl hamda ma'nolarni farqlash masalasi ko'pgina munozaralarga sabab bo'lgan. O'zbek tilshunosligida bu muammo, asosan, umumiy ma'no yo'nalishida olima Sh.Shahobiddinova ishida atroflicha tahlil etildi[2].

Fanimizda umumiy shakl masalasi leksikada asosiy (bosh shakl) va uning variantlari yo'nalishida qo'yilgan bo'lib, bunda asosiy shakl va uning dublet, variant, ko'rinishlari farqlanadi (chunonchi, *arava – aroba...*), biroq umumiy shakl masalasi maxsus muhokama etilmaydi. Sinonimik qatorlarda (chunonchi, *yuz – bet – afti...*), shuningdek, me'yoriy leksema – eskirgan so'z (chunonchi, *samolyot – aeroplan*); me'yoriy leksema – yangi so'z (chunonchi, *texnikum – kollej...*); me'yoriy leksema – sheva so'zi (chunonchi, *tovoq – lagan, tog'ora– lagan...*); tabu–evfemizm (*ilon – arg'amchi...*) munosabatlarida, giponimik uyalar (chunonchi, *ot – ayg'ir – baytal...: ot – saman – to'riq...*), darajalanish siralari (*ot – osi – go'nan - do'nan – toy...*), omonimik uyalar (chunonchi, ot I – otII)dan mustaqil o'rin oladigan so'zlar orasida – ma'noviy o'xshashlik va umumiyliklar bo'lgani holda – hech qachon umumiy shakl masalasi o'rtaga qo'yilmagan va ko'tarilmagan. Bunday to'plam birliklari orasida tilshunosligimizda qo'yilgan yetakchi (markaziy, yadroviy, umumiy, bosh dominanta...) so'z va qurshov so'z munosabati[3] tamoman boshqa bo'lib, mohiyatan giperonim – giponim (ya'ni giponimik uya) aloqalari bilan uzviy bog'lanadi va umumiy shakl masalasi qo'yilmaydi.

"Umumiy shakl va ma'noga ega bo'lgan (masalan, qog'oz, ot) so'zlar millionlab nutqiy qo'llanishlarda, har xil affikslar bilan murakkablashgan ko'rinishlarda bitta so'z sanalishi lozimmi yoki har bir qo'llanilishda so'z o'ziga xos xususiylikmi?" shaklida qo'yilgan so'roq tamoman boshqa masaladir. Bu masalaga fanimizda leksema va so'z ilmiy tushunchalarini farqlash, ya'ni lisoniy

[1] Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. – 164 б.; Шаҳобиддинова Ш. Грамматик маъно талқини хусусида: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1993. -152б.; Якобсон Р.О. Заключительное слово по докладу//IV международный съезд славистов. - Материалы дискуссии. Т.2. Проблемы славянского языкознания. – Москва: Наука,1962. – С. 47-48.

[2] Шаҳобиддинова Ш. Грамматик маъно талқини хусусида: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1993. -152 б.

[3] Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.

birlik va nutqiy birlikni farqlash bilan chek qo'yildi hamda bugun bunda – faqat so'z (ruscha slovo, nemischa Word) atamasining hozirgi kunda ham ilmiy adabiyotlarda tizimiy ravishda ham leksema hamda so'z ma'nolarida qo'llayverishdan boshqa – muammo qo'yilmaydi. Demak, leksika sohasida umumiy shakl masalasi maxsus tadqiq etilmagan.

Fonologiyada umumiy shakl masalasi fonema tushunchasini kiritish va uni differensial belgilar yig'indisi sifatida tushunish bilan uzil-kesil hal etildi va bu ortiqcha munozaralarga sabab bo'lgan emas. Bugun fonemani funksional birlik sifatida qabul qilish, uning cheksiz miqdordagi nutqiy fonetik variantlarda voqealanishi hech kimda savol tug'dirmaydi.

Morfologiyada ham holat fonologiyaga yaqin, lekin fonologiya singari yakdilona va oqilona qabul qilingan emas. Chunonchi, hech kim (grammatikani boshlang'ich tarzda o'rgangan kishi ham) *singli – otasi, singlim – otam* so'zlari tarkibidagi *-i* va *-si* , *-im* va *-m* ni boshqa-boshqa morfologik birliklar demaydi, lekin morfemaga umumiy shakl tarzida nisbat berish rusum emas. Shuning uchun morfemalar fanimizda yoki umumiy shaklsiz yoki keng qo'llanilgan shaklini uning umumiy shakli sifatida qabul qilish asosida (chunonchi, ottirma nisbat morfemasining umumiy shakli sifatida, ko'pincha, *-di/-tir/-t* variantlari sirasi keltiriladi) belgilanib kelinmoqda. Boshqacha qilib aytganda, morfologiyada umumiy shakl masalasi alohida tahlil etilmagan. Shuning uchun ayrim tilshunoslar morfologiyada invariant shakl masalasini o'rtaga qo'yishga hojat yo'q deb hisoblaydilar[1].

Sintaksisda holat batamom o'zgacha. Bunda formal va struktural (jumladan, substansial) yondashuv orasida keskin farq mavjud. Formal yondashuvda sintaktik qurilmalarning umumiy shakli masalasi onglilik va izchillik bilan qo'yilmagan bo'lsa-da, unda sintaktik qoliplar (modellar, chizma sifatida beriladigan strukturalar va h.k.) tushunchasi yot emas. Jumladan, gap qurilish qolipining «ega + kesim» yoki S – P (subyekt– predikat) sifatida belgilanishi buning yorqin dalilidir. Struktural yo'nalishlar (jumladan, substansial yondashuv)da sintaktik qurilmalarning umumiy shakli masalasi butun jiddiyligida va izchillik bilan qo'yildi. Substansial sintaksis sintaktik qurilmalarning qoliplarini ajratishdan boshlanadi va bu masala ancha mukammal o'rganilgan, zamonaviy darslik va qo'llanmalarda o'z aksini topgan[2]. Lisoniy

[1] Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари (Тил қурилишини тизим сифатида ўрганиш масалалари). – Тошкент: Университет, 2007. – Б. 121-130.

[2] Неъматов Ҳ., Сайфуллаева Р., Курбонова М. Ўзбек тили структурал синтаксиси асослари. – Тошкент: Университет, 1999.-55 б.; Неъматов Ҳ. Тажалли тасаввуф билиш назарияси ва тилшуносликда синтаксисни ўрганиш масалалари//Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1993. - №2. – Б. 24-30.; Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г. ва б. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент:Университет, 2007. – 380 б.

sintaktik birlik sifatida substansial yondashuvda umumiy shakl va umumiy ma'noga ega bo'lgan sintaktik qurilmaning tuzilish chizmasi, qolipi, modeli tan olinadi.

Tahlillarimizdan xulosa qilish mumkinki, fonologiya va sintaksisda umumiy shakl masalasi fanimizda yechilgan va to'la qabul qilingan deb hisoblanishi lozim. Leksika va morfologiyada esa bu masalalar butun chigalligida qo'yilmagan bo'lsa-da, to'la uqilmagan tarzda tan olinadi – leksikada har bir so'z/leksemaning me'yoriy shakli va morfologiyada ma'lum bir grammatik shaklning keng qo'llaniladigan formati shaklida undan foydalaniladi.

Lisoniy umumiy ma'no masalasi ancha murakkabroq. Lisoniy umumiy ma'no nima? Mazkur savolga javob berish uchun reallikdan misol izlaymiz. Dastlab oddiy *piyola* (stakan) buyumini olib qaraylik. Biz piyolani rang-barang vazifa va mazmunlarda ishlata olamiz: u ham suyuqlik ichish anjomi, ham o'lchov andozasi, ham aylana chizish vositasi, ham zarba berish quroli, ham sovg'a sifatida taqdim etiladigan buyum. Piyolaning har bir qo'llanishdagi mazmuni xususiydir, ya'ni suyuqlik ichish uchun tubli; sovg'a qilish uchun qimmatbaho, go'zal; aylana chizish uchun chetlari butun; zarba berish uchun qattiq bo'lishi kerak. Lekin piyolaning umumiy mazmuni ham bor. Umumiy mazmunini qo'lda suyuqlik ichish uchun moslashgan kichik hajmli o'zbek milliy ro'zg'or buyumlaridan biri ekanligi tashkil etadi.

Aytib o'tganimizdek, lisoniy umumiyliklar bu fonema, morfema, leksema va qoliplardir. Bularning umumiy ma'nosi tilshunoslikda, jumladan, o'zbek tilshunosligida keng muhokama etilgan va bu birliklarning umumiy ma'nosi qayerda va qanday ochiladi, degan savolga dialektikaning bilish nazariyasi asosida xususiyliklarni butunlik sifatida idrok etish orqali amalga oshirilishi mumkinligi haqidagi xulosa chiqarilgan.

Umumiylikning mohiyati ma'lum bir umumiylikning o'ziga o'xshash va farqli umumiyliklar bilan munosabatidagina ochilishi mumkin. Demak, har bir fonema, leksema, morfemaning umumiy ma'nosi shularning o'zi bilan aloqador bo'lgan birliklarning ma'no va vazifa jihatdan o'zaro munosabatlarida ochiladi. Eng kichik lisoniy birlik bo'lgan **fonemalarning umumiy ma'nosi** sifatida lisoniy birliklarning shaklini tartib berish va lisoniy birliklar ma'nosini bir-biridan farqlash belgilanishi mumkin. Tasavvufda umumiylikning "majmui asmo va sifot" sifatida qaralishi fonemaning "ma'no farqlashga xizmat qiladigan differensial yoki farqlovchi belgilar majmuasi" tarzidagi ta'rifida o'zining yorqin ifodasini topadi. Har bir alohida olingan fonemaning ham umumiy ma'nosi bo'ladi. Masalan, [a] fonemasining unlilik, kenglik, lablanmaganlik; [u]


fonemasining unlilik, torlik, lablanganlik; [p] fonemasining undoshlik, shovqinlilik, jarangsizlik, portlovchilik, lab-lablik kabi belgilari imkoniyat sifatida so'zlovchilar ongida "tovushlar obrazi" sifatida yashaydi va bu tipik belgilar nutqda voqealanadi, boshqacha qilib aytsak, fonetik umumiylik xususiylashtiriladi.

Xuddi shuningdek, **leksemalar** ham o'xshashlik qatorlarida, qo'shnichilik munosabatlarida turlicha imkoniyatlarga ega bo'lgan hamda umumiy ma'no hosil qilgan holda jamiyat a'zosi ongida tayyor holda yashaydi. Lisoniy birlik sifatidagi leksema biri ikkinchisiz mavjud bo'la olmaydigan ikki tomon – nomema, ya'ni tovush qobig'i va ma'lum bir tushuncha asosida vujudga kelgan umumlisoniy ma'no – semema birligidan iborat. "Semema leksemaning ichki, ma'no tomoni bo'lib, leksemaning o'xshashlik va qo'shnichilik munosabatlari orqali aniqlanadigan atash, ifoda va vazifa semalarining bir butunligidir"[1]. Jumladan, *opa* leksemasining ma'nosi quyidagicha: "Bir ota-onadan tug'ilgan farzandlar ichida o'zidan kichiklar (ukalari, singillari)ga nisbatan katta qiz". Demak, "opa" leksemasining sememasi bevosita shu leksemaning o'zidan emas, balki uning [ota], [ona], [farzand], [uka], [singil] kabi leksemalar orasida mavjud bo'lgan, bevosita kuzatishda berilmagan, ammo ayni vaqtda ongimizda yashovchi munosabatlarning birligi, umumiyligi orqali aniqlanadi.

Morfemalarning umumiy ma'nosi nimada? Morfemalarning ham umumiy ma'nosi morfemalar tizimidagina ochilishi mumkin. Masalan, o'zbek tilida kelishiklarning umumiy grammatik ma'nosi "oldingi so'zni keyingi so'zga bog'lash" sifatida tavsiflanadi va o'zbek tilidagi kelishiklarning barchasi uchun bu umumiy grammatik ma'no (UGM)dir. Bu umumiy ma'no qaratqich kelishigida "otni otga aniqlovchi vazifasida bog'lash", tushum kelishigida "otni fe'lga to'ldiruvchi vazifasida bog'lash" kabi xususiy ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Umumiy ma'no xususiy ma'nolarni umumlashtirish asosida emas, balki lisoniy birliklarning o'zaro paradigmatik munosabatlari orqali aniqlanadi va shu birlikning barcha nutqiy ma'nolari uchun imkoniyat, mohiyat, sabab mavqeiyda bo'ladi, ya'ni xususiyliklarni mexanik umumlashtirish asosida umumiy ma'no hosil qilinmaydi, aksincha, ongdagi paradigmatik munosabatlar asosida umumiy ma'no ochiladi va bu umumiy ma'no xususiy ma'nolarni anglatadi. Chunonchi, "opa" leksemasining

[1]Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.



chizmadagi paradigmasidan biz “opa” so‘zining umumiy ma’nosini “bir ota-onadan bo‘lgan, ayol jinsiga mansub bo‘lib, o‘zidan kichik tug‘ishgan (qorindosh)larga ega bo‘lgan farzand” sifatida ocha olamiz. “Opa” leksemasining ko‘plab konkret voqealanishlarida mana shu umumiy ma’no u yoki bu ko‘rinishda voqealanadi. Aniqrog‘i, “opa” so‘zining nutqiy voqealanishlaridagi xususiy ma’nolarning barchasini mana shu umumiy ma’no anglatib turadi va ularga nisbatan sabab mavqeyida bo‘ladi. Qon-qarindoshlik so‘zlari misolida bu masala olima M.Narziyeva tomonidan batafsil tahlil etilgan bo‘lishiga qaramay, misol tariqasida birgina hodisaning tahlilini keltirish maqsadida O‘TILda berilgan quyidagi misolga e’tiborni qaratmoqchimiz: *Suhbatda Mastonning salmog‘i tobora ortmoqda edi. Ilgari “singlim” deb turgan yigitlar sal o‘tmay, “opa” deydigan bo‘lishdi* (Abdulla Qahhor. “Maston”). Tabiiyki, bu misolda mazkur birlik metaforik ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan. Binobarin, ko‘chma ma’no hosil qilishning umumiy qonuniyati “so‘zning semantik strukturasidan ayrim semalarni neytrallashtirish, chetlashtirish va uning evaziga boshqalarni kuchaytirishdir”[1]. Yuqoridagi matnda *opa* leksemasi tarkibidagi «yosh jihatdan katta» semasi bo‘rttirilib, hurmat ma’nosi voqealangan.

Morfemalarning umumiy ma’nolarini aniqlashda ham xuddi shunday yo‘l tutiladi. Chunonchi, tadqiqotchilar birlik son UGMsini “aniq/noaniq miqdorni ifodalash”, ko‘plik son UGMsini “noaniq miqdorni ifodalash” sifatida belgilaydilar. Umumlisoniy ma’no shu umumiy ma’noga tegishli bo‘lmagan barcha begona tajallilarni idrokiy yo‘l bilan e’tibordan soqit qilish asosida hosil qilinadi. Biz ko‘rib o‘tgan ko‘plik son shakli [*-lar*] nutqda hurmat ma’nosini ifodalashi ham mumkin. Ammo bu ma’no ko‘plik shakli UGMsiga kirmaydi. U UGM bilan birga hamroh ma’no sifatida yuzaga chiqishi ham, chiqmasligi ham mumkin. Yoki [*-moqda*] shaklining turli matniy va uslubiy qo‘llanishlari mavjud: nasriy matnda obrazli ifodani, lirik she’rda ko‘tarinki ifodani bera olish kabi ko‘plab xususiy ma’no-vazifalarga ham ega. Ammo [*-moqda*] shakli

[1]Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.

mavjud bo‘lgan bir necha gapni qiyoslaganda, ular orasidagi umumiylik “ish-harakat nutq paytida davom etayotganligining ifodasi” ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Jumladan, [WP_m] sintaktik qolipi ham xuddi shunday keltirib chiqarilgan. Gapning sintaktik qurilishini aniqlash uchun nutqdagi gapdan nosintaktik kategoriyalar ko‘rinishlari – intonatsion tugallanganlik, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra hamda modal ma’nosiga ko‘ra turlari va boshqalar birma-bir olib tashlangan. Markaziy bo‘lak aniqlanib, fikr ifodalash kesim vazifasidagi so‘zda mujassamlashganligi, shu so‘zning valentligi asosida gap hosil qilinganligi, uning ikki qismdan [W] – lug‘aviy ma’no ifodalovchi qism hamda [P_m] – kesimlik ko‘rsatkichlari qismidan iborat ekanligi, bu qolipning umumiy lisoniy xarakter kasb etishi haqida xulosaga kelingan va bu o‘zbek tilining milliy tabiatigagina xos bo‘lgan xususiyat ekanligi isbotlangan.

Xulosa shuki, umumiy lisoniy ma’no (ULM) xoh fonema, morfema, leksema yoki konstruktsiya bosqichida bo‘lsin, nutqiy hodisalar, xususiyliklarni formal mantiq asosida umumlashtirish va mavhum umumiylikni hosil qilish orqali emas, balki lisoniy birlikning yashayotgan paradigmasida, ongda mavjud bo‘lgan munosabatlari tizimida ochiladi hamda bu umumiy ma’no nutqiy voqealanishlarni aks ettiradi, ularga nisbatan umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab mavqeyida bo‘ladi.

Lisoniy umumiy ma’no haqida gapirganda, umumlisoniy ma’noga yondosh, hamroh, ma’nolar va omonimik hodisalarni farqlash zarur bo‘ladi[1]. Umumlisoniy ma’no tarkibi murakkabdir. Chunki nutqda lisoniy birliklar yoxud grammatik shakllar ba’zan umumlisoniy ma’noda bo‘lmagan ma’nolarni hamda o‘zi uchun xos bo‘lgan umumiy, ya’ni ixtisoslashgan ma’noni ifodalash jarayonida umumiy ma’noga birikkan, undan tashqarida bo‘lmagan ma’nolarni ham yuzaga chiqarish imkoniyatiga ega. Umumma’nodan ajratib bo‘lmaydigan va unga daxldor ma’nolar yondosh ma’no atamasi ostida, umumlisoniy ma’noga daxldor bo‘lmagan “begona”(ergashuvchi) ma’nolar esa hamroh ma’no atamasi ostida manbalarda olimlarimiz tomonidan tahlilga tortilgan[2]. Morfologik shakllarni tadqiq qilgan olim B.Mengliyev UGMning asosini kategorial ma’no, UGM tarkibiga kirib, mohiyatga mansub bo‘lmagan, ammo u bilan dialektik yaxlitlik hosil qilgan ma’noni yondosh ma’no, UGM tarkibiga kirmaydigan, shakl mohiyatiga mansub bo‘lmagan ma’nolarni hamroh ma’no sifatida belgiladi va umumlisoniy ma’noni ochish yo‘llarini aniqladi. Yuqorida

[1]Мусулманова Н. Грамматик шаклларда категориал, ёндош ва ҳамроҳ маъно (замон ва майл категориялари мисолида): Филол. фан. номз.... дисс – Тошкент, 2007. -110 б.
[2]Менглиев Б., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Қарши:Насаф, 2005. – 184 б.; Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. – Ташкент: Фан, 1989. – 191 с.; Шаҳобиддинова Ш. Грамматик маъно талқини хусусида: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1993. - 152 б.

tahlilimiz manbayi bo'lgan son kategoriyasiga yana murojaat qilar ekanmiz, son miqdor ifodalashga ixtisoslashgan morfologik hodisa ekanligini hamda ushbu miqdor ma'nosi miqdoriy "aniq", "noaniq" va sifatiy "bo'linuvchan", "bo'linmas" kabi unsurlar bilan birga dialektik yaxlitlikda yuzaga chiqishini ko'ramiz. Chunonchi, [*-lar*] shakli miqdoriy ko'plik ifodalar ekan, u bilan bir paytning o'zida "bo'linuvchan-bo'linmaslik", "aniqlik-noaniqlik" kabi belgilarni – yondosh ma'nolarni – voqealantirib yuboradi. Boshqacha aytganda, miqdor belgisi hech qachon sifat belgisisiz yuzaga chiqmaydi. Ba'zan [*-lar*] shakli nutqda "hurmat" ma'nosini ifodalashi mumkin: *Ustozimning kitoblari.* Ammo bu ma'no hamroh ma'nodir, ya'ni boshqa kategorial ma'noga mansub ma'noning qorishib voqealanishidan iborat. Shuning uchun umumlisoniy ma'noni ochayotganda lisoniy birlik uchun substansial bo'lgan xususiyatlar bilan bir qatorda shu birlik uchun zotiy bo'lmagan xususiyatlarning "birikib" (yopishib) voqealanishini izchillik bilan farqlash lozim bo'ladi. Bu bir umumlisoniy ma'noga omonimik munosabatda bo'lgan boshqa bir umumlisoniy ma'noning mavjudligi to'g'risida xulosa chiqarishimizga imkon beradi. Chunonchi, son kategoriyasi ma'nolarini o'rganishda [*-lar*] morfemasidagi kategorial ma'noni miqdoriy noaniq ko'plik deb belgilasak, voqealangan "hurmat" ma'nosiga nokategorial ma'no sifatida qaray olamiz[1] yoki, aksincha, hurmat kategoriyasini o'rganish jarayonida [*-lar*] morfemasida ko'plik ma'nosi nokategorial deb qaralishi kerak. Demak, kategorial-nokategorial ma'nolar o'zaro shakldoshlikni namoyon qiladi.

O'zbek tilshunosligida 9 ta grammatik kategoriya ajratiladi. Ular serqirra mohiyatga ega lisoniy hodisalar bo'lganligi sababli turli tomondan tasnif qilinadi. Jumladan, kategoriyalar ma'noviy tarkibiga ko'ra sodda va murakkab shakllarga ajratiladi. Oddiy kategoriyalarda ma'no sodda bo'lib, ularda faqat o'zlariga tegishli bo'lgan ma'nolar ajratiladi, ya'ni daraja, nisbat, son kategoriyalari o'zlari mansub bo'lgan ma'lum kategoriya ma'nolarini va ularga yondosh, hamroh bo'lgan ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Murakkab kategoriyalarda kategorial-nokategorial ma'nolar qorishiq holatda bo'ladi. Jumladan, kesimlik, egalik kategoriyalarida boshqa kategoriyaga mansub ma'nolarni ajratish mumkin. Chunonchi, egalik kategoriyasining lisoniy ma'nosida so'zlarni bir-biriga bog'lash – kategorial ma'no bo'lib, u bilan birga yuzaga chiqadigan shaxs va son grammatik ma'nolari mazkur kategoriya uchun nokategorialdir. Kesimlik kategoriyasi ham murakkab tarkibli bo'lib, unda tasdiq-inkor, mayl-zamon, shaxs-son va zamon ma'nolari birlashgan va ular

[1]Зикриллаев Ғ. Феълнинг шахс, сон ва ҳурмат категориялари системаси. – Тошкент: Фан, 1990. –112б.; Зикриллаев Ғ. Истиқлол ва адабий тил. – Тошкент: Фан, 2004. – 119 б.

bitta qo'shimcha (chunonchi, *oldi*) bilan, bir necha qo'shimcha (chunonchi, *olmadingiz*)bilan yoki nol shakl (chunonchi, *ol*)da yuzaga chiqadi. Demak, biz bunda tasdiq/inkor, son, mayl, zamon kategoriyalariga mansub shakllarning qorishiq ma'no ifodalashini ko'ramiz.

Narsaga substansial yondashuv asosida lisoniy birlikning umumiy ma'nosi haqida gapirganda to'rt hodisani:

a) sof kategorial ma'noni;

b) nokategorial, lekin kategorial ma'noga yondosh, undan hech qachon ajratib bo'lmas ma'noni;

v) nokategorial hamroh ma'noni;

g) omonimik ma'noni

farqlashimiz zarur. Masalan, egalik sintaktik kategoriyasining kategorial ma'nosi so'zlarni bir-biriga – hokimni tobega, mustaqil qo'llanilganda esa so'z anglatgan denonatning boshqa bir denotatga aloqadorligini ifodalash deb qaraladi va bu egalik kategoriyasining sintaktik kategoriya sifatida mohiyati – kategorial ma'nosini tashkil etadi. Lekin bu kategorial ma'no hamisha shaxs-son ma'nosi bilan birgalikda – yondoshlikda voqealanadi. Masalan, "mening kitobim" birikmasida so'zlarning sintaktik aloqasi sintaktik kategorial ma'noga ega bo'lgan tobeni hokimga bog'lash shakli [*-ning*] va hokimni tobega bog'lash shakli egalik qo'shimchasi [*-im*] bilan ta'minlanadi. Bu qo'shimchalarsiz sintaktik aloqa mutlaqo ta'minlanmaydi, *men kitobim* hosilasi nutqda voqealana olmaydi yoki hosila tamoman boshqa mohiyat kasb etadi. Yoki *mening kitob* birikmasida qaratqichli birikma emas, balki nutqiy tizimda lisoniy interferensiya hodisasi asosida voqealanadigan qarashlilik olmoshining aniqlanmish bilan birikishi holati mavjud (buni ruscha "моя книга" qurilmasining o'zbekcha kalkasi sifatida baholash mumkin).

"Mening kitobim" birikmasida egalik kategoriyasining [*-im*] qo'shimchasi nafaqat "kitob" leksemasini olmosh bilan bog'laydi, balki shaxs va son ma'nolarini ham ifodalaydi. Mana shu shaxs va son ma'nosi egalik sintaktik kategoriyasi uchun yondosh, hamma vaqt u bilan birga keladigan, egalik kategoriyasi uchun nokategorial ma'nodir. Bu egalik kategoriyasi uchun yondosh, nokategorial ma'no hisoblangan lisoniy birlik boshqa bir kategoriyadan o'rin olishi va mazkur tizimda shu ma'noning o'zi kategorial ma'noda bo'lishi mumkin. Chunonchi, o'zbek tilida shaxs kategoriyasi (bu kategoriya markazini kishilik olmoshlari tashkil etadi) doirasida egalik qo'shimchalarining shaxs-son ma'nosi kategorial (ma'no) sifatida, so'zlarni bir-biriga bog'lash funksiyasi esa shaxs paradigmasi uchun nokategorial, lekin

shaxs ma'nosini morfologik usul bilan ifodalashda yondosh ma'no mavqeyida chiqadi.

Nokategorial hamroh ma'noning yondosh ma'nodan asosiy farqi shundaki, kategorial va nokategorial yondosh ma'no grammatik shaklda, lisoniy birlikda deyarli hamisha sinkretik uzilmagan, ajralmagan shaklda voqealanadi va ma'lum bir kategoriyaning hamma birliklari uchun xos umumiy qonuniyatdir. Nokategorial hamroh ma'noga nisbatan bunday qat'iy va umumiy fikrni aytib bo'lmaydi, chunki u kategoriyaning ayrim birliklarida yorqin, ayrim birliklarida esa juda zaif shaklda voqealanishi mumkin. Chunonchi, kesimlikning zamon shakllarida zamon ma'nosi uchun mayl ma'nosi yondosh nokategorial ma'no bo'lsa, shu kategoriya uchun harakatning davomiyligi-nodavomiyligi, tugallanganligi-tugallanmaganligi kabi harakat tarzi ma'nolari hamroh nokategorial ma'nolardir. Egalik kategoriyasida hamroh ma'no sifatida hurmat, kamsitish, tahqirlash kabi uslubiy ma'nolar, shuningdek, turli munosabat shakllari hamroh nokategorial ma'nolar sifatida qaralishi mumkin.

Grammatik shakllardagi omonimik ma'no – bu tilshunosligimizda ancha keng o'rganilgan[1] omoaffikslardagi ma'nolar bo'lib, bunda faqat shakliy umumiyligi bilan har xil kategoriyalarga mansub ma'nolar birlashadi. Chunonchi, [*-ma*]dagi bo'lishsizlik ma'nosi bilan ot, sifat yasovchi qo'shimchalar omonim affikslardir. Omonimik affikslar omoaffikslar deyiladi va bunday affikslar bir necha kategoriyalar tarkibiga kiradi va har bir kategoriya ichida shu kategoriya uchun xos kategorial yondosh va hamroh ma'nolarga ega bo'ladi. Yuqorida ko'rib o'tilgan qo'shimchalarimizdan ko'plik son yasovchi [*-lar*]da hurmat ma'nosi omonimik; hurmat va ko'plik ma'nolari o'zaro omonimik-shakliy ko'rsatkichi bilan bir xil, lekin mazmun tomondan aloqador bo'lmagan ma'nolardir. Shuning uchun omonimik ma'noga ega qo'shimchalar – omonimlar lug'atchilik an'anasida rim raqamlari bilan ajratilganidek (ot I; ot II...), ularni [*-lar I*] va [*-lar II*] sifatida farqlash kerak.

Shunday qilib, lisoniy birliklarning umumiy ma'nolari (leksemaning sememalari) tahlil qilinganda, har bir birlikda asosiy kategorial va unga mazmun jihatdan aloqador bo'lgan yondosh hamda hamroh, shuningdek, shakl tomondan aloqador bo'lib, mazmunan mutlaqo aloqador bo'lmagan ma'nolarni farqlab borish zarur. Substansial tahlilda mana shu tamoyilga izchillik bilan amal qilinadi.

[1]Тожиев Ё. Ўзбек тили морфемикаси. – Тошкент: Фан, 1992.– 68 б.; Турсунов У. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, Ўзбекистон, 1992. – 399 б.; Ўзбек тили грамматикаси. I жилд. – Тошкент: Фан, 1975.–612 б.; Гуломов А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1964. -88 б.; Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 80 б.

Tilni o'rganishda substansial yondashish tarixidan. Til qurilishi tadqiqiga substansial yondashish tarixini uch davrga ajratib o'rganish ma'qul:

1-davr: til qurilishi talqiniga substansial yondashish asoslarining belgilanishi;

2-davr: til qurilishi talqiniga substansial yondashish – metodologik tamoyil sifatida;

3-davr: o'zbek lisoniy substansializmining G'arbiy Yevropa tillari hodisalariga tadbiq etilishi.

Dialektik taraqqiyotning umumiy qonuniyatlaridan ma'lumki, istagan turdagi yangilik ma'lum bir davrda rivojlanib, tarixiy taraqqiyot natijasida inkor etilgan ilmiy yo'nalishda mavjud bo'lgan ratsional urug'lar (samarali urug'lar, kurtaklar)ning qayta jonlanishi va o'z davri uchun "nome'yoriy" bo'lgan hodisalarning taraqqiyoti hamda me'yoriylashuvi oqibatidir[1]. Shuning uchun til qurilishini substansial jihatdan tadqiq qilish jarayoni tilshunoslikning uzoq yillik taraqqiyoti davrida aniqlangan alohida-alohida xususiyatlar va qonuniyatlarning ayrimlarini dialektik tahlil usuli bilan birlashtirish samarasidir.

Tarixiy taraqqiyotga shunday yondashilganda til qurilishi talqiniga substansial yondashish uchun asos bo'lgan "kurtaklar" nimalardan iborat bo'lgan?, degan savolning tug'ilishi tabiiydir. Bu asos hind va arab tilshunosligida hamda Yevropa tilshunosligida F.Bopp, A.Shleyxer va, xususan, Ya.Grimmlar tomonidan qo'yilgan "Lisoniy birliklarning nutqdan ajratilgan holda o'zining ma'lum bir ma'nosi bormi yoki lisoniy birlik nutqda voqealangan sharoitdagina muayyan ma'noni voqealantiradimi?" degan savolning javobi bilan bog'liq. Ushbu savolga javob berish maqsadida G.Paul va G.Shteyntallarning quyidagi fikrlarini keltirish kifoya: "Kelishiklar hech qanday moddiy ma'noga ega emas va faqat grammatik ma'no ifodalashga xizmat qiladi" va "u yoki bu kelishiklarning tanlanishi boshqaruvchi so'z bilangina emas, balki kelishik shaklining o'z ma'nosi bilan ham uzviy bog'liqdir"[2].

Demak, bu ikki fikrdan anglashilib turibdiki, G.Shteyntal lisoniy birliklarning, jumladan, kelishik shakllarining o'z substansial ontologik ma'nosi yo'qligi g'oyasini, G.Paul esa, aksincha, har bir lisoniy birlik, jumladan, kelishik shakllari o'ziga xos ma'noga ega ekanligi va shu ma'no asosidagina nutqda voqealanishi, matn ta'sirida rang-barang xususiy ko'rinishlar kashf etishi g'oyasini ilgari suradi.

Tilshunoslikda XIX asrning o'rtalarida qo'yilgan "Lisoniy birlikning substansial ma'nosi bormi yoki u faqat nutqda hosil bo'ladimi?" degan muammo

[1]Туленов Ж., Ғафуров З. Фалсафа. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. -384 б.
[2]Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. – Ташкент:Фан, 1989. – 191 с.

hozirgacha tilshunosligimizda munozaralidir va bunda ikki qutb keskin ajralib turadi. Bular:

Funksionalistlar – "Praga tilshunosligi to'garagi" tadqiq tamoyillari bilan aloqador bo'lgan tilshunoslik oqimlari G.Paul nazariyasini rivojlantirib, har bir lisoniy birlik o'z substansial ontologik ma'nosi (funksiyasi)ga va shu funksiya asosida nutqda rang-barang ma'no bo'yoqlariga ega bo'ladi, degan g'oyani ilgari surgan bo'lsalar, **deskriptivistlar**, aksincha, lisoniy birlikning ma'nosi faqat nutqda, qo'shni birliklar ta'sirida hosil bo'ladi, degan g'oya (metodologik tamoyil) tarafdorlari edilar. Ayrim ishlarda esa har ikkala tamoyilni aralashtirish hollari ham uchraydi. Chunonchi, kelishik shakllarining sistema sifatidagi tadqiqi bilan shug'ullangan Z.Qodirov tadqiqot ishining 1-bobida kelishiklarning substansial ma'nosi mavjudligi g'oyasini ilgari surgan holda, 2-bobida kelishik shakllarining ma'nosi matndagina hosil bo'lishi mumkinligi haqida fikr bildiradi. Bu uning quyidagi fikrlaridan ravshan: *"-dan* ning chiqish kelishigi formasi ekanligi kelishik paradigmasiga tushganda aniqlanadi. Chiqish kelishigining ma'nosi konkret qo'llanishga nisbatan umumiydir"[1]. Bu o'rinda kelishik shaklida zotiy, nutqda qo'llanilishdan oldin ham o'ziga xos ma'no (vazifa) mujassamlashganligi va shu asosda bu kelishik nutqda ishtirok eta olishi, ya'ni substansiallik g'oyasi ilgari surilgan bo'lsa, tadqiqot ishining 62-betida substansiallikka zid bo'lgan quyidagi hukmni beradi: "O'rin kelishigi o'zbek tilida boshqa kelishiklar kabi tarkibida turgan so'z ma'nosiga va shu so'zni boshqarib kelgan so'zning ma'nosiga qarab qator ma'nolarni ifodalaydi". Bu tadqiqotda grammatik shaklning ma'nosiga nisbatan funksionalistlar va deskriptivistlarga xos ikki bir-biriga qarama-qarshi yondashish birdaniga ifodalangan – ishning birinchi nazariy (kelishik shakllari paradigmasi va ularning o'zaro paradigmatik munosabatlari) bobi, asosan, funksionalistlarning qarashlari asosida, ikkinchi – amaliy tatbiq (kelishik shakllarning muayyan nutqiy ma'nolari va qo'llanilish o'rinlari tavsifi) bobi esa deskriptivistik yondashuvda berilgan.

Til qurilishining substansial tadqiq usullari manbayi sifatida "Praga tilshunoslik maktabi" namoyandalarining, eng avvalo, Nikolay Trubetskoy, Roman Yakobson, Sergey Kartsevskiyning ishlari ekanligi ta'kidlanadi. Jumladan, o'zbek tilshunosligida bu yo'nalishning shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shgan Hamid Ne'matov keyingi ishlaridan birida shunday deb tan oladi: "...ilm dunyosida funksional tilshunoslik ("Praga strukturalizmi")ning mantiqiy davomi va yakuni sifatida shakllangan o'zbek substansial

[1] Қодиров З. Ўзбек тили грамматик категорияларини систем тадқиқ этиш (келишик категорияси): Филол. фан. номз.. ... дисс. – Самарканд, 1993.- 135 б.

tilshunosligi"[1]. Bu e'tirofdan ko'rinib turibdiki, substansial tilshunoslik "Praga strukturalizmi" negizida rivojlandi. Haqiqatan ham, grammatik shaklning umumiy ma'nosi masalasi va bu ma'noni ochish yo'llari metodologik tamoyil sifatida Roman Yakobsonning kelishiklar umumiy ma'nosiga bag'ishlangan ishida butun jiddiyligi bilan ko'tarildi. Lekin olim shaklning umumiy ma'nosini matndagi xususiy ma'nolarning umumiy majmuyi, umumiy maxraji sifatida talqin etdi [2].

1926-yilda tashkil qilingan "Praga lingvistik to'garagi" o'z atrofiga rus tilshunos olimlari N.Trubetskoy, R.Yakobson, S.Kartsevskiy; chex tilshunoslari V.Matezius, V.Skalichka, F.Travnichek kabilarni birlashtirdi. "Praga lingvistik to'garagi"(PLT)ning "Trudы" ko'p tomli nashri ta'sis etildi. Mazkur nashrlarning I tomida PLTning tilga formal-funksional, substansial yondashuv bilan aloqador tezislari e'lon qilingan. Tezislarda keltirilgan quyidagi fikr tilning funksional sistema ekanligini yana bir karra tasdiqlaydi: "Til muayyan maqsadga xizmat qiluvchi ifoda vositalari sistemasi. Tilda hech qanday hodisa shu sistemadan tashqarida hosil bo'lmaydi. Slavyan tilshunosligi ham ushbu dolzarb masalalar majmuini e'tiborsiz qoldirolmaydi"[3].

R.Yakobson qarashlarida umumgrammatik ma'no muammolari, grammatik shakllarning o'zaro privativ(pog'onali) oppozitsiyalari siralari, N.Trubetskoy izlanishlarida fonemalarning umumlisoniy ma'nolari, fonologik ziddiyatlar atroflicha o'rganildi.

"Praga lingvistik to'garagi" a'zolari, xususan, R.Yakobson, V.Skalichka, A.V.Isachenko tadqiqotlarida har bir lisoniy birlik, jumladan, grammatik shakl o'z umumiy ma'nosiga ega ekanligi g'oyasi ilgari surildi va R.Yakobson hamda A.Isachenkolar bu umumiy ma'noni grammatik shakl (lisoniy birlik) nutqda voqealantirishi mumkin bo'lgan xususiy ma'nolardagi umumiylik, ya'ni formal logikaning xususiyliklarda umumiylikni ajratish tamoyillari asosida hosil qilingan mavhum umumiylik sifatida tavsifladilar. Til qurilishi talqiniga asos bo'lgan oldingi davr samarali kurtagi ham mana shunda – har bir lisoniy birlikning substansial tabiatida uning nutqiy voqealanishlari uchun asos bo'ladigan va rang-barang xususiyliklar bilan murakkablashgan holda nutqda voqealanadigan umumiy ma'no (funksiya)ning ***lisoniy*** birlik ontologik tabiatida mavjudlik nazariyasi bo'ldi va bu davrni *til qurilishi talqiniga substansial yondashish bo'sag'asi* deb sanash mumkin.

[1] Неъматов Ҳ.Ғ. Градуал тилшунослик ҳақида // Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Илмий мақолалар тўплами. V // Масъул муҳаррир: Далабоев Ҳ.– Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 31-35.
[2] Якобсон Р.О. Заключительное слово по докладу // IV международный съезд славистов. Материалы дискуссии. Т.2. Проблемы славянского языкознания. – Москва, 1962. – С. 47-48.
[3] Звегинцев В.А. История языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях. II. – Москва: Просвещение, 1965. – 466 с.

Til qurilishining shu nuqtayi nazaridan to'liq tavsifi A.V.Isachenkoning ikki jilddan iborat "Грамматический строй русского языка в сопоставлении со словатским"(Bratislava, 1959; ch.II. Bratislava, 1960) kitobida berilgan bo'lsa; ayrim grammatik kategoriyalarning, jumladan, son, kelishik, shaxs-son kategoriyasi va shakllarining mavhum umumiy ma'nosi R.O.Yakobson asarlarida tadqiq etildi. Til qurilishi talqiniga substansial yondashishda Praga strukturalistlarining tahlil tamoyillari mazkur bobning birinchi bo'limida ko'rib o'tilgan dialektik tadqiq tamoyillari bilan kengaytirildi, amaliy tadqiq jarayonida ularga ongli va izchillik bilan amal qilindi. Shuning uchun til qurilishi talqinida substansial yondashishning ilmiy, moddiy, nazariy asosi sifatida G.Paul kabi yosh grammatiklarning lisoniy birlikning mustaqil substansial ma'noga egalik g'oyasini va Praga strukturalistlarining talqin tamoyillarini ko'rsatish mumkin.

O'zbek tilshunosligida tilga substansial yondashishni professor S.N.Ivanov boshlab berdi. Hozirgi o'zbek substansial tilshunosligi (O'ST) (boshqacha nomlanishlari: *formal-funksional*, *dialektik tilshunoslik)*ning ikkinchi davri turkiyshunos olim Sergey Ivanov nomi bilan bog'liq. Chunki bu yo'nalishdagi ilk tadqiqot S.N.Ivanovning grammatik shaklning umumlisoniy ma'nosi va nutqiy voqealanishi, nutqiy xususiyliklarni lisoniy umumiyliklarga birlashtirish, lisoniy ma'no va sintaktik funksiya masalalariga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyasi bo'ldi. Dissertatsiya monografiyasi "Очерки по синтаксису узбекского языка (forma na *-gan* i yeyo proizvodnыe)" nomi bilan 1959 yilda nashr qilindi[1]. Keyingi yillarda olim shu yo'nalishdagi ishlarini qator ilmiy maqolalarida chuqurlashtirdi va dalillarini doktorlik dissertatsiyasida umumlashtirdi. Til qurilishining substansial-dialektik tadqiq usularini shakllantirdi[2]. S.Ivanovning yutug'i shunda bo'ldiki, olim lisoniy birliklar mohiyatini ochishda dialektik falsafa nuqtayi nazaridan yondashib, o'ziga xos yangi ta'limot yaratdi. Turkiyshunos grammatik tadqiqotlarning nazariy asoslarini ham ishlab chiqdi[3]. S.Ivanovning dastavval metodologiya masalalariga, tadqiq jarayoni obyektiga e'tibor qaratish zarurligi to'g'risidagi fikrlarini quyidagi jumlada mujassamlashtirgan: "Tasvirlanayotgan narsaning asl mohiyatini ochib bermoqchi bo'lgan musavvir haqiqatdan ko'z yummay, xususiy tomonlarni umumiy tomonlarga bo'ysundirishi, tasvir subyektini tushunishga asoslangan chuqur ichki o'xshashlikni tashqi o'xshashlikdan afzal

[1] Иванов С.Н. Очерки по синтаксису узбекского языка. – Л.: ЛГУ, 1959. – 152 с.
[2] Иванов С.Н. Родословное древо тюрок Абул-Гази Хана. Грамматический очерк (имя и глагол). – Тошкент: Фан, 1969. – 204 с.
[3] Иванов С.Н. Курс турецкой грамматики. Ч.I. – Л.: ЛГУ, 1975. - 100с.; Ч.II. – Л.: ЛГУ, 1974. – 86 с.

ko'rmog'i zarur"[1]. Turkiyshunos olim o'zining qator ilmiy asarlarida empirik tarzda ko'zga tashlanib turadigan grammatik faktlarni nazariy jihatdan o'rganishni maqsad qilib qo'ydi. Olimning fikricha, "tadqiqot obyektining teran tahliliga erishish uchun undan nari ketish, uzoqlashish, idrok doirasiga nafaqat obyektning ayni paytda kuzatish (his qilish) mumkin bo'lgan parchasini, shuningdek, u bilan bog'liq, uni tushunish imkonini beradigan qandaydir yangi belgi-xususiyatlarni ham ilg'ab va qamrab olishga intilish kerak. Fanning mohiyati, bir necha marta ta'kidlangani kabi, nafaqat empirik faktlar miqdorini oshirishdan, balki, birinchi navbatda, ularning yangi kombinatsiyalari (ya'ni bir turdagi bir necha narsalarning o'zaro uyg'un birikmalari)ni yaratishdan iborat."[2].

Olim grammatik shakl tahliliga substansiallik omilini tatbiq qilar ekan, bunday yondashishning mohiyatini nima tashkil etadi? Bilamizki, lisoniy birlik mujassamlashgan imkoniyatlar butunligidir. Lisoniy birlik nutqda o'zida mavjud bo'lgan umumiyliklarni xususiylashtiradi, imkoniyatlarni voqealantiradi. Bu yondashishning metodologik asosini UMIS(umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab) va YHVO(yakkalik, hodisa, voqelik, oqibat) kategoriyalarining til tizimidagi bevosita amaliy tatbiqi tashkil etadi.

O'zbek substansial tilshunosligi (O'ST)ning keyingi taraqqiyoti va hozirgi kunda O'zbekistonda ommalashishi S.N.Ivanovning shogirdi professor H.G'.Ne'matov va u yaratgan lingvistik maktab bilan bog'liq.

S.N.Ivanovning substansial talqini morfologik kategoriyalar asosida shakllantirilgan bo'lsa, o'zbek tilshunosligida uning ko'p sonli izdoshlari ishlarida nafaqat morfologiya, balki leksika, sintaksis va boshqa sath birliklari va hodisalari milliy mohiyatga hamda O'zbekistonda milliy istiqlol oldimizga qo'ygan yangi vazifalarni hal etishga qaratilgan maqsad hamda yo'nalishlarda tavsif va talqinlarini topdi[3]. Substansial tahlil asosida lisoniy tizim (resp. o'zbek tili)ning nisbatan to'liq tavsifi berildi. Bu tavsiflar nafaqat O'zbekiston umumiy o'rta maktablarining "Ona tili" va oliy filologik ta'limining "Hozirgi o'zbek adabiy tili" o'quv fanlaridan dastur va darsliklarida o'z aksini topdi[4], balki o'zbek substansial tilshunosligida ishlab chiqilgan yangi ilmiy tushunchalarni G'arbiy Yevropa tillari hodisalariga tatbiqi bilan g'arb olimlari diqqatini ham

[1] Иванов С.Н. Грамматик тадқиқотларнинг методологик муаммолари / Рус тилидан И.Мирзаев таржимаси. – Самарқанд: СамДУ, 2004. – Б.80.
[2] Иванов С.Н. Грамматик тадқиқотларнинг методологик муаммолари / Рус тилидан И.Мирзаев таржимаси. – Самарқанд:СамДУ, 2004. – Б.80.
[3] Менглиев Б. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар.: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000.-51б.; Қурбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили (содда гап синтаксиси учун материаллар). – Тошкент:Университет, 2002. – 117 б.
[4] Умумий ўрта таълимнинг Давлат таълим ва ўқув дастури. 1-махсус сон. – Тошкент:Шарқ, 1999.

o‘ziga tortmoqda[1], internet sahifalaridan joy olmoqda[2]. M.Saidovaning rus tilida bir sostavli gaplarni, M.Fayzullayevning rus tilida ruhiy holat fe’llari xususiyatlarini, N.Sadullayevaning ingliz tilida uyushish va ajratilish hodisalarini, M.Bolibekovaning ingliz tilida kesimlik shaklini, N.Vohidovaning nemis tilida leksik-semantik graduonimiyani, J.Jumaboyevaning ingliz tilida graduonimiyaning substansial tatbiqini ishlab chiqishlari mazkur yo‘nalishning fanda mustaqil bir oqim sifatida mustahkamlanayotganligidan dalolat beradi.

Turkiyshunoslikda formal-funksional tadqiq yo‘nalishini boshlab bergan H.Ne’matov rahbarligidagi formal-funksional tezislarning 8-bandida quyidagi so‘zlarni o‘qiymiz: “Ushbu tezislarda turkiy tillarning o‘z ichki tizimi tomonidan belgilab qo‘yilgan mezonlar asosida mazkur tillarda zamonaviy sintaksisni yaratib berishning mumkin bo‘lgan usullaridan biri va substansial morfologiya, sistem leksikologiya, gap bo‘laklari nazariyasining so‘nggi yutuqlari bayon etilgan. Ushbu tezislarda ko‘tarilgan fikrlarning har biri kelajakda har tomonlama chuqur ilmiy tahlilni, aniqlashtirishlarni va to‘ldirishlarni talab qiladi”[3]. H.Ne’matov substansial yondashishning metodologik asosi tasavvufning zot (substansiya) va tajalli (refleksiya) haqidagi ta’limoti bilan bog‘liq ekanligini, zotning (majmuyi asmo va sifot) voqelikda tajallilanishi, uning bevosita kuzatishda berilmaganligini o‘zining izlanishida isbotladi.[4]

H.Ne’matov o‘zining izdoshi (M.Abuzalova, Sh.Akramov, R.Bobokalonov, O.Bozorov, S.Nazarova, B.Yorov, B.Mengliyev, S.Muhammadjonova, G.Ne’matova, L.Ne’matova, Sh.Orifjonova, R.Rasulov, L.Raupova, R.Sayfullayeva, H.Saidova, M.Saidova, M.Fayzullayev, Z.Yunusova, B.Qilichev, M.Qurbonova, Sh.Shahobiddinova, M.Ernazarova, A.Salkalamanidze, A.G‘ulomov, S.G‘iyosov va b.) bilan o‘zbek milliy grammatikasini yaratishga, o‘zbek tili sathini yangicha formal-funksional (substansial) yo‘nalishda tadqiq qilishga erishdi. O‘zbek tilshunosligida rivojlanayotgan va bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim tizimidan tortib oliy ta’lim tizimigacha amalda bo‘lgan dastur va darslikda o‘zining amaliy tadbig‘ini topgan bu yo‘nalishning asosiy tamoyili olima M.Qurbonova tadqiqotida quyidagicha sanalgan:

[1]Sayfullayeva R. “Davlat tili haqida” Qonun va o`zbek tilshunosligining Yevropa faniga ta`siri//Айюб Гуломов ва ўзбек тилшунослиги масалалари.-Илмий мақолар тўплами. Мас. муҳаррир Р.Сайфуллаева. – Тошкент: ЎзМУ, 2009.

[2] http://go.mail.ru/search.mailru=1&drch=e&mg=1&q=Graduonymic&rch=e

[3]Нигматов Х.Г., Абдуллаев К.М., Банару В.И. и др. Способы синтаксической связи и актуальные вопросы тюркского синтаксиса // Советская тюркология. – Москва, 1988. - №4. – С. 3-8.

[4] Неъматов Ҳ. Тажалли тасаввуф билиш назарияси ва тилшуносликда синтаксисни ўрганиш масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти , 1993, -№ 2.

1) lisoniy birlikning zotiy tabiati;

2) har bir lisoniy birlikning kamida ikki paradigma mansubligi;

3) lisoniy tizimning barcha bosqichida oraliq uchinchining mutlaqligi;

4) lisoniy tizimning ierarxik (pog‘onaviylik) qurilishi; bu ierarxiyada har bir bo‘g‘in uzvining gipo-giperonimik munosabat bilan ochiq mikrosistema sifatida o‘zaro bog‘lanishi;

5) har bir lisoniy birlikning o‘z xususiy sinonimik va graduonimik qatoriga ega bo‘la olishi va bu qatorning umumiy lisoniy sistema va mikrosistemaga bevosita aloqador emasligi.

Shu o‘rinda alohida ta’kidlash lozimki, substansial tadqiqning yuqorida sanab o‘tilgan besh tamoyili hech qachon biri ikinchisidan uzilgan holda kela olmaydi va barchasi uzviylikda voqealanadi. Deylik kelishik kategoriyasi va shaklida uning voqealanishini kuzatar ekanmiz, birini ikkinchisidan ajratmagan holda ko‘ramiz. Shuning uchun dastlab kelishik ma’no va vazifasining o‘zbek tilshunosligidagi talqin-u tavsifi va uni umumlashtirish ustida to‘xtalamiz.

Kelishikning substansial talqini haqida. O‘zbek tilida kelishik shaklining yasalishi, ma’nosi, sintaktik vazifasi, uning o‘zaro almashinuvi kabi rang-barang masalasiga Ayyub G‘ulomov, Fattoh Abdullayev, Tohir Inoyatov, Ibodat Ziyoyeva kabilarning ishi[1], bu kategoriya shaklining sistemaviy tahlil va talqiniga, jumladan, Ziyovuddin Qodirovning maxsus tadqiqoti bag‘ishlangan.[2]

Shuning uchun kelishik shaklining yasalishi va qo‘llanilishi bo‘yicha fanga yangi bir narsa kiritish amri mahol. Lekin sintaktik aloqa va xilma-xil ma’no ifodalashning muhim vositasi bo‘lgan bu kategoriya va uning har bir shaklining mohiyati o‘zbek tilshunosligidagi har bir yo‘nalishda o‘zgacha tushuniladi va hozirgacha uning substansial (formal-funksional) talqini[3] maxsus berilmagan.

Substansiallikning bosh tamoyili zotiylik, ya’ni lisoniy birlikka «majmuyi asmo va sifot» sifatida nutqda xilma-xil holatda voqealantira oladigan xususiyat, ma’no va vazifani imkoniyat sifatida o‘zida mujassamlashtirgan hamda xilma-xil kontekstual sharoitda bu majmu va imkoniyatdan faqat ayrim bir qirrasini

[1]Абдуллаев Ф. Келишик аффикслариниг генезисига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1961, -№ 5; 1962, 4-сон; Гуломов А. Ўзбек тилида келишиклар. –Т., 1941; Зиёева И. Келишик аффикслариниг функционал алмашинишувларига доир баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1966, -№ 2; Зиёева И. Дательный падеж в узбекском языке: : филол.фан.номз. ...дисс...автореф. –Самарканд, 1966.

[2] Қодиров З. Ўзбек тили грамматик категориясини систем тадқиқ этиш (Келишик категорияси) : филол.фан.номз. ...дисс...автореф. –Самарканд, 1993.

[3] Курбонова М. Шакл-вазифавий тадқиқ усулларига доир //Ўзбек тили ва адабиёти, 1998, -№5; Курбонова М. Ўзбек тилшунослигида формал-функционал ёндашув ва содда гап қурилиши талқини: филол.фан.докт... дисс.автореф. –Т., 2000.

voqealantira oladigan hodisa deb qarash.[1] Kelishikka shu jihatdan yondashadigan bo'lsak, bu shakl tabiatidagi zotiylik nimadan iborat bo'ladi?

Kelishik shakli va kategoriyasining ilmiy talqinida tilshunoslikda bir necha nazariya mavjud.[2] Bu nazariyani ikkiga bo'lish mumkin:

1) deskriptiv talqin;

2) susbtantsial talqin.

Deskriptiv talqinda kelishik kategoriyasi va shaklida umumiy ma'no muammosi o'rtaga qo'yilmaydi; kelishikning muayyan nutqiy ma'nosi matndagi qurshovi, nutq vaziyati bilan belgilanadi, deb qabul qilinadi va kelishik qo'shimchasining xilma-xil qurshovdagi ma'nosini sanab o'tish bilan cheklaniladi. O'zbek tilidagi kelishik shaklining shunday tavsifi o'zbek tili akademgrammatikasida[3], darslik va qo'llanmada[4], kelishikning ma'no va funksiyasi tavsifiga bag'ishlangan risolada va yuqorida sanab o'tilgan ishda o'z ifodasini topgan.

Substansial talqin kelishik kategoriyasi hamda har bir kelishik shaklining umumiy grammatik ma'nosini ochib, uning nutqda voqealanishini shu ma'no (funksiya) asosida tushuntirishga harakat qiladi. Bu sohada ilk qadam yosh grammatiklar (eng yirik vakili G.Paul) tomonidan qo'yilgan edi. R.Yakobson G.Paulning "Nutqda u yoki bu kelishik shaklining qo'llanilishi uni boshqarib kelgan so'zning ma'nosi bilan emas, balki kelishik shaklining o'zining ma'nosi bilan uzviy bog'liqdir" degan so'zini rivojlantirib, rus tilidagi olti kelishik shaklining har biri uchun xos bo'lgan va bu kelishik shaklining xususiy ma'nosiga (variantga) nisbatan umumiylik (invariant) mavqeyida turgan umumiy grammatik ma'nosini ochishga va shu asosda kelishikning nutqiy qo'llanishini izohlashga intildi.[5]

R.Yakobson qarashida kelishikning umumiy ma'nosi formal logikaning umumiy mavhum tushunchasi tabiatida edi, shuning uchun u yaxlit invariant deb tushunilgan.[6]

Tom ma'noda substansial tadqiqda lisoniy birlikning umumiy ma'nosi yaxlit invariant sifatida emas, balki mohiyatan ziddiyatli, shu asosda kamida ikki paradigmadan o'rin oluvchi dialektik birlik sifatida tushuniladi. S.N.Ivanov buni

[1] Иванов С.Н. Очерки по синтаксису узбекского языка. –Л.:ЛГУ, 1959; Неъматов Ҳ. Тажалли тасаввуф билиш назарияси ва тилшуносликда синтаксисни ўрганиш масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1993, -№2; Неъматов Ҳ., Сайфуллаева Р., Курбонова М. Ўзбек тили структурал синтаксаси асоси. –Т.: Университет, 1999.

[2] Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. –Т.: Фан, 1989 –Б. 51.

[3] Ўзбек тили грамматикаси. I жилд, Т.: Фан, 1975.

[4] Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Ўзбекистон, 1992.

[5] Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.: Фан, 1989.

[6] К общему учению о падеже // Якобсон Роман. Избранные работы. Составление и общая ред. В.А.Звегинцева. –М.: Прогресс. 1985. –С. 133–176.

har bir kelishik qo'shimchasida bir-biriga zid bo'lgan ikki ma'no turining mavjudligida ko'rdi va har bir kelishik shaklida ikki xil ma'noni ajratishga intildi.[1] Chunonchi, chiqish va jo'nalish kelishigida S.Ivanov harakat → obyekt ma'nosi bilan birga obyekt → harakat ma'nosi ham borligi, harakat → obyekt ma'nosi jo'nalish kelishigida yetakchi (vizual, keng tarqalgan), obyekt → harakat ma'nosi esa qo'shimcha (okkazional, xususiy konteksdagina voqealanuvchi) sifatida, chiqish kelishigida esa bu munosabat aksincha ekanligini misolda ko'rsatdi. Chunonchi, *orqasidan keldi – uydan keldi.*

H.Ne'matov talqinida kelishikning zotiy mohiyati uni ikki xil – mohiyatan zid, lekin tabiatan bog'liq bo'lgan ma'noviy va sintaktik vazifaga ajratishda namoyon bo'ladi. Bunda har bir kelishik shaklida ma'noviy va sintaktik vazifa farqlanadi. Jumladan, kelishik kategoriyasining umumiy sintaktik vazifasi «oldingi tobe so'zni keyingiga bog'lash» sifatida belgilanib, kelishikning umumiy semantik vazifasi «tobe/hokim so'zning ma'lum bir turkumga mansubligi, kelishik shaklidagi so'zning ma'no jihatdan aniq yoki noaniqligi, har xil makon/zamon, butun/bo'lak munosabatining ifodalanishi» deb qaraladi. Bu umumiy sintaktik va semantik vazifa har bir kelishik shaklida quyidagi ko'rinishda kelishik shaklining umumiy grammatik ma'nosi sifatida voqealanadi:

1. Qaratqich kelishigida – *distant joylashgan/ma'noviy jihatdan aniq* bo'lgan **aniqlovchini boshqa bir ismga tobe aloqaga kiritish.**

2. Tushum kelishigida – *distant joylashgan/ma'noviy jihatdan aniq* bo'lgan ismni **fe'lga vositasiz to'ldiruvchi mavqeyida tobe aloqaga kiritish.**

3. Jo'nalish va chiqish kelishigida – ism/fe'lni *har xil zamon/makon, sabab/maqsad ma'nosi bilan* **vositali to'ldiruvchi/hol sifatida fe'l/ism bilan tobe aloqaga kiritish.**

4. O'rin-payt kelishigida – ism/fe'lni *zamon/makon ma'nosi bilan* boshqa **fe'l/ism bilan hol mavqeiyda tobe aloqaga kiritish.**

5. Bosh kelishik bu tizimda «oraliq uchinchi» mavqeiyda bo'ladi va barcha kelishik shakli ma'no va vazifasini ma'lum vosita yordamida (ko'makchi, boshqa turdagi yordamchi so'z) bajara oladi.

Kelishikning yuqorida sanab o'tilgan substansial mohiyati – umumiy grammatik ma'nosida substansial tadqiqning besh tamoyili voqealanishini ko'rib o'tamiz.

Zotiylik tamoyili. Yuqorida sanalgan kelishikning umumiy grammatik ma'nosi har bir kelishik shaklining rang-barang voqealanishi uchun umumiylik

[1] Иванов С.Н. Курс турецкой грамматики. Ч.I. -Л.: ЛГУ, 1975; Ч.II. - Л.: ЛГУ, 1974.

mavqeyida bo'ladi va kelishikning muayyan voqealanishi uning umumiy grammatik ma'nosidan tashqarida bo'lmaydi.

Har bir lisoniy birlikning kamida ikki paradigmaga mansublik tamoyili. Har bir kelishik shakli sintaktik funksiyasi bo'yicha alohida paradigma tuzadi va bunda:

Bosh kelishik – dominanta va ayni zamonda eganing grammatik shakli

Qaratqich kelishigi – aniqlovchi

Tushum kelishigi – vositasiz to'ldiruvchi.

Jo'nalish/ chiqish kelishigi – vositali to'ldiruvchi /hol.

O'rin-payt kelishigi – hol shakli paradigmasini hosil qiladi.

Ayni zamonda kelishik ma'noviy xususiyatiga ko'ra quyidagi paradigmani tashkil qiladi:

Bosh kelishik – belgilangan ma'noviy xususiyatga ega emas.

Qaratqich kelishigi – aniqlovchining ma'noviy muayyanligi/distantligi, uning ism turkumiga mansubligi va ism turkumiga mansub so'zga tobeligi.

Tushum kelishigi – vositasiz to'ldiruvchining ma'noviy muayyanligi /distantligi, uning ism turkumiga mansubligi va o'timli fe'lga tobeligi.

Jo'nalish kelishigi – vositali to'diruvchi/ holning harakat →obyekt ma'nosi bilan fe'l/ ismga tobeligi.

O'rin-payt kelishigi – hol mavqeyida kelgan ism/fe'lni fe'l yoki ismga tobe aloqaga kiritish.

Chiqish kelishigi – vositali to'ldiruvchi/holning obyekt →harakat ma'nosi bilan fe'l/ismga tobeligi.


Sanab o'tilgan ikki paradigmada har bir kelishik o'ziga xos o'ringa ega.

Oraliq uchinchi qonuni. Har bir kelishik semantik va sintaktik paradigmada chiqishi va unda o'ziga xos o'ringa ega bo'lganligi sababli, kelishikning muayyan nutqiy voqealanishi semantik va sintaktik funksiya, vazifa, tomon birligidan iborat bo'ladi. Boshqa so'z bilan aytganda, kelishikning substansial tabiati ham, nutqiy voqealanishi ham ma'noviy va sintaktik tomonning birligi sifatida yuzaga chiqadi. Lekin ma'noviy va sintaktik tomonning har birining nisbiy mustaqilligi har bir tomonning o'ziga xos paradigma tuzishi bilan dalillanadi.

Demak, har bir kelishik shaklining o'zi va uning voqealanishi «oraliq uchinchi» maqeyida bo'ladi. Bundan tashqari, kelishik tizimining o'z ichida qat'iy belgilangan ma'no va funksiyaga ega bo'lmagan umumiy kategorial shakl – oraliq uchinchi – bosh kelishik shakli ham mavjud.

Lisoniy tizimning ierarxik (pog'onaviylik) qurilishi: Sintaktik funksiyasiga ko'ra bosh kelishik gapning egasi grammatik shakli sifatida egadan

boshqa vazifada keladigan qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, o'rin-payt kelishigi, chiqish kelishigi, jo'nalish kelishigiga qarama-qarshi turadi. U o'z navbatida aniqlovchining shakli sifatida qaratqich kelishigini to'ldiruvchi, hol vazifasida keladigan tushum kelishigi, jo'nalish kelishigi, chiqish kelishigi, o'rin-payt kelishigidan ajratadi. Bu kelishik o'z navbatida vositasiz to'ldiruvchi sifatida tushum kelishigini hol/to'ldiruvchi shakli bo'lgan jo'nalish kelishigi,ChK,O'K shaklidan ajratadi. Undan bosqichligi bilan o'rin-payt kelishigi hol shakli sifatida vositali to'ldiruvchi, hol shakli bo'lgan jo'nalish, chiqish kelishigidan ajralib chiqadi va bu pog'onali (ierarxik) bo'linishni hosil qiladi:



Bu pog'onali bo'linish yuqoridagi chizmada ekvipolent oppozitsiya shaklida ko'rsatilgan bo'lsa-da, mohiyatan privativ tabiatlidir.

Shuning uchun bu oppozitsiyada bosh kelishik shakli «oraliq uchinchi» qatorining yoki paradigmaning dominantasi mavqeiyda bo'lib, «gap egasining grammatik shakli bosh kelishikdir» hukmi to'g'ri. Lekin «bosh kelishik shakli faqat ega vazifasida keladi» hukmi noto'g'ridir; paradigmaning dominantasi bo'lgan bosh kelishik qolgan barcha u yoki bu vosita yordamida (so'z tartibi, ko'makchi va h.) istagan kelishik vazifasida kela oladi. Chunonchi,

bosh kelishik ~ qaratqich kelishigi = maktabimiz bog'i – maktabimizning yangi bog'i

bosh kelishik ~ tushum kelishigi = kitob o'qimoq – bu kitobni o'qimoq

bosh kelishik ~ jo'nalish kelishigi = maktab bormoq – maktabga bormoq // maktab tomon bormoq

bosh kelishik ~ o'rin-payt kelishigi = avtobus bilan keldim – avtobusda keldim

bosh kelishik ~ chiqish kelishigi = non yemoq – nondan yemoq.

Kelishik shaklining har biri o'ziga xos ma'no va vazifasi bilan birga o'zining sinonimik qatoriga ega. Chunonchi, *o'quvchilarning biri-o'quvchilardan biri; uyga ketdi-uy tomon ketdi; ukamdan katta –ukamga ko'ra katta.*

Dialektik logika, narsaga substansial yondashuv predmetning ayrim belgisini abstrakt eslatishdan konkretlikka – mohiyatga qarab borishni talab qiladi. Shundagina o'rganilayotgan narsa (predmet, hodisa) haqida haqiqiy bilimga ega bo'lish mumkin. Jumladan, yuqorida bayon qilingan kelishikka xos talqin ularning tub, substansial mohiyatini aniqlashga qaratilgan harakat.

5-§. Morfologik (grammatik) shakl valentligi


Leksik-semantik, semantik-sintaktik valentlik tushunchasi dastlab leksik hodisaga nisbatan qo'llanilgan va hozirgi kunga qadar valentlik deganda, asosan, leksik-semantik valentlik tushuniladi, lekin substansial yondashishda leksik valentlik bilan birga grammatik valentlik – grammatik-morfologik shaklning, shuningdek, sintaktik kategoriyaning (pozitsiyaning) valentligi tushunchasi ham farqlanadi va bu masala jahon tilshunosligida leksik-semantik valentlik qanchalik keng va atroflicha o'rganilgan bo'lsa [H.Shumaxer tuzgan va "INSTITUT FÜR DEUTSCHE SPRACHE MANNHEIM"da 1986-yilda nashr etilgan «Valenzbibliographie»(Valentbibliografi) kitobi ming sahifadan iborat bo'lib, asosan G'arbiy Yevropa, Angliya va AQShda leksik-semantik valentlik bo'yicha nashr etilgan 20 000 dan ortiq maqolasi, axborot va monografiyani o'z ichiga oladi], grammatik valentlik shu darajada substansial tilshunoslik doirasida amalga oshirilgan ayrim tadqiqotni hisobga olmasak, mutlaqo tadqiq etilmagan va tavsif etilmagan hodisa.

Leksik-semantik valentlik, uning mohiyati, tilshunoslikda tadqiqi va sintaktik qurilma tuzilishini belgilashdagi ahamiyati. Til hodisasiga substansial yondashuv tilshunoslikda valentlik qonuniyatining o'rganilishiga turtki bo'ldi.


Til hodisasining lisoniy mohiyati o'rganilar ekan, til birligining birikuv imkoniyatiga ega bo'lishi va bu imkoniyat tasodifiy emasligi haqida xulosa bildirila boshladi. Shu tariqa tilshunoslikka valentlik, valentlik nazariyasi, lisoniy valentlik va nutqiy valentlik kabi qator atama kirib kela boshladi.

Valentlik tushunchasi ximiya fanida biror element atomining boshqa element atomi bilan birika olish qobiliyati deb e'tirof etiladi[1]. Valentlik – elementning muhim miqdoriy tavsifi[2]. *Valentlik* tushunchasini kimyo faniga 1853-yilda ingliz kimyogari Eduard Frankeld olib kirdi. Rus kimyogari A.M.Butlero kimyoviy tuzilish nazariyasini kashf qilishida valentlik nazariyasi muhim o'rin tutdi. D.I.Mendeleyev elementning davriy sistemasidagi o'rni bilan valentlik o'rtasida bog'lanish borligini isbotladi hamda fanga o'zgaruvchan valentlik tushunchasini kiritdi.

Valentlik so'zi lotincha "valentia" leksemasidan olingan bo'lib, "kuch" degan ma'noni anglatadi. Fizika fanidan ma'lumki, kuch – o'zaro ta'sir va bog'lanish demak. Kimyo fanida "bir valentli", "ikki valentli", "ko'p valentli" kabi atama ham ishlatiladi. Buni qanday tushunish kerak? Chunonchi, H_2O (suv) molekulasida kislorod atomi (O) bir valentli bo'lib, u vodorod (N) atomining ikkitasi bilan birikkan. Demak, suv formulasida vodorod ikki valentli (N_2)dir:



Ammiak tarkibidagi (NH_3) azot (N) bir valentli, vodorod (N) esa uch valentli (N_3)dir:



Ushbu tushuncha tilshunoslikda lisoniy birlikning hali yuzaga chiqmagan birikuvchanlik-biriktiruvchanlik imkoniyati sifatida qaraluvchi lisoniy hodisaga nisbatan qo'llanildi.

Til birligining o'zaro birikish xususiyati tilshunoslikda endi tadqiq qilinayotgan muammo emas. Valentlik nazariyasining o'ziga xos taraqqiyot bosqichi, ildizining uzoq tarixga egaligi, bu sohada izlanish olib borgan zukko olim qarashi tilshunos S.Muhammedova tadqiqotida mufassal o'rganilgan[3].

Darhaqiqat, til hodisasida valentlik qonuniyatining mavjudligi dastavval verbotsentrizm g'oyasi bilan uyg'un holda tushuntirilgan bo'lsa, XIX asr oxiridan boshlab bu sohada jiddiy izlanish yuzaga keldi. Jumladan, A.M.Peshkovskiy asarida fe'l boshqaruvi to'g'risida[4], Fitrat lingvistik qarashida kesimning markaziy bo'lakligi va gapdagi to'ldiruvchi ishtirokining unga

[1] ЎТИЛ. –М.: Русский язык, 1981. 172- б.
[2] Аскаров И. ва бошқалар. Кимё: 7- синф дарслиги. –Т.: Шарқ, 2005. 31- б.
[3] Муҳамедова С. Ўзбек тилидаги ҳаракат феълининг семантикаси ва валентлиги: филол.фан.докт.дисс. – Т., 2007, 402- бет.
[4] Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. 1-ое изд. –М.: Уч. педиз, 1938. -452 с.

bog'liqligi[1] masalasi yoritilgan bo'lsa, fransuz tilshunosi L.Tener valentlik tushunchasining nazariy asosini ishlab chiqdi[2].

So'zning birikish qonuniyati, valentlikni tavsiflash metodikasi, ayniqsa, Germaniyada nemis tilshunoslari tomonidan keng tadqiq qilingan. Bu sohada G.Xelbig, A.Balveg-Shramm, G.Shumaxer kabi olimning xizmati beqiyos[3].

So'zning ma'noviy (leksik-semantik) valentligi tushunchasi o'tgan asrning 20–30-yilida shakllandi va juda tez ommalashdi. XX asring 40-yilida sovet tilshunosligiga valentlik tushunchasini S.D.Katsnelson olib kirdi[4]. Ma'noviy va sintaktik valentlik ustida olim o'rtasida uzoq yil bahs davom etdi. Mazkur jiddiy masala yechimini o'zbek tilshunos olimi R.Rasulov yechib berdi[5].

Olim masalani lison – nutq aspektida tekshirib, valentlik hodisasini imkoniyatli voqelik sifatida baholadi. Shu bilan birga, valentlik hodisasining ham semantika, ham sintaksisga daxldorligini isbotladi.

Keyingi yilda o'zbek tilshunosligida valentlik tushunchasi ostida uch jihat farqlanmoqda:

1. So'z valentligi.
2. Sintaktik valentlik.
3. Grammatik shakl valentligi.


So'z valentligi masalasida ikki muammoni bir-biridan farqlamoq lozim:

1) lisoniy valentlik;

2) nutqiy valentlik.

Muayyan bir so'zning ma'lum bir ma'noviy guruh so'zi bilan me'yoriy ravishda birika olish qobiliyati so'z valentligi. So'zning lisoniy valentligidagi bu imkoniyat semantik (ma'noviy) valentlik deyiladi.

Lisoniy valentlik so'zning semantik strukturasida mujassamlangan yashirin imkoniyat, mohiyat, umumiylik, zaruriyat. Nutqiy valentlik esa lisoniy valentlikning ro'yobga chiqishidir:



[1]Курбонова М. Фитрат-тилшунос. –Т.: Университет, 1996. –Б.12.
[2]Теньер Л. Основы структурного синтаксиса –М.: Прогресс, 1988. –с. 60.
[3]Степанова М.Д., Хельбиг Г. Части речи и проблема валентности в современном немецком языке. –М.: Высшая школа, 1978. –257 с.; Бальвег-Шрамм А., Шумахер Г. Словарь глагольных валентностей на семантической основе. Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск XIV. Проблемы и методы лексикографии. –М.: Прогресс, 1983. -С. 201–226.
[4] Кацнельсон С.Д. О грамматической категории // Вестник ЛГУ.Серия истории языка и литературы. –Л.: ЛГУ, 1948. Кацнельсон С.Д. К понятию типов валентности// Вопросы языкознания. -1987. -№ 3. -С. 21.
[5] Расулов Р. Ўзбек тилида ҳолат феъли ва уларнинг облигатор валентликлари. –Т.:Фан, 1989.

Birikuvchi so'z ma'lum bir ma'noviy turkum so'zi bilan birika olishi uchun shu turkum so'zining ma'lum bir sintaktik shaklda bo'lishini talab etadi. So'z lisoniy valentligidagi bu jihat sintaktik valentlik.

Ma'noviy yoki sintaktik valentlikni bir-birisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Masalan, *shirin qovun, non ushoqlarini termoq* kabi so'z birikmasida ham semantik, ham sintaktik jihatdan me'yoriylik mavjud. Ammo *shirin uyqu, gap termoq* kabi so'z birikmasida nome'yoriy bog'lanish bor. Shunga ko'ra, unda ma'noviy valentlik ustun bo'ladi.

Sintaktik valentlik bilan ma'noviy valentlik o'zaro nisbiy mutanosiblikda bog'langan bo'ladi, ya'ni undan biri o'zgarsa, ikkinchisi ham o'zgaradi. Masalan,

1. Salima kitob yozdi.
2. Salima kitobga yozdi.
3. Salima uchun kitob yozdi.

Ba'zi holatda valentlikning bir ko'rinishi o'zgarsa ham, ikkinchisi o'zgarishsiz qolishi mumkin. Chunonchi,

1. **Toshpo'latjon**[foil] **insho**[manba] **yozdi**[harakat].
2. **Insho**[manba] **Toshpo'latjon**[foil] **tomonidan yozildi**[harakat].
3. **Salima**[sababchi] **opa Toshpo'latjonga**[foil] **xat**[manba] **yozdirdi**[harakat].
4. **Toshpo'latjon**[foil] **yozgan**[harakat] **xat**[manba]

Misolda sintaktik valentlik o'zgargan, biroq ma'noviy valentlik o'zgarishsiz qolgan.

Quyidagi misolda esa sintaktik valentlik o'zgarmasa-da, ma'noviy valentlik o'zgarganligini kuzatamiz:


1. Sir ochildi[harakat].
2. Eshik ochildi[harakat].
3. Gul ochildi[harakat].

Keyingi vaqtda o'zbek tilshunosligida grammatik shaklga til-nutq aspektida yondashish natijasida **grammatik shakl valentligi** ham mavjudligi tez-tez e'tirof etilmoqda.


Grammatik valentlik. Morfologik shakl valentligi. Tilga substansial yondashish nafaqat lug'aviy shaklda, balki morfologik (grammatik) shaklda ham valentlik qonuniyatining mavjudligi haqidagi fikrni ilgari surishga asos bo'la oladi. Tilshunoslikda **grammatik valentlik** tushunchasi grammatik shaklning ma'noviy va sintaktik tomonini dialektik birlikda ko'rish natijasida paydo bo'ldi[1].

[1] Нигматов Х. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.:Фан, 1989. –191 с.; Акрамов Ш. Ўзбек тилининг гап қурилишида тўлдирувчи ва ҳол ([WPm] валентлиги

Leksema kabi grammatik shakl ham valentlikka ega bo‘lib, u leksema valentligini o‘zgartirishi, leksema valentligiga ta’sir qilishi mumkin. Boshqacha aytganda, affiksal morfemaning birikish qobiliyati grammatik shakl valentligi. Quyida tarkibida grammatik shakl mavjud bo‘lmagan hamda grammatik shaklli leksemaning birikuv imkoniyatini kuzataylik:



аспектида):филол.фан.номз.дисс.автореф.. –Т., 1997; Менглиев Б. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусияти ва семантик имкониятлари. филол.фан.номз.дисс.автореф., –Т., 1996.



Ushbu leksemalar birikuviga jiddiy ahamiyat berilsa, *[-lar]* va [*-dir*] grammatik ko‘rsatkichining *kitob* hamda *kulmoq* leksemasining birikish imkoniyatiga ta’sir etganligini fahmlash mumkin. *Kitob* leksemasining valentligi ko‘plik son shakli [*-lar*] hisobiga toraygan bo‘lsa, *kulmoq* leksemasida birikuv imkoniyati [*-dir*] orttirma nisbat shakli hisobiga kengaygan. Bundan tashqari *kitob* leksemasi [*-im*] egalik morfemasi bilan shakllantirilganda *mening* so‘z shakli bilan birikishga imkoniyat tug‘iladi: *mening kitobim*. Bunday xususiyatni nafaqat shaxs-son yoki egalik, balki boshqa turdagi qo‘shimchada ham kuzatish mumkin. Chunonchi, *keldik* shakllangan fe’lidagi [*-k*] I shaxs, ko‘plik son qo‘shimchasi *biz* olmoshiga; *oqayotgan* so‘zshaklidagi hozirgi zamonni ifodalashga xoslangan *-yotgan* shakli ism bilan birikishga ehtiyoj sezadi.

Til hodisasiga substansial yondashish turkiy tilning grammatik, xususan, morfologik shaklda ham valentlikni ajratish imkoniyatini beradi.

Ma’lumki, turkiy tilning morfologik shakli asosan affiksatsiya - qo‘shimchani qo‘shish usuli bilan yasaladi va turkiy qo‘shimcha flektiv tilning morfologik formatidan farqli ravishda yorqin ma’noviy[1] va bu jihatdan leksemaga o‘xshash. Chunonchi, [*-lar*] ko‘plik son shaklining umumiy grammatik ma’nosi, oldingi bobda ko‘rib o‘tganimizdek, «bo‘linuvchan noaniq miqdoriy ko‘plik» sifatida belgilanar ekan, o‘z-o‘zidan tushunarliki, [*-lar*] formatli so‘z shakli aniq miqdor ifodalovchi aniqlovchi bilan birika olmaydi. Birikkanda esa, albatta, okkazionallik – g‘ayrime’yoriylik sodir bo‘ladi. Shuning uchun *yuzta kitob*, *o‘ninchi yil* kabi birikmaga aniqlanmish ko‘plik shakli kela olmaydi. *Yuzta kitoblar* birikmasi o‘zbek tili uchun xos emas, *o‘ninchi yillar* esa xususiy okkazional yoki ixtisoslashgan ma’noga ega. Bundan biz **grammatik shakl so‘zning potensial (lisoniy) valentligini o‘zgartirishi - kengaytirishi**

[1] Гузев В.Г. Очерки по теории тюркского словоизменения: Имя. –Л., 1987; Глагол., 1990. Гузев В.Г.,Насилов Д.М. Словоизменительные категории в тюркских языках и понятие «грамматическая категория» // Советская тюркология, 1981. -№3.

yoki, aksincha, toraytirishi mumkinligi haqida xulosa chiqara olamiz. Shuning uchun grammatik shakl valentligi va so'zning potensial (lisoniy) valentligi orasidagi farq grammatik shakl valentligi bilan belgilanadi, degan hukmni ilgari surish mumkin [1].

Grammatik shakl valentligi o'zbek tilshunosligida mutlaqo ko'tarilmagan. ehtimol, bu masala zamonaviy yevropaviy tilshunoslik nazariyasi shakllanishiga asos bo'lgan Hind-Yevropa tillarining flektiv tabiati – bir necha grammatik shakl-kategoriya ma'nosining bitta ko'rsatkichda mujassam ifodalanishi bilan bog'liq bo'lsa ajab emas. Agglyutinativ tabiatli turkiy tillarda grammatik shakl-kategoriyaning ko'pincha alohida-alohida format bilan ifodalanishi har bir grammatik shakl-kategoriyaning nisbiy mustaqil hodisa sifatida ajratilib, uning valentlik qobiliyatini yorqinroq ochish va tavsiflashga imkoniyat beradi.

Xususan, turkiy tilning sintaktik shakli yoki aloqa-munosabat shakli deb tasnif etiluvchi (H.Ne'matov, G'.Zikrillayev, Latipov H, B.Bahriddinova) kategoriyasi[2] shaklida valentlik qobiliyati yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Chunonchi, qaratqich kelishigi albatta, egalik qo'shimchali qaralmishni talab qiladi. Shu asosda biz bemalol ayta olamizki, egalik qo'shimchali qaralmish yoki egalik qo'shimchasi qaratqich kelishigining zaruriy valentligidir: qaratqich kelishigi shakli egalik qo'shimchali qaralmishsiz qo'llanilmaydi. Lekin egalik qo'shimchasi qaratqich kelishigi qo'shimchasi bilan birika olish qobiliyatiga ega. U bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Masalan, qaratqich kelishigi va egalik qo'shimchasining valentlik – kengayish, boshqa bir birlik bilan kengayish ehtiyoji bir xil emas va leksik-semantik valentlikning zaruriy (obligator) va imkoniy kabi turga ajralishi bilan uyg'un; qaratqich shaklida egalik qo'shimchasi bilan birikish zaruriy (obligator) valentlik bo'lsa, egalik qo'shimchasining qaratqich kelishikli shakl bilan birikishi imkoniy (fakultativ – bo'lishi ham bo'lmasligi ham mumkin bo'lgan) valentlik. Faqat bu hodisa endi leksik birlik doirasida emas, grammatik formatga ham xos.

Grammatik shakl valentligi atamasi tushunchasidan S.H.Muhammedova o'z doktorlik dissertatsiyasida foydalangan[3]. O'z tadqiqotining 2-bobida («O'zbek tilidagi harakat fe'lining semantik valentligi») agens, patsiens, lokalis

[1] Нигматов Х. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т., 1989. –191с; Акрамов Ш. Ўзбек тилининг гап курилишида тўлдирувчи ва ҳол. ([WP_m] валентлиги аспектида). НДА, –Т., 1997; Менглиев Б. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусияти ва семантик имкониятлари: филол.фан.номз.дисс.автореф. –Т., 1996.

[2] Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.: Фан, 1989; Зикриллаев Ғ. Истиқлол ва адабий тил. –Т.: Фан, 2004; Б.Баҳриддинова. Феъл луғавий шакли тизими. Феълнинг тур категорияси: филол.фан.номз.дисс.автореф. –Т., 2002.

[3] Муҳамедова С.Ҳ. Ўзбек тилида ҳаракат феълининг семантик ва валентлик хусусияти: филол.фан.докт.дисс.автореф. –Т., 2007.

va emotiv valentlikni ko'rib o'tadi[1]. S.Muhammedova grammatik shakl semantikasining valentligini quyidagicha sharhlaydi: "Bunga (grammatik shaklning semantikasi valentligi – izoh bizniki M.A.) agens, kontragens, patsiens (zaruriy) va payt (fakultativ) valentligi kiradi. Fe'l grammatik shaklining semantikasi unda agens, kontragens, patsiens va payt valentliginnig yuzaga kelishi uchun asos bo'ladi"[2].

Bu sharhdan ko'rinib turibdiki, S.Muhamedova grammatik shakl semantikasi valentligini tamoman boshqacha tushunadi va unga qadar yuqorida sanab o'tilgan valentlik leksik-semantik valentlikning bir turi sifatida tavsif etilar edi. Buni dissertantning o'zi ham tan oladi: «Agens valentligini I.Qo'chqortoyev va R.Rasulov semantik valentlik qatoriga kiritishadi. Mazkur yirik tadqiqot asosida yuzaga kelgan bir qator nomzodlik dissertatsiyasida ham shu an'ana saqlangan»[3]. Tadqiqotchi agens valentligini grammatik shakl semantikasi valentligi sifatida leksik-semantik valentlikdan ajratish lozimligi haqidagi fikrini quyidagicha asoslaydi: «Aslida rus va Yevropa tilshunosligida agens valentligi mantiqiy valentlik hisoblanadi. Agens valentligi uchun bu to'g'ri, chunki harakatning bajaruvchisi agens bo'ladi. Mazkur tillardagi fe'l kesimda bajaruvchini ko'rsatuvchi morfologik shakl yo'q. Shuning uchun agensning kim yoki nima ekanligi mantiqiy anglashiladi. Ammo bu turkiy tillarda boshqacha. Unda kesimning grammatik shaklidan agensning kim yoki nima ekanligi, bir yoki birdan ortiq ekaanligi bilinadi.[4] Masalan, *Singlim hozirgina uyidan keldi* gapida fe'l kesim III shaxs birlik va o'tgan zamon qo'shimchasiga ega. Shunga ko'ra, u agens va payt bildiruvchi so'z bilan aloqaga kirishadi. Ushbu valentlik fe'lning shakliy va semantik moslashuviga binoan namoyon bo'ldi, ya'ni bu gapda fe'l kesim ham, agens ham III shaxs birlikni ko'rsatyapti. Fe'l o'tgan zamon ko'rsatkichiga ega va reallashgan *hozirgina* so'zi ham unga mos. Agar gap *Singlim bilan qizi hozirgina uyidan kelishdi* ko'rinishiga ega bo'lsa, agensni yana bittaga oshirish imkoni tug'iladi. Yoki *Akam kecha bezori bilan rosa do'pposlashibdi* gapida birgalik nisbati agens emas, balki kontragens valentligini yuzaga keltirganini kuzatish mumkin. Ko'rinadiki, fe'lga nisbat, shaxs-son, zamon qo'shimchasining qo'shilishi leksema lisoniy valentligini o'zgartirdi.

[1] Муҳамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълининг семантикаси ва валентлиги. –Т.: Фан, 2005. –Б. 122.

[2] Муҳамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълининг семантик ва валентлик хусусияти филол.фан.докт.дисс.автореф. –Т., 2007, –Б. 48, 28–29- б.

[3] Муҳамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълининг семантик ва валентлик хусусияти. филол.фан.докт.дисс. –Т., 2007. 239–240- б.

[4] Миртожиев М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент, 2004, 182- б.

Yuqoridagi fikrga asoslangan holda aytish mumkinki, agens valentligi turkiy tillar uchun grammatik shaklning semantikasi valentligi hisoblanadi.»[1]

Tadqiqotchi bunda ikki hodisani – gapning egasi va harakat fe'li (bajaruvchisi, subyekti) – o'zaro aralashtirgandek ko'rinadi. Haqiqatdan ham, eganing shaxs-soni va mavjudligi kesimdagi shaxs-son qo'shimchasidan anglashilib turadi. Lekin fe'lning agens valentligi, prof. R.Rasulov atroflicha ochib berganidek[2] , egadan boshqa pozitsiyada ham kela oladi. Shuning uchun agens valentligi bilan gap egasi tushunchasini aralashtirish mutlaqo mumkin emas. Prof. M.Qurbonova, qisman Sh.Akramov tadqiqotida ko'rsatganidek, ayrim holda fe'l kesim vazifasida kelganda semantik valentlikning agens aktanti bilan gapning egasi o'zaro mos kelishi mumkin. Masalan, *Biz kitobni o'qidik.* Lekin *Biz o'qigan kitob qiziqarli edi* gapida bunday muvofiqlashuv yo'q. Fe'l agensi va gap egasi mavqeiyda boshqa-boshqa so'z kelgan. Shuning uchun grammatik shakl valentligi sifatida agens (shuningdek, kontragens va patsiens) valentligini ajratish mumkin emas. Agens valentligi leksik-semantik valentlikning bir ko'rinishi bo'lib qolaveradi. Tamoman boshqa holatni – o'timsiz fe'lning orttirma nisbat shaklida obyekt valentligida (Chunonchi, *Xushxabar keldi – Salimjon xushxabar keltirdi*) va o'timli fe'lning orttirma nisbat shaklidagi agentiv vositali to'ldiruvchisida (*Salimjon bu xatni yozdi – Karimjon Salimjonga bu xatni yozdirdi*) ko'ramiz. Bunda patsiens va vositali agentiv obyekt valentligi haqiqatdan ham grammatik shakl – orttirma nisbat shakli bilan chambarchas bog'langan. Shuning uchun bu kitobdagi grammatik shakl valentligini S.Muhamedovaning grammatik shakl semantikasi valentligi tushunchasi bilan mutlaqo tenglashtirish mumkin emas.

Kitobdagi grammatik shakl valentligi tushunchasining asosi o'zbek tilshunosligida ilk marta M.Abuzalovaning «O'zbek tilida gapning minimal qolipi ([WPm])ning nutqda kengayishida ikki omil – kesimning lug'aviy (nominativ) asosi – [W] va uning grammatik shakli – kesimlik kategoriyasi [Pm] bilan – mavjudligi tashkil etadi. Gapning grammatik shakl (kesimlik shakli – [Pm]) asosida kengayishi tom ma'noda grammatik shakl valentligining voqealanishi. Bu valentlikning voqealanishida kesimning leksik (nominativ) asosi ([W]) mavqeyida o'timli-o'timsiz fe'l kelganda grammatik shakl (kesimlik kategoriyasi, [Pm]) valentligi bilan fe'lning leksik-semantik valentligining muvofiqlashuvi, mos kelishi (simmetriyasi) va mos kelmasligi (nomuvofiqligi,

[1] Муҳаиедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълининг семантик ва валентлик хусусияти: филол.фан.докт.дисс. –Т., 2007. 240- б.
[2] Расулов Р. Ўзбек тилида ҳолат феъли ва уларнинг облигатор валентликлари. –Т., 1989, 141- б.

assimmetriyasi) qisman M.Qurbonova, Sh.Akramov ishida ko'rib o'tilgan[1]. Grammatik shaklning valentligi muammosi Sh.Shahobiddinova ishida ham, B.Mengliyev tadqiqotida ham ko'tarilgan[2]. Lekin bu tadqiqotlarda mazkur masala maxsus tadqiqot manbayi bo'lgan emas va so'z shaklining funksional (nutqda voqealanish) tomoni bilan bog'liq ravishda yo'l-yo'lakay eslatib o'tilgan, xolos.

Grammatik valentlik tushunchasi va hodisasini alohida farqlash va tahlil etishni turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida so'z birikmasida tarkibiy qismning ikki tomonlama aloqasi ham taqozo qiladi. Turkiyshunoslikda bu masala M.B.Balakaev, Ye.I.Ubryatova, K.M.Abdullayev tomonidan ko'tarilib[3], formal-funksional tadqiq tezisining ikkinchi maqolasida[4] va shu asosda tadqiqotchi S.A.Nazarovaning izlanishi natijasida[5] keng yoritilgan. So'z birikmasida aloqaning ikki tomonlamaligining mohiyati shundan iboratki, birikmaning bir tarkibiy komponenti ikkinchi komponentidan ma'lum bir shaklda kelishni talab qilsa, ikkinchi komponent birinchi komponent shakli bilan birika olish qobiliyatiga ega bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, so'z birikmasida grammatik shaklning obligator va fakultativ (imkoniy) valentligi o'zaro uyg'unlashadi. Chunonchi, *Salimaning kitobi* so'z birikmasida birinchi tobe komponent obligator valentlikka ega va egalik qo'shimchali hokimni talab qiladi, egalik qo'shimchali hokimsiz me'yoriy nutqda to'liq shaklda voqealana olmaydi.

Ikkinchi komponent esa qaratqich kelishigi shaklidagi tobe komponent bilan birikish imkoniyatiga, ya'ni imkoniy (fakultativ) valentlikka ega va *Salimaning kitobi* so'z birikmasida ikki grammatik shaklning – obligator valentlikli qaratqich shaklining va imkoniy (fakultativ) valentlikli egalik shaklining valentligi o'zaro uyg'unlashadi. Shuning uchun valentlik nuqtayi nazaridan *Salimaning kitobi* so'z birikmasining modelini quyidagicha ko'rsatish mumkin: [grammatik shaklning obligator valentligi + grammatik shaklning fakultativ valentligi]. Turkiy tilda grammatik valentlik masalasi endigina tadqiq etilayotganligi sababli o'zbek tilida mavjud bo'lgan so'z birikmasining valentlik

[1] Қурбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили. (Содда гап синтаксиси учун материаллар) –Т., 2002, 120- б; Акрамов Ш. Ўзбек тилининг гап қурилишида тўлдирувчи ва ҳол. ([WP$_m$] валентлиги аспектида): филол.фан.номз.дисс.автореф. –Т., 1997.
[2] Менглиев Б. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусияти ва семантик имкониятлари: филол.фан.номз.дисс.автореф. –Т., 1996. Шаҳобиддинова Ш. Грамматик маъно талқини хусусида: филол.фан.номз.дисс.автореф. –Самарқанд, 1993.
[3] Балакаев М.Б.Современный казахский язык. Синтаксис. -Алма-Ата, 1959. Убрятова Е.И. Исследования по синтаксису якутского языка. –Т. I. –М.: Л. 1950.
[4] Х.Г.Нигматов, К.М.Абдуллаев, В.И.Банару, Х.Х.Халияров, Н.М.Махмудов, А.Нурманов, Р.Р.Сайфуллаева. Способы синтаксической связи и актуальные вопросы тюркского синтаксиса (тезисы) // Советская тюркология, 1988. -№4. с. 3–8.
[5] Назарова С. Бирикмаларда сўзларнинг эркин боғланиш омиллари: филол.фан.номз.дисс.автореф. –Т., 1997. 21- б.

bo'yicha qobiliyatini to'la bera olmaymiz, lekin valentlik asosan ikki xil: zaruriy (obligator) (qisq. Z) va imkoniy (fakultativ, qo'shimcha) (qisq. I) kabi ikki asosiy ko'rinishga ega bo'lganligi sababli o'zbek tilida so'z birikmasining valentlik xususiyatiga ko'ra mantiqiy – riyoziy turini quyidagicha berish mumkin:

1. [Z + Z] 2. [Z + I] 3. [I + Z] 4. [I + I]

Bu mantiqiy-riyoziy turdan qaysisi o'zbek tilida voqealanadi, qaysisi voqealanmasligi alohida tadqiqot manbayi bo'lmog'i lozim. Lekin bu o'rinda ham bu turni hisobga olish zarur. Jumladan, yuqorida ko'rilganidek, *Salimaning kitobi* so'z birikmasida grammatik shaklning birikish qobiliyati [Z + I].

Ko'p holda leksik-semantik valentlik va grammatik valentlik nutqiy hosila tarkibida birga voqealanadi. Chunonchi, o'timli fe'lning obligator valentligi vositasiz to'ldiruvchi bilan birikishni tashkil etadi va buni biz $V^{tr} \rightarrow O^{rec}$ (o'timli fe'l va vositasiz to'ldiruvchi) ko'rinishida bera olamiz. Grammatik nuqtayi nazaridan biz ayta olamizki, tushum kelishigining zaruriy (obligator) valentligi o'timli fe'l. Lekin bu valentlik leksik-semantik valentlik. Agar leksik-semantik valentlik turi ham Z^L, I^L, Z^G, I^G sifatida belgilansa, *kitobni o'qimoq* birikmasining valentlik chizmasini quyidagicha berish mumkin: [$Z^G + Z^L$].

Valentlikni grammatik va leksik-semantik, uning zaruriy va imkoniy ko'rinishi Z^L, I^L, Z^G, I^G kabiga ajratilsa, birikishning mantiqiy – riyoziy ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

	Z^L	I^L	Z^G	I^G
Z^L	Z^L Ķ Z^L	Z^L Ķ I^L	Z^L Ķ Z^G	Z^L Ķ I^G
I^L	I^L Ķ Z^L	I^L Ķ I^L	I^L Ķ Z^G	I^L Ķ I^G
Z^G	Z^G Ķ Z^L	Z^G Ķ I^L	Z^G Ķ Z^G	Z^G Ķ I^G
I^G	I^G Ķ Z^L	I^G Ķ I^L	I^G Ķ Z^G	I^G Ķ I^G

Bu mantiqiy – riyoziy tur til tizimidagi leksik-semantik va grammatik valentlikning nutq jarayonida hamkorlikda voqealanishini ko'rsatadi.

Grammatik shakl o'zbek tilida o'ziga xos valentlikka ega bo'lsa, u leksik-semantik valentlikka, xususan, grammatik shakl-kategoriya valentligi o'zi qo'shilib keladigan so'zning leksik-semantik valentligiga qanday munosabatda turadi, degan savolning qo'yilishi tabiiy. Bu masalani boshqacha qilib, leksemaning potensial leksik-semantik valentligi bilan shu leksema ma'lum bir morfologik shaklda (so'zshakl ko'rinishida) voqealanishidagi valentligi orasida

qanday munosabat mavjud degan shaklda ham, yoki so'zning lisoniy leksik-semantik valentligi va so'zshakl valentligi sifatida ham qo'yish mumkin.

So'zning lisoniy leksik-semantik valentligi va so'zshakl valentligi. Nutq jarayonida voqealanganida tabiiyki, lisoniy leksema ma'lum bir so'zshakl sifatida, ma'lum bir sintaktik pozitsiyada voqealanadi. Leksemaning lisoniy (potensial) leksik-semantik valentligi bu jarayonda grammatik shakl valentligi bilan birikadi. Buni bir misolda ko'rib chiqamiz. Valentlik jihatidan o'ta zaif, kuchsiz bo'lgan *kitob* leksemasini olib ko'raylik. Bu so'zning nutqda sintaktik birikuvchanlik qobiliyati (valentligi) qat'iy belgilanmagan va so'zning semantikasi hamda u bog'liq bo'lgan denotat bilan chegaralanadi. Bu jihatdan *kitob* leksemasi nutqda *kitob* denotatining (predmetining) zotiy (ontologik, tabiiy, ma'yoriy) xususiyatini ifodalaydigan belgi nomi (sifat) bilan (Chunonchi, katta, kichik .....; yangi, eski .....; qiziqarli, maroqli ....; chiroyli, xunuk..... va h.k.) postpozitsion holatda (aniqlanmish sifatida); turli xil harakatni ifodalovchi fe'l bilan (Chunonchi, o'qimoq, yozmoq.....; olmoq, bermoq.....;), tarkibiy qism (bet, varaq, muqova, chet, o'rta, hoshiya...), o'rin ma'noli so'z bilan prepozitsion holatda birika oladi va uning imkoniyati behad keng. *Kitob* leksemasi so'zshakl sifatida nutqda *kitobning* yoki *kitobga*, *kitoblarda*, *kitobim* va h.k. tarzda voqealanganda bu imkoniy valentlik grammatik shakl valentligi ta'sirida ancha o'zgaradi. Chunonchi, *kitobning* so'zshakli endi fe'l bilan birika olmaydi, yoki *kitobga* so'zshakli o'timli fe'l bilan birika olish xususiyatiga ega bo'lmaydi.

So'zning leksik-semantik (potensial) valentligiga grammatik valentlikning ta'sirini ikki o'zaro bog'liq, lekin nisbatan mustaqil soha morfologik shakl va sintaktik pozitsiya (mavqe), (morfologiyaning sintaksis bilan aloqasi, morfologik shakl va sintaktik pozitsiyaning o'zaro aloqadorligi va nisbiy mustaqilligi, boshqacha qilib aytganda, morfologiya va sintaksis simmetriyasi va asimmetriyasi N.Mahmudov, A.Nurmonov, B.Mengliyev, H.Usmonova, M.Qurbonova ishida maxsus o'rganilgan va ilmiy adabiyot keltirilgan) morfologiya va sintaksis tomondan hisobga olish lozim bo'ladi. Shuning uchun grammatik valentlikning o'zini ikkiga: a) morfologik shakl (kategoriya) valentligi; b) sintaktik mavqe (pozitsiya) valentligi kabi ikkiga ajratish zarur.

Morfologik shakl valentligi. Grammatik shakl valentligi tilshunoslikda maxsus ajratilmagan va tadqiq etilmagan masaladan. Lekin shakl yasalishining so'z yasalishiga munosabati tilshunoslikda juda keng muhokama etilgan[1].

[1] Севортян Э.В. Аффиксы глаголообразования в азербайджанском языке. –М., 1962. -с. 31–32; Севортян Э.В. Аффиксы именного словообразования в азербайджанском языке. –М. 1966; Гузев В.Г., Насилов Д.М. Словоизменительные категории в тюркских языках и понятие «грамматическая категория»//СТ. 1981. -№3. –с. 36–41; Закиев М.З. К вопросу о категории падежа в тюркских языках//Проблемы

So‘z o‘zgartirish ayrim jihati bilan so‘z yasalishi bilan to‘qnashar ekan va so‘z yasalishi so‘zning ma’nosini o‘zgartirish bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, so‘zning semantik valentligiga ta’sir etmay qo‘ymaydi. Lekin morfologik shaklning valentligi bu bilan cheklanib qolmaydi. O‘zbek tilining morfologik kategoriyasi so‘zning valentligi (birikuvchanligi)ga ta’siriga ko‘ra ikki guruhga ajratilishi mumkin. Morfologik kategoriyaning so‘zning birikuvchanligiga ta’siriga ko‘ra; sintaktik va nosintaktik turga ajratilishi ildizi arab va hind tilshunosligiga borib taqaladi. Gap tarkibida so‘z birikmasi ichida uning tarkibiy qismini bir-biriga bog‘lashga xizmat qiladigan morfologik shakl **sintaktik kategoriya**, so‘zni bir-biriga bog‘lashga emas, unga qandaydir qo‘shimcha ma’no berishga xizmat qiladigan shakl **nosintaktik** kategoriya deb tasnif etiladi. Bu masala S.Kasnelson, A.V.Bondarko, H.G‘.Ne’matov, G‘.N.Zikrillayev kabining grammatik kategoriya tasnifi bo‘yicha tadqiqotida batafsil yoritilgan[1] va B.Mengliyevning nomzodlik dissertatsiyasida maxsus tadqiq etilgan[2]. Shuning uchun bu masalaga alohida to‘xtalmay, morfologik shakl valentligi deganda nima tushunilishi lozimligini sharhlash bilan cheklanish maqsadga muvofiq.

Bunda sintaktik sifatda tasnif etiladigan kelishik, egalik, kesimlik, nisbat kabi shaklning o‘ziga xos valentlikka ega ekanligi haqida alohida to‘xtalmasa ham bo‘ladi. Chunki bu kategoriyani sintaktik deb tasnif etilishining o‘zida uning so‘zning sintaktik birikuvchanligini o‘zgartirish xususiyatiga asoslanilgan va har bir sintaktik shakl so‘zning leksik-semantik valentligiga qanday o‘zgartirish kiritsa, bu o‘zgartirish bevosita morfologik shakl valentligi bilan bog‘liq, ya’ni:

so‘zshakl valentligi		leksik semantik valentlik	=	morfologik shakl valentligi

тюркологии и истории востоковедения. –Казань, 1964; Баскаков Н.А. Каракалпакский язык. Т.II.Ч. 1. – М., 1952; Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. –Т.: Ўқитувчи, 1979. –80; Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.: Фан, 1989; Султонсаидова С. Ўзбек тилидаги грамматик категориянинг ўзаро муносабати. ДДА, –Т., 1994; Фозилов Э. Феъл даража ясовчи аффикслариниг тарихи. ЎТА, -№3, 1960; Нигматов Х.Г., Цалкаламанидзе А.А. Семантика синтаксические группы глаголов и значение залоговых аффиксов в узбекском языке. Советская тюркология. -№3, –Баку, 1979; Ғуломов А. Феъл. –Т., 1954; Ҳожиев А. Феъл –Т., 1973; Аъламова М. Ўзбек тилидаги феълда нисбат категорияси. –Т.: Фан, 1992.

[1] Бондарко А.В. Классификация грамматических категорий. В сб. «Типология грамматических категорий» –М. 1975; Кацнельсон С.Д. Типология языка и речевое мышление. Л. Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.: Фан, 1989; Зикриллаев Ғ. Истиқлол ва адабий тил. –Т.: Фан, 2004.

[2] Менглиев Б. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусияти ва семантик имкониятлари: филол.фан.номз.дисс.автореф. –Т., 1996.

Buning yorqin namunasini orttirma nisbat shaklida ko‘rish mumkin. Chunonchi, *yurmoq* fe’li o‘timsiz bo‘lib, vositasiz to‘ldiruvchi bilan birika olmaydi, lekin bu fe’lning orttirma nisbat shakli bunday qobiliyatga ega: *Mashina yurdi → Haydovchi mashinani yurgizdi.* Demak, orttirma nisbatning valentlik qobiliyatidan biri o‘timsiz fe’lni o‘timli fe’lga aylantirish.

O‘timli fe’lga qo‘shilgan orttirma nisbat qo‘shimchasi o‘timli fe’lning harakatga undaladigan bajaruvchi (subyekt) ma’noli vositali to‘ldiruvchi bilan birikish imkoniyatini kengaytiradi[1]. Chunonchi, *Mohigul kir yuvdi → Onasi Mohigulga kir yuvdirdi. Yuvmoq* fe’li orttirma nisbat shaklini qabul qilmasdan oldin shu mazmundagi vositasiz to‘ldiruvchi bilan birikish qobiliyatiga ega emas edi. Chunki *yuvmoq* fe’li bilan birikkan jo‘nalish kelishigidagi vositali to‘ldiruvchi harakatga undaladigan bajaruvchi ma’nosiga emas, balki tamoman boshqa – adresat (harakat yoki uning natijasi kimga/nimaga qaratilgan obyekt yoki maqsad holi) ma’nosiga ega bo‘la olar edi: *Mohigul buvisiga/buvisi uchun kir yuvdi.*

Bundan xulosa qilish mumkinki, orttirma nisbat shakli so‘z valentligini bitta aktantga oshiradi. U aktant gapda vositasiz yoki vositali to‘ldiruvchi mavqeyida keladi va buni quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

orttirma nisbat so‘z shakli valentligi	–	aniq nisbat so‘z shakli valentligi	orttirma nisbat shakli valentligiқ yangi vositali yoki vositasiz agentiv to‘ldiruvchi

Demak, morfologik shaklning valentlikka ta’sirli ko‘rinishidan biri so‘zning leksik-semantik valentligini ma’lum bir aktantga oshirishdan iborat(**1-holat**).

Shunday, ya’ni so‘zning leksik semantik valentligini kengaytirish xususiyatini egalik qo‘shimchasida ham ko‘rish mumkin. Egalik qo‘shimchali so‘zshakl qaratqich kelishikli so‘zshakl bilan birikish qobiliyatiga ega. Chunonchi, *kitob* leksemasi qaratqich kelishikli tobe bo‘lak bilan birikish qobiliyatiga ega emas. Egalik qo‘shimchali *kitobim*

[1]Иванов С. Родословное древотворок Абулгази-хана –Т.:Фан, 1969; Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.: Фан, 1989; Султонсаидова С. Ўзбек тилидаги грамматик категориянинг ўзаро муносабати: филол.фан.докт.дисс.автореф. –Т., 1994; Фозилов Э. Феъл даража ясовчи аффикслариниг тарихи // Ўзбек тили ва адабиёти, 1960, -№3; Нигматов Х.Г., Цалкаламанидзе А.А. Семантика синтаксические группы глаголов и значение залоговых аффиксов в узбекском языке. Советская тюркология. –Баку. 1979, -№3; Ғуломов А. Феъл. –Т., 1954. Ҳожиев А. Феъл. –Т., 1973; Аъламова М. Ўзбек тилидаги феълда нисбат категорияси. –Т.: Фан, 1992.

kitobing/kitobi/kitobimiz/kitobingiz/kitoblari so'zshakli esa bunday qobiliyatga va qaratqich kelishikli aniqlovchi bilan birikish imkoniyatiga - [I^G] ga ega. Buni quyidagi chizmada berish mumkin:

egalikli so'zshakl valentligi	egaliksiz so'zshakl valentligi	egalik morfologik shakli valentligiқ qaratqichli aniqlovchi

Boshqa holatda olib ko'raylik: *Mohigul kir yuvdi → Kir yuvildi.*

Bu holat orttirma nisbat bilan bo'lgan hodisaning teskarisini – o'timli fe'lning vositasiz to'ldiruvchi bilan birikish qobiliyatini yo'qotishidek tuyuladi. Lekin mohiyatan holat o'zgacha. Chunki *yuvildi* so'z shakli *yuvmoq* fe'lidan farqli ravishda vositasiz to'ldiruvchi bilan birikish qobiliyatiga ega bo'lmasa-da, yangi bir agentiv ma'noli vositali to'ldiruvchi bilan kengayish imkoniyatini beradi. Chunonchi, *Kir Mohigul tomonidan/tarafidan yuvildi. Yuvmoq* vositasiz to'ldiruvchi bilan birikish qobiliyatini majhul nisbat shakli ta'siri ostida yo'qotadi, lekin yangi turdagi vositali to'ldiruvchi bilan birikish qobiliyatini qabul qiladi. Xuddi shu hodisani *Shamol eshikni ochdi→ Eshik shamol bilan ochildi* turdagi hosilada ham ko'rish mumkin.

Demak, morfologik shakl valentlik qobiliyatining **2-holati** so'zshakl valentligining leksema valentligiga nisbatan aktant miqdorini emas, sifatini (turini) o'zgartirishi. Shunday xususiyatni birgalik nisbatida ham ko'rish mumkin: *Buvisiga kir yuvdi –Buvisiga kir yuvishdi.*

Boshqa turdagi **3-holat**ni ko'rib o'taylik: *Mohigul qo'l-betini yuvdi→Mohigul yuvindi.* Bu holatda *yuvinmoq* fe'li vositasiz to'ldiruvchi bilan birikish qobiliyatini tamoman yo'qotadi va o'timsiz fe'lga orttirma nisbat shakli qo'shilganda sodir bo'ladigan holatning aksini ko'ramiz.

Mohigul o'qidi va yozdi → Mohigul o'qib yozdi (**4-holat**). *O'qib* so'zshakli *o'qimoq* so'zidan farqli ravishda boshqa bir fe'lga tobelanish, bog'lanish [Z^G]ga ega. Bunday valentlik *o'qimoq* shaklining o'zida yo'q edi. Morfologik shakl valentligi leksema mohiyatida mavjud bo'lgan imkoniyatni qo'zg'atdi.

Yuqorida leksemaning lisoniy leksik-semantik valentligiga grammatik shaklning ta'siri ustida to'xtalib, keltirilgan ayrim misol asosida uning valentlikka ta'siri ko'rinishini ajratish asosida quyidagi holat kuzatildi:

1)morfologik shakl valentligi so'zning leksik-semantik valentligini aktant hisobida oshiradi (*Salimning kitobi*).

2)morfologik shakl valentligi leksema valentligiga nisbatan aktant miqdorini emas, sifatini o'zgartiradi (*Salim xatni yozdi → Xat Salim tomonidan yozildi*).

3)morfologik shakl valentligi leksema valentligiga nisbatan aktant miqdorini kamaytiradi (*O'nta kitob ... kitoblar*).

4)morfologik shakl valentligi leksema zotida (mohiyatida) mavjud bo'lgan imkoniyatni «qo'zg'atadi» (*Salim o'qidi va yozdi → Salim o'qib yozdi*).

Quyida ayrim shaklning so'z valentligiga ta'siri ko'rib o'tiladi.

Leksema semantik-sintaktik valentligiga son kategoriyasi shaklining ta'siri. «Shaklsiz holat» (dominanta) bilan shaklli holat – ko'plik, [*-lar*] qo'shimchali shakl zidlanishi haqida gap borarkan, masala [*-lar*] morfemasi «shaklsiz holat» valentligiga qanday ta'sir ko'rsatadi, uni qanday o'zgartiradi? degan tarzda qo'yilishi lozim va bu savolga o'zbek tilshunosligi valentlik nuqtayi nazaridan bo'lmasa-da allaqachon uzil-kesil javob bergan: [*-lar*] shakli «shaklsiz holat»ning aniq miqdorni ifodalaydigan sonlar bilan birikish qobiliyatini yo'qotadi. O'zbek tilida *ikki/ikkita kitoblar, o'n beshta kitoblar, bir yuz yigirma bitta kitoblar* kabi birikuv xos emas. Vaholanki, *bir kitob, ikki kitob, o'n besh kitob* kabi birikuv me'yoriy. Mana shu asosda ko'plik sonning umumiy grammatik ma'nosi «noaniq ko'plik» sifatida belgilangan[1]. Shu bilan birga, ko'plik son umumiy ma'nosida bo'linuvchanlik ma'nosi bo'linmaslik yaxlitligidan ko'ra kuchliroq bo'lganligi sababli tur, xil, rang-baranglikni ta'kidlovchi sifat va son aniqlovchi bilan ko'plik shaklining birikishi birlik son formasidan ko'ra qulayroq.

Xulosa shuki, ko'plik son morfologik shakli umuman olganda, uning leksik valentligini cheklovchi – uning aniq miqdorni ifodalovchi aniqlanmish bilan birikishiga mone'lik qiluvchi shakl sifatida qaralishi lozim. Shuning uchun o'zbek tilida «bir ming to'qqiz yuz sakson ikkinchi yillarda» kabi birikmada aniq miqdor ma'nosi emas, balki ma'lum bir chegara – 81–83- yillar oralig'i anglashiladi.

Leksema semantik-sintaktik valentligiga subyektiv baho kategoriyasi shaklining ta'siri. Hozirgi o'zbek tilidagi *–cha, -gina, -choq, -chak, -chiq, -loq, -jon, -kon, -xon, -gina* kabi modal munosabatni ko'rsatuvchi shakl, asosan, ot va sifat tarkibida o'rganilib, subyektiv baho shakli (formasi) termini bilan yuritiladi.

Turkologiyada, xususan, o'zbek tilshunosligida bu kategoriya shakli, har bir shaklning ma'noviy, uslubiy xususiyati, uning hosil bo'lish yo'li xususida

[1] Иванов С.Н. Курс турецкой грамматики. Ч.I. –Л.: ЛГУ, 1975; Ч.II. Л.: ЛГУ, 1974; Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.: Фан, 1989; Шаҳобиддинова Ш. Грамматик маъно талқини хусусида: филол.фан.номз.дисс.автореф. –Самарқанд, 1993.

salmoqli ish qilingan[1]. Darslik va qo'llanmada subyektiv baho kategoriyasi shakli turlicha nom – «nokategorial shakl»[2], «modal forma»[3], «noparadigmatik morfema»[4], «lug'aviy shakl»[5] ostida atroflicha o'rganilgan.

Bu hosilaning nomlanishi masalasida bir izoh berish shart. Bu ham bo'lsa «nokategorial shakl» (A.Hojiyev, U.Tursunov) va «noparadigmatik morfema» (Sh.Rahmatullayev) kabi nomlanish. Bu hosilani «nokategorial», «noparadigmatik» deb talqin etish masalan, *kitobcha* yoki *Salimaxon* shakli *kitob* va *Salima* shaklidan uzilgan, u bilan paradigmatik aloqada turmaydi, deyish bilan baravar. Vaholanki, bu tafakkur uchun xos emas. Shuning uchun subyektiv baho shaklini biz paradigmada, chunonchi,

Kitob ↔ *kitobcha*

Salima ↔ *Salimaxon*

↕

Salimajon

↕

Salimaoy

↕

Salimabonu....

tarzida tahlil qilamiz va diqqatimiz asos shaklning (shaklsiz holatning) valentligiga qo'shimcha qanaqa o'zgartirish kiritishini - boshqacha qilib aytganda, hosila shakli (qo'shimchali shakl) hamda asos semantik sintaktik valentligi orasida qanday farq mavjudligini aniqlashga qaratilgan bo'ladi. Bu qo'shimcha vositasida yasalgan shakl subyektiv baho shaklining morfologik usul bilan ifodalanishi deb qabul qilinadi. Tabiiyki, bunda subyektiv baho shaklining o'ziga xos bir xususiyati – unda ixtisoslashish va leksikalizatsiyaning o'ta kuchliligini inobatga olib, «yasama shakl» va «yasalgan shakl» tushunchasini izchil farqlagan holda fikr yuritiladi. «Yasama shakl» va «yasalgan shakl»

[1] Абдуллаев А. -гина интенсивлик ифодаловчи аффикс сифатида// Ўзбек тили ва адабиёти, 1973, 5-сон; Айюб Ғуломовнинг илмий мероси (3-китоб)/ Морфемикага оид мақолалар. –Т., 2007; Усмонов С. Ҳозирги замон ўзбек тилида сўзнинг морфологик хусусияти: филол.фан.докт.дисс.автореф.–Т., 1965; Шамсиева М. Ўзбек тилида субъектив баҳо билдирувчи // Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. 4- китоб, –Т., 1962; Ғозиева Ш. Ўзбек тилида субъектив баҳо ифодаловчи форма ясовчи аффиксларнинг баъзи семантик хусусияти ҳақида// Ўзбек тилшунослиги масалалари. Илмий асарлар. –Т., 1975, 475- чиқиш; Ҳамдамова И. Ўзбек тилида -гина элементи ва унинг маъноси// Ўзбек тили ва адабиёти, 1961; 4- сон. Ҳожиев А. Модал ёки субъектив баҳо формалари ҳақида// Ўзбек тили ва адабиёти, 1978, 1- сон.

[2] Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Ўзбекистон, 1992, 274-б.; Шоабдураҳмонов Ш.,Аскарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. Педагогика институтлари учун дарслик. –Т.:Ўқитувчи, 1980.

[3] Ўзбек тили грамматикаси. I том. –Т.: Фан, 1975, 300- б.

[4] Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –T., 2006, 149- б.

[5] Ne'matov H., Gulomov A., Qodirov M., Abduraimova M. Ona tili. 6- sinf uchun darslik. –T., 2001. 74- b.; Mahmudov H., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili. 6- sinf uchun darslik. –T., 2005. 116- б.

tushunchasini farqlashda biz prof.H.Ne'matov izidan borib[1], «yasama shakl» deganda lug'aviy ma'nosi shu shakl uchun asos bo'lgan so'zdan farqlanmaydigan, shuning uchun umumiy ma'nosi [lug'aviy asos+qo'shimcha = asos shaklning lug'aviy ma'nosi + subyektiv baho qo'shimchasining ma'nosi] qolipi asosida voqealanadigan hosilanigina tushunamiz. Chunonchi, *qo'l-qo'lcha: Bolani qo'lidan ushlab borardi - Bolani qo'lchasidan ushlab borardi* yoki *Salimaxon, ketdik ~ Salima ketdik.* Nutqiy ma'nosi bu qolip asosida hosil bo'lmay, ixtisoslashgan va to'liq leksikalizatsiyalashgan hosila, chunonchi, *ro'molcha, ko'rpacha, olcha, qizilcha, bog'cha, qo'g'irchoq,* shuningdek, subyektiv baho qo'shimchali antroponim (*Oyxon, Norjon, Norbibish, Quljon, Amirxon....*) y a s a l g a n (yaxlitlangan) deb sanalib, subyektiv baho shakli paradigmasidan chiqqan sifatida qaraladi. Subyektiv baho qo'shimchasining valentlikka ta'sirini y a s a l g a n shaklda emas, faqat y a s a m a l a r tarkibidagina tahlil etish mumkin.

Subyektiv baho ma'nosining fonetik (*ota: : jon, Salim – Palim...),* leksik *(pari, poshsho, bek, begim...),* morfologik *(gulcha, qizaloq, qizgina, Salimjon ...),* sintaktik yo'l bilan ifodalanishi ko'pchilikka ayon. Ammo subyektiv bahoning ifodalanishida morfologik usul eng mahsuldor hisoblanadi. "O'zbek tilida «subyektiv baho» ifodalovchi formadan xarakterlisi kichraytirish va erkalatish ma'nosini bildiruvchi affiksdir"[2].

Kichraytirish ma'nosini ifodalashda *-cha, -choq, -loq/-aloq, -chak, -chiq* shakli qo'llaniladi.

-cha elementi ham jonli, ham jonsiz predmet nomiga qo'shilib, kichraytirish, erkalash, kamsitish ma'nolarini hosil qiladi: *kitobcha, yetimcha, otincha, o'g'ilcha* kabi. *-cha* ning ma'nodoshi bo'lgan *–choq* shaklining birinchidan, birikish qobiliyati ancha cheklangan, ikkinchidan esa faqat jonli predmet nomiga birikadi: *toychoq, qo'zichoq* kabi. Mazkur shaklning birikish xususiyatini kuzatganda, uning so'zning leksik-semantik valentligiga ta'sir etishining guvohi bo'ldik. *Kitob, daftar, Salim, qiz* kabi birlik *-cha* qo'shimchasi bilan shakllanganda, uning leksik-semantik valentligida, birikishida o'zgarish ro'y beradi. Chunonchi, o'zbek nutqida *katta qiz, katta kitob, yirik qush* kabi birikma erkin qo'llaniladi. Ammo mazkur so'z *-cha* shaklini olgach, leksemaning leksik-semantik valentligi sifat jihatdan o'zgaradi, ya'ni *katta kitobcha, yirik qushcha, katta Salimcha* nutqimiz uchun xos emas. Demak, *-cha* leksemaning ayrim so'z bilan birikish qobiliyatini ch e k l a y d i, lekin boshqa bir turdagi so'z bilan birikish qobiliyatini k u ch a y t i r a d i – asos shakl birikish

[1] Неъматов Ҳ. Сўз ясаш қолипи, ясалган ва ясама сўз хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1- сон.

[2] Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. Ғ.Абдураҳмонов таҳрири остида –Т.: Фан, 1966.

qobiliyatida o'zgarish yasaydi. Ba'zan *-cha* shaklini olgan so'z kichiklik bildiruvchi *jajji, kichkina, mayda* kabi so'z bilan kengayishga ehtiyoj sezadi: *kichik kitobcha, mayda taqsimcha, jajji Salimcha* kabi.

Nutqda ba'zan «soqolli chaqaloq», «aqlli tentak» kabi birikuv ko'chma ma'noda qo'llanganidek, «katta o'g'ilcha» «katta Salimcha» tipidagi birikmani nome'yoriy hol sifatida baholash mumkin.

-gina, -kina, -qina shaklida kichraytirish bilan birga erkalash ma'nosi ham mujassamlashgan.

Kichraytirish ma'nosidagi *–gina* hamda erkalash ma'nosidagi *–gina* shaklining farqini uning morfologik shakl valentligidan ham bilsa bo'ladi. Chunonchi, *bolagina, qizgina, enlikkina, kichikkina* so'zida *-gina* kichraytirish ma'nosini hosil qilib, uning miqdor ifodalovchi ayrim son bilan birikishini ta'minlaydi: *ikki enlikkina, uch qizgina, to'rt bolagina.* Ammo erkalash ottenkali *-gina* shaklida bunday birikish cheklangan bo'lib, o'zidan keyin egalik shaklining birida qo'llanilishga xoslangan: *bolaginam, qo'zichoqqinam, qizginam.*

Iliq munosabatni ifodalovchi subyektiv baho shakli sifatida talqin etiladigan va ***-jon, -boy, -bek, -qul, -xon, -oy, -gul, -bonu, -beka, -bibi, -niso, -poshsho*** komponentli hosila ham erkalash shakli sifatida manbada qayd qilingan[1]. Yuqorida qayd qilingan shakl iliq munosabatni ifodalashda xizmat qilganligi uchun so'zga qo'shilganda uning leksik-semantik valentligini ijobiy ma'noli so'z, his-hayajonli so'z, undov bilan kengaytirishga moyilligi bilan ajralib turadi:

1. Erbo'ta nuqul: "Tog'ajon, aylanay tog'ajon!" – deb yig'lar edi (M.I.).

2. Takror-takror shivirlayman ozurdajon

Otginangdan aylanayin, Buxorojon (Sh.Sulaymon).

Yuqoridagi bayondan ko'rinib turibdiki, "yasama" subyektiv baho shaklining valentligi asos shakldan shakl yasovchi qo'shimcha ma'no- siga (kichraytirish, erkalash, ijobiy munosabat) zid bo'lgan so'z bilan birikishni cheklaydi, uning ma'nosiga muvofiq bo'lgan so'z bilan birikishni neytrallikdan imkoniyatli, maqbullik, zaruriylik darajasiga ko'taradi. Boshqacha qilib aytganda, lug'aviy asos semantik-sintaktik valentligiga miqdoriy emas, sifatiy o'zgarish beradi.

Leksema semantik-sintaktik valentligiga sifat darajasi shaklining ta'siri. Predmet, holat, hodisa, ish-harakatning turli-tuman o'ziga xos aniq hamda mavhum belgisi bo'ladi. Bunday belgi me'yoriylikka nisbatan kam yoki ko'p bo'lishi mumkin. Belgining bunday xususiyati sifat so'z turkumi doirasida

[1] Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Ўзбекистон, 1992. 295-б.; Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –T., 2006. 149- б.; Кононов А.Н. Грамматика узбекского языка. –Т., 1948. -с. 98

daraja shakli tizimi, aniqrog'i, daraja kategoriyasi, sifat darajasi atamasi ostida tavsifiy o'zbek tilshunosligida atroflicha, mukammal tadqiq qilingan[1]. Asrimiz boshida yaratilgan darslik va qo'llanmada qiyoslash kategoriyasi[2], tasniflovchi kategoriya[3], sifat leksema turkumida shakl yasalishi[4] tarzida o'rganildi. O'rganilgan manbada sifat darajasi tizimini ko'rsatishda ham bir xillik yo'q.

O'zbek tilida darajalanish hodisasini, jumladan, morfologik graduonimiyani maxsus tadqiq qilgan O.Bozorov bu holatni o'rganib, quyidagini bildiradi: «An'anaviy tavsifga ko'ra daraja kategoriyasi ichki, ya'ni xususiy grammatik ma'nosiga ko'ra «oddiy – qiyosiy – orttirma» kabi tasnifga ega bo'lsa, keyingi ishda «orttirma – ozaytirma – qiyosiy», «oddiy (normal) – orttirma – ozaytirma, ozaytirma – orttirma» kabi klassifikatsiya uchramoqda»[5].

Sifat daraja shakliga o'z munosabatini bildirgan prof. Sh.Shahobiddinova belgining darajasida qiyoslash bilan bir qatorda darajalanish ma'nosi ham borligi, ammo bu leksema sememasi xususiyatidan kelib chiquvchi holat ekanligini qayd etib, o'zbek tilshunosligiga «Qiyoslash kategoriyasi»ni olib kiradi hamda uning ikki a`zo [0] va [*-roq*]dan iborat ekanligini bildiradi.

So'z va so'zshaklning *-roq* qo'shimchasi bilan erkin birika olishi yoki bu birikishning okkazional (nome'yoriy/uslubiy/ixtisoslashgan)ligi nuqtayi nazaridan yondashilganda shuni qayd etish lozimki, asliy sifatda *-roq* qo'shimchasi bilan birikish erkin. Shuning uchun qator tilshunos (H.Ne'matov, S.G'iyosov, I.Madrahimov) asliy sifatni alohida bir turkumga ajratib, uning differensial belgisi sifatida [*-roq*] qo'shimchasini ajratishni ko'rsatadi[6]. Haqiqatan ham asliy sifatda bu qo'shimcha bilan birikish erkin. Boshqa so'z bilan birikkanda, chunonchi, (*shoshmayroq bajaring, tortinibroq gapirdi*) u me'yoriy emas, shuning uchun okkazional tabiatga ega.

Sifat darajasi shakli tizimiga ana shunday yondashilganda, u umumiy grammatik ma'nosiga **«belgi darajasi»** mujassamlashganligini ko'rish mumkin. Faqat asliy sifat o'zgara oladigan mazkur shakl uchga ajratiladi: oddiy, orttirma,

[1] Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Ўзбекистон, 1992. 283–285- б.; Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. –Т.: Фан, 1975. 296–301- б.; Кононов А.Н. Грамматика узбекского языка. –Т., 1948. -с. 116–117; Шоабдураҳмонов Ш., Аскарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониберов Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. –Т.: Ўқитувчи, 1980; Гуломов А. О степенях сравнения имён прилагательных. –Т., 1960; Содикова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. –Т.: Фан, 1974. 40–47- б.; Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. Ғ.Абдураҳмонов таҳрири остида. –Т.: Фан, 1966, 237–39-б.

[2] Нурмонов А. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. –Т., 2001. 149–153- б.

[3] Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Ғ., Курбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек тили. –Т., 2007. 230–231- б.

[4] Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –T., 2006. 151–153- б.

[5] Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. –Т.: Фан, 1995. 23–94- б.

[6] Нигматов Х.Г.Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т., 1989; Гиясов С. Семантическая структура и компонентный анализ качественных прилагательных узбекского языка: автореф.кандфилол.наук. –Т., 1983. – 22 стр.; Мадраҳимов И. Ўзбек тилида сўзнинг серқирралиги ва уни тасниф қилиш асоси: филол.фан.номз.дисс.автореф. –Бухоро, 1994. –174 б.

ozaytirma. Oddiy darajada daraja kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosi «belgining ortiq-kamligiga munosabat bildirmaslik» tarzida *(yaxshi, katta, qizil, yumshoq ...)* yuzaga chiqsa, orttirma darajada «belgining me'yordan ortiqligini ifodalash» tarzida xususiylashadi. Chunonchi, fonetik usulda: *yam-yashil, dum-dumaloq, bus-butun, bo'm-bo'sh;* leksik usulda *nihoyatda baland, benihoya go'zal, kattadan katta, shirindan shirin* kabi. Ozaytirma darajada umumiy grammatik ma'no «belgining me'yordan kamligini ifodalash» tarzida voqealanadi, parchalanadi. Morfologik ko'rsatkich [*-roq*] shaklida uning voqealanishi keng tarqalgan.

Bu o'rinda «qiyosiy daraja» atamasining qo'llanishi u qadar o'rinli emasligi, o'ta shartliligi «qiyosiy» tushunchasining xususiy ma'no turidan birining emas, balki barcha xususiy ma'noning (me'yoriy, ozlik, ko'plik) shakllantirilish asosi bo'lgan usulning atamasi ekanligi bilan isbotlanildi[1]. **[-roq] qo'shimchali shaklni ozaytirma deb nomlashni oqlaydigan yana bir asos** shundaki, bu qo'shimchali so'z xoh me'yoriy, xoh okkazional qo'llanishda bo'lsin, semantik-funksional jihatdan (grammatik struktur jihatdan emas) olmoshsimon «bir oz» hosilasi ma'nosiga ega:

kattaroq – bir oz katta
kichikroq – bir oz kichik
shoshmayroq – bir oz shoshmay
uyalibroq – bir oz uyalib

Buni modellashtirsak, chunonchi: *kattaroq – bir oz katta – katta (-roq – bir oz)*

Darhaqiqat, *ozaytirma* so'zining tarkibida ham *[-roq]* qo'shimchasining ma'nosiga xos «oz» tarkibiy qismi ishlatilgan.

Bayon etilgan fikr [*-roq*] shaklining o'zi birikib kelgan so'zning semantik-sintaktik valentligiga ta'siri xususiyati bilan ham tasdiqlanadi. Chunki [*-roq*] qo'shimchali so'z odatda, me'yordan ko'plikni ifoda etuvchi son, olmosh, sifat bilan birika olmaydi. Masalan, *kattaroq* leksemasi *sal, bir oz, bir muncha* kabi birlik bilan erkin birika oladi: *sal kattaroq, bir muncha kattaroq*. Lekin *juda kattaroq, nihoyatda kattaroq* kabi birikuvni hosil qilish uchun miqdoriy oshiqlikni ifoda etuvchi *juda, nihoyatda* so'zi bilan birika olmaydi. Vaholanki, *sal katta, juda katta* kabi birikish me'yoriy.

Leksema semantik-sintaktik valentligiga zamon kategoriyasi shaklining ta'siri. Turkiy tilda zamon, mayl, shaxs-son kategoriyasi shakli predikativlikning asosini tashkil qiladi. Bir-birini taqozo qiladigan mazkur shakl yaxlit holda hamda alohida-alohida ko'rinishda (kategoriyada) tilshunoslikda

[1] Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. –Т.: Фан, 1995.

atroflicha o'rganilgan. Ayniqsa, zamon kategoriyasining mayl kategoriyasi bilan dialektik birlikda ekanligini deyarli barcha turkiyshunoslar e'tirof etgani holda, uning ma'noviy jihati, qo'llanish xususiyati, shakl tizimini izchil tavsif etishgan[1]. O'zbek tilshunosligida A.G'ulomov, A.Hojiyev, G'.Abdurahmonov, F.Abdullayev, J.Jo'rayeva, R.Jumaniyozov, U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Raxmatullayev, G'.Zikrillayev singari tilshunos tomonidan zamon hamda mayl kategoriyasiga xos shakl tasviriy metod asosida bir sistemaga solingan, matnda namoyon bo'luvchi ma'nosi aniqlanib, ichki bo'linishga ajratilgan va mazmuni, qo'llanishi, hosil bo'lishi (yasalishi) mufassal tadqiq qilingan[2].

O'zbek tilshunosligining bugungi rivojlanish bosqichida ham grammatik kategoriya, jumladan, zamon kategoriyasi, yana bir karra tadqiqot obyekti qilinib, mazkur kategoriyaning murakkab tarkibli ekanligi, unda kategoriyaning substansial mohiyati bo'lgan kategorial ma'no bilan birgalikda boshqa kategoriyaga xos ma'no (yondosh ma'no, hamroh ma'no) qorishgan holda mavjudligi asoslandi[3].

Darhaqiqat, mavjud darslik va qo'llanmada voqelikning nutq momentiga munosabatini ifodalovchi zamon kategoriyasining uch xil: o'tgan, hozirgi, kelasi zamon turi ajratilib, har bir zamon fe'lining bir necha xil shakl yordamida ifodalanishi qayd qilingan. Ammo bu o'rinda bir narsani qayd qilish kerakki, yillar davomida o'rganib kelingan «o'tgan zamon hikoya shakli», «o'tgan zamon davom shakli», «o'tgan zamon eshitilganlik shakli» yoxud «kelasi zamon gumon fe'li», «kelasi zamon maqsad fe'li», «aniq kelasi zamon fe'li» atamasidagi hikoya, eshitilganlik, davom, gumon, maqsad, aniq kabi unsur zamonga daxlsiz hodisa deb topildi, uni zamon doirasida o'rganish ortiqcha ekanligi e'tirof etilib, zamon kategoriyasi ma'nosiga boshqa kategoriya ma`nosining qorishuvi deb baholandi[4]. Zamon va mayl kategoriyasi misolida kategorial, yondosh va hamroh ma'no turini tadqiq qilgan N.Musulmanova bu xususda quyidagini bildiradi: «Zamon kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosi

[1] Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. М.; –Л. 1960; Иванов С.Н. Родословное древотюрок Абу-л-Гази-Хана. Грамматический очерк. (Имя и глагол. Грамматические категории). –Т., 1969. стр. 135; Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.:Фан, 1989. стр. 107–127.

[2] Жуманёзов Р. Ўзбек тилида феъл замонлари // Совет мактаби, 1953 йил, 3- сон, 16–19- б.; Жўраева Ж. Келаси замон маъносининг ифодаланиши// Ўзбек тили ва адабиёти масалалари, 1959 йил, 3- сон. Ҳожиев А. Феъл. –Т., 1973. 11–161- б; Абдураҳмонов Ғ. Ўзбек тили грамматикаси. I том, –Т., 1975. 475–504- б.; Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Ўзбекистон, 1992, 332–347- б.; Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o`zbek tili. –T., 2006. 182–188- b.; Айюб Ғуломовнинг илмий мероси. (2- китоб) –Т., 2007. 40–54- б.; Зикриллаев Ғ. Ўзбек тили морфологияси. –Бухоро, 1994. 16–46- б.

[3] Мусулманова Н. Грамматик шаклда категориал, ёндош ва ҳамрох маъно (замон ва майл категорияси мисолида). : филол.фан.номз.дисс.автореф. –Т., 2007.

[4] Мусулманова Н. Грамматик шаклда категориал, ёндош ва ҳамрох маъно (замон ва майл категорияси мисолида) : филол.фан.номз.дисс.автореф. –Т., 2007; Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Қурбонова М., Боқиева Г., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек тили. –Т., 2007. 206–212- б.

uchun «zamon» ma'nosi kategorial ma'no bo'lib, u har doim turli-tuman mayl ma'nosisiz bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, zamon kategoriyasida zamon va mayl ma'nosi dialektik bog'liqlikda va biri ikkinchisisiz yuzaga chiqmaydi. Zamon kategoriyasi shakli nutqda voqealanar ekan, bu ma'no o'tkinchi, beqaror nutqiy ma'no hisobiga yana boyiydi. Bu ma'no zamon umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqealanishini murakkablashtiruvchi vosita bo'lib, unga substansial bog'liqlik kasb etmaydi. Hamroh ma'no sifatida baholanuvchi bu ma'no sirasiga «gumon», «harakat realligi», «harakat irrealligi», «istak», «maqsad» kabi ma'noni kiritish mumkin"[1]. Zamon kategoriyasining umumiy grammatik ma'nosi «Payt valentligiga ta'sir etish orqali kesimni shakllantirishda ishtirok etish va undan anglashilgan voqelikning nutq momentiga munosabatini ifodalash» tarzida belgilangan ekan, zamon shaklining kesim vazifasida turgan so'zning valentligiga, albatta, ta'sir etishi anglashiladi.

Grammatik kategoriya tasnifida kesimlik kategoriyasi, odatda, sintaktik kategoriya sanaladi va yuqorida aytib o'tganimizdek, bu murakkab sintaktik kategoriyaning tarkibiy qismidan biri mayl va zamon. Shuning uchun, avvalo, shuni ta'kidlab o'tish kerakki, kesimlik kategoriyasining sintaktik mohiyati – bu esa, shubhasiz, sintaktik birikuvchanlik, jumladan, ega-kesim munosabati bilan predikativ aloqaga kirisha olish qobiliyati bilan bog'liq - zamon kategoriyasida o'z in'ikosini topadi. Chunki bu munosabatda kesimlik kategoriyasi umumiylik (aniqrog'i, butunlik), zamon kategoriyasi xususiylik (bo'lak) munosabati bilan bog'lanadi. Umumiylikning mohiyati esa xususiylikda hamma vaqt muayyanlashtirilgan ko'rinishda voqealanishi shart va zarur. Shuning uchun kesimlik kategoriyasining sintaktik valentligi zamon shaklida o'z aksini topadi. Lekin zamon kategoriyasining o'zi kesimlik kategoriyasidan alohida ravishda o'z xususiy sintaktik birikuvchanlik xususiyatiga egaki, buni kesimlik kategoriyasining valentlikka ta'siri nuqtayi nazaridan tahlil etish mumkin emas. Shu bilan zamon kategoriyasining yana bir xususiyati bog'liq. Bu shundan iboratki, zamon kategoriyasi kesimlik kategoriyasining tarkibiy qismi sifatida faqat gapda kesim vazifasida kelgan so'z tarkibidagina, ya'ni kesim tarkibidagina voqealanadi. Lekin zamon shakli va ma'nosi nafaqat kesim tarkibida, balki kesimdan boshqa vazifada keladigan sifatdoshda, ravishdoshda, hatto, harakat nomida ham voqealanadi. Ravishdosh, sifatdosh, harakat nomida zamon shakli kesimlik kategoriyasi tarkibidagi zamon shaklidan tamoman boshqa ma'no-mohiyatga ega; kesim tarkibida zamon harakatning mutlaq yoki nisbiy nutq momentiga munosabatini ifodalasa, sifatdosh, ravishdosh, harakat

[1] Мусулманова Н. Грамматик шаклда категориал, ёндош ва хамрох маъно (замон ва майл категорияси мисолида) : филол.фан.номз.дисс.автореф. –Т., 2007. 82- б.

nomida u tamoman boshqa ma'noga, chunonchi, yakunlangan harakatning belgisi, harakatning gap kesimi anglatgan harakat yoki holatdan oldin /keyin / bir paytda sodir bo'lishi, harakat natijasining belgi sifatida nutqqa kiritilishi kabi nutq momenti bilan mutlaqo aloqador bo'lmagan ma'nosiga ega[1]. Zamon kategoriyasining sintaktik birikuvchanlikka ta'siri zamon shakl va ma'nosining ham kesim tarkibida, ham kesimdan boshqa vazifada kelgan sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi hosilasiga ham bir xil aloqador. Shuning uchun bu xususiyatni zamon shakli va ma'nosining kesimlik kategoriyasidan farqli bo'lgan o'ziga xos valentligi – o'zi birikib kelgan leksemaning semantik-sintaktik valentligiga ta'siri sifatida baholash mumkin. Chunonchi, istagan fe'l tom ma'noda o'zi harakatni ifodalaydi va bu harakat, albatta, ma'lum bir zamon va makonda voqealanadi; harakat/ o'zgaruvchanlik / taraqqiyot borliqning yashash tarzi bo'lsa, makon va zamon uning yashash shaklidir[2]. Fe'l turkumida mujassamlangan harakat ma'nosi tom ma'noda zamonning ko'rinishiga – o'tgan, hozirgi yoki kelasi ekanligiga nisbatan mutlaqo befarq. Chunonchi, *kelmoq, yozmoq, bermoq, o'lmoq, tirilmoq, tug'ilmoq* kabi behisob fe'l lug'aviy ma'nosi asosida o'tgan zamon ma'noli *kecha, o'tgan yili ,bultur*... kabi; kelasi zamon ma'noli *erta, indin, kelgusida, kelajakda* ...kabi; hozirgi zamon ma'nosi bilan bog'langan *hozir, shu damda, shu tobda, yaqinda, shu onda*...kabi so'z bilan erkin birikib keladi:

Kecha *O'tgan yili* *Bultur*	*kelib*
Hozir *Shu damda* *Yaqinda* *Shu soniyada*	
Erta *Indin* *Kelgusida* *Kelajakda*	

[1] Малов С.Е.Памятники древнетюркской письменности. –М. -Л., 1951; Мещанинов И. И. Члены предложение и части речи. –Л.: Изд.Наука, 1978. 387-с.; Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. Издание второе. –М.: Высшая школа. 1972. 614-с.; Неъматов Ҳ.Ғ. Феъл, унинг форма ва категорияси// Ўзбек тили ва адабиёти, 1972.1- сон, 39–47- б.; 2- сон, 42–50-б.

[2] Туленов Ж., Гафуров З.Фалсафа. –Т., 1997; Философия лугати. –Т.: Ўзбекистон нашриёти, 1976; Диалектика – теория познания. ... об элементах диалектики// Под общей редакцией Б.М. Кедрова. –М.: Наука, 1965.

Zamon shakli mana shu birikishni ma'lum darajada chegaralaydi, ya'ni fe'lning temporal (payt bildiruvchi) so'z bilan birikishini, zamon ma'nosi bilan uyg'unlashishni talab qiladi[1]. Deylik, o'tgan zamon ma'noli fe'l kelasi zamon yoki hozirgi zamon ma'nosini ifodalaydigan payt holi bilan birika olmaydi, ya'ni *Indin keldi* deb birikish hosil qilish mumkin emas. Bunday birikish hosil bo'lganda yo okkazional ma'no (*Akam indin biznikiga keldi deb, faraz qilaylik*) yoki ko'pgina payt so'zining ikki ma'nosidan biri voqealanadi. Chunonchi, *Erta keladi. Erta* so'zi nutq momentidan keyin sodir bo'ladigan paytga ishora qilib kelmoqda. *Erta keldi. Erta* so'zi barvaqt, muddatdan oldin, mo'ljallangan paytdan oldin ma'noli payt holiga ishora qilib, nutq momentiga umuman aloqador emas. Shuning uchun birinchi gapda ruscha *zavtra* so'ziga, ikkinchi misolda *rano, «ranshe vremeni», «prejdevremenno»* so'ziga to'g'ri keladi[2]. Demak, xulosa qilish mumkinki, zamon kategoriyasi shakli son, subyektiv baho shakli kabi leksema birikuvchanligini chegaralaydi.

Leksema semantik-sintaktik valentligiga mayl shaklining ta'siri. Biz yuqorida zamon shakli haqida fikr yuritganda, zamon kategorial ma'nosiga har doim mayl kategoriyasi ma'nosi yondosh ma'no va aksincha, mayl kategorial ma'nosiga zamon kategoriyasi ma'nosi yondosh ma'no sifatida yashashi, uning shu asnoda dialektik birlik hosil qilishi hamda bu kategoriyaga xos shakl tizimi, u ifodalaydigan ma'no turi xususida qilingan ish haqida qisqacha to'xtalib o'tgan edik.

Adabiyotlarda o'zbek tilidagi fe'l maylining uchtadan to olti-yettigacha turi qayd etilganini ko'ramiz[3]. Sh.Shukurov fe'l maylidan uchtasini: buyruq-istak, shart, aniqlik maylining mavjudligini aytib, boshqa -maqsad, shartli, ijro kabi maylning isbot talab qilishini ta'kidlab o'tgan[4]. Darhaqiqat, mayl turi sonini ko'paytiruvchi va bizni chalg'ituvchi sabab, bog'liqlik, maqsad, gumon, shart kabi ma'no mayl kategoriyasi tarkibida «hamroh»lik qiladi. N.Musulmanova o'z tadqiqotida buni funksional nuqtayi nazaridan uslubiy vazifa sifatida baholab, substansial nuqtayi nazaridan nokategorial, ya'ni hamroh ma'no sifatida qaralishi maqsadga muvofiq ekanligini uqtirgan[5].

Maylning leksema semantik-sintaktik birikuvchanligiga ta'siri mohiyatan zamon shaklidan farq etmaydi va buning sababi mayl va zamon

[1] Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.:Фан, 1989.
[2] Абдуллаев А.М., Юнусова З.Ю. Способы передачи узбекских слов в русском языке. –Б., 1989.
[3] Ғуломов А. Феъл. –Т., 1954; Ҳожиев А. Феъл. –Т., 1973; Зикриллаев Ғ. Ўзбек тили морфологияси. – Бухоро, 1994; Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –T., 2006; Ўзбек тили грамматикаси. I том. –Т., 1975; Турсунов У. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т., 1992.
[4] Шукуров Ш. Ўзбек тилида феъл замонлари тараққиёти. –Т., 1976, 7- б.
[5] Мусулманова Н. Грамматик шаклда категориал, ёндош ва хамроҳ маъно (Замон ва майл категорияси мисолида):филол.фан.номз.дисс. –Т., 2007, 93- б.

shakl/ma'nosining dialektik birligida, mayl zamon ma'nosisiz, zamon (kesim tarkibida) mayl ma'nosisiz voqealana olmasligida.

Ma'lumki, mayl harakatning voqelikka munosabatini so'zlovchi tomonidan belgilanishi – uning real (sodir bo'lgan) va idealligini (sodir bo'lmagan yoki sodir bo'ladiganini) ifodalaydi[1]. Maylni bunday tushunganda u mohiyatan zamon ma'nosini ham o'z ichiga qamrab oladi. Chunki real harakat sifatida voqealangan va voqealanayotgan (tilda o'tgan va hozirgi zamon shakli bilan ifodalanadigan) harakat, ideal sifatda voqealanishi maqbul, mumkin, lozim, shart, zarur, gumon, taxmin, nomaqbul, imkoniyatli bo'lgan (tilda kelasi zamon, istak mayli, shart mayli, xohish mayli, buyruq mayli, maqsad mayli, gumon mayli va hokazo) harakat qaralishi mumkin. Shuning uchun mayl shaklining so'zning leksik-semantik birikuvchanligiga ta'siri mohiyatan zamon shaklining bu xususiyatidan farq qilmaydi. Zohiriy farq shundaki, zamon shakli leksemaning payt ma'noli so'z bilan birikishiga ta'sir etsa, mayl shakli leksemaning so'zlovchining bayon etayotgan voqea, harakat, holat, hodisaga bo'lgan munosabatini ifodalovchi aktant (lisoniy hol, kiritma) bilan birikuvchanligiga ta'sir qiladi va cheklaydi. Chunonchi, aniqlik maylining o'tgan zamon va hatto hozirgi hamda kelasi zamon shakli istak, gumon, taxmin ma'noli kiritma bilan (so'z-gap bilan) birika olmaydi: *Koshki, keldi. Ehtimol keldi.*

Nosintaktik kategoriya sifatida tasnif etilgan grammatik shakl va kategoriyaning o'zi birikib kelgan so'zning semantik-sintaktik birikuvchanligiga ta'sirini ko'rib chiqish asosida quyidagi umumiy xulosaga kelish mumkin: bu grammatik shakl va kategoriya o'zi birikib kelgan leksemaning birikuvchanlik qobiliyatini ma'lum darajada c h e k l a y d i. Bu nosintaktik grammatik kategoriyaning so'zning semantik-sintaktik valentligiga ta'sirining umumiy xususiyati bo'lib, turkiy tillardagi (ehtimol, nafaqat turkiy tillardagi) bunday kategoriyaning semantik xususiyati bilan bog'liq. O'zbek tilida bu hodisaning kuchliligi turkiy tillar grammatik shaklida semantik omilning ancha ustunligi hodisasi bilan uzviy bog'langan. Morfologik shakl bu tillarda o'ziga xos semantik (ma'noviy) qiymatga ega bo'lganligi bois, u so'zning semantikasiga ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir ayrim holatda shu darajada kuchliki, morfologik shaklni ayrim tilshunos yasama sifatida talqin etishiga ham asos bo'ladi. P.Azimov turkman tilida ko'plik son yasovchi *–lar* qo'shimchasini so'z

[1] Бунина И.К. История глагольных времен в болгарском языке. М., 1970. -с. 25–26; Грунина Э.А. Соотношение форм настоящего и будущего времени по патятникам турецкого языка XIII–XVI вв. // Вопросы тюркской филологии. –М., 1966; Исаченко А.В. Грамматический строй русского языка в сопоставлении со словацким. Братислава. Ч. I. 1965. –с. 419–423; Дешериев Т.Ч. Лингвистический аспект категории времени в его отношении к физическому и философскому аспектам // Вопросы языкознания, 1975. -№ 2.

yasovchi sifatida tasnif etgan edi[1]. Ko'plik son shaklini yasama so'z sifatida, ya'ni son qo'shimchasini derivatsion qo'shimcha sifatida talqin etish boshqada ham uchraydi[2]. Hozirgi o'zbek tilshunosligida *-day, -dek , -niki, -dagi* kabi morfemaning ba'zi tilshunos tomonidan so'z yasovchi[3], boshqa tilshunos tomonidan funksional forma[4] , ayrimi tomonidan esa nokategorial shakl[5], noparadigmatik morfema[6], ko'makchisimon qo'shimcha[7] sifatida tasnif etilishi ham shu bilan bog'liq.

Sintaktik kategoriyaning so'zning leksik-semantik valentligiga ta'siri. Yuqorida morfologik shakl valentligining umumiy tomoni xususida fikr yuritilganda, grammatik kategoriyani so'zning birikuvchanlik xususiyatiga ta'siri asosida sintaktik va nosintaktikga ajratilishi ustida to'xtab o'tilgan edi. Nosintaktik kategoriya bo'lmish son, subyektiv baho, sifat darajasi, zamon, mayl shaklining valentlikka munosabatini tekshirganda, uning asos shakl semantik-sintaktik valentligiga ta'sir qilib, asosan so'zning birikish qobiliyatini cheklashi, toraytirishi haqida xulosa qilindi.

Endi mulohazamizni sintaktik kategoriya, uning mohiyati, ichki tasnifiga ko'chiramiz. O'zi turkiyshunoslikda grammatik kategoriya tasnifi, chizmasi dialektik – substansial yondashuv asosida maxsus 80- yilda H.G'.Ne'matov tomonidan berildi[8]. Bu tasnif umumiy o'rta ta'lim darsligidan tortib oliy ta'lim dastur hamda qo'llanmasigacha ommalashdi va bugungi kunda nosintaktik, leksik–morfologik yoxud so'z turkumiga xoslangan sifatida biz yuqorida tahlil qilgan son, subyektiv baho, sifat darajasi, zamon, mayl kategoriyasi tushunilsa, sintaktik (aloqa-munosabat shakli) kategoriya doirasida kelishik, egalik, nisbat, funksional (o'zgalovchi), shaxs-son kategoriyasi anglashiladi. Darhaqiqat, sintaktik kategoriya so'z birikmasi va gap qurilishiga aloqador kategoriya bo'lib, so'zni bog'lash va gap bo'lagini shakllantirishga xizmat qiladi. Jumladan, kelishik o'zi shakllantirayotgan so'zni boshqasi bilan bog'laydi, shaxs-son kategoriyasi gap markazi (kesim) ni shakllantiradi, egalik so'z birikmasi qurilishini ta'minlash uchun xizmat qiladi, o'zgalovchi (ya'ni, fe'lning tur kategoriyasi shakli, reprezentatsiya kategoriyasi) sintaktik jihatdan fe'lni fe'l va boshqa so'z bilan bog'lash funksiyasini bajaradi, nisbat esa gap tuzilishini


[1] Азимов П. Туркман дили. –Ашхабад, 1950.
[2] Реформатский А.А. Число и грамматика // Вопросы грамматики. Сборник статей к 75-летию акад. И.И.Мещанинова. –М.: Л., 1960.
[3] Айюб Ғуломовнинг илмий мероси. 3- китоб. –Т.,2007, 94–96- б.
[4] Шоабдураҳмонов Ш. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т., 1980. 162–164- б.
[5] Турсунов У. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т., 1992, 274–279- б.
[6] Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –T., 2006, 149- b.
[7] Neъmatov H., Gulomov A., Abduraimova M., Qodirov M. Ona tili. 7- sinf uchun darslik, –T., 2000.
[8] Неъматов Х.Г. О характере грамматического значения тюркских форм и категорий // Советская тюркология, 1980, -№6; Нигматов Х.Г. О классификации грамматических категорий в тюркских языках // Советская тюркология, 1984, -№4.

o'zgartirishi mumkin. Adabiyotlarda ko'rsatilganidek, mazkur kategoriyaning sintaktik qobiliyati so'zshaklning «oldingisi bilan» hamda so'zshaklning «keyingisi bilan» aloqasini ifodalaydi. Egalik, nisbat, shaxs-son so'zshaklning «oldingisi bilan» aloqasini ko'rsatsa, kelishik va o'zgalovchi (ravishdosh, sifatdosh) kategoriya so'zshaklning «keyingisi bilan» aloqasini ko'rsatadi[1]. Shuning uchun sintaktik kategoriyani sintaktik xoslanishiga ko'ra ikki katta turga:

1) gap bo'lagini shakllantiruvchi;

2) so'z birikmasini tuzishga xizmat qiluvchiga ajratish mumkin. Bu jihatdan kesimlik (shaxs-son) kategoriyasi gap bo'lagini shakllantiruvchi kategoriya sifatida voqealansa, egalik so'z birikmasini tuzishga xizmat qiladigan kategoriya sifatida bu bo'linishning ikki chekka nuqtasida turadi. Qolgan kategoriya ular oralig'ida bo'lib, ularning shaklida ham u, ham bu chekka xususiyatni ko'rish mumkin.

Kesimlik kategoriyasi shaklining leksema semantik-sintaktik valentligiga ta'siri. Ushbu kategoriya shaklini valentlik nuqtayi nazaridan tahlil etar ekanmiz, kesimlik kategoriyasi o'zi shakllantirib kelgan so'zga gapning zaruriy argumenti – [Pm] kengaytiruvchisi bo'lmish ega, har xil hol va kiritma bilan birikish qobiliyatini berishini ta'kidlab o'tishimiz zarur. Boshqacha qilib aytganda, kesimni shakllantirgan morfologik vosita (shakl) gap tarkibini muayyanlashtiradi, o'zi bog'lanib kelgan asos leksema semantik-sintaktik valentligiga o'zgarish yasab, uning **birikish qobiliyatini kengaytiradi.** Buni chizmada quyidagicha tasvirlash mumkin:



Chizmadan ko'rinadiki, *o'qidik* so'z shaklining – kesimning valentligi to'la-to'kis *o'qimoq* leksemasining leksik-semantik valentligini qamrab oladi. Lekin

[1] Шаҳобиддинова Ш. Ўзбек тили морфологияси умумийлик ва хусусийлик диалектикаси талқинида. 2-жузв. Андижон, 1994; Mengliyev B., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Qarshi, 2005.

bu valentlik N (tasdiq/inkor), M (mayl/modallik), T (zamon) nosintaktik kategoriyasi valentligi bilan cheklanilib, shaxs-son shakli valentligi mohiyati bo'lgan gap egasi bilan to'ldiriladi, kengaytiriladi. Demak, kesimlik kategoriyasining valentlikka ta'siri mohiyatan nosintaktik kategoriya bo'lmish tasdiq/inkor (N), mayl (M), zamon (T) kategoriyasining valentlikka ta'siri leksema leksik-semantik valentligini ma'lum darajada cheklash va ega bilan birikish qobiliyatini kengaytirish kabi ichki ziddiyatli. Ko'rinadiki, kesimlik kategoriyasi leksik-semantik valentlikni ma'lum darajada ham cheklaydi, ham kengaytiradi. Bunday ziddiyatlilik zohiriy, tashqi va har qanday zohiriy kabi yuzaki va mohiyatni bizdan qorong'ilashtiruvchidir[1].

Buni bir yorqin misol bilan asoslash mumkin. Kesim mavqeyida juda keng leksik-semantik valentlikka ega bo'lgan fe'l kelganda haqiqatan ham kesimlik kategoriyasining tarkibiy qismi bo'lmish N,M,T fe'lning leksik-semantik valentligini oldingi bo'limda ko'rib o'tganimizdek, ma'lum darajada cheklaydi. Lekin kesim vazifasida leksik-semantik valentlikka nisbatan chegaralangan ot, sifat, son kabi so'z turkumiga mansub so'z kelganda holat qanday? Bu masala boshqa yo'nalishda qisman M.Abuzalova, Sh.Akramov, M.Qurbonova ishida ko'rib o'tilgan[2] va quyida shu tadqiqotchining izlanishiga tayangan holda bu masala ko'rib o'tiladi. *O'qituvchi* kabi ot turkumiga mansub so'zning leksik-semantik valentligini va shu so'zning kesim vazifasida kelganda valentligini qiyoslaylik: *O'qituvchi* so'zining leksik-semantik valentligi ko'rib o'tilganidek, har xil aniqlovchi bilan. Shu so'z kesim vazifasida kelganda kesimlik kategoriyasining tarkibiy qismi bo'lgan shaxs/son shakli valentligi asosida gap egasi bilan birikish qobiliyatiga ega bo'ladi. Lekin shu bilan birga masalan, «O'qituvchiman» kesim so'zshakli «o'qituvchi» leksemasining leksik-semantik valentligiga xos bo'lmagan har xil hol va kiritma bilan ham bemalol birikish qobiliyatini qo'lga kiritadi. Chunonchi, *Ehtimol, men hozir tajribasiz o'qituvchiman...* Bu gapda *ehtimol* kiritmasi, *hozir* holi tabiiyki, o'qituvchining leksik-semantik valentligiga aloqador emas. Gap tarkibida aniqlovchi vazifasida kelgan *tajribasiz* so'zigina «o'qituvchi»ning leksik-semantik valentligiga aloqador. Ega vazifasida kelgan *men*, hol vazifasida kelgan *hozir*, kiritma

[1] Ҳақиқатни билишга интилган идрокка (тафаккурга) жузвни тавсифловчи фахм тўсқинлик қилишини А.Навоий «Лисонут-тайр»да «Қосир этди фахмдин идрокни» (фахм сабабли идрокни нуқсонли қилди) деб шарҳлаган эди ва бу масала фалсафий – методологик адабиётларда жуда чуқур таҳлил этилган. Қаранг: А.Навоий. Лисон-ут тайр (Насрий баёни билан). –Т., F.Гулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. –464 б.; Есперсен О. Философия грамматики. –М.: Изд-во иностранной литературы, 1958. – 404 с.

[2] Абузалова М.К. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши филол.фан.номз.дисс. –Т., 1994; Акрамов Ш. Ўзбек тилининг гап қурилишида тўлдирувчи ва ҳол ([WPm] валентлиги аспектида): филол.фан.номз.дисс. –Т., 1997; Қурбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили. (Содда гап синтаксиси учун материаллар). –Т., 2002. –120 б.

mavqeiyda bo'lgan *ehtimol* kabi tarkibiy qism bilan birikish *o'qituvchi* leksemasining leksik-semantik valentligiga mutlaqo aloqador emas va butunligicha kesimlik kategoriyasi – [Pm] shakli valentligi bilan, mohiyatan grammatik valentlik bilan uzviy bog'langan.

Kesim vazifasida fe'l kelganda N, M, T ning fe'l leksik-semantik valentligini cheklashi N, M, T shaklining ma'noviy tomoni bilan bog'liq. Lekin kesim vazifasida kelgan so'zning ega, har xil hol va kiritma bilan birika olish qobiliyati bu kesimlik kategoriyasining o'ziga xos sintaktik valentligi. Shuning uchun kiritma, hol bilan kesimdan boshqa mavqeda kelganda bog'lana olmaydigan so'z kesim vazifasida kelganda u bilan birikish qobiliyatiga ega bo'ladi – kesimlik kategoriyasi leksik-semantik valentlikdan qat'iy nazar istagan turdagi so'zga ega, kiritma, hol bilan birikish qobiliyatini beradi. Demak, kesimlik kategoriyasi so'zning leksik-semantik valentligini kengaytiradi – unga kesim mavqeyida turib ega, kiritma va har xil hol bilan birikish imkoniyatini beradi. Tabiiyki, tilda sodir bo'ladigan asosiy qonuniyat birikish me'yori bo'lishi uchun birikuvchi so'z shakli orasida ma'noviy uyg'unlik bo'lishi shart.

Nisbat shaklining so'zning leksik-sintaktik valentligiga ta'siri. Fe'l nisbati o'zbek tilshunosligida ancha mufassal tavsiflangan. Fanimizda fe'l nisbatiga bag'ishlab yozilgan S.Ivanov, S.Mamatqulov, H.Ne'matov, F.Saidov, S.Sultonsaidova, U.Tursunov, S.Ferdaus, E.Fozilov, A.G'ulomov, A.Hojiyev va boshqalarning tadqiqotida nisbat shakli keng o'rganilgan[1]. Umumturkiyshunoslik adabiyotida fe'l nisbati masalasi N.A.Baskakovning qoraqalpoq tiliga bag'ishlangan tadqiqotida, E.Sevortyanning fe'l so'z yasalishiga bag'ishlangan monografiyasida, A.Sherbakning turkiy tilning qiyosiy-tarixiy grammatikasiga bag'ishlangan qator ishida tahlil qilingan[2]. Fe'l nisbati deganda nima tushuniladi? Formal (shakliy) yo'nalishda fe'l o'zagidan keyin, yasama fe'lda esa fe'l yasovchi qo'shimchadan keyin o'zak-negizga qo'shilib keladigan *-t, -iz, -ir, -ar, -sat, -dir(-tir), -l(-il), -sh(-ish)* kabi qo'shimcha nisbat shaklini yasovchi va shunday qo'shimchali hosila fe'l nisbati deb aytiladi.

Nisbat shaklini birikuvchanlik nuqtayi nazaridan o'rganar ekanmiz, uning asos shaklning valentlik imkoniyatini tubdan o'zgartirib yuborish xususiyatiga

[1] Иванов С. Родословное древотюрок Абулгази-хана –М., 1969; Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.: Фан, 1989; Султонсаидова С. Ўзбек тилидаги морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.: Фан, 1989; Султонсаидова С. Ўзбек тилидаги грамматик категориянинг ўзаро муносабати: филол.фан.докт.дисс. –Т., 1994; Фозилов Э. Феъл даража ясовчи аффикслариниинг тарихи // Ўзбек тили ва адабиёти, 1960. -№ 3; Нигматов Х.Г., Цалкаламанидзе Аъламова М. Ўзбек тилидаги феълда нисбат категорияси. –Т.: Фан, 1992.

[2] Баскаков Н.А.Залоги в каракалпакском языке. –Т., 1941; Севортян Э.В. Аффиксы глаголообразования в азербайджанском языке. –М., 1982. –420 с.; Щербак А.М. Грамматика старо-узбекского языка. –М.: Л. 1962.

ega ekanligi bilan ajralib turishini aniqladik. Nisbat shakli gap tarkibini turli aktant bilan to'ldiradi va bu kengaytirilgan bo'lak har bir nisbat shaklida turli maqomda turadi. Boshqacha qilib aytsak, nisbat shakli gap tarkibida «aktant o'yini» qilib, har bir aktant mavqeyini gap qurilishida «dirijyor»day boshqarib turadi. Shuning uchun azal-azaldan nisbat va gap qurilishi, gap tarkibida ega va to'ldiruvchining harakatga munosabati uzviy bog'liqlikda o'rganilgan va nisbatning klassik ta'rifi «fe'l ifodalagan harakatning harakat obyekti va subyektiga munosabati»[1] yoki boshqacha qilib, «subyekt va obyektning harakatga munosabati» sifatida berib kelingan. Haqiqatdan ham, nisbat paradigmasida, chunonchi,

1. Lola ko'ylagini yuvdi.

2. Lola yuvindi.

3. Lolaning ko'ylagi yuvildi.

4. Lola ko'ylagini yuvdirdi.

5.Lola ko'ylagini yuvishdi gapida harakatning subyekti (bajaruvchisi) va obyekti harakatga har xil munosabatda turadi. Gapning ma'nosi ham, gap egasi va to'ldiruvchining harakatga ishtirok tarzi ham nisbat shakli bilan belgilanadi. Ma'lumki, nisbat shaklining gapda ega va to'ldiruvchining mavqeini o'zgartirishi arab tilshunosligida fe'l navi (turi)[1] bobida, Yevropa tilshunosligida ham, qadimgi va zamonaviy nisbat nazariyasini 1960–70 yillarda umumlashtirish ustida SSSR Fan akademiyasi Tilshunoslik instituti doirasida maxsus ish olib borgan professor A.A.Xolodovich guruhida ham[2] gap qurilishi bilan bog'liq ravishda, bizning nuqtayi nazaridan fe'l valentligi bilan aloqadorlikda tavsiflangan.

Turkiyshunoslikda fe'l nisbatining gap qurilishiga ta'siri nuqtayi nazaridan turkiy fe'lning semantik aktanti –

a) subyekti/fe'li/bajaruvchisi;

b) harakat natijasi yo'naltirilgan shaxs, narsa tashabbuskori/ kauzatori/ harakatga qo'zg'atuvchi;

v) hamroh subyekt/harakatning asosiy bajaruvchi bilan birga teng huquqli yoki teng huquqli bo'lmagan boshqa bir ishtirokchisi;

g) obyekti/harakat bevosita yo'naltirilgan manba/adresat – kabining gap qurilishidagi mavqei talqini S.N.Ivanov, V.G.Guzev, D.M.Nasilov,

[1]Айюб Гуломовнинг илмий мероси (2-китоб). Р.Сайфуллаева мухаррирлигида. –Т., 2007, 68- б.; Гуломов А. Феъл. –Т., 1964. 63- б.

[1] Араб тилида феъл навлари (нисбатлари)`15 та бўлиб, улардан тўққизтаси кенг истеъмолда.

[2] Бу гуруҳ вакилларининг жуда кўп илмий мақолалар сифатида эълон қилинган ишлари иккита умумлаштирувчи ишда бирлаштирилган. Қаранг: Типология каузативных конструкций. Морфологический каузатив. –Л., 1969; Холодович А.А. Залог. В кн. Категория залога. Очерки по общему и арабскому синтаксису. –М.: Наука, 1973. – 168 б.

H.G'.Ne'matov, A.A.Salkamanidze, S.X.Sultonsaidova, Sh.Rahmatullayev, T.Inoyatov, S.Mamatqulov tomonidan ilgari surilgan va bugun ancha sodda shaklda maktab darsligi va dasturida ham, oliy ta'lim darslik, qo'llanmasida ham[1] o'z aksini topgan.

Egalik kategoriyasi shaklining leksema semantik-sintaktik valentligiga ta'siri. Sintaktik shakldan biri bo'lgan egalik kategoriyasining asosiy ko'rsatkichi quyidagi sanaladi: [- *(i) m*], [- *i/miz*]; [*-i(ing)*], [*-i(ngiz)*]; [*-(s)i*]. Ushbu shakl ismga (ot, sifat, son, taqlid, so'z, olmosh, sifatdosh, harakat nomi) qo'shiladi va qaralmishning ma'lum bir shaxsga (predmetga) tegishli ekanligini ifodalaydi. egalik kategoriyasi dagi kategorial ma'no sintaktik tabiatli bo'lib, undan anglashiladigan shaxs-son ma'nosi yondosh, modal ma'no esa hamroh. Chunonchi, *Sizning kitobingiz* birikmasida egalik shaklining kategorial «keyingi mustaqil so'zning oldingi ifodalangan mustaqil so'zga sintaktik munosabatini ko'rsatish» ma'nosi bilan bir vaqtda yondosh ma'no bo'lmish II shaxs, birlik son hamda «sizlash» hurmat modal ma'nosi voqelashgan. Ammo egalik kategoriyasi shaklining mohiyati u bilan birga «yopishib» chiqadigan grammatik ma'nodan xoli qilingandagina ochiladi[2].

Egalik kategoriyasining sintaktik jihatini hokim so'zni tobega bog'lash funksiyasi tashkil etar ekan, bu sintaktik qurilmaning semantikasi unda voqealangan shaxs-son, aniqlik/noaniqlik, so'zning kelishik shakli, birikuvchi so'zning lug'aviy ma'nosi kabi omil bilan bog'liq bo'ladi. Semantik jihatdan egalik shakli rang-barang ma'noga egaligi bilan xarakterlanadi. Chunonchi, «Salimning kitobi» birikuvida nutqda uch xil grammatik ma'no yuzaga chiqadi:

1. Salimga qarashli kitob. Salimning mulki bo'lgan kitob.

2. Salim yozgan kitob. Muallifi Salim bo'lgan kitob.

3. Salimga qaysidir jihati bilan aloqador bo'lgan kitob.

Nutq sharoiti bu ma'noni muayyanlashtirib turadi. Jumladan, 1-matnda 1-ma'no, 2-matnda 2-ma'no, 3-matnda esa 3-ma'no voqealangan:

1. *Salimning kitobi yo'qolmasin. Ehtiyot qiling.*

2. *Salimning yangi kitobi chiqibdi.*

3. *Salimning kitobi – ijodkorning eng so'nggi, mukammal, istiqloldan keyin muallifning qo'lyozmasi asosida berilgan to'liq haqiqiy matni.*

Bu ma'no bevosita grammatikaga aloqador emas. Bular ichida grammatik tizimga aloqadori egalik shaklining kategorial ma'nosi va qisman oraliq grammatik ma'no. Umuman olganda, egalik shakli nutqda ifodalangan rang-

[1] Турсунов У. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т., 1992; Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. –Т., 1975; Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек тили. –Т., 2007; Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –T., 2006.

[2] Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.:Фан, 1989, 68-с.


barang ma'no ko'rinishi quyidagi uch oraliq grammatik ma'no «g'alviri»dan o'tib voqealanadi, muayyanlashadi:

1. Qarashlilik/mansublik ma'nosi: *Salimning kitobi, qo'ynng boshi ...*

2. Foil harakat (bajaruvchi harakat): *Adibaning kulishi, sening gapirishing ...*

3. Sof sintaktik aloqa (aniqlanmishni ot aniqlovchi bilan bog'lash): *Qovun bozori, saxovat ahli, go'sht do'koni ...*

Egalik kategoriyasini sintaktik deb tasnif etishning o'zi bu shaklning leksema sintaktik birikuvchanligiga o'zgarish yasay olishi xususida hukm chiqarishga imkon beradi. Buning uchun egalik shaklli va egalik shaklsiz ayni bir so'zning valentligini qiyoslaymiz.



Chunonchi, *bog', kitob, gapirish, kelish* kabi leksema qaratqich kelishikli tobe bo'lak bilan birikishga ehtiyot sezmaydi, hatto birikish qobiliyatiga ham ega emas. Ammo mazkur so'z egalik qo'shimchasi bilan shakllantirilganda – *kitobi/bog'i/gapirishi* kelishi so'zshakli bunday qobiliyatga ega bo'ladi va qaratqich kelishikli aniqlovchi bilan imkoniy bog'lanish hosil qiladi. Boshqacha qilib aytsak, «Salimning kitobi», «Adibaning gapirishi» birikmasida tobe komponent zaruriy (obligator) valentlikka ega bo'lsa, hokim komponent qaratqich kelishikli so'z bilan birikish imkoniyatiga, ya'ni imkoniy valentlikka ega bo'ladi.

Egalik shakli tizimi leksema semantik – sintaktik valentligini miqdoran ko'paytiradi. Kengaytirilgan aktant ot, olmosh, fe'lning sifatdosh shakli, harakat

nomi, son kabi turkumga mansub bo'lishi mumkin: *Salimning kitobi; Uning qishlog'i; Aytilganlarning hammasi; O'qishning siri; O'ttizning yarmi.*

Egalik shakli ba'zan chiqish kelishigidagi so'zni ham boshqaradi. Ammo bunday bog'lanish ikkilamchi holat bo'lib, bunday sintaktik qurilma qaratqich kelishigi qatnashadigan qurilma asosida yuzaga kelgan[1]. Jumladan, *talabalardan to'rttasi, sherigidan biri, bizlardan uchtamiz, sizlardan ba'zilaringiz* kabi.

Egalik shaklining bosh kelishikdagi so'z bilan birikib kengayishi tilda murakkab hodisa sanalib, shaklan qaratuvchi – qaralmish munosabatiga o'xshasa, mazmunan izohlovchi–izohlanmish konstruksiyasini beradigan birikmadir: *saxovat ahli, go'sht do'koni, Hamza teatri, targ'ibot ishlari, gugurt zavodi* kabi. Turkiyshunos S.N.Ivanov bu xil birikma yuzaga kelishini uchinchi shaxs egalik qo'shimchasining o'ziga xos xususiyati bilan bog'laydi va *Toshkent shahri, o'qish kitobi* kabi birikmani «II izofa» deb nomlaydi[2]. Ammo bu xil bog'lanish «daraxt bargi», «yo'l cheti», «ustoz qalami» kabi belgisiz qaratqichli holatdan farq qiladi. Chunki «daraxt bargi», «yo'l cheti», «ustoz qalami» birikuvida belgisiz qaratqichli tobe komponent egalik shaklining belgisiz kengayuvchi aktanti vazifasida tura oladi. Ammo *Toshkent shahri, Go'sht do'koni, mart oyi* qurilmasida *Toshkent, go'sht, mart* so'zi belgisiz qaratqichli kengayuvchi aktant darajasida emas, balki bosh kelishikdagi izohlovchi vazifasida keladi.

Shunday qilib, egalik kategoriyasining so'z leksik–semantik valentligiga kiritadigan o'zgarishini quyidagicha lo'nda ifodalash mumkin: egalik shakli o'zi qo'shilib kelayotgan so'z valentligini yangi ot aniqlovchi bilan hokim so'z mavqeyida birika olish qobiliyati bilan kengaytiradi.

Kelishik kategoriyasi shaklining leksema semantik-sintaktik valentligiga ta'siri. Biz ishimizning I bobida til hodisasini o'rganishga substansial yondashish mohiyatini kelishik misolida tushuntirib o'tib, kelishik shaklining tadqiq darajasi, kelishik kategoriyasi mohiyati, uning ma'no va vazifa tomoni xususida fikr bildirgan edik.

Kelishik kategoriyasining ilmiy talqinida deskriptiv (kelishik shaklining mohiyatini berishda matniy qurshovning hisobga olinishi) hamda substansial (kelishik shaklining mohiyatini uning ma'noviy va sintaktik tomonini ham bog'liqlikda, ham zidlikda ko'rish) nazariya mavjud ekan, tabiiyki, mazkur shaklning asos leksema valentligiga ta'siri uning zotiy, substansial mohiyatidan kelib chiqadi. Kelishik shakli grammatik valentligining kuchliligi ular sintaktik

[1] Ўзбек тили грамматикаси. Морфология, I том. –Т.: Фан, 1975, 169- б.
[2] Нурмонов А., Шахобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. –Т.:Янги аср авлоди. 2001. 143–144- б.

tabiatining g'oyatda ustunligi bilan belgilanadi. Mazkur kategoriya shakli valentligini har bir kelishikda kuzatishga harakat qilamiz.

Odatda kelishik haqida gapirganda, birinchi navbatda, bosh kelishik haqida gapiriladi. Lekin bosh kelishikning kelishik tizimidagi alohida o'rni bugun o'zbek tilshunosligi uchun ayon[1]. Shuning uchun tahlilni mohiyatan munozarali va tabiatan murakkab bo'lgan bosh kelishikdan emas, boshqa kelishikdan boshlash mumkin.

1. Qaratqich kelishigidagi so'z egalik shaklining fakultativ (ikkilamchi, nozaruriy) kengaytiruvchisi maqomiga ega bo'lsa, qaratqich kelishigining obligator (zaruriy, birlamchi) kengaytiruvchisi egalik shaklini olgan so'z bo'ladi. Boshqacha qilib aytsak, mazkur shakl asos leksema valentligiga o'zgarish yasab, uning egalik shaklidan birida bo'lgan leksema bilan birikish hosil qilishini talab qiladi. Chunonchi, *bizning litseyimiz, onamning ko'ylagi, uning tabassumi, yomonning qilig'i, o'nning yarmi, uyning tomi ...*

Ba'zan uslub talabi bilan ta'kid ma'nosini kuchaytirish maqsadida qaratqich shakli asos leksemaning ayrim ko'makchi bilan birikish hosil qilishiga yo'l ochadi: *shuning bilan, sening kabi, mening uchun.* Bu tip konstruktsiya *seningdek, sendek, menga* kabi mustaqil so'zning sinonimik varianti sifatida tahlil qilinadi.

Kelishikning belgili/belgisiz holatda ishlatilishi, semantikasi, qaratuvchi holatida qaysi turkum so'zi bilan ifodalanishi yoki qaysi turkum so'zi bilan birikish hosil qilishi adabiyotda batafsil o'rganilgan[2]. O'zbek tilida keyingi vaqtda kishilik olmoshidan (shaxs olmoshidan) qaratqich kelishigi shaklining o'ziga xos qo'llanishi ommalashmoqda. Chunonchi, *bizning manzil, bizning ko'cha, mening kitob.* Bunday hosila qaratqich kelishigining yuqorida ko'rsatilgan tabiatiga zid va tadqiqotchi tomonidan rus tili, aniqrog'i, rus tili egalik olmoshining interfren ta'siri sifatida talqin etiladi. Lekin shu asosda hali egalik olmoshining shakllanishi o'zbek tilida nihoyasiga yetmagan. Ammo shu holatda ham qaratqich kelishigi kelishik uchun umumiy bo'lgan kategorial sintaktik valentlikni - tobe so'z mavqeiyda kelishini saqlab qoladi va *mening, bizning* kabi «qaratuvchilik» ma'nosi shu qaratuvchi bilan kontakt vokalizatsiya,

[1] Ҳожиев А. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (тўққизинчи мақола) // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007. -№ 6. 3-7-б.

[2] Ўзбек тили грамматикаси. Морфология, I том. -Т.: Фан, 1975; Турсунов У. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Т, 1992; Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек тили. -Т., 2007; Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. -T., 2006; Нурмонов А., Шахобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. -Т.: Янги аср авлоди, 2001.

S.Nazarova ta'kidicha, «joylashuv» usuli bilan tobelangan bo'ladi[1]. Qaratqich shakli birikma tarkibida tobe bo'lak mavqeyida keladi.

2. Tushum kelishigi vositasiz to'ldiruvchi mavqeyida kelgan asos leksemaning o'timli fe'l bilan birikishini talab qiladi. To'g'rirog'i, faqat o'timli fe'lgina tushum kelishigi shaklining obligator kengaytiruvchisi darajasiga ko'tariladi. Tushum kelishigi shakli asos leksema semantik sintaktik valentligini o'timli fe'l bilan kengaytiradi.

Kelishik shaklining umumkategorial ma'nosi «oldingi tobe so'zni keyingi hokim so'zga bog'lash» ekan, tabiiyki, bu umumiy grammatik ma'nodan ikki so'zning aloqa-munosabati, so'z birikmasi hosil qilishi anglashiladi va so'z birikmasida bu sintaktik aloqa ikki tomonlama bo'ladi. Grammatik valentlik o'zgacha ko'rinishga ega bo'ladi, ya'ni birikmaning bir tarkibiy qismi ikkinchi qismdan ma'lum bir shaklda kelishni talab qilsa, ikkinchi qism birinchi qism shakli bilan birikish qobiliyatiga ega bo'ladi. Zaruriy va imkoniy valentlik uyg'unlashadi. Xuddi shunday uyg'unlashish grammatik sof kelishik bo'lgan tushum, qaratqich kelishigi birikuvida kuzatildi. Makon kelishigi nomini olgan chiqish, jo'nalish birikuvida ham shunday uyg'unlashishni ko'ramiz.

3. Jo'nalish kelishigi shaklini olgan, vositali to'ldiruvchi yoki hol vazifasida kelgan asos leksema o'zidan keyin o'timli/o'timsiz fe'l bilan birikish hosil qiladi. Va, aksincha, o'timli/o'timsiz fe'lning jo'nalish kelishigidagi so'zni boshqarish xususiyati uning lisoniy tabiatida mavjud: *pastga qaramoq, ukasiga aytmoq, o'qishga bormoq* kabi. Misoldan ko'rinib turganidek, jo'nalish kelishigi shakli o'zi qo'shilgan asos leksema (ism/fe'l)ni har xil zamon/makon, sabab/maqsad ma'nosi bilan vositali to'ldiruvchi/hol sifatida fe'l/ism bilan tobe aloqaga kiritadi. Chunonchi, *maktabga bormoq, varaqqa ko'chirmoq, o'qishga kelmoq, ukasiga aytmoq* kabi birikuvda «bormoq», «ko'chirmoq», «kelmoq», «aytmoq» fe'li [*-ga*] qo'shimchasi bilan ifodalangan vositali to'ldiruvchi//hol bilan birikish imkoniyatli valentligiga ega bo'lsa, jo'nalish kelishigi shaklini olgan *maktabga, varaqqa, o'qishga, ukasiga* kabi so'zshakl fe'l boshqaruvchi bilan boshqarilishni talab qiladi va mazkur birikuvda o'timli/o'timsiz fe'l [*-ga*] shakliga zaruriy valentlik darajasida turadi.

Shuningdek, jo'nalish kelishigi shakli so'zga shu kelishik shaklining zaruriy valentligi bo'lgan *ko'ra, binoan, qarshi, qadar, nisbatan* ... kabi ko'makchi bilan birikish imkoniyatini ham beradi.

4. Chiqish kelishigi shakli o'zi qo'shilgan asos so'zning semantik valentligiga ma'no va semantik-sintaktik valentlik nuqtayi nazaridan ayirish,

[1] Назарова С.А. Бирикмаларда сўзларнинг эркин боғланиш омиллари: филол.фан.номз.дисс.автореф. -Т., 1997.

S.Nazarova ta'kidicha, «joylashuv» usuli bilan tobelangan bo'ladi[1]. Qaratqich shakli birikma tarkibida tobe bo'lak mavqeyida keladi.

2. Tushum kelishigi vositasiz to'ldiruvchi mavqeyida kelgan asos leksemaning o'timli fe'l bilan birikishini talab qiladi. To'g'rirog'i, faqat o'timli fe'lgina tushum kelishigi shaklining obligator kengaytiruvchisi darajasiga ko'tariladi. Tushum kelishigi shakli asos leksema semantik sintaktik valentligini o'timli fe'l bilan kengaytiradi.

Kelishik shaklining umumkategorial ma'nosi «oldingi tobe so'zni keyingi hokim so'zga bog'lash» ekan, tabiiyki, bu umumiy grammatik ma'nodan ikki so'zning aloqa-munosabati, so'z birikmasi hosil qilishi anglashiladi va so'z birikmasida bu sintaktik aloqa ikki tomonlama bo'ladi. Grammatik valentlik o'zgacha ko'rinishga ega bo'ladi, ya'ni birikmaning bir tarkibiy qismi ikkinchi qismdan ma'lum bir shaklda kelishni talab qilsa, ikkinchi qism birinchi qism shakli bilan birikish qobiliyatiga ega bo'ladi. Zaruriy va imkoniy valentlik uyg'unlashadi. Xuddi shunday uyg'unlashish grammatik sof kelishik bo'lgan tushum, qaratqich kelishigi birikuvida kuzatildi. Makon kelishigi nomini olgan chiqish, jo'nalish birikuvida ham shunday uyg'unlashishni ko'ramiz.

3. Jo'nalish kelishigi shaklini olgan, vositali to'ldiruvchi yoki hol vazifasida kelgan asos leksema o'zidan keyin o'timli/o'timsiz fe'l bilan birikish hosil qiladi. Va, aksincha, o'timli/o'timsiz fe'lning jo'nalish kelishigidagi so'zni boshqarish xususiyati uning lisoniy tabiatida mavjud: *pastga qaramoq, ukasiga aytmoq, o'qishga bormoq* kabi. Misoldan ko'rinib turganidek, jo'nalish kelishigi shakli o'zi qo'shilgan asos leksema (ism/fe'l)ni har xil zamon/makon, sabab/maqsad ma'nosi bilan vositali to'ldiruvchi/hol sifatida fe'l/ism bilan tobe aloqaga kiritadi. Chunonchi, *maktabga bormoq, varaqqa ko'chirmoq, o'qishga kelmoq, ukasiga aytmoq* kabi birikuvda «bormoq», «ko'chirmoq», «kelmoq», «aytmoq» fe'li [*-ga*] qo'shimchasi bilan ifodalangan vositali to'ldiruvchi//hol bilan birikish imkoniyatli valentligiga ega bo'lsa, jo'nalish kelishigi shaklini olgan *maktabga, varaqqa, o'qishga, ukasiga* kabi so'zshakl fe'l boshqaruvchi bilan boshqarilishni talab qiladi va mazkur birikuvda o'timli/o'timsiz fe'l [*-ga*] shakliga zaruriy valentlik darajasida turadi.

Shuningdek, jo'nalish kelishigi shakli so'zga shu kelishik shaklining zaruriy valentligi bo'lgan *ko'ra, binoan, qarshi, qadar, nisbatan* ... kabi ko'makchi bilan birikish imkoniyatini ham beradi.

4. Chiqish kelishigi shakli o'zi qo'shilgan asos so'zning semantik valentligiga ma'no va semantik-sintaktik valentlik nuqtayi nazaridan ayirish,

[1]Назарова С.А. Бирикмаларда сўзларнинг эркин боғланиш омиллари: филол.фан.номз.дисс.автореф. –Т., 1997.

ajratish, uzoqlashish, farqlash va hokazo ma'noli fe'l va ismning shu kelishik bilan birikish imkoniyatli valentligini voqealantirishga xizmat qiladi va [*-dan*] qo'shimchali asos leksemani chiqish shakli boshqaruvchisi bilan tobe mavqeda bog'lanishini zaruriy sintaktik valentlik darajasiga ko'taradi. Chunonchi, *olmoq* fe'li [*-dan*] qo'shimchasi bilan ifodalangan vositali to'ldiruvchi bilan birikish imkoniyatli valentligiga ega bo'lsa, *kitobdan* so'z shakli *olmoq* tipidagi boshqaruvchi bilan boshqarilishni talab qiladi va *Kitobdan olmoq* so'z birikmasida zaruriy grammatik – sintaktik valentlik (*-dan* shaklida) va imkoniyatli (fakultativ) valentlik (*olmoq* leksemasida) birikib hamda uyg'unlashib, kitobdan olmoq so'z birikmasini beradi.

5. O'rin-payt kelishigi shakli makon kelishigi orasida o'ziga xos ham sintaktik, ham ma'noviy xususiyatga ega. Uning sintaktik o'ziga xosligi shundaki, bu kelishik ixtisoslashgan sintaktik vazifaga – gapda hol bo'lib kelishiga asoslangan va gapda hol ham, to'ldiruvchi ham bo'lib kela oladigan jo'nalish, chiqish kelishigiga zid turadi. Bundan tashqari mazkur shakldagi so'zning ism/fe'l tomonidan boshqarilishi ham jo'nalish, chiqish kelishigidagi so'zning boshqarilishidan zaifroq. Ism/fe'lni zamon/makon ma'nosi bilan boshqa fe'l/ism bilan hol mavqeiyda tobe aloqaga kiritish o'rin-payt kelishigining tub, substansial mohiyatini tashkil qilar ekan, *tongda yig'ilmoq, uyda bo'lmoq, Buxoroda yashamoq* kabi birikmadagi o'timsiz fe'l [*-da*] qo'shimchasi bilan shakllangan hol bilan birikish imkoniyatli valentligiga ega bo'ladi. O'rin-payt kelishigi shaklidagi makon/zamon ma'noli hol uchun yuqoridagi fe'l (boshqaruvchi) zaruriy valentlik maqomida turadi va mazkur zaruriy hamda imkoniy valentlik birlashib, uyg'unlashib T → H (tobe → hokim) munosabatini voqealantiradi. So'zning leksik-semantik valentligiga yangi sintaktik qobiliyat bag'ishlovchi qaratqich, tushum, jo'nalish, o'rin, chiqish kelishigi xususiyati bilan tanishgach, bosh kelishik va uning sintaktik valentligi haqida fikr yuritsa bo'ladi. Ilmiy adabiyotda bosh kelishik so'z shaklining o'ziga xos sintaktik vazifasi deyarli har bir tavsifda oddiy haqiqat sifatida qayd etilsa-da, ba'zan tadqiqotchi uni «esdan chiqarib qo'yishadi». O'zbek tilida gap qurilishida ega mavqeiyda kelgan birlikning morfologik shakli faqat bosh kelishik shakligina bo'la oladi; bosh kelishik shakli gapda egadan boshqa bo'lak mavqeiyda bemalol kela oladi, lekin gapning egasi bosh kelishikdan o'zga bo'lak shaklida bo'la olmaydi. Bosh kelishikning qolgan barcha kelishik shakli ma'no va vazifasida kela olishi esa, bu shaklning grammatik kategoriya ichida dominanta (neytral) shakl mavqeyida kelayotganidan dalolat beradi.

ajratish, uzoqlashish, farqlash va hokazo ma'noli fe'l va ismning shu kelishik bilan birikish imkoniyatli valentligini voqealantirishga xizmat qiladi va [*-dan*] qo'shimchali asos leksemani chiqish shakli boshqaruvchisi bilan tobe mavqeda bog'lanishini zaruriy sintaktik valentlik darajasiga ko'taradi. Chunonchi, *olmoq* fe'li [*-dan*] qo'shimchasi bilan ifodalangan vositali to'ldiruvchi bilan birikish imkoniyatli valentligiga ega bo'lsa, *kitobdan* so'z shakli *olmoq* tipidagi boshqaruvchi bilan boshqarilishni talab qiladi va *Kitobdan olmoq* so'z birikmasida zaruriy grammatik – sintaktik valentlik (*-dan* shaklida) va imkoniyatli (fakultativ) valentlik (*olmoq* leksemasida) birikib hamda uyg'unlashib, kitobdan olmoq so'z birikmasini beradi.

5. O'rin-payt kelishigi shakli makon kelishigi orasida o'ziga xos ham sintaktik, ham ma'noviy xususiyatga ega. Uning sintaktik o'ziga xosligi shundaki, bu kelishik ixtisoslashgan sintaktik vazifaga – gapda hol bo'lib kelishiga asoslangan va gapda hol ham, to'ldiruvchi ham bo'lib kela oladigan jo'nalish, chiqish kelishigiga zid turadi. Bundan tashqari mazkur shakldagi so'zning ism/fe'l tomonidan boshqarilishi ham jo'nalish, chiqish kelishigidagi so'zning boshqarilishidan zaifroq. Ism/fe'lni zamon/makon ma'nosi bilan boshqa fe'l/ism bilan hol mavqeiyda tobe aloqaga kiritish o'rin-payt kelishigining tub, substansial mohiyatini tashkil qilar ekan, *tongda yig'ilmoq*, *uyda bo'lmoq*, *Buxoroda yashamoq* kabi birikmadagi o'timsiz fe'l [*-da*] qo'shimchasi bilan shakllangan hol bilan birikish imkoniyatli valentligiga ega bo'ladi. O'rin-payt kelishigi shaklidagi makon/zamon ma'noli hol uchun yuqoridagi fe'l (boshqaruvchi) zaruriy valentlik maqomida turadi va mazkur zaruriy hamda imkoniy valentlik birlashib, uyg'unlashib T → H (tobe → hokim) munosabatini voqealantiradi. So'zning leksik-semantik valentligiga yangi sintaktik qobiliyat bag'ishlovchi qaratqich, tushum, jo'nalish, o'rin, chiqish kelishigi xususiyati bilan tanishgach, bosh kelishik va uning sintaktik valentligi haqida fikr yuritsa bo'ladi. Ilmiy adabiyotda bosh kelishik so'z shaklining o'ziga xos sintaktik vazifasi deyarli har bir tavsifda oddiy haqiqat sifatida qayd etilsa-da, ba'zan tadqiqotchi uni «esdan chiqarib qo'yishadi». O'zbek tilida gap qurilishida ega mavqeiyda kelgan birlikning morfologik shakli faqat bosh kelishik shakligina bo'la oladi; bosh kelishik shakli gapda egadan boshqa bo'lak mavqeiyda bemalol kela oladi, lekin gapning egasi bosh kelishikdan o'zga bo'lak shaklida bo'la olmaydi. Bosh kelishikning qolgan barcha kelishik shakli ma'no va vazifasida kela olishi esa, bu shaklning grammatik kategoriya ichida dominanta (neytral) shakl mavqeyida kelayotganidan dalolat beradi.

Yuqoridagi tavsifdan xulosa qilishimiz mumkinki, kelishik shakli o'zi birikib kelgan asos leksema semantik-sintaktik valentligiga shu kelishik shakli bilan birikish fakultativ imkoniyatiga ega bo'lgan birlik bilan tobe mavqeda bog'lanish zaruriy valentligini beradi. Bunda egalik va kelishik kategoriyasi orasida asos leksema leksik-semantik valentligini kengaytirishda o'zaro ziddiyatli yo'nalish va qobiliyat mavjud: egalik shakli so'z birikmasi tarkibida hokim mavqeda kelish va shu asosda tobe bo'lak bilan imkoniy birikish valentligini bersa, kelishik shakli so'z birikmasi tarkibida tobe mavqeda kelish va shu kelishik shakli bilan imkoniy birikishga ega bo'lgan birlikka tobelanishni zaruriy valentlik sifatida beradi.

6-§. Morfologiya lisoniy tizim yaxlitligida

Lug'aviy ma'no va morfologiya. Leksema lug'aviy ma'nosini nutqqa olib chiqish, voqealantirish va farqlashda morfologik shakl o'ziga xos ahamiyatga ega. Lekin lug'aviy ma'noni shakllantirish va voqealantirishda morfologiyaning roli lug'aviy ma'noning ko'rinishini farqlash bilan chegaralanmaydi. Morfologiyaning lug'aviy ma'noni shakllantirishdagi hal qiluvchi ahamiyati o'zbek tilida tasniflovchi kategoriya – lug'aviy shaklning mavjudligida namoyon bo'ladi. Borliqdagi har bir manba kabi so'z (leksema) ham serqirra hodisa bo'lib, u fonetik, semantik, morfologik va sintaktik qobiliyatining majmuasi sifatida voqealanadi. Lekin bu tomon leksemada mexanik birlikda emas, dialektik-asimmetrik mutanosiblikda turadi. Shuning uchun bu to'rt tomondan biridagi eng kichik farq ham, albatta, qolgan uch tomonda tafovut bo'lishini talab etavermaydi. Tildagi semantik, morfologik va sintaktik tomonning nisbiy mustaqilligi va butunligi til taraqqiyotidagi asosiy omil. Tilda shakl va mazmun (jumladan, funksiya va vazifa) tomoni qanday asimmetrik dualizmda qaralgan bo'lsa,[1] semantika, morfologiya va sintaksis ham o'zaro shunday dialektik mutanosiblikda turadi. Shu boisdan so'z turkumini ajratayotganda ham semantik, morfologik va sintaktik omil nisbiy mustaqillikda qaralmog'i lozim[2] va shu asosda so'zning semantik, morfologik va sintaktik tomonini ajratish mumkin.[3] Mana shu jarayonda semantik va sintaktik omilning morfologik omil bilan kesishish, birlashish nuqtasi hosil bo'ladi. Ma'lumki, barcha mustaqil so'z

[1] Карцевский С. Об асимметричном дуализме лингвистического знака / Звегинцев В.А. История языкознания XIX–XX веке в очерках и извлегениях. Ч.II. – М., 1965.

[2] Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.: Фан, 1989; Мадрахимов И. Сўзнинг серқирралиги ва уни тасниф қилиш асоси: филол. фанлари номз. ... дисс. автореф. –Т., 1994.

[3] Мадрахимов И. Сўзнинг серқирралиги ва уни тасниф қилиш асоси: филол. фанлари номз. ... дисс. автореф.–Т., 1994.

sintaktik nuqtayi nazaridan bir xil xususiyatga ega bo'lib, gapda uning biror bo'lagi mavqeiyda kelish umumiy sintaktik qobiliyatiga ega. Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida «fe'l kesim, ega va to'ldiruvchi vazifasida keladi» kabi turkiy til tizimiga mutlaq yot bo'lgan xulosadan voz kechilgan. Mustaqil leksemaning barchasi gapda biror bo'lak vazifasida kela olish qobiliyati bilan birlashadi va bu jihatdan u differensial belgiga ega emas. Mustaqil leksemada sintaktik belgi farqlovchi emas, balki birlashtiruvchi omil bo'lib, uning yordamchi leksema bilan o'zaro munosabatida bu farqlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Mustaqil so'z to'plamini grammatik umumiy ma'no jihatdan farqlash jarayonida, lug'aviy ma'no bilan bir qatorda, morfologik omil ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, mustaqil so'z guruhi ma'no qobiliyati jihatidan dastlab uchta katta guruhga ajraladi:

1. **Atov leksemasi.** Bu shunday leksemaki, u ma'lum bir, narsa, voqea-hodisa, belgi, xususiyat, aloqa-munosabat, harakat-holatni atab keladi (*odam, pari, qizil, to'q, bir, ikki, endi, yoz, uxla*).

2. **Ishora so'z** (olmosh). Bu so'zning lug'aviy ma'nosi matn bilan bog'liq bo'lib, uning biror tarkibiy qismiga ishora qilish bilan nutqda muayyan mazmun kasb etadi.

3. **Tasvirlovchi so'z** (undov va taqlid). Hozirgi kunda u tarkibiga modal va tasdiq-inkorni ham kiritish mumkin.[1]

So'zning bu uch guruhi uning ma'noviy qobiliyati asosida ajratiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan ma'noviy guruhning ichki bo'linishi morfologik omil asosida amalga oshiriladi va ajratish shu vazifaga ixtisoslashgan morfologik vosita – tasniflovchi grammatik kategoriya yordamida yuzaga chiqadi. Grammatik kategoriya so'zning ma'lum bir lug'aviy xususiyatga ega bo'lgan guruhiga xos bo'lib, uning grammatik ma'nosini shakllantirishga, mohiyatan ancha keng va chegarasi qat'iy bo'lmagan ma'noviy belgini grammatikaning qat'iy qolipiga tortishga xizmat qiluvchi kategoriya. Tasniflovchi kategoriya sifatida nisbat, son, daraja, tartib va morfologik o'zgarmaslik kategoriyasi yuzaga chiqadi. Shuning uchun leksemaning morfologik xususiyatga ko'ra paradigmasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

1) shaklan o'zgarmas nomema;
2) nisbatlanuvchi;
3) sonlanuvchi;
4) darajalanuvchi;
5) mo'tadil.

[1] Бобокалонов Р. Ўзбек тилида семантик-функционал шаклланган сўз-гаплар: филол. фанлари номз. ... дисс. автореф. –Т., 2000.

Morfologik shaklini mutlaqo o'zgartira olmaydigan so'z sifatida ravish siradan chiqadi. U ma`no va vazifa jihatidan ot, sifat, son, demak, qisman, olmoshga o'xshash bo'lsa-da, lug'aviy shakl qo'shimchasini qabul qila olmasligi bilan ajralib turadi. Ravish va ism ko'p holda o'xshash bo'lib, shu bois bir qator va sifat ravishga juda ham yaqinlashadi. Masalan, *kecha, kunduz, tong, oqshom* (payt i), *barvaqt, bir mahal, kech* (payt sifati), *atrof, tegra, o'rta, ichkari, tashqari, o'ng, chap, old, orqa*(o'rin i), *oldin, keyin, yuqori, past, baland*(o'rin sifati), *oz, ko'p, mo'l, butun, to'la* (miqdor sifati) shular jumlasidan. Ilmiy tadqiqot, darslik va grammatikada bu so'zning ravish sifatida qaralib kelganligi ma'lum. Chunki bunday so'zga boshqa tildagi (xususan, yevropa tillaridagi) o'zgarmas so'z – ravish mos keladi. Biroq ravishning o'zgarmaslik qonuniyatiga tayaniladigan bo'lsa, uning bu turkum sirasida qaralishi maqsadga muvofiq emas.[1] Bu haqda so'z turkumiga bag'ishlangan faslda maxsus to'xtalinadi.

Lug'aviy ma'no va lug'aviy shakl. Quyida morfologik omilning lug'aviy ma'noga ta'siri masalasini ayrim lug'aviy shakl misolida ham muayyanlashtirishga harakat qilinadi.

Kichraytirish-erkalash shakli. Ot turkumida lug'aviy ma'noga ta'sir qiluvchi grammatik vosita sifatida kichraytirish va erkalash ko'rsatkichi ham ajratiladi. *-cha, -choq (-chak)* qo'shimchasi o'zbek an'anaviy tilshunosligida ning kichraytirish-erkalash shakli sifatida atroflicha va batafsil tavsiflangan.[2]

Kichraytirish shakli ot leksemaga nutq jarayonida qo'shilib, uning lug'aviy va grammatik ma'nosiga turli tomondan va turli darajada ta'sir qiladi. Ma'lumki, **-cha** shakli shaxsdan boshqa denotat ifodalovchi bo'lgan (narsa-predmet va hayvon nomi)ga qo'shilganda «sof kichraytirish» ma'nosini namoyon qiladi.[3] 1. *Hoviqcha labiga borib, suvda qiziq manzarani ko'rdi. Tiqilib qarasa, ,to'rt enlik-to'rt enlik keladigan sap-sariq baliqchalar.*(H.Naz.). 2. *Oppoq kapalakchalar yeru ko'kni to'ldirib to'zib ketgan, kumush qanotchasini ohista silkitib charx urishadi.(H.Naz.).* Kichraytirish shakli ga qo'shilar ekan, avvalo, uning lug'aviy ma'nosiga muayyanlik kiritadi. Masalan, *hoviz, baliq, kapalak, qanot* so'zida «kattalik» belgisi ham, «kichiklik» belgisi ham mavjud bo'lib, so'z ma'nosi bu jihatdan neytral. U ham «katta», ham «kichik» semasini so'z ma'nosi bu jihatdan neytral. U ham «katta», ham «kichik» semasini voqealantirish quvvatiga ega. Shu boisdan turli kattalikni (katta, o'rta,kichik kabi) bildiruvchi so'z bilan shu jihatdan erkin birikaveradi. Kichraytirish shakli -

[1] Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. – Т.: Фан, 1989, с. 17–18; Неъматов Ҳ., Гуломов А., Қодиров М., Абдураимова М. Она тили. 6-синф учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 2000, 144–149- б.

[2] Шоабдурахмонов Ш., Аскарова М., Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1980, 242–243- б.

[3] Шоабдурахмонов Ш., Аскарова М., Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1980, 242- б.

cha esa so‘zni shakllantirar ekan, uning semantikasidagi ushbu mavhum nuqtani oydinlashtirib yuboradi. Bu qo‘shimchani olgan sememada «katta» semasi so‘nadi. Semantikada yuz bergan o‘zgarish leksemaning sintaktik qobiliyatini ham o‘zgartiradi. Bu haqda yuqorida aytildi. Leksemaning birikuvchanlik (valentlik) imkoniyatini cheklovchi shakl qatorida turadigan *-cha* birlikni «kichik»ka zid bo‘lgan ma’noni ifodalovchi so‘z bilan birikish imkoniyatidan mahrum qiladi. Deylik, *kitobcha* so‘zshakli *o‘rta, katta, ulkan* kabi leksema bilan birikish imkoniyatiga ega emas. *-cha* kichraytirish shakli sof «kichraytirish» ma’nosi bilan leksemaning norelevant atash semasiga ta’sir qiladi, unga muayyanlik kiritadi. Shakl shaxs oti leksemasiga birikkanda, kichraytirish, hurmat, erkalash yoxud kamsitish ma’nosini ifodalaydi.[1] Bu jarayonda uning leksema lug‘aviy ma’nosiga ko‘rsatadigan ta’siri masalasi haqida an’anaviy tadqiqot va darslikda yo‘l-yo‘lakay bo‘lsa-da, ma’lumot bayon qilingan. **-cha** shakli bu ma’noni ifodalar ekan, bunda u leksemaning ham atash, ham ifoda semasiga ta’sir qiladi. 1. *Uni esli- hushli yigitcha deb o‘ylayman. (*H.Naz.) 2. *Qizchani xafa qilib qo‘ymang tag‘in.* (H.Naz.) 3. *Sal o‘zingizni bosib oling, yigitcha.* (H.Naz.) 1-, 2- misolda, leksemaning atash semasi bilan birgalikda, ifoda sememasida ham mo‘tadil holdagi «hurmat» semasi muayyanlashgan va daxldor sema qatoriga kirish darajasida kuchaygan. 3-misolda esa, «kichraytirish» bilan birgalikda, «kamsitish» ma’nosi leksema ifoda semasini modifikatsiya qilgan. *-cha* kichraytirish affiksi bilan yasalgan «kichraytirish» ma’nosi yangilangan mohiyat kasb etishi, so‘z yangi so‘zga aylanishi mumkin. Bunda «kichraytirish» ma’nosi yo‘qoladi(*sholcha, bog‘cha*).[2] Keltirilgan bu dalil ilgari surilayotgan fikr uchun tayanch vazifasini o‘tovchi, shaklning lug‘aviy ma’noga ta’sirini, uning lug‘aviy shakllik xossasini namoyon qiluvchi muhim omil.

-choq(-chak) affiksi *-cha* shaklining ayrim so‘z uchun xoslangan kichraytirish va erkalash ma’nosi qorishgan ko‘rinishi bo‘lib, u ko‘proq ifoda semasiga ta’sir ko‘rsatadi, uni muayyanlashtiradi. Leksemaning sintaktik imkoniyatiga ta’sir qilish qobiliyati unda *-cha* affiksiga nisbatan ustunligi bilan xarakterlanadi. 1. *Bir kun ko‘rmaganiga saman yo‘rg‘a uyda qolgan toychog‘ini eslatyapti.*(M.Mahm.) 2. *O‘yinchi yosh qiz kabi tarovatli, kelinchak kabi ko‘rkam, yor kabi dildor edi* (M. Ism.)

[1] Шаҳобиддинова Ш. Боскичли мавҳумлаштириш умумий грамматик маънони очиш усули сифатида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1995. -№ 3; Шаҳобиддинова Ш.Ҳ. Грамматик маъно талқини ҳақида: филол. фанлари номз. ... дисс. автореф. –Самарқанд, 1994.

[2] Шоабдурахмонов Ш., Аскарова М., Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1980, 243- б.

Otning erkalash shakli sifatida qayd qilinuvchi *-jon, -xon, -oy, -loq* affiksi lug‘aviy ma’noga ta’sir qilish qobiliyatiga ko‘ra o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, *-jon, -xon* affiksi ham atash, ham ifoda semasiga ta’sir ko‘rsatsa, *-oy, -(a)loq* shakli leksemaning, asosan, ifoda semasiga ta’sir qiladi. *1. Akajonim, do‘ppim qoqib, silar edi boshimni.* 2. *Opaxon, sizdan bir gap so‘rasam.* 3. *Hurmatoyning brigadasi ilg‘or va tajabbuskor chiqdi.* 4. *Ha, esimda, bo‘taloq biram ko‘hlikkina, ko‘zlari katta edi.* Mazkur vosita bilan shakllangan so‘zda shaxsiy munosabat ma’nosi mo‘tadil bo‘ladi. Shakl esa bu ma’noni reallashtiradi. Shu bilan birga, *-jon* va *-xon* shakli so‘zning to‘g‘ri va hosila ma`nosini farqlaydi. Masalan, *Ota, sizdan bir narsani so‘rasam* gapida *ota* so‘zining «o‘z otasi» yoki «yoshi katta erkak» ma’nosidaligi aniq bo‘lmay, goh u, goh bu ma`nosi yuzaga chiqish mumkin. Biroq, «*Otajon, she’r yozsam maylimi?»* gapida *otajon* so‘zi «jismoniy ota» ma’nosini, oldingi gapda esa «ota» ma’nosi hosila - «hurmat» ma’nosini voqealantirayotganligi ayon bo‘ladi. *-oy* erkalash shakli, *-(a)loq* kichraytirish shakli so‘zlovchining munosabati bilan bog‘liq ifoda semasini muayyanlashtirib, uni daxldor sema qatoriga qo‘yadi.

Harakat tarzi shakli. Harakat tarzi shakli fe’lning lug‘aviy ma’nosi bilan zich bog‘langan. Bu shaklning qo‘llanilishi faqat uning grammatik ma’nosi bilangina emas, balki yetakchi fe’lning mazmun silsilasi bilan ham belgilanadi. Chunki uning o‘zaro muvofiqligi shaklning nutqqa kiritilishiga asos bo‘ladi. Masalan, (*yoz*) ko‘makchi fe’li, asosan, bajarilishi lozim bo‘lgan, lekin to‘la bajarilmagan ish-harakatni ifodalovchi fe’lga qo‘shimcha ma’no beradi. Bu ma’no, o‘z-o‘zidan, bo‘lishli-bo‘lishsizlik ma’nosi bilan muvofiq kelmaydi. Bu esa *yiqilayozdi, tugatayozdi* kabi so‘zshaklining bo‘lishsiz shaklda bo‘lolmasligi sababini oydinlashtiradi.

«Harakat tarzi shakli» atamasi ilk bor umumta’lim maktabining 6- sinfi uchun «Ona tili» sinov darsligida qo‘llangan[1] va u «harakatning davomiyligi yoki qisqaligi, muntazam yoki uzluksiz ekanligi, kutilmaganligi, foilning harakatni bajara olmasligi kabi o‘nlab ma’no nozikligini ifodalaydi»[2] deyilib, tarz hosil qiluvchi 12 ta fe’ldan iborat paradigmasi berilgan. Umuman olganda, harakat tarzi atamasi ostida o‘rganilayotgan hodisa tilshunoslikda yangi qo‘yilgan muammo emas. Zero, bu hodisa va uning rus tilidagi vid kategoriyasi masalasiga bag‘ishlab bir nechta ilmiy anjuman o‘tkazilgan. Uning mohiyatiga

[1] Нєъматов Ҳ., Гуломов А., Қодиров М., Абдуранмова М. Она тили. 6- синф учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 2000, 52- б.

[2] Нєъматов Ҳ., Гуломов А., Қодиров М., Абдуранмова М. Она тили. 6-синф учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 2000, 52- б.

Otning erkalash shakli sifatida qayd qilinuvchi *-jon, -xon, -oy, -loq* affiksi lug'aviy ma'noga ta'sir qilish qobiliyatiga ko'ra o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, *-jon, -xon* affiksi ham atash, ham ifoda semasiga ta'sir ko'rsatsa, *-oy, -(a)loq* shakli leksemaning, asosan, ifoda semasiga ta'sir qiladi. *1. Akajonim, do'ppim qoqib, silar edi boshimni.* 2. *Opaxon, sizdan bir gap so'rasam.* 3. *Hurmatoyning brigadasi ilg'or va tajabbuskor chiqdi.* 4. *Ha, esimda, bo'taloq biram ko'hlikkina, ko'zlari katta edi.* Mazkur vosita bilan shakllangan so'zda shaxsiy munosabat ma'nosi mo'tadil bo'ladi. Shakl esa bu ma'noni reallashtiradi. Shu bilan birga, *-jon* va *-xon* shakli so'zning to'g'ri va hosila ma'nosini farqlaydi. Masalan, *Ota, sizdan bir narsani so'rasam* gapida *ota* so'zining «o'z otasi» yoki «yoshi katta erkak» ma'nosidaligi aniq bo'lmay, goh u, goh bu ma'nosi yuzaga chiqish mumkin. Biroq, «*Otajon, she'r yozsam maylimi?*» gapida *otajon* so'zi «jismoniy ota» ma'nosini, oldingi gapda esa «ota» ma'nosi hosila - «hurmat» ma'nosini voqealantirayotganligi ayon bo'ladi. *-oy* erkalash shakli, *-(a)loq* kichraytirish shakli so'zlovchining munosabati bilan bog'liq ifoda semasini muayyanlashtirib, uni daxldor sema qatoriga qo'yadi.

Harakat tarzi shakli. Harakat tarzi shakli fe'lning lug'aviy ma'nosi bilan zich bog'langan. Bu shaklning qo'llanilishi faqat uning grammatik ma'nosi bilangina emas, balki yetakchi fe'lning mazmun silsilasi bilan ham belgilanadi. Chunki uning o'zaro muvofiqligi shaklning nutqqa kiritilishiga asos bo'ladi. Masalan, (*yoz*) ko'makchi fe'li, asosan, bajarilishi lozim bo'lgan, lekin to'la bajarilmagan ish-harakatni ifodalovchi fe'lga qo'shimcha ma'no beradi. Bu ma'no, o'z-o'zidan, bo'lishli-bo'lishsizlik ma'nosi bilan muvofiq kelmaydi. Bu esa *yiqilayozdi, tugatayozdi* kabi so'zshaklining bo'lishsiz shaklda bo'lolmasligi sababini oydinlashtiradi.

«Harakat tarzi shakli» atamasi ilk bor umumta'lim maktabining 6- sinfi uchun «Ona tili» sinov darsligida qo'llangan[1] va u «harakatning davomiyligi yoki qisqaligi, muntazam yoki uzluksiz ekanligi, kutilmaganligi, foilning harakatni bajara olmasligi kabi o'nlab ma'no nozikligini ifodalaydi»[2] deyilib, tarz hosil qiluvchi 12 ta fe'ldan iborat paradigmasi berilgan. Umuman olganda, harakat tarzi atamasi ostida o'rganilayotgan hodisa tilshunoslikda yangi masalasiga bag'ishlab bir nechta ilmiy anjuman o'tkazilgan. Uning mohiyatiga

[1] Нєъматов Ҳ., Гуломов А., Қодиров М., Абдураимова М. Она тили. 6- синф учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 2000. 52- б.
[2] Нєъматов Ҳ., Гуломов А., Қодиров М., Абдураимова М. Она тили. 6-синф учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 2000. 52- б.

doir ayrim ish amalga oshirilgan.[1] Biroq, o'zbek tilshunosligida unga, ayniqsa, kam e'tibor beriladi. Bugungi kunda ko'makchi fe'lning lug'aviy shakl sifatida tutgan o'rni va lisoniy mohiyati masalasi kun tartibida turgan muammodan hisoblanadi.

Harakat tarzi shakli sirasi, mavjud manbaga ko'ra, 27 fe'ldan iborat bo'lib, uning yetakchi fe'lga qo'shilishi -a(y) va -(i)b ravishdosh shakli asosida yuz beradi. Demak, analitik-sintetik shakl sifatidagi bu lisoniy mohiyat tabiatan murakkab bo'lib, mazkur fe'lning mustaqil holda ham qo'llana olishi, umuman, o'zbek tili sof ko'makchi fe'l vazifasida keluvchi so'zga ega emasligi uning tabiatini yanada murakkablashtiradi. Zero, tadqiqotchining bu shaklda turli-tuman, ba'zan bir-biriga zid ma'noni qayd qilishi murakkablik sababini mazkur fe'lning o'zidangina emas, balki yetakchi fe'l, ravishdosh shakli va ko'makchi fe'lning mustaqil qo'llanishdagi lug'aviy ma'nosi tajallisining qorishgan holda namoyon bo'lishidan qidirmoq lozimligini zarur qilib qo'yadi. Masalan, A.Hojiyev (tur) ko'makchi fe'lining ma'no xususiyati haqida gapirar ekan, shunday yozadi: «Yetakchi fe'ldagi harakatning ma'lum belgili vaqt ichida, biror harakat yoki hodisa amalga oshguncha bajaralish ma'nosini, «vaqtincha» degan ma'noni bildiradi. Bunday holda kontekstda yetakchi fe'ldagi harakatning bajarilish muddatini (qay vaqtgacha davom etishini) ko'rsatuvchi so'z yoki so'z birikmasi qatnashishi ham mumkin. *To shahardan muallim kelguncha, bo'lis o'zlari o'qitib turadilar.*[2] Misol sifatida keltirilgan gapning birinchi qismi olib tashlansa, ikkinchi qismidan «vaqtincha» ma'nosi anglashilmasligi mumkin: *Bo'lis o'zlari o'qitib turadilar.* Endi gapdan «davomlilik» anglashiladi-yu, uning «vaqtinchalik» ma'no ottenkasi yo'qoladi. Bunda sintaktik hodisa tajallisi ko'makchi fe'l ma'nosini murakkablashtirganligi ayon bo'ladi. Buni muallifning o'zi ham e'tirof etadi: «*tur* ko'makchi fe'li ayrim fe'lga birikkanda, yetakchi fe'ldagi harakatning xuddi nutq momentida bo'layotganligi yoki takrorlanib davom etayotganligi ma'nosi faqat kontekstda reallashadi».[3] Oldingi faslda ta'kidlanganidek, matnda, bog'liq qurshovdagina reallashadigan ma'no bilan birlikning mohiyati haqida so'z yuritish ma'qul emas. A.Hojiyev buni quyidagicha tushuntiradi: «*ket* ko'makchi fe'li ayrim fe'l bilan birikkanda, yetakchi fe'ldagi harakatning boshlanishi va davom etishi ma'nosini bildiradi(*do'pposlab ketdi, gapga tushib ketdi, maqtab ketdi*). Bunday holda ham ma'no, ko'pincha, kuchli ottenka bilan ifodalanadi».[4] E'tibor berilsa, harakatning davomliligi *do'pposlamoq, gapga tushmoq, maqtamoq* birligining

[1] Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъл. –Т.: Фан, 1966.
[2] Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъл. –Т.: Фан, 1966, 51- б.
[3] Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъл. –Т.: Фан, 1966, 51- б.
[4] Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъл. –Т.: Фан, 1966, 146- б.

doir ayrim ish amalga oshirilgan.[1] Biroq, o'zbek tilshunosligida unga, ayniqsa, kam e'tibor beriladi. Bugungi kunda ko'makchi fe'lning lug'aviy shakl sifatida tutgan o'rni va lisoniy mohiyati masalasi kun tartibida turgan muammodan hisoblanadi.

Harakat tarzi shakli sirasi, mavjud manbaga ko'ra, 27 fe'ldan iborat bo'lib, uning yetakchi fe'lga qo'shilishi -a(y) va -(i)b ravishdosh shakli asosida yuz beradi. Demak, analitik-sintetik shakl sifatidagi bu lisoniy mohiyat tabiatan murakkab bo'lib, mazkur fe'lning mustaqil holda ham qo'llana olishi, umuman, o'zbek tili sof ko'makchi fe'l vazifasida keluvchi so'zga ega emasligi uning tabiatini yanada murakkablashtiradi. Zero, tadqiqotchining bu shaklda turli-tuman, ba'zan bir-biriga zid ma'noni qayd qilishi murakkablik sababini mazkur fe'lning o'zidangina emas, balki yetakchi fe'l, ravishdosh shakli va ko'makchi fe'lning mustaqil qo'llanishdagi lug'aviy ma'nosi tajallisining qorishgan holda namoyon bo'lishidan qidirmoq lozimligini zarur qilib qo'yadi. Masalan, A.Hojiyev (tur) ko'makchi fe'lining ma'no xususiyati haqida gapirar ekan, shunday yozadi: «Yetakchi fe'ldagi harakatning ma'lum belgili vaqt ichida, biror harakat yoki hodisa amalga oshguncha bajaralish ma'nosini, «vaqtincha» degan ma'noni bildiradi. Bunday holda kontekstda yetakchi fe'ldagi harakatning bajarilish muddatini (qay vaqtgacha davom etishini) ko'rsatuvchi so'z yoki so'z birikmasi qatnashishi ham mumkin. *To shahardan muallim kelguncha, bo'lis o'zlari o'qitib turadilar.*[2] Misol sifatida keltirilgan gapning birinchi qismi olib tashlansa, ikkinchi qismidan «vaqtincha» ma'nosi anglashilmasligi mumkin: *Bo'lis o'zlari o'qitib turadilar.* Endi gapdan «davomlilik» anglashiladi-yu, uning «vaqtinchalik» ma'no ottenkasi yo'qoladi. Bunda sintaktik hodisa tajallisi ko'makchi fe'l ma'nosini murakkablashtirganligi ayon bo'ladi. Buni muallifning o'zi ham e'tirof etadi: «*tur* ko'makchi fe'li ayrim fe'lga birikkanda, yetakchi fe'ldagi harakatning xuddi nutq momentida bo'layotganligi yoki takrorlanib davom etayotganligi ma'nosi faqat kontekstda reallashadi».[3] Oldingi faslda ta'kidlanganidek, matnda, bog'liq qurshovdagina reallashadigan ma'no bilan birlikning mohiyati haqida so'z yuritish ma'qul emas. A.Hojiyev buni quyidagicha tushuntiradi: «*ket* ko'makchi fe'li ayrim fe'l bilan birikkanda, yetakchi fe'ldagi harakatning boshlanishi va davom etishi ma'nosini bildiradi(*do'pposlab ketdi, gapga tushib ketdi, maqtab ketdi*). Bunday holda ham ma'no, ko'pincha, kuchli ottenka bilan ifodalanadi».[4] E'tibor berilsa, harakatning davomliligi *do'pposlamoq, gapga tushmoq, maqtamoq* birligining

[1] Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъл. –Т.: Фан, 1966.
[2] Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъл. –Т.: Фан, 1966, 51-б.
[3] Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъл. –Т.: Фан, 1966, 51-б.
[4] Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъл. –Т.: Фан, 1966, 146-б.

tabiatiga xos bo'lib, bu o'rinda faqat «kuchli ottenka» (ket) fe'lning hissasi. Shuningdek, muallif «*ket* ko'makchi fe'li ravishdoshning *-a, -y* affiksi bilan yasalgan turiga birikkanda, yetakchi fe'ldagi harakatning boshlanish va shu xilda davom etishi ma'nosini bildiradi: *Tokchadan bir taxta qog'oz olib, o'qiy ketdi,* deb ta'kidlaydi. Bunda ham «davomlilik» ma'nosi ravishdosh shakliga xos bo'lib, (ket) ko'makchi fe'li «kuchli ottenka» ma'nosini saqlab qoladi.

Harakat tarzi shakli sifatida ko'makchi fe'lning o'zinigina tushunish yaramaydi. Buni H.Ne'matov va uning hamfikri ham alohida ta'kidlaydi.[1] Zero, bu fe'l o'z ma'nosini ravishdosh shakli bilan birgalikdagina voqealantiradi. Chunki, masalan, *o'qiy olmoq* so'z shaklida «qodirlik», «qobiliyat» ma'nosi yuzaga chiqqan bo'lsa, *o'qib olmoq* so'z shaklida «adresat» yoki «subektning o'ziga yo'nalish» ma'nosi voqealanadi va ravishdosh shakli almashishi bilan yuzaga chiqayotgan ma'noda ham keskin o'zgarish sodir bo'ladi. Bu va bosh qa xususiyati haqida "Harakat tarzi kategoriyasi" faslida maxsus fikr yuritiladi.

Harakat tarzi shakli fe'lni grammatik jihatdan shakllantirar ekan, uning lug'aviy ma'noni muayyanlashtiruvchi, ko'p sememali so'z sememasini farqlovchi muhim omil sifatida ham namoyon bo'ladi. Ta'kidlanganidek, sintaktik qolip, lug'aviy ma'noni nutqqa olib kirish vazifasini o'tash bilan birgalikda, sememani farqlovchi vosita bo'lib ham xizmat hiladi. Biroq sintaksisning sememani farqlash imkoni chegaralanganda, lug'aviy shakl bu masalada ustuvorlik kasb etadi. Masalan, *bosmoq* leksemasi 4 sememali leksema bo'lib, «uning biror narsani sirt tomonlan og'irlik kuchi bilan tagida qoldirish harakati» sememasi *qol, ket, o't, tur* ko'makchi fe'li bilan muvofiq keladi. Masalan, «*Qop bosib qoldi*», «*Oyog'i bilan bosib turdi*» kabi. Biroq leksema ushbu sememasi bilan nutqqa kirishi uchun *boshla, yubor, ket* kabi lug'aviy shakl hosil qiluvchi bilan shakllana olmaydi.

Leksema «biror narsani sirt tomondan kuch bilan bevosita yoki vosita asosida siqmoq» sememasi bilan voqealanganda *boshla* ko'makchi fe'li bilan birika oladi. Masalan, *knopkani bosa boshlamoq* kabi. Bu yerda *boshla* shakli o'rnini *qol* shakli egallay olmaydi. Yoki (haydamoq) leksemasi «texnika-transportni biror yo'nalishda boshqarmoq» sememasi bilan voqealanganda *ket, yur* shakli bilan shakllanadi. *mashinani haydab yurmoq* kabi. Biroq *yubor* harakat tarzi shakli bu sememani boshqa - «narsa yoki shaxsni biror tomondan boshqa tomonga kuch bilan yo'naltirmoq» sememasidan ajratib turadi. Aniqrog'i, *qo'ylarni haydab yubordi* hosilasi o'zbek nutqi uchun me'yoriy hol bo'lsa, *mashinani haydab yubordi* tarzida birikuv tuzish mumkin emas. Shuni

[1] Неъматов Ҳ., Ғуломов А., Қодиров М., Абдураимова М. Она тили. 6-синф учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 2000, 52-б.

alohida ta'kidlash lozimki, lug'aviy shakl sifatida harakat tarzi vositasining lug'aviy ma'no semik tarkibiga, shuningdek, voqealanayotgan leksema turini farqlashga ta'siri boshqa shaklga nisbatan kuchliroq seziladi. Buning sababi, bizningcha, u asosida, birinchidan, lug'aviy birlik yotganligi bo'lsa, ikkinchidan, shaklning tabiatan analitik-sintetik xarakterda ekanligi. Harakat tarzi shakli fe'lni voqealantirar ekan, avvalo, uning norelevant «tarz» semasiga ta'sir qiladi. Ifoda semasi sifatida o'rin oluvchi bu semik parcha fe'lning atash semasiga nisbatan daxlsiz bo'lib, unga jiddiy ta'sir qilish tabiatdan yiroq va, asosan, fe'lni har tomondan tavsiflaydi, xolos.

Morfologik shakl umumiy grammatik ma'nosini voqealantirish va oraliq grammatik ma'nosini farqlashda leksik va sintaktik omil hamkorligi. Morfologik shakl umumiy grammatik ma'nosini o'z holicha yuzaga chiqara olmaydi. Ular buning uchun boshqa sath – leksik va sintaktik sath birligi yordamiga ehtiyoj sezadi.

Son kategoriyasi. O'zbek tilida son kategoriyasi, uning shakli, har bir shaklning ma'noviy xususiyati va qo'llanishi haqida A.G'ulomov[1], A.Hojiyev[2], S.Usmonov[3], Sh.Shoabdurahmonov[4], Sh.Rahmatullayev[5], Yo.Tojiyev[6], G'.Zikrillayev[7], Sh.Shahobiddinova[8], M.Ernazarovaning[9] ishlarini aytib o'tish joiz. Son kategoriyasi ikki shaklli, neytral shakl va [*-lar*] ko'rsatkichi ushbu yaxlit tizimni tashkil qiladi.

Birlik son shakli. [*0*] shaklga munosabat turlicha. Bu, xususan, uning ma'noviy xususiyatlarini belgilashda ko'zga yaqqol tashlanadi. Hatto turkiy tillarda son kategoriyasi emas, balki ko'plik kategoriyasi haqida gapirish ma'qul degan fikrlar ham ilgari surilgan.[10] Bu haqda gap ketganda tilshunos A.Hojiyevning quyidagi fikrlarini chetlab o'tish mumkin emas: «birlik kategoriyasi» birikmasi qo'llangan taqdirda ham, u haqda (uning «mohiyati»

[1] Ғуломов А. Ўзбек тилида кўплик категорияси. – Тошкент, 1944. – 56 б; Айюб Ғуломовнинг илмий мероси. 3-китоб. Ўзбек тилида кўплик категорияси. Морфемикага оид мақолалар. – Тошкент, 2007. – Б.134.

[2] Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. – Тошкент, 1979. – 80 б; Ҳожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Тошкент: Фан, 2010. – Б.201.

[3] Усмонов С. Ўзбек тилида сўзларнинг грамматик формалари // Тилшунослик масалалари. – Тошкент, 1964. – Б.126 – 127.

[4] Шоабдураҳмонов Ш. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б.217 – 220.

[5] Раҳматуллаев Ш. Ҳурмат формаси // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1973. №1. – Б.28 – 30.

[6] Тожиев Ё. Ўзбек тили морфемикаси. – Тошкент, 1992. – 68 б.

[7] Зикриллаев Ғ.Н. Феълнинг шахс, сон, ҳурмат категориялари системаси. – Тошкент: Фан, 1990. – 112 б.

[8] Шаҳобиддинова Ш.Ҳ. Грамматик маъно талқини хусусида: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Самаркавд, 1993. – Б.13.

[9] Эрназарова М.С. Грамматик маъно лисоний ва прагматик омиллар яхлитлигида. Монография. Т.: Akademnashr, 2016, – Б.89-102. Эрназарова М.С. Грамматик маъно лисоний ва прагматик омиллар яхлитлигида: филол. фан. докт... дисс. –Самарқанд, 2018, – Б.114-129.

[10] Гузев В.Г., Насилов Д.М. К понятию грамматической категории // Тюркское языкознание. Материалы 3 всесоюзной тюркологической конференции. – Ташкент: Фан, 1985. – С.159.

haqida) biror asosli gap aytishning o'zi mumkin emas. «O'zbek tilida birlik son shakli ko'plik shakliga zidlanishda belgilanadi» degan va shu kabi quruq gapdan nariga o'ta olmaslikning sababi ham shunda. Shunday ekan, o'zbek tilida predmetning birdan ortiqligini (ko'plik ma'nosini) ifodalovchi (*-lar* affiksi bilan yasaluvchi) maxsus shakl mavjudligi hamda uning mohiyati haqida fikr bildirishning o'zi kifoya. Bu bilan hech narsa yo'qotilmaydi. Aksincha, haqiqiy holat, mavjud hodisa o'z ifodasini topadi».[1]

Olimning o'zbek tilshunosligida bajarilgan tadqiqotlarga tanqidiy munosabati asosida turkiy tillarda murakkab tabiatli hodisa sifatida qaralgan nol shakl mohiyati sari yana bir qadam tashlandi. Olim buni quyidagicha asoslaydi: «Otning hech qanday shakl ko'rsatkichiga ega bo'lmagan (shaklsiz) holati birlik son shakli hisoblab kelinayotgan bo'lsa-da, ammo o'zbek tilida haqiqatan ham birlik ma'nosiga ega bo'lgan va ko'plik shakliga zidlik munosabatida bo'la oladigan shakli (birlik son shakli) borligi o'z isbotini topgani yo'q».[2] Bu fikrlarga munosabat bildirilar ekan, ba'zi tilshunos olimlar falsafiy metodologiya va olamning lisoniy manzarasiga doir qarashlarga tayanib neytral shaklning mavjudligiga obyektiv zarurat borligini ta'kidlashadi. Xuddi shunday munosabatni leksik mikrosistemada ham R.Safarova[3], Z.Yunusova[4], L.Ne'matova[5] ham tasvirlab bergan.

Buni o'z vaqtida tilshunos H.Ne'matov turkiy tillar grammatik shakllari tizimida nol morfemaning o'rni, ma'no va vazifalari shaklning o'zida kategoriya umumiy mohiyatini ko'proq aks ettirishida namoyon bo'ladi deya uqtirgan edi».[6] Yoki [0] shaklni «noaniq miqdor shakli» deb atash haqidagi qarashlar ham mavjud.[7] Grammatik shaklning umumiy grammatik ma'nosi haqida tilshunos Sh.Shahobiddinova [0] shaklda ikki oraliq grammatik ma'noni farqlaydi:

1) miqdoriy aniqlik/noaniqlik;

2) sifatiy bo'linmaslik.

Shu asosda tadqiqotchi N.Musulmonovaning kategorial ma'no tarkibi haqidagi qarashlariga tayanib Sh.Shahobiddinova tomonidan ajratilgan «bo'linmas sifat va aniq/noaniq miqdor» umumiy grammatik ma'noda:

[1] Ҳожиев А. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (саккизинчи мақола) // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007. №5. – Б.26 – 33.

[2] Ўша жойда. №5. – Б.26 – 33.

[3] Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 48 б.

[4] Юнусова З. Ўзбек тилида лугавий микросистема ва унинг тараққиёти: Филол. фан. номз... дисс. автореф. автореф. – Тошкент, 2004.

[5] Неъматова Л.Ҳ. Ўзбек тилида привативлик (нофонологик сатҳлар): Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2002. – 18 б.

[6] Неъматов Ҳ.Ғ. Феъл, унинг форма ва категориялари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1972. №2. – Б.49.

[7] Любимов К.М. О числовом значении нулевой формы тюркских существительных // Сов. тюркология. 1972. №5. – С.80 – 81.

a) kategorial ma'no: «miqdor»;

b) yondosh ma'no: «aniqlik/noaniqlik», «sifatiy bo'linuvchanlik/ bo'linmaslik» ekanligi haqidagi to'xtamga kelish mumkin.

Hamroh ma'no qurshovchi so'zlar, matn hamda boshqa pragmatik omillar asosida vujudga keladi. Shunga ko'ra, tilshunos Sh.Shahobiddinova ko'rsatgan xususiy grammatik ma'nolarni matniy ma'nolar deyishimiz mumkin.[1]

Ko'rinadiki, xususiy grammatik ma'no birorta vositasiz yuzaga chiqmaydi. Ko'plik ifodalash noaniq miqdor ifodalovchi so'zlar, birlik ifodalash, *bir* so'zi va boshqa aniqlovchilar ekanligi nazarda tutilsa, ma'noning yuzaga chiqishiga ko'maklashuvchi lisoniy omillarning o'rni va roli ma'lum darajada oydinlashadi.

Ma'lumki, son kategoriyasiga mansub (0) shakl umumiy grammatik ma'nosi sifatida «bo'linmas aniq-noaniq miqdor» tiklangan.[2] Bu shaklga xos substansial mohiyatning voqealanishi ham uni tiklashdagi kabi qator qiyinchilikni keltirib chiqaradi. Dastavval, shaklning moddiy ko'rsatkichdan xoliligi masalani murakkablashtiruvchi sabab bo'lsa, ikkinchidan, unda birlik va ko'plik miqdoriy mohiyati bilan qorishgan holda yashaydigan noaniqlik-aniqlik sifatiy mohiyat tajallisi uning o'ziga xos xossasini tiniq idrok qilish imkonini cheklaydi.

Tadqiqotchilar shaklning bir nechta oraliq ma'nosini farqlaydi. Xususan, H.Ne'matov (0) shaklning bevosita miqdor bilan bog'langan yoki bog'lanmagan 8 ta ma'no turini ajratadi.[3] Sh.Shahobiddinova shakl umumiy grammatik ma'nosini 3 ta oraliq grammatik ma'no asosida tiklaydi.[4]

Shakl umumiy grammatik ma'nosi nutqda tajallilanar ekan, u bevosita o'z «borlig'i»ni o'zi namoyon qila olmaydi. Bunda nutqqa chiqayotgan va qurshov hosil qilayotgan leksemaning roli behad ulkan. Me'yoriy qurshov shaklga namoyon bo'luvchi xossani bermaydi, aksincha, shakl bu xossaga ega bo'lganligi bois, ushbu qulay qurshovda uni namoyon qiladi.

(0) shakl oraliq grammatik ma'nosini oydinlashtirishda sintaktik omil leksik omilga nisbatan ustuvorlik kasb etadi. Aniqrog'i, bunda (0) shakl bilan nutqqa kirib, otga aniqlovchi sifatida ishtirok etadigan so'z muhim ahamiyat

[1] Шахобиддинова Ш.Х. Грамматик маъно талқини хусусида: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Самарқанд, 1993. – Б.16 – 17.

[2] Нигматов Х.Г., Абдуллаев К.М., Банару В.И., Махмудов Н.М., Мухамедова Д.А., Нурманов А. Структура предложения и актуальные вопросы синтаксиса тюркских языков. Тезиси формально-функционального исследования // Советская тюркология. 984. -№ 5. –С. 16; Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.: Фан, 1989. с. 45

[3] Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.: Фан, 1989, с. 45.

[4] Шахобиддинова Ш.Х. Грамматик маъно талқини ҳақида: филол. фанлари номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 1994. 16- б.

kasb etadi. Ayrim oraliq grammatik ma'noning ba'zi xossasi so'zshaklga asos bo'layotgan leksemaning tabiati bilan belgilanadi.

(0) shaklli ot nutqqa hech qanday aniqlovchisiz kirar ekan, bunda uning «tur» ma'nosi yuzaga chiqadi. Boshqacha aytganda, (0) shakl leksema atayotgan denotatni tur sifatida boshqa turdan farqlash vazifasini o'taydi: *Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin.* Tur ma'nosi leksemaning ma'noviy tabiatiga bog'liq ravishda yuzaga chiqadi. Leksema aniqlovchi olsa, bu ma'no biroz torayadi. *1. Yetuk olim bo'ling. 2. Jamiyat taraqqiyotini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi.* Demak, leksik omil mazkur ma'noni voqealantirsa, sintaksis uni muayyanlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, atoqli da ham (0) shakl «tur», «ajratish» ma'nosini voqealantiradi. Bu, albatta, atoqli ning o'ziga xos semantik tabiatdan kelib chiqadi. Demak, atoqli ning ma'noviy xossasi shaklning o'ziga xos tur ma'nosini yanada muayyanlashtiruvchi vosita. Bunga hodisani atoqli ning ko'plik son shaklida qo'llangan holatiga qiyoslash bilan amin bo'lish mumkin.

Demak, (0) shaklning «tur-ajratish» oraliq grammatik ma'nosini voqealantirishda lug'aviy omil yetakchilik qiladi va sintaktik omil unga ko'maklashadi. (0) shakl umumiy grammatik ma'nosini aniqlashda aniqlovchining xarakteri muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, biror so'z (0) shakldagi otga aniqlovchi bo'lib kelar ekan, uning umumiy grammatik ma'nosiga xos birlik miqdoriy xossani noaniqlik sifatiy xossasi bilan bir butun holda namoyon qiladi. *1. Sizni maktab hovlisida bir kishi kutyapti.* Demak, (bir) so'zi kabi aniq miqdor aniqlovchisi bilan nutqqa kirgan ot aniq yoki noaniq bo'lishi mumkin: *3 ta o'quvchi - 3 ta a'lochi o'quvchi* kabi.

(0) shaklning ma'noviy muayyanlashtirilmagan dagi ma'nosi 2 xil bo'ladi: noaniq narsaning noaniq miqdori (*kitob o'qish*) va noaniq shaklning aniq miqdori (*bir kitob).* Bu ma'noning voqealanishida aniq miqdor aniqlovchisi bilan bir qatorda noaniq miqdor aniqlovchisi ham muhim o'rin tutadi: *(ko'p/ ancha/ bir qancha kitob).* Demak, miqdoriy aniq ma'noli so'z (0) shaklning miqdor jihatini muayyanlashtiradi va sifat jihatini mavhumligicha qoldiradi. Sifat aniqlovchisi esa uning miqdor xossasiga aniqlik kirita olmaydi.

bu, ushbu, shu ko'rsatish olmoshi aniqlovchi mavqeyida kelganda ham shakl birlik oraliq grammatik ma'nosini voqealantiradi: *Ushbu yodgorlikka murojat kilar ekanman, mening maqsadim bitta (O.* Matjon).

Lug'aviy muayyan sifat aniqlovchisi bilan kelganda (0) shakl cheklangan ko'plik ma'nosini ifodalashi mumkin. Tadqiqotchi Sh.Shahobiddinova ta'kidlashicha, «ko'plik «aniq» yoki «noaniq» sifat bilan nutqqa kiradi. Bunga

aniq miqdor yoki noaniq miqdor ifodalovchi so'z muhim ahamiyat kasb etadi: 1. *Paxta tozalash mashinasi tinmay ishlar, to'rt kishi doim u bilan ovora edi. 2. Sovib qolgan choydan bir- ikki piyola ichdi.* Bunda ko'plik (**0**) shaklga xosmi yoki undagi sintaktik vosita tajallisimi? degan savol tug'iladi. Aniqrog'i gapdagi aniq ko'plik (to'rt), ikkinchi gapdagi noaniq ko'plik (bir-ikki) so'zi tajallisi emasmi? Demak, shunday ekan, birlik son shakli (**0**) dan ko'plikni qidirish ma'qul emas. Ko'plik bo'lib tuyulayotgan hodisa ham (**0**) shakli qo'llanishida ko'zga tashlanadi: *Gadoning dushmani gado bo'ladi.* Bunda jamlik oraliq grammatik ma'nosi ham leksemaning ma'noviy tabiati va matnga bog'liq ravishda namoyon bo'ladi va lug'aviy hamda sintaktik omilning teng qiymatli hamkorligi kuzatiladi.

Demak, (**0**) shaklda noaniq va aniq miqdor umumiy grammatik ma'nosi turlicha voqealanar va bunda hamkor vositaning roli turlicha ekan, bu, avvalo, ning atoqli va turdosh, aniq va mavhum kabi turlanishidan, qolaversa, birikuvchi so'zning ma'noviy tabiati va sintaktik o'rnidan kelib chiqadi.

Ko'plik son shakli. Ko'plik son shakli neytral shakl bo'lmaganligi sababli uning ma'noviy mohiyati nol shakldagi mavhumlik va «chalkashlik»lardan ma'lum darajada xoli. Shu bilan birga, sog'lom aqlimiz ko'p hollarda moddiyliklar asosida bo'lganligi, tafakkurimiz taktik sezgi a'zolari asosida ish ko'rganligi tufayli manbalarda moddiy ifodalovchiga ega bo'lgan grammatik shaklning ma'nolari haqidagi xulosalar dalillanganligi bilan xarakterlanadi.[1]

Ko'plik son shakli o'zbek tilshunosligida professor A.G'ulomovning «O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi» maqolasida ilk marta monografik yo'sinda tadqiq qilingan edi.[2]

[*-lar*] ko'rsatkichi o'zbek tilida grammatik ko'plikni kategorial ma'no sifatida ifodalovchi yagona morfema.[3] Gap kategorial ma'no haqida ketar ekan, tilshunoslikda «ko'plik» va «jamlik» shaklning kategorial ma'nosi sifatida qaralganligi uchun tahlilni ana shu ma'nolarning nutqiy voqealanishida lisoniy omillar hamkorligi masalasiga qaratamiz.

[1] Эрназарова М.С. Грамматик маъно лисоний ва прагматик омиллар яхлитлигида. Монография. Т.: Akademnashr, 2016, – Б.98.

[2] Аюб Ғуломовнинг илмий мероси (3-китоб): Ўзбек тилида кўплик категорияси. Морфемикага оид мақолалар. – Тошкент, 2007. – Б.5.

[3] Ғуломов А. Ўзбек тилида кўплик категорияси. – Тошкент, 1944. – 56 б; Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. – Тошкент, 1979. – 80 б; Усмонов С. Ўзбек тилида сўзларнинг грамматик формалари // Тилшунослик масалалари. – Тошкент, 1964. – Б.126 – 127; Шоабдурахмонов Ш. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980; Тожиев Ё. Ўзбек тили морфемикаси. – Тошкент, 1992. – 68 б; Шаҳобиддинова Ш.Ҳ. Грамматик маъно талқини хусусида: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Самарқанд, 1993.

Son kategoriyasi (**-lar**) shakli umumiy grammatik ma'nosi sifatida «miqdoriy noaniqlik va sifatiy bo'linuvchanlik» ajratiladi[1] va u «ko'plik», «jamlik» «bog'liqlik yoki o'xshashlikka asoslangan ko'plik» oraliq grammatik ma'nosidan sintezlanadi.

(**-lar**) shakli oraliq grammatik ma'nosi voqealanishida sintaktik omilga nisbatan leksik omil ustuvorlik qiladi va (**-lar**)li so'zshaklga asos bo'layotgan leksema semantikasi bunda muhim rol o'ynaydi. (**-lar**)li so'zshakl turli aniqlovchini ham qabul qilishi mumkin. Bu esa shakl ma'nosini to'g'ri va ravshan idrok etishga ma'lum ma'noda to'siq ham bo'ladi.

(**-lar**) ko'plik son shakli atoqli otni nutqqa olib kirar ekan, u o'zining umumiy grammatik ma'nosini «o'xshashlikka yoki bog'liqlikka asoslangan ko'plik» sifatida juziylashtiradi: *Farhodlar keldi. Mirzacho'llar obod bo'ldi.* So'zshaklga asos bo'layotgan leksemaning atoqlilik xarakteriga bog'liq ravishda shaklning mazkur oraliq grammatik ma'nosi yanada bo'linadi va 2-bo'g'in oraliq grammatik ma'no farqlanadi. Masalan, kishi atoqli oti «o'xshashlikka asoslangan ko'plik» oraliq grammatik ma'nosini farqlaydi va yuzaga chiqaradi: *Daryoning yo'liga gullar sochgali Shirinlar – qadlari shamshodlar keldi*(Uyg'un), Joy nomi atoqli otlarida esa «bog'liqlikka asoslangan ko'plik» oraliq grammatik ma'nosi yuzaga keladi».[2] Demak, mazkur holatda fluktuatsiya sababchisi leksik-grammatik hodisalardir. Boshqacha aytganda, oraliq grammatik ma'noning voqealanishi ko'proq grammatik shakl birikayotgan leksemalarning lug'aviy-grammatik xususiyatiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Biz bunda «ko'proq» muayyanlashtiruvchisini ishlatayotganligimizning sababi sistema shakllanishida hamkorlik tamoyilidan ko'z yummaslik, uning ta'sirini obyektiv aks ettirishga intilishdir. Chunki ushbu umumiy grammatik ma'noning parchalanishi va oraliq grammatik ma'noning vujudga kelishi faqat lisoniy omillar bilangina bog'liq emas, albatta. Bunda atoqli ot (yuqoridagi misolda *Shirin*) har qanday holatda ham ushbu shaklni olish imkoniyatiga ega emas. Buning uchun unga qulay vaziyat zarur bo'ladi. Qulay vaziyat maqomini ushbu o'rinda uslubiy omil zimmasiga oladi. Faqat badiiy uslubdagina shaklning mazkur grammatik ma'nosini voqealantira olishidan kelib chiqqan holda, nazarimizda, hodisaga tilshunos B.Mengliyev nazarda tutganidan ko'ra kengroq doirada munosabatda bo'lish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, «o'xshashlikka asoslangan ko'plik» ma'nosi har qanday metaforik ko'chma ma'nodagi so'zlar bilan birikkanida namoyon

[1] Шаҳобиддинова Ш.Ҳ. Грамматик маъно талқини ҳақида: филол. фанлари номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 1994, 15- б.

[2] Менглиев Б.Р. Тил яхлит система сифатида. Монография. – Тошкент: Ниҳол, 2010. – Б.123.

bo‘laveradi va bunda fikrni ilmiy dalillash uchun nolisoniy omillardan tashqari matn omili zarur bo‘ladi.

Ko‘rinadiki, oraliq grammatik ma’noning har ikkala juz’iy namoyandasi ham o‘zi mansub umumiy grammatik ma’noning «noaniq ko‘plik» unsurini ifodalaydi. Bunda oraliq grammatik ma’noning «bog‘liqlikka yoki o‘xshashlikka asoslangan» qismi daxldorlik darajasiga ko‘ra ustunlik kasb etadi.

(**-lar**) shakli ko‘plik oraliq grammatik ma’nosini voqealantirar ekan, bunda shakl uni miqdoriy noaniqlik va sifatiy bo‘linuvchanlikning yaxlit birligi sifatida voqealantiradi.[1] Bu oraliq grammatik ma’noning farqlanishi va yuzaga chiqishida lug‘aviy birlikning ichki tabiati muhim rol o‘ynaydi. Aniqrog‘i, ma’noviy mohiyatidagi «sanaladigan» irrelevant semasi (**-lar**) shaklining yuzaga chiqishiga sabab bo‘ladi va shakl har bir qo‘llanishda birdan ortiq ma’nosini voqealantiraveradi, bu esa oraliq grammatik ma’noning boshqa tashkil etuvchisiga nisbatan ustuvor daxldorlikka ega bo‘ladi: *1. Jasur o‘glonlarni nega tug‘asiz?* 2. *Ana shu ko‘zlarda tevarakdagi chiroqlar singari shu’lalar miltirar edi.*[2]

Ko‘rinadiki, Sh.Shahobiddinova ta’kidlaganidek, misolda ko‘plik o‘zining noaniqlik va bo‘linuvchanlik belgisi bilan yaxlit voqealangan. Ko‘plik oraliq grammatik ma’nosi otning qaysi ma’no turini nutqqa olib kirayotganligiga qarab turlicha jilvalanadi. Dona narsa ida u «sof ko‘plik» *(bu joylarni obod qilish uchun*), «chama- taxmin» (*yaqin kunlarda)*, mavhum da «ko‘p, har xil» (*o‘tmish sarqitlari*) tarzida yuzaga chiqadi.[3] Zikr etilgan ma’noviy ko‘rinishning bir qismida shakl ma’nosi farqlanishi uchun lug‘aviy ma’noning o‘zi yetarli bo‘lsa, ba’zisida sintaktik omil ko‘magiga kuchli ehtiyoj seziladi *(o‘sha paytlar, buloq bo‘ylarida, dastlabki vaqtlarda*).

«Noaniq ko‘plik» umumiy grammatik ma’nosi voqealanishida sintaktik va lug‘aviy omil roli haqida gap borar ekan, ba’zi aniq miqdor ifodalovchi so‘z ham shaklda goh lug‘aviy, goh sintaktik omil sifatida noaniq ko‘plik oraliq grammatik ma’nosi uchun xizmat qilishini ta’kidlash joiz: *1. Adashmasam, uning burniga urib qonatganida uch yoshlarda edim. 2. Soat uchlar edi.* Birinchi gapda aniq miqdor ifodalovchi so‘z sintaktik va ikkinchi gapda lug‘aviy omil sifatida (**-lar**) shakl oraliq grammatik ma’nosiga ta’sir qilgan.

[1] Шаҳобиддинова Ш.Ҳ. Грамматик маъно талқини ҳақида: филол. фанлари номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 1994, 15-б.
[2] Шаҳобиддинова Ш.Ҳ. Грамматик маъно талқини ҳақида: филол. фанлари номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 1994, 16-б.
[3] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томли. 1-том / З.Маъруфов таҳрири остида. –М.: Рус тили, 1981, 139-б.

Shakl umumiy grammatik ma’nosi jamlik ifodalaganda «miqdoriy noaniqlik» «ko‘plik» sifatida qoladi, biroq «bo‘linuvchanlik» «bo‘linmas sifat» tarzida yuzaga chiqadi. Bu esa ushbu ot «jamlik» sifatida «birlik» va «ko‘plik» oraliq grammatik ma’nosi orasidagi bo‘g‘in ekanligidan dalolat beradi: *1. Qumlarni asta siypalab yurgan shamol.* (J.Ab.). 2. *Daryo kuchli qarsillab, muzlar yorildi* (J.Abd). 3. *Yoshlar uyushmasi qanday bulishi kerak. 4. Qariyalar uyi.* Ma’lum bo‘ladiki, ko‘plik shakli sanalmaydigan da ham, sanaladigan da ham «jamlik» oraliq grammatik ma’nosini yuzaga chiqaradi. Sanalmaydigan otni nutqqa kiritish asosida «jamlik» oraliq grammatik ma’nosini namoyon qilishda asos leksemaning lug‘aviy ma’nosi, sanaladiganda esa sintaktik omil *(qariyalar uyi* birikuvida *uy, yoshlar uyushmasi* birikuvida *uyushma* kabi) ustuvorlik kasb etadi.

«Kuchaytirilgan ma’no ifodalash» ham (**-lar**) shakli umumiy grammatik ma’nosiga xos oraliq grammatik ma’no bo‘lib, bu bir qarashda go‘yo «miqdor» umumiy mohiyatiga bevosita daxldor emasdek tuyuladi. Biroq mantiqan «oz narsaga nisbatan ko‘p narsa kuchliroq va ustuvorroq ahamiyat kasb etadi».[1] Shu boisdan alohida diqqat qilish lozim bo‘lgan o‘rinda narsaning miqdorini ko‘p qilib ko‘rsatish maqsadida otni garchi yakka bo‘lsa-da, ko‘plik son shaklida berish holi uchraydi. Bu oraliq grammatik ma’noni farqlovchi omil sifatida leksemaning lug‘aviy ma’nosi yuzaga chiqadi. Asosan, insonning yakka, ba’zan juft a’zosini ifodalovchi, shuningdek, mavhum shaklning bu oraliq grammatik ma’nosini bo‘rttiradi: 1. *Tillarim achishib ketdi.* 2. *Badanlarim muzlab ketdi.* Z. *Qovoqlarim yorilay deydi. 4. Shodligim sig‘mas dilimga. 5. Uyqularim qochib ketdi.*

Demak, xulosa qilish mumkinki, ko‘plik son shakli oraliq grammatik ma’nosini voqealantirishda lug‘aviy omil ustuvor bo‘lib, bu shaklda omil nisbati (**0**) shakldagiga nisbatan teskari nisbatda.

Egalik shakli. Turkiy tillardagi egalik kategoriyasi ma’noviy xususiyatiga xos talqinni umumlashtirgan holda kategoriya umumiy grammatik ma’nosini «hokim mavqedagi ot yoki ot vazifasidagi so‘zni qaratqich kelishigidagi otga yoki ot vazifasidagi so‘zga bog‘lash va shunga daxldor ma’noviy munosabatni ifodalash» deb ta’riflash mumkin.[2] Shuningdek,

[1] Шаҳобиддинова Ш.Ҳ. Грамматик маъно талқини ҳақида: филол. фанлари номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 1994, 15-б.
[2] Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.: Фан, 1989; Иванов С.Н. Тюркские атрибутивные конструкции с показателем относительной связи // Ученые записки Ленингр. ун-та. Серия востоковедческих наук. вып. 11. 1959; Шаҳобиддинова Ш.Ҳ. Грамматик маъно талқини ҳақида: филол. фанлари номз. ... дисс. автореф. –Самарқанд, 1994; Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. –Т.: Фан, 1975; Дмитриев Н.К. Категория принадлежности // Исследовании по сравнительной грамматике тюркских языков. Ч.II. –М., 1956; Иванов С.Н. К истолкованию категории принадлежности //

tadqiqotlarda kategoriyaning bir nechta ichki tarmog‘i ham farqlanadi. Xususan, turkiyshunos S.Ivanov egalik kategoriyasining izofali birikmadagi, sifatdoshdagi va, shuningdek, gapning partitiv bo‘lagi tarkibidagi ma’nosini kategoriya umumiy mohiyatining alohida-alohida turlanishi sifatida ajratadi.[1] H.Ne’matov qarashida esa partitiv qarashlilik va shaxs-son oraliq ma’nosi farqlanadi. Egalik kategoriyasining tadqiqotchi Sh.Shahobiddinova tomonidan tiklangan[2] umumiy grammatik ma’nosi asosida uchta – «mansublik», «shaxs-songa ishora» va «partitiv» oraliq grammatik ma’nosini farqlashni ma’qul ko‘ramiz. Bu oraliq grammatik ma’no turli qurshovda va turli lug‘aviy hodisa bilan voqealanishi asosida alohida nisbiy mohiyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Egalik kategoriyasi oraliq grammatik ma’nosini farqlashda ham uning umumiy grammatik ma’nosini tiklashdagi kabi sintaktik, morfologik hamda lug‘aviy hodisa tajallisi murakkab holatda qorishib, masala mohiyatini behad chigallashtiradi. Masalan, izofali birikuvda egalik kategoriyasi nafaqat «mansublik» oraliq grammatik ma’nosinigina namoyon qiladi, balki unda shaxsga ishora qiluvchi morfologik, tobelikni ko‘rsatuvchi murakkab sintaktik mazmun ham hamkorlik qiladi. Shuningdek, so‘zning lug‘aviy ma’nosiga bog‘liq ravishda turli ma’noviy munosabat qorishgan holda yuzaga keladi. Tadqiqotchining bunday ma’noviy munosabat sonini elliktagacha yetkazgani ma’lum.[3]

«Mansublik» oraliq grammatik ma’nosi kategoriya shaklining ($Ism^{q.k.}$-$Ism^{e.q.}$) lisoniy sintaktik qolipi turida voqealanadi *1. Nahotki shu olamshumul ishlarda mening ham ulushim bo‘lsa. 2. Uning brigadasi Mohidilning brigadasiga qaraganda ancha oldinda.*

Qolipda semema umuman ism turkumidan bo‘lib, oraliq grammatik ma’noning xususiylanishi ismning tarmoqlanishi asosida bo‘ladi. Natijada xususiy grammatik ma’nosigacha ikkinchi bosqich tarmoqlanish, ya’ni ikkinchi bosqich oraliq grammatik ma’nosi ajratiladi. Masalan, oraliq grammatik $ma'no_1$[1] da aniqlanmish mavqeiyda shaxs ma’nosiga ega bo‘lmagan narsa-predmetni ifodalovchi kelib, bunda «mansublik» oraliq grammatik ma’nosi haqiqiy muayyan sof egalik tarzida xususiylashadi: *bizning uyimiz, mening bobom* kabi.

Сов. тюркология. 1973. -№ 1; Севортян Э.В. Категория принадлежности // Исследование по сравнительной грамматике тюркских языков. Ч.II. –М., 1956.

[1] Иванов С.Н. Тюркские атрибутивные конструкции с показателем относительной связи // Ученые записки Ленингр. ун-та. Серия востоковедческих наук. вып. 11. 1959; Иванов С.Н. К истолкованию категории принадлежности // Сов. тюркология. 1973. -№ 1; Иванов С.Н. Очерки по синтаксису узбекского языка. – Л.: Изд-во Ленингр. ун-та, 1959.

[2] Шаҳобиддинова Ш.Ҳ. Грамматик маъно талқини ҳақида: филол. фан. номз. ... дисс. –Бухоро, 1993.

[3] Майзель С.С. Изафет в турецком языке. –М., –Л.: Изд-во АН СССР, 1957; Чариев А. Синтаксическо-семантические признаки родительного падежа узбекском и английском языках. –Т.: Фан, 1990.

Oraliq grammatik $ma'no_1$[2] aniqlanmish shaxs idan ifodalanganda voqealanadi va bunda oraliq grammatik ma’no tobelik tarzida namoyon bo‘ladi: *mening odamim, otasininng o‘g‘li* kabi.

Oraliq grammatik $ma'no_1$[3] aniqlanmish mavhum bilan ifodalanganda voqealanadi va u «tashiluvchi» tarzida yuzaga chiqadi: *yashashning zavqi, o‘qituvchining baxti, uyning tozaligi* kabi.

Oraliq grammatik $ma'no_1$[4] aniqlanmish miqdor ma’noli so‘z bilan ifodalanganda namoyon bo‘lib ajratish xususiyatiga ega bo‘ladi: *odamlarning ko‘pi, qizlarimizning bari, kitoblarning besh-oltitasi.*

Bu kabi ikkinchi bosqich oraliq grammatik ma’nosi birinchi bosqich(«mansublik») oraliq grammatik ma’nosi uchun xususiylik, muayyan gapdagi xususiy qo‘llanish uchun esa umumiylik sifatida yuzaga chiqadi. Masalan, *Sizlarning suhbatingiz maroqli* gapida egalik shaklining ma’nosi qanday? degan savolga yuqorida ta’riflangan umumiy grammatik ma’noni javob sifatida keltirish keng qamrovli va mavhum javobdek tuyulsa, «mansublik» oraliq grammatik ma’nosi ham, «amalga oshiriluvchi jarayon» deb atalmish oraliq grammatik $ma'no_1^n$ ham xuddi shunday bo‘lib, bunda muayyan xarakterdagi **sizlar** denotati tomonidan amalga oshiriluvchi suhbat xususiy grammatik ma’nosigina ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi. Demak, bunday holda qaysi umumiy grammatik ma’no yoki egalik kategoriyasi umumiy grammatik ma’nosining qaysi oraliq grammatik ma’nosi voqealanishi mavjud?- tarzidagi savol o‘zining ustuvor mantiqiylik darajasi bilan ajralib turadi.

Egalik kategoriyasi umumiy grammatik ma’nosining yana bir oraliq grammatik ma’nosi unga xos shaklning sifatdosh tarkibida kelishi bilan bog‘liq ravishda voqealanadi. Bu sintaktik qurshov

$$[Ism^{q.k.} + Sifatdosh^{e.q.}]$$

ko‘rinishida bo‘lib, bunda ish-harakatining bajaruvchiga munosabati yuzaga chiqadi. Bunday qurilmada sifatdosh substantiv mohiyat zarrasiga ega bo‘ladi. *1. Uning bu yerga kelgani noma’lumligicha qoldi. 2. Shohdan eshitgani bir sari bo‘ldi-yu..* Ko‘rinadiki, fe’l o‘timsiz bo‘lganda *(kelgani)*, kolip [$I^{q.k.}$ + $Sifatdosh^{e.q.}$] tarzida bo‘lsa, o‘timli fe’l (*eshitganda*) otlashmaganda, bu

$$[Ism^{q.k.} + Fe'l - Ot^{e.q.}]$$

tarzida bo‘ladi. Bu qolipda voqealangan sifatdosh egalik qo‘shimchasini olmaydi va o‘z-o‘zidan shaxsga munosabati ham so‘nadi. Bu esa mazkur oraliq grammatik ma’no uchun [$Ism^{q.k.}$ + $Sifatdosh^{e.q.}$] qurshovining zaruriy shart ekanligidan dalolat beradi. Bajaruvchi shaxs-soniga munosabat oraliq grammatik ma’nosi «mansublik» oraliq grammatik ma’nosi bilan bir umumiylik tagida birlashsa-da, «mansublik» ma’nosi o‘ziga xos tarzda bunda ham

voqealangandek tasavvur uyg'otadi. Biroq *Sizdan eshitganimni sir tutdim* gapidagi sifatdosh substantivlikdan xalos etilsa(*sizdan eshitgan gapim),* bu yerda qarashlilik ma'nosi mutlaqo yuzaga chiqmayotganligi ayon bo'ladi. Demak, shakl bunday qo'llanishda harakatning kimga tegishli ekanligiga ishora qiladi.

Kategoriyaning uchinchi oraliq grammatik ma'nosi «nisbiy partitivlik» atamasi bilan nomlangan bo'lib, turkiyshunos S.N.Ivanov uni XVII asr yozma yodgorligi misolida[1] hamda hozirgi o'zbek tili materiali asosida[2] atroflicha va batafsil tadqiq qilgan. Bu oraliq grammatik ma'no murakkab aniqlovchi tarkibidagi sifatdoshga tobelanuvchi ot tarkibida kelib, bunda qaratuvchini undan oldin tiklash yoki uni shu tarzda bordek tasavvur qilish mumkin emas. 1. *Mahallaga ozori tegmaydigan Toshpo'lat....* (O. Mux.). 2. *Mulla Hasanning bo'yi yetgan qizi bor ekan.* Bunday aniqlovchi tarkibida kelish sifatga ham xos: *sochi qora qiz, ko'zi och odamlar.* Bu qurilmada sifatdosh ham, sifat ham ularga atributiv xususiyat beradi. U semantik jihatdan egalik shaklidagi so'z bilan bog'lanadi, bu so'z orqali aniqlanmish bilan munosabatga kirishadi. Egalik kategoriyasining bu tarzdagi va pozitsiyadagi voqealanishi uning faqat turkiy tilgagina xos xususiyati.[3] Ayniqsa, bu oraliq grammatik ma'no sifatdosh va sifat otlashganda yanada yaqqol ko'zga tashlanadi: *so'zi durlar, dili og'riganlar* kabi. oraliq grammatik ma'no

[Ism$^{e.q.}$ + Sifatdosh +Ism]

qurshovida nutqqa kiritiladi.

Har uchala oraliq grammatik ma'no bir-biridan goh lug'aviy, goh sintaktik omil faolligi asosida farqlanadi. «Mansublik» oraliq grammatik ma'nosi «shaxs-subyekt» oraliq grammatik ma'nosidan lug'aviy omil asosida farqlanadi. Zero, 1- oraliq grammatik ma'no uchun egalik affiksidagi ism turkumiga xos leksema bo'lishi talab qilinadi, qurshov esa ikkinchi planga suriladi. Chunki 2- oraliq grammatik ma'no uchun voqealantirish vositasi bo'lgan [Ism$^{q.k.}$ + Sifatdosh$^{e.q}$] sintaktik qurshovi [Ism$^{q.k.}$ + Ism$^{e.q}$] qolipining xususiylashuvi bo'lib, qurshovning sifatdosh bilan ifodalangan a'zosi aslida ismlik mohiyatiga ega va bu hodisa uning egalik affiksini olishini ta'minlaydi, biroq sifatdoshning ismlik tabiati shaklni o'z asl fe'llik mohiyatiga xos xususiyat kasb etgan bajaruvchining shaxs-son ma'nosiga ega bo'lgan holda voqealantirishga olib keladi. Demak, 1- va 2- oraliq grammatik ma'no farqlanishi uchun lug'aviy omil hal qiluvchi

[1]Иванов С.Н. Тюркские атрибутивные конструкции с показателем относительной связи // Ученые записки Ленингр. ун-та. Серия востоковедческих наук. вып. 11. 1959.

[2] Иванов С.Н. Очерки по синтаксису узбекского языка. –Л.: Изд-во Ленингр. ун-та, 1959; Иванов С.Н. Родословное древо – тюрок Абул-Гази-Хана. Грамматический очерк. (Имя и глагол. Грамматичес-кие категории.) –Т.: Фан, 1969.

[3] Иванов С.Н. Тюркские атрибутивные конструкции с показателем относительной связи // Ученые записки Ленингр. ун-та. Серия востоковедческих наук. вып. 11. 1959, с. 110.

ahamiyatga ega. Bu esa sintaktik omilning ancha zaiflashuviga olib keladi. 1- va 3- oraliq grammatik ma'noni farqlash uchun qurshov va sintaktik pozitsiya yetakchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Zero, har ikkala oraliq grammatik ma'no ham egalik affiksi olgan ismning lug'aviy xossasiga befarq. Biroq mantiqiy qaratuvchining egalik affiksini olgan ismdan keyin joylashuvi (*tili achchiq odam)* 3- oraliq grammatik ma'noning farqlanishi va voqealanishi uchun zaruriy shart. 3- va 2- oraliq grammatik ma'no o'zaro lug'aviy omil asosida farqlanadi va nutqqa kiritiladi. Zero, 2- oraliq grammatik ma'no, aytilganidek, egalik affiksining sifatdosh tarkibida kelishi natijasida yuzaga chiqadi. Bu oraliq grammatik ma'no voqealanishi uchun qurshov va sintaktik pozitsiyaning ham roli lug'aviy omil bilan «bo'ylashadi». Chunki 2-oraliq grammatik ma'noda aniqlovchi vazifasida qaratqich kelishigidagi ism keladi. 3-oraliq grammatik ma'no voqealanishi uchun qaratqich kelishigidagi ismning bo'lishi mutlaqo talab etilmaydi. Shuningdek, u implisit tarzda ham mavjud emas.

Egalik kategoriyasi «qarashlilik» umumiy grammatik ma'nosining tarkibiy uzvlaridan bo'lgan «subyekt harakati» ma'nosining voqealanishida endi leksik omilga tobe so'zshakl hamkorlik qiladi. Sintaktik omil haqida gap ketganda substansial sintaktik birliklar vositasida fikr yuritish zarur bo'lganligi tufayli mazkur grammatik shakl voqealanuvchi qurshov qolipini [ism $^{qaratqich\ kelishigi}$ + sifatdosh $^{egalik\ qo'shimchasi}$ = tobe unsurdan anglashilgan subyekt mansub harakat] ko'rinishida belgilaymiz va bunda ish-harakatning bajaruvchiga munosabati yaqqol ifodalanadi. To'g'ri, bunda fe'l otlashgandek tasavvur uyg'otadi. Lekin egalik shaklining sintaktik shakl yasovchi ekanligi va umumturkumiy kategorial qiymati hodisaga bunday munosabatda bo'lishga yo'l qo'ymaydi: 1. *Mening eshitganimni hech kim eshitmasin.* Bunda professor B.Mengliyevning «fe'l o'timsiz bo'lganida qolip [ism $^{qaratqich\ kelishigi}$ + sifatdosh $^{egalik\ qo'shimchasi}$] tarzida bo'lsa, o'timli fe'l otlashmaganida bu [ism $^{qaratqich\ kelishigi}$ + fe'l – ot $^{egalik\ qo'shimchasi}$] tarzida bo'ladi. Bu qolipda voqealangan sifatdosh egalik qo'shimchasini olmaydi, o'z-o'zidan shaxsga munosabati ham so'nadi. Bu esa mazkur oraliq grammatik ma'no uchun [ism $^{qaratqich\ kelishigi}$ + sifatdosh $^{egalik\ qo'shimchasi}$] qurshovining zaruriy shart ekanligidan dalolat beradi. Bajaruvchi shaxs-soniga munosabat oraliq grammatik ma'nosi «mansublik» oralik grammatik ma'nosi bilan bir umumiylik tagida birlashsa-da, «mansublik» ma'nosi o'ziga xos tarzda bunda ham voqealangandek tasavvur uyg'otadi. Biroq *Sizdan eshitganimni sir tutdim* gapidagi sifatdosh substantivlikdan xalos etilsa (*sizdan eshitgan gapim),* bu yerda qarashlilik ma'nosi mutlaqo yuzaga chiqmayotganligi ayon bo'ladi. Demak, shakllar bunday qo'llanishda

harakatning kimga tegishli ekanligiga ishora qiladi»[1] degan fikrlariga metodologik asos sifatida munosabatda bo‘lish mumkin.

Ko‘rinadiki, egalik kategoriyasi umumiy grammatik ma’nosi oraliq grammatik ma’nosini farqlash va voqealantirishda lug‘aviy va sintaktik omil muvofiqligi darajasi turlicha. Undan ayrimida lugaviy omil ustuvorlik qilsa, ba’zisida sintaktik omil muhim rol o‘ynaydi. Demak, shakl oraliq grammatik ma’nosini ajratuvchi omil va uni voqealantiruvchi omil farqlanishi lozim. Ayrim kategoriya umumiy grammatik ma’nosini voqealantirishda ba’zan bu omil teng kelsa, ba’zisida u teskari nisbatda bo‘lishi mumkin.

(-cha) kichraytirish shakli. Bu lug‘aviy shakl umumiy «kichraytirish» ma’nosiga ega bo‘lib, u so‘zning lug‘aviy ma’nosiga ta’sir qilishi bilan o‘zi ham lug‘aviy va sintaktik omil ta’sirida umumiy grammatik ma’nosini turli ko‘rinish orqali voqealantiradi. Farqlanuvchi ma’no turining namoyon bo‘lishi «so‘zning leksik ma’nosi va boshqa faktor ta’sirida kelib chiqadigan ottenka» ekanligi mavjud manbada ham qayd etiladi.[2] *-cha* shakli narsaga qo‘shilganda, o‘z umumiy grammatik ma’nosining «sof kichraytirish» oraliq grammatik ma’nosini namoyon qiladi. *1. Hovuzcha labiga borib, suvda qiziq manzarani ko‘rdi. Tiqilib qarasa, to‘rt enlik-to‘rt enlik keladigan sap-sariq baliqchalar.*(H.Naz.) *Sho‘rva tayyor bo‘lib, sopol kosalarga suzilayotganda, Gulnor papkadakkina chamadoncha ko‘targan bir ayolni boshlab kirdi.* (H.Naz.) Jonsiz narsada «sof kichraytirish» oraliq grammatik ma’nosi har xil subyektiv munosabatdan holi bo‘ladi. Biroq *-cha* shakli hayvon yoki parrandani nutqqa kiritar ekan, bunda u sintaktik yoki boshqa biror kontekstual omil asosida erkalash ottenkasiga ham ega bo‘lishi mumkin. 1. *Tinmay o‘ynar sho‘x qizchalar toza havoda.* Gapda so‘zlovchining erkalash munosabati matndan va (*sho‘x*) so‘zidan anglashilgan va natijada «erkalash» ma’no komponenti mavjud oraliq grammatik ma’no farqlangan.

Shakl (o‘g‘il), (qiz) so‘zi bilan qo‘llanganda «kichraytirish», «erkalash» oraliq grammatik ma’nosini voqealantiradi. 1 *Sahnaga qizchalar - gulchalar chiqishdi. 2. Mening uch yashar o‘gilcham bor.* Shuningdek, bu oraliq grammatik ma’no voqealanishida va farqlanishida sintaktik va kontekstual omil ham lug‘aviy omilga hamkorlik qiladi. *1. Bu qobil, esli-hushli yigitcha kim bo‘ldi*? Anglashiladiki, ayrim so‘zda ((o‘g‘il), (qiz)) **(-cha)** shakli oraliq grammatik ma’nosi farqlanishi uchun lug‘aviy omil yetarli bo‘lsa, ko‘plab so‘zda ((yigit), (domla), (bola)) aniqlovchi maqomidagi birlikning - sintaktik, uslubiy omilning roli kuchliroq seziladi. Zero, sintaktik omil ta’sirisiz

[1] Менглиев Б.Р. Тил яхлит система сифатида. Монография. – Тошкент: Ниҳол, 2010. – Б.127 – 128.
[2] Шоабдурахмонов Ш., Аскарова М., Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Дарслик. - Т.: Ўқитувчи, 1980, 243- б.

«kichraytirish» umumiy grammatik ma’nosi «kichraytirish-erkalash» oraliq grammatik ma’nosiga mutlaqo zid ravishda «kichraytirish-kamsitish» oraliq grammatik ma’nosi yuzaga chiqishi mumkin. *1. Sal o‘zingizni bosib oling, yigitcha .H.Naz.) 2. Minib oldi! Yelkangdan tushirib ko‘r-chi, Bo‘g‘aman,- deydi. Bu otincha ham o‘sha toifadan (S.Ahm).* **(-cha)** shakli kishi ismiga qo‘shilganda, umumiy grammatik ma’no voqealanishi uchun lug‘aviy omil ustuvor xarakter kasb etadi va «kichraytirish-kamsitish» oraliq grammatik ma’nosi voqealanadi. 1. *Qilgan ishingni bilasanmi, Hasancha, - deydi O‘ktam uning yuragini sinamoqchi bo‘lib. 2. «Karimcha», «Karim chittak» endi Mirzakarimboyga aylangan edi.* (Oyb.)

Ma’lum bo‘ladiki, **-cha** lug‘aviy shakli umumiy grammatik ma’nosi uchta oraliq grammatik ma’no - «sof kichraytirish», «kichraytirish-erkalash», «kichraytirish-kamsitish» ma’nosi orqali nutqqa chiqadi. «Sof kichraytirish» oraliq grammatik ma’nosining farqlanishi va voqealanishi uchun lug‘aviy omil ustuvor ahamiyat kasb etadi. Chunki bu ma’no, asosan, narsa-buyumida yuzaga chiqadi. «Kichraytirish-erkalash» oraliq grammatik ma’nosi voqealanishi uchun ayrim holda ((o‘g‘il), (qiz) kabi so‘zda) lug‘aviy omil ustuvorlik qilsa, ko‘p holda lug‘aviy, sintaktik va uslubiy omilning kuchli hamkorligi kuzatiladi. «Kichraytirish-kamsitish» oraliq grammatik ma’nosi, asosan, shaxsi bilan, ayniqsa, kishi ismi bilan qo‘llanganda yuzaga chiqadi. Bunda ham shakl, asosan, uslubiy maqsadda qo‘llanganligi tufayli sintaktik omil – aniqlovchi mavqeyidagi birlikning hamda gap tarkibidagi boshqa uslubiy vositaning roli katta bo‘ladi.


Nisbat shakli. Nisbat shakli umumiy grammatik ma’no va oraliq grammatik ma’nosi bir necha nazariy manbada tiklangan va farqlangan.[1] Biroq nisbat shakli orasida aniq nisbat murakkab tabiati bilan o‘ziga xos o‘rin tutadi. Aniqrog‘i, u boshqa shakl kabi harakatning bajaruvchi(subyekti)siga munosabat bildirar ekan, bunda subyekt fe’lning lug‘aviy ma’nosi, grammatik shakli ta’sirida turli xususiyatini namoyon qiladi. Bu esa uning umumiy grammatik ma’nosini boshqa shakl umumiy grammatik ma’nosidan farqli darajada tiklashga imkon bermaydi.[2] Zero, u o‘zida barcha boshqa nisbat shakli xossasini mujassamlashtirgan bo‘lib, nutqdagi goh u, goh bu ma’nodan birortasini ham bosh nisbatgagina xos qilib qo‘yish yaramaydi. Shuningdek, aniq nisbatning bu

[1] Иванов С.Н. Тюркские атрибутивные конструкции с показателем относительной связи // Ученые записки Ленингр. ун-та. Серия востоковедческих наук. вып. 11. 1959; Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.: Фан, 1989; Шоабдурахмонов Ш., Аскарова М., Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1980.
[2] Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.: Фан, 1989; Ломтев Т.П. Принципы построения формулы предложения // Филологические науки. 1965. -№ 5; Неъматов Ҳ., Бобокалонов Р., Раупова Л. Ўзбек тилида номустақил кесимлик шакли // Ўзбек тили ва адабиёти, 2000. -№ 1; Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. –М.: Наука, 1974.

xossasi tilning ichki qonuniyatiga zid emas, albatta. Aytilganidek, tilshunos H.Ne'matov bu va bu kabi boshqa kategoriya bosh shaklining o'ziga xos tabiati haqida fikr yuritar ekan, shunday yozadi: «fe'lning barcha shaklini ikkiga – kategoriya ichidagi shaklning o'zaro ziddiyatida aniq bir belgiga ega bo'lgan belgili shakl va bu ziddiyatda aniq belgiga ega bo'lmagan belgisiz (neytral) shaklga ajratish mumkin. Birinchi guruh belgili shaklning qo'llanilishi va ma'no ottenkasi doirasi o'zi mansub bo'lgan kategoriyaning belgisi va har bir shaklning kategoriya ichidagi oppozitsiyadagi belgisi bilan cheklangan bo'ladi. Ikkinchi guruh belgisiz shaklining qo'llanilishi va ma'no ottenkasi doirasi esa faqat o'zi mansub bo'lgan kategoriyaning belgisi bilan cheklangan bo'ladi(masalan, aniq nisbat, -ar qo'shimchali zamon shakli, -(i)b ravishdoshi). Ya'ni birinchi guruh shaklning qo'llanilish doirasi va ma'no ottenkasi kategoriya ichidagi munosabati bilan belgilansa, ikkinchi guruh shaklning qo'llanilish doirasi va ma'no ottenkasi kategoriyaaro munosabat bilan belgilanadi va bu shakl shu kategoriyaning reprezentanti rolini o'ynaydi. Shuning uchun ma'lum kategoriyaga mansub bo'lgan shaklning ma'nosi shu kategoriyaning reprezentant shakli ma'nosi bilan belgilanadi».[1] Demak, aniq nisbatda nisbat shaklidan yo u, yo bu shaklga xos bo'lgan faol subyekt (o'timli va o'timsiz nofaol fe'lda) aniq yoki noaniq subyekt fe'lning kesimlik shakliga bog'liq ravishda qo'zg'atuvchi subyekt buyruq maylidagi fe'l yoki hamkor subyekt ko'plik sondagi fe'lidagi kabi ma'noni ifodalashi tasodifiy hol emas. Aniq nisbatning boshqa nisbat shaklidan farqi shundaki, u barcha nisbat shakli ma'nosini ifodalay oladi, biroq boshqa birorta shakl uning bitta ma'nosini ifodalay oladi, xolos. Demak, aniq nisbatda nisbat kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosi nisbatan (mutlaq emas) to'liqroq namoyon bo'ladi.

Tadqiqotchilar shakl umumiy grammatik ma'nosining voqealanishi va oraliq grammatik ma'nosining farqlanishida fe'l lug'aviy, ma'noviy tipining muhim rol o'ynashini alohida uqtirishadi. Shu boisdan ushbu o'rinda jahon tilshunosligi, turkiyshunoslik va o'zbek tilshunosligida ajratilgan fe'l lug'aviy ma'noviy tipining mavjud manbadagi talqiniga zarurat taqozosiga ko'ra qisman to'xtalish lozim. Zero, bundan so'ng fe'lning mana shu guruhlanishiga tayaniladi. Talqinning barchasini umumlashtirgan holda fe'lni ma'noviy sintaktik xossasiga ko'ra quyidagicha guruhga bo'lish maqsadga muvofiq:

[1] Неъматов Ҳ. Феъл, унинг форма ва категорияси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1972. -№ 1. -Б. 43.



refleksiv
norefleksiv
natijali
natijasiz

faol
nofaol

Ma'lumki, o'timli-o'timsizlik turkiy tilda, xususan, o'zbek tilida lug'aviy xarakterga ega. Tadqiqotchilar uning dastlab sintaktik tabiatga ega bo'lganligini, keyingi davrda lug'aviy xususiyat kasb etganligini ta'kidlashadi.[1] O'timli refleksiv fe'l vositali adresat to'ldiruvchisiga ega bo'lmagan, bajaruvchisiga qaytuvchi harakatni ifodalaydigan fe'ldir: *kiy, ye, ich, bil, eshit, ko'r* kabi. Bunda fe'l kengaytiruvchisi bilan quyidagi lisoniy sintaktik qolipda yuzaga chiqadi:

[Bajaruvchi + Fe'l + $Ot^{t.k.}$]

O'timli norefleksiv fe'l ham vositali, ham jo'nalish kelishigidagi adresat vositasiz to'ldiruvchisiga ega bo'lgan fe'ldir: *ol, ber, ek, qil* kabi. Bu fe'lni muhim xossasi bilan voqealantiruvchi kengaygan lisoniy sintaktik qolipni quyidagicha berish mumkin:

[Bajaruvchi+ Fe'l + $Ot^{t.k.}$+ $Ot^{j.k.}{}_{adresat}$]

O'timli natijali fe'l **verba operiendi** tipidagi fe'l bo'lib, obyektni fizik o'zgartirish (shakl xususiyatini o'zgartirish) harakatini ifodalaydi: *yoz, buz ,yor, bo'ya* kabi. Bu fe'lning farqli voqealanishi uchun quyidagi kengaygan lisoniy sintaktik qolipga extiyoj seziladi:

[Bajaruvchi + Fe'l +$Ot^{t.k.}$ + $Ot^{j.k.}$]

O'timli natijasiz fe'lga obyektni o'zgartirishga qodir bo'lmagan harakatni ifodalovchi va

[Bajaruvchi + Fe'l + $Ot_{adresat}{}^{j.k.}$ + $O^{t.k}$]

kengaygan lisoniy sintaktik qolipida voqealanadigan *bor, sot, uzat* tipidagi fe'l kiradi.

O'timsiz fe'l ham o'z o'rnida ikkiga bo'linadi. O'timsiz faol fe'l bajaruvchi tomonidan his qilinuvchi harakat, shuningdek, ruhiy holat fe'li. U, asosan, ikki kengaytiruvchili bo'lib(*kishna, gujurla, yugur, yo'rg'ala*),

[1] Баскаков Н.А. Каракалпакский язык. Т.II. Ч.I. –М.: Изд-во АН СССР, 1952, с. 333; Севортян Э.В. Об историческом положении категорий переходности и непереходности в тюркских языках // Вопросы историческом положении категорий переходности и непереходности в тюркских языках // Вопросы языкознания. 1958. -№ 2; Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.: Фан, 1989, –с. 18; Дмитриев Н.К. Грамматика башкирского языка. –М. –Л.: Изд-во АН СССР, 1948, с. 180.

[Bajaruvchi+ Fe'l]

va (*yot, tur, ket, qoch, yasha, ranji, kul, yig'la, ishon, sig'in*)

[Bajaruvchi + Fe'l + $Ot^{makon\ kelishigi}$]

lisoniy sintaktik qolipida voqealanadi.[1]

O'timsiz nofaol fe'l biror tashqi kuch ta'sirisiz bajaruvchida yuz beruvchi va unda qandaydir o'zgarish hosil qilish harakatini ifodalovchi fe'l bo'lib (*quri,ivi,qizar, oz, qayna),*

[Bajaruvchi + Fe'l]

lisoniy sintaktik qolipida voqealanadi. Bu fe'l, asosan, bir kengaytiruvchi.

Shu asosda bosh nisbatdan tashqari (uning xususiyati haqida fikr yuritildi) nisbatning oraliq grammatik ma'nosi farqlanishi va voqealanishi haqida alohida-alohida to'xtalamiz.

O'zlik nisbati. Bu nisbatning bir nechta oraliq grammatik ma'nosi farqlanadi va shu asosda umumiy xossasi tavsiflanadi. Tadqiqotchilarning qarashlaridan kelib chiqqan holda, nisbat shaklining ikki oraliq grammatik ma'nosini farqlashni ma'qul deb bilamiz:

a) «sof o'zlik» oraliq grammatik ma'nosi;

b) «adresatli o'zlik» oraliq grammatik ma'nosi.

Shaklning «sof o'zlik» oraliq grammatik ma'nosi uning umumiy grammatik ma'nosini «o'zini-o'zi» tipida xususiylashtiradi. umumiy grammatik ma'no «adresatli o'zlik» oraliq grammatik ma'no sida «o'zini-o'ziga» tarzida namoyon bo'ladi. Birinchi oraliq grammatik ma'noda vositasiz obyekt, ikkinchi oraliq grammatik ma'noda u bilan birga adresatli obyekt mantiqan uqiladi. Demak, o'zlik nisbat shakli «sof o'zlik oraliq grammatik ma'nosini voqealantiradigan fe'l (*qashi, yuv, beza, o'yla, os, il, iflosla, yoz, bur, och, yop, yashir, boshla, para, cho'z, tashla, yor) a*niq nisbatda ikki kengaytiruvchili bo'lib, u subyekt va vositasiz obyektdir: Bu qurshovni quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

[Bajaruvchi+ Fe'l + $Ot^{t.k}$]

«Adresatli o'zlik» oraliq grammatik ma'nosi aniq nisbatda uch kengaytiruvchili fe'ldan (*so'zla, maqta, takrorla, yaxshila, tila, sot)* bo'lib, uning qurshovi quyidagi shaklga ega bo'ladi:

[Bajaruvchi + Fe'l + $Ot^{t.k}$ + $Ot^{j.k}$]

Demak, o'zlik nisbat shakli oraliq grammatik ma'nosi farqlanishi fe'lning ma'lum bir lug'aviy-ma'noviy tipi bilan belgilanmagan. Bunda uning birikuvchanlik imkoniyati - semantik-sintaktik omil yetakchilik qiladi.

[1]Булыгина Т.В. Грамматические и семантические категории и их связи // Аспекты семантических исследований. –М., 1980, с. 15–62.

Orttirma nisbat. Orttirma nisbatda fe'lning yuqorida farqlangan ma'noviy-sintaktik guruhi muhim rol o'ynaydi. Shundan kelib chiqqan holda orttirma nisbat shaklining umumiy grammatik ma'nosi «faol», «faol orttirma», «adresatli orttirma», «sof orttirma» kabi oraliq grammatik ma'nosi orqali yuzaga chiqadi.

O'timsiz nofaol fe'lda orttirma nisbat subyektning faolligiga ishora qiladi (*oqartirmoq, qoraytmoq*). 1. *Yurtimni yashnatdi bahor yellari.* Fe'l va uning kengaytiruvchisini aniq nisbatdagi ko'rinishiga qiyoslash orttirma nisbatning bu oraliq grammatik ma'nosini yanada oydinlashtiradi: 1. *Yurtim yashnadi.* Diqqat qilinsa, gapdan birinchisida bajaruvchi *(yurt)* passiv, ikkinchisida faol. Orttirma nisbatda subyekt faolligining oshishi so'z yasalishigacha boradi. Zero, orttirma nisbat shakli nofaol fe'ldan natijali o'timli fe'l hosil qiladi.

Orttirma nisbat shakli umumiy grammatik ma'nosining yana bir ko'rinishi faol «orttirma» oraliq grammatik ma'nosi bo'lib, buni o'timsiz faol fe'l yuzaga chiqaradi. Bunda faol orttirma nisbatdagi fe'lning subyekti «qo'zg'atuvchi» sifatida namoyon bo'ladi: *1. Anorxon kampirni suyab turg'azdi, quchoqlab so'ridan pasga tushirib, oftobada suv keltirib berdi.* oraliq grammatik ma'noning farqlanishida sintaktik omil leksik omilga hamkorlik qiladi. Aniqrog'i, bosh asosdagi bir boshqariluvchi yoniga ikkinchi boshqariluvchi ham qo'shiladi. Qiyoslang:

[Bajaruvchi + Fe'l]

[Bajaruvchi + $Fe'l^{o.n.}$ + $Ot^{t.k.}$]

Bunda fe'lning qaysi ma'noviy-sintaktik tipdan ekanligi muhim rol o'ynaydi. Zero, uning har ikkalasi ham (*turmoq, turg'azmoq)* birinchi qurshov subyekti bilan bog'langan, ikkinchi qurshovda faol orttirma nisbatdagi fe'l fe'lini qo'zg'atuvchi sifatida qabul qiladi. Bu esa o'timsiz fe'l tipiga xos emas. «*U meni turg'azdi»* qurilmasida ziddiyat ham ko'zga tashlanadi. Bunda orttirma nisbatdagi fe'l «tanla, lekin mana buni» tipidagi huquqqa ega bo'lib, u o'timli fe'l sifatida istagan to'ldiruvchini olishi mumkin edi. Biroq «turmoq» fe'lining subyektini to'ldiruvchi sifatida olishga majbur. Chunki «nisbatli o'timlilik» xossasi uni shunday bo'lishga majbur etadi. Shuningdek, vositasiz to'ldiruvchi tipi ham har qanday o'timli fe'l doirasida har xil bo'lishi mumkin. Biroq «nisbatli to'ldiruvchilik» ma'nosi uni «nisbatli o'timlilik» ma'nosidagi fe'lga bog'liq qilib qo'yadi.

Ma'lumki, turkiy tilda o'timli-o'timsizlik lug'aviy tabiatga ega. Shu boisdan o'timli-o'timsizlikning semantik rivoji turli lug'aviy tizim bo'ylab yuz beradi. Ma'noviy taraqqiyot natijasida faol orttirma nisbat to'ldiruvchi sifatida aniq nisbat subyektini olmasa, bu yerda so'z yasalishi haqida so'z boradi. 1. *U mendan mashqni ko'chirdi.* Bunda foil «qo'zg'atuvchi» emas, balki «faol».

Orttirma nisbatning adresatli orttirma oraliq grammatik ma'nosi o'timli refleksiv fe'l hosil qiladi va nutqqa jo'nalish kelishigi bilan shakllangan to'ldiruvchi ham kiradi. 1. *Men dori yuboray, siz darrov ichiring.* 2. *Nigor oyim Mansurga qolgan oshni yedirib qo'yish bilan ora-sira gapga ham quloq solganday bo'lar edi.* Qurilmaning qurshovi

[Bajaruvchi + Fe'l$^{o.n}$ + Ot$^{t.k}$ + Ot$_{a.ir}$$^{j.k}$]

tipida bo'lib, qolipdagi adresat obyekt fe'lning bosh nisbat shakli (*ichmoq, yemoq*) uchun bajaruvchi foil.

«Aadresat orttirma» oraliq grammatik ma'nosi uchun o'timli norefleksiv fe'l ma'noviy-sintaktik tipi ham kuchli ta'sir qiladi. Shu boisdan adresat to'ldiruvchining aniq nisbatdagi fe'l subyekti bilan aloqasi vositasiz to'ldiruvchinikiga qaraganda kuchsiz bo'ladi. Qiyoslang: 1. *Salomatoy onasini uxlatib qo'yib.. .* (H.G'ulom) – *onasi uxladi.* 1. *Mariyaga boshdan oyok musulmoncha libos kiydiradilar(Oyb). – Mariya libos kiydi.* Ko'rinadiki, fe'lning aniq nisbatdagi ma'nosining obyektga munosabati turlicha.

Shaklning «sof orttirma» oraliq grammatik ma'nosini o'timli norefleksiv fe'l nutqqa olib kiradi: 1. *Qurbonali bilan xotini yerni traktorga ag'dartirgach, tanob tortib, qoziq qoqdilar.2. Dekchadagi baliq kuyib ketayotganini ko'rib, kapgir bilan ag'dardirdi.*

Orttirma nisbat shakli umumiy grammatik ma'nosi oraliq ko'rinishining barchasi uchun xizmat qiluvchi umumiy sintaktik omil aniq nisbatdagi fe'l bajaruvchining to'ldiruvchiga aylanishi. Biroq bu nisbat shakli fe'lning qaysi tipiga birikayotganligiga qarab, turlicha xarakter kasb etadi. Masalan,

[Bajaruvchi + Fe'l$^{o.n}$ + Ot$^{t.k}$]

qurshovida, asosan, «faol» va «faol orttirma» oraliq grammatik ma'nosi yuzaga chiqsa, «adresatli orttirma» va «sof orttirma» oraliq grammatik ma'nosi uchun

[Bajaruvchi + Fe'l$^{o.n}$ + Ot$^{t.k}$]

qolipi xos. Demak, leksik omil kuchaygan sharoitda sintaktik omil susayadi va, aksincha, sintaktik omil kuchayganda, lug'aviy omil zaiflashadi.

Majhul nisbat. Majhul nisbatda ham orttirma nisbatda bo'lgani kabi aniq nisbatdagi fe'l subyekti ta'sirga uchraydi. Ammo majhul nisbatdagi fe'l yangi obyektga ega bo'lmaydi, asos qurilmaning vositasiz to'ldiruvchisi subyektga aylanadi. Shundan kelib chiqqan holda, majhul nisbat umumiy grammatik ma'nosi «sof majhul», «nofaol majhul» va «shaxssizlik» oraliq grammatik ma'nosi orqali nutqiy voqelikka aylanadi. Shaklning «sof majhul» oraliq grammatik ma'nosini o'timli-natijasiz fe'l farqlaydi. 1. *Bu qiy-chuv orqasidan*

mehmonlarga quyuq-suyuq tortildi. Majhul nisbat shaklidagi fe'l ikki kengaytiruvchili bo'lib, asos lisoniy sintaktik qolipning «foil» a'zosi ifodalanmaydi va noaniqligicha qoladi:

[Bajaruvchi + Fe'l + Ot]

Ko'rinadiki, berilgan misolda harakat bajaruvchisi noma'lum va ifodalanmagan bo'lib, asos qurilma (*(kimdir)quyuq-suyuq berdi*)dagi to'ldiruvchi subyektga aylanadi. Demak, majhul nisbat shakli «sof majhullik» oraliq grammatik ma'nosi bilan voqealanganda asos qurilmaning boshqaruvi ham o'zgarib ketadi.

Qurshov oraliq grammatik ma'noni voqealantirishda fe'l tipi umumiy lug'aviy ma'nosiga hamkorlik qiladi.

Shaklning «nofaol majhul» oraliq grammatik ma'nosini o'timli-natijali fe'l voqealantiradi. 1. *U Karomatni qonga bo'yalgan paranjisiga o'rab, yerdan ko'tarib oldi-da, bag'riga bosib uyga jo'nadi.* (H. G'ul.) oraliq grammatik ma'no voqealanishi uchun

[Bajaruvchi +Fe'l$^{m.n.}$ + Ot$_{vos.}$$^{j.k.}$]

qurshovi talab etiladi. Bunda majhul nisbat oraliq grammatik ma'nosi uchun ikki kengaytiruvchiga zarurat seziladi. Ba'zan vosita kengaytiruvchisi norelevant a'zo bo'lib, oraliq grammatik ma'no uchun bir kengaytiruvchili qolip ham yetarli:

[Bajaruvchi + Fe'l$^{m.n.}$]

Misoldan ma'lum bo'ladiki, majhul nisbatdagi fe'l ifodalagan harakatda asos qurilma fe'li eslanmaydi. Harakat obyekt(*Karomat, odamlar)*ga passiv obyekt emas, balki nofaol foil sifatida qaraydi. Shuningdek, harakat biror tashqi kuch ta'sirida yuz bermayotganligi ham anglashib turadi. Agar bajaruvchi sifatida asos qurilmaning vositasiz to'ldiruvchisi namoyon bo'lsa, bunda «nofaol majhul» va «sof majhul» oraliq grammatik ma'nosi farqlanishi uchun kontekst talab qilinadi. Masalan, (ochilmoq) fe'li *eshik ochildi* va *eshik (biror kishi tomonidan) ochildi* birikuvida voqealansa, lisoniy qolip uning birida «nofaol-majhullik», ikkinchisida «faol majhullik» ma'nosi voqealanayotganligiga ishora qiladi.

Majhul nisbatning «shaxssizlik» oraliq grammatik ma'nosini o'timsiz faol fe'l farqlaydi va voqealantiradi: 1. *Bugun stadionga boriladi.*

Ma'lum bo'ladiki, majhul nisbatda fe'lning «majhulligi» farqli xususiyatga ega bo'lib, «sof majhullik» oraliq grammatik ma'nosida bajaruvchi tasavvur qilinadi (*quyuq-suyuq* (kimdir tomonidan) *tortildi*)). «Shaxssizlik» oraliq grammatik ma'nosida bajaruvchini tiklash imkoni yo'q (*Bugun* (masalan,

Salim tomonidan) *stadionga boriladi)*. Demak, fe'l «shaxssizlik» oraliq grammatik ma'nosini voqealantirganda qolip

[Fe'l$^{m\,n}$]

tarzida bo'lib, fe'l «foil» kengaytiruvchisiga ega bo'lishi va gapning egasi bo'lishi mumkin emas.

Birgalik nisbat. Birgalik nisbat shakli o'zlik nisbat bilan birga, o'z oraliq grammatik ma'nosining harakat bajaruvchisining faolligi asosida ekanligi bilan orttirma va majhul nisbatga zid turadi. Shuningdek, bu shakl oraliq grammatik ma'nosi voqealanishi uchun lug'aviy omildan ko'ra sintaktik omilning ustuvorligi ham uning o'ziga xos mohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Bunda shakl oraliq grammatik ma'nosi farqlanishi fe'lning ma'lum bir ma'noviy tipi bilan emas, balki shaklni nutqqa olib kiruvchi sintaktik qolip bilan bog'liq ravishda yuz beradi. Ayniqsa, bu birgalik nisbatda yorqinroq namoyon bo'ladi.

Tadqiqotchilar birgalik nisbat shakli umumiy grammatik ma'nosi oraliq grammatik ma'nosini turlicha belgilaydi.[1] Uning qarashini umumlashtirgan va undan kelib chiqqan holda shaklda ikkita oraliq grammatik ma'noni ajratishni ma'qul deb bilamiz:

a) «birgalik-yordamlashish» oraliq grammatik ma'nosi;

b) «birgalik-ko'plik» oraliq grammatik ma'nosi.

Ta'kidlanganidek, «birgalik-ko'plik» oraliq grammatik ma'nosi uchun fe'lning o'timli yoki o'timsizligi ahamiyatsiz.[2]

Demak, ma'lum bo'ladiki, lug'aviy omilning susayishi, albatta, farqlovchi sintaktik omilning kuchayishiga olib keladi. Mazkur oraliq grammatik ma'no farqlanishi uchun

[Bajaruvchi^{lar}+ Fe'l$^{b\,n}$+(Ot^{bilan})]

qurshovi zarur bo'lib, bunda qolipning (B^{lar}) a'zosi ko'plik shaklida yoki uyushgan bo'lak sifatida nutqiy voqelikka aylanadi. *1. Otni xirmon yaqinidagi kallak urilgan tutlarga bog'lashib, o'zlari xirmonga piyoda borishdi.*(M.Ism.)

Lisoniy sintaktik qolipning Ot^{bilan} a'zosi shaklning ushbu ma'nosi uchun norelevant unsur bo'lib, uning yuzaga chiqishi bajaruvchi subyektning harakati bir-biriga yo'nalgan holdagina ahamiyat kasb etadi. Bu oraliq lug'aviy ma'nosi bilan birgalik shakli kesimning ko'plik shakli bilan ma'nodoshlik kasb etadi. Qiyoslang:

[1] Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.: Фан, 1989, с. 98–100; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томли. 1- том / З.Маъруфов таҳрири остида. –М.: Рус тили, 1981, 453–455-б.

[2] Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.: Фан, 1989, с. 101.

Ular xirmonga piyoda borishdi.

Ular xirmonga piyoda bordilar.

«Faol yordamlashuvchi subyekt» oraliq grammatik ma'nosi uchun shakl fe'lning, asosan, o'timli nofleksiv va o'timli natijali guruhini tanlaydi. 1.*Bola dadasiga yer haydashdi, paxta ekishdi. 2. Qo'shnisiga chiqib deraza romlarini bo'yashdi.* Oraliq lug'aviy ma'noni voqealantiruvchi lisoniy qurshov

[Bajaruvchi + Fe'l$^{b.n.}$ + Ot$_{tadr.}^{j.k.}$]

ko'rinishida bo'lib, qurshovning Ot$_{tadr.}^{j.k.}$ a'zosi asosiy kengaytiruvchi. Qurshov yoki gap tarkibidan ushbu a'zo va uning hosilasi chiqarilsa, bu oraliq grammatik ma'no o'rnini «birgalik- ko'plik» oraliq grammatik ma'nosi egallaydi. Qiyoslang:

Bolalar dadasiga yer haydashdi.

Bolalar yer haydashdi.

Shuningdek, mazkur oraliq grammatik ma'no voqealanishi uchun foilning ham, asosan, birlik sonda bo'lishi muhim. Agar u ko'plikda bo'lsa, kesim ham shunga muvofiq bo'ladi.

(-gan) sifatdosh shakli. -gan shaklining ma'noviy va vazifaviy xususiyati favqulodda rang- barang bo'lib, shu boisdan uning talqinida qarama-qarshi nuqtayi nazarni ko'plab uchratish mumkin. Turkiyshunoslikda va o'zbek tilshunosligida bu shaklga doir juda ko'p ish amalga oshirilgan. Shuning uchun o'quvchi diqqatini uning talqini sharhiga doir muhim manbaga jalb qilish bilangina cheklanamiz[1] va hodisaning sifatdosh shakli sifatidagi umumiy grammatik ma'nosi hamda uning oraliq grammatik ma'no orqali voqealanishida sathlararo munosabatni oydinlashtirish masalasi bilan band bo'lamiz. Sifatdosh shakli **(-gan)** boshqa morfologik shakl qatori ma'noviy va sintaktik xossa birligidan iborat butunlik bo'lib, uning umumiy grammatik ma'nosi mana shu dialektik yaxlitlik asosida tiklanadi. Shaklning ma'noviy jihati «fe'lga sifatlik xususiyatini berish» bo'lsa, sintaktik vazifasini «fe'lni ot va ot vazifasidagi so'zga bog'lash» tashkil etadi. Demak, shakl umumiy grammatik ma'nosini «fe'lga sifatlik xususiyatini berish va fe'lni otga bog'lash» deya ta'riflash mumkin.[2] Sifatdosh shakli umumiy grammatik ma'nosining sintaktik tomoni deyarli o'zgarishsiz — «fe'lni otga bog'lash» tarzida xususiylashadi,

[1] Иванов С.Н. Очерки по синтаксису узбекского языка. –Л.: Изд-во Ленингр. ун-та, 1959. с. 4–10; Мухтаров Ж.З. История развития причастных форм в узбекском языке: автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. –Т., 1971; Шахназарова М.Д. Синтаксис причастия в узбекском языке. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. –Т., 1971; Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.: Фан, 1989.

[2] Менглиев Б.Р. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусияти ва синтактик имкониятлари: филол. фанлари номз. ... дисс. автореф. –Т., 1996, 76- б; Шахобиддинова Ш. Ўзбек тили морфологияси умумийлик ва хусусийлик диалектикаси талқинида. Махсус курс учун маърузалар. –Андижон: Нашриётсиз, 1994; Вейнрейх У.О семантической структуре языка // Новое в лингвистике. Вып. 5. –М., 1970.

bog‘lanuvchi fe’l yoki ot bu vazifani o‘ziga xos tarzda modifikatsiya qila olmaydi. Biroq ma’noviy jihat to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki muayyan oraliq grammatik ma’nosi orqali nutqqa chiqadi, xususiy holda namoyon bo‘ladi. Tadqiqotchilar shaklning fe’lni aniqlovchi sifatida nutqqa olib kirishga asos bo‘luvchi sintaktik imkoniyatida ikki xususiyat ko‘zga tashlanishini qayd etishadi.[1] U «tugallanganlik» va «holat» ma’nosi. «Qariyb barcha turkiy tillarda o‘tgan zamon sifatdoshi aniqlovchi pozitsiyasida tugallangan harakatni, shuningdek, «doimiy belgi» ma’nosini ifodalaydi.[2] Sifatdoshda harakatning «tugallanganlik» ma’nosi osongina «doimiy holat» xarakteriga ega bo‘lish ham mumkin.[3] «Tugallanganlik» ma’nosida shakl haqiqiy sifatiy xossaga ega bo‘ladi. Tugallangan harakat narsa-predmetning atributiv belgisiga aylantiriladi. «Holat» ma’nosi esa harakatning hali davom etayotganligiga ishora qiladi. Bunda fe’l garchi davomli zamon ko‘rsatkichiga ega bo‘lmasa-da, undan davomiylik, uzluksizlik uqilib turadi. Boshqacha aytganda, «tugallanganlik» ma’nosi ba’zi fe’l guruhida «harakatning natijasi» tushunchasi bilan bog‘lanadi (chegarali fe’l), boshqa guruh fe’li esa harakatning natijasiga befarq munosabatda bo‘ladi (chegarasiz fe’l).[4] Ma’lumki, chegarali fe’l biror chegaraga yetishni ifodalaydi va bo‘linmas, yaxlit harakatni aks ettiradi. Bu yevropa tili, xususan, rus tilidagi tugallangan vidga muvofiq keladi. Chegarasiz fe’l esa holat fe’lidek davomiylik mazmuniga ega bo‘ladi (*uxlamoq, yotmoq)*. Bu bo‘linish fe’lning dinamik tavsifi ham deyiladi.[5] S.N.Ivanov chegarali fe’l o‘zagidan anglashilgan harakat kesimdan anglashilgan harakatdan oldin, chegarasiz fe’lda esa u bilan bir vaqtda yuz berishni ta’kidlaydi.[6] (Bizningcha, tadqiqotchi bunda o‘tgan zamondagi kesimni nazarda tutgan – **B.M.**). Demak, **(-gan)** shakli oraliq grammatik ma’nosini farqlashda fe’lning o‘ziga xos guruhlanishiga tayaniladi. Aniqrog‘i, lug‘aviy omil chegarali va chegarasiz fe’l oraliq grammatik ma’noni farqlovchi omil bo‘lib xizmat qiladi. **(-gan)** shakli umumiy grammatik ma’nosining «tugallanganlik» oraliq grammatik ma’nosini chegarali fe’l yuzaga chiqaradi. S.N.Ivanov chegarali fe’lning quyidagi ko‘rinishini farqlaydi:

1. Harakat fe’lining ko‘pgina qismi: *Sinfdan **chiqqan** Xolmurod Ergashni quchoqlab dedi.* (P.Turs.)

[1] Иванов С.Н. Очерки по синтаксису узбекского языка. –Л.: Изд-во Ленингр. ун-та, 1959, с. 42; Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.: Фан, 1989, с. 39.
[2] Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.: Фан, 1989, с. 135.
[3] Иванов С.Н. Очерки по синтаксису узбекского языка. –Л.: Изд-во Ленингр. ун-та, 1959, с. 140–142.
[4] Иванов С.Н. Очерки по синтаксису узбекского языка. –Л.: Изд-во Ленингр. ун-та, 1959, с. 42.
[5] Лингвистический энциклопедический словарь /Гл. ред. В.Н. Ярцева. –М.: Сов. энциклопедия, 1990, с. 151).
[6] Иванов С.Н. Очерки по синтаксису узбекского языка. –Л.: Изд-во Ленингр. ун-та, 1959, с. 43.

2. O‘timli fe’lning ko‘pgina qismi: *Bu vaqtda qizning Qutbiyaga **bergan** bahosi mening nazarimda to‘g‘ri ko‘rindi.* (Ayn.)

3. Harakatning holatga o‘tishini ifodalovchi fe’l: *Cho‘lda **qolgan** odam qanday tirikchilik qiladi.* (P.Turs.)

4. Majhul nisbatdagi fe’l: *Xolmurod ikki kundan beri kasal bolalar uchun **ajratilgan** xonada yotar edi.* (P.Turs.)

Chegarasiz fe’l guruhi shaklning «holat-davomiylik» oraliq grammatik ma’nosini voqealantiradi. Olim bu fe’l sirasiga quyidagini kiritadi:

5. Uzluksiz harakat fe’li:1. *Shu vaqt u qizning **jovdiragan** ko‘zlarida baxtli, ulug‘, quvonchli tuyg‘uni ko‘rdi. 2. Xolmurod yulduzlar miltillagan bo‘z osmonga qaradi* (P. Turs.).

6. *-yot, -tur, o‘tir* fe’li: 1. *Mulla Burhon **yotgan** joyidan qo‘rg‘onning sharq tomonidagi pastqam eshigini ham ko‘ripti*(Ayn.). 2. *Nazmi qurilish uchastkasida **turgan** bir yigitni chaqirdi.* (A.Mux). 3. *Siddiqjonning yonida **o‘tirgan** kishi ho‘plagan choyini to‘kib yubordi* (A.Qah.).

7. *Yot, tur, o‘tir* so‘zli murakkab fe’l: 1.*Yigitcha uni loyi atala **bo‘lib yotgan** bir ko‘chaga boshlab ketdi* (P.Turs.). 2. *Uning **chaqnab turgan** ko‘zlari quyosh nurida yaltirab ko‘rindi* (Sh.Rash.). 3. *Uzun-uzun stollarda kimnidir **kutib o‘tirgan** bolalar gurunglashardi* (P.Turs.).

8. Mustaqil yoki ko‘makchi fe’l vazifasidagi *yur* so‘zi: *1. Qo‘shiqni Davronov Sibirda surgunda **yurgan** kezlarida rus mujigidan o‘rganib olgan edi* (P.Turs.).2. *Siz bu kungacha qo‘rqib **yurgan** kishilarning ishlari ishning boshlanishi edi* (Ayn.).[1]

Misoldan ayon bo‘ladiki, chegarasiz fe’l maqsadsiz harakatni ifodalaydi. Harakatga holat ma’nosini beradi. Bu esa uning faol bo‘lmagan harakat ekanligidan kelib chiqadi. Chegarali yoki chegarasiz fe’l **(-gan)** shakli oraliq grammatik ma’nosini farqlovchi bo‘lganligi kabi uning farqlanishida ham morfologik va sintaktik omilning o‘ziga xos o‘rni bor. Masalan, qaysi kelishik shaklidagi so‘z sifatdoshdan anglashilgan harakatni o‘z ustiga olganligiga qarab bu fe’l chegaraviylik yoki chegarasizlik ma’nosini anglatishi mumkin. Qiyoslang: 1. *U kiyimiga **o‘tirgan** ko‘mir to‘zonlarini tirnog‘i bilan chertib tozalay boshladi*(Ayn.). 2. *Udda qilolsangiz, so‘zga chiqing-da, - dedi oldingi burchakda **o‘tirgan** kimdir* (A.Q.).

Birinchi gapda «chegaraviylik» ma’nosiga ega bo‘lgan fe’l **(-gan)** shaklining «tugallanganlik» oraliq grammatik ma’nosini nutqqa kiritadi. «Chegaraviylik» esa *kiyim* so‘zining jo‘nalish kelishigi shaklida kelishiga

[1] Гиясов С.Т. Семантическая структура и компонентный анализ качественных прилагательных в узбекском языке: автореф. дисс. ... канд. филол наук. –Т., 1983, с. 44.

bog'liq. Ikkinchi gapda esa o'rin-payt kelishigidagi so'z (*burchakda*) fe'ldagi «chegarasizlik» ma'nosini yuzaga chiqargan. Natijada (**-gan**) shakli holat oraliq grammatik ma'nosini namoyon qiladi.

Ma'lum bo'ladiki, (**-gan**) shakli oraliq grammatik ma'nosini farqlash va voqealantirishda o'zak fe'lning qaysi guruh (chegaraviy fe'l, chegarasiz fe'l)dan ekanligi (lug'aviy omil) muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, sintaktik omil (fe'l – sifatdosh tomonidan boshqariluvchi so'zshakl) fe'lning «chegaraviy-lik», «chegarasizlik» xossasiga ta'sir qilishi bilan -gan shaklining oraliq grammatik ma'nosi voqealanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Shuningdek, (**-gan**) shakli sifatdoshining payt kengaytiruvchisi ham uning «tugallanganlik» oraliq grammatik ma'nosini farqlaydi. Shu bilan bir vaqtda chegarasiz fe'lni chegaraviy fe'lga yaqinlashtirib qo'yadi. Qiyoslang: *men* **sevgan** *qiz – men u yillari* **sevgan** *qiz*. Demak, sintaktik kengayish «holat» ma'nosini kuchsizlantiradi, buning hisobiga harakat ma'nosini kuchaytiradi. Bu esa lisoniy birliklar umumiy ma'nosini xususiylashtirish, oraliq ma'nosini farqlashda sathlararo munosabatning naqadar ahamiyatli ekanligiga ishora qiluvchi muhim dalil.

2- BO'LIM

GRAMMATIK KATEGORIYA VA GRAMMATIK MA'NO

1-§. Grammatik ma'no va uning tarkibi

Grammatik shaklning umumiy grammatik ma'nosi va uning tarkibiy qismi. Kategorial va nokategorial ma'no. Til hodisasini nazariy o'rganish bosqichi morfologik hodisaning cheksiz nutqiy ma'nosi zamiridagi lisoniy jihatini – umumiy grammatik ma'nosini tiklashni kun tartibiga qo'ydi. Chunki "o'zbek tilshunosligida grammatik ma'no, uning tabiati, mohiyati, umumiy va xususiy ma'no muammosi yaqin vaqtgacha maxsus qo'yilmagan edi."[1] Grammatik shakl umumiy grammatik ma'nosi muammosiga jahon tilshunosligida 30-yil, turkiyshunoslikda 60-yildan boshlab S.N.Ivanov, V.G.Guzev, H.G'.Ne'matov, A.Nurmonov, G'.N.Zikrillayev tadqiqotida alohida e'tibor qaratildi.[2] Zamonaviy o'zbek tilshunosligida esa Sh.Shahobiddinova, B.Mengliyev, B.Bahriddinova, O.Shukurov, M.Ernazarova tadqiqotlarida bu masala atroflicha tekshirildi va o'zbek tili barcha morfologik kategoriyasi lison–nutq bo'linishida teran tadqiq etildi[3] hamda "umumiy grammatik ma'no til birligining minglab turli xil matnda yuzaga chiqadigan va bevosita kuzatishda berilgan xususiy (nutqiy) grammatik ma'nosining umumiy yig'indisi bo'lmay, xususiy grammatik ma'no negizida yotgan, unga nisbatan dialektik umumiylik vazifasini o'taydigan ma'no"[4] sifatida qayd etildi. Bu borada amalga oshirilgan

[1] Шаҳобиддинова Ш. Грамматик маъно талқини ҳақида: филол. фан. номз.... дис. автореф. –Самарқанд, 1993. –Б. 3.

[2] Гузев В.Г., Насилов Д.М. Слово-изменительные категории в тюрских языках и понятие «грамматическая категория» // Советская тюркология. 1981. –№3. –С.23–35; Зикриллаев Ғ.Н. Феълнинг шахс, сон, ҳурмат категорияси системаси. –Т.: Фан, 1990; Иванов С.Н. Категория залога в причастии узбекского языка. В книге «Исследования по истории культуры народов Востока»// Сборник в чесь академика И.А. Орбели. –М.: Л., 1960. С. 123–134; Неъматов Ҳ.Ғ. Тажалли тасаввуф билиш назарияси ва тилшуносликда синтаксисни ўрганиш масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти, –1993. –№2. –Б. 27–30; Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Т.: Янги аср авлоди, 2001.

[3] Баҳриддинова Б.М. Феъл лугавий шакли тизими. Феълнинг тур категорияси: Филол. фан. номзоди.... дис. –Самарқанд, 2002; Менглиев Б. Р. Лисоний тизим яхлитлигида сатҳлараро муносабатлар: филол. фан. док.... дис. –Т., 2002. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Т.: Янги аср авлоди. 2001; Шаҳобиддинова Ш. Умумийлик ва хусусийлик диалектикаси ҳамда унинг ўзбек тили морфологиясида акс этиши: Филол. фан. док... дис. автореф. –Т., 2001; Шукуров О. Ҳаракат тарзи шакли парадигмаси: филол. фан. номз... дис. –Самарқанд, 2005. –126 б; Эрназарова М.С. Грамматик маъно лисоний ва прагматик омиллар яхлитлигида: филол. фан. докт... дис. – Самарқанд, 2018. – 218 б.

[4] Шаҳобиддинова Ш. Грамматик маъно талқини ҳақида: филол. фан. номз.... дис. автореф. –Самарқанд, 1993. Б. 21

ishni umumlashtirgan holda o‘zbek tili morfologik kategoriyasi umumiy grammatik ma’nosini (1-) jadvalda quyidagicha berish mumkin:[1]

1-jadval

kategoriya	Kategoriyaning ma’noviy xususiyati	Kategoriyaning sintaktik imkoniyati
1	2	3
Kelishik	Ma’noviy aniqlik/noaniqlik, sifat va predmet, manba, sabab, maqsad, payt, o‘rin, vosita, chegara va h.k.	Tobe so‘zni hokim so‘zga bog‘lash.
Egalik	Egalik, shaxs – son, tegishlilik va h.k.	Keyingi so‘zshaklning oldingi so‘zshaklga munosabatini ifodalash.
Son	Miqdor, miqdoriy aniqlik/noaniqlik, sifatiy bo‘linuvchanlik/bo‘linmaslik va h.k.	So‘zshaklga yangi valentlik berish
Daraja	Belgining nisbiyligini ifodalash	Mikromatn tarkibiy qismini bog‘lash, sintaktik qurilma ma’nosini o‘zida mujassamlashtirish.
Nisbat	Harakatning obyektga munosabatini, o‘timli/ o‘timsizligini, medial /nomedialligini ifodalash.	Fe’l valentligini o‘zgartirish, uning fe’liga munosabatini ifodalash.

[1] Менглиев Б.Р. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусияти ва синтактик имкониятлари.: филол. фан. номз... дисс. –Бухоро, 1995. -Б.70–71.

O‘zgalovchi	Fe’lga sifatlik, ravishlik va otlik xususiyatini berish.	Fe’lni ot/fe’lga, fe’lni fe’lga bog‘lash, fe’lga ot vazifasini berish.
Mayl – zamon	So‘zlovchining harakatga va harakatning nutq momentiga munosabatini ifodalash.	Gap kesimini shakllantirish, so‘zshaklga yangi valentlik berish, mikrotekst tarkibiy qismini bog‘lash.
Shaxs – son	Harakat bajaruvchisining shaxsi va sonini, aniqlik/ noaniqligini ifodalash.	Gapning ega va kesimi aloqasini ta’minlash.

O‘zbek tilshunosligida grammatik ma’no talqini bosqichlari va istiqbollari. Grammatik ma’no talqini o‘zbek tilshunosligi bilan tengdosh deyish mumkin. Shu boisdan uning o‘rganilish bosqichlari tilshunoslikning taraqqiyot bosqichlari bilan mos.

O‘zbek tilshunosligi zamonaviy fan sifatida o‘zining formal va substansial o‘rganish bosqichlarini bosib o‘tib, yangi – antroposentrizm bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Shuning uchun grammatik ma’no talqini bosqichlarini ham shu yo‘sinda davrlashtirish maqsadga muvofiq.

Har bir davrda talqin va tavsiflar davr talabi hamda ijtimoiy buyurtma sababli o‘ziga xos ahamiyat va xarakter kasb etadi. Maqsad va vazifalar, ularga erishish metodologiyasi, metodikasi va metodlari ijtimoiy buyurtma bilan hamohang kechadi.

Grammatik ma’noni o‘rganishning formal bosqichi. Grammatik ma’noni o‘rganishning formal bosqichi Fitrat tadqiqotlari bilan boshlanib, A.G‘ulomov ta’limotida o‘zining yuksak darajasiga ko‘tarildi.

Grammatik ma’noni o‘rganishning bu bosqichi tilshunoslik oldiga qo‘ygan vazifalar bilan bog‘liq. Bu davr tilshunosligi vazifalari haqida gap ketganda uning ikki muhim jihatiga to‘xtalish lozim bo‘ladi.

Birinchidan, o‘zbek tilshunosligi oldida sho‘ro mafkurasining asosiy maqsadidan kelib chiqadigan vazifalar ko‘ndalang bo‘lgan edi. Tillar unifikatsiyasi, yagona xalq, yagona til shakllanishi lozimligi, milliy tillarning bir-biriga singishib ketishi gipotezasiga muvofiq ravishda tillararo farqlardan ko‘ra o‘xshashliklarni bo‘rttirishga intilish lingvistik tadqiqotlarda tendensiya tusini oldi. Ayniqsa, bu tilning grammatik sathi talqinlarida yaqqol ko‘zga tashlandi. Morfologiyada so‘z turkumlari tasnifi, grammatik shakllarning

ajratilishi, leksemaga morfemaning bir ko'rinishi sifatida qarash, shakl yasalishi va so'z o'zgarishi kabi tushunchalarning joriy qilinishi, sintaksisdagi bosh bo'laklar tushunchasining milliy tilshunosliklarda bir xil e'tirof etilishi, shunga muvofiq ravishda, gap strukturasining baholanishi, sodda va qo'shma gaplardagi tillararo farqlarning e'tibordan soqit qilinishi kabilar shular jumlasidandir. Bu esa grammatik ma'no talqinlarida ham to'liq ifodasini topdi.

Ikkinchidan, o'zbek adabiy tili me'yorlarini ishlab chiqish va omma ongiga singdirish ijtimoiy buyurtmasi har bir grammatik hodisani aniqlash, ularning ma'noviy va sintaktik vazifalarini o'rganish, natijalarni ta'lim jarayoniga tatbiq qilish zaruratini kun tartibiga qo'ydi. Buning uchun so'zlarni turkumlarga ajratish, har bir turkumning morfologik xususiyatlarini va sintaktik vazifalarini belgilash, ularga xos grammatik shakllarning adabiy me'yorga mos shakllarini tanlash, shakllardagi fonetik variantlarni dialektal variantlardan farqlash, ularning qo'llanishidagi adabiy til me'yorlarini ishlab chiqish zarur edi. «O'zbek tilshunosligi tarixida ular shu jihatdan fahmiy usulda alohida-alohida ravishda atroflicha o'rganilib, boy daliliy ashyolar to'plandi. O'zbek tilshunoslari bu bosqichdagi vazifalarni sharaf bilan ado etishgani holda, navbatdagi bosqichda ular asosida, barcha til birliklari kabi morfologik shakllarni o'rganish borasida ham talay muammolarni hal qilish ehtiyojlari va imkoniyati vujudga keldi».[1]

Grammatik ma'noni o'rganishning substansial bosqichi. O'tgan asrning 70-yillariga kelib o'zbek tilshunosligining formal (empirik) bosqichi o'z nihoyasiga yetdi. Aytilganidek, bu davr tilshunosligi zimmasiga yuklatilgan ulkan vazifa – adabiy til me'yorlarini ishlab chiqish va omma ongiga singdirishdan iborat ijtimoiy buyurtmani uddalagan edi. Mazkur vazifalarni bajarish bilan birgalikda tilshunoslikning yangi bosqichi uchun kuchli poydevor, mustahkam zamin hozirlandi. Empirik asoslarda yig'ilgan boy lisoniy xazinani nazariy o'rganish metodologiyasi bo'lgan dialektik mantiq qonun va kategoriyalariga tayangan holda ilmiy tadqiq qilish uchun keng imkoniyatlar yuzaga kelgan edi. 1984 va 1986-yillarda bir guruh turkiyshunoslar tomonidan turkiy tillarning yangi davrdagi talqini va tadqiqi bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar markaziy matbuotda e'lon qilindi. Ularda ilgari surilgan g'oyalar va ular asosidagi maqsad-vazifalar o'zbek formal tilshunosligi vazifalarining mantiqiy davomi edi. Ko'tarilgan masalalarni shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin: 1) o'zbek tilshunosligi zimmasiga o'tgan asrning 40-yillarida yuklangan va 70-yillarida amalga oshirilgan vazifa – o'zbek tili sathlari birliklarining formal tahlil asosida

[1]Менглиев Б.Р. Тил яхлит система сифатида. – Тошкент: Ниҳол, 2010. – Б.115.

amalga oshirilgan talqini, rus adabiy tili me'yorlari asosida ishlab chiqilgan o'zbek adabiy tili me'yorlari, bu me'yorlarni ommalashtirish uchun turli ta'lim bosqichlari uchun yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalari, normativ grammatikalardagi empirik materiallar asosida nazariy bilimlarni shakllantirish, nutqiy xususiyliklar zamiridagi lisoniy umumiylikni, til hodisalariga asos bo'lgan lisoniy mohiyatni, nutqiy voqeliklarda namoyon bo'lgan lisoniy imkoniyatni ochish; 2) shu bilan birga, yuqorida qayd etilgan, qariyb yarim asr davomida sobiq sho'ro hududidagi turkiy, qolaversa, boshqa tillar kabi o'zbek tili ham rus va Yevropa tillari qoliplari asosida o'rganilib, tadqiq etib kelinganligi sababli uni o'zining turkona xususiyatidan kelib chiqqan holda ilmiy tekshirish.[1]

Bu vazifalar grammatik ma'no talqinida ham o'z ifodasini topdi. Grammatik ma'noni dialektik umumiylik va xususiylik kategoriyasi asosida o'rganishga kirishildi. O'zbek tilshunosligining substansial bosqichida morfologik shakllarning yangicha talqini shakllandi. Avvalo, grammatik ma'noda umumiy va xususiy tomonlarni alohida-alohida ajratib o'rganish asosiy vazifalardan biri sifatida qo'yildi. Bu muammo tilshunos H.Ne'matovning qadimgi turkiy yodgorliklar morfologiyasiga bag'ishlangan tadqiqotida kun tartibiga qo'yilgan[2], bir guruh tilshunoslar tomonidan belgilangan vazifalar matbuotda e'lon qilingan edi.[3] Masala qator tilshunos olimlarimiz tomonidan nomzodlik va doktorlik dissertatsiyasi sifatida himoya qilindi. Masalan, aynan grammatik ma'no lison va nutq bo'linishi nuqtayi nazaridan tilshunos Sh.Shahobiddinovaning nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek tilidagi son kategoriyasi, doktorlik dissertatsiyasida, umuman, grammatik kategoriyalar misolida tadqiq etildi.[4] Ayniqsa, tilshunos B.Mengliyevning doktorlik dissertatsiyasida grammatik ma'noning nutqiy voqealanishi lisoniy tizim yaxlitligi nuqtayi nazaridan tadqiq qilinishi uni o'rganishning yangi pragmatik tadqiqi bosqichi uchun zamin yaratdi.[5]

[1]Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqiyeva G. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili . – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – B.21.

[2]Нигматов Х.Г. Морфология восточно-тюркского языка XI – XII вв: Автореф. дисс... докт. филол. наук. – Баку, 1978.

[3]Нигматов Х.Г., Абдуллаев К.М. и др. Способы синтаксической связи и актуальные вопросы тюркского синтаксиса. Тезисы формально-функционального исследования // Сов. тюркология. 1988. №4. – С.103 – 106; Нигматов Х.Г., Абдуллаев К.М., Банару В.И., Махмудов Н.М., Мухамедова Д.А., Нурманов А. Структура предложения и актуальные вопросы синтаксиса тюркских языков. Тезиси формально-функционального исследования // Сов. тюркология. 1984. №5. – С.3 – 10.

[4]Шаҳобиддинова Ш.Ҳ. Грамматик маъно талқини хусусида: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Самарқанд, 1993. – 24 б; Шаҳобиддинова Ш.Ҳ. Умумийлик ва хусусийлик диалектикаси ҳамда унинг ўзбек тили морфологиясида акс этиши: Филол. фан. д-ри... дис. автореф. – Тошкент, 2001. – 50 б.

[5]Менглиев Б.Р. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар: Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2001. – 248 б.

Grammatik ma'noni o'rganishning antroposentrik bosqichi. O'zbek tili hodisalarini «nutq-lison» tamoyili asosida o'rganish natijasida qo'lga kiritilgan lisoniy umumiyliklarning nutqiy voqealanishi nafaqat sathlar hamkorligi nuqtayi nazaridan, balki nolisoniy omillar bilan birgalikda tadqiq qilish, ulardan shaxsning oqilona va samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish pragmatik lingvistikaning asosiy vazifalaridan biri ekanligi tilshunos M.Ernazarovaning[1] doktorlik dissertatsiyasida asoslangan hamda grammatik ma'noning voqelanish xususiyatlari lisoniy va nolisoniy(shaxsiy, pragmatik) unsurlar bilan uzviy aloqadorlikda o'rganilgan.

Bugungi kunda jahon pragmalingvistikasi uch yo'nalishda rivojlanmoqda.

Britaniya pragmalingvistikasi M.Hollideyning tilni funksional tahlil qilishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Uning tadqiqotlarida tilning ijtimoiy vazifasi, mundarijasi, rasmiy, yozma va og'zaki nutq tahlili kabilar o'z ifodasini topgan[2]. Tilshunoslar J.Sinkler va M.Kulthard ham kommunikatsiyaning antroposentrik tahlilini kengaytirdi. Britaniya antroposentrik tahlilida adabiy tilning o'ziga xos ko'rinishi bo'lgan badiiy nutq tahlil materiali sifatida olinadi.[3]

Amerika pragmalingvistikasi adabiy tilning jonli shakli – og'zaki nutqqa asosiy e'tibor qaratdi va etnomadaniy omillarga, tabiiy va jonli muloqotga asoslandi. Amerika pragmalingvistikasi asosini ko'proq jonli muloqot tahlili tashkil qiladi. Ularda lisoniy imkoniyat va uning nutqiy voqealanishi bir-biriga bog'lanmaydi, balki faqat muloqot birliklari bilan lisoniy shaxs va muloqot vaziyati yaxlitligi o'rganish obyekti sifatida olinadi. Goffman, Saks, Schegloff va Jeffersonning ishlari buning yorqin dalilidir. [4]

Ko'rinadiki, Britaniya va Amerikada pragmalingvistika asosan boshqa lisoniy hodisalar kabi grammatik ma'noda ham uning faqat nutqiy xususiyatlari bilan chegaralanib, uzoq yillar davomida strukturalistlar tomonidan o'rganilgan lisoniy grammatik ma'no tahlili xulosalariga e'tibor qaratmaydi. Umuman olganda, har ikki yo'nalish ham strukturalizm yutuqlaridan oziqlanmasligi bilan xarakterlanadi.

Praga pragmalingvistikasi mazkur yo'nalishlar orasida alohida o'rin tutib, xususan, bu maktab o'z an'anasiga muvofiq lison va nutq dixotomiyasi tamoyiliga grammatik ma'noning antroposentrik tahlilida ham to'la va qat'iy amal qiladi. Unda lisoniy birliklar, xususan, grammatik shakllar, grammatik

[1] Эрназарова М.С. Грамматик маъно лисоний ва прагматик омиллар яхлитлигида: филол. фан. докт... дис. – Самарканд, 2018. – 218 б.

[2]Halliday M.A. System and function in language. – London: Oxford Univ. Press, 1976. – P.14.

[3]Sinclair D., Coulthard M. Towards an Analysis of Discourse: The English Used by Teachers and Pupils. – London: Oxford Univ. Press, 1975. – P.183.

[4]Schegloff E.A., Jefferson G., Sacks H. The preference for self – correction in the organization of repair in conversation // Language. 1977. – P. 361 – 382.

ma'no lisoniy imkoniyat sifatida qaralib, bu imkoniyatdan nutqiy foydalanishda vaziyat va shaxs omili mushtarakligi izchilligiga alohida e'tibor qaratiladi.

O'zbek substansial tilshunosligi bugungi kunda grammatik ma'no tahlilida «nutq-lison» tamoyili asosidagi izlanishlar bosqichini muvaffaqiyatli bosib o'tib, o'z taraqqiyotining yangi, sifat bosqichi – «lison-nutq» tamoyili asosida tadqiqotlar olib borish ehtiyojini boshdan kechirmoqda. Lisoniy struktura – lisoniy birliklar va munosabatlar tadqiqi bo'yicha qo'lga kiritilgan ilmiy-nazariy xulosalarga tayanib, sinergetik tadqiq metodologiyasi asosida til birliklarini diskursiv tahlil qilish kun tartibidagi dolzarb vazifalardan biridir[1].

Demak, ma'lum bo'ladiki, davr o'zbek substansial pragmalingvistika sidan grammatik hodisalarni «umumiylik–xususiylik» tamoyili asosida diskursiv tahlil qilishni taqozo etmoqda.

Morfologik kategoriyadan har birining umumiy grammatik ma'nosi o'ziga xos, serqirra va bo'linuvchan bo'lib, bu bo'linuvchanlik va serqirralik grammatik shakl umumiy grammatik ma'nosining murakkab tabiatliligini ko'rsatadi. Grammatik shakl umumiy grammatik ma'nosining serqirraligi va kamida ikki qirraligi u ichki va tashqi munosabatining ham murakkabligiga bog'liq bo'ladi.

Grammatik shakl umumiy grammatik ma'nosi serqirraligi ular tabiatining qarama-qarshilikli, ziddiyatli ekanligini ko'rsatadi. Narsaning mohiyatini anglash esa ana shu "ziddiyatli, o'zaro inkor etuvchi, qarama-qarshi tendensiyani ochish (tan olish)ni taqozo etadi." [2]

Lisoniy hodisa serqirra ekan, u kamida ikki paradigmaga mansub bo'ladi. Til hodisasiga formal-funksional yondashuvning asosiy tamoyilidan biri ham, har bir lisoniy birlikning kamida ikki paradigmaga mansubligi.[3] "Lisoniy birlikning bir necha, kamida ikki paradigmada ishtirok eta olishi dialektika va tasavvufda narsaning (istagan tadqiq manbayining) serqirraligi bilan bog'liq. Ma'lumki, dialektikada narsaning, ya'ni lisoniy birlikning serqirraligi deganda, shu narsaning o'ziga o'xshash hamda noo'xshash, aloqador va aloqasiz cheksiz narsa bilan rang-barang munosabatga kirisha olishi va shular asosida ziddiyatli xususiyatga, tomonga ega ekanligi tushuniladi".[4]

Lisoniy birlikning serqirraligi uning bir paradigmaga kirishi boshqa paradigmatik belgining kuchsizlanishini keltirib chiqarishi bilan bog'liq.

[1]Эрназарова М.С. Грамматик маъно лисоний ва прагматик омиллар яхлитлигида: филол. фан. докт... дис. – Самарканд, 2018. – Б. 62.

[2] Иванов С.Н. Очерки по синтаксису узбекского языка. –Л.:ЛГУ, 1959. –С. 24.

[3] Курбонова М., Сайфуллаева Р., Бокиева Г., Менглиев Б. Ўзбек тилининг структурал синтаксиси. –Т., 2004. –Б. 8.

[4] Курбонова М., Сайфуллаева Р., Бокиева Г., Менглиев Б. Ўзбек тилининг структурал синтаксиси. –Т., 2004. –Б. 8.

Boshqacha aytganda, "lisoniy birlik bir necha paradigmaga kirar ekan, har bir paradigmaga faqat bir qirrasi bilan kiradi, boshqa qirrasi esa shaklni boshqa paradigmaga olib kiradi."[1] Umumiy grammatik ma'no, demak, ham u, ham bu paradigmaga kira oladi, uni bir paradigma bilan cheklab bo'lmaydi. Shu bilan birgalikda, bir vaqtning o'zida bir paradigmaga mansub bo'ladi. Grammatik shakl umumiy grammatik ma'nosining "bir shaklning ikkinchi shaklga munosabati, ya'ni bir qator ziddiyat asosida keltirib chiqarish uni behad jo'nlashtirish bo'ladi, holbuki, paradigmatik shakl(grammatik kategoriya)ning munosabati rang–barang."[2]

Chunki shaklning bevosita munosabati asosida uning mohiyati emas, balki qandaydir alohida qirrasi ochiladi.

Grammatik shakl o'zi mansub grammatik kategoriya umumiy grammatik ma'nosini juz'iylashtirish va qay darajada juz'iylashtirishi bilan umumiy grammatik ma'noga munosabatini bildiradi. Ma'lumki, grammatik kategoriya grammatik shaklning oddiy arifmetik yig'indisiga teng emas va ular orasida, odatda, tur-jins munosabati mavjud bo'ladi. Boshqacha aytganda, grammatik shakl grammatik kategoriya umumiy grammatik ma'nosini lisoniy sathda o'zicha juz'iylashtiradi hamda nutqiy sharoitga mos ravishda turli ko'rinishda muayyanlashtiradi. Agar kategoriya umumiy grammatik ma'nosi bilan uning alohida shakli nisbiy umumiy grammatik ma'nosi orasida nomuvofiqlik mavjud bo'lsa, har bir holat alohida tavsiflanishi lozim. [3]

Grammatik shakl grammatik kategoriya umumiy grammatik ma'nosini turlicha «parchalaydi" va bu "parcha"ga o'ziga xos hissasini qo'shadi. Masalan, o'zgalovchi kategoriyasi "fe'lni hokim so'zga bog'lash" umumiy grammatik ma'nosiga ega bo'lib, tadqiqotchilar uning har bir shakli (ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi) bu umumiy grammatik ma'noni o'ziga xususiylashtirishini (ravishdoshda fe'lni fe'lga bog'lash, sifatdoshda fe'lni otga bog'lash, harakat nomida fe'lga ot vazifasini berish) va unga nimadir "qo'shish" (ravishdosh fe'lga ravishlik xususiyatini berish, sifatdosh fe'lga sifatlik xususiyatini berish, harakat nomida fe'lni statiklashtirish)ni ta'kidlashadi. Bu shaklning ko'rinishi esa umumiy grammatik ma'nodan "uzoqlashib", undan o'ziga xoslik yanada kuchayadi. Bu, masalan, ravishdosh shaklida quyidagicha:

" -gach – boshqa bir harakatning boshlanish chegarasini ko'rsatish;
– guncha – boshqa bir harakatning tugallanish chegarasini ko'rsatish;

[1] Қурбонова М. М. Ҳозирги замон ўзбек тили. (Содда гап синтаксиси учун материаллар). –Т., 2002. –Б.10.
[2] Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.: Фан, 1989. –С.4.
[3] Менглиев Б.Р. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусияти ва синтактик имкониятлари.: филол. фан. номз... дисс. –Бухоро, 1995. –Б.64.

– ganda – boshqa bir harakatning sodir bo'lish fonini ifodalash;
– (i)b – holat, payt;
– a/y – davomlilik va takroriylik;
– gani – maqsad.

Bu shaklning barchasida ravishdoshga xos umumiy belgi – "fe'lni fe'lga bog'lash" saqlangan, biroq har biri o'zicha boshqa ma'noni ham ifodalaydi. "Barcha ravishdoshda ravishdoshning umumiy ma'nosi mavjud fe'lni fe'lga bog'laydi. Lekin bu umumiy grammatik ma'no birinchi–oltinchi formada parchalanmaydi, bo'linmaydi va birinchi– ikkinchi–uchinchi qatordagi shaklning o'zaro zidlanish kategoriya umumiy grammatik ma'nosi ko'rinishi asosida emas, balki payt, zamon, davomli–davomsizlik, sabab–maqsad kabi ushbu kategoriya umumiy grammatik ma'nosi (fe'lni–fe'lga bog'lash)ga xos bo'lmagan ma'no asosida tuziladi."[1] Ravishdoshlik nuqtayi nazaridan bu shaklning barchasi bir xil ma'noga ega. Bu shakl orasidagi zidlanish ravishdoshlik (fe'lni fe'lga bog'lash) emas, zamon, tarz, sabab, maqsad ma'nosi asosida. Shuning uchun u ravishdoshning turli zamon va tarz shakli emas, zamon va tarz kategoriyasining ravishdoshdagi ko'rinish sifatida qaralishi lozim. Demak, ma'lum bo'ladiki, grammatik shaklda bu shakl mansub kategoriyaga xos va boshqa kategoriyaga xos ma'no ham mavjud bo'ladi.

Xo'sh, bu mavjudlik shunchaki grammatik illyuziyami yoki uning asosida qandaydir lisoniy qonuniyat yotadimi?

Lisoniy birlik serqirra ekan, u asosiy belgilovchi xossasi bilan birgalikda unga yondosh ikkinchi darajali xossaga ham ega bo'ladiki, bu ikkala jihat dialektik butunlikni tashkil etadi.

"Grammatik shaklda kategorial (mohiyat) ma'no bilan birgalikda qator yo'ldosh ma'no ham mavjud bo'ladiki, bu ular mohiyatining kamida ikki qator ziddiyatda ochilishini ko'rsatadi."[2] Masalan, "son kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosi atalmishining miqdoriy va sifatiy tavsifini berishdan iborat. Bu umumiy kategorial ma'no [0] shaklda miqdoriy aniqlik–noaniqlik, sifatiy bo'linmaslikni, [-lar] shaklida "miqdoriy noaniq ko'plik va sifatiy bo'linuvchan hamda bo'linmaslikni ifodalash" kabi ixtisoslashgan ko'rinishga ega." [3]Kategoriyaning nomidan ma'lumki, u miqdor ifodalashga ixtisoslashgan morfologik haqiqat. Shuningdek, umumiy grammatik ma'nodagi "noaniq", "aniq", "sifat", "bo'linuvchan", "bo'linmas" kabi unsur bevosita uning

[1] Шаҳобиддинова Ш. Умумийлик ва хусусийлик диалектикаси ҳамда унинг ўзбек тили морфологиясида акс этиши: филол. фан. док... дис. автореф. –Т., 2001.
[2] Нигматов Х.Г.Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.: Фан,1989. –С. 5.
[1] Шаҳобиддинова Ш. Ўзбек тили морфологияси умумийлик-хусусийлик диалектикаси талқинида. I қисм. –Андижон, 1994. –Б. 21.

markazidagi (mohiyati hisoblanadigan) "miqdor" unsuriga bevosita daxldor emas. Biroq, "bevosita daxldor emaslik" uning mohiyatidan ayrichalik mustaqillik xossasi mavjudligini ko'rsatmaydi. Chunki, deylik, [-lar] shakli miqdorni (ya'ni ko'plikni) ifodalar ekan, u bir paytning o'zida o'z-o'zidan yuqorida zikr etilgan "sifatiy bo'linuvchanlik–bo'linmaslik", "noaniq" belgisini ham ifodalab yuboradi. Demak, shaklda miqdor belgisi har doim sifat belgisi bilan baqamti yashaydi, dialektik bog'lanishda turadi. Chunki, "ma'nodan birining kuchayishi boshqasining susayishiga, boshqasining kuchayishi birinchisining susayishiga olib keladi.[1] Masalan, *"Do'konda suvlar bor"* gapida *–lar* shakli miqdor ham, sifatiy belgi (bo'linuvchanlik, tur xil) ham ifodalamoqda. Biroq bunda sifatiy belgi (*har xil suv bor*) ustuvorlik kasb etib, miqdor belgisi kuchsizlanganligi sezilib turadi. Ma'lum bo'ladiki, grammatik shakl umumiy grammatik ma'no tarkibiy qismidan biri kategoriya umumiy grammatik ma'nosining mohiyatini juz'iylashtirish bo'lsa, boshqasi unga yondosh, mohiyat tarkibiga mansub bo'lmagan, biroq u bilan dialektik yaxlitlik kasb etgan ma'no. Shuning uchun grammatik shakl umumiy grammatik ma'nosi tahlilida sof kategorial (grammatik shakl mansub kategoriya mohiyatiga mansub) va unga yondosh hodisa farqlanishi lozim.

Ayrim tadqiqotda shaklning kategorial mohiyatiga yondosh hodisani nokategorial ma'no sifatida baholash holi uchraydi.[2] Bunda hodisaga bir yoqlama munosabat ko'zga tashlanadi. Chunki nokategorial ma'no sifatida qaralgan hodisa, aynan shu hodisa uchun nokategorial bo'lsa-da, uni mutlaq nokategorial deb baholab bo'lmaydi. Masalan, zamon shakli umumiy grammatik ma'nosi tarkibida umumiy grammatik ma'noning kategorial "mag'zi" bilan birgalikda, unga turli xil mayl ma'nosi yo'ldoshlik qiladi. Bu ma'no zamon ma'nosini ifodalovchi shakl uchun nokategorial bo'lsa-da, mayl ifodalovchisi uchun kategorial, ya'ni mayl shakli umumiy grammatik ma'nosining kategorial "mag'zi"ni tashkil etadi. Shu boisdan, umumiy grammatik ma'no tarkibidagi "nokategorial" ma'noni "yondosh ma'no" atamasi bilan berish haqiqatni ma'lum darajada yorqinroq ifodalaydi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, "kategorial ma'no" va "yondosh ma'no" atamasi ham biz tomondan shartli ravishda qo'llanadi. Chunki bir tomondan yondosh bo'lgan ma'no boshqa tomondan kategorial, bir tomondan kategorial hisoblanuvchi mohiyat boshqa umumiy grammatik ma'no tarkibida yondoshlik kasb etadi. Shuning uchun umumiy grammatik ma'no tarkibiy qismidan u yoki bu unsurni kategorial yoki

[1] Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.: Фан,1989. –С. 158.

[2] Шахобиддинова Ш. Умумийлик ва хусусийлик диалектикаси ҳамда унинг ўзбек тили морфологиясида акс этиши: филол. фан. док... дис. автореф. –Т., 2001. –Б. 5.

yondosh deb atash mutlaqo shartli bo'lib, bu grammatik shakl umumiy grammatik ma'nosining ikkilangan tabiatga egaligiga ishora qiladi.

Grammatik kategoriyada kategorial va yondosh ma'no sifatiy va miqdoriy o'ziga xoslikka ham ega. Ma'lumki, grammatik kategoriya tasnifida ham formal-funksional tahlil usulining "lisoniy birlikning serqirraligi" omiliga tayaniladi.

Sh.Shahobiddinova ushbu asosda grammatik kategoriya shaklining ma'noviy tarkibiga ko'ra tasnifini berar ekan, uni sodda va murakkab tipga ajratadi. Tadqiqotchi sodda kategoriya deganda "formasi o'zi mansub bo'lgan ma'lum bir kategoriya ma'nosini va unga hamroh bo'lgan yondosh ma'noni ifodalashga xizmat qilib, butun mohiyati bilan bitta kategoriyaga mansub bo'lgan" kategoriyani tan oladi va bu qatorga son, qiyoslash, kelishik, nisbat, subyektiv munosabat kategoriyasini kiritadi. Buni u shunday izohlaydi: "Soddalikni bu o'rinda dialektik tushunmoq lozim. Soddalik bu kategoriyani ichki dialektik qarama-qarshilikdan ozod etmaydi. Ammo bu qarama–qarshi tomon o'zaro bir-birini taqozo etadi, bir-biridan kelib chiqadi. Masalan, son kategoriyasining ma'nosi miqdoriy va sifatiy belgining ma'lum yig'indisidan iborat. Bu ikki ma'noni bir-biridan ajratish imkoni yo'q. Shuningdek, faqat sifatiy, faqat miqdoriy ma'no ifodalovchi boshqa mustaqil kategoriya ham mavjud emas."[1]

Bundan ma'lum bo'ladiki, olima grammatik shakldagi "nokategorial" ma'no sifatida boshqa grammatik kategoriyaga xos ma'nonigina ajratadi va yondosh ma'no bunday mansublikka ega bo'lmasa, unga "nokategorial ma'no" sifatida qaramaydi. Masalan, kelishik kategoriyasi "so'z birikmasidagi oldingi so'zni keyingi so'zga bog'lashi", nisbat kategoriyasining "fe'l anglatgan bajaruvchining tavsifini ifodalashi."[2]

Murakkab kategoriya sifatida esa bir shaklda turli grammatik kategoriyaga mansub kategoriya tushuniladi. Masalan, «Egalik kategoriyasida uch xil ma'no mujassamlangan:

1. Lisoniy va nolisoniy egalik munosabatini ifodalash (egalik kategoriyasi uchun nokategorial ma'no).
2. Shaxs ma'nosi (egalik kategoriyasi uchun nokategorial ma'no).
3. Son ma'nosi (egalik kategoriyasi uchun nokategorial ma'no)» deyiladi va ular sirasiga egalik, o'zgalovchi, kesimlik kategoriyasi kiritiladi."[3]

[1] Шахобиддинова Ш. Ўзбек тили морфологияси умумийлик-хусусийлик диалектикаси талқинида. I қисм. –Андижон, 1994. – Б. 23.

[2] Шахобиддинова Ш. Ўзбек тили морфологияси умумийлик-хусусийлик диалектикаси талқинида. I қисм. –Андижон, 1994. – Б. 23.

[3] Шахобиддинова Ш. Ўзбек тили морфологияси умумийлик-хусусийлик диалектикаси талқинида. I қисм. –Андижон, 1994. – Б. 21.

Demak, olimaning kategorial va nokategorial ma'noni farqlashida va ma'noviy tarkibiga ko'ra tasniflashida izchillik mavjud emas. Bu quyidagida ko'zga tashlanadi:

birinchidan, nokategorial ma'no aslida boshqa grammatik kategoriyaga mansub bo'lsa, ajratiladi;

ikkinchidan, agar grammatik shakl "nokategorial ma'no"ga ega bo'lsa, u mansub grammatik kategoriya murakkab grammatik kategoriya sifatida qaraladi;

uchinchidan, mohiyatini ko'rsatishda grammatik kategoriyaning zotiy tasnifidan kelib chiqilmaydi.

"Nokategorial ma'no" qat'iyatiga munosabatda yondosh ma'noning barchasi qaysidir kategoriyaga mansubligini ta'kidlaymiz. Faqat yondosh ma'no morfologik emas, boshqa, deylik leksik, sintaktik kategoriyaga mansub bo'ladi. Faqat kategoriyani umumiylik sifatida, tor–sathiy emas, balki keng–lisoniy mohiyatli mavjudlik sifatida qabul qilish lozim. Chunki "kategorial bo'lmagan ma'no mavjud emas."[1]

Ikkinchidan, grammatik kategoriyaning sodda- murakkabligini umumiy grammatik ma'no tabiatidan kelib chiqib belgilamoq lozim. uni "nokategorial" ma'no xos grammatik kategoriya mavjudligi asosida qidirish bir hodisani boshqa hodisa asosida belgilashdan o'zga narsa emas.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, grammatik kategoriya hamisha serqirra va uning umumiy grammatik ma'nosi ham murakkab tuzilishga ega. Faqat o'ziga xos ma'nodangina tashkil topgan kategoriya umumiy grammatik ma'nosi mavjud emas. Kategoriyada yondosh ma'no borligining o'ziyoq uni sof, sodda kategoriya deyishga yo'l qo'ymaydi. Demak, butun mohiyat e'tibori bilan faqat bitta kategoriyaga mansub kategoriya shakli yo'q ekan, grammatik kategoriyaning sodda-murakkabligini bu yo'l bilan belgilash lisoniy holatni obyektiv baholashga to'siq bo'ladi va unda sodda kategoriyaning o'zi bo'lmaydi.

Boshqa kategoriyaga nisbatan kesimlik kategoriyasini murakkab kategoriya sifatida qarash mumkin. Chunki u boshqa kategoriyadan farqli o'laroq uning tashkil etuvchisi mustaqil grammatik kategoriyadir: shaxs-son, zamon, mayl, tasdiq–inkor. Bu kategoriya o'zida nisbiy qarama-qarshilikni mujassamlashtiradi. Ya'ni bu kategoriyaning har biri kesimlik kategoriyasiga nisbatan shakl, kesimlikdan tashqarida alohida kategoriya. Boshqa kategoriyada esa bunday holat kuzatilmaydi.

[1] Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.: Фан, 1989. – С. 158.

Bu kategoriya murakkabligining yana bir jihati shundaki, sodda kategoriyada grammatik kategoriya va grammatik shakl orasida umumiylik – xususiylik dialektikasi hukmron bo'lsa, kesimlik kategoriyasi va uni tashkil etuvchisi orasida butun–bo'lak munosabati mavjud. Butun – bo'lak munosabati esa mantiqan murakkablikning asosi.

Xo'sh, kesimlik kategoriyasi murakkab kategoriya ekan, bu kategoriya umumiy grammatik ma'nosi tarkibi qanday va unda kategorial hamda yondosh hodisa qanday belgilanadi? Bu savolga javob berish uchun fikrni ayonroq bo'lgan leksik asosda dalillashga harakat qilamiz.

Ma'lumki, polisemantik leksema sememasi ikki xil munosabatda bo'ladi:

a) asos – aniq hosilaviylik;

b) asos – noaniq hosilaviylik.

[*qanot*] leksemasining "qushning ikki yonidagi uchish a'zosi" sememasi bosh, asos semema bo'lib, "samolyotning ikki yonidagi uchish moslamasi" sememasi asos sememadan chiqqan hosila semema.

[*olma*] leksemasidagi "daraxt" va "meva" tushunchasini ataydigan ikki sememadan qaysi biri asos va qaysisi hosila ekanligini aniqlashning imkoni yo'q. Shu boisdan bunday semema yondosh semema sifatida qaraladi.

O'zgalovchi kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosi tarkibidagi "fe'lni boshqa so'zga bog'lash va unga ravishlik, sifatlik va otlik xususiyatini berish", kesimlik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosi tarkibidagi shaxs-son, zamon, mayl va tasdiq-inkor kategoriyasi teng qiymatli mohiyatga ega bo'lib, kategoriyada uning birortasiga ustuvorlik berish mumkin emas. Chunki o'zgalovchi kategoriya morfologik kategoriya sirasida ham tasniflovchi, ham sintaktik kategoriya oralig'ida "oraliq uchinchi" maqomiga egaligi unda ikki xil mohiyatning mujassamlashganligi bilan belgilanadi.[1] Bunda umumiy grammatik ma'noning tarkibiy qism("fe'lni keyingi so'zga bog'lash" va "fe'lga ravishlik, sifatlik, otlik belgisini berish")ining biri ikkinchisi uchun, ikkinchisi birinchisi uchun yondosh, shu bilan birgalikda, o'z-o'ziga kategorial ma'no hisoblanadi.

Kesimlik murakkab kategoriya bo'lganligining o'zi ham undan birortasiga asosiylik maqomi berishga yo'l qo'ymaydi va uning har biri gap markazini shakllantirish umumiy grammatik ma'nosining turli qirrasini o'zida saqlaydi. Shu boisdan, murakkab kategoriyadagi har bir kategoriya yondosh kategoriya, har bir umumiy grammatik ma'no parchasi yondosh ma'no sifatida baholanishi lozim. Bu ma'no bir vaqtning o'zida kategorial ma'no ham. Masalan, *O'qiyapman* gapidagi "birinchi shaxs", "hozirgi zamon", "tasdiq", "aniqlik

[1] Бахриддинова Б. М. Феъл луғавий шакли тизими. Феълнинг тур категорияси: филол. фан. номзоди.... дис. –Самарқанд, 2002. –Б. 70–72.

mayli" ma'nosining har biri kesimlik kategoriyasi tarkibida yondosh ma'no bo'lib, o'zi bevosita tegishli bo'lgan kategoriya uchun esa nokategorial ma'no.

Demak, o'zbek tili grammatik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosi tarkibiy qismining o'zaro munosabati va tabiatiga ko'ra ikkiga bo'lish mumkin:

a) umumiy grammatik ma'nosi tarkibiy qismi o'zaro kategoriallik va yondoshlik tabiatiga ega bo'lgan kategoriya (kelishik, son, nisbat, mayl, zamon, bo'lishli-bo'lishsizlik);

b) umumiy grammatik ma'nosi tarkibiy qismi o'zaro yondoshlik tabiatiga ega bo'lgan kategoriya (o'zgalovchi, kesimlik).

Grammatik shakl umumiy grammatik ma'nosidagi yondosh ma'noni tasniflashda uning miqdori, qanday sath kategoriyasiga mansubligidan kelib chiqishi lozim bo'ladi: morfologik yondosh ma'no, leksik yondosh ma'no, sintaktik yondosh ma'no, uslubiy yondosh ma'no.

Kategorial ma'noning turi. Kategorial va yondosh ma'no munosabatidagi yana bir nisbiy holatni alohida ta'kidlash lozim.

Kategorial ma'no grammatik shaklda xususiylashgan grammatik kategoriyaning zotiy mohiyati bo'lib, yondosh ma'no qanchalik kuchaymasin va u qanchalik susaymasin, baribir kategorial mohiyatini to'la-to'kis yo'qotmaydi . Masalan, *-lar* shakli son kategoriyasining "miqdor" va "sifat" kategorial ma'nosining o'zida ayrim holda o'ziga xos tarzda juz'iylashtiriladi: *Tillarimga ko'cholmaydi bo'g'zimdagi ovozim.*(U.Azimov) *Dadamlar keldilar.* Gapning birinchisidagi son kategoriyasi shaklini olgan (tillarimga) so'z shaklida bu shakl ma'no kuchaytirish vazifasini bajargan bo'lsa, ikkinchi gapdagi (dadamlar) so'z shaklida "hurmat" ma'nosi ifodalangan. "Kuchaytirish" va "hurmat" ma'nosi ushbu holatda *-lar* zotiy tabiatiga muvofiq bo'lmagan nokategorial ma'no. *-lar* shaklining kategorial ma'nosi "ko'plik miqdori" bo'lib, bu vaziyatda u bevosita zohir bo'lmagan va nol darajaga tushgandek tasavvur uyg'otadi. Ammo kategorial ma'noning hatto ushbu holatda ham qandaydir saqlanib qolganligi haqidagi ilmiy dalilni Sh.Shahobiddinova fikridan uqamiz: «Bu hodisa (tillarimga) odatda [-lar] shaklining ma'no kuchaytiruv holati sifatida izohlanadi. Bunday xususiy grammatik ma'noning yuzaga chiqishiga [-lar]ning qanday xususiyati sabab bo'ladi? Ma'lumki, ko'p narsa hamisha ko'p yoki yakka narsaga nisbatan kuchliroq, ahamiyatliroq tuyuladi. Shu sababli kuchli e'tibor va ta'kid zarur bo'lgan holatda narsaning miqdorini ko'p qilib ko'rsatishga intilish kuzatiladi. Aslida bitta bo'lgan miqdoran ko'p sifatida

tasavvur qilinadi. Yuqoridagi misolda ham shunday holat ko'rinadi. Ya'ni til bitta. Biroq ma'no kuchaytirish maqsadida u ko'pday tasavvur qilinmoqda."[1]

Bu fikrni -lar shaklining "hurmat" ma'nosini ifodalagan holatiga ham dalil sifatida qo'llash mumkin bo'ladi.

Grammatik shaklning kategorial va yondosh ma'nosini chegaralashda grammatik kategoriyaning ma'lum bir so'z turkumiga yoki gap bo'lagiga xosligi yuzasidan tasnifi muhim ahamiyat kasb etadi.

Turkiyshunoslikda grammatik kategoriya tilshunos H.Ne'matov tomonidan turkiy til yodgorligi misolida ma'lum bir gap bo'lagiga xos, ya'ni gap bo'lagini, sintaktik qurilmada tobe yoki hokim uzvni shakllantiruvchi (kelishik, egalik, kesimlik) hamda ma'lum bir turkumgagina xos (son, nisbat, funksional shakl) kategoriya ajratildi. Bu esa jahon tilshunosligida grammatik shaklni leksik va sintaktik shaklga ajratish g'oyasining rivojlantirilgan ko'rinishi. O'zbek tilshunosligida bu g'oya dastlab unchalik ommaviylik kasb etmadi. Chunki o'zbek tilshunosligi boshqa tilshunoslik ta'siri ostida edi. «O'tgan davr mobaynida o'zbek tili morfologik ko'rsatkichining tasnifi yaratildi, ammo xulosa avvaliga arab, so'ngra rus tili grammatik me'yoriga asoslangan holda berib kelindi. O'zbek tilida morfologik qo'shimchaga nisbatan forma hosil qiluvchi deb qaralib, u ikkiga – so'z o'zgartiruvchi va shakl hosil qiluvchiga bo'linardi. So'z o'zgartiruvchi sifatida so'zni bir-biriga bog'lash vazifasini bajaruvchi egalik, kelishik va shaxs-son qo'shimchasi ajratilsa, shakl hosil qiluvchiga so'z ma'nosiga biroz ta'sir etadigan, ammo yangi ma'noli so'z hosil qilmaydigan deb ta'riflanadigan ko'rsatkich kiritilardi. Diqqat qilinsa, bu qo'shimchaning biri sintaktik vazifa bilan, ikkinchisi lug'aviy ma'no bilan bog'liq."[2]

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida ta'lim tizimida tub islohot boshlanib, 1999-yil 16-avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "UO'T DTSlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 390- qarori bilan 1999–2000-o'quv yilidan boshlab "Ona tili" kursi bo'yicha yangi, induktiv mazmunli dastur ta'lim tizimiga joriy etildi. Dastur asosida yaratilgan "Ona tili" darsligi avvalgi darslikdan tubdan farq qilib, ta'lim mazmunida ona (o'zbek) tilining ontologik qurilishini aks ettirish o'z ifodasiga ega bo'ldi. Yangilangan ona tili darsligida morfologik shaklni lug'aviy shakl hosil qiluvchi, sintaktik shakl hosil qiluvchi sifatida tasniflashda yaqqol ko'zga tashlanadi.

[1] Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Т.: Янги аср авлоди. 2001. –Б. 104.

[2] Баҳриддинова Б.М. Феъл луғавий шакли тизими. Феълнинг тур категорияси: филол. фан. номзоди.... дис. –Самарқанд, 2002. –Б. 3.

Ta'lim tizimidagi tub burilish tilshunoslik fani oldiga ham muayyan talabni qo'ydi. Xususan, o'zbek tilshunosligida ilk marta morfologik shakl yangicha tasnif asosida ilmiy tadqiq etildi.

B.Bahriddinova morfologik shaklning yangicha tasnifini berdi. Olima lug'aviy shakl hosil qiluvchi sirasigadagi son, fe'ldagi nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik, harakat tarzi, sifatdagi daraja, sintaktik shakl hosil qiluvchiga kelishik, egalik, kesimlik, lug'aviy sintaktik shakl hosil qiluvchiga o'zgalovchi kategoriyani kiritdi: "1. Lug'aviy shakl hosil qiluvchi – leksemaning lug'aviy ma'nosini nutq talabiga muvofiq ravishda modifikatsiyalaydi. 2. Sintaktik shakl – leksemani muayyan gap bo'lib kelishiga xoslaydi va sintaktik aloqaga kiritish vazifasini bajaradi. Lug'aviy sintaktik shakl leksemaning ham lug'aviy ma'nosiga ta'sir qiladi, ham uning sintaktik vazifasini belgilaydi. Lug'aviy-sintaktik shakl tom mohiyati bilan lug'aviy va sintaktik shakl oraliq uchinchi maqomiga ega bo'ladi."[1]

Ma'lum bo'ladiki, morfologik shaklning umumiy grammatik ma'nosida kategorial ma'no yo sintaktik, yo lug'aviy yoxud lug'aviy-sintaktik tabiatga ega bo'ladi.

1. Morfologik shakl hosil qiluvchi kategoriya son, nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik, harakat tarzi, daraja kategoriyasining umumiy grammatik ma'nosida kategorial ma'no lug'aviy asosga ega.

2. Sintaktik shakl hosil qiluvchi kelishik, egalik, kesimlik kategoriyasi shaklining kategorial ma'nosi sintaktik tabiatga ega.

3. Lug'aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi o'zgalovchi kategoriyasining kategorial ma'nosi lug'aviy–sintaktik tabiatga ega bo'ladi.

Quyida har grammatik kategoriya shaklining kategorial va yondosh ma'nosini alohida–alohida ko'rib o'tiladi.

Yondosh ma'noning turi. Grammatik kategoriya umumiy grammatik ma'nosidagi yondosh ma'no tabiati, asos va ildizi asosida farqlanadi. Aytilganidek, yondosh ma'no grammatik kategoriya umumiy grammatik ma'nosidagi boshqa hodisa tajallisi. Bu hodisa esa turli sathga mansub bo'ladi. Shu asosda yondosh ma'noni morfologik, leksik, sintaktik turga ajratish mumkin. Bu satharo aloqaning o'ziga xos yangi ko'rinishidir va u maxsus tadqiq qilinishi lozim.

Morfologik yondosh ma'no. Morfologik yondosh ma'no asosi boshqa bir morfologik kategoriya bo'ladi. Quyidagi gapda ajratilgan so'zdagi morfologik shaklda yondosh ma'no voqealanishiga diqqat qilamiz: 1. *Shu payt chorbog'dan*

[1] Баҳриддинова Б. М. Феъл луғавий шакли тизими. Феълнинг тур категорияси: филол. фан. номзоди... дис. автореф. -Самарқанд, 2002. -Б. 21.

echki yetaklab ***Dilbar kirib keldi.*** (S.Ahmad) *(etaklab – tarz-tus) 2. Muyassar* ***shosha-pisha*** *unga kechasi o'ylagan o'ylarini gapira boshlagan edi...*(O.Yoqubov)*(shosha-pisha – tarz – tus) 3. Gulsum opa Barnoni bir ko'ray deb buxgalteriyaga* ***kirdi.*** (O.Yoqubov) *(kirdi – mayl) 4. Qarol va mardikorlar tiz cho'kib, qo'llarini qovushtirib o'tirishdi. G'ira-shira tong yorishib* ***kelayotgan*** *edi.* (A.Qahhor) *(kelayotgan – tarz). 5. Bir kampir Elmurodga o'g'lining do'ppisi bilan ko'ylak va kamzulini* ***kiygizdi.*** *(*P.Turs.*) (kiygizdi – mayl).*

Gapdagi fe'l so'z shaklini kuzatamiz. Birinchi gapdagi *yetaklab* so'z shaklidagi *-b* ko'rsatkichi *-(i)b* invariant ravishdosh shaklining nutqiy ko'rinishi bo'lib, bunda o'zgalovchi kategoriya umumiy grammatik ma'nosiga mansub "fe'lni fe'lga bog'lash" zotiy mohiyatini fe'lga "ish harakat tarzini ifodalash" ma'nosini berish bilan birga voqealantirgan. "Harakat tarzi" ma'no bo'lakchasi fe'l harakat tarzi kategoriyasining o'zgalovchi kategoriyasi shaklida yuzaga chiqayotgan kategorial ma'no bilan yaxlitlik kasb etgan. 2-gapdagi *shosha-pisha* so'z shaklida ham "tarz" morfologik yondosh ma'nosi voqealangan. 3-gapdagi *kirdi* so'z shaklida "zamon" umumiy grammatik ma'nosi bilan birga ijro mayli ko'rinishi ham yuzaga chiqqan. Yoki, aksincha, mayl kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosi voqealanishi "o'tgan zamon" yondosh ma'nosi voqealanishini taqozo etgan. Ma'lumki, "o'tgan zamon davom fe'li" umumiy grammatik ma'no parchasi *"-yotgan edi"* shaklida omixtalashib, "davom" ma'no bo'lakchasi "zamon" umumiy grammatik ma'nosi ko'rinishi uchun yondosh ma'no. Bunda endi zamon va mayl kategoriyasidagi kabi munosabat kuzatiladi. Chunki "tarz" yondosh ma'nosi harakat tarzi kategoriyasidagina kategoriallik kasb etadi. Bunday morfologik yondosh ma'noga o'zgalovchi kategoriyasidagi modallik, xususan, uning harakat nomi shaklidagi bo'lishli-bo'lishsizlik, sifatdosh va harakat nomidagi zamon, kesimlikdagi barcha yondosh ma'noni jamlikdagi shaxs-son kabi yondosh ma'noni kiritish mumkin. Shu o'rinda bir hodisani alohida ta'kidlash lozim. Ma'lum bir morfologik shakl o'zi mansub kategoriya umumiy grammatik ma'nosining muayyan parchasini, ko'rinishini voqealantirishga xoslangan bo'ladi. Masalan, birgalik nisbat shakli nisbat kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosini "ish–harakat bajaruvchisining birgaligi" tarzida xususiylashtiradi. Biroq, shu bilan birgalikda, o'zida aniq nisbat uchun xoslangan "bajaruvchi aniqligi" ma'nosini ham yuzaga chiqaradi. Boshqacha aytganda, "birgalik" "aniqlik" bilan yaxlitlik kasb etadi. Biroq "birgalik" hamisha bu shaklda "aniqlik"ka nisbatan ustuvor va "birgalik" asosiy kategorial va "aniqlik" yondosh kategorial ma'no sifatida yuzaga chiqadi. Demak, bir kategoriyaning

turli shakli kategoriya umumiy grammatik ma'nosini o'ziga xos tarzda juz'iylashtirishga ixtisoslashgan bo'lib, bir vaqtning o'zida boshqa shakl uchun xos ma'noni ham ifodalashi mumkin. Buni shartli ravishda asosiy kategorial ma'no va yondosh kategorial ma'no deyish mumkin.

Leksik asosli yondosh ma'no. Leksik asosli yondosh ma'no leksik sath birligi ayrim leksema yoki leksema guruhiga xos umumiy kategorial (nokategorial) ma'noning morfologik shakl umumiy grammatik ma'nosidagi tajallisi. Masalan, nisbat kategoriyasi shaklidagi o'timli-o'timsizlik yondosh ma'nosi shunday hodisadan biri. O'timli-o'timsizlikning zotiy tabiati haqida ilmiy manbadan quyidagini bilish mumkin. Ma'lumki, fe'lda o'timli–o'timsizlik nisbat kategoriyasi bilan zich bog'langanligi, nisbat kategoriyasining o'timli-o'timsizlikka ta'siri, bu hodisaning dialektik birlikda mavjudligi deyarli barcha tilshunos tomonidan ta'kidlanadi. Lekin uni ayrimlar fe'l kategoriyasi, ba'zilar kategoriya emasligi haqida gapiradi. "O'timli-o'timsizlik haqida fikr bildirilgan ishning barchasida ham fe'lning o'timli-o'timsizlik ko'rsatkichga ega emasligi haqida gapiriladi. Morfologik ko'rsatkich yo'q ekan, grammatik ma'no haqida ham gapirish mumkin emas."[1] Haqiqatan ham, "o'timli-o'timsizlik tilda mustaqil kategoriya sifatida mavjud bo'lsa, uning, A.Hojiev ta'kidlaganidek , o'z rasmiy ko'rsatkichi bo'lishi lozim edi."[2] Ma'lumki, lisoniy tizimda fe'l leksema o'timli yoki o'timsiz holda mavjud bo'ladi: *bordi, o'qidi* kabi. Lekin o'timsiz fe'l ayrim ma'nosida o'timli (*zavodda ishlamoq – masalani ishlamoq*) bo'lishi mumkin. O'timli-o'timsizlik fe'l leksema semantik tabiatida mavjud bo'lib, nisbat ana shunga ta'sir qiladi, xolos. Shuningdek, "nisbat ko'rsatkichining vazifasi faqat o'timli fe'lni o'timsiz fe'lga, o'timsiz fe'lni o'timli fe'lga aylantiradi, deyish masalaga bir yoqlama yondashuv bo'ladi."[3] "O'timli-o'timsizlik, darhaqiqat, lug'aviy hodisa bo'lib, uning morfologik kategoriya emasligining ikki asosi bor:

a) o'timli-o'timsizlikni ifodalovchi, muntazam ziddiyat tizimiga ega shakl yo'q;

b) ayni bir so'z muntazam ravishda faqat o'timli-o'timsizligiga ko'ra farqlanuvchi hosila shaklga ega bo'lolmaydi."[4] Xullas, o'timli-o'timsizlik lug'aviy hodisa ekan, uning morfologiyadagi tajallisini nisbat kategoriyasi

[1] Ҳожиев А.П. Феъл. Мас. мух. Шарбдурахмонов Ш.Ш. –Т.: Фан,1973. –Б. 82.
[2] Аъламова М. Ўзбек тилидаги феълда нисбат категорияси. –Т.: Фан, 1992. –Б. 16.
[3] Аъламова М. Ўзбек тилидаги феълда нисбат категорияси. –Т.: Фан, 1992. –Б.17.
[4] Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Т.: Янги аср авлоди. 2001. -Б. 127.

umumiy grammatik ma'nosidagi leksik asosli yondosh ma'no sifatida baholash maqsadga muvofiq .[1]

Egalik kategoriyasidagi partitiv–qarashlilik, son kategoriyasidagi bo'linuvchanlik-bo'linmaslik, o'zgalovchi kategoriyasidagi ravishlik, sifatlik kabi yondosh ma'no ham leksik ildizga ega.

Sintaktik yondosh ma'no. Sintaktik yondosh ma'no grammatik shaklning zotiy mohiyati bilan birga kelib, so'z shaklining birikuvchanlik imkoniyatiga ta'sir ko'rsatadi. Orttirma nisbat shakli (*kiygizdi*) nisbat kategoriyasiga xos "ish-harakatning subyektga munosabati" umumiy grammatik ma'nosini "fe'l birikuvchanligini belgilash" yondosh ma'nosi bilan birgalikda yuzaga chiqargan. Fe'l valentligi fe'lga tobelanuvchini belgilab, bu hokim so'zning tobega munosabati. Hokimning tobega munosabati esa "keyingi so'zni oldingi so'zga bog'lash" kategorial mohiyati bilan uyg'un.

Egalik kategoriyasidagi uning zotiy mohiyatiga xos bo'lmagan "oldingi so'zni keyingi so'zga bog'lash" yondosh ma'nosi, nisbat kategoriyasining fe'l birikuvchanlik imkoniyatini o'zgartirish, kesimlik kategoriyasidagi shaxs-sonning kesimni ega bilan muvofiqlashtirishi kabi yondosh ma'no sintaktik zotiylikning morfologiyadagi tajallisi.

Qorishiq asosli yondosh ma'no. Ma'lumki, ayrim morfologik shakl yondosh ma'no sifatida modal ma'noni ham tashiydi. Masalan, egalik shaklidagi "sizlash", "sensirash", ko'plik shaklidagi "hurmat", "kesatish", "mensimaslik" kabi ma'no shular jumlasidan. Ma'lumki, modal ma'no ijtimoiy omil bilan zich bog'langan bo'lib, o'zbek tilida bu ma'noni ifodalovchi vosita turli sathga mansub birlik. Xususan, G'.Zikrillaev "hurmat" ma'nosini ifodalash uchun uch xil morfologik (-siz , -sizlar, -ngiz, -ngizlar, -laringiz, -(i)ng, -(i)nglar, -(i)ngiz, -(i)ngizlar), lug'aviy (siz, sizlar, o'zingiz, o'zlaringiz), sintaktik (Karim aka, Ahmad amaki, Haydar ota, hurmatli mehmon, muhtaram ustoz) usullar qo'llanishini aytadi.

Modal ma'no egalik shaklining ayrimi uchun yondosh ma'no. Masalan, "hurmat" modal ma'noli II shaxs ko'plik shakli uchun "sensirash" doimiy yondosh ma'no. Lekin III shaxs ko'plik, I shaxs ko'plik shakli uchun "hurmat" ifodalash muntazam emas.

Modal ma'no egalik kategoriyasining ayrim shakli uchun yondosh ma'no bo'lib, o'zining asos grammatik kategoriyasiga ega emas. Biroq, o'zbek tilida "hurmat" funksional-semantik maydoni borligini rad etib bo'lmaydi.

[1] Баскаков Н.А. Каракалпакский язык. –М.: Изд. Акад. наук СССР, 1952. Т. II., Ч. I.; Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.: Фан, 1989; Гузев В.Г., Насилов Д.М. Слово-изменительные категории в тюрских языках и понятие «грамматическая категория» // Советская тюркология, 1981. -№3. С. 23–35.

Demak, asosi muayyan bir grammatik kategoriya yoki ma'lum bir sathgagina xos bo'lmagan yondosh ma'noni qorishiq asosli yondosh ma'no sifatida baholash mumkin.

Hamroh ma'no. Nutq lisonga nisbatan behad boyligi, rang–barangligi va o'ta ziddiyatliligi bilan xarakterlanadi. Har bir nutqiy so'z shaklda grammatik shaklning umumiy grammatik ma'nosi bilan birgalikda u birikayotgan so'z, hamroh shakl, birikma hosil qilayotgan birlik hamda erkin birikuv qolipi, gap qurilishi, so'zlovchining o'z fikriga munosabati, nutq uslubi va vaziyati kabi qator omil qorishib, chirmashib shunday bir murakkablikni vujudga keltiradiki, bir qarashda shakldagi zotiy va tajalliy jihatni, qaysi hodisaning qanday mohiyatga tegishli ekanini aniqlash mushkul bo'lib qoladi. Tilga sistema sifatida yondashib, lisoniy va nutqiy jihatni izchil farqlayotgan tilshunoslar nutqning behad murakkabligi, lisonning esa o'ta soddaligini alohida uqtiradi. Fikrimizni "O'zbek tilining struktur sintaksisi" qo'llanmasidan olingan dalil bilan qiyoslaymiz. Ma'lumki, qaratqich kelishigi va egalik shakli bilan hosil qilingan so'z birikmasi – qaratuvchili birikmada turli xil munosabat anglashiladi. Qiyoslang:

2-jadval

So'z birikmasi	Ma'noviy munosabat
Salimning qalami	Ega – egalik qilinuvchi narsa
Odamning qo'li	Butun – qism
Ilmning tashabbuskori	Narsa – aloqador shaxs
Odamning yaxshisi	Tur – jins
Uyning tozaligi	Belgi egasi – belgi
Bolaning yig'lashi	Subyekt – uning harakati
Yashashning zavqi	Holat – uning natijasi
Urushning asorati	Jarayon – uning oqibati
E'tiborsizlikning illati	Sabab – natija

Tadqiqotchilar qaratqich kelishigi 50–60 tagacha ma'noga egaligini ta'kidlashadi.

Darhaqiqat, deylik, *stolning oyog'i* birikuvidagi butun va qism munosabati *-ning* va *-i* shakliga tegishlimi, yoki birikuv qismidan kelib chiqadimi, yoxud *stol* va *oyoq* so'zining zotiy mohiyatiga bog'liqmi degan savolga bir xil javob kutish qiyin. Masalan, *dadamlar* so'z shaklidagi "hurmat" ma'nosining ifodalovchisini bir qarashda aniqlab bo'lmaydi.

Nutqiy hodisada lisoniy imkoniyat qorishgan holda voqealanib, murakkab bir holatni vujudga keltiradiki, buni tadqiqotchilar biror bir matoning turli bo'yoq solingan idishga botirib olingan ko'rinishiga qiyoslashadi. Bunda

matoning asl rangini aniqlash qanchalik mushkul bo'lsa (lekin ilojsiz emas), nutqda voqealangan lisoniy birlikdagi asl mohiyatiga tegishli bo'lmagan voqealanish bilan zotiy xossasi ko'rinishini ajratish ham tadqiqotchidan mashaqqatli mehnat talab qiladi. Zero, dialektika uqtirganidek, har qanday alohidalikda turli umumiylikning xususiy ko'rinishi qorishgan holda namoyon bo'ladi hamda tegishli umumiylikning xos ko'rinishini to'sib qo'yadi va natijada kishi oddiy fahmiy usulda uni aniqlay olmaydi. Deylik, ko'z oldimizdagi stul ma'lum bir oddiy umumiylikka (aniqrog'i, stul umumiyligiga) xos alohidalik bo'lib, unda turli xil umumiylik (xom ashyo, yog'och, plasmassa, metall, bo'yoq, mato)ning alohidaligi birgalikda yuzaga chiqqan. Buning ta'siri o'laroq, stulning asl zoti voqealanishi, unga xos alohidalik to'sib qo'yilgan va bir qarashda uni aniqlab bo'lmaydi. Lisoniy umumiylikning nutqiy voqealanishida barcha–fonologik, leksik, morfologik, sintaktik, uslubiy va derivatsion omil o'z izini qoldiradi. Tilshunoshlar ta'kidlashganidek, har bir morfologik shakl nutqda xususiylik sifatida yuzaga chiqar ekan, uning asl ma'nosiga u birikayotgan so'z, hosil bo'lgan so'z shaklga bog'lanayotgan so'z, birikuv qolipi va uslubiy omili o'z ta'sirini o'kazmasdan qolmaydi. Quyidagi gapga diqqat qilaylik: 1. *Yo'lning ikki tomoniga cho'zilgan qir yonbag'irlarini endigina yorib chiqayotgan o'tlar qoplagan.* (P.Tursun) 2. *Seldan keyin g'o'zalarni o't bosgan, hashorat oralagan.* (H. Nazir) . 3.– *Bormadim. – Borgansan! (Bo'lmasa kechikmas eding).* Manbada "qo'llangan *–gan* zamon shakli "harakatning bajarilganligi va undan yuzaga kelgan holatning hozir ham mavjud ekanligi" ma'nosini, ikkinchi gapda qo'llangan zamon shakli "so'zlovchining o'zi kuzatmagan, keyin xabardor bo'lgan harakat", uchinchi gapda esa "harakatning aniq bajarilganligi" ma'nosini ifodalaganligi ta'kidlanadi.[1] Ma'lumki, adabiyotlarda zamon kategoriyasi «harakatning nutq momentiga munosabatini ifodalashi", "harakat bajarilish vaqtining nutq momentiga munosabatiga qarab, fe'lning uch zamoni farqlanishi: 1) nutq momentigacha bo'lgan harakat – o'tgan zamon; 2) nutq momentida bo'layotgan harakat – hozirgi zamon; 3) nutq momentidan keyin bo'ladigan harakat – kelasi zamon" ta'kidlanadi. Ko'rinadiki, bir shakl turli nutq sharoitiga xoslangan matnda zamon ma'nosidan tashqari "harakat natijasida yuzaga kelgan holatning mavjud ekanligi" (1- gapda), "so'zlovchining o'zi kuzatmagan, keyin xabardor bo'lganligi" (2-gapda), va "aniq bajarilganlik"(3-gapda). Ma'no komponenti ham mavjud bo'lib, u muayyan zamon ma'nosining turlanishi sifatida qaraladi. Zamon shaklining ushbu qo'llanishidagi mazkur "yo'ldosh" ma'noning yuzaga chiqishini shaklni

[1] Шоабдураҳмонов Ш., Аскарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1980. –Б. 354.

Demak, asosi muayyan bir grammatik kategoriya yoki ma'lum bir sathgagina xos bo'lmagan yondosh ma'noni qorishiq asosli yondosh ma'no sifatida baholash mumkin.

Hamroh ma'no. Nutq lisonga nisbatan behad boyligi, rang–barangligi va o'ta ziddiyatliligi bilan xarakterlanadi. Har bir nutqiy so'z shaklda grammatik shaklning umumiy grammatik ma'nosi bilan birgalikda u birikayotgan so'z, hamroh shakl, birikma hosil qilayotgan birlik hamda erkin birikuv qolipi, gap qurilishi, so'zlovchining o'z fikriga munosabati, nutq uslubi va vaziyati kabi qator omil qorishib, chirmashib shunday bir murakkablikni vujudga keltiradiki, bir qarashda shakldagi zotiy va tajalliy jihatni, qaysi hodisaning qanday mohiyatga tegishli ekanini aniqlash mushkul bo'lib qoladi. Tilga sistema sifatida yondashib, lisoniy va nutqiy jihatni izchil farqlayotgan tilshunoslar nutqning behad murakkabligi, lisonning esa o'ta soddaligini alohida uqtiradi. Fikrimizni "O'zbek tilining struktur sintaksisi" qo'llanmasidan olingan dalil bilan qiyoslaymiz. Ma'lumki, qaratqich kelishigi va egalik shakli bilan hosil qilingan so'z birikmasi – qaratuvchili birikmada turli xil munosabat anglashiladi. Qiyoslang:

2-jadval

So'z birikmasi	Ma'noviy munosabat
Salimning qalami	Ega – egalik qilinuvchi narsa
Odamning qo'li	Butun – qism
Ilmning tashabbuskori	Narsa – aloqador shaxs
Odamning yaxshisi	Tur – jins
Uyning tozaligi	Belgi egasi – belgi
Bolaning yig'lashi	Subyekt – uning harakati
Yashashning zavqi	Holat – uning natijasi
Urushning asorati	Jarayon – uning oqibati
E'tiborsizlikning illati	Sabab – natija

Tadqiqotchilar qaratqich kelishigi 50–60 tagacha ma'noga egaligini ta'kidlashadi.

Darhaqiqat, deylik, *stolning oyog'i* birikuvidagi butun va qism munosabati *-ning* va *-i* shakliga tegishlimi, yoki birikuv qismidan kelib chiqadimi, yoxud *stol* va *oyoq* so'zining zotiy mohiyatiga bog'liqmi degan savolga bir xil javob kutish qiyin. Masalan, *-dadamlar* so'z shaklidagi "hurmat" ma'nosining ifodalovchisini bir qarashda aniqlab bo'lmaydi.

Nutqiy hodisada lisoniy imkoniyat qorishgan holda voqealanib, murakkab bir holatni vujudga keltiradiki, buni tadqiqotchilar biror bir matoning turli bo'yoq solingan idishga botirib olingan ko'rinishiga qiyoslashadi. Bunda

matoning asl rangini aniqlash qanchalik mushkul bo'lsa (lekin ilojsiz emas), nutqda voqealangan lisoniy birlikdagi asl mohiyatiga tegishli bo'lmagan voqealanish bilan zotiy xossasi ko'rinishini ajratish ham tadqiqotchidan mashaqqatli mehnat talab qiladi. Zero, dialektika uqtirganidek, har qanday alohidalikda turli umumiylikning xususiy ko'rinishi qorishgan holda namoyon bo'ladi hamda tegishli umumiylikning xos ko'rinishini to'sib qo'yadi va natijada kishi oddiy fahmiy usulda uni aniqlay olmaydi. Deylik, ko'z oldimizdagi stul ma'lum bir oddiy umumiylikka (aniqrog'i, stul umumiyligiga) xos alohidalik bo'lib, unda turli xil umumiylik (xom ashyo, yog'och, plasmassa, metall, bo'yoq, mato)ning alohidaligi birgalikda yuzaga chiqqan. Buning ta'siri o'laroq, stulning asl zoti voqealanishi, unga xos alohidalik to'sib qo'yilgan va bir qarashda uni aniqlab bo'lmaydi. Lisoniy umumiylikning nutqiy voqealanishida barcha–fonologik, leksik, morfologik, sintaktik, uslubiy va derivatsion omil o'z izini qoldiradi. Tilshunoshlar ta'kidlashganidek, har bir morfologik shakl nutqda xususiylik sifatida yuzaga chiqar ekan, uning asl ma'nosiga u birikayotgan so'z, hosil bo'lgan so'z shaklga bog'lanayotgan so'z, birikuv qolipi va uslubiy omili o'z ta'sirini o'kazmasdan qolmaydi. Quyidagi gapga diqqat qilaylik: 1. *Yo'lning ikki tomoniga cho'zilgan qir yonbag'irlarini endigina yorib chiqayotgan o'tlar qoplagan.* (P.Tursun) 2. *Seldan keyin g'o'zalarni o't bosgan, hashorat oralagan.* (H. Nazir) . 3.– *Bormadim. – Borgansan! (Bo'lmasa kechikmas eding).* Manbada "qo'llangan *–gan* zamon shakli "harakatning bajarilganligi va undan yuzaga kelgan holatning hozir ham mavjud ekanligi" ma'nosini, ikkinchi gapda qo'llangan zamon shakli "so'zlovchining o'zi kuzatmagan, keyin xabardor bo'lgan harakat", uchinchi gapda esa "harakatning aniq bajarilganligi" ma'nosini ifodalaganligi ta'kidlanadi.[1] Ma'lumki, adabiyotlarda zamon kategoriyasi «harakatning nutq momentiga munosabatini ifodalashi", "harakat bajarilish vaqtining nutq momentiga munosabatiga qarab, fe'lning uch zamoni farqlanishi: 1) nutq momentigacha bo'lgan harakat – o'tgan zamon; 2) nutq momentida bo'layotgan harakat – hozirgi zamon; 3) nutq momentidan keyin bo'ladigan harakat – kelasi zamon" ta'kidlanadi. Ko'rinadiki, bir shakl turli nutq sharoitiga xoslangan matnda zamon ma'nosidan tashqari "harakat natijasida yuzaga kelgan holatning mavjud ekanligi" (1- gapda), "so'zlovchining o'zi kuzatmagan, keyin xabardor bo'lganligi" (2-gapda), va "aniq bajarilganlik"(3-gapda). Ma'no komponenti ham mavjud bo'lib, u muayyan zamon ma'nosining turlanishi sifatida qaraladi. Zamon shaklining ushbu qo'llanishidagi mazkur "yo'ldosh" ma'noning yuzaga chiqishini shaklni

[1] Шоабдураҳмонов Ш., Аскарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1980. –Б. 354.

almashtirish natijasidagi holatidan izlashga harakat qilamiz: *Yo'lning ikki tomoniga cho'zilgan qir yonbag'irlarini endigina yorib chiqayotgan o'tlar qoplagan, qoplaydi, qoplayapti.* Bu matnda ham «harakat natijasida yuzaga kelgan holatning mavjudligi» (*qopladi*), "ushbu holatning mavjud bo'lishi (kelajakda)" (*qoplaydi*) kuzatiladi. Demak, shakl almashtirilganda ham zikr etilgan ma'no bo'lagi saqlanib qolaveradi. *Qoplamoq* fe'lining o'rniga *o'smoq, chiqmoq* fe'li qo'llanganda ham «natijalilik» saqlanib qolaveradi. Ammo *borgan, kelgan, o'tgan* so'z shaklida *-gan* shakli «yuzaga kelgan holatning mavjudligi" ma'nosini voqealantirmaydi. Demak, yo *-gan* shakli umumiy grammatik ma'nosi tarkibida mavjud "harakat natijasida yuzaga kelgan holatning hozir ham mavjudligi" ma'no komponenti ma'lum bir so'z bilan birikkanda voqealanib, boshqa so'z tarkibida yuzaga chiqmaydi, yoki bu ma'no ba'zi leksema semik tarkibida mavjud bo'lib, boshqasi bunga ega emas. S.N.Ivanov o'zining o'zbek tilidagi *-gan* shakliga bag'ishlangan tadqiqotida fe'lni tasniflar ekan, *-gan* shaklini olgan barcha fe'l «mutlaq yoki nisbiy tugallanganlik» hamda «holat» (bizningcha, harakat natijasi) xarakteriga ega bo'lishini ta'kidlaydi. Boshqacha aytganda, "tugallanganlik" ma'nosi ba'zi fe'l guruhida "harakatning natijasi" tushunchasi bilan bog'lanadi (chegarali fe'l), boshqa guruh fe'l esa harakatning natijasiga befarq munosabatda bo'ladi (chegarasiz fe'l).[1] Chegarasiz fe'l «holat–davomiylik" ma'nosiga ega bo'lib, u uzluksiz harakatni ifodalaydi: " *Xolmurod yulduzlar miltillagan osmonga qaradi."* (P. Turs.)[2]


Ko'rinadiki, yuqorida tahlilga tortilgan *qoplamoq* fe'li ham chegarasiz fe'l bo'lganligi bois *-gan* ko'rsatkichi bilan shakllangan bu ko'rsatkich ma'nosiga uning ma'noviy tarkibidagi "harakatning davomiyligi" ma'nosi qorishib, shakl umumiy grammatik ma'nosi tajallisini qorishtirgan va zamon ma'nosi boshqa hodisa yordamida turlangan. Demak, *-gan* shakli "so'zlovchi bevosita kuzatmagan o'tgan zamon" ma'nosiga ega bo'lib, zamon ma'nosi ottenkasida boshqa tajalli nokategorial, zamon kategorial ma'nosi ustida qavatlanuvchi "begona" ma'no sanaladi. *-gan* shakli *-di* shakli kabi kesim vazifasida kelgan holda *kecha, o'tgan yili* kabi so'zni *-gan* kengaytiruvchisi sifatida qabul qiladi. Biroq *-di* shakli fe'l kesim *hozir* so'zini hol sifatida qabul qilgani holda, *-gan* shaklli fe'l bunday xususiyatga ega emas. Qiyoslang:

1. *Hozir keldi /o'qidi / yozdi.*
2. *Hozir kelgan /o'qigan / yozgan.*

[1] Иванов С.Н. Очерки по синтаксису узбекского языка. –Л.: ЛГУ, 1959. –С.42.
[2] Менглиев Б. Р. Лисоний тизим яхлитлигида сатхлараро муносабатлар: филол. фан. док.... дис. –Т., 2002. Б. 200.

Ko'rinadiki, ikkinchi birikuv g'ayri me'yoriy. Bu esa *-gan* shaklining yaqin o'tgan zamon ma'nosini ifodalay olmasligiga bog'liq bo'lib, bunga ko'ra mazkur shakl noto'liq ziddiyatda turadi va bunda ziddiyat belgisi "uzoq o'tgan zamonni ifodalagan" bo'ladi.

Uzoq o'tgan zamon



+	O
-gan	-di

Ziddiyatda *- di* shakli mo'tadil belgili a'zo sanaladi. Bunda esa *-gan* shakli "o'tgan zamon" umumiy grammatik ma'nosini "uzoq o'tgan zamon" tarzida xususiylashtirishi kelib chiqadi va bu ma'no kategorial, ya'ni zamon umumiy grammatik ma'nosi tajallisi. Shuningdek, adabiyotda *-(i)b* affiksli ravishdoshni shaxs-son bilan tuslash orqali ham:

a) o'zgadan eshitib bilganlik;

b) keyin xabardor bo'lganlik

ma'nosi ifodalanishi ta'kidlanadi[1] va bunga "1)*Eshitishimga qaraganda, Qo'chqor qaytib kelmabdi. 2) Tosh yelkasiga tushibdi."* misoli keltiriladi. Birinchi gapdagi "*eshitishimga qaraganda*" qismi olib tashlansa, har ikkala gapdan ham "harakatning bajarilgandan keyin xabardor bo'lganlik" ma'nosi O'qiladi. Demak, mazkur shaklga xos birinchi ma'nodagi "o'zgadan eshitib bilganlik" bo'lakchasi bog'lanayotgan *eshitishimga qaraganda* so'z shakli ta'sirida vujudga kelgan zamon umumiy grammatik ma'nosiga xos bo'lmagan nokategorial ma'no o'zga (ya'ni sintaktik) hodisa tajallisi. Ma'lum bo'ladiki, nutqiy parchadagi zotiy va tajalliy jihatni ajratish tamoyili asosida ish yuritish grammatik shakldagi kategorial va nokategorial ma'noni farqlash, nutqdagi qorishiq tajalli ta'sirida tug'iladigan aldamchi tasavvurdan uzilish imkonini beradi. Demak, grammatik shakl o'zi umumiy grammatik ma'nosiga mansub kategorial va yondosh ma'nodan tashqari ikki xil tajallini nutqda voqealantiradi: 1) birga qo'llanayotgan birlikning ta'sirida hosil bo'layotgan ma'no; 2) o'ziga xos bo'lmagan, ammo birga qo'llanayotgan yo'ldosh birlikning ta'sirida ham vujudga kelmagan ma'no. Biz bu ma'noni *hamroh ma'no* atamasi bilan nomlashni ma'qul ko'rdik. Tilshunoslikda hamroh ma'no atamasi qo'llangan bo'lib, u ko'p holda grammatik kategoriyaning "nokategorial" ma'nosi atamasiga muqobil ravishda ishlatilgan.[2] Hamroh ma'no, avvalo, nutqiy tajalli bo'lib, empirik yondashuvda u o'ziga xos bo'lmagan shaklga xos qilib qo'yilgan. Shu boisdan, bu bosqichda grammatik shaklning ma'nosi behad

[1] Ҳозирги ўзбек адабий тили: Дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1980. –Б. 254.
[2] Нурмонов А. Гап хакида синтактик назариялар. –Т.: Фан, 1982. –Б. 146.

"ko'paytirib" yuborilgan. Bir qarashda ma'lum bir shaklga xos tuyulgan, aslida boshqa mohiyatga mansub bo'lgan bunday nutqiy tajalli grammatik illyuziya (aldash)ni vujudga keltiradi. Demak, grammatik shaklda ikki xil o'zga hodisa tajallisi farqlanadi: a) lisoniy tajalli ma'no; b) nutqiy tajalli ma'no.

Lisoniy tajalli ma'no grammatik shakl umumiy grammatik ma'nosidagi yondosh ma'no bo'lib, u kategorial ma'no bilan dialektik yaxlitlik kasb etadi. Bu tajallisiz grammatik shakl umumiy grammatik ma'nosidagi kategorial ma'noni voqealantira olmaydi, nutqiy tajalli sifatidagi hamroh ma'no esa grammatik shakl umumiy grammatik ma'nosiga daxldor bo'lmay, sof nutqiy hodisa. Hamroh ma'no kategorial ma'no bilan dialektik bog'lanmagan va uning nutqqa chiqishi umumiy grammatik ma'no tomonidan belgilanmagan. U yuzaga chiqishi ham, chiqmasligi ham mumkin.

Yondosh va hamroh ma'no munosabatini quyidagicha berish mumkin:

lisoniy – nutqiy

barqaror – o'tkinchi

Umumiy grammatik ma'noga daxldor – umumiy grammatik ma'noga daxlsiz

ijtimoiy – individual

Bir shakl uchun yondosh bo'lgan ma'no turli boshqa hodisa uchun hamroh, bir shakl uchun hamroh bo'lgan ma'no boshqasi uchun yondosh ma'no sifatida yuzaga chiqishi mumkin. Masalan, "hurmat" ma'nosi II shaxs ko'plik egalik shakli uchun, «sensirash» ma'nosi esa II shaxs birlik shakli uchun yondosh ma'no bo'lsa, "hurmat" ma'nosi son kategoriyasining *-lar* shakli, egalik kategoriyasining III shaxs ko'plik shakli uchun hamroh ma'no hisoblanadi. Yondosh ma'no nisbatan hamroh ma'no, nutqiy tajalli bo'lganligi tufayli, behad rang-baranglik va ziddiyatlilik bilan ajralib turadi.

Hamroh ma'no ham yondosh ma'no kabi o'z ildizi va asosiga ko'ra farqlanadi. Chunki u ham, aytilganidek, grammatik shakl uchun o'zga hodisa tajallisi. O'zga hodisa esa, ma'lumki, shakl umumiy grammatik ma'nosiga xos bo'lgan har qanday lisoniy, qolaversa, nolisoniy mavjudlik. Hamroh ma'noni, yondosh ma'noda bo'lgani kabi, morfologik, lug'aviy, sintaktik, uslubiy hamda qorishiq asosli turga ajratishni ma'qul ko'rdik. Biz grammatik shakldagi nutqiy tajalli ma'no ikki xil bo'lib, birinchisi grammatik shaklda ifodalanayotgandek tuyuluvchi, aslida yondosh birlikka xos ma'noni grammatik illyuziya sanab, uni tadqiq manbayimizdan chetda qoldirganimizni, tahlilga faqat ikkinchi tur, ya'ni biz tekshirayotgan grammatik shakl ma'lum bir nutq sharoiti va vaziyatidagina ifodalashni o'z zimmasiga olgan ma'noni topganimizni yana bir bor ta'kidlashni o'rinli deb bilamiz.

Morfologik hamroh ma'no. Morfologik hamroh ma'no orasida yana farqlovchi chiziq o'tkazish mumkin. grammatik shakldagi ayrim hamroh ma'no morfologik kategoriya doirasida bo'lsa, ayrimi grammatik shakl mansub grammatik kategoriyaga xos bo'ladi. Bu ma'no grammatik shakl umumiy grammatik ma'nosiga mansub bo'lsa-da, lekin u buni ifodalashga xoslanmagan bo'ladi, nutq vaziyatidan kelib chiqib, ba'zan bu mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi mumkin. Qiyoslang: 1. *Aqllari bormi? – ukasiga istehzoli kuldi Salim.* 2. *U kishining fikrlari bizga ma'qul* Birinchi gapda *aqllari* so'z shaklidagi *-lari* egalik shakli "kesatish" ma'nosi ham (aslida *aqling*), shuningdek, shakldan II shaxs, birlik ma'nosi ham anglashilmoqda. Kesatish, umuman, egalik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosiga daxldor emas. Lekin "II shaxs birlik" ma'nosi kategoriyaning *-(i)ng* shakliga xos kategorial ma'no bo'lib, *-lari* shakli bu ma'noni ifodalash uchun xoslanganlik va unga vaqtincha "yopishgan" tajalli hisoblanadi. Uning bunday xususiyatga egaligi ushbu "noqulay" ifodalovchi bilan nutqqa chiqishi uchun zarur nutqiy sharoit, bog'liq qurshov talab qilayotganligi bilan ham belgilanadi. Zero, gapdan "ukasiga istehzoli kuldi Salim" muallif gapi olib tashlansa, *-lari* shaklidan anglashilayotgan ushbu hamroh ma'no o'qilmay qoladi. Son kategoriyasi ko'plik shakli *-lar* uchun "birlik", nisbat kategoriyasi aniq nisbat shakli uchun "o'zlik", mayl kategoriyasi buyruq-istak mayli *-sin* shakli uchun "shart" va hokazo ma'nodan sanaladi. Son kategoriyasi O shakli orqali ifodalanadigan "birgalik" (nisbat umumiy kategoriyasi O shakli orqali ifodalanadigan tarz-tus (harakat tarzi), grammatik ma'nosiga xos) o'zgalovchi kategoriyasidagi tarz-tus (harakat tarzi), grammatik ma'nosiga xos) o'zgalovchi kategoriyasidagi tasdiq-inkor (kesimlik kategoriyasi), zamon (zamon kategoriyasi), zamondagi istak, shart ma'nosi umuman boshqa morfologik kategoriyaga xos hamroh ma'no hisoblanadi.

Leksik hamroh ma'no. Leksik hamroh ma'noning ildizini leksik sathdan qidirish lozim. Leksik hamroh ma'noni ma'lum bir muayyan leksik sememasining grammatik ma'no sifatida juz'iylashuvi sifatida qarash ma'qul emas. U ma'lum bir leksik guruhga, so'z turkumi umumiy ma'nosiga xos nutqiy tajalli hisoblanadi. Son kategoriyasining *-lar* ko'plik shakli ayrim holda predmetning noaniq ko'pligini ifodalash bilan birgalikda uning xilma–xilligi, turli–tumanligi ma'nosini ham ifodalaydi. Masalan: 1. *Ota–ona, oshna–og'aynilarni sog'inib, yurak-bag'rimiz qon ezilib yuraveraylik.* (J.Abdullaxonov). 2. *– Hammasi bo'ladi, – dedi u o'ziga, – bog'lar ham, gullar ham, to'y –tomoshalar ham. (J.Abdullaxonov)* "Bu yerda *oshna – og'aynilar* – "ko'p va har xil" oshna-og'ayni, *to'y-u – tomoshalar* – "ko'p va har xil" to'y–tomosha. O'zbek tilida bu ma'no har xil birlikdan *turli, turli-tuman, xilma-xil, rang-barang, turfa* kabi leksik birlikdan iborat lug'aviy-ma'noviy

guruhning umumiy arxisemasi. Shu boisdan, *-lar* ko'plik shaklidagi mazkur hamroh ma'noni leksik mohiyatning son kategoriyasi voqealanishidagi tajallisi deyishga asos yetarli.

Qorishiq asosli hamroh ma'no. Qorishiq asosli hamroh ma'noning ildizini bir sathdan qidirib bo'lmaydi. Masalan, son–kategoriyasidagi aniqlik, shaxs, taxmin, hurmat, nisbat shaklidagi o'xshatish, mayl kategoriyasidagi istak kabi ma'no bir sathgagina mansub asosga ega bo'lmasdan, uni barcha sathda o'z birligi mavjud funksional-semantik maydondan izlash lozim bo'ladi.

Kelishik kategoriyasi shaklidagi sabab, maqsad, qiyos, belgi, tenglik, son kategoriyasi shakliga xos juftlik, qurshov, nisbat shaklidagi galma-gal bajarish, o'rin-joy almashtirish ma'nosi ana shu ma'no sirasiga mansub.

Umumiy omilning ta'siri natijasida shaklda "kuchaytiruv" (-lar ko'plik son shakli) "kesatiq" (egalik kategoriyasi I, II, III shaxs ko'plik shakl) mayl kategoriyasidagi turli xil uslubiy ma'no vujudga keladi.

2-§. Grammatik kategoriya tasnifi

Grammatik kategoriya va grammatik shakl masalasi har doim grammatikaning dolzarb va muammoli masalasi bo'lib kelgan. «kategoriya» asli falsafiy termin bo'lib, manbalarda «...obyektiv borliq va bilishdagi mohiyatan ko'proq qonuniy aloqa va munosabatni aks ettiruvchi umumiy tushuncha» deb izohlanadi. Falsafada ham, tilshunoslikda ham kategoriya bir xil narsani ataydi, ya'ni kategoriya uchun juftlik va yakkalik bo'lishi shart va zarur. Falsafada juftlikni sabab-natija, mohiyat-hodisa, butun-qism; yakkalikni borliq, miqdor, makon tashkil etsa, tilshunoslikda kategoriya atamasi ostida qat'iy zidlangan va o'ziga xususiy belgiga ega bo'lgan shakl tizimi birlashtiriladi. Demak, grammatik kategoriya deganda muayyan ma'no umumiyligi asosida birlashgan va o'zaro zidlanuvchi shakl sistemasi tushuniladi. Grammatik kategoriya shaklning oddiy arifmetik yig'indisi emas, balki ma'lum turdagi shaklning barqaror munosabati tizmasidan iborat bo'lgan yangi bir butunlik.

Ayni paytda o'zbek tilshunosligida quyidagi grammatik kategoriya ajratiladi:

1. Egalik kategoriyasi
2. Kelishik kategoriyasi
3. Son kategoriyasi
4. Nisbat kategoriyasi
5. Zamon kategoriyasi
6. Mayl kategoriyasi

7. Shaxs-son kategoriyasi
8. Daraja kategoriyasi
9. Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi
10. Harakat tarzi kategoriyasi
11. O'zgalovchi (fe'lning xoslangan shakli) kategoriyasi.

Grammatik kategoriyani tasniflashda u o'z ostida birlashtirgan grammatik shaklning semantik, morfologik, sintaktik tabiatiga asoslaniladi. Grammatik shakl tasnifi nafaqat tilshunoslik, jumladan, o'rta va oliy ta'lim grammatik tizimining muhim tushunchasidan biri bo'lganligi sababli, hamma davrning dolzarb mavzusi bo'lib kelgan. O'tgan davr mobaynida o'zbek tili morfologik ko'rsatkichining tasnifi yaratildi, ammo xulosa avvaliga arab, keyinchalik rus tili grammatik me'yoriga asoslangan holda berib kelindi. O'zbek tilida morfologik qo'shimchaga nisbatan forma hosil qiluvchi deb qaralib, u ikkiga – so'z o'zgartiruvchi va shakl hosil qiluvchiga bo'linardi. So'z o'zgartiruvchi sifatida so'zni bir-biri bilan bog'lash vazifasini bajaruvchi egalik, kelishik va shaxs-son qo'shimchasi ajratilsa, shakl hosil qiluvchiga so'z ma'nosiga biroz ta'sir etadigan, ammo yangi ma'noli so'z hosil qilmaydigan deb ta'riflanadigan ko'rsatkich kiritilardi. Diqqat qilinsa, bu qo'shimchaning biri sintaktik vazifa bilan, ikkinchisi lug'aviy ma'no bilan bog'liq.

So'z o'zgartiruvchi, forma yasovchi atamasi o'zbek tilshunosligiga ichki fleksiyaga asoslangan rus tili grammatik me'yori asosida kirib kelgan bo'lib, o'zbek tilining turkona tabiatini yoritib bermas, tanlangan atama va tushuncha o'rtasida nomuvofiqlik mavjud edi. Aniqrog'i, so'z o'zgartiruvchi va shakl yasovchi sifatida ajratilgan morfologik vosita o'zbek tilida so'z shakliga hech qanday o'zgartirish yoki yasash darajasida ta'sir etmaydi. Bu shaklning biri so'z lug'aviy ma'nosiga biroz ta'sir etishi bilan, ikkinchisi so'zga sintaktik imkoniyat (bog'lash, biriktiruvchanlik, muayyan vazifada kelish) berishi bilangina xarakterlanadi.

O'zbek tilshunosligi 50–90- yillarda so'z shakli, so'z shakl, so'z formasi kabi atamadan foydalanib keldi[1]. Lug'aviy shakl atamasi istiqloldan keyin amaliyotga kiritilib, ko'p holda so'z formasi yoki so'z shakli kabi an'anaviy atamaning yangi ko'rinishi sifatida qabul qilindi. Aslida esa bu ikki davr atamasi o'rtasida jiddiy farq mavjud.

[1]Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. Мас.муҳ. Ғ.А.Абдураҳмонов ва бошқ. –Т.: Фан, 1972. – 610 б. –Б. 66-67; Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари учун. 3-нашри. –Т.: Ўзбекистон, 1992. -399 б.; Усмонов С. Морфологические особенности слова в современном узбекском языке: автореф. дисс. док. филол. наук. –Т., 1964. –50 с.; Ғуломов А. Ўзбек тили морфологиясига кириш. Ҳозирги замон ўзбек тили курсидан материаллар. –Т.: Фан, 1953. –28 б.

So‘z formasi tushunchasi o‘zbek tilshunosligiga XIX asrning 2-yarmidan boshlab kirib kela boshlagan. Bunda Yevropa tilshunosligi va o‘zbek (sart, chig‘atoy) tili bo‘yicha yevropaliklar tomonidan yaratilgan darslik turtki bo‘lgan[1]. Arab tilshunosligi ichki fleksiyaga ega arab tili qoidasi asosida ish tutganligi sababli[2], bu asosda turkiy tillarning agglyutinativ tabiatini to‘g‘ri baholab bo‘lmas va mazkur darsliklarda so‘zning o‘zagiga tizilib keluvchi qo‘shimcha (u arab tili yuklamasi - (harfi)ga o‘xshash bo‘lganligi sababli) harf deb baholanar edi. Hatto turkiyshunos Mahmud Qoshg‘ariy ham *-gan, -dan, -gani, -ga* kabi qo‘shimchalarni harf deb baholagan. O‘rta asr tilshunosidan Mirzo Mahdixon ham turkcha qo‘shimchaga harf sifatida qaraydi va bir so‘zning turli shaklini paradigma - qatorga birlashtirmaydi.

So‘z shakli va uning paradigmasini ajratish N.Ostroumov, G.Vamberi va boshqa tadqiqotidan boshlanadi. Ye.D.Polivanov asari[3], xususan, A.Fitratning «Sarf» va «Nahv» darsligidan keyin so‘z shakli tushunchasi o‘zbek tilshunosligida ommalasha boshladi.

Bu davrda so‘z shakli deganda o‘zakka qo‘shilib kelgan har qanday qo‘shimcha tushunilib, *kitoblar* ham, *kitobcha* ham, *yozdik* ham, *yozdi* ham so‘zning shakli deb talqin etiladi. 40-yillarda, yuqorida aytilganidek, S.Barxudarov darsligi namunasi asosida yangi turdagi o‘zbek tili darsligi yaratila boshlagach, o‘zbek tilshunosligiga F.F.Fortunatov asos solgan Moskva lingvistik maktabining forma yasash, so‘z o‘zgartirish[4], forma yasovchi qo‘shimcha, so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimcha va negiz atamasi kirib kela boshladi. 70-yillarga qadar maktab grammatikasida forma yasovchi va so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimcha farqlanmay, barchasi so‘z formasi deb atab kelindi. Ammo shuni ta’kidlash lozimki, oliy maktab darsligida va morfologiya bo‘yicha ilmiy tadqiqotda forma yasash va so‘z o‘zgartirishni farqlash 50-yillardayoq boshlangan bo‘lib, misol tariqasida 1965-yilda nashr etilgan U.Tursunov, J.Muxtorov va Sh.Rahmatullaevning «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» qo‘llanmasidan quyidagi jumlani keltirish mumkin: «...affiks ma’no va vazifasiga qarab 3 xil bo‘ladi: so‘z yasovchi, forma yasovchi va so‘z o‘zgartiruvchi»[5]. Forma yasovchiga quyidagicha ta’rif beriladi. «So‘zning leksik ma’nosini o‘zgartirmay, unga har xil semantik-grammatik ottenka, qo‘shimcha

[1]Vamberu H. Das Dschagotaischi Spach studiev. 1869.; Остроумов Н. Этимология сартовского языка. –Т., 1910.
[2]Звегинцев В.А. История арабского языкознания. Краткий очерк. –М., 1958. –80 с.; История лингвистический учений Средневекового Востока. От ред. А.В. Гесницкая. –М.; -Л.: Наука, 1977.
[3]Поливанов Е.Д. Краткая грамматика узбекского языка. –Т., –М.: Туркпечат, 1926. –124 с. С. 80–81.
[4]Фортунатов Ф.Ф. Сравнительное языкознание. Общей курс // Фортунатов Ф.Ф. Избранные труды. Т. I. – М.: Наука, 1957. -160 с.
[5]Турсунов У., Мухторов А., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфология. Лексикология. - Т.: Ўқитувчи, 1965. –180 б., –Б. 5.

ma’no kiritadigan affiks forma yasovchi affiks deyiladi. Forma yasovchi yangi so‘z yasamaydi, shu bilan birga, so‘zning o‘zaro munosabatini ko‘rsatish uchun ham xizmat qilmaydi»[1]. So‘z o‘zgartirish esa: «Grammatik ma’no ifodalab, o‘zi qo‘shilib kelgan so‘zning boshqa so‘z bilan munosabatini bildiradigan affiks so‘z o‘zgartiruvchi affiks deyiladi. So‘z o‘zgartiruvchi affiks turlovchi va tuslovchi affiksga bo‘linadi» deb ta’riflanadi. Shu bilan o‘zbek tilshunosligida forma yasash (resp. forma yasovchi qo‘shimcha) va so‘z o‘zgartirish (resp. so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimcha) tushunchasi mustahkam o‘rnashdi. 70-yillardan keyin «maktabni fan bilan bog‘lash», «fan yangiligini maktabga kiritish» shiori ostida ona tili ta’limiga dastlab so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimcha kiritilib, u turlovchi va tuslovchi bilan chegaralandi. Forma yasovchi esa sharhlanmadi. Keyinchalik «forma yasash» tushunchasi ham maktab dasturidan joy oldi.

O‘zbek tili akademik grammatikasida forma yasash va so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimcha quyidagicha umumlashtiriladi: «Forma yasovchi affiks yangi so‘z hosil qilmaydi, ma’noni keskin ravishda boshqa qilib yubormaydi, balki har xil ottenka orttiradi, modifikatsiya qiladi. Yasovchi leksik ma’no bilan bog‘lansa, u grammatik ma’noga ega bo‘ladi. Bu kichraytirish, erkalash, chegaralash, kamlik, oshirish, ko‘paytirish, gumon, taxmin, emotsionallik kabini bildirish - asosiy ma’noga shuni qo‘shish bilan xarakterlanadi. Bu orttirgan qo‘shimcha ma’no yasovchi darajasidagi ayrim ma’no emas. Anglashiladiki, forma yasovchi, so‘z o‘zgartiruvchidan ham farqlanadi: leksik ma’noga qo‘shimcha ottenka berish, sintaktik xarakterga ega emaslik, paradigma hosil qilmaslik va boshqa. Forma yasovchi affiks: ot turkumida (keng ma’noda): kichraytirish, erkalash, achinish, kamaytirish, taxmin, gumon kabi ma’no bildiradigan affiks *(qizcha, bo‘taloq, qo‘zichoq, onajon, bolagina, semizroq, oqish, qoramtir, qisqacha va b.)*; dagi (olmoshda ham) ko‘plik ko‘rsatkichi *(bolalarni, nimalarni)*, sonning turli ko‘rinishini hosil qiladigan affiks *(-ta, -inchi, -ala, -cha, -tacha)*, gumon olmoshi hosil qiluvchi –dir (kimdir, nimadir) affiksi, fe’l turkumida: bo‘lishsizlik ko‘rsatkichi *–ma*, fe’lning «kengaytiruvchi» - intensivlik bildiruvchi, kuchaytiruvchi, vid-tus, harakatning takrorlanishi, uzoq davom etishi va kuchsizlanishini bildiradigan affiksi *(-qi, -qa, -gi, -g‘i, -la, -inqira, -i,-a kabilar; bur – bura, chay – chayqa, to‘z – to‘zgi, qo‘zi – qo‘zga, yul – yulqi, tep – tepkila, oqardi – oqarinqiradi, kuldi – kulimsiradi* va boshqa. Qiyoslang; *terladi – terchiladi, terdi – termachaladi*); buyruq-istak maylining «kuchaytiruvchisi» *(-gil, -in; -borgil, -bilayin)*, zamon, mayl ko‘rsatkichi; fe’l funksional formasini

[1]Турсунов У., Мухторов А., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфология. Лексикология. – Т.: Ўқитувчи, 1965. –180 б., –Б. 6.

hosil qiluvchi affiks (sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi) daraja ko'rsatkichi, taqlid so'zning kengaygan formasini hosil qiladigan *-ir* kabi affiks ham forma yasovchiga kiradi: *taq-tuq, taqir-tuqir).*

So'z o'zgartiruvchi affiks so'zni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladi. U egalik, kelishik, fe'ldagi shaxs va son ko'rsatkichi.

So'z o'zgartiruvchining ma'nosi sof grammatik xarakterda. Forma yasovchi bilan so'z o'zgartiruvchining ikkalasi ham faqat bir turkum doirasida bo'ladi»[1]

Shu bilan o'zbek tilshunosligida forma yasash va so'z o'zgartirish qat'iy ajratildi va shunday izchillikda o'rganib va o'rgatib borildi.

Forma yasash va so'z o'zgartirish o'zbek tili tabiatidan kelib chiqqan hodisa emas. Har ikki tushuncha ham tabiatan flektiv bo'lgan rus tili me'yori asosida ishlab chiqilgan. Chunki flektiv tilda «окончание» (tugallanma) mavjud bo'lib, u so'zning ma'lum bir shakliga qo'shiladi. So'z o'zgartiruvchi qo'shimcha sifatida faqat «окончание» tanlanadi, undan boshqa qo'shimcha forma yasovchi sirasiga kiritiladi. Masalan:


Oni uznali *Ona uznala*
Oni uznavali *Ona uznavala*

Bu ikki fe'lda *-l* o'tgan zamon formasini yasaydi, *-i, -a* «окончание» si esa bu formani son va rod bo'yicha o'zgartiradi. O'zbek tiliga «окончание» xos emas va so'zga rus tili uchun xos bo'lgan va osnova deb ataladigan «окончание» siz qism ham ahamiyatsiz. Shuning uchun forma yasalishi va so'z o'zgartirishni ajratishga keskin zarurat yo'q. Lekin o'zbek tilida ham o'zakka qo'shiladigan qo'shimchani so'z yasovchi va so'zning ayrim shaklini yasovchiga ajratish xos. Bu o'rinda so'z yasovchining so'zning har xil shaklini yasovchi qo'shimchadan farqi xususida to'xtalinmaydi. Faqat shuni aytish mumkinki, so'z yasovchi qo'shimcha so'z ma'nosini tamoman o'zgartiradi. Masalan, *kitob-kitobxon.* So'z shaklini yasovchi qo'shimchaning esa so'z ma'nosiga ta'sir etadigani ham, ta'sir etmaydigani ham bor. Ko'rinadiki, ayrim shakl so'zning nutqiy bog'lanishini ta'minlasa, ba'zisi uning birikuvchanlik imkoniyatiga ta'sir qiladi. Demak, u dastlab «lug'aviy ma'noga ta'sir qilish», «sintaktik aloqani ta'minlash» belgisi asosida mutanosib ziddiyatda turuvchi ikki guruhga ajraladi.

Lug'aviy shakl yasovchi sifatida so'z ma'nosini qisman o'zgartiruvchi, aniqlashtiruvchi, muayyanlashtiruvchi qo'shimcha ajratiladi. Masalan, *kitob* so'zida birlik ma'nosi ham (*Bu kitob juda qiziqarli),* ko'plik ma'nosi ham

[1]Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. Мах.муҳ. Ғ.А.Абдурахмонов ва бошқ. –Т.: Фан, 1972. – 610 б. –Б. 83.

(Do'konga kitob keldi) mujassamlangan. Nutq sharoiti, matn, kontekst *kitob* so'zida birlik yoki ko'plik ma'nosi voqealanishini ajratib beradi. Shu so'zga *-lar* ko'plik qo'shimchasi qo'shilsa, u kitob so'zida mujassamlangan ko'plik ma'nosini birlik ma'nosidan chegaralaydi, ya'ni lug'aviy ma'noni muayyanlashtiradi - toraytiradi. Shuning uchun *kitoblar [kitob]* leksemasining bir lug'aviy shakli sifatida voqealanadi. *Kitob-kitobcha* so'zida ham shu holatni ko'ramiz. *Kitob* so'zida katta ma'nosi ham (*ming sahifali kitob),* kichik ma'nosi ham (*10–15 sahifadagi kitob*) mavjud. *Kitobcha* so'zida esa shu ikki lug'aviy ma'nodan biri ikkinchisidan chegaralangan. Xuddi shunday fe'lda nisbat, sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi, shuningdek, harakat tarzi shakli ham fe'lning lug'aviy ma'nosida mujassamlangan belgini u yoki bu darajada muayyanlashtiradi. Masalan, *yozmoq* fe'lida harakat bajaruvchisi bu harakatni birovning iltimosi yoki tazyiqi bilan bajarganligi yoki bajarmasligi ma'nosi yo'q. *Komiljon xatni yozdi* gapini olib ko'raylik. U quyidagi birikmada kela olishi mumkin:



Lekin *Men xatni yozdirdim* gapida harakat, ya'ni, *yozish* kimningdir sababchiligi natijasida sodir bo'lgani anglashilib turibdi. Demak, orttirma nisbat shakli fe'l ifodalagan harakat kimningdir ta'siri ostida bajarishini ifodalab, fe'lning lug'aviy ma'nosini muayyanlashtirib keladi. Shuningdek, muayyanlashtirish leksik vositalar bilan ham amalga oshirilishi mumkin edi. Masalan: *Onasi Salimjonga uyni supurtirdi.* Bu mazmunni quyidagi gap bilan ham berish mumkin. *Onasining iltimosiga ko'ra / gapiga ko'ra/tazyiqi ostida/ sababchiligida/ undashi bilan Salimjon uyni supurdi.*

Lug'aviy shakl hamisha so'zning lug'aviy ma'nosiga ta'sir etadi, shuning uchun jahon tilshunosligida lug'aviy shakl sifatida ajratilgan son, nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik, sonning, olmoshning ma'noviy turi, sifat darajasi so'z yasalishi va forma yasalishi orasidagi munozara bo'lib kelmoqda.

Nisbat shakli, tartib sonning kichraytirish shakli, shuningdek, sifat darajasining so'z o'zgartirish va so'z yasashga munosabati tilshunoslikning azaliy muammosidan biri. Bu masalani hech qachon uzil-kesil hal etib

bo‘lmaydi. Tom mohiyati bilan lug‘aviy shakl tilshunoslikning so‘z yasalishi va so‘z o‘zgartirish tizimi orasidagi oraliq uchinchidir[1]

Ma’lumki, so‘zning ma’noviy jihatida yuz bergan o‘zgarish uning sintaktik tabiatiga ham ta’sir qiladi. Zero, tilshunos V.G.Gak ta’kidlaganidek, «Sintaksis qanchalik semantik tabiatga ega bo‘lsa, semantika ham shunchalik sintaktikdir»[2]. Morfologik shakl leksemaning birikuvchanlik imkoniyatini kengaytirish yoki toraytirish qobiliyatiga ega. Masalan, ko‘plik qo‘shimchasi *-lar,* kichraytirish shakli *-cha* so‘zga qo‘shilar ekan, bu so‘z mazkur shakl ma’nosiga nomuvofiq so‘z bilan birikish imkoniyatini yuzaga chiqara olmaydi. *Uy* leksemasi aniq miqdor ifodalovchi, *kitob* leksemasi hajman me’yordan ortiqlik ma’nosini ifodalovchi so‘z bilan ham birikaversa, *uylar, kitobcha* so‘zida bu imkoniyat yuzaga chiqmaydi. Lug‘aviy ma’nodagi bu o‘zgarish so‘z tarkibidagi grammatik shakl evaziga yuz beradi. *Kitobni, kitobim, o‘qidim* so‘z shaklidagi morfologik shakl bu xususiyatdan xoli bo‘lib, u so‘zning sintaktik aloqasi uchun vosita vazifasini o‘tashga xoslangan.

Sintaktik shakl hosil qiluvchi so‘z lug‘aviy manosiga ta’sir etmay, so‘zni bir-biri bilan bog‘lashga yoki unga ma’lum sintaktik vazifa berishga xizmat qiladi. An’anaviy ta’rifdan farqlanib, aloqa-munosabat (sintaktik) shaklining qo‘llanishi lug‘aviy shakldek ma’lum so‘z turkumi bilan chegaralanmaydi, ya’ni bu shakl istagan mustaqil so‘z turkumiga mansub so‘zga qo‘shilib, uni o‘zidan keyin yoki oldin kelgan so‘z bilan aloqasini ta’minlaydi: *qorasini olmoq, qizili yoqadi, kelganimni yoqtirmadi, o‘qishi yaxshi emas, shundayidan ber, ko‘pini o‘tkazdi* va h.

Sintaktik shakldan kelishik shakli tobelantiruvchi, ya’ni, bir so‘zning ikkinchi so‘zga tobelanib kelishini ifodalovchi shakl, egalik shakli esa hokim so‘z shakli sifatida baholanadi. *Lolaning kitobi* birikmasida egalik qo‘shimchasi *kitob* so‘zining *Lola* so‘zi bilan birikishiga imkoniyat yaratadi. Natijada egalik va kelishik shaklining qarama-qarshi yo‘naltirilgan (tobelantiruvchi - tobeni talab qiluvchi) sintaktik imkoniyati o‘zaro uyg‘unlashadi[3]. Kelishik shaklida ma’lum bir sintaktik vazifa uchun xoslanganlik ham ajratiladi. Ya’ni:

B.k. - gapning egasi shakli
Q.k. - qaratqichli aniqlovchi
T.k. - vositasiz to‘ldiruvchi

[1]Нигматов Х.Г. Включенное третье в морфологической системе тюркских языков// Сов.тюркология. 1976. -№3. –С. 31–36.
[2]Гак В.Г. К проблемы семантической синтакматики // Проблемы структурной лингвистики. –М. 1972. –С. 367.
[3] Назарова С.Н. Бирикмаларда сўзларнинг эркин боғланиш омиллари: филол. фан. номз. дисс. автореф . – Т., 1997, –21 б. –Б. 9.

J.k.
Ch.k. } - vositali to‘ldiruvchi yoki hol
O‘.-p.k.

Yaqingacha forma yasovchi deb qaraluvchi mayl va zamon shakli ham sintaktik shakl sifatida baholanadi. Buning sababi shundaki, mayl va zamon shakli bo‘lishli-bo‘lishsizlik, shaxs-son shakli bilan birgalikda gapning kesimiga xos bo‘lib, shu mavqeda qanday so‘z kelishidan qat’i nazar, bu kategoriya ma’nosi voqealanadi. Masalan: *Men talabaman* gapida ham, *talabaman* so‘z shakli kesimlik shaklidir, bo‘lishli (bo‘lishsizi – talaba emasman), aniqlik mayli (shart mayli – *talaba bo‘lsam*), hozirgi-kelasi zamon (o‘tgan zamonda – *talaba edim*), I shaxs (II shaxsda – *talabasan*), birlik sonda(ko‘plik sonda – *talabamiz*) shaklida. Kesimi fe’l bilan ifodalangan *Men yozaman* gapi ham yuqorida sanab o‘tilgan shaklda o‘zgaradi.

Ko‘rinib turibdiki, gapning kesimi fe’l yoki ot bilan ifodalanganidan qat’i nazar, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, mayl, zamon, shaxs-son ma’no va shakli kesim tarkibida bo‘ladi. Shu sababli, yangi dastur va darslikda alohida kesimlik kategoriyasi ajratilib, mayl, zamon, shaxs-son shakli fe’l shakli tizimidan chiqarildi va kesimlik kategoriyasi tizimiga birlashtirildi. Bunday tasnif atoqli tilshunos akademik I.I. Meshchaninovning «fe’l fe’l bo‘lgani uchun emas, gapda kesim bo‘lib kelgani uchungina tuslanadi»[1] degan fikriga asoslanib amalga oshirilgan.

Morfologik shakl bo‘yicha zamonaviy o‘zbek tilshunosligining so‘nggi yutug‘i asosida amalga oshirilgan muhim tadqiqot sifatida B.Mengliyev, Sh.Shahobiddinova va B.Bahriddinova ishini alohida ta’kidlash lozim. Sh.Shahobiddinova grammatik shaklning empirik tahlil usuli asosida o‘rganilgan va bevosita kuzatishda berilgan xususiy grammatik ma’nosini bosqichli mavhumlashtirish asosida umumlashtirish yo‘li bilan umumiy grammatik ma’nosini tiklash usulini tavsiya etdi va son kategoriyasi shakli misolida uni amalda sinab, har shakl va kategoriya umumiy grammatik ma’nosi ziddiyatli ikkilangan, ya’ni ma’noviy va sintaktik jihatning dialektik butunligidan iborat ekanligi haqidagi qarashni ilgari surdi[2]. B.Mengliyev esa dialektik ziddiyatli mohiyati asosida tilshunoslikdagi shaklning sintaktik-nosintaktiklik belgisi asosida bo‘linishi, hamda har bir morfologik shakl ma’noviy jihati bilan birga sintaktik imkoniyatga ham egaligini ilmiy asosladi. Bunda tadqiqotchi sintaktik xususiyat tushunchasini an’anadagidan kengroq,

[1] Мещанинов И.И. Глагол. –М., - Л.: Изд. АН СССР, 1949. - 199 с. –С.123.
[2] Шаҳобиддинова Ш. Грамматик маъно талқини ҳақида:филол.фан.номз…дисс.–Самарқанд, 1993. –152 б.

leksemaning valentlik imkoniyatiga ta'sir qilishi, mustaqil sodda gapning birin-ketinlik munosabatini ifodalash darajasiga kengaytirdi[1] va bunday qarashini keyingi tadqiqotida to'la asoslab berdi. B.Bahriddinova uning ishini davom ettirib grammatik shaklning barchasi semantik tabiat va sintaktik imkoniyatga egaligi, uning ayrimida lug'aviy ma'noni modifikatsiyalash, ayrimida gap qurilishida ishtirok etish xususiyati mohiyatni belgilash darajasida bo'lishi, ayrimida esa har ikki jihat mushtarakligini ilgari surib, o'z fikrini sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi shakli misolida isbotlab, o'zbek tili grammatik shaklini uch guruhga – lug'aviy shakl, sintaktik shakl, lug'aviy-sintaktik shaklga bo'lib tasniflash maqsadga muvofiqligini asoslab berdi[2]

Shakl yasovchi, lug'aviy shakl deb yuritib kelingan o'zgalovchi kategoriyasi shakli – ravishdosh, sifatdosh va harakat nomining o'ziga xos murakkab tabiati na lug'aviy shaklga, na sintaktik shaklga berilgan ta'rifga mos keladi. Sababi mazkur shakl so'z lug'aviy ma'nosini muayyanlashtirish bilan birga, fe'lni o'zidan keyin kelgan ot yoki fe'lga tobelantirib bog'lash va shu asosda uning gapdagi mavqeyiga ham kuchli ta'sir etish xususiyatiga ega. Keyingi tadqiqotlarda[3] mazkur shakl xususida gap ketganda «fe'l kelishigi» terminining ishlatilishi ham bejiz emas. Lug'aviy ma'noni muayyanlashtirishi, aniqlashtirishi va faqat fe'lga xosligi ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi shaklini sintaktik shakl sifatida baholashga, fe'lni o'zidan keyingi so'zga tobelab bog'lashi va gapdagi funksiyasini belgilashi lug'aviy shakl sifatida baholashga to'siq bo'ladi. Demak, mazkur shakl o'zida ham lug'aviy, ham sintaktik shakllik mohiyatini mujassamlashtirgan. Masalan: *kulgan bola, aytar gap, kulib gapirmoq, o'qigach bilmoq* birikuvida sifatdosh shakli fe'lni otga tobelantirib bog'layapti va shu bilan birga fe'ldagi harakat semasini kuchsizlantirib, belgi ma'nosi bilan nutqqa olib kiryapti. Xuddi shuningdek, ravishdosh shakli ham fe'lni o'zidan keyingi fe'lga tobelantirib bog'lab, harakat semasini kuchsizlantirgan holda holat, payt, sabab ma'nosi bilan nutqda voqelantirmoqda.

Ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi shakli tizimini kuzatish shuni ko'rsatdiki, mazkur shakldagi lug'aviy va sintaktik imkoniyat birdek mutanosiblikda emas. Shaklning lug'aviy ma'noga ta'siri kuchayishi bilan unda sintaktik qobiliyat (turlash) kuchsizlanib boradi. Ravishdosh shaklida fe'lni

[1]Менглиев Б.Р.Морфологик воситаларнинг маъновий хусусияти ва синтактик имкониятлари: филол. фан. номз...дисс. –Бухоро.1995, –144 б.

[2]Баҳриддинова Б.М. Феъл лугавий шакли тизими (тур категорияси): филол.фан.номз.дисс. –Самарқанд, 2002. –146 б. Баҳриддинова Б. Ҳозирги ўзбек тили (Қўшимчалар таснифи юзасидан материаллар). – Қарши: Насаф, 2004. 92 б.

[3]Менглиев Б.Р. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусияти ва синтактик имкониятлари: филол.фан.номз.дисс. –Бухоро, 1994. –146 б.

fe'lga tobelantirish imkoni kuchli, biroq atash semasiga ta'sir nisbatan kuchsiz. Sifatdosh har ikki jihatning birligi bilan «oraliq uchinchi» maqomiga ega bo'ladi. Harakat nomi shaklida atash semasiga ta'sir ancha jiddiy, ayrim o'rinda u ot yasalishi sifatida qaraladi, ammo fe'lni boshqa so'z bilan aloqaga kiritish imkoniyati tamoman so'nib boradi. Semantika, xususan, so'z semantikasi bo'yicha qo'lga kiritilgan yutuq bevosita yaxlit sistema sifatida amal qiluvchi tilning uzviy qismi bo'lgan morfologik shakl talqini bo'yicha ham muayyan vazifani ado etishni zarur qilib qo'ymoqda. Lug'aviy shakl hosil qiluvchi sifatida talqin etilgan o'zgalovchi kategoriyasi shakli, yuqorida ta'kidlanganidek, o'ziga xos murakkab tabiatga ega bo'lib, uning serqirra mohiyati lug'aviy shaklga ham, sintaktik shaklga ham berilgan ta'rifni go'yo chigallashtirib yuboradi. Chunki u har ikki siraga xos bo'lgan xususiyatni o'zida saqlaydi va shu xususiyati bilan bu ikki qarama-qarshi sath orasida tutashish – uzluksizlik mavjud ekanini isbotlaydi.

Turkiy tilning milliy tabiatidan kelib chiqqan holda, o'zbek tili grammatik shaklini uchga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq:

1. Lug'aviy shakl hosil qiluvchi – so'zning lug'aviy ma'nosini nutq talabiga muvofiq ravishda modifikatsiyalaydigan, so'zning atash ma'nosiga muayyanlashtirish, toraytirish, aniqlashtirish darajasida ta'sir etadigan qo'shimcha turidagi kichraytirish, son, shaxsiy munosabat shakli; fe'lning nisbat, bo'lishsizlik, haraktaning kuchli, kuchsiz darajasini ko'rsatuvchi sintetik harakat tarzi shakli; sonning ma'no turini hosil qiluvchi, sifatning daraja shaklini yasovchi bu guruhni tashkil etadi. Lug'aviy shakl hosil qiluvchi so'z turkumining tasniflovchi, ya'ni bir so'z turkumini boshqa so'z turkumidan ajratib turuvchi grammatik kategoriya hisoblanib, uning ishlatilishi o'zi mansub turkum bilan chegaralanadi: kichraytirish otga, daraja sifatga, nisbat fe'lga, dona, chama, tartib songa va h.

O'zbek tilshunosligida quyidagi kategoriyalar lug'aviy shakl yasovchilar sifatida talqin etiladi:

1) son kategoriyasi;
2) subyektiv baho shakllari;
3) daraja kategoriyasi;
4) nisbat kategoriyasi;
5) bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi;
6) harakat tarzi kategoriyasi.

Grammatik kategoriyalarni lug'aviy va sintaktik turlarga ajratish I.I.Meshchaninovning «Члены предложения и части речи» asarida ilgari surilgan «lisoniy sistemaning moddiy tomoni e'tibordan soqit qilinsa, u leksika

va sintaksisdangina iborat bo‘lib qoladi» degan fikr bilan boshlanadi. Tilshunos H.Ne’matov buni turkiy tillar misolida rivojlantirdi va turkiyshunoslikda tasniflovchi kategoriyalar hamda sintaktik kategoriyalar tushunchasini ommalashtirdi.[1]

O‘zbek tilshunosligida lug‘aviy grammatik shakllarni umumiylik-xususiylik dialektik metodologiyasi tamoyillariga tayangan holda monografik o‘rganish Sh.H.Shahobiddinova tomonidan, morfologik shakllarni semantik va sintaktik tomonlarning dialektik birligi sifatida talqin qilish g‘oyasini B.Mengliyev ilgari surgan hamda morfologik shakllarning sintaktikligi - nosintaktikligi an’anasiga barham bergan bo‘lsa[2], doktorlik dissertatsiyasida biror sathga xos umumiy lisoniy ma’no oraliq ma’nolar orqali nutqqa chiqishida boshqa sathlar hamkorlik qilishi, bu hamkorlikda bir sathning roli oshsa, boshqasiniki susayishi g‘oyasini ilgari surdi va grammatik ma’noni pragmatik aspektda o‘rganish uchun zamin hozirladi.

2. Sintaktik shakl hosil qiluvchi – leksemaning muayyan gap bo‘lagi bo‘lib kelishga xoslaydigan va sintaktik aloqaga kiritish vazifasini bajaradigan shakl. Kelishik, egalik, kesimlik shakli bu guruhni tashkil etadi. Bu shaklning qo‘llanilishi bir turkum bilan chegaralanmaydi, so‘zning tasnifiy belgisiga kirmaydi.

Morfologik ko‘rsatkichlar, yordamchi so‘zlar yoki sintaktik mavqe leksemani grammatik jihatdan shakllantiruvchi vosita bo‘lganligi uchun *grammatik shakl* termini metonimik asosda ushbu vositalarni ham atash uchun qo‘llanadi. Bu terminning ikkinchi, hosila ma’nosi, hosila qo‘llanishi. *Sintaktik shakl* atamasi esa *grammatik shakl* atamasi bilan «jins-tur» munosabatida. *Sintaktik shakl* atamasi ma’nosi jihatidan torroq va aniqroq bo‘lganligi hamda lug‘aviy, lug‘aviy-sintaktik shakllar bilan birga *grammatik shakl* atamasi tomonidan qamrab olinganligi uchun jins mavqeyida bo‘lsa, *grammatik shakl* atamasi ma’no jihatidan kengroq va mavhumroq bo‘lganligi hamda lug‘aviy shakl, lug‘aviy-sintaktik shakllar bilan birga sintaktik shakllarni ham o‘z ichiga olganligi uchun tur maqomida.

Sintaktik shakl yasovchi atamasi o‘zbek tilshunosligi faniga, aniqrog‘i, dastlab ona tili ta’limiga *lug‘aviy shakl yasovchi* atamasi bilan birga kirib keldi va an’anaviy *shakl yasovchi* hamda *so‘z o‘zgartiruvchi* terminlari o‘rnida (ammo ularning aynan muqobili sifatida emas) ommalashdi.

[1] Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI – XII вв. – Ташкент: Фан, 1989.

[2] Менглиев Б.Р. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 24 б.

Sintaktik shakl yasovchilar aloqa-munosabat shakli ham deb yuritiladi. Munosabat shakllari – asoslarga qo‘shilib, ularni boshqa so‘zlar bilan aloqa-munosabatga kiritish va gap bo‘laklarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan shakllar.

Kesim vazifasida kelgan har qanday so‘z kesimlik shaklini (zamon, shaxs-son, mayl, bog‘lama vazifasidagi sintaktik birlik), ega, to‘ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi vazifasida keluvchi har qanday so‘z egalik, kelishik shaklini qabul qilishi mumkin. Mazkur shakl tom mohiyati bilan sintaktik tabiatga ega bo‘lib, egalik va kelishik shakli so‘z birikmasini, kesimlik gap markazi – kesimni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

3. Lug‘aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi – leksemaning ham lug‘aviy ma’nosiga ta’sir qiladi, ham uning sintaktik vazifasini belgilaydi. Lisoniy hodisalarga darajalanish qonuniyati asosida munosabatda bo‘linsa, lug‘aviy va sintaktik shakllar oralig‘ida qaror topuvchi hodisalar ham borligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbek tilida shunday shakllar borki, ular, bir tomondan, so‘zning lug‘aviy ma’nosiga ta’sir etadi, ikkinchi tomondan, ularni sintaktik aloqaga kiritadi. O‘zgalovchi kategoriya shakllari sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi shakli ikkiyoqlama tabiati bilan bu guruhdan o‘rin egallaydi va oraliq uchinchi maqomiga ega bo‘ladi. Masalan, *shoshilib gapirmoq* birikmasida *-ib* ravishdosh shakli *shoshil* so‘zining lug‘aviy ma’nosiga ta’sir etgan, ya’ni unga ravishlik ma’nosiga yaqin ma’no bergan, shu bilan birga, bu so‘zni keyingi so‘zga bog‘lash vazifasini ham bajarmoqda. Shuning uchun o‘zgalovchi kategoriya shakllari lug‘aviy shakl hosil qiluvchilar va sintaktik shakl hosil qiluvchilar orasida oraliq vaziyatni egallab, *lug‘aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi* atamasi bilan nomlanadi. Chunki mazkur shakl fe’lni fe’l yoki otga tobelantirish bilan birga so‘z lug‘aviy ma’nosiga ham sezilarli ta’sir etadi. Aniqrog‘i, unda lug‘aviy shaklga xos belgi ham, sintaktik shaklga xos belgi ham mohiyatni belgilash darajasida sezilarli bo‘ladi. Demak, o‘zgalovchi kategoriya shakllari ham lug‘aviy ma’noni modifikatsiya qilishi bilan, ham fe’llarni boshqa turkum so‘zlariga bog‘lash vazifasini ham bajarib, o‘zining ikkiyoqlama – semantik-sintaktik tabiatini namoyon etadi.

Ushbu shakl muayyan tizim - kategoriyaga birlashadi. Ko‘rib o‘tilganidek, mazkur kategoriya va uning qismi nihoyatda keng qirrali va murakkab tabiatli bo‘lib, uning har bir qirrasi alohida tasnifni talab etadi. Buni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Tuzilishiga ko‘ra: ichki paradigmaga ega murakkab kategoriya (kesimlik) va sodda kategoriya (nisbat, son);

va sintaksisdangina iborat bo'lib qoladi» degan fikr bilan boshlanadi. Tilshunos H.Ne'matov buni turkiy tillar misolida rivojlantirdi va turkiyshunoslikda tasniflovchi kategoriyalar hamda sintaktik kategoriyalar tushunchasini ommalashtirdi.[1]

O'zbek tilshunosligida lug'aviy grammatik shakllarni umumiylik-xususiylik dialektik metodologiyasi tamoyillariga tayangan holda monografik o'rganish Sh.H.Shahobiddinova tomonidan, morfologik shakllarni semantik va sintaktik tomonlarning dialektik birligi sifatida talqin qilish g'oyasini B.Mengliyev ilgari surgan hamda morfologik shakllarning sintaktikligi - nosintaktikligi an'anasiga barham bergan bo'lsa[2], doktorlik dissertatsiyasida biror sathga xos umumiy lisoniy ma'no oraliq ma'nolar orqali nutqqa chiqishida boshqa sathlar hamkorlik qilishi, bu hamkorlikda bir sathning roli oshsa, boshqasiniki susayishi g'oyasini ilgari surdi va grammatik ma'noni pragmatik aspektda o'rganish uchun zamin hozirladi.

2. Sintaktik shakl hosil qiluvchi – leksemaning muayyan gap bo'lagi bo'lib kelishga xoslaydigan va sintaktik aloqaga kiritish vazifasini bajaradigan shakl. Kelishik, egalik, kesimlik shakli bu guruhni tashkil etadi. Bu shaklning qo'llanilishi bir turkum bilan chegaralanmaydi, so'zning tasnifiy belgisiga kirmaydi.

Morfologik ko'rsatkichlar, yordamchi so'zlar yoki sintaktik mavqe leksemani grammatik jihatdan shakllantiruvchi vosita bo'lganligi uchun *grammatik shakl* termini metonimik asosda ushbu vositalarni ham atash uchun qo'llanadi. Bu terminning ikkinchi, hosila ma'nosi, hosila qo'llanishi. *Sintaktik shakl* atamasi esa *grammatik shakl* atamasi bilan «jins-tur» munosabatida. *Sintaktik shakl* atamasi ma'nosi jihatidan torroq va aniqroq bo'lganligi hamda lug'aviy, lug'aviy-sintaktik shakllar bilan birga *grammatik shakl* atamasi tomonidan qamrab olinganligi uchun jins mavqeyida bo'lsa, *grammatik shakl* atamasi ma'no jihatidan kengroq va mavhumroq bo'lganligi hamda lug'aviy shakl, lug'aviy-sintaktik shakllar bilan birga sintaktik shakllarni ham o'z ichiga olganligi uchun tur maqomida.

Sintaktik shakl yasovchi atamasi o'zbek tilshunosligi faniga, aniqrog'i, dastlab ona tili ta'limiga *lug'aviy shakl yasovchi* atamasi bilan birga kirib keldi va an'anaviy *shakl yasovchi* hamda *so'z o'zgartiruvchi* terminlari o'rnida (ammo ularning aynan muqobili sifatida emas) ommalashdi.

[1] Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI – XII вв. – Ташкент: Фан, 1989.

[2] Менглиев Б.Р. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 24 б.

Sintaktik shakl yasovchilar aloqa-munosabat shakli ham deb yuritiladi. Munosabat shakllari – asoslarga qo'shilib, ularni boshqa so'zlar bilan aloqa-munosabatga kiritish va gap bo'laklarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan shakllar.

Kesim vazifasida kelgan har qanday so'z kesimlik shaklini (zamon, shaxs-son, mayl, bog'lama vazifasidagi sintaktik birlik), ega, to'ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi vazifasida keluvchi har qanday so'z egalik, kelishik shaklini qabul qilishi mumkin. Mazkur shakl tom mohiyati bilan sintaktik tabiatga ega bo'lib, egalik va kelishik shakli so'z birikmasini, kesimlik gap markazi – kesimni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

3. Lug'aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi – leksemaning ham lug'aviy ma'nosiga ta'sir qiladi, ham uning sintaktik vazifasini belgilaydi. Lisoniy hodisalarga darajalanish qonuniyati asosida munosabatda bo'linsa, lug'aviy va sintaktik shakllar oralig'ida qaror topuvchi hodisalar ham borligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbek tilida shunday shakllar borki, ular, bir tomondan, so'zning lug'aviy ma'nosiga ta'sir etadi, ikkinchi tomondan, ularni sintaktik aloqaga kiritadi. O'zgalovchi kategoriya shakllari sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi shakli ikkiyoqlama tabiati bilan bu guruhdan o'rin egallaydi va oraliq uchinchi maqomiga ega bo'ladi. Masalan, *shoshilib gapirmoq* birikmasida *-ib* ravishdosh shakli *shoshil* so'zining lug'aviy ma'nosiga ta'sir etgan, ya'ni unga ravishlik ma'nosiga yaqin ma'no bergan, shu bilan birga, bu so'zni keyingi so'zga bog'lash vazifasini ham bajarmoqda. Shuning uchun o'zgalovchi kategoriya shakllari lug'aviy shakl hosil qiluvchilar va sintaktik shakl hosil qiluvchilar orasida oraliq vaziyatni egallab, *lug'aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi* atamasi bilan nomlanadi. Chunki mazkur shakl fe'lni fe'l yoki otga tobelantirish bilan birga so'z lug'aviy ma'nosiga ham sezilarli ta'sir etadi. Aniqrog'i, unda lug'aviy shaklga xos belgi ham, sintaktik shaklga xos belgi ham mohiyatni belgilash darajasida sezilarli bo'ladi. Demak, o'zgalovchi kategoriya shakllari ham lug'aviy ma'noni modifikatsiya qilishi bilan, ham fe'llarni boshqa turkum so'zlariga bog'lash vazifasini ham bajarib, o'zining ikkiyoqlama – semantik-sintaktik tabiatini namoyon etadi.

Ushbu shakl muayyan tizim - kategoriyaga birlashadi. Ko'rib o'tilganidek, mazkur kategoriya va uning qismi nihoyatda keng qirrali va murakkab tabiatli bo'lib, uning har bir qirrasi alohida tasnifni talab etadi. Buni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Tuzilishiga ko'ra: ichki paradigmaga ega murakkab kategoriya (kesimlik) va sodda kategoriya (nisbat, son);

2. Semantik va sintaktik mohiyatiga ko‘ra: funksional morfologik (son, daraja) va funksional-sintaktik (kesimlik), mrfologik-sintaktik (o‘zgalovchi) kategoriya;

3. Leksemaning qaysi semasiga ta’sir etishiga ko‘ra: atash semasiga ta’sir etuvchi, vazifa semasiga ta’sir etuvchi, ifoda semasiga ta’sir etuvchi, ham atash ham vazifa semasiga ta’sir etuvchi kategoriya.

4. Faqat bir turkumga xosligi yoki bir necha so‘z turkumiga mansubligiga ko‘ra va h.k

Sanalgan ichida eng muhimi kategoriyaning umumiy mohiyati bilan bevosita, aloqadori morfologik va sintaktik kategoriyaga ajratish.

Morfologik kategoriya so‘zning lug‘aviy ma’nosiga aloqador bo‘lib, so‘z turkumining tasnifiy belgisi hisoblanadi, boshqa turkumdan ajratib turadi va qo‘llanilishi, asosan, shu turkum bilan chegaralanadi: otda son, fe’lda nisbat, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, harakat tarzi, sifatda daraja.

Sintaktik kategoriya mohiyati sintaktik shakl mohiyati bilan bog‘liq bo‘lib, so‘zning lug‘aviy ma’nosi bilan aloqador bo‘lmaydi, gap bo‘lagi vazifasida kela oladigan istalgan so‘z turkumiga qo‘shilib, gap qurilishida ishtirok etadi: egalik, kelishik, kesimlik (ichki paradigmasini zamon, mayl, shaxs-son tashkil qiladi).

Morfologik-sintaktik kategoriya har ikki guruhga kiruvchi kategoriya mohiyatini o‘zida kuchsiz darajada saqlaydi. Bu - o‘zgalovchi kategoriyasi.

Tasniflovchi kategoriya

3- §. Son kategoriyasi

Son kategoriyasi tadqiqi tarixidan. O‘zbek tilida son kategoriyasi, uning shakli, har bir shaklning ma’noviy xususiyati, birikish imkoniyati, qo‘llanishi haqida A.G‘ulomov, A.Hojiev, Sh.Rahmatullayev, Sh.Shoabdurahmonov, Yo.Tojiyev, S.Usmonov, G‘.Zikrillayev, Sh.Shahobiddinova, M.Ernazarova kabi olimlarning ishini alohida qayd etish lozim[1]. Xususan, an’anaviy o‘zbek tilshunosligi asoschisidan biri A.G‘ulomovning zamonaviy o‘zbek tilshunosligining shakllanish bo‘sag‘asida nosintaktik morfologik kategoriyani tavsiflash namunasi sifatida yaratilgan «O‘zbek tilida ko‘plik kategoriyasi” asarining qayta nashr ettirilishi va ommalashishi[2] va A.Hojiyevning «O‘zbek

[1] Ғуломов А. Ўзбек тилида кўплик-категорияси. –Т., 1944. –56 б.; Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. –Т., 1979. –80 б.; Усмонов С. Ўзбек тилида сўзларнинг грамматик формалари//Тилшунослик масалалари. –Т., 1964. 42- китоб. –Б. 126-127; Шоабдураҳмонов Ш. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т., 1980; Тожиев Ё. Ўзбек тили морфемикаси. –Т., 1992. -68 б.; Шаҳобиддинова Ш. Грамматик маъно талқини хусусида: филол. фанлари номз. ... дисс. автореф. –Самарқанд, 1993. Эрназарова М.С. Грамматик маъно лисоний ва прагматик омиллар яхлитлигида: филол. фан. докт... дис. – Самарқанд, 2018, 218.

[2] Айюб Ғуломовнинг илмий мероси. (3- китоб) Морфемикага оид мақолалар. –Т., 2007.

tilshunosligining dolzarb muammolari» silsilasidagi sakkizinchi maqolasi[1] son shakli grammatik valentligining mohiyatini belgilashni ancha yengillashtiradi.

Dastlab o‘zbek tilida son kategoriyasi, ya’ni bir necha (odatda, birlik va ko‘plik) shaklidan iborat paradigma mavjudmi, degan muammoga munosabat bildirish zarur. Zero, A.G‘ulomov risolasi, sarlavhasidan ko‘rinib turganidek, son kategoriyasiga emas, ko‘plik kategoriyasiga bag‘ishlangan va ustoz ot, olmosh, fe’lda mavjud shakl, mazmun va vazifa jihatidan o‘xshashlik va farqqa ega bo‘lgan ko‘plik shaklini alohida bir paradigmaga – ko‘plik kategoriyasiga birlashtiradi. A.Hojiyev son shakliga bag‘ishlangan maqolasida o‘zbek tilida birlik son shakli yo‘q, degan g‘oyani ilgari suradi: “Shu bois «birlik kategoriyasi» birikmasi qo‘llangan taqdirda ham u haqda (uning «mohiyati» haqida) biror asosli gap aytishning o‘zi mumkin emas. «O‘zbek tilida birlik son shakli ko‘plik shakliga zidlanishda belgilanadi» degan va shu kabi quruq gapdan nariga o‘ta olmaslikning sababi ham shunda. Shunday ekan, o‘zbek tilida predmetning birdan ortiqligini (ko‘plik ma’nosini) ifodalovchi (*-lar* affiksi bilan yasaluvchi) maxsus shakl mavjudligi hamda uning mohiyati haqida fikr bildirishning o‘zi kifoya. Bu bilan hech narsa yo‘qotilmaydi. Aksincha, haqiqiy holat, mavjud hodisa o‘z ifodasini topadi.

Aytilgandan ma’lum bo‘ladiki, otning hech qanday shakl ko‘rsatkichiga ega bo‘lmagan (shaklsiz) holati birlik son shakli hisoblab kelinayotgan bo‘lsa-da, ammo, o‘zbek tilida haqiqatan ham birlik ma’nosiga ega bo‘lgan va ko‘plik shakliga zidlik munosabatida bo‘la oladigan shakli (birlik son shakli) borligi o‘z isbotini topgani yo‘q. Bizningcha, grammatik birlik ma’nosiga (umuman, son ma’nosiga) ega bo‘lmagan grammatik shaklsiz holatdagi so‘zni (otni) birlik son (birlik son shakli) hisoblash uchun asos ham, ehtiyoj ham yo‘q. Bunday qilish shaklsiz holat imkoniyatining sun’iy ravishda cheklanishiga olib keladi, xolos. Buning o‘rniga grammatik shaklsiz holatning mavjudligi, uning sababi hamda imkoniyatini to‘la yoritish muhim ahamiyat kasb etadiki, masalaning ana shu tomoniga e’tiborni kuchaytirish asosiy vazifa hisoblanadi”.

Eslatib o‘tish lozimki, turkiy tillarda birlik son shaklining mavjud emasligi, son kategoriyasining bir a’zoli faqat –lar qo‘shimchali shakldan iborat ekanligi g‘oyasi yangi emas. O‘tgan asrning 70-yillarida bu g‘oyani rus turkiyshunosi V.G. Guzyev, D.M.Nasilov, G.P.Melnikov ilgari surishgan[2]. Bu muammo bilan bog‘liq ravishda shuni aytish mumkinki, borliqda, tabiatda, ongda, tafakkurda

[1] Ҳожиев А. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари(саккизинчи мақола)// ЎТА, 2007. -№5.

[2] Гузев В.Г., Насилов Д.М. Словоизменительные категории в тюркских языках и понятие «грамматическая категория» // Советская тюркология, 1981. -№ 3; Гузев В.Г., Насилов Д.М. К интерпретации категории числа имен существительных в тюркских языках // Вопросы языкознания, 1975. -№3; Гузев В.Г., Насилов Д.М. Конкретно-предметное значение имени существительного как зона релевантности категорий числа и определенности/неопределенности // Советская тюркология, 1971. -№6.

zidlanishsiz hodisa bo'lmaydi va bo'lolmaydi[1]. Shuning uchun lingvistik tahlilda ham istagan grammatik shakl boshqa bir – unga zidlangan shakl bilan qiyosda olinadi va sistemaviy tahlilning asosini tashkil etadi. Shu asosda ayta olamizki, sistem tilshunoslikning, til sistem-struktur tahlilining asosiy tushunchasidan biri [o] morfema va [o] ko'rsatkichli shakl muammosidir[2]. Bunday qo'shimchasiz yoki A.Hojiyev ta'biricha, «otning hech qanday shakl ko'rsatkichiga ega bo'lmagan (shaklsiz) holati»ning sistemadagi o'rni va mohiyati haqida o'zbek tilshunosligida 70-yillardayoq quyidagi g'oya va talqin ilgari surilgan edi: "Fe'lning barcha formasini ikkiga – kategoriya ichidagi formaning o'zaro oppozitsiyasida ma'lum aniq bir belgiga ega bo'lgan belgili formaga va bu oppozitsiyada aniq belgiga ega bo'lmagan belgisiz (neytral) formaga ajratish mumkin. Birinchi gruppa (belgili) formaning qo'llanilish va ma'no ottenkasi doirasi o'zi mansub bo'lgan kategoriyaning belgisi va har bir formaning kategoriya ichidagi oppozitsiyadagi belgisi bilan, ikkinchi gruppa (belgisiz) formaning qo'llanilish va ma'no ottenkasi doirasi esa faqat o'zi mansub bo'lgan kategoriyaning belgisi bilan cheklangan bo'ladi (chunonchi, aniq nisbat, -(a)r qo'shimchali zamon formasi, -(i)b ravishdoshi). Boshqacha aytganda, birinchi gruppa formaning qo'llanilish doirasi va ma'no ottenkasi kategoriyadagi formalararo munosabat bilan belgilansa, ikkinchi gruppa (belgisiz) formaning qo'llanilish va ma'no ottenkasi kategoriyaaro munosabat bilan belgilanadi va bu forma shu kategoriyaning reprezentanti (umumiy namoyandasi) rolini o'ynaydi. Shuning uchun ma'lum kategoriyaga mansub bo'lgan formaning ma'nosi shu kategoriyaning reprezentant formasining ma'nosi asosida belgilanadi"[3].

Iqtibosdan ko'rinib turibdiki, otning shaklsiz holati xuddi mana shunday – kategoriya dominantasi mavqeyiga ega. Shuning uchun uni kategoriya tarkibidan chiqarish sistema mohiyatini uqmaslikdan o'zga narsa emas. Bu shaklni qanday atama bilan atashimiz tamoman boshqa masala: birlik son shakli, son kategoriyasining asos/bosh/dominanta/ilk/tayanch shakli kabi. Lisoniy mohiyat esa **«shaklsiz holatning shaklli holatga zidlanishidan iborat»**. Tabiiyki, shaklsiz holat [*-lar*]siz, shaklli holat [*-lar*]li bo'lgandan, [*-lar*]li holat ko'plik deb qabul qilingandan keyin [*-lar*] siz holat mantiqan «noko'plik», «ko'plik emas», «ko'plikka zid» qabilida nomlanishi kerak. Tabiiyki, bunday mazmun – mohiyat «ko'plik son» zidligida «birlik son» atamasi bilan ifodalanishi lozim. Bu yerda son paradigmasi a'zosi tarkibi masalasiga

[1] Туленов Ж., Ғафуров З. Фалсафа. –Т., 1997; Хайруллаев М., Ҳақбердиев М. Мантиқ. –Т., 1993; Хегел. Наука логики. –М., 1971. с. 65–66.
[2] Исаченко А. В. О грамматическом значении // Вопросы языкознания, 1961. -№1. Исаченко А. В. Бинарность, привативные оппозиции и грамматическое значение //Вопросы языкознания, 1963. -№2. Русская грамматика. Под редакции Шведовой. I – II том. 187§, 1134§ – 219§; 274§ – 282§; 1317§- 1377§.
[3] Неъматов Ҳ.Ғ. Феъл, унинг форма ва категорияси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1972. -№2. 49- б.

to'xtalishning sababi shundaki, bu muammo boshqa grammatik kategoriya tahlilida ham qalqib chiqadi va unda kategorial dominanta goh «shaklsiz holatda (kelishik, nisbat kabi kategoriyada), goh maxsus shaklli holatda keladi (zamon, sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi va boshqa paradigmada). Dominanta yuqoridagi iqtibosda ko'rsatilgan semantik funksional qobiliyatga ega bo'lgan holda tizimda o'ziga xos mutlaq qiymatga ham ega bo'lishi mumkin. Chunonchi, kelishik tizimida kategorial dominanta bosh kelishik shunday mutlaq funksiyaga – ega vazifasida kelish, egani shakllantirish xususiyatiga ega. Morfologik grammatik kategoriyada dominanta bilan qurshov a'zosi orasidagi bunday munosabat ehtimol leksik tizimning umumiy qonuniyatidan biri bo'lsa kerak. Chunki shunday munosabatni leksik mikrosistemada ham R.Safarova, Z.Yunusova, L.Ne'matova tasvirlaganidek ko'rish mumkin.[1] Chunonchi, "qo'y" giponimik uyasida dominanta *qo'y* leksemasi, "tovuq" giponimik uyasida *tovuq* dominantasi dominant ma'no va funksiya bilan birga xususiy «urg'ochi» qiymatiga, «yulduz» giponimik uyasida esa «yulduz» leksemasi «sobit» qiymatiga ega.

Son kategoriyasi haqida umumiy ma'lumot. Ziddiyatli munosabatda bo'lgan birlik va ko'plik ma'nosi va bu ma'noni ifodalovchi shakl sistemasi grammatik son kategoriyasini tashkil etadi.

Mantiqiy va grammatik sonni aralashtirmaslik kerak. Masalan, jamlovchi *(xalq, qo'shin, poda, suruv)* mantiqan predmet jamini bildiradi, lekin grammatik jihatdan birlikda deb qaraladi.

Son kategoriyasining ikki: *-lar* affiksi bilan yasaluvchi shakli va shunga oppozitsiyada bo'lgan nol ko'rsatkichli shakli bor. Bundan *-lar* affiksi otning ko'plik shaklini yasaydi, birlik shakl esa nol ko'rsatkichli shakli.

-lar shaklining ko'plikni ifodalashi masalasida barcha tilshunoslar hamfikr. Ammo nol ko'rsatkichli shakl masalasida har xil qarash bor.

Ko'p holda nol shakl faqat birlik ma'nosining ifodalovchisi sifatida qaraladi. Ba'zilar esa u na ko'plik, na birlik ifodalashini ta'kidlab, bu shaklning son kategoriyasi tarkibidagi o'rniga shubha bilan qaraydi.[2] Zero, nol shakl miqdoriy grammatik ma'no anglatishdan mahrum ekan, unda *-lar* shakli bilan aynan bir xil qurshovda o'rin almashishini qanday tushunish kerak? Unda *Askar*

[1] Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. –Т.: Ўқитувчи, 1996; Юнусова З. Ўзбек тилида лугавий микросистема ва унинг тараққиёти: филол. фанлари номз. ... дисс. автореф. –Т., 2004; Неъматова Л. Ўзбек тилида привативлик (нофонологик сатҳлар) : филол. фанлари номз. ... дисс. автореф. –Т., 2002.
[2] Гузев В.Г.Насилов Д.М. Конкретно-предметное значение имени существительного как зона релевантности категорий числа и определенности-неопределенности // Советская тюркология, 1971, -№ 5. -С. 98.

o'rab oldi o'ngdan-u so'ldan (Mirt.) gapida mantiqan *askarlar* so'zshakli ishlatilgan bo'lur edi.[1]

Demak, *-lar* va nol shakl hozirgi o'zbek adabiy tilida miqdor anglatuvchi grammatik shakl. Bu ular sof miqdor anglatadi, degani emas, albatta. Miqdor belgisi bu shaklda kategorial ma'no bo'lsa, unda sifatiy yondosh va boshqa hamroh ma'no ham mavjud.

Son kategoriyasi shakli. Birlik son shakli. Nol ko'rsatkichga ega bo'lgan birlik son shakli bir ko'plab xususiy grammatik ma'noni ifodalashga xizmat qiladi: «birlik», «ko'plik», «jamlik», «bog'liqlik yoki o'xshashlikka asoslangan ko'plik». Bu tilshunos Sh.Shahobiddinovaning nomzodlik dissertatsiyasi batafsil tadqiq qilingan.

Jamlik ifodalash. Nol shakl turdosh otga qo'shilib belgilanmagan sonni bildiraveradi. Shu bilan birgalikda ifodalanayotgan narsa-predmetni turga bo'lmaydi, bir butun sifatida ko'rsatadi. O'zbek tilida birlik va ko'plik son shakliga oppozitsiyada bo'lgan qandaydir juftlik yoki jamlik ifodalovchi grammatik vosita yo'q. Shu boisdan tilda mavjud ikki shakl nutq vaziyati va qurshovdan kelib chiqqan holda bu ma'noni ifodalab ketaveradi. Biroq shaklning ma'no tafovuti saqlanib qolaveradi. Boshqacha aytganda, ko'plik son shakli jamlik ifodalaganda bu jamlikning bo'linuvchanlik xossasiga egaligi, nol shaklning esa ma'noni yaxlitlik ko'rsatishi saqlanib qolaveradi. Quyidagi misolni kuzatamiz: *Bugungi o'quvchi kechagi o'quvchidan mustaqil fikrining ustunligi bilan ajralib turadi. (Gazetadan) . Mullaning aytganini qil, qilganini qilma. (Maqol)* . Gapdagi *o'quvchi, mulla* so'zi birlik son shaklida bo'lsa-da, matn mazmunidan uning yakka o'quvchi emasligi, ya'ni o'quvchi jamini anglatayotganligi, biroq bu jamlik bo'linuvchanlikdan xoli, yaxlit ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi. Birlik son shakli bo'linmas jamlik ma'nosini voqealantirishi uchun sintaktik qurshov, matn talab qilinadi. Tadqiqotda matnning son kategoriyasiga ta'sirini nokategorial hodisa sifatida baholashadi. Biroq bunda son grammatik ma'noni ifodalash va grammatik voqealantirishga hamkorlik qilish tushunchasi farqlanishi lozim. Har qanday grammatik yoki leksik ma'noning voqealanishida boshqa sath yoki hodisaning ko'maklashuvi tilning lisoniy tizimi yaxlitligi misolida tilshunoslikda hal etilgan.[2] Jamlik ma'nosi birlik son shaklining substaniyasida mavjud bo'lib, u faqat buni voqealantirishida mustaqil harakat qila olmaydi.[3]

[1] Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Т.: Янги аср авлоди, 2001. –Б. 101.

[2] Менглиев Б. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар: филол.фан.докт.дисс. –Т.: 2002.

[3] Сафаров Ф. Ўзбек тилида сон-миқдор микромайдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти:филол.фан.номз.дисс. ...автореф. –Самарқанд, 2004.

Ko'plik ifodalash. Birlik son shakli o'rni bilan – matn va qurshov talabidan hamda o'z imkoniyatidan kelib chiqqan holda ko'plik ma'nosini ham ifodalashga qodir. Bu uning ko'plik son shakli bilan bir kategoriya tarkibiga kirishi hamda o'zbek tilida tejamkorlik xususiyatining mavjudligi bilan izohlanadi. Boshqacha aytganda, nutqiy tejamkorlik talabi bilan ko'plik son tushirilishi va ko'plikni ifodalash birlik son shaklining zimmasiga yuklanishi mumkin. Ko'plik son shaklining tushirilishini grammatik shaklning belgisiz qo'llanishi sifatida tushunish ma'qul emas.

Birlik son tomonidan ifodalanayotgan ko'plik ma'nosi matn va qurshov sharoitiga bog'liq ravishda aniq yoki noaniq tabiatli bo'lishi mumkin. Quyida uning har birini alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki, aniq va noaniq miqdor ma'nosini ifodalovchi vosita butun til sathi bo'ylab sochilgan. Grammatik son kategoriyasi va ravish turkumiga mansub leksema ko'plik ma'nosini noaniq ifodalashga xoslangan. Biroq son turkumiga mansub so'z, odatda, ko'plik ma'nosini aniq ifodalaydi. Birlik son shakli matnda son turkumiga mansub tegishli leksema bilan muvofiqlashar ekan, undagi ko'plik muayyanlashadi. Ayrim misol keltiramiz: 1. *Yo'lga tushdi ikki chol, To'yga borish qarz beshak.* (A.Orip.).*2.Paxta tozalash mashinasi tinmay ishlar, to'rt kishi doim u bilan ishlar edi.*(Sharq yulduzi).Matndagi *chol* va *kishi* so'zi birlik son shaklida bo'lib, matn va undagi aniq miqdor ifodalovchi son leksema yordamida ko'plik va aniqlik ma'nosi anglashilgan. Birinchi gapda *chol* so'zi *ikki* so'zisiz birlik ma'nosini ifodalayverar edi. Biroq aniq miqdorni leskema unga ko'plik ma'nosini bergan va birlik son shakli «birlik» ma'nosidan mahrum bo'lgan. Bu yuzaga kelgan «ko'plik» ma'nosining aniqlik ottenkasi bilan yanada kuchaytirilgan. Bir qarashda bunda birlik shakli borligiga shubha bo'lishi ham mumkin. Biroq nutqda har qanday otning har doim son kategoriyasining biror shaklida bo'lishi ilmiy asoslangan. Demak, *ikki chol* birikuvidagi ot birlik sonda bo'lsa-da, undagi «birlik» ma'nosi so'ngan. Ammo shakl ma'nosiz bo'lishi mumkin emas. Ko'rinadiki, birlik son shakli *ikki* so'zi yordamida o'z-o'zidan «aniq ko'plik» ma'nosiga ega bo'lib qolgan. *Kishi* so'zining birlik son shaklida aniq miqdor bildiruvchi so'zsiz qo'llanishi kam uchraydigan hodisa. Lekin mazkur gapda u *to'rt* so'zi bilan birga kelib, aniq ko'plik ma'nosini bildiruvchi birlik sondagi ot sifatida yuzaga chiqqan. Keltirilgan misol birlik son shaklining aniq ko'plik ma'nosini ifodalashga yetarli asos bo'ladi.

Miqdoriy noaniq ko'plik ifodalashi ham birlik son shaklining o'ziga xos xususiyati, matn va qurshov hamda lisonning nutqda yaxlit voqealanishi, sathning o'zaro hamkorligi xususiyatidan kelib chiqadi. Miqdoriy noaniq ko'plik

ifodalash birlik sondagi otning noaniq miqdor ifodalovchi so'z bilan birikuvida namoyon bo'ladi. Misol: *1. Besh-olti* ***oydan*** *keyin sayrgohning chimzorida sallali hindu Yana paydo bo'ldi.* (Sharq yulduzi) 2. *Oradan ko'p* ***kun*** *o'tdi. Sohib La'l menga e'tiborliroq bo'lib qoldi.* (A.Muxtor). Gapdagi oy va ko'p so'zi birlik son shaklida. Lekin noaniq miqdor bildiruvchi *besh-olti* va *ko'p* so'zi yordamida ko'plik va uning «noaniq» ko'rinishi voqealangan.

Misoldan ma'lum bo'ladiki, birlik son shakli o'rni bilan, matn va qurshovga bog'liq ravishda ko'plik ma'nosini ham ifodalashi mumkin. Biroq bu ma'no birlik son shaklining mustaqil holda ifodalanadigan ma'nosidan farqli ravishda birikuvchi so'z yordamidagina yuzaga chiqadi. Demak, birlik son shaklining ba'zi ma'nosini sintaktik omil (so'zning erkin birikuvi) yuzaga chiqaradi.

Birlik ifodalash. Birlik son shaklining «birlik» ma'nosi uning tipik ifodalanuvchisi emas. Birinchidan, bu ma'no mazkur shakl imkoniyatidan biri. Ikkinchidan, u bu ma'noni ifodalash uchun ba'zan *bitta, yakka, yagona, yolg'iz, tanho* kabi so'z, ayrim olmoshning ko'magiga ham ehtiyoj sezadi. Misol: 1. *-Ha, men uni* ***bitta*** *oshga tushirganman.* (T.Malik.) 2.*Bir vaqtlar nevarasi Mo'min mirzoning o'ldirilishiga sabab bo'lgan Xadichabegim, ehtimol, kelajakda Badiuzzamon mirzoni ham yo'q qilish va o'g'lini yakka* ***podsholiga*** *aylantirish maqsadida.* (P.Qodirov) 3. *U keyingi kunlarning, shubhasiz, yagona* ***qahramoniga*** *aylandi.* (N.Eshonqul) 4.*Bundan bir yarim yil avval Xonzoda begim yolg'iz* ***o'g'ilchasi*** *bilan Balxdan Qunduzga kelayotganida uning yuragini titratgan noma'lum xavf-xatarlar go'yo mana shu og'ir chekinish paytini kutib yotgan edi.* (P.Qodirov) 5. *Hozir uyda Otabek bo'lmagani uchunmi, nimadan bo'lsa ham, har nechuk Zaynab o'z uyida kuymalanishib yotar va mehmonlarni O'zbek oyimning tanho* ***o'ziga*** *tashlagan edi.* (A.Qodiriy.). 6. *Ushbu* ***yodgorlikka*** *murojaat qilar ekanman, mening maqsadim bitta...*(O.Matjon).

Birlik son shaklining «birlik» ma'nosi «noaniqlik» ma'nosi bilan birgalikda ham voqealanishi mumkin. Bunda *bir* so'zining ahamiyati katta. Bir so'zi bilan qo'llangan birlik sondagi otning «birlik» yoki «noaniq birlik» ifodalashi ham til sathining o'zaro hamkorligiga tayanadi. Quyidagi misolga murojaat qilaylik: 1. *Boysun orqali Hisorning Qoratog'iga chekinib kelgan Bobur yetti ming Askar va uqnig'i bilan sayhon bir* ***o'tloqda*** *tunamoqda edi. (P.Qodirov).* 2. *Qishloqda bir* ***bo'z bola*** *bor edi.* (T.Murod). 3. *Hali bir* ***o'rin*** *sovimay turib, ikkinchi to'shakni yetim qoldirmoqni qasd qilgan Kesakpolvon bu yerga nima uchun kelganini ham unutgan edi.* 4. *Oybek domla bilan uchrashuvlarimni, hamda kechirgan hayajonlarimni qog'ozga tushirsam bir* ***risola*** *bo'lar.* (A.Orip.). *Bu uy Tersotada qurilgan birinchi uylardan edi va Rayim polvonning otasi Shukur oqsoqol bir* ***asr*** *muqaddam tug'ilajak farzandlariga keng uy va yildan-yilga*

ko'payib borayotgan yilqilarga otxona solish maqsadida Tersota soyining oftobro'yasida qishloqning birinchi poydevorini qurdirdi. (N.Eshonqul). E'tibor qilinsa, bir so'zi urg'usiz talaffuz qilinganda, boshqacha aytganda bir so'zi va u birikib kelayotgan so'z bir umumiy urg'uga ega bo'lsa, «birlik noaniqlik» ma'nosi tushuniladi. Gapdagi *bir o'tloqda, bir bo'z bola* birikuvida shunday hol kuzatiladi. Bir o'rin, bir risola, bir asr birikuvida esa bir va u birikuvchi so'zning har biri alohida-alohida urg'u bilan talaffuz qilinadi va «noaniqlik» ma'nosi voqealanmaydi. Demak, birlik son shaklining «birlik noaniqlik» ma'nosini voqealantiruvchi vosita - fonetik hodisa. Bu fonetika va grammatikaning o'zaro aloqadorligi va nutqda yaxlitlikda, hamkorlikda voqealanishiga dalil.

Ta'kidlanganidek, son kategoriyasiga mansub birlik son shakli umumiy grammatik ma'nosi sifatida «bo'linmas aniq-noaniq miqdor» tiklangan. Bu shaklga xos substansial mohiyatning voqealanishi ham uni tiklashdagi kabi qator qiyinchilikni keltirib chiqaradi. Dastavval, shaklning moddiy ko'rsatkichdan holiligi masalani murakkablashtiruvchi sabab bo'lsa, ikkinchidan, unda birlik va ko'plik miqdoriy mohiyati bilan qorishgan holda yashaydigan noaniqlik-aniqlik sifatiy mohiyat tajallisi uning o'ziga xos xossasini tiniq idrok qilish imkonini cheklaydi.

Tadqiqotchilar shaklning bir nechta oraliq ma'nosini farqlaydi. Xususan, H.Ne'matov birlik son shaklining bevosita miqdor bilan bog'langan yoki bog'lanmagan 8 ta ma'no turini ajratadi[1]. Sh. Shahobiddinova shakl umumiy grammatik ma'nosini 3 ta oraliq grammatik ma'no asosida tiklaydi.[2]

Shakl umumiy grammatik ma'nosi nutqda voqealanar ekan, u bevosita o'z «borlig'i»ni o'zi namoyon qila olmaydi. Bunda nutqqa chiqayotgan va qurshov hosil qilayotgan leksemaning roli behad ulkan. Me'yoriy qurshov shaklga namoyon bo'luvchi xossani bermaydi, aksincha, shakl bu xossaga ega bo'lganligi bois, ushbu qulay qurshovda uni namoyon qiladi.

Birlik son shakli oraliq grammatik ma'nosini farqlashda sintaktik omil leksik omilga nisbatan ustuvorlik kasb etadi. Aniqrog'i, bunda birlik son shakli bilan nutqqa kirib, otga aniqlovchi sifatida ishtirok etadigan so'z muhim ahamiyat kasb etadi. Ayrim oraliq grammatik ma'noning ba'zi xossasi so'zshaklga asos bo'layotgan leksemaning tabiati bilan belgilanadi.

Birlik son shaklli ot nutqqa hech qanday aniqlovchisiz kirar ekan, bunda uning «tur» ma'nosi yuzaga chiqadi. Boshqacha aytganda, birlik son shakli leksema atayotgan denotatni tur sifatida boshqa turdan farqlash vazifasini

[1] Нигматов Х. Указ. Соч. -С.45.

[2] Шаҳобиддинова Ш.Ҳ. Грамматик маъно талқини ҳақида: филол. фанлари номз. ... дисс. автореф. -Самарканд, 1994. - Б. 16.

o‘taydi: ***Olim*** *bo‘lish oson,* ***odam*** *bo‘lish qiyin.* Tur ma’nosi leksemaning ma’noviy tabiatiga bog‘liq ravishda yuzaga chiqadi. Leksema aniqlovchi olsa, bu ma’no biroz torayadi. *1. Yetuk olim bo‘ling. 2. Jamiyat taraqqiyotini ma’naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi.* Demak, leksik omil mazkur ma’noni voqealantirsa, sintaksis uni muayyanlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, atoqli otda ham birlik son shakli «tur», «ajratish» ma’nosini voqealantiradi. Bu, albatta, atoqli ning o‘ziga xos semantik tabiatdan kelib chiqadi. Demak, atoqli ning ma’noviy xossasi shaklning o‘ziga xos tur ma’nosini yanada muayyanlashtiruvchi vosita. Bunga hodisani atoqli otning ko‘plik son shaklida qo‘llangan holatiga qiyoslash bilan amin bo‘lish mumkin.

Ko‘rinadiki, birlik son shaklining «tur-ajratish» oraliq grammatik ma’nosini voqealantirishda lug‘aviy omil yetakchilik qiladi va sintaktik omil unga ko‘maklashadi. Birlik son shakli umumiy grammatik ma’nosini aniqlashda aniqlovchining xarakteri muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, biror so‘z birlik son shaklidagi otga aniqlovchi bo‘lib kelar ekan, uning umumiy grammatik ma’nosiga xos birlik miqdoriy xossani noaniqlik sifatiy xossasi bilan bir butun holda namoyon qiladi. *1. Sizni maktab hovlisida bir kishi kutyapti.* Demak, (bir) so‘zi kabi aniq miqdor aniqlovchisi bilan nutqqa kirgan ot aniq yoki noaniq bo‘lishi mumkin: *3 ta o‘quvchi – 3 ta a’lochi o‘quvchi* kabi.

Birlik son shaklining ma’noviy muayyanlashtirilmagan dagi ma’nosi 2 xil bo‘ladi: noaniq narsaning noaniq miqdori (*kitob o‘qish*) va noaniq shaklning aniq miqdori (*bir kitob).* Bu ma’noning voqealanishida aniq miqdor aniqlovchisi bilan bir qatorda noaniq miqdor aniqlovchisi ham muhim o‘rin tutadi: *(ko‘p/ ancha/ bir qancha kitob).* Demak, miqdoriy aniq ma’noli so‘z birlik son shaklining miqdor jihatini muayyanlashtiradi va sifat jihatini mavhumligicha qoldiradi. Sifat aniqlovchisi esa uning miqdor xossasiga aniqlik kirita olmaydi.

Bu, ushbu, shu ko‘rsatish olmoshi aniqlovchi mavqeida kelganda ham shakl birlik oraliq grammatik ma’nosini voqealantiradi: *Ushbu yodgorlikka murojat qilar ekanman, mening maqsadim bitta (*O.Matjon).

Lug‘aviy muayyan sifat aniqlovchisi bilan kelganda birlik son shakli cheklangan ko‘plik ma’nosini ifodalashi mumkin. Tadqiqotchi Sh.Shahobiddinova ta’kidlashicha, «ko‘plik «aniq» yoki «noaniq» sifat bilan nutqqa kiradi. Bunga aniq miqdor yoki noaniq miqdor ifodalovchi so‘z muhim ahamiyat kasb etadi: 1. *Paxta tozalash mashinasi tinmay ishlar, to‘rt kishi doim u bilan ovora edi. 2. Sovib qolgan choydan bir- ikki piyola ichdi.* Bunda ko‘plik birlik son shakliga xosmi yoki undagi sintaktik vosita tajallisimi degan savol tug‘iladi. Aniqrogi, gapdagi aniq (*qo‘plik to‘rt*), ikkinchi gapdagi noaniq ko‘plik (*bir-ikki*) so‘zi tajallisi emasmi? Demak, shunday ekan, birlik son shaklidan

ko‘plikni qidirish ma’qul emas. Ko‘plik bo‘lib tuyulayotgan hodisa ham birlik son shaklii qo‘llanishida ko‘zga tashlanadi: *Gadoning dushmani gado bo‘ladi.* Bunda “jamlik” oraliq grammatik ma’nosi ham leksemaning ma’noviy tabiati va matnga bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi va lug‘aviy hamda sintaktik omilning teng qiymatli hamkorligi kuzatiladi.

Demak, birlik son shaklida noaniq va aniq miqdor umumiy grammatik ma’nosi turlicha voqealanar va bunda hamkor vositaning roli turlicha ekan, bu, avvalo, ning atoqli va turdosh, aniq va mavhum kabi turlanishidan, qolaversa, birikuvchi so‘zning ma’noviy tabiati va sintaktik o‘rnidan kelib chiqadi.

Ko‘plik son shakli. –lar shakli o‘zbek va umuman turkiy tilning barchasida ko‘plikni ifodalovchi maxsus yagona qo‘shimcha hisoblanadi. Ko‘plik son shakli neytral shakl bo‘lmaganligi sababli uning ma’noviy mohiyati nol shakldagi mavhumlik va «chalkashlik»lardan ma’lum darajada xoli. Shu bilan birga, sog‘lom aqlimiz ko‘p hollarda moddiyliklar asosida bo‘lganligi, tafakkurimiz taktik sezgi a’zolari asosida ish ko‘rganligi tufayli manbalarda moddiy ifodalovchiga ega bo‘lgan grammatik shaklning ma’nolari haqidagi xulosalar dalillanganligi bilan xarakterlanadi[1].

Tilshunos Sh.Shahobiddinova bu shaklning lisoniy va nutqiy ma’nosini umumiylik-xussiylik dialektikasi nuqtayi nazaridan talqin qilar ekan, uni shartli ravishda ikki guruhga jamlaydi:

1) son kategoriyasi doirasidagi ma’no;
2) son kategoriyasi doirasidan chiquvchi ma’no.

Fikr son kategoriyasining substansial ma’nosi – son-miqdor ifodalash xususiyati haqida borar ekan, bunda son kategoriyasi doirasidagi ma’no bilan cheklanish maqsadga muvofiq.

Ko‘plik ifodalash. Bu ma’no son kategoriyasining xoslangan va eng ko‘p uchrovchi ma’nosi hisoblanadi va otning barcha grammatik ma’no turi bilan yuzaga chiqaveradi. Tilshunoslar ko‘plikning bu turida miqdoriy bo‘linuvchanlik-bo‘linmaslik va sifatiy noaniqlik ma’nosi bir vaqtda yuzaga chiqishini ta’kidlashadi. Misolga murojaat qilamiz: *Yuz yildan beri* ***tersotaliklarning*** *g‘ururi va faxri bo‘lib kelgan, zamonaviy qilib qurilgan ravoqli* ***uylar*** *qarshisida yuzdagi chipqondek qishloqqa ko‘rimsizlik va keksalik bag‘ishlab turgan, noma’lum va mudhish* ***sinoatlarga*** *to‘la va qadim qo‘rg‘onni eslatuvchi Bayna momoning uyini, xuddi unutishga va yo‘qolishga mahkum etilgan xotiradek, nihoyat buzib tashlashga kirishishdi: temir tirnoqli* ***buldozerlar*** *uyning* ***devorlarini*** *qulatar ekanlar, uy bilan qo‘shib,* ***o‘zlarining***

[1] Эргазарова М.С. Грамматик маъно лисоний ва прагматик омиллар яхлитлигида: филол. фан. докт... дис. – Самарканд, 2018, – Б.124-125.

ham ***nimasinidir*** *buzib, vayron qilishayotgandek,* ***tersoatliklar*** *bir chekkada jimgina kuzatib turishar va naq ellik yilcha taqdirning beshafqat o'yiniga qarshi kurasha-kurasha dunyodan yolg'iz va izsiz o'tish azobini ko'tarib kelgan, hayoti* ***o'zlariga*** *hamon tushunarsiz va mavhum tuyulayotgan Bayna momoni eslagan* ***ayollar ko'zlariga*** *yosh olib,* ***bolalarini bag'irlariga*** *bosgancha, olis va g'amgin* ***xotiralarga*** *berilib, mung'aygan alfozda o'tirardilar.* (N.Eshonqul) Barcha misoldagi qoraytirilgan so'zning ifodalovchisi birdan ortiqligi, lekin nechta ekanligi noaniqligi, shu bilan birgalikda, bu ko'plikning bo'linuvchanligi (masalan: buldozer= buldozer+ buldozer+ buldozer+...) ayon. Voqealangan ko'plik ma'nosini shu asosda «noaniq va bo'linuvchan ko'plik» sifatida baholash mumkin.

Noaniq ko'plik ma'nosi *-lar* shaklining sanaladigan yoki sanalmaydigan narsa-perdmetni ifodalovchi so'zga qo'shilishiga ko'ra bo'linuvchan yoki bo'linmaslik kabi xususiy ma'noga parchalanadi. Misol: 1. *Balki ular shu kelishda Andijonning ustidan uchib o'tgandirlar? Yoki Toshkent va Samarqand atroflaridagi sokin* ***suvlar*** *bo'yida qo'nib dam olgandirlar.* (P.Qodirov). 1. *Buloq* ***suvlariga*** *yuzini yuvdi. (T.Murod). 3.«Siz sutga qo'shgan suvlar yig'ilib, selga aylandi-yu, suruvni surib ketdi», - debdi Cho'pon.* (T.Malik). 4. *Maydon chetidagi bayroq osilgan muhtasham binoda tenglik va insonparvarlik hamda Fan, taraqqiyot to'g'risida qandaydir da'vatkor shiorlar osilgani, go'yo bu shiordagi* ***so'zga*** *yomg'irning g'am g'ashi kelganday qizil alvonni oqqa bo'yab tashlagandi.* (N.Eshonqul). E'tibor qilinsa, dastlabki gapdagi ko'plik shaklida qo'llangan *suvlar* nutqiy birligi orqali ifodalangan ko'plik ma'nosidan noaniq ko'plik bilan birgalikda uning bo'linmasligi ham namoyon bo'lmoqda va sifatiy belgi suvning sanalmasligi xususiyatidan kelib chiqadi. Uchinchi gapdagi qoraytirilgan birlikdan sifatiy bo'linuvchanlik ma'nosi uqiladi. Chunki so'z nutqda ajralgan va uni sanash mumkin bo'ladi. Bunday ma'noviy farqlanish vositasidan biri matn bo'lishi ham mumkin. Masalan, *Do'konda suvlar bor* gapidagi suv so'zi orqali miqdoriy noaniqlik sifatiy bo'linuvchanlik bilan birga yuzaga chiqadi. Chunki bundagi suv so'zining semantikasi va denotati avvalgi gapdagi suvdan farqlanadi (qadoqlangan suvni sanash mumkin).

Jamlik ifodalash. «Jamlik» ma'nosi birlik va ko'plik orasida «oraliq uchinchi» maqomiga ega bo'ladi. Bu ma'no birlik son shaklida kuzatilgani kabi, ayrim ko'plik turida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, sanalmaydigan narsa-predmetni ifodalovchi ko'plik son shaklini olganda aksariyat holatda jamlik ma'nosi uqiladi. Misol: 1.*Orqada ham seni qurolli* ***kishilar*** *qurshab olgandi. Faqat bitta yo'l-ko'prik ochiq edi* (N.Eshonqul). 2. *Dilda g'ashlik bo'lmay yashasang, xullas, Baxtli* ***odamlarday*** *baxtli bo'lolsang.* (A.Orip.) 3.

Bobur yana saydarboshini chaqirdi va Gulbadanga Hindistonda keltirilgan ***to'tiqushlarni*** *hadya qilishni buyurdi* (P.Qodirov). 4. ***Qizlar*** *katta tut ostiga g'uj bo'ldi.* (T.Murod). *Ko'zi* ***kelinlarning*** *nigohlari bilan to'qnashgach, shu* ***bolalarni*** *tug'ib katta ayb ish qilib qo'yganday boshini xam qildi.*(T.Malik). Tilshunoslar «jamlik» ma'nosi ko'pincha turg'unlashib qolgan turkiy izofalarda ko'zga tashlanishini ta'kidlashadi: *o'qituvchilar gazetasi, fizkulturachilar gazetasi, talabalar uyi, yoshlar markazi, xotin-qizlar qo'mitasi, kitoblar uyi, ayollar maslahatxonasi, erkaklar saloni, tadbirkorlar palatasi, fuqarolar yig'ini* kabi.

Bog'liqlik va o'xshashlikka asoslangan ko'plikni ifodalash. Aytilganidek, ko'plik son shakli qanday ma'noviy tabiatli otga qo'shilishiga qarab turlicha ma'no ifodalaydi. Masalan, bu shaklning atoqli otga qo'shilishi turdosh otga qo'shilishidan farqlanadi. Misol: ***Farhodlar*** *kelishdi kanal qazmoqqa,* ***Shirinlar*** *kelishdi peshvoz bo'lmoqqa.* (Qo'sh.). ***Kumushlar*** *endi yo'q,* ***Zaynablar*** *tirik.* (M.Yusuf) Ko'rinadiki, *Farhodlar* yoki *Shirinlar* so'z shakli aynan afsonaviy Farhodni emas, balki farhodmonand pahlavonlarni, Shirindek malikalarni ifodalamoqda. *Kumushlar* va *zaynablar* haqida ham shunday fikrni aytish mumkin. Undagi yana bir umumiy jihat ularning endi shu shakl va qo'llanishda atoqli sirasidan chiqqanligi. Shuningdek, so'z shakldan ko'plik ma'nosi uqilayotgan bo'lsa-da, unga yondosh «o'xshashlik» ma'no unsuri ham namoyon bo'lgan. *-lar* shaklining «bog'liqlikka asoslangan ko'plik»ni ifodalashi esa quyidagi misolda yuzaga chiqqan: ***Salimlarga*** *yordam g'isht quyib berdim* (Salim va u bilan bog'liq oila a'zosiga). ***Maqsudalar*** *o'qishni ham tamomlashdi.* (Maqsudaga o'xshaganlar). Bu gaplarda qo'llangan so'z shakl, yuqoridagidan farqli ravishda, atoqlilik xususiyatini saqlagan. Bir umumiylik ostida birlashgan bu ikki ma'no atoqli/turdoshlik xususiyati bilan nutqiy ziddiyatli munosabatga kirishadi. Demak, ko'rinadiki, ko'plik son shaklining «bog'liqlik va o'xshashlikka asoslangan ko'plik» ma'nosining xususiy ko'rinishi o'zaro ko'plik son qo'shimchasini qabul qiluvchi so'zning lug'aviy ma'nosi – leksik omil asosida farqlanadi.

Taxmin ifodalash. Ko'plik son shaklining «taxmin» ma'nosi voqealanishi uchun bog'liq qurshov talab qilinadi – u vaqtni taxmin bilan ifodalovchi so'zga birikkanda namoyon bo'ladi. Misol: 1.*Talabalar ancha tinchib qolishgan,* birikkanda namoyon bo'ladi. Misol: 1.*Talabalar ancha tinchib qolishgan, tepasida tik turishgan* ***o'rta yoshlardagi*** *odamlarni ko'rmaslikka olib, endi tashqariga qarab turishardi.* (N.Eshonqul). 2. ***Qirq yoshlardan*** *oshgan bu yigit Boburning Hindistonga qilgan avvalgi yurishida ko'p xasorat ko'rsatgan edi.* (P.Qodirov.) 3. *Olloyor asli Samarqanddan bo'ldi, Kattaqo'rg'onning Minglar qishlog'idan bo'ldi.* ***XVII-XVIII asrlarda*** *yashab o'tdi.* (T.Murod) 4. ***Bunday***

onlarda *ona-bolaning yig'lab ko'rishmog'i ayb sanalmaydi, birov ajablanmaydi ham.* (T.Malik). 5. – *Suratlaringizni ko'rsam bo'ladimi?* ***Yigirmanchi yillardagi*** *suratingizni?* (N.Eshonqul). 6. *Bobolarimizning aytishicha,* ***qaysi bir zamonlarda*** *Navoiy bobomiz Samarqanddan Buxoroga ana shu Qo'ng'irtovni oshib o'tgan emishlar.* (A.Orip.).

Bu ma'no aniq bir paytni emas, balki ko'p vaqtni qamrab olayotganligi bilan ko'plik son shakli umumiy grammatik ma'nosiga daxldor bo'ladi. Ko'plik son shaklining bu ma'no turi voqealanishi uchun bog'liq qurshovning talab qilinishi – grammatik ma'no yuzaga chiqishida sintaktik omilning hamkorligidan dalolat beradi. Shu bilan birgalikda, «taxmin» ma'nosini ifodalovchi mazkur grammatik shaklni biriktiruvchi so'z (*yosh, payt, yil, on* kabi) ning ham vaqt-payti ekanligi bu vaziyatda leksik omil – so'zning lug'aviy ma'nosi ham befarq emasligini ko'rsatadi. Demak, ko'plik son shaklining «taxmin» grammatik ma'nosi voqealanishi uchun sintaktik (bog'liq qurshov) va leksik omil (ko'plik shaklini oluvchi so'zning lug'aviy ma'nosi) o'zaro hamkorlik qiladi.

Kuchaytirilgan ma'no ifodalash. Tilshunoslikda **-lar** shaklining kuchaytirilgan yoki hurmat ma'nosini ifodalashi bu ko'rsatkichning nokategorial grammatik ma'nosi sifatida qaraladi. Biroq kuzatishdan ma'lum bo'ladiki, har qanday nokategorial ma'no zamirida kategorial ma'no yotishini ham unutmaslik kerak. Masalan, ko'plik son shakli kuchaytirilgan ma'no ifodalar ekan, bu ma'no bir qarashda "ko'plik" umumiy grammatik ma'nosiga daxldor emas va ko'chma xarakterga ega. Misol: 1.*Lekin mening yodimda hamon o'sha qiyofada – ko'kish gulli oq ko'ylakda lovullab yonib turgan alangaga o'xshaysan, bu alanga* ***tillarigacha*** *oq.* (N.Eshonqul). 2. *Ha, o'zing yorlaqa, yaratgan egam, Iblis* ***yuraklarga*** *qutqu solmasin.* (A.Orip.).3. ***Tillarimga*** *ko'cholmaydi bo'g'zimdagi ovozim.* (U.Azimov). Ajratilgan so'zdagi kuchaytirilgan ma'no "ko'plik" umumiy grammatik ma'nosi asosida. Chunki kuchaytirish zamirida bir narsani ko'pdek qilib ko'rsatishga intilish bor. Demak, ko'plik son shaklining kuchaytirilgan ma'nosi, grammatik ma'noning lison va nutqqa munosabati nuqtai nazaridan, nokategorial – hamroh ma'no bo'lsa-da, uning shakl umumiy mohiyatiga aloqasi sezilib turibdi. Shu boisdan bu ma'noni ham ko'plik son shakliga daxldor qilib ko'rsatishda ma'lum darajada asos bor.

Ko'plik son shaklining hurmat ma'nosini ifodalashi o'zbek tili morfologiyasiga doir qariyb barcha adabiyotda qayd etiladi. Bunga misol keltiramiz: 1. *8- mart bu kun –* ***onamlarning*** *bayrami.* 2. *Qizlaringiz tug'ilsa endi,* ***otini*** *Mehrixon qo'ying.* (A.Orip.). Ko'plik son shakli hurmat ma'nosini ifodalashi uchun har doim o'zidan oldin egalik shaklining bo'lishini taqozo

qiladi. Demak, bunda "hurmat" ma'nosi murakkab shakl – "egalik qo'shimchasi+ko'plik qo'shimchasi" morfologik qolipi asosida yuzaga chiqadi va hurmat ma'nosini faqat ko'plik son shakliga xos qilib qo'yish ma'qul emas.

Son kategoriyasi ko'plik shakli umumiy grammatik ma'nosi sifatida «miqdoriy noaniqlik va sifatiy bo'linuvchanlik» ajratildi[1] va u «ko'plik», «jamlik» «bog'liqlik yoki o'xshashlikka asoslangan ko'plik» oraliq grammatik ma'nosidan sintezlanadi.

Ko'plik shakli oraliq grammatik ma'nosi voqealanishida sintaktik omilga nisbatan leksik omil ustuvorlik qiladi va (**-lar**)li so'z shaklga asos bo'layotgan leksema semantikasi bunda muhim rol o'ynaydi. (**-lar**)li so'zshakl turli aniqlovchini ham qabul qilishi mumkin. Bu esa shakl ma'nosini to'g'ri va ravshan idrok etishga ma'lum ma'noda to'siq ham bo'ladi.

(**-lar**) ko'plik son shakli atoqli otni nutqqa olib kirar ekan, u o'zining umumiy grammatik ma'nosini «o'xshashlikka yoki bog'liqlikka asoslangan ko'plik» sifatida juz'iylashtiradi: *Farhodlar keldi. Mirzacho'llar obod bo'ldi.* So'z shaklga asos bo'layotgan leksemaning atoqlilik xarakteriga bog'liq ravishda shaklning mazkur oraliq grammatik ma'nosi yanada bo'linadi va 2-ravishda shaklning mazkur oraliq grammatik ma'nosi yanada bo'linadi va 2-bo'g'in oraliq grammatik ma'no farqlanadi. Masalan, kishi atoqli oti «o'xshashlikka asoslangan ko'plik» oraliq grammatik ma'nosini farqlaydi va yuzaga chiqaradi: *Daryoning yo'liga gullar sochgali Shirinlar - qadlari shamshodlar keldi*(Uyg'un). Joy nomi atoqli otida esa «bog'liqlikka asoslangan ko'plik» oraliq grammatik ma'nosi yuzaga keladi. Demak, «qurshov ma'nosi o'ziga xos ottenka bilan ifodalanadi, bunday ottenka **so'zning leksik ma'nosi** (ta'kid bizniki - B.M.) asosida yuzaga keladi.[2]

Ko'rinadiki, oraliq grammatik ma'noning har ikkala juz'iy namoyondasi ham o'zlari mansub umumiy grammatik ma'noning «noaniq ko'plik» unsurini ifodalaydi. Bunda oraliq grammatik ma'noning «bog'liqlikka yoki o'xshashlikka asoslangan» qismi daxldorlik darajasiga ko'ra ustunlik kasb etadi.

Ko'plik shakli ko'plik oraliq grammatik ma'nosini voqealantirar ekan, bunda shakl uni miqdoriy noaniqlik va sifatiy bo'linuvchanlikning yaxlit birligi sifatida voqealantiradi.[3] Bu oraliq grammatik ma'noning farqlanishi va yuzaga chiqishida lug'aviy birlikning ichki tabiati muhim rol o'ynaydi. Aniqrog'i, ma'noviy mohiyatidagi «sanaladigan» irrelevant semasi ko'plik shaklining

---

[1] Шаҳобиддинова Ш.Ҳ. Грамматик маъно талқини ҳақида: филол. фанлари номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 1994. – 21 б. –Б.15.

[2] Ўзбек тилининг изоҳли Луғати. 2 томли. 1- том / З.Маъруфов таҳрири остида. –М.: Рус тили, 1981. – Б. 130

[3] Шаҳобиддинова Ш.Ҳ. Грамматик маъно талқини ҳақида: филол. фанлари номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 1994. –Б.15.

yuzaga chiqishiga sabab bo'ladi va shakl har bir qo'llanishda birdan ortiq ma'nosini voqealantiraveradi, bu esa oraliq grammatik ma'noning boshqa tashkil etuvchisiga nisbatan ustuvor daxldorlikka ega bo'ladi: *1. Jasur o'glonlarni nega tug'asiz?* 2. *Ana shu ko'zlarda tevarakdagi chiroqlar singari shu'lalar miltirar edi.*[1]

Ko'rinadiki, Sh.Shahobiddinova ta'kidlaganidek, misolda ko'plik o'zining noaniqlik va bo'linuvchanlik belgisi bilan yaxlit voqealangan. Ko'plik oraliq grammatik ma'nosi otning qaysi ma'no turini nutqqa olib kirayotganligiga qarab turlicha jilvalanadi. Dona narsa otida u «sof ko'plik» *(bu joylarni obod qilish uchun)*, «chama- taxmin» (*yaqin kunlarda)*, mavhumda «ko'p, har xil» (*o'tmish sarqitlari*) tarzida yuzaga chiqadi.[2] Zikr etilgan ma'noviy ko'rinishlarning bir qismida shakl ma'nosi farqlanishi uchun lug'aviy ma'noning o'zi yetarli bo'lsa, ba'zisida sintaktik omil ko'magiga kuchli ehtiyoj seziladi *(o'sha paytlar, buloq bo'ylarida, dastlabki vaqtlarda)*.

«Noaniq ko'plik» umumiy grammatik ma'nosi voqealanishida sintaktik va lug'aviy omillar roli haqida gap borar ekan, ba'zi aniq miqdor ifodalovchi so'z ham shaklda goh lug'aviy, goh sintaktik omil sifatida noaniq ko'plik oraliq grammatik ma'nosi uchun xizmat qilishini ta'kidlash joiz: *1. Adashmasam, uning burniga urib qonatganida uch yoshlarda edim. 2. Soat uchlar edi.* Birinchi gapda aniq miqdor ifodalovchi so'z sintaktik va ikkinchi gapda lug'aviy omil sifatida (**-lar**) shakl oraliq grammatik ma'nosiga ta'sir qilgan.

Shakl umumiy grammatik ma'nosi jamlik ifodalaganda «miqdoriy noaniqlik» «ko'plik» sifatida qoladi, biroq «bo'linuvchanlik» «bo'linmas sifat» tarzida yuzaga chiqadi. Bu esa ushbu ot «jamlik» sifatida «birlik» va «ko'plik» oraliq grammatik ma'nosi orasidagi bo'g'in ekanligidan dalolat beradi: *1. Qumlarni asta sidpalab yurgan shamol.* (J. Abdullaxonov). 2. *Daryo kuchli qarsillab, muzlar yorildi* (J. Abdullaxonov). 3. *Yoshlar uyushmasi qanday bulishi kerak. 4. Qariyalar uyi.* Ma'lum bo'ladiki, ko'plik shakli sanalmaydigan da ham, sanaladigan da ham «jamlik» oraliq grammatik ma'nosini yuzaga chiqaradi. Sanalmaydigan otni nutqqa kiritish asosida «jamlik» oraliq grammatik ma'nosini namoyon qilishda asos leksemaning lug'aviy ma'nosi, sanaladigan da esa sintaktik omil *(qariyalar uyi* birikuvida *uy, yoshlar uyushmasi* birikuvida *uyushma* kabi) ustuvorlik kasb etadi.

«Kuchaytirilgan ma'no ifodalash» ham ko'plik shakli umumiy grammatik ma'nosiga xos oraliq grammatik ma'no bo'lib, bu bir qarashda go'yo «miqdor»

[1]Шахобиддинова Ш.Х. Кўрсатилган асар. –Б. 16.
[2] Ўзбек тилининг изоҳли Луғати. 2 томли. 1- том / З.Маъруфов таҳрири остида. –М.: Рус тили, 1981. – Б.139.

umumiy mohiyatiga bevosita daxldor emasdek tuyuladi. Biroq mantiqan «oz narsaga nisbatan ko'p narsa kuchliroq va ustuvorroq ahamiyat kasb etadi».[1] Shu boisdan alohida diqqat qilish lozim bo'lgan o'rinda narsaning miqdorini ko'p qilib ko'rsatish maqsadida otni garchi yakka bo'lsa-da, ko'plik son shaklida berish holati uchraydi. Bu oraliq grammatik ma'noni farqlovchi omil sifatida leksemaning lug'aviy ma'nosi yuzaga chiqadi. Asosan, insonning yakka, ba'zan juft a'zosini ifodalovchi, shuningdek, mavhum shaklning bu oraliq grammatik ma'nosini bo'rttiradi: 1. *Tillarim achishib ketdi.* 2. *Badanlarim muzlab ketdi.* Z. *Qovoqlarim yorilay deydi. 4. Shodliklarim sig'mas dilimga. 5. Uyqularim qochib ketdi.*

Demak, xulosa qilish mumkinki, ko'plik son shakli oraliq grammatik ma'nosini voqealantirishda lug'aviy omil ustuvor bo'lib, bu shaklda omil nisbati birlik son shaklidagiga nisbatan teskari nisbatda.

Son shakli paradigmatikasi. Son kategoriyasining birlik va ko'plik shaklining umumiy va xususiy grammatik ma'nosini kuzatish uning birlashtiruvchi va farqlovchi jihati o'ziga xosligi haqida xulosa chiqarishga asos bo'ladi. Avvalo, bu shakl ifodalaydigan sifatiy va miqdoriy belgisining o'ziga xosligiga ko'ra farqlanadi.

Shaklning birinchi oppozitiv belgisi miqdor ma'nosini ifodalashida ko'zga tashlanadi. Birlik son shakli ham, ko'plik son shakli ham jamlik ma'nosini ifodalaydi. Biroq birlik son shaklidagi jamlik bo'linmaslikka moyilligi bilan, ko'plik son shaklidagi sifat bo'linuvchanlikka moyilligi bilan xarakterlanadi. Chunki ko'plik son shakli ko'proq bo'linuvchanlikni ifodalashga xoslangan va kam holda bo'linmaslikni ifodalaydi – birlik son shakli esa birlikni ham, ko'plikni ham ifodalayveradi. Buni tilshunos Sh.Shahobiddinova quyidagicha tavsiflaydi: "Ko'plik shakliga bo'linuvchanlik va bo'linmaslikni ifodalash birday xos. Uning biri ro'yobga chiqqanda, ikkinchisi xiralashadi, ammo butunlay yo'qolib ketmaydi, qulay sharoit tug'ilishi bilan darhol yuzaga chiqadi. Masalan, qiyoslang: 1. *Odamlarning taomi ham turli tuman boy.* (A.Orip.). 2. *Yopirilib kelardi odamlar g'ujg'on....*(A.Orip.). *–lar* shakli orqali birinchi misolda jamlik – umuman odam, ikkinchi misolda esa chegaralangan, bo'linuvchan noaniq miqdoriy ko'plik ma'nosi ifodalangan. Ammo birinchi misolda ham nutqiy sharoit talabi bilan bo'linuvchanlik yuzaga chiqishi mumkin bo'lganidek, ikkinchi misoldagi so'z shakl ham bo'linmas sifat – jamlikni ifodalay oladi.

[1] Шахобиддинова Ш. Кўрсатилган асар. –Б. 15.

Shunga ko'ra, jamlik ma'nosi qat'iy bo'lishi lozim holda *–lar* emas, birlik son shakli qo'llanadi: *Orzu bilan tirikdir odam.* ...(Shuhrat).[1]

Shaklning sof kategorial ma'nosi – ko'plikni ifodalashda ham bu shakl o'ziga xoslikka ega. Birlik son shakli birlik miqdorni ham, ko'plik miqdorni ham to'g'ridan-to'g'ri anglataveradi. Ayniqsa, tildagi tejam qonuniyati bunga keng yo'l ochadi. Ko'plik son shakli birlik ma'nosini ifodalaganda ham (*tillarim, yuraklarim*), aytilganidek, ko'plik umumiy grammatik ma'nosining ta'siri sezilib turadi.

Shaklning sifatiy belgi ifodalashida ham o'ziga xoslik bor. Birlik son shaklida miqdoriy ko'plik bo'linmas sifatiy tavsifga ega bo'lsa, ko'plik son shaklida ham bo'linmas (suvlar, qonlar), ham bo'linuvchan (yigitlar, kitoblar) tabiatga ega. Shuningdek, birikuvchi so'zning ta'sirida ham shaklning sifatiy tabiatida jiddiy o'zgarish yuz beradi. Aniq miqdor bildiruvchi so'z birlik son shaklidagi bo'linuvchan ko'plikni voqealantirsa, sanalmaydigan jism oti bilan birikuv natijasida bo'linmaslik yuzaga chiqadi. Birlik son shakli aniq miqdor bildiruvchi so'z bilan ham, noaniq miqdor bildiruvchi so'z bilan ham birikaverganligi kabi, ko'plik son shakli faqat noaniq miqdor ifodalovchi so'z bilangina birika oladi. Son kategoriyasi shaklining xususiy ma'nosi va paradigmatik munosabatini kuzatish asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin:

– birlik son shakli ham aniq, ham noaniq miqdor ma'nosini ifodalay oladi, ko'plik son shaklida esa miqdor hamisha noaniqdir;

– birlik son shakli miqdoriy belgi qandayligidan qat'i nazar sifatiy bo'linmaslikni ifodalaydi, ko'plik son shakli esa miqdoran noaniq narsaning ham bo'linmas, ham bo'linuvchan sifatini ko'rsataveradi.

Buni jadvalda quyidagicha berish mumkin:

Shakl	**Miqdor tavsifi**	**Sifat tavsifi**	**Jami**
Birlik son shakli	aniq – noaniq (0)	bo'linmas (Ķ)	0 Ķ
Ko'plik son shakli	noaniq (Ķ)	bo'linmasFbo'linuvchan (0)	Ķ 0

Demak, birlik son shakli aniq va noaniq miqdorni birday, bo'linmas holda, ko'plik son shakli esa bo'linmas va bo'linuvchan sifatni birday, noaniq holda ifodalaydi. Bu esa har bir shaklning umumiy grammatik ma'nosidir:

1. Birlik son shakli: "aniq va noaniq bo'linmas miqdorni ifodalash";

[1] Нурмонов А., Шахобиддинова Ш.,-Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. -Т.: Янги аср авлоди, 2001. -Б. 106.

2. Ko'plik son shakli: "bo'linuvchan va bo'linmas noaniq miqdorni ifodalash".

Har bir shaklga xos umumiy grammatik ma'no nutqda matn, nutq vaziyati va qurshovga bog'liq ravishda turli-tuman ko'rinishda voqealanadi. Behisob nutqiy ma'noning asosi esa o'ta sodda va jo'n: "aniq, noaniq miqdorni bo'linuvchan, bo'linmas ko'rinishda ifodalash". Bu son kategoriyasining ikki shakl umumiy ma'nosidan sintezlanadigan lisoniy mohiyati – umumiy grammatik ma'nosi.

4- §. Shaxsiy munosabat kategoriyasi

Shaxsiy-munosabat kategoriyasi haqida umumiy ma'lumot. Shaxsiy munosabat kategoriyasiga oid shakl so'zlovchining obyektiv borliqqa va o'z nutqida ijobiy yoki salbiy munosabatni ifodalashga xizmat qiluvchi vosita.

Shaxsiy munosabatning, kichraytirish, erkalash, hurmatlash, kamsitish, kuchaytirish ma'nosining turli xil qo'shimcha yoki affiksoid yordamida ifodalanishi o'zbek tilida keng tarqalgan. Masalan, *qizcha, yigitcha, kelinchak, qo'zichoq* kabi so'zdagi -cha, -chak, -choq qo'shimchasi kichraytirish ma'nosini anglatsa, *bolagina, ukajon, xolajon, akaxon, Rahimboy, Qo'chqortoy, Gulsinbibi, Ra'noxon, Moxirabonu* so'zidagi -gina, -jon, -xon, -toy, -boy, -bibi, -bonu kabi affiksoid erkalatish (ko'p holda) va kamsitish (ba'zan) ma'nosini keltirib chiqaradi. Demak, shaxsiy munosabat shaklini kichraytirish, erkalash va hurmatlash ma'nosini bildiruvchi deb ikki katta guruhga bo'lish lozim.

O'zbek tilida shaxsiy munosabat ifodalashning uchinchi turi ham bor: u **-lar** qo'shimchasini qavm-qarindoshlik bildiruvchi so'zda egalik qo'shimchasidan so'ng keltirish bilan hosil qilinadi: *opamlar, dadamlar, amakimlar, bobomlar* kabi. Bunda hurmatlash ma'nosida hurmat shakli yuzaga keladi.

Bunday guruhlash bir jihatdangina to'g'ri, chunki shaxsiy munosabat shakli o'z ichida leksik-grammatik qurshov, nutqiy muhit, ohang, fikr kimga qaratilganligi bilan bog'liq ravishda yana turli-tuman ma'no nozikligini keltirib chiqarishi yoki ayrim shakl ham kichraytirish, ham erkalatish, kamsitish, hurmatlash ma'nosini anglatishi mumkin. Masalalan, *do'ndiqcha, kelinchak* tipidagi so'z ham kichraytirish, ham erkalash va hurmatlash ma'nosini ifodalashi mumkin.

Shaxsiy munosabat kategoriyasiga oid shakl faqatgina kichraytirish, erkalash va hurmat ma'nosinigina bildirmaydi, balki bundan ham boshqa his-hayajon (munosabat) ma'nosining kelib chiqishida ishtirok etadi. Modal ma'no

gapiruvchining yoshi, ijtimoiy o'rni va u kim haqida gapirayotganligi bilan bog'liq ravishda o'zgarishi mumkin. Xullas, shaxsiy munosabat kategoriyasi shaklining anglatgan ma'nosiga qarab, uning guruhi o'rtasiga qat'iy ravishda chegara qo'yish mumkin emas. Ayniqsa, kichraytirish va erkalash ma'nosi bir-biri bilan shu darajada chatishib ketganki, uni bir-biridan chegaralash qiyin.

Shaxsiy munosabat kategoriyasi so'zning leksik ma'nosini o'zgartirib yubormaydi (uning so'z yasovchilik vositasi (*o'rgimchak, qo'g'irchoq, ko'rpacha, bog'cha* kabi) bundan mustasno), balki asosdan anglashilgan ma'noga qo'shimcha (konnatativ) ma'no kiritadi, ya'ni *stul* va *stulcha* ikkita so'z bo'lsa ham, asosan bitta narsani (stulni) bildiradi.

Shaxsiy munosabat ifodalovchi shaklda uslubiy bo'yoq ochiq-oydin sezilib turadi. Shuning uchun shoir va yozuvchi obraz va personajning xarakter-xususiyatini ochishda, uning nutqini o'ziga xoslashda (individuallashtirishda) shaxsiy munosabat shakliga murojaat qiladi. Shaxsiy munosabat shakli ko'proq badiiy nutq va so'zlashuv nutqi uchun xarakterli tasviriy vosita.

Xullas, shaxsiy munosabat shaklining uslubiy qiymati uning turli xil ma'no nozikligini hosil qilishi, baholash xislatiga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Shaxsiy munosabat ma'nosini hosil qilishning fonetik, leksik, leksik-grammatik xususiyati ham bor, lekin o'zbek tilida shaxsiy munosabat ma'nosi asosan morfologik usul bilan , ya'ni so'z asosiga shaxsiy munosabat ma'nosini ifodalovchi turli xil qo'shimchani yoki affiksoidni qo'shib hosil qilinadi.

Shaxsiy munosabat kategoriyasi tadqiqi tarixidan. Shaxsiy munosabat kategoriyasiga oid morfologik shakl qadimgi turkiy (V–VII asr), eski turkiy (XI–XIV asrning 1- yarmi) davriga oid yozma yodgorlik tilida ham mavjud bo'lgan. Masalan, G'.Abdurahmonov, A.Rustamovning «Qadimgi turkiy til» (T., 1982) kitobida qadimgi turkiy tilda **-aq (-ak), -qi (-ki), -chiq (chik), -ch** kabi kuchaytirish va erkalash qo'shimchasi: *yo'l-yo'lak («so'qmoq»), o'g'lan-o'g'lanchiq («yigitcha»), ata-ataqi («otajon»), ata-atach («otagina»)* kabi shakl mavjudligi ko'rsatiladi.

O'zbek tili tarixida «Eski o'zbek adabiy tili» (XIV asrning 2-yarmi - XIX asrning 2-yarmi) davri shaxsiy munosabat kategoriyasini tashkil etuvchi shaklning rang-barangligi va ma'no ko'lamining kengligi bilan ajralib turadi.

-qina (-g'ina, -gina) qo'shimchasi. Mahmud Koshg'ariyning «Devoni lug'otit turk» asarida **-qina (-g'ina, -gina)** qo'shimchasida kichraytirish bilan birga erkalash ma'no qirrasi ham ifodalanishi aytiladi. Eski turkiy til (XI asr) da bu qo'shimchaning **-qina (-kina)** shaklda qo'llanishi ham uchraydi. Masalan:

o'g'ulqiya (o'g'ilcha), qizqiya (qizcha), arkiya (kichkina kishi), yerkiya (kichkina yer)[1].

Shu zamon tilida erkalashni bildiruvchi **-qi** qo'shimchasi ham mavjud edi. Masalan, *otoqi (otagina), opoqi (opagina, suyukli opa)* kabi. Bu qo'shimcha hozirgi tilda qo'shimchalik holatini yo'qotgan bo'lib, Toshkent shevasidagi *opoqi* so'zi yaqinlik, qarindoshik bildiruvchi tub so'z (tarixan yasama so'z) tarzida tasavvur etiladi.

-qina (-g'ina, -gina) qo'shimchasining otga qo'shilib kichraytirish, erkalash shaklini hosil qilishi haqida Abulg'ozi Bahodurxonning «Shajarai turk» asarida berilgan quyidagi izoh e'tiborni tortadi: *«Lafzi jon arab tili turur. Tojik xush der va o'zbak tan teyur. Ul «kichikkina» ma'nisina bo'lur. O'zbak ani -g'ina teyur, gohi -gina (-kina) teyur, nechukkim, kichik atni atg'ina, va kichik kishini kishigina teyur».*

Mazkur qo'shimchaning qadimgi va eski turkiy tildagi shakli (ko'rsatkichi), uning grammatik va semantik xususiyati haqida qisqa, lekin hamma belgisini qamrab olgan fikrni professor A.G'ulomov aytgan: «**-gina** affiksi. Bu element qadimgi yodgorlikda **-qiya, -kiya** formasida uchraydi. Eski o'zbek tilida u - **g'ina, -gina; -qina, -kina** formasida uchraydi. Hozirgi o'zbek tilida bu affiksning asosiy formasi **-gina** . **-gina** affiksi keng ma'noda kichraytirish ma'nosining modifikatsiyasidir (ma'noning torayishi). Biz umuman gapga taalluqli bo'lgan **-gina** modal yuklamasini va birgina so'zga taalluqli bo'lgan xuddi shu affiksni farqlaymiz. Birinchi holatda chegaralash ma'nosi (faqat) anglashiladi, ikkinchi holatda u kichraytirish-erkalatish affiksi sifatida ko'rinadi. Hozirgi zamon o'zbek tili bu ikki ma'noni farqlash uchun fonetik vositadan foydalandi: chegaralash, ayirish (faqat) ma'nosidagi **-gina** affiksi urg'usiz, boshqa hamma hoatda u urg'uni saqlaydi. Bu element hamma so'z turkumiga qo'shila oladi... Uning yordamida predmet, belgi va harakatning «subyektiv bahosi» ifodalanadi (forma yasalishi)».

-an qo'shimchasi. Eski turkiy til va eski o'zbek adabiy tili manbasida uchraydigan **-an** qo'shimchasi ikki xil talqin qilinadi: 1) ko'plik qo'shimchasi; 2) kichraytirish-erkalash qo'shimchasi.

Maxmud Koshg'ariyning «Devoni lug'otit turk» (indeks) oxiriga ilova qilingan «Grammatik ko'rsatkich»da ham, G'.Abdurahmonov, Sh.Shukurov tomonidan yozilgan «Grammatik ocherk»da ham **-an** ko'plik ko'rsatkichi sifatida talqin qilingan: *o'g'lan ig'lashdi, eran urpashdi* kabi. Lekin «Grammatik ocherk»da *o'g'lan, eran* so'zi birlikni ko'rsatish uchun ham qo'llanganligi aytilib, *o'g'lan eritti, qurch eran* misoli keltiriladi. «Indeks»ning

[1] Кошғарий М. Девони луғотит турк. 3- том. 184–185- бетлар.

bir o'rnida (190- betida) *o'g'lan* so'zi 1) yosh o'g'il bola, 2) bolalar izohlanadi. Demak, **-an** qo'shimchasi ikki vazifada (kichraytirish va ko'plik) qo'llangani eslatiladi. Lekin «Devon» ning o'zida **-an** qo'shimchasining kichraytirish ma'nosida izohlanganini uchratamiz: *o'g'lan biliksiz*-yosh bolada aql yo'q, *ikkiz o'g'lan*-egizak bola (Indeks, 141,160).

Ko'rinadiki **-an** ko'plik qo'shimchasi deb hisoblangan o'rinda tarkibida *o'g'lan, eran* so'zi bo'lgan birikmaning hokim komponenti fe'lning birgalik nisbati shaklida, **-an** birlik deb hisoblangan o'rinda esa fe'l so'z aniqlik nisbat va birlik shaklida. Demak, *o'g'lan, eran* so'zining birlik yoki ko'plikni ko'rsatishi u bilan bog'langan fe'l orqali aniqlanadi, birlikda qo'llanganda kichraytirish-erkalash ma'nosini beradi.

Bu haqda prof. A.G'ulomov yozadi: «Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk»i haqida ko'p gapiriladi-ku, lekin unga tanqidiy yondashish haqida indalmaydi, undagi xato chuqur analiz bilan to'la, ochiq ko'rsatilmaydi. Masalan, Mahmud Koshg'ariy *o'g'lon* so'zidagi **-on** affiksini ko'plik ko'rsatkichi deb izohlaydi (tojik tilidagi ko'plik ko'rsatkichi -on kabi). Holbuki, bu affiks kichraytirish-erkalash bildiradigan ma'lum **-an** morfemasidir»[1]. «Devon»ning o'zidagi misol ham 11- asrda turkiy tilda **-an** ko'rsatkichining ko'proq kichratyirishni bildiradigan qo'shimcha ekanini isbot qiladi.

Bugungi o'zbek tilida **-on** (tarixiy -an) qo'shimchasi ma'nosida siljish yuz bergan: «kattalashtirish», «ulug'lash». *O'g'lon* so'zi hozirgi o'zbek tilida ham asosan yosh kishiga ishlatiladi, ammo o'zbek tilida u kattalash-erkalash ma'nosini ifodalovchi vosita sifatida qo'llanmoqda. Misol: 1. *Zalning to'rida, kichkina xoldor bir eshikcha yonida, atlas ko'rpacha ustida o'n besh yoshlar chamalik qizil duxobadan kiyingan ko'rkam bir* ***o'g'lon*** *palov yeb turar edi* (A.Qodiriy.).

2. *«O'zbekiston» nomli tulporda* ***o'g'lon***
Oppoq to'lqinlarda etardi parvoz...
Yovni pulemyotdan qiyratgan ***o'g'lon,***
Anavi emasmi mening jigarim (H.G' ulom).

-chaq (-chak, -chiq) qo'shimchasi eski turkiy tilda ham, eski o'zbek adabiy tilida ham kichraytirish va erkalash shakli sifatida ko'zga tashlanadi: *baqachuq* (baqaning kichkinasi)[2], *kelinchak* (yosh, yangi kelin, Furqat).

O'zbek tilida **-chak, -choq, -chiq** morfemali so'z (*o'rgimchak, luchchak, arg'imchoq, qo'g'irchoq, o'qchiq* kabi) borki, u hozirgi zamon o'zbek tili nuqtayi nazaridan asos va qo'shimchaga ajratilmaydi. Lekin shunga

[1] Гуломов А.Ғ. Республика олий мактабларида ўзбек тилшунослиги дисциплиналари // Ўзбек тили нутк маданияти масалаларига багишланган республика тилшунослик конференцияси. –Т., 1969, 54- бет.
[2] М.Кошғарий. Девони луғотит турк. 3- том, –Т.:ФА нашри. 1963. 246- б.

qaramasdan, bu so'z tarkibidagi qo'shimcha, baribir, so'zga kichraytirish ottenkasini ishora qilib turishi seziladi.

O'zbek tilida kammahsul hisoblanadigan, hatto ba'zisi o'z vazifa va ma`nosini yo'qotgan qo'shimcha borki, u o'zbek adabiy tilida juda kam qo'llanadi. Ba`zisining, masalan, **-kak** (*erkak, xurkak, jikkak*), **-g'ay** (*qudag'ay*), **-k** (*oynak*), **-chin** (*barchin*) kichraytirish qo'shimchasi ekanligini aniqlash uchun diaxronik kuzatish olib borish talab qilinadi.

Hozirgi o'zbek tilida kichraytirish ma'nosini ifodalovchi **-ak** qo'shimchasi ham bor. U, bir tomondan, tojik tilidan qabul qilingan *mo'ychinak, gashtak, dashtak* kabi so'zda, ikkinchi tomondan, sof turkiy-o'zbekcha *kanizak, qirmizak, tugunak, sharsharak* kabi so'z tarkibida ham uchraydi.

Tarixan juda kammahsul, ammo kichraytirish ottenkasiga ega bo'lgan bir necha ko'rsatkich borki, unga hozirgi o'zbek tilidan ayrim misol keltirish bilan cheklanamiz.

-ka qo'shimchasi: *Lekin,-dedi kulib,-o'risning yaxshisi endi kelibdi:* ***yo'lkada*** *to'qnash kelib qolsang, chetlanib yo'l beradi* (A.Qahhor).

-kay qo'shimchasi: *Onang omonmi, xotining,* ***bolakaying*** *qalay, dudrustmi?* (Nazarmat).

Ilgari keng qo'llanishda bo'lib, kichraytirish, erkalash, hurmatlash ma'nosi uchun xizmat qilgan qo'shimcha borki, u hozirgi zamon o'zbek tilida deyarli uchramaydi. Masalan, **-(a)ch** qo'shimchasi «Devonu lug'otit turk»da quyidagi ma'noga ega: *o'g'ulich (ulich)*-o'g'ilcha, *atach o'g'ul* (o'zini katta kishidek ko'rsatuvchi o'g'il), *anach* (ona qiz, ya'ni o'zining ziyrakligi, aqli bilan barchaning onasidek hisoblanuvchi yosh qiz), *ekach* (ziyrak qiz), *bekach* (shahzoda).

Bekach «yuqori tabaqaga mansub bo'lgan ayol» ma'nosida beka so'zidan yasalgan bo'lib, «sevikli, hurmatli qiz» ma'nosini anglatgan: *bekach arslan tegin* kabi.[1]

Ishkqi, bo'lsa yomonu yaxshidin, ey ko'ngul,
Yo'q tafovut gar ***bekach*** *bo'lsa va yoxud gar mirak*
(Navoiy).

Xulosa qilib aytganda, shaxsiy munosabat ma'nosini ifodalovchi shakl va uning ma'no doirasi o'zbek tili taraqqiyoti davomida o'zgarib bordi, uning ko'pchiligi hozirgi tilmizda iste'molda emas, ba'zisi davr osha leksik asos tarkibida sintezlashib, uning ajralmas qismiga aylanib qolgan.

[1] М.Кошғарий. Девони луғотит турк. 1- том, –Т.: ФА нашри. 1961. 339- б.

Shaxsiy munosabat kategoriyasi shakli. Kichraytirish shakli. Kichraytirish ma'nosiga ega bo'lgan lug'aviy shakli **-cha, -choq, -chak, -chiq** qo'shimchasi bilan hosil qilinadi.

Kichraytirish ma'nosini ifodalovchi qo'shimchani olgan so'z, o'z leksik ma'nosiga aloqador bo'lgan holda, qo'shimcha ravishda kichiklikni ham bildiradi: 1. *Chiroqni to'ntarig'lik* ***tovoqchaga*** *qo'yib, o'zi sandalga o'tirdi* (M.Ismoiliy.) 2. *Qo'lida bir* ***tuguncha****, qattiq bosgan bag'riga, So'ylagil ey* ***kelinchak****, buncha chopasan nega? 3.Oppoq* ***kapalakchalar*** *yer-u ko'kni to'ldirib to'zib ketgan kumush qanotchasini ohista silkitib charx urishardi* (E.Usmonov). 4. *Bir kun ko'rmaganiga saman yo'rg'a uyda qolgan* ***toychog'ini*** *qo'msab yig'layapti* (M.Muhamedov).

1. **-cha** qo'shimchasi. Bu qo'shimcha yordamida yasaluvchi lug'aviy shakl asosan kichraytirish ma'nosini ifodalaydi: *kurakcha, qushcha, ko'zacha, o'rdakcha, kitobcha, supacha* kabi. Masalan: 1. *Oyisi uni zo'rg'a tutib turib, maykasi ustidan oq shoyi* ***ko'ylakchasini*** *arang kiygizdi* (N.Aminov). 2. *Betma-bet kelganimdagina men uning quchog'idagi o'sha oppoq baroqning* ***kuchukcha*** *ekanini ko'rib qoldim* (S.Zunnunova). 3. ***Hovuzcha*** *labiga borib, suvda qichiq manzarani ko'rdi... Tikilib qarasa, to'rt enlik-to'rt enlik keladigan sap-sariq* ***baliqchalar*** (H.Naz.).

Ba'zan **-cha** qo'shimchasini olgan so'z kichiklik ma'nosini ifodalovchi *jajji, kichkina, kichginagina* kabi so'z bilan qo'shib ishlatiladi (aniqlovchiga ega bo'ladi). Bunday holatda kichraytirish ma'nosi yanada bo'rttiriladi. Masalan: 1. *Savri xola oshni suzib keltirdi,* ***kichkina likopchada*** *Qobiljonga solib, ustiga go'sht maydalab berdi* (R.Fayziy). 2. *Vahobjon* ***jajji krovatcha*** *olib keldi, bo'lmadi...* (R.Fayziy). 3. *Olti qarich kenglikda uzundan uzoq tor ko'cha, tor ko'cha betida* ***kichkinagina eshikcha*** *bor edi* (A.Qodiriy.). 4. *Munchoq ko'zini ko'zingga tikib, oppoq* ***kichkinagina qo'lchasini*** *cho'zib, yoqangni tortqilaydi...* (S.Zunnunova).

Demak, **-cha** qo'shimchasi kichik narsani ifodalaydigan so'zga qo'shilsa, kichraytirish ma'nosini yuzaga keltiradi, bu shakldagi so'z oldidan kichraytirib ko'rsatuvchi aniqlovchi qo'llansa, kichraytirish bilan birga erkalatish ma'no qirrasi ham ifodalanadi. Berilgan uch qatordagi so'zning ma'nosi teng emas:

eshik	*eshikcha*	*kichkina eshikcha*
singil	*singilcha*	*kichkina singilcha*
qalpoq	*qalpoqcha*	*kichik qalpoqcha*
qo'l	*qo'lcha*	*jajji qo'lcha*

Birinchi ustundagi so'zda kichraytirish ma'nosi yo'q, ikkinchi qatordagi so'z kichraytirish ma'no ottenkasiga ega, uchinchi qatordagi so'zda esa

kichraytirish ma'nosiga qo'shimcha ravishda so'zlovchining shaxsiy munosabati ham ifodalandi: kichraytirish-erkalatish ma'nosi kelib chiqdi.

-cha qo'shimchasi jonli narsani anglatuvchi otga hamda tana a'zosi nomiga qo'shilganda so'zda faqat kichraytirish ma'nosi emas, balki erkalatish ma'nosi ham vujudga keladi. Masalan, 1. *Qiz umid bilan ko'targan* ***boshchasini*** *yana yostiqqa qo'ydi* (M.Ismoiliy). 2. *«Qani bo'lmasa, tingla, o'g'****ilcha****» – deydi chol va yo'talib tarixini boshlaydi* (Oybek).

Misoldan ko'rinib turibdiki, **-cha** qo'shimchasini olgan so'z kichraytirish va erkalash ma'nosiga ega bo'lgan. Kichraytirish-erkalash ma'nosini juft holda ifoda etilishi ko'proq so'zning lug'aviy ma'nosi bilan bog'liq.

Kichraytirish bilan erkalashning juft holda ifoda etilishida kontekst va ohang ham ma'lum bir vazifani o'taydi. Uning ta'siriga ko'ra goh kichraytirish ma'nosi, goh erkalash ma'nosi yaqqollanishi mumkin. Masalan, *chiroyligina qushcha* birikmasida kichraytirish ma'nosiga nisbatan erkalash ma'nosi ustunroq, *kichkinagina qushcha* birikmasida esa, aksincha, aniqlovchi yordamida kichraytirish ma'nosi birinchi o'ringa o'tib, erkalash ma'nosi kuchsizlanadi.

Quyida keltirilgan misolda **-cha** qo'shimchasi kontekst bilan bog'liq ravishdagina kichraytirish-erkalash ma'nosini anglatishga xizmat qiladi: 1. *****Bulbulchadan*** *o'rgilib ketay!* (V.G'afurov). 2. *Tentak* ***qizcha*** *falokat keltirishga sal qoldi-ya! Ha,* ***xotincha****, yo'llari bo'lsin?* (S.Ahmad).

Mana bu misolda esa **-cha** qo'shimchasi qo'shilib kelgan so'zning o'zida kichraytirish, baho ottenkasi seziladi, **-cha** esa ba'zan shu ma'noni kuchaytirishi uchun xizmat qilsa, ba'zan asosdagi ma'noga qo'shimcha erkalash ottenkasini keltirib chiqaradi: 1. *Bir* ***toycha*** *oriq oyoqlarini suv ichida kerib, suv ichardi.* 2. ***Jo'jacha*** *rasmi solingan bu suratdan qalamini mahkam ushlab Abdulhamid qarab turadi* («H.Oliimjon haqida ertaklar» kitobidan). 3. ***Chaqaloqchasi*** *- o'g'ilcha, ko'zlari qop-qora marjonday...* (Gazetadan).

Bu misoldagi *toy, jo'ja, chaqaloq* so'zining o'zi alohida singanda ham, qiyosan kichik narsani ko'rsatadi, undagi **-cha** qo'shimchasi esa kichraytirish ma'nosi bilan birga o'sha o'sha narsa buyumga so'zlovchining munosabatini ham ifodalaydi, salbiy yoki ijobiy shaxsiy munosabatini anglatishga xizmat qiladi.

-cha qo'shimchasi vositasida shaxs bildiruvchidan erkalash shakli yasalganda, kichraytirish bilan birga hurmatlash yoki kamsitish ma'nosi ifodalanishi mumkin. Lekin bu ma'no kichraytirish ma'nosiga qo'shimcha tarzdagi, so'zning lug'aviy ma'nosi va boshqa nutqiy faktor ta'sirida kelib chiqadigan ma'noviy ottenkka bo'ladi: 1. *Sizni qobil, esli-hushli* ***yigitcha*** *deb*

kim aytadi?! (H.Naz.) 2. *Sal o'zingizni bosib oling, **yigitcha!*** (H.Naz.). 3. *Qiziq ertak ekan, **otincha**, endi zerikmaydigan bo'ldim* (Oybek). 4. *Bu **otincha** ham o'sha toifadan* (S.Anorboev).

Nutqiy sharoitga ko'ra bu qo'shimcha obyektga subyektning salbiy shaxsiy munosabatini bildirishi mumkin. Bunday vaqtda ma'no so'zlovchining narsa-voqeaga nisbatan o'zini ustun qo'yish hissiyotiga asoslanadi: so'zlovchi tinglovchini ma'lum so'zga **-cha** qo'shimchasini qo'shish va ohangni o'zgartirib talaffuz qilish orqali kamsitadi: 1. *Qani, **Jamshidcha**, doskaga chiq,-dedi o'qituvchi* («Sharq Yulduzi»dan). 2. *Qani gapir, galstug taqqan **maxsimcha!*** (Mirmuxsin). 3. *Xo'sh, boy, **xotinchangizga** rahmingiz keldimi?* (Hamza)

Nutqimizda **-cha** qo'shimchasi qiz so'ziga qo'shilganda, asosan, kichraytirish-erkalash ma'nosini, yigit so'ziga qo'shilganda, asosan kichraytirish-kamsitish ma'no qirrasiga egadir: 1. *Sotiboldi **qizchasini** uning yonidan olib, boshqa yoqqa yotqizayotganda qizcha uyg'ondi va ko'zini ochmasdan odatdagicha duo qildi: Xudoyo, ayamdi daydiga davo beygin...* (A.Qahhor). 2. *-Sen, **yigitcha** deyman, maktab ochaman deb muncha katta ketmasang?!* (Ch.Aytmatov)

Lekin nutq sharoitiga bog'liq ravishda, yigit so'ziga qo'shiladigan **-cha** ba'zan ijobiy munosabat ham ifodalashi mumkin, ammo qiz so'ziga qo'shiladigan **-cha** so'zining salbiy munosabat ifodalashi yo'q darajada.

-cha qo'shimchasi bilan yasalgan kichraytirish shakli yangi leksik ma'no kasb etishi, yangi so'zga aylanishi mumkin. Bunda kichraytirish ma'nosi yo'qoladi: *sholcha, ko'rpacha, bog'cha, dekcha* kabi. Masalan: 1. *Abdulla muzdek beqasam **ko'rpacha** ustiga cho'zildi* (O'.Usmonov). 2. *Ammamdan yashirib oshxonaga kirdim-da, katta **hurmachani** ko'tarib, bozorga keldim* (G'.G'ulom). 3. *Oyisi ortiqcha jom, **dekchalarni** ko'rsatib «xohlaganingcha ola qol» degan ekan* (H.No''mon). 4. *Tag'in qozi pochchangiz sizga yangi **ayacha** topgan bo'lmasin, Xolmatjon!* (Hamza). 5. *Nafisa opa ilgari bolalar **bog'chasida** murabbiya bo'lib ishlardi* (Mirmuhsin).

Kichraytirish-erkalash shaklini hosil qiluvchi **-cha** ni sifat, ravish yasalishida va murakkab so'z yasovchi qo'shimcha tarkibida keladigan **-cha** qo'shimchasidan farqlash lozim.

-choq, -chak qo'shimchasi. (1 Eski o'zbek tili manbasida va hozirgi ayrim shevada bu qo'shimchaning -chiq varianti ham uchraydi.) Bu qo'shimcha turli so'zga qo'shilib kichraytirish, shuningdek, erkalash ma'nosini ifodalaydi: *qo'zichoq, toychoq, kelinchak, tugunchak* kabi. Masalan: 1. *Akramning chiroyli rangpar yuzidagi tabassum, go'yo qorako'l **qo'zichoqning** barrasiday jingalak-jingalak sochiga shula solib yaltirardi* (S.Anorboev). 2. *Bir kun ko'rmaganiga*

*saman yo'rg'a uyda qolgan **toychog'ini** eslab kishnayapti* (M.Muhamedov). 3. *O'yinchi yosh qiz kabi tarovatli, **kelinchak** kabi ko'rkam, yor kabi dildor edi* (M. Ismoiliy).

Bu qo'shimcha kichraytirish ma'nosidan tashqari so'zlovchining u yoki bu narsa-voqeaga nisbatan bo'lgan shaxsiy munosabatini ham ifodalashi mumkin. Bu esa mazkur qo'shimchani olgan asosning o'zidagi ma'lum darajadagi kichraytirish ma'no qirrasi bilan izohlanadi.

Kichraytirish-erkalash ma'nosi -chak,- choq qo'shimchalarini olgan so'zdan avval turli xil aniqlovchi-epitetni keltirish yoki shu qo'shimcha shaklidagi so'zdan so'ng **-dek\-day** qo'shimchasini keltirish bilan yuz beradi. Boshqacha aytganda shaxsiy munosabat o'xshatilgan narsa-hodisaga **-chak, -choq** ni qo'shib kichraytirish orqali yuzaga keladi. Masalan, *qo'g'irchoqdek qiz, qo'g'irchoqday bola, kelinchakday bahor, suluv kelinchak, sho'x qo'zichoq.* Misol: 1. *Shu yoshlik, shu chiroy, umring bahori, Sarg'ayish bilmasin suluv **kelinchak**.* (Zulfiya). 2. *Saman **toychoq** nihoyat yilqilarga kelib qo'shilganida Turg'un bilan Tanaboy uni tinch qo'yishdi* (Ch.Aytmatov). 3. *To'ygan **qo'zichoqday** uxlab yotar edi* (A.Qahhor). *Barotni ko'ringlar qo'g'**irchoqdek** yasangan boyvachchani qo'lga tushiribdi* (Z.Samadiy).

-chak, -choq qo'shimchasi ba'zan qo'shilgan so'z orqali ifodalangan narsa-buyumni ko'rsatuvchi so'z metaforik ravishda ishlatilib, u orqali kishi tushuniladi. So'zlovchi bu o'rinda narsa-buyumni kichraytish emas, balki metafora orqali ifodalangan kishiga nisbatan shaxsiy munosabatini, o'z his-hayajonini ifodalashni maqsad qilib qo'yadi. Masalan: 1. *Qarangki, mening o'rnimni aqli noraso mana bu **qo'g'irchoq** egallabdi!* (R.Tagor). 2. *Siz, **qo'zichoqlarim**, fuqaroning peshvosi bo'lasiz...* (G'.G'ulom). 3. *Ha, **toychog'im**, allanega uxlmayapsan?* (Ch.Aytmatov). 4. *Alla bolam, alla-yo, **qo'zichog'im** alla-yo, Erkin yurtda tug'ilgan **qulunchog'im** alla-yo.* (Qo'sh.).

Hozirgi o'zbek tilida *o'rgimchak, belanchak, so'kchak, lo'pchak, burchak, luchchak, kemirchak; munchoq, arg'imchoq, qo'g'irchoq* kabi **-chak, -choq** morfemali so'z borki, u leksik morfema va qo'shimcha morfemaga ajratilmaydi, demak, tarixiy so'z yasalishi hodisasi sifatida izohlash mumkin.

Demak, -day shaxsiy munosabat kategoriyasining bir ko'rinishi bo'lgan kichraytirish shakli **-cha, -choq, -chak** qo'shimchasidan iborat bo'lib, u lug'aviy asosning leksik ma'nosiga aloqador bo'lgan kichraytirish, kichraytirish-erkalash va kinoya-kamsitish ma'nosini hosil qiladi. Kinoya-kamsitish ma'nosini nutqiy sharoit va ohang yuzaga keltiradi.

Erkalash shakli. O'zbek tili, boshqa turkiy tildan farqli o'laroq, erkalash ma'nosini ifodalash uchun maxsus,ya'ni kichraytirish bilan aloqador bo'lmagan

qo'shimchaga ega. O'zbek tilida xilma-xil leksik birliklardan erkalash shakli yasash mumkin.

Bu guruhga kiruvchi shaxsiy munosabat shakli so'zda, asosan, erkalatish ma'nosini keltirib chiqarish uchun xizmat qiladi. Ammo u nutqiy sharoit, urg'u, ohang bilan bog'liq ravishda kichraytirish, piching, kesatish, kinoya ma'no ottenkasini ifodalashda ham ishtirok etadi.

Otning erkalash ma'nosiga ega bo'lgan lug'aviy shakli **-gina (-kina, -qina), -jon, -xon, -boy, -bek, -qul, -toy, -oy, -beka, -poshsha, -bibi, -bonu, -niso, -pari, -gul, -loq** kabi qo'shimcha vositasida hosil qilinadi.

Erkalash ma'noli shaxsiy munosabat shaklini semantik mundarijasiga ko'ra uch katta guruhga bo'lish mumkin:

1. Erkak va ayol jinsini bildiruvchi so'zning har ikki guruhiga qo'shilib, erkalash ma'nosini ifodalovchi shakl **(-gina, -kina, -qina, -vachcha, -loq).**

2. Erkaklik jinsini bildiruvchi so'zga qo'shilib erkalash ma'nosini ifodalovchi shakl **(-jon, -boy, -bek, -qul).**

3. Ayol jinsini bildiruvchi otga qo'shilib erkalash ma'nosini ifodalovchi shakl **(-xon, -oy, -gul, -bonu, -beka (bekach), -bibi, -niso).**

1. **-gina (-kina, -qina)** qo'shimchasi. Otga, otlashgan so'zga **-gina (-kina, -qina)** qo'shimchasi qo'shilib, erkalash ma'nosini bildiradi. Masalan, ***Oyqizginam,*** *sen bilan maslahatlashadigan ishlarim ko'payib ketgan* (Sh.Rashidov). ***Bolaginam*** *nay chalyapti... ko'zimning nuri* (Gazetadan). ***Tentakkinangiz*** *savlatligina yigit bo'lib qaytdi-ya sallotlikdan* (G'.G'ulom).

Ba'zan kichraytirish qo'shimchasi bilan erkalash qo'shimchasi qo'shaloq holda kelishi ham mumkin: ***Toychoqqinam,*** *xo'jalik osongina tuzilmagan... qon to'kkanmiz* (R.Fayziy). ***Qo'zichoqqinangni*** *bog'chasidan ola keldim...* (Gazetadan).

Ba'zan **-gina (-kina, -qina)** qo'shimchasi ma'no jihatidan -cha qo'shimchasiga tenglashib kichrayish ma'nosini beradi: *qizgina-qizcha, qushgina-qushcha* kabi. Bu qo'shimchaning -jon qo'shimchasi bilan ham sinonimik munosabati kuzatiladi: *bolaginam-bolajonim, xolaginam-xolajonim.*

-gina (-kina, -qina) qo'shimchasi otga qo'shilib his-hayajon ifodalashda ham ishtirok etadi, lekin shunda ham kichraytirish-erkalash ottenkasi mavjud bo'ladi. So'zlovchi otga **-gina (-kina, -qina)** qo'shimchasini qo'shib, kichraytirish-erkalash ma'nosiga o'zining salbiy yoki ijobiy munosabatini bildiradi: 1. *Ishva birla o'ynatib ko'z, tanda jonim o'ynatur, Tortar kom-ko'z yetmagandek bag'rila* ***xanjargina*** (V.Sa'dulla). 2. *Men o'g'lingning otini ehtiyot shartidan Yodgor qo'ydim. Sendan qoladigan* ***tuyoqqina*** (G'.G'ulom).

Mazkur misolda **-gina (-kina, -qina)** qo'shimchasi erkalash ma'nosidan tashqari, his-hayajon anglashga ham xizmat qilgan. Shunday turli ma'no bu qo'shimchadan so'ng egalik qo'shimchasi qo'shilganda yanada sezilarliroq bo'ladi. Egalik qo'shimchasi his-hayajonni aniq ko'rinishiga xizmat qiladi. Misol: 1. ***Do'stginam,*** *xayolan quchaman seni, Xazon davrasida kutaman seni* A.Orip.). 2. *Xudoyo* ***umrginangiz*** *uzun bo'lsin, bola-chaqalaringiz orzusini ko'ring* (P.Tursun). 3. *Oh,* ***onaginang*** *o'rgilsin, bolam, sen endi sallotga ketayotibsan...* (G'.G'ulom). 4. *Biroq kela olmaydi* ***dilginasi*** *dog'midir, Chunki qay bir beshafqat qo'llarga u bog'lidir.* (O.Matjon).

Ot va otlashgan so'zga qo'shilib, asosan erkalash va kichraytirish-erkalash ma'nosini hosil qiluvchi **-gina (-kina, -qina)** qo'shimchasini otlashgan sifat *(kattagina, chiroyligina, tinchgina, ozg'ingina),* ravish *(ozgina, sekingina, tezgina, ohistagina*), olmosh *(sengina, o'zigina, shugina, o'shandagina),* son *(bittagina, uch martagina, ikkinchisigina, bittachagina*), ravishdosh *(iymanibgina, qizg'anibgina, shoshmaygina, ko'rmaygina)* ga qo'shilib, kuchaytirish, cheklash, chegaralash, ayirib ko'rsatish kabi ma'noni beruvchi **-gina (-kina, -qina)** qo'shimchasidan farqlash lozim.

2. **-loq** qo'shimchasi. Bu qo'shimchani olgan so'z kichraytirish-erkalash ma'nosini bildirishga xizmat qiladi: *chaqaloq, qizaloq, bo'taloq, toyloq* kabi. Misol: 1. ***Bo'taloq*** *onasiga yetolmay qiynalib orqada qoldi 2. Tug'ildi-yu tong chog'ida jajji* ***chaqaloq,*** *Qo'llarini tipirlatib yig'ladi shu choq* (D.Tojieva) 3. *Ha, shuncha qoldi,* ***qizalog'im!****-deb ikki barmog'ini ko'rsatdi* (Jurn.).

Shaxsiy munosabat ifodalovchi shunday shakl ham borki, u faqat kishi atoqli oti va qavm-qarindoshlikni bildiruvchi so'zga qo'shilib so'zlovchining voqea-hodisaga munosabatini bildiradi. Bunday guruhga kiruvchi qo'shimcha, asosan, erkalatish va his-hayajon bildirish uchun xizmat qiladi.

Erkaklik jinsini bildiradigan yoki shunga aloqador so'zga qo'shilib, erkalash ma'nosini hosil qiladigan qo'shimchaga **-jon, -boy, -bek, -qul, -toy** affiksi kiradi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili me'yori va tarixiy milliy an'ana nuqtayi nazaridan *Rahim* ismini *Rahimjon, Rahimboy, Rahimbek, Rahimtoy* shaklida, *Ahmad* ismini *Ahmadjon, Ahmadboy, Ahmadbek* deyish ma'qul.

Erkaklik jinsiga oid otga qo'shiluvchi qo'shimcha ichida -jon jins uchun befarq. Bu qo'shimcha qavm-qarindoshlikni bildiruvchi so'zda erkaklik jinsiga oid so'zga ham (*otajon, dadajon, bobojon, akajon, ukajon, tog'ajon, amakijon* kabi), ayollik jinsiga oid so'zga ham (*onajon, opajon, xolajon, kelinjon, ovsinjon* kabi) qo'shila oladi. Shuningdek, -jon qo'shimchasi ayol atoqli otida ham uchraydi: *O'g'iljon, Qizlarjon, Qorajon* Guljon,Nurjon kabi.

Erkakning atoqli otiga **-xon** shaklining qo'shilib, *Azizxon, Lazizxon, Musaxon, Alixon, Botirxon* tarzida qo'shilishi, bir tomondan shevaga oid xususiyat bo'lsa, ikkinchi tomondan u tarixiy milliy an'ana bilan bog'liq.

Demak, o'zbek tilida **-jon** va **-xon** qo'shimchasini atoqli ot doirasida sinonim sifatida biri o'rnida ikkinchisini qo'llash mumkin: *Lazizjon-Lazizixon, Botirjon-Botirxon, O'g'iljon-O'g'ilxon, Musajon-Musaxon* kabi.

Eslatma: **-bek, -xon, -gul, -oy** affiksoidi kishi ismining tarkibiy qismiga kirishi, uning ajralmas komponenti bo'lishi mumkin. Bunda erkalash ma'nosi ifodalanmaydi: *Durbek, Qushbek, Oyxon, Onajon, Oygul, Rohatoy* kabi.

1. **-jon** qo'shimchasi. Bu affiksoid kishi atoqli otidagi kabi qavm-qarindoshlik atamasi tarkibida ham, asosan, erkalash ottenkali shaxsiy munosabatni bildirish uchun xizmat qiladi. Misol: 1. *-Ho'p, **dadajon**! Rahmat, **dadajon**!-dedi Hilola boshini dadasining yelkasiga qo'yarkan. -O'zimning dono **dadajonim**!* (Yo.Shukurov). *2. Meni xayol olib ketdi senga, **onajon**!* (H.Olimjon). 3. ***Buvijonim**!-deb o'rnimdan turib, yugurib yuqoriga chiqsam, ha-ha, **buvijonim** belini oq doka bilan bog'lab, boshiga lakkisini o'rab olibdi* (X.To'xtaboev). 4. *-**Akajon**, bormisiz, **akajon**?!* (S.Ahmad). 5. *Xafa bo'lma, **ukajon**, akang bilan dadangni chaqirib yuborishadi* (S.Karomatov). 6. *Orqangizdan boraymi, **opajon**?-yana pichirlab so'radi kovushfurush* (S.Ulug'zoda).

-jon affiksoidi qavm-qarindoshlikni bildiruvchi so'zdan tashqari, murojaat so'zida ham ishlatiladi. Bunday holda ham so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsga munosabi ifodalanib, u ijobiy bo'ladi: 1. ***O'rtoqjon**, men sening rahbarligningda odam bo'lman deb, etagingni mahkam ushlaganman* (A.Qahhor). 2. *E-e, **doktorjon**, bu joylarning nimasini aytasiz, turgan-bitgani mo''jiza* (M.Muhamedov). 3. *O'n ming so'mga rozi qildim, **taqsirjon**, Faqat hech kim bilmasin deb yalindi* (H.Olimjon). 3. *Ey, o'zlarimi, labbay, **xo'jayinjon**, Gaplasha olmayman, afsuski, shu on* (S.AbduQah.).

-jon shaklidan so'ng ba'zan egalik qo'shimchasi qo'shiladi va bunda erkalash ma'nosi kuchayadi: *-Bolam, **bolajonim**! Bu so'zni qanday topding? Qaysi qalandar?..* (O.Yoqubov).

Ba'zan **-jon** qavm-qarindoshlik bildiruvchi so'zdan oldinga o'tkaziladi, u mustaqil so'z sifatida ko'rinadi. Egalik qo'shimchasi esa qavm-qarindoshlikni bildiruvchi so'zga qo'shiladi: 1. *-Qayoqqa borasiz, **jon bolam**, men sizni hech qayoqqa yubormayman* (Shuhrat). 2. *Salom, deydi **-jon qizim**, Yerga egiladi chol* (H.Olimjon).

Egalik qo'shimchasining har ikki so'zga qo'shilib kelish holati ham kuzatiladi. Bunda erkalash ma'nosi kuzatiladi: 1. *Tez o'sib katta bo'lsin, **jonim***

***bolam**, alla, Mening tilak maqsadim shuning o'zi, alla* (H.Naz.). 2. *Zaynab munda qalbiga birdan Yashin urgan kabi sanchildi, Va boshini ko'tarib yerdan **Jonim, onam**, to'xtagil!-dedi* (H.Olijon).

2. **-boy, -bek, -qul, -toy** qo'shimchasi. Bu affiksoid ham ba'zan erkalash ma'nosiga ega bo'ladi. Aslida bu qo'shimcha kishi o'rtasidagi amal va ijtimoiy mansab bilan bog'liq bo'lgan farqni ko'rsatish uchun ishlatilgan. Lekin hozirgi o'zbek tili nuqtayi nazaridan bunday ma'nosini yo'qotgan.

Bu affiksoidning kishiga atab qo'yilgan ismda uchrashini shu ism tarkibidagi ajralmas komponent sifatida tushunish kerak, u erkalash ma'nosini ifodalamaydi. Misol: 1. ***Mirzakarimboy**-ilonning yog'ini yalagan odam, hamma boylar kabi ayyor, mug'ambir, puxta-pishiq* (Oybek). 2. ***To'g'onbek** ham qaddini rostlab, yengillashib oldi-da, erta bilan kelishga ijozat so'rab, do'sti bilan birga qo'zg'aldi* (Oybek). 3. ***Hamroqul** naridan-beri dov-dastgohini yig'ishtirib jo'nadi* (A.Qahhor). ***Omontoy** matroschasiga gurs-gurs yurib chiqib ketdi* (S.Ahmad).

Erkalash ma'nosi o'z asosida **-boy, -bek, -qul, -toy** qo'shimchasi bo'lmagan atoqli otga shu qo'shimchani qo'shib ishlatganda sodir bo'ladi. Bunday hodisa badiiy badiiy asardagi personaj tilida va og'zaki so'zlashuv uslubida uchraydi. Masalan, «Qutlug' qon» romanining bosh qahramoni-Yo'lchi. Ammo yozuvchi Unsin personaji tilidan uni bir-ikki o'rinda Yo'lchiboy aka deb ataydi, bu bilan erkalash, hurmatlash ma'no qirrasini hosil qiladi: ***Yo'lchiboy** akam sog'milar*? (Oybek).

So'zlashuv nutqida aslida *Laziz, Baxtiyor, Azim* ismli kishini *Lazizbek, Baxtiyorboy, Azimtoy* shaklida **-boy, -bek, -toy** qo'shib qo'llashda ham erkalash ma'nosi ifodalanadi.

Badiiy asarda, ayniqsa, feleton janridagi asarda obraz yoki personaj xarakteriga moslab topilgan nomga **-boy, -bek, -qul, -toy** qo'shimchasi qo'shiladi, bunda erkalash ma'nosi emas, balki kinoyali salbiy munosabatni bildiruvchi baho qirrasi hosil qilinadi: *Olg'irboy, Keyinboy, To'ymasbek, G'ayratqul, Yomontoy, So'qirbek* kabi. Misol: ***Keyinboy** qani, qayoqqa g'oyib bo'ldi?* («Sharq yulduzi»). ***Satimqul** shu so'zni aytdi-yu, otning boshini burib jo'nab qoldi* (Ch.Aytmatov).

Demak, **-boy, -bek, -qul, -toy** qo'shimchasi, asosan, kishining atoqli otiga qo'shilib va ayrim holda erkalash ma'no qirrasiga ega bo'ladi.

-toy kishi otidan boshqa so'zga ham qo'shila oladi: kenjatoy, kichkintoy, erkatoy va kichraytirish-erkalash ma'nosini anglatadi, lekin yoqimtoy so'zidagi **-toy** so'z yasovchi qo'shimcha sifatida namoyon bo'ladi.

Ayollik jinsini bildiruvchi so'zga qo'shilib, erkalash ma'nosini ifodalovchi shakl:

1. **-xon** qo'shimchasi. Bu qo'shimcha hozirgi o'zbek tilida ayollik jinsini bildiruvchi atoqli otga qo'shilib erkalash, erkaklik jinsidagi atoqli ot va boshqa so'zga qo'shilib hurmatlash ma'nosini bildirish uchun xizmat qiladi. Qiyos qilaylik: *Nazira – Naziraxon, Oysha – Oyshaxon, Munis – Munisxon, Sohiba – Sohibaxon; Laziz – Lazizxon, Botir – Botirxon, Hasan – Hasanxon, O'tkir – O'tkirxon* kabi. Masalan: 1. *She'rim **Qumrixonga** soch popuk bo'larmikan, Satrimdan **Qumrixonning** oq ko'ngli to'larmikan* (G'.G'ulom). 2. *Ertalab **Hasanxon** akamlar kirib keldilar* (Gazetadan).

Xotin-qiz ismiga qo'shilgan **-xon** affiksoididan so'ng 1 shaxs egalik qo'shimchasi qo'shilsa, erkalash ma'nosining bo'rtibroq ifodalanishiga yordamlashadi. Misol: 1. ***Hojarxonim** tirikchilik uchun zarur bo'lgan hech qanday mablag'ga ega bo'lmagan holda... beva qolgan... edi* (O'.Kamol). 2. *Xayrli tong, **Sohibaxonim!*** (Yo.Shukurov).

-xon (-xonim) kishining ismidan boshqa so'zga qo'shilganda ham so'zlovchining tinglovchi shaxsga munosabati ifodalanadi. Bunda ko'pincha kinoya ma'no munosabati anglashiladi: 1. *Ha-ha, shunday **poshshoxon!** Bilib qo'ying, siz hozir faqat valiahdning onasisiz* (J.Ikromiy). 2. ***-Poshshoxonim** ranjimasinlar,-deya gap boshladi titroq ovozda Sharvon...* (Z.Samaadiy).

-xon qo'shimchasi erkaklik jinsidagi qavm-qarindoshlik atamasiga qo'shilganda erkalash, ijobiy his-hayajon bildirish uchun xizmat qiladi: *- Askiyalaringizni yaxshi ko'raman-da, **akaxon*** (X.To'xtaboev). – ***Otaxon**, men mulla emasman* (Ch.Aytmatov).

Ko'rinadiki, -xon affiksoidi, asosan, ayol ismiga qo'shiladi, shu bilan birga erkakning atoqli otiga ham qo'shiladi. Bu xususiyati bilan **-jon** affiksoidiga o'xshab ketadi.

Erkalash shaklini hosil qiluvchi **-xon** affiksoidini *kitobxon, gazetxon, va'zxon, bedilxon(lik), navoiyxon(lik)* kabidagi so'z yasovchi **-xon** qo'shimchasidan, shuningdek, *Qoraxon, To'raxon, Oyxon, Boboxon* kabida shu atoqli tarkibiga singib ketgan **-xon** elementidan farqlash lozim.

2. **-oy** qo'shimchasi. Bu affiksoid ayollik jinsini bildiruvchi atoqli otga qo'shilganda erkalash ma'nosini yuzaga yeltiradi. Qiyoslaylik: *Adolat – Adolatoy, Oftob – Oftoboy, Asal – Asaloy, Cho'lpon – Cho'lponoy, Barchin – Barchinoy, Kumush – Kumushoy* kabi.

Shaxsiy munosabat shakli **-oy** erkalash ma'nosida atoqli tarkibida **-xon, -beka, -bibi, -niso** affiksoidi bilan sinonim bo'la oladi. Ko'p o'rinda uning biri o'rnida ikkinchisini ishlatish mumkin: *Adolatoy-Adolatxon-Adolatbibi,*

Kumushoy-Kumushxon-Kumushbibi-Kumushbeka, Xurioy-Xurixon-Xurinisa, Qutlixon-Qutlibeka-Qutlibibi kabi. Bunda dialektal xoslanish ham ko'zga tashlanadi.

3. **-beka** qo'shimchasi. Bu affiksoid xotin-qiz atoqli otiga qo'shilib erkalash ma'nosini ifodalash uchun xizmat qiladi: *To'ybeka, Maryambeka, Qutlibeka, Risolatbeka* kabi.

-beka hozirgi o'zbek tilida qo'shimchani qabul qilganda **-bek(-beg)** shakliga kiradi: *Nodirabegim, Xadichabegim, Zulfiyabegim* kabi.

4. ***-bibi*** qo'shimchasi. Bu affiksoid atoqli otga qo'shilganda erkalash, izzat qilish, hurmatlash kabi ma'no ottenkasini hosil qiladi: *Kumushbibi, Hojarbibi, Saodatbibi, Xushro'ybibi, Norbuvi, Kamolabuvi, Ra'nobibi* kabi. Misol: 1. *Siz o'zingizni tuproq bilan tenglashtirmoqchi bo'lsangiz, men sizni Kumushga ham qanoat qilmay, **Oltinbibi** deb atashga tushdim* (A.Qodiriy.). 2. *Singlimiz **Ra'nobibiga** salom aytursiz* (A.Qodiriy.). 3. ***Poshshobibining** muborak boshlari omon bo'lsin,-dedi Oymullo* (J.Ikromiy).

5. **-bonu, -niso, -gul** qo'shimchasi. Bu affiksoid ham xotin-qiz atoqli otiga qo'shilib, erkalash, hurmatlash ma'no ottenkasini berishga xizmat qiladi: *Xurshidabonu, Lutfiniso, Bahriniso, To'taniso, Nargizabonu, Toshgul* kabi. Misol: 1. ***Xurshidabonu** qo'lini ko'ksiga qo'yganicha chekinib, unga yo'l berdi* (O.Yoqubov). 2. ***-Bahriniso**, jonginam! Nomingiz o'zingizdan ham chiroyli* (G'.G'ulom). 3. *Shu on tashqaridan **Toshgul** shoshilib kirib keldi* (N.Aminov).

6. **-poshsha** qo'shimchasi. Bu affiksoid kelin so'ziga qo'shilganda erkalash ma'nosini anglatadi. Bunday xususiyat og'zaki va badiiy nutq uchun xarakterli. Misol: 1. *Ha, bas endi **kelinposhsha**, qolganini keyin qilarsiz...* (Shuhrat). Misol: 1. *Ha, bas endi **kelinposhsha**, qolganini keyin qilarsiz...* (Shuhrat). 2. *Kelinposhsha xijolat bo'lmasin deb, kecha tilgram berdirib qo'ygandim* («Sharq yulduzi»dan).

-poshsha affiksoidi qavm-qarindoshlik atamasi tarkibida gap ohangi va nutq sharoiti bilan bog'liq ravishda erkalash ma'nosini emas, balki kinoya-kesatish ma'nosini ham anglatishi mumkin: 1. *Aylanay, **kelinposhsha**, biz seni tushgacha erkalanib yotsin deb kelin qilganimiz yo'q* (M.Sholoxov). 2. ***Kelinposhsha** halitdan to'qimini qorniga olish taraddudida,-dedi Umatillaga eshittirib* (Shuhrat).

O'zbek tilidagi yana bir o'ziga xos xususiyat shundaki, erkalash ma'nosi egalik qo'shimchasi orqali ham ifoda etiladi: 1. *Aylanay, shirin qizim, **jonim** deb top-toza hovlida... yurib qizchani erkaladi* (Oybek). 2. ***Gulasalim**, gul **qizim**, deb top-toza hovlida... yurib qizchani erkaladi* (Oybek). 2. ***Gulasalim**, gul **qizim**, yuzlaring muncha so'libdi?* (Uyg'un). 3. *Kelinglar, **qizaloqlarim, gullolalarim**, o'tiringlar (Oybek). 4. Kechir, **arslonim**, hozir uyingga bormoqchi edim* (Oybek).

Hurmat shakli. Hurmat shakli **-lar** qo'shimchasi vositasida hosil qilinadi. Aslida ko'plik qo'shimchasi bo'lgan **-lar** qavm-qarindoshlik ma'nosini ifodalovchi otga (ko'pincha egalik qo'shimchasidan keyin) qo'shilganda hurmat ma'nosini yuzaga keltiradi: **onamlar, dadamlar** kabi. Misol: 1. *Og'a, sog' borsangiz, avval Dadamlarga salom ayting* (Hamza). 2. ***Oyimlar** shaharga, **buvimlarnikiga** ketdilar* (N.Aminov). 3. *Ismat Hoji **amakimlarni** qoziga chaqirtiraman deyayotgan emish* (Oydin). 4. ***Adanglar** ishda, telefon qilganingni aytib qo'yaman, xursand bhladilar* (Mirmuhsin).

Gapda so'z tartibini almashtirish fikr bayoniga biror jihatdan qo'shimcha ma'no yuklaganidek, so'z tarkibida qo'shimcha o'rnining almashinuvi ham uning grammatik ma'nosini o'zgartiradi.

Ot turkumiga oid so'z nutqda hamma vaqt son va kelishik shaklida bo'ladi: *Olmalarni terib oldik* gapida *olma* so'zi ko'plik va tushum kelishigi shaklidadir, lekin u egalik shakliga ega emas. Demak, egalik shakliga ega bo'lmagan ot so'z ko'plik shakliga ega bo'laveradi. Hurmat shaklidagi ot esa egalik shaklida (ko'pincha) bo'ladi. Qiyoslaylik: *ishchilarning uylari* (ko'plik)-*tog'amning uylari* (hurmat), *tog'amlarning uyi* (hurmat), *tog'amlarning uylari* (hurmat).

Hurmat shakli **-lar** ba'zan egalik qo'shimchasidan oldin keladi, egaliksiz so'zda ham qo'llanishi mumkin, lekin hurmat ma'nosini anglatadi: 1. *Qosim boyvachchaning **uylariga** ko'p kelaman-da, bilaman* (A.Qahhor). 2. *Kuyov bola **yo'qlarmi** deyman, taq-tuqlari eshitilmay qoldi* (R.Fayziy).

Ba'zi shevada, masalan, Marg'ilon shevasida **-lar** qo'shimchasini egalik qo'shimchasidan keyin keltirish hurmat ifodalash bilan birga, umumlashtirish, jamlash ma'nosini ifodalash uchun ham xizmat qiladi (*akamlar, tog'amlar*). Bunday ma'no Toshkent shevasida egalik qo'shimchasi bilan ko'plik qo'shimchasi o'rtasiga **-gi** elementini qo'shish orqali ifodalanadi: *Opamlar aytishdi* (Marg'.shevasi)-*opamgila aytishdi* (Toshk.shevasi). Masalan, ***Opamgilar** kelib qolishdi* (O'.Umarbekov).

Quyidagi misolda qo'shimchaning tartibi hurmatning kimga tegishli ekanligini ifodalaydi: *Bu kishi Azimovning **qizlari*** (hurmat Azimovga tegishli). **Bu kishi Azimovning qizilar** (hurmat Azimovning qiziga tegishli).

Fe'l tarkibida **-lar** qo'shimchasi shaxs qo'shimchasidan so'ng kelib, u bilan birgalikda murakkab qo'shimcha hosil qiladi: *Suhbat aylaylik **kelinglar**, jo'ralar, o'rtoqlar* (Muqimiy). Bu fe'l uchun odatdagi tartib. Toshkent shevasida esa odatdagi tartibning aksi ham bor. Bunday tartibda tinglovchini mensimaslik, kamsitish kabi salbiy shaxsiy munosabat anglashiladi: *Bo'ldi! **Yo'qollaring** hammang! **Yo'qollaring!!!*** (O'.Umarbekov).

Demak, so'z tarkibida **-lar** affiksi odatdagi o'rnining o'zgarishi ko'p o'rinda semantik, grammatik, uslubiy va shu kabi xususiyat bilan bog'liq.

Shaxsiy munosabat shakli paradigmatikasi. Shaxsiy munosabatni ifodalovchi shakl otning xususiy lug'aviy shakli bo'lib, bu shakl majmuasi leksik-morfolik kategoriya hisoblanadi. Chunki u zotiy ma'no umumiyligi ostida birlashadi (tizimni tashkil etadi), lekin o'zaro zotiy ma'noning parchalanishi, xususiylashuvi asosida bir-biridan farqlanadi. Boshqacha aytganda, grammatik kategoriya bir umumiy ma'no ostida birlashuvi, shu asosda bir-birini taqozo etuvchi va bu umumiy ma'noning parchalanishi asosida bir-biridan o'zgalanuvchi shakl tizimi.

Har qanday grammatik shaklning umumiy grammatik ma'nosida grammatik kategorial ma'no va unga yondosh ma'no bo'lganidek, shaxsiy munosabat shaklida ham kategorial ma'no va yondosh ma'no mavjud. *«So'z har qanday tilda, har qanday qo'llanishda o'zining asosiy (predmetlik ma'nosidan tashqari, yana ekspressivlikka,ya'ni stilistik bo'yoqqa ham ega bo'ladi»*, – deb yozgan edi mashhur rus tilshunosi B.V.Tomashevskiy.

Morfologik shakl ichida alohida olganda faqat shaxsiy munosabat shaklidagina ekspressiv (his-hayajon) bo'yog'i sezilib turadi. Shaxsiy munosabat shaklining ekspressiv bo'yog'i o'zi qo'shilib kelgan lug'aviy asosning ma'nosi bilan bog'liq bo'lib, unda asosiy ma'nodan tashqari qo'shimcha (yondosh) ma'no ham ifodalanishi mumkin.

Otning shaxsiy munosabat kategoriyasiga kuchaytirish shakli va hurmat shakli kiradi.

Kichratyirish shakli paradigmatikasi **-cha, -choq, -chak** shaklidan iborat bo'lib, quyidagi ma'noni ifodalaydi:

-cha qo'shimchasi:

a) shaxs yoki predmetning kichik ekanligini: *qizcha, yigitcha, kurakcha, qushcha, supacha, baliqcha, ko'zacha;*

b) kichraytirish-erkalashni: ***boshchasini** yostiqqa qo'ymoq, **o'g'ilchamga** atadim, chiroyligina **qushcha, bulbulchamdan** o'rgilib ketay;*

v) kichraytirish-hurmatlashni: *Qiziq ertak ekan, **otincha,** endi zerikmaydigan bo'ldim* (Oybek).

g) kichraytirish-kamsitishni: 1. *Sal o'zingizni bosib oling, yigitcha!* (H.Naz.). 2. *Sen, **yigitcha** deyman, maktab ochaman deb munchcha katta ketmasang* (Ch.Aytmatov).

d) so'zlovchining shaxsiy-salbiy munosabatini: *Qani, gapir, galstug taqqan **maxsimcha!*** (Mirmuhsin). *Xo'sh, boy, **xotinchangizga** rahmingiz keldimi?!* (Hamza).

-choq, -chak qo‘shimchasi:

a) kichraytirish-erkalashni: *qo‘zichoq, kelinchak, toychoq, tugunchak;*

b) kichraytirish bilan birga so‘zlovchining munosabatini: 1. *Ha, **toychog‘im**, nega uxlamayapsan?* (Ch.Aytmatov). 2. *Alla bolam, alla-yo, **qo‘zichog‘im** alla-yo* (Qo‘sh.);

v) kamsitishni: *Ha, **kelinchak**, shuni ham bilmaysizmi?!*

Erkalash shakli paradigmasi **gina (-kina, -qina), -jon, -xon, -boy, -bek, -qul, -toy, -oy, -beka, -poshsha, -bibi, -bonu, -niso, -pari, -gul, -loq** shaklidan iborat bo‘lib, quyidagicha ma’noni ifodalaydi:

gina (-kina, -qina) qo‘shimchasi:

a) erkalash va kichraytirish-erkalashni: *bolaginam, Oyqizginam, tentakkinangiz, toychoqqinam, xolaginang, qo‘zichoqqinam;*

b) kichraytirishni: *qizgina (qizcha), qushgina (qushcha), bolagina (bolacha);*

v) erkalash va his-hayajonni: 1. *Xudoyo **umrginangiz** uzun bo‘lsin, bola-chaqalaringiz orzusini ko‘ring* (P.Tursun). 2. ***Do‘tginam**, xayolan quchaman seni, Xazon davrasida kutaman seni* (A.Orip.). 3. *Biroq keta olmaydi, **dilginasi** dog‘lidir, Chunki qay bir beshafqat qo‘llarga u bog‘lidir* (O.Matjon).

-loq qo‘shimchasi:

Faqat kichraytirish-erkalash ma’nosini ifodalash uchun xizmat qiladi: *qizaloq, chaqaloq, toyloq, bo‘taloq.*

-jon, -boy, -bek, -qul, -toy affiksoidi:

a) asosan erkak kishining atoqli otiga qo‘shilib erkalash-ma’nosini ifodalaydi: *Ahmadjon, Rahimboy, Ozodbek, Meliqo‘ul, Omontoy;*

b) qavm-qarindoshlikni bildiruvchi so‘zga qo‘shilib erkalash va qurmatlash ma’nosini ifodalaydi: *bobojon, otaxon, opajon, kelinjon, singiljon;*

v) badiiy asarda salbiy ma’nodagi ismga qo‘shilib, kinoyali munosabatni: *Olg‘irboy, To‘ymasbek, So‘qirjon, /ayratqul, Yomontoy.*

-xon, -oy, -beka, -poshsha, -bibi, -bonu, -niso, -pari, -gul affiksoidi:

a) asosan ayol kishining atoqli otiga qo‘shilib, erkalash ma’nosini: *Soxibaxon, Asaloy, Qutlibeka, Xushro‘ybibi, Xurshidabonu, Bahriniso, Anorgul, Sultonposhsha;*

b) ismdan boshqa so‘zga -xon affiksoidi qo‘shilganda kinoya ma’no munosabatini: *1. **Poshshaxonim** ranjimasinlar,-deya gap boshladi titroq ovozda...* (Z.Samadiy).

v) qavm-qarindoshlik atamasi tarkibida **-poshsha** affiksoidi kinoya, kesatish ma’nosini: 1. *Aylanay **kelinposhsha**, biz senitushgacha erkalanib yotsin deb*

kelin qilganimiz yo‘q (M.Sholoxov). 2. *Buning sirini **singilposhshangizdan** so‘rang* («Mushtum»dan).

Hurmat shakli aslida ko‘plik qo‘shimchasi **-lar** ni egalik qo‘shimchasidan so‘ng keltirish orqali hosil qilinadi:

a) qavm-qarindoshlikni ifodalovchi tarkibida hurmat ma’nosini ifodalaydi: *bobomlar, dadamlar, onamlar, buvimlar.*

b) kesatish ma’nosini ifodalaydi: ***Boshlari** og‘rib qolibdi-da... **Aqllari** bormi o‘zi?!*

O‘zbek tilidagi shaxsiy munosabat shakli jadvali

Shaxsiy munosabat shakli	Ko‘rsatkichi	Misol
Kichraytirish shakli	*-cha*	*qizcha*
	-choq	*qo‘zichoq*
	-chak	*kelinchak*
Erkalash shakli	*gina (-kina, -qina)*	*qizgina*
	-loq	*qizaloq*
	-jon	*Bahodirjon*
	-xon	*Ra’noxon*
	-boy	*Azimboy*
	-bek	*Sur’atbek*
	-qul	*Asrorqul*
	-toy	*Omontoy*
	-oy	*Cho‘lponoy*
	-beka	*Rahimbeka*
	-bibi	*Oyshabibi*
	-bonu	*Xurshidabonu*
	-niso	*Lutfiniso*
	-pari	*Oypari*
	-gul	*Oygul*
	-poshsha	*Sultonposhsha*
Hurmat shakli	*-lar*	*bobomlar*

Jadvalda shaxsiy munosabat shaklining faqat kategorial ma'nosiga misol berildi, yondosh ma'nosi (kinoya, kesatish, kuchaytirish, kamsitish kabi) kontekst, nutq sharoiti va ohang bilan bog'liq bo'lgani uchun, u jadvalga kiritilmadi.

5- §. Daraja kategoriyasi

Daraja shaklini o'rganish tarixidan. O'zbek tilidagi daraja ma'nosini ifodalovchi vosita, takror bo'lsa-da, aytish joizki, A.N.Kononov, T.I.Grunin, A.G'ulomov, S.N.Ivanov, F.Ishoqov, A.Madrahimov, Z.Ma'rufov, M.Asqarova, G'.Abdurahmonov, H.G'.Ne'matov, M.Sodiqova va ularning izdoshlari tomonidan atroflicha tadqiq etilgan.[1] Sh.Shahobiddinova sistem yondashuv asosida daraja kategoriyasini maxsus tekshirdi va daraja hamda qiyos kategoriyasini farqlash lozimligi haqidagi qarashini ilgari surdi. Umuman olganda, o'zbek tilidagi daraja ma'nosini ifodalovchi vositaning tadqiq etilishini bir necha aspekt va yondashuvda kuzatish mumkin va uni quyidagi tasnifda kuzatamiz:

1.Daraja ma'nosining diaxronik tadqiqi:

a) formal diaxronik tadqiq;

b) formal-funksional diaxronik tadqiq.

2.Daraja ma'nosining sinxronik tadqiq:

a) formal sinxronik tadqiq;

b) formal-funksional sinxronik tadqiq.

O'zbek tilshunosligida daraja ma'nosini ifodalovchi vositaning formal sinxronik tadqiqining ilk namunasini A.N.Kononovning «Hozirgi o'zbek adabiy tilining grammatikasi» monografiyasida kuzatamiz. Olim sifat darajasi ikki ko'rinish (qiyosiy va orttirma) ga ega bo'lishini ko'rsatadi va qiyosiy darajasi uch usulda ifodalanishini ta'kidlaydi: a) morfologik; b) sintaktik; v) sintaktik-morfologik.

Qiyosiy darajaning morfologik usulda ifodalanishi –roq affiksi vositasida amalga oshiriladi. Olim bunda mazkur shaklning kelib chiqishi masalasida ikki xil qarash borligini ko'rsatadi:

1. Byotlingk, Bang, Deni, Ryasyanen, Mengesu qarashiga ko'ra, *-roq* affiksi *yiroq* so'zining taraqqiyoti natijasi.

2. Ramstet, Brokkelman nuqtayi nazaricha, affiks otdan fe'l yasovchi *ra* va fe'llashgan ism qo'shimchasi bo'lgan *k* asosida ekanligini ta'kidlaydi.

[1]Исхаков Ф.Г. Имя прилагательные. ИСГТЯ, II, -С.143-145. Мадраҳимов А. Ўзбек тилида сифат ва янги ясалган сифатлар масаласига доир. Изд. АН Уз ССР, Серия общественных наук, 1957. --№ 1. –С.41-47. Маъруфов З. Ўзбек тилида сифатларнинг қиёсий даражалари. А.С.Пушкин номидаги Тил ва адабиёт институти асарлари, биринчи китоб. –Т., 1949. –С.131-143.

A.Kononovning o'zi affiksning aslida kichraytirishni ifodalovchi *-loq* qo'shimchasidan kelib chiqqanligi fikrida.

Affiksning hozirgi o'zbek adabiy tilidagi quyidagi ma'nosi xarakterliligi uqtiriladi:

a) sifatning noto'liq o'lchovi: *maydaroq, balandroq, issiqroq* kabi;

b) ikki predmetni qiyoslamasdan birida belgining ortiq darajadaligi (bunda oldinda *yana* ravishi keladi): *yana kuchliroq, yana go'zalroq, yana boyroq* kabi.

Bu affiks ravish, sifatdosh, ravishdosh va ayrim otda sifatning to'liq emasligini ifodalaydi: *beriroq, ichkariroq, o'qiganroq, kulganroq, ozroq, qo'rqibroq* kabi.

A.Kononov qiyosiy daraja ifodalanishining sintaktik usuli ikki ko'rinishda bo'lishini uqtiradi:

a) qiyoslanayotgan predmet chiqish kelishigida bo'lib, undan keyin sifat keladi: *temirdan og'ir, boldan shirin, qilichdan o'tkir*;

b) *qaraganda, nisbatan, ko'ra* ko'makchisi jo'nalish kelishigidagi so'zdan keyin kelib: *qandga qaraganda shirin, Andijonga nisbatan kattaroq* kabi.

Sintaktik-morfologik usulda morfologik vosita va sintaktik qurilma ma'noni ifodalashda uyg'unlashadi: *olmadan shirinroq, o'g'lidan yaxshioq* kabi.

A.Kononov orttirma daraja voqealanishining 5 usulini ajratadi:

a)*eng, juda, g'oyat, nihoyat* so'zi vositasida: *eng yaxshi, juda chiroyli, g'oyat sovuq, nihoyatda issiq* kabi;

b)egalikka chiqish kelishigi qo'shimchasini *barcha, hamma, bari* so'ziga qo'shish orqali: *barchasidan/hammasidan/baridan kuchli* kabi;

v)sifatni qaratuvchili birikma sifatida takrorlash asosida: *yaxshining yaxshisi, dononing donosi* kabi.

g)qaratuvchi otga qaralmish sifatni bog'lash asosida: *qovunning yaxshisi, shoirning ulug'i, odamning aqllisi* kabi;

d)chiqish kelishigidagi otga egalik shaklidagi sifatni bog'lash asosida: *qovundan yaxshisi, shoirdan ulug'i, odamdan aqllisi* kabi.[1]

A.Xometova («Превосходная и преувеличительная степени имен прилагательных в тюркских языках»),[2] F.G.Is'hoqov («Имя прилагательные»), A.Madrahimov («O'zbek tilida sifat va yangi yasalgan sifat

[1]Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. –М.-Л.: Изд-во академии наук СССР, 1960. –448 с. –С.162-165.

[2]Хаметова А. Превосходная и преувеличительная степени имён прилагательных в тюркских языках (на материалах современных узбекского, уйгурского, казахского и туркменского языков): автореф.дисс. …канд.филол.наук, -Т.: Фан, 1969. –30 б.

masalasiga doir»), Z.Ma'rufov («O'zbek tilida sifatning qiyosiy darajasi») asarida ham shunga monand fikrni kuzatamiz.

O'zbek tilining akademgrammatikasida sifat darajasiga munosabatning o'ziga xos ko'rinishi mavjud. Unda sifatning daraja shakli quyidagicha ekanligi ta'kidlanadi:

1) orttirma daraja belgining ortiqligini ifodalaydi;

2) ozaytirma daraja belgining kamligini ifodalaydi;

3) qiyosiy daraja belgining ortiq-kamligini turli chog'ishtirish usuli vositasida aniqlaydi.

Orttirma darajani ifodalovchi vositaning quyidagi tipi ko'rsatiladi:

Morfologik usul (bu intensiv usul deb ham yuritiladi) da intensiv shakl bir predmet belgisini boshqa predmetdagi shunday belgiga qiyos etmagan holda ifodalaydi. Uning ko'rinishi sifatida quyidagi ajratiladi:

a) so'zning birinchi bo'g'ini ajratilib, unga keyingi bo'g'indagi birinchi undoshni qo'shib yopiq bo'g'in hosil qilish va uning ketidan asl o'zakni qo'shib aytish asosida: *dum-dumaloq, sip-silliq, qop-qorong'i, nes-nobud, yam-yashil* kabi;

b) so'zning avvalgi ikki tovushi ajratilib, unga *p, m, s* tovushi qo'shilib, yopiq bo'g'in hosil qilinadi va so'ngra o'zak qo'shib aytiladi: *kap-katta, sap-sariq, qip-qizil, sip-silliq, qop-qorong'i, nes-nobud, yam-shil* kabi;

v) so'z oldidan takrorlanuvchi qolip bo'g'in ikki (yopiq, ochiq) bo'g'indan iborat bo'ladi, boshqacha aytganda ajratib olingan ikki tovushga p tovushini qo'shish orqali yopiq bo'g'in hosil qilinadi va unga yasama bo'g'in *–pa* qo'shiladi: *to'ppa-to'g'ri, soppa-sog', oppa-oson, quppa-quruq, teppa-teng, happa-halol* kabi.[1]

Ko'rinadiki, akademgrammatikada morfologik (intensiv) usul deganda so'z o'zgarishi hodisasi emas, balki fonetik usul nazarda tutiladi. Demak, bunda atama hodisa mohiyatiga unchalik to'g'ri kelmaydi.

Akademgrammatikada leksik usulning bir necha ko'rinishi farqlanadi:

a) maxsus kuchaytiruvchi so'z orqali: *juda, g'oyat, eng, nihoyatda, bir, biram, tim, naq, zap, behad, benihoya, cheksiz, mislsiz, tengsiz, nihoyasiz, beqiyos* kabi;

b) takroriy so'z vositasida: *zo'r-zo'r, barmoqday-barmoqday, ne-ne, kattadan katta* kabi;

v) turlicha so'z birikmasi, idiomatik ibora vositasida: *haddan ziyod cho'tir, haddan tashqari qonli, misli yo'q bir to'y, bahosi yo'q juvon, ming marta yaxshi, aql bovar qilmas gap, mutlaqo notanish odam, husni bir jahon ayol* kabi.[1]

[1]Ўзбек тили грамматикаси. I том. –Т.:Фан, 1975. –612 б. –Б.296-297.

Leksik-semantik usul leksik usuldan ma'lum bir farqli ko'rinishga ega. Bunda belgi bildiruvchi so'z o'rnida boshqa ko'chma ma'noli so'z qo'llanadi: *shakar qovun, shayton qiz, olov bola* kabi.

Akademgrammatikada ajratilgan fonetik usul intensiv (morfologik) usuldan keskin farqlanmaydi. Bunda asosan urg'u, intonatsiya, tovush takrori kabi fonetik vosita ahamiyat kasb etadi: *balaand, kaatta, yam-yashil, qipp-qizil, yum-yumaloq* kabi.[2]

Ozaytirma darajada ko'proq rang-tus belgisiga xosligi qayd etilib, uning ifodalovchi quyidagi vosita farqlanadi:

1) affiksatsiya:

a) *-ish/-ish* (*qiz-ish, sar-ish, ko'kish, oqish*), *-(i)mtir* (*qoramtir, qiz-ish, ko'kimtir*) shakli;

b) -roq affiksi (eskiroq tufli);

2) leksik vosita: yarim, nim, och, xiyol, sal, aytarli, uncha, unchalik... emas, u qadar... emas;

3) leksik-morfologik usul. Bunda belgi ma'nosni berish uchun leksik unsur morfologik shakl bilan qo'llanadi: *Bunisi xiyol kichikroq.*

Qiyosiy daraja shaklini yasovchi eng muhim vositadan biri sifatida -roq affiksi ajratiladi. Bunda shakl ushbu ma'noni kontekstdagina anglatishi ta'kidlanadi va qiyosiy daraja uchun quyidagi tartibda tuzilgan gap keltiriladi: *-ga qaraganda ...roq, -ga nisbatan ...roq, -dan ko'ra ...roq, -dan ham –roq.*

Shuningdek, ko'makchi so'zsiz ham qiyosiy daraja ifodalanishi aytiladi: *tashakkurdan qimmatliroq mukofot bormi odam bolasiga.*

-roq affiksining turli qurshov, so'zlovchining subyektiv munosabati asosida boshqa vositasiz qiyosiy daraja ma'nosini ifodalashi ta'kidlanganligi e'tiborga molik. Masalan, *Ahmadning bo'yi baland, Yo'q, Valining bo'yi ham undan balandroq* gapi qiyoslansa, bunda *-roq* shaklining ortiqchaligi ko'rinadi.

Akademgrammatikada *eng, yanada, battar, beshbattar* kabi sodda, *bir-biridan, biridan-biri, kundan kun, yildan-yil, oydan-oy* kabi takroriy so'z qiyoslash vositasi sifatida xizmat qilishi, bular vositasida qilingan qiyosda ham belgi ma'nosida ortiqlik ifodalanishi ta'kidlanadi.[3]

Ma'lum bo'ladiki, akademgrammatikada sifat darajasi ko'rsatkichining belgining ortiq yoki kamligini anglatish xususiyati – daraja ma'nosini ifodalashi, bu siraga turli-tuman (fonetik, leksik, semantik, leksik-morfologik, kontekstual,

[1]Ўзбек тили грамматикаси. I том. –Т.:Фан, 1975. –612 б. –Б.298.
[2]Ўзбек тили грамматикаси. I том. –Т.:Фан, 1975. –612 б. –Б.296-300.
[3] Ўзбек тили грамматикаси. I том. –Т.:Фан, 1975. –612 б. –Б.298.

subyektiv munosabat) vosita kiritiladi. Demak, akademgrammatikada zimdan sifat darajasini grammatik kategoriyadan kengroq bir hodisa sifatida qarashga intilish yaqqol sezilib turadi. Bu daraja ifodalovchi vositaning kitobdagi «Grammatik kategoriya» mavzusi ostida alohida morfologik kategoriya sifatida maxsus ta'kidlanmaganligi bilan ham mustahkamlanadi.[1] Chunki son, egalik, kelishik, daraja, bo'lishli-bo'lishsizlik, mayl, zamon shakli majmuyiga nisbatan *kategoriya* atamasi ishlatilgan. Bu, albatta, daraja ma'nosini ifodalovchi vositaning turli sathga mansubligi, boshqacha aytganda «mazmunan bir xillik» va «shaklan har xillik» xususiyatiga egaligi grammatik kategoriya sifatida qaralishiga monelik qilganligi bilan belgilanadi.

«Hozirgi o'zbek adabiy tili» darsligida sifat darajasiga akademgrammatikalagidan birmuncha farqli munosabat ko'zga tashlanadi. Masalan, «rang-tus bildiruvchi ayrim sifatda qo'llanuvchi *–ish, (-i)mtir* affiksi belgining kuchsiz darajasini bildirmaydi, balki belgining sifat bildirgan rang-tusga moyilligini, shunga yaqinligini ko'rsatadi: *oqish, ko'kish, ko'kimtir* kabi. *Qora, qizil, oq sariq* kabida ham xuddi shunday ma'no ifodalanadi: *qora qizil – qoraga yaqin* (qoraga moyil) *qizil, oq sariq – oqqa yaqin* (oq rangga moyil) *sariq*.[2]

Darslikda daraja ma'nosini ifodalovchi vosita akademgrammatikadagidan sezilarli farqlanmaydi, biroq uni turga ajratishda o'ziga xoslik kuzatiladi. Masalan, akademgrammatikada e'tiborga olingan ayrim jihat darslikda quyidagicha talqin qilinadi: «Sifatning darajasi oddiy darajaga insbatan belgilanadi. Bir predmetning belgisi ikkinchi bir predmetning bilgisiga nisbatan qiyosan olinishi mumkin. Bunda birining belgisi ortiq, biriniki kam bo'ladi: *temir yog'ochdan og'ir, u sendan kuchli* kabi. Lekin bunday ifodalanish darajaning maxsus turi bo'la olmaydi. Chunki bunda bir predmet belgisi boshqa predmet belgisiga nisbatan olinadi. Daraja kategoriyasi esa belgining oddiy darajaga munosabatini ko'rsatadi. Yuqoridagi kabi qiyoslashda esa sifat oddiy daraja, orttirma daraja yoki ozaytirma daraja formasida bo'la oladi: *undan shirin – undan juda shirin – undan shirinroq* kabi.»[3] Darslik mualliflari daraja ma'nosiga grammatik kategoriya nuqtayi nazaridan munosabatda bo'lishib, uni morfologik kategoriyaga qo'yiladigan umumiy ma'no – xususiy voqealanish dialektikasi asosida talqin qilishadi. Bu esa daraja ma'nosini ifodalovchi

[1] Ўзбек тили грамматикаси. I том. –Т.:Фан, 1975. –612 б. –Б.60-63.
[2]Шоабдураҳмонов Ш., Аскарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. Педагогика институтларининг филология факультети студентлари учун дарслик. –Т.:Ўқитувчи, 1980. –448 б. –Б.256.
[3]Шоабдураҳмонов Ш., Аскарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. Педагогика институтларининг филология факультети студентлари учун дарслик. –Т.:Ўқитувчи, 1980. –448 б. –Б.254.

vositaning grammatik shakl sifatida ma'lum darajada miqdoran cheklanishiga olib kelgan.

Daraja ma'nosini ifodalovchi vositaning turga ajratilishida ham o'zgachalik kuzatiladi. Darslik mualliflari akademgrammatika talqinidan farqli ravishda sifatning dastlabki tovushi takrorlanishi natijasidagi tovush o'zgarishini (*dum-dumaloq, soppa-sog'*) daraja ifodalanishining fonetik usuliga kiritadi. Shuningdek, daraja vositasi sifatida leksik-morfologik usul ajratilmaydi. Umuman olganda, darslikda ta'kidlanishicha, «daraja ma'nosini ifodalovchi maxsus grammatik ko'rsatkichga ega bo'lgan forma faqat bitta. U ham bo'lsa, *-roq* affiksi yordamida yasaluvchi ozaytirma daraja formasi.»[1]

Demak, talqindan ma'lum bo'ladiki, darslik mualliflari daraja ma'nosini ifodalovchi grammatik shakl bittaligini e'tirof etishib, qolgani ma'noviy jihatdan grammatik, shaklan esa boshqa sath hodisasi ekanligini uqtirishadi. Bu esa daraja ma'nosini ifodalovchi vositani baribir maydon sifatida qarashga intilish mavjudligidan dalolat beradi.

U.Tursunov, J.Muxtorov va Sh.Rahmatullaev muallifligidagi «Hozirgi o'zbek adabiy tili» darsligida daraja kategoriya sifatida talqin etiladi va darajaning ikki shakli farqlanadi:

1) ozaytirma daraja;
2) orttirma daraja.

Shuningdek, sifatning ozaytirma va orttirma daraja yasovchisini olmagan formasi oddiy daraja deb yuritilishi, unda narsa belgisi ortiq-kamligi jihatidan qiyos qilinmay, balki to'g'ridan-to'g'ri, bevosita anglashilishi, ozaytirma va orttirma darajada esa belgi ma'nosi oddiy darajada ifodalangan belgiga chog'ishtirish asosida ifodalanishi aytiladi.[2] Mualliflar ozaytirma narsa belgisining oddiy daraja holatidan kamligini, kuchsizligini bildirishi va uning morfologik ko'rsatkichi *-roq* affiksi ekanligini ta'kidlashadi. Shuningdek, ba'zan predmet belgisining nisbiy ortiqligini ko'rsatish uchun chog'ishtiriluvchi narsaning nomi chiqish yoki jo'nalish kelishigida bo'lishi, *ko'ra, qaraganda, nisbatan* so'zi bilan kelishi aytiladi. Ta'kidlash lozimki, mualliflar rang-tus bildiruvchi sifatda predmetning belgisi kamligi, kuchsizligini ko'rsatuvchi shakl ham ishlatilishi (a) oddiy darajadagi sifatga *–ish* affiksini qo'shish orqali: *oqish, ko'kish, qiz-ish, sar-ish*; b) sifat asosiga *–(i)mtir* affiksini qo'shish bilan:

[1]Шоабдураҳмонов Ш., Аскарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. Педагогика институтларининг филология факультети студентлари учун дарслик. –Т.:Ўқитувчи, 1980. –448 б. –Б.255.
[2]Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили: олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун дарслик. –Т.: 1992. –399 б. –Б.283.

qoramtir, ko'kimtir) uqtirilar ekan,[1] bundan mazkur shaklning ham ozaytirma daraja sifatida qaralayotganligidan dalolat beradi.

Darslikda sifatning orttirma daraja shakli leksik (ya'ni sifatdan oldin *eng, juda, -oyat, nihoyatda, behad* kabi so'zni keltirish yo'li bilan), fonetik usul bilan ifodalanishi, shuningdek, oldingi darslikdan farqli ravishda «ikki predmet» belgisi o'zaro chog'ishtirilganda ham belgining ortiqligi ma'nosi anglashilishi (*hammasidan yaxshi, barchasidan katta, baridan chiroyli*)» ham ta'kidlanadi. Ko'rinadiki, mualliflar ifodalovchi vositasi turli sathga mansubligidan qat'iy nazar, daraja ma'nosini ifodalovchi shaklni grammatik kategoriya sifatida qarash tarafdori.

Professor Sh.Rahmatullayev «Universitet» nashriyotida chop etilgan «Hozirgi adabiy o'zbek tili» darsligida sifatdagi daraja ifodalovchi vositani an'anadagidan farqli ravishda grammatik kategoriya sifatida qarashdan chekinadi. Shuningdek, boshqa grammatik kategoriyaga kiruvchi shaklni paradigma sifatida baholash barobarida, sifatdagi daraja ma'nosini ifodalovchi vositani paradagima termini bilan ham bermaydi.[2] Bu mazkur vositaning, aytilganidek, turli sathga mansubligidan va turli shaklga egaligidan kelib chiqadi. Zero, tilshunos ta'kidlaganidek, sifat leksemaga qo'shiladigan affiks, affiksoid va boshqa tur vosita ifoda jihatidan ham, mazmun jihatidan ham turli-tuman bo'lib, bir butun paradigmaga birlashmaydi, noparadigmatik (yakka) morfema sifatida namoyon bo'ladi. Sifat darajasi deb kelingan hodisani yaxlit bir paradigmaga (tizimga) birlashtirish uchun yetarli asos yo'q.»[3] Bu fikr mazkur vosita sirasini alohida funksional-semantik maydon sifatida o'rganish fikrimizni quvvatlaydi.

Daraja ma'nosining sinxron-formal-funksional talqinini beruvchi tilshunoslar uning morfologik va lingvistik xususiyatini o'rganishda dialektik metodologiya asosida ish ko'radi. Xususan, o'zbek tilshunosligida formal-funksional yondashuvning asoschisi bo'lgan S.N.Ivanov sifatdagi darajani maxsus grammatik kategoriya sifatida ajratmagan va u grammatik kategoriyaning faqat ot va fe'lda mavjudligiga urg'u beradi.[4]

Grammatik kategoriyani turkiy yodnoma asosida tekshirgan H.Ne'matov «Grammatik kategoriya tasnifi» mavzusi ostida qiyosiy daraja (stepeni

[1] Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили: олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун дарслик. –Т.: 1992. –399 б. –Б.284.
[2] Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили (дарслик). –Т.:Университет, 2006. –464 б. - Б. 151-153.
[3] Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили (дарслик). –Т.:Университет, 2006. –464 б. - Б. 153.
[4] Иванов С.Н. Родословное древо-тюрок Абул-Гази-Хана. Грамматический очерк. (Имя и глагол. Грамматические категории). –Т.: Фан, 1969. –204 с.

srevneniya – H.N.) ning ma'lum bir turkum (aniqrog'i, sifat)ga xos bo'lgan tasniflovchi kategoriya ekanligini e'tirof etish bilan cheklanadi, xolos.[1]

G'.Zikrillayev «O'zbek tili morfologiyasi»da daraja asosan sifatning lug'aviy ma'nosida mavjud bo'lishini ta'kidlaydi.[2] Muallif daraja ma'nosini ifodalovchi vositaning kategorial xususiyatiga e'tibor qaratmasdan, shaklning struktur xususiyatiga ko'ra o'ziga xos tasnifini beradi. Bunga ko'ra shakl tub, yasama, takroriy va qo'shma turga bo'linadi. Tub shakl deganda boshqa shakl yasalishi uchun asos bo'lgan shakl tushuniladi. Bu, albatta, asliy sifatning o'zak-negizi. Yasama shakl sifatida olim an'anaviy fonetik usulnining bir qismini nazarda tutadi. Bunda unli cho'ziq talaffuz qilinib, urg'u oladi yoki undosh ortiriladi: *balaand, maayda, cho'o'p, tooza, yomoon, chuquur, qaari* kabi. Fonetik usulning bir ko'rinishi esa takroriy shakl sifatida e'tirof etiladi: *ko'm-ko'k, bo'm-bo'sh, do'mboq-do'mboq, dum-dumaloq, bus-butun, kalta-kulta, mayda-chuyda, uzundan-uzoq* kabi.

Qo'shma shakl tub shaklga yordamchi so'z (yuklama) qo'shish bilan yasaladi: *eng, juda, behad, g'oyatda, nihoyatda, haddan tashqari, sal, picha, andak* kabi.[3] Muallif tomonidan bu so'z yuklama vazifasini bajarib, ozlikni muayyanlashtirish uchun xizmat qilishi, bunday holda zohiran so'z birikmasi, mazmunan leksik-grammatik shakl mavjudligi ta'kidlangan. Bu holat esa, o'z-o'zidan mazkur ifodalovchi tizimi grammatik kategoriya, morfologik kategoriya mezoniga muvofiq kelmasligini ko'rsatadi.

Tilshunos O.Bozorov sifat darajasi kategoriyasining shakllantirilish asosi va uning semantik xususiyati haqida fikr yuritar ekan, hodisa butun borliq hodisasi darajalanishi uchun umumiy bo'lgan «oz-me'yoriy-ko'p» tamoyilidan kelib chiqilsa, ko'pgina an'anaviy tushunchamizning noto'liq, shartli ekanligi ma'lum bo'lishiga diqqatni tortadi:

a) me'yoriy (normal) daraja ma'nosi uchun xizmat qilib kelgan «oddiy daraja» atamasining qo'llanilishi o'rinli emas. Mantiqan olganda, «oddiy» tushunchasi aslida «murakkab» tushunchasiga zid qo'yilishi lozim bo'lib, bu tushuncha o'zida «miqdor darajasi», «belgi darajasi turi» kabi ma'noni aks ettira olmaydi;

b) «oddiy-qiyosiy-orttirma» zidlanuvidagi «qiyosiy» atamasi ham o'zi anglatib turgan daraja belgisining (masalan, «ozlik»ning) ma'nosini o'zida aks ettira olmaydi. Aslida «qiyosiy» tushunchasi xususiy ma'no turidan birining

[1] Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. –Т.: Фан, 1989. – 192 б. –Б.155.
[2] Зикриллаев _.Н. Ўзбек тили морфологияси: Филологик ихтисосликлар учун қўлланма. –Бухоро: НС, 1994. – 164 б. Б. –129.
[3] Зикриллаев _.Н. Ўзбек тили морфологияси: филологик ихтисосликлар учун қўлланма. –Бухоро: НС, 1994. – 164 б. Б. –130.

emas, balki barcha xususiy ma'noning shakllantirilishi asosi bo'lgan usulning atamasi.»[1]

Ko'rinadiki, O.Bozorov sifat darajasi kategoriyasi shaklining nomlanishi xususida fikr yuritib, uning nominatsiya mantiqiga mos kelmasligini ta'kidlaydi.

Olim sifat darajasi qiyos asosida bo'lib, bu qiyos ifodalangan va ifodalanmagan turda bo'lishini ko'rsatadi. Masalan, *eng katta bino, juda yaxshi odam, qizg'ish bayroq, ko'm-ko'k osmon* so'zshaklida belgi ortiq-kamligi mavjud bo'lib, u ifodalanmagan narsa belgisiga zimdan qiyoslanayotganligi sezilib turibdi. Biroq *–roq* shaklli ayrim so'zshaklda belgi ifordalanmagan «etalon» bilan qiyoslangan: *Uzoqdan novcharoq odam kela boshladi.* Tadqiqotchi buni *Nok olmadan shirinroq* gapidagi muayyan qiyoslanuvchili belgi bilan munosabatiga ko'ra baholaydi. Chunki bunda belgi aniq qiyosga ega.[2]

Daraja kategoriyasi talqiniga bag'ishlangan formal-funksional tadqiqot sirasida tilshunos Sh.Shahobiddinova ishi alohida ajralib turadi.

Sh.Shahobiddinova o'zbek tilshunosligida birinchi marta qiyoslash kategoriyasini ajratish tarafdoridir va bu fikrni ilgari suradi. «Bizningcha, belgining darajasi va belgining qiyosi farqli. Eng qizil olma birikmasida, darhaqiqat, rang-tus belgisining boshqa predmetnikidan ayricha darajada (ortiq) ekanligi ma'nosi bor. Bu «kabi orttirma daraja formasi asosida to'liq (yaqqol), lekin konstruktsiyada bevosita aks etmagan qiyoslash turadi».[3] Bizningcha, bu qiyoslash «aks etmagan» emas, balki nolisoniy. Ma'lumki, nolisoniy omil til sathi, aniqrog'i, lison sathi («lison - nutq» dixotomiyasida) dagi morfologik kategoriya uchun definitsiya asosi bo'la olmaydi.

«Eng qizil olmani tanlash uchun», shubhasiz, uni bir nechta boshqa (ular ham qizil) olma bilan qiyoslash lozim. Biroq bu qiyoslash o'zining lisoniy (morfologik) aksini topmagan.

«Eskiroq ro'mol» birikmasida esa qiyoslash o'zining lisoniy aksini topganligi qiyoslanuvchi aniq bo'lmaganda ham (etalon bilan taqqoslaganda) ham reallashuv imkonini beradi.

Olima darajada qiyoslash mavjud bo'lganda va bu holat morfologik vosita bilan ifodalanganda kategorial ahamiyat kasb etishini uqtiradi. «Ko'rinadiki, nol ko'rsatkichining ma'no imkoniyati kengroq bo'lib, belgining qiyosiy va

[1]Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш: филол.фанл.докт.автореф. –Т.:1997. –51 б. -Б.34.
[2]Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш: филол.фанл.докт.автореф. –Т.:1997. -Б.34.
[2]Нурмонов А., Шахобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий морфологияси. –Т.: Янги аср авлоди, 2001. –164 б. –Б.151-153.
[3]Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш: филол.фанл.докт.автореф. –Т.:1997. -Б.34.

noqiyosiy holatiga birdek ishora qiladi. *–roq* esa faqat qiyosiy holat ifodalash uchun xizmat qiladi.

Demak, qiyoslash kategoriyasi ikki a'zoli bo'lib, u quyidagi: 0 va *–roq*.

0 – belgining qiyosiy-noqiyosiy ekanligini ko'rsatadi, «oldingiga» bo-liqlikka ishora qiladi.

-roq – belgining qiyosiy ekanligini ko'rsatadi, «oldingiga» bo-liqlikka ishora qiladi.

Qiyoslash kategoriyasi – belgining qiyosiy-noqiyosiy ekanligini ko'rsatadi, oldingiga bog'liqlikka ishora qiladi.»[1]

Aytilgandan ma'lum bo'ladiki, tadqiqotchi darajaning nomorfologik ifodalanishi va vositasining birlashuvi qiyoslash-noqiyoslash asosida ekanligidan kelib chiqqan holda, uni grammatik kategoriya sifatida baholashdan tiyiladi. Faqat qiyoslash uchun xizmat qiluvchi *–roq* affiksini uning paradigmatik ziddi bo'lgan nol shakl bilan birgalikda qiyoslash kategoriyasi sifatida qarash tarafdori.

To'g'ri, bu grammatik kategoriya talqinini mukammallashtirish sari qo'yilgan ijobiy qadamdan biri. Biroq u ham umuman daraja ma'nosini ifodalovchi vositani yaxlit tizim sifatida o'rganish muammosini yo'qqa chiqarmaydi va, shu bilan birgalikda, muammo yechimiga olib kelmaydi ham. Aksincha, mazkur vosita tizimini maydon sifatida o'rganish masalasining Aksincha, mazkur vosita tizimini maydon sifatida o'rganish masalasining dolzarbligini kuchaytiradi, xolos. Chunki qiyoslash kategoriyasi ajratilar ekan, belgining ortiq-kamligini ko'rsatuvchi boshqa qator vosita e'tibordan xoli qolaveradi.

Boshqa morfologik hodisa qatori daraja kategoriyasini ham «formal-funksional» tahlil qilish maqsad qilib qo'yilgan R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva va boshqa «Hozirgi o'zbek adabiy tili»[2] o'quv qo'llanmasida ham daraja kategoriyasiga munosabatda an'anadagidan chiqib ketisholmaydi. Ular daraja ifodalovchi vositani «geterogen» shaklli kategoriya sifatida baholashib, quyidagiga e'tibor qaratishadi: «rang-tus bildiruvchi ayrim sifatda qo'llanuvchi *-(i)sh, -(i)mtir* affiksi belgining kuchsiz darajasini bildirmaydi. Masalan, *oqish* so'zi *oq* rangining, *qoramtir* so'zi *qora* rangining kuchsiz darajasi emas, *oq, qora* bo'lmagan, balki ularga o'xshash rang turi.»[3]

Tahlildan ma'lum bo'ladiki, barcha tilshunos o'zbek tilida daraja ma'nosi va uning ifodalanishi mavjudligini e'tirof etishgani holda, uning kategorial

[1]Нурмонов А., Шахобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Т.: Янги аср авлоди, 2001. –164 б. –Б.151-153.
[2]Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г. , Қурбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили: Ўқув қўлланмаси. –Т.: НС, 2007. –380 б. –Б.230-231.
[3]Нурмонов А., Шахобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Т.: Янги аср авлоди, 2001. –380 б. –Б.151-153.

xususiyati, tarkibi va ifodalovchi vositasi masalasida yakdil emas. Ishonch bilan aytish mumkinki, o'zbek tilidagi birorta hodisa darajadek rang-barang talqinga ega emas. Buning barchasi daraja ma'nosini ifodalovchi vosita har xilligi, qamrovi kengligi, aniqrog'i, grammatik kategoriya mezoniga sig'masligi bilan belgilanadi. Bu esa daraja hodisasini grammatik kategoriyadan kengroq «uyushma» - funksional-semantik maydon sifatida o'rganish uchun to'laqonli asos bo'la oladi.

O'zbek tilshunosligida ham daraja ma'nosi «belgi darajasi» umumiy grammatik ma'nosiga ega bo'lib, u turli sathga mansub (geterogen) shakl yordamida hosil qilinishi ta'kidlanadi: *go'zal-go'zalroq-juda go'zal.*

Asliy sifatda belgining uch darajasi ajratiladi:

a) oddiy daraja; b) orttirma daraja; v) ozaytirma daraja.

Oddiy daraja hech qanday vositasiz ifodalanadi. Unda daraja umumiy ma'nosi «belgining ortiq-kamligiga munosabat bildirmaslik» shaklida xususiylashadi: *yomon, yumshoq, oriq, semiz, tor, yuksak, egri* kabi.

Orttirma daraja belgining me'yoriy holatdan ortiqligi, kuchliligini ifodalab, u daraja umumiy ma'nosini «belgining me'yordan ortiqligini ifodalash» tarzida xususiylashtiradi. Orttirma daraja maxsus morfologik shaklga ega emas. Daraja ma'nosi ifodalovchisining geterogenligi ushbu darajada yaqqol ko'zga tashlanadi. Zero, orttirma daraja, aytilganidek, quyidagi usul bilan hosil qilinadi:

1. **Fonetik usul**. Buning bir necha ko'rinishi bor: a) *qop-qora, yap-yapaloq, dum-dumaloq*; b) urg'uli tovushning cho'zilishi: *u'zun, bala'nd, chiro'yli.*

2. **Leksik usul:**. ***juda*** *aqlli,* ***g'oyatda*** *achinarli,* ***nihoyatda*** *yuksak.*

3. Belgining ortiq darajasi **analitik shakl**da ham ifodalanadi. Bu shakl ikki uzvli bo'lib, birinchi uzvini chiqish kelishigi shaklida qo'llash orqali hosil qilinadi: *uzundan uzoq, shirindan shirin.*

Ozaytirma daraja daraja umumiy ma'nosini «belgining me'yordan kamligini ifodalash» ko'rinishida xususiylashtiradi. Manbalarda bu ma'noning ham ikki usul bilan yuzaga chiqishi aytiladi:

1. **Leksik usul:** ***sal*** *durust,* ***bir oz*** *yaxshi,* ***xiyol*** *ochiq.*
2. **Morfologik usul:** ***kattaroq,ko'proq, ozroq;***

Ma'lum bo'ladiki, o'zbek tilida grammatik ma'noni ifodalovchi ko'plab vosita grammatik kategoriya sifatida qaralganidan juda ko'pgina erkin sintaktik birikma ham grammatik kategoriyaga nisbat beriladi va natijada darajaning morfologik ifodasi bilan boshqa nomorfologik hodisa qorishtiriladi. Aslida o'zbek tilida mazkur ma'no turli sathda turlicha vosita bilan ifodalanadi va u

bitta funksional-semantik maydonni tashkil etadi. Tilshunoslikdagi aytilgan kategoriya doirasidagi mavjud muammo uni funksional-semantik maydon sifatida o'rganish asosidagina bartaraf etiladi.

Demak, o'zbek tilida ayrim kategoriya ma'nosini ifodalovchi vositani yaxlit funksional-semantik maydon sifatida qamrab olish va tadqiq qilish dolzarb vazifadan.

Daraja shakli. O'zbek tili grammatik kategoriyasini shaklining bir sathga yoki har xil sathga mansubligiga ko'ra ikkiga bo'lish mumkin:

a) gomogen shaklli kategoriya;

b) geterogen shaklli kategoriya.

Gomogen shaklli kategoriya sifatida kelishik, son, nisbat va o'zgalovchi kategoriyani ko'rsatish mumkin. Bu kategoriyaning tashkil etuvchisi faqat bir sath (morfemika) ga tegishli. Shu boisdan ularga nisbatan gomogen atamasini qo'llash o'rinli.

Kesimlik, bo'lishli-bo'lishsizlik, daraja, harakat tarzi kategoriyasi shakli geterogen shaklli kategoriya hisoblanadi. Chunki uning tashkil etuvchi birligi birdan ortiq sathga mansub bo'ladi.

Misol sifatida fe'lning bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasini olib ko'raylik. Har qanday fe'l nutqda yo bo'lishli, yo bo'lishsiz shaklda bo'ladi. Bo'lishli shakl yuz bergan /berayotgan/beradigan, bo'lishsiz shakl esa yuz bermagan/bermayotgan/bermaydigan harakatni ifodalaydi. Bo'lishli-bo'lishsizlik ma'nosining ifodalovchisi geterogen (har xil) tabiatli, ya'ni turli sathga mansub lisoniy birlik. Chunki bu ma'noni ifodalashda *-ma, -may, -maslik* morfologik ko'rsatkichidan tashqari, *na* nomustaqil so'zi ham ishtirok etadi. Ayrim adabiyotda, shuningdek, *yo'q, emas* inkor ifodalovchi so'zini ham shu kategoriya sirasida ko'radi. Bu fikrga, albatta, qo'shilib bo'lmaydi. Zero, bu so'z fe'l kesim vazifasida kelgandagina inkor ma'nosini voqealantirib, shuningdek, bu ma'noni ifodalash uchun u doirasidan tashqariga chiqadi. To'g'ri, nutqda *o'qigani yo'qligini bilmayman* tipidagi qurilmada *yo'q* so'zi qatnashadi. Biroq bu qurilma *o'qigani yo'q* predikativ qo'shilmasi transformatsiyasi, xolos. Demak, baribir, *yo'q* so'zi fe'lning emas, balki kesimlikning inkor shakli bo'lib qolaveradi.

Emas inkor shakli haqida ham shunday tabiatga ega. Ba'zan undan qiyoslanayotgan ikki harakatdan o'zgalovchi shaklidagi fe'l bilan ifodalangan ish-harakatning inkorini ifodalash uchun foydalanilishi aytiladi: *Kulib emas, yig'lab gapirdi. Yurishi emas, kulishi yoqadi.* Bunday birikuv ham predikativ qo'shilmaning qisqaruvi natijasidir: *Kulib gapirdi emas, yig'lab gapirdi. Yurishi chiroyli emas, kulishi yoqadi kabi.*

Bo‘lishli-bo‘lishsizlik kategoriyasining umumiy grammatik ma’nosi «harakatning sodir bo‘lish/bo‘lmasligini ko‘rsatish» bo‘lib, u kategoriyaning semantik qiymati hisoblanadi, uning sintaktik jihati o‘ta kuchsizligi bilan xarakterlanadi. Chunki u o‘zi birikayotgan leksemaning valentligiga juda oz ta’sir qiladi (ya’ni uning *hech, hech qachon* birligi bilan birikuviga olib keladi, xolos).

Ko‘rinadiki, daraja kategoriyasi sifatida qaralayotgan tizimning o‘zini ham bir kategoriya sifatida emas, balki undan kattaroq butunlik sifatida qarashga ehtiyoj mavjud.

Daraja shakli paradigmatikasi. O‘zbek tilidagi daraja ifodalovchi vosita o‘zaro zidlanadi. Bu zidlanish, avvalo, nol shaklning serqirraligi asosida privativ asosda bo‘ladi. “Belgining darajasi” umumiy mohiyati asosida birlashuvchi shakl “belgini qiyossiz ifodalash” umumiy ziddiyat belgisi asosida ajraladi. Bunda oddiy daraja vositasi sifatida qaraluvchi 0 (nol) shakl ziddiyatning belgisiz, mo‘‘tadil a’zosi. Zero, u belgini darajasiz ham, darajalab ham ifodalay oladi.

Boshqa daraja vositasi “belgining ortiq yoki kamligini ifodalash” ziddiyat belgisi asosida privativ munosabatda bo‘ladi. Bunda *-roq* shakli ziddiyatning mo‘tadil, qolgani kuchli a’zo sifatida namoyon bo‘ladi.

6-§. Nisbat kategoriyasi

Nisbat kategoriyasi haqida umumiy ma’lumot. Tilshunoslikda fe’l nisbati (darajasi) eng ko‘p munozaraga bag‘ishlangan mavzulardan biri. O‘zbek tilshunosligida nisbat fe’lning lug‘aviy shakl kategoriyasi sifatida atroflicha tadqiq etilgan. Shu boisdan bu masala 1970-yilda uning mohiyatini belgilash darajasida va ikkinchi marta 1975-yilda turli qurilishli tilda nisbatning xususiyati struktur-tipologik asosda muhokama qilingan. Biroq nisbat o‘timli-o‘timsizlik, kauzativ, shaxs-son, faol va nofaol qurilma tuguniga daxldor bo‘lib, hozirgacha fe’l mavzusiga doir barcha tadqiqotdan u yoki bu darajada o‘rin olib kelayotgan bo‘lsa-da, o‘zining tugal yechimiga ega bo‘lmagan. O‘zbek tilshunosligida nisbat kategoriyasini o‘rgangan barcha tadqiqotchi fikrini uch guruhga birlashtirish mumkin:

1) nisbat shakli harakatning bajaruvchi va obyektga munosabatini ifodalaydi;

2) nisbat kategoriyasi harakatning bajaruvchi va obyekt orasidagi bog‘lanishini tavsiflaydi;

3) nisbat kategoriyasi harakatning subyektga munosabatini ifodalaydi. [1]

O‘timli-o‘timsizlik va nisbat tushunchasi hamisha bog‘liq tushuncha sifatida qaraladi. Chunki fe’lning bosh lug‘aviy shakli sifatida nisbat qaraladigan bo‘lsa, fe’lning valentligi avvalo uning o‘timli-o‘timsizligiga ta’sir qiladi. Nisbat mohiyatini belgilashning muammoligi unga dialektik bog‘liq bo‘lgan o‘timli-o‘timsizlikka turlicha qarashning mavjudligi bilan ham belgilanadi. Chunki uni ayrim tadqiqotchilar grammatik hodisa deyishsa, boshqasi lug‘aviy mohiyat sifatida qarashadi. O‘timli-o‘timsizlikni lug‘aviy hodisa sifatida qarovchi fikrini quyidagicha asoslashadi:

Birinchidan, o‘timli-o‘timsizlikni muntazam ifodalovchi shakl tizimi o‘zbek tilida mavjud emas;

Ikkinchidan, har qanday fe’l ham o‘timli, ham o‘timsiz shaklga ega emas.

To‘g‘ri, ayrim nisbat shakli muntazam ravishda o‘timli-o‘timsizlik uchun xizmat qiladi. Biroq u fe’l turkumini boshdan-oyoq qamrab ololmaydi, balki uning ayrim guruhi bilan cheklanadi.

Nisbat kategoriyasi fe’l lug‘aviy ma’nosiga boshqa kategoriyaga nisbatan ko‘proq ta’sir qilishi bilan ajralib turishini ta’kidlashadi. Bu uning fe’l o‘zak-negiziga qo‘shilish o‘rni bilan belgilanadi. Umuman olganda, nisbat kategoriyasi bo‘yicha bildirilgan fikr qanchalik rang-barang bo‘lmasin, uni bir jihat birlashtirib turadi: nisbat shakli fe’lga xos kategorial tizim.

Jahon tilshunosligida nisbat kategoriyasining mohiyatini belgilashdagi qarash ham uchga bo‘linadi:

semantik yo‘nalish tarafdori (F.F.Fortunatov, A.M.Peshkovskiy, R.O.Yakobson va boshq.) nisbatning semantik tomoniga asosiy e’tibor beradi;

sintaktik yo‘nalish tarafdori (A.V.Isachenko va boshq.) bu kategoriya fe’lning egaga munosabatini ko‘rsatadi degan qarashni ilgari surishadi;

semantik-sintaktik yo‘nalish tarafdori yuqoridagi har ikki qarashni birlashtiradi (A.I.Moiseev va boshq.)[2]

Turkiyshunoslikda nisbatni so‘z yasovchi-shakl yasovchi vosita sifatida qarash ham ma’lum vaqt urf bo‘lib[3], buning natijasida fe’lning nisbat

---

[1] Гуломов А. Феъл. –Т., 1954. –Б. 56; Ҳожиев А. Феъл. –Т.: Фан, 1973. Ўзбек тили грамматикаси. –Т.: Фан, 1975; Нигматов Х.Г. Функциональная грамматика тюркоязычных памтников XI–XII вв. –Т.: Фан, 1989; –Б. 82; Султонсаидова С. Ўзбек тилидаги грамматик категориянинг ўзаро муносабати: филол.фан.докт.дисс. ...автореф. –Т., 1994, –Б. 48; Аъламова Н. Ўзбек тилидаги феълда нисбат категорияси: монография. –Т.: Фан, 1992; Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Т.: Янги аср авлоди, 2001. –Б. 130–139.

[2] Храковский В.С. Очерки по общему и арабскому синтаксису. –М.: Наука, 1973. –С. 168; Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Т.: Янги аср авлоди, 2001. –Б. 124.

[3] Баскаков Н.А. Выражение глагольных категорий в тюркских языках // Типология грамматических категорий. –М.: Наука, 1975. Иванов С.Н. Родословное древо тюрок Абул-Гази-Хана. –Т.: Фан., 1969; Нигматов Х.Г. Функциональная грамматика тюркоязычных памтников XI–XII вв. –Т.: Фан, 1989. –Б. 82.

ko‘rsatkichli shakli, hatto izohli lug‘atdan ham o‘rin oldi. Masalan, haqiqatan ham, o‘zbek tilidagi ayrim fe’l butunlay semantik o‘zgarishga uchraydi: kelmoq – kelishmoq, kermoq – kerilmoq, og‘rimoq – og‘rinmoq, sevmoq – sevinmoq, surmoq – surishtirmoq kabi. Ammo ayrim fe’ldagi semantik siljishga qarab nisbat shaklining so‘z yasovchilik xususiyatiga egaligi haqida xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Misolga e’tibor qilaylik:

a) *gapir – gapirtir –gapirtirildi*;

b) *yuv – yuvin – yuvintir*;

v) *ishla – ishlash – ishlandi*.

Dalildan ma’lum bo‘ladiki, nisbat shaklining qo‘shilishi natijasida vujudga keladigan semantik o‘zgarish shakl yasalishi chegarasidan tashqariga chiqmaydi va bunday holni barcha lug‘aviy shakl yasovchi vosita sirasida ham kuzatish mumkin. Biroq nisbat shaklidagi fe’lni izohli lug‘atda berishganda ham, baribir nisbat ko‘rsatkichini so‘z yasovchi sirasiga qo‘yishmaydi. Demak, bundan nisbat so‘z yasaydimi yoki nisbat shaklini olgan fe’l tadrijiy taraqqiyot natijasida leksemaga aylanadimi degan savolni qo‘ygan holda muammoga munosabat bildirish lozimligi uqiladi. Ko‘rinadiki, masalaga so‘z yasalishi va so‘zshaklning leksemaga aylanishi hodisasini farqlash asosida yondashuv muammoga yechimiga olib keladi. Albatta, barcha borliq, xususan til hodisasida bo‘lgani kabi lug‘aviy shakl ko‘rsatkichida ham so‘z lug‘aviy ma’nosiga ta’sir kuchi darajali xarakterga ega. Boshqacha aytganda ayrim lug‘aviy shakl hoisil qiluvchi ko‘rsatkich o‘zi birikayotgan so‘zning lug‘aviy ma’nosini ko‘proq o‘zgartirsa, boshqasida o‘rtacha, ayrimida o‘ta sust bo‘ladi. Masalan, ravishdosh shakli fe’lning ma’nosini oz, sifatdosh o‘rtacha, harakat nomi esa kuchli o‘zgartirishga qodir.

Tilshunoslar nisbat shaklining mohiyati haqida so‘z yuritishganda ko‘proq uning boshqaruvga ta’sir qilish imkoniyatiga e’tibor qaratishadi. Shu boisdan valentlikning tubdan o‘zgarishi uni goh to‘la sintaktik, goh sof semantik hodisa sifatida qarashga olib kelishadi. O‘zi birikayotgan so‘zning valentlik imkoniyatiga kuchli ta’sir qilish boshqa kategoriya va shaklda ham mavjud. Masalan, egalik kategoriyasi ko‘rsatkichi asos so‘zning valentlik imkoniyatiga sifat jihatdan ta’sir qilsa, ya’ni uning sonini o‘zgartirmasdan, birikuvchining semantik jihatdan muvofiqligini ta’minlasa, kichraytirish-erkalash shakli asos so‘z valentligining miqdoriy jihatiga ta’sir ko‘rsatadi.

To‘g‘ri, nisbat shaklida lug‘aviy ma’noga ta’sirning kuchliligi uning asos so‘zni tanlashida ko‘zga tashlanadi. Masalan, ayrim nisbat shakli fe’lning ba’zi grammatik ma’no guruhini tanlasa, boshqasi buni inkor qiladi. O‘zlik nisbat

shakli ba’zan o‘timli, ba’zan o‘timli fe’l guruhini tanlasa, orttirma nisbat qo‘shimchasi o‘timsiz fe’lni o‘timliga aylantiradi.

O‘zbek tilida nisbatning besh turi ajratiladi va uning ayrimi o‘ziga xos fonetik variantga ega:

Nisbat	Bosh shakli	fonetik varianti
Aniqlik nisbati	–	–
O‘zlik nisbati	*–nF–l*	*–inF–il*
Majhul nisbat	*–nF–l*	*– inF–il*
Orttirma nisbat	*–dir, –gaz, –t, –iz, –ir, –at, –sat*	*–tir, –giz, –kaz, –kiz, –qaz*
Birgalik nisbati	*–sh*	*–ish*

Nisbat kategoriyasi tadqiqi tarixidan. O‘zbek tilshunosligida nisbat kategoriyasini jiddiy o‘rganish akademik A.N.Kononovning 1948-yilda chop etilgan «Грамматика узбекского языка» asaridan boshlandi. Olim bu asarini qayta ishlab, 1960-yilda « Грамматика современного узбекского литуриннго языка » nomi bilan nashr qildi.[1] Asarda boshqa grammatik kategoriya kabi nisbat kategoriyasi, uning bugun ajratish an’ana bo‘lgan 5 turi va uning har birini tashkil etuvchi ko‘rsatkich tizimi, ma’nosi, ma’noviy bo‘linishi va voqealanish xususiyati, turkiy tillarda qo‘shimchaning shakllanish va o‘rganilish tarixi haqida ma’lumot berildi. Shundan so‘ng o‘zbek tilshunosi A.G‘ulomov “Fe’l” asarida o‘zining nisbat kategoriyasi haqidagi fikrini bayon qildi. [2] *Nisbat* termini o‘rnida *daraja* atamasini qo‘llagan olim ham 5 ta nisbat (daraja)ni e’tirof etib, unga “harakat subyekti va obyekti orasidagi munosabatni – uning o‘zaro aloqasini ko‘rsatadi”gan kategoriya sifatida yondashadi. Olim risolada aniq darajaning “fe’l harakatning ega bilan ifodalangan shaxs yoki predmet tomonidan bajarilishi”ni, majhul daraja “fe’l harakatning grammatik obyekt tomonidan bajarilib, grammatik subyektga o‘tganligini”, o‘zlik darajadagi fe’l “bajaruvchining shu harakat obyekt ham ekanligini, bunda subyekt o‘z harakatining obyekti ham bo‘lishi, kesim vazifasidagi bunday fe’l ega bilan ifodalangan shaxs tomonidan bajarilgan va uning o‘ziga o‘tgan harakatni bildirishi”, birgalik darajadagi fe’l “harakatning bir necha subyekt tomonidan bajarilishi”ni, orttirma darajadagi fe’l harakatning o‘timlilashishi, vosita bilan bajarilishi” kabi ma’noni bildirishini ta’kidlaydi. A.G‘ulomov

[1] Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. –М. –Л.: Издательство Академии наук СССР, 1960. –Б.187–198.

[2] Ғуломов А. Феъл. Ҳозирги замон ўзбек тили курсидан материаллар. –Т.: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1954.

uqtirishicha, "fe'lning daraja kategoriyasi ega bilan kesim orasidagi aloqaning xarakterini, shuningdek, obyektga munosabatini ifodalaydi (obyekt qatnashganda), bu sintaktik xususiyat bilan bog'liq. ... Daraja kategoriyasi fe'ldan fe'l yasaydigan affiks orqali hosil qilinadi."[1] Shu asosda nisbat (daraja) shaklining grammatik va sintaktik xususiyati qator tilshunos tomonidan tadqiq etildi. Tilshunos J.Muxtorov o'zbek tilidagi fe'l darajasining ayrim masalasini[2], T.Xo'jayev orttirma nisbat va o'timli-o'timsizlik masalasini o'rgangan bo'lsa, S.Sultonsaidova darajaning o'timli-o'timsizlikka munosabatini Abdulla Qahhorning "Sinchalak" qissasidan olingan misol asosida tadqiq qildi.[3] Tilshunos Q.Xoliqov axborotida *daraja* atamasi o'rnida *nisbat* termini qo'llanadi.[4] Bunda olim harakat fe'lida nisbat kategoriyasining voqealanish xususiyati haqida so'z yuritadi.

Ayrim tilshunos nisbat kategoriyasining ba'zi shaklini alohida tadqiq qildi. Masalan, E.Fozilov o'zlik, E.Fozilov va T.Xo'jayev orttirma nisbatni tekshirishdi.[5] A.Hojiyevning "Fe'l" asarida nisbat kategoriyasi bo'yicha an'anaviy tavsifiy ish umumlashtirilib, ayrim hal qilinmagan jihati tadqiq qilindi va u "O'zbek tili grammatikasi" dan ham o'rin oldi.[6] Tilshunos M.Mirtojiyevning maqolasida ham o'timli-o'timsizlik va nisbatning ayrim masalasiga doir an'anaviy tadqiq usuli haqidagi fikri bayon etildi.[7]

O'zbek tilidagi nisbat kategoriyasini o'ziga xos tadqiqi tilshunos M.A'lamova ishida ko'zga tashlanadi. Olimaning monografiyasida tilshunoslikning murakkab masalasidan bo'lgan nisbat kategoriyasi o'zbek tilshunosligida ilk marta nutqdagi barcha ko'rinishi bilan yagona tartibot asosida yaxlit sistema sifatida o'rganildi. Uning fe'lga xos o'timli-o'timsizlik bilan o'zaro munosabatiga doir muammo xususida fikr bildirildi. Har bir nisbat shaklining semantik-sintaktik jihati valentlik nazariyasi asosida tekshirildi. Ayniqsa, nisbat shakli bilan tuziluvchi sodda gap tarzidagi qurilma va undagi nisbat o'zgarishi bilan bog'liq holat ko'rsatildi.[8] Tilshunos subyekt, obyekt va


[1] Ғуломов А. Кўрсатилган асар. –Б. 57.
[2] Мухторов А. Ўзбек тилида феъл даражалари. – Ученые записки УзГУ, Самарканд, 1956; Турсунов У., Мухторов А. Ўзбек тилида феъл даражалари тўғрисида – ЎзГУ асарлари, Янги серия, 66- сон, Филология факультети, Ўзбек тилшунослиги кафедраси, –Самарқанд, 1956.
[3] Султонсаидова С. Феълда даража ва ўтимли-ўтимсизлик категорияси (А.Қаҳ.нинг "Синчалак" повести асосида) – "Ўзбек тилшунослиги масалалари", Тошкент университетининг илмий асарлари, 443- чиқиши. –Т., 1973.
[4] Холиқов Қ. Ҳаракат феълининг нисбат формалари – Материалы XXIII научной конференции профессорско-преподавательского состава СамГУ по итогам выполнения научно-исследовательских работ за 1965 год. Серия филологичесчких наук (19–22 апреля 1966), Самарканд, 1966.
[5] Фозилов Э. Ўзбек тилида феълнинг ўзлик даражаси / Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1960, -№ 5; Фозилов Э. Ўзбек тилида феълнинг орттирма даражаси / Ўзбек тили ва адабиёти масалалари, 1961, -№ 1; Хўжаев Т. Ўтимли феъл ва орттирма нисбат ҳақида / Ўзбек тили грамматик қурилиши ва диалектологияси масалалари. –Т.: Фан, 1966.
[6] Ҳожиев А. Феъл. –Т.: Фан, 1973; Ўзбек тили грамматикаси. 2 томлик. I- том. –Т.: Фан, 1975.
[7] Миртожиев М. Ўтимсизлик ва ўзлик нисбати // Ўзбек тили ва адабиёти, 1983, -№ 2. –Б. 34–36; Миртожиев М. Мажҳул нисбат масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти, 1985, -№ 2. –Б. 35–37.
[8] Аъламова М. Ўзбек тилидаги феълда нисбат категорияси: монография. –Т.: Фан, 1992.

predikatning o'zaro muayyan munosabatini *nisbat* termini bilan, bu munosabatning nutqiy vaziyatda namoyon bo'lish bosqichi *daraja* termini bilan atalgan. "Nisbat kategoriyasining grammatik ma'nosi to'rt darajada turlicha namoyon bo'ladi. Shunga qarab, nisbat tartibotini shunday ko'rsatish mumkin: I daraja grammatik ma'no bosh nisbatdan iborat. II daraja bosh nisbatdan yasaluvchi o'zlik, birgalik, orttirma (kauzativ) va majhullik nisbatidan; III daraja undan yasaluvchi orttirma (kauzativ) va majhullik nisbatidan hamda IV daraja faqat majhullik nisbatidan iborat."[1]

Hozirgi o'zbek tilidagi nisbat kategoriyasining substansial tadqiqi tilshunos Sh.Shahobiddinova tomonidan amalga oshirildi. Olima nisbat kategoriyasining umumiy grammatik ma'nosini dialektik umumiylik-xususiylik kategoriyasi asosida tekshirdi. Nisbat va diateza hodisasi munosabatining falsafiy asosini bayon qildi.[2]

Nisbat shakli. Aniq nisbat. Hozirgi o'zbek tilida fe'lning tasniflovchi kategoriyasi bo'lgan nisbatning besh shakli ajratiladi: aniq nisbat, o'zlik nisbati, majhul nisbat, orttirma nisbat, birgalik nisbati.

Tadqiqotchilar nisbat shakli umumiy grammatik ma'nosining voqealanishi va oraliq grammatik ma'nosining farqlanishida fe'l lug'aviy ma'noviy tipining muhim rol o'ynashini alohida uqtirishadi. Shu boisdan ushbu o'rinda jahon tilshunosligi, turkiyshunoslik va o'zbek tilshunosligida ajratilgan fe'l lug'aviy ma'noviy tipining mavjud manbadagi talqiniga zarurat taqozosiga ko'ra qisman to'xtalish lozim. Zero, bundan so'ng nisbat shaklining ma'no xususiyati haqida so'z yuritilganda fe'lning mana shu guruhlanishiga tayaniladi. Talqinning barchasini umumlashtirgan holda fe'lni ma'noviy sintaktik xossasiga ko'ra quyidagicha guruhga bo'lish maqsadga muvofiq:



[1] Аъламова М. Кўрсатилган асар. –Б. 136.
[2] Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Грамматикаси. Морфология. –Т.: Янги аср авлоди, 2001. –Б. 101.

uqtirishicha, “fe’lning daraja kategoriyasi ega bilan kesim orasidagi aloqaning xarakterini, shuningdek, obyektga munosabatini ifodalaydi (obyekt qatnashganda), bu sintaktik xususiyat bilan bog‘liq. ... Daraja kategoriyasi fe’ldan fe’l yasaydigan affiks orqali hosil qilinadi.”[1] Shu asosda nisbat (daraja) shaklining grammatik va sintaktik xususiyati qator tilshunos tomonidan tadqiq etildi. Tilshunos J.Muxtorov o‘zbek tilidagi fe’l darajasining ayrim masalasini[2], T.Xo‘jayev orttirma nisbat va o‘timli-o‘timsizlik masalasini o‘rgangan bo‘lsa, S.Sultonsaidova darajaning o‘timli-o‘timsizlikka munosabatini Abdulla Qahhorning “Sinchalak” qissasidan olingan misol asosida tadqiq qildi.[3] Tilshunos Q.Xoliqov axborotida *daraja* atamasi o‘rnida *nisbat* termini qo‘llanadi.[4] Bunda olim harakat fe’lida nisbat kategoriyasining voqealanish xususiyati haqida so‘z yuritadi.

Ayrim tilshunos nisbat kategoriyasining ba’zi shaklini alohida tadqiq qildi. Masalan, E.Fozilov o‘zlik, E.Fozilov va T.Xo‘jayev orttirma nisbatni tekshirishdi.[5] A.Hojiyevning “Fe’l” asarida nisbat kategoriyasi bo‘yicha an’anaviy tavsifiy ish umumlashtirilib, ayrim hal qilinmagan jihati tadqiq qilindi va u “O‘zbek tili grammatikasi” dan ham o‘rin oldi.[6] Tilshunos M.Mirtojiyevning maqolasida ham o‘timli-o‘timsizlik va nisbatning ayrim masalasiga doir an’anaviy tadqiq usuli haqidagi fikri bayon etildi.[7]

O‘zbek tilidagi nisbat kategoriyasini o‘ziga xos tadqiqi tilshunos M.A’lamova ishida ko‘zga tashlanadi. Olimaning monografiyasida tilshunoslikning murakkab masalasidan bo‘lgan nisbat kategoriyasi o‘zbek tilshunosligida ilk marta nutqdagi barcha ko‘rinishi bilan yagona tartibot asosida yaxlit sistema sifatida o‘rganildi. Uning fe’lga xos o‘timli-o‘timsizlik bilan o‘zaro munosabatiga doir muammo xususida fikr bildirildi. Har bir nisbat shaklining semantik-sintaktik jihati valentlik nazariyasi asosida tekshirildi. Ayniqsa, nisbat shakli bilan tuziluvchi sodda gap tarzidagi qurilma va undagi nisbat o‘zgarishi bilan bog‘liq holat ko‘rsatildi.[8] Tilshunos subyekt, obyekt va


[1] Ғуломов А. Кўрсатилган асар. –Б. 57.
[2] Мухторов А. Ўзбек тилида феъл даражалари. – Ученые записки УзГУ, Самарканд, 1956; Турсунов У., Мухторов А. Ўзбек тилида феъл даражалари тўғрисида – ЎзГУ асарлари, Янги серия, 66- сон, Филология факультети, Ўзбек тилшунослиги кафедраси, –Самарканд, 1956.
[3] Султонсаидова С. Феълда даража ва ўтимли-ўтимсизлик категорияси (А.Қаҳ.нинг “Синчалак” повести асосида) – “Ўзбек тилшунослиги масалалари”, Тошкент университетининг илмий асарлари, 443- чиқиши. –Т., 1973.
[4] Холиқов Қ. Ҳаракат феълининг нисбат формалари – Материалы XXIII научной конференции профессорско-преподавательского состава СамГУ по итогам выполнения научно-исследовательских работ за 1965 год. Серия филологичесчких наук (19–22 апреля 1966), Самарканд, 1966.
[5] Фозилов Э. Ўзбек тилида феълнинг ўзлик даражаси /–Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1960, -№ 5; Фозилов Э. Ўзбек тилида феълнинг орттирма даражаси / Ўзбек тили ва адабиёти масалалари, 1961, -№ 1; Хўжаев Т. Ўтимли феъл ва орттирма нисбат ҳақида / Ўзбек тили грамматик қурилиши ва диалектологияси масалалари. –Т.: Фан, 1966.
[6] Ҳожиев А. Феъл. –Т.: Фан, 1973; Ўзбек тили грамматикаси. 2 томлик. 1- том. –Т.: Фан, 1975.
[7] Миртожиев М. Ўтимсизлик ва ўзлик нисбати // Ўзбек тили ва адабиёти, 1983, -№ 2. –Б. 34–36; Миртожиев М. Мажҳул нисбат масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти, 1985, -№ 2. –Б. 35–37.
[8] Аъламова М. Ўзбек тилидаги феълда нисбат категорияси: монография. –Т.: Фан, 1992.

predikatning o‘zaro muayyan munosabatini *nisbat* termini bilan, bu munosabatning nutqiy vaziyatda namoyon bo‘lish bosqichi *daraja* termini bilan atalgan. “Nisbat kategoriyasining grammatik ma’nosi to‘rt darajada turlicha namoyon bo‘ladi. Shunga qarab, nisbat tartibotini shunday ko‘rsatish mumkin: I daraja grammatik ma’no bosh nisbatdan iborat. II daraja bosh nisbatdan yasaluvchi o‘zlik, birgalik, orttirma (kauzativ) va majhullik nisbatidan; III daraja undan yasaluvchi orttirma (kauzativ) va majhullik nisbatidan hamda IV daraja faqat majhullik nisbatidan iborat.”[1]

Hozirgi o‘zbek tilidagi nisbat kategoriyasining substansial tadqiqi tilshunos Sh.Shahobiddinova tomonidan amalga oshirildi. Olima nisbat kategoriyasining umumiy grammatik ma’nosini dialektik umumiylik-xususiylik kategoriyasi asosida tekshirdi. Nisbat va diateza hodisasi munosabatining falsafiy asosini bayon qildi.[2]

Nisbat shakli. Aniq nisbat. Hozirgi o‘zbek tilida fe’lning tasniflovchi kategoriyasi bo‘lgan nisbatning besh shakli ajratiladi: aniq nisbat, o‘zlik nisbati, majhul nisbat, orttirma nisbat, birgalik nisbati.

Tadqiqotchilar nisbat shakli umumiy grammatik ma’nosining voqealanishi va oraliq grammatik ma’nosining farqlanishida fe’l lug‘aviy ma’noviy tipining muhim rol o‘ynashini alohida uqtirishadi. Shu boisdan ushbu o‘rinda jahon tilshunosligi, turkiyshunoslik va o‘zbek tilshunosligida ajratilgan fe’l lug‘aviy ma’noviy tipining mavjud manbadagi talqiniga zarurat taqozosiga ko‘ra qisman to‘xtalish lozim. Zero, bundan so‘ng nisbat shaklining ma’no xususiyati haqida so‘z yuritilganda fe’lning mana shu guruhlanishiga tayaniladi. Talqinning barchasini umumlashtirgan holda fe’lni ma’noviy sintaktik xossasiga ko‘ra quyidagicha guruhga bo‘lish maqsadga muvofiq:



[1] Аъламова М. Кўрсатилган асар. –Б. 136.
[2] Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Т.: Янги аср авлоди, 2001. –Б. 101.

uqtirishicha, "fe'lning daraja kategoriyasi ega bilan kesim orasidagi aloqaning xarakterini, shuningdek, obyektga munosabatini ifodalaydi (obyekt qatnashganda), bu sintaktik xususiyat bilan bog'liq. ... Daraja kategoriyasi fe'ldan fe'l yasaydigan affiks orqali hosil qilinadi."[1] Shu asosda nisbat (daraja) shaklining grammatik va sintaktik xususiyati qator tilshunos tomonidan tadqiq etildi. Tilshunos J.Muxtorov o'zbek tilidagi fe'l darajasining ayrim masalasini[2], T.Xo'jayev orttirma nisbat va o'timli-o'timsizlik masalasini o'rgangan bo'lsa, S.Sultonsaidova darajaning o'timli-o'timsizlikka munosabatini Abdulla Qahhorning "Sinchalak" qissasidan olingan misol asosida tadqiq qildi.[3] Tilshunos Q.Xoliqov axborotida *daraja* atamasi o'rnida *nisbat* termini qo'llanadi.[4] Bunda olim harakat fe'lida nisbat kategoriyasining voqealanish xususiyati haqida so'z yuritadi.

Ayrim tilshunos nisbat kategoriyasining ba'zi shaklini alohida tadqiq qildi. Masalan, E.Fozilov o'zlik, E.Fozilov va T.Xo'jayev orttirma nisbatni tekshirishdi.[5] A.Hojiyevning "Fe'l" asarida nisbat kategoriyasi bo'yicha an'anaviy tavsifiy ish umumlashtirilib, ayrim hal qilinmagan jihati tadqiq qilindi va u "O'zbek tili grammatikasi" dan ham o'rin oldi.[6] Tilshunos M.Mirtojiyevning maqolasida ham o'timli-o'timsizlik va nisbatning ayrim masalasiga doir an'anaviy tadqiq usuli haqidagi fikri bayon etildi.[7]

O'zbek tilidagi nisbat kategoriyasini o'ziga xos tadqiqi tilshunos M.A'lamova ishida ko'zga tashlanadi. Olimaning monografiyasida tilshunoslikning murakkab masalasidan bo'lgan nisbat kategoriyasi o'zbek tilshunosligida ilk marta nutqdagi barcha ko'rinishi bilan yagona tartibot asosida yaxlit sistema sifatida o'rganildi. Uning fe'lga xos o'timli-o'timsizlik bilan o'zaro munosabatiga doir muammo xususida fikr bildirildi. Har bir nisbat shaklining semantik-sintaktik jihati valentlik nazariyasi asosida tekshirildi. Ayniqsa, nisbat shakli bilan tuziluvchi sodda gap tarzidagi qurilma va undagi nisbat o'zgarishi bilan bog'liq holat ko'rsatildi.[8] Tilshunos subyekt, obyekt va


[1] Ғуломов А. Кўрсатилган асар. –Б. 57.
[2] Мухторов А. Ўзбек тилида феъл даражалари. – Ученые записки УзГУ, Самарканд, 1956; Турсунов У., Мухторов А. Ўзбек тилида феъл даражалари тўғрисида – ЎзГУ асарлари, Янги серия, 66- сон, Филология факультети, Ўзбек тилшунослиги кафедраси, –Самарканд, 1956.
[3] Султонсаидова С. Феълда даража ва ўтимли-ўтимсизлик категорияси (А.Қаҳ.нинг "Синчалак" повести асосида) – "Ўзбек тилшунослиги масалалари", Тошкент университетининг илмий асарлари, 443- чиқиши. –Т., 1973.
[4] Холиқов Қ. Ҳаракат феълининг нисбат формалари – Материалы XXIII научной конференции профессорско-преподавательского состава СамГУ по итогам выполнения научно-исследовательских работ за 1965 год. Серия филологичесчких наук (19–22 апреля 1966), Самарканд, 1966.
[5] Фозилов Э. Ўзбек тилида феълнинг ўзлик даражаси / Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1960, -№ 5; Фозилов Э. Ўзбек тилида феълнинг орттирма даражаси / Ўзбек тили ва адабиёти масалалари, 1961, -№ 1; Хўжаев Т. Ўтимли феъл ва орттирма нисбат ҳақида / Ўзбек тили грамматик қурилиши ва диалектологияси масалалари. –Т.: Фан, 1966.
[6] Ҳожиев А. Феъл. –Т.: Фан, 1973; Ўзбек тили грамматикаси. 2 томлик. 1- том. –Т.: Фан, 1975.
[7] Миртожиев М. Ўтимсизлик ва ўзлик нисбати // Ўзбек тили ва адабиёти, 1983, -№ 2. –Б. 34–36; Миртожиев М. Мажҳул нисбат масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти, 1985, -№ 2. –Б. 35–37.
[8] Аъламова М. Ўзбек тилидаги феълда нисбат категорияси: монография. –Т.: Фан, 1992.

predikatning o'zaro muayyan munosabatini *nisbat* termini bilan, bu munosabatning nutqiy vaziyatda namoyon bo'lish bosqichi *daraja* termini bilan atalgan. "Nisbat kategoriyasining grammatik ma'nosi to'rt darajada turlicha namoyon bo'ladi. Shunga qarab, nisbat tartibotini shunday ko'rsatish mumkin: I daraja grammatik ma'no bosh nisbatdan iborat. II daraja bosh nisbatdan yasaluvchi o'zlik, birgalik, orttirma (kauzativ) va majhullik nisbatidan; III daraja undan yasaluvchi orttirma (kauzativ) va majhullik nisbatidan hamda IV daraja faqat majhullik nisbatidan iborat."[1]

Hozirgi o'zbek tilidagi nisbat kategoriyasining substansial tadqiqi tilshunos Sh.Shahobiddinova tomonidan amalga oshirildi. Olima nisbat kategoriyasining umumiy grammatik ma'nosini dialektik umumiylik-xususiylik kategoriyasi asosida tekshirdi. Nisbat va diateza hodisasi munosabatining falsafiy asosini bayon qildi.[2]

Nisbat shakli. Aniq nisbat. Hozirgi o'zbek tilida fe'lning tasniflovchi kategoriyasi bo'lgan nisbatning besh shakli ajratiladi: aniq nisbat, o'zlik nisbati, majhul nisbat, orttirma nisbat, birgalik nisbati.

Tadqiqotchilar nisbat shakli umumiy grammatik ma'nosining voqealanishi va oraliq grammatik ma'nosining farqlanishida fe'l lug'aviy ma'noviy tipining muhim rol o'ynashini alohida uqtirishadi. Shu boisdan ushbu o'rinda jahon tilshunosligi, turkiyshunoslik va o'zbek tilshunosligida ajratilgan fe'l lug'aviy ma'noviy tipining mavjud manbadagi talqiniga zarurat taqozosiga ko'ra qisman to'xtalish lozim. Zero, bundan so'ng nisbat shaklining ma'no xususiyati haqida so'z yuritilganda fe'lning mana shu guruhlanishiga tayaniladi. Talqinning barchasini umumlashtirgan holda fe'lni ma'noviy sintaktik xossasiga ko'ra quyidagicha guruhga bo'lish maqsadga muvofiq:



[1] Аъламова М. Кўрсатилган асар. –Б. 136.
[2] Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Т.: Янги аср авлоди, 2001. –Б. 101.

uqtirishicha, "fe'lning daraja kategoriyasi ega bilan kesim orasidagi aloqaning xarakterini, shuningdek, obyektga munosabatini ifodalaydi (obyekt qatnashganda), bu sintaktik xususiyat bilan bog'liq. ... Daraja kategoriyasi fe'ldan fe'l yasaydigan affiks orqali hosil qilinadi."[1] Shu asosda nisbat (daraja) shaklining grammatik va sintaktik xususiyati qator tilshunos tomonidan tadqiq etildi. Tilshunos J.Muxtorov o'zbek tilidagi fe'l darajasining ayrim masalasini[2], T.Xo'jayev orttirma nisbat va o'timli-o'timsizlik masalasini o'rgangan bo'lsa, S.Sultonsaidova darajaning o'timli-o'timsizlikka munosabatini Abdulla Qahhorning "Sinchalak" qissasidan olingan misol asosida tadqiq qildi.[3] Tilshunos Q.Xoliqov axborotida *daraja* atamasi o'rnida *nisbat* termini qo'llanadi.[4] Bunda olim harakat fe'lida nisbat kategoriyasining voqealanish xususiyati haqida so'z yuritadi.

Ayrim tilshunos nisbat kategoriyasining ba'zi shaklini alohida tadqiq qildi. Masalan, E.Fozilov o'zlik, E.Fozilov va T.Xo'jayev orttirma nisbatni tekshirishdi.[5] A.Hojiyevning "Fe'l" asarida nisbat kategoriyasi bo'yicha an'anaviy tavsifiy ish umumlashtirilib, ayrim hal qilinmagan jihati tadqiq qilindi va u "O'zbek tili grammatikasi" dan ham o'rin oldi.[6] Tilshunos M.Mirtojiyevning maqolasida ham o'timli-o'timsizlik va nisbatning ayrim masalasiga doir an'anaviy tadqiq usuli haqidagi fikri bayon etildi.[7]

O'zbek tilidagi nisbat kategoriyasini o'ziga xos tadqiqi tilshunos M.A'lamova ishida ko'zga tashlanadi. Olimaning monografiyasida tilshunoslikning murakkab masalasidan bo'lgan nisbat kategoriyasi o'zbek tilshunosligida ilk marta nutqdagi barcha ko'rinishi bilan yagona tartibot asosida yaxlit sistema sifatida o'rganildi. Uning fe'lga xos o'timli-o'timsizlik bilan o'zaro munosabatiga doir muammo xususida fikr bildirildi. Har bir nisbat shaklining semantik-sintaktik jihati valentlik nazariyasi asosida tekshirildi. Ayniqsa, nisbat shakli bilan tuziluvchi sodda gap tarzidagi qurilma va undagi nisbat o'zgarishi bilan bog'liq holat ko'rsatildi.[8] Tilshunos subyekt, obyekt va


[1] Гуломов А. Кўрсатилган асар. –Б. 57.
[2] Мухторов А. Ўзбек тилида феъл даражалари. – Ученые записки УзГУ, Самарканд, 1956; Турсунов У., Мухторов А. Ўзбек тилида феъл даражалари тўғрисида – ЎзГУ асарлари, Янги серия, 66- сон, Филология факультети, Ўзбек тилшунослиги кафедраси, –Самарканд, 1956.
[3] Султонсаидова С. Феълда даража ва ўтимли-ўтимсизлик категорияси (А.Қаҳ.нинг "Синчалак" повести асосида) – "Ўзбек тилшунослиги масалалари", Тошкент университетининг илмий асарлари, 443- чиқиши. –Т., 1973.
[4] Холиқов Қ. Ҳаракат феълининг нисбат формалари – Материалы XXIII научной конференции профессорско-преподавательского состава СамГУ по итогам выполнения научно-исследовательских работ за 1965 год. Серия филологичесчких наук (19–22 апреля 1966), Самарканд, 1966.
[5] Фозилов Э. Ўзбек тилида феълнинг ўзлик даражаси / Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1960, -№ 5; Фозилов Э. Ўзбек тилида феълнинг орттирма даражаси / Ўзбек тили ва адабиёти масалалари, 1961, -№ 1; Ҳўжаев Т. Ўтимли феъл ва орттирма нисбат ҳақида / Ўзбек тили грамматик курилиши ва диалектологияси масалалари. –Т.: Фан, 1966.
[6] Ҳожиев А. Феъл. –Т.: Фан, 1973; Ўзбек тили грамматикаси. 2 томлик. 1- том. –Т.: Фан, 1975.
[7] Миртожиев М. Ўтимсизлик ва ўзлик нисбати // Ўзбек тили ва адабиёти, 1983, -№ 2. –Б. 34–36; Миртожиев М. Мажҳул нисбат масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти, 1985, -№ 2. –Б. 35–37.
[8] Аъламова М. Ўзбек тилидаги феълда нисбат категорияси: монография. –Т.: Фан, 1992.

predikatning o'zaro muayyan munosabatini *nisbat* termini bilan, bu munosabatning nutqiy vaziyatda namoyon bo'lish bosqichi *daraja* termini bilan atalgan. "Nisbat kategoriyasining grammatik ma'nosi to'rt darajada turlicha namoyon bo'ladi. Shunga qarab, nisbat tartibotini shunday ko'rsatish mumkin: I daraja grammatik ma'no bosh nisbatdan iborat. II daraja bosh nisbatdan yasaluvchi o'zlik, birgalik, orttirma (kauzativ) va majhullik nisbatidan; III daraja undan yasaluvchi orttirma (kauzativ) va majhullik nisbatidan hamda IV daraja faqat majhullik nisbatidan iborat."[1]

Hozirgi o'zbek tilidagi nisbat kategoriyasining substansial tadqiqi tilshunos Sh.Shahobiddinova tomonidan amalga oshirildi. Olima nisbat kategoriyasining umumiy grammatik ma'nosini dialektik umumiylik-xususiylik kategoriyasi asosida tekshirdi. Nisbat va diateza hodisasi munosabatining falsafiy asosini bayon qildi.[2]

Nisbat shakli. Aniq nisbat. Hozirgi o'zbek tilida fe'lning tasniflovchi kategoriyasi bo'lgan nisbatning besh shakli ajratiladi: aniq nisbat, o'zlik nisbati, majhul nisbat, orttirma nisbat, birgalik nisbati.

Tadqiqotchilar nisbat shakli umumiy grammatik ma'nosining voqealanishi va oraliq grammatik ma'nosining farqlanishida fe'l lug'aviy ma'noviy tipining muhim rol o'ynashini alohida uqtirishadi. Shu boisdan ushbu o'rinda jahon tilshunosligi, turkiyshunoslik va o'zbek tilshunosligida ajratilgan fe'l lug'aviy ma'noviy tipining mavjud manbadagi talqiniga zarurat taqozosiga ko'ra qisman to'xtalish lozim. Zero, bundan so'ng nisbat shaklining ma'no xususiyati haqida so'z yuritilganda fe'lning mana shu guruhlanishiga tayaniladi. Talqinning barchasini umumlashtirgan holda fe'lni ma'noviy sintaktik xossasiga ko'ra quyidagicha guruhga bo'lish maqsadga muvofiq:



[1] Аъламова М. Кўрсатилган асар. –Б. 136.
[2] Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Т.: Янги аср авлоди, 2001. –Б. 101.

Ma'lumki, o'timli-o'timsizlik turkiy tillarda, xususan, o'zbek tilida lug'aviy xarakterga ega. Tadqiqotchilar uning dastlab sintaktik tabiatga ega bo'lganligini, keyingi davrda lug'aviy xususiyat kasb etganligini ta'kidlashadi. O'timli refleksiv fe'l adresat (harakat yo'nalgan) vositali to'ldiruvchisiga ega bo'lmagan, bajaruvchisiga qaytuvchi harakatni ifodalaydigan fe'ldir: *kiy, ye, ich, bil, eshit, ko'r* kabi. Bunda fe'l kengaytiruvchisi bilan quyidagi qurshovda yuzaga chiqadi:

[Bajaravchi + Fe'l + Obyekt $^{\text{tushum kelishigi}}$]

O'timli norefleksiv fe'l ham vositali, ham jo'nalish kelishigidagi adresat vositasiz to'ldiruvchisiga ega bo'lgan fe'ldir: *ol, ber, ek, qil* kabi. Bu fe'lni muhim xossasi bilan voqealantiruvchi kengaygan qolipni quyidagicha berish mumkin:

[Bajaruvchi+ Fe'l + Obyekt$^{\text{tushum kelishigi}}$+ Obyekt$_{\text{adresat}}^{\text{jo'nalish kelishigi}}$]

O'timli natijali fe'l **verba operiendi** tipidagi fe'l bo'lib, obyektni fizik o'zgartirish (shakl xususiyatini o'zgartirish) harakatini ifodalaydi: yoz, buz ,yor, bo'ya kabi. Bu fe'lning farqli voqealanishi uchun quyidagi kengaygan qolipga extiyoj seziladi:

[Bajaruvchi+ Fe'l + Obyekt$^{\text{tushum kelishigi}}$+ Obyekt$^{\text{jo'nalish kelishigi}}$]

O'timli natijasiz fe'lga obyektni o'zgartirishga qodir bo'lmagan harakatni ifodalovchi va

[Bajaruvchi + Fe'l + Obyekt$_{\text{adresat}}^{\text{jo'nalish kelishigi}}$ + Obyekt$^{\text{t.k}}$]

kengaygan qolipida voqealanadigan *bor, sot, uzat* tipidagi fe'l kiradi.

O'timsiz fe'l ham o'z o'rnida ikkiga bo'linadi. O'timsiz faol fe'l bajaruvchi tomonidan his qilinuvchi harakat, shuningdek, ruhiy holat fe'li. U, asosan, ikki kengaytiruvchili bo'lib(*kishna, gujurla, yugur, yo'rg'ala*),

[Bajaruvchi + Fe'l]

va (*yot, tur, ket, qoch, yasha, ranji, kul, yig'la, ishon, sig'in*)

[Bajaruvchi + Fe'l + O$^{\text{chiqish/jo'nalish/o'rin-payt kelishigi}}$]

qolipida voqealanadi.

O'timsiz nofaol fe'l biror tashqi kuch ta'sirisiz bajaruvchida yuz beruvchi va unda qandaydir o'zgarish hosil qilish harakatini ifodalovchi fe'l bo'lib (*quri,ivi,qizar, oz, qayna).*

[Bajaruvchi + Fe'l]

qolipida voqealanadi. Bu fe'l, asosan, bir kengaytiruvchi.

Quyida nisbat shakli, uning ma'noviy, sintaktik va nutqiy voqealanishi xususiyatining har birini alohida-alohida ko'rib o'tamiz.

Aniq nisbat kategoriya shakli sirasida o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu nisbatda ish-harakatning bajaruvchisi (subyekti) ga munosabat fe'lning lug'aviy ma'nosi orqali ifodalanadi va o'zigagina xos belgi bilan tavsiflanmaydi. Ish-harakatning bajaruvchisi aniq ham (*Salim uyga* ***bordi***), noaniq ham (*Xom suvni* ***ichib bo'lmaydi***), faol ham (*Qush* ***parvoz qildi***), nofaol ham (*Ho'kiz* ***yo'qoldi***), undovchi ham (*Qodir ukasiga ish* ***buyurdi***), manfaatdor ham (*Uzoqlarga sayohat qilsam*), yakka shaxs ham (*Men* ***yig'lamayman***), hamkor shaxs ham (*Kecha kun bo'yi* ***ishladik***) va h. bo'lishi ham mumkin.

Aniq nisbatning yana bir muhim jihati uning nol shaklliligi bilan belgilanadi. Ma'lumki, fe'lning barcha shaklini ikkiga – kategoriya ichidagi shaklning o'zaro ziddiyatida aniq bir belgiga ega bo'lgan belgili shaklga (masalan, aniq nisbatdan boshqa nisbat shakli) va bu ziddiyatda aniq belgiga ega bo'lmagan shaklga (masalan, aniq nisbat shakli) ajratish mumkin. Birinchi guruh shakl o'zi mansub kategoriyaning umumiy grammatik ma'nosidan aniq bir ko'rinishni «xususiylashtirib» oladi. Ikkinchi guruh shaklida xususiylashma noaniq bo'ladi. Ikkinchi guruh shakli (bizningcha, aniq nisbat) o'zi mansub kategoriyaning umumiy namoyandasi bo'ladi. Shuning uchun u matn va sharoit talabi bilan boshqa shakl ma'nosini ifodalashi mumkin. Aniq nisbat ham belgisiz shakl sifatida boshqa nisbat shakli o'rnida bemalol qo'llanaverishi mumkin. Boshqacha aytganda, grammatik kategoriyadagi nol shakl bosh shakl sifatida kategoriyaning boshqa shakli o'rnini ham ma'lum darajada qoplay oladi. Aniq nisbat majhul nisbat ma'nosini ham (*Bu pulga hech narsa* ***bermaydi***), birgalik nisbat ma'nosini ham (*Ikkita toshdan "darvoza yasab olgan" bolalar koptok* ***tepayapti***), o'zlik nisbat ma'nosini ham (*Bola o'ziga-o'zi* ***gapirib borardi***), orttirma nisbat ma'nosini ham (*Kichik polvon katta polvonni* ***yiqitibdi***) ifodalashi mumkin. Biroq bunda, albatta, uslubiy cheklanish, mazkur ma'noni ifodalash uchun boshqa qandaydir "yordamchi kuch"ga ehtiyoj sezilishi tabiiy. Masalan, yuqorida o'zlik nisbat ma'nosini ifodalash uchun o'ziga-o'zi birligining ko'magiga zarurat ko'zga tashlandi.

Aniq nisbat asos fe'l ifodalayotgan harakat subyektining grammatik aniqligi va harakat obyektining vositali (*Kesak bilan tushirib qolgim keldi-yu, dadamdan* ***hayiqdim***) vositasiz ham *(Rashid aka Ikrom akani* ***siltab tashladi***) bo'la olishi bilan xarakterlanadi. Boshqacha aytganda aniq nisbat boshqa barcha nisbat shakli ma'nosi uchun befarq bo'lib, nutq vaziyati taqozosi bilan u ma'nodan birini ifodalab yuborishi mumkin, biroq bu ma'nodan hech biri uning uchun zaruriyat emas. Demak, nisbat kategoriyasining barcha ma'nosiga – bajaruvchi, obyekt va harakat munosabatining rang-barang ma'nosiga umumiy holda aniq nisbat ega. Boshqa nisbatda bunday hol o'ta chegaralangan va mavjudi ham ma'lum bir doiradagina amal qiladi.

Aniq nisbat shakli umumiy grammatik ma'nosi «harakatning uchala shaxsdan biridagi kishi yoki predmet tomonidan bajarilishi yoki bajarilmasligini bildirish»dir: *bildi, ko'rdi, so'radi, aytdi, qaytdi* kabi. Bu nisbatdagi fe'l o'timli (*oldi*) yoki o'timsiz (*uxladi*) bo'lishi mumkin.

Demak, nol shakl umumiy grammatik ma'nosi o'zi mansub kategoriyaning mohiyatini boshqasiga nisbatan to'laroq aks ettiradi. Xullas, bunga *hayajonlanmoq, quvonmoq, seskanmoq,bekinmoq, kabi fe'l asosida yanada yaqqol am*in bo'lish mumkin. Shuningdek, bu aniq nisbatning boshqa nisbat shakli va ma'nosi uchun asos ekanligi hamda shu boisdan nutqda bir necha barobar ko'p qo'llanishi bilan ham izohlanadi.

Aniq nisbatdagi fe'l o'timli ham, o'timsiz ham bo'lishi mumkin. Shuning uchun aniq nisbatdagi o'timli va o'timsiz fe'lning boshqaruvida va shunga muvofiq ravishda nisbat semantikasida turli-tuman holat ko'zga tashlanadi.

O'timsiz fe'l obyekt valentligiga ega bo'lmaganligi bois gap tarkibida so'z kengaytiruvchisi bo'lgan vositasiz to'ldiruvchi ishtirok etmaydi. Misol: 1. *"Sofiya" nashriyoti chop etgan "Alkimyogar" romanining birinchi nashrini qo'lga olib, chin dildan* ***quvondim***. (A.Otaboev). 2. *Endi xonadon kelajakda* ***ushalajak*** *umid bilan* ***yashay boshlaydi***. (T.Malik) 3. *Bu umid ba'zan tilga* ***ko'chadi***. (T.Malik) 4. *"Farzandimiz falon-falon martabaga* ***erishsin...*** *" kabi niyat* ***aytilib***, *duo qilinadi.* (T.Malik) 5. *Farzanda* ***ulg'aya borgan*** *sari qalbdagi umid qanotini keng yoyaveradi.* (T.Malik). Subyekt-obyekt kengaytiruvchidan birgina subyekt (1.*Ufq qizardi.* 2. *Dara gumburlaydi.* 3.*Bola sog'lom o'syapti.* 4. *Havo sovidi.* 5. *Nido keladi.*), subyekt va bir obyekt (1.*Archazor ertalabki shabadada shovullaydi.* 2. *G'o'za suvga qondi.* 3. *Men tramavayga qarab yugurdim.*4. *Oy tepaga kelgan.* (S.Ahmad)), subyekt va ikki obyekt (1.*Yigit, vaqtincha tog'dan pastga tushma.* (S.Nurov). 2. *Hamisha senga bir narsa deyishga cho'chiyman.* (S.Nurov), 3. *Suruv tog'da mo'l oziq bilan qishlaydi* (N.Eshonqul) bo'lishi mumkin.

Aniq nisbat o'timli fe'l bilan kelganda o'timsiz fe'ldagidan bir kengaytiruvchi - vositasiz to'ldiruvchicning mavjudligi bilan farqlanadi. Shu boisdan faniq nisbatdagi fe'lning kengayishida subyektli va bir vositasiz obyektli (1.*Tutun hamma yoqni* ***burkadi***. *Gulandom hikoyasini* ***boshladi***. (Oybek). 2.*Tog'u toshni sel* ***buzar***, *El orasini so'z* ***buzar***. (Maqol). 3. *Nuri derazani ohista* ***yopdi***. (Oybek), subyektli va bir vositali, bir vositasiz obyektli (1.*Chang hamma narsani bir xil rangdagi oqish, jonsiz rangga* ***bo'yadi***. (A.Muxtor). 2. *Men sizni faqat yaxshi paxtakor deb* ***bilar edim***. (A.Qahhor). 3. *Achchiq gapni biz faqat Sizdan* ***eshitamiz*** (N.Eshonqul), bir subyektli va bir vositasiz, ikki vositali obyektli (1.*U xatni daftar varaqlariga qalam bilan tez-tez* ***yozardi***. *Nazokat yuz-qo'lini iliq suvda xushbo'y atir sovun bilan* ***yuvdi***. *Hovuz chetidagi toshdan ishlangan arslon og'izidan gulzorga suvni shiddat bilan* ***purkaydi***. (S.Ahmad). Ko'rinadiki, o'timli fe'lli qurilmada ish-harakat bajaruvchidan tashqaridagi obyektga yo'naltirilgan faol harakat sifatida namoyon bo'ladi. Bosh nisbat obyektga yo'naltirilgan faol harakat sifatida namoyon bo'ladi. Bosh nisbat o'timsiz fe'lni shakllantirganda harakatning alohida obyekti yo'qligi ma'lum bo'ladi.

O'zlik nisbati. O'zlik nisbati asosan ***-n,*** ba'zan ***-l*** ko'rsatkichi yordamida o'timli fe'ldan hosil bo'ladi. Ayrim tilshunos tomonidan o'zlik nisbat shakli yasovchi ***-sh*** affiksi o'zlik nisbati hosil qilishda kammahsul: *kerishdi, joylashdi, qorishdi* kabi so'z shakldagina buni kuzatish mumkin. Fe'l o'zlik nisbat shakliga o'tgach uning tabiatida ro'y beradigan semantik-sintaktik o'zgarishni, asos va o'zlik nisbati orasidagi farqni izohlash mushkulligi tilshunos tomonidan e'tirof etilgan.[1] Masalan, tilshunos A.Hojiyev aniq va o'zlik nisbatining o'zaro munosabatini obyektli fe'lni obyektsiz fe'lga aylantirish deb lo'nda ifoda etadi.[2] M.Mirtojiyev «O'zbek tili va adabiyoti» jurnalida e'lon qilingan "O'timsizlik va o'zlik nisbati" mavzusidagi maqolasida quyidagicha bayon etadi: O'timli tub va yasama fe'lda o'timsizlikni ifodalash ehtiyoji o'zlik nisbat formantini yuzaga keltirdi. O'timsiz fe'lda anglashilgan harakat yoki holat obyekti uning agensi ekanligi kabi o'zlik nisbat fe'lida ham harakat yoki holat obyekti uning agensi bo'ladi."[3] Aniq nisbatdagi o'timsizlik va o'zlik nisbat fe'li hosil qilgan o'timsizlik orasidagi farq va o'xshashlik diqqatga sazovor. Aniq nisbatdagi o'timsiz fe'lda vositasiz obyekt bo'lmaydi. Biroq o'timli fe'l o'zlik nisbat vositasida o'timsiz fe'lga aylanganda, vositali obyekt yo'qolib, subyekt va harakat munosabati qoladi, obyektning tushirilishi esa subyektning mavqeyini ko'taradi, mustahkamlaydi. Bunda chiqib ketayotgan vositasiz obyekt subyekt

[1] Аъламова М. Ўзбек тилидаги феълда нисбат категорияси: монография. –Т.: Фан, 1992. –Б. 43.
[2] Ҳожиев А. Кўрсатилган асар. –Б. 33
[3] Миртожиев М. Ўтимсизлик ва ўзлик нисбати // Ўзбек тили ва адабиёти, 1983, -№ 2. –Б. 34–36; Миртожиев М. Мажҳул нисбат масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти, 1985, -№ 2. –Б.35–37.

bilan birlashmaydi va to‘ldiruvchi ega bilan qovushmaydi, balki u gap semantikasi va sintaktik tuzumidan butunlay chiqib ketadi: 1. *G‘ulomjon apil-tapil kiyimini* ***kiydi.*** (M.Ismoiliy) - *G‘ulomjon apil-tapil* ***kiyindi.*** *2. Dalaboy birpas bezrayib turdi-da, uni g‘udranib* ***so‘kdi.*** *(O‘.Hoshimov) - Dalaboy birpas bezrayib turdi-da, g‘udranib* ***so‘kindi.*** Ko‘rinadiki, fe’lning aniq nisbatdan o‘zlik nisbat shakliga o‘tishi natijasida, birinchidan, o‘timli fe’l o‘timsizlashayotgan bo‘lsa, ikkinchidan vositasiz obyekt gap qurilmasidan chiqib ketmoqda.

Aniq nisbatdagi fe’l o‘zlik nisbatiga o‘tgach, quyidagi semantik-sintaktik o‘zgarish yuz beradi.

1.Fe’lning semantikasi va shunga muvofiq, sintaktik boshqaruv ham o‘zgaradi: *Usta bolani chetga surdi va yo‘l ochdi – Usta chetga surildi.* Birinchi gapda surilgan obyekt bola, subyekt esa usta. Ikkinchi gapda surilgan ham, surgan ham ustaning o‘zi.

2.Aniq nisbatdagi fe’l o‘zlik nisbatiga ikki xil shaklda o‘tishi mumkin. *Gulbahor Fazilatni o‘qishga* ***tayyorladi***: 1. Gulbahor *o‘qishga* ***tayyorlandi.*** 2. *Aziza o‘qishga* ***tayyorlandi.*** Birinchi gap aniq nisbatdagi fe’lli gapning semantik muqobili emas. Lekin subyekt maqomi o‘zgarishsiz saqlangan. Ikkinchi gapda subyekt va obyekt maqomi o‘zgargan, shu boisdan uni asos gapning semantik vorisi va sintaktik o‘zgarishi sifatida qarash mumkin. Fe’l ikki kengaytiruvchili (subyekt, obyekt) bo‘lganda u aniq nisbatdan o‘zlik nisbatiga o‘tganda, obyekt subyektga aylanar ekan, unda dastlabki subyektning maqomi va ta’siri nolga aylanadi. Masalan, *Halima ko‘ylakning chokini so‘kdi – Ko‘ylakning choki so‘kildi.* Chunki bunda chok birov tomonidan emas, balki o‘z-o‘zidan so‘kilgan bo‘ladi.

O‘zlik nisbatidagi fe’l mohiyat e’tibori bilan orttirma va majhul nisbatga qarama-qarshi turadi. Masalan, o‘zlik nisbatida subyekt faol va harakatning bevosita bajaruvchisi bo‘lsa, orttirma va majhul nisbatdagi fe’l nofaol (passiv), bajarishga undovchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Umuman olganda, o‘zlik nisbat affiksi subyektga aylangan yoki subyekt maqomidagi bajaruvchini faollashtiradi. Boshqa nisbatda esa subyekt faol ham nofaol ham, bajartiruvchi ham, birgalikda harakat qiluvchi ham bo‘lishi mumkin.

Ayrim holda grammatik shakl o‘zlik nisbatniki bo‘lsa-da, bu shakl harakatning bajaruvchiga qaytishini, bajaruvchi ham harakat obyekti ekanini bildirmaydi. *Bir mahal G‘ulomjon tuynukdan erinib chiqayotgan tutunga qarab* ***so‘zlandi.*** (M.Ism.) *So‘ng uzun do‘nglik ortiga o‘tib,* ***ko‘rinmay ketdi.*** (P.Qodirov) *Yigit ko‘zini yashirishga joy topolmay* ***qiynaldi.*** (S.Ahmad) *Davlatbekovning* ***tug‘ilgan*** *qishlog‘i Bodomzor bu yerdan o‘n bir chaqirim*

pastda. (P.Qodirov) O‘zlik nisbati shakli o‘timli fe’lni o‘timsiz fe’lga aylantiradi.

O‘zlik nisbat shakli har qanday o‘timli fe’ldan ham yasalavermaydi. Masalan, *o‘qi, hayda, kes, ek, min, tik, sug‘or* kabi fe’ldan o‘zlik nisbat shakli hosil qilinmaydi. Shuningdek, orttirma nisbatdagi o‘timli fe’ldan ham o‘zlik nisbati vujudga kelmaydi.

Semantikasida ma’noviy siljish ro‘y berayotgan ayrim o‘zlik nisbati shakliga ega fe’l bu nisbatdan xoli qaralishi lozim. *Yuzi semizlikdan tirsillagan Arabboy* ***kerilgan*** *bir holda so‘radi.* (P.Tursun.) *Bu qishloqda Avazning eng* ***ochilib*** *gaplashadigan tengdoshi shu Zamonali edi.* (P.Qodirov) Ana shunday hol ayrim muallifning ba’zan nisbatni so‘z yasalishi sifatida qarashiga sabab bo‘ladi.

Shaklning to‘laqonli o‘zlik nisbati ekanligi yoki emasligini aniqlashda boshqariladigan so‘z yordam beradi. Aslida o‘zlik nisbatdagi fe’l o‘timsiz bo‘lganligi sababli tushum kelishigidagi fe’l bilan bog‘lanmaydi. Ayrim holda bu shakldagi fe’l bilan boshqacha hol kuzatiladi. Masalan, *choponini yopindi* birikuvida o‘zlik nisbat shaklidagi fe’l tushum kelishigidagi fe’lni boshqarmoqda. Demak, bunda nisbat shakli bo‘lsa-da, mazkur nisbatga tegishli ma’no mavjud emas. Ma’no va shakl yaxlit emas ekan, bu birikuvda o‘zlik nisbatini qidirish ma’qul emas.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o‘zlik nisbatida harakat subyekti «subyekt-obyekt» qiyofasiga kirib, avvalgi obyekt yo‘qoladi. Qiyoslang: *Salim kiyimini kiydi – Salim kiyindi.* Birinchi gapda *Salim* subyekt, *kiyim* obyekt, ikkinchi gapda obyekt yo‘q, *Salim* esa «subyekt-obyekt».

Aytilgan asosida o‘zlik nisbati umumiy grammatik ma’nosi «harakatning subyekti va obyektini birlashtirish, o‘timli fe’lni o‘timsiz fe’lga aylantirish» tarzida tiklash mumkin. Bunda faqat grammatik – morfologik ma’no va sintaktik vazifa o‘zgarishining yaxlit yuz berishi kuzatiladi. Demak, o‘zlik nisbati ham nisbatning umumiy xossasi – fe’l lug‘aviy ma’nosiga kuchli ta’siri bilan ajralib turadi. Biroq bu o‘zgarish, ayrim holda, turg‘unlashishi – lisoniy maqomga erishishi – leksema vujudga kelishi mumkin.

Bu nisbat umumiy grammatik ma’nosining bir nechta oraliq grammatik ma’nosi farqlanadi va shu asosda umumiy xossasi tavsiflanadi. Tadqiqotchilarning qarashidan kelib chiqqan holda, nisbat shaklining ikki oraliq grammatik ma’nosini farqlashni ma’qul deb bilamiz:

a) «sof o‘zlik» oraliq grammatik ma’nosi;

b) «adresatli o‘zlik» oraliq grammatik ma’nosi.

Shaklning «sof o‘zlik» oraliq grammatik ma’nosi uning umumiy grammatik ma’nosini «o‘zini-o‘zi» tipida xususiylashtiradi. Umumiy grammatik ma’no «adresatli o‘zlik» oraliq grammatik ma’nosida «o‘zini-o‘ziga» tarzida namoyon bo‘ladi. Birinchi oraliq grammatik ma’noda vositasiz obyekt, ikkinchi oraliq grammatik ma’noda u bilan birga adresatli obyekt mantiqan uqiladi. Demak, o‘zlik nisbat shakli «sof o‘zlik oraliq grammatik ma’nosini voqealantiradigan fe’l (*qashi, yuv, beza, o‘yla, os, il, iflosla, yoz, bur, och, yop, yashir, boshla, para, cho‘z, tashla, yor)* aniq nisbatda ikki kengaytiruvchili bo‘lib, u subyekt va vositasiz obyektdir: Bu qurshovni quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

[Bajaruvchi+ Fe’l + Obyekt$^{\text{tushum kelishigi}}$]

«Adresatli o‘zlik» oraliq grammatik ma’nosi aniq nisbatda uch kengaytiruvchili fe’ldan (*so‘zla, maqta, takrorla, yaxshila, tila, sot)* bo‘lib, uning qurshovi quyidagi shaklga ega bo‘ladi:

[Bajaruvchi + Fe’l + Obyekt$^{\text{tushum kelishigi}}$ + Obyekt$^{\text{jo‘nalish kelishigi}}$]

Demak, o‘zlik nisbat shakli oraliq grammatik ma’nosi farqlanishi fe’lning ma’lum bir lug‘aviy-ma’noviy tipi bilan belgilanmagan. Bunda uning birikuvchanlik imkoniyati – sintaktik omil yetakchilik qiladi.

Orttirma nisbat. Orttirma nisbat shakli quyidagi:

-dir (-tir)*: chizdir, yondir, urintir.*

-gaz (-giz,- g‘az, -g‘iz, -kaz, -kiz, -qaz, -qiz)*: ko‘rgaz, kirgiz, turg‘iz, yutqiz, o‘tqaz, ketkiz, yurg‘az.*

-(i)t*: o‘qit, ishlat, tugat, boshlat, yurit,kirit.*

-iz*: oqiz, tomiz, emiz.*

-ir*: bitir, uchir, pishir, qochir, ochir, shoshir, oshir, botir, qotir.*

-ar*: chiqar, qaytar.*

-sat*: ko‘rsat.*

Orttirma nisbat shaklining ma’nosini oydinlashtirish uchun ikkita qurilmani kuzatamiz: *Paxta **quridi**. Paxtani **quritdi**.* Ikki qurilmada ham subyekt mavjud bo‘lib, u ega mavqeyida. Biroq qurilmaning ikkinchisida ishtirok etayotgan subyekt faolligi, birinchisida esa u (paxta) passivligicha, “quruqlik” belgisini o‘ziga qabul qilayotgan predmet sifatida qolayotganligi ko‘zga tashlanadi. Har qanday holatda ham orttirma nisbatdagi fe’l ifodalagan harakat undovchi subyektga tegishli sanaladi. *Men turdim* va U *meni turg‘izdi* qurilmasi undashning bor-yo‘qligiga ko‘ra farqlanadi va uni osongina bir-biriga aylantirish mumkin. Orttirma nisbatdagi fe’lli qurilma yangi obyekt bilan boyitiladi, fe’lning sintaktik valentliligi soni ortadi. Bundan orttirma nisbat shaklining fe’l valentliligiga ta’siri namoyon bo‘ladi. Keltirilgan misoldagi ikki qurilma ham bir

umumiy komponentga ega, ya’ni u birinchi shaxs birlikdagi olmosh bo‘lib, nisbat o‘zgarishi asosidagi boshqaruv shakliga ko‘ra farqlanadi, xolos.

Biroq *U meni turg‘izdi* tipidagi qurilma o‘zida qator qarama-qarshilikni aks ettiradi. Birinchidan orttirma nisbatdagi fe’l o‘timli fe’l sifatida har xil semantik tabiatli vositasiz to‘ldiruvchi bilan birikishi mumkin, ammo nisbat o‘zgarishi e’tiborga olinadigan bo‘lsa, u faqat asos qurilma (*Men turdim*) dagi subyektnigina o‘ziga vositasiz to‘ldiruvchi sifatida qoldiradi. Demak, o‘zbek tilidagi o‘timli fe’lning vositasiz to‘ldiruvchisi qanday ma’noviy guruhdan bo‘lishi cheklanmagan xarakterga ega, lekin ortirma nisbatdagi fe’lli qurilma “orqaga qaytarilganda”, to‘ldiruvchi egaga aylanib qoladi.

Turkiy tillarda, xususan, o‘zbek tilida, aytilganidek, o‘timli-o‘timsizlik asosan leksik xarakterga ega. Ya’ni fe’l aniq nisbatda ham o‘timli yoki o‘timsiz bo‘lishi mumkin. Shuning fe’lning barcha ma’noviy guruhi kuzatilganda o‘timli-o‘timsizlik asosidagi farqlanish uning boshidan-oxirigacha cho‘zilgan bo‘ladi. Faqat nutqda uning bu holatini o‘zgartirishga, ya’ni uning nutqiy modifikatsiyasi uchun nisbat shakli xizmat qiladi. Agar ma’noviy siljish natijasida orttirma nisbatdagi fe’lli qurilma “orqaga aylantirilganda”, undagi vositasiz obyekt subyektga aylanmasa, bunda orttirma nisbat shaklidagi fe’lning leksikalizatsiyasi ko‘zga tashlanadi. Masalan, Sovxoz direktori *cho‘ponlarni toqqa **ko‘chirdi*** (N.Eshonqul) gapidagi orttirma nisbat shaklidagi fe’lni aniq nisbatga “qaytarsak” (*Cho‘ponlar toqqa **ko‘chdi***) vositasiz obyekt subyektga aylanadi. Shu boisdan bunda orttirma nisbatni qidirish ma’qul. Biroq ayrim holda bunday “qaytarish” operatsiyasini amalga oshirib bo‘lmaydi: *Zamira xatni oqqa **ko‘chirdi***. Ya’ni bunda *Xat oqqa **ko‘chdi*** shaklidagi qurilmani shakllantirib bo‘lmaydi. Demak, ko‘rinadiki, xatga nisbatan ishlatilgan *ko‘chirmoq* fe’lini orttirma nisbatdagi fe’l sifatida baholash mumkin emas va u lug‘atda leksema sifatida alohida izohlanadi.

Qayd qilinganidek, o‘zbek tilida bir shaklning bir necha ko‘rinishi, varianti va muqobili bo‘lishi tabiiy hol sifatida qaraladi. Bundan orttirma nisbat ham mustasno emas. Ammo bu tilning tarixiy tadrijiy taraqqiyoti, ayrim grammatik shakldagi so‘zning leksemalashuvi bilan xarakterlanadi. Ma’lum bir shakl so‘z bilan yaxlitlanib borar ekan, yangi bir ko‘rsatkichga ehtiyoj tug‘iladi yoki qo‘shimchaning yangi-yangi fuzion shakli paydo bo‘la boradi: *ko‘ch+ir+tir, qo‘p+ar+tir, tuna+t+tir* kabi.

Orttirma nisbatdagi leksik va grammatik jihatning qorishib ketishi hozirgi ayrim so‘zning orttirma nisbat shaklida bo‘lib, aniq nisbatga qayta olmasligidir: *o‘rgat, tirguz (tiriltir), uyg‘ot, yutqiz, ayt, surt* kabi.

Demak, orttirma nisbat shakli orttirma nisbatni ham, o'z mohiyatidan uzoqlashib, aniq nisbatni ham ko'rsatadigan bo'lib qolishi mumkin.

Orttirma nisbatning umumiy grammatik ma'nosi «harakat bajaruvchisini orttirish, jarayonga «ortiqcha» bajaruvchini kiritish va o'timsiz fe'lni o'timli fe'lga aylantirish». Orttirma nisbatda ish-harakatning subyekti ortib, u bevosita subyekt va bilvosita subyektga ajraladi. *Salim o'qidi. Salim ukasini o'qitdi.* Birinchi gapda subyekt bitta. Ikkinchi gapda u ikkita bo'lib, *Salim* bilvosita, *ukasi* bevosita bajaruvchi. Bevosita subyekt, garchi u harakatning faol bajaruvchisi bo'lsa-da, unchalik ahamiyatli bo'lmaydi, shuning uchun u ko'p holda ifodalanmay qolaveradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, orttirma nisbat shakli fe'lga birdan ortiq qo'shilishi mumkin. Bunda avvalgi bevosita subyekt bilvosita subyektga aylanib ketaveradi: ***Salim to'ladi. Salim ukasiga to'latdi. Salim ukasiga to'lattirdi.*** Jumla g'alizligi kelib chiqmasligi uchun keyingi gapdagi bevosita subyekt tushirib qoldirilgan.

Orttirma nisbat shaklli fe'l semantikasida ma'noviy siljish ro'y berib, unga xos morfema ajralmaydigan holga kelib qolgan misolni kuzatar ekanmiz (*tuzat, surishtir, solishtir, yarat, uyg'on, yupan, erkalat, (dalil, misol) keltir* tipidagi fe'l ham shular jumlasidan), buni orttirma nisbat shaklining so'z yasash xususiyati sifatida qaramaslik kerak. Chunki so'z tarkibidagi orttirma nisbat shaklidagi fe'l shu shaklni olishi natijasida emas, balki uzoq tarixiy taraqqiyot natijasida leksema holiga kelib qoladi. Demak, bunda so'z yasalishi emas, leksemalashish hodisasi borligi ko'zga tashlanadi.

Orttirma nisbatda fe'lning yuqorida farqlangan ma'noviy-sintaktik guruhi muhim rol o'ynaydi. Shundan kelib chiqqan holda orttirma nisbat shaklining umumiy grammatik ma'nosi «faol», «faol orttirma», «adresatli orttirma», «sof orttirma» kabi oraliq grammatik ma'nosi orqali yuzaga chiqadi.

O'timsiz nofaol fe'lda orttirma nisbat subyektning faolligiga ishora qiladi (*oqartirmoq, qoraytmoq*). 1. *Yurtimni yashnatdi bahor yellari.* Fe'l va uning kengaytiruvchisini aniq nisbatdagi ko'rinishiga qiyoslash orttirma nisbatning bu oraliq grammatik ma'nosini yanada oydinlashtiradi: 1. *Yurtim yashnadi.* Diqqat qilinsa, gapdan birinchisida bajaruvchi *(yurt)* passiv, ikkinchisida faol. Orttirma nisbatda subyekt faolligining oshishi so'z yasalishigacha boradi. Zero, orttirma nisbat shakli nofaol fe'ldan natijali o'timli fe'l hosil qiladi.

Orttirma nisbat shakli umumiy grammatik ma'nosining yana bir ko'rinishi faol «orttirma» oraliq grammatik ma'nosi bo'lib, buni o'timsiz faol fe'l yuzaga chiqaradi. Bunda faol orttirma nisbatdagi fe'lning subyekti «qo'zg'atuvchi» sifatida namoyon bo'ladi: *1. Anorxon kampirni suyab turg'azdi,*

quchoqlab so'ridan pasga tushirib, oftobada suv keltirib berdi. Oraliq grammatik ma'noning farqlanishida sintaktik omil leksik omilga hamkorlik qiladi. Aniqrog'i, bosh asosdagi bir boshqariluvchi yoniga ikkinchi boshqariluvchi ham qo'shiladi. Qiyoslang:

[Bajaruvchi + Fe'l]

[Bajaruvchi + Fe'l$^{o.n.}$ + Obyekt$^{tushum\ kelishigi}$]

Bunda fe'lning qaysi ma'noviy-sintaktik tipdan ekanligi muhim rol o'ynaydi. Zero, uning har ikkalasi ham (*turmoq, turg'azmoq)* birinchi qurshov subyekti bilan bog'langan, ikkinchi qurshovda faol orttirma nisbatdagi fe'l bajaruvchisini qo'zg'atuvchi sifatida qabul qiladi. Bu esa o'timsiz fe'l tipiga xos emas. «*U meni turg'azdi»* qurilmasida ziddiyat ham ko'zga tashlanadi. Bunda orttirma nisbatdagi fe'l «tanla, lekin mana buni» tipidagi huquqqa ega bo'lib, u o'timli fe'l sifatida istagan to'ldiruvchini olishi mumkin edi. Biroq «turmoq» fe'lining subyektini to'ldiruvchi sifatida olishga majbur. Chunki «nisbatli o'timlilik» xossasi uni shunday bo'lishga majbur etadi. Shuningdek, vositasiz to'ldiruvchi tipi ham har qanday o'timli fe'l doirasida har xil bo'lishi mumkin. Biroq «nisbatli to'ldiruvchilik» ma'nosi uni «nisbatli o'timlilik» ma'nosidagi fe'lga bog'liq qilib qo'yadi.

Aytilganidek, turkiy tilda o'timli-o'timsizlik lug'aviy tabiatga ega. Shu boisdan o'timli-o'timsizlikning semantik rivoji turli lug'aviy tizim bo'ylab yuz beradi. Ma'noviy taraqqiyot natijasida faol orttirma nisbat to'ldiruvchi sifatida beradi. Ma'noviy taraqqiyot natijasida faol orttirma nisbat to'ldiruvchi sifatida aniq nisbat subyektini olmasa, bu yerda so'z yasalishi haqida so'z boradi. 1. *U mendan mashqni ko'chirdi.* Bunda bajaruvchi «qo'zg'atuvchi» emas, balki «faol».

Orttirma nisbatning adresatli orttirma oraliq grammatik ma'nosi o'timli refleksiv fe'l hosil qiladi va nutqqa jo'nalish kelishigi bilan shakllangan to'ldiruvchi ham kiradi. 1. *Men dori yuboray, siz darrov ichiring.* 2. *Nigor oyim Mansurga qolgan oshni yedirib qo'yish bilan ora-sira gapga ham quloq solganday bo'lar edi.* Qurilmaning qurshovi

[Bajaruvchi + Fe'l$^{o.n.}$ + Obyekt$^{tushum\ kelishigi}$ + Obyekt$_{adr.}^{jo'nalish\ kelishigi}$]

tipida bo'lib, qolipdagi adresat obyekt fe'lning bosh nisbat shakli (*ichmoq, yemoq*) uchun bajaruvchi foil.

«Adresatli orttirma» oraliq grammatik ma'nosi uchun o'timli norefleksiv fe'l ma'noviy-sintaktik tipi ham kuchli ta'sir qiladi. Shu boisdan adresat

to'ldiruvchining aniq nisbatdagi fe'l subyekti bilan aloqasi vositasiz to'ldiruvchinikiga qaraganda kuchsiz bo'ladi. Qiyoslang: 1. *Salomatoy onasini uxlatib qo'yib..* .(H.G'ulom) – *onasi uxladi.* 1. *Mariyaga boshdan oyok musulmoncha libos kiydiradi(Oyb).* – *Mariya libos kiydi.* Ko'rinadiki, fe'lning aniq nisbatdagi ma'nosining obyektga munosabati turlicha.

Shaklning «sof orttirma» oraliq grammatik ma'nosini o'timli norefleksiv fe'l nutqqa olib kiradi: 1. *Qurbonali bilan xotini yerni traktorga ag'dartirgach, tanob tortib, qoziq qoqdi.2. Dekchadagi baliq kuyib ketayotganini ko'rib, kapgir bilan ag'gdartirdi.*

Orttirma nisbat shakli umumiy grammatik ma'nosi oraliq ko'rinishining barchasi uchun xizmat qiluvchi umumiy sintaktik omil aniq nisbatdagi fe'l bajaruvchining to'ldiruvchiga aylanishi. Biroq bu nisbat shakli fe'lning qaysi tipiga birikayotganligiga qarab, turlicha xarakter kasb etadi. Masalan,

[Bajaruvchi + Fe'l$^{o.n.}$+ Obyekt$^{tushum\ kelishigi}$]

qurshovida, asosan, «faol» va «faol orttirma» oraliq grammatik ma'nosi yuzaga chiqsa, «adresatli orttirma» va «sof orttirma» oraliq grammatik ma'nosi uchun

[Bajaruvchi + Fe'l$^{o.n}$ + Obyekt$^{tushum\ kelishigi}$]

qolipi xos. Demak, leksik omil kuchaygan sharoitda sintaktik omil susayadi va, aksincha, sintaktik omil kuchayganda, lug'aviy omil zaiflashadi.

Majhul nisbat. Majhul nisbat *-l* va *-n* shakli yordamida hosil qilinadi: *yuvildi, tozalandi, aytildi, gapirildi, olindi* kabi. Bu nisbatli fe'l «subyektsizlashadi», aniqrog'i, obyekt ustuvorlashib, ega vazifasiga o'tadi, mantiqiy obyekt grammatik ega maqomini oladi. *Bu yerda chetan bilan **o'ralgan** mol qo'rasi bor edi.* (P.Qodirov) *Boboxo'ja domla ishdan **bo'shatildi.*** (P.Tursunov)

Majhul nisbat asosan o'timli (*o'ralgan, yig'ilgan, sochilgan, terilgan*), qisman o'timsiz (*bo'shatilgan, tushilgan, borilgan*) fe'ldan hosil qilinadi. O'timsiz fe'ldan yasalganda egasiz gap (shaxssiz fe'l) hosil bo'ladi: *Bu ko'cha bilan ikki-uch yuz odim **yurilgach**, qishloq guzariga yetiladi.* (H.Shar.) *Rasmi, yomon xotindan **qochiladi**, zamona shum bo'lsa, yaxshi xotindan ham qochar ekan kishi.* (A.Qahhor) Ba'zi holda majhul nisbatda qo'llanishi lozim bo'lgan fe'l aniq nisbatda bo'lsa ham, majhul nisbat ma'nosi ifodalanadi: *Anchagina **yurgach**, o'ng tomonda paxsa uy ko'zga tashlanadi.* (S.Nurov) Bunda shakl va ma'no muvofiqligi yo'q. Shuning uchun nisbatni aniqlashda qaysi nisbat shakli yoki qaysi nisbat ma'nosi bor tarzidagi muqobil savoldan biri qo'yilishi kerak. Bir-biriga bog'langan kontakt holatdagi ikki fe'ldan ikkinchisigina majhul

nisbatda bo'ladi: *Bu dori spirtda ivitilib, **qiyom qilib ichiladi.*** (N.Safarov) *Eshakka teskari **mindirib sazoyi qilindi.***(M.Ismoiliy)

O'zlik va majhul nisbat omonimik xususiyatga ega. Masalan, *osildi, tashlandi, to'kildi* fe'lining o'zlik yoki majhul insbatda ekanligi qurshovda ma'lum bo'ladi.

Majhul nisbatda ham orttirma nisbatda bo'lgani kabi aniq nisbatdagi fe'l subyekti ta'sirga uchraydi. Ammo majhul nisbatdagi fe'l yangi obyektga ega bo'lmaydi, asos qurilmaning vositasiz to'ldiruvchisi subyektga aylanadi. Shundan kelib chiqqan holda, majhul nisbat umumiy grammatik ma'nosi «sof majhul», «nofaol majhul» va «shaxssizlik» oraliq grammatik ma'nosi orqali nutqiy voqelikka aylanadi. Shaklning «sof majhul» oraliq grammatik ma'nosini nutqiy voqelikka aylanadi. 1. *Bu qiy-chuv orqasidan mehmonlarga quyuq-suyuq tortildi.* Majhul nisbat shaklidagi fe'l ikki kengaytiruvchili bo'lib, asos qolipning «bajaruvchi» a'zosi ifodalanmaydi va noaniqligicha qoladi:

[Bajaruvchi + Fe'l + Obyekt]

Ko'rinadiki, berilgan misolda harakat bajaruvchisi noma'lum va ifodalanmagan bo'lib, asos qurilma (*(kimdir)quyuq-suyuq berdi*)dagi to'ldiruvchi subyektga aylanadi. Demak, majhul nisbat shakli «sof majhullik» oraliq grammatik ma'nosi bilan voqealanganda asos qurilmaning boshqaruvi ham o'zgarib ketadi.

Qurshov oraliq grammatik ma'noni voqealantirishda fe'l tipi umumiy lug'aviy ma'nosiga hamkorlik qiladi.

Shaklning «nofaol majhul» oraliq grammatik ma'nosini o'timli-natijali fe'l voqealantiradi. 1. *U Karomatni qonga bo'yalgan paranjisiga o'rab, yerdan ko'tarib oldi-da, bag'riga bosib uyga jo'nadi.* (H. G'ulomov) Oraliq ma'no voqealanishi uchun

[Bajaruvchi +Fe'l$^{majhul\ nisbat}$ + Obyekt$_{vositali}$$^{jo'nalish\ kelishigi}$]

qurshovi talab etiladi. Bunda majhul nisbat oraliq grammatik ma'nosi uchun ikki kengaytiruvchiga zarurat seziladi, ba'zan vosita kengaytiruvchisi norelevant a'zo bo'lib, oraliq grammatik ma'no uchun bir kengaytiruvchili qolip ham yetarli:

[Bajaruvchi + Fe'l$^{majhul\ nisbat}$]

Misoldan ma'lum bo'ladiki, majhul nisbatdagi fe'l ifodalagan harakatda asos qurilma foili eslanmaydi. Harakat obyekt(*Karomat, odam)*ga passiv obyekt ta'sirida yuz bermayotganligi ham anglashib turadi. Agar bajaruvchi sifatida asos qurilmaning vositasiz to'ldiruvchisi namoyon bo'lsa, bunda «nofaol majhul» va «sof majhul» oraliq grammatik ma'nosi farqlanishi uchun kontekst

talab qilinadi. Masalan, (ochilmoq) fe'li *eshik ochildi* va *eshik (biror kishi tomonidan) ochildi* birikuvida voqealansa, lisoniy qolip uning birida «nofaol-majhullik», ikkinchisida «faol majhullik» ma'nosi voqealanayotganligiga ishora qiladi.

Majhul nisbatning «shaxssizlik» oraliq grammatik ma'nosini o'timsiz faol fe'l farqlaydi va voqealantiradi: 1. *Bugun stadionga boriladi.*

Ma'lum bo'ladiki, majhul nisbatda fe'lning «majhulligi» farqli xususiyatga ega bo'lib, «sof majhullik» oraliq grammatik ma'nosida bajaruvchi tasavvur qilinadi (*quyuq-suyuq* (kimdir tomonidan) *tortildi*)). «Shaxssizlik» oraliq grammatik ma'nosida bajaruvchini tiklash imkoni yo'q (*Bugun* (masalan, Salim tomonidan) *stadionga beriladi).* Demak, fe'l «shaxssizlik» oraliq grammatik ma'nosini voqealantirganda qolip

[Fe'l$^{majhul\ nisbat}$]

tarzida bo'lib, fe'l «foil» kengaytiruvchisiga ega bo'lishi va gapning egasi bo'lishi mumkin emas.

Birgalik nisbati. Birgalik nisbat *–(i)sh* affiksi yordamida hosil qilinib, uning umumiy grammatik ma'nosi «harakatni bajarishda bajaruvchining birgalashuvi».

Birgalik nisbati asos fe'l boshqaruviga oddiy vositali to'ldiruvchini ko'makchili vositali to'ldiruvchiga aylantirish darajasida o'zgarish berishi mumkin.

Birgalik nisbat shaklida «birgalik yordamlashish» va «birgalik-ko'plik» oraliq grammatik ma'nosi farqlanadi. «Birgalik-ko'plik» ma'nosi uchun fe'lning o'timli-o'timsizligi ahamiyatsiz. *Katta o'sha yerda. Arz qil,* ***yordam berishadi,*** *yo'l-yo'riq* ***ko'rsatishadi.*** (P.Tursun) «Birgalik-yordamlashish» ma'nosi voqealanishi uchun esa shakl o'timli fe'lni tanlaydi. *Bola dadasiga yer* ***haydashdi, ekin ekishdi.*** (S.Nurov)

Ba'zan ko'plik shakli ham nutqiy ortiqchalik sifatida birgalik nisbat shakli ustiga «qavatlanadi». *Sharofat xolaning so'ziga zavqlanib* ***kulishdi.*** (N.Safarov) *Ona-bola uzoq* ***yig'lashdi,*** *ko'z yoshlari bitguncha* ***bo'zlashdi.*** (A.Qodiriyiriy)

Birgalik nisbat shakli o'zlik nisbat bilan birga, o'z oraliq grammatik ma'nosining harakat bajaruvchisining faolligi asosida ekanligi bilan orttirma va majhul nisbatga zid turadi. Shuningdek, bu shakl oraliq grammatik ma'nosi voqealanishi uchun lug'aviy omildan ko'ra sintaktik omilning ustuvorligi ham uning o'ziga xos mohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Bunda shakl oraliq grammatik ma'nosi farqlanishi fe'lning ma'lum bir ma'noviy tipi bilan emas, balki shaklni nutqqa olib kiruvchi sintaktik qolip bilan bog'liq ravishda yuz beradi. Ayniqsa, bu birgalik nisbatda yorqinroq namoyon bo'ladi.

Tadqiqotchilar birgalik nisbat shakli umumiy grammatik ma'nosi oraliq grammatik ma'nosini turlicha belgilaydi. Ularning qarashini umumlashtirgan va undan kelib chiqqan holda shaklda ikkita oraliq grammatik ma'noni ajratishni ma'qul deb bilamiz:

a) «birgalik-yordamlashish» oraliq grammatik ma'nosi;

b) «birgalik-ko'plik» oraliq grammatik ma'nosi.

Ta'kidlanganidek, «birgalik-ko'plik» oraliq grammatik ma'nosi uchun fe'lning o'timli yoki o'timsizligi ahamiyatsiz. Demak, ma'lum bo'ladiki, lug'aviy omilning susayishi, albatta, farqlovchi sintaktik omilning kuchayishiga olib keladi. Mazkur oraliq grammatik ma'no farqlanishi uchun

[Bajaruvchi^{lar}+ Fe'l$^{birgalik\ nisbati}$+(Obyekt^{bilan})]

qurshovi zarur bo'lib, bunda qolipning (Bajaruvchi^{lar}) a'zosi ko'plik shaklida yoki uyushgan bo'lak sifatida nutqiy voqelikka aylanadi. *1. Otni xirmon yaqinidagi kallak urilgan tutlarga bog'lashib, o'zlari xirmonga piyoda borishdi.*(M.Ismoiliy)

Qolipning Obyekt^{bilan} a'zosi shaklning ushbu ma'nosi uchun norelevant unsur bo'lib, uning yuzaga chiqishi bajaruvchi subyektning harakati bir-biriga yo'nalgan holdagina ahamiyat kasb etadi. Bu oraliq grammatik ma'nosi bilan birgalik shakli kesimning ko'plik shakli bilan ma'nodoshlik kasb etadi. Qiyoslang:

1.Ular xirmonga piyoda borishdi.

2.Ular xirmonga piyoda bordilar.

«Faol yordamlashuvchi subyekt» oraliq grammatik ma'nosi uchun shakl fe'lning, asosan, o'timli nofleksiv va o'timli natijali guruhini tanlaydi. 1.*Bola dadasiga yer haydashdi, paxta ekishdi. 2. Qo'shnisiga chiqib deraza romlarini bo'yashdi.* OLMni voqealantiruvchi lisoniy qurshov

[Bajaruvchi + Fe'l$^{birgalik\ nisbati}$ + Obyekt$_{adresat}^{jo'nalish\ kelishigi}$]

ko'rinishida bo'lib, qurshovning Obyekt$_{adr.}^{jo'nalish\ kelishigi}$ a'zosi asosiy kengaytiruvchi. Qurshov yoki gap tarkibidan ushbu a'zo va uning hosilasi chiqarilsa, bu oraliq grammatik ma'no o'rnini «birgalik- ko'plik» oraliq grammatik ma'nosi egallaydi. Qiyoslang:

1.*Bola dadasiga yer haydashdi.*

2.Bolalar yer haydashdi.

Shuningdek, mazkur oraliq grammatik ma'no voqealanishi uchun foilning ham, asosan, birlik sonda bo'lishi muhim. Agar u ko'plikda bo'lsa, kesim ham shunga muvofiq bo'ladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, nisbat kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosi «harakatning bajaruvchiga munosabatini ifodalash» bo'lib, bu kategorial ma'noga «o'timli-o'timsizlikka munosabat» yondosh ma'no sifatida qorishadi.

Demak, nisbat kategoriyasi lug'aviy shakl hosil qiluvchi kategoriya sifatida fe'l leksema sememasini subyekt valentiligi va o'timli-o'timsizlik nuqtayi nazaridan modifikatsiya qiladi.

Nisbat shakli paradigmatikasi. Nisbat kategoriyasi shaklining ma'noviy va valentlik munosabatini tekshirish asosida ayrim paradigmatik jihatni ajratish imkonini beradi. Nisbat shakli ma'nosini uch tipga ajratish mumkin: 1) nisbatga xos bo'lgan sof grammatik; 2) lug'aviy-grammatik; 3) lug'aviy (ya'ni so'z yasash); 4)nisbatga xos bo'lmagan grammatik ma'no.

Nisbatga xos sof grammatik ma'no nisbat shaklli qurilmani asos (aniq nisbatdagi) qurilmaga "qaytarish" mumkin bo'lgan holda kuzatiladi. Bunda asos qurilmaning subyekti va va obyekti saqlanadi, ammo jiddiy sifat o'zgarishiga uchraydi. "Sof orttirma", "sof majhul", "adresatli o'zlik" ma'nosi fikrimizning dalili.

Nisbat kategoriyasining lug'aviy-grammatik ma'no tipi asos va hosila qurilmaning o'zaro munosabatidagi o'zgarishda ko'zga tashlanadi. Agar hosila nisbatli qurilmada asos nisbatning subyekti voqealanmay, faqat idrok etilsa, implisit tarzda mavjud bo'lsa, hosila qurilmani asos qurilmaga "qaytarish" mumkin bo'ladi va bunda faqat sof grammatik nisbat ma'nosi yuzaga chiqqan bo'ladi. Agar hosila qurilmada asos qurilmadagi bajaruvchi (subyekt) voqealanmasa, uni obyekt tarzida tiklashning imkoni bo'lmasa, nisbat shakli ma'nosi lug'aviylashgan, leksik-grammatik xarakter kasb etgan bo'ladi. *Gul ochildi, barglar to'kildi* kabi misolda ana shu holat kuzatiladi.

Nisbat shakli ma'nosi grammatik ko'rsatkichning qotib qolishi, nisbat shaklli fe'lning shu shaklda semantik siljishni boshdan kechirishi natijasida yuz beradi.

Nisbat kategoriyasi shaklida boshqa kategoriyada bo'lagin kabi kategorial va nokategorial ma'noni kuzatish mumkin. Bunda shaxs tavsifi yoki shaxssizlik (shaxs), shaxsning bittaligi yoki ko'pligi (son) ma'nosi nokategorial ma'no bo'lib, nisbat shaklining kategorial ma'nosiga yondosh ma'no sifatida mavjud.

Nisbat kategoriyasining sof kategorial ma'nosi subyekt va obyekt munosabati.

Aniq nisbat harakatni bajaruvchi mantiqiy subyekt va obyektni grammatik ega va vositasiz to'ldiruvchi sifatida, mantiqiy –grammatik muvofiqlik sifatida boshqara oladi. Majhul nisbatda mantiqiy obyekt grammatik subyektga aylansa,

o'zlik nisbatida mantiqiy obyekt butunlay yo'qoladi. Ammo har ikkala nisbat ham vositali obyektni aniq nisbat kabi boshqara oladi.

Orttirma va birgalik nisbati subyektni boshqarishda bir-biriga hamohang. Ammo vositasiz obyektni boshqarishda bu hamohanglik barham topadi. Orttirma nisbatda, albatta, vositasiz obyekt boshqariladi. Bigalik nisbat shakli bu belgiga betaraf. Ayrim holda vositasiz obyekt mavjud bo'lsa (qizlar o'tlarni yulishdi), ba'zan u bo'lmasligi mumkin va uni tiklashning ham iloji yo'q (Qizlar yulishdi).

Ko'rinadiki, subyektni boshqaruv jihatidan nisbat shakli zidlanmaydi. Mantiqiy subyekt qanday grammatik xarakterda bo'lishidan qat'i nazar, nisbat tomonidan gapda boshqarila oladi. Ammo obyektni boshqarishda xususiy hol mavjud. Aniq va orttirma nisbat vositasiz obyektni boshqaradi, majhul va o'zlik nisbat bunday xususiyatga ega emas. Birgalik nisbat vositasiz obyektni boshqarish xususiyatiga ko'ra boshqa nisbat oralig'ida turadi.

Shu bilan birgalikda subyektning semantik tavsifiga munosabat jihatidan ham nisbat shakli farqlanadi. Bunga ko'ra majhul nisbat noaniq, boshqa nisbat aniq subyektga egaligi bo'rtib turadi.

Bu ma'noviy xususiyat har bir nisbat shaklida o'ziga xos tarzda voqealanadi. Ammo shaklning kategorial paradigmatik munosabati quyidagi holatda bo'ladi:

1. Orttirma va birgalik nisbati ko'p subyektli nisbat sifatida o'zlik va majhul nisbatiga qarama-qarshi turadi. Chunki o'zlik va subyekt miqdoriga betaraf munosabatda bo'ladi. O'zlik va birgalik nisbatidagi subyekt ish-harakatning faol yuzaga keltiruvchisi bo'lib, orttirma va majhul nisbatga qarama-qarshi turadi. Chunki bu nisbatdagi subyekt chekkaga suriladi, fakultativ tabiat kasb etadi, faqat vositali to'ldiruvchi sifatida qurilma tarkibidan joy olishi mumkin.

2. Ko'p subyektli birgalik va orttirma nisbat o'zaro "qo'zg'atuvchi"ning mavjud-mavjud emasligi bilan farqlanadi. Bu orttirma nisbatda mavjud bo'lib, birgalik nisbatda ifodalanmagan.

Bir subyektli majhul va o'zlik nisbati "subyekt va obyektning birlashuvi" belgisi asosida zidlanadi. Bu belgiga o'zlik nisbati ijobiy va majhul nisbat betaraf munosabatda bo'ladi.

3. Asos qurilmadagi subyekt o'z mavqeyini yo'qotgan orttirma va majhul nisbat "subyektning passivligi" belgisi bilan zidlanadi. Subyektning passivlashish darajasi majhul nisbatda ifodalangan, orttirma nisbat bu belgiga betaraf munosabatda bo'ladi.

4. Asos qurilmadagi subyektning maqomini saqlab qolgan o'zlik va birgalik nisbati o'zaro "subyektning hamkorligi" belgisi asosida zidlanadi. Bu birgalik nisbatda belgili va o'zlik nisbatda belgisiz.

Umuman olganda, nisbat shakli subyekt va obyektni boshqarishga munosabat nuqtayi nazaridan sintaktik, subyektning aniq-noaniqligi jihatidan semantik oppozitsiyada bo'ladi.

7- §. O'zgalovchi kategoriyasi

O'zgalovchi kategoriyasi haqida umumiy ma'lumot. Tahlil etilayotgan tasniflovchi(ya'ni, bu faqat fe'l turkumiga oid so'zga aloqador), vazifaviy(fe'lga gap tarkibida ma'lum bir mavqe, vazifa bag'ishlovchi) va lug'aviy shakl hosil qiluvchi(fe'lning lug'aviy ma'nosiga ma'lum darajada ta'sir etuvchi) shakl sirasiga nisbatan qo'llanishi fe'lning bu shakl sirasini yaxlit bir kategoriyaga birlashtirish va shu kategoriyaga mansub shaklni alohida bir paradigmaga tizish imkoniyatini beradi. Mantiq, aniqrog'i, so'z va tushuncha orasidagi murakkab mutanosiblikdan ma'lumki, tushuncha so'z qobig'ida shakllantirilmasa, u yaxlitlik kasb etmaydi.[1]

Fe'lning bunday shakli sirasi ma'lum bir atama ostida birlashtirilmas ekan, bu siraning yaxlitligi noaniq va chegaralanmagan bo'lib qolaveradi. Ma'lumki, tilshunoslikda bir necha yildan beri nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik, kelishik, egalik, zamon kategoriyasining rang-barang shakli ma'lum bir paradigmaga(shaklan va mazmunan aniq chegaralangan shakl sirasiga) birlashtiriladi. Biroq biz o'zgalovchi kategoriyasi atamasi ostida birlashtirayotgan shakl sirasi alohida paradigma sifatida kamdan-kam tahlil etiladi. O'zbek tilshunosligida H.Ne'matov va B.Mengliyevdan boshqa tadqiqotchi ishida bu shaklni bir paradigmaga birlashtirishga urinish uchramaydi.

O'zgalovchi – murakkab kategoriya. Chunki bu kategoriyani tashkil etuvchi harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh va fe'lning kesimlik shaklidan har biri o'z ichida o'ziga xos paradigmani tashkil qiladi va tarkibida uchtadan olti-ettitagacha shaklni birlashtiradi. O'zgalovchi kategoriyasini alohida bir kategoriya sifatida ajratilmasligiga asosiy sabab ham bu kategoriyaning bevosita tashkil etuvchisining murakkab ekanligida.

[1] Ҳақбердиев М., Хайруллаев М. Мантиқ. - Т.: Ўқитувчи, 1984. 360- б.

Bugungi kunda fanda «sistema-element» munosabatining nisbiy tabiatga ega ekanligi atroflicha tadqiq etilgan.[1] Element yaxlitlik sifatida faqat sistemaga nisbatan yuzaga chiqadi. Vaholanki, elementning o'zi murakkab bo'lishi va shu elementni tashkil etuvchiga nisbatan sistema sifatida voqealanishi lozim. Bu hodisa til materiali, xususan, leksika materiali asosida I.Qo'chqortoyev, A.Salkalamanidze, R.Rasulov, M.Narziyeva, Sh.Iskandarova, G.Ne'matova, R.Safarova, B.Qilichev ishida aniq va ravshan yoritib berilgan. Shuningdek, hodisaning sintaksis sathida ham mavjudligini R.Sayfullayeva va olimaning shogirdlari isbotlab berishdi. R.Sayfullayeva qo'shma gapning umumiy minimal qolipini [WP_mV WP_m] yaxlitlik sifatida ajratib, uni [WP_m, WP_m], [WP_m - WP_m], [WP_m · WP_m] kabi tarkibiy qismdan iborat deb talqin etsa[2], bu yaxlitlikning tarkibiy qismi bo'lgan[WP_m , WP_m], [WP_m - WP_m], [WP_m - WP_m] kabi qo'shma gap qurilish qolipining o'zi ham murakkabligi va o'z navbatida ichki paradigma hosil qilishi keyingi tadqiqotlarda ko'rsatib o'tildi.[3]

Demak, leksik va sintaktik sathda paradigmaning (sistemaning) tarkibiy qismi sifatida (elementi) yana paradigma chiqishi isbotlangan. Bundan taxmin qilish mumkinki, morfologik tizimda ham murakkab, ya'ni elementi sifatida paradigma voqealangan sistema(resp: paradigma) bo'lishi mumkin. Shuning uchun o'zgalovchi kategoriyasi ham fe'lning alohida bir paradigmasi sifatida bemalol ajratilishi mumkin.

Bu paradigmaning bir tomondan boshqa paradigma bilan, ikkinchi tomondan, o'z a'zosi bilan munosabati qanday degan haqli savol tug'iladi. Tadqiqotchining bu masalaga e'tiroziga to'la izoh berilmaguncha, o'zgalovchi kategoriyasining o'zbek tilida obyektiv hodisa ekanligini isbotlash qiyin.

Lug'aviy shakl ot, sifat, son, olmosh kabi mustaqil so'zda lug'aviy ma'no bilan aloqador bo'lib, u nutqqa, gap tarkibiga aloqa-munosabat shakli vositasida kiritiladi va bu aloqa-munosabat shakli egalik va kelishik kategoriyasi ma'lum bir so'z turkumi bilan chegaralangan emas. Lekin o'zgalovchi kategoriyasi fe'lni nutqqa olib kirishi bilan aloqa-munosabat shaklidan farqlanadi.

Kesimlik shakli(tasdiq - inkor, mayl - zamon va shaxs-son) odatda, fe'l shakli doirasida o'rganiladi, biroq uning qo'llanish doirasi faqat fe'l bilan cheklanmaydi. Bu haqda ishning birinchi bobida bahs yuritildi. O'zgalovchi kategoriyasi kesimlik kategoriyasini ham o'z tarkibiga biriktiradigandek

[1] Ломтев Т.П. О некоторых вопросах структуры предложения // Ломтев Т.П. Общее и русское языкознание. Избр. труды. –М., 1976. –С. 140–157; Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. Издание 2-ое, дополненное. –М.: Наука, 1977.

[2] Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек адабий тилида қўшма гапларнинг шакл-вазифавий(формал-функционал) талқини: филол. фан. док. дисс... автореф. –Т., 1993.

[3] Сайфуллаева Р., Абузалова М. Гапнинг энг кичик қурилиш қолиплари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1991, -№ 5. –Б. 42–47.


ko'rinadi. Lekin haqiqatda bunday emas. Kesimlik kategoriyasi fe'lning kesimlik shaklini ajratib oladi. Chunki kesimlik kategoriyasi fe'llikdan keng, ya'ni kesim vazifasida kelish nafaqat fe'lga, balki barcha mustaqil so'z turkumiga xos xususiyat. Kesimlik kategoriyasi fe'lning kesimlik shaklini belgilaydimi yoki uni fe'lning boshqa kategoriyasidan farqlaydimi, degan savolga hech ikkilanmay kesimlik kategoriyasi fe'lning kesimlik shaklini boshqasidan ajratadi deb javob berish mumkin. Shu sababli sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi bir tomondan sintaktik shaklni eslatsa, faqat fe'l turkumiga oidligi va fe'lning lug'aviy ma'nosiga ham ta'sir etishi bilan lug'aviy shaklga yaqinligini ko'rsatadi. Shuning uchun o'zgalovchi kategoriyasi fe'l shakli tizimida lug'aviy va sintaktik shakl orasida oraliq uchinchi sifatida baholanishi lozim.




Harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh, kesimlik shakli paradigmasidagi ziddiyatda dastlab «kesim vazifasida kela olish» belgisi turadi. Bu belgi asosida tuziladigan ziddiyat mohiyatan noto'liq bo'lib, unda kuchli a'zoni fe'lning kesimlik shakli tashkil etib, kuchsiz (mo'tadil, neytral) a'zoni qolgan shakl tashkil etadi. U ziddiyatining yuqorida sanalgan belgisiga nisbatan betarafligi dastlab shunda namoyon bo'ladiki, harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh gapda kesim pozitsiyasini emas, balki boshqa mavqeni egallashga ixtisoslashgan. Lekin ayrim holatda uning har biri kesim vazifasida kelishi mumkin. Shunga qaramay, harakat nomi va sifatdosh kesim vazifasida kelganda ham, agar undan alohida zamon shakli rivojlanmagan bo'lsa, o'zining harakat nomi va sifatdoshlik tabiatini saqlab qoladi. Masalan, hozirgi o'zbek adabiy tilida harakat nomi va sifatdosh(zamon shakli emas)ning kesim vazifasida kelishiga ko'plab misol keltirish mumkin: 1. *Qilmish – qidirmish.* 2. *Bu bola bo'ladigan. Z. Dub daraxtining egilgani – singani.*

Ravishdoshning gap kesimi vazifasida kelishi an'anaviy sintaksisda qo'shma gap uchun me'yoriy holat edi: *Bahor kelib, kunlar isib ketdi.* Formal-

funksional tahlilda yuqorida ko'rsatilgan holatda ravishdoshning kesim vazifasida kelishi inkor etilsa-da, uyushgan kesimning lug'aviy asosi yoki uyushgan gapning kesimi mavqeida kelishi to'la-to'kis tan olinadi. Demak, harakat nomi, sifatdosh va ravishdoshga o'zligini saqlagan holda kesim vazifasida kelish yot emas. Shunday qilib, sanalgan shakl ichki ziddiyatining birinchi sirasini quyidagilar tashkil etadi:



Harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh, o'z navbatida, fe'lni fe'l bilan yoki fe'ldan boshqa so'z turkumi bilan bog'lash belgisi asosida ham ziddiyat qatorini tashkil etadi. Bunda faqat fe'lni fe'l bilan bog'lashga (bir fe'lni ikkinchisiga tobelantirishga) xizmat qiluvchi ravishdosh, bu belgiga nisbatan neytral bo'lgan sifatdosh va harakat nomiga qarama-qarshi turadi, ya'ni:



Sifatdosh va harakat nomining bu belgiga nisbatan neytralligi sifatdoshning ham fe'l, ham boshqa so'z turkumi bilan bog'lana olishi va tarixan, ko'p holda hozir ham harakat nomidan farqlanmasligi bilan bog'liq.

Sifatdosh va harakat nomi shaklining o'zaro qorishuvi turkiy tilning qadimgi davridan hozirigacha xos. G'.Abdurahmonov XI asrda sifatdosh va harakat nomi shaklini farqlash qiyinligini ta'kidlasa,[1] hozirgi o'zbek tilshunosligi tadqiqotchisi *«Akasining kelganini eshitib, Dilbar xursand bo'ldi»* kabi

[1] Абдурахманов Г. Исследования по старотюркскому синтаксису (XI век) –М.: Наука, 1967.

birikuvda *-gan* shaklinining harakat nomi vazifasida kelayotganini qayd etmoqda.[1]

Sifatdoshni harakat nomidan farqlash tarixan ancha mushkul bo‘lsa-da, hozirgi til uchun uning o‘zaro farqlanishi o‘ziga xos grammatik xususiyat kasb etgan. Sifatdosh boshqa so‘z bilan ham bitishuv, ham moslashuv (aniqrog‘i – turkiy izofa)[2] usuli bilan aloqaga kirisha olsa, harakat nomi, boshqa ism bilan faqat moslashuv usuli bilangina birikadi: *Bu azoblardan qutulishning iloji bormi?* (O‘.Hoshimov)

Fe’lning lug‘aviy shakli tizimida alohida bir paradigma sifatida ajratilayotgan o‘zgalovchi kategoriyasi shaklining kategoriya ichida o‘zaro munosabati yuqorida ko‘rib o‘tildi. U fe’lni ma’lum bir sintaktik funksiyaga moslashtiradi yoki fe’lni boshqa so‘z bilan bog‘lashga xizmat qiladi, ya’ni tom ma’noda sintaktik vazifa bajaradi. Ammo bunday sintaktik mohiyat bitta so‘z turkumi doirasi bilan chegaralangan, qolaversa, fe’lning o‘zgalovchi kategoriyasi shakli o‘zi qo‘shilib kelayotgan o‘zakning lug‘aviy ma’nosiga nisbatan ham to‘la farq deb bo‘lmaydi. Xususan, harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh shaklining fe’lning lug‘aviy ma’nosiga ta’siri shunchalik kuchliki, qator tilshunos, jumladan, I.I.Meshchaninov[3] ravishdosh va sifatdoshni alohida so‘z turkumiga ajratgan bo‘lsa, V.V.Vinogradov va uning davomchisi[4] sifatdosh, ravishdosh, va harakat nomini gibrid (ikki so‘z turkumining ma’nosi chatishgan) so‘z sifatida baholaydi. Shu sababli o‘zgalovchi kategoriyasini – biz tom ma’noda fe’l kelishigi deb ayta olmaymiz. Chunki kelishik lug‘aviy ma’noga ta’sir etmaydi. O‘zgalovchi kategoriyasi shakli esa lug‘aviy ma’noga fe’lni boshqa so‘z turkumiga ma’no jihatidan yakinlashtirish darajasida ta’sir etadi. Shuning uchun uni mohiyatan kelishik kategoriyasi bilan tenglashtirish mumkin emas.

O‘zgalovchi kategoriyasi tadqiqi tarixidan. Akademik I.I.Meshchaninov ta’kidlaganidek, dunyoning barcha tilida fe’l gap tarkibida u yoki bu bo‘lak vazifasida kelishi uchun ma’lum bir shaklni qabul qiladi. Qizig‘i shundaki, fe’lni gap tarkibiga olib kiruvchi bunday shaklning har biri o‘zining turli atamasiga ega. Masalan, harakat nomi – rus tilida fe’lning noaniq shakli – «infinitiv», Yevropa tilida «gerundiy», arabcha «masdar», sifatdosh – ruscha «prichastie»,

[1] Ғуломов А. Ўзбек тили морфологиясига кириш. Ҳозирги замон ўзбек тили курсидан материаллар. –Т.: Фан, 1953; Ҳожиев А. Инкор ифодаловчи воситалар ва феълнинг бўлишсиз формаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1970, 4- сон, –Б. 43–45.

[2] Майзель С.С. Изафет в турецком языке. –М., –Л.: Изд. АН СССР, 1957; Салаев Р.Б. Ўзбек тилида исми фоиллар: филол. фан. номз. дисс. автореф. –Самарканд, 1994.

[3] Мещанинов И.И. Члены предложения и части речи. –Л.: Изд. Наука, 1978.

[4] Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. –М. –Л.: ГУ-ПИМП РСФСР, Учпедгиз, 1947.

yevropacha «partitsip», arabcha «ismi foil» yoki «ismi maf‘ul», ravishdosh – ruscha «deeprichastie», yevropacha «adverbiyum», sof fe‘l – ruscha «fe‘lning tuslangan shakli», yevropacha «verbum finitum», arabcha «fe‘l» kabi atama bilan yuritiladi. Lekin bu to‘rt turdagi shakl tizimi (o‘zbek tilida) o‘zining maxsus atamasiga ega emas. Rus tilshunosligida bu sira fe‘lning funksional formasi degan noaniq atama bilan birlashtiriladi va o‘zbek tilshunosligiga ham bu kalka asosida kirib keladi. Atamaning noaniqligi va kategoriyaning nomi bo‘la olmasligi haqida ko‘pgina tilshunos fikr bildirgan. Ammo bu kategoriya uchun umumiy bir leksemali qulay atamani kamdan-kam tadqiqotchi taklif etgan. Jumladan, I.I.Smirnitskiy[1] bu tizim uchun «kategoriya reprezentatsii» atamasini qo‘llaydi. Turkiyshunoslikda ham bu atama. H.Ne‘matov tomonidan ma‘qul deb topildi.[2] O‘zbek tilshunosligida mazkur kategoriya uchun birmuncha munosib nom B.Mengliyev tomonidan taklif etildi. Umumiy o‘rta ta‘limning Davlat ta‘lim standartida bu hodisaga nisbatan – fe‘l turi atamasi qo‘llandi.[3] Ammo bu atamani ham muayyanlashtirish lozim. Chunki *turi* degan tushuncha o‘ta mavhum. Atama xilma-xilligiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida boshqa yana bir yangi atamani kiritish fikrida emasmiz. *Tur* atamasiga qaraganda *o‘zgalovchi* atamasini qo‘llash hodisa mohiyatiga yaqinroq bo‘lgani bois, ishda fe‘lning o‘zgalovchi kategoriyasi terminidan foydalanish ma‘qul deb topildi.

Aytilganidek, sho‘ro tilshunosligida fe‘lning funksional shakli alohida morfologik kategoriya sifatida qaralgan emas. Lekin uning ichki bo‘linishi(ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi)ga nisbatan *morfologik kategoriya* atamasi qo‘llanilib kelingan.[4]

Haqiqatdan ham, bir qarashda fe‘l turi kategoriyasi(ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi)ning har bir shakli ma’lum bir umumiylikka ega bo‘lib, bu umumiylik alohida shakl (ravishdosh shakli ,sifatdosh shakli, harakat nomi shakli) xossasidan tiklanganidan kategorial mohiyatdek tasavvur uyg‘otishi tabiiy. Zero, har qanday morfologik kategoriyaning subutiy xossasi bo‘lmish «ikki yoki undan ortiq oppozitsiyada turuvchi, bir-birini taqozo va o‘z navbatida, inkor etuvchi, bir grammatik ma’no tagida birlashadigan grammatik shakl tizimi» belgisi bu hodisa uchun ham xos. Deylik, ravishdosh ko‘rsatkichi bo‘lmish *-a/y, -(i)b, -gach, -guncha, -gani, -ganda, -gancha* shakli kategoriyaning yuqorida zikr etilgan mumtoz ta’rifiga muvofiq keladi. Biroq, muammoga tasavvuf dialektikasining zot va tajalli, mumtoz tilshunoslikning

[1] Смирницкий А.И. Морфология английского языка. –М.: Изд. лит. по иностр. яз., 1959.

[2] Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.: Изд. Фан, 1989.

[3] Умумий ўрта таълимнинг Давлат таълим стандартлари ва ўқув дастури. Она тили. Адабиёт. «Таълим тараққиёти». 1-махсус сон. –Т:. Шарқ, 1999. –Б. 95–96

[4] Менглиев Б.Р. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусияти ва синтактик имкониятлари: филол. фан. номз ... дисс. –Бухоро, 1995, –Б. 82.

kategorial va nokategorial ma'no kabi umumfalsafiy va umumlingvistik metodologik omilidan kelib chiqqan holda yondashish. shuningdek, bu shakl o'zaro ravishdosh mohiyatining xususiylashuvi asosida farqlanadimi degan savolni ko'ndalang qo'yish masala mohiyatiga chuqurroq kirib borish uchun turtki vazifasini o'taydi.

Ma'lumki, har bir shakl o'zi mavjud kategoriya umumiy grammatik ma'nosini parchalaydi - xususiylashtiradi. Demak, ravishdosh shakli bir butun holda alohida morfologik kategoriyani tashkil etar ekan, unda uning har bir shakliga kategoriya umumiy grammatik ma'nosini hususiylashtirish talabi qo'yiladi. Agar yuqorida sanalgan shaklning zotiy mohiyati o'zi mansub kategoriya umumiy grammatik ma'nosi juz'iylashmasi va, shuningdek, o'zi mansub yirikroq mohiyatning parchasi bo'lmagan, biroq shunday ko'ringan, aslida o'zga kategoriya umumiy grammatik ma'nosining o'zidagi tajallisi bilan ajralsa, u yaxlitlik sifatidagi alohida kategorial mohiyatni tashkil eta olmaydi. Ravishdosh shakli bir-biridan ravishdoshlik umumiy grammatik ma'nosi parchalanishi asosida emas(vaholanki, ravishdoshlik umumiy grammatik ma'nosi parchalanmaydi, balki, har bir shaklda shu hosila takrorlanadi), balki o'zi uchun nokategorial bo'lgan lisoniy unsur - zamon, tasdiq - inkor, payt, maqsad, tarz, davomlilik kabi o'zga kategoriya ma'nosi tajallisi asosida zidlanadi. Ziddiyat belgisi ravishdosh uchun xususiy bo'lmay, uning shakli, ko'rinishi uchun, yuqorida ta'kidlanganidek, yondosh ma'no. Demak, ayon bo'ladiki, *-a / y, -(i)b, -gancha* shaklidagi «holat», «davomiylik» ma'nosi tarz kategoriyasining, *-guncha, -gach, -ganda* shaklidagi payt ma'nosi zamon kategoriyasining, *-gali, -gani* shaklidagi «maqsad» ma'nosi mayl kategoriyasining ravishdosh shaklidagi in'ikosi. Ma'lumki, hodisada sintezlangan o'zga hodisa tajallisi idrokiy yo'l bilan chetlatilsa, narsaning zotiy mohiyati oydinlashadi[3].

Bu holni sifatdosh va harakat nomi shaklida ham kuzatish mumkin. Chunki sifatdosh shakli o'zaro zamon, harakat nomi shakli esa qo'llanish me'yori belgisi asosidagina farqlanadi, xolos.

Ayon bo'ladiki, fe'l turi shakli bo'lmish ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi alohida-alohida paradigmani tashkil etadi, biroq bu paradigma ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi umumiy grammatik ma'nosining xususiylashmasi emas, balki ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi tabiatini to'suvchi, uni murakkablashtiruvchi o'zga, ular mohiyatiga daxldor bo'lmagan hodisa asosida tuziladi.

O'zgalovchi kategoriyasi shakli. Ravishdosh. O'zgalovchi kategoriyasining tarkibiy qismidan bo'lgan ravishdosh shakli bir fe'lni ikkinchi

bir fe'lga bog'lash uchun xizmat qiladi. Bu jihati bilan u kelishikka o'xshab ketadi.[1] Ravishdoshning sintaktik mohiyatini ravishdosh hosil qiluvchi boshqa shakl uchun umumiy va mutlaq bo'lgan «oldingi fe'lni keyingi fe'lga tobe a'zo sifatida bog'lash bilan fe'lni nutqqa kiritish» vazifasi, morfologik mohiyatini «fe'lga ravishlik belgisini berish» ma'nosi tashkil etadi.

V.V.Vinogradov ravishdoshni o'zida fe'llik va ravishlik xossasini mujassamlashtiruvchi o'ziga xos mohiyat sifatida baholagan edi.[2] Hozirgi o'zbek tilida quyidagi shakl ravishdosh shakli sifatida ajratiladi:

-(i) b
-a / y
-may / masdan
-gancha
-gach
-gani
-guncha
-ganda

Bundan tashqari, o'zbek tili grammatikasida *-gudek* shakli ham kiritilgan bo'lib,[3] bu shaklning ma'noviy va sintaktik mohiyati sanalgan ravishdosh shaklidan birmuncha farq qiladi. Ravishdosh shakli uchun mutlaq vazifa sifatida «fe'lni fe'lga bog'lash», sifatdosh uchun esa «fe'lni fe'l va otga bog'lash» xosligi aytib o'tildi. Shuningdek, ravishdosh holat, sifatdosh esa harakat va predmet belgisini bildiradi va bu xususiyati bilan sifatga yaqinlashib keladi.

-gudek shakli o'z ma'no va sintaktik xususiyati bilan ko'proq ravishdoshga emas, balki sifatdoshga yaqin turadi: *Maqtanishga a r z i g u d e k husni yo'q edi. Tog'ni ursa talqon q i l g u d e k kuchi bor. U menga yeb q o ' y g u d e k tikilib turar edi.* Shuningdek, bu shaklni qabul qilgan so'zda xuddi sifatdosh kabi substantizatsiyalashuv(otlashish)ni kuzatish mumkin: *Kamoqxona maxbuslari ichidan qorachadan kelgan, tog'ni ursa talqon q i l g u d e g i o'rnidan turib, men tomonga yaqinlasha boshladi*(A.Kamyu.Begona).

Sifatdoshning inkor ma'noli gap tarkibida qo'llanuvchi unumsiz *-gulik* shakli *-gudek* shakli bilan ba'zan sinonimlik hosil qiladi. Qiyoslang: *arzugulik sabab – arzigudek sabab*. Yoki:

Sen meni borgulik qildingmi?
Sen meni borgudek qildingmi?

[1] Неъматов Х.Г. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1993. - Б. 43.
[2] Шаҳобиддинова Ш. Ўзбек тили морфологияси умумийлик-хусусийлик диалектикаси талқинида. I қисм. –Андижон. 1994. – Б. 308].
[3] Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. Мас.муҳ. Ғ.А.Абдурахмонов ва бошқ. –Т.: Фан, 1972. –Б. 523-524.

Sen meni boradigan qildingmi?

Ko‘rinib turibdiki, *-gudek* shaklini ravishdosh shakli sirasiga kiritish ma’qul emas. Bizningcha, bu holat «fe’lning barcha tuslanmagan shakli tarixan sifatdoshdan kelib chiqqan»[1] degan fikr bilan bog‘liq. Polyak tilshunosi V.V.Kotvich tomonidan ilgari surilgan bu fikr N.A.Baskakov tomonidan mutlaqlashtirilgan va turkiy tilning umumiy xususiyati darajasiga ko‘tarilgan edi. Shu sababli sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi shakli orasida ba’zan bir-biridan uzilmaslik holi uchrab turadi. Ravishdosh shakli «fe’lni fe’lga bog‘lovchi» vosita ekan, quyida faqat shu vazifaga xoslangan shakl xususida to‘xtalinadi.

«Fe’lni fe’lga bog‘lash» umumiy vazifasi bilan birlashuvchi shakl tizimi haqida gap borar ekan, bu shaklning to‘liq sirasini yuqoridagi yetti tur bilan cheklasak, sanalgan shakl ichida berilgan *-may, -masdan* shakli bo‘lishli-bo‘lishsizlik kategoriyasi, *-ganda* ko‘rsatkichi esa zamon kategoriyasi unsurining ravishdoshda voqealangan shakli sifatida ravishdosh shakli sirasidan o‘ziga xos o‘rin egallamaydi.

-ganda qo‘shimchali hosilaning mohiyatan ravishdosh ekanligini ilk marta turkolog olim S.N.Ivanov o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida asoslagan edi.[2] Chunki *-ganda* shakli *-gach , -ib* shakli bilan bir xil ma’no va vazifa o‘taydi. Keyinchalik turkiy til morfologiyasini sistemaviy tadqiq qilib, morfologik shaklda sintaktik va ma’noviy omilni farqlagan H.Ne’matov «Sifatdosh harakat nomi + kelishik qo‘shimchasi» qolipli hosilaning ma’no va vazifa jihatidan ravishdoshga teng kelishi haqidagi qonuniyatni asoslagan edi.[3]

-may, -masdan shakli istalgan nutqiy sharoitda deyarli hech qanday ma’no bo‘yog‘isiz o‘rin almasha olganligi sababli, *-masdan* shakli ham «Sifatdosh, harakat nomi + kelishik qo‘shimchasi» qolipi hosilasi sifatida ravishdosh sirisiga kiritiladi[4]:

Topmay qo‘ymayman.
Topmasdan qo‘ymayman.
Ko‘rmay chiqib ketdi.
Ko‘rmasdan chiqib ketdi.

«Fe’lni fe’lga bog‘lash» umumiy vazifasi xususida fikr ketganda, yuqorida sanalgan ravishdosh shakli qatoriga, ravishdoshning «sifatdosh, harakat

[1] Котвич В.В. Исследование по алтайским языкам. Перевод А.И.Толкачева. об. ред. Н.А. Баскакова. – М., 1962, –Б. 221.
[2] Иванов С.Н. К истолкованию категории принадлежности // Сов. тюркология. 1973. -№ 1. –С. 76–78.
[3] Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.: Изд. Фан,1989, –Б. 151].
[4] Кононов А.Н. Опыт реконструкции тюркского деепричастия на -/-п//-б-/-/б/, -/-/пан///-/-бан/, -банн,-/-/ Материалы к сравнительно-исторической грамматике тюркских языков // Вопросы языкознания. 1966, -№ 5. –С. 81–87.

nomi+kelishik qo‘shimchasi» yasalish qonuniyatidan foydalangan va ko‘makchining ma’no va funksiyasiga ko‘ra kelishik kategoriyasi shakliga yaqin turganligiga asoslangan holda *-gandan beri(buyon, boshlab, so‘ng , keyin), -gan sari(hamon), -gandan avval* kabi shaklli hosilaning ham mohiyatan ravishdosh ekanligini anglab olish qiyin emas. «Fe’lni fe’lga bog‘lash» vazifasini bajaruvchi sirasiga kiradigan bu analitik shakl ravishdoshning sintetik shakli bilan ham vazifaviy, ham ma’noviy jihatdan o‘xshashlik va umumiylikka ega. Shaklning umumiy grammatik ma’nosi tavsifini berishda bu yondosh shakl munosabatini e’tiborga olish muhim.

Leksema nutqda voqealanar ekan, uning mazmun plani – semema tarkibi boshqa hodisa – morfologik va sintaktik sath ta’sirida turli o‘zgarishga uchraydi – modifikatsiya qilinadi. Fe’l leksemaning nutqiy reallashuvida sintaktik sath bilan birgalikda fe’lning o‘ziga xos tasniflovchi kategoriyasi – nisbat va fe’l turi kategoriyasi shakli muhim rol o‘ynaydi. Bu sirada o‘zgalovchi kategoriyasi tarkibiy qismi bo‘lmish ravishdosh shaklining fe’l lug‘aviy ma’nosiga ta’siri ayricha.

Ravishdosh ko‘rsatkichining lug‘aviy shakllik tabiati uning umumiy sintaktik mohiyati – «fe’lni fe’lga bog‘lash» vazifasiga monand bo‘lib, bu vazifa fe’lga tobe uzvlik maqomini beradi va, shu bilan birga, uning mazmun strukturasida ham tobelikni ta’minlovchi belgini bo‘rttiradi, ya’ni fe’l tabiatan tobe uzvlikka ixtisoslashgan turkum sirasiga kiruvchi – ravish ma’no va vazifa ottenkasiga ega bo‘ladi.

Alohida ta’kidlash lozimki, ravishdosh shaklining lug‘aviy ma’noga ta’siri nutqiy hodisa bo‘lib, bu ta’sirni leksema sememasiga ta’sir qilish, o‘zgartirish tarzida tushunish yaramaydi. Negaki, ta’sir leksema mazmun strukturasi – sememaning nutqiy ko‘rinishiga kiritilgan o‘zgarish bo‘lib, bunday hodisa xususiyatiga baho berishda nutqiy hodisa xossasidan kelib chiqmoq lozim. Masalan, *sevinib gapirmoq* birikmasidagi «*sevinmoq*» so‘zining ma’no tarkibida «tarz» ma’no ottenkasining vujudga kelishi [*sevin*] leksemasining lisoniy mohiyatiga ta’sir qilmaydi, u o‘z holicha qoladi. Zero, lisoniy birlik barqaror, o‘zgarmas mohiyat.

Har bir ravishdosh shakli fe’l leksemani nutqqa «moslar» ekan, uning voqealanayotgan tajallisini turli tomondan modifikatsiya qiladi. Biroq bu o‘zgarishning barchasi ham integral xossaga ega bo‘lib, uning tavsifi avvalgi bo‘limda umumiy holda zikr etildi. Quyida har bir shaklning so‘z lug‘aviy ma’nosi va sintaktik xususiyatiga ta’siri masalasi birma-bir ko‘rib o‘tiladi.

- *a/ y* shakli. -a/y shakli yakka holda qo‘llanib ravishdoshli birikma hosil qilishi kam uchraydigan hodisa. Yakka holda qo‘llanganda bu shaklli ravishdosh

foilning bir harakatni bajargan holda tezlik bilan ikkinchi harakatni bajarishga o‘tishini ifodalaydi: *Jo‘xori tuyayotgan xotini uning qo‘lidagi tugunni ko‘rib, kelisopni qoya chopdi.*[1] *–a/y* ravishdosh shakli alohida qo‘llanar ekan, tobe fe’l ma’nosidagi «harakat» ma’no bo‘lakchasi «siqilib», bo‘shagan o‘rin «tarz» ma’nosi bilan to‘ldiriladi va bunday fe’l «tarz ma’nosidagi harakat» umumiyligiga ega bo‘ladi. Ammo mazkur shakl hosil qilgan ravishdoshning takroriy holda hokim fe’lga bog‘lanishi nutqda ko‘proq kuzatiladi.

Shakl takroriy ravishdosh hosil qilar ekan, bunday fe’lda «tarz» ma’nosi ham, «harakatning davomiyligi» ma’nosi ham yuzaga chiqadi. Xo‘sh, bunda «davomiylik» ma’nosini ham ravishdosh shakli ta’sirida vujudga kelgan deyishga asos bormi? Yo‘q, albatta. Chunki har qanday fe’l(hatto kesim vazifasida kelganda ham) takroriy qo‘llanar ekan, davomiy harakat/holat anglashiladi. Qiyoslang: *Keyin e n t i k i b-e n t i k i* b yig‘lab yubordi – *Rangi o‘chgan kuyi labi titrab, yuzimga qarab t u r d i-t u r d i-da, Omonni ko‘tarib uyga kirib ketdi* (O‘.Hoshimov). Ayon bo‘ladiki, *-a/y* shaklli takroriy ravishdoshda «davomlilik» ma’no bo‘lakchasi takrorlash ta’sirida tug‘ilgan ma’noviy o‘zgarish bo‘lib, bu ravishdosh ko‘rsatkichining lug‘aviy shakl sifatida fe’l ma’nosiga ta’siri emas. *-a/y* shakli lug‘aviy shakl sifatida o‘zi qo‘shilib kelgan leksema ma’nosiga «tarz» ma’no ottenkasini orttiradi, xolos: 1. *S o‘ r a y-s o‘ r a y Makkani topibdi. 2. T o m a-t o m a ko‘l bo‘lur*(Maqol).

Mavjud grammatikada *-a/y* shaklli qo‘shilmaga nisbatan «..fe’l formasi takrorlanishi bilan ravish yasaladi..» deb quyidagi misol keltiriladi: *"Bozorda qari cholni o‘g‘ri deya tutdi, U r a-s u r a sho‘rlikni* podsho *sari eltdi* (H.Olimjon)".[2] Bizningcha, «*ura-sura*» shakli fe’llikdan tamoman xalos bo‘lgani yo‘q, u ravish(tarz) va fe’l(harakat)lik ma’nosini o‘zida saqlagan ravishdosh shakli.

***-(i)b* shakli.** Ravishdoshning *-(i)b* shakli keyingi fe’ldan oldin yuz bergan harakatni yoxud boshqa qator ma’noni anglatishi bilan ravishdosh shakli sirasida alohida o‘rin tutadi. Bu shakl *-a/y* shakli bilan o‘xshash va farqli jihatga ega. *-a/y* shakli deyarli hamma vaqt takror holda qo‘llanib, u ifodalagan harakat davomlilik bo‘yog‘iga ega bo‘lsa, *-(i)b* shakli bu belgiga nisbatan befarq bo‘lib, ham yakka, ham takror qo‘llanaveradi. Gapda *-(i)b* shaklli ravishdosh takror qo‘llanmaganda ham davomlilik yoki davomsizlik bo‘yog‘iga ega bo‘lishi mumkin: *Xazinachilar sipohlar orqasidan ikki otni ye t a k l a sh i b hudaychi yoniga yetdilar*. Sezilib turibdiki, bu gapda *-(i)b* shaklli ravishdosh takror

[1] Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. Мас.мух. Ғ.А.Абдурахмонов ва бошқ. –Т.: Фан, 1972, –Б. 519.

[2] Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. Мас.мух. Ғ.А.Абдурахмонов ва бошқ. –Т.: Фан, 1972, - Б.535.

qo‘llanmasa-da, tobe fe’l ma’nosidagi harakat «davomiylik» bo‘yog‘iga ega. Bu davomlilik «etaklamoq» fe’lining lug‘aviy ma’nosi ta’sirida voqealanadi. Keltirilgan misolda ravishdosh ifodalagan harakat hokim fe’ldan anglashilgan harakat bilan bir vaqtda yuz bermoqda. Bu shakl yuqorida aytilganidek, davomlilik belgisiga ega bo‘lmasligi ham mumkin. Bunda tobe fe’l hokim fe’l ifodalagan harakat bilan oldinma-keyin(ya’ni ketma-ket) yuz beradi: 1. *Qushbegi yarog‘li yigitlarni q*aytishga *b u yu r i b, gunohkorlarni yuvoshgina qilib o‘z oldiga chaqirdi*(A.Qodiriy). 2. *Oradan uch-to‘rt oyni o‘ t k a z i b bizning Homid Mirzakarim akanikiga sovchi kirgizdi*(A.Qodiriy). 3. *Xo‘rak orasi Otabek Zaynabdan so‘rab, Kumushning uxlab yotganini bildi*. (A.Qodiriy)

-(i)b shakli takror holda qo‘llanish xususiyatiga ham ega bo‘lib, bunday holatda tobe fe’lda «tarz» ma’nosi ham, «harakatning davomliligi» ma’nosi ham yuzaga chiqadi; 1. *Ikkinchi qorovul m o‘ r a l a b-m o‘ r a l a b yo‘lga qaradi*. 2. *Qog‘ozni b u r a b-b u r a b tili bilan bir ho‘llagan edi, papiros tayyor bo‘ldi-qoldi*. Ayrim holda ravishdosh anglatgan harakat-holatning davomiyligi hokim fe’l ifodalagan harakatning o‘zida ham davomlilik belgisi mavjudligini ko‘rsatadi, ya’ni ravishdosh hokim fe’lning ham **lug‘aviy ma’nosiga ta’sir etadi**: *Yaqin orada objuvoz poyko‘pining zarbi yerni s i l k i t i b-s i l k i t i b to‘lqin berar edi*.

-(i)b shaklli ravishdoshda turli nutqiy hosilada hokim fe’ldan anglashilgan harakatdan ilgari yuz berib, uning sodir bo‘lishiga «sabab bo‘lish» ma’nosi ham voqealanishi mumkin: 1. *Shu payt ichkaridan xotinlarning favqulodda qiy-chuv tovushlari e sh i t i l i b, ikkisining ham quloqlari tikkaydi*. 2. *Olimjon gapirganda Zuhra kelinning tirikligini e sh i t i b xursand bo‘lgan edim*.

Ko‘p holda ravishdosh shaklini farqlashda xatolikka yo‘l qo‘yiladi. Mavjud darslik va qo‘llanmada *-(i)b* shaklli ravishdoshning quyidagi qo‘shilma tarkibidagi ko‘rinishi ajratilmay, *-ovlashib* jamlovchi son hosil qiluvchi deb qaraladi.[1] Aslida, bu shakl ikki affiksal morfema - fe’l yasovchi *-lash* va *-(i)b* ravishdosh shaklidan tarkib topgan: - *ikki-ov-lash-ib* - *ikkovlashib bajardik*. - *ovlashib* shakli jamlovchi son hosil qiluvchi tizimida harakat/holat ma’nosiga egaligi bilan o‘rinlasha olmaydi.

Demak, *-(i)b* shakli fe’lni nutqqa kiritar ekan, lug‘aviy shakl sifatida fe’l atash semasi sirasidagi «harakat» ma’no bo‘lakchasining torayishi va uning o‘rniga «tarz», «payt», «sabab» ma’no bo‘yog‘ining tajallilanishiga olib keladi. Ta’kidlash lozimki, asos fe’ldagi «harakat» belgisining «siqilishi» kuchsiz bo‘lib, harakat-holat ma’nosi birdek mutanosiblikda bo‘ladi. Shaklning fe’l atash

[1] Шоабдурахмонов Ш., Аскарова М., Ҳожиев А. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. –Т.: Ўқитувчи, 1980, –Б. 282.

foilning bir harakatni bajargan holda tezlik bilan ikkinchi harakatni bajarishga o‘tishini ifodalaydi: *Jo'xori tuyayotgan xotini uning qo'lidagi tugunni ko'rib, kelisopni qoya chopdi.*[1] *–a/y* ravishdosh shakli alohida qo‘llanar ekan, tobe fe’l ma’nosidagi «harakat» ma’no bo‘lakchasi «siqilib», bo‘shagan o‘rin «tarz» ma’nosi bilan to‘ldiriladi va bunday fe’l «tarz ma’nosidagi harakat» umumiyligiga ega bo‘ladi. Ammo mazkur shakl hosil qilgan ravishdoshning takroriy holda hokim fe’lga bog‘lanishi nutqda ko‘proq kuzatiladi.

Shakl takroriy ravishdosh hosil qilar ekan, bunday fe’lda «tarz» ma’nosi ham, «harakatning davomiyligi» ma’nosi ham yuzaga chiqadi. Xo‘sh, bunda «davomiylik» ma’nosini ham ravishdosh shakli ta’sirida vujudga kelgan deyishga asos bormi? Yo‘q, albatta. Chunki har qanday fe’l(hatto kesim vazifasida kelganda ham) takroriy qo‘llanar ekan, davomiy harakat/holat anglashiladi. Qiyoslang: *Keyin e n t i k i b-e n t i k i* b yig‘lab yubordi – *Rangi o'chgan kuyi labi titrab, yuzimga qarab t u r d i-t u r d i-da, Omonni ko'tarib uyga kirib ketdi* (O‘.Hoshimov). Ayon bo‘ladiki, *-a/y* shaklli takroriy ravishdoshda «davomlilik» ma’no bo‘lakchasi takrorlash ta’sirida tug‘ilgan ma’noviy o‘zgarish bo‘lib, bu ravishdosh ko‘rsatkichining lug‘aviy shakl sifatida fe’l ma’nosiga ta’siri emas. *-a/y* shakli lug‘aviy shakl sifatida o‘zi qo‘shilib kelgan leksema ma’nosiga «tarz» ma’no ottenkasini orttiradi, xolos: 1. *S o ‘ r a y-s o ‘ r a y Makkani topibdi. 2. T o m a-t o m a ko'l bo'lur*(Maqol).

Mavjud grammatikada *-a/y* shaklli qo‘shilmaga nisbatan «..fe’l formasi takrorlanishi bilan ravish yasaladi..» deb quyidagi misol keltiriladi: *"Bozorda qari cholni o'g'ri deya tutdi, U r a-s u r a sho'rlikni* podsho *sari eltdi* (H.Olimjon)".[2] Bizningcha, «*ura-sura*» shakli fe’llikdan tamoman xalos bo‘lgani yo‘q, u ravish(tarz) va fe’l(harakat)lik ma’nosini o‘zida saqlagan ravishdosh shakli.

***-(i)b* shakli.** Ravishdoshning *-(i)b* shakli keyingi fe’ldan oldin yuz bergan harakatni yoxud boshqa qator ma’noni anglatishi bilan ravishdosh shakli sirasida alohida o‘rin tutadi. Bu shakl *-a/y* shakli bilan o‘xshash va farqli jihatga ega. *-a/y* shakli deyarli hamma vaqt takror holda qo‘llanib, u ifodalagan harakat davomlilik bo‘yog‘iga ega bo‘lsa, *-(i)b* shakli bu belgiga nisbatan befarq bo‘lib, ham yakka, ham takror qo‘llanaveradi. Gapda *-(i)b* shaklli ravishdosh takror qo‘llanmaganda ham davomlilik yoki davomsizlik bo‘yog‘iga ega bo‘lishi mumkin: *Xazinachilar sipohlar orqasidan ikki otni ye t a k l a sh i b hudaychi yoniga yetdilar*. Sezilib turibdiki, bu gapda *-(i)b* shaklli ravishdosh takror

[1] Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. Мас.муҳ. Ғ.А.Абдурахмонов ва бошқ. –Т.: Фан, 1972, –Б. 519.

[2] Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. Мас.муҳ. Ғ.А.Абдурахмонов ва бошқ. –Т.: Фан, 1972, -Б.535.

qo‘llanmasa-da, tobe fe’l ma’nosidagi harakat «davomiylik» bo‘yog‘iga ega. Bu davomlilik «etaklamoq» fe’lining lug‘aviy ma’nosi ta’sirida voqealanadi. Keltirilgan misolda ravishdosh ifodalagan harakat hokim fe’ldan anglashilgan harakat bilan bir vaqtda yuz bermoqda. Bu shakl yuqorida aytilganidek, davomlilik belgisiga ega bo‘lmasligi ham mumkin. Bunda tobe fe’l hokim fe’l ifodalagan harakat bilan oldinma-keyin(ya’ni ketma-ket) yuz beradi: 1. *Qushbegi yarog'li yigitlarni q*aytishga *b u yu r i b, gunohkorlarni yuvoshgina qilib o'z oldiga chaqirdi*(A.Qodiriy). 2. *Oradan uch-to'rt oyni o' t k a z i b bizning Homid Mirzakarim akanikiga sovchi kirgizdi*(A.Qodiriy). 3. *Xo'rak orasi Otabek Zaynabdan so'rab, Kumushning uxlab yotganini bildi.* (A.Qodiriy)

-(i)b shakli takror holda qo‘llanish xususiyatiga ham ega bo‘lib, bunday holatda tobe fe’lda «tarz» ma’nosi ham, «harakatning davomliligi» ma’nosi ham yuzaga chiqadi; 1. *Ikkinchi qorovul m o ' r a l a b-m o ' r a l a b yo'lga qaradi.* 2. *Qog'ozni b u r a b-b u r a b tili bilan bir ho'llagan edi, papiros tayyor bo'ldi-qoldi.* Ayrim holda ravishdosh anglatgan harakat-holatning davomiyligi hokim fe’l ifodalagan harakatning o‘zida ham davomlilik belgisi mavjudligini ko‘rsatadi, ya’ni ravishdosh hokim fe’lning ham **lug‘aviy ma’nosiga ta’sir etadi**: *Yaqin orada objuvoz poyko'pining zarbi yerni s i l k i t i b-s i l k i t i b to'lqin berar edi.*

-(i)b shaklli ravishdoshda turli nutqiy hosilada hokim fe’ldan anglashilgan harakatdan ilgari yuz berib, uning sodir bo‘lishiga «sabab bo‘lish» ma’nosi ham voqealanishi mumkin: 1. *Shu payt ichkaridan xotinlarning favqulodda qiy-chuv tovushlari e sh i t i l i b, ikkisining ham quloqlari tikkaydi.* 2. *Olimjon gapirganda Zuhra kelinning tirikligini e sh i t i b xursand bo'lgan edim.*

Ko‘p holda ravishdosh shaklini farqlashda xatolikka yo‘l qo‘yiladi. Mavjud darslik va qo‘llanmada *-(i)b* shaklli ravishdoshning quyidagi qo‘shilma tarkibidagi ko‘rinishi ajratilmay, *-ovlashib* jamlovchi son hosil qiluvchi deb qaraladi.[1] Aslida, bu shakl ikki affiksal morfema - fe’l yasovchi *-lash* va *-(i)b* ravishdosh shaklidan tarkib topgan: - *ikki-ov-lash-ib* - *ikkovlashib bajardik.* - *ovlashib* shakli jamlovchi son hosil qiluvchi tizimida harakat/holat ma’nosiga egaligi bilan o‘rinlasha olmaydi.

Demak, *-(i)b* shakli fe’lni nutqqa kiritar ekan, lug‘aviy shakl sifatida fe’l atash semasi sirasidagi «harakat» ma’no bo‘lakchasining torayishi va uning o‘rniga «tarz», «payt», «sabab» ma’no bo‘yog‘ining tajallilanishiga olib keladi. Ta’kidlash lozimki, asos fe’ldagi «harakat» belgisining «siqilishi» kuchsiz bo‘lib, harakat-holat ma’nosi birdek mutanosiblikda bo‘ladi. Shaklning fe’l atash

[1] Шоабдурахмонов Ш., Аскарова М., Хожиев А. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. –Т.: Ўқитувчи, 1980, –Б. 282.

semasiga ta'siri o'z navbatida vazifa semasida ham o'zgarish keltirib chiqaradi - asos fe'lda tobelik belgisi kuchayib, «hollik» vazifa semasi orttiriladi: 1.*Fojianing yigirmanchi kunida yana xatmi qur'on q i l i n i b, butun yurtga osh berildi.* (A.Qodiriy)]. 2. *Fotiha o' q i l i b kuyov qaynonaga uzr aytdi*(A.Qodiriy). 3.*Ensam q o t i b b u r i l i b ketayotgan edim, birov bilagimdan ushladi.*

***-gach(-kach,-qach)* shakli.** *-gach(-kach,-qach)* ko'rsatkichi bilan shakllanadigan ravishdoshdan anglashilgan harakatda uning hokim fe'l ifodalagan harakatga nisbatan tugallanganligi va bu tugallanganlikning keyingi harakat uchun boshlanish nuqta ekanligi uqiladi.

-gach shakli fe'lni nutqqa olib kirar ekan, lug'aviy shakl sifatida asos fe'ldagi vazifa va atash semasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bunday shaklli ravishdoshda paytga munosabat belgisi ravshan sezilib turadi: 1. *Ko'zi uyquga b o r g a ch, faqat shuni kutib o'tirgan Zaynab qo'lida yelpig'ichi bilan yostiq yoniga keldi.* (A.Qodiriy.). *Otabek nomini e sh i t g a ch, sekingina ko'tarilib qo'ydi.*

-gach shaklli ravishdosh bilan hokim fe'lning foili bitta ham, har biriniki alohida-alohida ham bo'lishi mumkin. Bu holat shaklning lug'aviy ma'noni qay darajada modifikatsiyalashiga ta'sir qilmaydi. Ayrim holda ravishdosh «sabab» ottenkasiga ham ega bo'lishi mumkin: 1. E*rkalatgach onasi, taltayadi bolasi*(Maqol). 2. *Kumush o' t i r a v ye r m a g a ch, Oftob oyim qizishdi.* (A.Qodiriy.)

Ma'lum bo'ladiki, *-gach* shakli lug'aviy shakl hosil qiluvchi sifatida asos fe'ldagi «harakat» atash semasiga jiddiy ta'sir ko'rsatib, fe'lni «payt», ayrim holatda «sabab» ma'no bo'yog'i bilan nutqda voqealantiradi. Atash semasidagi o'zgarish vazifa semasiga ham o'z ta'sirini o'tkazib, fe'l gapda kesim emas, hol vazifasida tobe uzv sifatida ishtirok etadi. Ammo takror bo'lsa-da, ta'kidlab o'tish lozimki, ravishdosh fe'lning nutqda voqealanish shakli bo'lganligi sababli, asos fe'l fe'llikdan tamoman o'zgalanmaydi. Alohida, nutqdan tashqari holatda olingan ravishdosh mutlaq zamon ma'nosiga ega emas, u o'zi orqali ifodalanayotgan harakatning paytini keyingi kesimlik yoki boshqa shakldagi fe'ldan anglashilayotgan zamonga nisbatan belgilaydi.

***-may/masdan* shakli.** *-may* shakli *-a/y* va *-(i)b* shaklining bo'lishsiz ko'rsatkichi bo'lib, u nutqiy sharoit talabi bilan har ikki shakl o'rnida qo'llana oladi. *-a/y* shakli ko'p holda takror qo'llanganligi bois harakatning davomiyligini bo'rttiradi, *-may* shakli esa sodir bo'lmagan harakatni ifodalaganligi sababli, davomli yoki davomsizlikka ishora qilmaydi. Ayrim o'rindagina bu shakl takror ishlatilib, bo'lishsizlikning davomiyligi bo'yog'iga ega bo'lishi mumkin. Misol:

1. I n d a m a y-i n d a m a y boshiga chiqarib oldi. Bunday holda hokim fe'l, albatta, bo'lishli shaklda bo'ladi. Alohida holda qo'llanganda *-may* shaklida ko'proq *-(i)b* shakli grammatik ma'nosiga xos xususiyatni ko'rish mumkin. Qiyoslang: *kulib gapirdi – kulmay gapirdi.*

-may/masdan shakli fe'lni nutqqa olib kirar ekan, asos fe'ldagi "harakat" ma'nosining "torayishi" va "tarz" ma'nosining "kengayishi" kuzatiladi. Nutqiy qurshov ta'sirida bu shaklli ravishdosh "tarz"(1), "sabab"(2), "payt"(3) kabi ma'no ottenkasiga ega bo'lishi mumkin: 1. *U gapirtirishga ham q o' y m a y qo'limdan sudrab ketdi. I n d a m a y yerga qarab o'tiraverdim. Chiroqni o'chirdimu, anchagacha u x l o l o l m a y yotdim. Orqamga q a r a m a y yugurdim.* 2. *Qanotini qush q o q m a y i n, Uyg'onar el polvonlari.* 3. *Qo'rboshi nihoyat ch i d o l m a y, o'rnidan turdi.*

-masdan shakliga mavjud grammatikada ravish yasovchi sifatida qaralib, shunday izohlanadi: "Bo'lishsiz formadagi sifatdosh chiqish kelishigidagi ravishga aylanadi: *shoshmasdan, indamasdan, charchamasdan, qaramasdan..*"[1] Ko'rinadiki, bu shaklning bo'lishsiz ravishdosh shakli ekanligi fahmlanmay, so'zshaklga nisbatan leksema sifatida qaralmoqda.

***-gani/ gali* shakli.** *-gani/gali* shaklli ravishdosh ma'nosi asosida hokim fe'ldan anglashilgan harakat bilan bir vaqtda sodir bo'luvchi harakatni ifodalash yotadi. Bunday shaklli ravishdosh va hokim fe'lning foili har doim bitta bo'ladi: *...Ra'no kelinoyimning onasini k o' r g a n i bordik, deb bahona qilardik.*

-gani shaklli ravishdoshda boshqa ravishdosh shaklidan farqlanib "payt" ma'nosiga ishora qilinmaydi. Ravishdoshning bu shaklida fe'lga modal bo'yoq berish ma'nosi xos bo'lib, u bajarilmagan harakatni ifodalash ma'nosi bilan mustahkamlanadi.

-gani/gali shaklli ravishdosh nutqda voqealanar ekan, asos fe'l atash semasidagi "harakat" belgisi "kuchsizlanadi" va uning hisobiga "tarz/maqsad" ma'no bo'yog'i yuzaga chiqadi: 1. *– Sizdan o'zimni ch a q d i r g a l i kelgan emasman! – dedi yig'lagan kuyi Zaynab...* (A.Qodiriy.). 2. *K o' r g a n i keldingmu yor, K u y d i r g a n i keldingmu yor*(Qo'shiq).

***-guncha(-kuncha-quncha)* shakli.** *-guncha* shaklli ravishdosh hokim fel ifodalagan harakatning tugash chegarasini ifodalaydi. Bunday shaklli ravishdosh va hokim felning foili ko'p holda boshqa-boshqa bo'ladi: 1.*Arava omborga b o r i b-k ye l g u n ch a, lavlagini xirmon qilib o'yib tashlaymiz*(O'.Hoshimov). Ba'zan tobe fe'l-ravishdosh va hokim fe'lning foili bitta bo'lishi ham mumkin:

[1] Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. Маъ.мух. Г.А.Абдурахмонов ва бошк. Т.: Фан, 1972. – Б.536].

U to s o g' a y m a g u n ch a uydan chiqmadi. Ko'rinib turibdiki, bunda -*guncha* ko'rsatkichi bo'lishsiz shaklda bo'ladi.

-*guncha* ko'rsatkichi lug'aviy shakl sifatida fe'lni nutqqa olib kirar ekan, asos fe'ldagi atash semasi – "harakat" ma'nosiga sezilarli ta'sir etib, uni kuchsizlantiradi va "payt" ma'nosini yuzaga chiqaradi. Boshqa ravishdosh shakli singari -*guncha* shakli ham nisbiy ma'noga ega bo'lib, u voqealantirgan "payt" ma'nosi hokim fe'lga nisbatan belgilanadi.

-*guncha* shakli ayrim o'rinda o'zi shakllantirgan so'zshakl ma'nosiga «payt» bo'yog'ini berish vazifasidan farqli holda, turli nutqiy qurshov ta'sirida fe'l o'zakdagi «harakat» ma'nosini kuchsizlantirib, "qiyos, o'xshatish" ma'no ottenkasini ham yuzaga chiqaradi. Aniqrog'i, fe'l leksema nutqda qiyoslash ma'nosi bilan voqealanadi: 1. *O'zga yurtda shoh b o' l g u n ch a, o'z yurtingda gado bo'l. 2. Menga o' r g a t g u n ch a o'zing o'rgan. Berib yaxshi b o' l g u n ch a bermay yomon bo'l (Maqol).* Misoldan ko'rinib turibdiki, mazkur shaklli ravishdosh bilan hokim fe'lning foili - bajaruvchisi bitta ham, boshqa-boshqa ham bo'lishi mumkin. -*guncha* shakli "qiyoslash" bo'yog'iga ega bo'lganda - *gandan ko'ra* analitik ravishdosh shakli bilan sinonimlik hosil qiladi.

-*guncha* shaklli ravishdoshda davomli harakatning so'nggi chegarasi - "payt" ma'nosi, hokim fe'ldan anglashgan harakatning amalga oshishi uchun bajarilishi "shart" bo'lgan ma'no, shuningdek, "qiyos, o'xshatish" ma'nosi ham nutq talabiga ko'ra tajallilanishi mumkin: *1. Ra'noni egasiga topshirmaguncha, u quyilmaydiganga o'xshaydi (A.Qodiriy.).* 2. *Tong o t k u n ch a qishloqqa yetib olish kerak. 3. Quyosh ch i q q u n ch a ko'chalar supurib bo'lindi. 4. Bahor kelguncha, urug'likni taxlab qo'yish kerak. 5. Burnimni qonatgan anovi Qo'zivoyning xumdek boshini yo r m a g u n ch a tinchimayman. 6.Yomon bilan yu r g u n ch a, yolg'iz yurgin o' l g u n ch a(Maqol).*

***-ganda* shakli.** -*ganda* shakli zamon ma'nosiga ega bo'lgan -*gach* va -*guncha* shakli qatorida alohida o'rin tutadi. Bu shakl -*gan* va -*da* shakli ma'nosining qo'shilishidan hosil bo'lgan. Bunday shaklli ravishdoshda harakatning biror chegarasi emas, balki uning sodir bo'lish payti ifodalanadi. -*ganda* shaklli qurilmada ravishdosh va hokim fe'l ifodalagan harakatning davomiyligi belgisi va uning zamonda bir-biriga to'g'ri kelishi ham o'ziga xos. Agar ravishdosh davomli harakat fe'li bilan ifodalansa, hokim fe'l ifodalagan harakat uning biror nuqtasiga, zamondagi ma'lum "kesma"siga to'g'ri keladi(*Men bog'da yurganda u kelgan edi).* Hokim fe'l davomli fe'ldan bo'lsa, ravishdosh ifodalagan harakat hokim fe'ldan anglashilgan harakatining ma'lum bir qismiga to'g'ri keladi(*Men kelganimda u bog'da yurgan edi*). Ravishdosh ham, hokim fe'l ham davomli harakatni ifodalovchi fe'l bilan ifodalangan

bo'lsa, uning bo'lib o'tish payti bir-biriga to'g'ri keladi(*Men uxlayotgada u yurgan edi).*

Yuqoridagidan xulosa qilish mumkinki, -*ganda* shakli lug'aviy shakl sifatida fe'lni nutqqa olib kirar ekan, asos fe'ldagi "harakat" ma'nosi "siqilib", uning o'rnini "payt" ma'no bo'lakchasi egallaydi: 1. *Ayni o'rik g u l l a g a n d a qora sovuq bo'lib hammayoqni qaqshatib ketdi* (O'.Hoshimov.). 2. *Biroq arava yaqinroq k ye l g a n d a poxol shlyapasini bostirib olgan semiz odamni ilg'adimu hammasini angladim* (O'.Hoshimov.).

-*ganda* shakli bo'lishsizlik ko'rsatkichi bilan qo'llanganda, ya'ni bo'lishsiz ko'rinishda bo'lganda, asos fe'lda «payt» ma'nosiga qaraganda «shart» ma'nosi bo'yog'i ko'proq voqealanadi: 1. *Balki Munavvar b o' l m a g a n d a Sherzod bilan urishib qolmasmidik*(O'.Hoshimov.). *2. Yo'ldoshxon qo'limdan tutib q o l m a g a n i d a otardim* (O'.Hoshimov.)].

-*ganda* shaklidagi «sodir bo'lib o'tish payti» ma'nosi fe'l bir-birini taqozo etuvchi harakatni ifodalaganda ham «shart» ma'nosi bilan qorishadi: *Avgust oxida planni b a j a r g a n i n g i z d a salom beramiz*(O'.Hoshimov.).

***-gancha* shakli.** Ravishdosh hosil qiluvchi bu shakl adabiyotlarda deyarli qayd etilmaydi.[1] Ko'p holda unga - *guncha* shaklining varianti sifatida qaraladi. Ammo - *gancha* shaklining ma'noviy xususiyati unga mustaqil ravishdagi shakl sifatida qarashni talab etadi. Yuqorida ko'rib o'tilganidek, -*guncha* shakli lug'aviy shakl sifatida fe'lga «payt», «shart», «qiyos» ottenkasini bersa, -*gancha* shakli asos fe'lni «tarz» ma'nosini berish bilangina nutqqa olib kiradi. Taqqoslang: *Shuni vrach q i l g u n ch a oyog'i olti, qo'li yetti bo'lib yugurdi-ku, «ayachasi!»* (O'.Hoshimov.). - *Yerda cho'kkalab o' t i r g a n ch a «men sening onangman» deb yig'lagan xotin xayolimdan ketmasdi*(O'.Hoshimov.). *Hatto boyadan beri o'sha tomonga intilayotgan cholim ham pushtaga ch o' k k a l a g a n ch a og'ir kiprik qoqdi. U qirg'oqdagi kesaklarni t a t a l a g a n ch a emaklab yuqoriga chiqa boshladi*(O'.Hoshimov.).

-*gancha* shaklli ravishdoshning o'ziga xos xususiyatidan biri shuki, gapda ravishdosh va hokim fe'lning foili har doim bitta bo'ladi va bu shakl o'zi shakllantirayotgan so'zdagi «harakat» ma'nosini kuchsizlantirib, nutqda «tarz» ma'no bo'yog'ini orttirgan holda voqealantiradi: *Jinnidek ch i n q i r g a n ch a zakunchiga talpindim*(O'.Hoshimov.).

Ravishdosh shakli tizimining lug'aviy shakl hosil qiluvchilik xususiyatini ko'rib o'tib, uning ma'noviy mohiyatini umumlashtirgan holda quyidagicha xulosalaymiz.

[1] Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. Мас.муҳ. Г.А.Абдурахмонов ва бошқ. –Т.: Фан, 1972, –Б. 141.

Ravishdosh garchi umumiy, barqaror sintaktik mohiyatga ega bo'lsa-da, o'zaro o'zga kategoriya tajallisi asosida xilma-xil ma'noviy paradigmatik munosabatda bo'ladi. Xususan, *-gani* va *-guncha* shakli hokim fe'l ifodalagan harakatdan keyin yuz beruvchi harakatni ifodalaydigan ko'rsatkich qatorini hosil qiladi. Shu bilan birga, u o'ziga xos xususiyati asosida teng qiymatli ziddiyat hosil qiladi. Aniqrog'i, *-gani* shakli o'zida mayl kategoriyasi tajallisi kuchliligi hamda bajaruvchining yakkaligi bilan bunga salbiy munosabatda bo'lgan va o'zida zamon kategoriyasi tajallisi kuchli darajada mavjud bo'lgan *-guncha* shakliga qarama-qarshi turadi.

-gach va *(-i)b* shakli tobe va hokim fe'l ifodalagan harakatning bajaruvchisi bilan o'zaro zidlanadi. Tobe uzv *-(i)b* ko'rsatkichi bilan shakllanganda, har ikkala fe'l subyekti bitta bo'ladi: *Salim xatni o'qib o'ylanib qoldi.* Tobe o'zv *-gach* ko'rsatkichi bilan shakllanganda tobe va hokim fe'l bajaruvchisi bitta ham(*Salim xatni o'qigach, o'ylanib qoldi*), boshqa-boshqa ham(*Salim xatni o'qigach, halim o'ylanib qoldi)* bo'lishi mumkin. Ko'rinadiki, *Salim xatni o'qib, o'ylanib qoldi* gapida *o'qimoq* va *o'ylanmoq* fe'lining bajaruvchisi boshqa-boshqa bo'lishi mumkin emas. *-gach* shaklida bunga to'siq bo'lish imkoniyati yo'q.

Bunday ziddiyatli nuqtani har bir shakl misolida ko'plab keltirish mumkin. Ortiqcha tafsilotdan qiyilib, ravishdosh shakli paradigmatik munosabatini yaxlitlik nuqtayi nazaridan xulosalashga harakat qilamiz.


«Fe'lni fe'lga bog'lash» umumiy grammatik ma'nosi ostida birlashgan shakl dastavval «boshqaruvchi fe'l ifodalagan harakat paytiga munosabat» belgisi ostida privativ ziddiyat hosil qiladi. *-a / y, -(i)b, -may / masdan, -gancha, -gali* shaklida paytga munosabat belgilanmagan bo'lib, u imkoniyat sifatidagina mavjud bo'ladi: *1. So'z l a y - s o' z l a y gapchil bo'larsan, I sh l a y - i sh l a y epchil bo'larsan. 2. T o m a - t o m a ko'l bo'lur*(Maqol). 3.*Oqsoqol t a y i n l a b - t a y i n l a b aytuvdilar*(O'.Hoshimov.). 4. *Loyga b ye l a n i b ketmon chopgandan ko'ra, tabelchi bo'lsangiz yomonmi!...* (O'.Hoshimov.). 5.*Bobom saharlab eshak m i n i b kolxozga chiqib ketadi*(O'.Hoshimov.). 6.*Uning esiga haligi mish-mishlar t u sh i b, yuragi bigiz sanchganday og'ridi.* 7. *T ye r g a m a y - t ye r g a m a y boshiga chiqarib oldi.* 8. *Qanotini qush q o q m a y i n uyg'onar el polvonlari.* 9. *Etigini t o p o l m a y kalovlanib turdi...* (O'.Hoshimov.). 10. *Oyim yelkamdan q u ch o q l a b nafasi g' i j i l l a g a n ch a qulog'imga shivirlaydi* (O'.Hoshimov.). 11. *Oyim h a r s i l l a b nafas o l g a n ch a qorong'ida tugunchani titkilaydi* (O'.Hoshimov.). 12. *Xatni chala t a sh l a b, chiroq k o' t a r g a n ch a ayvonga chiqdim*(O'.Hoshimov.). 13. *Toshkentdan*

ataylab k o' r g a n i borsam, Olimjon akam xursand bo'ladi(O'.Hoshimov.). 14. *Sizni k o' r g a n i keldim*(O'.Hoshimov.).

-gach,-guncha,-ganda shaklida bu belgiga – paytga munosabat aniq ifodalangan bo'ladi: 1. *Kavshandozda bir poy kalishimni ye ch a yo t g a n i m d a munkib ketdim*(O'.Hoshimov.). 2. *O'n qadamcha q o l g a n d a sharpa to'xtadi*(O'.Hoshimov.). 3. *Biz chiqqan arava No'g'ayqo'rg'ondan Ko'tarmaga ye t g u n ch a qorong'u tushdi*(O'.Hoshimov.). 4. *Otasi k ye l a v ye r m a g a ch, bolalar vahimaga tusha boshladilar.*


-a/y, -(i)b, -gancha, -may/masdan, -gani shakli "boshqariluvchi va boshqaruvchi fe'l ifodalagan harakatning bir vaqtdagiligi" belgisi asosida ziddiyatda bo'ladi. Bu ziddiyatning ramziy tasviri quyidagi ko'rinishda aks etadi:

"boshqariluvchi va boshqaruvchi fe'l ifodalagan harakatning bir vaqtdaligi"



Belgiga ijobiy munosabati bilan *-gancha* va *a/y* shakli unga betaraf munosabatli *-(i)b* shakli bilan privativ, bu belgiga salbiy munosabatdagi *-gani* shakli bilan ekvipolent ziddiyat hosil qiladi. *-gani* shakli "harakatning har vaqtdaligi" belgisi bilan *–a/y* va *-gancha* shakliga qarama-qarshi turadi.

-a/y va *-gancha* shakli esa o'zaro "ravishdosh ifodalagan harakatning takroriyligi" belgisi asosida zidlanib, bu ziddiyat privativ xarakterda bo'ladi:



Ravishdosh paradigmasining ikkinchi guruh tashkil etuvchisi bo‘lgan *-gach, -guncha, -ganda* ko‘rsatkichi «harakat chegarasiga munosabat» belgisi asosida qarama-qarshi turadi. Bu privativlik belgisi *-gach, -guncha* shaklida ijobiyligi, *-ganda* shaklida betarafligi bilan xarakterlanadi. Chunki *-ganda* shakliga, asosan, harakatning payt fonini ifodalash xosdir, ayrim holda harakat chegarasiga munosabat ham kuzatiladi.

Ko‘rinadiki, ravishdosh shakli bir umumiy belgi (kuchli sintaktik imkoniyat – “fe’lni fe’lga bog‘lash” belgisi) asosida birlashib, ravishdoshning zotiy mohiyatiga daxldor bo‘lmagan belgi asosida turli xil ziddiyatli munosabatda bo‘ladi. Shu bois zotiy mohiyatning parchalanishi asosida emas, balki zotga daxldor bo‘lmagan xossa asosida farqlanishi ravishdosh shaklini yaxlit morfologik paradigmaga - kategoriyaga birlashtirish uchun mone’lik qiladi va barcha shaklni bitta ravishdoshning qorishiq ma’no bilan murakkablashgan turli ko‘rinishi sifatida qarashga asos bo‘ladi.

Sifatdosh. Oldingi bo‘limda aytilganidek, leksema nutqda voqealanar ekan, uning atash va vazifa semasi voqealanishida turli morfologik va sintaktik qurshov ta’sirida sezilarli o‘zgarish kuzatiladi. Fe’l leksemaning nutqiy reallashuvida asosiy o‘rin tutuvchi tasniflovchi o‘zgalovchi kategoriyasi a’zosidan biri bo‘lmish sifatdosh shakli fe’lning mazmun plani – semema tarkibiga jiddiy ta’sir etishi bilan ajralib turadi.

Sifatdosh nokesimlik shakli bo‘lib, fe’lni nutqqa voqealantirar ekan, uni o‘zidan keyingi ot(ba’zan fe’l)ga bog‘lashdek sintaktik va o‘zi shakllantirayotgan fe’lga sifatlik belgisini berishdan iborat morfologik ma’noni namoyon qiladi.

Sifatdosh ko‘rsatkichining lug‘aviy-sintaktik shakllik tabiati uning umumiy sintaktik mohiyati – fe’lni ot(yoki fe’l)ga tobe uzv sifatida bog‘lash va shu bilan bog‘liq holda kelib chiqqan ma’noviy xususiyat – fe’l anglatgan harakat va harakat natijasini narsa-predmetning belgisi sifatida nutqda voqealantirishdan iborat.

Sifatdosh shaklining so‘z lug‘aviy ma’nosiga ta’siri nutqiy hodisa bo‘lib, istalgan fe’l nutq tarkibida kirgandagina sifatdoshlik xususiyatini namoyon qiladi. Shaklning lug‘aviy ma’noga ta’siri leksema semasiga ta’sir qilish degan gap emas. Masalan, *o‘qigan bola* birikmasidagi “o‘qimoq” so‘zi ma’nosida orttirilgan “belgi” ottenkasi *o‘qi* leksemasining lisoniy mohiyatini o‘zgartirmaydi.

Lug‘aviy ma’noga ta’sir o‘zgalovchi kategoriyasining barcha shaklida birdek emas. Ravishdosh o‘zgalanish jarayonida fe’lning lug‘aviy ma’nosini kuchli o‘zgartirmay, unga, asosan, tobelovchi sintaktik vazifa yuklasa, sifatdosh

fe’ldagi dinamik belgini barqarorlashtirib, uning lug‘aviy ma’nosini qisman bo‘lsa-da, o‘zgartiradi. Shuning uchun ayrim nazariyotchi sifatdoshni alohida so‘z turkumi sifatida qaraydi.[1]

O‘zbek tilshunosligida sifatdosh shakli sifatida quyidagi ajratiladi:

-gan
-(a)r
-(u)vchi
-mish
-ajak
-asi(gusi).

Tahlilni har bir shaklning lug‘aviy ma’no va sintaktik imkoniyatga ta’siri misolida olib boramiz.

***-(a)r* shakli.** *-(a)r* shakli sifatdosh hosil qiluvchi ichida kammahsulligi bilan ajralib turadi. -(a)r shakliga darslik va adabiyotda umumzamon, doimiylik ma’nosini ifodalovchi shakl sifatida qaraladi. O‘zbek tilining akademik grammatikasida bu shakl haqida shunday deyiladi: “Sifatdosh yasovchi affiksdan biri *-(a)r* (bo‘lishsizi-*mas*) affiksi. Tarixan *-(a)r* affiksi yordamida yasaluvchi forma juda ko‘p vazifada qo‘llangan. Shuningdek, hozirgi o‘zbek tilidagi *keladi, ishlaydi* va *keladigan, ishlaydigan* formasiga xos ma’noni ifodalash uchun ham *-(a)r* affiksi bilan yasaluvchi forma qo‘llangan. Umuman, *-(a)r* affiksi yordamida sifatdosh yasalishi juda passiv hodisa. Bu affiks bilan yasalgan ayrim so‘z fe’ldan ko‘ra sifatga ko‘proq yaqin turadi: *o q a r suv, s o ‘ n m a s hayot* kabi. Hozirgi kelasi zamon fe’lining *keladi, ishlaydi* va *keladigan, ishlaydigan* tipidagi formasi kelib chiqqach, *-(a)r* affiksi yordamida yasaluvchi forma hozirgi kelasi zamon fe’li formasiga aylangan». [2]

Bu shaklning bo‘lishsiz ko‘rinishi *-mas* ayrim o‘rinda tamoman yangi leksema hosil qiluvchanlik xususiyatiga ega bo‘ladi, ya’ni so‘z lug‘aviy ma’nosiga ta’siri «jiddiylashadi». Akademgrammatikada sifat yasovchi sanab o‘tilar ekan, «kammahsul yasovchi» sifatida *(-mas)* shakli ham berilib quyidagi keltiriladi: *o‘tmas (pichoq), indamas (odam), bo‘lar-bo‘lmas (gap), bilmas (bola), tinib-tinchimas(kishi).*[3] O‘zbek tili grammatikasi bo‘yicha yaratilgan boshqa asosiy darsliklarda ham[4] bu shakl «asli sifatdosh yasovchi bo‘lib, hozirgi

[1] Мухторов Ж.З. История развития причастных форм в узбекском языке: Автореф. дисс... док. филол. наук. –Т., 1971; Смирницкий А.И. Морфология английского языка. –М.: Изд. лит. по иностр. яз., 1959.
[2] Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. Мас.муҳ. Ғ.А.Абдураҳмонов ва бошқ. –Т.: Фан, 1972, –Б. 514.
[3] Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. Мас.муҳ. Ғ.А.Абдураҳмонов ва бошқ. –Т.: Фан, 1972, –Б. 284.
[4] Шоабдураҳмонов Ш., Аскарова М., Ҳожиев А. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. –Т.: Ўқитувчи, 1980. –Б. 191.

o'zbek tilida *-(a)r, -mas* affiksi yordamida sifatdosh yasalishning passivlashib ketishi natijasida, mazkur affiks yordamida sifat yasalishi aktivlashib bormoqda» deb izohlanadi.[1]

Akademgrammatikaning va yuqorida aytilgan darslikning «Sifatdosh» bahsida esa *-(a)r* shaklining bo'lishsiz ko'rinishi deb *-mas* shakli ko'rsatilib, misol tariqasida *so'nmas hayot* birikmasi berilgan. Xo'sh, bu shakl asli sifat yasovchimi yoki sifatdosh hosil qiluvchimi degan savolning tug'ilishi tabiiy. Chunki *o'tmas pichoq* va *so'nmas hayot* birikmasining orasida deyarli hech qanday tafovut yo'q ekanligini sezish qiyin emas. Har ikkala shaklda ham harakat ma'nosiga qaraganda belgi ma'nosi ustunlik qilmoqda. Aniqrog'i, har ikki birikmadagi *-mas* shaklining lug'aviy ma'noga ta'siri birdek kuchli bo'lib, bu shakl lug'aviy shakl yasovchilikdan ko'ra, yangi leksema yasovchilikka yaqin turadi. Ayrim o'rinda sifatdoshning so'zshakl holida boshqa so'z turkumiga ko'chishi yuz beradi. hozirda ot turkumiga mansub *chopar, kallakesar, beshiktervatar* kabi birikuv tarixan sifatdosh shakli bo'lib, uni *-(a)*r shaklining lug'aviy ma'noga ta'siri kuchayishi natijasida so'z yasovchilik kasb etishi deb izohlash mumkin. Yuqoridagidan kelib chiqib, *-mas* va uning bo'lishli *-(a)r* shaklini tamoman so'z yasovchi sirasiga kiritib yuborish mumkinmi degan o'rinli savol tug'iladi. Nutqimizda qo'llanuvchi «*K ye t a r odamga yo'l yaxshi», «O' l a r ho'kiz boltadan qaytmas», «A y t a r gapni ayt, a y t m a s gapdan qayt», «Mol t o p m a s yigit bo'lmas, o'g'il t u g' m a s ayol bo'lmas»* kabi maqol va aforizm tarkibidagi. shuningdek, jonli so'zlashuvdagi «*Opamning kelar vaqti yaqinlashgan edi», «dushanbaga o' t a r kechasi», «giyoh u n m a s joy»* kabi birikmadagi mazkur shaklning so'z yasash emas, lug'aviy shakl yasashga moyilligi aniq sezilib turibdi.

Demak, *-(a)r* va uning bo'lishsiz ko'rinishi bo'lgan *-mas* shakli hozirda so'z lug'aviy ma'nosiga ta'siri doirasiga ko'ra ayrim o'rinda so'z yasovchi, ayrim o'rinda lug'aviy shakl yasovchi sifatida affiksal omonimiyani keltirib chiqaradi. Mazkur shakl so'z yasovchi sifatida ham, lug'aviy shakl yasovchi sifatida ham unumli affiks sirasidan chiqariladi. Umuman, sifatdoshning sifatga o'tishi turkiy til taraqqiyotida tipik hodisa. *-q(-iq, -uq, ug'), g'in(-g'in, -qin, -kin), -gun(-kun, -qun), -gu(-ku, -qu, -g'u, -gi, -qi), -qur(-g'ur, gir, -g'ir, -qir)* va shu kabi ayrim fe'ldan ot va sifat yasovchi qo'shimchaning barchasi tarixan sifatdosh shakli sifatida amal qilgan.[2] Bugungi kunda lug'aviy ma'noga

[1] Ярцева В.Н. Иерархия грамматических категорий и типологическая характеристика языков // Типология грамматических категорий. –М., 1975. –С. 191.

[2] Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.: Изд. Фан,1989. Мухторов Ж.З. История развития причастных форм в узбекском языке: Автореф. дисс... док. филол. наук. –Тошкент, 1971.

munosabatning o'zgarishiga qarab, *-(a)r, -mas* shakli misolida sifatdoshning sifatga ko'chishi – o'tish jarayonining guvohi bo'lib turibmiz.

Xulosa qilib aytish mumkinki, *-(a)r* shakli lug'aviy shakl hosil qiluvchi sifatida nutqda o'zi voqealantirayotgan fe'l lesemaning atash va vazifa semasiga sezilarli ta'sir etadi, ya'ni asos fe'ldagi «harakat» va «boshqaruvchilik» xususiyatini «siqib», unga «belgi» va «tobe uzvlik» xususiyatini aks ettiradi: 1. *Ye m a s yerga o't bitar, I ch m a s yerga suv bitar* (Maqol). 2. *Suvni sep s i n g a r yerga, So'zni qil s i g' a r yerga* (Maqol). 3. *K o' r i n m a s balo - oyoq ostida*(Maqol). 4. *Zavol ko'rma hech qachon, o'lkam, Zavol b i l m a s shu yoshing bilan.* 5. *Mening bu olamda o'z a y t a r so'zim, Va o'zim s i g' i n a r mozorlarim bor*(A.Oripov).

***-mish* shakli.** *-mish* sifatdoshning tarixiy shakli bo'lib, «perfakt kesim orqali anglashilgan harakatga nisbatan amalga oshirilgan, sodir bo'lgan» harakat ma'nosini ifodalaydi. Hozirgi o'zbek adabiy tili uchun bu shakl me'yoriy shakl sanalmaydi. Ammo o'zi qo'shilgan leksema ma'nosidagi harakat ma'nosini belgi ma'nosiga muvofiqlashtirishi bilan uning tom ma'nodagi sifatdosh shakli ekanligini inkor etolmaymiz. Masalan: *Kelin b o' l m i sh qiz qo'shni qishloqdan ekan.* Bu shakl ayrim so'z tarkibida lug'aviy ma'noga ta'sir darajasining oshishi bilan so'z yasovchilik kasb etib, ajralmas holga kelib qolgan: *o' t m i sh hayot // o'tmish, qilmish // kechmish* unumsiz ot yasovchi. Bunda ham *-(a)r* shakli haqidagi fikrimiz o'z ifodasini topadi.

***-ajak, -asi / gusi, -(u)vchi* shakli.** Sifatdosh shakli sirasiga kiritiluvchi *-ajak, -asi / gusi* ko'rsatkichi arxaik ko'rsatkich bo'lib, o'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti natijasida bu shakl ayrim so'z tarkibida hozirda deyarli ajralmas holga kelib qolgan. Istalgan fe'l o'zak-negiziga qo'shilib yangi lug'aviy shakl hosil qilolmasligi sababli u unumli sifatdosh hosil qiluvchi sirasidan chiqariladi. *-ajak, -asi / gusi* shakli ayrim o'rinda so'z lug'aviy ma'nosiga jiddiy ta'sir etishi bilan lug'aviy shakl yasovchilikdan begonalashib boradi: *k ye l a j a k (hayot), b o' l a j a k (kuyov), k ye l g u s i (yil), b o' l g' u s i (ona), k ye l a s i (oy)*kabi.

-(u)vchi ko'rsatkichli so'zshakl hozirgi o'zbek tilida nisbatan ko'p kuzatiladi: *i z l o v ch i(kishi), ya s o v ch i(qo'shimcha), b i ch u v ch i(kishi), qo'shiq a y t u v ch i(bola), kechikib k ye l u v ch i(o'quvchi)* va hokazo. Ayrim ishda bu shakl ismi foil yasovchi deb talqin qilinadi va sifatdosh sirasidan chiqariladi. Ammo ba'zan bu shaklga nisbatan so'z yasovchi atamasini qo'llash xatolikka olib keladi: *Otabek qo'llarini b o' sh a t u v ch i qo'rboshining bunchalik titrab, qaltirashidan o'z raqiblaridan bittasi shu ekanini payqadi* (A.Qodiriy.).

Demak, yuqorida sanab o‘tilgan *-(a)r/-mas, -mish, -ajak, -gusi/asi* shakli kabi *-(u)vchi* shakli ham hozirgi kunda ba’zan tom ma’nodagi lug‘aviy shakl hosil qiluvchi (*Kechikib k y e l u v ch i bolalar soni kamaydi.*), ba’zan lug‘aviy ma’noga ta’sir etish darajasining kuchliligi bilan so‘z yasovchiga (*i z l o v ch i(kishi), h a y d o v ch i (kishi)*) yaqinlashib keladi. Hozirgi kunda ot turkumi doirasida o‘rganilayotgan *saylovchi, o‘qituvchi, boshlovchi, bog‘lovchi, tuslovchi, o‘quvchi* birligi tarixan sifatdoshdan urchib chiqqan, ya’ni sifatdoshning substantizatsiyalashuviga, tamoman otga ko‘chishiga, sabab bo‘lgan. Chunki yuqoridagi birlikda harakat ma’nosiga qaraganda shaxs ma’nosi ustunlik qilmoqda.

***-gan* shakli.** Hozirgi o‘zbek tili adabiy me’yori uchun tom ma’nodagi sifatdosh shakli sifatida *-gan, -yotgan, -adigan/-ydigan* ko‘rsatkichi tan olinadi. Bu shakl yuqorida ko‘rib o‘tilgan *-(a)r, -(u)vchi, -ajak, -gusi/asi* shaklidan farqlanib, so‘z lug‘aviy ma’nosini keskin yangilamaydi, lug‘aviy shakl hosil qiluvchi sifatidagina modifikatsiyalaydi, xolos. Shu sababli haqiqiy sifatdosh shakli sifatida *-gan(-yotgan, -adigan, -ydigan*) shaklini tan olamiz va asosiy tahlilini shu shakl misolida olib boramiz.

Ma’lumki, *-gan* ko‘rsatkichiga o‘tgan zamon ma’nosini ifodalovchi shakl sifatida qaraladi. Lekin u zamon ma’nosini ko‘rsatuvchi *-yotgan, -adigan, -ydigan* shakliga shu ma’nosi bilan o‘tmaydi. Har uchala ko‘rsatkich bir-biridan zamon ma’nosi bilan farqlanganligi va bu zamon kesimga nisbatan belgilanuvchi nisbiy zamonga aylanganligi sababli, biz uni sifatdosh shaklining zamon bilan farqlanuvchi ko‘rinishi sifatida qaraymiz.

-gan ko‘rsatkichi bilan shakllangan sifatdoshning ma’noviy xususiyati asosida kesimdan anglashilgan harakatdan ilgari sodir bo‘luvchi harakatni predmetning atributiv belgisi sifatida ifodalash yotadi.[1] Kesimi chegara fe’lidan boshqa fe’l bilan ifodalangan gapdagi sifatdoshdan anglashilgan harakat kesimdan anglanadigan harakat bilan qariyb bir vaqtda yuz beradi. Ammo sezilmas darajada bo‘lsa-da, undagi ketma-ketlik uqilib turadi: 1. *Tob tashlab q o l g a n darvozaning bir tavaqasini ochguncha harsillab ketdim*[O‘.Hoshimov.]. 2. *Mung‘ayib o‘ t i r g a n Fotima kelin ham handon otib kulib yubordi* [O‘.Hoshimov.).

-gan shaklli sifatdoshdagi harakat semasi o‘tgan zamonga oid bo‘lib, uning natijasining davomiyligini ifodalaydi. Ayniqsa, *yot, tur, o‘tir, yur* kabi holat fe’liga qo‘shilganda mazkur shakl yuqoridagi ma’noni yuzaga chiqaradi. Bu holat fe’lning lug‘aviy ma’nosiga ham bog‘liq bo‘ladi, albatta. Sof o‘tgan

[1] Гузев В.Г. Система именных форм глагола в тюркских языках. Тюркология // К семидесяти летию акад. А. Н. Кононова. –Л., -С. 54–56; Иванов С.Н. К истолкованию категории принадлежности // Сов. тюркология. 1973, -№ 1, –С. 76–78.

zamon: 1. *Yosh q u y i l i b k ye l a yo t g a n ko‘zlarimni artib-artib bosma harfda yozilgan xatni o‘qidim*(O‘.Hoshimov.). 2. *M u z l a g a n qorni g‘arch-g‘urch bosgancha qadamimizni tezlashtirdik (*O‘.Hoshimov.). Harakatning o‘tgan zamonga oid bo‘lib natijasining davomiyligi: 1. *Ular orasida jiyagi sitilib ketgan do‘ppi k i y g a n Olimjonni ko‘rib qoldim(*O‘.Hoshimov.). 2. *Omborning qamishlari o s i l i b yo t g a n shiftini ko‘tarib yuborguday kulgi yangradi(*O‘.Hoshimov.). 3. *Ammam hokandozda t u t a b t u r g a n isiriq ko‘tarib kirdi(*O‘.Hoshimov.).

Yuqoridagi misoldan fahmlash mumkinki, *-gan* shaklli sifatdosh fe’llik xususiyati – harakat, zamon (*o‘qigan, o‘qiyotgan, o‘qiydigan*), nisbat(*o‘qilgan, o‘qitgan*), bo‘lishsizlik (*o‘qilmagan kitob*), harakat tarzi *(qo‘rqib ketgan bola*) ma’nosini o‘zida saqlaydi. Ammo kommunikatsiya jarayonida reallashganda sifatdosh shakli yondosh hodisa ta’sirida yuqoridagi fe’llik xususiyatini «kuchsizlantirib» – tobe uzvlikka moslashib belgi bildiradigan so‘z – sifat maqomiga ega bo‘ladi. Shakl so‘zning atash semasiga ta’sir qilish bilan vazifa semasini ham yangilaydi, ya’ni sifatdosh shaklidagi fe’l boshqaruvchilik xususiyatini kuchsizlantirib o‘zidan keyin kelgan so‘zga tobe uzv sifatida bog‘lanadi va gapda sifatlovchi-aniqlovchi (fe’l- kesimga bog‘langanda vaziyat holi) vazifasida keladi - o‘z ma’no mohiyati bilan belgi bildiradigan so‘z - sifatning so‘rog‘ini qabul qiladi: 1. *Dunyoni qizg‘anma mendan, azizim, Sen i ch g a n buloqdan ichmasman aslo*(A.Oripov). 2. *B o‘ sh a g a n tog‘orani dasturxonga o‘rab ko‘tarayotgan edim, Fotima kelin qo‘ymadi(*O‘.Hoshimov.). 3. *Dimoqqa q i z i g a n asfalt hidi uriladi(*O‘.Hoshimov). 4. *O‘rtasiga qor o‘yib q o‘ y i l g a n katalakdek hovli... (*O‘.Hoshimov.). 5. *Ko‘z o‘ngimda yana o‘sha q o r b o s g a n hovli, m u z l a g a n perrondan yu g u r g a n onam jonlandi(*O‘.Hoshimov.).

-yotgan shaklining ma’noviy mohiyati davomiy harakat/holatni narsa-shaxsning belgisi sifatida ifodalashdir: 1. *U t i t r a b k ye t a yo t g a n barmoqlari bilan og‘zini to‘sdi(*O‘.Hoshimov.). 2. *Zum o‘tmay no‘xtadan ch a n g a l l a g a n kuyi jar bo‘yidan kelayotgan odam g‘ira-shira ko‘rindi (*O‘.Hoshimov.).


-yotgan shaklli sifatdoshdagi harakat-holatning davomiyligi, hozirgi zamon ma’nosi, asosan, *yot* elementining ma’noviy xususiyati asosida bo‘ladi. *-gan* qismi esa atributiv belgi ifodalash va keyingi so‘zga bog‘lash vazifasini bajaradi.

-adigan/ydigan shaklining ma’noviy mohiyati davomiy harakat holatni narsaning atributiv belgisiga aylantirishdir, ya’ni fe’lni nutqqa «harakat» bo‘yog‘ini kuchsizlantirgan va «belgi» ottenkasini berishga moslagan holda voqealantirish. Bu shakldagi zamon ma’nosi doimiy harakat - holat ifodalash

uning tarkibiy qismi bo‘lgan *-adi* ning qadimda holat fe’li bo‘lganligiga borib taqaladi. Mazkur shaklli sifatdoshdan anglashilgan harakat / holat kesimdan anglashilgan harakatdan oldin yoki keyin, ba’zan u bilan bir paytda yuz berishi mumkin: 1. *Lazakat xola piyolaning og‘zicha k y e l a d i g a n kulchani beshik boshiga qo‘ydi(*O‘.Hoshimov.). 2. *Mening o‘g‘illarim bekorga o‘ l i b k y e t a d i g a n bolalarma. (*O‘.Hoshimov.). 3. *Yo q m a y d i g a n hech narsa yegani yo‘q,-dedi onasi* (A.Qodiriy.). 4. *Ch i q m a g a n jondan umid* (Maqol).

-gan, -yotgan, -adigan shakli lug‘aviy shakl sifatida o‘zi nutqda voqealantirgan so‘z ma’nosidagi «harakat bildirish» va «boshqaruvchilik» bo‘yog‘ini xiralashtirib, unga «sifatlik» belgisini beradi. Ammo takror bo‘lsa-da, aytib o‘tish kerakki, bu o‘zgarish leksema semasiga ta’sir etmaydi, balki uning nutqdagi tajallisini turli tomondan modifikatsiyalaydi, xolos.

Sifatdosh shakli talqinini umumlashtirgan holda aytish mumkinki, barcha sifatdosh shakli ko‘rib o‘tilganidek, bitta umumiy ma’no - «harakatni atributiv belgiga aylantirish va uni otga(qisman fe’lga) bog‘lash belgisi ostida birlashadi. Ammo har bir shakl kontekstga bog‘liq ravishda turli yondosh hodisa ta’sirida o‘ziga xos xususiyatga ham ega bo‘ladi. Masalan, «kesimdan anglashilgan harakatdan oldin sodir bo‘lish» belgisi *-gan* shakli uchun ijobiy, *-yotgan, -adigan, -ydigan* shakli uchun majhul, «doimiy zamon» belgisi esa *-adigan / ydigan* shaklida musbat ko‘rinishda, qolgan shakl uchun majhul, «davomiylik» belgisi *-yotgan* shaklida ijobiyligi bilan boshqa shaklga zidlanadi. Buni chizmada quyidagicha beramiz:



Sifatdosh shaklining so‘z lug‘aviy ma’nosiga ta’siri, ravishdosh shakliga qaraganda jiddiyroq. Buni ayrim sifatdosh shaklining (*-ar, -mas, -mish, -ajak,-gusi / asi, -(u)vchi)* bugungi kunda tayyoricha sifat yoki otga ko‘chganligi bilan asoslaymiz (*o‘tmish, chopar, qilmish, kelajak, izlovchi, bog‘lovchi*). Aniqrog‘i, sifatdosh hosil qiluvchi, ravishdosh hosil qiluvchiga qaraganda so‘zning atash semasini, ya’ni asos fe’lning «harakat» belgisini ko‘proq «siqadi» va natijada ayrim holda «harakat» belgisi tomoman «so‘nib» boshqa so‘z turkumiga ko‘chib ketish holi uchraydi. Sifatdosh shaklining tizimdagi boshqa a’zodan yana bir farqi – substantizatsiyalashish(otlashish) xususiyatigi ega ekanligida. Otlashgan sifatdosh ham otlik, ham fe’llik, ham sifatlik belgisini namoyon qiladi va gapda – ega: *O‘ l g a n kelmas, o‘ ch g a n yonmas* [Maqol].

to‘ldiruvchi: *Yo‘l yu r g a n g a qisq*arar [Maqol].

kesim: *Ayolning o‘ttizga kirgani - o‘ t i n b o‘ l g a n i* [Maqol].

qaratqich aniqlovchi: *K o‘ r m a g a n n i n g ko‘rgani qursin* – kabi vazifada keladi.

Ko‘rib o‘tilganidek, sifatdosh o‘z mikrotizimi ichida sifatlik belgisini barqarorlashtirish va fe’lni otga (qisman fe’lga) tobe uzv sifatida bog‘lash belgisini muayyanlashtirish jihatidan emas, balki zamon, harakat tarzi kategoriyasi uchun kategorial, sifatdosh uchun nokategorial bo‘lgan ma’noni ifodalash jihatidan farqlanadi. Sanab o‘tilgan *-gan, -yotgan, -adigan / ydigan* shakli turli xil sifatdosh emas, balki tur kategoriyaning bitta shakli sifatida namoyon bo‘ladigan sifatdoshning zamon, harakat tarzi kabi boshqa kategoriyaga xos ma’no bilan farqlanuvchi ko‘rinishi. Shu sababli sifatdoshni alohida grammatik kategoriya – paradigma sifatida baholashga asos yo‘q.

Harakat nomi. Fe’l leksema nutqiy aloqada rasmiylashar ekan, yuqorida aytilganidek, o‘zgalovchi kategoriyasi shaklidan birini qabul qilishi shart. Fe’lni nutqqa olib kiruvchi shakl orasida harakat nomi alohida o‘rin tutadi. Ko‘rib o‘tilgan sifatdosh va ravishdosh shakli kommunikatsiya jarayonida fe’lni fe’llikdan “uzoqlashtirib”, unga tobe uzvlik maqomini bergan holda o‘zidan keyingi so‘zga bog‘lash vazifasini yuklasa, harakat nomi shakli esa fe’llikni kuchsizlantirish uchungina xizmat qiladi. Ammo shuni aytib o‘tish kerakki, bu shakl vositasida nutqda reallashgan fe’l o‘z fe’llik belgisini sifatdosh va ravishdoshga qaraganda ko‘proq xiralashtiradi, ya’ni harakat-holat belgisi kuchsizlanib, predmetlashish – gapda otga xos belgi bilan sintagmatik munosabat hosil qilish kuzatiladi. Harakat nomi shakliga nisbatan qat’iy ”predmetlashish” terminini qo‘llamaymiz, albatta. Chunki mazkur so‘zshakl fe’llik belgisini(nisbat – *o‘qitish, izlanish,* qisman bo‘lishsizlik – *istamaslik, chekmaslik)* ham o‘zida saqlab qoladi.

O‘zbek tilshunosligida harakat nomi shakli sifatida quyidagi ajratiladi:

-(u) v
-moq
-ganlik
-(i) sh

Mavjud adabiyotda bu shaklning ma’noviy jihatdan farqlanmasligi aytiladi. Ammo mazkur shaklning barchasiga nisbatan birdek yondashish ham munozarali bo‘lganligi bois, har bir shaklning bu tizimdagi o‘rni haqida alohida to‘xtalamiz.

***-(u) v* shakli.** *-(u) v* ko‘rsatkichi harakat nomining tarixiy shakli bo‘lib, hozirgi o‘zbek adabiy tilida unumli va keng iste’molli affiks sirasiga kiritilmaydi. Mavjud adabiyotda[1] mazkur shakl “harakat nomi sifatida *-(i)sh* formasiga nisbatan ancha kam qo‘llanadi. Bu vazifada qo‘llangan o‘rinda hamma vaqt -(*i*)sh affiksi bilan yasaluvchi formani ishlatish mumkin...” deb ta’riflab o‘tiladi. *-(u)v* shaklining moddiy qism lug‘aviy ma’nosiga ta’siri kuchayishi natijasida, fe’l so‘zshakldagi harakat-holat belgisi, umuman, fe’llik yo‘qolish darajasiga kelib, nutqda ot leksemaga xos xususiyatni namoyon qiladi va bunday shaklli ayrim harakat nomi butunlay otga ko‘chadi: *tintuv, qidiruv, yozuv, saylov, o‘quv* va boshqa. Shuning uchun biz bu shaklni harakat nomi shakli tizimidan chiqarib uni tarixiy hodisa sifatida baholaymiz, aniqrog‘i, bu shakl hozirgi kunda so‘zshakl holida otga ko‘chgan - ot leksemaga aylangan.

***-moq* shakli.** *-moq* shakli ham xuddi sifatdoshning *-(a)r, -mas, -gusi/asi* shakli, harakat nomining *-(u)v* shakli kabi so‘z lug‘aviy ma’nosiga jiddiy ta’sir etishi bilan lug‘aviy shakl hosil qiluvchilik mohiyatini qorong‘ilashtirgan. *-moq* shaklli harakat nomi jonli nutqda, umuman, kam qo‘llanadi. O‘zbek lug‘atchiligida fe’lning lug‘at shakli – noaniq shakli – sifatida shartli ravishda qoidalashtirilgan(*kelmoq, aytmoq, bilmoq, istamoq).* Harakat nomi shakli sifatida qo‘llagan holda ham, ot leksemaga xos belgiga ko‘proq egaligi bilan fe’ldan uzoqlashadi: 1. *K el m o q - ixtiyor bilan, k e t m o q - ijozat bilan*(Maqol). 2.*Pulni t o p m o q oson, uni sarflay b i l m o q qiyin*(Maqol). 3. *Yurtimizda alanga porlar se v m o q uchun s e v i l m o q uchun* (Qo‘shiq.). Ayrim o‘rinda tamoman ot yasovchiga aylangan: *topishmoq, quymoq.* Shu tufayli *-moq* shaklini ham unumli harakat nomi shakli tizimidan chiqaramiz.

***-ganlik* shakli.** *-ganlik* ko‘rsatkichining harakat nomi shakli ekanligi munozarali bo‘lib, sanoqli tilshunosgina unga harakat nomi shakli sifatida qaraydi. Bu shakl jonli nutqda deyarli ishlatilmaydi. Tarixan harakat nomi va

[1] Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. Мас.муҳ. Ғ.А.Абдураҳмонов ва бошқ. –Т.: Фан, 1972. –Б. 374.

sifatdosh farqlanmasligi natijasida vujudga kelgan. Chunki tarixan sifatdosh va harakat nomi (lug‘aviy)shakl hosil qilishiga ko‘ra emas, gapdagi vazifasiga qarab ajratilgan. Haqiqatdan ham, istalgan substantizatsiyaga uchragan sifatdosh shakli harakat nomi ma’nosini voqealantiradi: 1.*O‘z s u y g a n i n g o‘zingga suluv*(Maqol). 2.*O‘choqqa olov yo q i l m a g a n i n i endi ko‘rdim*(Maqol). 3. *Bobom bo‘yi kalta b o‘ l g a n i g a zarda qilib... loy kechib ketayapti* (Maqol).

Demak, *-ganlik* shakli sifatdosh va harakat nomining tarixan umumiyligi, uning so‘z o‘zgartirish va kommunikatsiya jarayonidagina farqlanishi o‘laroq hosil bo‘lgan shakl. Qiyoslang: 1. *U o‘zini k o‘ r m a g a n l i k k a (k o‘ r m a s l i k k a, k o‘ r m a g a n g a) solib turardi. 2. Aybim, kambag‘al b o‘ l g a n l i g i m m i !*

***-maslik* shakli.** *-ganlik* ko‘rsatkichiga o‘xshash shakl bo‘lib, harakat nomi shaklining barchasi uchun bo‘lishsiz ko‘rinish sifatida qo‘llanadi. Har ikki shaklda ham *-lik* qo‘shimchasini qo‘shish harakat nomini sifatdoshdan ajratishga intilish oqibati. Jonli so‘zlashuvda kam ishlatilishi bilan unumsiz shakl sirasiga kiradi. Umuman, bunday shaklli hosilaga nisbatan lug‘aviy shakl atamasini qo‘llash ba’zan xatolikka olib keladi. Sababi, *-maslik* shakli lug‘aviy shakl hosil qiluvchilik tabiatini qorong‘ilashtirib, ayrim holatda o‘zi shakllantirgan so‘zshakl holida otga ko‘chib ketadi: 1.*B i l m a s l i k ayb emas, bilishni x o x l a m a s l i k ayb.* 2. *Shu kuniyoq uyga q a y t m a s l i k k a qasd qildim.*

Aytilgandan xulosa qilib, hozirgi o‘zbek adabiy tilida unumli va seriste’mol harakat nomi shakli sifatida faqat *-(i)sh* ko‘rsatkichini ajratish mumkin.

***-(i) sh* shakli.** *-(i)sh* shakli harakat nomi hosil qilar ekan, fe’l o‘zakdagi fe’llik belgisi – harakat/holat, zamon ma’nosini nihoyatda kuchsizlantirib, nutqda otga xos belgi bilan voqealanadi: *1. K ye k k a y i sh sahroda yurgan norga yarashadi.* 2. *Yuzni yerga q a r a t i sh bundan ortiq bo‘ladimi* (O‘.Hoshimov.).

Mazkur shaklli harakat nomi to‘la-to‘kis turlanish xususiyatiga ega bo‘lib, unda ravishdosh va sifatdoshdagi kabi bog‘lanish yoki tobelanishni kuzatmaymiz. Nutqda rasmiylashganda ham bu shakl ot leksemasiga xos unsur bilan qo‘shnichilik(sintagmatik) munosabatida bo‘ladi: *1.Qo‘rqaman deb y i g‘ l a sh i m g a qaramay meni yolg‘iz qoldirdi*(O‘.Hoshimov.). 2. *Shundoq otang falaj bo‘lib yotsa-yu, traktor h a y d a sh g a balo bormi*(O‘.Hoshimov.).. 3. *Kichkinaligimda tol bargak t a q i sh n i yaxshi ko‘rardim*(O‘.Hoshimov.).

Xulosa qilib aytish mumkinki, harakat nomi shakli sifatida ajratilayotgan *-(i)sh* ko‘rsatkichi fe’lni nutqda voqealantirish jarayonida asos fe’ldagi “harakat / holat” belgisini so‘ndirib, uning o‘rnini “predmetlik” belgisi bilan to‘ldiradi. Ayrim o‘rinda so‘z lug‘aviy ma’nosiga ta’sir ancha jiddiy tus olib, harakat nomi

so‘zshakl holida ot leksemaga xos belgini namoyon qiladi, otga ko‘chadi. Hozirgi kunda yasama ot sifatida sanaladigan *urush, qurilish, ogohlantirish, kirish, turlanish* kabi hosila tarixan harakat nom shakli. Akademik grammatikada ot yasovchi sanab o‘tilar ekan, *-moq(-mak), -(i)sh, -(u)v* shakli ham bu siraga kiritilib, “..hozirgi o‘zbek tilida asosan harakat nomi formasini yasaydi” deyiladi.[1] Harakat nomi shakli sirasini ko‘rib o‘tib xulosa qila olamizki, hozirgi o‘zbek adabiy tilida me’yoriy harakat nomi shakli sifatida, asosan, *-(i)sh* shaklli hosilanigina ko‘rsatish mumkin. Harakat nomi shakli o‘zida fe’lning tasniflovchi nisbat, qisman bo‘lishsizlik ma’no va shaklini saqlay oladi: *o‘qitishning samaradorligini oshirish, ozoda kiyinish, ko‘rinmaslikka harakat qilish* kabi.

Shaklning so‘z atash semasiga ta’siri o‘zgalovchi kategoriyasining boshqa shakliga qaraganda kuchli bo‘lib, bu ta’sir vazifa semasini ham o‘zgartiradi. Istalgan harakat nomi shakli nutqda “rasmiylashar” ekan, ot leksemaga xos unsur bilan qo‘shnichilik munosabatida bo‘ladi, erkin turlanadi, nomlash, mavhumlashish ma’nosi kuchayadi va gapda otga xos vazifa – ega, to‘ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi vazifasida keladi: 1. *Odam esdan o g‘ i sh i hech gap emas ekan*(O‘.Hoshimov.). 2. *Iltijoli t ye r m u l i sh i n i qara*(O‘.Hoshimov.). 3. *Kechalari yostiq quchoqlab yo t i sh joniga tekkandir*(O‘.Hoshimov.). 4. *Uydagi sirni ko‘chaga o l i b ch i q i sh n i n g nima keragi bor*(O‘.Hoshimov.).

Harakat nomi shakining barchasi bitta umumiy ma’no – “fe’lni ”predmetlashtirgan“ holatda nutqqa olib kirish” – ostida birlashib, nutqiy qurshov ta’sirida otlik belgisini namoyon qilgan holda ishtirok etadi. har bir shakl o‘ziga xos xususiy grammatik ma’no asosida farqlanmaganligi bois harakat nomi shaklini ham alohida paradigma sifatida baholashga asos yo‘q.

O‘zgalovchi shakli paradigmatikasi. O‘zgalovchi kategoriyasi elementining tizimda tutgan mavqeyi qanday belgilanadi? Shu vaqtga qadar fe’lga bag‘ishlangan tadqiqotda ular:

harakat nomi
sifatdosh
ravishdosh[2];
sifatdosh
ravishdosh
harakat nomi[3];

[1] Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. Мас. мух. Ғ.А.Абдурахмонов ва бошк. –Т.: Фан, 1972. –Б. 255.
[2] Шоабдурахмонов Ш., Аскарова М., Ҳожиев А. ва бошк. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. –Т.: Ўқитувчи, 1980.
[3] Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. Мас.мух. Ғ.А.Абдурахмонов ва бошк. –Т.: Фан, 1972, –Б. 510–528.

ravishdosh
sifatdosh
harakat nomi

tartibida[1] berib kelingan bo‘lib, har uchala tartibda ham ma’lum bir asos mavjud. Faqat shuni ta’kidlash lozimki, mazkur sirada fe’lning kesim shakli – kesimlik kategoriyasi tomonidan to‘la-to‘kis qamrab olinmaganligi sababli alohida ajratilmagan. Harakat nomi shaklini bu siraning boshida qo‘yilishining ilmiy asosi shundaki, o‘zbek tilshunosligi XX asrning boshida Yevropa grammatik tahlil usuliga o‘tgach, fe’lning bosh formasi sifatida infinitiv (harakat nomi) shaklini o‘zlashtirdi. Shu sababli harakat nomiga fe’lning bosh shakli, atov shakli mavqei berildi, lug‘atda ham fe’lning bosh lug‘aviy shakli sifatida harakat nomi shaklini berish odat tusiga aylandi. Vaholanki, XX asrgacha arab lingvistik an’anasi izidan borgan turkiyshunoslikda fe’lning bosh (lug‘aviy – lug‘atda beriladigan) shakli sifatida aniq nisbat, xabar mayli, aniq o‘tgan zamon, uchinchi shaxs, birlik son shakli qabul qilingan edi. Shuning uchun M.Qoshg‘ariy(XI asr)dan boshlab, Fath Ali Kojariy davri(XIX asr)gacha lug‘atda fe’l *o‘qidi, yozdi, keldi* shaklida berilar edi. Fe’lning bosh shakli sifatida lug‘atda harakat nomi shaklini berish Yevropa tilshunosligidan ko‘chirmachilik bo‘lsa, *o‘qidi, yozdi* kabi yuqorida keltirilgan shaklda berish esa flektiv tabiatli arab tilshunosligiga ergashish. Turkiy tilning agglyutinativ tabiatidan kelib chiqiladigan bo‘lsa, fe’lning bosh shakli sifatida tub fe’l, ya’ni fe’lning o‘zak qismi(*yoz, kel, ye, de, qo‘rq*), yasama fe’lning negiz qismi(*ishla, yasha, sarg‘ay, birik, yaltira*) berilishi lozim. Jumladan, rus turkiyshunosligining yetakchi vakili V.V.Radlov o‘zining mashhur “Opit slovarya tyurkskix narechiy” lug‘atida shu yo‘ldan borgan edi. Tub fe’lning o‘zak, yasama fe’lning negiz qismi moddiy jihatdan buyruq mayli, ikkinchi shaxs, birlik son shaklining qo‘shimchasiz ko‘rinishiga mos keladi. Fe’lning bosh lug‘aviy shaklini tanlashda, turkiy til tabiatidan kelib chiqiladigan bo‘lsa, buyruq mayli, ikkinchi shaxs, birlik son shaklini qo‘shimchasiz ko‘rinishini qabul qilish maqsadga muvofiq. Bu talabga fe’l turi tizimidan fe’lning kesimlik shakli – sof fe’l to‘la javob beradi. Shu sababli kesimlik shaklining tizimning boshida turishi har jihatdan ma’qul.

Sifatdoshni bu tizimning boshida qo‘yishda ham ma’lum bir asos mavjud. Chunki turkiy tilda qadimdan hozirgacha sifatdosh harakat nomi va ravishdoshdan uzilmagan. E.Sevortyan[2], G‘.Abdurahmonov[3], Sh.Shukurov[4] va

[1] Менглиев Б.Р. Морфологик воситаларининг маъновий хусусияти ва синтактик имкониятлари: Филол. фан. номз ... дисс. –Бухоро. 1995. –Б. 75–121.
[2] Севортян Э.В. Аффиксы глаголообразования в азербайджанском языке. –М.: Наука, 1982.
[3] Абдурахманов Г. Исследования по старотюркскому синтаксису (XI век). –М.: Наука, 1967.
[4] Шукуров Ш.Ш. Ўзбек тилида феъл майллари тараққиёти. –Т.: Фан, 1980.

boshqa sifatdosh hamda harakat nomining tarixan bir-biridan ajralmasligini diaxronik nuqtayi nazaridan asoslab bergan edi. Sifatdoshning ravishdosh bilan aloqasi esa jo'nalish, o'rin, chiqish yelishigi shakli, makon va zamon ko'makchisi bilan kelgan ko'rinishi mohiyatan ravishdosh ekanligi tadqiqotda izohlangan[1]. Bundan tashqari, sifatdoshning fe'l mayl-zamon shakli bilan aloqasi turkiyshunoslikda keng o'rganilgan. Polyak tilshunosi V.V.Kotvich tomonidan «fe'lning barcha tuslanmagan shakli tarixan sifatdoshdan kelib chiqqan» degan fikr ham bildirilgan edi[2]. N.A.Baskakov bu fikrning turkiy tilga ham xos ekanligini e'tirof etdi[3]. Shu sababga ko'ra, sifatdosh fe'l shakli tizimida birinchi o'ringa qo'yilgan.

Ravishdosh shaklini bu siraning boshida qo'yishda ham ma'lum bir asos bor. Ravishdosh fe'lning kesim shakliga ma'no va vazifa jihatidan juda yaqin turadi. Turkiy tilda ot va sifat ancha rivojlangan bo'lib, «gibrid» so'z sifatida baholanuvchi sifatdosh va harakat nomi fe'ldan ancha uzoqlashsa, ravish unchalik rivojlanmaganligi sababli, ravishdoshda «gibrid»lik uncha sezilmaydi, ya'ni fe'llik ma'no va vazifasi unchalik qorong'ilashtirilmaydi. Fe'lligini ancha saqlab qoladigan shakl sifatida ravishdosh tizim boshiga qo'yilgan.

Aytilgandan kelib chiqib, fe'lning o'zgalovchi kategoriyasi elementini quyidagi tartibda joylashtirish ma'qul deb topildi:

Ravishdosh
Sifatdosh
Harakat nomi.

Bu tartib tizimda fe'llik ma'no va vazifasining kamayishi, ya'ni shaklning lug'aviy ma'noga ta'sirining kuchayishi va sintaktik qobiliyatning kuchsizlanib borishi darajasini ko'rsatadi.

8- §. Harakat tarzi kategoriyasi

Harakat tarzi kategoriyasi haqida umumiy ma'lumot. Ma'lumki, o'zbek tilidagi morfologik shakl, asosan, sintetik tabiatli. Biroq so'zning analitik (*Karim uchun, qalam bilan*) va sintetik-analitik (*uyga tomon, qishloqqa qadar*) shakli ham mavjud. Harakat tarzi shakli ham, aytilganidek, so'zning sintetik (*borolmayman,* yubor*aver*), sintetik-analitik (*o'qiy boshladi, ko'rib chiqdi*)

[1] Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. -Т.: Изд. Фан, 1989; Менглиев Б.Р. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусияти ва синтактик имкониятлари: филол. фан. номз ... дисс. -Бухоро, 1995; Иванов С.Н. Категория залога в причастиях узбекского языка. // Исследования по истории культуры народов Востока. -М.; -Л., 1960, -С. 123-134.

[2] Котвич В.В. Исследование по алтайским языкам. Перевод А.И.Толкачева. об. ред. Н.А. Баскакова. - М., 1962. -Б.221.

[3] Баскаков Н.А. Историка-типологическая характеристика структуры тюрских языков. -М.: Наука, 1975.

hamda analitik (*sotdi-qo'ydi, ketdi-qoldi*) morfologik shaklini hosil qiladi.

Analitik ko'rinishdagi harakat tarzi shaklida yordamchi so'zga xos ham shakliy, ham ma'noviy jihatdan o'z leksemalik tabiatini saqlashning kuchliligi emas, balki uni yetakchi fe'lga bog'layotgan ravishdosh ko'rsatkichini siqib chiqarib, yetakchi fe'l bilan ma'noviy zichlashishga hamda yetakchi fe'lning kesimlik ko'rsatkichi bilan shakllanishi natijasida shakliy mustaqilligini saqlashga intilishidan iborat shakliy-ma'noviy ziddiyat ko'zga tashlanadi. Shu kungacha fanda va ta'limda bu hodisaga nisbatan iste'molda bo'lgan *ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi* atamasi o'rnida ta'limda *harakat tarzi shakli* istilohi qo'llana boshlagan bo'lsa-da, biroq ikkala atamaning farqli mohiyati va o'zaro munosabati haqida birorta ham fikr bildirilmadi.

Ko'makchi fe'l atamasi ikki jihati bilan hodisa mohiyatiga unchalik yaqin emas. Birinchidan, ma'lumki, o'zbek va, qolaversa, dunyo tilshunosligida lisoniy hodisa, odatda, ifodalanmishning ma'nosi asosida (kam holda vazifasiga ko'ra) nomlanadi: zamon, nisbat, kishilik, mayl kabi. Shunga ko'ra, ko'makchi fe'l yetakchi fe'ldan anglashilgan ish-harakatning tarzini ifodalaganligi bois ham *harakat tarzi shakli* atamasini qo'llash an'anaga muvofiq keladi: kesimlik shakli, nisbat shakli kabi. Shunday ekan, ko'makchi fe'l atamasida uning shakllik, aniqrog'i, lug'aviy shakllik mohiyati unchalik aks etmaydi. Shuningdek, bu vazifadagi ayrim fe'lning qo'shimchalashib borayotganligi (*yot, yoz, ber, ol: borayotgan, o'qiyver, kelayozdi, ko'rolmaydi* kabi) ham yangi atamaning oldingisiga nisbatan qulaylikka egaligini ko'rsatadi. Ikkinchidan, harakat tarzi shakli faqat ko'makchi fe'ldangina iborat emas, balki *ravishdosh shakli+ko'makchi fe'l* ko'rinishidagi murakkab qurilishga ega bo'lib, sintetik-analitik shakl. Ko'makchi fe'l ravishdoshning tegishli shakli bilangina birikib nutqqa chiqadi. Demak, tarz ravishdosh shakli va ko'makchi fe'l yaxlitligi orqali ifodalanar ekan, an'anaviy *ko'makchi fe'l* atamasi atalmishning bir parchasinigina ifodalaydi. *Ko'makchi fe'l* istilohi qo'llanganda murakkab shaklning bir qismi e'tibordan soqit qilingan bo'ladi. Ana shu ikki asos harakat tarzi shakli atamasini qo'llashda hodisaning asl mohiyatini nisbatan to'liqroq aks ettirishini ko'rsatadi. Shuningdek, an'anadagi yetakchi fe'l+ko'makchi fe'l birikuvi uchun qo'llangan nisbatan murakkab *ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi* o'rnida *harakat tarzi shakli* atamasini qo'llash nutqiy tejamkorlikni ta'minlaydi. Qolaversa, *ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi* istilohi tarkibidagi *so'z qo'shilmasi* uzvi so'z birikmasiga oppozitsiyada bo'lgan *so'z qo'shilmasi* (so'zning teng bog'lanishi)ga nisbatan qo'llanganligi bois ham ayrim chalkashlikni keltirib chiqaradi. Biroq butun (harakat tarzi shakli)ning tarkibiy qismi haqida so'z ketganda *ko'makchi fe'l, ravishdosh shakli* istilohidan voz kechib bo'lmasligini

ta'kidlash lozim bo'ladi.

Harakat tarzi shakli hisoblangan *kulib yubordi, topib oldi* kabi misolda birinchi so'z mustaqil leksik ma'noga, ikkinchi so'z esa nomustaqil, grammatik ma'no mohiyatiga ega bo'lgan so'z. Agar u yuqorida zikr etilgan (*kitob va daftar, o'quvchi va o'qituvchi*) erkin so'z qo'shilmasiga qiyoslansa, *ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi* o'rniga *harakat tarzi shakli* atamasi muvofiqligi ko'zga tashlanadi.

29 ko'makchi fe'lning *-a/-y* hamda *-(i)b* ravishdoshi bilan birika olish imkoniyatini hisobga olsak, o'zbek tilida nutqimizni, ayniqsa, so'zlashuv nutqini go'zallashtiruvchi 50 ga yaqin harakat tarzi shakli namoyon bo'ladi.

Harakat tarzi kategoriyasi tadqiqi tarixidan. Analitik shakl haqidagi qarash 300 yildan ortiqroq tarixga ega. Harakat tarzi shakli turkiy tilning muhim ontologik xossasi bo'lganligi bois u jahon tilshunosligida ham mutaxassislarning alohida diqqatini tortgan.

Jahon tilshunosligida ham, turkiyshunoslikda ham dastlabki qarash misoli sifatida tatar tili grammatikasiga oid I.Giganov tadqiqotini aytib o'tish lozim. U tatar tilida 12 ta analitik shakl (*bo'l, kel, ol, edi* kabi)ni ko'rsatib, uni morfologik ko'rsatkich qatoriga qo'yadi va lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan analitik shakl sifatida izohlaydi[1].

XIX asrning o'rtasidan boshlab turkiyshunoslikda analitik shaklni yangicha talqin qilishga kirishildi. Jumladan, O.Byotlink analitik shaklni, avvalgi ishlardan farqli o'laroq, morfologik shakl bilan bir qatorga qo'ymaslikni tavsiya etib, uni mustaqil morfema sifatida *perifrastik yasalish* deb atadi[2].

Rus tilshunosligida analitik shaklga doir keng va sinchkovlik bilan aytilgan fikr A.Potebnya ishida uchraydi. U ko'makchi fe'lning guruhga ajratish mezoni qilib uning *leksik ma'noni yo'qotish* belgisini ko'rsatadi[3]. A.Potebnyaning fikrini F.Fortunatov o'z ishida rivojlantirdi. Tadqiqotchi ko'makchi fe'lni *noto'liq so'z* deb nomladi va uni, o'z navbatida, bir necha guruhga ajratdi. U *noto'liq so'z*ga o'z shaklini boshqa so'z ma'nosiga muvofiq o'zgartiradigan hamda uning yangi shaklini yasaydigan so'z, deya ta'rif beradi[4].

Harakat tarzi shaklining keyingi bosqich tekshirishida «shakldan mazmunga» tamoyili ustuvorlik qiladi. Xususan, A.Potebnya va F.Fortunatov ishining davomchisi A.Shaxmatovning bu masalaga yondashishini oldinga qo'yilgan bir qadam sifatida baholash mumkin. U mazkur masalada asosiy

[1] Гиганов И. Грамматика татарского языка. СПб. 1801. с. 120.
[2] Bohtlingk O. Kritische Bemerkungen zur zweiten Ausgabe von Kasembek...s türkisch-tatarischen Grammatik. Zum Original und zur deutschen Übersetzung // «Bull. de la cl. Sciences Hist., Philol. et Polit. De L... Academie Imperiale des Scieces», vol. V, - ' 22. St.-Petersburg, 1848. c. 82.
[3] Потебня А.А. Из записок по русской грамматике. Т. I. –Воронеж, 1874. с. 91.
[4] Фортунатов Ф.Ф. Избранные труды. Т. I. –М.: Наука, 1956. с. 94.

diqqatni ko'makchi fe'lning grammatik xususiyatiga ko'ra ajratilishiga qaratib, uni ikki guruhga bo'ladi:

1. Leksik ma'nosini qisman yo'qotgan ko'makchi fe'l.

2. Leksik ma'nosini butunlay yo'qotgan ko'makchi fe'l[1]. Tadqiqotchi harakat tarzi shakli ma'nosi haqida fikr yuritar ekan, bunda uning ma'nosini belgilovchi asosiy vosita konteks va leksik ma'no ifodalovchi fe'l, deb ko'rsatishadi[2]. D.M.Nasilov kuzatishida fe'lning harakat tarzi ma'nosi uch xil grammatik usul asosida ifodalanishi ko'rsatib o'tiladi: qo'shimcha, takroriylik (reduplikatsiya) va analitik shakldagi ko'makchi fe'l[3]. Shuningdek, turkiy tilda ko'makchi fe'lni o'rganishda L.Xaritonov, I.Mamanov, A.Xarisov kabi[4] tilshunosning monografiya va maqolasi muhim ahamiyat kasb etadi. Turkiy til doirasida fe'lning vid kategoriyasi mavzusiga doir bir necha nomzodlik dissertatsiyasi bajarilgan, monografiya va ko'plab maqola yozilgan.

O'zbek tilshunosligida ham harakat tarzi shaklining o'rganilishi, asosan, XX asrning 40–50-yilidan avj oldi. Dastlab o'zbek tilida harakat tarzi shakli tavsifiy usul asosida *ko'makchi fe'l* atamasi ostida atroflicha o'rganilgan. O'zbek tilshunosligida bu borada S.Ferdaus, G.Sharipov, S.Akbarov, T.Almamatov, ishini hamda A.Kononov, A.G'ulomov, A.Hojiyev, U.Tursunov, J.Muxtorov, B.Jo'rayev kabi tilshunosning o'quv qo'llanma hamda maqolasi shu mavzuga bag'ishlangan. Ko'makchi fe'l mavzusida o'rganilgan bu ish orasida akademik A.Hojiyevning «O'zbek tilida ko'makchi fe'l» monografiyasi alohida e'tiborga molik. Tadqiqotchi o'zining mazkur monografiyasida turkiy adabiyotda, jumladan, o'zbek tilshunosligida ham o'sha vaqtga qadar yuritib kelingan *qo'shma fe'l, yordamchi fe'l, ko'makchi fe'l* kabi istiloh mohiyatini ochib berib, undan yagona *ko'makchi fe'l* atamasi mohiyatga yaqinroq kelishini izohlab berdi va tilshunoslik termini sargardonligidagi muammosidan biriga oydinlik kiritdi[5]. Shuningdek, u qozoq tilida *edi* to'liqsiz fe'lini ko'makchi fe'l qatoriga kiritgan tilshunos I.Mamanovning fikriga e'tiroz bildirib, uni ko'makchi fe'l sirasidan chiqargani holda, to'liqsiz fe'l sifatida ko'rsatib o'tadi. Monografiyada hozirgi o'zbek adabiy tilida iste'molda bo'lgan 27 ta ko'makchi fe'lning yetakchi fe'lga *-a/y, -(i)b* ravishdoshi bilan birikuvchi shakli hamda juft holatda kelgan ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi tahlilga olingan. Turkiyshunoslarning bu boradagi tadqiqoti kuzatilganda esa, ko'makchi fe'lning soni turkiy tilda

[1] Шахматов А.А. Синтаксис русского языка. Вып.1. –Л.: Учпедгиз, 1941. с. 103
[2] Ганиев Ф.А. Вопросы морфологии татарского языка. –Казань,: Наука, 1980. с. 51.
[3] Насилов Д.М. Проблемы тюркской аспектологии. Акциональность. –Л.: Наука, 1989. с. 14.
[4] Маманов И. Вспомагательный глаголи в казахском языке. Алма-Ата,: Изд-во АН КазССР, 1949. с. 90; Харисов А. Категория глаголных видов в башкирском языке. –Уфа: Башкнигоиздат, 1944. с.163; Харитонов Л. Формы глагольного вида в якутском языке. –М., –Л.: Изд-во АН СССР, 1960. с. 176.
[5] Хожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. –Т.: Фан, 1966. 106- б.

miqdoran farqlanishi ko‘zga tashlanadi. Masalan, ozarbayjon, yoqut, qo‘miq, no‘g‘oy, qirg‘iz, qorachoy-bolqor tilida analitik shaklning 40 dan 50 gacha yetishi, tuva tilida esa 30 dan ortiq ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan[1].

O‘zbek tilshunosligi poydevori asoschisidan biri bo‘lgan A.G‘ulomov «Fe’l» monografiyasida hodisani fe’l+fe’l tipidagi qo‘shma fe’l deb ataydi va «Ikkinchi element bu o‘rinda o‘z asl ma’nosini yo‘qotib, birinchi elementning ma’nosiga turli qo‘shimcha ma’no orttiradi: undagi turli ottenkani, bu ma’noning modifikatsiyasini ifodalaydi», - deb ta’riflab o‘tadi[2].

1956-yil Olmaotada bo‘lib o‘tgan turkiy tilda vid kategoriyasi va ergashgan qo‘shma gap masalasiga bag‘ishlangan maxsus kengash[3]da tilshunoslar turkiy tilda vid kategoriyasi mavjudligi haqida aniq bir yechimga kela olmaganligi sababli masalaga oydinlik kiritilmadi. O‘zbek tilshunosligida bu mavzuga oid kengroq qarash tadqiqotchi S.Ferdaus ishida uchraydi. Kuzatishda fe’l vidi turlicha: davomlilik, davomsizlik, takrorlanish va takrorlanmaslik kabi guruhga bo‘linishi ta’kidlansa-da, biroq tilshunoslikda aynan fe’lda nechta vid borligi masalasi noaniqligicha qoladi[4]. Tilshunos A.Hojiyev «O‘zbek tilida ko‘makchi fe’l» monografiyasida masalaga yondashar ekan, hodisani oqlamaydi, balki «Agar o‘zbek tilida ham grammatik vid kategoriyasi mavjud bo‘lganida va bu tilda ham fe’lning ikki xil vidi bo‘lganida, fe’l hamma vaqt vidning ana shu ikki turidan biriga mansub holda bo‘lar edi, chunki vid kategoriyasi bor ekan, fe’l shu kategoriyadan xoli bo‘lmaydi va vidning ikki turi mavjud ekan, barcha fe’l shu ikki turdan biriga mansub bo‘lishi kerak», – deb ta’kidlab o‘tadi[5].

Taniqli turkiyshunos A.Kononov ko‘makchi fe’lni harakat jarayonining xarakterini ko‘rsatuvchi fe’l formasi mavzusi doirasida o‘rganadi. Olim unda vid ko‘rinishi mavjudligini ko‘rsatsa-da, biroq vid kategoriyasi sifatida ajratib bo‘lmasligini bildiradi[6].

Harakat tarzi kategoriyasi shakli. Bugungi kun tilshunosligida tilni yaxlit tizim sifatida tadqiq qilish muammosi ko‘tarilgan bo‘lib, bu esa sathlararo munosabat, uning o‘zaro ta’siri va umumiy ma’noning tajallisini o‘rganishdan iborat. Har qanday lisoniy birlik hech vaqt aynan voqealanmaydi. Uning nutqdagi har bir voqealangan holatida leksik, morfologik, sintaktik yoki uslubiy

[1] Юлдашев А. Аналитические формы глагола в тюрских языках. –М.: Наука, 1965. с. 78.
[2] Ғуломов А. Феъл. –Т.: Фан, 1954. 76- б.
[3] Материалы координационного совещания по проблемам глагольного вида и сложноподчиненного предложения в тюркских языках // Вопросы грамматики тюркских языков. 24–27 сент. 1956 г. –Алма-Ата, 1958, с. 45–51.
[4] Фердаус С. Феълнинг вид категорияси // Ўрта Осиё Давлат Университетининг илмий асарлари. Янги серия. 104- чиқиши. Филология фанлари. –Т., 1957. 84–86- б.
[5] Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. –Т.: Фан, 1966. 210- б.
[6] Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. –М. –Л.: Изд-во АН СССР, 1960. с. 72.

sath zarrasi qorishgan holda namoyon bo‘ladi. Aniqrog‘i, mazkur omil lisoniy zotni o‘z ta’siri doirasida nutqqa chiqaruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Fe’l lug‘aviy shakli sirasida bo‘lgan harakat tarzi shakli yetakchi fe’lning semantik-sintaktik imkoniyatiga ta’sir etadi. Harakat tarzi shaklining tarz semasi mo‘tadillashgan fe’l leksemaga ta’siri natijasida ma’lum bir ifodalanmagan hol kengaytiruvchining nutqqa tortilishi faollashadi. Hol kengaytiruvchining nutqqa kiritilishi esa fe’l leksemadagi mo‘tadillashgan tarz semasini muayyanlikka qarab yo‘nalishiga sabab bo‘ladi.

Harakat tarzi shakli ham voqealanar ekan, til sathi ta’siridan chetda qolmaydi. O‘rganilayotgan hodisa grammatik shakl bo‘lganligi bois unda omilning ta’sir doirasi kuchli bo‘ladi. O‘rni bilan lug‘aviy ma’noni yo‘qotish belgisiga asoslangan ko‘makchi fe’lda leksik sathning ta’sir doirasi kuchli bo‘lsa, ba’zan sintaktik yoki morfologik omil ustuvorlik qiladi.

Lug‘aviy shakl nutqda so‘z bilan birikkanda grammatik ma’no ifodalashi bilan birgalikda mazkur so‘zning lug‘aviy ma’nosiga ham ta’sir qiladi. Ushbu holat, ayniqsa, fe’lning lug‘aviy shaklidan biri bo‘lgan harakat tarzi shaklida yaqqol o‘z aksini topadi. Harakat tarzi shaklida ham qo‘shimcha morfema kabi yetakchi fe’lga birikib, so‘z ma’nosini qisman o‘zgartirish, aniqlashtirish va muayyanlashtirish xususiyati namoyon bo‘ladi. Biroq barcha harakat tarzi shaklida lug‘aviy ma’noga ta’sir bir xil emas. Harakat tarzi shaklining lug‘aviy ma’noga ta’siri haqida fikr yuritilganda, ko‘makchi fe’lning lug‘aviy ma’noni saqlash xususiyatiga ko‘ra darajalangan qatorini esga olish lozim bo‘ladi. Odatda, lug‘aviy ma’noni ko‘proq saqlagan *-a/y+boshla*, *-(i)b+bo‘l* kabi harakat tarzi shaklida yetakchi fe’lning lug‘aviy ma’nosiga ta’siri kuchliroq. *1. Oy... qora bəxmal kechaning yuziga gavhar parda yopa boshladi (H.Shams). 2. O‘tap o‘z ulushiga tushgan zovurni xotini bilan qaynasining yordamida hammadan avval qazib bo‘ldi (H.G‘ulom)*. Misoldan ko‘rinib turibdiki, lug‘aviy ma’nosini butunlay saqlagan ko‘makchi fe’l o‘z yetakchi fe’lidan ma’noviy ajralishga harakat qiladi. Birinchi keltirgan misoldagi *yopa boshladi* hosilasi ma’nosini *yopdi* birligi orqali ifodalab bo‘lmaydi. Zeroki, yopish harakati darajali bo‘lib, «boshlanish», «davom etish», «tugallanish» bosqichiga ega bo‘ladi. Mazkur misolda esa u «boshlanish» holatida bo‘lib, bunda *-a/y+boshla* harakat tarzi shakli o‘zidan oldin kelgan yetakchi fe’lga zich bog‘langan. Natijada u ifodalanayotgan leksik ma’noning ajralmas bir bo‘lagi kabi nutqda namoyon bo‘lyapti. Shuningdek, ikkinchi misoldagi *qazib bo‘ldi* birligi o‘rnini *qazidi* fe’li bilan to‘ldirish mumkin. Bunday vaziyatda keskin, «tugallanish» ma’nosi yo‘qolib, harakat aniqlikdan-noaniqlikka, muayyanlikdan-mavhum (nomuayyan)likka qarab o‘zgarib boradi. Dalil sifatida, *Aziz ko‘chada to‘xtadi*

gapini olib ko'raylik. U quyidagicha kengayish xususiyatiga ega:

1. Aziz ko'chada butunlay to'xtadi.
2. Aziz ko'chada to'satdan to'xtadi.
3. Aziz ko'chada hozirgina to'xtadi.

Biroq *to'xta* fe'li *-(i)b+bo'l* harakat tarzi bilan shakllanganda, uning semantikasidagi misolda ko'rsatilgan mavhum nuqta oydinlashadi. Harakat tarzi shakli bilan shakllangan sememada «to'satdanlik», «hozirgina» semasi yo'qoladi. Semantikada yuz bergan o'zgarish leksemaning sintaktik qobiliyatini toraytirishga sabab bo'lyapti.

Yuqorida ta'kidlanganidek, harakat tarzi shaklining yetakchi fe'l lug'aviy ma'nosiga ta'siri turlicha bo'ladi. Goh harakat tarzi shakli yetakchi fe'lning atash semasiga ta'sir qilsa, goh ifoda semasiga ta'sir o'tkazishi mumkin. Masalan, *Majlis tamom bo'lib kishilar... tarqala boshladi* misolida harakat tarzi shakli yetakchi fe'lning atash semasiga ta'sir qilgan bo'lsa, *Ana Arslonbek janoblari tokchadan bir taxta qog'oz olib, o'qiy ketdi* misolida esa harakat tarzi shakli yetakchi fe'lning atash hamda ifoda semasiga ta'sir o'tkazgan.

Nutqda mustaqil leksema uning yordamchi leksema sifatida voqealanadigan tarz ma'nosiga turlicha ta'sir o'tkazadi. Ba'zi mustaqil fe'l asosida yuzaga kelgan ko'makchi fe'lda atash semasi ko'proq saqlanib qolishi mumkin, ayrimida esa ifoda yoki vazifa semasi barqaror bo'ladi. Shuningdek, harakat tarzi shaklining mustaqil fe'l leksema bilan birika olishi faqat uning grammatik ma'nosi bilangina emas, yetakchi fe'lning mazmun silsilasi bilan ham belgilanadi. Chunki uning o'zaro muvofiqligi shaklning nutqqa kiritilishiga asos bo'ladi.

Tilshunos A.Hojiyev *tur* ko'makchi fe'lining *-(i)b* ravishdoshi bilan birikkanda ifodalaydigan besh ma'nosini va *-a/y* ravishdoshi bilan birikkanda ifodalanadigan uch ma'nosini farqlaydi va tahlil davomida *tur* ko'makchi fe'li *-(i)b* ravishdoshi bilan birikkanda «etakchi fe'ldagi harakatning ma'lum belgili vaqt ichida, biror harakat yoki hodisa amalga oshguncha bajarilishi – «vaqtincha» degan ma'noni bildiradi», – deb ta'kidlaydi[1]. Tahlil uchun *Siz o'qishga ketganingizda, daraxtlarga o'zim qarab turaman* misoli beriladi. Mazkur gapda «vaqtincha» ma'nosi *-b+tur* harakat tarzi shakliga tegishliga o'xshasa-da, *Siz o'qishga ketganingizda* parchasi nutqdan soqit qilinsa, gapning ikkinchi qismida «davomiylik» ma'nosi «vaqtincha» ma'nosidan uzilgan holatda yuzaga chiqadi. Bu kabi sintaktik omilning leksemaga ta'sirini belgilashda lisoniy sathda sof va tajalli jihatni farqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Kuzatish davomida yuqorida keltirilgan misol

[1]Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. –Т.: Фан, 1966. 51- б.

Daraxtlarga men qarab turaman.

Odatda daraxtga men qarab turaman.

Daraxtlarga men har kuni qarab turaman tarzida o'zgartirilsa ham, undagi «davomlilik» ma'nosi «vaqtincha» ma'nosidan xoli ravishda yuzaga chiqayotganligiga amin bo'lish mumkin.

Tur mustaqil leksemasi sememasi harakatli yoki harakatsiz holatga ko'ra ham farqlanar ekan, yordamchi leksema vazifasida kelgan *tur* vositali harakat tarzi shakli birgina semema asosida - «biror makonda, narsada bo'lmoq» semasi ta'sirida shakllanadi. Masalan, *Siddiqjon anhorning narigi yog'ida anjir ochayotgan bo'lib, qizni kuzatib turgan edi* (A.Qah.). Bunda «ish-harakatning davomliligi» ma'nosi *-(i)b+tur* harakat tarzi shakli orqaligina emas, *kuzatmoq* mustaqil leksemasi vositasida ham ifodalanyapti. Zeroki, *kuzatmoq* leksemasi lisoniy tizimda bir lahzada yuz beruvchi, tezlikda bo'lib o'tuvchi *chaqnamoq, yashnamoq, cho'chimoq* fe'l leksemasi bilan teskari proportsional paradigma hosil qiladigan *o'ylamoq, xayol surmoq, semirmoq* kabi «ma'lum davomli vaqtda» amalga oshuvchi fe'l leksema qatorida yashaydi. Misoldagi *kuzatish* harakatining «davomliligi»ni *-(i)b+tur* harakat tarzi shakli vositasida «uzoq davomlilik» ma'nosi bilan to'ldirilgan deb tushunish mumkin.

Tur ko'makchi fe'lli harakat tarzi shaklining o'ziga xos xususiyatidan yana biri sifatida uning mustaqil leksema sifatida keluvchi *tur* yetakchi fe'lining o'zi bilan birikishini ko'rsatish mumkin. Masalan, *yozib tura tur* misolida «davomlilik» ma'nosi bilan birgalikda «vaqtincha», «hozircha» ma'nosi ham ifodalanadi. Aytib o'tilganidek, «*tur* ko'makchi fe'li yetakchi fe'lga ketma-ket qo'shilgan holda uning ma'nosi ta'kidlanadi va yetakchi fe'ldagi harakatning bajarilish muddati ishlab tur formasidagiga nisbatan ham, shuningdek, ishlay tur formasidagiga nisbatan ham qisqaroq bo'ladi»[1]. Bizga ma'lum manbada harakat tarzi shaklining yolg'iz birikish manbayi mustaqil fe'l bo'lishi lozimligi aytiladi. Biroq ba'zi o'rinda harakat tarzi shakli gapning bog'lamali ot kesimiga qo'shilib, harakat tarzi shakliga yaqin ma'no ifodalashi ham mumkin. Buni tilshunos M.Mirtojiyev, N.Mahmudov quyidagicha izohlaydi: «*Chiq* ko'makchi fe'li gapning bog'lamali ot kesimiga qo'shilib, o'z ko'makchilik ma'nosini ilova qilishi ham kuzatiladi. Masalan: *Dastlabki sotish bu xilda bo'lib chiqdi (Oybek).* Bu gapdagi kesim *bu xilda* oti bo'lib, unda egadan anglashilgan sotuv jarayoni nazarda tutilgan. Gapdagi *bo'lib* bog'lamasi uning amalga oshganini ko'rsatsa, *chiq* ko'makchi fe'li o'sha jarayon natijalanganligini bildiradi»[2].

Ma'lumki, harakat tarzi shakli fe'lning lug'aviy shaklidan bo'lib, u ma'lum

[1] Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. –Т.: Фан, 1966. 55- б.

[2] Махмудов Н., Миртожиев М. Тил ва маданият. –Т.: Ўзбекистон, 1992. 56- б.

bir harakatga nisbatan «davomiylik» yoki «qisqalik», «muntazam» yoki «uzluksizlik», «kutilmaganlik» kabi ma'nosini ifodalab, yetakchi fe'l leksemadagi mo'tadil «tarz» semasini muayyanlashtiradi. Yuqorida keltirilgan gapda mualliflar izohlaganidek, gap markazi ot kesim. *Chiq* ko'makchi fe'li ot kesim tarkibidagi bog'lama (*bo'l*)ga birikib, grammatik ma'no ifodalashga xizmat qilgan. Mazkur *-(i)b+chiq* yaxlitligi harakatga emas, belgiga aloqador ekan, shunga ko'ra u harakat tarzi shakli qatoridan o'rin olmasligi lozim. Shuningdek, u mustaqil fe'l qatoridan ham joy olmaydi, faqat ot kesim tarkibidagi ko'makchi fe'l sifatida izohlanishi mumkin.

Harakat tarzi shaklining ham bosh shakli yetakchi fe'l (o'qidi)ning o'ziga teng bo'lib, o'qib turibdi, o'qib oldi, o'qib bo'ldi misolidagi tarz ma'nosining barchasi mazkur bosh shakl (o'qidi)da mavjud bo'ladi. O'rni bilan nutqda tarz ma'nosi leksik, morfologik va sintaktik omil ta'sirida muayyanlashib boradi.

Analitik shakl ostida o'rganib kelingan harakat tarzi shakli sintetik-analitik (*topib oldi, bajarib qo'ydi*, analitik (*chopdi-ketdi, oldi-qo'ydi*) hamda sintetik (*topolmaydi, yozoladi, boraver*) shaklini hosil qilar ekan, boshqasidan farqli o'laroq, sintetik ko'rinishdagi harakat tarzi shaklini fe'lda modal ma'noni ifodalovchi *-inqira, -imsira, -machila, -kila, -qila* grammatik shakli qatoridan o'rin olishga intilayotgan, qo'shimchalashish bosqichini bosib o'tayotgan shakl sifatida izohlash mumkin.

Fe'l lug'aviy shakli sirasida bo'lgan harakat tarzi shakli yetakchi fe'lning semantik-sintaktik imkoniyatiga ta'sir etadi. Harakat tarzi shaklining tarz semasi mo'tadillashgan fe'l leksemaga ta'siri natijasida hol kengaytiruvchining nutqqa tortilishi faollashadi. Bunda ravish leksema bilan nutqiy-kontekstual ma'nodoshlik munosabati yuzaga keladi.

Harakat tarzi shakli nutqda voqealanar ekan, aksariyat holda ifodalanmagan holat yoki payt ravishi mavjudligiga ishora qilib turadi. Masalan, *Lektor... xatga qarab, jahl bilan yana bir marta «o'rtoqlar» dedi-yu, lektsiyani boshlab yubordi* (A.Qah.). Misolda ma'noning kuchayishi tezlikka nisbatan bo'lib, «harakatning juda qisqa vaqt ichida yuz berishi» ma'nosi yuzaga chiqqan. Bunda harakat tarzi shakli *-(i)b+yubor* mazkur ma'noni berish imkoniyatiga yaqin bo'lgan *to'satdan, tezda, birdan* kabi holat ravishiga ishora qilib turibdi. Ba'zan esa bunday holda ifodalanmagan gap kengaytiruvchisi vazifasidagi *shu ondayoq, shu zahotiyoq* kabi payt holini ham to'ldiruvchi bo'lak sifatida qo'llash mumkin. Biroq nutqda, yuqorida keltirilgan kabi, *Ali tajang burishiq peshonasini silab, lab-lunjini tutolmay, kulib yubordi* misolidagi harakat tarzi shaklini tushirib, uni shunga yaqin ma'no beruvchi holat ravishi bilan almashtirganimizda mazkur shakl orqali ifodalangan uslubiy-ta'siriy ma'no ma'lum noziklik bilan

farqlanadi: *Ali tajang burishiq peshanasini silab, lab-lunjini tutolmay birdan kuldi.*

Harakat tarzi shaklining, ko'rib o'tganimizdek, ravish leksema bilan quyidagi munosabati ko'zga tashlanadi:

1) ravish leksemani eslatib turuvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi;

2) ravish leksema bilan bir sintaktik yaxlitlikda yashab, muayyan ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladi va nutqiy-kontekstual ma'nodoshlik munosabatida bo'ladi.

Harakat tarzi shakli o'zbek tilining zotiy xususiyatini namoyon etuvchi vositadan bo'lganligi bois boshqa noqardosh tildan o'zbek tiliga matn tarjimasida ma'noni bo'rttirish va ta'sirchanligini oshirishda qo'l kelsa, o'zbek tilidan chet tiliga matnni o'girishda esa ba'zi bir muammoli vaziyatni keltirib chiqaradi.

Ma'lumki, flektiv til guruhiga kiruvchi ingliz tilida harakat tarzi shakli kabi fe'l kesimni modifikatsiya qiluvchi grammatik vosita mavjud emas. Shunga ko'ra, o'zbekcha matndagi harakat tarzi shakli ma'nosining inglizcha matnda qay tarzda berilish imkoniyati va shu imkoniyatni yuzaga chiqaruvchida qaysi vositadan foydalana bilish lozimligi haqida to'xtalib o'tish joiz.

Ingliz tilida ham *«Auxiliary verbs»* mavzusi ostida o'rganiluvchi *to be, to do, shall, will, should, would* kabi yordamchi (ko'makchi) fe'l bor, lekin uning gapdagi imkoniyati va vazifasi o'zbek tilidagi harakat tarzi shaklidan butunlay farq qiladi. Avvalo, u darak gapdan so'roq gap hosil qilishda yordamga chaqiriladigan vosita sifatida izohlanadi:

- I go to the Karshi University every day.

-Whery do you go?

Shuningdek, u nutqda ot (keng ma'noda)+fe'l tipidagi qo'shma fe'l yasashda, ot kesimning kesimlik ko'rsatkichi vazifasini bajarishda va zamon ma'nosini ifodalashda xizmat qiluvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi:

You don't do harm me.

I am a student now.

We shall play tennis every evening. Ko'rinib turibdiki, o'zbek tilidagi ko'makchi fe'l bilan ingliz tilidagi «Auxiliary verbs» yordamchi (ko'makchi) fe'l mohiyatan bir-biriga yaqin vosita emas. Til o'rganishga kirishgan har bir yigit-qiz maktab davridayoq o'zbekcha matndagi harakat tarzi shakli ma'nosini ingliz tiliga o'girish muammosiga duch keladi va qiziqib qoladi. Ma'lumki, harakat tarzi shakli qo'shimcha morfema qatorida turuvchi grammatik shakl bo'lganligi bois, tarjima qiluvchi o'girishda leksik ma'no ifodalovchi yangi bir mustaqil leksema kiritishga botina olishmaydi. Natijada:

U kulib yubordi – U kuldi
He has laughed
U qarab qoldi – U qaradi
He has looked at...
U kelayozdi – U keldi
He has come

kabi holat yuzaga kelishi mumkin. Natijada harakat tarzi shakli qatnashgan yoki qatnashmagan gap ham ingliz tiliga bir xil tarjima qilinishi lozim bo'lib qoladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, harakat tarzi shakli o'zbek tilining zotiy mohiyatini namoyon etuvchi ontologik xossasi hisoblanadi. Demak, harakat tarzi o'zbek tili tabiatiga xos ekan, uni o'zga tilda, jumladan, ingliz tilida shunga yaqin ma'no ifodalovchi vosita – gap kengaytiruvchi bilan berilishi lozim bo'ladi. Buning uchun esa harakat tarzi shakli bilan nutqiy-kontekstual ma'nodoshlik vaziyatini yuzaga keltiruvchi ravishdan unumli foydalana bilish zarur. Yuqoridagi misol quyidagicha hol kengaytiruvchisi bilan to'ldirilishi mumkin.

U kulib yubordi – He has laughed suddenly
U qarab qoldi – He looked gradually
U kelayozdi –.....

Yuqoridagi tahlil tarjimachilikda masalaning bir tomoni, xolos. Uni boshqa vosita orqali ham ingliz tilida berish imkoniyati mavjud. Biroq qiyoslanganda, grammatik shakl tizimidagi harakat tarzi shakli turkiy til, jumladan, o'zbek tilining «Muhokamat ul-lug'atayn»idan joy oluvchi faktdan. Zeroki, yuqorida keltirilgan *U kelayozdi* misolini ingliz tiliga muqobil tarzda, grammatik vosita asosida o'girishga urinish har qanday til biluvchi mohir tarjimon uchun ham samarasiz natija bersa kerak.

Lug'aviy ma'noni saqlash harakat tarzi shaklida, shuningdek, *-a/y* yoki *-(i)b* shaklli ravishdoshda ham farqlanar ekan, *-a/y* ravishdosh shaklining yetakchi fe'lni o'zidan keyin kelgan ko'makchi fe'lga tobora yaqinlashtirib, qo'shish imkoniyatiga moyilligini kuzatish mumkin. Yuqorida aytilgan *qarayverib, ajralayozdi, kela oladi, kelayotibdi* kabi fikrimiz dalili. Qo'shimchalashish qanchalik kuchayib borsa, shunga muvofiq, ko'makchi fe'l ham lug'aviy ma'noni saqlash imkoniyatidan ayrila boradi.

Harakat tarzi shakli grammatik xususiyati asosida tahlil qilinganda, so'zshakldan *-a/y+ko'r* o'ziga xos xususiyatni namoyon etadi. Odatda, *ko'r* ko'makchi fe'lining *-a/y* ravishdosh shakli bilan valentlik imkoniyati faqat buyruq mayli doirasidagina uchraydi. *Ko'r* fe'lining o'zi esa hamma vaqt

bo'lishsiz formada qo'llanadi[1]. Masalan, *Bu sirni hech kimga ayta ko'rma (G'ayratiy)*. Ma'lum bo'ladiki, *-a/y+ko'r* tuslanishga xoslanmagan harakat tarzi shakli bo'lib, uning uchun bo'lishsizlik shakli nutqda yagona «yashash imkoniyati» hisoblanadi. Shunga qiyosan *yoz* ko'makchi fe'li tahlil qilinganda, buning aksini kuzatish mumkin. *Yoz* ko'makchi fe'li, asosan, bajarilishi lozim bo'lgan, lekin to'la bajarilmagan ish-harakatni ifodalovchi fe'lga qo'shimcha ma'no beradi. Mazkur ma'no, o'z-o'zidan, bo'lishli-bo'lishsizlik ma'nosi bilan muvofiq kelmaydi. Bu esa *yiqilayozdi, tugatayozdi* kabi so'zshaklning bo'lishsiz shaklda bo'la olmasligi sababini oydinlashtiradi. Harakat tarzi shakli grammatik xoslanish xususiyatiga ega ekan, bu uning vazifa semasi asosida yuzaga chiqadi. *-a/y+sol* harakat tarzi shakli ham *-a/y+ko'r* qolipli shakl kabi tuslanishga xoslanmagan ko'rinishga ega. Tilshunos A.Hojiyev *sol* ko'makchi fe'li ravishdoshning *-a* affiksi bilan yasalgan turiga birikkanda, o'zi ham deyarli hamma vaqt *-(i)b* affiksi bilan yasalgan ravishdosh shaklida bo'lishi va yetakchi fe'l bilan birga sodda gap tarkibidagi ravishdosh oborotning kesimi vazifasida kelishini ta'kidlaydi[2]. Masalan, 1. *Yo'lchi pichoqni ura solib, uzoqqa otdi* (Oybek). 2. *Saidg'ozi qo'lidagi qalamini qo'ya solib, chapakka zo'r berdi. (S.Anorboev)*. Tahlildan xulosa chiqarib shuni aytish mumkinki, harakat tarzi shaklida grammatik xoslanish mavjud bo'lib, u tuslanish yoki tuslanmaslik, bo'lishli-bo'lishsizlik xususiyatiga ko'ra farqlanadi.

Morfologik shakl hisoblangan harakat tarzi nutqqa chiqar ekan, unga goh sintaktik sath ta'siri kuchli bo'lsa, goh leksik yoki morfologik omil ta'siri ustuvorlik qilishi kuzatiladi.

Harakat tarzi shaklining ma'noviy xususiyati vazifaviy xususiyatiga qaraganda keng bo'lib, u ma'lum bir guruh fe'li bilan aloqaga kirishganda o'zining ko'p ma'nolilik xususiyatini yuzaga chiqaradi. Harakat tarzi shakli boshqa morfologik shakl qatorida ma'noviy va sintaktik xossa birligidan iborat butunlik bo'lib, uning umumiy grammatik ma'nosi dialektik yaxlitlik asosida ochiladi. Shaklning ma'noviy jihati «harakatning tarzini ifodalash» bo'lsa, sintaktik vazifasini «fe'l singari kesim vazifasida kelish» tashkil etadi. Demak, shakl umumiy grammatik ma'nosini «ish-harakatning tarzini ifodalash» deb ta'riflash mumkin. Harakat tarzi shakli umumiy grammatik ma'nosining sintaktik tomoni deyarli o'zgarishsiz - «fe'lning tarz ma'noli kengaytiruvchisini muayyanlashtirish» tarzida xususiylashadi. Bog'lanuvchi fe'l bu vazifani o'ziga xos tarzda modifikatsiya qila olmaydi. Biroq ma'noviy jihatdan to'g'ridan-to'g'ri emas, balki muayyan oraliq grammatik ma'no orqali nutqqa chiqadi,

[1] Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. –Т.: Фан, 1966. 178-б.
[2] Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. –Т.: Фан, 1966. 67-б.

xususiy holda namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, harakat tarzi shaklining ma'nosini belgilashda ravishdoshning *-a/y* yoki *-(i)b* shakli muhim rol o'ynaydi. Masalan, *o'qiy oladi, o'qib oldi* misolida morfologik shaklga morfologiyaning ta'siri ustuvorlik qiladi. Bunda leksikaning ta'sir doirasi mazkur omilga nisbatan zaifroq bo'ladi. *Kulmoq* leksemasi -(i)b ravishdosh shakli vositasida *qoldi, qo'ydi, turibdi, berdi, yotibdi, oldi, yubordi* ko'makchi fe'l bilan birika olish imkoniyatiga ega.

Faqat ega va fe'l kesim munosabatidan tashkil topgan yig'iq gapda harakat tarzi shaklining yetakchi fe'l leksemaga valentlik imkoniyati mo'tadil bo'ladi. Masalan, *Adham kuldi.* Mazkur yig'iq gap hol kengaytiruvchi bilan kengayganda harakat tarzi shaklining valentlik imkoniyati muayyanlashadi, chegaralanadi: *Adham birdan kulib yubordi.* Aniqrog'i, shakliy kengayish ma'noviy torayishni vujudga keltiradi.

Hol kesimdan, hatto egadan quyi mavqeni egallaydi. Zeroki, nutqiy gapda kesim ortidagi egani tiklash holni tiklashga qaraganda o'ng'ay. *Adham kulib yubordi* kabi misolda harakat tarzi shakli ifodalanmagan holni tiklash uchun vosita vazifasini o'taydi:

Adham kulib yubordi – Adham birdan kulib yubordi.

Ma'lum bo'ladiki, gapdagi hol kengaytiruvchi yuqoridagi *-(i)b+qol, -(i)b+qo'y, -(i)b+tur, -(i)b+ ber, -(i)b+yot, -(i)b+ol* harakat tarzi shakli valentlik imkoniyatini to'sib qo'ygan. Agar *Adham birdan kulib yubordi* gapida *birdan* leksemasi *sekin* hol kengaytiruvchisi bilan almashtirilsa, *-(i)b+yubor* harakat tarzi shakli *-(i)b+qo'y* shakliga o'z o'rnini bo'shatib beradi. Yuqoridagi o'rinda morfologik shaklga sintaktik omilning ta'siri leksik omilga nisbatan kuchliroq seziladi.

-(i)b+ol qolipli harakat tarzi shakli ko'pgina chegarali (statik) *o'rganmoq, chiqarmoq, tuzatmoq* kabi fe'l guruhi bilan birikkanda ish-harakatning bajarilishi ma'nosini ifodalaydi. Masalan, *o'rganib oldi, chiqarib oldi, tuzatib oldi.* Biroq *-(i)b+ol* qolipli harakat tarzi shakli *yo'talmoq, qaramoq, botirmoq, mo'ralamoq* kabi chegarasiz (dinamik) fe'l guruhi bilan birikkanda, «ish-harakatning bir marta bajarilishi» ma'nosi ifodalanadi. Masalan, *yo'talib oldi, qarab oldi, botirib oldi, mo'ralab oldi* kabi. Mazkur holatda leksikaning morfologik shaklga ta'siri kuchli bo'lib, yetakchi fe'l harakat tarzi shakli ma'nosini belgilashda hokimlik tabiatini yuzaga chiqarmoqda.

Lug'aviy ma'nosini butunlay saqlagan ko'makchi fe'lda leksik omilning ta'siri kuchsizroq bo'lsa, sintaktik omilning ta'siri sezilarsiz darajada bo'ladi.

Masalan, *O'quvchilar kela boshladi* misolida *tezda, asta-sekin, birin-ketin, yugurgancha* kabi o'rin kengaytiruvchisining ta'siri sezilmas darajada. *Boshla*

ko'makchi fe'lining «ish-harakatning boshlanishi» ma'nosi mazkur gapda yetakchi fe'l sifatida ifodalayotgan harakatga o'xshasa-da, lug'aviy ma'nosini ko'proq saqlash asosida tajallilangan. Mazkur gapda aslida «subyektning mo'ljal qilingan joyga yetishi» ma'nosi yetakchi xususiyatga ega bo'lib, «ish-harakatning boshlanishi» ma'nosi esa mazkur harakatning tarzini ifodalab kelyapti.

Ko'rinadiki, harakat tarzining ifodalanishida leksik, morfologik, sintaktik omil ta'siri turlicha bo'lib, mazkur hodisaning tajallisi asl morfologik zotni qorong'ilashtiradi.

Harakat tarzi shakli paradigmatikasi. Harakat tarzi shaklining umumiy grammatik ma'nosini ochishda, kategorial xususiyati va paradigmatik munosabatini oydinlashtirishga uning tarkibli, ya'ni qo'shimcha+fe'l leksema tuzilishga ega ekanligi ham ma'lum darajada monelik qilishi tabiiy. Chunki bunda masalani murakkablashtiruvchi bir necha holat mavjud:

1) shaklda uni o'ziga biriktirayotgan leksemaning ham, ravishdosh shaklining ham, shuningdek, ko'makchi fe'lning ma'nosi ham qorishgan holda voqealanib, umumiy tarz ma'nosining ko'rinishini murakkablashtirishi;

2) harakat tarzi shaklini hosil qilishda ishtirok etayotgan ko'makchi fe'l ma'nosining mustaqil qo'llanishidagi lug'aviy ma'nosi bilan aloqasi mavjudligi, bu aloqaning turli daraja va ko'rinishda ekanligi;

3) ravishdosh ko'rsatkichining ham, ko'makchi fe'lning ham ma'noviy murakkabligi, serqirra mohiyatliligi harakat tarzi shaklining ham ko'p ma'noliligini keltirib chiqarishi va shaklni ayni bir ma'no ifodalovchi vosita sifatida muayyan paradigmaga kiritish imkoniyatining cheklanganligi.

Ma'lum bo'ladiki, harakat tarzi shakli garchi «tarz» umumiy grammatik ma'nosi ostida birlashsa-da, uni boshqa grammatik kategoriyada bo'lgani kabi shakldan kelib chiqqan holda paradigmatik tahlil qilish imkoni cheklangan. O'rganilayotgan shaklning ko'p ma'noliligi «xususiylikdan umumiylikka» asosida ish ko'rish uchun to'siq bo'ladi. Shu boisdan harakat tarzi shakli paradigmasi lisoniy tizim sifatida tahlilga tortilar ekan, «xususiylikdan umumiylikka» yo'nalishida emas, balki «umumiylikdan xususiylikka» tamoyili asosida ish ko'rmoq lozim bo'ladi.

Morfologik shaklning fahmiy his qilinadigan alohida-alohida zohir bo'luvchi ma'nosiga xususiy grammatik ma'no sifatida yondashish mumkin. Xususiy grammatik ma'no til sathiga xos umumiy grammatik ma'nodan sintagmatik munosabatda ro'yobga chiqishi, aniqligi, variativligi, individual

qo‘llanishi bilan farqlanadi[1].

Harakat tarzi shaklining xususiy grammatik ma’nosi ham bevosita nutq bilan bog‘liq bo‘lib, u faqat nutqiy hosiladagina o‘zining xususiy grammatik ma’nosini yuzaga chiqaradi. Harakat tarzi shaklining umumiy grammatik ma’nosi esa bevosita kuzatishda berilmagan bo‘lib, tayyorlik, umumiy, majburiylik, barqarorlik kabi xususiyatga ega. Harakat tarzi shaklining umumiy grammatik ma’nosi xususiylikning umumiy xossasi sifatida mazkur xususiylikda yashaydi va u orqaligina nutqda reallashadi.

Harakat tarzi shaklining xususiylashuvi umumiy grammatik ma’noning muayyan xossasi asosida shakllanadi. Har qanday hodisa ko‘plab mohiyat zarrasidan iborat bo‘lganligi sababli, nutqda qo‘llanilgan muayyan so‘zshaklda turli umumiy grammatik ma’noning xususiy grammatik ma’noi sifatida yuzaga chiqqan zarra mavjud bo‘lib, u nutqiy alohidalik so‘zshaklda shunday zich birlashganki, ko‘p holda uni bir-biridan ajratish qiyin bo‘lib qoladi.

Miqdoran ellikka yaqin shaklni qamrab olgan harakat tarzi shakli, aytilganidek, «tarz» umumiy grammatik ma’nosi ostida birlashadi. Bu umumiylik muayyan nutqiy qo‘llanishgacha bir necha oraliq bosqichni bosib o‘tadi. Birinchi bo‘linish ikki a’zoli bo‘ladi: «jarayonlilik» va «qobiliyat». Ikkinchi bo‘linish «jarayonlilik» oraliq grammatik ma’nosida a’zo soni uchta: «ish-harakatning boshlanishi», «ish-harakatning davomiyligi», «ish-harakatning tugallanganligi». «Qobiliyat» oraliq ma’nosi «qodirlik» va «sinash»ga bo‘linadi.

O‘z navbatida ikkinchi oraliq ma’no yana parchalanadi. Masalan, «ish-harakatning boshlanishi» oraliq ma’nosi «soniyaviylik» va «davomiylik» oraliq bo‘lakchasiga; «ish-harakat davomiyligi» esa «uzluklilik» hamda «uzluksizlik» parchasiga ajraladi. «Ish-harakat tugallanganligi» oraliq ma’nosi «to‘la bajarilish», «to‘la bajarilmaganlik», «o‘ziga olish», «soniyaviylik» oraliq bo‘lakchasiga ega bo‘ladi. «Ish-harakatga qodirlik» oraliq ma’nosi «jismoniy va aqliy faoliyat» hamda «aqliy faoliyat» oraliqlaridan iborat bo‘lsa, unga yondosh qatorda turuvchi «sinash» oraliq ma’nosi «tekshirish», «sinash», «tajribadan o‘tkazish», «harakatni bilish», «belgilash» hamda «aniqlash» quyi oraliqiga parchalanadi.

Harakat tarzi shaklining «tarz» umumiy grammatik ma’nosi asosidagi paradigmasini endi nutqiy hosilalarda ko‘rib o‘tamiz. Avvalo, *do‘pposlab ketdi* misolida «harakatning to‘satdan boshlanishi» ma’nosi - *b*+ket shakli orqali «ish-harakat boshlanishining soniyaviyligi» oraliq grammatik ma’nosi tiklanadi. *O‘qiy boshladi* misolida *-y+boshla* shakli orqali «ish-harakat boshlanishi va

[1] Менгliев Б.Р. Лисоний тизим яхлитлигида сатхлараро муносабатлар: филол. фан. докт. ... дис. –Т., 2002. 207- б.

davom etishi» oraliq ma’nosi yuzaga chiqadi. *Yozib turibdi* misolida esa «harakatning takror holda davom etishi» *-ib+tur* shakli orqali «ish-harakat davomiyligining uzlukliligi» oraliq ma’nosi ifodalanadi. *Kuzata tur* misolida *-a+tur* shakli orqali «ish-harakat davomiyligi» oraliq ma’nosi «ish-harakatning uzoq davom etishi»ni ifodalasa, *yozib yotibdi* misolida esa *-ib+yot* shakli orqali «ish-harakat davomiyligining uzluksizligi» oraliq ma’nosi «harakatning muttasil davom etishi» ma’no nozikligi bilan farqlanadi. *Tugab ketdi* misolida *-b+ket* shakli orqali «harakatning to‘la yuzaga kelishi» ma’nosi «ish-harakat tugallanganligining to‘la bajarilishi» oraliq grammatik ma’nosini yuzaga chiqaradi. *Kelayozdi* misolida *-a+yoz* shakli orqali «harakatning bajarilishiga yaqinlashganlik» ma’nosi «ish-harakat noto‘liq tugallanganligi» oraliq grammatik ma’nosini ifodalaydi. *O‘rganib ol* misolida «harakatning o‘z manfaatiga yo‘naltirish» ma’nosi *-ib+ol* shakli orqali «ish-harakat tugallanganligini o‘ziga olish» oraliq grammatik ma’nosini yuzaga keltiradi. *Cho‘chib tushdi* misolida esa *-(i)b+tush* shakli orqali «harakat yoki holatning bir zumda bo‘lib o‘tishi» ma’nosi «ish-harakat tugallanganligining soniyaviyligi» oraliq grammatik ma’nosini yuzaga chiqaradi. *O‘qiy oladi* misolida *-y+ol* shakli orqali «harakatni bajarish imkoniyatiga egalik» ma’nosi «ish-harakatga qodirlik» oraliq grammatik ma’nosida «jismoniy va aqliy faoliyat»ni ifodalasa, *ko‘rsata bildi* misolida esa *-a+bil* shakli orqali «harakatni bajarish qobiliyatiga egalik» ma’nosi «ish-harakatga qodirlik» oraliq grammatik ma’nosining faqat «aqliy faoliyat» ko‘rinishini yuzaga chiqaryapti. Shu o‘rinda «ish-harakatga qodirlik» ma’nosini yuzaga chiqaruvchi *-a/y+ol* va *-a/y+bil* shakli haqida fikr yuritilganda shuni aytish lozimki, *-a/y+ol* shaklini nutqda mazkur ma’noni ifodalashda ishlatish o‘zbek tili me’yoriga mos kelsa-da, *-a/y+bil* shakli orqali «ish-harakatni bajarishga qodirlik» ma’nosi ifodalanishini «normadan chetlanish» deb hisoblash mumkin[1]. *Borib ko‘r* misolida *-ib+ko‘r* shakli orqali «harakatni tekshirish yoki tajribadan o‘tkazish» ma’nosining «sinash» oraliq grammatik ma’nosi ifodalansa, *sanab boq* misolida *-b+boq* shakli orqali «harakatni bilish, belgilash, aniqlash» ma’nosi «ish-harakatni sinash» oraliq grammatik ma’nosini tiklash uchun xizmat qiladi.

Xususiylikni tiklash pog‘onali tabiatga ega ekan, xususiy grammatik ma’no va umumiy grammatik ma’no orasida uni bog‘lovchi bo‘g‘in ajratilganda, oraliq grammatik ma’noda xususiy grammatik ma’noning ham, umumiy grammatik ma’noning ham xossasi mavjud bo‘ladi.

Ma’lumki, o‘zbek tilida shu kungacha eng katta morfologik paradigma

[1] Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. –М. -Л.: Изд-во АН СССР, 1960. с. 180.

sanalgan zamon kategoriyasi 18 a'zodan iborat[1]. Hajman undan-da katta bo'lgan, qariyb 50 ga yaqin a'zoni o'z ichiga olgan harakat tarzi shakli paradigmasini «tarz» umumiy grammatik ma'nosi ostida birlashtirish mumkin. Bu quyidagi ko'rinishda aks etgan (1-jadval. Harakat tarzi kategoriyasi).

Jadvalda harakat tarzi ma'nosini ifodalashning birgina morfologik ko'rinishi va yagona umumiylik ostida yaxlit tizim hosil qilishi aks etgan. Xususiy grammatik ma'no o'z umumiy grammatik ma'nosiga yetib borishi uchun darajalangan oraliq grammatik ma'no bosqichini bosib o'tadi. Jadvaldagi tadrijiy grammatik ma'noda harakat tarzi shaklining xususiy ma'nosi ko'rsatilmagan. Buning sababi shundaki, uning xususiy grammatik ma'nosi kontekst bilan bog'liq bo'lib, birgina shakl ma'lum nutqiy jarayonda yetakchi fe'l leksema, ravishdosh shakli va sintaktik omil ta'siri bilan voqealanib, o'ziga xoslik kasb etadi. Aniqrog'i, ma'lum bir shaklning misolda yuqoridagi omil ta'sirida turlicha ma'no ifodalashi kuzatiladi. Shunga ko'ra aytish mumkinki, harakat tarzi shaklining xususiy grammatik ma'nosini odatda kontekst hal qiladi.

Ma'lum bo'ladiki, umumiy grammatik ma'no nutqqa kiritilar ekan, u qanchalik quyilsa, unga boshqa hodisa- turli til sath ta'siri ham muayyanlashib boradi.

Ma'lumki, o'zbek tilida harakat tarzi shaklini hosil qiluvchi 30 ga yaqin fe'l mavjud bo'lib, bu fe'l ko'makchi fe'l sifatida anglatayotgan ma'noning mustaqil qo'llanishidagi ma'nosiga munosabati jihatidan darajalanuvchi qatorni tashkil qiladi. Umumlingvistik qonuniyat bo'lgan darajalanishning harakat tarzi shaklida xususiylashuvi o'ziga xos.

O'zbek tilidagi morfologik shakl sintetik tabiatlidir, biroq so'zning analitik (Adham *uchun, qalam bilan*) va sintetik-analitik (*uyga tomon, qishloqqa qadar*) shakli ham mavjud. Harakat tarzi shakli ham, aytilganidek, so'zning sintetik (*borolmayman, kelaveradi*), sintetik-analitik (*o'qiy boshla, ko'rib chiq*) hamda analitik (*sotdi-qo'ydi, ketdi-qoldi*) morfologik shaklni hosil qiladi.

Harakat tarzi shaklining analitik ko'rinishida ko'makchi fe'lning boshqa analitik shaklida bo'lgani kabi yordamchi so'zga xos ham shakliy, ham ma'noviy jihatdan o'z leksemalik tabiatini saqlashning kuchliligini emas, balki uni yetakchi fe'lga bog'layotgan ravishdosh ko'rsatkichini siqib chiqarib,y etakchi fe'l bilan ma'noviy zichlashishga hamda yetakchi fe'lning kesimlik ko'rsatkichi bilan shakllanishi natijasida shakliy mustaqilligini saqlashga intilishidan iborat shakliy-ma'noviy ziddiyat ko'zga tashlanadi: *aytdi-qo'ydi, ketdi-qoldi* kabi.

[1] Баҳриддинова Б. Феъл луғавий шакли тизими. Феълнинг тур категорияси: филол. фан. номз. дис. – Самаркавд, 2002. 45- б.

An'anaviy talqinda harakat tarzi shaklidagi darajalanishni, avvalo, lug'aviy ma'noni saqlash xususiyati asosida ko'rsatishga intilish bo'lganligini sezish mumkin. Bunda siraning boshida *boshla* va oxirida *yoz* fe'li turadi. Shu boisdan harakat tarzi shaklidagi darajalanishga zimdan ishora qilib o'tgan akademik A.Hojiyev ko'makchi fe'lni tartiblashtirishda *boshla* fe'lini qator boshiga qo'yib, uning ko'makchi fe'l vazifasida ifodalaydigan ma'nosi ko'proq «mustaqil fe'l sifatida qo'llanganda ifodalaydigan ma'nosiga to'g'ri kelishi»ni bir necha marta ta'kidlaydi[1]. Ustoz tilshunosning qarashiga tayangan holda biz harakat tarzi shaklidagi ko'makchi fe'lning ma'noviy darajalanishini «lug'aviy ma'noni yo'qotish» belgisi asosida kuzatamiz. Chunki ko'makchi fe'l o'z lug'aviy ma'nosidan qancha uzoqlashsa, uning grammatik shakllik xususiyati shunchalik kuchayib, fe'l esa qo'shimchalashib boradi. Bunday darajalanishda qator boshiga *yoz, ol, ber* tartiblanishidagi fe'l chiqadi va *boshla* fe'li qator oxiriga o'tadi. Chunki bugungi kunda *yoz* fe'li o'z sirasidan lug'aviy ma'nosini butkul yo'qotganligi, taxminiy ildizi bo'lgan *ozmoq* fe'lidan uzilganligi bilan farqlanib turadi[2].

Harakat tarzi shaklining barchasini lug'aviy ma'nosini yo'qotish darajasiga ko'ra qat'iy tartibga qo'yishning iloji yo'q. Chunki uning aksariyati ko'p ma'noli bo'lib, anglatayotgan ba'zi ma'nosi mustaqil ma'nosi bilan bog'lansa, ayrimi mutlaqo aloqador emas. Buni *ol* fe'li misolida kuzatish mumkin.

Ol ko'makchi fe'l sifatida *-a/y* qo'shimchasi bilan ham, *-(i)b* qo'shimchasi bilan ham tarz shaklini hosil qiladi. *-(i)b* qo'shimchasi bilan shakllangan harakat tarzi «etakchi fe'ldagi harakatni o'z ustiga olgan obyektga tomon, ba'zan uning manfaati uchun yo'nalishi» ma'nosini ifodalaydi va bunda *olmoq* mustaqil leksemasi semantikasi bilan aloqadorlik yaqqol kuzatiladi: *Siddiqjon hammasini yig'ishtirib oldi-da, ayvonning tokchasiga eltib qo'ydi* (A.Qah.). *Qurbon ota elib yugurib, sal kunda qishki va yozgi choyxonaning kam-ko'stini to'g'rilab oldi* (A.Qah.). *-a/y+ol* tarzida shakllanganda esa «harakatni bajarish qobiliyati, imkoniyatiga egalik» ma'nosi ifodalanadi. 1. *Oradan olti oy o'tgandan keyingina u ish boshlay oldi* (S.Ahmad). 2. *Buni ham men katta maqsadni ko'zlaganlari uchun shunday shahar qura olishgan, deb o'ylayman* (R.Fayziy).

Harakat tarzi shaklining bu ma'nosida ko'makchi fe'l o'z mustaqil lug'aviy ma'nosidan butunlay uzilgan. Demak, *-(i)b+ol* shakli tarkibida *ol* fe'li darajalanish qatorida lug'aviy ma'noni saqlagan fe'l tomon, *-a/y+ol* shakli tarkibida esa lug'aviy ma'noni yo'qotgan birlik tomon siljiydi. Mazkur holatda shakldagi darajalanish ravshan bo'lsa-da, uning graduonimik paradigmasini

[1] Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. –Т.: Фан, 1966. 63- б.
[2] Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. –Т.: Фан. 1966. 184- б.

tuzishda murakkab vaziyat yuzaga keladi. Shu boisdan harakat tarzi shakli tarkibidagi fe'lning har birida lug'aviy ma'noni yo'qotish darajasiga ko'ra o'rnini qat'iy belgilashga intilish ko'pincha samarasiz bo'lishini hisobga olib, shaklni guruhlagan holda daraja qatorini tuzish maqsadga muvofiq.

Lug'aviy ma'nosidan uzilish darajasiga ko'ra farqlanmaydigan, aniqrog'i, farqlanishi sezilarsiz bo'lgan fe'l o'zaro boshqa belgi asosida darajalanadi. Masalan, *-(i)b+bo'l* va *-(i)b+bitir* shaklidagi *bo'l* va *bitir* fe'lini lug'aviy ma'nodan uzoqlashish darajasiga ko'ra farqlash mushkul. Biroq u o'zaro harakat tugallanganligining qat'iyligi belgisi asosida darajalansa, bunda *bitir* fe'lli shakl qator oldida va *bo'l* fe'lli shakl keyin joylashadi. Qiyoslang: *yozib bo'ldi, yozib bitirdi, yozib oldi.*

Nutqiy hodisada asl va tajalli xususiyatni ajratish tamoyili ham harakat tarzi shaklidagi ma'noviy darajalanishni oydinlashtiradi. Misol sifatida uchta fe'lga murojaat qilaylik: *ishlab yotibdi, o'ylab yotibdi, uxlab yotibdi.* Har uchala so'zshakldagi ko'makchi fe'lning asl lug'aviy ma'nosiga aloqadorligi bir qarashda turlicha: *yotmoq* fe'lining «gorizontal holatda bo'lmoq» lug'aviy ma'nosiga uning ko'makchi fe'l vazifasida qo'llangan holatning uchinchi turi (*uxlab yotibdi*)da aloqadorlik kuchli, ikkinchisi (*o'ylab yotibdi*)da o'rtacha va birinchisi (*ishlab yotibdi*)da kuchsizday tuyuladi. Biroq uyqu holati, odatda, uzala tushgan holda, o'ylash tinch (ba'zan yotgan, ba'zan yurgan, o'tirgan, turgan) holatda kechadi. Ishlash esa, odatda, yotmagan holatda yuz beradi. Kuzatishdan ma'lum bo'ladiki, bu holatda *yotish* harakati *yotmoq* ko'makchi fe'liga emas, balki mustaqil fe'l anglatayotgan ma'noga bog'liq. Bunda *ishla, o'yla, uxla* fe'li xossasi harakat tarzi shakli mohiyatini kuzatuvchidan to'sib qo'yadigan o'zga hodisa tajallisi bo'lib, tadqiqotchi *yot* fe'lidagi asliyatni idrok etish uchun tajallini e'tibordan soqit qilish lozim degan xulosaga keladi. *Yot* fe'li *tur, o'tir, yur* fe'li kabi ko'p ma'noli bo'lganligi bois uni darajalash lug'aviy ma'noni yo'qotish darajasi belgisiga ko'ra emas, balki ichki ish-harakatning intensivligi darajasi belgisi asosida kechadi. Bu sirani quyidagi misolda kuzatamiz: *tur, o'tir, yur, yot.* Bunda harakatning kuchli ifodasi sira boshidan oxiriga qarab o'sib boradi. *Ko'r, qara, boq* ko'makchi fe'li harakat tarzi shakli hosil qiluvchi vosita sifatida mustaqil qo'llanishidagi lug'aviy ma'nodan uzoqlashish darajasiga ko'ra bir guruhga kirib, bu belgi asosida o'zaro farqlanmaydi. Bunda yetakchi fe'ldagi harakatning dastlabki bajarilishda ekanligi uning «sinash, bilish uchun amalga oshirilayotgan harakatini ifodalash». Mazkur belgisiga ega bo'lgan bu fe'l ilk daraja qatorining birinchi nuqtasi (lug'aviy ma'nosidan butunlay uzilgan fe'l guruhi)dan joy oladi. Bu fe'l o'zaro qo'llanish darajasi jihatidan farqlanadi. Siradagi *ko'r* fe'li ko'p qo'llanuvchanligi

bilan ajralib turadi. *Qara* fe'li esa unga nisbatan ancha passiv. *Boq* yanada kam iste'molli fe'l hisoblanadi. Shu tarzda kichik guruhdagi fe'lni o'ziga xos belgisi asosida darajalash mumkin. Masalan, harakatning yuqori (intensiv) fazasini ko'rsatuvchi *ket, yubor, o'l* fe'lini olaylik: *yig'lay ketdi, yig'lab yubordi, yig'lab o'ldi.* Bunda *o'l* ko'makchi fe'li *yubor* ko'makchi fe'liga qaraganda harakat-holatning yuqori darajadaligini ifodalasa, ikkinchi o'rinni *yubor*, siraning oxirini esa *ket* ko'makchi fe'li egallaydi. Harakatning boshlang'ich fazasini ko'rsatuvchi ko'makchi fe'l quyidagi misolda namoyon bo'ladi: *semirib kelyapti, semira boshladi, semirib ketdi.* Bunda siraning boshida *kel* ko'makchi fe'li turadi, chunki *kel* ko'makchi fe'li asta-sekin, darajama-daraja rivojlanib, so'ngra to'la (normal) holatda yuz beruvchi harakatni bildiruvchi fe'l bilan birikkanda harakatning «boshlang'ich fazasi yuzaga kelishi» ma'nosini bildiradi. *Boshla* ko'makchi fe'li esa harakatning boshlanish, subyektning yetakchi fe'ldagi harakatni bajarishga kirishish ma'nosini bildiradi. Harakatning boshlangandan keyin davom etgan yoki davom etmaganligi nazarda tutilmaydi. Xullas, siraning ikkinchisida *boshla*, oxirida esa *ket* ko'makchi fe'li turadi. Darajalanishning keyingi turida *ket, yoz, ol, tush* ko'makchi fe'lini qiyoslash mumkin. Nutqda *tugab ketdi, kela yozdi, cho'chib tushdi* kabi nutqiy hosila ishlatiladi. Bunda birinchi *(tugab ketdi)* misoldagi «tugallanish» ma'nosi etakchi fe'l hisoblangan *tugamoq* fe'lining lug'aviy ma'nosi hamda ko'makchi fe'ldagi zamon ko'rsatkichi grammatik ma'nosi, shuningdek, *-b+ket* harakat tarzi shakli bilan qorishiq holatda «to'la tugallanganlik», ikkinchi misol (kela yozdi)da «to'la tugallanmaganlik» («to'la tugallanishga yaqinlashganlik»), uchinchi misol (*cho'chib tushdi*)da «soniyaviylik» ma'nosi bilan yagona «tugallanganlik» belgisi ostida darajalanadi.

An'anaviy *ko'makchi fe'l* atamasi ostida o'rganilgan harakat tarzi shakli murakkab tabiatliligi bilan ajralib turadi. Harakat tarzi shaklini yuzaga keltiruvchi ko'makchi fe'l soni o'ttizga yaqin. Agar ravishdosh shaklining *-a/y* va *-(i)b* shakli ko'pincha bir-birining muqobili bo'la olmaydigan darajada kombinatsiya hosil qilishi e'tiborga olinadigan bo'lsa, harakat tarzi shakli miqdori yana ikki baravar ko'payishiga amin bo'lish mumkin. Ana shu ko'makchi fe'lning *-a/y* yoki *-(i)b* ravishdoshi bilan birikishi, shuningdek, ko'pincha har bir harakat tarzi shaklining o'zi ikki-uch ma'no ifodalashi harakat tarzi shaklida muayyan darajalanish qatorini aniqlashda murakkab vaziyatni yuzaga keltiradi. Akademik A.Hojiyevning ko'makchi fe'lga oid monografiyasida 27 ko'makchi fe'lning *-a/y* hamda *-(i)b* ravishdoshi bilan birika olishi taqqoslansa, *-a/y* ravishdoshiga qaraganda *-(i)b* ravishdoshli ko'makchi fe'l harakat tarzi shaklini hosil qilishda faol rol o'ynashi kuzatiladi. Ko'makchi

fe'l tahlilga olinar ekan, unga ilova sifatida tilshunos M.Mirtojiyev, N.Mahmudov *ur* ko'makchi fe'lini ham shu siraga kiritib, ko'makchi fe'l sonini 28 taga yetkazishdi[1]. Shuningdek, hozirgacha birorta ilmiy adabiyotda aytib o'tilmagan bo'lsa-da, bugungi kunda ushbu qatorga qo'shilishga intilayotgan *tuga* ko'makchi fe'lini ham sanab o'tish lozim. Biroq uning yetakchi fe'lga birikish imkoniyati hozirda boshqa ko'makchi fe'lga qaraganda ancha tor: *o'qib tugatdi, yozib tugatdi.* Ravishdosh shakli va mazkur ko'makchi fe'l asosida butlanuvchi harakat tarzi shaklini nutqda ko'plab etakchi fe'l bilan birika olish-olmasligiga qarab, uning daraja qatorini tuzish mumkin.

Lisoniy birikma umumiylik xususiyatiga ega bo'lar ekan, manbada u uch guruh qolipi asosida shakllanishi ko'rsatiladi:

1) yasama so'z qolipi;
2) so'z birikmasi qolipi;
3) gap qolipi[2].

Bundan yasama so'z qolipi lisoniy derivatsion qolip sifatida til sathining so'z yasalishi bo'limida qoldirilib, sintaktik qolip sifatida so'z birikmasi va gap qolipi olinadi. Biroq tekshirishda **ravishdosh shakli+ko'makchi fe'l=harakat tarzi** qolipi e'tibordan chetda qoldiriladi. Ma'lumki, **ravishdosh shakli+fe'l** qolipi orqali fe'lli birikma ham yuzaga keladi va bu qolip ko'plab nutqiy hosilani birlashtiradi. Mazkur so'z birikmasiga shakldosh turuvchi va umumiylik xususiyatiga ega bo'lgan harakat tarzi shakli qolipi ham lisoniy morfologik qolip sifatida ajratilishi mumkin. Masalan, *o'qiy oladi, borib ko'r* va *topa qol* misolidagi farq e'tibordan soqit qilinganda, lisoniy morfologik umumiylik sifatida **ravishdosh shakli+ko'makchi fe'l** qolipi tiklanadi. Bunda lisoniy morfologik qolip o'zining shakliy va mazmuniy tomoniga ham ega bo'lib, **ravishdosh shakli+ko'makchi fe'l=harakat tarzi** qolipining chap qismi uning shakliy tomonini tashkil etsa, o'ng qismi esa uning mazmuniy tomoniga tegishli bo'ladi.

Ravishdosh shakli+ko'makchi fe'l qolipi barcha harakat tarzi shakli uchun yagona lisoniy morfologik qolip bo'lsa-da, ichki bo'linishda esa kichik qolipga ajraladi:

1. Birikish doirasi tor harakat tarzi shakli: *-a/y+bor, -(i)b+bit (bitir), -(i)b+et, -a/y+ket, -(i)b+o'l, -a/y+ko'r, -(i)b+boq, -(i)b+boshla, -(i)b+ur, -a/y+tur, -(i)b+tuga.*

2. Birikish doirasi keng harakat tarzi shakli: *-a/y+boshla, -(i)b+yot, -(i)b+tur, -(i)b+yur, -(i)b+o'tir, -(i)b+bor, -(i)b+kel, -(i)b+bo'l, -(i)b+chiq, -(i)b+o't, -a/y+ol, -(i)b+ol, -(i)b+ber, -(i)b+qol, -a/y+qol, -(i)b+qo'y, -(i)b+ket, -(i)b+yubor, -(i)b+tashla, -(i)b+sol, -a/y+sol, -(i)b+tush, -(i)b+ko'r, -(i)b+qara, -a/y+bil, -a+yoz, -a/y+ber.*

[1] Маҳмудов Н., Миртожиев М. Тил ва маданият. –Т.: Ўзбекистон, 1992. 94- б.
[2] Менглиев Б. Ўзбек тилининг структур синтаксиси. –Қарши: Насаф, 2003. 11- б.

Endi esa o'zi birikuvchi fe'l leksemaga qo'shilib, soddalashish holatidagi harakat tarzi shaklini kuzatamiz.

1. Qo'shimchalashayotgan harakat tarzi shakli: *-a/y+ber, -a+yoz, -a/y+ol, -(i)b+yubor.*

2. Qo'shimchalashgan harakat tarzi shakli: *-a+yot.*

Shuningdek, nutqda yetakchi fe'lga ravishdosh shaklisiz juftlashgan holatda birikuvchi ko'makchi fe'l soni 6 ta: *ol, ber, qol, qo'y, ket, tashla.* Nutqda yozdi-*oldi*, aytdi-*qo'ydi* juftlashuvchi shakli bilan birgalikda tashladi-*vordi* kabi ko'makchi fe'l ham uchrab turishi mumkin. Bunday misol, asosan, so'zlashuv uslubiga xos bo'lib, ma'lum bir hududda kuzatiladigan, qo'llanish doirasi chegaralangan holat.

Nutqimizda tez-tez qo'llanadigan *yozib turibdi, kuzata tur, yozib yotibdi* kabi nutqiy hosilada darajalanish ish-harakatning davomiyligi belgisi asosida bo'ladi. Berilgan birinchi misol (*yozib turibdi*)da harakatning uzlukli, takror holda bajarilayotgani ma'nosi ifodalansa, keyingi misol (*kuzata tur*)da harakat uzluksiz, uzoq davom etishi, uchinchi misol (*yozib yotibdi*)da esa harakat uzluksiz, muttasil davom etishi bilan farqlanadi.

Yuqoridagidan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, harakat tarzi shakli paradigmatik tabiatga ega bo'lib, unda assotsiativ munosabat, xususan, darajalanish yorqin namoyon bo'ladi. Darajalanish asosida ham ko'p sonli harakat tarzi shakli katta va kichik yoki tashqi va ichki paradigmaga bo'linadi. Darajalanish katta paradigmada lug'aviy ma'nodan uzoqlashish belgisi asosida bo'lsa, kichik paradigma a'zosi o'zaro turli belgi: ish-harakatning intensivligi, ish-harakatning davomiyligi, chegarasi, qo'llanish miqdorining darajasi asosida zidlanadi.

Shuni aniq aytish mumkinki, hozirgi o'zbek adabiy tilida harakat tarzi shakli orasida darajalanish (faqat *-a/y* va *-(i)b* ravishdoshi asosida tahlil qilinganda) yuqorida ko'rsatilgan 38 qolip doirasida amal qiladi.

Harakat tarzi shaklida giponimiya. Mustaqil leksema kabi harakat tarzi shakli ham privativlik tabiatiga ega bo'ladi. Harakat tarzi shaklida privativlik munosabatini ko'rib chiqishdan avval, harakat tarzi shakligacha lisoniy tizim qurilishining privativlik asosda bo'linishi haqida to'xtalish lozim. «Leksemani ma'noviy jihatdan tasniflash uning nutqiy ma'nosiga emas, balki umumiy ma'nosiga ko'ra amalga oshiriladi. Til birligining barchasi lisonda o'zining umumiy ma'no, vazifasi bilangina yashaydi. Bu umumiy ma'no esa nutqiy

xususiy ma'no uchun imkoniyatdir va nutqiy xususiy ma'noga nisbatan lisoniy umumiy ma'no hisoblanadi»[1]. Lisoniy tizim butunlik sifatida I bosqichda fonetik, leksik va grammatik sathga bo'linadi. U «ma'noviylik» oppozitsiya belgisi bilan farqlanib, fonetik sath belgisiz, leksik va grammatik sath belgili a'zo vazifasida bo'ladi. Leksik sath orasida privativlik II bosqichda ikki katta guruhga, ya'ni *mustaqil so'z guruhi* va *yordamchi so'z guruhi*ga bo'linadi. Bunda oppozitsiya belgisi «ma'noviy nomustaqillik». Belgili a'zo sifatida yordamchi so'z guruhi ajralsa, belgisiz a'zo mavqeini esa mustaqil so'z egallaydi. III bosqichda ham yordamchi so'z sathini ikki guruhga - sof yordamchi va nisbiy yordamchi so'z guruhiga ajratish mumkin.

Oppozitsiya «diskret emaslik» (mustaqillikka intilish) belgisi sifatida namoyon bo'lib, bunda belgili a'zo *sof yordamchi so'z* guruhi bo'lsa, belgisiz a'zo *nisbiy yordamchi so'z*dan iborat bo'ladi.

Nisbiy yordamchi so'z sifatida *qarab, tomon, keyin, boshida, ustida, tepasida, orqasida* kabi yordamchi leksema bo'lgan ko'makchi bilan *tur, bor, ket* kabi ham mustaqil fe'l, ham ko'makchi fe'l vazifasida keluvchi guruh bir sistemani tashkil etadi.

Harakat tarzi shaklida privativlik 38 qolip doirasida amal qilib, mazkur shakl bir necha guruhga bo'linadi. Guruh a'zosi soni 2 tadan 5-6 tagacha boradi. Lekin barcha guruhda ham a'zo 2 guruhga bo'linadi. Bitta a'zoda muayyan oraliq grammatik ma'no belgilangan, ikkinchisida belgilanmagan bo'ladi. Masalan, «*davomiylik*» oraliq grammatik ma'nosi *-(i)b+tur, -(i)b+yot, -(i)b+yur* qolipli shaklning o'zida mavjud bo'lib, bu ma'no nutqda ifodalanadi: *yozib turibdi, o'ylab yotibdi, kuzatib yuribdi. -(i)b+qol* qolipli shakl esa «*davomiylik*» oraliq grammatik ma'nosiga betaraf (neytral). Shuning uchun bu shakl «davomiylik» ma'nosini nutq, aniqrog'i, fe'l leksema yordamida ifodalaydi. Mazkur shakl ba'zi fe'lga birikib kelganda shu fe'lning tabiatiga moslashib, o'zga ma'no ifodalashi kuzatiladi. Misol: 1. *Siddiqjon ichkariga kirishini ham, ko'chaga chiqib ketishini ham bilmay ostonada turib qoldi* (A.Qah.). 2. *O'shalarning o'rigi hovli bilan bitta bo'lib to'qilib qolibdi* (M.Ismoiliy). Birinchi misolda «davomiylik» ma'nosi mavjud bo'lsa, ikkinchi misolda esa buning aksini ko'ramiz. Tahlilga ko'ra aytish mumkinki, *yozib turibdi* va *o'ylanib qoldi* misolidagi *-ib+tur* va *-ib+qol* harakat tarzi shakli nutqda «jarayonlilik» ma'nosi asosida o'zaro oppozitivdir va bu oppozitsiya privativ tabiatga ega. Bu privativ oppozitsiyaning belgisi «davomiylik» bo'lib, uning belgili a'zosi *-ib+tur*, belgisiz a'zosi esa *-ib+ qol* harakat tarzi shakli.

[1] Мадрахимов И. Ўзбек тилида лексемаларнинг [IM] асосидаги таснифи // Ўзбек тили ва адабиёти, 2002. -Б. 22-24.

Ko'pgina harakat tarzi shakli nutqda o'zi birikayotgan fe'l leksema tabiatiga qarab, har gal turlicha ma'no ifodalashi, o'z polisemantik holatini yuzaga chiqarishi mumkin. Biroq *-a/y+boshla* harakat tarzi shakli qaysi fe'l leksema bilan birikmasin, o'zining yagona «ish-harakat bajarilishining boshlanishi (kirishish)» ma'nosini ifodalaydi: *Majlis tamom bo'lib kishilar tarqala boshladi* (A.Qah.). «Ish-harakatning boshlanishi» ma'nosini ba'zan *-a/y+ket* harakat tarzi shakli ham ifodalashi mumkin: *Ana shunda Arslonbek janoblari tokchadan bir taxta qog'oz olib, o'qiy ketdi* (H.G'ulom). Misoldagi *-a/y+boshla* va *-a/y+ket* harakat tarzi shakli «ish-harakatning boshlanishi» ma'nosi asosida o'zaro oppozitivdir va bu oppozitsiya privativ tabiatga ega. «Ish-harakatning to'la bajarilishi» belgisiga *-a/y+boshla* harakat tarzi shakli befarq, neytral. Mazkur shakl *-a/y+ket* harakat tarzi shaklini oluvchi fe'l leksema bilan kelganda ham uning barchasida yagona - «ish-harakatning boshlanishi» ma'nosini yuzaga chiqaradi. Shunga ko'ra, bu privativ oppozitsiyaning belgili a'zosi *-a/y+ket*, belgisiz a'zo esa *-a/y+boshla* harakat tarzi shakli.

Ma'lumki, privativlik munosabati butun lisoniy tizim uchun xos bo'lgan qonuniyat, biroq yordamchi so'z va grammatik shakl tekshiruvida murakkab tahlilni taqozo etadi. Zeroki, uning lug'aviy ma'no ifodalay olmasligi privativlik, sinonimik va graduonimik kabi munosabatda bo'lishiga to'siq bo'la olmasa-da, nutqdan tashqari ular doirasida mazkur munosabatni tekshirish uchun yo'l ham ochmaydi.

Harakat tarzi shaklining sinonimik paradigmasi. Ma'nodoshlik ikki planli lisoniy birlikning barchasi uchun xos qonuniyat bo'lib, paradigmatik munosabat sirasida asosiy mavqega ega. Harakat tarzi paradigmasi a'zosi ham o'zaro ma'nodoshlik munosabatida bo'ladi.

O'zbek tilshunosligida darajalanish lingvistik qonuniyat sifatida tan olingan bo'lib, uning boshqa lisoniy munosabatda bo'lgani kabi sinonimiyadan farqli va o'xshash jihati haqida ham bir qancha tadqiqotda fikr yuritiladi[1].

O'zbek tilshunosligida shu vaqtga qadar harakat tarzi shakli sinonimligi alohida tadqiq obyekti sifatida o'rganilgan bo'lmasa-da, nutqda ko'makchi fe'lning ma'nodoshlik holatini tilshunos A.Hojiyev qayd etgan[2]. Bundan avvalroq ko'makchi fe'lda ma'nodoshlik munosabatiga tilshunos A.G'ulomov «Fe'l» monografiyasida ishora qilgan edi[3]. Biroq o'zbek tilshunosligida ko'makchi fe'lning nutqiy ishlatilish imkoniyati va ma'nosi tavsifiy usulda yetarlicha va batafsil holatda «O'zbek tilida ko'makchi fe'l» monografiyasida berildi. Biz bayon qilmoqchi bo'lgan ma'nodoshlik faqat ko'makchi fe'l

[1] Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш: филол. фан. докт. дис. ... автореф. -Т., 1997. 62- б.
[2] Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. -Т.: Фан, 1966. - 222 б.
[3] Гуломов А. Феъл. -Т.: Фан, 1954. - 88 б.

doirasidagina emas, murakkab tuzilishga ega *ravishdosh shakli+ko'makchi fe'l* komponentining nutqiy ma'nosidan iborat bo'ladi.

Lug'aviy ma'nodoshlik sememasi tarkibidagi atash va vazifa semasi bir xil, ifoda semasi har xil bo'lgan, bir turdagi narsa-buyum, belgi-xususiyat, harakat-holatni ifodalovchi leksemaaro munosabat. Darajalanish esa umumiy atash semasi bir xil, lekin ma'lum bir semaning turli darajasini ifodalovchi leksema. Bundan tashqari, ma'nodoshlik va darajalanish orasidagi ikkinchi farq shundaki, ma'nodoshlik qatoridagi leksema o'zaro ifoda semasi bilan farqlansa, darajalanish qatorida bu shart bo'lmaydi. Tadqiqotchi Sh.Orifjonova graduonimda lug'aviy paradigma bir yetakchi (dominanta) atrofida birlashishini ta'kidlab, «darcha» va «darvoza» so'zining ma'nosi «eshik» yetakchi so'ziga nisbatan ochilishini qayd etadi[1].

Harakat tarzi shakli fe'lning lug'aviy shaklidan bo'lib, undagi ma'nodoshlik holati mustaqil leksemanikidan farqli ravishda ko'zga tashlanadi. Mustaqil leksemaning ma'nodoshlik holati tahlil qilinganda, u nutq tarkibidan tashqarida ham yagona atash semasiga asoslanaverishi mumkin: *yuz, bet, afl, bashara, turq.* Biroq *-(i)b+chiq, -(i)b+bo'l* kabi harakat tarzi shakli faqat nutq tarkibidagina ma'nodoshlik munosabatida bo'lishi mumkin, chunki uning leksik ma'noga ega emasligi bunga to'siq bo'ladi. Bundan tashqari, o'zbek tilida birorta ham faqat ko'makchi fe'l vazifasida keluvchi leksema mavjud emas. Biroq yetakchi fe'lning ko'makchi fe'l vazifasida kela olish masalasi hanuz tilda davom etib kelayotgan holatdan biri. Shunga muvofiq, ko'makchi fe'l mustaqil leksema bilan yordamchi leksema orasida «oraliq uchinchi» vazifasini egallaydi.

Tilshunos A.Hojiyev «O'zbek tilida ko'makchi fe'l» monografiyasida *boshla, kel, ket* ko'makchi fe'liga ma'nodosh sifatida ishora qilib, uni «harakatning boshlang'ich fazasini ko'rsatuvchi ko'makchi fe'l» guruhiga kiritadi[2]. Tadqiqotchi keltirgan *gullab kelyapti* misolidagi *gullamoq* leksemasi asta-sekin bajariladigan ish-harakatni ifodalab, ko'makchi fe'lga qo'shilayotgan *-yapti* zamon ko'rsatkichi «davomlilik»ni ifodalayapti, «ish-harakatning boshlanishi» esa yetakchi fe'lning o'zida yuzaga kelayotgan holat. Demak, «boshlanish» ma'nosi bu yerda harakat tarzi shakli ifodalayotgan ma'no emas. Biroq *yoza boshladi, yoza ketdi* misolidagi «ish-harakatning boshlanishi» ma'nosini esa *-a+boshla, -a+ket* harakat tarzi shaklida ifodalanayotgan ma'nodoshlik hodisasi sifatida izohlash mumkin. Harakat tarzi shakli murakkab [*ravishdosh shakli+ko'makchi fe'l*] tuzilishga ega bo'lib, o'zining ma'nodoshlik xususiyatini mazkur murakkab komponent orqali faqat nutq tarkibidagina

[1] Орифжонова Ш. Ўзбек тилида лексик градуонимия: филол. фан. номз. дисс. ... автореф. –Т., 1996. 19-б.
[2] Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. –Т.: Фан, 1966. 189- б.

yuzaga chiqarar ekan, agar ko'makchi fe'lning *-a/y* yoki *-(i)b* ravishdoshi bilan birikish o'rni o'zgarsa, bu undagi ma'noning farqlanishiga ham sabab bo'ladi. Masalan, *yoza ketdi* va *yozib ketdi* misolini kuzatsak, birinchi misolda «boshlanish» va «davomiylik», keyingi misolda esa «tugallanish» ma'nosi yuzaga chiqyapti. Aytish mumkinki, *yoza boshladi, yoza ketdi* misolida ma'nodoshlik *-a+boshla* va *-a+ket* qolipi mahsuli natijasi. Mustaqil leksemada bo'lganidek, harakat tarzi shaklida ham bunday konstruktsiyaning ma'nodoshlik munosabati doimo bir qurshov doirasida bo'lavermaydi. Masalan, *xavfli* leksemasi nutqda *zararli, yovuz, yomon* leksemasi bilan bir ma'nodoshlik qatorida bo'lsa, boshqa qurshovda *og'ir* leksemasi bilan yangi ma'nodoshlik munosabatida bo'ladi: *xavfli jarohat, og'ir jarohat.* Shuningdek, *-a/y+boshla* va *-(i)b+ket* qolipli harakat tarzi shaklidan yasalgan nutqiy hosiladan bir qismidagina undagi «ish-harakatning boshlanishi» ma'nosi asosidagi ma'nodoshlikni kuzatish mumkin. Biroq *(shamol barglarni) uchirib ketdi, supurib ketdi* misolidagi «to'la bajarish» yoki «o'z o'rnidan boshqa tomonga yo'nalish» ma'nosi yuqoridagi «ish-harakatning boshlanishi» ma'nosi o'rnini egallagan.

Harakat tarzi shaklidagi ma'nodoshlik munosabatini *tugab bo'ldi, tugab bitdi* misoli asosida kuzatadigan bo'lsak, u «ish-harakatning to'la yakunlanishi» ma'nosida tutashadi. Agar e'tibor berilsa, mazkur lug'aviy ma'nosini ko'proq saqlagan *bo'l, bit* kabi ko'makchi fe'lda yetakchi fe'lning ta'siri kuchsiz bo'ladi. *-a/y+bil* va *-a/y+ol* harakat tarzi shakli ham nutqiy hosilada «qodirlik» ma'nosi ostida birlashib, ma'nodoshlik munosabatiga kirishadi: *yoza bildi, eplay bildi.* Bunda *ol* ko'makchi fe'lini yuqoridagi fikrimizga qiyoslaydigan bo'lsak, bu kabi lug'aviy ma'nosini ko'proq yo'qotgan ko'makchi fe'lda yetakchi fe'lning ta'siri kuchli bo'lishi oydinlashadi.

Mustaqil leksemada, odatda, ma'nodosh atash va vazifa sema (denototiv va funksional sema)si asosida birlashib, (konnototiv ma'no) ifoda semasiga ko'ra farqlanar ekan, ***yozib turmoq, o'ylab qolmoq*** harakat tarzi shakli ham shu kabi «davomiylik» ma'nosi asosida sinonimik munosabatda bo'ladi. Shuningdek, konnototiv jihatdan u «davomiylik», «uzlukli yoki uzluksiz», «harakatli yoki tinch turgan holatda», «davomli va uzoq davomlilik» ma'nosiga ko'ra ham farqlanadi. A.Hojiyev ta'kidlaganidek, ***-(i)b+qol*** va ***-a+yoz*** harakat tarzi shakli ma'lum doiradagi *tugamoq, yetmoq, bajarmoq, oxirlamoq* kabi yetakchi fe'l bilan birikkandagina «ish-harakatni bajarishga yaqinlashganlik» ma'nosi asosida ma'nodoshlik kasb etadi. Biroq bu harakat tarzi shakli boshqa harakat tarzi shakliga qaraganda o'ziga xos xususiyatga ega. Nutqda qo'llanayotgan ***ravishdosh shakli+ko'makchi fe'l*** qolipli nutqiy hosilani kuzatganimizda,

doirasidagina emas, murakkab tuzilishga ega *ravishdosh shakli+ko'makchi fe'l* komponentining nutqiy ma'nosidan iborat bo'ladi.

Lug'aviy ma'nodoshlik sememasi tarkibidagi atash va vazifa semasi bir xil, ifoda semasi har xil bo'lgan, bir turdagi narsa-buyum, belgi-xususiyat, harakat-holatni ifodalovchi leksemaaro munosabat. Darajalanish esa umumiy atash semasi bir xil, lekin ma'lum bir semaning turli darajasini ifodalovchi leksema. Bundan tashqari, ma'nodoshlik va darajalanish orasidagi ikkinchi farq shundaki, ma'nodoshlik qatoridagi leksema o'zaro ifoda semasi bilan farqlansa, darajalanish qatorida bu shart bo'lmaydi. Tadqiqotchi Sh.Orifjonova graduonimda lug'aviy paradigma bir yetakchi (dominanta) atrofida birlashishini ta'kidlab, «darcha» va «darvoza» so'zining ma'nosi «eshik» yetakchi so'ziga nisbatan ochilishini qayd etadi[1].

Harakat tarzi shakli fe'lning lug'aviy shaklidan bo'lib, undagi ma'nodoshlik holati mustaqil leksemanikidan farqli ravishda ko'zga tashlanadi. Mustaqil leksemaning ma'nodoshlik holati tahlil qilinganda, u nutq tarkibidan tashqarida ham yagona atash semasiga asoslanaverishi mumkin: *yuz, bet, afti, bashara, turq.* Biroq *-(i)b+chiq, -(i)b+bo'l* kabi harakat tarzi shakli faqat nutq tarkibidagina ma'nodoshlik munosabatida bo'lishi mumkin, chunki uning leksik ma'noga ega emasligi bunga to'siq bo'ladi. Bundan tashqari, o'zbek tilida birorta ham faqat ko'makchi fe'l vazifasida keluvchi leksema mavjud emas. Biroq yetakchi fe'lning ko'makchi fe'l vazifasida kela olish masalasi hanuz tilda davom etib kelayotgan holatdan biri. Shunga muvofiq, ko'makchi fe'l mustaqil leksema bilan yordamchi leksema orasida «oraliq uchinchi» vazifasini egallaydi.

Tilshunos A.Hojiyev «O'zbek tilida ko'makchi fe'l» monografiyasida *boshla, kel, ket* ko'makchi fe'liga ma'nodosh sifatida ishora qilib, uni «harakatning boshlang'ich fazasini ko'rsatuvchi ko'makchi fe'l» guruhiga kiritadi[2]. Tadqiqotchi keltirgan *gullab kelyapti* misolidagi *gullamoq* leksemasi asta-sekin bajariladigan ish-harakatni ifodalab, ko'makchi fe'lga qo'shilayotgan *-yapti* zamon ko'rsatkichi «davomlilik»ni ifodalayapti, «ish-harakatning boshlanishi» esa yetakchi fe'lning o'zida yuzaga kelayotgan holat. Demak, «boshlanish» ma'nosi bu yerda harakat tarzi shakli ifodalayotgan ma'no emas. Biroq *yoza boshladi, yoza ketdi* misolidagi «ish-harakatning boshlanishi» ma'nosini esa *-a+boshla, -a+ket* harakat tarzi shaklida ifodalanayotgan ma'nodoshlik hodisasi sifatida izohlash mumkin. Harakat tarzi shakli murakkab [*ravishdosh shakli+ko'makchi fe'l*] tuzilishga ega bo'lib, o'zining ma'nodoshlik xususiyatini mazkur murakkab komponent orqali faqat nutq tarkibidagina

[1] Орифжонова Ш. Ўзбек тилида лексик градуонимия: филол. фан. номз. дисс. ... автореф. –Т., 1996. 19-б.
[2] Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. –Т.: Фан, 1966. 189- б.

yuzaga chiqarar ekan, agar ko'makchi fe'lning *-a/y* yoki *-(i)b* ravishdoshi bilan birikish o'rni o'zgarsa, bu undagi ma'noning farqlanishiga ham sabab bo'ladi. Masalan, *yoza ketdi* va *yozib ketdi* misolini kuzatsak, birinchi misolda «boshlanish» va «davomiylik», keyingi misolda esa «tugallanish» ma'nosi yuzaga chiqyapti. Aytish mumkinki, *yoza boshladi, yoza ketdi* misolida ma'nodoshlik *-a+boshla* va *-a+ket* qolipi mahsuli natijasi. Mustaqil leksemada bo'lganidek, harakat tarzi shaklida ham bunday konstruktsiyaning ma'nodoshlik munosabati doimo bir qurshov doirasida bo'lavermaydi. Masalan, *xavfli* leksemasi nutqda *zararli, yovuz, yomon* leksemasi bilan bir ma'nodoshlik qatorida bo'lsa, boshqa qurshovda *og'ir* leksemasi bilan yangi ma'nodoshlik munosabatida bo'ladi: *xavfli jarohat, og'ir jarohat.* Shuningdek, *-a/y+boshla* va *-(i)b+ket* qolipli harakat tarzi shaklidan yasalgan nutqiy hosiladan bir qismidagina undagi «ish-harakatning boshlanishi» ma'nosi asosidagi ma'nodoshlikni kuzatish mumkin. Biroq *(shamol barglarni) uchirib ketdi, supurib ketdi* misolidagi «to'la bajarish» yoki «o'z o'rnidan boshqa tomonga yo'nalish» ma'nosi yuqoridagi «ish-harakatning boshlanishi» ma'nosi o'rnini egallagan.

Harakat tarzi shaklidagi ma'nodoshlik munosabatini *tugab bo'ldi, tugab bitdi* misoli asosida kuzatadigan bo'lsak, u «ish-harakatning to'la yakunlanishi» ma'nosida tutashadi. Agar e'tibor berilsa, mazkur lug'aviy ma'nosini ko'proq saqlagan *bo'l, bit* kabi ko'makchi fe'lda yetakchi fe'lning ta'siri kuchsiz bo'ladi. *-a/y+bil* va *-a/y+ol* harakat tarzi shakli ham nutqiy hosilada «qodirlik» ma'nosi ostida birlashib, ma'nodoshlik munosabatiga kirishadi: *yoza bildi, eplay bildi.* Bunda *ol* ko'makchi fe'lini yuqoridagi fikrimizga qiyoslaydigan bo'lsak, bu kabi lug'aviy ma'nosini ko'proq yo'qotgan ko'makchi fe'lda yetakchi fe'lning ta'siri kuchli bo'lishi oydinlashadi.

Mustaqil leksemada, odatda, ma'nodosh atash va vazifa sema (denototiv va funksional sema)si asosida birlashib, (konnototiv ma'no) ifoda semasiga ko'ra farqlanar ekan, ***yozib turmoq, o'ylab qolmoq*** harakat tarzi shakli ham shu kabi «davomiylik» ma'nosi asosida sinonimik munosabatda bo'ladi. Shuningdek, konnototiv jihatdan u «davomiylik», «uzlukli yoki uzluksiz», «harakatli yoki tinch turgan holatda», «davomli va uzoq davomlilik» ma'nosiga ko'ra ham farqlanadi. A.Hojiyev ta'kidlaganidek, ***-(i)b+qol*** va ***-a+yoz*** harakat tarzi shakli ma'lum doiradagi *tugamoq, yetmoq, bajarmoq, oxirlamoq* kabi yetakchi fe'l bilan birikkandagina «ish-harakatni bajarishga yaqinlashganlik» ma'nosi asosida ma'nodoshlik kasb etadi. Biroq bu harakat tarzi shakli boshqa harakat tarzi shakliga qaraganda o'ziga xos xususiyatga ega. Nutqda qo'llanayotgan ***ravishdosh shakli+ko'makchi fe'l*** qolipli nutqiy hosilani kuzatganimizda,

doirasidagina emas, murakkab tuzilishga ega *ravishdosh shakli+ko'makchi fe'l* komponentining nutqiy ma'nosidan iborat bo'ladi.

Lug'aviy ma'nodoshlik sememasi tarkibidagi atash va vazifa semasi bir xil, ifoda semasi har xil bo'lgan, bir turdagi narsa-buyum, belgi-xususiyat, harakat-holatni ifodalovchi leksemaaro munosabat. Darajalanish esa umumiy atash semasi bir xil, lekin ma'lum bir semaning turli darajasini ifodalovchi leksema. Bundan tashqari, ma'nodoshlik va darajalanish orasidagi ikkinchi farq shundaki, ma'nodoshlik qatoridagi leksema o'zaro ifoda semasi bilan farqlansa, darajalanish qatorida bu shart bo'lmaydi. Tadqiqotchi Sh.Orifjonova graduonimda lug'aviy paradigma bir yetakchi (dominanta) atrofida birlashishini ta'kidlab, «darcha» va «darvoza» so'zining ma'nosi «eshik» yetakchi so'ziga nisbatan ochilishini qayd etadi[1].

Harakat tarzi shakli fe'lning lug'aviy shaklidan bo'lib, undagi ma'nodoshlik holati mustaqil leksemanikidan farqli ravishda ko'zga tashlanadi. Mustaqil leksemaning ma'nodoshlik holati tahlil qilinganda, u nutq tarkibidan tashqarida ham yagona atash semasiga asoslanaverishi mumkin: *yuz, bet, afl, bashara, turq.* Biroq *-(i)b+chiq, -(i)b+bo'l* kabi harakat tarzi shakli faqat nutq tarkibidagina ma'nodoshlik munosabatida bo'lishi mumkin, chunki uning leksik ma'noga ega emasligi bunga to'siq bo'ladi. Bundan tashqari, o'zbek tilida birorta ham faqat ko'makchi fe'l vazifasida keluvchi leksema mavjud emas. Biroq yetakchi fe'lning ko'makchi fe'l vazifasida kela olish masalasi hanuz tilda davom etib kelayotgan holatdan biri. Shunga muvofiq, ko'makchi fe'l mustaqil leksema bilan yordamchi leksema orasida «oraliq uchinchi» vazifasini egallaydi.

Tilshunos A.Hojiyev «O'zbek tilida ko'makchi fe'l» monografiyasida *boshla, kel, ket* ko'makchi fe'liga ma'nodosh sifatida ishora qilib, uni «harakatning boshlang'ich fazasini ko'rsatuvchi ko'makchi fe'l» guruhiga kiritadi[2]. Tadqiqotchi keltirgan *gullab kelyapti* misolidagi *gullamoq* leksemasi asta-sekin bajariladigan ish-harakatni ifodalab, ko'makchi fe'lga qo'shilayotgan *-yapti* zamon ko'rsatkichi «davomlilik»ni ifodalayapti, «ish-harakatning boshlanishi» esa yetakchi fe'lning o'zida yuzaga kelayotgan holat. Demak, «boshlanish» ma'nosi bu yerda harakat tarzi shakli ifodalayotgan ma'no emas. Biroq *yoza boshladi, yoza ketdi* misolidagi «ish-harakatning boshlanishi» ma'nosini esa *-a+boshla, -a+ket* harakat tarzi shaklida ifodalanayotgan ma'nodoshlik hodisasi sifatida izohlash mumkin. Harakat tarzi shakli murakkab [*ravishdosh shakli+ko'makchi fe'l*] tuzilishga ega bo'lib, o'zining ma'nodoshlik xususiyatini mazkur murakkab komponent orqali faqat nutq tarkibidagina

[1] Орифжонова Ш. Ўзбек тилида лексик градуонимия: филол. фан. номз. дисс. ... автореф. –Т., 1996. 19-б.
[2] Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. –Т.: Фан, 1966. 189- б.

yuzaga chiqarar ekan, agar ko'makchi fe'lning *-a/y* yoki *-(i)b* ravishdoshi bilan birikish o'rni o'zgarsa, bu undagi ma'noning farqlanishiga ham sabab bo'ladi. Masalan, *yoza ketdi* va *yozib ketdi* misolini kuzatsak, birinchi misolda «boshlanish» va «davomiylik», keyingi misolda esa «tugallanish» ma'nosi yuzaga chiqyapti. Aytish mumkinki, *yoza boshladi, yoza ketdi* misolida ma'nodoshlik *-a+boshla* va *-a+ket* qolipi mahsuli natijasi. Mustaqil leksemada bo'lganidek, harakat tarzi shaklida ham bunday konstruktsiyaning ma'nodoshlik munosabati doimo bir qurshov doirasida bo'lavermaydi. Masalan, *xavfli* leksemasi nutqda *zararli, yovuz, yomon* leksemasi bilan bir ma'nodoshlik qatorida bo'lsa, boshqa qurshovda *og'ir* leksemasi bilan yangi ma'nodoshlik munosabatida bo'ladi: *xavfli jarohat, og'ir jarohat.* Shuningdek, *-a/y+boshla* va *-(i)b+ket* qolipli harakat tarzi shaklidan yasalgan nutqiy hosiladan bir qismidagina undagi «ish-harakatning boshlanishi» ma'nosi asosidagi ma'nodoshlikni kuzatish mumkin. Biroq *(shamol barglarni) uchirib ketdi, supurib ketdi* misolidagi «to'la bajarish» yoki «o'z o'rnidan boshqa tomonga yo'nalish» ma'nosi yuqoridagi «ish-harakatning boshlanishi» ma'nosi o'rnini egallagan.

Harakat tarzi shaklidagi ma'nodoshlik munosabatini *tugab bo'ldi, tugab bitdi* misoli asosida kuzatadigan bo'lsak, u «ish-harakatning to'la yakunlanishi» ma'nosida tutashadi. Agar e'tibor berilsa, mazkur lug'aviy ma'nosini ko'proq saqlagan *bo'l, bit* kabi ko'makchi fe'lda yetakchi fe'lning ta'siri kuchsiz bo'ladi. *-a/y+bil* va *-a/y+ol* harakat tarzi shakli ham nutqiy hosilada «qodirlik» ma'nosi ostida birlashib, ma'nodoshlik munosabatiga kirishadi: *yoza bildi, eplay bildi.* Bunda *ol* ko'makchi fe'lini yuqoridagi fikrimizga qiyoslaydigan bo'lsak, bu kabi lug'aviy ma'nosini ko'proq yo'qotgan ko'makchi fe'lda yetakchi fe'lning ta'siri kuchli bo'lishi oydinlashadi.

Mustaqil leksemada, odatda, ma'nodosh atash va vazifa sema (denototiv va funksional sema)si asosida birlashib, (konnototiv ma'no) ifoda semasiga ko'ra farqlanar ekan, ***yozib turmoq, o'ylab qolmoq*** harakat tarzi shakli ham shu kabi «davomiylik» ma'nosi asosida sinonimik munosabatda bo'ladi. Shuningdek, konnototiv jihatdan u «davomiylik», «uzlukli yoki uzluksiz», «harakatli yoki tinch turgan holatda», «davomli va uzoq davomlilik» ma'nosiga ko'ra ham farqlanadi. A.Hojiyev ta'kidlaganidek, ***-(i)b+qol*** va ***-a+yoz*** harakat tarzi shakli ma'lum doiradagi *tugamoq, yetmoq, bajarmoq, oxirlamoq* kabi yetakchi fe'l bilan birikkandagina «ish-harakatni bajarishga yaqinlashganlik» ma'nosi asosida ma'nodoshlik kasb etadi. Biroq bu harakat tarzi shakli boshqa harakat tarzi shakliga qaraganda o'ziga xos xususiyatga ega. Nutqda qo'llanayotgan ***ravishdosh shakli+ko'makchi fe'l*** qolipli nutqiy hosilani kuzatganimizda,

uzvning ikkinchi qismi mustaqil yoki yordamchi leksema ekanligiga shubha tug'iladi. Bunday paytda uzvning oxirgi a'zosini tushirib ko'rish hisobiga lug'aviy ma'no o'zgarishi yoki o'zgarmasligi holatini kuzatamiz: *topib keldi - topdi; o'ylab oldi - o'yladi* kabi. Biroq *kelayozdi*, (oltmishga) *borib qoldi* misolida esa *keldi, bordi* kabini tekshirish asosida chiqarilgan xulosa g'ayritabiiy holatga o'xshab qoladi. Faqat bu ko'makchi fe'l yaqinlashmoq kabi «ish-harakat natijasiga yetmagan» semali fe'l bilan birikkandagina ma'nodoshlik munosabatini yuzaga chiqarishi mumkin: yaqinlashayozdi – yaqinlashib qoldi – yaqinlashdi.

Harakat tarzi shaklida mustaqil leksema singari ma'nodoshlik, darajalanish (graduonimiya) kabi munosabat kuchli bo'lib, uning ma'nodoshlik paradigmasi tuzib chiqilganda, siraning boshida «ish-harakatning boshlanishi» hamda «davomiylik», «bajarishga yaqinlashganlik» kabi ma'noli shakl, siraning oxirida esa «to'la tugallanish» umumsemali birlik qatori o'rin oladi. Guruh bir gorizontal to'g'ri chiziq bo'ylab joylashtirilsa, darajalangan (graduonimik) qator yuzaga keladi. Bunda dominanta vazifasini «harakat kechimiga munosabat» belgisi bajaradi.

Bugungi kunda ham masala o'zining to'laqonli yechimini topgani yo'q. «Chunki muammoning o'zi murakkab, u o'timli-o'timsizlik, kauzativ, shaxs-son va nihoyat, faol va nofaol tuzilma masalaning o'zaro bog'liq, chigal tugunidan iborat»[1]. Harakat tarzi shakli o'zicha harakat bildirish, leksik ma'no ifodalash kabi xususiyatga ega bo'lmasa-da, o'zi birikuvchi yetakchi fe'lni modifikatsiya qiladi: mayl, nisbat, zamon, shaxs-son, bo'lishli-bo'lishsizlik ko'rsatkichini olib, fe'lning «tarz» semasini muayyanlashtiradi.

Fe'l nisbatining o'ziga xos jihatidan biri uning so'z yasash xususiyatiga egaligida. So'z yasash nisbat shaklining umumiy ma'nosi tarkibida yondosh ma'no sifatida qaralmoqda. Jahon tilshunosligida ham mazkur qo'shimchaning so'z yasovchilik yoki shakl yasovchilik xususiyatiga ko'ra munozarasida bir to'xtamga kelingani yo'q. Ta'kidlanganidek, ayrim holatda muayyan nisbat ko'rsatkichini olish fe'l semantikasining keyingi taraqqiyotiga yo'l ochadi. Ur fe'lining urin, urish, urdir, va uril nisbat shaklining nutqda qo'llanilishi bunga misol bo'la oladi[2].

Bugungi kunda o'zbek tilidagi so'zning bir turkumdan ikkinchi turkumga o'tish holi ham tilshunoslarimiz nazaridagi masaladan biri. Jumladan, privativlik jihatdan ko'makchi so'zning sof ko'makchi va ko'makchi vazifasidagi so'zga bo'linishi ham uning til tarixi davomidagi rivojlanish jarayonini ko'rsatib bera

[1] Аъламова М. Ўзбек тилидаги феълда нисбат категорияси. –Т.: Фан, 1992. 3-б.
[2] Аъламова М. Ўзбек тилидаги феълда нисбат категорияси. –Т.: Фан, 1992. 137-б.

oladi. Harakat tarzi shakli hosil qiluvchi ko'makchi fe'l ham shu jarayonni bosib o'tayotgan so'z bo'lsa-da, sof ko'makchi fe'l vazifasida keluvchi a'zoga ega emas. Biroq mustaqil fe'lning ko'makchi fe'l vazifasida kela olishi va ko'makchi fe'lning valentlik kabi xususiyati kengayib bormoqda. Shuningdek, nisbat shaklining ham mustaqil fe'lga birikib, unga ma'noviy jihatdan zichlashgan holatda so'z yasash xususiyati kuchayib borayotganini kuzatish mumkin. Bu holat hatto nisbat ko'rsatkichini olgan ko'makchi fe'lga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Harakat tarzi shakli mustaqil fe'l leksemaga birikar ekan, undagi nisbatlanish xususiyati saqlanadi. Faqat bu xususiyat yetakchi fe'l leksemaning tabiatiga moslashgan holda bo'ladi. Bunda, asosan, uch holat ko'zga tashlanadi:

1. Boshqa nisbat qo'shimchasi yetakchi fe'l leksema tarkibida joylashadi, harakat tarzi shakli esa bosh nisbatda bo'ladi.

2. Boshqa nisbat ko'rsatkichi harakat tarzi shakliga o'tadi, yetakchi fe'l leksema bosh nisbat ko'rinishida bo'ladi.

3. Muayyan nisbat ko'rsatkichi har ikkala qismda ham mavjud bo'ladi.

Nisbat ko'rsatkichining yetakchi fe'l leksemaga qo'shilishi, asosan, o'zlik, birgalik, orttirma, ayrim holda esa majhul nisbat shaklida ham uchraydi. Biroq majhul nisbat aksariyat holda ikkinchi tasnif guruhidan joy olib, harakat tarzi shakli tarkibida bo'ladi. Birgalik nisbat ko'rsatkichining o'ziga xos xususiyati shakli tarkibida bo'ladi, o'rni shundaki, u goh yetakchi fe'l leksema tarkibida, goh harakat tarzi shaklida, o'rni bilan esa ikkala qismda ham bir paytning o'zida qo'shilish imkoniyatiga ega. *Tuga* ko'makchi fe'li orttirma nisbat ko'rsatkichini o'ziga biriktira oluvchi yagona ko'makchi fe'l. Mazkur fe'lning mustaqil qo'llanishdagi holati kuzatilganda, buni orttirma nisbat ko'rsatkichi bilan shakllanib, ma'noviy siljish jarayonini bosib o'tayotgan leksema sifatida izohlash mumkin.

Harakat tarzi shaklining uslubiy paradigmasi. Harakat tarzi shaklida sinonimiya munosabati kuchli bo'lib, bu hodisa nutqda uni uslubiy xoslanish – qo'llanish imkoniyatining kengligi yoki chegaralanganligi jihatidan farqlab turadi.

Nutqda «ish-harakatni bajarishga qodirlik» ma'nosi *-a/y+ol, -a/y+bil* shaklli harakat tarzi orqali ifodalanadi. Biroq *-a/y+ol* shaklli harakat tarzi o'zi bilan oppozitsiyada turuvchi *-a/y+bil* shakliga nisbatan keng iste'molda bo'lishi va umumuslubiy me'yorda turishi bilan farqlansa, ziddiyatdagi *-a/y+bil* shakli so'zlashuv uslubiga xosligi hamda qo'llanish doirasi chegaralanganligi bilan ajralib turadi: *foydalana oldi, foydalana bildi*[1].

[1] Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. –Т.: Фан, 1966. 180-б.

uzvning ikkinchi qismi mustaqil yoki yordamchi leksema ekanligiga shubha tug'iladi. Bunday paytda uzvning oxirgi a'zosini tushirib ko'rish hisobiga lug'aviy ma'no o'zgarishi yoki o'zgarmasligi holatini kuzatamiz: *topib keldi - topdi; o'ylab oldi - o'yladi* kabi. Biroq *kelayozdi*, (oltmishga) *borib qoldi* misolida esa *keldi, bordi* kabini tekshirish asosida chiqarilgan xulosa g'ayritabiiy holatga o'xshab qoladi. Faqat bu ko'makchi fe'l yaqinlashmoq kabi «ish-harakat natijasiga yetmagan» semali fe'l bilan birikkandagina ma'nodoshlik munosabatini yuzaga chiqarishi mumkin: yaqinlashayozdi – yaqinlashib qoldi – yaqinlashdi.

Harakat tarzi shaklida mustaqil leksema singari ma'nodoshlik, darajalanish (graduonimiya) kabi munosabat kuchli bo'lib, uning ma'nodoshlik paradigmasi tuzib chiqilganda, siraning boshida «ish-harakatning boshlanishi» hamda «davomiylik», «bajarishga yaqinlashganlik» kabi ma'noli shakl, siraning oxirida esa «to'la tugallanish» umumsemali birlik qatori o'rin oladi. Guruh bir gorizontal to'g'ri chiziq bo'ylab joylashtirilsa, darajalangan (graduonimik) qator yuzaga keladi. Bunda dominanta vazifasini «harakat kechimiga munosabat» belgisi bajaradi.

Bugungi kunda ham masala o'zining to'laqonli yechimini topgani yo'q. «Chunki muammoning o'zi murakkab, u o'timli-o'timsizlik, kauzativ, shaxs-son va nihoyat, faol va nofaol tuzilma masalaning o'zaro bog'liq, chigal tugunidan iborat»[1]. Harakat tarzi shakli o'zicha harakat bildirish, leksik ma'no ifodalash kabi xususiyatga ega bo'lmasa-da, o'zi birikuvchi yetakchi fe'lni modifikatsiya qiladi: mayl, nisbat, zamon, shaxs-son, bo'lishli-bo'lishsizlik ko'rsatkichini olib, fe'lning «tarz» semasini muayyanlashtiradi.

Fe'l nisbatining o'ziga xos jihatidan biri uning so'z yasash xususiyatiga egaligida. So'z yasash nisbat shaklining umumiy ma'nosi tarkibida yondosh ma'no sifatida qaralmoqda. Jahon tilshunosligida ham mazkur qo'shimchaning so'z yasovchilik yoki shakl yasovchilik xususiyatiga ko'ra munozarasida bir to'xtamga kelingani yo'q. Ta'kidlanganidek, ayrim holatda muayyan nisbat ko'rsatkichini olish fe'l semantikasining keyingi taraqqiyotiga yo'l ochadi. Ur fe'lining urin, urish, urdir, va uril nisbat shaklining nutqda qo'llanilishi bunga misol bo'la oladi[2].

Bugungi kunda o'zbek tilidagi so'zning bir turkumdan ikkinchi turkumga o'tish holi ham tilshunoslarimiz nazaridagi masaladan biri. Jumladan, privativlik jihatdan ko'makchi so'zning sof ko'makchi va ko'makchi vazifasidagi so'zga bo'linishi ham uning til tarixi davomidagi rivojlanish jarayonini ko'rsatib bera

[1] Аъламов М. Ўзбек тилидаги феълда нисбат категорияси. –Т.: Фан, 1992. 3-б.
[2] Аъламов М. Ўзбек тилидаги феълда нисбат категорияси. –Т.: Фан, 1992. 137-б.

oladi. Harakat tarzi shakli hosil qiluvchi ko'makchi fe'l ham shu jarayonni bosib o'tayotgan so'z bo'lsa-da, sof ko'makchi fe'l vazifasida keluvchi a'zoga ega emas. Biroq mustaqil fe'lning ko'makchi fe'l vazifasida kela olishi va ko'makchi fe'lning valentlik kabi xususiyati kengayib bormoqda. Shuningdek, nisbat shaklining ham mustaqil fe'lga birikib, unga ma'noviy jihatdan zichlashgan holatda so'z yasash xususiyati kuchayib borayotganini kuzatish mumkin. Bu holat hatto nisbat ko'rsatkichini olgan ko'makchi fe'lga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Harakat tarzi shakli mustaqil fe'l leksemaga birikar ekan, undagi nisbatlanish xususiyati saqlanadi. Faqat bu xususiyat yetakchi fe'l leksemaning tabiatiga moslashgan holda bo'ladi. Bunda, asosan, uch holat ko'zga tashlanadi:

1. Boshqa nisbat qo'shimchasi yetakchi fe'l leksema tarkibida joylashadi, harakat tarzi shakli esa bosh nisbatda bo'ladi.

2. Boshqa nisbat ko'rsatkichi harakat tarzi shakliga o'tadi, yetakchi fe'l leksema bosh nisbat ko'rinishida bo'ladi.

3. Muayyan nisbat ko'rsatkichi har ikkala qismda ham mavjud bo'ladi.

Nisbat ko'rsatkichining yetakchi fe'l leksemaga qo'shilishi, asosan, o'zlik, birgalik, orttirma, ayrim holda esa majhul nisbat shaklida ham uchraydi. Biroq majhul nisbat aksariyat holda ikkinchi tasnif guruhidan joy olib, harakat tarzi shakli tarkibida bo'ladi. Birgalik nisbat ko'rsatkichining o'ziga xos xususiyati shundaki, u goh yetakchi fe'l leksema tarkibida, goh harakat tarzi shaklida, o'rni bilan esa ikkala qismda ham bir paytning o'zida qo'shilish imkoniyatiga ega. *Tuga* ko'makchi fe'li orttirma nisbat ko'rsatkichini o'ziga biriktira oluvchi yagona ko'makchi fe'l. Mazkur fe'lning mustaqil qo'llanishdagi holati kuzatilganda, buni orttirma nisbat ko'rsatkichi bilan shakllanib, ma'noviy siljish jarayonini bosib o'tayotgan leksema sifatida izohlash mumkin.

Harakat tarzi shaklining uslubiy paradigmasi. Harakat tarzi shaklida sinonimiya munosabati kuchli bo'lib, bu hodisa nutqda uni uslubiy xoslanish – qo'llanish imkoniyatining kengligi yoki chegaralanganligi jihatidan farqlab turadi.

Nutqda «ish-harakatni bajarishga qodirlik» ma'nosi *-a/y+ol, -a/y+bil* shaklli harakat tarzi orqali ifodalanadi. Biroq *-a/y+ol* shaklli harakat tarzi o'zi bilan oppozitsiyada turuvchi *-a/y+bil* shakliga nisbatan keng iste'molda bo'lishi va umumuslubiy me'yorda turishi bilan farqlansa, ziddiyatdagi *-a/y+bil* shakli so'zlashuv uslubiga xosligi hamda qo'llanish doirasi chegaralanganligi bilan ajralib turadi: *foydalana oldi, foydalana bildi*[1].

[1] Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. –Т.: Фан, 1966. 180-б.

Yuqoridagi tahlilning izchil davomi sifatida umumiy «tarz» ma'nosi ostida birlashib, «ish-harakatning tugallanganligi» ma'nosi bilan ajraluvchi harakat tarzi shakli kuzatilganda, ular orasida ham uslubiy farq ko'zga tashlanadi.

Ma'lumki, *-(i)b+bo'l, -(i)b+ol, -(i)b+qo'y, -(i)b+bit* va *-(i)b+et* kabi shakl «ish-harakatning tugallanishi» ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi. Misol asosida berilganda esa, uning qo'llanish imkoniyati farqlanib qolishiga guvoh bo'lish mumkin. Masalan, *o'qib bo'ldi, o'qib oldi, yozib qo'ydi, yonib bitdi, borib yetdi.* 1-, 2-, 3-misoldagi shakl ma'nosi umumuslubga xos bo'lib, nutqda ishlatilish imkoniyati keng. 4-, 5-misolda ma'no, asosan, so'zlashuv uslubiga xoslangan bo'lib, uning nutqda qo'llanish imkoniyati chegaralangan.

Davomiylik oraliq grammatik ma'nosi ostida birlashuvchi va o'ziga xos xususiylikka ega bo'lgan *-(i)b+tur, -(i)b+o'tir, -(i)b+yur, -(i)b+yot* qolipli harakat tarzining uslubiy farqlanishi ham misol asosida oydinlashadi. Mazkur shaklning ma'noviy xususiyatiga ko'ra farqlanishi «ish-harakatning uzlukli yoki uzluksizligi», «takror holdaligi», «uzoq davom etishi yoki muttasil davom etishi»ga ko'ra bo'ladi. Uning uslubiy jihatdan farqlanishi esa so'zlashuv va umumuslubiy qo'llanish doirasida kuzatiladi: *suhbatlashib turibdi, eshitib o'tiribdi, o'ylab yuribdi, kulib yotibdi.* Bunda 1-, 3-misolda voqealangan ma'no umumuslubga xoslangan bo'lsa, 2-, 4-misoldagi esa so'zlashuv uslubida ishlatiladi.

So'zlashuv uslubida harakat tarzi shaklidagi ayrim tovush tushib qolishi ham tez-tez kuzatiladi: *obor (<olib bor), sotvor (<cotib yubor), boroladi (<bora oladi)* kabi.

Harakat tarzi shaklining ko'makchi fe'l valentlik imkoniyati asosidagi paradigmasi. Harakat tarzi shaklida yordamchi leksema mustaqil leksemaga birikishi uchun ma'lum bir sintaktik shaklda *-a/y* yoki *-(i)b* ravishdosh qo'shimchasidan birini olgan holda bo'lishini talab qiladi. Mazkur sintaktik valentlik lug'aviy valentlik bilan zich bog'langan bo'lib, birinchisi o'zgarsa, ikkinchisi ham o'zgaradi, biri yo'qolsa, ikkinchisi ham bo'lmaydi. Masalan, *bit* yordamchi leksemasi *sanat* mustaqil leksemasini o'ziga biriktira olmaydi. Lekin *bitir* yordamchi leksemasi *sana* mustaqil leksemasini o'ziga torta oladi. Bunda *bit* leksemasining sintaktik valentligi o'zgardi.

Ko'makchi fe'lning valentlik imkoniyati paradigmasini tuzib chiqish uchun, avvalo, uni quyidagi guruhga ajratish lozim:

a) *-a/y* va *-(i)b* ravishdoshi bilan birikib, alohida-alohida ma'no ifodalovchi ko'makchi fe'l;

b) *-a/y* va *-(i)b* ravishdoshi bilan birikib, bir xil ma'no ifodalovchi ko'makchi fe'l;

v) faqat *-a/y* ravishdoshi bilan birikuvchi ko'makchi fe'l;

g) faqat *-(i)b* ravishdoshi bilan birikuvchi ko'makchi fe'l.

Harakat tarzi shakli, asosan, ko'p ma'noli bo'lar ekan, bu *-a/y* va *-(i)b* ravishdosh shakli orqali ham kengayib boradi. Shuningdek, *-a/y* yoki *-(i)b* ravishdoshi yetakchi fe'lning qaysi ma'noviy guruhiga birikishiga qarab ham harakat tarzi shakli ma'nosini farqlash mumkin. *-a/y* yoki *-(i)b* ravishdoshi bilan birikib alohida-alohida ma'no ifodalovchi harakat tarzi shakli ikkala ravishdosh bilan ham birikib ma'nodoshlik holatini yuzaga keltiruvchi harakat tarzi shakliga qaraganda ko'proq qismni tashkil etadi. *-(i)b* ravishdoshi va *-a/y* ravishdoshi bilan birikib alohida-alohida ma'no ifodalovchi harakat tarzi shakli o'zaro qiyoslanganda, *-(i)b* ravishdoshi bilan birikkan ko'makchi fe'l o'z mustaqil leksemasiga «lug'aviy ma'noga bog'liqlik» ma'nosi asosida yaqinlashsa, *-a/y* ravishdoshi bilan birikuvchi ko'makchi fe'l «lug'aviy ma'nodan uzoqlashish» ma'nosi asosida zidlanadi. Masalan, *-(i)b+ol, -(i)b+ber* qolipli harakat tarzi shakli yetakchi fe'lga birikkanda «ish-harakat subyektning manfaatiga yo'nalishi» yoki «o'zganing manfaatiga tomon yo'nalishi» ma'nosi sezilib turadi. Bunda ko'makchi fe'lning mustaqil qo'llanganda ifodalaydigan leksik ma'nosiga yaqinligi bir qarashdayoq ma'lum bo'ladi. Biroq *-a/y+ol, a/y+ber* qolipli harakat tarzi shakli yetakchi fe'lga birikkanda mustaqil holatidagi leksik ma'nosidan uzoqlashib boradi. Shunga ko'ra, *-(i)b* ravishdosh shaklining *-a/y* ravishdoshiga qaraganda valentlik jihatidan ham, ko'makchi fe'lga mustaqil holatidagi leksik ma'nosini eslatib turuvchi vosita sifatida ham faolligini kuzatish mumkin.

Harakat tarzi shaklidagi ko'makchi fe'lning birikish imkoniyati *-(i)b* va *-a/y* ravishdosh shakliga nisbatan turlicha bo'lib, ikki shaklning imkoniyati, asosan, o'zaro oppozitivdir va bu oppozitsiya privativ tabiatga ega. Chunki ko'makchi fe'lning barchasini yetakchi fe'lga doimiy biriktirish belgisi *-(i)b* ravishdosh shaklida ustuvor. Lekin *-a/y* ravishdosh shakli bu belgiga nisbatan befarq, neytral. Shunga ko'ra, bu privativ oppozitsiyaning belgisi «doimiy biriktirish», uning belgili a'zosi *-(i)b* ravishdoshi, belgisiz a'zosi esa *-a/y* ravishdoshi shakli. Biroq *bil* va *yoz* ko'makchi fe'li bundan mustasno.

Sintaktik kategoriya

9- §. Egalik kategoriyasi

Egalik kategoriyasi tadqiqi tarixidan. Egalik kategoriyasi vositasining yasalishi, mazmuni, qo'llanishi, o'zaro munosabati o'zbek tilshunosligida yetarlicha tadqiq qilingan va biror tilshunosni befarq qoldirmagan.

Yuqoridagi tahlilning izchil davomi sifatida umumiy «tarz» ma'nosi ostida birlashib, «ish-harakatning tugallanganligi» ma'nosi bilan ajraluvchi harakat tarzi shakli kuzatilganda, ular orasida ham uslubiy farq ko'zga tashlanadi.

Ma'lumki, *-(i)b+bo'l, -(i)b+ol, -(i)b+qo'y, -(i)b+bit* va *-(i)b+et* kabi shakl «ish-harakatning tugallanishi» ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi. Misol asosida berilganda esa, uning qo'llanish imkoniyati farqlanib qolishiga guvoh bo'lish mumkin. Masalan, *o'qib bo'ldi, o'qib oldi, yozib qo'ydi, yonib bitdi, borib yetdi.* 1-, 2-, 3-misoldagi shakl ma'nosi umumuslubga xos bo'lib, nutqda ishlatilish imkoniyati keng. 4-, 5-misolda ma'no, asosan, so'zlashuv uslubiga xoslangan bo'lib, uning nutqda qo'llanish imkoniyati chegaralangan.

Davomiylik oraliq grammatik ma'nosi ostida birlashuvchi va o'ziga xos xususiylikka ega bo'lgan *-(i)b+tur, -(i)b+o'tir, -(i)b+yur, -(i)b+yot* qolipli harakat tarzining uslubiy farqlanishi ham misol asosida oydinlashadi. Mazkur shaklning ma'noviy xususiyatiga ko'ra farqlanishi «ish-harakatning uzlukli yoki uzluksizligi», «takror holdaligi», «uzoq davom etishi yoki muttasil davom etishi»ga ko'ra bo'ladi. Uning uslubiy jihatdan farqlanishi esa so'zlashuv va umumuslubiy qo'llanish doirasida kuzatiladi: *suhbatlashib turibdi, eshitib o'tiribdi, o'ylab yuribdi, kulib yotibdi.* Bunda 1-, 3-misolda voqealangan ma'no umumuslubga xoslangan bo'lsa, 2-, 4-misoldagi esa so'zlashuv uslubida ishlatiladi.

So'zlashuv uslubida harakat tarzi shaklidagi ayrim tovush tushib qolishi ham tez-tez kuzatiladi: *obor (<olib bor), sotvor (<cotib yubor), boroladi (<bora oladi)* kabi.

Harakat tarzi shaklining ko'makchi fe'l valentlik imkoniyati asosidagi paradigmasi. Harakat tarzi shaklida yordamchi leksema mustaqil leksemaga birikishi uchun ma'lum bir sintaktik shaklda *-a/y* yoki *-(i)b* ravishdosh qo'shimchasidan birini olgan holda bo'lishini talab qiladi. Mazkur sintaktik valentlik lug'aviy valentlik bilan zich bog'langan bo'lib, birinchisi o'zgarsa, ikkinchisi ham o'zgaradi, biri yo'qolsa, ikkinchisi ham bo'lmaydi. Masalan, *bit* yordamchi leksemasi *sanat* mustaqil leksemasini o'ziga biriktira olmaydi. Lekin *bitir* yordamchi leksemasi *sana* mustaqil leksemasini o'ziga torta oladi. Bunda *bit* leksemasining sintaktik valentligi o'zgardi.

Ko'makchi fe'lning valentlik imkoniyati paradigmasini tuzib chiqish uchun, avvalo, uni quyidagi guruhga ajratish lozim:

a) *-a/y* va *-(i)b* ravishdoshi bilan birikib, alohida-alohida ma'no ifodalovchi ko'makchi fe'l;

b) *-a/y* va *-(i)b* ravishdoshi bilan birikib, bir xil ma'no ifodalovchi ko'makchi fe'l;

v) faqat *-a/y* ravishdoshi bilan birikuvchi ko'makchi fe'l;

g) faqat *-(i)b* ravishdoshi bilan birikuvchi ko'makchi fe'l.

Harakat tarzi shakli, asosan, ko'p ma'noli bo'lar ekan, bu *-a/y* va *-(i)b* ravishdosh shakli orqali ham kengayib boradi. Shuningdek, *-a/y* yoki *-(i)b* ravishdoshi yetakchi fe'lning qaysi ma'noviy guruhiga birikishiga qarab ham harakat tarzi shakli ma'nosini farqlash mumkin. *-a/y* yoki *-(i)b* ravishdoshi bilan birikib alohida-alohida ma'no ifodalovchi harakat tarzi shakli ikkala ravishdosh bilan ham birikib ma'nodoshlik holatini yuzaga keltiruvchi harakat tarzi shakliga qaraganda ko'proq qismni tashkil etadi. *-(i)b* ravishdoshi va *-a/y* ravishdoshi bilan birikib alohida-alohida ma'no ifodalovchi harakat tarzi shakli o'zaro qiyoslanganda, *-(i)b* ravishdoshi bilan birikkan ko'makchi fe'l o'z mustaqil leksemasiga «lug'aviy ma'noga bog'liqlik» ma'nosi asosida yaqinlashsa, *-a/y* ravishdoshi bilan birikuvchi ko'makchi fe'l «lug'aviy ma'nodan uzoqlashish» ma'nosi asosida zidlanadi. Masalan, *-(i)b+ol, -(i)b+ber* qolipli harakat tarzi shakli yetakchi fe'lga birikkanda «ish-harakat subyektning manfaatiga yo'nalishi» yoki «o'zganing manfaatiga tomon yo'nalishi» ma'nosi sezilib turadi. Bunda ko'makchi fe'lning mustaqil qo'llanganda ifodalaydigan leksik ma'nosiga yaqinligi bir qarashdayoq ma'lum bo'ladi. Biroq *-a/y+ol, a/y+ber* qolipli harakat tarzi shakli yetakchi fe'lga birikkanda mustaqil holatidagi leksik ma'nosidan uzoqlashib boradi. Shunga ko'ra, *-(i)b* ravishdosh shaklining *-a/y* ravishdoshiga qaraganda valentlik jihatidan ham, ko'makchi fe'lga mustaqil holatidagi leksik ma'nosini eslatib turuvchi vosita sifatida ham faolligini kuzatish mumkin.

Harakat tarzi shaklidagi ko'makchi fe'lning birikish imkoniyati *-(i)b* va *-a/y* ravishdosh shakliga nisbatan turlicha bo'lib, ikki shaklning imkoniyati, asosan, o'zaro oppozitivdir va bu oppozitsiya privativ tabiatga ega. Chunki ko'makchi fe'lning barchasini yetakchi fe'lga doimiy biriktirish belgisi *-(i)b* ravishdosh shaklida ustuvor. Lekin *-a/y* ravishdosh shakli bu belgiga nisbatan befarq, neytral. Shunga ko'ra, bu privativ oppozitsiyaning belgisi «doimiy biriktirish», uning belgili a'zosi *-(i)b* ravishdoshi, belgisiz a'zosi esa *-a/y* ravishdoshi shakli. Biroq *bil* va *yoz* ko'makchi fe'li bundan mustasno.

Sintaktik kategoriya

9- §. Egalik kategoriyasi

Egalik kategoriyasi tadqiqi tarixidan. Egalik kategoriyasi vositasining yasalishi, mazmuni, qo'llanishi, o'zaro munosabati o'zbek tilshunosligida yetarlicha tadqiq qilingan va biror tilshunosni befarq qoldirmagan.

Turkiyshunoslikda N.K.Dmitriyev, S.N.Ivanov, N.A.Baskakov, A.K.Borovkov, H.Ne'matov; o'zbek tilshunosligida Sh.Shoabdurahmonov, A.G'ulomov, Sh.Rahmatullayev, G'.Zikrillayev, G'.Abdurahmonov, U.Tursunov kabi qator olim tomonidan egalik shaklining miqdori, turi, tartibi, o'rni, birikishi, mazmun tomoni, o'zaro va boshqa kategorial shakl bilan munosabati, so'z turkumi bilan aloqasi o'rganilgan[1].

Egalik shakli. Egalik kategoriyasining ko'rsatkichi quyidagi: *-(i)m, -(i)miz, -(i)ng, -(ing)iz, -(i)si.* Egalik affiksi tarkibida beriluvchi *-lar* shaxs haqida emas, balki egalik qilinayotgan narsa/predmet haqida ma'lumot tashigani uchun, shu narsaning ko'pligiga ishora qilganligi tufayli uni bu kategoriya bilan bog'lab bo'lmaydi. Masalan, *...Antey kuchni yerdan oladi, Said Ahmad ...ularning maqtovidan. Maqtovi* so'zshaklidagi *-lar* maqtovning ko'pligini ko'rsatmoqda.

Bu kategoriya shaxs va son ma'nosi bilan uzviy bog'langan. Shu boisdan egalik kategoriyasining barcha ko'rsatkichida bir vaqtning o'zida shaxs ma'nosi ham, son ma'nosi ham ifodalanadi. Holbuki bu ma'no ushbu kategoriyadan tashqarida ham mavjud (masalan, kishilik olmoshida, kesimlik kategoriyasida, shuningdek, otning son kategoriyasida va h.). Aslida shaxs-son ma'nosini ifodalash uchun kishilik olmoshi xoslangan. Undan boshqa lisoniy birlikdagi shaxs-son ma'nosi olmosh zotiy mohiyatining tajallisi. Demak, egalik kategoriyasining zotiy mohiyatini shaxs-son ma'nosining qo'llanilishi bilan bog'liq o'ziga xos holatdan tashqaridan qidirmoq lozim bo'ladi.

Egalik kategoriyasi asosidagi sintaktik qurilma rang-barang ma'noni anglatadi. Bu rang-baranglik shaxs-son, aniqlik/noaniqlik kabi tajalli ma'no, tobe so'zning kelishik shakli, birikuvchi so'zning semantikasi kabi omil bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, *g'amim* so'zshakli kontekst bilan bog'liq ravishda ikki xil ma'no anglatadi: *g'amimni yedim –g'amimni yeding.*

Shu boisdan egalik kategoriyasining faqat sintaktik xususiyati uning mohiyatiga daxldor. Zero, egalik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosidagi kategorial ma'no sintaktik tabiatli bo'lib, undan anglashiladigan turli ma'no

[1] Дмитриев Н.К. Категория принадлежности//ИСТТЯ. II. –М., 1956; Иванов С.Н. К истолкованию категории принадлежности // Советская тюркология, 1973, -№1; Баскаков Н.А. Природа притяжательных определительных словосочетаний и их роль в эволюции сложных синтаксических конструкций в тюркских языках// Советская тюркология, 1971, -№4; Боровков А.К. Природа «турецкого изафета // Академику Н.Я. Марру. –М., Л. 1935; Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т., 1989, с. 68–80; Шоабдураҳмонов Ш. -(и)н эгалик қўшимчаси// ЎТА, 1993. -№2, 36–38- б.; Гуломов А., Аскарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т., 1987; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида тобе боғланишнинг турлари. –Т., 1993. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. –Т., 1975; Зикриллаев Ғ. Истиқлол ва адабий тил. –Т., 2004. –б. 119; Турсунов У. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т., 1992.

yondosh va hamroh ma'no. Xususan, «shaxs-son» ma'nosi egalik kategoriyasi uchun yondosh, shaxs-son kategoriyasi uchun kategorial ma'no.

Egalik kategoriyasining sintaktik (kategorial) mohiyati «keyingi mustaqil so'zning oldingi ifodalangan (a) yoki ifodalanmagan (b) mustaqil so'zga sintaktik munosabatini ko'rsatish. Masalan, a) *mening kitobim, mening borganim, kelishning azobi;* b) *sevinchim, ishing*;

Egalik kategoriyasi qaratqich kelishigi va bosh kelishik shakli bilan zich munosabatda bo'ladi. Aniqrog'i, egalik affiksi bilan shakllangan so'zdan oldingi, unga tobe so'z qaratqich (a) yoki bosh kelishikda (b) bo'lishi mumkin: a) *mening kitobim, kitobning varag'i;* b) *mart oyi, dam olish kuni, qish payti.* Keyingi birikuvdagi bosh kelishik shaklini belgisiz qaratqich kelishigi sifatida tan olish ham uchrab turadi.

Ko'rinadiki, egalik ma'nosi uch xil usul bilan ifodalanadi:

1. *Morfologik usul*da egalik ma'nosi egalik shakli bilan ifodalanadi, ammo qaratuvchi so'z keltirilmaydi: *kitobim, o'qiganing, taq-tuqi.*

2. *Morfologik-sintaktik usul.* Bunda egalik subyekti qaratqich kelishigida, egalik obyekti egalik shaklida bo'ladi: *mening kitobim, sening o'qiganing, bolg'aning taq-tuqi, gulning qizili.*

3. *Sintaktik usul.* Bunda egalik subyekti qaratqich kelishigida, egalik obyekti egalik shaklisiz bo'ladi: *bizning uy, sizning ko'cha.*

Modal ma'no egalik kategoriyasi uchun nokategorial, ya'ni hamroh ma'no bo'lib, u o'zining grammatik kategoriyasiga ega emas. I shaxs birlik, III shaxs qo'shimchasidan boshqasi modal ma'no ifodalaydi. «Sizlash», «sensirash», «kamsitish», «kesatish», «hurmat» kabi qator ma'no modal ma'no. Bu, ayniqsa, ko'plikda yaqqolroq ko'zga tashlanadi. *Akamning kitoblari, dadamning mashinalari* kabi.

Egalik qo'shimchasining xususiy qo'llanishida «butun-qism» ma'nosining yuzaga chiqishini ham kuzatish mumkin: *o'quvchilarning biri, talabalarning a'lochisi, odamlarning o'qigani* kabi.

Egalik kategoriyasining umumiy grammatik ma'nosi kategorial va yondosh ma'no asosida bir necha oraliq grammatik ma'noga ajraladi:

1. «Qarashlilik/mansublik»: *Ilhomning kitobi, bolaning otasi, qo'yning boshi.*

2. «Foil-harakat»: *Adibaning kulishi, sening qarishing.*

3. «Aniqlanmishni aniqlovchiga bog'lash»: *qovun bozori, go'sht do'koni.*

Bu oraliq grammatik ma'noning har biri bog'lanayotgan so'zning xususiyatiga bog'liq ravishda qator xususiy grammatik ma'noda yuzaga chiqishi mumkin: *bolaning otasi, gulning bargi, Mohigulning kitobi, qizlarning*

Turkiyshunoslikda N.K.Dmitriyev, S.N.Ivanov, N.A.Baskakov, A.K.Borovkov, H.Ne'matov; o'zbek tilshunosligida Sh.Shoabdurahmonov, A.G'ulomov, Sh.Rahmatullayev, G'.Zikrillayev, G'.Abdurahmonov, U.Tursunov kabi qator olim tomonidan egalik shaklining miqdori, turi, tartibi, o'rni, birikishi, mazmun tomoni, o'zaro va boshqa kategorial shakl bilan munosabati, so'z turkumi bilan aloqasi o'rganilgan[1].

Egalik shakli. Egalik kategoriyasining ko'rsatkichi quyidagi: *-(i)m, -(i)miz, -(i)ng, -(ing)iz, -(i)si.* Egalik affiksi tarkibida beriluvchi *-lar* shaxs haqida emas, balki egalik qilinayotgan narsa/predmet haqida ma'lumot tashigani uchun, shu narsaning ko'pligiga ishora qilganligi tufayli uni bu kategoriya bilan bog'lab bo'lmaydi. Masalan, *...Antey kuchni yerdan oladi, Said Ahmad ...ularning maqtovidan. Maqtovi* so'zshaklidagi *-lar* maqtovning ko'pligini ko'rsatmoqda.

Bu kategoriya shaxs va son ma'nosi bilan uzviy bog'langan. Shu boisdan egalik kategoriyasining barcha ko'rsatkichida bir vaqtning o'zida shaxs ma'nosi ham, son ma'nosi ham ifodalanadi. Holbuki bu ma'no ushbu kategoriyadan tashqarida ham mavjud (masalan, kishilik olmoshida, kesimlik kategoriyasida, shuningdek, otning son kategoriyasida va h.). Aslida shaxs-son ma'nosini ifodalash uchun kishilik olmoshi xoslangan. Undan boshqa lisoniy birlikdagi shaxs-son ma'nosi olmosh zotiy mohiyatining tajallisi. Demak, egalik kategoriyasining zotiy mohiyatini shaxs-son ma'nosining qo'llanilishi bilan bog'liq o'ziga xos holatdan tashqaridan qidirmoq lozim bo'ladi.

Egalik kategoriyasi asosidagi sintaktik qurilma rang-barang ma'noni anglatadi. Bu rang-baranglik shaxs-son, aniqlik/noaniqlik kabi tajalli ma'no, tobe so'zning kelishik shakli, birikuvchi so'zning semantikasi kabi omil bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, *g'amim* so'zshakli kontekst bilan bog'liq ravishda ikki xil ma'no anglatadi: *g'amimni yedim –g'amimni yeding.*

Shu boisdan egalik kategoriyasining faqat sintaktik xususiyati uning mohiyatiga daxldor. Zero, egalik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosidagi kategorial ma'no sintaktik tabiatli bo'lib, undan anglashiladigan turli ma'no

[1] Дмитриев Н.К. Категория принадлежности//ИСТТЯ. II. –М., 1956; Иванов С.Н. К истолкованию категории принадлежности // Советская тюркология, 1973, -№1; Баскаков Н.А. Природа притяжательных определительных словосочетаний и их роль в эволюции сложных синтаксических конструкций в тюркских языках// Советская тюркология, 1971. -№4; Боровков А.К. Природа «турецкого изафета // Академику Н.Я. Марру. –М., Л. 1935; Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т., 1989, с. 68–80; Шоабдурахмонов Ш. -(и)н эгалик қўшимчаси// ЎТА, 1993. -№2, 36–38- б.; Гуломов А., Аскарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т., 1987; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида тобе боғланишнинг турлари. –Т., 1993. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. –Т., 1975; Зикриллаев Ғ. Истиклол ва адабий тил. –Т., 2004. -б. 119; Турсунов У. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т., 1992

yondosh va hamroh ma'no. Xususan, «shaxs-son» ma'nosi egalik kategoriyasi uchun yondosh, shaxs-son kategoriyasi uchun kategorial ma'no.

Egalik kategoriyasining sintaktik (kategorial) mohiyati «keyingi mustaqil so'zning oldingi ifodalangan (a) yoki ifodalanmagan (b) mustaqil so'zga sintaktik munosabatini ko'rsatish. Masalan, a) *mening kitobim, mening borganim, kelishning azobi;* b) *sevinchim, ishing;*

Egalik kategoriyasi qaratqich kelishigi va bosh kelishik shakli bilan zich munosabatda bo'ladi. Aniqrog'i, egalik affiksi bilan shakllangan so'zdan oldingi, unga tobe so'z qaratqich (a) yoki bosh kelishikda (b) bo'lishi mumkin: a) *mening kitobim, kitobning varag'i;* b) *mart oyi, dam olish kuni, qish payti.* Keyingi birikuvdagi bosh kelishik shaklini belgisiz qaratqich kelishigi sifatida tan olish ham uchrab turadi.

Ko'rinadiki, egalik ma'nosi uch xil usul bilan ifodalanadi:

1. *Morfologik usul*da egalik ma'nosi egalik shakli bilan ifodalanadi, ammo qaratuvchi so'z keltirilmaydi: ***kitobim, o'qiganing, taq-tuqi.***

2. *Morfologik-sintaktik usul.* Bunda egalik subyekti qaratqich kelishigida, egalik obyekti egalik shaklida bo'ladi: *mening **kitobim**, sening **o'qiganing**, **bolg'aning taq-tuqi**, **gulning qizili**.*

3. *Sintaktik usul.* Bunda egalik subyekti qaratqich kelishigida, egalik obyekti egalik shaklisiz bo'ladi: *bizning uy, sizning ko'cha.*

Modal ma'no egalik kategoriyasi uchun nokategorial, ya'ni hamroh ma'no bo'lib, u o'zining grammatik kategoriyasiga ega emas. I shaxs birlik, III shaxs qo'shimchasidan boshqasi modal ma'no ifodalaydi. «Sizlash», «sensirash», «kamsitish», «kesatish», «hurmat» kabi qator ma'no modal ma'no. Bu, ayniqsa, ko'plikda yaqqolroq ko'zga tashlanadi. *Akamning kitoblari, dadamning mashinalari* kabi.

Egalik qo'shimchasining xususiy qo'llanishida «butun-qism» ma'nosining yuzaga chiqishini ham kuzatish mumkin: *o'quvchilarning biri, talabalarning a'lochisi, odamlarning o'qigani* kabi.

Egalik kategoriyasining umumiy grammatik ma'nosi kategorial va yondosh ma'no asosida bir necha oraliq grammatik ma'noga ajraladi:

1. «Qarashlilik/mansublik»: *Ilhomning kitobi, bolaning otasi, qo'yning boshi.*

2. «Foil-harakat»: *Adibaning kulishi, sening qarishing.*

3. «Aniqlanmishni aniqlovchiga bog'lash»: *qovun bozori, go'sht do'koni.*

Bu oraliq grammatik ma'noning har biri bog'lanayotgan so'zning xususiyatiga bog'liq ravishda qator xususiy grammatik ma'noda yuzaga chiqishi mumkin: *bolaning otasi, gulning bargi, Mohigulning kitobi, qizlarning*

bittasi. Masalan, bola va ota orasida qarindoshlik munosabati bo'lganligi sababli uning ifodalovchisi bo'lgan *bola* va *ota* so'zi egalik shakli bilan bog'langanda xususiy grammatik ma'no «qarindoshlik» bo'ladi. *Ilhomning kitobi* birikuvida uch xil xususiy grammatik ma'no yuzaga chiqadi: «Ilhom yozgan kitob», «Ilhomga qarashli kitob», «Ilhom haqidagi kitob».

Egalik kategoriyasining ikkinchi oraliq grammatik ma'nosi bog'liq qurshovda – aniqlanmish vazifasida harakat nomi, sifatdosh, ba'zan fe'ldan yasalgan ot kelgan so'z birikmasida voqealanadi. Bunday birikmada aniqlanmish harakat-holat ma'nosida, qaratqichli aniqlovchi esa foil/subyekt ma'nosiga ega bo'ladi: *Sitoraning kelishi, Muniraning aytgani* kabi.

Egalik kategoriyasining uchinchi oraliq grammatik ma'nosi so'z birikmasi tuzish, so'zaro sintaktik aloqani o'rnatish uchun xizmat qiladi. Misol: *Astrobodning bir kuni bir yilga teng.* (Oyb.) *Oygulning yo'qligidan bo'ldi.*

Egalik kategoriyasi shaklining sintaktik vazifa bajarishi – otli birikma hosil qilish vazifasi asosida tadqiqotchi turkiy til so'z birikmasi tizimida ham, gap qurilishida ham alohida qurilish – possesiv (qarashlilik) qurilishi mavjudligini qayd etadi va possesiv qurilish nominativ qurilishga qarama-qarshi qo'yiladi. Haqiqatan ham, istagan turdagi gap qaratuvchi birikma variantiga ega bo'lishi mumkin: *qizlardan bitta – qizlarning bittasi, molga qul - molning quli, vatan uchun kurash - vatan kurashi, qizil gul – gulning qizili.*

Egalik kategoriyasining sintaktik funksiyasi ayrim so'z tarkibida butunlay so'nib ketadi: *kechasi, o'rni, qaysi* kabi.

Aytilganidek, egalik kategoriyasi barcha mustaqil so'z turkumi uchun umumiy kategoriya. Uning fe'l turkumida yuzaga chiqishiga misol: *uning aytgani, bizning bormaganimiz, qizlarning kelgani.* Fe'lda egalik kategoriyasining «keyingi mustaqil so'zni oldingi mustaqil so'zga bog'lash» umumiy grammatik ma'nosini «keyingi fe'lni oldingi mustaqil so'zga bog'lash» tarzida xususiylashtiradi.

Quyida egalik kategoriyasining fe'lda voqealanish xususiyatidan ayrimiga to'xtalamiz.

Egalik kategoriyasi ikkinchi a'zosi *–gan* sifatdosh shaklida keluvchi qurilma tarkibida voqealanadi: *nimalar bo'layotganini, shabada yurmayotganidan, kimdir kelayotganini.* Misol: *Uning zamirida katta tarbiya yotganini bilmay qolamiz.* (J.Abd.) *Bu gap asosan qaysi maqsadda aytilayotganini tushunishga urinardi.* (J.Abd.) *Mannop bilan Nodir ham tungi smenaga tushganligini bilgandan keyin...* (J.Abd.) Bunda tobe birlik belgisiz qaratqich kelishigidadir: *katta tarbiya (ning) yotgani, gap(ning) aytilayotganini, Mannop bilan Nodir(ning) tushganligini.*

Bu qurilmani unga o'xshab ketuvchi *reja bajarilganida* ko'rinishidagi qurilmadan farqlash lozim.

1) birinchi tur qurilmada qaratqich kelishigining belgisiz shaklini belgili shakliga aylantirish mumkin: *yigit kelganini –yigitning kelganini.* Ikkinchi tur qurilmani bunday shaklga keltirib bo'lmaydi: *reja bajarilganida – rejaning bajarilganida.* Bunda *–ning* shakli ortiqcha;

2) birinchi tur qurilmada egalik affiksidan oldin *–lik* substantiv shakl yasovchisini qo'shish mumkin (demak, bunda bosh kelishik emas, balki qaratqich kelishigi qatnashadi): *yigit – yigitning kelganligini.* Ikkinchi tur qurilmada *-lik* substantiv shakl yasovchisini qo'shib bo'lmaydi.

3) Birinchi tur qurilmada obyekt ma'nosi ifodalanib, u to'ldiruvchi yoki ega bo'lib keladi: *kelgani* – nima?, *kelganini* – nimani?, *kelganidan* – nimadan? Ikkinchi tur qurilmadan esa payt, shart ma'nosi ifodalanib, shunga ko'ra u o'rin kelishigidan biri shaklini olib, hol bo'lib keladi: *reja bajarilganida.*

Ikkinchi uzviy harakat nomi bo'lgan qurilma: *Dushman samolyoti o'q yog'dirib turishiga qaramay, hammasi ro'yobga chiqishiga, qalb boshqacha hissiyot bilan tepishini* kabi. Misol: *Buning hammasi keyin dilrabo qo'shiqday bo'lib qolishini hali bilmaydi.* (J.Abd.) *Ko'z oldida askar dushman ustiga balo-qazoday yopirilishi kecha boshladi.* (J.Abd.)

Bu qurilmani ham unga o'xshab ketuvchi *suv qaynashi bilan* kabi qurilmadan farq qilish lozim. Chunki bu birikmada ham belgisiz qaratqich kelishigi mavjud.

1) birinchi tur qurilmada qaratqich kelishigining belgisiz shaklini belgili shakliga aylantirish mumkin: *samolyotning o'q yog'dirib turishi, qalbning hissiyot bilan tepishi, hammasining qo'shiqday bo'lib qolishi* kabi. Ikkinchi tur qurilmani bunday shaklga keltirib bo'lmaydi. Bunda *-ning* shakli ortiqcha bo'ladi.

birinchi tur qurilmada obyekt ma'nosi ifodalanib, u to'ldiruvchi yoki ega bo'lib keladi: *turgani* – nima?, *turganini* – nimani?, *turganidan* – nimadan? Ikkinchi tur qurilma *suv qaynashi bilan*da ta'kidlangan xususiyat yo'q.

Eslatma. *Men aytganim yo'q, u borgani yo'q* tipidagi qo'llanishga nazar tashlasak, unda egalik ma'nosi yo'qolib, shaxs-son ma'nosi kuchayganligi ko'rinadi. Aftidan, egalik qo'shimchasi bu o'rinda boshqa omil va vosita bilan birgalikda kesimni shakllantirishga xizmat qilgan. Bu misoldagi *men, u* so'zida *-ning* affiksi bordek tuyuladi. Ammo qolipning sinxron holatida ega va kesim orasida uni qidirish ma'qul emas. Shuning uchun uni egalik kategoriyasiga nisbat berib bo'lmaydi.

Ot turkumi egalik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosini «keyingi otni oldingi so'zga bog'lash va mansublik, xoslik ma'nosini ifodalash» tarzida xususiylashtiradi. Matn va birikuvchi so'zning semantikasiga bog'liq ravishda turli-tuman grammatik ma'no ifodalanishi mumkin. Lekin «keyingi otni oldingi so'zga bog'lash» kategorial ma'no xususiylashmasi sifatida o'zgarmay qolaveradi. Ot turkumining egalik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosini xususiylashtirishidagi o'ziga xoslikni ko'rib o'tamiz.

Ot turkumida egalik kategoriyasining ishlatilishida ikki holat bor:

1. Egalik affiksi o'zi birikkan so'zning boshqa so'z bilan bog'lanishida ishlatiladi. Bu vaqtda egalik kategoriyasidagi so'z qaratqich kelishigidagi so'z bilan keladi: *mening kitobim, sening kitobing, uning kitobi.* Kishilik olmoshi va egalik kategoriyasi qo'shimchasi shaxs va sonni ifodalaydi. Shu boisdan qaratqich kelishigidagi olmosh tushirib qoldirilishi mumkin: *kitobim, nutqing*;

Egalik kategoriyasidagi so'z ba'zan chiqish kelishigidagi so'z bilan ham birga qo'llanilishi mumkin: *talabadan biri.* Bunda qaralmish miqdor yoki belgi ifodalovchi so'z bilan ifodalangan bo'ladi.

2. Egalik affiksi qaratqich kelishigini talab qilmaydi. Bunda ham ikki holat farqlanadi:

a) erkin birikmada bosh kelishikdagi so'zni boshqaradi: *Navoiy ko'chasi, Dehqonobod tumani;*

b) egalik kategoriyasidagi so'zda affiks ma'nosi va vazifasi kuchsizlanib, ravishga o'tib ketadi: *kechasi, kunduzi;* modal so'zga o'tadi: *chamasi, yaxshisi.*

Egalik kategoriyasining birlik va ko'plik shakli qo'llanilishda farq bor. Ko'pincha miqdor bildiruvchi o'zakka birlik son shakli qo'shilmaydi: *beshovimiz, barchangiz.* Bu jihatdan III shaxs egalik affiksi farqlanadi: *barchasi, beshovi.*

Sifat turkumi egalik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosini «keyingi sifatni oldingi so'zga bog'lash va mansublik, xoslik ma'nosini ifodalash» tarzida xususiylashtiradi. Matn va birikuvchi so'zning semantikasiga bog'liq ravishda turli-tuman grammatik ma'no ifodalanishi mumkin. Lekin «keyingi sifatni oldingi so'zga bog'lash» kategorial ma'no xususiylashmasi sifatida o'zgarmay qolaveradi. Quyida sifat turkumining egalik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosini xususiylashtirishidagi o'ziga xoslikni ko'rib o'tamiz.

Egalik affiksi o'zi birikkan so'zning boshqa so'z bilan bog'lanishida ishlatiladi. Bu vaqtda egalik kategoriyasi dagi so'z qaratqich kelishigidagi so'z bilan keladi: *olmaning qizili, odamning aqllisi.*

Egalik kategoriyasidagi so'z ba'zan chiqish kelishigidagi so'z bilan ham birga qo'llanilishi mumkin: *odamdan aqllisi.*

Egalik kategoriyasidagi so'zda affiks ma'nosi va vazifasi kuchsizlanib, ravishga o'tib ketadi: *yaxshisi.*

Egalik kategoriyasining birlik va ko'plik shakli qo'llanilishda farq bor. Ko'pincha miqdor bildiruvchi o'zakka birlik son shakli qo'shilmaydi: *aqllingiz, ko'pimiz.* Bu jihatdan III shaxs egalik affiksi farqlanadi: *nodoni, rangdori.*

Son turkumi egalik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosini «keyingi sonni oldingi so'zga bog'lash va mansublik, xoslik ma'nosini ifodalash» tarzida xususiylashtiradi. Matn va birikuvchi so'zning semantikasiga bog'liq ravishda turli-tuman grammatik ma'no ifodalanishi mumkin. Lekin «keyingi sonni oldingi so'zga bog'lash» kategorial ma'no xususiylashmasi sifatida o'zgarmay qolaveradi. Quyida son turkumining egalik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosini xususiylashtirishidagi o'ziga xoslikni ko'rib o'tamiz.

Egalik affiksi o'zi birikkan so'zning boshqa so'z bilan bog'lanishida ishlatiladi. Bu vaqtda egalik kategoriyasidagi so'z qaratqich kelishigidagi so'z bilan keladi: *olmaning beshtasi, odamning o'ntasi.*

Egalik kategoriyasidagi so'z ba'zan chiqish kelishigidagi so'z bilan ham birga qo'llanilishi mumkin: *odamdan uchtasi.*

Egalik kategoriyasining birlik va ko'plik shakli qo'llanilishda farq bor. Ko'pincha miqdor bildiruvchi o'zakka birlik son shakli qo'shilmaydi: *beshtangiz, ikkovimiz.* Bu jihatdan Sh shaxs egalik affiksi farqlanadi: *biri, oltovi.*

Egalik shakli paradigmatikasi. Egalik shakli, aytilganidek, kelishik shaklidan aloqaning "yo'nalishi"ga qarab farqlanadi. Kelishik birikmadagi keyingi so'zga, egalik shakli oldingi so'zga ishora qiladi.

Egalik shakli dastlab birlik son va ko'plik son shakliga ajraladi. Bunda farqlanish son kategoriyasining ushbu shakldagi tajallisi asosida yuz beradi: birlik sondagi shakli (-(i)m, -(i)ng, -(s)i) va ko'plik son shakli (-(i)miz, -(i)ngiz, -lari). Son asosida bo'linish vertikal ko'rinishga ega bo'lsa, shaxs asosidagi bo'linish gorizantal ko'rinish kasb etadi. Shaxs asosidagi farqlanish ham egalik kategoriyasida akst etgan o'zga kategoriyaga xos hodisa. Demak, "egalik", "son" va "shaxs" ma'nosidan faqat birinchisi ushbu kategoriyaga xos ma'no hisoblanadi. Boshqa kategoriya ma'nosining tajallisi asosida egalikning oltita shakli farqlanadi. O'zga kategoriya ma'nosidan xalos qilinsa, egalikning birgina ma'nosi qoladi, xolos.

10- §. Kelishik kategoriyasi

Kelishik kategoriyasi haqida umumiy ma'lumot. Umumiy va xususiy grammatik ma'no grammatik shaklda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Har bir grammatik kategoriyaning ma'nosi uning shaklining ma'nosiga nisbatan umumiy ma'no. Masalan, barcha kelishik shakli uchun umumiy bo'lgan «oldingi mustaqil so'zni keyingi mustaqil so'zga bog'lash» ma'nosi kelishik kategoriyasining umumiy grammatik ma'nosi hisoblanadi. Bu kategorial umumiylik alohida shaklning ma'nosiga nisbatan belgilanadi.

Boshqacha aytganda, kelishik kategoriyasining yuqorida aytilgan umumiy grammatik ma'nosi uning tarkibiga kiruvchi 6 ta kelishik shaklining ma'nosidan sintezlanadi, ya'ni keltirib chiqariladi.

Har bir kelishik shaklining ma'nosi undan quyidagi ma'noga nisbatan umumiy grammatik ma'no hisoblanadi. Masalan, qaratqich kelishigining umumiy grammatik ma'nosi oldingi ism turkumiga kiruvchi so'zni keyingi ism turkumiga kiruvchi so'zga bog'lash.

Grammatik ma'no har doim ham quyi ma'noga nisbatan olinadi. Masalan, kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosi quyidagi kelishikning ma'nosiga nisbatan olinsa, har bir kelishikning umumiy grammatik ma'nosi undan quyidagi bu kelishik umumiy grammatik ma'nosining «parchasi»ga nisbatan olinadi. Chunki ota farzandiga nisbatan ota, otasiga nisbatan farzand bo'lganligi kabi kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosi haqida haqida gap ketayotganda har bir kelishikning ma'nosiga nisbatan *umumiy grammatik ma'no* termini qo'llanilmaydi. Kategoriya va shakl ma'nosi hamda uning xususiy ko'rinishi haqida bahs ketganda, uni qanday baholash muammosi ham bor. Bunda dialektikaning ***umumiylik-maxsuslik-alohidalik*** kategoriyasiga metodologiya sifatida tayanish lozim bo'ladi. Tilshunoslikda grammatik ma'noga nisbatan bu ***umumiy grammatik ma'no - oraliq grammatik ma'no – xususiy grammatik ma'no*** tarzida tatbiq etilgan. Misol sifatida tushum kelishigi shakli ma'nosini olaylik. Kelishik kategoriyasining «oldingi mustaqil so'zni keyingi mustaqil so'zga bog'lash» , tushum kelishigining «oldingi ismni keyingi fe'lga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» va tushum kelishigining muayyan nutq parchasi bo'lmish *kitobni o'qimoq* birikuvida voqealangan «*kitob* so'zini *o'qimoq* so'ziga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» nutqiy ma'nosi yaxlitlikda olinganda **umumiy grammatik ma'no – oraliq grammatik ma'no – xususiy grammatik ma'no** munosabatida. Kelishik kategoriyasining «oldingi mustaqil so'zni keyingi mustaqil so'zga bog'lash» ma'nosi tushum kelishigining «oldingi ismni keyingi fe'lga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» ma'nosiga

nisbatan umumiy grammatik ma'no maqomida bo'lib, tushum kelishigining muayyan nutq parchasi bo'lmish *kitobni o'qimoq* birikuvida voqealangan «*kitob* so'zini *o'qimoq* so'ziga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» nutqiy ma'nosi xususiy grammatik ma'no. Tushum kelishigining «oldingi ismni keyingi fe'lga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» ma'nosi esa umumiy grammatik ma'no va xususiy grammatik ma'no orasida turganligi hamda uni bog'lovchi bo'g'in bo'lganligi uchun oraliq grammatik ma'no maqomida. Oraliq grammatik ma'noning mavqeyi nisbiy. Masalan, kelishik kategoriyasining umumiy grammatik ma'nosi e'tibordan soqit qilinsa va fikr faqat tushum kelishigi va uning quyi ma'nosi haqida ketsa, mazkur oraliq grammatik ma'no umumiy grammatik ma'no sifatida qaraladi. Tushum kelishigining zikr etilgan xususiy grammatik ma'nosi e'tibordan soqit qilinib, so'z kelishik kategoriyasi va tushum kelishigi munosabati xususida ketsa, bunda oraliq grammatik ma'no ushbu umumiy grammatik ma'noga nisbatan xususiy grammatik ma'no sifatida ham qaralishi ham mumkin.

Demak, borliq hodisasi umumiylik-maxsuslik-xususiylik (alohidalik) munosabatida bo'lganligi kabi grammatik ma'no ham umumiy grammatik ma'no-oraliq grammatik ma'no-xususiy grammatik ma'no ko'rinishiga ega.

Umumiy grammatik ma'no va xususiy grammatik ma'no grammatik shaklda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Har bir grammatik kategoriyaning ma'nosi uning shaklining ma'nosiga nisbatan umumiy grammatik ma'no. Masalan, barcha kelishik shakli uchun umumiy bo'lgan «oldingi mustaqil so'zni keyingi mustaqil so'zga bog'lash» ma'nosi kelishik kategoriyasining umumiy grammatik ma'nosi. Bu kategorial umumiylik alohida shaklning ma'nosiga nisbatan belgilanadi., Boshqacha aytganda, kelishik kategoriyasining yuqorida aytilgan umumiy grammatik ma'nosi uning tarkibiga kiruvchi 6 ta kelishik shaklining ma'nosidan sintezlanadi ya'ni keltirib chiqariladi. Har bir kelishik shaklining ma'nosi undan quyidagi ma'noga nisbatan umumiy grammatik ma'no hisoblanadi. Masalan, qaratqich kelishigining umumiy grammatik ma'nosi oldingi ism turkumiga kiruvchi so'zni keyingi ism turkumiga kiruvchi so'zga bog'lash.

Har bir kelishik shaklining ma'nosi undan quyidagi ma'noga nisbatan umumiy grammatik ma'no hisoblanadi. Masalan, qaratqich kelishigining umumiy grammatik ma'nosi oldingi ism turkumiga kiruvchi so'zni keyingi ism turkumiga kiruvchi so'zga bog'lash. Umumiy grammatik ma'no har doim ham quyi ma'noga nisbatan olinadi. Masalan, kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosi quyidagi kelishikning ma'nosiga nisbatan olinsa, har bir kelishikning umumiy grammatik ma'nosi undan quyidagi bu kelishik umumiy

grammatik ma'nosining «parchasi»ga nisbatan olinadi. Chunki ota farzandiga nisbatan ota, otasiga nisbatan farzand bo'lganligi kabi kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosi haqida gap ketayotganda har bir kelishikning ma'nosiga nisbatan umumiy grammatik ma'no termini qo'llanilmaydi. Kategoriya va shakl ma'nosi hamda uning xususiy ko'rinishi haqida bahs ketganda uni qanday baholash muammosi ham bor. Bunda dialektikaning ***umumiylik-maxsuslik-alohidalik*** kategoriyasiga metodologiya sifatida tayanish lozim bo'ladi. Tilshunoslikda grammatik ma'noga nisbatan bu ***umumiy grammatik ma'no – oraliq grammatik ma'no (qisq.OGM) – xususiy grammatik ma'no*** tarzida tatbiq etilgan. Misol sifatida tushum kelishigi shakli ma'nosini olaylik. Kelishik kategoriyasining «oldingi mustaqil so'zni keyingi mustaqil so'zga bog'lash» , tushum kelishigining «oldingi ismni keyingi fe'lga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» va tushum kelishigining muayyan nutq parchasi bo'lmish *kitobni o'qimoq* birikuvida voqealangan «*kitob* so'zini *o'qimoq* so'ziga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» nutqiy ma'nosi yaxlitlikda olinganda umumiy grammatik ma'no – oraliq grammatik ma'no – xususiy grammatik ma'no munosabatida. Kelishik kategoriyasining «oldingi mustaqil so'zni keyingi mustaqil so'zga bog'lash» ma'nosi tushum kelishigining «oldingi ismni keyingi fe'lga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» ma'nosiga nisbatan umumiy grammatik ma'no maqomida bo'lib, tushum kelishigining muayyan nutq parchasi bo'lmish *kitobni o'qimoq* birikuvida voqealangan «*kitob* so'zini *o'qimoq* so'ziga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» nutqiy ma'nosi xususiy grammatik ma'no. Tushum kelishigining «oldingi ismni keyingi fe'lga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» ma'nosi esa umumiy grammatik ma'no va xususiy grammatik ma'no orasida turganligi hamda uni bog'lovchi bo'g'in bo'lganligi uchun oraliq grammatik ma'no maqomida. Oraliq grammatik ma'noning mavqeyi nisbiy. Masalan, kelishik kategoriyasining umumiy grammatik ma'nosi e'tibordan soqit qilinsa va fikr faqat tushum kelishigi va uning quyi ma'nosi haqida ketsa, mazkur oraliq grammatik ma'no umumiy grammatik ma'no sifatida qaraladi. Tushum kelishigining zikr etilgan xususiy grammatik ma'nosi e'tibordan soqit qilinib, so'z kelishik kategoriyasi va tushum kelishigi munosabati xususida ketsa, bunda oraliq grammatik ma'no ushbu umumiy grammatik ma'noga nisbatan xususiy grammatik ma'no sifatida ham qaralishi ham mumkin.

Demak, borliq hodisasi umumiylik-maxsuslik-xususiylik (alohidalik) munosabatida bo'lganligi kabi grammatik ma'no ham umumiy grammatik ma'no-oraliq grammatik ma'no-xususiy grammatik ma'no ko'rinishiga ega.

Kelishik kategoriyasi (qisq. KK) morfologik kategoriya sirasida ustuvor sintaktik tabiati bilan ajralib turadi. U egalik kategoriyasi bilan birgalikda sintaktik shaklning so'z birikmasiga xos guruhini tashkil etib, gapga xos kesimlik kategoriyasidan farqlanadi. Kelishik kategoriyasining umumiy grammatik ma'nosi «sintaktik qurilmada oldingi so'zni keyingi so'zga bog'lash». Bu bilan u egalik kategoriyasiga qarama-qarshi tursa, ko'makchi, fe'lning o'zgalovchi kategoriyasi, bog'lovchi va ko'makchiga yaqin turadi. Ammo undan farqli jihatga ega. Ko'makchidan morfologik ko'rsatkich (qo'shimcha) ekanligi bilan farqlanadi. Ko'makchi grammatik ma'no ifodalash, so'zni bir-biriga bog'lash vazifasini bajarsa-da, u leksik birlik hisoblanadi. O'zgalovchi kategoriya shaklidan barcha mustaqil so'zni sintaktik aloqaga kiritish, so'zning lug'aviy ma'nosiga ta'sir etmasligi bilan ajraladi. Holbuki, o'zgalovchi kategoriyasi faqat fe'lga xos va fe'lning lug'aviy ma'nosiga ta'sir etishi bilan lug'aviy-sintaktik mohiyatga ega. Shuning uchun u «fe'l kelishigi» deb ham yuritiladi. Bog'lovchidan esa tobe aloqa uchun xizmat qilib, so'z birikmasiga xosligi hamda grammatik ko'rsatkich (qo'shimcha) ekanligi bilan farqlanadi.

Kelishik kategoriyasi olti shaklli sistema bo'lib, uning har biri o'ziga xos ma'noviy va sintaktik xususiyat yaxlitligidan iborat. Kelishik kategoriyasi shakli sistemasi quyidagi jadvalda aks etgan:

-№	***Kelishikning nomi***	***Qo'shimchasi***	***Misol***
1	Bosh kelishik	***-0***	*Kitob, yaxshi, o'n, men, borish*
2	Qaratqich kelishigi	***-ning***	*Kitobning, yaxshining, o'nning, mening, borishning*
3	Tushum kelishigi	***-ni***	*Kitobni, yaxshini, o'nni, meni, borishni*
4	Jo'nalish kelishigi	***-ga***	*Kitobga, yaxshiga, o'nga, menga, borishga*
5	O'rin-payt kelishigi	***-da***	*Kitobda, yaxshida, o'nda, menda, borishda*
6	Chiqishi kelishigi	***-dan***	*Kitobdan, yaxshidan, o'ndan, mendan, borishdan*

Kelishik kategoriyasi tadqiqi tarixidan. O'zbek tilshunosligida kelishik shaklining o'rganilish tarixi tilshunos A.G'ulomov tadqiqotidan boshlandi.[1]

[1]Ғуломов А. Ўзбек тилида келишиклар // Труды Узбекского филиала АН СССР. Сер. 2. Кн. 2. –Т.; 1941.

Olim o‘zbek tilidagi kelishikni ajratib, asosiy ma’noviy va sintaktik xususiyatini aniqladi – kelishik sistemasini tikladi. Akademik A.N.Kononovning avval «Грамматика узбекского языка» va so‘ngra «Грамматика современного узбекского литературного языка» asarida bu sistemaning formal tavsifi berildi.[1] Shundan so‘ng kelishik kategoriyasining alohida shakli formal tadqiq usuli asosida I.Ziyoyeva, T.Inoyatov, A.Yo‘ldoshev, G.Ro‘ziyev, A.Ma’rufov, R.Rasulov, Sh.Rahmatullayev kabi tomonidan atroflicha tadqiq qilindi.[2] Ular tadqiqotida kelishikning nutqiy ma’nosi va sintaktik xususiyati yoritildi.

Kelishik shaklining sistemaviy tadqiqi H.Ne’matov, Sh.Shahobiddinova, Z.Qodirov tomonidan amalga oshirildi. Olimlar ishida kelishik kategoriyasining umumiy – lisoniy grammatik ma’nosi tiklandi. [3]

Kelishik shakli. Bosh kelishik. Bosh kelishik (qisq. BK) 0 shaklli bo‘lib, uning mohiyati boshqa kelishikka qarama-qarshi qo‘yilish asosida belgilanadi. bosh kelishik dagi so‘zshakl gap tarkibida tobe mavqedagi istagan gap bo‘lagi, so‘z yoki gap kengaytiruvchisi bo‘lib kela oladi. Misol:

Ega: *Derazamning oldida bir tup **o‘rik** oppoq bo‘lib gulladi.* (H.Olim.)

Aniqlovchi: *Bilim - **baxt** kaliti.* (Maq.)

To‘ldiruvchi: *Ko‘rpangga qarab **oyoq** uzat.* (Maq.)

Hol: *Ship etdi, **Shibirg‘on** ketdi.* (Top.)

Darslik va qo‘llanmada bosh kelishik kesim vazifasidagi so‘zni ham shakllantiradi deyiladi: *Otam – **o‘qituvchi**. Dil qulfi – **til*** kabi. Biroq bunda *o‘qituvchi, til* so‘zshakli kesim vazifasida bo‘lib, boshqa bo‘lakka mutlaq hokim. Kelishik kategoriyasining sintaktik mohiyati esa «sintaktik qurilmada oldingi

[1] Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. –М. –Л.:Издательство Академии наук СССР, 1960. –Б. 187–198.

[2] Расулов Р. Ўзбек тилида бош келишик ва унинг грамматик функциялари // Ученые записки Андижанского госпединститута, выпуск III, –Андижан, 1956; Расулов Р. Чиқиш келишиги // Ученые записки Андижанского госпединстута, IV, Филологическая серия, –Андижан, 1957; Маъруфов А. Ўзбек адабий тилидаги икки келишик формаси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари, 1958, --№ 1; Зиёева И. Келишик аффикларининг функционал алмашинувларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1966. --№ 3; Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек тили келишигини таснифлаш ҳақида // Научные записки Ташкентского государственного университета, вып. 359. «Вопросы русского и узбекского языкознания», –Ташкент, 1969; Иноятов Т. Ҳозирги ўзбек адабий тилида келишикларнинг ишлатилиш миқёси // Научные труды ТашГУ . Вып.359. «Вопросы русского и узбексого языкознания», –Т., 1969; Йўлдошев А., Рўзиев Г. Ўзбек тилидаги жўналиш ва ўрин-пайтлари келишигига доир // Тошкент университетининг илмий асарлари, 327- китоб, “Ўзбек филологияси масалалари”, –Т., 1970; Иноятов Т. Бош келишикнинг вазифалари // Тошкент университетининг илмий асарлари, 412- чиқиши, 1971; Иноятов Т. Тушум келишигининг белгили ва белгисиз ишлатилиши ва грамматик омиллар (турдош от бўйича) // Тошкент университетининг илмий асарлари, 427- чиқиши, 1972.

[3] Неъматов Ҳ. -га ва -дан келишик қўшимчасининг функционал алмашинига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1973, --№ 4; Неъматов Ҳ. Чегара келишиги // Ўзбек тили ва адабиёти, 1971, --№ 4; Қодиров З.М. Ўзбек тили грамматик категориясини систем таҳлил этиш (Келишик категорияси) : филол. фанлари номз. ... дисс. автореф. –Самарқанд, 1983; Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Т.: Янги аср авлоди, 2001. –Б. 75–100.

so‘zni keyingi so‘zga bog‘lash». Bu mohiyat nuqtayi nazaridan kelishikka munosabatda bo‘ladigan bo‘lsak, kesimda bosh kelishikni qidirish mantiqsiz. Chunki, a) kesimlik kategoriyasi tarkibi murakkab bo‘lsa-da, unda kelishik shakli mavjud emas; b) kelishik kategoriyasi umumturkumiy kategoriya ekan, unda kesim vazifasidagi barcha mustaqil so‘zda kelishikni qidirishga to‘g‘ri kelgan bo‘lur edi; v) kelishik kategoriyasi sintaktik mohiyati «oldingi so‘zni keyingi so‘zga bog‘lash» ekan, kesim eng oxirgi so‘z bo‘lib, undan keyin bog‘lanadigan birlik yo‘q; g) ayrim tadqiqotda bunday paytda kelishik ma’nosi va vazifasi o‘ta darajada kuchsizlashadi, deyiladi. Aslida bunda kuchsizlashish shu darajadaki, kelishik mohiyati mutlaqo voqealanmaydi – «ko‘rinmaydi». Bu esa ushbu pozitsiyada kelishikni qidirmaslikni taqozo qiladi.

Tilshunoslar turkiy tillarda «bosh kelishikdagi so‘z gapning xohlagan bo‘lagi bo‘lib kela olishi»ni ta’kidlashadi. bosh kelishikning bu xususiyati boshqa kelishikning o‘rnini almashtira olishi bilan belgilanadi. Ammo bu imkoniyat chegaralangan. kelishik kategoriyasi sistemasi ikki mikrosistemadan iborat: bosh kelishik, qaratqich kelishigi (qisq. QK), tushum kelishigi (qisq. TK) va jo‘nalish kelishigi (qisq. JK), O‘rin-payt kelishigi (qisq. O‘PK), chiqish kelishigi (qisq. ChK). Bosh kelishik birinchi mikrosistemaga mansub bo‘lganligi uchun uning qaratqich kelishigi va tushum kelishigini almashtirishi bemalol. Jo‘nalish kelishigi, o‘rin-payt kelishigi va chiqish kelishigi ga nisbatan bu imkoniyat nihoyatda chegaralangan. Masalan, *ikki kun**dan** keyin – ikki kun keyin, qishloq**qa** ketdi – qishloq ketdi, oqshom**da** ketdi – oqshom ketdi.*

Qaratqich kelishigi. Qaratqich kelishigi uch xil qo‘llanadi: *kitob**ning** varag‘i, men**ing** uyim, qoshi**n** qarosi*. Qaratqich kelishigi ko‘rsatkichini olgan so‘z qaratqich, u bog‘langan so‘z qaralmish deyiladi. Qaratqich-qaralmish munosabati ancha barqaror bo‘lib, bu qaratqich kelishigi ko‘rsatkichining so‘z birikmasidagi o‘rni ancha barqarorligi bilan belgilanadi.

Qaratqich kelishigi *shuning uchun, shuning singari* kabi birikuvda so‘z birikmasi hosil qilmaydi, balki so‘zning ajralmas qismiga aylanadi. Qaratqich kelishigini olgan so‘z egalik kategoriyasini olgan so‘z bilan birga qo‘llanadi. Bunday qurilishli so‘z birikmasi [qaratqich kelishigidagi ism qaralmish egalik kategoriyasidagi ism] so‘z birikmasi umumiy qolipining voqealanishi.

Qaratqich kelishigining keltirilgan uch xil ko‘rinishi nutq ko‘rinishi, bog‘lanuvchi so‘zning lug‘aviy ma’nosiga bog‘liq ravishda yuzaga chiqadi.

Tushum kelishigi. Tushum kelishigi ham bir necha morfologik ko‘rsatkichga ega: *-ni, -n, -i*. Tushum kelishigi dagi so‘z faqat fe’l bilan bog‘lanadi. Fe’l tushum kelishigidagi so‘zga munosabatiga ko‘ra, ikkiga ajraladi: o‘timli fe’l va o‘timsiz fe’l. Tushum kelishigi ham ko‘p holda bosh

kelishik bilan o'rin almashadi: *kitob**ni** o'qidi – kitob o'qidi, olma**ni** yedi – olma yedi.* Tushum kelishigi bilan shakllangan so'z gap tarkibida so'z kengaytiruvchisi – to'ldiruvchi vazifasini bajaradi: *Novdalar**ni** bezab g'unchalar tongda aytdi hayot otini.* (H.Olim.)

Kelishikning belgili/belgisiz qo'llanilishi masalasi munozarali. Biz kelishik kategoriyasidagi so'z uyushganda oldingi so'zshakldagi kelishiknigina belgisiz deyish tarafdorimiz. Masalan: ***Salim, Karim va Halimni** ko'rdim* (belgisiz TK). ***Opalarim va akalarimning** dardlari bir dunyo* (belgisiz QK). ***Na sada daraxtlari osti, na machitlar, na doim bazm qiziydigan gavjumda** biror sharpa eshitasiz* (belgisiz O'PK). (J.Abd.)

Jo'nalish kelishigi. Jo'nalish kelishigi ko'rsatkichi *-ga*. jo'nalish kelishigi semantikasiga yo'nalganlik, xoslik, tenglashtirish kabi ma'no turi xos. Bu ma'no birikuvchi so'zning xususiyatidan kelib chiqib o'zgarib ketaveradi: *ukamga olmoq, maktabga bormoq*. Birinchi birikmada «atalganlik» ma'nosi *uka* va *ol*, ikkinchi birikmada «yo'nalganlik» ma'nosi *maktab* va *bormoq* so'zining lug'aviy va grammatik ma'nosiga bog'liq. Jo'nalish kelishigi umumiy grammatik ma'nodagi kategorial ma'no esa «oldinggi so'zni keyingi so'zga hol va to'ldiruvchi vazifasida bog'lash».

O'rin-payt kelishigi. O'rin-payt kelishigi ko'rsatkichi *-da*. O'rin-payt kelishigi kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosini «oldinggi so'zni keyingi so'zga hol va to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» tarzida xususiylashtiradi. O'rin-payt kelishigi va jo'nalish kelishigi «yo'nalganlik» va «o'rinlashganlik» yondosh ma'nosi bilan farqlanadi.

O'rin-payt kelishigining bosh kelishik bilan o'rin almashishiga misol: *Sitora 1998 yil (da) tug'ildi*. Bunday almashish kam uchraydi. O'rin-payt kelishigi qo'llanishida so'zda makon, zamon, obyekt, vosita kabi ma'no yuzaga chiqadi: 1. *Munira kompyuter**da** yozdi* (vosita). 2.*Vodiylarni yayov kezgan**da**, Bir ajib his bor edi menda* (payt). (H.Olim.) *Hammasi muqaddas kitoblar**da** aytilgan* (makon).

Chiqish kelishigi. Chiqish kelishigi yagona ko'rsatkichga ega: *-dan*. Bu qo'shimcha ko'rsatish olmoshiga qo'shilganda bir *n* tovushi orttiriladi: *u+dan-undan, shu+dan-shundan*. Aytilganidek, bosh kelishik bilan chiqish kelishigining o'rin almashishi nihoyatda cheklangan: *non**dan** yeng-non yeng, choy**dan** iching-choy iching* kabi. Chiqish kelishigi dagi so'z gap tarkibida hol, to'ldiruvchi, ega, kesim vazifasida keladi. Ega va kesim vazifasida kelganda chiqish kelishigi mohiyati voqealanmagandek tuyuladi. Misol: *Munirada shu kitob**dan** bor. Hijolati vazifani bajarmagani**dan**.* E'tibor qilinsa, bunda lisoniy qisqaruv mavjud: *Munirada shu kitob**dan** (bir nechtasi) bor. Hijolati vazifani*

*bajarmagani**dan**(dir)*. Birinchi gapda aslida *bir nechtasi* so'zshakli ega, ikkinchi gapda *-dir (turur)* kesim bo'lgan.

Chiqish kelishigi tushum kelishigi bilan ham o'rin almashishi mumkin. Bunda semantikada farq seziladi: *non**dan** yeng-non**ni** yeng, choy**dan** iching-choy**ni** iching*. Chiqish kelishigi ning qaratqich kelishigi bilan o'rin almashishida ham shunday hol kuzatiladi: *o'quvchi**dan** biri – o'quvchi**ning** biri.*

Eslatma. Darslik va grammatikada har bir kelishikning yigirma-o'ttiz ma'no turi keltiriladi. Uning aksariyati kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosiga xos bo'lmagan, birikuvchi so'zning lug'aviy va grammatik ma'nosiga bog'liq hodisa. Shu boisdan har bir kelishik mohiyatini kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nodagi kategorial ma'no – «oldinggi so'zni keyingi so'zga bog'lash» zotiy mohiyatini qay tarzada xususiylashtirishidan qidirmoq lozim.

Eslatma. Turkiy tillarda kelishikning semantik va vazifaviy jihatini bir-biridan alohida va har xil mikrosistemaga keskin bo'lib o'rganib bo'lmaydi, chunki bu tillar kelishigining ma'no va vazifasi dialektik birlikda yashaydi, kelishikning turli funksiyasi bir-biriga turli belgisi bilan qarama-qarshi qo'yiladi. Masalan, jo'nalish kelishigi, o'rin-payt kelishigi va chiqish kelishigi bir xil – hol va to'ldiruvchi vazifasida kela oladi. Biroq u bu vazifani turlicha bajaradi.

Darslik va grammatikada har bir kelishikning yigirma-o'ttiz ma'no turi keltiriladi. Uning aksariyati kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosiga xos bo'lmagan, birikuvchi so'zning lug'aviy va grammatik ma'nosiga bog'liq hodisa. Shu boisdan har bir kelishik mohiyatini kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosidagi kategorial ma'no – «oldingi so'zni keyingi so'zga bog'lash» substansial mohiyatini qay tarzda xususiylashtirishidan qidirmoq lozim.

Turkiy tillarda kelishikning semantik va vazifaviy jihatini bir-biridan alohida va har xil mikrosistemaga keskin bo'lib o'rganib bo'lmaydi, chunki bu til kelishigining ma'no va vazifasi dialektik birlikda yashaydi, kelishikning turli funksiyasi bir-biriga turli belgisi bilan qarama-qarshi qo'yiladi. Masalan, jo'nalish kelishigi, o'rin-payt kelishigi va chiqish kelishigidagi so'z bir xil – hol va to'ldiruvchi vazifasida kela oladi. Biroq ular bu vazifani turlicha bajaradi.

Kelishik kategoriyasi ko'proq ot turkumi so'zi uchun xoslangan. Bosh kelishikdagi ot *kim, nima, qaer* so'rog'iga javob bo'lib, quyidagi vazifada keladi:

Ega: 1. ***Salim** – eng yosh o'qituvchi*. 2. *Darvoza tepasiga **sandiq** qo'yilgandi*.

Hol: ***Shu kuni** Abdulla allamahalgacha xayol surib yotdi*. (O'.Umarbekov).

*Yer haydasang, **kuz** hayda, **kuz** haydamasang, yuz hayda*. (Maq.)

Vositasiz to‘ldiruvchi: *Murotali qazib qo‘ygan chuqurga* ***ko‘chat*** *o‘tqazardi.* (Sh.Rashidov) *Bir kishi* ***ariq*** *qaziydi, ming kishi* ***suv*** *ichadi.* (Maq.)

Qaratuvchi aniqlovchi: ***Ko‘k*** *yuzini yulduzlar band etdi.* (J.Abdullaxonov) ***Cho‘l*** *qoviuni pishay-pishay deb turibdi.* (S.Ahmad)

Sifatlovchi: *Shu payt* ***elektr*** *qo‘ng‘iroq asta jiringladi.* (H.G‘ul.)

Izohlovchi: *Daryodan o‘tilgan kun* ***general*** *Pogodin harbiy Kengashga chaqirildi.* (I.Rahim)

Aytilganidek, ot kesim (*Otam – **ishchi***), undalma (*Siz baxtlisiz, **Olimjon aka***), atov gap (*Ko‘m-ko‘k **dala***) vazifasida kelganda, uni bosh kelishikda deyish to‘g‘ri emas. Aytilganidek, bunda kelishik umumiy grammatik ma’nosiga xos vazifa yuzaga chiqmagan.

Qaratqich kelishigidagi otda kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma’nosi «otni qaratqich aniqlovchi vazifasida keyingi so‘zga bog‘lash» tarzida xususiylashadi: *Mohidil inson tabiati**ning** naqadar murakkabligiga yanada chuqurroq tushuna bordi.* (J.Abdullaxonov)

Manbalarda qaratqich kelishigining belgili va belgisiz ko‘rinishi farqlanadi. Bosh kelishikning kelishik kategoriyasining boshqa shakli o‘rnini bemalol almashtira olishi haqidagi nazariya «belgisiz qaratqich kelishigi»ni bosh kelishik sifatida qarashni taqozo qiladi. Masalan, ***nonning*** *uvog‘i* – qaratqich kelishigida, ***non*** *uvog‘i* – bosh kelishikda.

Tushum kelishigi dagi ot gapda ish-harakatni qabul qilgan predmetga obyekt tusini beradi va tushum kelishigi affiksini qabul qilgan ot vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida keladi. «Otga obyekt tusini berish va uni fe’lga vositasiz to‘ldiruvchi sifatida bog‘lash» tushum kelishigi umumiy grammatik ma’nosining ot turkumidagi xususiylashuvi.

Demak, qaratqich kelishigi va tushum kelishigida ta’kidlash va ajratish ma’nosi bo‘lib, unga ehtiyoj bo‘lmaganda bosh kelishik qo‘llanadi.

Chiqish kelishigi kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma’nosini umuman «oldingi so‘zni keyingi fe’lga o‘rin-payt holi va vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida bog‘lash» tarzida, ot turkumida esa «oldingi otni keyingi fe’lga o‘rin-payt holi va vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida bog‘lash» ko‘rinishida xususiylashtiradi.

Ot turkumida chiqish kelishigi ko‘makchi bilan kelishi mumkin: *taomdan* ***keyin****, ishdan* ***so‘ng****.*

Chiqish kelishigidagi otning vazifasi:

a) vositali to‘ldiruvchi: *Gulnorning o‘zi**dan** so‘rab ko‘rarmiz?* («Saodat»)

b) o‘rin holi: *Eshigi ochiq narigi xona**dan** pianino ovozi eshitilmoqda edi.*(P.Qodirov)

v) sabab holi: *Yulduz taajjubi**dan** o‘zini bosolmadi.*(M.Muhamedov)

g) payt holi: *Ikkalasi **yoshlik**dan birga o‘sishgan.* (M.Qoriev)

d) ko‘makchi bilan birga ajratilgan bo‘lak vazifasi: *Qamishkapaliklar odamlarni nomlari bilan atash**dan** **ko‘ra**, xususiyati bilan ta’riflaydilar.* (A.Qah.)

Chiqish kelishigi o‘z vazifasini yo‘qotishi mumkin: *birdan, to‘satdan, qo‘qqisdan.*

Ma’nosi kuchsizlanishi va gap qisqarishi natijasida kesim vazifasida tuslovchi olishi mumkin: *Qishloq**dan**misiz*? Qisqaruv hodisasi chiqish kelishigidagi so‘zning ega bo‘lib kelishini ham ta’minlaydi: *Bu kitobdan menda ham bor.*

Jo‘nalish kelishigidagi ot ish-harakat yo‘nalgan predmetni anglatadi: *maktab**ga**, ish**ga**, zavod**ga**, ukam**ga**.* Uning invariant affiksi *–ga* bo‘lib, nutqda turli fonetik, poetik variantga ega bo‘ladi: *kurak**ka**, tuproq**qa**, buyo**na**, qayg‘**a**.*

Jo‘nalish kelishigi ko‘makchi bilan sinonimik munosabatga kirishadi: *uyga ketdi - uy **tomon** ketdi, ukasi**ga** oldi – ukasi **uchun** oldi.*

Jo‘nalish kelishigi chiqish kelishigi, tushum kelishigi va o‘rin-payt kelishigi vazifasini ham bajaradi: *Biz hashamatli bino oldi**ga(da)** to‘plandik. Bu gap**ga(ni)** tushunmadim. Ko‘rsatish**ga(dan)** uyaldim.*

Jo‘nalish kelishigidagi ot gapda:

a) vositali to‘ldiruvchi: *Mohidil shoshilinch **safarga** otlana boshladi.* (J.Abdullaxonov) *Dildor Nafisaning oppoq chaqnoq **ko‘ziga** havaslanib boqdi.* (H.G‘ulom)

b) o‘rin holi: 1. *Bahor ko‘zi to‘la yoshni yashirmoq uchun **eshikka** yugurdi.* (Sh.Rashidov). 2.*Nayman **cho‘liga**, **to‘qayiga** chinakam bahor keldi.* (S.Ahmad)

v) payt holi: *Sport musobaqalari **bahorga** qoldirildi.* («Qashq.»).

g) maqsad holi: 1. *Baloning oldini **olmoqqa** ne chora ko‘rmoq lozim.* (J.Abdullaxonov). 2.*Bahor Po‘latni **kuzatishga** yasanib chiqqan edi.*(Sh.Rashidov)

d) sabab holi: *O‘z vaqtida **davolanmaganimga** juda afsuslanaman. Sitora sportda katta muvaffaqiyat **qozonganiga** xursand bo‘ldi.*

e) miqdor-daraja holi: *Ra’no do‘kondan **besh so‘mga** turli o‘quv quroli sotib oldi.*

Qisqargan qolipli gapda kesim vazifasida keladi: *Kitob **hammaga**. Bilim **ommaga**.*

Ko‘rinadiki, jo‘nalish kelishigi ot turkumida kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma’nosini «oldingi otni keyingi fe’lga vositali to‘ldiruvchi va hol vazifasida bog‘lash» tarzida xususiylashtiradi.

O'rin-payt kelishigi ot turkumida kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosini «oldingi otni keyingi fe'lga vositali to'ldiruvchi va hol vazifasida bog'lash» tarzida xususiylashtirib, ish-harakatning bajarilish o'rni, vaqti, sharoiti, holati, sababi, maqsadi kabi ma'noni ifodalaydi. O'rin-payt kelishigi – *da* ko'rsatkichiga ega: *qishloqda, yozda, hovlida.*

O'rin-payt kelishigidagi so'z uyushib kelganda oldingisida kelishik belgisiz bo'ladi: ***Na sada daraxti osti, na machit, na doim bazm qiziydigan gavjumda*** *biror sharpa eshitasiz.* (J.Abdullaxonov)

O'rin-payt kelishigi gapda:

a) vositali to'ldiruvchi: *Botirda bog'bonlikka mehr bolalikda uyg'ondi.* (N.Safarov)

b) o'rin holi: *Katta-katta ko'chada* ***yursin.*** (O'.Umarbekov)

v) payt holi: *O'sha kezda Yolqin akam otda g'o'zani kultivatsiya qilar edi.* (P.Qodirov)

g) tarz holi: *Qiz horg'in, parishon holda uyga qaytdi.*(Oybek)

d) maqsad holi: *Biz yangi maktab binosi qurilishi masalasida keldik.* (J.Abdullaxonov)

e) kesim: *Olimjonning ikki ko'zi ko'm-ko'k g'o'zada.* (Sh.Rashidov). *Katta izzatda, kichik xizmatda.* Bunda ham sintaktik qisqaruv yuz bergan.

O'rin-payt kelishigi gap bo'lagiga xoslanganda anglashiladigan ma'no u birikayotgan so'zning lug'aviy xususiyatidan kelib chiqadi. Masalan, *ko'cha* so'zida o'rin ma'nosi bor, shuning uchun *ko'chada* so'zshakli gapda o'rin holi vazifasida, *o'sha kez* birikuvidan payt anglashiladi, shu boisdan bu birikma o'rin-payt kelishigida payt holi bo'lib kelgan. Demak, o'rin-payt kelishigi mohiyatining voqealanishida tajalli ma'noning roli behad katta.

Kelishik kategoriyasi fe'lda egalik kategoriyasi bilan dialektik yaxlitlikda voqealanadi. Ya'ni kelishik kategoriyasi ko'rsatkichini qabul qiluvchi fe'lda undan oldin egalik affiksi bo'lishi shart: *o'qiganimni, o'qiganimdan, o'qiganimga, borishimga, borishimda* kabi. Kelishik kategoriyasi fe'lning asosan tuslanmagan shaklida yuzaga chiqadi. Kelishik kategriyasidagi fe'l bir qarashda tuslangan fe'ldek tasavvur uyg'otadi. Masalan, *Barcha ayb mening borganligimda.* Bunda egalik qo'shimchasi qaralmish fe'lni qaratuvchiga bog'lamoqda, ega emas. Gapning egasi *ayb* so'zi bo'lib, kesimda shaxs-son kategoriyasining III shaxs, birlik shakli mavjud. Egalik kategoriyasining shakli esa I shaxs birlik.

Kelishik kategoriyasidagi fe'l gapning barcha bo'lagi vazifasida kela oladi: ega: *Mening* ***borganim*** *– sening borganing*; hol: *Achchig'i chiqqanidan*

yig'ladi; to'ldiruvchi; *Borganidan uyaldi;* aniqlovchi: *Borishining siri nimada?* kesim: *Hamma gap ishlamaganida.*

Kelishik kategoriyasidagi fe'l matndan kelib chiqib: a) «harakatning obyektlashishi»; b) «payt»; v) «sabab»; g) «evaz» kabi ma'noni anglatadi: a) *Salimning borganini aytmoq, o'quvchining o'qiganini so'ramoq*; b) *kelganida gapirdi, yurganida o'ylamoq*; v) *achchig'i chiqqanidan yig'ladi, quvonganidan gapirolmay qoldi, gapirganiga uyaldi*; g) *ishlamaganiga gap eshitdi; bormaganiga afsuslandi.* Bu sirani birikuvchi so'zdan anglashilgan voqelikning munosabatiga qarab ancha davom ettirish mumkin. Kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosidagi «oldingi so'zni keyingi so'zga bog'lash» kategorial ma'no fe'l turkumida «oldingi fe'lni keyingi so'zga bog'lash» tarzida xususiylashadi.

Kelishik kategoriyasi sifatda egalik kategoriyasi bilan birga qo'llanadi.

Bosh kelishikdagi sifat ega vazifasida keladi: 1. *Ukamning* ***kichigi*** *- o'qituvchi.* 2. *Darvoza tepasiga shoxning* ***kattasi*** *qo'yilgandi.*

Qaratqich kelishigidagi sifatda kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosi «sifatni qaratqich aniqlovchi vazifasida keyingi so'zga bog'lash» tarzida xususiylashadi: *Inson yalqovining bahonasi ko'p.* (J.Abdullaxonov)

Tushum kelishigidagi sifat gapda ish-harakatni qabul qilgan predmetga obyekt tusini beradi va tushum kelishigi affiksini qabul qilgan sifat vositasiz to'ldiruvchi vazifasida keladi. «Sifatga obyekt tusini berish va uni fe'lga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» tushum kelishigi umumiy grammatik ma'nosining sifat turkumidagi xususiylashuvidir: *Gulning qizilini ajratdi.*

Chiqish kelishigi kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosini umuman «oldingi so'zni keyingi fe'lga o'rin-payt holi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» tarzida, sifat turkumida esa «oldingi sifatni keyingi fe'lga o'rin-payt holi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» ko'rinishida xususiylashtiradi.

Chiqish kelishigidagi sifatning vazifasi:

a) vositali to'ldiruvchi: *Qarzni odamning yaxshisidan so'rang.* («Saodat»)

b) o'rin holi: *Eshigi ochiq narigi xonadan pianino ovozi eshitilmoqda edi.*(P.Qodirov)

v) sabab holi: *Piyozning achchig'idan ko'zi qizardi.*(M.Muhamedov)

Jo'nalish kelishigidagi sifat ish-harakat yo'nalgan predmetni belgisi bilan anglatadi: *og'iriga, yaqiniga.*

Jo'nalish kelishigidagi sifat gapda to'ldiruvchi, hol kabi bo'lak vazifasida keladi: 1. *Qizning ko'zining* ***qorasiga*** *havaslanib boqdi.* 2. *Bola hovuzning* ***to'lasiga*** *yugurdi.*

O'rin-payt kelishigi ot turkumida kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosini «oldingi otni keyingi fe'lga vositali to'ldiruvchi va hol vazifasida bog'lash» tarzida xususiylashtirib, ish-harakatning bajarilish o'rni, vaqti, sharoiti, holati, sababi, maqsadi kabi ma'noni ifodalaydi. O'rin-payt kelishigi – *da* ko'rsatkichiga ega: *qishloqda, yozda, hovlida.*

O'rin-payt kelishigidagi so'z uyushib kelganda oldingisida kelishik belgisiz bo'ladi: ***Na sada daraxti osti, na machit, na doim bazm qiziydigan gavjumda*** *biror sharpa eshitasiz.* (J.Abdullaxonov)

O'rin-payt kelishigi gapda:

a) vositali to'ldiruvchi: *Botirda bog'bonlikka mehr bolalikda uyg'ondi.* (N.Safarov)

b) o'rin holi: *Katta-katta ko'chada yursin.* (O'.Umarbekov)

v) payt holi: *O'sha kezda Yolqin akam otda g'o'zani kultivatsiya qilar edi.* (P.Qodirov)

g) tarz holi: *Qiz horg'in, parishon holda uyga qaytdi.*(Oybek)

d) maqsad holi: *Biz yangi maktab binosi qurilishi masalasida keldik.* (J.Abdullaxonov)

e) kesim: *Olimjonning ikki ko'zi ko'm-ko'k g'o'zada.* (Sh.Rashidov). *Katta izzatda, kichik xizmatda.* Bunda ham sintaktik qisqaruv yuz bergan.

O'rin-payt kelishigi gap bo'lagiga xoslanganda anglashiladigan ma'no u birikayotgan so'zning lug'aviy xususiyatidan kelib chiqadi. Masalan, *ko'cha* so'zida o'rin ma'nosi bor, shuning uchun *ko'chada* so'zshakli gapda o'rin holi vazifasida, *o'sha kez* birikuvidan payt anglashiladi, shu boisdan bu birikma o'rin-payt kelishigida payt holi bo'lib kelgan. Demak, o'rin-payt kelishigi mohiyatining voqealanishida tajalli ma'noning roli behad katta.

Kelishik kategoriyasi fe'lda egalik kategoriyasi bilan dialektik yaxlitlikda voqealanadi. Ya'ni kelishik kategoriyasi ko'rsatkichini qabul qiluvchi fe'lda undan oldin egalik affiksi bo'lishi shart: *o'qiganimni, o'qiganimdan, o'qiganimga, borishimga, borishimda* kabi. Kelishik kategoriyasi fe'lning asosan tuslanmagan shaklida yuzaga chiqadi. Kelishik kategriyasidagi fe'l bir qarashda tuslangan fe'ldek tasavvur uyg'otadi. Masalan, *Barcha ayb mening borganligimda.* Bunda egalik qo'shimchasi qaralmish fe'lni qaratuvchiga bog'lamoqda, ega emas. Gapning egasi *ayb* so'zi bo'lib, kesimda shaxs-son kategoriyasining III shaxs, birlik shakli mavjud. Egalik kategoriyasining shakli esa I shaxs birlik.

Kelishik kategoriyasidagi fe'l gapning barcha bo'lagi vazifasida kela oladi: ega: *Mening* ***borganim*** *– sening borganing*; hol: *Achchig'i chiqqanidan*

yig'ladi; to'ldiruvchi; *Borganidan uyaldi;* aniqlovchi: *Borishining siri nimada?* kesim: *Hamma gap ishlamaganida.*

Kelishik kategoriyasidagi fe'l matndan kelib chiqib: a) «harakatning obyektlashishi»; b) «payt»; v) «sabab»; g) «evaz» kabi ma'noni anglatadi: a) *Salimning borganini aytmoq, o'quvchining o'qiganini so'ramoq*; b) *kelganida gapirdi, yurganida o'ylamoq*; v) *achchig'i chiqqanidan yig'ladi, quvonganidan gapirolmay qoldi, gapirganiga uyaldi*; g) *ishlamaganiga gap eshitdi; bormaganiga afsuslandi.* Bu sirani birikuvchi so'zdan anglashilgan voqelikning munosabatiga qarab ancha davom ettirish mumkin. Kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosidagi «oldingi so'zni keyingi so'zga bog'lash» kategorial ma'no fe'l turkumida «oldingi fe'lni keyingi so'zga bog'lash» tarzida xususiylashadi.

Kelishik kategoriyasi sifatda egalik kategoriyasi bilan birga qo'llanadi.

Bosh kelishikdagi sifat ega vazifasida keladi: 1. *Ukamning* ***kichigi*** *- o'qituvchi.* 2. *Darvoza tepasiga shoxning* ***kattasi*** *qo'yilgandi.*

Qaratqich kelishigidagi sifatda kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosi «sifatni qaratqich aniqlovchi vazifasida keyingi so'zga bog'lash» tarzida xususiylashadi: *Inson yalqovining bahonasi ko'p.* (J.Abdullaxonov)

Tushum kelishigidagi sifat gapda ish-harakatni qabul qilgan predmetga obyekt tusini beradi va tushum kelishigi affiksini qabul qilgan sifat vositasiz to'ldiruvchi vazifasida keladi. «Sifatga obyekt tusini berish va uni fe'lga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» tushum kelishigi umumiy grammatik ma'nosining sifat turkumidagi xususiylashuvidir: *Gulning qizilini ajratdi.*

Chiqish kelishigi kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosini umuman «oldingi so'zni keyingi fe'lga o'rin-payt holi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» tarzida, sifat turkumida esa «oldingi sifatni keyingi fe'lga o'rin-payt holi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» ko'rinishida xususiylashtiradi.

Chiqish kelishigidagi sifatning vazifasi:

a) vositali to'ldiruvchi: *Qarzni odamning yaxshisidan so'rang.* («Saodat»)

b) o'rin holi: *Eshigi ochiq narigi xonadan pianino ovozi eshitilmoqda edi.*(P.Qodirov)

v) sabab holi: *Piyozning achchig'idan ko'zi qizardi.*(M.Muhamedov)

Jo'nalish kelishigidagi sifat ish-harakat yo'nalgan predmetni belgisi bilan anglatadi: *og'iriga, yaqiniga.*

Jo'nalish kelishigidagi sifat gapda to'ldiruvchi, hol kabi bo'lak vazifasida keladi: 1. *Qizning ko'zining* ***qorasiga*** *havaslanib boqdi.* 2. *Bola hovlining* ***to'lasiga*** *yugurdi.*

O'rin-payt kelishigi ot turkumida kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosini «oldingi otni keyingi fe'lga vositali to'ldiruvchi va hol vazifasida bog'lash» tarzida xususiylashtirib, ish-harakatning bajarilish o'rni, vaqti, sharoiti, holati, sababi, maqsadi kabi ma'noni ifodalaydi. O'rin-payt kelishigi – *da* ko'rsatkichiga ega: *qishloqda, yozda, hovlida.*

O'rin-payt kelishigidagi so'z uyushib kelganda oldingisida kelishik belgisiz bo'ladi: ***Na sada daraxti osti, na machit, na doim bazm qiziydigan gavjumda*** *biror sharpa eshitasiz.* (J.Abdullaxonov)

O'rin-payt kelishigi gapda:

a) vositali to'ldiruvchi: *Botirda bog'bonlikka mehr bolalikda uyg'ondi.* (N.Safarov)

b) o'rin holi: *Katta-katta ko'chada yursin.* (O'.Umarbekov)

v) payt holi: *O'sha kezda Yolqin akam otda g'o'zani kultivatsiya qilar edi.* (P.Qodirov)

g) tarz holi: *Qiz horg'in, parishon holda uyga qaytdi.*(Oybek)

d) maqsad holi: *Biz yangi maktab binosi qurilishi masalasida keldik.* (J.Abdullaxonov)

e) kesim: *Olimjonning ikki ko'zi ko'm-ko'k g'o'zada.* (Sh.Rashidov). *Katta izzatda, kichik xizmatda.* Bunda ham sintaktik qisqaruv yuz bergan.

O'rin-payt kelishigi gap bo'lagiga xoslanganda anglashiladigan ma'no u birikayotgan so'zning lug'aviy xususiyatidan kelib chiqadi. Masalan, *ko'cha* so'zida o'rin ma'nosi bor, shuning uchun *ko'chada* so'zshakli gapda o'rin holi vazifasida, *o'sha kez* birikuvidan payt anglashiladi, shu boisdan bu birikma o'rin-payt kelishigida payt holi bo'lib kelgan. Demak, o'rin-payt kelishigi mohiyatining voqealanishida tajalli ma'noning roli behad katta.

Kelishik kategoriyasi fe'lda egalik kategoriyasi bilan dialektik yaxlitlikda voqealanadi. Ya'ni kelishik kategoriyasi ko'rsatkichini qabul qiluvchi fe'lda undan oldin egalik affiksi bo'lishi shart: *o'qiganimni, o'qiganimdan, o'qiganimga, borishimga, borishimda* kabi. Kelishik kategoriyasi fe'lning asosan tuslanmagan shaklida yuzaga chiqadi. Kelishik kategriyasidagi fe'l bir qarashda tuslangan fe'ldek tasavvur uyg'otadi. Masalan, *Barcha ayb mening borganligimda.* Bunda egalik qo'shimchasi qaralmish fe'lni qaratuvchiga bog'lamoqda, ega emas. Gapning egasi *ayb* so'zi bo'lib, kesimda shaxs-son kategoriyasining III shaxs, birlik shakli mavjud. Egalik kategoriyasining shakli esa I shaxs birlik.

Kelishik kategoriyasidagi fe'l gapning barcha bo'lagi vazifasida kela oladi: ega: *Mening* ***borganim*** *– sening borganing*; hol: *Achchig'i chiqqanidan*

yig'ladi; to'ldiruvchi; *Borganidan uyaldi;* aniqlovchi: *Borishining siri nimada?* kesim: *Hamma gap ishlamaganida.*

Kelishik kategoriyasidagi fe`l matndan kelib chiqib: a) «harakatning obyektlashishi»; b) «payt»; v) «sabab»; g) «evaz» kabi ma`noni anglatadi: a) *Salimning borganini aytmoq, o'quvchining o'qiganini so'ramoq*; b) *kelganida gapirdi, yurganida o'ylamoq*; v) *achchig'i chiqqanidan yig'ladi, quvonganidan gapirolmay qoldi, gapirganiga uyaldi*; g) *ishlamaganiga gap eshitdi; bormaganiga afsuslandi.* Bu sirani birikuvchi so`zdan anglashilgan voqelikning munosabatiga qarab ancha davom ettirish mumkin. Kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma`nosidagi «oldingi so'zni keyingi so'zga bog'lash» kategorial ma`no fe'l turkumida «oldingi fe'lni keyingi so'zga bog'lash» tarzida xususiylashadi.

Kelishik kategoriyasi sifatda egalik kategoriyasi bilan birga qo'llanadi.

Bosh kelishikdagi sifat ega vazifasida keladi: 1. *Ukamning* ***kichigi*** *- o'qituvchi.* 2. *Darvoza tepasiga shoxning* ***kattasi*** *qo'yilgandi.*

Qaratqich kelishigidagi sifatda kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma`nosi «sifatni qaratqich aniqlovchi vazifasida keyingi so'zga bog'lash» tarzida xususiylashadi: *Inson yalqovining bahonasi ko'p.* (J.Abdullaxonov)

Tushum kelishigidagi sifat gapda ish-harakatni qabul qilgan predmetga obyekt tusini beradi va tushum kelishigi affiksini qabul qilgan sifat vositasiz to'ldiruvchi vazifasida keladi. «Sifatga obyekt tusini berish va uni fe`lga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» tushum kelishigi umumiy grammatik ma`nosining sifat turkumidagi xususiylashuvidir: *Gulning qizilini ajratdi.*

Chiqish kelishigi kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma`nosini umuman «oldingi so'zni keyingi fe'lga o'rin-payt holi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» tarzida, sifat turkumida esa «oldingi sifatni keyingi fe'lga o'rin-payt holi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» ko'rinishida xususiylashtiradi.

Chiqish kelishigidagi sifatning vazifasi:

a) vositali to'ldiruvchi: *Qarzni odamning yaxshisidan so'rang.* («Saodat»)

b) o'rin holi: *Eshigi ochiq narigi xonadan pianino ovozi eshitilmoqda edi.*(P.Qodirov)

v) sabab holi: *Piyozning achchig'idan ko'zi qizardi.*(M.Muhamedov)

Jo'nalish kelishigidagi sifat ish-harakat yo'nalgan predmetni belgisi bilan anglatadi: *og'iriga, yaqiniga.*

Jo'nalish kelishigidagi sifat gapda to'ldiruvchi, hol kabi bo'lak vazifasida keladi: 1. *Qizning ko'zining* ***qorasiga*** *havaslanib boqdi.* 2. *Bola hovlizning* ***to'lasiga*** *yugurdi.*

Ko'rinadiki, jo'nalish kelishigi sifat turkumida kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosini «oldingi sifatni keyingi fe'lga vositali to'ldiruvchi va hol vazifasida bog'lash» tarzida xususiylashtiradi.

O'rin-payt kelishigi sifat turkumida kelishik kategoriyasini «oldingi sifatni keyingi so'zga vositali to'ldiruvchi va hol vazifasida bog'lash» tarzida xususiylashtirib, ish-harakatning bajarilish o'rni, vaqti, sharoiti, holati, sababi, maqsadi kabi tajalli ma'noni ifodalaydi: *Odamning **pismig'ida** gap ko'p.*

Kelishik kategoriyasi sonda ham egalik kategoriyasi bilan birga qo'llanadi.

Bosh kelishikdagi son ega vazifasida keladi: 1. *Daftarning **uchtasi** menda.* 2. *Darvoza tepasiga shoxning **ikkitasi** qo'yilgandi.*

Qaratqich kelishigidagi sonda kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosi «sonni qaratqich aniqlovchi vazifasida keyingi so'zga bog'lash» tarzida xususiylashadi: *Sigirning ikkitasining suti ko'p.*

Tushum kelishigidagi son gapda ish-harakatni qabul qilgan predmetga obyekt tusini beradi va tushum kelishigi affiksini qabul qilgan son vositasiz to'ldiruvchi vazifasida keladi. «Songa obyekt tusini berish va uni fe'lga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» tushum kelishigi umumiy grammatik ma'nosining son turkumidagi xususiylashuvidir: *Gulning uchtasini ajratdi.*

Chiqish kelishigi kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosini umuman «oldingi so'zni keyingi fe'lga o'rin-payt holi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» tarzida, son turkumida esa «oldingi sonni keyingi fe'lga o'rin-payt holi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» ko'rinishida xususiylashtiradi.

Chiqish kelishigidagi sonning vazifasi:

a) vositali to'ldiruvchi: *Qarzni odamning ikkinchisidan so'rang.*

b) o'rin holi: *Eshigi ochiq narigi xonaning birinchisidan pianino ovozi eshitilmoqda edi.*

Jo'nalish kelishigidagi son ish-harakat yo'nalgan predmetni belgisi bilan anglatadi: *birinchisiga, uchoviga.*

Jo'nalish kelishigidagi son gapda to'ldiruvchi, hol kabi bo'lak vazifasida keladi: 1. *Qo'ziining **uchoviga** havaslanib boqdi.* 2. *Bola mashinaning **birinchisiga** yugurdi.*

Ko'rinadiki, jo'nalish kelishigi son turkumida kelishik kategorityasi umumiy grammatik ma'nosini «oldingi sonni keyingi fe'lga vositali to'ldiruvchi va hol vazifasida bog'lash» tarzida xususiylashtiradi.

O'rin-payt kelishigi son turkumida kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosini «oldingi sonni keyingi so'zga vositali to'ldiruvchi va hol vazifasida bog'lash» tarzida xususiylashtirib, ish-harakatning bajarilish o'rni,

vaqti, sharoiti, holati, sababi, maqsadi kabi tajalli ma'noni ifodalaydi: *Bizning beshovimizda chora yo'q.*

Kelishik shakli paradigmatikasi. Kelishik tobe so'zning hokim so'zga sintaktik munosabatni ko'rsatuvchi kategoriya ekan, uning ba'zan kesim tarkibida kelib, keyin keluvchi hokim so'zdan xoli bo'lishida sintaktik emas, balki semantik vazifa bajarishi kuzatiladi *(Bu sovg'a sizga, Umidim sendan, Hurmat kichikdan)* va u kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosidan tashqariga chiqadi.

Kelishik sintaktik jihatdan paradigmatik munosabatda bo'lak ekan, bunda ikki pozitsiyani farqlash lozim: 1) hokim-tobelik pozitsiyasi asosidagi ziddiyat; 2) gap bo'lagi vazifasi asosidagi ziddiyat.

"Tobelik" pozitsiyasiga egalik" belgisi asosida kelishik noto'liq ziddiyatda bo'ladi. Bunga ko'ra, bosh, qaratqich, tushum kelishigi ziddiyatning belgili, jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishigi belgisiz a'zo maqomida nmaoyon bo'ladi. Chunki bosh, qaratqich, tushum kelishigi har doim tobe so'z tarkibida keladi. Boshqa kelishik ba'zan hokim so'z (kesim) tarkibida ham kela oladi *(Bu sovg'a sizga, Umidim sendan, Hurmat kichikdan)*.

Gap bo'lagi vazifasi asosida kelishik ko'p qatorli ziddiyatni hosil qiladi. Masalan, "ega vazifasida kela olmaslik" belgisiga ko'ra bosh kelishik kuchsiz, boshqa kelishik kuchli a'zo sifatida namoyon bo'ladi.

"Vositasiz to'ldiruvchi bo'la olish" belgisiga ko'ra, bosh, tushum, chiqish kelishigi noto'liq xiddiyatda bo'ladi. Bunda vositasiz to'ldiruvchi ham bo'la oladigan bosh, chiqish kelishigi belgisiz, tushum kelishigi vfaqat shu vazifaga xoslanganligi uchun belgili a'zo sifatida yuzaga chiqadi. O'rin-payt kelishigi, jo'nalish kelishigi va qaratqich kelishigi bu oppozitiv qatorda ishtirok etmaydi, chunki u bu vazifaga mutlaqo xoslanmagan. "Vositali to'ldiruvchi bo'la olish" belgisi asosidagi noto'liq ziddiyatda tushum kelishigi va qaratqich kelishigi kuchli, boshqa kelishik kuchsiz a'zo sifatida ishtirok etadi.

"Qaratuvchi aniqlovchi bo'la olish" belgisi asosidagi noto'liq ziddiyatda qaratqich kelishigi kuchli, bosh, o'rin-payt kelishigi kuchsiz a'zo sifatida ishtirok etib, bu sirada boshqa kelishik ishtirok etmaydi. Bu ziddiyatda o'rin-payt kelishigining ishtirok etishi nisbiy. U ba'zan qaratqich kelishigi shakli bilan ma'noshlik munosabatida bo'ladi va shu belgisi asosida mazkur ziddiyatga daxldor bo'ladi.

"Hol bo'la olmaslik" belgisiga ko'ra qaratqich va tushum kelishigi kuchli, boshqa a'zo kuchsiz a'zo sifatida ishtirok etadi.

"Kesim bo'la olmaslik" belgisiga bosh, qaratqich va tushum kelishigi ijobiy va boshqa kelishik salbiy munosabatda bo'ladi.

"Birgina gap bo'lagiga xoslik" belgisi ostidagi ziddiyatda tushum va qaratqich kelishigi belgili, boshqa kelishik belgisiz munosabatda bo'ladi.

Muayyan grammatik ma'no guruhiga tobelana olishi jihatdan tushum kelishigi boshqa kelishikdan ajralib turadi, ya'ni u faqat o'timli fe'lgagina tobelanadi. Boshqa kelishik biror turkumni aniq talab qilmaydi. Shuningdek, qaratqich kelishigigina muayyan grammatik shakldagi (egalik shaklidagi) so'zni talab qiladi, boshqa kelishik bunda xususiyatga ega emas.

Semantik belgi ham ziddiyat asosi bo'la olishi mumkin. Masalan, "aniqlik" belgisiga egalik" ziddiyat asosiga ko'ra bosh kelishik kuchsiz (chunki u aniqlikni ham, noaniqlikni ham ifodalay oladi) boshqa kelishik aniqlikni ko'rsatadi.

"O'rinni ifodalash" belgisiga ko'ra qaratqich kelishigi kuchli, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi kuchsiz a'zo sifatida naomyon bo'ladi.

Bunday semantik oppozitsiyani ko'plab ajratish mumkin. Biroq, baribir, kelishikning mustahkam va barqaror ziddiyat asosi sifatida sintaktik belgi qolaveradi. Bu mutlaq belgi "soyasi"da semantik belgi ham yashaydi. Kelishik kategoriyasi sintaktik jihatdan tobelikni ifodalash va semantik jihatdan predmetlik-hodisaviylik va lokallikni ifodalash uchun xoslangan.

11-§. Kesimlik kategoriyasi

Ona tili ta'lim mazmuni tizimiga o'tgan asrning 90-yillarida kirib kelgan grammatik shakllarning yangi tasnifi umumiy o'rta ta'lim darsligidan tortib oliy ta'lim dastur hamda qo'llanmasigacha ommalashdi va bugungi kunda nosintaktik, leksik-morfologik yoxud so'z turkumiga xoslangan sifatida biz yuqorida tahlil qilgan son, subyektiv baho, sifat darajasi, zamon, mayl kategoriyasi tushunilsa, sintaktik (aloqa-munosabat shakli) kategoriya doirasida kelishik, egalik, nisbat, funksional (o'zgalovchi), shaxs-son kategoriyasi anglashiladi. Darhaqiqat, sintaktik kategoriya so'z birikmasi va gap qurilishiga aloqador kategoriya, so'zni bog'lash va gap bo'lagini shakllantirishga xizmat qiladi.

Sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar orasida kesimlik alohida mavqega ega.

Kesimlik kategoriyasi tadqiqi tarixidan. Gap bo'lagini shakllantiruvchi maxsus kategoriya kesimlik kategoriyasi bo'lib, u gap kesimini shakllantiradi. Darhaqiqat, turkiy tilshunoslikda kesimlik kategoriyasini alohida grammatik kategoriya sifatida N.K.Dmitriyev ajratdi. U «Kesimlik qo'shimchasi tarixiga oid» nomli maqolasida «Qo'shimchadan iborat morfologik kategoriya mavjud, ammo kesimlik kategoriyasi to'liq sintaktik funksiya bajaradi. Turkiy tilning

xususiyati shunda»[1]. Mazkur kategoriyani maxsus morfologik kategoriya sifatida formal-funksional tezis mualliflari ham ishlatgan[2]. Kesimlik kategoriyasining o'zbek tili grammatik kategoriyalari tarkibidagi o'rni masalasi tadqiqotchilar Sh.Shahobiddinova, L.Raupova, N.Musulmanova tomonidan ham maxsus o'rganildi[3] va B.Mengliyev, M.Qurbonova, M.Abuzalova, N.Yo'ldosheva, B.Yorov ishlarida u haqda ma'lum bir fikrlar bildirildi. Barcha ishlarda kesimlik kategoriyasi va uning ko'rsatkichlari ma'nolarining murakkabligi e'tirof etiladi. Shaxs, son, zamon, mayl-modallik, tasdiq-inkor ma'nolari majmuyi kategoriya mohiyatining semantik tomonini; kesimni shakllantirish va uni ega bilan bog'lash vazifasi sintaktik tomonni tashkil etishi, shu bilan birga, kesimlik predikativlikdan farqlanishi ta'kidlanadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, predikativlik kategoriyasi bilan kesimlik kategoriyasini aralashtirmaslik kerak va uni mutlaqo tenglashtirib ham bo'lmaydi. Predikativlik mantiqiy kategoriya bo'lib, harakat va uning bajaruvchisi, belgi va uning sohibi kabi voqelikdagi munosabatning inson ongida aks ettirilishi. Kesimlik kategoriyasi esa sof lingvistik kategoriya bo'lib, gap markazi – kesimni shakllantiradi. Mazmun jihatdan tasdiq/inkor (N), mayl (M), zamon (T), shaxs/son (R) ma'no va shaklining yaxlitligidan iborat (NMTP) bu grammatik kategoriya va uning mantiqiy predikatsiyadan tub farqi tilshunoslikda chuqur tahlil qilinganligi sababli, quyida uning xulosasini keltirish bilan kifoyalaniladi[4]:

1. Hukmning tilda ifodalanish shakli gap.

2. Hukm hamisha ikki asosiy (subyekt, predikat) va bir bog'lama qismdan iborat bo'ladi. Gap esa ega-kesimdan tashqari boshqa bo'lakni ham o'z ichiga oladi.

3. Gapning gap bo'lagiga ajralishi bilan shu gap zamirida yashiringan hukmning tushunchaga va S, P ga bo'linishi ko'pgina holatda bir-biriga mos kelmaydi (S – subyekt, R - predikat).

4. Gap bir tarkibli ham, ikki tarkibli ham bo'lishi mumkin. Deylik, shaxssiz gapda ega mutlaqo yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Hukm esa hamisha ikki tarkibli.

---

[1] Дмитриев Н.К. К истории аффиксов сказуемости // Исследование по сравнительной грамматике тюркских языков. Морфология. –М., 1956. с. 5–15.

[2] Нигматов Х.Г., Абдуллаев К.М., Банару В.И., Махмудов Н.М., Мухаммедова Д.А., Нурмонов А. Структура предложения и актуальные вопросы синтаксиса тюркских языков (Тезисы формально-функционального исследования)// Сов.тюркология. 1984. -№ 5. – с. 3–10.

[3] Шахобиддинова Ш.Х. Ўзбек тили морфологияси умумийлик-хусусийлик диалектикаси талқинида. 2-жузв. – Андижон, 1994. – 34 б; Раупова Л.Р. Ўзбек тилида номустақил кесим масаласи ва [WPm → WPm] қурилишли гаплар: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1999; Мусулманова Н.Р. Грамматик шаклларда категориал, ёндош ва ҳамроҳ маъно. – Тошкент, Фан, 2012.

[4] Nematov H., Shirinova N. Tilshunoslikning falsafiy masalalari. (5 A 220102 –Tilshunoslik mutaxassisligi uchun qo'llanma). –Buxoro, 2005. 60–61- b.; Бобокалонов Р. Ўзбек тилида гап синтаксиси ва сўз-гапларнинг систем – структур талқини. –Т.: Фан, 2006.

5. Predikativlik kesimlikdan ko'ra keng tushuncha.

Kesim gap bo'lagi sifatida dunyodagi barcha tilning sintaktik sistemasida alohida o'rin tutadi. Uning mavqeyi turkiy tillarda, ayniqsa, muhim.

Turkiyshunoslikda ham, o'zbek tilshunosligida ham kesimlik kategoriyasini maxsus morfologik kategoriya sifatida ko'rsatish urf bo'lmoqda. Zero, u aloqa-munosabat shakli sirasida to'liq sintaktik funksiya bajarishi bilan ajralib turadi. Turkiy tillarning asosiy xususiyati shunda. Chunki aloqa-munosabat kategoriyasi sirasidagi kelishik va egalik so'zni bog'lashga xizmat qilsa, ko'p holda gap bo'lagini belgilamasa, kesimlik shakli so'zga alohida sintaktik vazifa beradi. Boshqacha aytganda, «gap bo'lagini shakllantirish» belgisi ostidagi ziddiyatda kesimlik kategoriyasi bu belgiga to'liq egaligi bilan ajralib turadi. Egalik kategoriyasi esa gap bo'lagini belgilamaydi, balki faqat so'zning sintaktik munosabatini ko'rsatadi. Kelishik kategoriyasi bu belgiga majhul munosabatda. Chunki, masalan, o'rin-payt kelishigidagi so'z hol vazifasida ham, boshqa vazifada ham bo'lishi mumkin. Qiyoslang: Akam ***shaharda*** yashaydi (***shaharda*** – hol). ***Shaharda*** *yashaydigan akam keldi* (***shaharda*** – aniqlovchining tarkibiy qismi, hol emas). Bosh kelishikdagi so'z ega vazifasida ham (***Akam*** *keldi*), egadan boshqa vazifada ham (***Akam*** *o'qigan kitob*) kela oladi. Shuningdek, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi ham muayyan gap bo'lagini shakllantirmaydi.

Kesimlik kategoriyasining ma'nosi murakkab bo'lib, u quyidagidir:

a) tasdiq/inkor ma'nosi;

b) mayl-munosabat ma'nosi;

v) zamon ma'nosi;

g) shaxs ma'nosi;

d) son ma'nosi;

e) kesimni shakllantirish va uni gapning egasi va hol bilan bog'lash. Demak, kesimlik kategoriyasida beshta ma'noviy xususiyat va bir sintaktik vazifa mujassam. Ko'rinadiki, «tasdiq/inkor, mayl-munosabat, zamon, shaxs, son, ma'nosini ifodalab, kesimni shakllantirish va uning gap kengaytiruvchisi (ega, hol) ga sintaktik munosabatini ko'rsatish» kesimlik kategoriyasining umumiy ma'nosini tashkil qiladi.

Kesimlik kategoriyasi shakli uchun shaxs, son, zamon, mayl-munosabat, tasdiq/inkor ma'nosini yaxlit ifodalash xos bo'lib, bu ma'no bir qo'shimcha bilan ham, bir necha qo'shimcha bilan ham ifodalanishi mumkin. Masalan, *kitobni o'qi* gapida *o'qi* so'zshakli ikkinchi shaxs, birlik, hozirgi-kelasi zamon, tasdiq ma'nosi voqealangan bo'lib, bitta nol shakl bilan yuzaga chiqqan. *Otam – ishchi* gapida ham shunday hol kuzatiladi. *Kitobni o'qimadingiz* gapida shaxs

ma'nosi *-ing*, son ma'nosi *-iz*, inkor ma'nosi *-ma*, zamon ma'nosi *-di* shakli bilan alohida-alohida ravishda ifodalangan. Boshqa so'z turkumi bilan fe'l orasida tuslanishda, kesimlik bilan shakllanishda jiddiy farq borligini aytib o'tgan edik. Bu fe'lning kesimlik vazifasini bajarish imkoniyatining kengligi, kesim vazifasiga ko'proq xoslanganligi tufayli unda mazkur ma'noni ifodalovchi vositaning keng rivojlanganligi bilan belgilanadi.

Aytilganidek, kesimlik murakkab kategoriya bo'lib, uning tarkibiy qismi tasdiq-inkor, mayl, zamon, shaxs-kategoriyasi. Bu kategoriya kesimlik kategoriyasining alohida shakli emasmi, uning har birini kategoriya sifatida baholashga asos bormi degan savol tug'ilishi tabiiy. Chunki bunga o'xshash hol o'zgalovchi kategoriya misolida kuzatilgan edi. Ma'lumki, kategoriya shakli bir zotiy ma'noni xususiylashtirishi kerak edi. Kesimlik kategoriyasining zotiy ma'noviy mohiyati murakkab bo'lib, undagi tasdiq-inkor, mayl, zamon, shaxs-son ma'nosi nisbiy alohidalikka ega. Shuningdek, bu kategoriyaning ichki shakli boshqa kategoriya ma'nosi asosida emas, balki o'zi tegishli kategoriya ma'nosini xususiylashtiradi. Masalan, zamon kategoriyasi shakli zamon ma'nosini xususiylashtiradi (o'tgan, hozirgi, kelasi). Shaxs-son kategoriyasi (birinchi, ikkinchi, uchinchi shaxs birlik va ko'plik) shakli shaxs-son ma'nosinigina xususiylashtiradi. Bunda «begona» kategoriya tajallisini kuzatmaymiz. Demak, kesimlik kategoriyasi ichki kategorial sistemadan iborat yaxlitlik. Yaxlitlikning mohiyati shundaki, bu ichki kategoriyaning birortasi ikkinchisisiz yashay olmaydi.

Kesimlik kategoriyasi tarkibi murakkabligi sababli har bir ichki kategoriyaga xos grammatik shaklning umumiy grammatik ma'nosi oraliq ko'rinishlarini farqlash va voqealantirishda lisoniy omillarning roli turlicha bo'ladi. Masalan, shaxs-son ichki kategoriyasi kesimning ega bilan munosabatini muayyanlashtirar va ta'minlar ekan, uning muayyan ma'nolarini voqealantirishda gapning egasi ahamiyatli. Biroq zamon ichki kategoriyasi kesimdan anglashilgan axborotning paytini ifodalaganligi sababli uning ma'noviy xususiyatlarini muayyanlashtiruvchi sifatida hol vazifasida kelgan payt ma'noli so'zshakllar muhim rol o'ynaydi.

Kesimlik shakli. Kesimlik kategoriyasi murakkab ekan, uning tarkibiy qismining yuzaga chiqishida uch holat farqlanadi:

a) kesimlik ma'nosining yig'iq ifodalanishi: *Yoz. Boray. O'qigin. O'qituvchiman. Shifokorsiz;*

b) kesimlik ma'nosining yoyiq ifodalanishi: *Yozmasaydingiz. O'qituvchidirman;*

v) kesimlik ma'nosining tafsiliy ifodalanishi: *O'qisa bo'ladi. Ishchi edim. Yog'sa kerak.*

Quyida bu ichki kategoriyaning har birini alohida-alohida ko'rib o'tamiz.

*1. **Tasdiq-inkor kategoriyasi*** (qisq. TIK) kesimdan anglashilgan fikrning tasdiq yoki inkorini ifodalaydi. TIKning umumiy ma'nosi «tasdiq, inkor ma'nosini ifodalash bilan gap kesimni shakllantirishda ishtirok etish, uning hol valentligiga ta'sir qilish». Tasdiq-inkor ichki kategoriyasi kesimdan anglashilgan axborotning inkor yoki tasdig'ini ifodalaganligi uchun tasdiq yoki inkor mazmunidagi hollar ahamiyatli bo'ladi.

Tasdiq-inkor ma'nosini ifodalashda nol shakl (tasdiq), *-ma* bo'lishsizlik shakli, *emas, na* yordamchi, *yo'q* mustaqil so'zi (inkor) ishtirok etadi. Misol: *Majlis yarim kechagacha **cho'zildi**.* (O.Mux.) *Uzoqdan Navoiyning qorasi ko'ringunga qadar u amirning kelishiga **ishonmagan edi.*** (Oyb.) *Na xotin, **na** farzand **ko'rmagan**, kimsasiz bechora bir yigit.* (Uyg'.) *Mening **farzandim yo'q, gulbog'im yo'q**.* (S.Nur.)

Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasini TIKdan farqlash lozim. Bo'lishli-bo'lishsizlik fe'lga xos va uning nokesimlik shakli. Bunda bo'lishsizlik shakli bo'lgan *-ma* ko'rsatkichining o'rnini aniq bilish lozim. Bu shakl boshqa (masalan, *-gan* shakli sifatdosh shakli sifatida boshqa paradigmadan, kesimni shakllantirishi bilan boshqa paradigmadan joy olganligi kabi) grammatik shakldek ko'p vazifali (polifunksional). U gap kesimi tarkibida kesimlik kategoriyasining umumiy grammatik ma'nosidagi «gap kesimini shakllantirish» ma'nosini xususiylashtirganligi bilan bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasidagidan boshqa bir qirrasini namoyon qiladi. Bu serqirra mohiyatli, ko'p funksiyali lisoniy birlik kabi *—ma* shakli ham birdan ortiq paradigmadan o'rin olishini ko'rsatadi.

*2. **Mayl kategoriyasi.*** Mayl kategoriyasi (qisq. MK) «kesimdan anglashilgan voqelikning borliqqa munosabatini ifodalash va gap kesimini shakllantirishda ishtirok etish» umumiy grammatik ma'nosiga ega. Mayl kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosida mayl kategorial ma'nosiga har doim zamon kategoriyasi ma'nosi yondosh ma'no sifatida yashaydi.

MK ifodalayotgan munosabat turli xarakterda bo'lishi mumkin. Shuning uchun uning quyidagi turi ajratiladi:

a) *xabar mayli*;
b) *shart mayli*;
v) *buyruq-istak mayli;*
g) *maqsad mayli.*

Xabar mayli harakat/holat yoki hodisani uning bajarilish vaqti bilan ifodalaydi. Bu maylda bajarilish haqida xabar mavjud. Shuning uchun bu mayldagi fe'l, albatta, biror zamon shaklida bo'ladi: *keldi, kelyapti, keladi.*

Xabar mayli biror ko'rsatkichga ega emas. U fe'lning zamon ko'rsatkichi orqali yuzaga chiqadi. Xabar mayli va zamon ma'nosi yig'iq ifodalanishga ega.

Shart mayli *-sa, -sa edi, -ganda edi, -gan ekan* shakli orqali hosil qilinadi: *borsam, borsang, borsa, borsangiz, borsalaringiz, borsangizlar, borsalar; borganda edi* va h. Misol: *Mana bu kanal **bitsa**, yangi yer **ochilsa**, paxta ham ko'payadi.* (A.Q.) *Ertoev bir nimani **sezmasa**, bunchalik talvasaga tushmas edi.* (O.Yoqub.) *Bizning bunday ulug' kunga erishganimizni otamiz ham **ko'rganda**, qanday quvonar edi.* (Iboxon.) *Men ham doim qishloqda **turganimda**, mashinani o'rganib olardim.* (H.Naz.) ***Tuzalsa edi**, odamlardek **yura olsa**, boshiga ko'tarardi.* (S.Ahm.) *Qaerdaki ma'naviy-ma'rifiy ishlar yaxshi **yo'lga qo'yilgan ekan**, u yerda muvaffaqiyat qo'lga kiritiladi.* («O'zb.ov.») *Biz ishlab chiqqan mebellar uylaringizni qanchalik yaxshi **bezatar ekan**, biz shunchalik xursand bo'lamiz.* («Qarshi univers.») *Istiqlol mendan fermer bo'lishni **talab qilgan ekan**, men bu vazifani a'lo darajada uddalashga va'da beraman.* («Qashq.»)

-sa shaklining «shart» ma'nosidan tashqari ifodalaydigan yana qator ma'nosi («payt», «istak», «iltimos», «sabab», «to'siqsizlik» kabi) bo'lib, bu shart mayli doirasida qaralmaydi.

Buyruq-istak mayli shaklining asosiy xususiyati so'zlovchining istagi bilan bog'liq holdagi harakatga undash, shu harakatga da'vat etishni, qo'zg'atishni ifodalash. U *-ay,- gin,- sin,- aylik,- ing* shakli orqali yuzaga chiqadi: *boray, borgin, borsin, boraylik, boring(izlar).* Ifodalovchi birlik va ko'plikda, shaxs va sonda farqlanadi.

Buyruq-istak maylida a) sof buyruq, da'vat, iltimos; b) istak ma'nosi qorishadi.

Birinchi ma'no ikkinchi (*yo'qoling, yondiring, kuldirmagin*) va uchinchi shaxsga (*borsin, borsinlar*), ikkinchi ma'no esa so'zlovchining o'ziga qarata (*boray, aytay*) ifodalanadi.

Buyruq-istak mayli ifodalovchisi bundan boshqa ma'noni («to'siqsizlik», ma'no kuchaytirish va h.) ifodalashi ham mumkin. Ammo mayl umumiy grammatik ma'nosi tajallisi bo'lmaganda u mayl ma'nosi doirasida o'rganilmaydi.

Maqsad mayli subyektning kesimdan anglashilgan harakatni bajarish maqsadini, niyatini, mo'ljalini bildiradi: *bormoqchiman, bormoqchisan, bormoqchi; bormoqchimiz, bormoqchisiz, bormoqchilar.*

Maqsad mayli ma'nosi *-moqchi, -moqchi edi* ko'rsatkichi yordamida ifodalanadi. *U hozir hammaning kallasini g'ovlatgan shum xabarni yo hech o'ylamayapti, yoki bu gapning menga sira daxli yo'q, deb* ***ko'rsatmoqchi.*** (A.Mux.) *Domlaning yer olgani rost, buni Saidiyga* ***bildirmoqchi emas edi.*** (A.Qah.)

1. ***Zamon kategoriyasi.*** «Payt valentligiga ta'sir etish orqali kesimni shakllantirishda ishtirok etish va undan anglashilgan voqelikning nutq momentiga munosabatini ifodalash» zamon kategoriyasi (qisq. ZK) ning umumiy grammatik ma'nosi. Fe'lda bu umumiy grammatik ma'nodagi *voqelik* uzviy harakat *tarzi* ko'rinishida xususiylashadi.

Voqelikning nutq momentiga munosabatiga qarab uch xil zamon farqlanadi: a) nutq momentigacha bo'lgan voqelik – *o'tgan zamon*; b) nutq momentidagi voqelik – *hozirgi zamon*; v) nutq momentidan keyin bo'ladigan voqelik – *kelasi zamon*. Shu boisdan zamon umumiy grammatik ma'nosining uchta xususiy ko'rinishi farqlanadi:

1) *o'tgan zamon*;

2) *hozirgi zamon*;

3) *kelasi zamon*.

Uni ifodalovchi shakl ham shunga muvofiq uch guruhga ajratiladi.

O'tgan zamon. Hozirgi o'zbek adabiy tilida o'tgan zamon fe'li bir necha xil shakl yordamida ifodalanadi:

-di (o'qidim, o'qiding, o'qidi);

-gan (o'qiganman, o'qigansan, o'qigan);

-(i)b- (o'qibman, o'qibsan, o'qibdi);

-edi/ekan/emish (yozgan edim, ishlayotgan edi, ishlagan eding, ishlar edilar, ishlamoqchi edim);

Mazkur shaklni qabul qilgan fe'l turli xil ma'noni ifodalaydi. Masalan:

a) *-di:* «so'zlovchi ko'rgan, bilgan harakatning nutq momentigacha bajarilganini aniq, qat'iy tarzda ifodalash»: *Barno yo'q ekan, bir oz* ***kutdi,*** *kelavermagach, o'tirishga sabri chidamay, idoradan* ***chiqdi.*** (O. Yoq.);

b) *-gan*: «so'zlovchi va tinglovchi o'zaro suhbatlashib turgan paytda bo'lmagan harakatni ifodalash»: *Kapalagini* ***uchirib yuborgan.*** (H.Naz.); «harakatning bajarilganligi va uning hozir ham mavjudligi»: *O'rinda ham gaplashaveramiz, sen juda* ***charchagansan.*** (I.Rah.);

v) *-(i)b-*: «harakatni bevosita kuzatmaganlik, undan keyin xabardor bo'lganlik»: *O'zim ko'rdim, tosh chap yelkasiga* ***tushibdi***; «to'siqsizlik»: *Ustidan oshirib o'q* ***otibman-u,*** *kiprik qoqmaydi-ya!* (A.Qah.)

g) *edi*: «harakat holatning hozir emas, balki o'tgan, avvalgi vaqtga oidligi»: *Suv endi yerga singmay,* ***muzlab qolgan edi.*** (A.Qah.)

Bunday ma'no qatorini yana ancha davom ettirish mumkin. Biroq keltirilgan qo'shtirnoq ichidagi ma'noga diqqat bilan e'tibor qilinsa, undagi umumiylik «haraktning o'tgan zamonga oidligi» bo'lib, qolgan farqning birortasi zamon umumiy ma'nosiga daxldor emas. Masalan, «to'siqsizlik», «bevosita kuzatmaganlik», «o'zaro suhbatlashib turgan paytda bo'lmaganlik» kabining zamon ma'nosiga mutlaqo tegishli joyi yo'q. Demak, uni zamon doirasida tahlil etish ortiqcha. Shu boisdan ***o'tgan zamon hikoya fe'li, o'tgan zamon davom fe'li*** atamasidagi *hikoya, davom* unsurini zamonga daxlsiz hodisaning ZKni murakkablashtiruvchi holat sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Zamon ma'nosiga boshqa ma'noning qorishuvini ham grammatik illyuziyaning bir ko'rinishi sifatida baholash mumkin.

O'tgan zamon shakli kesimning payt valentiligini hol vazifasidagi o'tgan zamon ma'noli so'zshakl bilan to'ldiradi: ***kecha keldi, o'tgan yili o'qigan, bultur bajargan edim*** kabi.

Hozirgi zamon. Zamonning bu turi ZK UGMsini «haraktning nutq momentida yuz berayotganligini ifodalash» tarzida xususiylashtiradi. Ma'nodagi «davomiylik», «tugamaganlik» unsuri undagi boshqa kategoriya tajallisi bo'lib, zamonning zotiy ma'nosiga daxli yo'q. «Davomiylik», «tugallanmaganlik» umumiy ma'nosidagi kategorial ma'no bilan zich holatdagi yondosh ma'no.

Bu zamon ma'nosi:

-yap-;

-yotib-;

-yotir;

-moqda

affiksi bilan ifodalanadi.

Shakl orasidagi farq sof uslubiy asosda. Aniqrog'i, *-yap-* umumuslubiy va keng iste'molliligi, *-yotib-* va *-yotir* dialektal va poetik xususiyati bilan, *-moqda* shakli kitobiy uslubga xosligi bilan farqlanadi. Unda zamonni ifodalashda farq sezilmaydi. Qiyoslang: *o'qiyapman, o'qiyotirman, o'qiyotibman, o'qimoqdaman.*

Yot, tur, yur, o'tir birligi ko'makchi fe'l vazifasida kelib, hozirgi zamon shaklining analitik ko'rinishini hosil qiladi: *Hali dushmanimiz tinchigani yo'q, hushyorlikni qo'ldan berding, kallangga solaman deb* ***poylab turibdi.*** («Qashq.») *Hali kelishgani yo'q, o'zim ham xavotir* ***olib o'tiribman.*** (A.Qah.).

*Quyoshki falakda **kezib yuribdi**, umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy.*(G'.G'ul.) *Bo'liq yer «tayyorman» degandek **ko'pchib yotibdi**.* («Qashq.»)

Hozirgi zamon shakli kesimning payt valentligini hozirgi zamon ma'noli so'zshakl bilan to'ldiradi: *bugun, hozir* kabi. Bu so'zshakl gapda hol bo'lib keladi.

Kelasi zamon. Mavjud darsliklarda grammatik illyuziya natijasida kelasi zamonning ikki ko'rinishi farqlanadi: a) *kelasi zamon aniqlik shakli*; b) *kelasi zamon gumon shakli*. Yuqorida aytilgani kabi, ma'no turidagi «aniqliq» va «gumon» unsurining zamon zotiy mohiyatiga tegishli joyi yo'q. Bu ham boshqa kategoriya zotiy mohiyatining kelasi zamon umumiy grammatik ma'nosidagi tajallisi.

Kelasi zamon zamon kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosini «nutq momentidan keyin yuz beruvchi harakatni ifodalash» tarzida xususiylashtiradi. Bu zamon a) *-a, -y; (O'zbek qizi sevigisini **aytmaydi**, bir umr pinhon **tutadi**.* (Sayyor) *Bolang uch-to'rt **qiynaladi**, keyin **o'rganib ketadi**.* (A.Qah.); b) *-(a)r mas (Balki zavod qurish uchun ovora bo'lishga **to'g'ri kelmas**.* (Oyb.) *Shu atrofda yurgandir, **kelib qolar**.* (S.An.)) affiksi orqali ifodalanadi. (Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, darslikda zamon shakli sanalganda, undan keyin albatta shaxs-son shakli kelishi ta'kidlanadi. Biz bu o'rinda ZK kesimlikning dialektik bog'langan bir tarkibiy qismi bo'lganligi uchun hadeb zamon shaklidan keyin shaxs-son shakli bo'lishini ta'kidlab o'tirishni ortiqcha deb bildik. Chunki ular ajralmas.)

Kelasi zamon fe'lining *ekan, emish* to'liqsiz fe'li bilan yasalgan eshitilganlik, keyin bilganlik ma'nosini ifodalovchi shakli gumon ma'nosini ifodalamasligi ta'kidlanadi: *ishlar ekan, kelar ekan; ishlar emish, kelar emish* kabi. Bunda to'liqsiz fe'lda zamon ma'nosi yo'q. Zamon shaklning *-ar* qismi orqali ifodalanadi.

Umuman olganda, to'liqsiz fe'l fe'ldan boshqa so'z kesim vazifasida kelganda unga zamon va modal ma'noni birgalikda beradi. Fe'lni shakllantirganda esa sintetik-analitik shaklning affiks qismi zamon ifodalab, to'liqsiz fe'l zimmasiga modal munosabat ifodalashgina yuklatiladi. Qiyoslang: *ishchi ekan – ishchi bo'lgan ekan, o'qigan emish*. Keyingi ikki misolda *–gan* shakli zamon, to'liqsiz fe'l modal munosabat ifodalagan.

Kelasi zamon shakli kesimning payt valentligini kelasi zamon ma'noli hol vazifasidagi so'zshakl bilan to'ldiradi: *ertaga, kelasi yil, kelajakda* kabi.

Affiks ko'chma ma'noda ishlatilishi ham mumkin. *Hozir qorong'ida qayoqqa **bordigu**, **nimayam qildik*** (kelasi zamon). (P.Tur.) *Shundan so'ng, **bilmadim**, qancha vaqt shirin xayol osmonida qanot qoqib yurdim* (hozirgi

zamon). (Sayyor.) *Kecha dalada chunonam **chekanka qilyaptiki**, bamisoli usta sartarosh g'o'zani tarashlayapti deysiz* (o'tgan zamon). (S.Ahm.) *Buni boshqa qismga **yuborayapmiz*** (kelasi zamon). (A.Ubay.)

Bunday ma'no ko'chishi nutqiy xarakterda.

Shaxs-son kategoriyasi. Shaxs-son kategoriyasi kesimlik kategoriyasi UGMsini «ega valentligini muayyanlashtirish orqali gap kesimini shakllantirishda ishtirok etish» tarzida xususiylashtiradi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida shaxs-son ko'rsatkichining quyidagi turi mavjud:

1. a) I. *borgan+**man*** *borgan+**miz*** *borib+**man*** *borib+**miz***
II. *borgan+**san*** *borgan+**siz*** *borgan+**san*** *borib+**siz***
III. *borgan+**0*** *borgan+**(lar)*** *borgan+di+**0*** *borgan+di **(lar)***

b) I. *boryap+**man*** *boryap+**miz*** *bora+**man*** *bora+**miz***
II. *boryap+**san*** *boryap+**siz*** *bora+**san*** *bora+**siz***
III. *boryapti+**0*** *boryapti+**lar*** *boradi+**0*** *boradi+**(lar)***

v) I. *bormoqchi+**man*** *bormoqchi+**miz***
II. *bormoqchi+**san*** *bormoqchi+**siz***
III. *bormoqchi+**0*** *bormoqchi+**(lar)***

2. a) I. *bordi+**m*** *bordi+**k*** *borgan edi+**m*** *borgan edi+**k***
II. *bordi+**ng*** *bordi+**ngiz*** *borgan edi+**ng*** *borgan edi+**ngiz***
III. *bordi+**0*** *bordi+**(lar)*** *borgan edi+**0*** *borgan edi+**(lar)***
b) I. *borsa+**m*** *borsa+**k***
II. *borsa+**ng*** *borsa+**ngiz***
III. *borsa+**0*** *borsa+**(lar)***

3. a) I. *borgan+**im yo'q*** *borgan+**imiz yo'q***
II. *borgan+**ing yo'q*** *borgan+**ingiz yo'q***
III. *borgan+**i yo'q*** *borgan+**(lar)i yo'q***
b) I. *borayotgan+**im yo'q*** *borayotgan+**imiz yo'q***
II. *borayotgan+**ing yo'q*** *borayotgan+**ingiz yo'q***
III. *borayotgan+**i yo'q*** *borayotgan+**(lar)i yo'q***

4. I. *bor+**ay*** *bor+**aylik***
II. *bor+**0*** *bor+**gin*** *bor+**ing(giz)***
III. *bor+**sin*** *bor+**sin(lar)*** *bor+**ishsin***

Nutqda shaxs-son shaklining ko'chgan ma'noda qo'llanishi ham ko'p uchraydi. Buni quyidagicha tartiblash mumkin:

a) uchinchi shaxs shakli birinchi shaxs ma'nosida: *Kamina aytdi – Men aytdim.*

b) uchinchi shaxs ko'plik shakli ikkinchi shaxs birlik («sizlash») ma'nosida: *Nima istasa bor.*

v) ikkinchi shaxsning birlik shakli va birlik ma'nosida «sizlash» uchun qo'llanuvchi shakli umumshaxs ma'nosida qo'llanadi: *Qayta-qayta hidlaganingda yer mehriga to'yganday bo'lasan.* (Sayyor.)

g) gap ichida odam yoki kishi so'zi qo'llanganda uchinchi shaxs shakli ham umumshaxs ma'nosida qo'llana oladi: *Tashabbuskor yoshlarni ko'rib odam quvonadi.*(«Qashq.»)

Bunday qo'llanish sof nutqiy tabiatga ega.

Kesimlik kategoriyasi ot turkumida o'z mohiyatini cheklangan darajada namoyon qiladi. U bu turkumda ikki ko'rinishga ega bo'ladi: a) hozirgi zamon ko'rinishi; b) o'tgan va kelasi zamon ko'rinishi. Ko'p holda ot turkumida kesimlik kategoriyasi bog'lama vositasida yuzaga chiqadi.

Bog'lama kesimlik kategoriyasini ot va boshqa kesimlik vazifasiga unchalik moslashmagan so'zda yuzaga chiqaruvchi vosita. To'liqsiz fe'l, *bo'lmoq, hisoblanmoq, sanalmoq, deyilmoq* kabi mustaqil fe'l bog'lama vazifasini bajaradi.

Kesimlik kategoriyasining ot turkumidagi hozirgi zamon ko'rinishida quyidagi tusga ega bo'ladi:

*ishchi+**man***	*ishchi +**miz***
*ishchi+**san***	*ishchi +**siz***
*ishchi+**0***	*ishchi +**()***

-man, -san, -miz, -0, -lar kesimlikning barcha ma'nosini yig'iq holda bir affiksda ifodalaydi. Bo'lishsiz shakli analitik usulda yuzaga chiqadi: *ishchi emasman, ishchi emassan.* Egaga urg'u berilganda, kesimlikning barcha ma'nosi nol shakl orqali ifodalanadi: *Men ishchi* (0). *Men yahudiy* (0) kabi.

O'tgan zamonda kesimlik ma'nosi bog'lama vazifasida keluvchi to'liqsiz fe'l va bog'lamalashgan so'z bilan kesimlikning analitik ifodasini tashkil etadi.

*ishchi+**edim***	*ishchi +**edik***
*ishchi+**eding***	*ishchi +**edingiz***
*ishchi+**edi***	*ishchi +**edi(lar)***

Bunda ikki shakl (***edi*** va shaxs/son) kesimlikning to'rt tip ma'nosini ifodalaydi. To'liqsiz fe'l zamon, tasdiq, mayl ma'nosini yaxlit yuzaga chiqaradi.

Bo'l fe'li bog'lama vazifasida kelib uch zamonni ham ko'rsatishi mumkin: *ishchi bo'laman (bo'ldim).* Misol: *Men shu zavodda uch yil ishchi bo'ldim* (o'tgan zamon). *Men shu zavodning tajribali ishchisi bo'laman* (hozirgi zamon). *Sen shu zavodda ishchi bo'lasan* (kelasi zamon). *sanaladi, hisoblanadi* so'zi ham bog'lama vazifasini bajarib otga kesimlik kategoriyasini moslaydi .

Kesimlik kategoriyasi sifat turkumida ham o'z mohiyatini cheklangan darajada namoyon qilib, ikki ko'rinishga ega bo'ladi: a) hozirgi zamon ko'rinishi; b) o'tgan va kelasi zamon ko'rinishi. Ko'p holda sifat turkumida kesimlik kategoriyasi bog'lama vositasida yuzaga chiqadi.

Bog'lama kesimlik kategoriyasini sifat va boshqa kesimlik vazifasiga unchalik moslashmagan so'zda yuzaga chiqaruvchi vosita. To'liqsiz fe'l, *bo'l, hisoblanmoq, sanalmoq, deyilmoq* kabi mustaqil fe'l sifatda ham bog'lama vazifasini bajaradi.

Kesimlik kategoriyasining sifat turkumidagi hozirgi zamon ko'rinishida quyidagi tusga ega bo'ladi:

*Yoshi kattasi+**man***	*Yoshi kattasi +**miz***
*Yoshi kattasi+**san***	*Yoshi kattasi +**siz***
*Yoshi kattasi+**0***	*Yoshi kattasi +**(lar)***

-man, -san, -miz, -0, -lar kesimlikning barcha ma'nosini yig'iq holda bir affiksda ifodalaydi. Bo'lishsiz shakli analitik usulda yuzaga chiqadi: *Yoshi kattasi emasman, Yoshi kattasi emassan.* Egaga urg'u berilganda, kesimlikning barcha ma'nosi nol shakl orqali ifodalanadi: *Men Yoshi kattasi* (0) kabi.

O'tgan zamonda kesimlik ma'nosi bog'lama vazifasida keluvchi to'liqsiz fe'l va bog'lamalashgan so'z bilan kesimlikning analitik ifodasini tashkil etadi.

*Yoshi kattasi+**edim***	*Yoshi kattasi+**edik***
*Yoshi kattasi+**eding***	*Yoshi kattasi+**edingiz***
*Yoshi kattasi+**edi***	*Yoshi kattasi +**edi(lar)***

Bunda ikki shakl (***edi*** va shaxs/son) kesimlikning to'rt tip ma'nosini ifodalaydi. To'liqsiz fe'l zamon, tasdiq, mayl ma'nosini yaxlit yuzaga chiqaradi.

Bo'l fe'li bog'lama vazifasida kelib uch zamonni ham ko'rsatishi mumkin: *Yoshi kattasi+bo'laman (bo'ldim).* Misol: *Men shu zavodga ishga kirganlarning eng yoshi bo'ldim* (o'tgan zamon). *Men shu zavod ishchilarining tajribalisi bo'laman* (hozirgi zamon). *Sen shu zavod ishchilarning eng yoshi bo'lasan* (kelasi zamon). *sanaladi, hisoblanadi* so'zi ham bog'lama vazifasini bajarib, sifatga kesimlik kategoriyasini moslaydi.

Kesimlik kategoriyasi son turkumida ham o‘z mohiyatini cheklangan darajada namoyon qilib, ikki ko‘rinishga ega bo‘ladi: a) hozirgi zamon ko‘rinishi; b) o‘tgan va kelasi zamon ko‘rinishi. Ko‘p holda son turkumida kesimlik kategoriyasi bog‘lama vositasida yuzaga chiqadi.

Bog‘lama kesimlik kategoriyasini son va boshqa kesimlik vazifasiga unchalik moslashmagan so‘zda yuzaga chiqaruvchi vosita. To‘liqsiz fe’l, *bo‘l, hisoblanmoq, sanalmoq, deyilmoq* kabi mustaqil fe’l sonda ham bog‘lama vazifasini bajaradi.

Kesimlik kategoriyasining son turkumidagi hozirgi zamon ko‘rinishida quyidagi tusga ega bo‘ladi:

Birinchisi +***man*** *Birinchisi* +***miz***
Birinchisi +***san*** *Birinchisi*+***siz***
Birinchisi +***0*** *Birinchisi*+***(lar)***

-man, -san, -miz, -0, -lar kesimlikning barcha ma’nosini yig‘iq holda bir affiksda ifodalaydi. Bo‘lishsiz shakli analitik usulda yuzaga chiqadi: *Birinchisi emasman, Birinchisi emassan.* Egaga urg‘u berilganda, kesimlikning barcha ma’nosi nol shakl orqali ifodalanadi: *Men birinchisi*(0) kabi.

O‘tgan zamonda kesimlik ma’nosi bog‘lama vazifasida keluvchi to‘liqsiz fe’l va bog‘lamalashgan so‘z bilan kesimlikning analitik ifodasini tashkil etadi.

Birinchisi +***edim*** *Birinchisi* +***edik***
Birinchisi +***eding*** *Birinchisi* +***edingiz***
Birinchisi +***edi*** *Birinchisi* +***edi(lar)***

Bunda ikki shakl (***edi*** va shaxs/son) kesimlikning to‘rt tip ma’nosini ifodalaydi. To‘liqsiz fe’l zamon, tasdiq, mayl ma’nosini yaxlit yuzaga chiqaradi.

Bo‘l fe’li bog‘lama vazifasida kelib uch zamonni ham ko‘rsatishi mumkin: *Birinchisi Qbo‘laman (bo‘ldim).* Misol: *Men shu zavodga ishga kirganlarning eng birinchisi bo‘ldim* (o‘tgan zamon). *Men shu zavod ishchilarining birinchisi bo‘laman* (hozirgi zamon). *Sen shu zavod ishchilarning eng birinchisi bo‘lasan* (kelasi zamon). *sanaladi, hisoblanadi* so‘zi ham bog‘lama vazifasini bajarib, songa kesimlik kategoriyasini moslaydi.

Kesimlik shakli paradigmatikasi. Kesimlik kategoriyasi murakkab qurilishli kategoriya bo‘lib, unga nisbatan tashkil etuvchi (shaxs-son, zamon, mayl, tasdiq/inkor) kategoriya shakl vazifasini o‘taydi.

Kesimlik kategoriyasi paradigma sifatida 4 a’zodan iborat: shaxs-son, zamon, mayl, tasdiq/inkor. Har bir muayyan zamon, mayl, tasdiq-inkor, shaxs-son shakli kesimlik kategoriyasi paradigmasi a’zosi emas, balki mazkur kategoriya a’zosi. Masalan, *-yap-* zamon shakli kesimlik paradigmasi emas,

balki unga kiruvchi zamon paradigmasi a’zosi, yoki *-man* shaxs-son qo‘shimchasi kesimlik kategoriyasi emas, uning tarkibiy qismi a’zosi bo‘lgan shaxs-son paradigmasi a’zosi. Demak, shaxs-son, zamon, mayl, tasdiq/inkor kategoriyasi a’zosi kesimlik paradigmasining bevosita emas, balki bilvosita, o‘zi mansub kategoriya orqali mansublikka ega bo‘lgan a’zosi.

Boshqa kategoriya paradigmasi a’zosidan farqli o‘laroq, kesimlik kategoriyasi paradigmasi a’zosi bir paytning o‘zida yuzaga chiqadi. Masalan, deylik, ma’lum bir nutqiy pozitsiyada kelishik, egalik shaklidan faqat bittasi namoyon bo‘ladi. Aniqrog‘i, kelishik, egalik va boshqa kategoriya shaklidan bir so‘zga bir paytning o‘zida bittasi qo‘shiladi. Deylik, *kitob* leksemasiga ham qaratqich, ham tushum kelishigi qo‘shimchasini bir vaqtning o‘zida qo‘shib bo‘lmaydi. Lekin kesimlik kategoriyasida buning aksi kuzatiladi.

Kesimlik kategoriyasi umumiy grammatik ma’nosi voqealanishida lisoniy va pragmatik omillar. Ma’lumki, kesimlik kategoriyasining tarkibiy qismi bo‘lgan shaxs-son ichki kategoriyasi harakatning har uchala shaxsdan biriga qarashliligini yoki bajaruvchi yoxud subyektning noma’lumligini ifodalab, kesimning ega bilan aloqasini ko‘rsatadi.[1] Mavjud adabiyotlarda aytilganidek, ayrim gaplarda gap kesimida u birikuvchi so‘zning o‘timli-o‘timsizligiga bog‘liq ravishda, shuningdek, gapning struktur xususiyatidan kelib chiqqan holda shaxs-son ma’nosi butunlay so‘nishi mumkin. Masalan, *Bugun stadionga boriladi, Uyga qachon qaytiladi* gaplarida buni ko‘rishimiz mumkin. Gaplarda boshqa ichki kategoriyalar ma’nolarining yoki ma’nolaridan birining kuchayishi evaziga shaxs ma’nosi nol darajagacha susayadi. Buni ham, albatta, avvalo, subyektiv omillar, qolaversa, lisoniy omillardan qidirmoq kerak bo‘ladi[2].

Leksik omil. Shaxs-son kategoriyasi «shaxs» tarkibiy qismining voqealanishida kesim vazifasida kelayotgan so‘zning leksik xususiyati ma’lum bir rol o‘ynaydi. Masalan, «buyruq» ma’nosi ifodalanishi uchun kesim vazifasidagi so‘z «harakat» yoki «holat» ma’nolaridan birini anglatishi lozim. Bu esa kesimning har doim fe’l bo‘lib kelishini taqozo qiladi. Misollar: 1. *Qassob, ko‘ngling bilan* ***eshit*** *– quloq aldaydi, aqling bilan* ***ko‘r*** *– ko‘z aldaydi* (Tog‘ay Murod). 2. *Yana bir* ***kelinglar****, maslahatlashib olaylik* (Tog‘ay Murod).

3. *Mana bu hikmatga, do‘stim,* ***sol quloq****,*
Balki, senu menga bo‘lgay bir saboq.
Posbonning qovog‘i uyilgan bo‘lsa,
Hatto jannatga ham tortmaydi oyoq. (Abdulla Oripov)

[1] Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎзМЭ, 2002. – Б.130.
[2] Эрназарова М.С. Грамматик маъно лисоний ва прагматик омиллар яхлитлигида: филол. фан. докт... дис. – Самарқанд, 2018. – Б. 156.

4. *Senga she'rim yoqmas, kimimdir yoqmas,*
Ayt, ne gunohi bor butun bir xalqning?
Bilib qo'y, bu daryo teskari oqmas,
Senga jazosi bor yaratgan Haqning! (Abdulla Oripov)

5. *Bolam, sen hali yoshsan, bozorga* ***intilaverma****. Bozor shaytonning masjidi ekan, unda har turli nayranglar borki, yaxshi-yomonni ajratishga hali sening murg'ak aqling zaiflik qiladi* (Tohir Malik).

Agar kesim harakat/holatdan boshqa narsani anglatsa ham, unga harakat/holat tusi beriladi: 1. *Ayt, unga* ***oqil bo'lsin****, o'z yo'lini bilib yursin* (S.Nur). 2. *O'qing,* ***mullo*** *bo'ling*!

Morfologik omil. Kesimlik shakli «ta'kid» ma'nosini ifodalashi uchun [-*ku*] yuklamasining hamkorligiga ehtiyoj sezadi va bunda fonetik (aktsentuativ) omil ham hamkorlik qiladi. Misol: 1. *Maktabning hojatxonasida chekishsa, maktab aybdor bo'lib* ***qolmaydi-ku*** (Tohir Malik). 2. – *O'l-a, yuragimni* ***yording-ku****!* – *dedi* (Tog'ay Murod).

3. *Me'mor umr bo'yi hafsala ila*
Go'zal bir imorat ayladi bunyod.
Biroq nogahonda mash'um zilzila
Vayron qildi uni, ***qildi-ku*** *barbod.*

4. *Ammo telbaning shon-shuhrat shohsupasiga chiqish arafasida aqldan ozib qolgani haqidagi ma'lumotdan boshqa hech qanday yangi gap ololmadim; ko'plar unga ochiq hasad qilib, «Avvaldan telbaroq edi» deyishdan nariga o'tmadi; boshqa birlari esa «Shahar shu darajada go'zal va muvaffaqiyatli* ***qurildi-ku****, u buni kutmagandi, birdan aqli shoshib qoldi» deyishdi, biroq shu narsa ayon ediki, u ko'plarning xotirasidan butkul o'chib ketgandi*(Nazar Eshonqul).

Ta'kid kuchayganligi sababli urg'uning ham ahamiyati oshib, u o'z o'rnini o'zgartiradi va yuklamadan oldingi bo'g'inga ko'chadi. Berilgan misollardagi barcha shaxs-son shakllari «ta'kid» ma'nosi bilan birga «shaxs» va «son» ma'nosini ham kuchaytiradi, ish-harakatning bajaruvchisi soni e'tiborni tortarli darajada uqtiriladi[1].

Morfologik omil kesimlik ma'nolarining ifodalanishida muhim rol o'ynaydi. Kesimlik kategoriyasining umumiy grammatik ma'nosi har bir ichki kategoriyada modifikatsiyalanadi, ichki va tashqi omillarga bog'liq ravishda ularning nisbati ham o'zgaradi. «Gap kesimini shakllantirish» kategorial ma'nosi har bir shaklda parchalanadi. Shakl nollashganida ifodali shakllarda uni

[1] Эрназарова М.С. Грамматик маъно лисоний ва прагматик омиллар яхлитлигида: филол. фан. докт... дис. – Самарқанд, 2018. – Б. 156-158.

belgilashga intilish kuchayadi. Masalan, buyruq mayli kesimlik tarkibida kesimlikning boshqa ma'nolarini o'ziga yondosh ma'no sifatida namoyon qiladi:

		Ma'no turlari	Shaxs-son	Zamon	Tasdiq-inkor	Mayl
Ma'no tiplari	Kategorial ma'no	Gap kesimni shakllantirish	+	+	+	+
	Yondosh ma'no	Shaxs-son	+			
		Zamon		+		
		Tasdiq-inkor			+	
		Mayl				+
	Hamroh ma'no	Subyektiv munosabat	+	+	+	+
		Uslubiy ma'no				+
		Shaxs ko'chishi	+			
		Zamon ko'chishi		+		
		Tasdiq orqali inkor			+	
		Inkor orqali tasdiq»[1]			+	

Kategoriya ichki shakllaridan biri ma'nosining kuchayishi boshqalarining susayishiga olib kelishi kesimlik shakllari umumiy grammatik ma'nosi voqealanishida morfologik vositalarning o'rni qay darajadaligini ko'rsatadi.

Sintaktik omil. Kesimlik shakllari umumiy grammatik ma'nosini voqealantirishda boshqa lisoniy omillarga nisbatan sintaktik omillarning o'rni va roli o'ta yuqori.

Shaxs-son ichki kategoriyasining o'z ma'nolarini voqealantirishida gap egasining roli o'ta yuqori. Chunki ega va kesimni muvofiqlashtirish – shaxs-son kategoriyasining asosiy ma'nolaridan biri. «Shaxs» ma'nosi ish-harakatning uch shaxsdan biriga tegishli ekanligini ko'rsatadi. Bunda ikki holatni alohida ta'kidlash lozim:

a) «shaxs» grammatik ma'nosining voqealanishida eganing obligatorligi;

[1] Мусулманова Н. Грамматик шаклларда категориал, ёндош ва ҳамроҳ маъно. – Тошкент: Фан, 2012. – Б.52.

b) «shaxs» grammatik ma'nosining voqealanishida eganing fakultativligi.

Bu egali gaplarning egasi ifodalangan va egasi ifodalanmagan turlarini farqlash bilan bog'liq.

Ega va kesim W, Pm uzvlarining o'ziga xos xususiyati va munosabati tufayli nutqda ega tushirib qoldirilmaydi, kesimlikdagi shaxsning muayyanligi ta'minlanadi. Bunda ega:

a) kesimdagi W uzvining talabi bilan shaxs-sonni muayyanlashtiradi;

b) kesimdagi Pm talabi bilan shaxs-sonni muayyanlashtiradi.

Quyida ularning har birini alohida-alohida ko'rib chiqamiz:

I. Kesimning [W] qismi vazifasida ibora kelganida uning tarkibidan egani tushirib qoldirib bo'lmaydi, chunki ibora ega va kesim yaxlitligidan iborat hamda gap ko'rinishida bo'ladi: 1. *Bu xabardan mening **tarvuzim qo'ltig'imdan tushdi.*** (Gazetadan) 2. *Markazga kelib, bo'lib o'tgan voqealarning butun tafsilotini eshitgan Qalandarovning **jig'oni falakka chiqdi.***

Iboralar [ega + hol + kesim] qolipida bo'lib, bu qolip yaxlit (monolit) strukturaga ega. Bundagi ega kesimning ma'noviy imkoniyatini yuzaga chiqarish uchun o'ta zarur. Shu o'rinda iboralar bitta gap bo'lagi maqomida bo'ladi degan an'anaviy qarashlarni qayta o'ylab ko'rish kerakligini ta'kidlash lozim.

II. Ma'lumki, ayrim hollarda o'timli fe'llarning semantikasi ularning vositasiz to'ldiruvchi bilan o'ta zich aloqada bo'lishini taqozo qiladi (masalan, *kuzatmoq, ko'rmoq, aytmoq*). Bu so'zlarning obyekt valentligi (tushum kelishigidagi kengaytiruvchisi) zaruriy. Shu boisdan fe'l majhul nisbatga o'tgach, ularning vositasiz to'ldiruvchisi egaga aylanadi, shuningdek, mazkur kompletiv aloqa ham saqlanib qoladi, avval to'ldiruvchi, endi esa eganing ifodalanishi zarur bo'lib qoladi: 1. *Oqibat hozirgacha ham ayrim fuqoralar, ayniqsa, yoshlar orasida ikkilanishlar, hatto muxolifat tomoniga og'ib ketish kabi achinarli **hollar kuzatilmoqda*** (Gazetadan). 2. *Natijada ko'plab fuqarolar uchun buzg'unchi muxolifatning asl basharasi, uning maqsad va vazifalari, mohiyati, **kirdikorlari** to'laqonli **bayon etib berilmadi*** (Gazetadan). 3. *Yig'inda fermer xo'jaliklari taraqqiyoti uchun mahalliy fermerlar tomonidan qo'yilayotgan sun'iy g'ovlarning **sabablari ham aytildi*** (Gazetadan).

III. Taqlid so'zlar ma'nolarining o'ziga xosligi, «g'ayrioddiyligi» ham gap qurilishida eganing zarurligini va kesimdagi «shaxs-son» ma'nosining reallashishi uchun ahamiyatini oshiradi. Zero, «taqliddagi ma'noviy g'ayrioddiylik uni boshqa mustaqil so'z turkumlaridan ajratib turadi». «Kesimning [W] qismi taqlid so'zlardan yasalgan fe'llar bilan ifodalanishi ham

eganing voqealanishini taqozo etadi. 1. *Eshik taq-taq qildi. 2. Yuragim shuvillab ketdi. 3. Qarg'a qag'illaydi.*

IV. Tabiat hodisalarini ifodalovchi ayrim fe'llar ham eganing mazmuni bilan o'ta zichlashib ketganligi bois nutqda eganing tushib qolishiga yo'l qo'ymaydi: *Tong otdi. Kun botdi. Chaqmoq chaqdi. Qorong'i tushdi*».

Nutqda shaxs-son qo'shimchalarining ko'chma ma'no ifodalashi ham eganing mavjudligiga ishora qiladi. «Shaxs-son qo'shimchasi ma'nodoshligi:

1) fe'lning II shaxs birlik qo'shimchasi o'rnida II shaxs ko'plik qo'shimchasi qo'llanadi: *Amaki, ertaga kelasizmi?*

2) fe'lning I shaxs birlik qo'shimchasi o'rnida II shaxs birlik qo'shimchasi keladi: *Tabiatning ishlariga hayron qolasan, kishi*;

3) II shaxs ko'plik o'rnida I shaxs ko'plik qo'shimchasi qo'yiladi: *Bolalar, bugun diktant yozamiz*;

4) II shaxs ko'plik o'rnida III shaxs birlik qo'shimchasi: *U norozi ohangda dedi: – Shunaqa ish bilan hazillashib bo'ladimi?*»

Zamon qo'shimchalarining ham nutqda uslubiy o'ziga xoslik uchun ko'chma ma'nolarda qo'llanishida zamon ma'nosini ifodalovchi kengaytiruvchilarning bo'lishi shart qilib qo'yiladi. Zamon kengaytiruvchisi zamon kategoriyasi shaklining xususiy ma'nosini reallashtiradi.

«Zamon qo'shimchasi ma'nodoshligi:

1) hozirgi zamon davom fe'li o'rnida hozirgi-kelasi zamon shakli qo'llanadi: *Butun qishloq ular haqida gaplashishadi* (hozir);

2) kelasi zamon o'rnida hozirgi zamon shakli keladi: *Ertaga terimga tushyapmiz*;

3) hozirgi zamon o'rnida o'tgan zamon shakli keladi: *Qarasam, yugurib kelayotibdi* (o'shanda)».

Gapdan payt hollari tushirib qoldirilsa, gapdan ko'zlangan axborot mazmuni uqilmay qoladi. Payt hollari, ular bo'lmaganida matn omili tegishli grammatik shakllarning ma'nolarini reallashtirishda ishtirok etishi zarur bo'ladi.

Xabar maylidagi fe'lning buyruq (*Qani, boshladik*), shart (*Boraman dedingmi, bor*) maylidagi fe'llar o'rnida kelishi ham ma'lum bir sintaktik, qolaversa, matniy omilning faollashishini talab qiladi.

Ko'rinadiki, kesimlik kategoriyasi tarkibiy qismi bo'lgan zamon va modallik, tasdiq-inkor ichki kategoriyalari ma'nolarining nutqiy voqealanishida sintaktik omilning o'ziga xos roli bor. Bunda mazkur kategoriyalarning ma'nolariga muvofiq hollar gapda ishtirok etmasa, kesimlik ma'nolari uqilmay qoladi.

Gap kesimi axborot markazi, gapning asosiy konstruktiv bo'lagi bo'lganligi sababli kesimlik kategoriyasi ma'nolarining nutqiy voqealanishida pragmatik omillar fluktuatorlik vazifasini bajarish bilan ancha faollik ko'rsatadi.

Gap mazmunida obyektiv voqelik (propozitsiya) bilan subyektiv munosabat vaziyat omili bilan murakkablashadi. «Har qanday gap mazmunida uch aspekt ishtirok etadi: 1) propozitiv (nominativ) aspekt; 2) modal (obyektiv modallik) aspekti; 3) kommunikativ (temarematik) aspektlar. Bulardan til birligi sifatidagi gap semantikasida faqat propozitsiya va obyektiv modallik mavjud bo'lsa, nutq birligi sifatiga gap (jumla) semantikasida esa ulardan tashqari, albatta, kommunikativ aspekt va ba'zan subyektiv modallik ham ishtirok etadi».[1] Gap mazmuniga pragmatik munosabat unda kommunikativ munosabat va subyektiv modallik «ba'zan» emas, ko'p hollarda belgilovchi maqomida bo'lishini ko'rsatadi.

So'zlovchining intentsiyasi va axborotning xususiyatiga munosabat bilan bog'liq ravishda shaxs-son kategoriyasi ma'nolarining voqealanishida pragmatik omillar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, shaxs-son kategoriyasi, aytilganidek, gap mazmunidan anglashilgan xabarning uch shaxsdan biri ekanligini ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Gapda ba'zan xabarning qaysi shaxsdan biri haqida ketayoganligi noma'lum bo'ladi. Bunga ikki holatdan biri sababchi:

a) so'zlovchi uchun axborotda ega haqidagi xabar qismining predikatdan anglashilgan xabar qismiga nisbatan ahamiyatsizligi;

b) so'zlovchi uchun eganing ahamiyatini kuchaytirish uchun atay yuzaga chiqarilmasligi.

So'zlovchi uchun eganing noma'lumligi shaxs-son kategoriyasi shaklining «shaxsning noma'lumligi» ma'nosi yuzaga chiqishiga sabab bo'ladi. Demak, so'zlovchi uchun ham, tinglovchi uchun ham axborot mazmunida eganing yuzaga chiqishi shart emas. Bunda, albatta, ega zarur va mutlaq noma'lum emas, balki ahamiyatsiz bo'lganligi uchun aniqlik shart bo'lmagan holatda noma'lum bo'lib qolaveradi: 1. *Shuning uchun bu ajoyib daraxtni olovli mohur ham* ***deyishadi*** (Pirimqul Qodirov). 2. *Chand bibining boshiga tushayotgan og'ir savdoda ham Beka begimning qo'li bor* ***deyishadi*** (Pirimqul Qodirov). 3. *– Dunyo g'alati ekan-da! – dedi Humoyun og'ir tin olib. – Yomonlik qaytgay deyishadi. Deydilarki, otasining yoshiga yetgan odamni Azroil bir silkitib ko'rarmish, bo'sh kelsa olib ketarmish* (Pirimqul Qodirov). 4. *Tavba, – deb kuldi Kumush. – jek ko'rasan deb bir aytasiz, o'zingdek fahmlaysan deb uzib ulaysiz, sen qo'rqmasang ham bo'ladi deb tag'in nina tiqasiz... Mana shuni gapka temirchi deb* ***aytadilar*** (Abdulla Qodiriy). 5. *«Darrov ha desak, kelin o'lib turgan ekan* ***deydilar»*** (Tog'ay Murod). So'zlovchi ifoda etayotgan fikrning egasi o'zidan boshqa shaxs ekanligini uqtirish maqsadida kesimlik shakliga «ko'plik» ma'nosini beradi, birgalik nisbat shaklini undan oldin tirkaydi.

O'zbek tilshunosligida ajratilgan shaxsi noma'lum, shaxsi ma'lum, shaxsi umumlashgan gaplarda so'zlovchi gap egasi haqidagi axborotni muhim sanamaydi. Uning uchun subyekt (ega) haqidagi axborot eganing o'zidan ko'ra muhimroq, shuning uchun egaga atay urg'u bermaydi. Ega haqidagi ma'lumot uning nutqiy intentsiyasidan tashqarida turadi. Bu shaxsi ma'lum, shaxsi noma'lum, shaxsi umumlashgan gaplarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

Shaxsi ma'lum gaplarda ega shaxsi haqidagi xabar ham egada, ham kesimda «qavatlanishi» so'zlovchi uchun zarur emas, shuning uchun u axborotda egadan voz kechadi. Axborot uchun ma'lum darajada zarur bo'lgan ega shaxsi haqidagi xabarni kesimlik shaxs-son kategoriyasi zimmasiga yuklaydi va shu bilan kifoyalanadi. Masalan, *O'qidim Herodot, tarixni ko'p bor* (Abdulla Oripov) jumlasida egaga urg'u berish uning yuzaga chiqishiga sabab bo'ladi va gapga yangi prezuppozitiv ottenka beradi. Bu esa eganing urg'u olishiga, natijada axborot sifatining buzilishiga sabab bo'ladi: *Men* (boshqalar emas) *o'qidim Herodot, tarixni ko'p bor*. So'zlovchi intentsiyasi tarkibida esa bunday axborotni berish istagi yo'q.

Ayrim hollarda so'zlovchining egaga urg'u berish istagi kesimdagi shaxs-son shaklining shakliy-ma'noviy jihatdan o'ta kuchsizlanishiga sabab bo'ladi: *Men – yahudiy* (G'afur G'ulom) kabi. Bundan, yuqorida aytilganidek, *Men* (boshqalar emas) – *yahudiy* presuppozitiv mazmuni qalqib chiqadi. Demak, ajratish intentsiyasi shaxs-son shaklining kuchsizlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

So'zlovchining «hurmat bajo keltirish» intentsiyasi shaxs-son shaklining ko'chma ma'no ifodalanishini keltirib chiqaradi. Misollar: 1. *Muhammad alayhissalom o'z ummatlariga murojaat etib* ***deydilarki****: «Iso va Muso payg'ambarlardan ajralmanglar, imonda doim birga bo'linglar»* (Pirimqul Qodirov). 2. *Bo'lak uyda o'tirmish bo'lak domla oldiga keldilar* (Tog'ay Murod). 3. *Kumush opa ham shu yerda* ***edilar****... Lag'monni uncha* ***xushlamas ekanlar****, shekillik, yaxshi* ***yemadilar****... U kishi* ***yemaganlaridan*** *keyin men ham yeb o'lturg'ali iymandim...* (Abdulla Qodiriy).

[1] Нурмонов А., Махмудов Н., Ахмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. – Б.31.

Birlik son shaklining hurmat ifodalashi etnik omillar bilan susayib, u birgalik nisbat shakli zimmasiga o'tishi mumkin: *Domla kelishdi* (keldilar). *Onam yaxshi yurishibdimi*? (yuribdilarmi?)

«Hurmatsizlik» ma'nosi so'zlovchi intentsiyasiga muvofiq shaxs-son shakli orqali namoyon bo'ladi:

– Kim bo'lardingiz, o'zimizni Botir qo'shchi-da, – dedi.

Qo'shchi yo'q qorinni olg'a siltadi.

– Yo'q! – dedi. – Ammo-lekin ***topolmadilaring!***

Dehqonlar burchakka bet burib kuldi. Dehqonlar og'iz ushlab kuldi.

– Kolxoz tuzilgani qachon edi? – dedi qo'shchi. – Sizlarga qachon aql kiradi? ***Topinglar****, men kimman? Dehqonlar yuzidan kulgich qochdi. Bari o'ylab qoldi. Oxiri chidab o'tirolmadi.*

– Unda, o'zingiz ayting.

– Biz bir dalada yurgan dehqon bo'lsak.

– Siz tuman borib keldingiz, siz ayting.

Qo'shchi ikki qo'lini ko'ksiga qo'ydi. Ko'kragini olg'a shishirdi.

– Mana shu... men-a? – dedi. – Mana shu men! ***Aytinglar****, qani, mana shu men kimman?*

Dehqonlar tag'in bir-biroviga qaradi.

– Ha, shu siz, shu siz! – dedi.

– Unda, sizlarga topshiriq: ***boringlar****, meni kim ekanimni* ***bilib kelinglar!***

Qo'shchi shunday deya supadan tushdi. Ko'chaga ravona bo'ldi (Tog'ay Murod).

So'zlovchi tinglovchilarga *siz* olmoshi bilan murojaat qilar ekan, bunda u «hurmat» ma'nosidan yiroq bo'lib, faqat «ikkinchi shaxs», «ko'plik» ma'nolarini yuzaga chiqargan. Kesimdagi shaxs-son qo'shimchalari ham shunday vazifani bajargan: «sen» va «ko'plik» (ikkinchi shaxs, ko'plik) ma'nolari «hurmat» ma'nosidan xoli tarzda namoyon bo'lgan. Bu, o'z-o'zidan ma'lumki, subyektiv omil natijasi o'laroq yuz bergan.

So'zlovchining subyektiv munosabati sifatidagi «hurmatsizlik» ma'nosi ikkinchi shaxsga uchinchi shaxs shaklini qo'llash orqali ham namoyon bo'ladi:

1. *Bolasini butlari orasiga tortibroq o'tirdi. Bolasini yelkalaridan quchoqlab o'tirdi. Peshonasini bolasi boshiga qo'yib o'tirdi. Ona betlarini bekitib o'tirdi.*

– Izimdan ***yurilsin****!*

Botir firqa shunday deya yo'lida odimladi(Tog'ay Murod).

2. *NKVDchilar xonaqoni gir aylanib ko'rdi. Ichkarini aylanib ko'rdi. Ilmateshik etib ko'rdi.*

– Buzilsin! – deya buyurdi. – Yangi turmush yonida eskilik sarqiti bo'lishi mumkin emas! Buzilsin!(Tog'ay Murod).

Bunda so'zlovchining subyektiv munosabatidagi «hurmatsizlik» omili yuqoridagi holatdan kuchliroq, u hatto tinglovchilarga shaxs sifatida buyruq qilishdan ham go'yo or qiladi va o'ta rasmiy tusda o'z fikrini bayon etadi – ikkinchi shaxsga murojaat shaxssiz shakl orqali beriladi. Shaxssiz shakl o'z umumiy grammatik ma'nosiga xos bo'lmagan nokategorial ma'noni so'zlovchining subyektiv munosabati omili ta'sirida yuzaga chiqaradi.

Shaxssiz shaklning «hurmatsizlik» nokategorial ma'nosi o'ziga pragmatik vaziyatni taqozo qiladi. Norasmiy vaziyatda va jonli muloqotda rasmiy shaklning «norasmiylashuvi» morfologik ko'rsatkichga immanent bo'lmagan ma'noni voqealantirishga olib keladi. Dunyoqarash, axloq, shaxsiy mental omillar shu tarzda qorishib, so'zlovchining intentsial harakatini boshqaradi, bu grammatik shaklning g'ayriodatiy qo'llanishi va ma'no ifodalashiga sabab bo'ladi.

Birinchi shaxs ko'plikdagi shaxs-son shakli birlik ma'nosini ifodalashi mumkin va bu ham so'zlovchining subyektiv xususiyatlari bilan belgilanadi. Bunda uch holat farqlanadi:

a) rasmiy vaziyatda «men» ma'nosini susaytirish uchun;

b) norasmiy vaziyatda «men» ma'nosini kuchaytirish uchun;

v) norasmiy vaziyatda «men» ma'nosini susaytirish uchun.

Rasmiy muloqot madaniyati shaxsning «men»ni susaytirishi natijasida so'zlovchining intentsiyasini to'laroq ro'yobga chiqarishiga sabab bo'ladi:

– Taqsirim, – dedi Humoyun shayxulislomga. – Mehmon imon jihatdan samimiy bo'lsa, bizdan ham samimiy ehtirom ko'rgay. Nek niyat bilan kelgan bo'lsa, biz ham unga yaxshilik qilaylik (Pirimqul Qodirov).

Ba'zan norasmiy vaziyat bu soxta chaqiriqni keltirib chiqaradi.

Abdulla Qahhorning «O'g'ri» hikoyasida Qobil boboning nutqida norasmiy vaziyatda «men» ma'nosini susaytirish uchun shaxs-son kategoriyasining birinchi shaxs, ko'plik ko'rsatkichini qo'llash holatlari ko'p uchraydi.

Ko'rinadiki, shaxs-son kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining pragmatik mazmun kasb etishi so'zlovchi, tinglovchi holati va nutqiy vaziyat omillari bilan yaxlitlanib, uyg'un harakat qilishi asosida sodir bo'ladi.

Zamon va mayl grammatik ma'nolari bir-biri bilan shu darajada zich bog'langanki, bir qarashda ularni bir-biridan ajratish, birini ikkinchisidan ayro tasavvur qilish mumkin emas. «Zamon va mayl kategoriyalari shaxs-son va tasdiq-inkor kategoriyalari bilan bir butunlikda kesimlik kategoriyasini tashkil etadi. Bu kategoriyalarning o'zaro zich aloqadorligi va dialektik yaxlitligi bu

kategoriyalarning har biriga mansub shakllarni, ularning kategorial va nokategorial ma'nolarini izchil farqlashni qiyinlashtiradi. Shu boisdan ko'plab tadqiqotlarda zamon shakllari mayl kategoriyasi ma'nolaridan bo'linmagan holda tadqiq etiladi va kategoriyalararo bog'liqlik barcha tilshunoslar tomonidan tan olinadi». Formal va substansial tadqiqotlar natijalarini umumlashtirar ekan, N.Musulmonova zamon va mayl kategoriyalari munosabatini kategoriallik/nokategoriallik tamoyili nuqtayi nazaridan baholaydi. «Zamon kategoriyasida zamon shakllarining o'rnini belgilashda zamon ma'nosi kategorial ma'no, tarz, mayl ma'nolari nokategorial, mayl ma'nosi yondosh, tarz-tus ma'nosi hamroh ma'no hisoblanadi. Zamon shakllarida yuzaga chiqqan mayl ma'nolari tizimida zamon ma'nolari ikkinchi darajali ahamiyat kasb etib, mayl ma'nolari bo'rtadi. Tarz-tus ma'nolari bunda ham hamroh ma'noligicha qolaveradi. Baribir, ta'kidlash lozimki, zamon va mayl ma'nolari shu darajada zich bog'langanki, aksariyat hollarda maylning ma'noviy xususiyatlarini zamonsiz, zamon ma'nolarini mayl ma'nosidan ajratib talqin qilib bo'lmaydi».[1]

Zamon kategoriyasi ma'nosini voqealantirishda so'zlovchining propozitiv struktura zamoni haqidagi ma'lumot muhim. Bunda ham axborot va bilim zamon umumiy grammatik ma'nosi voqealanishi uchun belgilovchi rol o'ynaydi. Tilshunos A.V.Bondarko «davriy makonga ega bo'lgan va davriy makonsiz harakat, faoliyat vaziyatlarini» farqlashni taklif qiladi. Ushbu nomuvofiqlikni o'z paytida sezgan polyak olimi E.Koshmider ham *Uch karra uch – to'qqiz, Qo'l qo'lni yuvadi* qabilidagi «umumiy haqiqat»ni yoki mavhum faktlarni ifodalovchi tuzilmalarning vaqt oralig'i qatoridan o'rin olmaganligini qayd etadi. E.Koshmiderning fikricha, «vaqt oralig'ida joylashish» va bunday o'ringa ega bo'lmaslik o'rtasidagi farq grammatik shakllarda o'z ifodasini topadi». Sh.Safarov yuqorida ko'rsatilgan farqlar asosan formal-semantik xususiyatga egaligini, bu hodisa pragmatik tahlil nuqtayi nazaridan olib qaralganda ular o'rtasidagi nomuvofiqlikning keskin emasligini aytib o'tadi.

Zamon va mayl kategoriyalari umumiy grammatik ma'nosining voqealanishida, avvalo, so'zlovchining voqelik bilan bilvosita yoki bevosita munosabatdaligi, harakat/holatning vaqt chizig'ining qaysi kesmasida sodir bo'layotganligini bilish katta ahamiyatga ega. Zamon kategoriyasining, xususan, ichki (o'tgan, hozirgi, kelasi) ko'rinishlarining turlarini ajratish va nomlash ham ana shu bilan bog'liq. Qolaversa, pragmalingvistlar zamon shakllarining kam yoki ko'pligi, umuman olganda, ularning miqdori milliy mental omillar bilan, borliqning milliy lisoniy tasviri bilan bog'liqligini ko'p aytishgan. Demak,

[1] Мусулманова Н.Р. Грамматик шаклларда категориал, ёндош ва хамроҳ маъно. – Тошкент: Фан, 2012. – Б.56.

zamon kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining bifurkatsiyalanishi umummilliy, sotsial, shaxsiy va milliy mental omillar bilan bog'liq holda yuz beradi.

Zamon ma'nosining nutqiy voqealanishida shaxs omili fluktuatorlik vazifasini so'zlovchining voqelikdan xabardorlik darajasi asosida bajaradi. Shaxs voqea-hodisaning yuz berganligiga bevosita guvoh bo'lgan holatda o'tgan zamon shakli «bevosita ko'rganlik» ma'nosini yondosh ma'no sifatida voqealantiradi:

Botir firqa momoni ***tanidi****. U Mirzaxo'jaevaning keksa onasi Zaynab momo* ***bo'ldi****.*

Zaynab momo hassasini do'q-do'q urib ***ichkariladi****. Ostonada hassasini devorga* ***suyab qo'ydi****. Bo'sag'ada tik* ***turdi****. Tevarakka* ***razm soldi****.*

Televizor qiblagohda – Zaynab momoni chap tarafida ***bo'ldi****. Shu bois Zaynab momo chap tarafidan yuzini* ***burdi****. Ro'molini peshonasiga* ***tortib qo'ydi****. Ro'moli chap tarafi burchidan* ***ushladi****. Ro'moli burchini yuzi uzra ko'tarib... yuzini* ***yashirdi****. Televizorda so'zlovchi diktordan... yuzini* ***yashirdi****. Zaynab momo shu holda* ***ichkariladi****. Hali o'zi o'tirmish to'rdan* ***joy oldi****. Sandiqqa qarab* ***o'tirdi****. Ro'moli burchini ushlab, televizorga... yelka burib* ***o'tirdi****. Televizordan yuzini bekitib* ***o'tirdi*** (Tog'ay Murod).

So'zlovchi «bevosita ko'rgan» voqelik yaqin o'tgan zamonda ro'y berganida ushbu shakl kesimni shakllantiradi.

Ba'zan vaziyat talabi bilan (uslub, diniy suhbat) «bevosita ko'rganlik» ma'nosi voqealanmay, shakl «uzoq o'tgan zamon», «uzoq o'tgan zamon eshitilganlik», «uzoq o'tgan zamon hikoya» ma'nolarini ham berishi mumkin: *Shunda sahobalar payg'ambarimizdan so'radi...* Diniy suhbat vaziyati, diniy diskurs morfologik ko'rsatkichning okkazional ma'no ifodalashini taqozo qiladi.

Uzoq o'tgan zamon shakli nutq so'zlanayotgan payt bilan kesimdan anglashilgan voqelik orasida ancha vaqt o'tgani haqidagi so'zlovchining bilimi asosida reallashadi: 1. *Men, besh yosh katta egachisi, uning beshigini tebratganman* (Pirimqul Qodirov). 2. *Bir necha vaqtdan so'ng uy egasi ko'zini sham'dan oldi va yer ostidan Otabekni kuzatkach so'radi*:

– ***Uylanganmisiz****, bek?*

Otabekning kayfi kuchlikmi edi yoki so'zni onglamay qoldimi, haytovur, shu onda javob berolmadi.

– ***Uylanganman*** (Abdulla Qodiriy).

Demak, bu zamon shaklining «uzoq o'tgan zamon» ma'nosini berishida kognitiv omilning roli ma'lum darajada kuchayadi.

Kelasi zamon shaklining ma'nolari voqealanishida ish-harakat bajarilishi haqida xabar berishgina emas, balki subyektning o'z xatti-harakatlarini bajarish intentsiyasi ham turtki bo'ladi. Demak, bunda ayrim hollarda «harakat/holatni bajarish», ba'zan «harakat/holatni bajarish» va «harakat/holatni bajarish haqida axborot berish» intentsiyalari omixta holda bir zamon shaklida namoyon bo'ladi:

1. *Komron unga qarab:*

– *Senga naqora kerakmi? – dedi. Shuni* ***chalmoqchimisen****? Ayt, bola!* (Pirimqul Qodirov) 2. *Ana shu amir Olimxon... haramidan nari ketmasdi. Deydilarki, qavmi Lutni ishini ham qilgan fursat topsa. Nima, endi siz ham amir Olimxonni ishlarini... kelgan joyidan davom* ***ettirmoqchimisiz****?* (Tog'ay Murod) 3. *Men sizni oxirgi amirga tenglashtirmoqchi emasman* (Tog'ay Murod).

Kelasi zamon gumon shakli ma'nolari tarkibida so'zlovchining voqelik yuz berishiga «ishonchsizligi», «gumoni» nolisoniy ma'nolar sifatida yuzaga chiqadi. Subyektiv modallik pragmatik omil sifatida zamon shakli ma'nolarini murakkablashtiradi.

Quyidagi matnga murojaat qilaylik:

– *Birov sizni gunohkor deyaptimi, nega* ***vahima qilasiz****, grajdanka To'laganova?*

– *Ana, tag'in «grajdanka» deyapsan. Men yurak oldirib qo'yganman, xolang qoqindiq.*

– *O'tiring.*

– *Xo'p, o'g'lim, xo'p. Birpas o'zimga kelib olay, maylimi? Iloyo, bola-chaqangning rohatini ko'rgin* (O'tkir Hoshimov).

So'zlovchining so'roq gapi ajratilgan kesimning kelasi zamon shaklida hozirgi zamonni ifodalishini belgilagan. Bunda intentsiya tinglovchini tinchlantirish bo'lib, bu so'roq gap vositasida yuzaga chiqqan.

So'zlovchining tilak mazmunidagi intentsiyasi tilakning obyektiv xususiyati bilan uyg'unlashib, fe'l shakllarining har doim kelasi zamonda bo'lishini va «kelasi zamon» kategorial ma'nosining ifodalashini taqozo qiladi. O'zbek tilshunosligida bunday kesim markazli qurilmalar «Olqish iboralar» (Lafasov O'.P.) deb nomlangan va uning quyidagi turlari ajratilgan:

1. Shaxsga nisbatan mehr-muhabbat mazmunini: *aylanay; qurboning bo'lay; o'zim o'rgilay* va shu kabilar.

2. Ezgu (yaxshi) tilak/istak mazmunini: *baxtingiz ochilsin; ziyoratingiz qabul bo'lsin; ko'z tegmasin* va shu kabilar.

3. Duo qilish mazmunini: *boshing toshdan bo'lsin; ustuxoning po'latdan bo'lsin; iloyo, murodingizga yeting; o'zingdan ko'paygin* va shu kabilar.

4. Erkalash mazmunini: *bola(gina)ng ko'paygur, tillaringga asal bol novvot shakar; uying bug'doydan to'lgur(sin)* va shu kabilar.

5. Mehr-tanbeh mazmunini: *qizi tushmagur, xudo xayringni bergur, qahqahlamay qolgurlar* va shu kabilar.

6. Kinoya-piching mazmunini: *akasi aylansin, jon sadqa bo'lsin, jonim tasadduq* va shu kabilar».[1]

Subyektiv modallikning ifodalanishida so'zlovchining intentsiyasi boshqa omillarning barchasidan ustuvorlik qiladi va boshqa pragmatik omillar ham o'ziga xos rol o'ynaydi.

Olqishlar so'zlovchi va tinglovchining o'zaro shaxsiy munosabati, kayfiyati, kommunikantlarning yosh, jins xususiyatlari, biror voqelik yuz berishi natijasida yoki biror narsaning sodir bo'lishini nazarda tutgan holda yuzaga chiqishi ma'lum. Demak, pragmatik omillarning o'zi ham rang-barang, ularning har birini pragmatik mazmun va so'zlovchi intentsiyasi hamda nutqiy natija nuqtayi nazaridan atroflicha tahlil qilish amaliy tilshunoslik, tildan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish muammolari yechimida katta ahamiyat kasb etadi[2].

[1] Лафасов Ў.П. Диалогик нутқда субъектив модалликнинг ифодаланиши: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – Б.16 – 17.

[2] Эрназарова М.С. Грамматик маъно лисоний ва прагматик омиллар яхлитлигида: филол. фан. докт... дис. – Самарқанд, 2018. – Б. 172.

3- BO'LIM
SO'Z TURKUMI
1-§. So'z turkumi tasnifi

Tasnif haqida umumiy ma'lumot. XX asr tilshunoslik fani uchun muhim burilish davri bo'ldi. Boshqa aniq fanda bo'lganidek, tilga tizim sifatida yondashildi, til va nutq hodisasi farqlandi. Shunday qilib, til va nutqni tizim qonuniyati asosida o'rganish, uning har biriga o'ziga xos yopiq sistema va struktura tarzida qarash, har ikkisini bir dialektik hodisaning ikki tomoni deb tushunish tilshunoslikda katta burilish yasadi va fan rivojiga jiddiy turtki bo'ldi.

Tilshunoslik tarixida so'zni tasnif etish kabi chigal va ko'p muhokama qilingan masala bo'lmasa kerak. Bu mavzu ustida Panini, Arastu, Sibavayhdan boshlab hozirgacha tilshunoslar bosh qotiradi. Buning sababi shundaki, so'z leksik va grammatik butunlik sifatida har bir tilshunosdan o'z tabiatini ochishni, shunga tayanib leksik va grammatik talqin etishni talab qiladi. Bunday talqin so'zdagi bevosita o'xshashlik va farqni aniqlash, ya'ni uni guruhlash, tasnif etish natijasidagina ochilishi mumkin. Shuning uchun so'z va uning turlicha tasnifi har bir davr tilshunosligida muhim muammo bo'lib qolaveradi. So'zni leksik-grammatik tasnif qilishda o'zbek tilshunosligida XI–XIX asrda arab grammatik talqinida ishlab chiqilgan **ism, fe'l, harf** tizimidan, XX asrda esa Yevropa tilshunosligida ishlab chiqilgan 10–12 turkumli tizimdan foydalanib kelindi. O'zbek tilshunosligida asrimizning 70- yillarida kurtak olib, 80-90-yillarda ancha rivojlangan sistemaviy tadqiqot usuli o'zbek tili lug'at boyligini yangi asosda – umumiylik va xususiylik hodisasini farqlash asosida guruhlash muammosini qo'ydi.

Til va nutq hodisasini farqlash o'zbek tili leksemasini ular orasidagi umumiy o'xshashlik va farq asosida guruhlash mezonini ishlab chiqishni ta'minlaydi. O'zbek tilida so'zlashuvchi uchun "umumiy", "tayyor", "majburiy" bo'lgan leksemani so'zdan farqlash, shu kungacha nutq-til sharoiti asosida amalga oshirilgan so'z turkumi tasnifi masalasini yangi asosda ko'rib chiqishni ham taqozo etadi.

Avvalo, "Tasnifning mohiyati nimada, uni qanday tushunamiz?" degan savol tug'iladi. Falsafiy adabiyotda tasnifning ko'plab ta'rifi keltirilgan. O'ta umumiy tarzda tasnifni quyidagicha tavsiflash ham mumkin: "**Tasnif** – bu inson faoliyati yoki bilimining qandaydir bir sohasiga tegishli bo'lgan, ko'pincha chizma yoki jadval shaklida tasavvur qilinadigan tushuncha yoxud manba guruh (turkum)i o'rtasidagi aloqani tiklash vositasi sifatida hamda unga taalluqli bo'lgan tushuncha yoki manbani xilma-xil ko'rinishda aniq belgilash uchun

foydalaniladigan o'zaro teng tushuncha (turkum, guruh)ning ko'p sathli tizimidir". Tasnif mohiyatiga bunday yondashuv, bizningcha, tasnifni qandaydir bir mantiqiy jarayon (bo'linish, tavsiflash) bilan tenglashtirishning oldini oladi. Bundan tashqari, yuqoridagi yondashuvning mavjudligini ham hisobga oladi. Induktiv yondashuvda tasnif qurilishi jarayoni belgisining o'xshashligi va farqlanishi orqali tavsiflanadigan ayrim manba tahlilidan boshlanadi. Bunda hal qiluvchi rolni b o' l i n i sh jarayoni o'ynaydi. Zero, bu holda tasniflash obyekt (manba)ni guruhga birlashtirishdan boshlanadi va shundan so'nggina tadqiqotchi manba turkumini tavsiflash (nomlash) jarayoniga o'tishi lozim. Induktiv usulga asoslangan tasnifdan tildagi mavjud misolni (faktik materialini) qayta ishlashda foydalaniladi.

Deduktiv yondashuvda tasnif etish jarayoni umumiy tushunchani belgilashdan boshlanadi va shundan so'ng uning bo'linishiga o'tiladi, shuning uchun bu yondashuvda tushunchani tavsiflash birinchi darajali ahamiyatga ega.

Ko'p holda tasnif ham induktiv, ham deduktiv usulni qo'llash orqali yaratiladi. Bunda oliy (yuqori) turkum deduktiv, "quyi"si esa induktiv usulda hosil bo'ladi.

Til birligini tasniflashda ilmiy tasnifning quyidagi falsafiy asosiga tayanish mumkin:

– har qanday murakkab hodisa tasnifi qurilishida ma'lumotni guruhlashtirishning deduktiv va induktiv usulidan foydalanish zarurligi;

– manba (obyekt)ning serqirraligi asosida uning bir necha tasnifda ishtirok eta olishi va unda turli-tuman o'rin ola bilishi;

– har bir tasnifning mantiqiy izchilligi haqidagi ta'limot.

Bu falsafiy asos bizdan har bir leksemaning turli xil ma'no, qurilish, vazifa, grammatik xususiyat va boshqa qirrasini alohida-alohida asosda tuzilgan tasnifda ko'rishni va leksemaning aniqlangan xususiyatini shu leksema mohiyatiga birlashtirishni talab etadi. Zero, tasniflash bu o'rganilayotgan manbaning o'zaro munosabati to'g'risida yangi ma'lumot olish usuli.

Dialektika nuqtayi nazaridan narsa o'zining xilma-xil qirrasi (tomon, xususiyati) asosida turli tasnifda ishtirok eta olishi sababli narsa mohiyati uning turli xil asosdagi tasnifda egallagan o'rnining, bu tasnifida ochiladigan xususiyatining barqaror yig'indisi sifatida talqin etilishi lozim. Dialektikada narsaning munosabati va qirrasi cheksiz bo'lganligi sababli bu mohiyatni hech qachon to'liq o'rgana olmaymiz. Lekin biz qanchalik ko'p asosda narsa tasnifini ko'rib borsak, uning mohiyatiga shunchalik chuqurroq kirib boramiz. Shuning uchun bir narsaning o'zini turlicha asosdagi tasnifda egallagan o'rnini ko'rish,

xususiyatini aniqlash, xilma-xil asosdagi xususiyatini aniqlash, xilma-xil asosdagi xususiyatini narsaning o'zida birlashtirish qarama-qarshi emas, balki dialektikaning narsa mohiyatini ochishga qo'yadigan asosiy talabidan biri. Bu falsafiy qarashni leksema mohiyatini ochishga tatbiq etish bizdan har bir leksemaning rang-barang ma'no, qurilish, vazifa, grammatik xususiyat qirrasini alohida asosda tuzilgan tasnifda aniqlashni va bu tasnifda leksemaning aniqlangan xususiyatini uning mohiyatiga birlashtirishni talab etadi. Buning uchun, eng avvalo, leksema va so'z munosabatini ko'rib chiqish lozim. Tilshunoslik tarixida hodisaga qaysi jihatdan yondashishga ko'ra, so'z va leksemaga turli ta'rif va izoh berilgan.

Leksema – serqirra hodisa. Barcha narsa singari leksema ham serqirra hodisa hisoblanadi. Leksemaning bir qirrasi sifatida uning ma'no xususiyati ham tan olinadi.

Leksema til birligi bo'lganligi uchun ham uning mohiyati faqatgina ma'no munosabati orqali belgilanadigan o'xshashlik (paradigmatik) aloqasi bilangina emas, balki qo'shnichilik (sintagmatik) munosabati asosidagi guruhlanish orqali ham ochib berilishi mumkin.

Leksema nutqda "so'z" shaklida yuzaga chiqar ekan, bunda u grammatik jihatdan tugal shakllangan, ya'ni grammatik morfema bilan birikkan holda namoyon bo'ladi. Albatta, leksema har qanday grammatik morfema bilan birika olmaydi. Shuning uchun **grammatik kategoriya hamda shakl (forma) ga xilma-xil munosabatiga** ko'ra leksemaning yana bir qirrasi aniqlanadi. Chunonchi, o'zbek tilida *"Ochillar chechakdi"* deb bo'lmaydi. Vaholanki, *"Chechaklar ochildi"* – gap. Buning sababi, (ochil) fe'lining (-lar) bilan, (chechak) leksemasining (-di) bilan birika olmasligi va, aksincha, (chechak)ning (-lar) bilan, (ochil)ning (-di) bilan birika olishi. Shu bois qanday grammatik kategoriya va uning shakli ma'nosiga ega bo'la olish, uning qo'shimcha bilan qo'shnichilik (sintagmatik) munosabatiga kirisha olish xususiyatiga serqirra leksemaning qirrasidan biri sifatida qarash lozim bo'ladi.

Leksema nutqda so'z shaklida gap tarkibida ma'lum bir sintaktik bog'lanishda, qurshovda va sintaktik vazifada keladi. Leksemaga "yaxlitlik" (butunlik, substansiallik) nazariyasi asosida yondashsak, **leksemaning gap qurilishida tuta oladigan o'rni** ham uning qirrasidan biri sanaladi.

Biz leksemaning ma'no jihati, o'xshashlik (paradigmatik) va qo'shnichilik (sintagmatik), gap qurilishidagi o'rni kabi atigi uch qirrasini sanab o'tdik. Leksemada bundan boshqa qirra, chunonchi, fonologik tarkib (sostav), qo'llanish doirasi, qo'llanish darajasi va h.k. ham ajratilishi mumkin bo'ladi.

Leksema serqirraligini izchil va qarama-qarshilikdan xoli tasnifning nazariy asosi yuzasidan bildirilgan fikr bilan birlashtirsak, biz uning har bir qirrasi bo'yicha alohida-alohida tasnifni berishimiz hamda leksema guruhini aniqlashimiz lozim bo'ladi. Shu yo'l bilan leksemaning har bir tasnifda tutgan o'rni asosida kashf etgan belgining yig'indisi uning (leksemaning) nisbiy mohiyatini tashkil etishini ravshanroq tushunib yetiladi. Soddaroq qilib aytganda, o'zbek tili leksemasining yuqorida sanab o'tilgan qirrasi asosida uning uch alohida izchil tasnifini beramiz.

Birinchi tasnif: leksemaning ma'no xususiyati asosidagi izchil tasnifi;

ikkinchi tasnif: leksemaning morfologik kategoriya va shaklga munosabati jihatidan tasnifi;

uchinchi tasnif: leksemaning gap qurilishida tuta oladigan o'rni va bajara oladigan vazifasiga ko'ra tasnifi.

Har bir tasnif natijasida leksemaning alohida-alohida **ma'noviy (semantik), morfologik** hamda **sintaktik** guruhi ajratiladi. Ajratiladigan har bir guruh esa nisbiy mustaqil.

Leksemani zamonaviy tasniflash haqida. Leksemaning ma'noviy, sintaktik va morfologik tomoni har bir leksemaning alohida bir qirrasi ekanligi sababli leksemaning ma'noviy, sintaktik va morfologik izchil tasnifi uchun mazkur jihat alohida olingan holda asos bo'lishini ko'rib o'tdik. Biroq bu qirra alohida mustaqil xususiyat bo'lib, har bir leksemada bu uch qirra mavjud, shuning uchun har bir leksemaning mohiyati aniqlanar ekan, uning har uch tomoniga e'tibor berilishi hamda tavsiflanishi zarur. Bundan tashqari, bu qirra har bir tasnifda umumlashtirilishi ham lozim. Chunonchi, *k i t o b* leksemasini tahlil etmoqchi bo'lsak, biz mazkur leksemaning har uch tasnifdagi o'rnini mumkin qadar aniq ko'rsatishimiz darkor: *k i t o b* – ma'noviy jihatdan mustaqil leksema tipi, atovchi leksema sinfi, nomlovchi leksema to'pi, ot turkumi muayyan ot turi, "Fan-madaniyat" mavzu guruhining "O'quv quroli" lug'aviy-ma'noviy guruhi (lug'aviy ma'no guruhi)ning "O'qiladigan buyum" LQ (lug'aviy qator)siga mansub leksema; sintaktik jihatdan bog'lanuvchi, muchalanuvchi, sintaktik vazifasi cheklanmagan leksema; morfologik jihatdan o'zgaruvchi, sonlanuvchi leksema.

Leksemaning bunday uch jihatdan – ma'noviy-grammatik tasniflanishi leksema haqida batafsil, chuqur va bir-birini rad etmaydigan, balki bir-birini to'ldiradigan xulosa chiqarishga imkoniyat beradi hamda an'anaviy o'zbek tilshunosligidagi lisoniy tahlil jarayonida so'zga beriladigan tavsif (tahlili)dan boy va mukammalroq.

Ma'noviy, sintaktik va morfologik izchil tasnif asosida leksemaning quyidagi katta guruhi ajralib chiqadi.

bosqich	Jihat Guruh nomi	Ma'noviy	Sintaktik	Morfologik
I.	Tip	1.Yordamchi 2.Mustaqil	1.Ajraluvchi 2.Bog'lanuvchi	1.O'zgarmas 2.O'zgaruvchi
II.	Sinf	1.Tasvirlovchi 2.Atovchi	1.Muchalanmas 2.Muchalanuvchi	1.Sonlanuvchi 2.Darajalanuvchi 3.Tartiblanuvchi 4.Nisbatlanuvchi
III.	To'p	1.Ishora 2.Nom	1.Cheklangan 2.Cheklanmas	Sintagmatik munosabatiga ko'ra
IV.	Turkum	1.Ot 2.Sifat 3.Son. 4.Fe'l 5.Ravish 6.Modal 7.Undov 8.Taqlid	1.Bog'lovchi 2.Ko'makchi 3.Yuklama	Sintagmatik munosabatiga ko'ra
V.	Tur	Turkum ichida	Turkum ichida	Sintagmatik munosabatiga ko'ra
VI.	Mavzu guruhi	Tur ichida	-	-
VII.	Lug'aviy ma'no guruhi	Mavzu guruhi ichida	-	-
VIII.	Lug'aviy qator	Lug'aviy ma'no guruhi ichida	-	-
IX.	Alohida olingan leksema	Lug'aviy qator ichida	-	-
X.	Leksemaning nutqdagi ma'nosi	Matnda	-	-

Turkumdan quyisi bevosita ma'no xususiyati bilan bog'liqligi va turkumning ichida sodir bo'lganligidan uni bu chizmada aks ettirishning hojati ham yo'q, chunki har bir turkumning ichki mavzu guruhi, uning lug'aviy-ma'noviy guruhi, har bir MG va lug'aviy-ma'noviy guruhda u yoki bu umumiy,

ma'noviy, sintaktik, morfologik belgining yuzaga chiqish xususiyati alohida o'rganilishi lozim bo'ladi.

Jadvaldan shu narsa ayonki, ma'noviy tasnifda bo'linish tipdan to alohida lug'aviy qator va leksema, hatto leksemaning nutqiy bosqichigacha borsa, sintaktik tasnifda t u r k u m, morfologik tasnifda esa s i n f bosqichi bilan cheklanib qoladi. Buning asosiy sababi leksemaning a l o h i d a l i g i, o'ziga xosligi ("unikalligi"), grammatikaning esa "o'ta umumlashtiruvchi" tabiati.

Mazkur jadval turkiyshunoslik va tilshunoslikda tamoman yangi bir hukmni, yangi xulosani chiqarishga imkoniyat beradi. Bu ham bo'lsa, turkiy til, jumladan, o'zbek tilida morfologiyaning sintaksisdan ko'ra umumlashganroq, universal (mushtarak)roq ekanligi haqidagi xulosa. Izchil tasnifda leksemaning ma'noviy bo'linishi 10 bosqich, sintaktik bo'linishi 4 bosqichni o'z ichiga olgan bo'lsa, morfologik tasnif esa atigi 2 bosqichda o'tkazildi. Bu o'zbek tilining (umuman turkiy tilning) agglyutinativ qurilishi va forma yasash shaklining umumiyligi tufayli sodir bo'lsa kerak.

Keltirilgan jadvalning 4-bosqichida rus va o'zbek tilshunosligida an'anaga aylangan so'z turkumining barchasini ko'rish mumkin. Tabiiyki, bu esa an'anaviy tilshunoslikdagi an'anaviy so'z turkumining ajralishida ma'noviy hamda sintaktik asosning ustuvor ahamiyatga ega bo'lganligidan dalolat beradi.

Shuning uchun an'anaviy tilshunoslikka nisbatan so'z turkumi ajralishida sintaktik omil noto'g'ridir, degan fikrni rad etgan holda, bu sohada akademik I.I.Meshchaninovning ilgari surgan fikrini – so'zning guruhlanishida va guruhga ajratilishida, tarixan so'z turkumining shakllanishida ma'no va sintaksis yetakchi o'rin egallamagan, degan fikrini tan olishimizga to'g'ri keladi.

Leksema turkumi tasnifi. Leksemani guruhlashda til o'zining yaxlit sistema ekanligini yana bir bor ta'kidlaydi. U turli sath – ma'noviy, morfologik, sintaktik, hatto fonetik vositadan ham katta iqtisod va yuksak samaradorlik bilan foydalanuvchi qurilma sanaladi. Tilning bosh iqtisodchilik omili shunda namoyon bo'ladiki, bir narsa bilan biror narsani farqlar ekan, o'zining asosiy farqlovchi vositasi bilan kifoyalanib qoladi va boshqa sathning vositasi bilan bu farqlanishni ortiqcha ta'kidlab turmaydi. Shuning uchun ot, sifat, son, fe'l kabi turkumni morfologik jihatdan farqlarkan (ya'ni buning har biriga ma'lum bir tasniflovchi kategoriya biriktirar ekan), bu turkumni qo'shimcha ravishda ma'no va sintaktik jihatdan yana farqlashga kuch sarflab o'tirmaydi, aksincha, uni morfologik jihatdan keskin farqlab, ma'noviy hamda sintaktik jihatdan, aksincha, yaqinlashtiradi. Shuning uchun bu turkumning barchasi tasnif jarayonida bir t o' p g a – n o m l o v c h i l a r t o' p i g a birlashadi. Xuddi shu

sababli bu turkumga oid so'zni ma'no jihatidan farqlash an'anaviy o'zbek tilshunosligida eng chigal to'g'anoqni vujudga keltirgan muammo bo'lib qoldi. Natijada, *o l t i n*ni ot va sifat deylikmi, *ya x sh i*ni sifat, ravish deb baholaylikmi, *o' q i t i sh*ni ot yoki fe'l deylikmi, *ch i n i q q a n*ni fe'lmi, sifatmi? kabi muammo tilshunoslarimizni uzoq vaqt o'ylantirib keldi. Haqiqat esa tamoman boshqa tomonda – morfologik jihatdan farqlanuvchi leksemaning ma'noviy va sintaktik jihatdan o'zaro yaqinlashuvida edi. Demak, bu o'rinda ayni leksema o'zaro farqlanishining asosiy belgisini aniqlab olgandan so'ng boshqa jihatdan uning o'xshashligini aniqlash o'ta muhim. Shuning uchun *o'lmoq, o'ldirish* va *o'lim* so'zi qiyoslanar ekan, birinchi navbatda ular orasidagi ma'noviy farqni emas, balki ular orasidagi morfologik farq hamda ma'noviy va sintaktik o'xshashlikni axtarish kerak. Chunki bu so'z morfologik jihatdan farqlanuvchi bo'lib, ma'no jihatidan holatni turli tarzda yoritadi.

Shu asosda o'zbek tilida ma'noviy, morfologik va sintaktik jihat bo'yicha farqlanuvchi quyidagi leksema turkumini ajratishimiz mumkin: *i s h o r a, u n d o v va t a q l i d l a r* ***s o f m a' n o v i y a s o s d a*** ajratiladi; *o t, s i f a t, s o n, f y e' l l a r* ***s o f m o r f o l o g i k a s o s d a;*** *b o g' l o v c h i, k o' m a k c h i, u n d o v va m o d a l l a r* ***s i n t a k t i k a s o s d a*** ajratiladi. ***R a v i sh*** bu bo'linishdan "qoldiq"ni tashkil qilsa, yu k l a m a boshqa sath birligi – fonetik hodisa sifatida ajratiladi.

Bir turkumdan ikkinchi turkumga o'tish (ko'chish, transpozitsiya) mohiyatan ikki turlidir: lisoniy va nutqiy. Lisoniy ko'chishda ma'lum bir turkum leksemasi lisoniy bosqichga xos bo'lgan ma'noviy, sintaktik yoki morfologik belgi qabul qiladi. Chunonchi, fe'lning **ravishdosh shakllari nisbat** ma'nosini yo'qotsa, ravish **yoki ko'makchiga** aylanadi: ***ko'ra, qarab, yarasha, qaraganda, qarata, -lab*** qo'shimchali barcha ravish: ***er talab, oralab, tonglab, tunlab.***

Sifatdosh ham nisbat ma'nosini yo'qotsa, sifat turkumiga o'tadi: ***c h i n i q q a n – c h i n i q q a n r o q; q o r a y g a n – q o r a y g a n r o q***... Harakat nomi nisbat ma'nosidan mahrum bo'lsa, ot turkumiga o'tadi.

Taqlid nomlash ma'nosini kashf etgach, o t yoki s i f a t turkumiga o'tadi: (chaq-chaq – gurung ma'nosida, ***g u l d u r o s, c h i q-c h i q a, p i c h i r-p i c h i r)***, ot, sifat, son ma'nosining umumlashtirilishi natijasida i s h o r a l a r g a o'tishi mumkin: ***k i s h i, n a r s a, b i r k u n, b u y e r, u y e r.***

Undov atash ma'nosini ifoda etib, o t l a r g a o'tadi: ***d o d, o h, o h u, n o l a.*** Lisoniy ko'chish natijasida ko'p holda shakldosh leksema (aniqrog'i, omoforma) yuzaga keladi. Masalan: *"Ko'ra-ko'ra ko'zi qotdi". "Menga qaraganda, u kattaroq", "Yerga qaraganda yuzi qizardi"* va h. Lisoniy ko'chish

ko'p holda bahs talab qilmasa-da, nutqiy okkazional ko'chish tilshunoslikda qizg'in munozaraga sabab bo'ladi.

O'zbek tilshunosligida egalik, kelishik qo'shimchasini olgan sifat, son, fe'l, ravish, undov, taqlid o t l a s h g a n s o' z l a r sifatida baholanadi.

Bu chalkashlikning boisi egalik va kelishik kategoriyasining asossiz ravishda t a s n i f l o v c h i k a t e g o r i y a l a r t a r k i b i g a kiritilishi. Vaholanki, na egalik, na kelishik kategoriyasi bir turkumdan ikkinchi turkumga ko'chishda omil bo'la oladi; leksema til sathidagi ma'noviy, sintaktik yoki morfologik qobiliyatini nutqda namoyon etar ekan, o'z tabiatining turli qirrasini yuzaga chiqarishi mumkin. Chunonchi, (o l t i n) so'zi gapda e g a bo'lib kelib, predmet ma'nosini ham, a n i q l o v c h i bo'lib kelib, belgi ma'nosini ham ifodalay berishi mumkin. Chunki o t turkumining mohiyatida predmet orqali belgini va belgi orqali predmetni nomlash qobiliyati, gapda har qanday bo'lak bo'la olish imkoniyati mavjud. Shuning uchun:

1.O l t i n – qimmatbaho metall.

2. Do'konda o l t i n soat sotilyapti. Misolning birinchisida [o l t i n] leksemasi belgi orqali predmetni ifodalab, gapda e g a bo'lib kelgan, ikkinchi misolda esa predmet orqali belgini ifodalab, gapda aniqlovchi bo'lib kelgan. Bu yerda hech qanday g'ayrioddiylik (okkazionallik) yo'q. **Ko'chish** (transpozitsiya) esa hamisha g'ayrioddiylik, kuchli uslubiy bo'yoqdorlik bilan bog'liq hodisa.

Shuning uchun *nutqiy transpozitsiya* biror so'z o'zining leksemasiga xos bo'lmagan g'ayrioddiy qurshovda va sharoitda qo'llanilgan taqdirda sodir bo'ladi. Masalan:

1. Endi-pendini qo'ying, shunday bo'lishi shart.
2. To'yib ketdik-ku, "xo'p bo'ladi, bajaramiz"dan!
3. Sozandalar taqir-tuqirini ko'tarib kirib kelishdi.

Shu sababli transpozitsiya doirasi (ko'lami) nutqda behad tor. "Kasal gapirdi. Kasal tuzaldi. Kasal kishidan samarali ishni kutmang" kabi qo'llanishda, "Ko'rganidan xursand bo'ldi. Aytib qolishimdan qo'rqdi" singari holatda transpozitsiya (ko'chish) ni ko'rish til birligining imkoniyat va qobiliyatini o'ta cheklab qo'yish natijasi.

So'zning ma'noviy-grammatik tasnifi. Leksema serqirra mohiyatli lisoniy birlik bo'lib, uning tasnifida bu jihat asosiy diqqat markazida turishi lozim. Chunki leksemaning har bir qirrasi alohida bir tasnifga asos bo'ladi. Uning har biri o'z o'rnida ahamiyatli.

So‘z turkumida leksika va grammatika, lison va nutq, til va borliq munosabati shunday qorishadiki, bu murakkab holat uni tasniflashning jo‘n hodisa emasligini ko‘rsatadi.

So‘z leksika uchun ham, grammatika uchun ham asosiy va zaruriy birlik. Modomiki, so‘z turkumi o‘zida u yoki bu belgisiga ko‘ra ajratilgan so‘z guruhi ekan, uni ajratishga doir muammoni leksika, morfologiya va sintaksis bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchi o‘zicha hal etadi. Bundagi ilmiy bahs, avvalo, turkumga ajratish mezoni, ajratiluvchi guruh soni va uning tarkibi masalasi bilan bog‘liq. Boshqacha aytganda, o‘zbek tilshunosligida asosiy e’tibor so‘z turkumi tasnifiga qaratilib, boshqa bir muhim masala – so‘z turkumining o‘zaro munosabati, uning kesishuv nuqtasi, yaqinlashuvi va uzoqlashuvi ko‘p holda nazardan chetda qolib kelmoqda.

So‘z turkumi soni va tarkibini aniqlashda jahon tilshunosligida bo‘lgani kabi o‘zbek tilshunosligida ham, so‘zning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatini inobatga olish keng tarqalgan. Biroq amaliyotda so‘z turkumini ajratishda, asosan, uning semantik xossasiga tayanish urf bo‘lgan. Ayrim tilshunos tasnifda ma’noviy belgiga bosh va yagona asos sifatida qarashadi. Ba’zilar esa mezon sifatida mazkur uch belgini tan olgani holda so‘zni ma’noviy va sintaktik belgi asosidagina guruhlashadi. So‘z turkumining bir-biriga o‘tishi, leksik va leksik-grammatik omonimiya masalasi esa bunda har xil qarama-qarshilik va ikkilanish yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

So‘z guruhlararo munosabatning ochilishi u yoki bu belgi asosida so‘z turkumining muayyan turini ajratishga, tasnifini berishga olib keladi. Shuning uchun mantiqiy qarama-qarshilikdan qochish maqsadida formal mantiqning borliq hodisasini tasniflashga qo‘yadigan asosiy talabidan biri bo‘lmish “tasnif faqat bir mezon asosida amalga oshirilishi lozim. Inchunun tasnifning ikki belgisini bir paytning o‘zida qo‘llab, uni qorishtirmaslik kerak” degan qoidaga qat’iy rioya qilinishi darkor.

Shunday qilib, so‘z semantik, morfologik va sintaktik belgisi asosida tasnif qilinishi maqsadga muvofiq. Bu uch belgi har bir so‘zda dialektik birlikni tashkil etadimi, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Boshqacha aytganda, ma’lum bir semantikada ma’lum bir morfologik belgi va sintaktik xususiyat mujassamlashganmi? Masalan, predmetni ifodalovchi so‘z (ya’ni predmetlik ma’nosi) son, kelishik, egalik ma’nosiga, shuningdek, subyekt, obyekt ma’nosiga egami? Dalil shuni ko‘rsatadiki, u subyekt, obyekt vazifasida keladi. Shu bilan birgalikda, atributiv vazifada kelib, predmetning belgisini (*tilla uzuk, qum soat*), belgining belgisini (*tovushdan tez, yovdan xavfli*) bildiradi. Belgi

ma’noli so‘z egalik, kelishik affiksini olishi, gapda subyekt, obyekt vazifasida kelishi mumkin (*Olmaning qizili pishdi,Gulning oqidan terdi kabi*).

Semantik-morfologik-sintaktik belgi birligi asosida tasniflash tarafdori bunda yo omonimiya, yo substantizatsiya (otlashish) hodisasini ko‘radi. Chunki bu so‘zda belgi ham, predmetlik ham mushtarak.

So‘zning bayon etilgan semantik xususiyati, ya’ni belgilik va predmetlik ma’nosining birligi shuni ko‘rsatadiki, so‘zning egalik, kelishik affiksi hamda ma’lum bir sintaktik vazifa bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqasi yo‘q. Boshqacha aytganda, egalik, kelishik va, qolaversa, kesimlik affiksi, shuningdek, gapda ma’lum bir sintaktik vazifa bajarish biror so‘z turkumi uchun xususiylashmagan. To‘g‘ri, ayrim so‘z faqat predmetni bildirib, belgi ifodalamaydi (masalan, atoqli ot), ba’zisi esa predmetga ishora qilmasdan, faqat belgi, miqdor (masalan, *ko‘p, oz, bir, ikki*) ifodalashi mumkin. Bu yuqoridagi fikrga monelik qila olmaydi. Chunki u juda oz miqdorda bo‘lib, “predmetlik va belgilik mushtarakligi maydoni”ning chekkasidan o‘rin oladi. Chegaradan o‘rin egallovchi bunday so‘z tasnifda, albatta, qiyinchilik tug‘diradi.Shu boisdan uni sun’iy ravishda u yoki bu turkumga kiritib yuboriladi. Holbuki, bunday birlikning o‘rni ajratilayotgan so‘z turkumining sarhadida. Shu boisdan L.V.Shcherba shunday yozadi: “Faqat guruh markazidagi birlik aniq. So‘z turkumi chegarasidagi oraliq birlik esa hamisha u yoq-bu yoqqa tebranib turadi. Biroq ana shu noaniq, xira va tebranib turuvchi holat tilshunosning diqqatini ko‘proq o‘ziga jalb etmog‘i lozim”.

Agar so‘zda semantik, morfologik va sintaktik belgi butunlikni tashkil etmas ekan, bunda u tasnif asosi bo‘lib xizmat qila olmaydi. Zero, ziddiyatsiz bo‘lish faqat bir asosda amalga oshiriladi. Shuning uchun ayrim manbada, darslik va qo‘llanmada mualliflar so‘zni uch belgi birligi asosida tasnif qilishib, asosan, undan biriga yetakchi, asosiy mezon sifatida tayanishadi, shuningdek bir tasnifning o‘zida tasnif asosini bir necha marta almashtirishadi. Deylik, o‘zbek tilidagi so‘z tasnifida morfologik belgi yetakchilik qiladi. Shu boisdan taqlid mustaqil so‘zning barcha belgisiga ega bo‘lsa-da, morfologik o‘zgarmas so‘z bo‘lganligi uchun nomustaqil so‘z sirasiga kiritib yuborilgan. Yoki gap bo‘lagi sintaktik belgi asosida tasnif etiladi, biroq qo‘shma gap bo‘linishida tasnif sintaktik belgi asosida boshlanib, semantik belgi bilan yakunlanadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, qayd qilingan uch mezondan hammasi ham so‘z guruhini belgilashda bir xil mavqega ega emas, albatta. Bu, avvalo, so‘zning sintaktik vazifasida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Chunki biror bir sintaktik vazifani bajarish imkoniyati barcha mustaqil so‘z turkumida mavjud. Bu vazifa so‘z turkumini farqlash uchun emas, aksincha uni tenglashtirish uchun xizmat

qiladi. Sintaktik vazifa nuqtayi nazaridan mustaqil va yordamchi so'z ajraladi, xolos. Ammo bunda ham yordamchi so'z vazifasida qo'llanadigan ot yoki fe'l haqida gap ketganda, chalkashlik vujudga keladi. Nomustaqil so'zning ichki tasnifida uning sintaktik vazifasini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, muayyan sintaktik munosabatni ifodalash uning mohiyatini, kategorial ma'nosini tashkil etadi.

Morfologik tasnifda so'zning ikki muhim jihati e'tiborga olinadi: so'zning shakl yasalishiga potensial qobiliyati (1) va muayyan grammatik kategorial ma'no ifodalanishining ma'lum bir so'z guruhi bilan bog'liqligi (2). Birinchi jihatga ko'ra, morfologik o'zgaruvchi so'z va morfologik o'zgarmas so'z farqlansa, ikkinchi jihatga ko'ra, so'zning morfologik guruhi (so'z turkumi) ajratiladi.

So'zning semantik tasnifi. Bunda so'z quyidagi guruhga ajraladi:

a) mustaqil lug'aviy ma'noli so'z **(fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid);**

b) nomustaqil lug'aviy ma'noli so'z **(olmosh va so'z-gap);**

v) lug'aviy ma'nosiz so'z **(ko'makchi, bog'lovchi, yuklama).**

Olmosh anglatadigan ma'no u almashtirayotgan so'zning ma'nosi. Shu boisdan u nomustaqil lug'aviy ma'noli so'z sifatida baholanishi lozim. So'z-gap (tasdiq-inkor, taklif, undov va modal so'z) esa hatto bir butun gap vazifasida ham kela oladi. Bu uning lug'aviy ma'nosiz so'zdan farqini ko'rsatadi, biroq kontekst yordamida lug'aviy ma'no anglatadi. Masalan, -Uyga bor. –Mayli. gapida *mayli* so'z-gapi *boraman* so'zi anglatgan lug'aviy ma'noga teng nutqiy ma'noga ega. Biroq bu ma'no mustaqil emas.

So'zning morfologik tasnifi. Bu tasnifga binoan, so'z, aytilganidek, ikki guruhga ajraladi:

a) **o'zgaruvchi leksema;**

b) **o'zgarmas leksema.**

O'zgaruvchi leksema grammatik shaklni qabul qila oladi. O'zgarmas so'z esa bunday xususiyatga ega emas. Bu tasnifda so'zning o'rni quyidagicha:

Leksema

O'zgaruvchi	**O'zgarmas**
Fe'l	Ravish
Ot	Ko'makchi
Sifat	Bog'lovchi
Son	Yuklama
	So'z-gap

O'zgaruvchi so'z uchun tasniflovchi grammatik shakl mavjud. Masalan, otda son, subyektiv baho shakli. fe'lda nisbat, o'zgalovchi, harakat tarzi, sifatda daraja. O'zgarmas so'z bunday shaklga ega emas. Ushbu tasnifda olmosh va taqlidga o'rin berilmagan. Chunki olmosh o'zi ishora qiluvchi barcha mustaqil so'z turkumiga xos o'zgarish tizimiga ega. Shuning uchun olmoshni ot-olmosh, fe'l-olmosh, sifat –olmosh, son-olmosh kabi turi mavjud. Ot-olmosh sonlanadi (son kategoriyasiga ega bo'ladi), fe'l-olmosh nisbatlanadi, tarzlanadi, o'zgalanadi, sifat-olmosh darajalanadi, son-olmosh son shaklini qabul qiladi. Taqlidning esa o'ziga xos morfologik kategoriyasi yo'q. Biroq o'zgarmas so'z ham emas. Taqlidning morfologik kategoriyaga ega bo'lishi gapda uning qanday bo'lak bo'lib kelishi bilan bog'liq. Chunki taqlidda leksemaning hali ajralmagan davrdagi "embrion-diffuz" holati saqlanib qolgan.

Leksemaning sintaktik tasnifi. Leksemaning sintaktik tasnifida, asosan, uning nutqda boshqa leksema bilan bog'lana olish-olmasligi, gap bo'lagi bo'lib kela olish-olmaslik xususiyati o'z aksini topadi.

1. **Gap bo'lagi bo'lishga xoslanmagan so'z**: undov, modal, so'z-gap.
2. **Gap bo'lagi bo'lishga xoslangan so'z**: fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid, olmosh.
3. **Sintaktik aloqa vositasi bo'lishga xoslangan so'z**: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.

So'z-gap boshqa so'z bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi, o'zi mustaqil gap bo'lib kelish qobiliyatiga, ya'ni ajralish xossasiga ega. Mustaqil va yordamchi so'z esa bog'lanish xususiyatiga ega bo'lib, bundan yordamchi gapda alohida bo'lak bo'lib kela olmaydi, balki sintaktik jihatdan bog'lash vazifasini bajaradi. Mustaqil leksema esa mustaqil ravishda gap bo'lagi bo'lib kela oladi.

O'zbek tilida so'z turkumi mazkur belgisi asosida yangicha quyidagi ko'rinishda tartiblanadi:

I. Mustaqil so'z	**II. Yordamchi so'z**	**III. Oraliq so'z**
1.Fe'l.	8. Ko'makchi.	11. So'z-gap.
2.Ot.	9.Bog'lovchi.	
3.Sifat.	10.Yuklama	
4.Son.		
5.Ravish.		
6.Taqlid.		
7.Olmosh.		

2- §. So‘z turkumi ko‘chishi

Ma’lumki, sistem yondashuvda leksemaning atash (denotativ) semasi deganda borliqdagi harakat/holat, narsa-predmet, miqdor, belgi xususiyatini atovchi, nomlovchi sema tushuniladi. Bu semaning har birini mustaqil so‘z turkumi – fe’l harakat/holatni atash semasi, ot narsa-predmet, son miqdor, sifat va ravish belgini atash semasi sifatida bevosita xususiylashtiradi. Atash semasi obyektiv borliq parchasiga muvofiq kelgani bois, leksema sememasi tarkibidagi boshqa sema (vazifa, ifoda)dan muhimroq ahamiyat kasb etadi. Har bir so‘z turkumining muayyan atash semasi mutlaq va doimiymi yoki mustaqil so‘z turkumi orasidagi so‘z turkumining bir-biriga ko‘chish hodisasi (transpozitsiya) ning bunga daxli bormi?

So‘z turkumining ko‘chishi – transpozitsiya deganda ma’lum bir turkumga mansub so‘zning o‘ziga xos bo‘lgan atash, vazifa semasini kuchsizlantirib, boshqa so‘z turkumiga xos semantik va sintaktik belgiga ega bo‘lishi tushuniladi. Turkiy tillarda so‘z turkumi bir-biridan qat’iy chegaralanmaydi, ular o‘rtasida uzviy aloqa bo‘lib bir butun sitemani tashkil etadi. Bu sistema qismi dialektik mantiqdagi «oraliq uchinchi» qonuniyatidan kelib chiqqan holda g i b r i d so‘z sifatida baholanuvchi har ikki siraga xos semantik-grammatik belgini o‘zida saqlovchi, bir turkumdan ikkinchi turkumga ko‘chish bosqichida turuvchi so‘z bilan uzviy bog‘lanadi.

Mustaqil so‘z orasidagi o‘zaro munosabat va uning bir-biriga ko‘chishi leksema sememasidagi evolyutsion taraqqiyot natijasida yuzaga kelib, ko‘chishning nutqiy va lisoniylashgan ko‘rinishi farqlanadi. Nutqiy ko‘chishda nutqiy ko‘chma ma’no ifodalanadi. Masalan, *Birni ko‘rib fikr qil, birni ko‘rib shukur qil* gapida son turkumiga mansub *bir* so‘zi vaqtincha ot turkumi vazifasida kelmoqda va bu o‘tkinchi, nutqiy hodisa. Lisoniy ko‘chishda so‘z bir turkumdan boshqa turkumga butunlay o‘tib ketadi, transpozitsiya hodisasi yuz beradi. Transpozitsiya deyarli barcha mustaqil so‘z orasida, hatto mustaqil va yordamchi so‘z orasida ham kuzatiladi:

1. *Odam, kishi, inson* oti (*zerikib ketdi odam* (men), *hayron qolasan kishi* (men), *dardimni eshitadigan inson* (hech kim) *topilmadi*), bir soni (*bir kishi* (kimdir)), ba’zi sifati (*ba’zilar* (allakimlar) *unday deydi, ba’zilar bunday*) olmoshga;

2. *Yigit, qiz, o‘g‘il, qari, er, xotin, ko‘r, issiq-sovuq (issiq-sovug‘idan xabar olmoq)* sifati, *bordi-keldi, keldi-ketdi, oldi-berdi, ur-yiqit* juft fe’li, *o‘qish, yozish, o‘tmish, qilmish, qidiruv* harakat nomi shakli, *o‘qituvchi, bog‘lovchi, kuzatuvchi* sifatdoshi, *uch, yetti, yigirma, kirk* soni otga;

3. *Kelajak, bo‘lajak* sifatdoshi, *tilla, kumush, taxta (tilla uzuk, asal bola)* oti sifatga;

4. *Charchamasdan (ishlaysan), o‘ylamasdan (gapirda), indamasdan, bilinar-bilinmas* sifatdoshi, *osha, o‘ta, ura, qayta, qo‘yarda-qo‘ymay, ura-sura* ravishdoshi, *erta, indin, kecha, kech, kechqurun, savat-savat, navbatma-navbat* oti ravishga;

5. *Bir* soni, *yakka, yolg‘iz* sifati yuklamaga;

6. *Haqiqatdan, chamasi, mazmuni* oti, *yaxshi, so‘zsiz, tuzuk, to‘g‘ri, tabiiy* sifati, *qani, qalay* olmoshi modal so‘zga;

7. *Bir* soni, *ba’zan* ravishi, *ham* yuklamasi, *bilan* ko‘makchisi bog‘lovchiga;

8. *Ost, ust, old, orqa, tomon, tag, tepa, ich, ora, qosh, lab, yoqa, og‘iz* oti, *qarab, boshlab, ko‘ra, deya, deb, o‘xshab* ravishdoshi, *boshqa, bo‘lak, o‘zga* sifati, *avval, oldin, ilgari, keyin, so‘ng* ravishi ko‘makchiga ko‘chishi o‘zbek tilshunosligida allaqachon tegishli adabiyotda qayd etib o‘tilgan. Sanalganning ayrimi bugungi kunda lisoniylashgan bo‘lsa, ayrimi hali o‘tish bosqichida - nutqiy hodisa sifatida qaralmoqda. Masalan, mavjud grammatikada son turkumining tasnifiy belgisi sanalar ekan, predmetning sanog‘i, tartibini bildirishi, *qancha, nechta, nechanchi* so‘rog‘idan biriga javob bo‘lishi, ot turkumiga mansub so‘z bilan erkin aloqada bo‘lishi va gapda asosan, sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelishi ta’kidlab o‘tiladi. Son lug‘aviy mazmun guruhiga kiruvchi jamlovchi son shaklida son umumiy grammatik ma`nosidan chetlashish holati kuzatiladi.

Ayni paytda jamlovchi sonning *-ov, -ala, -ovlon, -ovlab, -ovlashib* shakli ajratiladi. Qayd etilgan shakldan *-ovlab, -ovlashib* shakli, bizningcha, jamlovchi son shakli emas, balki jamlovchi son o‘zagidan yasalgan ravishdosh shaklidir: *ikki+ov+lash+ib.*

Demak, so‘nggi ikki shakl jamlovchi son shakli sirasidan chiqariladi. Asosiy shakl sifatida *-ov, -ala, -ovlon* ko‘rsatkichi ajratilishi mumkin. Ma’lumki, bundan *-ov, -ala* shakli boshqa son ma’no turidan farqlanib deyarli har doim egalik shakli bilan qo‘llanadi. *-ovlon* shaklli jamlovchi son atash semasi bugungi kunda miqdor emas, balki «qanchadir miqdordagi shaxs» deb qaraladi: *Oltovlon ola bo‘lsa, og‘zidagin oldirar. -ov, -ovlon* shakli barcha son kabi ot bilan birikmaydi, gapda sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelmaydi, sonning so‘rog‘iga javob bo‘lmaydi, hatto mazkur shakl yasaladigan qolip ham nihoyatda unumsiz bo‘lib, barcha son o‘zagidan jamlovchi son yasalmaydi. U ko‘proq otga xos tasnifiy belgini o‘ziga qabul qilmoqda. *-ala* shakli esa sonlik belgisini ham o‘zida birmuncha saqlab turibdi: *uchala bola ham qo‘shni*

qishloqdan ekan. Jamlovchi son shaklidagi semik taraqqiyotni quyidagi chizmada aks ettiramiz:

-ala -ov -ovlon

Ko'rib o'tilganidek, ushbu shakl orasida -ala shaklida sonlik belgisi birmuncha saqlangan, -ovlon shaklida otlik belgisi yaqqollashgan, -ov shaklida har ikki jihat uyg'un bo'lib, mazkur shaklga gibrid so'z sifatida qarash mumkin. *-ov* shakli jamlovchi son shakli orasida, jamlovchi son shaklining o'zi esa ot va son so'z turkumi orasida «oraliq uchinchi» maqomiga ega bo'ladi.

Demak, aytish mumkinki, so'z turkumi orasida muntazam aloqa mavjud bo'lib, bu aloqa til tizimining doimiy o'zgarishdagi, taraqqiyotdagi jonli jarayon ekanligidan dalolat beradi.

3-§. Fe'l, uning grammatik va lug'aviy ma'no turi

Fe'l va uning umumiy grammatik ma'nosi. Fe'lning umumiy grammatik ma'nosi ish-harakat va holatni jarayon sifatida ifodalash. Holat ifodalash boshqa so'z turkumiga ham xos. Biroq fe'lda u bir holatdan ikkinchi holatga o'tish tarzida bo'ladi. Masalan, *Daraxt yam-yashil* gapida sifat kesim (*yam-yashil*) turg'un holatni ifodalamoqda. *Daraxt ko'kardi* gapida esa holat jarayon sifatida, bir holatdan ikkinchi bir holatga o'tish tusida yuz bermoqda.

Ish-harakatning barchasi ham zamon bilan bog'liq holda yuz bersa-da, gapda undagi zamon ifodalanmasligi mumkin. *Daraxt ko'kardi* gapidagi fe'lda zamon lisoniy ifodasiga ega. *Ishga borish* gapidagi fe'lda esa bunday xususiyat lisoniy voqealanmagan.

O'zbek tilidagi fe'l leksik-grammatik xususiyatiga ko'ra ikki asosiy guruhga ega:

a) mustaqil fe'l;

b) nomustaqil fe'l.

Mustaqil fe'lga quyidagi xususiyat xos: 1) lug'aviy ma'no asosidagi harakatni ifodalaydi va shu boisdan gapda biror bo'lak vazifasida keladi; 2) biror so'zni boshqarib (*kitobni o'qidi*) yoki biror so'z tomonidan boshqarilib (*o'qilgan kitob*) keladi; 3) harakatning obyektga munosabatiga ko'ra ikkiga bo'linadi: a) o'timli fe'l; b) o'timsiz fe'l. O'timli fe'l bildirgan harakat obyekt tushunchasi bilan bog'liq bo'ladi va bunda obyektni ifodalovchi birlik tushum kelishigidagi so'z bo'ladi: *ol, o'qi, boshqar.* O'timsiz fe'l bunday xususiyatga ega bo'lmaydi: *yig'la, uxla, sevin.* O'timli-o'timsizlik fe'lning zotiy mohiyatida, lisoniy tabiatli bo'lishi ham, grammatik shakl vositasida hosili qilinishi ham mumkin. Masalan, *uxla, yig'la, bor, ket, kel* fe'lida o'timsizlik ma'nosi fe'lning o'zak-negizidan

anglashiladi va u lisoniy tabiatli. *Yuvinmoq, sevinmoq, burilmoq, qirilmoq* fe'lidagi o'timlilik esa nutqiy bo'lib, grammatik vosita yordamida vujudga kelgan. (Bu haqda yana «Nisbat kategoriyasi» mavzusi ostida so'z yuritiladi); 4) fe'l ifodalagan harakat obyektiv borliq hodisasi bo'lib, uni tilda ifodalashda bevosita inson, so'zlovchi ishtirok etadi. Tilda ifodalangan harakatda, demak, inson munosabati ham mavjud bo'ladi. Bunday munosabat fe'l mayli deb yuritiladi; 5) harakat real yoki irreal bo'lishi ham mumkin. Bunga ko'ra bo'lishli va bo'lishsiz fe'l farqlanadi; 6) har qanday harakat bajaruvchi bilan ham bog'lanadi. Bajaruvchi aniq, noaniq, bitta yoki bir nechta bo'lishi mumkin. Ish-harakatning bajaruvchiga munosabat nuqtayi nazaridan tavsifi fe'l nisbati deb yuritiladi; 7) harakat zamon bilan bog'lanishi mumkin. Mantiqan zamondan tashqaridagi harakat yo'q. Yuqorida tilga olingan *borish* fe'lida zamon bevosita ifodalanmagan. Lekin uni gap ichida olsak (*Ishga borish lozim*), uning kelasi zamonda yuz beradigan harakat ekanligi mantiqan anglashilib turadi. Demak, har qanday fe'lda yo grammatik, yo mantiqiy zamon anglashilib turadi. Modomiki, til qurilishini o'rganayotgan ekanmiz, biz uchun grammatik zamon ahamiyatli. Shu boisdan zamonli va zamonsiz fe'lni farqlaymiz; 8) aytilganidek, borliqda harakat, albatta, bajaruvchi bilan bog'lanadi. Biroq uning tildagi ifodasida grammatik shaxs mavjud bo'lmasligi mumkin. Masalan, *Salim keldi* gapida grammatik shaxs mavjud. U kesimlik shaklida yuzaga chiqqan. Biroq *Salim kelgach* qurilmasida mantiqiy shaxs mavjud bo'lsa-da, u o'z ifodasiga ega emas. Chunki qurilma *men kelgach, sen kelgach* tusini olsa ham, *kelgach* so'zshaklida bajaruvchi qaysi shaxsda ekanligi noaniqligicha qolmoqda. *Salim, men, sen* mantiqiy bajaruvchi, grammatik emas. Bu nutqdagi tuslangan va tuslanmagan fe'lni farqlashni taqozo qiladi.

Tildagi mantiqiy va grammatik jihatni keskin farqlay bilish kerak. Uni qorishtirish har xil chalkashlikka olib keladi, mohiyatni anglashga to'siq bo'ladi.

Nomustaqil fe'l bevosita lug'aviy ifodali harakat ma'nosiga ega emas. Masalan, *qaror qildi, o'qib chiqdi, ishlayotgan ekan* hosilasida *qildi, chiqdi, ekan* birligi oldinda turgan so'zning lug'aviy ma'nosini yo yangilagan, yo modifikatsiya qilgan. Biroq bu fe'ldan ham qandaydir harakat uqilmoqda. Bu harakat derivatsion, grammatik harakatdir, lekin lug'aviy emas. Aniqrog'i, ular o'zidan oldingi so'zning ma'nosiga harakat, jarayon tusini bermoqda.

Nomustaqil fe'l mohiyat e'tibori bilan uchga bo'linadi: a) yordamchi fe'l; b) ko'makchi fe'l; v) to'liqsiz fe'l. Yordamchi fe'l yangi lug'aviy birlik hosil qiladi – so'z yasaydi, ko'makchi fe'l harakat tarzi shaklining bir qismi bo'lib, fe'l lug'aviy ma'nosini nutqqa xoslaydi – modifikatsiya qiladi, to'liqsiz fe'l esa fe'l va fe'l bo'lmagan so'zning zamonini ko'rsatadi.

Fe'lning asosiy lug'aviy-ma'noviy guruhi. Guruhda markaz va qurshov leksemasi. Fe'l anglatgan qator ma'nosiga ko'ra turli mazmuniy guruhga bo'linadi. Bunda harakatga xos yaratish, buzish, o'zgartirish, so'zlash, sezish, yo'naltirish, holatga xos ruhiy-psixologik, tafakkur bilan bog'liq fe'l farqlanadi. Bundan xarakterlisini ko'rib o'tamiz.

Harakat fe'li jonli va jonsiz predmetga xos harakatni ifodalaydi. U yurish, ta'sir etish, zarb berish kabi ko'rinishda bo'lishi mumkin. Qo'l, oyoq, yuz, og'iz, gavda bilan bog'liq harakatda harakatlanuvchi obyekt yaqqol ko'rinib turadi. Oyoq bilan bog'liq harakatni ifodalovchi fe'l: *yurmoq, kezmoq, yo'rg'alamoq, pildiramoq, lapanglamoq, gandiraklamoq, do'qonglamoq, tentiramoq, tepkilamok, tepmoq, toptamoq, depsinmoq, tisarilmoq;* qo'l bilan bog'liq harakatni ifodalovchi fe'l: *urmoq, solmoq, ushlamoq, silamoq, tirnamoq, shapaloqlamoq, chimchilamoq, uqalamoq, qitiqlamoq, changallamoq, mushtlamoq, chertmoq, hovuchlamoq, chapak chalmoq, paxsa qilmoq*;

Yuz, gavda, og'iz, lab, quloq, burun va h. bilan bog'liq harakat ham mavjud.

Nutq fe'li insonning gapirish faoliyati bilan bog'liq harakatni ifodalaydi. *Gapirmoq, so'zlamoq, aytmoq, demoq, bidirlamoq, to'ng'illamoq, g'o'ldiramoq, vaysamoq, vaqillamoq, javramoq, bobillab berdi, javob bermadi, vag'illab ketdi* kabi. ***Holat fe'li.*** Inson tabiatiga xos jismoniy va ruhiy holat turli xususiyatga ega. Holatni to'rtga bo'lish mumkin:

a) ichki holat (ruhiy kechinma bilan bog'liq: *eslash, unutish, yodlash, tubanlashmoq* kabi);

b) tashqi holat (ichki holatning namoyon bo'lishi bilan bog'liq: *xafa bo'lmoq, shodlanmoq, esankiramoq, dovdiramoq,g'azablanmoq*);

v) jismoniy holat (inson tanasi bilan bog'liq: *holsizlanmoq, kuymoq, kuchlanmoq, zaiflashmoq*);

g) ijtimoiy holat (jamiyat bilan bog'liq: *boyimoq, kambag'allashmoq, ko'tarilmok, urilmoq, kuvg'in bo'lmoq* kabi).

Natijali faoliyat fe'li tizimi *yasamoq, qurmoq, bunyod etmoq, hosil bo'lmoq, chizmoq, yozmoq, barpo qilmoq, arralamoq, parchalamoq, sayqal bermoq, randalamoq, sindirmoq, yemoq, o'chirmoq* kabi birlikni o'z ichiga oladi.

Tafakkur fe'li sirasiga insonning fikrlash qobiliyati bilan bog'liq *o'ylamoq, fikrlamoq, xayol surmoq, tafakkur qilmoq, o'yga botmoq, ko'z oldiga keltirmoq, bir qarorga kelmoq, xulosaga kelmoq* kabi kiradi.

Munosabat fe'li qatori *erkalamoq, suymoq, yaxshi ko'rmoq, parvona bo'lmoq, rahmi kelmoq, xushomad qilmoq, yon bosmoq, maftun bo'lmoq,*

e'zozlamoq kabi ijobiy xarakterdagi munosabat fe'li, *beti qursin, xudo olsin, qorasi o'chsin, baloga giriftor bo'lsin, juvonmarg bo'lgur* kabi salbiy xarakterdagi munosabat fe'lidan tashkil topadi.

Fe'l ma'noviy guruhida ham markaz va qurshov leksemasi farqlanadi. Masalan, ma'nodosh fe'lda bosh (dominanta) so'z, uyadoshlik paradigmasida uya (giperonim) markaz leksemasi hisoblansa, boshqa ma'nodosh va uyadosh (giponim) qurshov leksemasi deyiladi. *Kulmoq* fe'li dominanta sifatida bunga ma'nodosh boshqa leksemani, *buzmoq* esa buzishning turli ko'rinishini ifodalaydigan giponim leksemani uyushtirib turadi. So'z yirikroq butunlikka birlashtirilganda, markaz leksemasigina bu butunlikdan joy oladi. Qurshov leksemasi esa uning «soyasi» sifatida quyida qolaveradi. Masalan, *kulmoq, yig'lamoq, xursand bo'lmoq* leksemasi o'z atrofida ko'plab fe'lni birlashtirgan. Lekin u bu uch leksema mansub tizimga kira olmaydi, quyi bosqichda qoladi.

Fe'lda so'zshaklning turi. Fe'lda ham, boshqa turkumda bo'lgani kabi, so'zshakl nol shaklli, sintetik, sintetik-analitik, takroriy ko'rinishda bo'ladi.

Fe'lning grammatik shakldan xoli qilingan o'zak-negizi har doim kelasi zamon, buyruq mayli, aniq nisbat, ikkinchi shaxs, birlik ma'nosini ifodalaydi: *bor, kel, o'qi, yoz, sev, ayt, ishon* kabi. Bunday so'zshakl *nol shaklli* deyiladi. Yuqorida aytilganidek, nol shakl masalasi o'zbek tilshunosligida o'z yechimini kutayotgan muammodan biri.

Grammatik shakli qo'shimcha tusida bo'lgan fe'l *sintetik shaklli* so'zshakl deyiladi. *O'qiyman, bordim, kelyapman, yozayotirman, shoshib, kelgach, kelgan* kabi. Bunda grammatik shakl fe'l o'zak-negiziga «yopishgan» holda.

Fe'l nomustaqil fe'l bilan shakllanganda, albatta, sintetik-analitik ko'rinishda bo'ladi. Masalan, *o'qib chiqdi, ayta boshladi, borgan ekan kabi.* Bunda ham «yopishgan», ham «ajralgan» grammatik shakl yaxlitlikni tashkil qilganligi uchun u *sintetik-analitik shakl* atamasi bilan yuritiladi.

Takroriy shaklni faqat takroriy deyish unchalik to'g'ri emas. Chunki bunda takrorlanayotgan fe'l avval sintetik shakl qiyofasiga kiradi, so'ngra takroriy shaklga aylanadi. Masalan, *aytdi-aytdi, o'qidi-o'qidi, bordi-bordi* kabi. Misol: *Aytib-aytib charchadi, chopib-chopib o'ynadi* va h. Bunda takrorlanuvchi fe'l nisbat, o'zgalovchi, kesimlik shaklini olgan va undan keyin takrorlangan.

Ayrim manbada fe'lning *juft so'zshakl* turi ham ajratilib, unga *aytdi-qo'ydi, topshirdi-qo'ydi* tipidagi misol kiritiladi. Bunga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki juflanayotgan fe'lning ikkalasi ham mustaqil bo'lsa va uning juftlanishidan yangi grammatik ma'no uqilsagina, uni so'zshaklning juftligi deyishga asos bo'lur edi. Bunda esa juftlikning ikkinchi qismi ko'makchi fe'l sifatida grammatik ma'no ifodalash uchungina xizmat qilmoqda.

Fe'lning yasalishi. Fe'l o'ziga xos so'z yasalish tizimiga ega. U asosan affiksatsiya va kompozitsiya usuli bilan yasaladi.

Affiksatsiya usuli. Affiksatsiya usuli keng qamrovli. Bu usul bilan fe'l bo'lmagan so'zdan fe'l yasaladi.

Yasash asosiga qo'shilib, yasama fe'l hosil qiluvchi affiksning so'z yasash darajasi ham turlicha. *-la, -lan, -lashtir, -(a)|r, -(a)y* kabi affiks ancha mahsuldor bo'lib, ko'p miqdorda fe'l hosil qiladi. Bu affiksning har biri turli derivatsion qolip tarkibida fe'l yasaydi.

1. [*ot/sifat/ravish/olmosh/taqlid/undov + la = 1) asosdan anglashigan narsa/predmetga ega holatli qilish harakati; 2) asosdan anglashilgan asbob vositasida bajariladigan harakat; 3) asosdan anglashilgan narsa/predmetni yuzaga keltirish harakati*] qolipi ko'p ma'noli bo'lib, uning hosilasi quyidagicha:

1) *o'g'itla, moyla, betonla, jilovla, kishanla,tikla, tekisla, dumaloqla, to'g'rila, tushovla*;

2) *randala, qaychila, egovla, arrala*;

3) *urug'la, mog'orla, bolala, chuhla, dodla, gumburla, sizla, senla, hozirla* kabi.

2. [*ot/sifat/son + lan/lash + subyektning asosdan anglashilgan belgiga ega bo'lishi harakati*] qolipi tarkibidagi *-lan/lash* affiksi o'zining murakkab tabiati bilan xarakterlanadi.

Zohiran u ikki affiksning birikuvi (*-la+n* va *–la+sh*) dek ko'rinadi. Chunki hozirgi o'zbek adabiy tilida *–la* so'z yasovchi va *-sh* hamda *-n* nisbat shakli faol bo'lib, ko'p holda u birgalikda keladi. Shuningdek, *-lan/lash* affiksida birgalik va o'zlik nisbati ma'nosi ham uqilib turadi (*shodlanmoq, salomlashmoq, afsuslanmoq, ajablanmoq, zavqlanmoq, lazzatlanmoq, janjallashmoq, ravshanlashmoq* kabi). Biroq bu misolda *-lan/lash* affiksini ajratib bo'lmaydi. *Maydalanmoq* kabi fe'lda esa u ajraladi (*mayda+la+n+moq*). Demak, bunda *-la* va *-n* mustaqil affiks.

-lan affiksining aslida *-la* va *-n* affiksining birikuvidan iborat ekanligini sezish qiyin emas.

3. [*taqlid+illa/lra=asos bildirgan tovush yoki obrazni harakat tarzida ifodalash*] qolipi faqat taqlid so'zdan fe'l yasaydi: *chirqillamoq, chirsillamoq, likillamoq, guvillamoq, shuvillamoq, mo'ltillamoq, bezillamoq, yarqiramoq, sirqiramoq, mo'ltiramoq, yaltiramoq.* *–illa* va *–ira* qo'shimchasi orasida ma'noviy farq kuzatilmaydi, balki u qaysi so'zga qo'shilishi bilan farqlanadi, xolos.

4. [*ot/sifat/taqlid+a*] (*oshamoq, qonamoq, o'ynamoq, bo'shamoq, qiynamoq, shildiramoq, jildiramoq*), [*sifat/ravish+(a)y*] (*qoraymoq, toraymoq, ko'paymoq, ozaymoq*), [*sifat+(a)r*] (*o+armoq, ko'karmoq, qisqarmoq, eskirmoq*), [*ot/olmosh+sira*] (*qonsiramoq, suvsiramoq, tuzsiramoq, gumonsiramoq*), [*son/ot/ravish+(i)k/(i)q*] (*birikmoq, yo'liqmoq, kechikmoq, zo'riqmoq*), [*sifat/ot+i*] (*tinchimoq, boyimoq, changimoq*), [*sifat+t*] (*to'latmoq, berkitmoq*) qolipi unumsiz qolip bo'lib, birinchidan, uning hosilasi sanoqli bo'lib, bugungi kunda bu qolip asosida yangi-yangi so'z hosil qilib bo'lmaydi, ikkinchidan, bu hosila davr o'tishi bilan derivatsion ma'nosi jihatidan bir-biridan shu darajada uzoqlashib ketganki, u asosida qolipning o'ng, ya'ni ma'noviy tomonini chiqarib, aniqlab bo'lmaydi. *Kamsitmoq, boshqarmoq, g'ivirmisoq, yo'qolmoq, kuchanmoq, yotsinmoq, qiziqsinmoq* kabi fe'lning ham yasamaligi aniq, lekin undagi affiks ayrim so'z doirasida chegaralangan. Unga nisbatan ham yuqorida aytilgan fikr o'rinli.

Eslatma: *siltala, tortqila, opichla* kabi so'zdagi shakl yasovchi *–la* affiksini fe'l yasovchi *–la* affiksi bilan almashtirmaslik kerak. U omonim affiks.

-kila (-qila, -gila,- g'ila), - imsira, - inqira, sh/ish (*to'lish, qizish, ozish*), *q/iq/k/ik*(*toliq, ko'nik*), -qi/g'i affiksi hozirgi o'zbek adabiy tilida harakatning tarzini (kuchli/kuchsizligi, takroriyligi kabi) bildirganligi uchun shakl yasovchi sifatida qaraladi.

Kompozitsiya usuli. Bu usul vositasida qo'shma va juft fe'l yasaladi.

Qo'shma fe'l. Qo'shma fe'l tarkibiga ko'ra ikkiga bo'linadi: a) ism+fe'l; b) fe'l+fe'l.

Ism+fe'l tipidagi fe'lni hosil qilishda yordamchi fe'l vazifasida *qilmoq, etmoq, aylamoq, bo'lmoq, bermoq, olmoq, topmoq, yemoq, urmoq, ko'rmoq, kelmoq, keltirmoq* kabi birlik keladi: *abgor qilmoq, ado bo'lmoq, ayyuhannos solmoq, javob bermoq, javob olmoq, xalal bermoq, xabar olmoq, qiron solmoq, tartibga keltirmoq, oh urmoq, tush ko'rmoq, qo'nim topmoq* kabi.

O'zbek tilida fe'l+fe'l tipidagi fe'l barmoq bilan sanarli: *sotib olmoq, olib bormoq, olib kelmoq, olib chiqmoq, olib qochmoq, ishlab chiqarmoq kabi.*

Juft fe'l. Juft fe'l grammatik shakliga ko'ra ikki ko'rinishda bo'ladi:

1. Biri ravishdosh shaklida, ikkinchisi boshqa shaklda: *aylanib-o'rgilmoq, yelib-yugurmoq, yayrab-yashnamoq, o'ynab-kulmoq, qo'llab-quvvatlamoq.*

2. Har ikki qismi bir xil shaklda: *aylanib-o'rgilib, o'ylamay-netmay, aralashib-quralashib, achib-bijib, tejab-tergab, qisinib-qimtinib, yuvib-tarab, yayrab-yashnab.*

O'zbek tilshunosligida fe'l ibora bilan qo'shma fe'l chegarasi aniq oydinlashtirilmagan.

Juft fe'l tarkibiy qismining qo'llanishiga ko'ra quyidagi shaklda bo'ladi:

1. Qismi yakka holda ishlatiladigan juft fe'l:

a) qismi o'zaro sinonim: *hormay-tolmay, qo'llab-quvvatlamoq;*

b) qismi o'zaro antonim: *kelib-ketib, o'lib-tirilib, kirib-chiqib, o'tirib-turib;*

v) qismining ma'nosi yaqin: *aylanib-o'rgilmoq, yeb-ichmoq, o'ynab-kulmoq, oshirib-toshirib, yuvib-tarab.*

2. Ikkinchi qismi yakka (mustaqil) ishlatilmaydigan fe'l: *aldab-suldab, yig'lab-siqtab, yamab-yasqab, qolgan-qutgan.*

4.-§. OT, uning grammatik va lug'aviy ma'no guruhi

Ot va uning umumiy grammatik ma'nosi. *Kim, nima, qaer* so'rog'iga javob bo'lib, mavjudot, narsa, joy, voqea, jarayonni atovchi leksik birlik ot deyiladi. «Borliq yoki uning parchasini predmet sifatida atash» ot turkumining umumiy grammatik ma'nosi. Bunda *predmet* tushunchasi mantiqiy emas, balki grammatik mohiyatga ega. Mantiqan jonsiz va bevosita sezgi a'zosiga ta'sir etuvchi narsa predmet deyiladi. Grammatikada esa u keng ma'noda tushuniladi, «mavjudlik» mohiyatiga ega deb qaraladi.

Ot so'z turkumi sifatida o'ziga xos morfologik paradigmaga, so'z yasalish tizimiga, xoslangan sintaktik pozitsiyasiga ega.

Otning umumiy ma'no parchalanishiga ko'ra turi. Otni ma'no jihatidan turlicha tasnif qilish mumkin. Bu o'rinda otning grammatik xususiyatini muayyanlashtiruvchi semantik belgi asosga olinadi. Ot quyidagi semantik xususiyatiga ko'ra tasnif qilinadi:

1. Bir turdagi predmetning birining nomini yoki shu turdagi predmetning umumiy nomini bildirishiga ko'ra.

2. *Kim?* yoki *nima?* so'rog'iga javob bo'lishiga ko'ra.

3. Sanalish-sanalmasligiga ko'ra.

Ot borliqdagi bir turdagi predmetdan birining nomini yoki shu turdagi predmetning umumiy nomini bildirishiga ko'ra, *atoqli* va *turdosh* otga bo'linadi.

Atoqli va turdosh ot. Atoqli ot bir xil predmet yoki hodisaning birini ajratib ko'rsatishga xizmat qiladigan ikkilamchi nom. Masalan, *bola* bir turdagi predmet(shaxs)ning umumiy va birlamchi nomi. *Sherzod* ana shu bir xil predmet(shaxs)dan birini ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiladigan va *bola* atamasidan keyin qo'yilgan ikkilamchi nom.

Atoqli ot quyidagi lug'aviy mavzuviy to'da (LMT) ga ega:

1.Kishining ismi, familiyasi, taxallusi: *Ikrom, Otabek, Jumaev, Xudoynazarov, Imomzoda.*

2.Jo'g'rofiy nom: *O'zbekiston, Dehqonobod, Hisor, Tanxozdaryo.*

3.Tashkilot, muassasa, korxona nomi: *Qarshi universiteti, Xalq ta'limi vazirligi, «Nasaf ziyosi» jurnali.*

4. Samoviy yoritqich nomi: *Mushtariy, Zuhro, Yupiter, Yarqiroq.*

5. Tarixiy hodisa nomi: *Mustaqillik kuni, Loy jangi, Boston choyxo'rligi.*

6. Hayvon nomi: *Boychibor, Brendi, Yo'lbars.*

7. Mahsulot nomi: *Siltama* (ovqat), *Qoraqum* (shokolad) *Chiyali yaxnasi.*

8. Ilohiy tushunchani ifodalovchi nom: *Alloh, Do'zax, Iso, Buroq.*

Atoqli ot matndan, nutq vaziyatidan uzilgan holda atash ma'nosiga ega bo'lmaydi, faqat konteksda reallashadi. Masalan, *Sanam* so'zining atoqli yoki turdosh ekanligi shu so'zni qurshab turgan so'z yordamida anglashiladi. Bu jihatdan atoqli ot olmoshga o'xshab ketadi.

Atoqli otning aksariyati turdosh ot va boshqa turkum so'zi asosida vujudga kelgan. Turdosh otdan: *Asal, Ra'no, Rayhon, Anor*; fe'ldan: *Sotiboldi, O'lmas, Itolmas, Turdi*; sifatdan: *Shirin, Buyuk, Aziz, Ulug'*; sondan: *Yetmishboy, Saksonboy* kabi.

Bir jinsdagi predmetning umumiy nomini bildiruvchi ot *turdosh ot* deyiladi. Turdosh ot ot turkumiga kirgan so'zning asosiy qismini tashkil etadi: *tog', qishloq, mashina, sevgi, muhabbat.* Turdosh otda predmetlik va belgilik xususiyati yaxlitlashgan holda mavjud bo'ladi. Chunki har qanday narsa belgi-xususiyat majmuasi.

Atoqli va turdosh ot nafaqat lug'aviy semantikasi, balki grammatik xususiyati bilan ham farqlanadi. Masalan, atoqli ot, asosan, birlik sonda qo'llanadi. Ko'plik son shaklida butunlay boshqa ma'no bo'yog'iga ega bo'ladi: ***Farhodlar*** *keldi kanal qazmoqqa.*(Turs.)

Turdosh ot atoqli otdan hosil bo'lishi ham mumkin: *muslimka, xosiyatxon, rentgen, amper.*

Turdosh ot ifodalangan tushunchaning xarakteriga ko'ra: a) muayyan va b) mavhum otga bo'linadi.

Muayyan va mavhum ot. Sezgi a'zosi bilan sezish mumkin bo'lgan predmetni atovchi ot muayyan ot deyiladi. Muayyan otni bevosita sanash mumkin. Shuning uchun bunday ot sanoq son bilan munosabatga kirishadi. Shuningdek, shaxsiy baho shakli, ko'plik qo'shimchasini olishi mumkin: *beshta daftar, yuzlab odam, o'g'ilcha, qizgina.*

Muayyan ot quyidagi lug'aviy mavzuviy to'daga ega:

1. Modda nomi: *oltin, kumush, qum, suv.*

2. Shaxs tavsifi nomi: *yigit, chol, o'zbek, tojik, cho'loq, kasal, ota, ona.*

3. Buyum nomi: *qalam, kitob, cho'mich, kosa, gilam, sholcha.*

4. O'simlik nomi: *daraxt, buta, o't, jiyda, ildiz.*

5. O'rin-joy nomi: *qishloq, shahar, sahro, a.*

6. Miqdor nomi: *misqol, tonna, botmon, chaqirim.*

7. Tashkilot va muassasa nomi: *maktab, idora, do'kon, bozor.*

8. Vaqt-payt nomi: *kun, fasl, tong, kecha.*

Bu har bir lug'aviy mavzuviy to'da o'z ichida bir necha lug'aviy-ma'noviy guruh (LMG) ga bo'linib ketadi. Masalan, shaxs tavsifi nomi quyidagi lug'aviy-ma'noviy guruhga ajraladi:

1. Shaxsni yosh jihatdan tavsiflovchi lug'aviy-ma'noviy guruh: *chol, qari, o'smir, o'spirin.*

2. Shaxsni qarindoshlik jihatdan tavsiflovchi lug'aviy-ma'noviy guruh: *opa, ona, singil, egachi, buvi.*

3. Shaxsni kasb jihatdan tavsiflovchi lug'aviy-ma'noviy guruh: *ishchi, dallol, dehqon, suvchi, mirob.*

4. Shaxsni istiqomat jihatdan tavsiflovchi lug'aviy-ma'noviy guruh: *qishloqi, toshkentlik, shaharlik.*

5. Shaxsni tashqi belgisi jihatdan tavsiflovchi lug'aviy-ma'noviy guruh: *bukri, novcha, pakana;*

6. Shaxsni ruhiy holati jihatdan tavsiflovchi lug'aviy-ma'noviy guruh: *jinni, ovsar, dovdir, ezma.*

7. Shaxsni ijtimoiy jihatdan tavsiflovchi lug'aviy-ma'noviy guruh: *boy, kambag'al, xasis, ziqna.*

Boshqa lug'aviy mavzuviy to'da ham shunday lug'aviy-ma'noviy guruhga bo'linadi. Masalan, «Hayvon nomi» lug'aviy mavzuviy to'dasi lug'aviy-ma'noviy guruhi: qoramol lug'aviy-ma'noviy guruh, ot lug'aviy-ma'noviy guruh, qo'y lug'aviy-ma'noviy guruh, echki lug'aviy-ma'noviy guruh, it lug'aviy-ma'noviy guruh, eshak lug'aviy-ma'noviy guruh, tovuq lug'aviy-ma'noviy guruh va h.

Muayyan ot lug'aviy-ma'noviy guruhi nisbatan barqaror va o'ta keng, deyarli cheklanmagan va o'zgaruvchan qurshovdan iborat. lug'aviy-ma'noviy guruh markazidagi leksema o'zaro giponimik, partonimik, graduonimik, funksionimik, ierarxionimik munosabatida yashaydi. Masalan, *daraxt* leksemasi quyidagi jins-tur munosabatida yashaydi: *qayin, tol, o'rik, terak, majnuntol, archa.* Funksionimik asosda tuzilgan lug'aviy-ma'noviy guruh ancha oz: *qalam, ruchka.*

Shaxs tavsifi oti esa keng graduonimik munosabatga egaligi bilan ajralib turadi.

Mavhum ot turli narsada mavjud bo'lgan bir xil yoki o'xshash sifatni bir alohidalik tarzida ifoda etadi. Masalan, *olma, qovun, shakar, qand* otining muhim sifat belgisi «shirinlik» bo'lsa, *shirinlik* mavhum otida yuqoridagi narsada mavjud bo'lgan umumiy belgi bir alohidalik sifatida beriladi. Shuning uchun muayyan va mavhum otning farqli tomoni faqatgina uning haqiqiy (*kitob, olma, eshik*) yoki xayoliy (*sevgi, ishq, shirinlik*), umumiy va yakka narsani ifodalashida emas, balki belgi, sifat ma'nosining qay usulda talqin etilishi ham.

Ot birlik shaklda bir turdagi predmetning o'zini (*yakka ot*) yoki predmet to'dasini (*jamlovchi ot*) bildirishiga ko'ra ham farqlanadi.

Yakka va jamlovchi ot. Bir turdagi predmetning o'zini bildiruvchi ot yakka ot deyiladi: *kitob, uy, daraxt.* Jamlovchi ot birlik shaklda ham predmet majmuini anglatadi: *armiya, ko'pchilik, xalq.* Lekin bunday ot semantik ko'plikda bo'lsa-da, grammatik birlikda deyiladi.

Otning yasalishi. Ot ikki xil – *affiksatsiya* va *kompozitsiya* usuli bilan yasaladi. Shunga muvofiq, ot yasashning affiksal va kompozitsion qolipi mavjud. Bu qolip ham o'z o'rnida unumli, unumsiz: mahsuldor va kammahsul turga bo'linadi.

Ot yasovchi qolipning aksariyati ko'p ma'noli qolip. Quyida uni ko'rib o'tamiz.

Affiksatsiya usuli bilan ot yasalishi.

-chi affiksli **[ot + -chi = *1*)** asosdan anglashilgan narsa bilan bog'liq kasb, mutaxassislik bilan shug'ullanuvchi shaxs oti; *2*) asosdan anglashilgan ish/harakat/hodisa bilan shug'ullanuvchi shaxs oti; *3*) asosdan anglashilgan ish-harakat, faoliyatda qatnashuvchi shaxs oti; *4*) ish-faoliyatda biror oqim, maslak va sh.k. tarafdori, shunga mansub bo'lgan shaxsni bildiruvchi ot; *5*) asosdan anglashilgan hodisani, ish-harakatni bajarish odati kuchli bo'lgan shaxsni bildiruvchi ot] qolipi quyidagi hosilani beradi:

1) *sportchi, dutorchi, kashtachi, shaxmatchi, bufetchi, matbaachi;*

2) *xabarchi, maslahatchi, terimchi, yordamchi, himoyachi, davomchi;*

3) *jangchi, isyonchi, hasharchi, muzokarachi, sayrchi, obunachi;*

4) *respublikachi, muxtoriyatchi, paxtakorchi, tursunoychi;*

5) *to'polonchi, buzg'unchi, tavakkalchi, ginachi, uyquchi, lofchi, kekchi.*

Ko'rinadiki, bu qolip polisemantik va polifunksional bo'lib, har bir ma'nosi yana bir necha ma'no turiga bo'linib ketadi.

-shunos affiksli **[ot + *-shunos* = q asosdan anglashilgan sohani o'rganuvchi mutaxassis]** qolipi bir ma'noli bo'lib, u quyidagi hosilani beradi: *adabiyotshunos, tilshunos, tarixshunos, o'lkashunos, musiqashunos* kabi.

-kor affiksli ikkita qolip mavjud: a) **[aniq ot + *-kor* + asosdan anglashilgan narsa/predmetni yetishtirish bilan shug'ullanuvchi shaxs oti]** (*paxtakor, lavlagikor, sholikor, g'allakor*) va b) **[mavhum ot + *-kor* = asosdan anglashilgan ish-harakat bilan shug'ullanuvchi shaxs]** (*madadkor, xiyonatkor, gunohkor, tajovuzkor, tashabbuskor, ijodkor, xizmatkor*).

-kash affiksli qolip ham ikki ma'nolidir: a) **[ot + *-kash* = *1*) asosdan anglashilgan ish, mashg'ulot bilan shug'ullanuvchi shaxs oti; b) asosdan anglashilgan ishni bajarish odati kuchli bo'lgan shaxs oti]**: a) *zambilkash, kirakash, loykash, paxsakash*; b) *janjalkash, hazilkash.*

Quyida boshqa affiksli qolipni misoli bilan sanab o'tamiz.

[o'quv oti+*-xon* = asosdan anglashilgan narsa/predmetni doimiy mutolaa qiluvchi shaxs oti] (*gazetxon, kitobxon, jurnalxon, duoxon*). **[ot + -do'z = asosdan anglashilgan narsa/predmetni tikuvchi shaxs oti]** (*etikdo'z, mahsido'z, mo'ynado'z, do'ppido'z*). **[ot + -gar = asosdan anglashilgan narsa/predmet bilan bog'liq kasbni qiluvchi shaxs oti]** (*zargar, sovungar, savdogar*), **[ot +. -soz = asosdan anglashilgan narsa/predmetni yaratuvchi, tuzatuvchi shaxs oti]** (*soatsoz, stanoksoz, asbobsoz*), **[ot + -paz = asosdan anglashilgan taomni tayyorlov shaxs oti]** (*oshpaz, somsapaz, mantipaz, kabobpaz*), **[ot + -boz = asosdan anglashilgan ish/harakat bilan ko'p shug'ullanuvchi, unga berilgan shaxs oti]** (*majlisboz, arizaboz, maishatboz, safsataboz, va'daboz, guruhboz, kaptarboz, bedanaboz*), **[ot + -xo'r = asosdan anglashilgan yegulik, ichimlikni doimiy iste'mol qiluvchi shaxs oti]** (*norinxo'r, aroqxo'r, nafaqaxo'r, choyxo'r*). **[ot + -parast = asosdan anglashilgan narsaga e'tiqod qiluvchi shaxs oti]** (*butparast, mayparast, shaxsiyatparast, maishatparast*), **[ot + -go'y = asosdan anglashilgan ish/harakat, hodisani doim bajarib turadigan shaxs oti]** (*maslahatgo'y, duogo'y, xushomadgo'y, nasihatgo'y, labbaygo'y*), **[ot + -dor = asosdan anglashilgan narsa/predmetga ega bo'lgan shaxs oti]** (*bog'dor, quldor, do'kondor*), **[ot + -bon = asosdan anglashilgan narsa/predmetga qarovchi shaxs oti]** (*bog'bon, saroybon, darvozabon*), **[ot + -furush = asosdan anglashilgan narsa/predmetni sotish bilan shug'ullanuvchi shaxs oti]** (*chitfurush, nosfurush, mevafurush*), **[ot + -dosh = asosdan anglashilgan narsa/predmetga bir xil aloqador bo'lgan shaxs oti]** (*qayg'udosh, musobaqadosh, suhbatdosh, zamondosh*), **[ot + -vachcha = asosdan anglashilgan shaxsga qarashli farzand ma'nosidagi shaxs oti]** (*boyvachcha, gadoyvachcha, to'ravachcha, tog'avachcha, xolavachcha, ammavachcha, itvachcha*), **[ham + ot = asosdan anglashilgan narsa/predmetga aloqador shaxs oti]** (*hamshahar, hamsuhbat, hamkurs, hamkasb*), **a) [sifat/ravish + -lik =**

asosdan anglashilgan belgi oti] (*sariqlik, tezlik, bema'nilik, yoshlik,*), **b) [ot + -lik = asosdan anglashilgan narsa/predmetni umumlashtirib, holat tarzida ifodalovchi mansublik oti]** (*otalik, o'qituvchilik, ginaxonlik, va'dabozlik, rayonlik, shaharlik, urug'lik, kiyimlik, muzlik, botqoqlik*), **[ot + -chilik = *1*) asosdan anglashilgan narsa yetishtiriladigan soha oti; *2*) asosdan anglashilgan narsa/hodisaning borlik holatini anglatuvchi ot; *3*) asosdan anglashilgan narsa bilan bog'lanuvchi holat oti; *4*) biror ish-hodisaning sababi asosdan anglashilgan narsa ekanini bildiruvchi ot]** (1) *paxtachilik, urug'chilik, chorvachilik*; 2) *pishiqchilik, to'kinchilik, qattiqchilik*). *3*) *ulfatchilik, tirikchilik, maynabozchilik, o'rtoqchilik*; 4) *yurtchilik, o'zbekchilik, ro'zg'orchilik*). **[ot + -garchilik = asosdan anglashilgan belgi, holat, harakat-hodisaga aloqador bo'lgan oti]** (*oliftagarchilik, namgarchilik, isrofgarchilik*). **[ot + -zor = asosdan anglashilgan narsa ko'p bo'ladigan joy oti]** (*olmazor, qaroqchizor, paxtazor, ajriqzor*). **[qum, tosh, o't + -loq = asosdan anglashilgan narsa/predmet ko'p bo'ladigan joy oti]** (*o'tloq, qumloq, toshloq*). **[ot + -iston = asosdan anglashilgan narsa/predmetga boy joy oti]** (*O'zbekiston, guliston*).

Shunday ot yasash qolipi borki, undan bugungi kunda yangi so'z yasalmaydi. Hosilaning barchasi lisoniy xarakterga ega. **[ot + -goh = asosdan anglashilgan ish-harakat bajarilgan joy oti]** (*sayilgoh, ayshgoh, manzilgoh*). **[ot + -don = asosdan anglashilgan narsa/predmet saqlanadigan predmetni ifodalovchi ot]** (*qalamdon, tuzdon, kuldon*). **[ot + -xona = asosdan anglashilgan ish-harakatga mo'ljallangan joy oti]** (*ishxona, qabulxona, choyxona, oshxona*). **[ot + -obod = asosdan anglashilgan narsa/predmet obod qilgan joy oti]** (*Dehqonobod, Mehnatobod*). **[ot + -noma= asosdan anglashilgan narsa/predmetni ifodalovchi ot]** (*arznoma, taklifnoma, sayohatnoma*).

-k(-ik/-ak), -q(-iq, -uq, -oq) (*kekirik, ko'rik, og'riq, qaviq, buyruq, qiynoq, o'roq*), *-k/q* (*-iq, -ik*) (*to'shak, qayroq,, elak*), *-gi* (*ki/g'i/qi/g'u*) (*sevgi, kulgi, supurgi, chopqi, achitqi, yonilg'i, tomizg'i*). *-m*(*-im/-um*) (*chidam, to'plam, unum, tuzum, chiqim, qo'nim, kechirim*), *-ma* (*uyushma, birlashma, dimlama*), *-qin/g'in* (*toshqin, to'lqin, bosqin, tutqun, qochqin, yong'in*), *-in/-un* (*ekin, yog'in, yig'in, bo'g'in, tugun*), *-(i)ndi* (*cho'kindi, yuvindi, chirindi, supurindi, sirqindi, yig'indi*), *-gich* (*g'ich/kich/qich*) (*o'lchagich, purkagich, o'chirgich, qashlagich, eritkich, savag'ich*), *-ch, -inch* (*quvonch, o'kinch, qo'rqinch, sevinch*), *-machoq* (*bekinmachoq, tortishmachoq, quvlashmachoq*), *-ak/oq* (*sharsharak, bizbizak, pirpirak, g'urrak, tartarak*), *-ildoq* (shaqildoq, hiqildoq, chirildoq, pirildoq), *-a* (*sharshara, g'arg'ara*), *-os*

(*chuvvos, sharros, gulduros*) qo'shimchasi ishtirok etuvchi derivatsion qolipi kam unum bo'lib, u bugungi kunda hosila bermaydi. Shu boisdan qolipning mazmuniy tomonini uning hosilasidan umumlashtirib bo'lmaydi.

-ish, -uv/ov, -uvchi/ovchi affiksli *qurilish, kirish, chiqish, uchrashuv, kechuv, maqtov, chanqov, uchuvchi, haydovchi, tinglovchi, sotuvchi* so'zini ham yasama so'z sifatida qarash holi uchrab turadi. Bunda u aslida so'zshaklning leksemalashuvi hodisasi ekanligini esda tutish lozim.

Kompozitsiya usuli bilan qo'shma va juft ot ot hosil qilinadi: *toshko'mir, tuyaqush, karnaygul, oybolta, ko'kkarg'a, qoraqurt, mingoyoq, qo'ziqorin, ota-ona, qozon-tovoq, qizilishton.*

Qo'shma ot:

1. Ot+ot: *ajdargul, ayiqtovon, atirgul, kinolenta, xontaxta, xo'rozqand, toshbo'ron, sochpopuk, shakarqamish, qo'ypechak, qo'larrra, temir yo'l, piyozdog', O'rta Chirchiq.*

2. Sifat+ot: *kaltakesak, Markaziy Osiyo, Sho'rko'l, ko'ksulton, ko'rsichqon, sassiqpopishak, qoradori.*

3. Ot+fe'l: *echkiemar, ko'zboylog'ich, kallakesar, husnbuzar, beshiktervatar, socho'sar, dunyoqarash.*

4. Son+ot: *beshbarmoq, beshqarsak, Yettisuv, Oltiariq, uchburchak, mingoyoq, qirqog'ayni.*

5. Son+fe'l: *beshotar, birqoqar.*

6. Ot+sifat: *ustabuzarmon, gulbeor, oshko'k.*

7. Fe'l+fe'l: *iskabtopar, ishlab chiqarish.*

8. Fe'l+ot: *savacho'p.*

Juft ot. Juft ot [ot+ot], [sifat+ot] kabi qolip, shuningdek, boshqa turkumga oid juft so'zning otga ko'chishidan vujudga keladi. Juft ot tarkibiga ko'ra quyidagi ko'rinishga ega.

I. Har ikki qismi mustaqil holda ham ishlatiladigan juft ot:

1. Qismi o'zaro sinonim: *azob-uqubat, aysh-ishrat, dori-darmon, baxt-saodat, zeb-ziynat, izzat-ikrom, izzat-hurmat, kayf-safo, makr-hiyla, nasl-nasab, pand-o'git.*

2. Qismi o'zaro antonim: *avra-astar, avlod-ajdod, achchiq-chuchuk, bordi-keldi, bosh-oyoq, er-xotin, o'g'il-qiz, savol-javob, salom-alik, qulf-kalit.*

3. Qismining ma'nosi yaqin: *ariq-zovur, baxt-taxt, baqir-chaqir, boj-xiroj, bosh-ko'z, dev-pari, sovg'a-salom, o'q-dori, qovoq-tumshuq, hisob-kitob, hol-jon, qo'y-qo'zi.*

II. Qismidan biri mustaqil holda ishlatilmaydigan juft ot: *aldam-quldam, bozor-o'char, bola-baqra, qo'ni-qo'shni, latta-putta, yig'i-sig'i, maza-matra, mehmon-izlom, irim-sirim.*

III. Har ikki qismi ham mustaqil ishlatilmaydigan juft ot: *adi-badi, ashqol-dashqol, zer-zabar, shikast-rext, ikir-chikir, lash-lush, qalang'i-qasang'i, mirqinboy-shirqinboy, ya'juj-ma'juj.*

5-§. Sifat, uning grammatik va lug'aviy ma'no guruhi

Sifat va uning umumiy grammatik ma'nosi. Asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildiruvchi so'z sifat deyiladi: *qizil qalam, oq kabutar, yaxshi gapirmoq.*

Boshqa so'z turkumi ham belgi ifodalaydi. Ammo sifat barqaror va turg'un belgi ifodalashi jihatidan undan ajralib turadi. Masalan, *Gul qizil* deganda turg'un (statik) belgi, *Gul qizardi* deganda esa o'zgaruvchi (dinamik) belgi namoyon bo'lgan. Sifat anglatadigan belgi boshqa turkum anglatadigan belgidan darajalanish xususiyati bilan farqlanadi. Masalan, *qizg'ish-qizil-qip-qizil.* Boshqa turkum anglatuvchi belgida esa bunday xususiyat yo'q. Sifat gapda asosan sifatlovchi aniqlovchi, qisman kesim, hol vazifasida keladi.

Shu asosda sifatning umumiy grammatik ma'nosini «asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildirib, gapda asosan sifatlovchi aniqlovchi, ba'zan kesim, ayrim holda hol vazifasida kelish» ko'rinishida tiklash mumkin.

Belgi tushunchasi o'z ichiga rang-tus, hajm-shakl, xarakter, vazn, maza kabini qamrab oladi. Belgining xususiyatiga ko'ra sifat ikkiga bo'linadi: *asliy sifat* va *nisbiy sifat.*

Asliy sifat predmetning turg'un, nisbatlanmaydigan va darajalanadigan belgisini ifodalaydi: *qizil, sariq, katta, ko'p, oz.*

Nisbiy sifat belgini qandaydir bir predmet, belgi, miqdor, o'rin va harakatga nisbatan ifodalaydi: ***moddiy** yordam, **siniq** piyola, **burchakdagi** o'tirgich.* Nisbiy sifatda darajalanish, qiyoslanish bo'lmaydi.

Asliy sifatning barchasida daraja shakli, ayrimida ozaytirma va kuchaytirma shakl bor.

Asliy sifat bildirgan belgining darajasi har xil bo'lishi mumkin. *Daraja kategoriyasi* (DK) sifat ifodalagan belgining shu nuqtayi nazaridan tavsifini beradi.

Sifat lug'aviy-ma'noviy guruhi. Darslik va qo'llanmada sifatning 9 ta lug'aviy-ma'noviy guruh ajratiladi:

1.Xususiyat bildiruvchi sifat. 2.Holat bildiruvchi sifat. 3.Shakl bildiruvchi sifat. 4.Rang-tus bildiruvchi sifat. 5.Maza-ta`m bildiruvchi sifat. 6.Hid bildiruvchi sifat. 7.O'lchov bildiruvchi sifat. 8.O'rin bildiruvchi sifat. 9.Payt bildiruvchi sifat.

Quyida uning har birini alohida-alohida ko'rib o'tamiz.

Xususiyat bildiruvchi sifat narsa/mavjudotning xarakter xususiyatini ifodalashda ko'p qo'llanadi: *yoqimtoy, badjahl, muloyim, dilkash, yaxshi, yomon, loqayd* kabi. Xarakter-xususiyat ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin.

Holat bildiruvchi sifat narsa/mavjudotning holat yoki vaziyatini turg'un belgi sifatida ifodalaydi. Holat bildiruvchi sifat o'z o'rnida yana ichki guruhga bo'linadi:

1)tabiiy holat bildiruvchi sifat: *go'zal, mo'min, o'ktam, cho'loq, bukir.*

2)jismoniy holat bildiruvchi sifat: *bardam, baquvvat, tetik, yosh.*

3)ruhiy holat bildiruvchi sifat: *xafa, g'amgin, ma'yus, xursand, shod.*

4)iqtisodiy holat bildiruvchi sifat: *boy, badavlat, kambag'al, nochor.*

5)harorat holatini bildiruvchi sifat: *iliq, salqin, sovuq, issiq.*

6)tozalik holatini bildiruvchi sifat: *toza, ozoda, kir, musaffo, isqirt.*

7)eskilik, yangilik holatini bildiruvchi sifat: *yangi, eski, ko'hna, juldur.*

8)ho'l-quruqlik holatini bildiruvchi sifat: *ho'l, quruq, nam, namxush.*

9)tinch va notinch holatni bildiruvchi sifat: *tinch, jim, jimjit, sokin, osuda, osoyishta, bezovta.*

10)etilganlik holatini bildiruvchi sifat: *xom, pishiq, g'o'r, puxta.*

Shakl bildiruvchi sifat. Bu turdagi sifat narsa/predmetning tashqi ko'rinishini ifodalaydi: *novcha, yassi, uzunchoq, dumaloq, yapaloq, aylana.*

Rang-tus bildiruvchi sifat: *oq, qora, qizil, pushti, sariq, zangor.*

Maza-ta'm bildiruvchi sifat: *shirin, achchiq, nordon, taxir, sho'r.*

Hid bildiruvchi sifat: *xushbo'y, badbo'y, qo'lansa.*

O'lchov bildiruvchi sifat: *keng, tor, uzun, yaqin, katta, og'ir.*

O'rin bildiruvchi sifat: *ichki, tashqi, devoriy, qishloqi.*

Payt bildiruvchi sifat: *kuzgi, yozgi, qishki, ertachi, chillaki, ertapishar.*

Sifatning yasalishi. Sifat ikki usul bilan yasaladi: *affiksatsiya* va *kompozitsiya* usuli.

Affiksatsiya usuli. O'zbek tilida sifat yasovchi affiksal derivatsion qolip anchagina. Uni birma–bir sanab o'tamiz.

1. **[ot + -li = 1) asosdan anglashilgan narsa/predmetga egalik belgisini bildiruvchi sifat; 2) asosdan anglashilgan narsa/predmetga me'yordan ortiq egalik belgisini bildiruvchi sifat;]** (1) *rasmli, do'ppili, masxarali, gavdali; 2) aqlli, gavdali, kuchli*),

2. **[harakat nomi + -li = narsa/predmetning fe'ldan anglashilgan ish-harakat uchun juda mosligi, bopligini bildiruvchi sifat]** (*o'tirishli, yeyishli, ichishli*).

3. **[ot + -dor= 1) asosdan anglashilgan narsa-predmetga egalik belgisini bildiruvchi sifat; 2) asosdan anglashilgan narsaning me'yordan ortiqligini bildiruvchi sifat]** (1)*aloqador, aybdor, manfaatdor*; 2)*mahsuldor, nasldor, to'shdor*).

4. **[ser + ot = asosdan anglashilgan narsaning me'yordan ortiqligini bildiruvchi sifat]** (*sersoqol, sersuv, sergo'sht, sersomon*).

5. **[be + ot = asosdan anglashilgan narsaning yo'q ekanligini bildiruvchi sifat]** (*bemajol, bedin, beg'ubor*).

6. **[ba + ot = asosdan anglashilgan narsaning me'yordan ortiqligini bildiruvchi sifat]** (*basavlat, baquvvat, sersavlat*).

7. **[no + ot = 1) asosdan anglashilgan narsaga ega emaslikni bildiruvchi sifat; 2 asosdan anglashilgan belgiga qarama-qarshi belgini bildiruvchi sifat)]** 1) *noumid, noinsof, noo'rin; 2) nomard, noma'lum, nomunosib*).

8. **[sifat + -chan = asosdan anglashilgan xususiyatga moyillikni bildiruvchi sifat]** (*kurashchan, yashovchan, unutuvchan*).

9. **[fe'l + -choq/chiq/chak = asosdan anglashilgan harakatni bajarishga moyillikning kuchliligini bildiruvchi sifat]** (*urinchoq, kuyinchak, totinchoq, qizg'anchiq*).

10. **[fe'l + -qoq/g'oq = asosdan anglashilgan harakatni bajarishga moyillikning kuchliligini bildiruvchi sifat]** (*uyushqoq, tirishqoq, yopishqoq*).

11. **[fe'l + -ag'on = asosdan anglashilgan harakatni bajarishga moyillikning kuchliligini bildiruvchi sifat]** (*topag'on, chopag'on, qopag'on*).

12. **[fe'l + -mon = asosdan anglashilgan harakatni bajarishga moyillikning kuchliligini bildiruvchi sifat]** (*toparmon, bilarmon, yeyarmon*).

13. **[fe'l/taqlid + -ki(qi) = asosdan anglashilgan harakatni bajarishga moyillikning kuchliligini bildiruvchi sifat]** (*shartaki, jirtaki, yig'loqi*).

14. **[fe'l + -k/-q/-g' =asosdan anglashilgan harakat natijasi sifatidagi holat belgisini bildiruvchi sifat]** (*egik, buzuq, yorug'*).

15. **[fe'l + -kin/qin/g'in/g'un = asosdan anglashilgan harakatni belgiga aylantirish]** (*tushkun, turg'un, ozg'in/so'lg'in*).

16. **[fe'l + -ma = 1) predmetning asosdan anglashilgan harakat usuli bilan yuzaga kelish belgisini bildiruvchi sifat; 2) fe'ldan anglashilgan harakat predmetning odatdagi, unga xos belgisi ekanligini bildiruvchi sifat]**

(*1) qovurma, ag'darma, qisqartma, ivitma, buyurtma; 2) ko'chma, burama, og'ma, sochma*).

17. **[fe'l + -(a)rli = shaxs/predmetning asosdan anglashilgan harakatning bajarilishiga oid belgisini bildiruvchi sifat]** (*arzirli, achinarli, zerikarli, maqtarli, ajablanarli, yetarli, tushunarli*).

18. **[taqlid + -ildoq = asosdan anglashilgan belgiga ortiq darajada egalikni bildiruvchi sifat]** (*chiyildoq, bijildoq, dirildoq, akildoq, likildoq, po'rsildoq*).

19. **[fe'l + -ch = asosdan anglashilgan harakatga bog'liq belgini bildiruvchi sifat]** (*tinch, jirkanch*).

20. **[ot + -iy/viy =1) predmetning asosdan anglashilgan narsa/hodisaga aloqadorlik belgisini bildiruvchi sifat; 2) asosdan anglashilgan tushunchaga egalik belgisini bildiruvchi sifat]** (*1)ilmiy, shaxsiy, imloviy; 2) taxminiy, aqliy, ommaviy*).

21. **[ot/ravish + -gi/ki/qi = predmetning asosdan anglashilgan joy yoki vaqtga ko'ra beligisini bildiruvchi sifat]** (*avvalgi, hozirgi, tonggi, tungi, kechki, ichki*).

22. **[ot + -i = shaxs yoki predmetning millat/vaqt/joyga mansubligini bildiruvchi sifat]** (*qozoqi, qishloqi, bahori*).

23. **[ot/sifat + -cha = predmetning millat/joy/miqdor/xususiyat kabiga ko'ra belgisini bildiruvchi sifat]** (*o'zbekcha, farg'onacha, ortiqcha, erkakcha*).

24. **[sifat + -namo = biror shaxsning asos bildirgan xarakter-xususiyat belgisiga ega ekanligini bildiruvchi sifat]** (*darvishnamo, avliyonamo, majnunnamo*).

25. **[ot + -simon = asosdan anglashilgan narsaga o'xshashlik belgisini bildiruvchi sifat]** (*sharsimon, kumushsimon, odamsimon*).

26. **[ot + -parvar = asosdan anglashilgan narsani sevishni bildiruvchi sifat]** (*xalqparvar, insonparvar, vatanparvar*).

Ko'rib o'tilgandan tashqari **–aki** *(dahanaki, zo'raki)*, **bad-***(badaxloq, badhazm, badbashara)*, **-shumul***(olamshumul, jahonshumul)*, **-chil** *(dardchil, izchil)*, **-kay** *(kungay, terskay)*, **-don** *(gapdon, bilimdon)*, **-msiq***(qarimsiq, achimsiq)*, **-kash** *(dilkash, hazilkash)*, **-m** *(qaram)*, **-lom** *(sog'lom)*, **-qa** *(qisqa)*, **-bop** *(qishbop, palovbop)*, **xush-***(xushbichim, xushhavo)* affiksli qolip asosida ham sifat yasalgan. Bu affiksli qolip unumsiz bo'lganligi uchun uning mazmuniy tomonini mavjud hosilasidan umumlashtirib chiqarib bo'lmaydi.

Kompozitsiya usuli. Kompozitsiya usuli bilan qo'shma va juft sifat hosil bo'ladi.

Qo'shma sifat. Qo'shma sifat quyidagi qolip asosida hosil bo'ladi:

1. Ot+ot: *devsifat, devqomat, dilorom, dilozor, kafangado, otashnafas, sohibjamol.*

2. Sifat+ot: *xomkalla, sho'rpeshona, kaltafahm, shirinsuxan, sho'rtumshuq, balandparvoz.*

3. Ot+sifat: *yoqavayron, jig'ibiyron, tepakal, xonavayron, xudobezor, otabezori.*

4. Ravish+ot: *hozirjavob, kamgap, kamsuxan, kamsuqum, kamqon, kamxarj.*

5. Ravish+fe`l: *tezpishar, ertapishar, cho'rtkesar.*

6. Fe`l+ fe`l : *yebto'ymas.*

7. Olmosh+ot: *o'zboshimcha.*

8. Ot+fe`l: *tilyog'lama, gadoytopmas, tinchliksevar.*

9. Olmosh+sifat: *o'zbilarmon.*

10. Son+ot: *ikkiyuzlamachi, qirqyamoq.*

Juft sifat. Juft sifat tarkibidagi so'zning xususiyatiga ko'ra quyidagi turga bo'linadi:

I. Har ikki qismi mustaqil holda ishlatiladigan juft sifat:

1. Qismi sinonim: *aql-hushli, pishiq-puxta, telba-teskari, sog'-salomat, yakka-yolg'iz.*

2. Qismi antonim: *achchiq-chuchuk, baland-past, vayronu-obod, issiq-sovuq.*

3. Qismi ma'noviy yaqin: *mo'min-qobil, och-yalang'och, soya-salqin, xor-zor, ezma-churuk.*

II. Bir qismi mustaqil holda ishlatiladigan juft sifat: *aralash-quralash, mast-alast, ilma-teshik, tuppa-tuzuk, xom-xatala, entak-tentak, qari-quri, qora-qura, yamoq-yasqoq, harom-harish.*

III. Har ikkala qismi mustaqil holda ishlatilmaydigan sifat: *aji-buji, aloq-chaloq, poyintar-soyintar, uvali-juvali, o'poq-so'poq, ilang-bilang.*

Boshqa turkumga xos so'z konversiya yo'li bilan sifatga o'tishi mumkin. Bu sifatlashuv deyiladi. Sifatlashuv tarixiy jarayon bo'lib, boshqa so'z turkumi uzoq davr o'tishi bilan sifatga aylanib boradi. Sifatlashuv hodisasi lisoniy tabiatga ega.

1. Juft va takroriy otning sifatlashuvi: *mosh-guruch, yo'l-yo'l, rang-barang, xilma-xil.*

2. O'zak holidagi fe'lning sifatlashuvi: *daydi, qari, chalkash, yanglish, tutash, aralash.*

3. Harakat nomi shaklidagi juft fe'l: *olmoq-solmoq.*

4. Kesimlik shaklidagi fe'l: *oldi-qochdi, kuydi-pishdi, tug'di-bitdi, iliguzildi, ichakuzdi, supraqoqdi.*

Sifatning tuzilishiga ko'ra turi. Sifat tuzilishiga ko'ra *sodda* va *murakkab* bo'ladi. Sodda sifat bir o'zakli bo'ladi: *oq, yozgi, aqlli, beg'ubor, tor.* Murakkab sifat o'z o'rnida uchga bo'linadi: a) *juft sifat*; b) *takroriy sifat*; v) *qo'shma sifat.*

Juft sifat ikki sifatning juftlashishidan tashkil topadi: *oq-qora, yaxshi-yomon, katta-kichik.*

Takroriy sifatda bir o'zak takrorlanadi: *katta-katta, baland-baland, og'ir-og'ir.*

Qo'shma sifat birdan ortiq mustaqil so'zning qo'shilishidan hosil bo'ladi: *havo rang, ishyoqmas, ertapishar, yoqavayron, o'zbilarmon.*

Eslatma. Juft va qo'shma sifat yasama bo'lib, takroriy sifatda shakl yasalishi mavjud. Biroq takroriy sifat taraqqiyot natijasida yangi ma'no kasb etishi ham mumkin: *yo'l-yo'l.* Bunda yangi so'z yasalishi emas, balki so'zshaklning leksemalashuvi hodisasi mavjud.

6- §. Son, uning grammatik va lug'aviy ma'no turi

Son va uning umumiy grammatik ma'nosi. «Predmetning sanog'i va aniq miqdori uchun ishlatiladigan so'z» sonning so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik ma'nosi. Sanaladigan predmet uchun ishlatilganda uning sanoq va miqdorini anglatadi. Son so'z turkumi sifatida predmet ifodalovchisi bilan munosabatga kirishib, shu jihati bilan sifat va ravish turkumiga yaqin turadi. Biroq aniq miqdor bildiruvchi bu so'z predmetning noaniq miqdorini bildiruvchi *oz, ko'p, mo'l* kabi sifatdan ajralib turadi. Sifat raqam bilan ifodalanmaydi. Son esa noaniq miqdorni bildirganda ham raqam bilan beriladi: *uch-to'rt kun* (*3–4 kun*). Bu esa u anglatgan miqdor noaniqligi ham nisbiy ekanligidan dalolat beradi.

Songa oid so'z matematik son ma'nosida esa faqat sonning nomini bildiradi. Demak, predmet nomini anglatuvchi so'z bilan munosabatda namoyon bo'ladigan ma'nosi bilan son so'z turkumini tashkil etadi.

Sonning grammatik xususiyati. Son morfologik va sintaktik xususiyatining o'ziga xosligi bilan boshqa so'z turkumidan ajralib turadi.

1. Sonda o'ziga xos morfologik ifodasiga ega bo'lgan quyidagi grammatik xususiyat mavjud:

– sanoq songa *-(i)nchi* affiksining qo'shilishidan predmetning tartibiga ko'ra munosabatini ifodalovchi grammatik ma'no hosil bo'ladi: *birinchi, o'ninchi.*

– sanoq songa *-ov, -ala* affiksining qo'shilishidan predmetning guruhini, to'dasini ifodalovchi grammatik ma'no hosil bo'ladi: *ikkovi, uchalasi.*

– sanoq songa *-ta+cha, -lab* affiksining qo'shilishidan predmetning taxminiy hisobini ifodalovchi grammatik ma'no hosil bo'ladi: *o'ntacha, yuzlab.*

– sanoq songa *-ta+dan* affiksining qo'shilishidan predmetning taqsimini ifodalovchi grammatik ma'no hosil bo'ladi: *ikkitadan, o'ntadan.*

2. Hisob so'zi (*juft, gramm, dona, metr*) bilan qo'llanilishi uning o'ziga xosligini belgilovchi muhim omildan biri.

3. Sintaktik kategoriya cheklangan voqealanishga ega.

4. Son yasalish xususiyatiga ega emas. Biroq sondan boshqa so'z turkumi yasaladi: *birlashmoq, ikkilanmoq, beshlik* kabi.

Son quyidagi sintaktik xususiyatga ega.

1. Son otdan oldin kelib, asosan aniqlovchi vazifasini bajaradi.

2. Son cheklangan darajada bo'lsa-da gapning barcha bo'lagi vazifasida kela oladi.

3. Son ot oldida aniqlovchi vazifasida kelganda u bilan birga ajralmas birikmani vujudga keltiradi: *ikki talaba kelmadi* birikuvida *ikki talaba* ajralmas birikma bo'lib, bitta bo'lak, *ikki* so'zi esa bo'lakning bo'lagi vazifasida kelgan.

4. Son va sifatni aniqlovchi sifatida qo'llashga to'g'ri kelganda avval son, keyin sifat joylashadi: *uchta a'lochi talaba, beshta ilg'or terimchi.*

Sonning lug'aviy shakl hosil qiluvchi vositasi. Son ma'no va grammatik xususiyatiga ko'ra dastlab ikki lug'aviy mavzuviy to'daga bo'linadi: «miqdor son» lug'aviy mavzuviy to'dasi va «tartib son» lug'aviy mavzuviy to'dasi. «Miqdor son» lug'aviy mavzuviy to'dasi predmetning miqdorini, «tartib son» lug'aviy mavzuviy to'dasi esa tartibi, sirasiga ko'ra xususiyatini bildiradi.

Bu lug'aviy mavzuviy to'da o'zaro quyidagi munosabatga ega:

–miqdor son ichki lug'aviy-ma'noviy guruhga ega. Tartib son LMTsi bir vaqtning o'zida lug'aviy-ma'noviy guruh hamdir;

–miqdor son hisob so'zi bilan qo'llana oladi, tartib son esa bunday xususiyatga ega emas;

–miqdor son juftlasha oladi, tartib sonda esa bunday xususiyat yo'q;

–miqdor songa *beshdan bir, uchga bir* kabi birikmali qo'llanish xos, tartib songa esa xos emas;

–miqdor son ko'plik shaklini olganda taxminiy miqdor bildiradi (*uchlarda keldi*), tartib son esa bunday holda otlashib ketadi: *birinchilar – birinchi odamlar.*

«Tartib son» lug'aviy-ma'noviy guruhi. Tartib son predmetning aniq tartibini, ketma-ketlikdagi o'rnini bildirish, shuningdek, boshqasidan farqini ko'rsatish uchun ishlatiladi.

Tartib son sanoq songa *-(i)nchi* affiksining qo'shilishidan hosil bo'ldi.

-(i)nchi affiksi o'rnida ba'zan *-lamchi* shakli ham ishlatiladi. Masalan: ***Birlamchi**, g'alamis odamlarning gapiga quloq solmanglar, **ikkilamchi**, o'zlaring bilasizlar, mardikorlikka ketganlar ko'pi bilan olti-etti oylarda qaytishadi...*(A.Qah.)

Tartib son fe'l bilan bog'langanda miqdorni ham anglatadi: *Bu gapni birinchi eshitishim.* (S.Ahm.)

Tartib son oy kunining tartibini bildirganda vaqt bildiruvchi otdan oldin keladi: *ikkinchi aprel, yigirma uchinchi aprel, o'n sakkizinchi mart, yigirmanchi noyabr* kabi. Bu rus tilining ta'siri, albatta. Sof o'zbekcha oy kuni hisobi *aprelning ikkinchi kuni, noyabrning yigirmanchi kuni* tarzida bo'ladi.

Tartib sonning otlashgan va otlashmagan holatini farqlash lozim. *Odamlarning birinchisi, o'quvchilarning beshinchisi* birikuvida sondagi egalik qo'shimchasidan oldin tushirilgan otni qo'yib bo'lmaydi. Demak, bu son otlashmagan. *Birinchi kitobni sen olasan, ikkinchisini men* gapida *ikkinchi* tartib soni otlashgan.

«Miqdor son» lug'aviy mavzuviy to'dasi va uning lug'aviy-ma'noviy guruhi. Miqdor son predmetni sanash, donalash, taqsimlab yoki taxminlab ko'rsatish uchun ishlatiladi. Uning quyidagi lug'aviy-ma'noviy guruhi ajratiladi: «sanoq son» lug'aviy-ma'noviy guruh, «dona son» lug'aviy-ma'noviy guruh, «chama son» lug'aviy-ma'noviy guruh, «jamlovchi son» lug'aviy-ma'noviy guruh, «taqsim son» lug'aviy-ma'noviy guruh.

«Sanoq son» lug'aviy-ma'noviy guruh. Sanoq son predmetni sanash, donalab ko'rsatish uchun ishlatiladi: *Xatni o'qiyotganimda, kampir **ikki** qo'lini tizzasiga tirab, jimgina quloq solib o'tirdi.* (S.Ahm.) ***Ikki** do'st yarim tunga qadar suhbatlashib o'tirishdi.*(Yo.Shuk.)

Sanoq son morfologik ko'rsatkichga ega emas.

Sanoq son ot bilan sintaktik munosabatga kirishganda mustaqil va nomustaqil sintaktik mavqeda bo'la oladi. Mustaqil mavqeda aniqlanmishdan ayricha so'roqqa javob bo'lib, alohida bo'lak maqomiga ega bo'ladi: *Besh* (aniql.) *kishi* (ega) *so'zladi* (kesim). Nomustaqil mavqeda tarqibiy qism sifatida yuzaga chiqadi: *Besh kishi* (ega) *kelishdi* (kesim).

Sanoq son qo'shma sifat hosil qilishi mumkin: *besh yashar bola, uch chaqirimli yo'l.*

Sanoq son sirasida *bir* so'zi qo'llanish va vazifasi jihatidan qator o'ziga xoslikka ega.

1. «miqdor» ma'nosi: *Yana **bir** gapni ayting.* (S.Nur.)
2. «noaniqlik» ma'nosi: ***Bir** o'zbek yigiti so'zlay boshladi.* (Oyb.)
3. «harakat belgisi» ma'nosi: *Mashina **bir** lapanglab, ilgariladi.* (S.Ahm.)
4. «mo'ljal» ma'nosi: *Ertaga **bir** dam oling.*
5. «bir xil» ma'nosi: *Tiling bilan ko'nglingni **bir** tut.*
6. «kuchaytirish» ma'nosi: *Yomg'ir **bir** yog'di.*
7. «navbatma-navbat» ma'nosi: *Bola **bir** bizga qaraydi, **bir** otasiga qaraydi.*
8. «o'xshashlik» ma'nosi: *U mening **birim**.*
9. JK da «birgalik» ma'noli ravishga o'tadi: *birga ishlamoq.*
10. ChK da «to'satdan» ma'noli ravishga o'tadi: ***birdan** qichqirib yubordi.*
11. *-day* shakli bilan ravish bo'lib keladi: ***birday**.*
12. *-ov* affiksini olib «gumon» ma'noli olmosh: ***Birov** keldi.*
13. *-or/-on* affiksini olib keladi: *birorta, bironta.*
14. *-gina* yuklamasi bilan «chegaralash» ma'nosi: ***birgina**.*
15. fonetik o'zgargan *ham* yuklamasi bilan «kuchaytirish» ma'nosi: ***biram**.*
16. *-oq* elementi bilan bog'lovchi vazifasida: ***biroq**.*

Shuningdek, ***bir*** so'zi *rov, pas, nafas, zum, payt, yil, vaqt, oy, kun* (***birrov, bir pas, bir nafas***), *necha, muncha, sidirg'a, oz, muncha, qadar* (***bir necha, bir oz, bir muncha***), *nima, narsa* (***bir nima, bir narsa***), *qator, talay* (***bir qator, bir talay***), *xil* (***bir xil***), *ba'zi, har, qaysi* (***ba'zi bir, har qaysi***) so'zi bilan birga kela oladi.

Bir so'zi takrorlanib kela oladi: ***bir-bir*** («tartib bilan» ma'nosida), ***birma-bir*** («batafsil» ma'nosida), ***birdan-bir*** («yagona» ma'nosida), ***bir-biridan*** («o'zaro» ma'nosida), ***bir-biriga*** («biri ikkinchisiga» ma'nosida).

O'zbek tilida *bir* so'zi *ilk, yakka, yolg'iz, yagona* so'zi bilan ma'nodoshlik kasb etadi.

Sanoq sonning hisob so'zi bilan qo'llanlishi. Sanoq son o'lchov birligini ifodalovchi so'z bilan birga qo'llanilishi ham mumkin: *gektar, tanob, tosh, bosh, tup* kabi. Bunday so'z *hisob so'zi* (numerativ) deyiladi. Hisob so'zi odatda ot turkumidan bo'ladi va alohida lug'aviy-ma'noviy guruhni tashkil etadi.

Hisob so'zi o'zi birikkan son bilan birga ajralmas sintaktik birlikni tashkil etib, gapda bir sintaktik pozitsiyadan o'rin oladi.

Hisob so'zi qadimdan o'zbek adabiy tilida faol qo'llangan. Bugungi kunda uning ayrimi butunlay iste'moldan chiqib ketgan yoki juda kam ishlatiladi. Unga

qadoq, jon, tanob, gaz, sarjin, paysa, taxta, enlik, so'lkavoy, tosh, pud, mahal, yumaloq (choy), *mehnat kuni* (uch mehnat kuni).

Gektar, gradus, kilovatt-soat, kubometr, metr (santimetr, millimetr), minut, par, pachka, sotix, tsentner, mehnat kuni kabi hisob so'zi o'zbek tiliga XX asrda kirib kelgan.

Hisob so'zi tizimi ochiq sistema.

Hisob so'zi lug'aviy-ma'noviy guruhsi quyidagi mikrosistemadan tashkil topadi:

1. Predmetni yakkalab hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zi: *bosh, nafar, dona, nusxa, tup, jon.*

2. Predmetni butun yoki to'daning qismi sifatida hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zi: *burda, varaq, luqma, parcha, poy, siqim, tilim, tomchi, to'g'ram, chaqmoq, chimdim, shingil, qultum.*

3. Predmetni to'dalab, guruhlab hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zi: *bog', gala, guruh, dasta, to'da, to'p, shoda, quchoq, hovuch.*

4. Predmetni juftlab hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zi: *juft, (par).*

5. Predmetning og'irlik o'lchovini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zi: *gramm, kilogramm, litr, pud, tonna, tsentner, misqol, qadoq, botmon, kosa, piyola, qop, qoshiq, quti.*

6. Predmetning uzunlik va masofa o'lchovini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zi: *qadam, qarich, quloch, metr, tosh, chaqirim, kilometr.*

7. Yosh hisobini bildirish uchun ishlatiladigan hisob so'zi: *yashar, yoshdagi, yoshli.*

8. Vaqt o'lchovini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zi: *asr, yil,kun, kecha-kunduz, oy, hafta, daqiqa, soniya.*

9. Qiymat o'lchovini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zi: *so'm, tiyin, miri, paqir, dinor, dollar, rubl.*

10. Harakat miqdorini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zi: *marta, karra, qatla, daf'a, sidra.*

«Dona son» lug'aviy-ma'noviy guruh. Dona son *-ta* qo'shimchasi va *dona, nafar, bosh* kabi hisob so'zi bilan hosil qilinadi. *-ta* qo'shimchali dona son predmetning miqdorini donalab ko'rsatish uchun ishlatiladi: ***Bitta** bargni uzib Zokir otaga uzatdi.* (A.Qah.)

Bu affiks har qanday son o'zagiga qo'shilib kela oladi: *to'qqizta, o'n to'rtta, uch yuzta, yetti yuzta.* Undan keyin ko'plik shakli qo'shilmaydi.

Egalik affiksining dona son qo'shilishidagi o'ziga xoslik shundaki, bunda ko'plik Sh shaxs birlik (*bittasi; oltmish-oltitasi)* va bosh shaxsning ko'plik (*sizning beshtangiz, bizning o'ntamiz*) shakli faol.

Dona son fe'l oldida kelganda tarz ma'nosini ifodalab, gapda hol bo'lib keladi: *Men **bitta** gapiraman.*

Dona son yuklama olib, chegaralab, ayirib, donalab, kamaytirib ko'rsatish ma'nosini ham ifodalaydi: *to'rttagina, uchtagina.*

Dona son ko'rsatkichi *nafar, bosh, jon, dona* so'zi bilan ma'nodoshlik munosabatida bo'ladi: *bitta – bir dona, o'nta - o'n nafar, beshta- besh - jon* kabi.

«Chama son» lug'aviy-ma'noviy guruh. Chama son *-tacha, -lab, -larcha* qo'shimchasi, sonning juft shakli, *taxminan, qariyb, taqriban, chamasi, yaqin, kamida, ortiq/mo'l(roq)* kabi ravish va boshqa turkum so'zi orqali hosil qilinadi: *o'nta ishchi, millionlab yurtdoshlar, o'nlarcha mashina, soat o'n birlar, uch-to'rt kun, taxminan o'nta, yuzga yaqin, kamida besh mingta, sakson besh mingdan ortiqroq.*

Hisob so'zi bilan kelgan son *-cha* qo'shimchasi bilan chama ma'nosini beradi: *uch yilcha burun, besh kilometrcha.*

«Jamlovchi son» lug'aviy-ma'noviy guruh. Jamlovchi son bir turdagi predmetning miqdoriy yig'indisini ifodalaydi. U *o'n* sonidan quyi turuvchi songa qo'shiladi. U quyidagicha hosil qilinadi:

1) *ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti* soniga *-ov/-ovlon* affiksi qo'shiladi: *ikkov(lon), uchov(lon), to'rtov(lon), beshov(lon), oltov(lon), yetov(lon).* Jamlovchi son egalik kategoriyasida kelishi mumkin: *beshovimiz, ikkovi.* Bu hodisa otlashuv sanalmaydi.

2) ikki, uch, to'rt so'zi *-ala* qo'shimchasini olib jamlash ma'nosini ifodalaydi: *ikkala, uchala, to'rtala, beshala.*

«Taqsim son» lug'aviy-ma'noviy guruh. Taqsim son lug'aviy-ma'noviy guruh -tadan lug'aviy shakli orqali hosil qilinadi: *bittadan, o'ntadan.* Taqsim son gapda ot yoki fe'l oldidan kelishi mumkin: *o'ntadan olma, beshtadan oldi.*

Sonning butun yoki qismni ifodalashiga ko'ra turi. Son butun yoki qismni ifodalashiga ko'ra uch turga bo'linadi:

1) butun son;
2) kasr son;
3) aralash son.

Butun son narsa-miqdori yoki sanog'ini uning butun holatida ifodalaydi: *bir, yuz, ikki ming.*

Kasr son butunning bo'lagini, ulushini ifodalaydi: *ikkidan bir, chorak, yarim.*

Aralash son butun va kasr sonning birligidan tashkil topadi: *bir butun uchdan ikki.*

Sonning butun yoki qismni ifodalashiga ko'ra turga bo'linishini lug'aviy-ma'noviy guruhga ajratishdan farqlash lozim.

Sonning tuzilishiga ko'ra turi. Son tuzilishiga ko'ra *sodda* va *murakkab* bo'ladi. Sodda son bir o'zakli bo'ladi: *bir, besh, ming, yarim*. Murakkab son o'z o'rnida uchga bo'linadi: a) *juft son*; b) *takroriy son*; v) *qo'shma son*.

Juft son ikki sonning juftlashishidan tashkil topadi: *uch-to'rt, besh-olti*.

Takroriy sonda bir o'zak takrorlanadi: *bitta-bitta, uchta-uchta, beshta-beshta*.

Qo'shma son birdan ortiq mustaqil so'zning qo'shilishidan hosil bo'ladi: *o'n besh, bir ming olti yuz, uch butun beshdan bir, bir yarim*.

7-§.Ravish, uning grammatik va lug'aviy ma'no guruhi

Ravish va uning umumiy grammatik ma'nosi. Ravish hamisha tilshunoslikning bosh muammosidan biri bo'lib kelgan. Uni atroflicha o'rgangan olim V.V.Vinogradov «mustaqil so'zning hech bir guruhiga sig'may qolgan so'z ravish turkumiga yig'ilgan» deb haqqoniy baho bergan edi. Uning ma'no va vazifasi ot, sifat, son, olmoshga yaqin turishi arab va Yevropa tilshunosligida qayd etilgan. Sharq va g'arb tilshunosligi ravishni ma'no va vazifasi jihatidan emas, balki boshqa birortasiga xos bo'lmagan belgi – o'zgarmaslik belgisi bilan ismdan farqlaydi. Biroq o'zbek tili grammatik qurilishining tavsifiga bag'ishlab yozilgan ko'plab ilmiy adabiyot va darslikda ravishning o'zgarmaslik tabiati inobatga olinmagan. Tilshunoslar o'zbekcha ravishni rus tilidagi «narechie»ning muqobili sifatida talqin qilishib, natijada *kecha, kunduz, tong, oqshom* kabi payt oti, *atrof, o'rta, u yerda, bu yerda, old, orqa* kabi o'rin oti, *oz, mo'l, butun, to'la* kabi miqdor sifati, *keyin, past, baland, yuqori* kabi o'rin sifati ravish turkumi doirasida o'rganilgan.

«Asosan harakatning, qisman predmetning belgi, miqdor yoki holatini bildiruvchi o'zgarmas so'z» ravishning so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik ma'nosi.

Ravish o'zgarmas so'z turkumi sifatida. Ravish mustaqil ma'noli o'zgarmas so'z. U belgi, miqdor yoki holatni, o'rin, payt ma'nosini ifodalaydi va bu jihatidan ot, sifat, songa yaqin turadi. Undan farqli jihati shundaki, so'z o'zgartiruvchi, shakl yasovchi qo'shimcha bilan birika olmaydi. Masalan, ot ko'plik, sifat daraja shaklini qabul qiladi. Masalan, *tongda, oqshomda, kunduzi, ko'proq, ozroq, balandroq* kabi. Ayrim til birligida uchraydigan egalik kategoriyasi, KK shakli ravishning o'zak qismida soddalashgan, ya'ni o'zak bilan yaxlit holga kelib qolgan: *birdan, zimdan, to'satdan, kechasi, birga*.

Bundan tashqari qadimgi davrda keng iste'molda bo'lgan *-ra* (jo'nalish kelishigi) (*so'ngra, uzra*), *-a*, (*qayta, ko'tara*), *-in* (*-un*) (*birin-ketin, ostin-ustun*) qo'shimchasi ham ravish tarkibida qotib qolgan.

Ravish turkumini talqin qilishda uning o'zgarmaslik xususiyatini e'tiborga olish uning so'z turkumi sifatidagi xususiyatini belgilashda qator qarama-qarshilikka nuqta qo'yadi.

Ilmiy manbada, darslik va qo'llanmada *eng, juda, nihoyat, g'oyat, lang, g'irt* kabi so'z kuchaytiruv ravishi deb qaraladi. Holbuki, bu shakl ravish oldidan kelib belgi ma'nosini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuning uchun keyingi yilda ayrim tadqiqotchi bu unsurning ravish emasligini, chunki ravish kabi mustaqil lug'aviy ma'nodan xoliligini ta'kidlashib, kuchaytiruv yuklamasi sirasida o'rganish lozimligini uqtiradi.

Ravishning lug'aviy-ma'noviy guruhi. Ravish holat, miqdor-daraja, o'rin, payt, maqsad, sabab lug'aviy-ma'noviy guruhga bo'linadi.

Payt ravishi. Payt ravishi harakatning vaqtini, paytini, muddatini bildiradi: *endi, saharlab, hali, doim, indin* kabi. Payt ravishi gapda ko'pincha hol, ba'zan kesim bo'lib keladi: ***Bugun erta*** *turib tongni ko'rdim*. (Uyg'.) *Bugunning hakami* ***erta***. (A.Xud.)

O'rin ravishi. O'rin ravishi harakatning yuz berish o'rnini bildiradi: *olg'a, uzra*.

Eslatma. O'rin ravishini o'rin otidan farqlamoq kerak. Bunga o'rin otining morfologik o'zgarishi asos qilib olinadi: *atrofimiz, o'rtada, o'rtadan, ichkarida, o'ngdan, chapda, oldida, u yerdan* kabi.

Holat ravishi. Holat ravishi harakatning bajarilish usulini, tarzini bildiradi. Shu boisdan u tarz-tus ravishi deb ham yuritiladi: *bexosdan, astoydil, majburan, qavatma-qavat, mardlarcha, yigitlarcha*.

Miqdor-daraja ravishi. Miqdor-daraja ravishi miqdoriy sifat va darajani ifodalaydi: *ko'plab, sal, qarich-qarich, arang, xiyol, yana* kabi. Miqdor-daraja ravishi songa yaqinlashadi. Biroq son bilan «noaniq miqdor» belgisi ostidagi noto'liq ziddiyatda belgili a'zo sifatida yuzaga chiqadi.

Maqsad ravishi. Fe'ldan anglashilgan harakatning maqsadini ifodalaydi: *atay, atayin, ataylab, azza-bazza, jo'rttaga, qasddan*.

Sabab ravishi fe'ldan anglashilgan harakatning sababini ifodalaydi: *noiloj, noilojlikdan, bekordan-bekorga, chor-nochor*.

Eslatma. Boshqa turkumda bo'lgani kabi ravishning ham ko'pma'noliligi uni lug'aviy-ma'noviy guruhga ajratishda qiyinchilik tug'diradi. Masalan, *nari-beri* ravishi o'rinni ham (*Stolni nari-beri surdik*), holatni ham (*U nari-beri nonushta qildi*) ifodalaydi.

Ravishda so‘z yasalishi hodisasi. O‘zbek tilshunosligida ravish yasalishi munozarali. Chunki ravishning asosiy qismi asli boshqa turkumga mansub soddalashgan, yaxlitlashgan leksema. Shu boisdan aksariyat tilshunos ravish yasalishini inkor etishib, ravishlashish (boshqa turkum so‘zining ravishga o‘tishi) mavjudligini tan olishadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan ravish tarkibiga diqqat qilinsa, unda turli so‘z yasash qolipi mavjudligi ma’lum bo‘ladi: [*arabcha ot+an*], [*ot+chasiga*], [*ot+ona*], [*ot+larcha*] [*ot+lab*] kabi.

Qo‘shma ravish esa [*olmosh+ot*] (*har gal, har zamon*), [*ravish+ot*] (*hali zamon, hali beri*), [*son+ot*] (*bir yo‘la, bir dam*).

Boshqa turkumdagi takroriy so‘z ravish bo‘lishi mumkin: *yuzma-yuz, quruqdan-quruq* kabi.

Tilshunoslar ravish turkumining yasalish sistemasiga ega emasligini *-an, -ona* qo‘shimchasining arabcha va tojikcha so‘z tarkibida uchrashini, *-larcha, -chasiga, -lab* kabining grammatik ma’no ifodalashi bilan va *-iga/-siga, chasiga* kabi so‘zning sanoqli darajada ekanligi bilan izohlaydi.

Ravish gapda ko‘pincha fe’lga bog‘lanib hol, otga bog‘lanib sifatlovchi vazifasida keladi. Bu ravish umumiy grammatik ma’nosining tarkibiy qismi.

Ravishning tuzilishiga ko‘ra turi. Ravish tuzilishiga ko‘ra *sodda* va *murakkab* turga bo‘linadi.

Sodda ravish bir o‘zakli bo‘ladi: *bugun, indin, ertaga, ertalab.*

Murakkab ravish o‘z o‘rnida uchga bo‘linadi: a) *juft ravish*; b) *takroriy ravish*; v) *qo‘shma ravish.*

Juft ravish ikki so‘zning juftlashishidan tashkil topadi: *yana-tag‘in, eson-omon; ochin-to‘qin, oldinma-keyin, qishin-yozin; uzil-kesil, ura-sura, unda-bunda; ora-sira, ora-chora, ro‘y-rost, sal-pal, chala-chulpa, emin-erkin, oz-moz, huda-behuda; azza-bazza, apil-tapil, eran-qaran, o‘lda-jo‘lda.*

Takroriy ravishda bir o‘zak takrorlanadi: *galma-gal, zinhor-bazinhor, to‘g‘ridan-to‘g‘ri, es-es, o‘qtin-o‘qtin, ahyon-ahyonda.*

Qo‘shma ravish birdan ortiq mustaqil so‘zning qo‘shilishidan hosil bo‘ladi: *bir yo‘la, bir muncha, bir talay; bajonudil, baholiqudrat; har yili, har yoq, har dam; shu zahoti, shu asnoda.*

8-§. Taqlid, uning grammatik va lug‘aviy ma’no guruhi

Taqlid va uning umumiy grammatik ma’nosi. Taqlid o‘zbek tilida katta bir guruhni tashkil etadi va mustaqil so‘z sirasidan o‘rin olgan. Buning bir nechta ilmiy asosi bor.

Birinchidan, turkiy tilda taqlid miqdoran ko‘p va ma`no jihatdan rang-barang.

Ikkinchidan, undagi tovush tizmasi ma`lum obyektiv voqelikdan xabar berib turadi.

Uchinchidan, u gap tarkibida ma`lum bir sintaktik pozitsiya egallaydi.

To‘rtinchidan, taqlid morfologik jihatdan o‘zgaruvchan.

Taqlid o‘zbek tilining muhim ifoda vositasi. Uning ifoda tomoni mazmun tomoni bilan tabiiy bog‘lanishga ega. Bu quyidagi so‘z qatorini qiyoslash asosida hosil bo‘ladi:

1) *taq-tiq/tuq-tuq/to‘q-to‘q/taq-taq;*
2) *liq-liq/luq-luq/lo‘q-lo‘q/laq-laq;*
3) *tirs-tirs/tars-tars/tars-turs;*

Ko‘rinadiki, fonetik qiyofasi tor unli va qattiq undoshdan iborat bo‘lgan taqliddagi belgi darajasi keng unli va qattiq undoshdan iborat taqlid ifodalagan belgidan past. Bu taqliddagi shakl va mazmunning tabiiy bog‘lanishini ko‘rsatadi.

Taqlid jamiyatning har bir a`zosi tushunadigan turli ma’noga ega. Masalan, *taq-tiq/tuq-tuq/to‘q-to‘q/taq-taq* taqlidi orqasida nimadir yotgani va ma’lum bir borliq hodisasini ifodalayotgani shu til jamiyatining barcha a`zosi uchun tushunarli.

Taqliddagi ma’noviy g‘ayrioddiylik uni boshqa mustaqil so‘z turkumidan ajratib turadi. Biroq ma`noviy g‘ayrioddiylik faqat taqlidgagina xos emas. Buni olmoshda ham kuzatish mumkin. Chunki uning ma’nosi faqat matn tarkibidagina anglashilib, shu boisdan «ichi bo‘sh» so‘z sifatida baholanadi. Ammo bu «ma’noviy bo‘shlik» olmoshni mustaqil so‘z sifatida qarashga monelik qilaolmagan. Demak, bu nomustaqil so‘z sifatida qarab kelingan taqlidning ham «mustaqillashuvi»ga to‘siq bo‘la olmasligi kerak.

Taqlid morfologik jihatdan o‘zgaruvchan bo‘lib, bu bilan to‘la ma’nodagi mustaqil so‘z bo‘lgan ravishdan ham ustun turadi: *odamlarning g‘ovur-g‘uvuri, eshikning taqir-tuquridan* kabi.

Taqlid cheklanmagan muchalanuvchanlikka ega:

1. Kesim: *Atrof g‘ala-g‘ovur.*
2. Ega: *Taqir-tuqur tinmadi.*
3. Hol: *Shabada g‘ir-g‘ir esadi.*
4. To‘ldiruvchi: *Odamlarning vag‘ir-vug‘uridan quloqlar bitgudek.*
5. Aniqlovchi: *Mahallada duv-duv gap.*

Demak, taqlid «borliq hodisasiga taqlidning lisoniy ifodasi» umumiy grammatik ma’nosiga ega.

Ko'rinadiki, o'zbek tilidagi taqlid semantik-morfologik-sintaktik jihatdan mustaqil so'z maqomiga ega.

Taqlidning lug'aviy mavzuviy to'dasi. Taqlidning ayrimi tovushga taqlidni ifodalasa, ikkinchi bir xili ko'rinish-holatga taqlidni ifodalaydi. Shu boisdan «tovushga taqlid» va «ko'rinishga taqlid» lug'aviy mavzuviy to'dasi farqlanadi.

«Tovushga taqlid» lug'aviy mavzuviy to'da. Bu lug'aviy mavzuviy to'da a'zosi kishi, jonivor, narsa va hodisa paydo qilgan tovushga taqlid qilish natijasida paydo bo'ladi. lug'aviy mavzuviy to'da o'z o'rnida ikkiga bo'linadi:

1. «Fiziologik tovushga taqlid» lug'aviy-ma'noviy guruh: *qah-qah, xur-xur, xir-xir,miyov-miyov.*

2. «Fizik tovushga taqlid» lug'aviy-ma'noviy guruh: *tap-tup, taqir-tuqur, tipir-tipir.*

«Ko'rinishga taqlid» lug'aviy mavzuviy to'da. Tovushga taqlid so'z eshitish bilan bog'liq hodisani ifodalasa, ko'rinishga taqlid so'zi ko'rish bilan bog'liq hodisani aks ettiradi. Bu lug'aviy mavzuviy to'da ham o'z o'rnida:

1. «Harakatni ifodalovchi taqlid» lug'aviy-ma'noviy guruh: *dik-dik, lik-lik, lapang-lapang, ship-ship.*

2. «Tashqi ko'rinishni ifodalovchi» lug'aviy-ma'noviy guruh: *hil-hil, jiq-jiq, mo'lt-mo'lt.*

3. «Yorug'likni ifodalovchi taqlid» lug'aviy-ma'noviy guruh: *lip-lip, jimir-jimir, yalt-yult, yilt-yilt.*

Taqlidning tuzilishiga ko'ra turi. O'zbek tilida taqlid juft va takroriy ko'rinishda bo'ladi.

Juft taqlid: *g'arch-g'urch, taq-tuq, vag'ir-vug'ur, g'ing-ping, alang-jalang, apir-shapir.*

Takroriy taqlid: *guv-guv, duv-duv, shartta-shartta, cho'lp-cho'lp, shaqa-shaq, guppa-guppa.*

Eslatma. Taqlid *etmoq, demoq, qilmoq* fe'li bilan kelganda qo'shma fe'l vujudga keladi: *guv-guv etmoq, duv-duv qilmoq,cho'lp-cho'lp qilmoq.*

9- §. Olmosh

Ma'lumki, so'zlar ma'noviy belgisiga ko'ra uch tipga bo'linadi:

a) mustaqil ma'noli so'zlar (fe'l, ot, sifat, son);

b) bo'sh - ishora ma'noli so'zlar (olmosh);

v) yordamchi ma'noli so'zlar (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, ko'makchi fe'llar).

"Ishoraviylik" ramzi bilan ataluvchi olmoshlar boshqa leksemalardan ajralib turadi. O'zbek tilshunosligida olmoshlarning doirasi va vazifasi zo'rma-zo'rakilik bilan ancha chegaralanib "ot, sifat, son o'rnida qo'llanuvchi so'zlar" deb o'ta tor tushunilgan. Vaholanki, bu bilan olmoshning nafaqat ot, sifat, son, balki fe'l, ravish, taqlid, undov, gap va, hatto, matnni almashtira olish, ularga ishora etish xususiyati hisobga olinmagan edi. Olmoshlar guruhiga *men, sen, u, biz, siz, ular* kabi shaxsga; *kim, nima, bu, ana, mana, mana bu* kabi predmetga; *qanday, bunday, shunday* kabi belgiga; *buncha, shuncha, qancha* kabi miqdorga; *qachon* kabi paytga; *qayer* kabi o'ringa; *shunday bo'lmoq, qanday qilmoq* kabi harakat-holatga ishora qiluvchi leksemalar kiradi. Shuni aytib o'tish joizki, olmoshlar hamma vaqt ham qandaydir bir so'zni "almashtirib", uning o'rnida kelavermaydi. Misol: 1.*Kim mehnat qilsa, u rohat ko'radi.* 2. *Men kecha keldim. Sen buni bilasan.* 3.*Nima qilsam ham men o'zim bilaman.* 4. *Hamma mehmonlar biznikida.* 5.*Barcha mushkulotlar oson bo'ldi* kabi gaplarda kishilik, belgilash, o'zlik olmoshlari hech bir so'zni almashtirmagan.

Arab tilshunosligida olmoshlar alohida so'z turkumi sifatida berilmagan, balki har bir so'z turkumi ichida "yashirin ma'noli so'zlar" (*zamirlar*) sifatida alohida guruhlarga ajratilgan. Chunonchi, *kitob, daftar, Abbos* – aniq ma'noli otlar bo'lsa, *men, sen, kim* – yashirin ma'noli otlar (zamir otlar) . Yoxud *oq, qizil, chiroyli* — ma'lum ma'noli sifat hisoblansa, *bunday, shunday* kabilar "zamir sifatlar" .

Olmoshlar shaxs, predmet, belgi yoki miqdorga xos bo'lgan umumiy (mavhum) ma'noni anglatadi. Olmosh bildiruvchi ma'no nutq jarayonida aniq yuzaga chiqadi. Ular o'zi almashtiruvchi so'z kabi morfologik jihatdan o'zgaradi.

Olmosh qaysi so'z turkumi o'rnida qo'llansa, shu turkumga xos sintaktik vazifani bajaradi: ***O'qituvchi** darsga kirdi. U o'quvchilar bilan salomlashdi.* Olmoshlar o'zidan oldin aniqlovchi talab qilmaydi: *Hamma xursand va shod. U kitobni o'qidi.* Olmoshlar ifoda etadigan ishoraviy ma'nosiga ko'ra quyidagi ma'no guruhlariga bo'linadi:

1. Kishilik olmoshlari.
2. Ko'rsatish olmoshlari.
3. O'zlik olmoshlari.
4. Belgilash olmoshlari.
5. So'roq olmoshlari.
6. Gumon olmoshlari.
7. Bo'lishsizlik olmoshlari.

Kishilik olmoshlari shaxs olmoshlari deb ham yuritiladi, chunki shaxsga ishora qilib keladi. Shaxs olmoshlarining qo'llanishida ayrim o'ziga xoslik bor. Shaxslar o'z ma'nosidan tashqari ko'chgan holda qo'llanishi mumkin. Chunonchi:

1. *Biz* olmoshi II shaxs ko'plikdagi *siz* olmoshi o'rnida qo'llanadi: *Qani, endi **biz** ishga tushaylik.* Bunda tashviq ma'nosi anglashilib turadi.

2. Ko'plikni ifodalovchi olmoshlar birlik uchun qo'llanadi: *Bu ishni **biz** uddaladik.* Ushbu gapda *men* o'rnida ishlatilgan *biz* maqtanish, kibr ma'nosini ifoda etyapti.

3. *Men* o'rnida *biz* olmoshi ishlatilib, kamtarlikni ifodalashi mumkin: ***Biz** bu maqolada yechimini kutayotgan muammoni olib chiqdik.*

4. *Sen* o'rnida *siz, u* o'rnida *ular* olmoshi ishlatilib, hurmat ma'nosini ifodalaydi: ***Siz** bugun darsda faol ishtirok etdingiz. **Men** buvimni yaxshi ko'raman. **Ular** ham meni sevadilar.*

5. *Siz* olmoshi, ko'pincha, birlik sonda hurmat ma'nosida qo'llanilganligi sababli ikkinchi shaxs ko'plik sonda *sizlar* shakli ishlatilishi mumkin: ***Sizlar** kelajagimiz.*

6.Kishilik olmoshlariga *-lar* qo'shimchasi qo'shilganda turli xil ma'nolar voqealanadi:

– *Senlarga aytyapman* (kamsitish ma'nosi).

– *Sizlarda insof bormi?* (ko'plik ma'nosi).

Ko'rsatish ma'nosini anglatuvchi olmoshlar (*bu, shu, mana, ana, u, o'sha, hov* va boshqalar) shaxs, predmet, belgini alohida ko'rsatish, ta'kid ma'nolari uchun xizmat qiladi. Ular ifodalovchi (ishoraviy) nom ham turlicha:

– shaxs yoki predmetga ishora qiladi: – *Siz o'shami?* (A. Qod.)

– belgiga ishora qiladi: *Menda ham shunaqa kitoblar bor.*

– vaqtga ishora qiladi: *Shu-shu Fotima kelmay qoldi.*

– o'ringa ishora qiladi: *Siz – unda, biz – bunda.*

O'zlik olmoshi. Bu olmosh turi «ta'kid», «tegishlilik» ma'nosini anglatadi: *Mening o'zim bilaman.* «O'xshatish» ma'nosi ham matndagi *o'z* so'zi orqali ifodalanadi: *Onasining o'zi.* «Umumiylik», «noaniqlik» kabi ma'nolar – *O'zim. (shunchaki)* turdagi gaplarda ro'yobga chiqadi.

So'roq olmoshlari shaxs, predmet, belgi, harakatni aniqlash maqsadida ishlatiladi. Ular quyidagilarga bo'linadi:

– shaxsga nisbatan qo'llanuvchi olmoshlar (*kim, kimlar*);

– voqea-hodisa, predmetlarga nisbatan qo'llanuvchi olmoshlar (*nima, nimalar*);

– belgini aniqlashga qaratilgan olmoshlar (*qanday, qanaqa*);

– sabab va maqsadni aniqlashga qaratilgan olmoshlar (*nega, nima uchun, nechuk*);

– miqdorga nisbatan ishlatiluvchi olmoshlar (*necha, qancha*);

– harakat-holatga nisbatan qo'llanuvchi olmoshlar *(nima qildi, nima bo'ldi);*

– o'rin ma'nosini ifodalovchi so'roqlar (*qani, qayerda)* ;

– payt ma'nosini ifodalovchi so'ro qlar (*qachon, qachonga).*

Bunday olmoshlar faqat so'rash ma'nolarini yuzaga chiqarmaydi, ma'noni bo'rttirish (*kimki, nimaki*), ritorik so'roq (*Men sizga nima dedim?!*), taajjub *(Buning nimasi yomon?!)* kabi ma'noni ifoda etadi.

Belgilash olmoshlari. *Har* so'zi belgilash olmoshi bo'lib, ko'pincha, so'roq olmoshlari bilan birikib keladi va qo'shma belgilash olmoshlari yasaydi. Jamlik ifodalovchi olmoshlar predmet, shaxs, belgiga nisbatan yig'indini, to'dani ifodalaydi: *hamma, yalpi, har kim, barcha, bari, butun.*

Gumon olmoshlari muayyan predmet, shaxs, belgi yoki harakat xususida o'ta mavhum tushunchani bildiradi. So'roq olmoshlari bilan qo'shilib keladigan *alla-* va *-dir* ushbu olmoshlarga noaniqlik ma'nosini kiritadi.

Bo'lishsizlik olmoshlari ma'no jihatdan tasdiqqa nisbatan zidlikni bildiradi va *hech* so'zi bilan hosil bo'ladi. Bu olmoshlar gapni (fikrni) inkorga aylantiradi: *hech nima, hech kim, hech qachon, hech mahal...*

O'zbek tili tarixida ham, hozir ham ba'zan juda ko'tarinki, tantanavor nutqda kamtarinlik uchun, manmanlik qilmaslik uchun *men* kishilik olmoshi o'rnida *kamina, faqir, banda* so'zlari qo'llaniladi. Bular tilshunosligimizda *ot-olmoshlar* nomini olgan.

Olmoshlar nutqimizni o'rinsiz takrorlardan tozalashning, fikrni ixcham bayon qilishning muhim vositasi. Ular gapda turli sintaktik vazifalarda kela oladi: 1. *Mening o'zim bu yukni ko'tara olmas edim.* 2. *Vazifamiz – shu.* 3. *Qanday kishi xor bo'lur?* 4. *Bahor keldi seni so'roqlab.*

Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlarini quyidagi jadvalda berish mumkin:

Olmosh	**Shakllar**				
	Sodda		**Qo'shma**	**Juft**	**Takroriy**
	Tub	**Yasama**			
1. Kishilik	men, sen	meniki,bularga	-	-	-
2. Ko'rsatish	bu, shu	bular, shunisi	ana bu, mana u	u-bu	o'sha-o'sha, shu-shu
3. O'zlik	o'z	o'zim,o'zlari	-	-	o'z-o'zini
4. So'ro q	kim,	kimga,	nima uchun,	-	kim-kim, nima-

	nima?	nimalar?	nima maqsadda?		nima?
5. Jamlovchi	hamma, bari	Hammamiz	har kim, har nima	-	barcha-barcha, butun-butun
6.Bo'lishsizlik	hech	-	hech kim, hech nima	-	-
7. Gumon	-	birov, kimdir	allakim, allanima	-	-

Biz yuqoridagi jadvalda olmoshning "yasama" shaklini berishda tilshunos olim G'.Zikrillayevning fikrlariga tayanib, lug'aviy shakl qo'shimchalarini inobatga oldik.

Olmoshlarda **shaxs, hurmat, miqdor, munosabat** ma'nolarining mujassamligi va ularning nutqda rang-barang usulda voqealanishi, namoyon bo'lishi tilshunosligimizda aniqlangan. Masalan, kishilik olmoshlaridan *men, biz* so'zlovchi **shaxsni,** *sen, siz* tinglovchi **shaxsni,** *u, ular* o'zga **shaxsni** bildiradi. **Miqdor** ma'nosining ifodalanishi jihatidan *men, sen* birlikni; *biz, sizlar, senlar, bizlar* ko'plikni; *siz, ular* birlikka ham, ko'plikka ham betaraf ma'noni anglatadi. **Hurmat** ma'nosi II va III shaxs olmoshlariga xos. **Munosabat** ma'nosi kishilik olmoshlarining kelishik qo'shimchalarini olib o'zgarishida yuzaga chiqadi. Kishilik olmoshlariga egalik ma'nosi ham xos. Ushbu olmoshlar qaratgich kelishigida egalik ma'nosini bildiradi: *bizning universitet.* O'zbek tilida egalik ma'nosi kishilik olmoshiga *–niki* qo'shimchasini qo'shish bilan ham ifodalanadi: *meniki, bizniki, seniki* kabi. Yuqoridagi ma'nolarning ifodalanish tarzini boshqa lug'aviy-ma'noviy guruhlarda ham kuzatish mumkin.

10- §. Yordamchi so'z

Leksemalarning ma'noviy tasnifidagi "ma'noviy nomustaqillik" tushunchasi. Barchaga ma'lumki, leksik sath birliklari ikki katta guruhga bo'linadi: mustaqil so'zlar va yordamchi so'zlar. Bular orasidagi zidlanishni ma'noviy va vazifaviy nomustaqillik tashkil etadi. Bu ziddiyat belgisiga ko'ra yordamchi so'zlar belgili, mustaqil so'zlar esa belgisiz a'zo mavqeini egallaydi. Yordamchi so'zlar hech qachon mustaqil qo'llanmaydi, bog'liq qurshovlardagina kela oladi. Mustaqil so'zlar esa mustaqil qo'llanilish va ma'no ifodalash qobiliyatiga ega.

Leksemalarning ma'noviy tasnifida ilk bosqich belgisi "ma'noviy mustaqillik" emas, "ma'noviy nomustaqillik" bo'lishining sababi mustaqil leksemalarning bu belgiga nisbatan betarafligi. Chunonchi, katta guruhni tashkil etuvchi atoqli otlar (Temir, Anor, Gavhar) guruhida, mavhum otlarda mustaqil

ma'noning mavjudligi kishini shubhaga soladi. Mustaqil so'zlarda "ma'noviy mustaqillik" belgisi shartli. Assimilyatsiya tilshunoslikda boshqacha, biologiyada esa tamoman o'zgacha talqin etiladi. *Loy* adabiy tilda boshqacha, otarchilar nutqida esa boshqacha izohlanadi. Shunga o'xshash hodisalarni sifat, fe'l, ravishlar ichida ham ko'plab uchratish mumkin. Bularning barchasi "ma'noviy mustaqillik" belgisi mustaqil leksemalarda nisbiy tushuncha, nisbiy belgi ekanligini ko'rsatadi. Mana shuning uchun leksemalarning ma'noviy tasnifida ilk bosqichning belgisi "ma'noviy mustaqillik" emas, balki "ma'noviy nomustaqillik" bo'la oladi. Ushbu belgi asosidagi ziddiyatda ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar kuchli (belgili) a'zoni tashkil etadi. Sof ko'makchi, sof bog'lovchi, sof yuklamalar hech qachon mustaqil ma'noli so'zlar xususiyatiga ega bo'la olmaganligi tufayli ularning guruhiga o'ta olmaydi.

Yordamchi so'zlarning "oraliq uchinchi" tabiatiga egaligi. Tilshunoslikda yordamchi so'zlarning leksemalar va qo'shimchalar orasida "oraliq uchinchi" bo'lib, ham leksemalar, ham grammatik morfemalar xususiyatini o'zida mujassamlashtirishi aniqlangan. Ular shaklan leksema, mazmunan qo'shimchadir (qiyos: *Kitobni akamga/akam uchun oldim.*) Shu tufayli bo'lsa kerak, til tizimida yordamchi so'zlarning o'rni turlicha baholanadi – ayrim olimlar ularni qo'shimchalarga, ayrimlari nutq bo'lakchalariga, ba'zilarini yordamchi so'zlarga nisbat beradilar. Yordamchi so'zlarning so'zmi, qo'shimchami yoki mustaqil so'zlarning yordamchi so'zlar bilan bog'lanishi so'z birikmasimi ekanligi hanuzgacha munozara mavzusi bo'lib qolmoqda. Chunki yordamchi so'zlar guruhi ichida shunday birliklar borki, ular ham "ma'noviy mustaqillik", ham "ma'noviy nomustaqillik" xususiyatiga ega (otQko'makchilar, yordamchi va ko'makchi fe'llar). Chunonchi, "tortib" mustaqil so'z sifatida ravishdosh kabi qo'llaniladi: *Baliq qarmoqni bir **tortib**, qochib ketdi.* Shu so'z *Farhod tog'idan **tortib** Shirin yayloviga qadar Sirdaryo bo'ylab tizilib ketgan etmish ming xalq bu sovuqlarni pisand qilmaydi* (Oyd.) gapida yordamchi so'z vazifasida kelgan. *Tortib* mustaqil va yordamchi ma'nolarga ega bo'lishiga qaramay, mustaqil leksemalar tipiga kiradi. *Uchun, sayin, uzra, kabi, va* ga o'xshagan yordamchi so'zlar aniq bir tushunchani ifodalay olmaydi, ammo turli munosabatlarni yuzaga chiqarib va ular yordamchi so'zlar guruhidan joy oladi. Yuqoridagilardan anglashiladiki, "alohida qo'llanila olish yordamchi leksemalarni mustaqil leksemalar bilan yaqinlashtirsa, turli-tuman munosabatlarni ifodalash kabi umumlashgan ma'no ularni morfemalarga, qo'shimchalarga yaqinlashtiradi va leksemalar va morfemalar ziddiyatida "oraliq uchinchi" vazifasida keladi.

Yordamchilarni so'zlarga quyidagilar yaqinlashtiradi: a) shaklan alohida ajralib turish; b)lug'aviy ma'noning mavjudligi (sifat ko'makchilar, ot ko'makchilar, fe'l ko'makchilarda...); v)ko'pincha ularning mustaqil so'zlarga yaqinlashishi, ulardan kelib chiqishi. Yordamchi so'zlarning grammatik morfemalarga o'xshash tomoni ularning morfemalar kabi mustaqil nominativ funksiya bajarmasligi (ammo, va, sayin, kabi), qo'shimchasimon shaklda bo'lishi (*-u, -yu, -da; -ki (-kim); -dek (-day), -cha*) va boshqalar. Biroq yordamchi so'zlarning grammatik morfemalardan farqli tomoni shundaki:

1) ular gap bo'lagi, so'z birikmasi, gap sathida sintaktik xarakterdagi vazifa bajaradi. Bu xususiyat ko'makchilar uchun xos. Chunonchi, 1. *Yaxshi bilan yursang yetarsan murodga, Yomon bilan yursang qolarsan uyatga* (Maq.) 2. *To'lqinlarning kuchli na'rasi, Yulduzlarga qadar etardi.* (Uyg'.)

2) gap bo'laklari yoki gaplarni o'zaro bog'laydi. Bunday funksiyada, asosan, bog'lovchilar va yuklamalar keladi: 1. *Xonaga baland bo'yli, biroq oriqqina yigit salom berib kirdi.* (S.A) 2.*Saida bu gapni aytdi-yu, chiqib ketdi.* (S.Ahm.)

3) so'roq, inkor va sh.k. gap ma'nolarini ifodalashga xizmat qiladi (yuklamalar).

Yordamchi so'z mustaqil so'z va so'z-gap oralig'ida «oraliq uchinchi» maqomini oladi. O'z navbatida, yordamchi so'z ham o'z ichida umumiy belgisiga ko'ra oraliq uchinchini ajratib chiqaradi. Ya'ni bog'lovchida bog'lash, yuklamada gap mundarijasiga ta'sir qilish mohiyatni belgilash darajasida bo'lsa, ko'makchida sanalgan har ikki belgi mushtarak. Bu uning «oraliq uchinchi»lik mavqeyini ko'rsatadi.

Yordamchi so'zning shakliy xususiyatiga ko'ra turi. Yordamchi so'z shakliy xususiyatariga ko'ra:

a) qo'shimchasimon yordamchi so'zlar;

b) sof yordamchi so'zlar;

v) nisbiy yordamchi so'zlar.

Qo'shimchasimon yordamchi so'zlar har uchala yordamchi so'zlar tarkibida uchraydi. Ko'makchilar orasida *-dek/-day,-cha*, bog'lovchilar orasida – *ki/-kim, -u, -yu,-da* affikssimon yuklama - bog'lovchilar, yuklamalar orasida *-mi, -chi, -a, -ya, -ku,-o q (-yo q), -da, -gina* kabi qo'shimchaga o'xshash yordamchi so'zlami uchratish mumkin. Qo'shimchasimon yordamchi so'zlar shaklan qo'shimchaga o'xshaydi, ammo yordamchi so'zlarning vazifasini bajaradi. Chunonchi, 1.*Po'latdek (kabi) dadil bir yigit bu ishdan hayiqsa, uyat bo'ladi.* (O.Mux.) 2.*Shu payt o'g'ilchasi eshikdan yugurib keldi-da (va), dadasining quchog'iga otildi.* (Oyb.) 3.*Bazmga Gulnoragina (faqat) kelmadi.* (S.Ahm)

Sof ko'makchilar sirasiga avvaldan ma'lum *uchun, bilan, sari, qadar, kabi, singari, sayin, orqali* so'zlari; sof bog'lovchilar sirasiga *va, hamda, ammo, lekin, biroq, balki, yo, yoxud, go'yo, agar, basharti* kabilar; sof yuklamalar qatoriga *xuddi, faqat, axir, hatto, naq, atigi* so'zlari kiradi.

Nisbiy yordamchi so'zlar atamasi ostida boshqa turkumga mansub bo'lgan so'zning yordamchi vazifasida qo'llanilishi (*old, orqa, avval, bo'ylab, boshlab...*) yoki tabiatida "shakldoshlik" mavjud bo'lgan birliklar tushuniladi. Masalan, "yolg'iz" sifat turkumiga oid so'z yuklama o'rnida (*Yolg'iz senga suyanaman*) ishlatiladi. Yoki *Vaqtida yomg'ir yog'adi, vaqtida qor* gapida *vaqtida* so'zining vazifasi bog'lovchilarga yaqin. Bunga o'xshash misollar nutqimizda ko'p uchraydi. Yordamchi so'zlarning shakliy xususiyatlariga ko'ra turlarini quyidagi jadvalda umumlashtirish mumkin:

Yordamchi so'z Turi	Sof yordamchi so'z	Qo'shimchasimon yordamchi so'z	Yarim yordamchi so'z
Ko'makchi	kabi, singari, sari, sayin, dovur, uchun, orqali	-dek, -day, dayin, -cha	old, oldin, orqa, qarshi, avval, bo'ylab, ko'ra, qarab, tomon
Bog'lovchi	va, hamda, ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun, agar, go'yo, toki, basharti, garchi, xoh, dam, yoki, yoxud, yo	-ki, (-kim), -u, -yu, -da	vaqtida, bir, ba'zan, gohida
Yuklama	axir, xatto, faqat, ham, naq, go'yo, go'yoki, atigi	-mi, -ku, -gina, -u, -yu, -da, -a, -oq, (-yoq), -dir	yolg'iz, ba'zan, bir

Jadvaldan ko'rinib turganidek, yordamchi so'zlar salmog'i mustaqil so'zlar hisobidan ortib boradi. Yordamchi so'zlarning boyishida yana bir yo'l ularning ichki tomondan bir turdan ikkinchi turga o'tishidir, aniqrog'i, "oraliq hodisa" xususiyatiga ega bo'lgan ko'makchi-bog'lovchi, bog'lovchi-yuklamalarning mavjudligi. Masalan, *bilan, deb, deya* kabilar ko'makchi-bog'lovchilar. Ushbu ko'makchilarning bog'lovchi vazifasida kelishi ancha keng tarqalgan hodisa. *Ammo lekin bu ishni paysalga solish yaramaydi* gapida bog'lovchi-yuklama qo'llanilgan, ya'ni ammo bog'lovchisi kuchaytiruv yuklamasi vazifasida kelgan.

Bugungi kunda yordamchi so'zlarni har tomonlama o'rganish, ularni lisoniy tahlil qilish ishlari tilshunosligimizda davom etmoqda.

Ko'makchi. Turkiy tillarda (jumladan, o'zbek tilida ham) ko'makchilar ko'p yillardan buyon tilshunoslarning tekshirish manbayi bo'lib kelmoqda. O'zbek tilidagi ko'makchilarga birinchi bo'lib mukammal ta'rifni A.N.Kononov bergan: "Ko'makchilar shunday bir gruppa so'zlarki, ular ot bilan yoki obyekt bilan predikat orasidagi qurol – vosita, maqsad, sabab, payt, masofa, yo'nalish, o'xshatish kabi munosabatlarning yaratilishida xizmat qiladi". Sh.Shoabdurahmonov ham o'zining "Yordamchi so'zlar" asarida ko'makchilarga xuddi shunday ta'rif bergan: "Ko'makchilar obyektning obyektga yoki obyektning predikatga bo'lgan turli grammatik munosabatlarini ko'rsatuvchi yordamchi so'zlardir". Darhaqiqat, ko'makchilar orasidagi tobe munosabatni ifodalash va kelishik ma'nolarini aniqlash, to'ldirish uchun xizmat qiladi. Shu xususiyati bilan ko'makchi bog'lovchi va yuklamalardan farq qiladi. Ko'makchilar ma'no va vazifa jihatidan kelishik qo'shimchalariga yaqin turadi. Shuning uchun ba'zan kelishik shakllaridan anglashilgan ma'no ko'makchi bilan ham ifodalanadi (*Mashinada keldim – mashina bilan keldim. Ukamga oldim – ukam uchun oldim* kabi). Lekin bular kelishik affikslariga qaraganda ma'noni aniq, konkret ifodalaydi.

Ko'makchilarning shakliy xususiyatiga ko'ra turlari. Ko'makchilar shakliy va bajaradigan vazifasi jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi:

a) sof ko'makchilar;

b) yarim ko'makchilar;

d) qo'shimchasimon ko'makchilar.

Nutqimizda tez-tez ishlatiladigan *uchun, bilan, sari, qadar, kabi, singari, sayin, or- qali* so'zlari sof ko'makchilar bo'lib, ular tobe so'zni hokim so'zga bog'lashga xizmat qiladi. Sof ko'makchilar boshqa so'zlarga birikkan holda turli munosabatlarni anglatadi. Jumladan, bilan ko'makchisi o'zbek tilida asosan ko'makchi, ba'zan bog'lovchi vazifasida ishlatiladi. Shuning uchun bu ko'makchi turi bugungi kunda yordamchi so'zlardan birining o'rnida ikkinchisi qo'llanilishi nuqtayi nazaridan *ko'makchi-bog'lovchi* atamasi ostida ham o'rganilmoqda. *Bilan* yordamchisining etimologiyasi haqida prof.A.N. Kononov, V.V.Radlov, J.Deni kabi qator turkiyshunoslarning fikrlarini e'tiborga olib, uning *birlan* so'zidan kelib chiqqanini aytgan. *Bilan* yordamchisining *birla, birlan, bila, ila, -la* shakllari vazn, qofiya va uslub talabiga ko'ra ko'proq poeziyada uchraydi. Chunonchi, *Baxt ila to'lib-toshgan go'zal oy deraza tagida o'sgan daraxt barglarida mudrab yotadi* . (R.Tag.) Bu ko'makchi quyidagi ma'nolarni bildiradi:

1) biror harakatning bajarilishida shaxs, predmetlarning birgaligini bildiradi: *Ko'pchilik bilan odam o'zini kuchli sezadi.*

2) harakatni bajarishda vosita ma'nosini bildiradi: *Shu gapning ustiga Ismat bobo hassasi bilan eshikni ochib kirib keldi.* (P.Qod.)

3) payt ma'nosini ifodalaydi: *Qo'ng'iroq chalinishi bilan o'qituvchi sinfga kirdi.*

4) sabab ma'nosini bildiradi: *Ular: "Gulnor o'z ajali bilan o'ldi...", – deyishdi.* (Oyb.)

5) harakatning bajarilishidagi holatni ifodalaydi: *Onamning mehr bilan boqib turgan ko'zlarini bir umr unuta olmasam kerak.* (Oyb.)

Bilan ko'makchisi keng tarqalgan yordamchi so'z. Uning bog'lovchilik, ko'makchilik tabiati olimlarimiz orasida tortishuvlarning bo'lishiga sabab bo'lgan. Shu boisdan "... va, bilan, hamda, shuningdek so'zlari hozirgi o'zbek adabiy tilida teng bog'lovchilarning biriktiruv bog'lovchilari turiga kiradi" degan fikr ham ilgari surilgan. Ammo bu o'rinda shuni qayd etish kerakki, bog'lovchi vazifasidagi *bilan* ning *va, ham* biriktiruv bog'lovchilaridan farqlanadigan o'ziga xos xususiyatlari bor:

– «birgalik» ma'nosi *bilan* yordamchisi uchun xos: *Chodir sahnasidan bir qiz bilan yigit chiqib o'yin qildi* (M.Ism.). Ushbu misoldagi bilan o'rnida *va* ni qo'llasak, yuqoridagi ma'no kelib chiqmaydi, balki qiz bilan yigitning alohida–alohida o'ynagani ma'nosi ifodalanadi.

– *va, ham* bog'lovchilari uyushib kelgan fe'l kesimlarni bog'laydi, ammo *bilan* da bu imkoniyat chegaralangan. Qiyoslang: *Lola ishlaydi va o'qiydi. Lola ishlaydi ham o'qiydi.* Ammo *Lola ishlaydi bilan o'qiydi* tarzidagi gap nutqda ishlatilmaydi. *Bilan* ning grammatik vazifasi bog'lovchi va ko'makchi vazifasida kela olishidir; shunga ko'ra, *bilan* boshqa ko'makchilardan farqlanadi. Shuning uchun *bilan* ko'makchisini *ko'makchi–bog'lovchi* termini bilan ataganimizda uning barcha xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bu ko'makchi turi gapda vosita ma'nosini bildirganda to'ldiruvchi, sabab, payt, harakatning bajarilish tarzini bildirganda hol vazifalarida keladi.

Uchun ko'makchisi atalganlik (*Yo'lchi uchun keltirgan tugunchak yodiga tushdi* (Oyb.)), maqsad (*Hamma xalq ochdan o'lmaslik uchun bir amal–taqal qilib turibdi* (Oyb.)), sabab (*Kampirning ahmoqligi yo dushmaningizning ig'vosi uchun shundoq deyishga qandoq tilingiz bordi?* (A. Qah.)) evaz (*E'tiboringiz uchun rahmat*) kabi ma'nolarda qo'llanilib, to'ldiruvchi, maqsad, sabab holi vazifalarida keladi.

Kabi, singari yanglig' ko'makchilari bir narsani boshqa narsaga o'xshatish, chog'ishtirish ma'nosini anglatadi. Masalan, *Ukam men kabi bechora... g'am*

chekib yotgandir (Oyb.). *Kabi, singari* ko'makchilari bilan *-dek, -day* qo'shimchalarining ma'nodoshlik xususiyati tilshunoslarimiz tomonidan qayd etilgan. Formal tilshunoslikda bu affikslar ravish yasovchi qo'shimchalar sifatida berilgan. *-dek, -day* affikslari orqali yasalgan ravishlar harakat va holatning yasash asosida ifodalangan narsa yoki belgi-xususiyat bilan o'xshashligini, qiyoslashni bildiradi: *tog'-dek, ot-dek, lochin-day, qadimgi-day, ilgarigi-dek, avvalgi-dek, burungi-day, gul-day* kabi. *Qalandarov ertasiga kundagiday saharda idoraga chiqdi* (A.Qah.). *U go'yo tug'ilib o'sgan qishlog'ini ko'rmoqchiday boshini ko'tarib hayajon va sog'inch bilan uzoqlarga tikildi* (Oyb.) Bu o'rinda ham til hodisalarini izohlashda zo'rma-zo'rakilik yuzaga kelgan. Natijada nutqimizda tez-tez ishlatiladigan ushbu qo'shimchalar noto'g'ri talqin etilgan. Buni quyidagi oddiy qiyosda ko'rish mumkin:

-dek, -day (qo'shimchasimon ko'makchi)	*kabi (singari, yanglig') (sof ko'makchi)*
1.*Oydek go'zal qiz.*	*Oy kabi go'zal qiz.*
2.*Tog'dek yuksak.*	*Tog' kabi yuksak.*
3.*Lochinday dadil.*	*Lochin singari dadil.*
4.*Ilgarigidek qadrdon bo'lib ketishgan.*	*Ilgarigi kabi qadrdon bo'lib ketishgan.*
5.*Gulday ochilib menga bir bor qaramaysiz.*	*Gul yanglig' ochilib bizga bir bor qaramaysiz.*

Oddiy mantiq -dek, -day qo'shimchasi *kabi (singari, yanglig', misol, misoli)* sof ko'makchisiga sinonim ekanligini, -dek, -day qo'shimchalarida so'z yasash xususiyati yo'qligini ko'rsatib turibdi.

-dek, -day qo'shimcha shaklidagi ko'makchilar hamisha o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi va urg'uli bo'ladi. -dek, -day ko'makchilari ko'p hollarda bir-birini almashtira oladi. Ular bitta ko'makchining ikki ko'rinishi.

-dek, -day ko'makchi-qo'shimchasi o'zining eski adabiy o'zbek tilida keng qo'llangan -dayin ko'rinishiga ham ega. Bu ko'rinish, asosan, hozir ko'tarinki uslubda, she'riyatda qo'llaniladi:

1. *Oydayin ruxsoringga zoru intizorman o'zim.* 2. *Zihi sarv ustida yuzung qamardayin, Qani bir shoxi gul sen siymbardayin.* («Muhabbatnoma»)

-day ko'makchisi *shunday, bunday, qanday, unday, allaqanday* kabi olmoshlar; *jinday, qittay, arziguday, aytganday, jo'jabirday, o'lguday, dovongirday* kabi ravishlar tarkibida yaxlitlanib, qotib, o'zakdan ajralmaydigan bo'lib qolgan.

Qadar, dovur ko'makchilari hokim bo'lakka tobelanish munosabatini yaratar ekan, bunda o'rin, payt ma'nolarini ifodalaydi. *Qadar* ko'makchisi -ga

qo'shimchali ot va olmoshlar bilan qo'llanib, «chegara», «nihoya» ma'nolarini bildiradi: *Tantanali yig'ilish boshlanguniga qadar askiya, o'yin-kulgi davom etdi.* (Oyb.) *Qadar* ga ma'nodosh qo'shimchasimon ko'makchi sifatida -cha qo'shimchasining to'g'ri kelishi ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan: *Mehmonlar kechga qadar o'tirishdi – Mehmonlar kechgacha o'tirishdi.*

Orqali ko'makchisi harakatning biror vosita bilan bajarilishini bildiradi: *Anvar o'z istiqbolini yolg'iz muhabbat orqali ko'rar edi.* (A.Qod.) *Bilan* va *orqali* ko'makchilari vosita ma'nosini anglatishlariga ko'ra ma'nodoshlik hosil qiladi. Ammo bu ma'nodoshlik ma'lum kontekslardagina voqealanadi. O'rin ma'nosini ifodalagan otlar bilan birikkanda *bilan* va *orqali* ko'makchilari sinonim bo'ladi: *Katta yo'l orqali yurib borib chapga burildik – Katta yo'l bilan yurib borib chapga burildik.* Agar ko'makchi boshqarayotgan ot o'rin ma'nosini ifodalamasa, bu ko'makchilar ma'nodoshlik kasb etmaydi. Chunonchi,... *Yigitga deraza orqali to'yib - to'yib qarashga zor bo'lsa - da,...*(O.)

Sari ko'makchisi harakatning yo'naltirilgan o'rni, payti ma'nosini anglatadi: *Hirot sari yurdik.* (Oyb.) *Ko'krak og'rig'im borgan sari battar bo'lyapti.* (Oyb.) *Sari* ko'makchisi o'rin, tomon, payt ma'nosini bildirganda *sayin* ko'makchilari bilan ma'nodosh bo'ladi. Gapda payt holi, o'rin holi, to'ldiruvchi vazifalarida keladi.

Ma'lumki, sistem tahlil jarayonida har bir narsaning mohiyati shu narsaning o'ziga o'xshash, ayni vaqtda undan farqli va unga zid boshqa narsalar bilan bo'lgan munosabati orqali ochiladi. Jumladan, o'zbek tilining lug'aviy tizimi mustaqil va yordamchi leksemalarga bo'linadi. O'z navbatida mustaqil leksemalar atash/nomlash vazifasini bajaruvchi atovchi leksemalarga va ishora ma'noli leksemalarga (olmoshlarga), yordamchilar esa ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalarga, bularning har biri, o'z navbatida, yana boshqa guruhlarga pog'onali ravishda bo'linib ketaveradi. O'zbek tilining yordamchi so'zlar, mustaqil so'zlar va morfemalar tizimi izchil pog'onaviy (ierarxik) tuzilishga ega bo'lib, nisbiy va quyi pog'onalar o'zaro gipo-giperonimik (tur-jins) munosabatlari bilan bog'lanadi – har bir yuqori bosqich quyi pog'ona uchun giperonim mavqeyida, quyi bosqich yuqori bosqichga nisbatan giponim mavqeiyda bo'ladi. Demak, so'z yoki morfema ma'lum bir pog'onalardan o'tib lisoniy birlik darajasiga etadi va kishi ongida tayyor, majmui sifot sifatida yashaydi. Quyida ayrim yordamchi so'z (ko'makchi)larning ULM (umumlisoniy ma'no) sini berishga harakat qilamiz:

Bilan – leksik sath birligi – ma'noviy nomustaqil – umumlashgan grammatik ma'noli – shaklan morfologik o'zgarmas – leksoid va affiksoid

ko'rinishli – yakka qo'llanishli – sintaktik bog'lash vazifasida kela oladigan lisoniy birlik.

Kabi – leksik sath birligi – ma'noviy nomustaqil – umumlashgan grammatik ma'noli – shaklan morfologik o'zgarmas – leksoid ko'rinishli – yakka qo'llanishli – sintaktik bog'lash vazifasida kela oladigan lisoniy birlik.

Boshqa ko'makchilarga ham ta`rif berish mumkin.

Nisbiy ko'makchilar haqida. Mustaqil so'zlarning "nomustaqillik" belgisiga nisbatan mo''tadilligi sababli mustaqil so'zlar ichidan nisbiy yordamchilar ajralib chiqadi. Nisbiy ko'makchilar bir xususiyati bilan "ma'noviy mustaqil", ikkinchi xususiyati bilan "ma'noviy nomustaqil" leksemalarga o'xshab ketadi va "oraliq uchinchi" guruhini hosil qiladi. Leksemalar nomustaqil leksema sifatida voqealanganda leksema sememasi o'z muayyanligini kuchsizlantiradi va semema grammatik ma'no sifatida voqealanadi. Chunonchi, quyidagi gaplarda ifodalangan *ko'ra* leksemasining ma'nolarini qiyoslashga harakat qilamiz: 1. *Yaxshi-yomonni ko'ra-ko'ra odamning yaxshimi, yomon ekanini tez ajratib oladigan bo'lib qolgan.* (A.Qah.) 2. *Qalandarovdan shikoyat boshlashdan ko'ra ko'proq bu noqulay ahvoldan chiqish uchun ...* (A.Qah.) 1- gapda qo'llanilgan *ko'ra* «ko'z bilan ko'rmoq, kuzatmoq» semasiga ega bo'lsa, 2- gapda «ko'rish» semasi kuchsizlangan va «chog'ishtirish, qiyoslash» grammatik ma'nolarini voqealantirgan. 1- gapda qo'llanilgan «ko'ra» ko'rmoq fe'lining ravishdosh shakli bo'lsa, 2- gapda fe'l ko'makchi sifatida tobelanish munosabatini hosil qilgan. Qolgan nisbiy ko'makchilar ham xuddi shunday xususiyatlarga ega. *Old, oldin, or qa, ro'para, qarshi, avval, keyin, so'ng, oxir, tomon, ost, ust, tag, tepa, yon, uch, ich, o'rta, ora* kabi o'rin va payt ma'noli otlar, *bosh, qosh, lab, og'iz, oyoq, qorin* kabi tana a'zolari nomlari, *qariyb, bo'ylab, boshlab, ko'ra, deya, deb, atab, o'xshab* kabi ravishdoshlar juda ko'p hollarda ko'makchi vazifasida keladi va ko'makchilar xazinasining boyishiga sabab bo'ladi. Bunday hollarda bu so'zlar nisbiy yoki yarim ko'makchi sanalib, o'zi birikib kelgan so'z bilan birgalikda bir gap bo'lagi, ko'pincha, hol bo'lib keladi. Ko'makchilardan *bilan, uchun, kabi, singari, yanglig', sayin, sari, sababli, orqali, tufayli, chog'li, bo'ylab, haqida, to'g'risida* kabilar o'zlari birikib kelgan so'zlarga hech qanday qo'shimchasiz bog'lanadi; *tomon, qadar, qarshi, qaraganda, doir; binoan, qaramay* kabi ko'makchilar o'zlari birikib kelgan so'zdan -ga qo'shimchasini qabul qilishni talab qiladi: *qonunga binoan, ukasiga qaraganda, baxtga qarshi; so'ng, keyin, boshqa, tashqari, buyon, avval, ilgari, boshlab* ko'makchilari -dan qo'shimchali so'zlar bilan birikadi: *bundan avval, o'qishdan keyin, tanaffusdan so'ng* kabi. Ko'makchilarning grammatik munosabatni yaratib, kelishik

qo'shimchalariga o'xshash vazifani bajarishi haqida yuqorida qisman aytib o'tilgan edi. Darhaqiqat, ko'makchilar shu xususiyati bilan ham boshqa yordamchi so'zlardan farq qiladi. A.N.Kononov ta'biri bilan aytganda, ko'makchilar ko'p hollarda kelishiklarning dubleti sanaladi. Masalan: *Ukamga oldim – Ukam uchun oldim. Siyohda yozdi – Siyoh bilan yozdi. Telefonda gaplashdi – Telefon orqali gaplashdi. Akamni gapirdi – Akam haqida gapirdi.*

Bog'lovchi. Bog'lovchi va uning shakliy ko'rinishlari. Bog'lovchilar ham ko'makchilar kabi sintaktik aloqa vositasi sanalib, ulardan tobe munosabatni ifodalashdan tashqari teng munosabatni ham hosil qilishi bilan ajralib turadi. Bog'lovchilar gap bo'laklari, qo'shma gapning sodda gapga teng qismlari orasidagi turlicha aloqalarni, grammatik munosabatini ko'rsatadi. Bog'lovchilarning mohiyati, o'zbek adabiy tilidagi bog'lovchilarning turlari, bu turlarga oid so'zlar tilshunosligimizda keng o'rganilgan. Mavjud adabiyotlarda bog'lovchilarning turlari va bu turlarga qaysi so'zlar mansubligi masalasida turlicha nuqtai nazarlar bor, ya'ni bir ishda bog'lovchi deb berilgan birlik boshqa ishda yuklamalar qatoriga kiritiladi, ko'makchi deb berilgan birlik bog'lovchi deb tan olinadi. Bog'lovchilarga oid so'zlarning aniq belgilanmaslik sababi ularning lisoniy jihatdan o'rganilmaganligida bo'lsa kerak.

Bog'lovchilarni ham ko'makchilar singari shakliy jihatdan uch guruh (sof bog'lovchilar, nisbiy bog'lovchilar, qo'shimchasimon bog'lovchilar) ga ajratib o'rganish lozim. Sof bog'lovchilar guruhiga faqat bog'lovchi vazifasida qo'llaniladigan *va, hamda, yo, yoxud, yoki, ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun, agar, ya'ni* kabi yordamchi so'zlar xos. Qo'shimchasimon bog'lovchilar guruhiga *-ki (-kin)* va ham bog'lovchi, ham yuklama vazifasida kela oladigan *-u (-yu), -da, -mi* qo'shimchalari mansub. *-u (-yu), -da* qo'shimchalarining bog'lovchi vazifasini to'la-to'kis bajarishi qator manbalarda qayd etilgan, *-mi* qo'shimchasida ham bog'lovchilik xususiyati borligini *Yomg'ir yog'dimi, hamma joy nam bo'ladi, Karim keldimi, to'polon boshlanadi* tipidagi gaplar tasdiqlaydi. Ushbu gaplarda qo'llangan *-mi* qo'shimchasi ta'kid ma'nosini voqealantirgan holda sodda gaplarni bir-biriga bog'lash funksiyasini bajaryapti. Nisbiy bog'lovchilarga mustaqil so'z turkumlaridan o'sib chiqqan, "oraliq uchinchi" tabiatiga (ham mustaqil, ham yordamchi) ega bo'lgan *ba'zan, bir, vaqtida, hali goh, (goho)* kabi so'zlarning takroriy shakli misol bo'ladi. Chunonchi, 1.***Ba'zan*** *Qoratoyning ishxonasida,* ***ba'zan*** *choyxonada tunab yurdi.* (Oyb.) 2.*Ikki kundan beri* ***goh*** *savalab,* ***goh*** *shiddat bilan yog'ayotgan yomg'ir hammayoqni ivitib yubordi.* (A.Qah.) 3.

Vaqtida *qor yog'adi,* ***vaqtida*** *yomg'ir.* Bu gaplarda qo'llanilgan *ba'zan, goh (goho), vaqtida* so'zlarining vazifalari bog'lovchilarga juda yaqin.

Salima tez qaytdi. U yangi xabar olib keldi; Brigadada mehnat yaxshi uyushtirilmadi. Natijada hosil kam bo'ldi; Azimboy ko'p zulm o'tkazdi. Oqibatda xalqning sabr kosasi to'ldi gaplaridagi *u, natijada, oqibatda* so'zlari birinchi gapni ikkinchi gap bilan bog'lab kelmoqda. Demak, *u, natijada, oqibatda* so'zlari ham nisbiy bog'lovchilar sirasiga kiritilsa to'g'ri bo'ladi. Ikkinchi gapning mazmuni birinchi gapsiz aniq emas. Yordamchi so'zlar nafaqat so'zlami, hatto gaplar va matn qismlarini ham bog'lashga xizmat qiladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilidan darslik va qo'llanmalarda bog'lovchilarning vazifa jihatidan turlari quyidagicha belgilangan:

I. Teng bog'lovchilar. 1. Biriktiruv bog'lovchilari: *va, -u (-yu), hamda.* 2. Ayiruv bog'lovchilari: *yo, yoki, yoxud, goho, dam... dam, bir... bir, ba'zan... ba'zan.* 3. Zidlov bog'lovchilari: *ammo, lekin, biroq.* II. Ergashtiruvchi bog'lovchilar. 1. Aniqlov bog'lovchilari: *ya'ni, -ki (-kim).* 2. Sabab bog'lovchilari: *chunki, shuning uchun, zeroki.* 3. Shart bog'lovchilari: *agar, agarda, agarchi.* 4. Chog'ishtiruv bog'lovchilari: *go'yo, go'yoki.* Teng bog'lovchilar, ergashtiruvchi bog'lovchilarning ma'no va vazifa tomoni, imlo xususiyatlari formal tilshunoslikdan darslik va qo'llanmada atroflicha bayon etilgan.

Bog'lovchi-yuklamalarning mohiyati. Ammo ayrim so'zlarning bog'lovchilik tabiatidan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, bog'lovchilarning miqdori, ularning mohiyati, turlari hanuzgacha aniq belgilanganicha yo'q. Masalan, chog'ishtirish bog'lovchilariga *go'yo, go'yoki* kiritiladi. Ammo bu so'z gap bo'laklari yoki gaplarni bog'lash uchun xizmat emas, balki o'xshatish, qiyoslash ma'noli konstruktsiyalarda shu ma'noni ta'kidlash uchun xizmat qiladi, o'xshatish, qiyoslash ma'nosi esa boshqa vositalar bilan ifodalanadi: *Beda orasi juda issiq, go'yo quyoshning butun olovi beda ichiga yashiringanday.* (Oyb.) *Nay sadosining mayin to'lqinlari tip-tiniq havoda yoyilarkan, go'yo hammayoq jonlangan kabi tuyuldi.* (Oyb.) Ushbu misollarda o'xshatish, qiyoslash *-dek* qo'shimchasi va *kabi* so'zi bilan ifodalanyapti, *go'yo* esa shu ma'noni ta'kidlayapti. Demak, *go'yo* ta'kid yuklamasi hisoblanadi. *Balki* yordamchisi haqida ham shu fikrni aytish mumkin. *Balki* qo'llanishidagi ba'zi xususiyatlariga ko'ra, zidlov bog'lovchilaridan farq qiladi. Zidlov bog'lovchilari ko'pincha qo'shma gap qismlarini bog'laydi, *balki* yordamchisi bunday vazifani bajarmaydi: *Havo bulut bo'ldi, lekin (ammo, biroq) yomg'ir yog'madi.* Bu misolda zidlov bog'lovchisi o'rnida *balki* so'zini qo'llab bo'lmaydi. *Balki* so'zi gumon mazmunli gaplarda, zid mazmunli

qismlarga ega gaplarda gumon, qarama- qarshilik ma'nolarini ta'kidlash uchun qo'llanadi:...*toping, balki tanishlaringiz bor.* (Oyb.) *Chunki biz Azizbek kabilardan xalqnigina emas, balki o'zimizni ham qiynatdirmog'damiz.* (A.Qod.) Bu gap menga yoqmas, balki battar jahlimni chiqarardi. O'z-o'zidan anglashiladiki, *balki* sof bog'lovchi bo'lolmaydi, bog'lovchi funksiyasini bajarayotgan yuklamalar sirasidan joy oladi. Qisqasi, bir turdan ikkinchi turga o'tish va bog'lovchi-yuklama, ko'makchi-bog'lovchi kabi oraliq hodisalar hosil qilish yordamchi so'zlar tabiatiga xos xususiyat bo'lib, ularning ichki manba asosida boyishining bir yo'li sanaladi. *Ham... ham* biriktiruv bog'lovchisi ta'kid qo'shimcha ma'no bo'yog'iga ega. *na...na* esa inkor ma'nosini ifodalaydi. *-mi* so'roq - taajjub yuklamasi esa gap tarkibida bog'lash funksiyasini bajaradi. Shuning uchun bular bog'lovchi-yuklamalar hisoblanadi. Chunonchi. 1.*Na so'zlarida ma'no bor, na ishlarida hayo.* (O.) 2.*Bir tovuqqa ham suv kerak, ham don kerak.* (Maq.) 3.*U bir gapni aytdimi, albatta, qiladi.*

Bog'lovchining formal-funksional talqini muammosi. Yuqorida aytilgan fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, o'zbek tili bog'lovchilarining ma'no va xususiyatlari tamomila boshqacha, ularni turkona tahlil qilish, bog'lovchilar bilan bog'liq masalalarni to'g'ri va to'la hal etish bugungi kunda tilshunosligimiz oldida turgan bosh masalalardan biri sanaladi.

Yuklama. Yordamchi so'zlarning funksional belgisi "bog'lash". Shu belgi asosida ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar so'z va gaplarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladi. Ammo bu vazifa bog'lovchi va ko'makchilar uchun o'zgarmas, barqaror sanaladi. Yuklamalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular so'zlarga yoki gaplarga so'roq, ta'kid, kuchaytiruv, ayirish-chegaralash, o'xshatish kabi qo'shimcha ma'nolarni beradi va funksional "bog'lash" belgisiga nisbatan beqaror, o'zgaruvchan sanaladi, ya'ni "bog'lash" belgisi bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Chunonchi, na-na yordamchisi teng bog'lovchilarning bir turi sifatida inkor bog'lovchisi sanalib kelgan. G'.Abdurahmonov esa uni inkor bog'lovchisi deb atash bilan birga, unda yuklamalik xususiyati ham borligini ko'rsatadi. Haqiqatan ham, bu yordamchi ham bog'lovchilik, ham yuklamalik vazifasini bajaradi. Bog'lovchi vazifasida kelganda ayrim teng huquqli bo'lak (komponent)larga inkor ma'nosini berib, ularni bog'laydi: *Na so'zlarida ma'no bor, na ishlarida hayo.* (Oyb.) Bu yordamchi so'z yuklama vazifasini bajarib, mazmunidan inkor anglashilgan gaplar tarkibida keladi va inkor ma'nosini ko'rsatadi: *Raisning erkatoy o'g'li na o'qiydi, na biror joyda ishlaydi.*

Go'yo yordamchisi mazmunidan o'xshatish yoki chog'ishtirish ma'nolari anglashilgan sodda va qo'shma gaplar tarkibida ishtirok etadi. Sodda gaplardagi

funksiyasiga ko'ra ko'proq yuklamalarga yaqin turadi: *Tursunoy go'yo qalbi bilan ashulaga jo'r bo'lar edi.* (A.Mux.) *Kampirning yuzida go'yo kulgiga o'xshagan bir narsa aks etdi.* (A.Qah.) *Go'yo* yordamchisi qo'shma gaplarda sodda gap qismlarini biriktiruvchi grammatik vositalarning biri sifatida xizmat qiladi, ya'ni qo'shma gapdagi vazifasiga ko'ra sodda gapdagi vazifasidan farqli o'laroq, u faqat yuklamagina emas, balki bog'lovchi-yuklama sanaladi: *Ertaga nikoh bo'ladi, go'yo men uning xotini.* (Oyb.) *Shunday baqirdiki, go'yo butun xona larzaga kelgandek bo'ldi.* (A.Qah.) *Aytdimi, qiladi, Qo'ydi-da, chiqdi* gaplarida ham *–mi, -da,* qo'shimchasimon yuklamalarning bog'lovchilik xususiyatini kuzatish mumkin. Demak, yuklamalarning qo'shma gap tarkibiy qismlarini o'zaro bog'lash vazifasi keng uchraydigan hodisa ekan va bu tilshunosligimizda ma'lum darajada o'rganilgan.

Yuklamaning tuzilish turi. Ko'pgina leksoid yordamchi so'zlarning affiksoid ko'rinishlari mavjud, bu yuklamaga ham tegishlidir: *ham, -am /-yam; uchun, -chun; -u, -yu; bilan, -ila, -la* shular jumlasidan. Yuklamalar shakliy jihatdan uch xil ko'rinishga ega:

1. Qo'shimchasimon yuklamalar (*-mi, -chi, -a, -ya...*).

2.Sof yuklamalar (*xuddi, faqat, axir...*).

3.Nisbiy yuklamalar (*yolg'iz, ba'zan, **tanho, bir...***).

Ularning shakliy va vazifaviy turlari. Yuklamalar vazifaviy jihatdan quyidagi ma'no turlariga bo'linadi:

1. So'roq yuklamalari: *-mi, -chi, -a, -ya. nahotki.* Bu yuklamalar turli so'z turkumlariga qo'shilib, so'roq ma'nosini bildiradi. Ba'zan so'roq ma'nosidan tashqari taajjublanish, hayratlanish ma'nolarini ham ifodalaydi.

-mi affiks yuklamasi o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi, *-chi, -a, -ya* yuklamalari esa o'zidan oldingi so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi: 1. *Kiyganingiz ipakmidi, kimxobmidi, Sevganingiz bizlardan ham ortiqmidi?* 2. *Opang-chi? Sen-chi? Men-a? Meni-ya?* 2. *Nahotki shu gaplarga ishongan bo'lsangiz.*

2. Ayirish-chegaralash yuklamalari: *faqat, faqatgina, -gina (-kina,- qina).*

Bu yuklamalar ayrim narsa va hodisalarni boshqalardan ajratish, harakatni chegaralash uchun qo'llaniladi. *-gina* affiks yuklamasi o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi: *To'yga Sheraligina kelmadi, xolos. O'ktam indamadi, faqat yuragida to'lqinlangan mehr bilan onasiga tikildi. Faqat* yuklamasining o'rnida *yolg'iz* so'zini ham qo'llash mumkin. Sifat so'z turkumiga oid bu so'z nisbiy yuklama hisoblanadi: *Sobir, yolg'iz senga suyandim (Sobir, faqat senga suyandim).*

3. Ta'kid yuklamalari: *-ku, -da, -u, -yu.* Gapda ifodalangan biror voqeani ta'kidlash uchun qo'llaniladi: *Sobir-ku keldi, Mahmud kelmadi-da!*

4. Kuchaytiruv yuklamalari: *axir, hatto, hattoki, -oq (-yoq).*

-oq, (-yoq) affiks yuklamasi o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi. Harakatning birin-ketin tezlik bilan davom qilishini, boshlanish paytini, ta'kidlashni ko'rsatadi: *Gullarni ko'riboq ko'ngli yorishdi. Axir, hatto, hattoki* yuklamalari ham fikrni kuchli ta'kidlash, avvalgi voqeani eslatishni ifodalaydi: *Axir do'stimsan-ku!*

5. O'xshatish-qiyoslash yuklamalari: *xuddi, naq, go'yo, go'yoki. Bahorda bu bog'lar go'yoki kelindek yasanadi. (Chirildoqlarning mayin musiqasi hamma yoqni to'ldirgan, go'yo kechaning o'zi kuylaydi* kabi gaplarda yuklama-bog'lovchi vazifasini bajaradi.)

6. Inkor yuklamasi: *na.* Takror holda ishlatilib inkor ma'nosini ifodalaydi:

Na ko'kning fonari o'chmasdan,
Na yulduz sayr etib ko'chmasdan. (U.)

Yordamchi so'zlar – ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalar o'zbek tilini, uning cheksiz imkoniyatlarini yana ham boyroq, ifodalarimizni yana ham aniqroq va go'zalroq qilishning vositalaridan. Yordamchi so'z turkumlari yuzasidan olib borilgan izlanishlar quyidagi xulosalarga olib keldi:

1. Ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalar nutqimizning cheksiz imkoniyatlarini yanada boyroq, ifodalarimizning yanada aniqroq va go'zalroq bo'lishini, jumlalarning rang-barangligini ta'minlovchi muhim vositalardan.

2. Yordamchi so'zlar til tizimida mohiyatan mustaqil so'zlar bilan qo'shimchalar oralig'ida turadi.

3. Yordamchi so'zlar nutq rang-barangligini ta'minlashini birgina misol yordamida ko'rish mumkin: 1) *senday qiz,* 2) *sendek qiz,* 3) *sendayin qiz,* 4) *sening kabi qiz,* 5) *sen singari qiz,* 6) *sening singari qiz,* 7) *senga o'xshash qiz,* 8) *senga o'xshagan qiz...* (Bu birikmalar o'xshash ma'noni ifodalagani bilan ularning har biri juda nozik farqlarga ega).

4. Bog'lovchi-yuklama, ko'makchi-bog'lovchi, ko'makchi-yuklama kabilar muosir, til tizimida ko'rsatilganidek, yordamchi so'z turkumlariga xos bo'lgan "oraliq uchinchi"lar.

5. O'zbek tilida nisbiy ko'makchilar, nisbiy bog'lovchilar, nisbiy yuklamalar sirasi mustaqil so'zning yordamchilashishi evaziga boyib bormoqda.

6. O'z mohiyati bilan yuklamalar modal so'zlarga yaqin turadi. Shu tufayli bu ikkisi ko'pincha birgalikda tasvirlanadi. Ammo modal so'zlar bilan yuklamalarni tenglashtirib bo'lmaydi. Yuklama:

1) yuklamalar rang-barang ma'nolarni ifodalaydi, shulardan ba'zilarigina modal ma'noga yaqin keladi;

2) yuklamalar ko'pincha mustaqil ishlatilmaydi, biror so'zga tirkalib yuradi. Modal so'zlar esa:

1) gap tarkibida gap modalligini kengaytiruvchi, murakkablashtiruvchi vosita sifatida ro'yobga chiqadi. Boshqacha qilib aytganda, [WRm] gap qurilish qolipining [Rm] qismida mujassamlangan va xilma-xil vositalar bilan ifodalanadigan tasdiq/inkor, taxmin, gumon, shubha, ishonch, shart, qat'iylik, istak, imkoniyat kabi modal ma'nolar gapning boshqa bo'laklari bilan tobe-hokimlik munosabatiga kirishmaydigan modal so'zlar, tasdiq/inkor so'zlar vositasida kengaytiriladi: *Kanizak, aftidan, shuni aytmoqchi edi*...(A.Qah.)

2) mustaqil ravishda yakka o'zi bitta gap bo'lib kela oladi va modal so'z-gaplar deb yuritiladi. Bunday so'z-gaplarning barchasida kesimlik kategoriyasi ma'nosi so'zning lug'aviy ma'nosida mujassamlangan bo'ladi: *Kelasizmi? - Albatta.*

3) yuklamalar morfologiyada yordamchi so'zlar guruhida, modal so'zlar so'z-gaplar doirasida o'rganiladi;

4) boshqa so'z guruhlari kabi modal so'zlar ham, yuklamalar ham o'ziga xos morfologik, sintaktik, ma'noviy belgilarga ega. Modal so'zlar bilan yuklamalarning o'zgarmasligi ularning m o r f o l o g i k belgisiga kiradi. S i n t a k t i k jihatdan esa modal so'zlar ajraluvchilik (ya'ni kirish so'z vazifasida kela oladi), yuklama esa muchalanmaslik (gap bo'lagi bo'la olmaslik) belgisiga ega. S e m a n t i k jihatdan modal so'zlar fikrning voqelikka munosabatini ifodalaydi va butun gapga taalluqli bo'ladi. Yuklama esa ta'kid, o'xshatish, kuchaytirish kabi qo'shimcha ma'no ifodalaydi. Yuklama ifodalagan ma'no butun gapga bevosita taalluqli bo'lmay, avvalo, o'zi tirkalib kelgan bo'lakning ma'nosini bo'rttirishga xizmat qiladi va shu bo'lak orqali butun gapga taalluqli bo'ladi.

11-§. So'z-gaplar

So'z-gaplar to'plamini ajratish tamoyillari. O'zbek formal tilshunosligida so'z-gaplarning mohiyati, turlari, ularning leksik materiali tavsifi, qo'llanish xususiyatlari empirik asosda yetarlicha o'rganilgan. Shakl-vazifaviy tilshunoslikda gapning eng kichik qurilish qolipi [WRm] sifatida talqin qilingach, ziddiyatli, izohtalab nuqtalarga ega bo'lgan so'z-gaplarga ham lison/nutq ixtilofi nuqtayi nazaridan yondashish zarurligi ayon bo'lib qoldi va har bir gapning til bosqichida o'z qolipi mavjud bo'lgani kabi, so'z-gaplarning ham o'ziga xos muayyan bir lisoniy qurilish qolipi bo'lishi shart va zarurligi e'tirof etildi.

Bo'laklarga ajratilmaydigan gaplar yoki *so'z-gaplar* umumiy atamasi ostida birlashtiriladigan gaplarning alohida belgilari mavjudki, ular shu belgilari bilan mustaqil so'zlardan, yordamchi so'zlardan, sodda yoxud qo'shma gaplardan farq qiladi. Bular quyidagilar:

1) mustaqil holda gap bo'la olish belgisi;

2) gap tarkibida shu gapning biror bo'lagi bilan sintaktik aloqaga kirisha olmaslik belgisi;

3) o'ziga xos g'ayrioddiy ma'noga ega bo'lish belgisi;

4)bog'lamalar bilan birika olmasligi va shuning uchun mayl, zamon, shaxs/son shakllariga ega emaslik belgisi.

So'z-gaplar deganda shu to'rt asosiy belgi bilan bir majmuaga birlashtiruvchi hodisalar tushuniladi.

Mustaqil holda alohida gap bo'la olish belgisi. Bu belgi 4- belgi bilan chambarchas bog'langan. O'zbek lisoniy tizimi gapda ma'lum bir axborotni tashuvchi tasdiq/inkor, mayl/zamon va shaxs/son ma'no va munosabatlarini ifodalovchi tarkibiy qismlar zarur bo'lishini talab qiladi. So'z-gaplarda bunday tarkibiy qismlarni alohida-alohida ajratish mumkin emas. Lekin ular ham gap bo'la oladi, chunki kesimlik shakllari ma'no va munosabatlari so'z-gaplarning o'zida mujassamlangan va ularning ichki mohiyatini tashkil qiladi. Bunday gaplarda kesimlik kategoriyasi ma'nolari va kesimlik — gap markazi vazifasida kelish — fikrni shakllantirish, uni ifodalash bor. Ularda gap sifatida voqealanuvchi so'zning leksik ma'nosida mujassamlashgan. Shu sababdan bunday gaplarda kesimlik mavjud, ammo kesimlik shakli ifodalanmagan.

Demak, so'z-gaplar **mustaqil gap bo'la olish** qobiliyatiga ega bo'lganligi uchun bu so'zlarga nisbatan *semantik funksional shakllangan so'z-gaplar* atamasi qo'llaniladi. Bu atamadagi "semantik" tarkibiy qismi hodisaning lug'aviy (ma'noviy) tomoniga ishora qilib turadi. Bunda gap markazi mavqeiyda kelgan leksemalarning ikki tabiiy xususiyati namoyon bo'ladi, ya'ni bunda leksik birlik ham so'z, ham gap. Bu atamaning funksional tarkibiy qismi esa so'z-gaplarning sintaktik vazifa bajarishi f a q a t g a p m a r k a z i v a z i f a s i d a k e l a o l i s h i bilan chegaralanganligini ifodalaydi. Demak, semantik-funksional shakllangan gaplar grammatik shakllangan gaplar ([WRm])dan farq qiladi va kesimlik ma'nolari so'z-gaplarda leksik birlikning yoki atov birligi [W]ning o'zida mujassamlanganligi tufayli so'z-gaplarning lisoniy qurilish qolipi [W] sifatida berilgan.

So'z-gaplarning o'ziga xos g'ayrioddiy lug'aviy ma'noga egaligi. Bu xususiyat quyidagilarda namoyon bo'ladi:

a) ma'no imkoniyatlari chegaralangan;

b) o'zida grammatik shakllarni talab etmaydi;

v) boshqa so'zlar bilan birikish qobiliyatlaridan mahrum;

g) gapda bajara oladigan vazifasi cheklangan;

d) ma'noli qismga ajralmaydi.

Shuning uchun ham bu leksemalar boshqa leksemalarga nisbatan g'ayrioddiy, biroq ma'no va vazifa jihatidan alohida barqaror til birligi hisoblanadi. Aytib o'tilgan fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish, taqlid kabi so'z turkumlari gapning istagan bir bo'lagi vazifasida kela olsa, so'z-gaplar gap (yoki uning markazi) vazifasida kela olishga xoslangan, bog'lovchi, ko'makchi, yuklama esa sintaktik aloqani ifodalash uchun xizmat qiladi.

So'z-gaplar tasnifi. So'z-gaplar o'z ichida bir necha ma'noviy guruhga ajraladi: 1.Modallar. 2.Undovlar. 3.Tasdiq /inkor so'zlar. 4.Taklif/ishora so'zlar.

So'zlovchining bayon etilayotgan fikrga munosabati — qat'iy ishonch, gumon, taxmin kabi ma'nolarni ifodalab keladigan so'zlar **modal so'zlar.** Ularga *xullas, demak, chamasi, tabiiy, ehtimol, shubhasiz, shekilli* kabi so'zlar misol bo'ladi va bular formal tilshunosligimizda batafsil o'rganilgan.

Kishilarning his-tuyg'ularini, haydash, to'xtatish kabi xitoblarni, buyruqlarni ifodalaydigan so'z-gaplarning ko'rinishi **undov so'zlar. His-tuyg'u undovlariga** *oh , voy, eh , barakalla, rah mat, ofarin* kabi so'zlar, **buyruq - xitob undovlariga** *pisht, beh-beh , pish-pish, chuh* kabi xitob so'zlar kiradi.

So'z-gaplarning uchinchi ma'noviy guruhi bo'lgan **tasdiq /inkor so'zlar** ko'pincha modallar tarkibida o'rganilgan. *Ha, mayli, xo'sh, xo'p* so'zlari tasdiqni, *yo'q , mutlaqo, aslo, sira* so'zlari inkorni ifodalovchi so'z-gaplar.

Taklif/ishora so'zlarga qo'llanishi tana a'zolarining maxsus harakatlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan *ma, mang, qani, marhamat* so'zlari kiritilgan. Ular tinglovchiga qaratilgan bo'lib, uni biror ish-harakatni bajarishga undaydi.

So'z-gaplar shunday hodisalar guruhiki, ularning juda ko'pchiligi boshqa so'z turkumlaridan tarixiy taraqqiyot jarayonida o'ziga xos nutqiy qo'llanish natijasida shakllangan va rivojlangan. Chunonchi, *so'zsiz, tabiiy* so'zlari sifatdan, *albatta* ravishdan o'sib chiqqan bo'lsa, *har qalay, har holda* modal so'zlari so'z birikmalaridan, *nasib bo'lsa, xudo xohlasa* kabilar gaplardan kelib chiqqan.

Sof so'z-gaplarga *albatta, alhamdulilloh ; eh , h oy, oh , o'h ; ha,yo'q , mutlaqo; ma, mang* kabi modal, undov, tasdiq /inkor, taklif/ishora so'zlari mansub. O'zbek sistem tilshunosligida so'z-gaplar [W]-lashgan (modallashgan, undovlashgan tasdiq/inkorlashgan, taklif/ishoralashgan) so'zlar, [W]--

lashayotgan (modallashayotgan, undovlashayotgan, tasdiq/inkorlashayotgan, taklif/ishoralashayotgan so'zlar, [W]-simon (modalsimon, undovsimon, tasdiq/inkorsimon) so'zlar va ular nutqiy voqealanishlari mufassal o'rganilgan.

[W]-lashgan (so'z-gaplashgan) so'zlar o'z semantik-funksional xususiyatlari bilan har xil guruhning markaziy leksemalariga juda yaqin turadi, lekin o'z aloqasini boshqa so'z turkumlaridan to'la-to'kis uzmagan bo'ladi. Chunonchi, modallashgan so'zlarga *chamasi, chog'i, ehtimol*; undovlashgan so'zlarga *ura, olg'a, dod, voydod;* tasdiq /inkorlashgan so'zlarga *bo'pti, ma'qul, aksincha, mutlaqo*; taklif/ishoralashgan so'zlarga *qani* kabi leksemalar misol bo'ladi.

[W]- lashayotgan (so'z-gaplashayotgan) so'zlar so'z-gaplarga to'la-to'kis o'tgan bo'lmaydi va so'z-gaplarga «o'tish yo'lida» turgan so'zlar. A.M.Peshkovskiy «ayrim sifatlar sifatlardan uzilib to'la-to'kis otlarga o'tib ketgan bo'lsa, ayrim sifatlar otlarga o'tishning yarim yo'lida turibdi» deb ruscha *morojenoe* va *bolnoy* so'zlarini misol keltiradi. Bu o'rinda modallashayotganlarga *balki, hatto, aftidan;* undovlashayotganlarga *yashang, voy o'lay;* tasdiq /inkorlashayotganlarga *durust, to'g'ri, rost, aslo, hargiz;* taklif/ishoralashayotganlarga *mana mundoq* kabi so'zlarni misol keltirish mumkin. Chunonchi, 1.***Balki,*** *siz aytarsiz nima bo'lganini?* (P.Tur.) 2.*Nafsi uchun emas,* ***balki*** *qadri uchun yig'laydi-da.* (O'.Usm.) 3. *-Qayerga borish, kimga uchrashishni u yaxshi biladi.* – ***To'ppa-to'g'ri.*** (Ch.Ayt.) 4. *Hilola gapning* ***to'g'risini*** *aytdi* (O'.Usm.) gaplarida [W-lashayotgan] so'zlar (1–3-gapda) qo'llanilgan.

[W]- simon (so'z-gapsimon) lar deganda mohiyatan so'z-gaplar bo'lmagan lug'aviy birliklarning so'z-gap vazifasida kelishi tushuniladi. Jumladan, modalsimonlarga *shunday qilib, baxtga qarshi, tavba, xudo saqlasin;* undovsimonlarga erkalash ma'noli *asalim, oppog'im* va undalma ma'noli *ey, do'stlar* kabi; tasdiq/inkorsimonlarga *xuddi shunday, hech qachon, noto'g'ri* kabi; taklif/ishorasimonlarga *boshlang* ko'rinishli so'zlar misol bo'ladi. Qisqasi, so'z-gaplarning leksik-semantik turlari bo'lmish sof so'z-gaplar o'zlari tarixan kelib chiqadigan so'z turkumlaridan batamom uzilgan bo'lib, ularning ko'pchiligi ravish, sifat, ot sifatida mutlaqo qo'llanilmaydi. So'z-gaplashgan unsurlar esa o'zlari tarixan kelib chiqqan so'zlar bilan omonimik munosabat hosil qiladi va o'z aloqasini boshqa turkumlardan to'la uzmagan bo'ladi. So'z-gaplashayotgan unsurlarga o'zi boshqa so'z turkumi (ravish, sifat, olmosh, son, fe'l)ga tegishli, lekin so'z-gaplarga xos ma'no va vazifalarda qo'llanila oladigan birliklar kiradi va bularning so'z-gapsimonlardan farqi shundaki, ushbu

qatlamga oid so‘zlar tarixiy taraqqiyot natijasida batamon so‘z-gaplarga o‘tib ketishi mumkin. So‘z-gapsimonlar esa o‘z turkumi doirasida qoladi.

So‘z-gaplarning sintaktik xususiyatlari. So‘z-gaplarning sintaktik xususiyati yuqorida ta’kidlaganimizdek, ularning kesimlik qo‘shimchalarini qabul qilmasligi, bog‘lama bilan birika olmasligida. So‘z-gaplar ham undalmalar, sodda gaplar kabi kengaygan yoyiq holatlarda bo‘lishi mumkin: 1.*Cho‘lni o‘zlashtirgan mardlarga ofarin.* (A.Qah.) 2.*Falakning dastidan dod!* (Hamza.) 3. *Barakalla sizga!* Misollardan ko‘rinib turganidek, so‘z-gaplar faqat bitta so‘zdan iborat bo‘lmay, nutqda kengayish qobiliyatiga ham ega. So‘z-gaplarning yana bir sintaktik xususiyati shundaki, [WRm] qurilishli gaplarda kesimlik kategoriyasi va ma’nosi [W]ga [Rm] orqali kiritiladi, [m]ning esa o‘zbek tilida juda ko‘p ko‘rsatkichlari mavjud. Shaklning o‘zgarishi bilan kesimlik kategoriyasining ma’no turlari ham o‘zgaradi. Masalan, *Bo‘ladi. Bo‘lmaydi. Bo‘lsa. Bo‘ldi* va h .k. Ammo so‘z-gaplarda bunday emas. Har bir so‘z-gap shu gapga xos bo‘lgan ma’nolarni ifodalashga xoslangan bo‘ladi. Chunonchi, *Ha* so‘zi tasdiqni fodalaydi. Uning bo‘lishsizligi *Ha emas* bilan emas, balki alohida so‘z *yo‘q* bilan ifodalanadi. *Albatta* yoki *shubhasiz* modal so‘zi qat’iy ishonch va tasdiqni ifodalaydi, inkor ma’nosi *mutlaqo*, *aslo* so‘z-gaplari bilan beriladi.

So‘z-gaplarda zamon va shaxs ma’nolari [0] ko‘rsatkichli bo‘lib, matnda muayyanlashadi. O‘zbek tilida gap (kesimlik) zamon va shaxs ma’nolaridan xoli bo‘la olmaydi. Zero, so‘z-gaplarda zamon va shaxs-son ma`nolarining kontekstual aniqlanish xususiyati bu so‘zlarning asosiy sintaktik xususiyati – kesimlik qo‘shimchalarini qabul qilmay gap bo‘lib kela olishi bilan sharhlanadi. So‘z-gaplarning yana bir sintaktik xususiyati – ularning gap tarkibida alohida pozitsiyada turishi, ya’ni boshqa gap bo‘laklari bilan bog‘lanmasligidir va o‘zi gap sifatida “yashay olishi”, hamisha lisoniy alohidalikni saqlab qolishi bilan belgilanadi. Chunonchi, 1. – *Ertaga kelasizmi? – Albatta.* (O‘.Usm.) 2. – *Yengil tortdingmi, qizim? – Shukur.* (A.Qah.)

Ko‘rinadiki, so‘z-gaplarning umumiy sintaktik xususiyati ular kesimlik qo‘shimchalarini qabul qilmagan holda gap va uning markazini tuza olishida. To‘rt leksik-semantik turida (modallar, undovlar, tasdiq/inkor, taklif/ishora so‘zlar) kesimlik kategoriyasini tashkil etuvchi ma’nolardan har biri alohida bo‘rttirilgan “yalang‘och” holda yuzaga chiqadi: modallar so‘zlovchining munosabatini ([R_m]dagi maylni), taklif/ishoralar shaxsga qaratilganlik ma’nosini ([R_m] dagi shaxs-sonni), tasdiq/inkorlar tasdiq va inkorni ([R_m]dagi bo‘lishli/bo‘lishsizlikni) va undovlar bo‘lg‘usi harakatni ([R_m]dagi zamonni) ifodalashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR
Krill alifbosidagi adabiyot
Крилл алифбосидаги адабиёт

1. Каримов И. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Баркамол авлод орзуси. Тузувчи: Шавкат Қурбонов, Ҳалим Саидов, Рустам Аҳлиддинов. –Т. –Ўз МЭ. 1999.

2. Абдуллаев А. -гина интенсивлик ифодаловчи аффикс сифатида// Ўзбек тили ва адабиёти, 1973. 5- сон.

3. Абдуллаев А.М., Юнусова З.Ю. Способы передачи узбекских слов в русском языке. –Б., 1989.

4. Абдуллаев Ф. Келишик аффикслариниг генезисига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1961, 5- сон.

5. Абдураҳманов Г. Исследования по старотюркскому синтаксису (XI век) –М.: Наука, 1967.

6. Абузалова М.К. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нуткда воқеланиши: филол.фан.номз.дисс. –Т., 1994.

7. Азимов П. Туркман дили. –Ашхабад, 1950.

8. Айюб Ғуломовнинг илмий мероси (2- китоб). Р.Сайфуллаева муҳаррирлигида. –Т., 2007.

9. Айюб Ғуломовнинг илмий мероси (3- китоб). Морфемикага оид Мақ.алар. –Т., 2007.

10. Акрамов Ш. Ўзбек тилининг гап қурилишида тўлдирувчи ва ҳол ([WP_m] валентлиги аспектида): филол.фан.номз.дисс...автореф., –Т., 1997.

11. Алишер Навоий. Лисон-ут тайр. (Насрий баёни билан) –Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси. 1991.

12. Андреев И.Д. Диалектическая логика. –М., Высшая школа, 1985.

13. Асқаров И. ва бошқалар. Кимё. 7-синф дарслиги. –Т.: Шарқ, 2005.

14. Аъламова М. Ўзбек тилидаги феълда нисбат категорияси: монография. –Т.: Фан, 1992.

15. Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш: филол. фан. докт. дис. ... автореф. –Т., 1997.

16. Балакаев М.Б. Современный казахский язык. Синтаксис. –Алма-Ата, 1959.

17. Бальвег-Шрамм А., Шумахер Г. Словарь глагольных валентностей на семантической основе. Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск XIV. Проблемы и методы лексикографии. –М.: Прогресс, 1983.

18. Баскаков Н.А. Выражение глагольных категорий в тюркских языках // Типология грамматических категорий. –М.: Наука, 1975.

19. Баскаков Н.А. Залоги в каракалпакском языке. –Т., 1941.

20. Баскаков Н.А. Историка-типологическая характеристика структуры тюрских языков. –М.: Наука, 1975.

21. Баскаков Н.А. Каракалпакский язык. Т.II. Ч.I. –М.: Изд-во АН СССР, 1952.

22. Баскаков Н.А. Природа притяжательных определительных словосочетаний и их роль в эволюции сложных синтаксических конструкций в тюркских языках // Советская тюркология , 1971. -№4.

23. Баҳриддинова Б. Ҳозирги ўзбек тили (қўшимчалар таснифи юзасидан материаллар). – Қарши: Насаф, 2004.

24. Баҳриддинова Б.М. Феъл луғавий шакли тизими. Феълнинг тур категорияси: филол. фан. номзоди.... дис. –Самарқанд, 2002.

25. Баҳриддинова Б.М. Феъл луғавий шакли тизими. Феълнинг тур категорияси: филол. фан. номзоди... дис. автореф. –Самарқанд,2002.

26. Бобокалонов Р. Ўзбек тилида гап синтаксиси ва сўз-гапларнинг систем – структур талқини. –Т.: Фан, 2006.

27. Бобокалонов Р. Ўзбек тилида семантик-функционал шаклланган сўз-гаплар: филол. фанлари номз. ... дисс. автореф. –Т., 2000.

28. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. –Т.: Фан, 1995.

29. Бондарко А.В. Классификация грамматических категорий // Типология грамматических категорий. –М. 1975.

30. Боровков А.К. Природа «турецкого изафета // Академику Н.Я. Марру. –М., -Л. 1935.

31. Булыгина Т.В. Грамматические и семантические категории и их связи // Аспекты семантических исследований. –М., 1980.

32. Бунина И.К. История глагольных времен в болгарском языке. -М., 1970.

33. Вейнрейх У.О семантической структуре языка // Новое в лингвистике. Вып. 5. –М., 1970.

34. Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. Издание второе. –М.: Высшая школа. 1972.

35. Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. – М. –Л.: ГУ-ПИМП РСФСР, Учпедгиз, 1947.

36. Гак В.Г. К проблемы семантической синтакматики // Проблемы структурной лингвистики. –М. 1972.

37. Ганиев Ф.А. Вопросы морфологии татарского языка. –Казань.: Наука, 1980.

38. Ҳегел Г.И.Ф. Работы разных лет. В двух томах. 2- том. -М.:Мысль. 1971.

39. Ҳегел. Наука логики. –М., 1971.

40. Гиганов И. Грамматика татарского языка. -СПб. 1801.

41. Гиясов С.Т. Семантическая структура и компонентный анализ качественных прилагательных в узбекском языке: автореф. дисс. ... канд. филол наук. –Т., 1983.

42. Грунина Э.А. Соотношение форм настоящего и будущего времени по патятникам турецкого языка XIII–XVI вв. // Вопросы тюркской филология. –М., 1966.

43. Гузев В.Г. Очерки по теории тюркского словоизменения: Имя. –Л., 1987; Глагол., 1990.

44. Гузев В.Г., Насилов Д.М. Слово-изменительные категории в тюрских языках и понятие «грамматическая категория» // Советская тюркология. 1981. --№3.

45. Гузев В.Г., Насилов Д.М. К интерпретации категории числа имен существительных в тюркских языках // Вопросы языкознания, 1975. -№ 3.

46. Гузев В.Г., Насилов Д.М. Конкретно-предметное значение имени существительного как зона релевантности категорий числа и определенности/неопределенности//Советская тюркология , 1971. -№ 6.

47. Гузев В.Г.,Насилов Д.М. Словоизменительные категории в тюркских языках и понятие «грамматическая категория»// Советская тюркология, 1981. -№3

48. Гулямов А.Г. Языкознание. В кн. «Узбекская ССР. Ред.кол. К.А.Зуфаров и др. – Т.: Изд.УзСЭ. 1981.

49. Дешериев Т.Ч. Лингвистический аспект категории времени в его отношении к физическому и философскому аспектам // ВЯ. 1975. -№ 2.

50. Джурабоева М. К вопросу категории уменшательно-ласкательности в узбекском языке. Труды аспирантов ТашГУ, 360. -Т., 1970.

51. Диалектика – теория познания. ... об элементах диалектики. Под общей редакцией Б.М.Кедрова. –М.: Наука, 1968.

52. Диалектика и логика. Законы мышления. Под общей редакцией Б.М.Кедрова. –М., 1962.

53. Дмитриев Н.К. Грамматика башкирского языка. –М. –Л.: Изд-во АН СССР, 1948, с. 180.

54. Дмитриев Н.К. К истории аффиксов сказуемости // Исследование по сравнительной грамматике тюркских языков. Морфология. –М., 1956.

55. Дмитриев Н.К. Категория принадлежности // Исследовании по сравнительной грамматике тюркских языков. Ч.II. –М., 1956.

56. Есперсен О. Философия грамматики. –М.: Изд-во иностранной литературы, 1958.

57. Жуманиёзов Р. Ўзбек тилида феъл замонлари // Совет мактаби, 1953 йил, 3- сон.

58. Жўраева Ж. Келаси замон маъносининг ифодаланиши // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари, 1959 йил, 3- сон.

59. Закиев М.З. К вопросу о категории падежа в тюркских языках//Проблемы тюркологии и истории востоковедения. –Казань, 1964.

60. Звегинцев В.А. История арабского яыкознания. Краткий очерк. – М.,1958.

61. Звегинцев В.А. История языкознания XIX–XX веков в очерках и извлечениях. Часть 1. –М.: Просвешение, 1964.

62. Зиёева И. Дательный падеж в узбекском языке: автореф.канд.дисс. … филол. наук. –Самарканд, 1966.

63. Зиёева И. Келишик аффикслариниг функционал алмашинишувларига доир баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1966, 2- сон.

64. Зиёева И. Келишик аффикслариниг функционал алмашинувларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1966. -№ 3.

65. Зикриллаев Ғ. Истиқлол ва адабий тил. –Т.: Фан, 2004.

66. Зикриллаев Ғ. Феълнинг шахс, сон ва ҳурмат категорияси системаси. –Т., 1990.

67. Зикриллаев Ғ. Ўзбек тили морфологияси. –Бухоро, 1994.

68. Зулфиев Я. -лар аффиксининг сўз таркибида қўлланиш хусусияти // Ўзбек тили ва адабиёти, 1972, 5-сон.

69. Иванов С. Родословное древотюрок Абулгази-хана. Грамматический очерк. Имя и глагол. –Т: Фан, 1969.

70. Иванов С.Н. Грамматик тадқиқотларнинг методологик муаммолари. Монография. Рус тилидан И.Мирзаев таржимаси. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2004.

71. Иванов С.Н. К истолкованию категории принадлежности // Советская тюркология. 1973. -№ 1.

72. Иванов С.Н. Категория залога в причастии узбекского языка. В книге «Исследования по истории культуры народов Востока» // Сборник в чесь академика И.А. Орбели. –М.: Л., 1960.

73. Иванов С.Н. Курс турецкой грамматики. –Л.:Наука, 1975.

74. Иванов С.Н. Очерки по синтаксису узбекского языка. –Л.: Изд-во Ленингр. ун-та, 1959.

75. Иванов С.Н. Родословное древотюрок Абу-л-Гази-Хана. Грамматический очерк. (Имя и глагол. Грамматические категории). – Т.:Фан, 1969.

76. Иванов С.Н. Тюркские атрибутивные конструкции с показателем относительной связи // Ученые записки Ленингр. ун-та. Серия востоковедческих наук. вып. 11. 1959.

77. Икрамова Р. Модальные формы существительных в узбекском языке: автореф.дисс. канд.филол.наук.. -Т., 1967.

78. Иноятов Т. Бош келишикнинг вазифалари // Тошкент университетининг илмий асарлари, 412- чиқиши, 1971.

79. Иноятов Т. Тушум келишигининг белгили ва белгисиз ишлатилиши ва грамматик омиллар (турдош от бўйича) // Тошкент университетининг илми асарлари, 427- чиқиши, 1972.

80. Иноятов Т. Ҳозирги ўзбек адабий тилида келишикларнинг ишлатилиш миқёси // Научные труды ТашГУ . Вып.359. «Вопросы русского и узбексого языкознания». –Т., 1969.

81. Исаченко А. В. О грамматическом значении // Вопросы языкознания, 1961. -№1. Исаченко А. В. Бинарность, привативные оппозиции и грамматическое значение// Вопросы языкознания, 1963. -№ 2.

82. Исаченко А.В. Грамматический строй русского языка в сопоставлении со словацким. Ч. I. -Братислава. 1965.

83. История лингвистический учений Средневекового Востока. От ред. А.В. Гесницкая. –М.; –Л.: Наука, 1977.

84. Йўлдошев А., Рўзиев Г. Ўзбек тилидаги жўналиш ва ўрин-пайтлари келишигига доир // Тошкент университетининг илмий асарлари, 327- китоб // Ўзбек филологияси масалалари. –Т., 1970.

85. К общему учению о падеже. Якобсон Роман. Избранные работы. Составление и общая ред. В.А.Звегинцева. –М.: Прогресс. 1985.

86. Карцевский С. Ассиметрический дуализм лингвистического знака. -М.: Наука, 1970.

87. Карцевский С. Об асимметричном дуализме лингвистического знака / Звегинцев В.А. История языкознания XIX–XX веке в очерках и извлегениях. Ч.II. – М., 1965.

88. Кацнельсон С.Д. К понятию типов валентности // Вопросы языкознания. 1987. -№ 3.

89. Кацнельсон С.Д. О грамматической категории // Вестник ЛГУ.Серия истории языка и литературы. –Л.: ЛГУ, 1948.

90. Кедров Б.М. Единство диалектики, логики и теории познания. –М., 1963.

91. Кириллов В.И. Логика познания сущности. –М.: Высшая школа, 1980;

92. Уемов А.И. Вещи, свойства и отношения. –М.: Изд-во АН СССР, 1963.

93. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. –М. –Л.:Издательство Академии наук СССР, 1960.

94. Кононов А.Н. Грамматика узбекского языка. –Т.:Фан, 1948.

95. Кононов А.Н. Опыт реконструкции тюркского деепричастия на -/-п//-б-/-/б/, -/-/пан///-/-бан/, -банн,-/-/ Материалы к сравнительно-исторической грамматике тюркских языков // Вопросы языкознания. 1966, -№ 5.

96. Кононов А.Н., История изучения тюркских языков в России. Изд. Второе. –Л.: Наука. 1982.

97. Кононов А.Н., Нигматов Х.Г., Махмуд Кашгарский о тюркских языках «История лингвистических учений. Средневековый Восток. Отв. ред. А.В.Десницкая». –Л.: Наука. 1981..

98. Котвич В.В. Исследование по алтайским языкам. Перевод А.И.Толкачева. об. ред. Н.А. Баскакова. – М., 1962.

99. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғотит турк. Уч томлик. 1- т. –Т.: ФА нашр. 1960.

100. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғотит турк. Уч томлик. 2- т. –Т.: ФА нашр. 1961.

101. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғотит турк. Уч томлик. 3- т. –Т.: ФА нашр. 1963.

102. Лингвистический энциклопедический словарь /Гл. ред. В.Н. Ярцева. –М.: Сов. энциклопедия, 1990.

103. Ломтев Т.П. О некоторых вопросах структуры предложения // Ломтев Т.П. Общее и русское языкознание. Избр. труды. –М., 1976.

104. Ломтев Т.П. Принципы построения формулы предложения // Филологические науки. 1965. -№ 5.

105. Мадраҳимов И. Сўзнинг серқирралиги ва уни таснифқилиш асоси:филол. фанлари номз. ... дисс. автореф. –Т., 1994.

106. Мадраҳимов И. Ўзбек тилида лексеманинг [IM] асосидаги таснифи // Ўзбек тили ва адабиёти, 2002.

107. Майзель С.С. Изафет в турецком языке. –М., –Л.: Изд-во АН СССР, 1957.

108. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. –М. -Л., 1951.

109. Маманов И. Вспомагательный глаголи в казахском языке. Алма-Ата,: Изд-во АН КазССР, 1949.

110. Материалы координационного совещания по проблемам глагольного вида и сложноподчиненного предложения в тюркских языках // Вопросы грамматики тюркских языков. 24–27 сент. 1956 г. –Алма-Ата, 1958.

111. Маъруфов А. Ўзбек адабий тилидаги икки келишик формаси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари, 1958, -№ 1.

112. Маҳмудов Н., Миртожиев М. Тил ва маданият. –Т.: Ўзбекистон, 1992.

113. Менглиев Б. Ўзбек тилининг структур синтаксиси. –Қарши: Насаф, 2003.

114. Менглиев Б., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Қарши, 2005.

115. Менглиев Б.Р. Лисоний тизим яхлитлиги ва уфилол.фан.номз.дисс...автореф. сатҳлараро муносабатлар: филол.фан.докт.дисс. –Т.: 2002.

116. Менглиев Б.Р. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусияти ва семантик имкониятлари: филол.фан.номз.дисс...автореф. –Т., 1996.

117. Мещанинов И.И. Глагол. –М., - Л.: Изд. АН СССР, 1949.

118. Мещанинов И.И. Члены предложения и части речи. –Л.: Изд. Наука, 1978.

119. Миртожиев М. Мажҳул нисбат масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти, 1985. -№ 2.

120. Миртожиев М. Ўтимсизлик ва ўзлик нисбати // Ўзбек тили ва адабиёти, 1983. -№ 2.

121. Мусулманова Н. Грамматик шаклда категориал, ёндош ва ҳамроҳ маъно (замон ва майл категорияси мисолида): филол.фан.номз.дисс. –Т., 2007.

122. Мухтаров Ж.З. История развития причастных форм в узбекском языке: автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. –Т., 1971.

123. Мухторов А. Ўзбек тилида феъл даражалари. – Ученые записки УзГУ, Самарканд, 1956.

124. Муҳамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълининг семантик ва валентлик хусусияти: филол.фан.докт.дисс. –Т., 2007.

125. Назарова С.Н. Бирикмаларда сўзнинг эркин боғланиш омиллари: филол. фан. номз. дисс. автореф . –Т., 1997.

126. Насилов Д.М. Проблемы тюркской аспектологии. Акциональность. –Л.: Наука, 1989.

127. Неъматов Х.Г. О характере грамматического значения тюркских форм и категорий // Советская тюркология, 1980, -№ 6.

128. Неъматов Ҳ. -га ва -дан келишик қўшимчасининг функционал алмашинига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1973, -№ 4.

129. Неъматов Ҳ. Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асоси. – Т.: Ўқитувчи, 1995.

130. Неъматов Ҳ. Тажалли тасаввуф билиш назарияси ва тилшуносликда синтаксисни ўрганиш масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1993, 2- сон.

131. Неъматов Ҳ. Феъл, унинг форма ва категорияси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1972. -№ 1.

132. Неъматов Ҳ. Чегара келишиги // Ўзбек тили ва адабиёти, 1971, -№ 4.

133. Неъматов Ҳ., Бобокалонов Р., Раупова Л. Ўзбек тилида номустақил кесимлик шакли // Ўзбек тили ва адабиёти, 2000. -№ 1.

134. Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. –Т.: Ўқитувчи, 1993.

135. Неъматов Ҳ., Сайфуллаева Р., Қурбонова М. Ўзбек тили структурал синтаксиси асоси. –Т.: Университет, 1999.

136. Неъматов Ҳ., Ғуломов А., Қодиров М., Абдураимова М. Она тили. 6- синф учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 2000.

137. Неъматов Ҳ.Ғ. Феъл, унинг форма ва категорияси// Ўзбек тили ва адабиёти, 1972.1- сон, 39–47- б.; 2- сон, 42–50- б.

138. Неъматов Ҳ.Ғ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1993.

139. Неъматова Л. ўзбек тилида привативлик(нофонологик сатҳлар): филол.фан.номз.дисс. –Т., 2002.

140. Нигматов Х.Г. Включенное третье в морфологической системе тюркских языков// Советская тюркология, 1976. -№ 3.

141. Нигматов Х.Г. О классификации грамматических категорий в тюркских языках // Советская тюркология, 1984, -№4.

142. Нигматов Х.Г. Функционалная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.: Фан, 1989.

143. Нигматов Х.Г., Абдуллаев К.М., Банару В.И., Махмудов Н.М., Мухамедова Д.А., Нурманов А. Структура предложения и актуальные вопросы синтаксиса тюркских языков. Тезиси формально-функционального исследования // Советская тюркология. 984. -№ 5.

144. Нигматов Х.Г., Цалкаламанидзе А.А. Семантика синтаксические группы глаголов и значение залоговых аффиксов в узбекском языке. Советская тюркология. -№3, –Баку, 1979.

145. Нурмонов А. Гап ҳақида синтактик назариялар. –Т.: Фан, 1982. – Б.146.

146. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Т.: Ўзбекистон, 2002.

147. Нурмонов А., Маҳмудов Н. Ўзбек тилшуносилиги тарихи. –Т.: Камолот, 2006.

148. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Т.: Янги аср авлоди. 2001.

149. Орифжонова Ш. Ўзбек тилида лексик градуонимия: филол. фан. номз. дисс. ... автореф. –Т., 1996.

150. Панфилов В.З. Философские проблемы языкознания. Гносеологические аспекты. –М.: Наука, 1977.

151. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. 1-ое изд. –М.: Уч. педиз, 1938.

152. Поливанов Е.Д. Краткая грамматика узбекского языка. –Т., –М.: Туркпечат, 1926.

153. Потебня А.А. Из записок по русской грамматике. Т. I. –Воронеж, 1874.

154. Расулов Р. Чиқиш келишиги // Ученые записки Андижанского госпединстута, IV, Филологическая серия. –Андижан, 1957.

155. Расулов Р. Ўзбек тилида бош келишик ва унинг грамматик функциялари // Ученые записки Андижанского госпединститута, выпуск III. –Андижан, 1956.

156. Расулов Р. Ўзбек тилида ҳолат феъли ва уларнинг облигатор валентликлари. –Т., 1989.

157. Раупова Л. Ўзбек тилида номустақил кесим масаласи ва [WPm → WPm] қурилишли гаплар:филол.фан.номз. –Т., 1999.

158. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида тобе боғланишнинг турлари. –Т., 1993.

159. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек тили келишигини таснифлаш ҳақида // Научные записки Ташкентского государственного университета, вып. 359. «Вопросы русского и узбекского языкознания». –Т., 1969.

160. Раҳматуллаев Ш. Ҳурмат формаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1973. 1-сон.

161. Реформатский А.А. Число и грамматика // Вопросы грамматики. Сборник статей к 75- летию акад. И.И.Мещанинова. –М.: -Л., 1960.

162. Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек адабий тилида қўшма гапларнинг шакл-вазифавий (формал-функционал) талқини: филол. фан. док. дисс... автореф. –Тошкент., 1993.

163. Сайфуллаева Р., Абузалова М. Гапнинг энг кичик қурилиш колиплари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1991, -№ 5.

164. Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Қурбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек тили. –Т., 2007.

165. Салаев Р.Б. Ўзбек тилида исми фоиллар: Филол. фан. номз. дисс. автореф. –Самарқанд, 1994.

166. Сафаров Ф. Ўзбек тилида сон-миқдор микромайдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти: филол.фан.номз.дисс. ...автореф. –Самарқанд, 2004.

167. Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. –Т.: Ўқитувчи, 1996.

168. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. – М.: Наука, 1974.

169. Севортян Э.В. Аффиксы глаголообразования в азербайджанском языке. –М., 1962.

170. Севортян Э.В. Аффиксы глаголообразования в азербайджанском языке. –М.: Наука, 1982.

171. Севортян Э.В. Аффиксы именного словообразования в азербайджанском языке. –М. 1966.

172. Севортян Э.В. Категория принадлежности // Исследование по сравнительной грамматике тюркских языков. Ч.II. –М., 1956.

173. Севортян Э.В. Об историческом положении категорий переходности и непереходности в тюркских языках // Вопросы языкознания. 1958. -№ 2.

174. Смирницкий А.И. Морфология английского языка. –М.: Изд. лит. по иностр. яз., 1959.

175. Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. –Т.: Фан, 1974.

176. Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. Издание 2-ое, дополненное. –М.: Наука, 1977.

177. Степанова М.Д., Хельбиг Г. Части речи и проблема валентности в современном немецком языке. –М.: Высшая школа, 1978.

178. Степанянц М.Т., Философские аспекты суфизма. –М.: Наука, 1987.

179. Султонсаидова С. Феълда даража ва ўтимли-ўтимсизлик категорияси (А.Қаҳ.нинг "Синчалак" повести асосида) // Ўзбек тилшунослиги масалалари. Тошкент университетининг илмий асарлари, 443- чиқиши. –Т., 1973.

180. Султонсаидова С. Ўзбек тилидаги грамматик категориянинг ўзаро муносабати: филол. фан.докт.дисс.автореф. –Т., 1994.

181. Сўфи Оллоёр. Саботул-ожизин. –Т., 1991.

182. Тенъер Л. Основы структурного синтаксиса –М.: Прогресс, 1988.

183. Тожиев Ё. Ўзбек тили морфемикаси. –Т., ТошДУ, 1992..

184. Туленов Ж., Ғафуров З. Фалсафа. –Т.:Ўқитувчи, 1997.

185. Турсунов У., Мухторов А. Ўзбек тилида феъл даражалари тўғрисида – ЎзГУ асарлари, Янги серия, 66- сон, Филология факультети, ўзбек тилшунослиги кафедраси, –Самарқанд, 1956.

186. Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари учун. 3- нашри. –Т.: Ўзбекистон, 1992.

187. Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфология. Лексикология. -Т.: Ўқитувчи, 1965.

188. Убрятова Е.И. Исследования по синтаксису якутского языка. –Т. I. –М.: -Л. 1950.

189. Умумий ўрта таълимнинг Давлат таълим стандартлари ва ўқув дастури. Она тили. Адабиёт // Таълим тараққиёти, 1-махсус сон, 1999.

190. Усмонов С. Морфологические особенности слова в современном узбекском языке: автореф. дисс. док. филол. наук. –Т., 1964.

191. Усмонов С. Ўзбек тилида сўзнинг грамматик формалари // Тилшунослик масалалари. –Т., 1964. 42- китоб.

192. Усмонов С. Ҳозирги замон ўзбек тилида сўзнинг морфологик хусусияти филол. фан.докт.дисс.автореф. –Т., 1965.

193. Фердаус С. Феълнинг вид категорияси // ўрта Осиё Давлат Университетининг илмий асарлари. Янги серия. 104- чиқиши. Филология фанлари. –Т., 1957.

194. Философия луғати. –Т.: Ўзбекистон, 1976.

195. Фозилов Э. Феъл даража ясовчи аффикслариниг тарихи // Ўзбек тили ва адабиёти, 1960, -№ 3.

196. Фозилов Э. Ўзбек тилида феълнинг орттирма даражаси // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари, 1961, -№ 1.

197. Фозилов Э. Ўзбек тилида феълнинг ўзлик даражаси // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1960, --№ 5.

198. Фортунатов Ф.Ф. Избранные труды. Т. I. –М.: Наука, 1956.

199. Фортунатов Ф.Ф. Сравнительное языкознание. Общей курс // Фортунатов Ф.Ф. Избранные труды. Т. I. –М.: Наука, 1957.

200. Хайруллаев М., Ҳақбердиев М. Мантиқ. –Т.:Ўқитувчи, 1993.

201. Харисов А. Категория глаголных видов в башкирском языке. –Уфа: Башкнигоиздат, 1944.

202. Харитонов Л. Формы глагольного вида в якутском языке. –М., –Л.: Изд-во АН СССР, 1960.

203. Холиқов Қ. Ҳаракат феълининг нисбат формалари – Материалы XXШ научной конференции профессорско-преподавательского состава СамГУ по итогам выполнения научно-исследовательских работ за 1965 год. Серия филологичесчких наук (19–22 апреля 1966), Самарканд, 1966.

204. Холодович А.А. Залог. В кн. Категория залога. Очерки по общему и арабскому синтаксису. –М.: Наука, 1973.

205. Храковский В.С. Очерки по общему и арабскому синтаксису. –М.: Наука, 1973.

206. Хўжаев Т. Ўтимли феъл ва орттирма нисбат ҳақида // Ўзбек тили грамматик қурилиши ва диалектологияси масалалари. –Т.: Фан, 1966.

207. Чариев А. Синтаксическо-семантические признаки родительного падежа узбекском и английском языках. –Т.: Фан, 1990.

208. Шамсиева М. Ўзбек тилида субъектив баҳо билдирувчи . «Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари». 2- китоб. -Т., 1961.

209. Шахматов А.А. Синтаксис русского языка. Вып.1. –Л.: Учпедгиз, 1941.

210. Шахназарова М.Д. Синтаксис причастия в узбекском языке: автореф. дисс. ...канд. филол. наук. –Т., 1971.

211. Шаҳобиддинова Ш. Боскичли мавҳумлаштириш умумий грамматик маънони очиш усули сифатида // Ўзбек тили ва адабиёти , 1995. -№ 3.

212. Шаҳобиддинова Ш. Ўзбек тили морфологияси умумийлик-хусусийлик диалектикаси талқинида. I қисм. –Андижон, 1994.

213. Шаҳобиддинова Ш.Ҳ. Грамматик маъно талқини хусусида:филол.фан.номз.дисс. –Самарқанд: 1993.

214. Шаҳобиддинова Ш.Ҳ. Грамматик маъно талқини ҳақида: филол. фан. номз.... дис. автореф. –Самарқанд, 1993.

215. Шаҳобиддинова Ш.Ҳ. Умумийлик ва хусусийлик диалектикаси ҳамда унинг ўзбек тили морфологиясида акс этиши: филол. фан. док... дис. автореф. –Т., 2001.

216. Шаҳобиддинова Ш.Ҳ. Ўзбек тили морфологияси умумийлик ва хусусийлик диалектикаси талқинида. 2-жузв. –Андижон, 1994.

217. Шоабдураҳмонов Ш. -(и)н эгалик қўшимчаси// Ўзбек тили ва адабиёти, 1993. -№ 2.

218. Шоабдураҳмонов Ш..Аскарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. Педагогика институтлари учун дарслик. –Т., 1980.

219. Шоабдураҳмонов Ш..Аскарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. Педагогика институтлари учун дарслик. –Т., 1980.

220. Шукуров О. Ҳаракат тарзи шакли парадигмаси: филол. фан. номз... дис. –Самарқанд, 2005.

221. Шукуров Ш. Ўзбек тилида феъл замонлари тараққиёти. –Т., 1976.

222. Шукуров Ш.Ш. Ўзбек тилида феъл майллари тараққиёти. –Т.: Фан, 1980.

223. Щербак А.М. Грамматика старо-узбекского языка. –М.: -Л., 1962.

224. Эргашева М. Наманган ва Тошкент шеваларида эркалаш-кичрайтириш формалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1973, 5-сон.

225. Эрназарова М.С. Грамматик маъно лисоний ва прагматик омиллар яхлитлигида. Монография. Т.: Akademnashr, 2016, 155.

226. Эрназарова М.С. Грамматик маъно лисоний ва прагматик омиллар яхлитлигида: филол. фан. докт... дисс. –Самарқанд, 2018, 218.

227. Юлдашев А. Аналитические формы глагола в тюрских языках. – М.: Наука, 1965.

228. Юнусова З. Ўзбек тилида луғавий микросистема ва унинг тараққиёти.:филол.фан.номз.дисс.автореф. –Т., 2004.

229. Якобсон Р.О. Заключительное слово по докладу \\ IV международный съезд славистов. Материалы дискуссии. Т. 2. Проблемы славянского языкознания. –М., 1962.

230. Ярцева В.Н. Иерархия грамматических категорий и типологическая характеристика языков // Типология грамматических категорий. –М., 1975.

231. Ўзбек тили грамматикаси. 2 томлик. I том. Морфология. –Т.: Фан, 1975.

232. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. Мас. муҳ. Ғ.А.Абдураҳмонов ва бошқ. –Т.: Фан, 1972.

233. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик. 1- том / З.Маъруфов таҳрири остида. –М.: Рус тили, 1981.

234. Ўринбоев Б., Қурбонов Т. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2006.

235. Қодиров З. Ўзбек тили грамматик категориясини систем тадқиқ этиш (Келишик категорияси):филол.фан.номз.дисс.автореф. –Самарқанд, 1993.

236. Қурбонова М. М. Ҳозирги замон ўзбек тили. (Содда гап синтаксиси учун материаллар). –Т., 2002.

237. Қурбонова М. Фитрат – тилшунос. –Т.: Университет, 1996.

238. Қурбонова М. Шакл-вазифавий тадқиқ усулларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. 1998, 5- сон.

239. Қурбонова М. Ўзбек тилшунослигида формал-функционал ёфилол.фан.номз.дисс...автореф.шув ва содда гап қурилиши талқини: филол.фан.докт…дисс.автореф. –Т., 2000.

240. Қурбонова М., Сайфуллаева Р., Боқиева Г., Менглиев Б. Ўзбек тилининг структурал синтаксиси. –Т., 2004.

241. Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусияти. –Т.: Фан, 1980.

242. Ғозиева Ш. Ўзбек тилида субъектив баҳо ифодаловчи форма ясовчи аффиксларнинг баъзи семантик хусусияти ҳақида// Ўзбек тилшунослиги масалалари. Илмий асарлар. –Т., 1975, 475- чиқиш.

243. Ғуломов А. О степенях сравнения имён прилагательных. –Т., 1960.

244. Ғуломов А. Феъл. –Т., 1964.

245. Ғуломов А. Феъл. Ҳозирги замон ўзбек тили курсидан материаллар. –Т.: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1954.

246. Ғуломов А. Ўзбек тили морфологиясига кириш. Ҳозирги замон ўзбек тили курсидан материаллар. –Т.: Фан, 1953.

247. Ғуломов А. Ўзбек тилида келишиклар // Труды Узбекского филиала АН СССР. Сер. 2. Кн. 2. –Т., 1941.

248. Ғуломов А. Ўзбек тилида кўплик категорияси. –Т., 1944.

249. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.:Ўқитувчи, 1987.

250. Ғуломов А.Ғ. Республика олий мактабларида ўзбек тилшунослиги дисциплиналари // Ўзбек тили нутқ маданияти масалаларига бағишланган республика тилшунослик конференцияси, –Т., 1969.

251. Ҳадятуллаев Р. Ўзбек тилида субъектив баҳо формаларининг маъноси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1969. 2- сон.

252. Ҳамдамова И. ўзбек тилида -гина элементи ва унинг маъноси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1961, 4- сон.

253. Ҳожиев А. Инкор ифодаловчи воситалар ва феълнинг бўлишсиз формаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1970, 4- сон.

254. Ҳожиев А. Модал ёки субъектив баҳо формалари ҳақида// Ўзбек тили ва адабиёти, 1978, 1- сон.

255. Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. –Т.: Фан, 1966.

256. Ҳожиев А. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (саккизинчи Мақ.а)//Ўзбек тили ва адабиёти, 2007, -№ 5.

257. Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. –Т., 1979.

258. Ҳожиев А.П. Феъл. Мас. муҳ. Шоабдураҳмонов Ш.Ш. –Т.: Фан,1973.

259. Ҳожиев. А. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (тўққизинчи Мақ.а) // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. -№6.

260. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. Ғ.Абдураҳмонов таҳрири остида. –Т.: Фан, 1966.

LOTIN ALIFBOSIDAGI ADABIYOTLAR

1. Bohtlingk O. Kritische Bemerkungen zur zweiten Ausgabe von Kasembek…s türkisch-tatarischen Grammatik. Zum Original und zur deutschen Übersetzung // «Bull. de la cl. Sciences Hist., Philol. et Polit. De L…Academie Imperiale des Scieces», vol. V, - ¹ 22. St. –Petersburg, 1848.

2. Mahmudov H., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili. 6- sinf uchun darslik. –T., 2005.

3. Mengliyev B., Abuzalova M. Hozirgi o`zbek adabiy tili. –Qarshi, 2005.

4. Ne'matov H., Gulomov A., Qodirov M., Abduraimova M. Ona tili. 6- sinf uchun darslik. –T., 2001.

229. Якобсон Р.О. Заключительное слово по докладу \\ IV международный съезд славистов. Материалы дискуссии. Т. 2. Проблемы славянского языкознания. –М., 1962.

230. Ярцева В.Н. Иерархия грамматических категорий и типологическая характеристика языков // Типология грамматических категорий. –М., 1975.

231. Ўзбек тили грамматикаси. 2 томлик. I том. Морфология. –Т.: Фан, 1975.

232. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. Мас. мух. Ғ.А.Абдураҳмонов ва бошқ. –Т.: Фан, 1972.

233. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик. 1- том / З.Маъруфов таҳрири остида. –М.: Рус тили, 1981.

234. Ўринбоев Б., Қурбонов Т. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2006.

235. Қодиров З. Ўзбек тили грамматик категориясини систем тадқиқ этиш (Келишик категорияси):филол.фан.номз.дисс.автореф. –Самарқанд, 1993.

236. Қурбонова М. М. Ҳозирги замон ўзбек тили. (Содда гап синтаксиси учун материаллар). –Т., 2002.

237. Қурбонова М. Фитрат – тилшунос. –Т.: Университет, 1996.

238. Қурбонова М. Шакл-вазифавий тадқиқ усулларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1998, 5- сон.

239. Қурбонова М. Ўзбек тилшунослигида формал-функционал ёфилол.фан.номз.дисс...автореф.шув ва содда гап қурилиши талқини: филол.фан.докт...дисс.автореф. –Т., 2000.

240. Қурбонова М., Сайфуллаева Р., Боқиева Г., Менглиев Б. Ўзбек тилининг структурал синтаксиси. –Т., 2004.

241. Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусияти. –Т.: Фан, 1980.

242. Ғозиева Ш. Ўзбек тилида субъектив баҳо ифодаловчи форма ясовчи аффикснарнинг баъзи семантик хусусияти ҳақида// Ўзбек тилшунослиги масалалари. Илмий асарлар. –Т., 1975, 475- чиқиш.

243. Ғуломов А. О степенях сравнения имён прилагательных. –Т., 1960.

244. Ғуломов А. Феъл. –Т., 1964.

245. Ғуломов А. Феъл. Ҳозирги замон ўзбек тили курсидан материаллар. –Т.: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1954.

246. Ғуломов А. Ўзбек тили морфологиясига кириш. Ҳозирги замон ўзбек тили курсидан материаллар. –Т.: Фан, 1953.

247. Ғуломов А. Ўзбек тилида келишиклар // Труды Узбекского филиала АН СССР. Сер. 2. Кн. 2. –Т., 1941.

248. Ғуломов А. Ўзбек тилида кўплик категорияси. –Т., 1944.

249. Ғуломов А., Аскарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.:Ўқитувчи, 1987.

250. Ғуломов А.Ғ. Республика олий мактабларида ўзбек тилшунослиги дисциплиналари // Ўзбек тили нутқ маданияти масалаларига бағишланган республика тилшунослик конференцияси, –Т., 1969.

251. Ҳадятуллаев Р. Ўзбек тилида субъектив баҳо формаларининг маъноси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1969. 2- сон.

252. Ҳамдамова И. ўзбек тилида -гина элементи ва унинг маъноси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1961, 4- сон.

253. Ҳожиев А. Инкор ифодаловчи воситалар ва феълнинг бўлишсиз формаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1970, 4- сон.

254. Ҳожиев А. Модал ёки субъектив баҳо формалари ҳақида// Ўзбек тили ва адабиёти, 1978, 1- сон.

255. Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. –Т.: Фан, 1966.

256. Ҳожиев А. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (саккизинчи Мақ.а)//Ўзбек тили ва адабиёти, 2007, -№ 5.

257. Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. –Т., 1979.

258. Ҳожиев А.П. Феъл. Мас. мух. Шоабдураҳмонов Ш.Ш. –Т.: Фан,1973.

259. Ҳожиев. А. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (тўққизинчи Мақ.а) // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. -№6.

260. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. Ғ.Абдураҳмонов таҳрири остида. –Т.: Фан, 1966.

LOTIN ALIFBOSIDAGI ADABIYOTLAR

1. Bohtlingk O. Kritische Bemerkungen zur zweiten Ausgabe von Kasembek...s türkisch-tatarischen Grammatik. Zum Original und zur deutschen Übersetzung // «Bull. de la cl. Sciences Hist., Philol. et Polit. De L...Academie Imperiale des Scieces», vol. V, - ' 22. St. –Petersburg, 1848.

2. Mahmudov H., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili. 6- sinf uchun darslik. –T., 2005.

3. Mengliyev B., Abuzalova M. Hozirgi o`zbek adabiy tili. –Qarshi, 2005.

4. Ne'matov H., Gulomov A., Qodirov M., Abduraimova M. Ona tili. 6- sinf uchun darslik. –T., 2001.

5. Ne'matov H., Hamroyeva Sh. Lingvistik tadqiqot metodikasi, metodologiyasi va metodlari. –Buxoro, 2005.

6. Ne'matov H., Shirinova N. Tilshunoslikning falsafiy masalalari. (5 A 220102 –Tilshunoslik mutaxassisligi uchun qo'llanma). –Buxoro, 2005.

7. Ne'matov H., Gulomov A., Abduraimova M., Qodirov M. Ona tili. 7-sinf uchun darslik, –T., 2000.

8. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o`zbek tili. –T., 2006.

9. Vamberu H. Das Dschagotaischi Spach studiev. 1869

MUNDARIJA

MUQADDIMA 3

1- BO'LIM. **O'ZBEK MORFOLOGIK TA'LIMOTI VA UNING TARAQQIYOTI. O'ZBEK TILSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI BOSQICHLARI** 4

1- §. O'zbek tilshunosligining taraqqiyot bosqichlari va morfologiyaning tadqiq tamoyillari 4

2-§. O'zbek tili morfologiyasi tadqiqi tarixidan 20

3-§. Substansial morfologiya va uning tadqiq tamoyillari 48

4-§. Tilga substansial yondashish tarixidan 67

5-§. Morfologik (grammatik) shakl valentligi 88

6-§. Morfologiya lisoniy tizim yaxlitligida 125

2- BO'LIM. **GRAMMATIK KATEGORIYA VA GRAMMATIK MA'NO** 157

1-§. Grammatik ma'no va uning tarkibi 157

2-§. Grammatik kategoriya tasnifi 182

Tasniflovchi kategoriya

3-§. Son kategoriyasi 194

4-§. Shaxsiy munosabat kategoriyasi 211

5-§. Daraja kategoriyasi 230

6-§. Nisbat kategoriyasi 242

7-§. O'zgalovchi kategoriyasi 264

8-§. Harakat tarzi kategoriyasi 294

Sintaktik kategoriya 323

9-§. Egalik kategoriyasi 330

10-§. Kelishik kategoriyasi 344

11-§. Kesimlik kategoriyasi

3- BO'LIM

SO'Z TURKUMI 370

1-§. So'z turkumi tasnifi 370

2-§. So'z turkumi ko'chishi 382

3-§. Fe'l, uning grammatik va lug'aviy ma'no turi 384

4.-§. Ot, uning grammatik va lug'aviy ma'no guruhi 390

5-§. Sifat, uning grammatik va lug'aviy ma'no guruhi 397

6-§. Son, uning grammatik va lug'aviy ma'no turi 402

7-§. Ravish, uning grammatik va lug'aviy ma'no guruhi 408

8-§. Taqlid, uning grammatik va lug'aviy ma'no guruhi 410

9-§. Olmosh 412

10-§. Yordamchi so'z 416

11-§. So'z-gap 430

ADABIYOT 434

СОДЕРЖАНИЕ

ПРЕДИСЛОВИЕ 3
УЗБЕКСКОЕ МОРФОЛОГИЧЕСКОЕ ОБУЧЕНИЕ И ЕГО РАЗВИТИЕ. ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВАНИЯ
I- ГЛАВА
§ 1. Этапы развития узбекского языкознания и принципы исследования морфологии 4
§ 2. Из истории исследовагия морфологии узбекского языка 4
§ 3. Субстанциальная морфология и принципы ее исследования 20
§ 4. Из истории предметного подхода к языку 48
§ 5. Морфологическая (грамматическая) валентность формы 67
§ 6. Морфология в целостности языковой системы 88
РАЗДЕЛ 2. ГРАММАТИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ И ГРАММАТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ 125
§ 1. Грамматическое значение и его структура 157
§ 2. Классификация грамматических категорий 157
Категория классификации 182
§ 3. Числовая категория 194
§ 4. Категория личных отношений 211
§ 5. Категория уровня 230
§ 6. Категория соотношения 242
§ 7. Категория переменных 264
§ 8. Категория движения 294
Синтаксическая категория
§ 9. Категория собственности 323
§ 10. Категория членов предложения 330
§ 11. Категория сказуемого 344
3-ГЛАВА. ЧЛЕНЫ ПРЕДЛОЖЕНИЯ
§ 1. Классификация членов предложения 370
§ 2. Перенос членов предложения 370
§ 3. Глагол, разновидность его грамматического и лексического значения. 382
§ 4. Существительное, группа его грамматических и лексических значений. 384
§ 5. Прилагательное, группа его грамматических и лексических значений. 390
§ 6. Числительное, группа его грамматических и лексических значений. 397
§ 7. Наречие, группа его грамматических и лексических значений. 402
§ 8. Подражание, группа его грамматических и лексических значений. 408
§ 9. Местоимение 410
§ 10. Вспомогательное слово 412
§ 11. Слово-предложение 416
ЛИТЕРАТУРА 430
434

TABLE OF CONTENTS

INTRODUCTION 3
SECTION 1
UZBEK MORPHOLOGICAL TEACHING AND ITS DEVELOPMENT. STAGES OF UZBEK LINGUISTICS DEVELOPMENT 4
§ 1. Stages of development of Uzbek linguistics and research principles of morphology 4
§ 2. From the history of the study of morphology of the Uzbek language 20
§ 3. Substantial morphology and its research principles 48
§ 4. From the history of the substantive approach to language 67
§ 5. Morphological (grammatical) form valence 88
§ 6. Morphology in the integrity of the linguistic system 125
SECTION 2
GRAMMAR CATEGORY AND GRAMMAR MEANING 157
§ 1. Grammatical meaning and its structure 157
§ 2. Grammatical category classification 182
Classification category 194
§ 3. Last category 211
§ 4. Personal relationship category 230
§ 5. Level category 242
§ 6. Ratio category 264
§ 7. Variable category 294
§ 8. Behavior category 323
Syntactic category 330
§ 9. Ownership category 344
§ 10. Contract category 370
§ 11. Cutting category 370
SECTION 3 382
WORD GROUP 384
§ 1. Classification of words 390
§ 2. Vocabulary migration 397
§ 3. A verb is a type of its grammatical and lexical meaning 402
§ 4. The horse is a group of its grammatical and lexical meanings 408
§ 5. Quality is a group of its grammatical and lexical meanings 410
§ 6. Number is its type of grammatical and lexical meaning 412
§ 7. Adverb, its grammatical and lexical meaning group 416
§ 8. Imitation, its grammatical and lexical meaning group 430
§ 9. Diamond 434
§ 10. Auxiliary word
§ 11. Word of mouth
REFERENCES

СОДЕРЖАНИЕ

ПРЕДИСЛОВИЕ 3
УЗБЕКСКОЕ МОРФОЛОГИЧЕСКОЕ ОБУЧЕНИЕ И ЕГО РАЗВИТИЕ. ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВАНИЯ
I- ГЛАВА
§ 1. Этапы развития узбекского языкознания и принципы исследования морфологии 4
§ 2. Из истории исследования морфологии узбекского языка 4
§ 3. Субстанциальная морфология и принципы ее исследования 20
§ 4. Из истории предметного подхода к языку 48
§ 5. Морфологическая (грамматическая) валентность формы 67
§ 6. Морфология в целостности языковой системы 88
РАЗДЕЛ 2. ГРАММАТИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ И ГРАММАТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ 125
§ 1. Грамматическое значение и его структура 157
§ 2. Классификация грамматических категорий 157
Категория классификации 182
§ 3. Числовая категория 194
§ 4. Категория личных отношений 211
§ 5. Категория уровня 230
§ 6. Категория соотношения 242
§ 7. Категория переменных 264
§ 8. Категория движения 294
Синтаксическая категория
§ 9. Категория собственности 323
§ 10. Категория членов предложения 330
§ 11. Категория сказуемого 344
3-ГЛАВА. ЧЛЕНЫ ПРЕДЛОЖЕНИЯ
§ 1. Классификация членов предложения 370
§ 2. Перенос членов предложения 370
§ 3. Глагол, разновидность его грамматического и лексического значения. 382
§ 4. Существительное, группа его грамматических и лексических значений. 384
§ 5. Прилагательное, группа его грамматических и лексических значений. 390
§ 6. Числительное, группа его грамматических и лексических значений. 397
§ 7. Наречие, группа его грамматических и лексических значений. 402
§ 8. Подражание, группа его грамматических и лексических значений. 408
§ 9. Местоимение 410
§ 10. Вспомогательное слово 412
§ 11. Слово-предложение 416
ЛИТЕРАТУРА 430
434

TABLE OF CONTENTS

INTRODUCTION 3
SECTION 1
UZBEK MORPHOLOGICAL TEACHING AND ITS DEVELOPMENT. STAGES OF UZBEK LINGUISTICS DEVELOPMENT 4
§ 1. Stages of development of Uzbek linguistics and research principles of morphology 4
§ 2. From the history of the study of morphology of the Uzbek language 20
§ 3. Substantial morphology and its research principles 48
§ 4. From the history of the substantive approach to language 67
§ 5. Morphological (grammatical) form valence 88
§ 6. Morphology in the integrity of the linguistic system 125
SECTION 2
GRAMMAR CATEGORY AND GRAMMAR MEANING 157
§ 1. Grammatical meaning and its structure 157
§ 2. Grammatical category classification 182
Classification category 194
§ 3. Last category 211
§ 4. Personal relationship category 230
§ 5. Level category 242
§ 6. Ratio category 264
§ 7. Variable category 294
§ 8. Behavior category 323
Syntactic category 330
§ 9. Ownership category 344
§ 10. Contract category 370
§ 11. Cutting category 370
SECTION 3 382
WORD GROUP 384
§ 1. Classification of words 390
§ 2. Vocabulary migration 397
§ 3. A verb is a type of its grammatical and lexical meaning 402
§ 4. The horse is a group of its grammatical and lexical meanings 408
§ 5. Quality is a group of its grammatical and lexical meanings 410
§ 6. Number is its type of grammatical and lexical meaning 412
§ 7. Adverb, its grammatical and lexical meaning group 416
§ 8. Imitation, its grammatical and lexical meaning group 430
§ 9. Diamond 434
§ 10. Auxiliary word
§ 11. Word of mouth
REFERENCES

СОДЕРЖАНИЕ

ПРЕДИСЛОВИЕ 3
УЗБЕКСКОЕ МОРФОЛОГИЧЕСКОЕ ОБУЧЕНИЕ И ЕГО РАЗВИТИЕ. ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВАНИЯ
I- ГЛАВА 4
§ 1. Этапы развития узбекского языкознания и принципы исследования морфологии 4
§ 2. Из истории исследования морфологии узбекского языка 20
§ 3. Субстанциальная морфология и принципы ее исследования 48
§ 4. Из истории предметного подхода к языку 67
§ 5. Морфологическая (грамматическая) валентность формы 88
§ 6. Морфология в целостности языковой системы 125
РАЗДЕЛ 2. ГРАММАТИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ И ГРАММАТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ 157
§ 1. Грамматическое значение и его структура 157
§ 2. Классификация грамматических категорий 182
Категория классификации
§ 3. Числовая категория 194
§ 4. Категория личных отношений 211
§ 5. Категория уровня 230
§ 6. Категория соотношения 242
§ 7. Категория переменных 264
§ 8. Категория движения 294
Синтаксическая категория
§ 9. Категория собственности 323
§ 10. Категория членов предложения 330
§ 11. Категория сказуемого 344
3-ГЛАВА. ЧЛЕНЫ ПРЕДЛОЖЕНИЯ
§ 1. Классификация членов предложения 370
§ 2. Перенос членов предложения 370
§ 3. Глагол, разновидность его грамматического и лексического значения. 382
§ 4. Существительное, группа его грамматических и лексических значений. 384
§ 5. Прилагательное, группа его грамматических и лексических значений. 390
§ 6. Числительное, группа его грамматических и лексических значений. 397
§ 7. Наречие, группа его грамматических и лексических значений. 402
§ 8. Подражание, группа его грамматических и лексических значений. 408
§ 9. Местоимение 410
§ 10. Вспомогательное слово 412
§ 11. Слово-предложение 416
ЛИТЕРАТУРА 430
434

TABLE OF CONTENTS

INTRODUCTION 3
SECTION 1
UZBEK MORPHOLOGICAL TEACHING AND ITS DEVELOPMENT. STAGES OF UZBEK LINGUISTICS DEVELOPMENT 4
§ 1. Stages of development of Uzbek linguistics and research principles of morphology 4
§ 2. From the history of the study of morphology of the Uzbek language 20
§ 3. Substantial morphology and its research principles 48
§ 4. From the history of the substantive approach to language 67
§ 5. Morphological (grammatical) form valence 88
§ 6. Morphology in the integrity of the linguistic system 125
SECTION 2
GRAMMAR CATEGORY AND GRAMMAR MEANING 157
§ 1. Grammatical meaning and its structure 157
§ 2. Grammatical category classification 182
Classification category 194
§ 3. Last category 211
§ 4. Personal relationship category 230
§ 5. Level category 242
§ 6. Ratio category 264
§ 7. Variable category 294
§ 8. Behavior category 323
Syntactic category 330
§ 9. Ownership category 344
§ 10. Contract category 370
§ 11. Cutting category 370
SECTION 3 382
WORD GROUP 384
§ 1. Classification of words 390
§ 2. Vocabulary migration 397
§ 3. A verb is a type of its grammatical and lexical meaning 402
§ 4. The horse is a group of its grammatical and lexical meanings 408
§ 5. Quality is a group of its grammatical and lexical meanings 410
§ 6. Number is its type of grammatical and lexical meaning 412
§ 7. Adverb, its grammatical and lexical meaning group 416
§ 8. Imitation, its grammatical and lexical meaning group 430
§ 9. Diamond 434
§ 10. Auxiliary word
§ 11. Word of mouth
REFERENCES

R.R.SAYFULLAYEVA,
M.M.QURBONOVA, B.R.MENGLIYEV,
M.Q.ABUZALOVA, M.S.ERNAZAROVA

HOZIRGI O‘ZBEK TILI
(morfologik-morfemik sath)

DARSLIK

Muharrir Z.N.Buranov

Bosishga ruxsat etildi 09.10.2023y. Bichimi 60X84 $^{1}/_{16}$.
Bosma tabog‘i 28,5. Shartli bosma tabog‘i 28,5. Adadi 20 nusxa.
Buyurtma № 111. Bahosi kelishilgan narxda.
“Ma’rifat” nashriyoti. Toshkent, Salorbo‘yi kochasi, 35A.
O‘zbekiston Milliy universiteti bosmaxonasida bosildi.
Toshkent, Talabalar shaharchasi, O‘zMU.

ISBN 978-9910-9405-0-7